OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

YOSH FILOLOG OLIMLAR JAMIYATI

# "TIL VA ADABIYOT: ILMIY VA AMALIY IZLANISHLAR YO'LIDAGI ILK ODIMLAR"

## Respublika ilmiy-amaliy anjumani

## MATERIALLARI

**2024-yil 30-aprel**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**YOSH FILOLOG OLIMLAR JAMIYATI**

# “TIL VA ADABIYOT: ILMIY VA AMALIY IZLANISHLAR YO‘LIDAGI ILK ODIMLAR”

**Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari**
**2024-yil 30-aprel**

**TOSHKENT**
**“Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi 2024**

UDK: 811.512.
133:821
(063)

**“**Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar” yosh filolog tadqiqotchilarning respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari – Toshkent: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2024.

**Mas’ul muharrirlar:**

**Sh.Sirojiddinov,** ToshDO‘TAU rektori, akademik;
**O.Jamoldinova,** p.f.d., professor;
**S.Yusupov**, Yosh filolog olimlar jamiyati raisi.

**To‘plab nashrga tayyorlovchilar:**

Temirova Sabina, Hazratqulova Shohsanam, Abdug‘afforova Zuhra, Rajapova Hulkaroy, Berdiyeva Sabinabonu, Eshboyeva Shoira, Qaxramova Sabinabonu, Mahmudov Bobur, Xaytaxmatova Dilnavoz, Axmadov Dostonbek

**Tahrir hay’ati:**

f.f.d Qurbonova Munavarra; f.f.d Umida Rasulova; PhD Umurzaqova Marhabo, f.f.n Soatova Gulzoda; f.f.d.Asadov Mahmadiyor; dots. Hamroyev Komiljon; PhD Yusufjonova Nazokat, f.f.n To‘laboyeva Ruxsora; Ergasheva Habiba; f.f.d Xoldorov Dilmurod.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Yosh filolog olimlar jamiyati tomonidan tashkil etilgan “**Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar**” nomli respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan. Anjuman materiallari 7 ta bobga bo‘lingan bo‘lib, ular quyidagilardir:

-O‘zbek tilshunosligi masalalari;
-Xorijiy va qiyosiy tilshunoslik muammolari;
-Jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik masalalari;
-O‘zbek mumtoz adabiyoti muammolari;
-Zamonaviy o‘zbek adabiyoti;
-Folklorshunoslik va shevashunoslik muammolari, amaliy filologiya masalalari;
-Til va adabiyot o‘qitish metodikasi.

To‘plam materiallaridan filologiya ilmiga qiziquvchi barcha foydalanishi mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldir )

©Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU, 2024
©Yosh filolog olimlar jamiyati, 2024
© “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2024

# I BOB

# O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI MASALALARI

# O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ASARIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING QO‘LLANILISHI.

***Abdug‘aniyeva Mohinur Ravshanbek qizi***
*Guliston davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs talabasi*
*abduganiyevamohinur2006@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Maqolada frazeologizmlarning etimologik, leksik-semantik, stilistik xususiyatlari hamda O‘tkir Hoshimov ijodida frazeologizmlarning o‘rni va ahamiyati, foydalanish mahorati haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar o‘z aksini topgan.*

**Kalit so‘zlar:** *frazeologizmlar, barqaror biriklamalar, frazeologik chatishma, tilshunoslik, O‘tkir Hoshimov, nutq, semantika, “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”, Sh. Rahmatullayev.*

**Abstract:** *The article reflects the etymological, lexical-semantic, stylistic features of phraseologisms, as well as the scientific-theoretical views about the place and importance of phraseologisms and the skill of using them in the work of O‘tkir Hashimov.*

**Key words:** *phraseologisms, stable combinations, phraseology, linguistics, O‘tkir Hoshimov, speech, semantics, "Phraseological dictionary of the Uzbek language", Sh. Rahmatullayev.*

**Frazeologiya** (gr. phrasis – “ifoda”, logos- “ta’limot”) atamasi ikki ma’noda ishlatiladi: 1) til frazeologik tarkibini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazeologizmi majmuasi. **Frazeologizmlar** ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan so‘z birikmasidir. Frazeologizmlar tarkibidan biror qismni tushirib qoldirish mumkin emas. Tilshunoslik bo‘limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e’tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o‘rganishga, frazeologizmlarning nutqda qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazeologizmlar sintaktik tuzilishiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: birikmaga teng frazeologizmlar ( ammamning buzog‘i, tuyog‘ini shiqillatmoq) va gapga teng frazeologizmlar (yuzi yorug‘ bo‘ldi, boshi osmonga yetdi).

O‘tkir Hoshimov o‘zining asarlarida frazeologizmlardan unumli foydalangan. “Ikki eshik orasi”, “Dunyoning ishlari” kabi asarlarida ularni mohirona tarzda aks ettirgan. Yozuvchi ishlatgan frazeologizmlar tarkibi asosan inson tana a’zolari qo‘llanilgan iboralardir,Masalan : Har kuni o‘n martadan **qulog‘ingni qoqib qo‘linga beradigan** xotining bo‘lmasa, yo‘linga termulib turgan bolalaring bo‘lmasa, gapni kim qo‘yibdi senga? (“Ikki eshik orasi” romani 8-bet). Ushbu matndagi “qulog‘ingni qoqib qo‘lingga beradigan” iborasi juda ko‘p gapiradigan

insonlarni ifodalashga xizmat qilgan. Bu iborada **quloq leksemasi qo‘llanilgan.** Bu iboradan foydalanish bilan asar tilining xalqchilligini, soddaligini oshirishni ko‘zda tutgan.

**Bersang yeyman, bermasang o‘laman,** deydigan bolam yo‘q Hozir uyga boraman (“Ikki eshik orasi” romani 9-bet”). Bu ibora ishyoqmas, dangasa insonlarni gavdalantirgan. Salbiylik bo‘yog‘iga ega.

E, qoching! - **Qulog‘imgacha qizarib ketganini** sezib, darvoza tomonga yugurdim (“Ikki eshik orasi” romani 72-bet”). Ibora uyalmoq, biror holatda kulgili holatga tushmoq ma’nosini qo‘llangan. Bu ibora orqali yozuvchi gapdan juda uyalib ketgan insonni yumor ostiga olib ifodalagan.

Ilhom, samovaringni tagiga tosh bog‘laganmisan, nima balo?! Bermasning oshi pishmas deb! (“Ikki eshik orasi” romani 17-bet”). Ushbu ibora ziqna, baxil insonni ifodalagan. Salbiy ma’noga ega.

Endi gapning po‘stkallasi shu: **belimda belbog‘im bor** deganing ertalab hasharga kelaver! (“Ikki eshik orasi” romani 64-bet”). Ushbu ibora mard, jasur, qo‘rqmas, kuchli yigitlarga nisbatan ishlatilgan. Asarda ijobiy ma’noni idodalagan.

O‘ziyam **kapalagi uchib ketdi** Ochil sho‘rlikning! (“Ikki eshik orasi” romani 84-bet”)- bu ibora qahramonning qo‘rquvini ifodalagan. Ibora shu voqeani ta’sirchanroq ifodalashga xizmat qilgan.

Yulduzing yoningga tushishini orziqib kutasan. Kim bilsin, “**yulduzi yulduziga to‘g‘ri kepti”** degan gap balki shundan chiqqandir. (“Ikki eshik orasi” romani 122-bet”) bir-biriga mos tushmoq. Bu ibora qahramonlarning bir-biriga mosligini ifodalagan. Ijobiy ma’noga egadir.

Sezaman. Fotima kelin, “seni **orqa etigingda og‘irliging yo‘q,** bola tug‘ib azobini tortmagansan, meniki ikkita…” demoqchi bo‘ladi (“Ikki eshik orasi” romani 123-bet”) – bu ibora farzandi yo‘q ayollarga nisbatan ishlatilgan. Salbiy ma’no ifodalagan. Farzandsiz, bolasi yo‘q.

Cholimning gapi zakunchiga og‘ir botdi. Egar ustida o‘tirgan joyida **ilon chaqqandek sapchib ketdi** (“Ikki eshik orasi” romani 295-bet”) – qo‘rqmoq, jahli chiqmoq. Bu ibora qahramonning gapdan juda ham jahli chiqqanini, bu gapni kutilmagan tarzda eshitganini ifodalagan.

-Bola-a-m! **Yuragim qinidan chiqqudek bo‘lib** yugurib ketdim (“Ikki eshik orasi” romani 585-bet”) –bu ibora qo‘rqish, hayratda qolish ma’nolarini ifodalashga xizmat qilgan. Ibora qahramonni voqea-hodisadan juda ham qo‘rqqanini ifodalashga xizmat qilgan.

Har bir milliy til o‘z taraqqiyotida mukammallashib boradi. Buning natijasida til eng murakkab fikrlarni chiroyli va har xil shaklda ifodalay oladi. Tilning rivojlanish jarayonida frazeologiya fondi boyiydi, nutqning obrazliligi va

emotsionalligi oshib boradi. Albatta, bunda yozuvchi va shoirlarimizning xizmatlari katta.

O‘tkir Hoshimov frazeologizmlardan juda mohirona foydalanganini ko‘rdik. Uning asrlarida qo‘llangan frazeologizmlarni o‘qib, o‘rganib va ularni tahlil qilishmiz kerak. Ularni mag‘zini chaqishimiz kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O‘tkir Hoshimov. “Ikki eshik orasi” roman. “ILM-ZIYO-ZAKOVAT”. – Toshkent: 2021.- 592 bet.
2. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R. va boshqalar. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent: 2012-yil.
3. Sh. Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova. “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”. Toshkent: 2022. – 636 bet.


## SIFAT TURKUMIGA MANSUB BA’ZI SO‘ZLARNING DIAXRON TAHLILI


***Abdug‘afforova Zuhra Azamat qizi***

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU*

*O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*

*zabdugafforova71@gmail.com*

Ilmiy rahbar: O‘razova Iqbol Abdikarimovna



**Annotatsiya**. *Mazkur maqolada o‘zbek tili tarixining derivatsiya sohasiga doir kuzatishlar o‘z aksini topgan. Quyida tilning ma’lum bosqichida yasalgan sifat so‘z turkumiga oid ayrim so‘zlar tahlil qilinib, asos va yasalma tarkibidagi o‘zgarishlar izohlangan va bu leksemalarning tublashishi bilan bog‘liq mulohazalar bayon qilingan.*



**Kalit so‘zlar:** *So‘z yasalishi, leksema, asos, qo‘shimcha, sinxron aspekt, diaxron aspekt, etimologiya, tublashish.*



**Abstract.** *This article reflects observations on the derivation of the history of the Uzbek language. Below, some words of the adjective group formed at a certain stage of the language are analyzed, the changes in the structure of the base and formation are explained, and considerations related to the formation of these lexemes are stated.*



**Keywords:** *Word formation, basis, lexeme, addition, synchrone aspect, diachronic aspect, etymology, formation process.*


So‘z yasalishi (derivatsiya) tilshunoslikning mustaqil sohalaridan biri bo‘lib, yangi so‘z yasalishi, so‘z yasalish usullari, tarixiy (diaxron) va zamonaviy (sinxron) so‘z yasalishi, yasama so‘z bilan bevosita va bilvosita uzviylik kasb etadigan, nisbatan kam o‘rganilgan til hodisalari – ixtisoslashish, soddalashish,

leksemalashish, yaxlitlanish, atamalashish hodisalari kabi masalalar bilan shug‘ullanadi. So‘z yasalishi sohasida ham tilshunoslikning boshqa sohalari singari muammoli holatlar, munozarali masalalar, farqli nazariy qarashlar hanuz uchrab turibdi. Bizningcha, so‘z yasalishini o‘rganishda diaxron va sinxron aspektlarga tayanish maqsadga muvofiq. Chunki til taraqqiyoti natijasida turli davrlarda yasama bo‘lgan so‘z hozirgi til yasalish nuqtayi nazaridan yasama hisoblanmasligi mumkin. Quyida tarixan ham yasama, lekin hozirgi tilshunoslikning so‘z yasalish doirasida tub sifatlar sifatida qaraladigan so‘zlar tahlil qilinadi.

*Go‘zal* leksemasi “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da “*xushro‘y”, “husndor”* semasi bilan ifodalangan bo‘lsa, (Rahmatullayev Sh, 2000, 88-bet) “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *“juda ham chiroyli, husndor, kishi ko‘zini quvontiradigan”* shaklida izoh berilgan. Bu sifat qadimgi turkiy tildagi *“nazar sol”* ma’nosini anglatgan *kös-* fe’lidan *-(ä)l* qo‘shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik so‘z boshlanishidagi k undoshi g undoshiga, unlilar oralig‘idagi s undoshi z undoshiga almashgan; o‘zbek tilida ö unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolishi natijasida quyidagi o‘zgarish sodir bo‘lgan: *kös-+äl=kösäl>gösäl>gözäl>gozäl* (Rahmatullayev Sh, 2000, 88-bet). Yasovchi morfemaning muomaladan chiqishi natijasida ushbu leksema yasamalik belgisini yo‘qotgan. Ushbu turkiy so‘zga sinonim sifatida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining akademik nashrida *uz* tarzida qo‘llangan so‘zni *go‘zal* tarzida hozirgi o‘zbek tiliga o‘girilganini guvohi bo‘ldik.

*Бэги эдгу болса будун барча* тγз

*Болур қылқы эдгу йорылары* ***уз***.

(Agar begi yaxshi bo‘lsa, barcha xalqi soz bo‘ladi,

Uning qiliqlari yaxshi, fe’li raftori ***go‘zal*** bo‘ladi.). (Yusuf Xos Hojib, 1971, 185-bet). Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, *uz* leksemasi go‘zal ma’nosiga teng kelgan o‘rin ham mavjud.

*Qizil* so‘zi qadimgi turkiy tilda *“alvon”, “qon rangidagi”* ma’nosini anglatgan *қыз-* fe’liga *-(ы)л* qo‘shimchasi qo‘shilishi bilan yasalgan; keyinchalik *ы* unlilarining qattiqlik belgisi yo‘qolgan*: қыз- + ыл= қызыл> қизил* (Rahmatullayev Sh, 2000 , 539-bet). Ushbu leksema “Древнетюрский словар” da *qïzïl* (красный ) tarzida izohlangan (ДС, Ленинград, 1969, 451-bet). Hozirgi til yasalish jarayonida tub so‘z sifatida qaraladi.

*Қурымыш йығачлар тонанды йашыл*

*Бэзэнди йапун ал сарығ көк* ***қызыл*** (Yusuf Xos Hojib, 1971, 72-bet).

Rang-tus ifodalovchi *yashil* leksemasi sinxron aspektda tub so‘z sifatida qaraladi, ammo diaxron aspektda tahlilga tortsak, til taraqqiyotining qadimgi turkiy til davrida ushbu leksema yasamalik xususiyatini namoyon etadi. Bu sifat qadimgi

turkiy tilda mavjud bo‘lib, *“barg rangiga ega bo‘l-”* ma’nosini anglatgan *йа:ш-* fe’lidan - *(ы)л* qo‘shimchasi bilan yasalgan; keyinroq *a:* unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan. *йа:ш-+ыл= йа:шыл> йашыл> йäшил* (Rahmatullayev Sh, 2000, 147-bet). Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida *jaшїл – har bir yashil-ko‘k narsa* deb izoh berilgan bo‘lsa, (Devon III, 26-bet), “Древнетюрский словар”da *jaŝїл*, ya’ni *зеленый, голубой* so‘zlariga teng kelishi haqida ma’lumot berilgan (ДС, Ленинград, 1969, 247-bet). *-ыл* morfemasini yasovchi qo‘shimcha imkoniyatini yo‘qotishi natijasida yuqorida keltirilgan so‘z tub so‘zga aylangan.

***Йашыл*** *көк йаратты үзә йулдузы*

*Қара түн төрүтти йаруқ күндүзи* (Yusuf Xos Hojib, 1971, 80-bet).

*Yovuz* leksemasi tahlilga tortadigan bo‘lsak, ushbu sifat ham tarixan yasama bo‘lgani, lekin hozirgi tilshunoslik nuqtayi nazaridan tublashish jarayoniga uchraganining guvohi bo‘lamiz. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da ham, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da ham *“shafqatsiz”* semasi izohlangan. Bu sifat qadimgi turkiy tildagi “*shafqatsizlik qil-“* ma’nosini anglatgan *yab-* fe’lining *yav-* shaklidan *-(u)z* qo‘shimchasi qo‘shish orqali yasalgan; o‘zbek tilida *a* unlisi *â* unlisiga almashgan: *yab-yav-+uz=yavuz>yâvuz* (Rahmatullayev Sh, 2000, 160-bet). Mazkur leksema “Древнетюрский словар”da *javuz* tarzida berilib*, плохой, скверный* ma’nosini ifodalagan. Ushbu leksema ham yasochi morfemaning(-uz) yasovchilik xususiyati yo‘qolishi natijasida tub so‘zlar qatoridan joy olgan.

*Өзини көдәзсә айы артмаса*

***Йавуз*** *йунчығ ишкә йақын турмаса* (Yusuf Xos Hojib, 1971, 160-bet). Guvohi bo‘lganimizdek, har ikki lug‘atda ham, “Qutadg‘u bilig” asarida ham *yovuz* so‘zi salbiy baho semasini anglatgan. Biroq Turkiya turkchasida ushbu leksema “yomon” *(kötü, fenâ)* ma’nosini ifodalash bilan bir qatorda “güzel, iyi, mert, cesur, güçlü” kabi ijobiy ottenkalari ham mavjud. Qiziqarli tomoni shundaki, ushbu leksemaning atoqli ot shaklida qo‘llanish holatlari uchrab turadi. Usmonli turk imperiyasi sultoni Sulton Boyazid II ning Selim I ning laqabi Yavuz (Selim I Yovuz) bo‘lgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, bu hukmdor davrida imperiya hududi ancha kengayadi. “Ikki muqaddas masjid xodimi” faxriy unvoni beriladi va shundan e’tiboran Usmonli sultonlar xalifa deb nomlana boshlagan. Bizningcha, bu laqabning berilishiga leksemaning “kuchli, mard, jasur” semalari asos bo‘lib xizmat qilgan bo‘lishi mumkin.

*Yolg‘iz* leksemasi tarkibdagi yasovchi qo‘shimchaning iste’moldan chiqishi natijasida tublashish hodisasiga uchragan so‘zlardan biri hisoblanadi. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da *“bir o‘zi, yakka, tanho”* semalarini ifodalagan yolg‘iz so‘zi qadimgi turkiy tildagi ko‘p ma’noli *йалың* sifatining “*yakka”, boshqalardan xoli”* ma’nosidan kuchaytiruv ifodalovchi *-(y)з* qo‘shimchasi bilan hosil qilingan

(Rahmatullayev Sh, 2000, 166-bet). Qo‘shimcha qo‘shilgandan so‘ng ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan, keyin *ң* undoshi *ғ* undoshiga almashgan. “ДС” da mana shu shakli qayd etilgan: *jalγuz – один, единственный* (ДС, Ленинград, 1969, 229-bet). O‘zbek tilida *a* unlisi *â* unlisiga, *y* unlisi *ы* unlisiga almashgan, oxirgi *ы* unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: *йалың+уз= йалыңуз> йалңуз> йалғуз> йâлғиз* (Rahmatullayev Sh, 2000, 166-bet). “Qutadg‘u bilig” asarida *йалңузун* shaklida qo‘llanilgan.

*Элиг бир кун олдуриб өзи* ***йалңузун***

*Эвин қылди хали ирикти узун* (Yusuf Xos Hojib, 1971, 168-bet).

Ushbu leksema tarkibidagi *-uz* qo‘shimchasi qadimgi turkiy tilda omonimlik xarakteriga ega bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida qayd etilgan *yovuz* so‘zi tarkibidagi *-uz* qo‘shimchasi bilan *yolg‘iz* leksemasidan o‘rin olgan uz morfemasi o‘rtasida so‘z yasovchi va shakl yasovchi morfemalar doirasiga omonimiya hodisasi kuzatiladi. Professor B. Abdushukurovning “Qadimgi turkiy til” o‘quv qo‘llanmasida *-z, -uz, -iz* qo‘shimchalarini fe’l va sifatdan sifat yasashi haqida ma’lumot keltirilgan. (Abdushukurov, 2019, 47-bet). *Yolg‘iz* so‘zi tarkibidagi *-uz* qo‘shimchasi kuchaytiruv ifodalovchi bo‘lgani holda yovuzdagi yasovchi morfema bilan shakldoshlik hosil qilmoqda.

Qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lib, “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da “*sho‘xlik qilmaydigan, mo‘min-qobil*” (Rahmatullayev Sh, 2000, 179-180-bet) deya izoh berilgan *yuvosh* sifati ham tub so‘z deb qaralsa-da, qadimgi turkiy tilda *“tinchlantir-*“ ma’nosini bildirgan *yava-* fe’lidan –sh qo‘shimchasi vositasida hosil qilingan. “ДС”da *javaš-мягкий, кроткий* tarzida berilgan bo‘lsa, “Devon”da *jawaш кіші- yuvosh odam* izohi berilgan. Har ikki turkiy so‘zlar lug‘atlarini solishtirish natijasida ushbu leksema ko‘p ma’noli so‘z bo‘lgan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Chunki har ikki lug‘atda ham mazkur leksemaning ikkinchi, ya’ni hayvonlarga nisbatan ham ishlatilishi aytilgan. Yuvosh odam, yuvosh hayvonlarga ham bu so‘z qo‘llanadi (Devon, III, 18-bet). “Древнетюрский словар”da 1. *javaš- мягкий, кроткий. 2. Прирученный, домашный, (оживотных и птицах)* singari ikki ma’nosi berilgan.

Diaxron aspektda tahlilga tortilganda yasama sifat hisoblangan *chuchuk* (“ta’mi shirin”) leksemasi qadimgi turkiy tilda ham ta’mi shirin ma’nosini ifodalagan bo‘lib, asli *“shirin bo‘l-”* ma’nosidagi *süchi*-fe’lidan g qo‘shimchasi bilan yasalgan. “ДС” da *süčig-* сладкий shakli mavjudligi haqida ma’lumot uchraydi. (ДС, Ленинград, 1969, 517-bet). Keyinchalik so‘z oxiridagi g undoshi k undoshiga almashgan, ikkinchi bo‘g‘in boshi-ch undoshining ta’siri bilan so‘z boshlanishidagi s undoshi ch undoshiga, ikkinchi bo‘g‘indagi i unlisi ü unlisiga almashgan, so‘ngra ü unlilarining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan:*süči-*

*+g=süčig>süčik>süčük>chüchük>chuchuk* (Rahmatullayev Sh, 2000, 440-bet). Devonda g tovushining k ga almashgan shakli keltirilgan*: süčik* (Devon, I , 387-bet).Yusuf Xos Hojib asarida c*ү*чин*ү* shaklida kelgan:

*Шакар тэг* ***сүчинү*** *барыр ул киши*

*Сэвинчлиг болур анда йазлур қашы* (Yusuf Xos Hojib, 1971, 174-bet).

Xulosa sifatida shularni aytish mumkinki, qadimgi turkiy tildagi so‘zlarning salmoqli qismi tub bo‘lishi bilan bir qatorda so‘zlarning yasalish jarayoni ham faol bo‘lgan. Turkiy til yasama so‘z hosil qilishda boy til ekanligini kichik tadqiqotimiz jarayonida guvohi bo‘ldik. Shu nuqtayi nazardan bizningcha, chetdan kirib kelayotgan va nutqimizga o‘zlashayotgan yangi so‘zlarga muqobil topishda tilimizning so‘z yasashdagi keng imkoniyatidan foydalanishga harakat qilish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, qadimgi turkiy tilda mavjud sifat turkumi leksemalari yasalishida –chi, -li, -q, -iq, -a, -al, -uz, -ïz ,-ıl - ır, -u, -gu kabi yasovchi morfemalar nisbatan faol, bo‘lganini kuzatdik. Mazkur qo‘shimchalardan -chi, -li, -q, -iq, morfemalari hozirgi davr tilshunosligida ham sifat yasovchilar sifatida qaralsa, -al, -uz, -ïz ,-ıl, - ır, -u, -gu, va boshqa bir qancha qo‘shimchalar tilning ma’lum bosqichiga kelib yasovchilik mavqeyini yo‘qotgani bois bugungi til derivatsiya sohasida ular ishtirok etgan leksemalarning tub deb qaralishiga sabab bo‘lgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. B.Abdushukurov Qadimgi turkiy til (2019) o‘quv qo‘llanma
2. Sapayev Q. (200). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (23-26- betlar). Toshkent.
3. Rahmatullayev Sh. (2000), “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati I tom. (88,127,147,160,166,179,440,473,489-betlar). Toshkent: ”Universitet”.
4. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. (2023) I -VI tom. Toshkent.
5. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” (1971), akademik nashr, Toshkent:”Fan” nashriyoti.
6. Ҳожиев А. (2007).Ўзбек тили сўз ясалиш тизими . (23-36). Тошкент.
7. “Древнетюрский словар” (1969). Ленинград.
8. Кошғарий, М. (1963).Девону луғотит-турк I – III том, (18, 26, 324,387-betlar). Тошкент.


## NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA O‘XSHATISHLAR
## (“Ochilmagan eshik” va “Tobut” hikoyalari misolida)


***Fayzullayeva E’zoza Abdulla qizi***

Navoiy davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi.

**Annotatsiya:** *O‘xshatishlar badiiy asarlarda uslubiy vazifa bajaribgina qolmay, yozuvchining badiiy mahorati naqadar kuchli ekanligidan dalolat beradi. Ushbu maqolada Nazar Eshonqulning «Ochilmagan eshik» va «Tobut» hikoyalarida qo‘llanilgan o‘xshatishlarning lingvopoetik jihatlari haqida fikr yuritilagan.*

**Kalit so‘zlar:** *o‘xshatishlar, uslubiy vazifa, o‘xshatish subyekti; o‘xshatish etaloni; o‘xshatish asosi; o‘xshatishning shakli o‘xshatish etaloni.*

O‘xshatishlar nutqimizda katta badiiy-uslubiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan, nutqning ifodaliligini, jozibadorligini ta’minlaydigan vositalardan biri hisoblanadi. Badiiy asarlarda o‘xshatishlar uslubiy vazifa bajaribgina qolmay, yozuvchining tasavvur olami naqadar keng ekanligini ko‘rsatib. beradi. Panini grammatikasidan boshlab (eramizdan oldingi IV asr)qadimgi hind poetik-grammatik traktatlarida o‘xshatishlar poetik figura sifatida o‘rganilgan va o‘xshatishning muntazam 4 unsurdan tarkib topishi ta’kidlangan, ya’ni: 1)o‘xshatiladigan narsa yoki subyekt; 2)unga o‘xshash bo‘luvchi narsa yoki obyekt; 3)o‘xshatish belgisi; 4)o‘xshatishning formal ko‘rsatkichi. O‘zbek tilida ham, boshqa barcha tillarda bo‘lgani kabi, o‘xshatishlar 4 unsurdan tarkib topadi va biz ularni o‘xshatish subyekti, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi deb nomlaymiz. Avvalo, ta’kidlash lozimki, o‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo‘ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘xshatishlarning 2 turi, ya’ni: 1)individual-muallif o‘xshatishlar yoki erkin o‘xshatishlar; 2)umumxalq yoki turg‘un o‘xshatishlar farqlanadi. Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmon nuqtayi nazaridan erkin o‘xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalaridan biri sifatida badiiy nutqda alohida o‘rin tutadi. Turg‘un o‘xshatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularga o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo‘llangan bo‘lsa-da, vaqtlar o‘tishi bilan til jamoasida urgan kirib, doimiy ifodalar sifatida turg‘unlashgan, umumxalq tili leksikasidan joy olib ulgurgan bo‘ladi.

Nazar Eshonqul asarlarida nutqning badiiy-estetik tomonlarni ochib beradigan, uning ta’sirchanliligini ta’minlaydigan vositalardan hisoblangan o‘xshatishlardan juda samarali foydalanilgan. Ayniqsa, individual-muallif o‘xshatishlaridan. Quyida biz muallifning «Ochilmagan eshik» va «Tobut» hikoyalarida qo‘llanilgan ana shunday o‘xshatishlarga misollar keltiramiz:

Kelinchak har kecha *o‘zi o‘tirgan daraxtga bir muddat qo‘nib o‘tgandan so‘ng yana uzoq safarga otlangan qirg‘iydek* o‘zidan kundan-kun uzoqlashib,

noma'lum manzil sari ketib borayotgan erini, uning so'nggi paytlarda paydo bo'lgan ters, qo'pol, jizzaki fe'l-atvorini, bir vaqtlar eri bilan juft qanot bo'lib uchib o'tgan, hozir esa *tashlab ketilgan baxt manzilidek* ko'rinayotgan kelinchaklik paytlarini eslab to tonggacha yig'lab chiqardi. [2. 164-bet] Kelinchak – "daraxt". Kelinchakning kundan-kun uzoqlashib keltayotgan eri *o'zi o'tirgan daraxtga bir muddat qo'nib o'tgandan so'ng yana uzoq safarga otlangan qirg'iyga* qiyoslangan. U qaytib bu "daraxt"ga kelmaydi. O'tib ketgan kelinchaklik payti bor. Manzilida tashlab ketilgan baxtga qiyoslangan. Bu obrazli o'xshatishlar qahramonning ichki kechinmalari, iztiroblarining ta'sirchan ifodasidir.

Ba'zan u o'ziga hech aloqasini bo'lmagan, gohida iztirob, faromushlik, gohida shiddat, jo'shqinlik, xushbaxtlik chulg'ab oladigan erining tund yuzidan quyuq tuman ichida *sekin o'chayotgan gulxan yanglig'* o'ziga atalgan va asta-sekin izsiz so'nayotgan zaifgina ehtiromni ko'rib qolardi. (2. 165-bet)

Kelinchak eridagi unga nisbatan yo'qolib borayotgan (aslida o'zi bormidi?) qadr, ehtiromning yo'qolib borayotganligini *sekin o'chayotgan gulxan*ga qiyoslangan.

Shaharga yaqinlashganda *ulkan maxluqning katta qanotiga o'xshaydigan* darvoza boshliq maqtaganchalik ekanini ko'rdik. (2. 181-bet) Darvoza – o'xshatish obyekti; qanot– o'xshatish etaloni; katta–o'xshatish asosi. Bunday o'xshatish o'quvchi ongida xunuk va salbiy hodisalarning boshlanish jarayonini gavdalantiradi.

Uylar ataylab ichkariga salqin saqlash uchun ufqqa teskari qurilgan, derazalardan tushayotgan xira shula hujralarni yoritishga qurbi yetmay, *O'lmas Dev bilan olishaverib holdan toygan botir misoli* bir burchakda holsiz to'shalib yotardi. (2. 184-bet) Shahardagi xunuk, sovuq manzaraning jonlantirish va o'xshatish vositasidagi omuxtalashgan badiiy ifodasidir bu.

Hozir o'lat chiqqandan beri shahrimiz fayzsiz bo'lib qoldi, u paytlar esa shaharni naq xayolning jilvalari deb o'ylardingiz: *nafis gumbazlar, serjilo bo'yoqlar, nozik va ehtirosli qalbning parchalari kabi* marmarlar, abadiyatni suyab tura oladigan ustunlar, *qiz bolaning ko'z yoshiday* favvoralar-hammasi go'zal bir tarzda uyg'unlashib ketgandi. Muallif shahrning chiroyi – *nafis gumbazlar, serjilo bo'yoqlarni,* marmarlar, abadiyatni suyab tura oladigan ustunlarni *nozik va ehtirosli qalbning parchalariga mengzaydi;* favvoralarning pokligini *qiz bolaning ko'z yoshi*ga qiyoslaydi.

Nazorat boshlig'ining mushti g'azabdan siqilib ketganini ko'rib qoldim, hozir qo'yib bersa quturgan ayiqday butun shaharni vayron qilib tashlaydigan vajohati bor edi yuzida. Nazorat boshlig'ining kuchli darajadagi g'azablangan holati quturgan ayiqqa qiyoslangan.

**Xususiy-muallif o‘xshatishlari** yozuvchining o‘z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o‘xshatishlaridir. Bunday o‘xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo‘ladi. Har qanday o‘xshatishdan maqsad tasavvur qilinishi qiyin bo‘lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko‘zi o‘ngida go‘zal bo‘yoqlarda gavdalantirganini ko‘rish mumkin. Shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Nazar Eshonqulning «Ochilmagan eshik» va «Tobut» hikoyalaridagi o‘xshatishlar asosan so‘z qo‘llsh mahorati natijasidagi ijodkor tomonidan qo‘llngan individual-muallif o‘xshatishlaridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nizomiddin Mahmudov. O‘xshatishlarda milliy mentallik jozibasi.-Til va adabiyot ta’limi jurnali. 2019-yil 2-son.
2. Nazar Eshonqul. Saylanma I. «Akademnashr», Toshkent 2022.

## O‘ZBEK TILINING QIPCHOQ SHEVASI VAKILLARI NUTQIDA SINGARMONIZM

***Isayeva Madina Ravshan qizi***
*ToshDO‘TAU O‘FF 4-kurs talabasi*
*madinaisayeva684@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tilida, xususan uning qipchoq shevasida turkiy tillar uchun xos bo‘lgan singarmonizm hodisasi qay darajada saqlanib qolganligi ustida kichik izlanish borilgan. Shuningdek, maqolada singarmonizm hodisasining sustlashish sabablari va ushbu mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy ishlar bo‘yicha tahlil olib borilgan.*
***Kalit so‘zlar:*** *Agglyutinativ, labial, palatal, singarmonizm, transkripsiya, fonetik*

***Abstract:*** *In this article, a small research was conducted on the extent to which the phenomenon of synharmonism characteristic of Turkic languages has been preserved in the modern Uzbek literary language, in particular in its Kipchak dialect. The article also analyzes the reasons for the weakening of the phenomenon of synharmonism and the scientific works conducted on this topic.*
***Keywords:*** *Agglutinative, labial,palatine, synharmonism, transcription, phonetic phenomenon.*

Tilimizda bu hodisa yo‘q, yoki qisman saqlanib qolgan degan fikrlarni biz ko‘p eshitganmiz. Buning asosiy sabablaridan qilib, biz tarixan tojik xalqi bilan yonma-yon yashab kelganimiz va bu tildan anchagina so‘zlar tilimizga kirib kelgani, shuningdek necha asrlik yozma yodgorliklar arab tilida bitilganini, oqibatda qanchadan-qancha so‘zlarimiz arab tilidan o‘zlashganini, ustiga ustak bizning bugungi grammatikamiz rus olimlari tomonidan qoliplashtirib berilganini keltiramiz. Turkiy tillar agglyutinativ til ekanligini va ularda singarmonizm hodisasi mavjudligini inobatga olgan holda, o‘zbek tilida bu hodisa mavjud emas deb rad qilish mumkinmi? Yuqorida sanab o‘tgan sabablarga ko‘ra tilimizda singarmonizm hodisasi bir muncha susaygan, biroq butunlay bu hodisani yo‘q deb ayta olmaymiz. Chunki o‘zbek tili ko‘p shevaliligini hisobga olgan holda, biz bu hodisani garchi adabiy tilimizda uchratishimiz mushkulroq bo‘lsa-da, shevalarda singarmonizmning yaqqol ko‘zga tashlanib turadigan holatlari ham uchraydi. Biz ushbu kichik tadqiqotda qipchoq shevasi (Xatirchi tumani) da ushbu hodisaning qay darajada kuchda ekanligini tahlil qildik.

Bugungi kungacha bu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan kishilar qatorida dastavval, rus olimi Polivanovni aytish lozim. U o‘zining “O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili” nomli asarida (1933-y.) tilimiz bo‘yicha ancha qimmatli ma’lumotlar keltirgan. Shuningdek, filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning “O‘zbek dialektologiyasi” kitobi, professor Yoqub Saidovning “O‘zbek adabiy tili tarixi” o‘quv qo‘llanmasi, adabiyotshunos, olim, publisist, filologiya fanlari nomzodi Zuhriddin Isomiddinovning “O‘zbek tilining ayrim xususiyatlari haqida” va “O‘zbek tilining bir xossasi haqida” kabi maqolalarida o‘zbek tili va uning xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Yana o‘tgan asrning birinchi yarmidagi tilshunoslik sohasiga o‘z hissalarini qo‘shgan olimlardan Ashurali Zohiriyning ham “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1929-yil 31-mart 73-sonida chiqqan maqolasida singarmonizm hodisasi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tadi:

*“SINGARMUNIZM TO‘G‘RISIDA"*

*Singarmunizm turk-totor tilining tabiiy tiligidur. Lekin zomonning o‘tishi, jo‘g‘rofi(y) ahvollarning o‘zgarishi, bir qavmning boshqalar bilan aralashishi va ularning tillarining ta'siri orqasida bu xususiyat turk lahjalarining bir xillarida yo‘qola borg‘on (ozorbayjon, anqara turklarida). Bu xususiyatni saqlab qolg‘onlar: qozoq, qirg‘iz, nug‘oy, boshqirt, totor, turkman va o‘zbaklardur. Bizda sigarmo‘nizm yuz foiz bo‘lg‘usidir. Tilimizga aralashg‘on ajnabiy so‘zlarni ham o‘z qoidamiz (singarmunizm)g‘a buyin sundiramiz. Bundan bo‘yin tovlaydurg‘onlari o‘rnig‘a o‘z tilimizdan so‘zlar topishg‘a harakat qilamiz. g‘ijjak, g‘altak, g‘ildirak, pildiroq, yo‘lak (bu so‘zlarning «yo‘lak»dan boshqasi o‘zbekcha bilan forsiycha o‘rtasida o‘rtoq so‘zlar bo‘lib, «yo‘lak» va ularning ham*

*oxirlaridag‘i «ak», «oq» qo‘shimchalari tom forsiychadur. Bularni singarmunizmga tobe qilsaq, «g‘ijjaq, g‘altaq, pildirak, g‘ildiroq, yo‘loq» bo‘lib xalq onglamaydurg‘on nusxag‘a kirib ketish ehtimoli bor. Shuning uchun bundoqlarni mustasno qilamiz. Bundoq mustasno bo‘lg‘uchilar tilimizda ko‘pchilikni tashkil etmaydirlar) singari o‘zlashgan forsiy so‘zlari (yoki forsiycha qo‘shimcha qo‘shilgan so‘zlar)ni o‘zgartmasdan singarmunizm qoidasidan mustasno qilamiz. Singarmunizm masalasini biz shu ravishda hal qilamiz*.

Biz yuqorida keltirilgan manbaalarga tayangan holda qipchoq shevasida singarmonizm hodisasi yuzasidan kichik bir tadqiqot o‘tkazdik.

Ushbu tadqiqot uchun Xatirchi tumanining bir vakili bilan suhbat qilish rejalashtirildi..

Tadqiqot olib borilgan hudud vakili - Rayimova Xadicha Hikmatullayevna – 55 yosh. Xatirchi tumani Tasmachi qishlog‘ida tug‘ilgan va shu hududda yashab kelmoqda.

Tadqiqot uchun Xadicha ayadan kichik bir hayotiy voqea tinglandi va diktofonga yozib olindi.

Yozib olingan hikoyada 174 ta so‘z qatnashgan. Ushbu matn transkripsiyada berildi. Shuningdek shevaga xos bo‘lgan maxsus so‘zlar qizilda ajratib berildi.

*“Sel”*

*Bir jili qïšlaqqa, mänši sājgä šündüj sel kelüvdi. Äncä töpālän böp ketüvdi. Bizär öšändä üjdä enäm, āpäm, mem bilän kičkinä ükäm bāridik. Öšändä ükäm häli jāšigäjäm tölmägänidi. Ātäm üjdä joqligi üčün enäm nimä qïlarini bilmij qorqïp qāluvdi. Qïšlāqdä ādämlär hämmä jäqqä ketüvdi. Kïmdïr däštägi āgïjïnisinikiga, kimdir birāv bāšqa jaqqa. Närsälärini tiličkälärgä ārtvāp köčip ketkänläräm bögän. Soγin kätenäm vāhimä qip bizärdi čäqïrvāldi. Enäm kätenämlärdikigä ābārdi. Soγin ujaγdäjäm qorqïb ötirdik. Ātäm bösä keläγäjmädi.*

*Bir pillä soγïn ātäm kep qāldï. Kätenäm ātämdi körip, “vāj bäläm-e, kep qāldiŋmi” dep ātämdi āldigä čāvip čiqdi. Jürägi jārilip ketti özijäm. Ātäm säjnäqqa qandïj sel kegänini, bähärkärdä iškä čïqqanlar seldän ötälmij qop ketkänini äjtib berdi. Ātämlär sel kämäjišini kütib ötiripti. Lekin jāmān süv böpti-dä öšändä. Āxïrgï on jildän beri häli säjnäγïmizgä bündij süv kemägänidi. Bü kökläm jāγïngarčïlïk köp böldi-dä özi. Mirdāš, Ƶizmān degän jerlärdän čöpānlärdi qöjlärini, māllärinijäm sel āqizip keldi. Nima bögändäjäm Xudā äsrädi, sel sājdän kämäjib kejin ātämlär ötvāgän bir bälā qip. Šündij qïp hämmä ādämlär üjigä qajttï. Bizäräm kätenämläkidän bir päs ötirip häŋgämä qip üjimizgä kettik. Kätenäm üzün düvālär qïldi.*

Unli tovushlarni ifodalashda qo‘llaniladigan transkripsion belgilar:

- a- orqa qator, quyi keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Umumturkiy. Singarmonizmni saqlagan o‘zbek shevalarida qo‘llanadi (“j” lovchi shevalarda)
- ä- old qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Aksariyat turkiy tillarda qo‘llanadi. Bu unli barcha o‘zbek shevalarida qo‘llanadi.
- e- old qator, o‘rta keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi, barcha o‘zbek shevalarida qo‘llanadi.
- i- old qator, yuqori tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Barcha o‘zbek shevalarida mavjud.
- ï- orqa qator, yuqori tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Cho‘ziqroq talaffuz qilinadi.
- ü- old qator, yuqori tor, lablangan unlini ifoda qiladi.
- u- orqa qator, yuqori tor, lablangan unlini ifoda qiladi.
- ö- old qator, o‘rta keng, lablangan unlini ifoda qiladi. Singarmonizmli o‘zbek shevalarida uchhraydi.
- o- orqa qator, o‘rta keng, lablangan unlini ifoda qiladi.
- ā- orqa qator, quyi keng, qisman lablangan unlini ifoda qiladi. Shahar va shahar tipidagi shevalarda qo‘llaniladi.
- є- Xorazm, Iqon, Qarnoq, Namangan shevalarida uchraydi. U ä va e unlilariga ancha yaqin turadigan unlini ifoda qiladi.

Undosh tovushlarda qo‘llaniladigan transkripsion belgilar:

- j- lotin alifbosidagi “y” undoshini ifodalaydi.
- ŋ- lotin alifbosidagi “ng” undoshini ifodalaydi.
- ǯ- lotin alifbosidagi “j” o‘rnida.
- š- lotin alifbosidagi “sh” o‘rnida.
- č- lotin alifbosidagi “ch” o‘rnida.
- γ- lotin alifbosidagi “g‘ ” o‘rnida.

Shevaga xos lug‘atlar:

Šündüj- shunaqangi
Enä- ona, aya
Ātä- ota, dada
Āγïjïn-qarindosh
Soγin-keyin
Kätenä-buvi, momo
Keläγäjmädi- kela qolmadi
Bir pillä-bir payt
Säjnäq-soy bo‘yi
Bähärkär-ishga chiqiladigan maydon

Mirdāš, ǯizmān-joy nomlari
Hängämä- gaplashmoq, chaqchaqlashmoq

Tilshunos I. A. Bogoroditskiyning fikriga ko‘ra, singarmonizm unlilar uyg‘unligidir, lekin qisman undoshlarga ham taalluqli. Singarmonizm qonuni 2 xil ko‘rinishiga ega:

1. Palatal singarmonizm

Bu qonuniyatga ko‘ra so‘zning dastlabki bo‘g‘inida old qator unlilar qatnashgan bo‘lsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham old qator unlilar ishtirok etadi. So‘zning dastlabki bo‘g‘inida orqa qator unlilar ishtirok etsa , keyingi bo‘g‘inlarda ham orqa qator unlilar keladi.

Qïšlaqqa
Öšändä
Kičkinä
Kätenämlärdikigä
Närsälärini
Jürägi
Bähärkärdä
Kämäjišini
Bizäräm
Hängämä

2. Labial singarmonizm.

Bu qonuniyatga ko‘ra, so‘zning birinchi bo‘g‘inida old qator lablangan unli ishtirok etsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham old qator lablangan unli qatnashadi. Aksincha, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida lablangan orqa qator unli ishtirok etsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham orqa qator lablangan unli qatnashadi.

Šündüj
Üzün

Ayrim yuklamalar, qo‘shimchalar singarmonizmga bo‘ysunmasligi mumkin. Masalan: yuqoridagi matnda keltirilgan keläγäjmädi- kela qolmadi kabi. - g‘ay affiksining variant bo‘lmaganligi uchun u singarmonizmga bo‘ysunmaydi .

Quyida matnda uchragan ba’zi fonetik hodisalarni misol tariqasida keltirib o‘tamiz:

Umlaut.

Bu qonuniyatga ko‘ra, affiksdagi old qator unli asosdagi orqa qator unlini o‘z xarakteriga moslab oladi:

Säjnäγ = soy+nag‘

Sandhi.

Bunda yonma-yon kelgan ikki so‘zning birinchisi oxiridagi undosh keyingi so‘zning tovushiga moslashadi:

mem bilän (men bilan)

Spirantizatsiya.

Portlovchi tovushning sirg‘aluvchi variantiga ega bo‘lishi:

Čäqïrvāldi – chaqir(ib) oldi

Ushbu mustaqil ishimizdan erishilgan natija juda kichik bo‘lishiga qaramasdan, biz o‘zimiz uchun oldimizga qo‘ygan maqsadimizga erishdik. Qipchoq shevasiga tegishli bo‘lgan Xatirchi tumanining bir vakili tilidan aytilgan voqelik singarmonizm hodisasi ushbu shevada qay darajada faol ekanini ko‘rsatdi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, adabiy tilda, to‘g‘rirog‘i, alifbomizda 6 ta unli bor degani, bu so‘zlashuvda ham xuddi shunday degani emas. Nutqda ishlatiladigan hamma fonemalarni ham yozuvdagi harflar ifoda eta olmaydi. Chunki nutqni cheklab bo‘lmaydi. Ayniqsa u singarmonizmli turkiy til vakilining nutqi bo‘lsa.

Taqdqiqot natijasida ushbu shevada 8 ta unli fonema mavjudligini guvohi bo‘ldik: ä, a, i, ï, o, u, e, ā. Shu qarashga binoan berilgan matnda jami 174 ta so‘z mavjud bo‘lsa, tadqiqot davomida uning 99 tasida singarmonizm hodisasi uchradi. Bu foiz hisobida 56.8 % ni ko‘rsatadi.

Garchi matn keng qamrovli bo‘lmasa-da, unda mavjud 174 so‘zning 99 tasi taqriban 57 % ni ko‘rsatmoqda. Bundan xulosa shuki, Xatirchi tumani shevasida singarmonizm hodisasi hali anchayin ko‘zga ko‘rinarli darajada mavjud.

Yuqorida sanab o‘tilgan kishilarning ilmiy qarashlari va ularning tadqiqotimizga qay darajada mos ekanligiga to‘xtaladigan bo‘lsak:

Samixon Ashirboyev singarmonizmni saqlagan qipchoq shevalarida 11 ta unli bor deb keltirgan, ammo tadqiqot olib borilgan hududda 8 ta unli aniqlandi. Bu kitobda olimning fikrlari albatta ma’lum bir kichik hududga tegishli emasligi bois to‘liq mos kelmadi. Yana olim qipchoq shevalariga xos fonetik qonuniyatlarni sanab o‘tganlaridek, keltirgan matnimizda ulardan umlaut, sandhi, spirantizatsiya hodisalari kuzatildi. Undan tashqari kela qol, bora qol kabi so‘zlarda qol ni -g‘ay affiksi tarzida qo‘llanilishini kuzatdik.

Otabek Umarovning ayni adabiy tilimizda palatal singarmonizm faolroq degan fikrlari ham matnda o‘z isbotini topdi. Singarmonizm kuzatilgan 99 ta so‘zning 95 tasida palatal, 4 tasida esa labial singarmonizm kuzatildi. Shunda tadqiqotda kuzatilgan labial singarmonizm atigi 4 % ni tashkil qildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – T.: 2013.

2. Isomiddinov Z. 2010,O‘zbek tilining ayrim xususiyatlari haqida, Toshkent. Til va adabiyot ta’limi jurnali, 4-son.
3. Isomiddinov Z. 2009,O‘zbek tilining bir xossasi haqida, Toshkent. Til va adabiyot ta’limi jurnali,9-son.
4. Saidov Y. O‘zbek adabiy tili tarixi – Buxoro: Durdona nashriyoti: 2019.
5. Tog‘ayev T. 2004, Ashurali Zohiriyning tilshunoslik merosi, Toshkent.
6. Umarov O. 2021, Hozirgi o‘zbek adabiy tilida singarmonizm va uning ayrim ko‘rinishlari, Toshkent. “Kamolot sari” iqtidorli talabalar ilmiy to‘plami, 19-son.

## O‘ZBEK TILI TA’LIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

***Ismoilova Maftuna Kenjaboy qizi,***
CHDPU BT 2-kurs talabalasi
*maftuna.ismoilova01.20@gmail.com*

**Annotasiya.** *Ushbu maqolada o‘zbek tili tarixiga bir nazar tashlanib, O‘zbek tili ta’limi istiqbollari hamda hozirgi kundagi tilga bo‘lgan munosabat haqida mulohaza yuritiladi. Til rivojiga zamonaviy yondashuvlar haqida umumiy fikrlarimiz keltiriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *o‘zbek tili, millatchilik, bixevioristik yondashuv, interaktiv yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv.*

**Abstract.** *This article takes a look at the history of the Uzbek language, discusses the prospects of Uzbek language education and the current attitude towards the language. We present our general thoughts about modern approaches to language development.*

**Key words:** *Uzbek language, nationalism, behaviorist approach, interactive approach, competence approach.*

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, tilimiz mazkur maqomni olmasidan burungi va olganidan keyingi holati haqida fikr yuritishdan avval o‘sha davrdagi vaziyatlarning qanchalik og‘irligi haqida gaplashsak. O‘sha sho‘ro davrlarda bizning o‘zbek millatimiz o‘zlari istamasalarda, majburlikdan rus tilida gaplashishgan. Ayniqsa, o‘zbek tili ham mustaqil til sifatida yashashga haqli deyishning o‘zi o‘ta millatchilik deb baholanardi. Xalqqa ilm o‘rgatish maqsadida bosh ko‘tarib chiqqan qanchadan qancha jadidlar halok bo‘lishdi. Shukurki, qishning so‘nggi bahor bo‘lganidek bu kabi ayanchli ishlarning barchasi asta sekin barham topa boshladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov O‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish haqidagi qonunlarini eshtgan kimsa borki beixtiyor ko‘zlariga yosh keladi. Axir har qanday mamlakatni boshqalardan ajratib turadigan

asosiy unsurlaridan bittasi- til emasmi? Bizning ham shu tilimiz bor ekan, o‘zbek xalqi, o‘zbek adabiyoti, o‘zbek madaniyati, o‘zbek urf-odatlari bor hisoblanadi. Demak, til masalasi shunchaki gap orasida aytib ketilaveradigan jo‘n, kichik mayda masala emas, balki davlat ahamiyatiga ega, ulkan masaladir. Xullas, o‘zbek tilining tarixi haqida so‘z yuritar ekanmiz bunga bir ma’ruza yoki bir maqola doirasida yoritib bo‘lmaydi. Shunday ekan keyingi masalalarimizdan bo‘lgan o‘zbek tili ta’limi istiqbollari haqida fikrimizni davom ettiramiz.

Bugungi fan va texnika rivojlanib, inson aql idroki yangi-yangi ufqlar sari parvoz qilarkan, biz milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g‘oyasini amalga oshirishda ona tilimizga yanada e’tiborli bo‘lishimiz suv va havodek zarur ekanligi o‘z o‘zidan ayon bo‘lib qolmoqda. Bugun davlat tiliga to‘laqonli yondashuv mavridi keldi! Mamlakatda Ona tilimiz bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar o‘zgarmoqda va o‘zgarishi ham shart, muhim. Bundan oldin esa o‘zimiz, millatning har bir vakili o‘zini, qalbini, dunyoqarashini, tuyg‘ularini o‘zgartirishi yangilashi kerak! Har bir o‘zbekman degan inson o‘z tilini har joyda bo‘lmasin ulug‘lab, uni oyoq osti bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslgi kerak. Va yaqin orada til haqida chiqayotgan qonunlar asta-sekin kuchga kira boshlasa milliy tilimizning mavqeyi yanada yuksalishi, shu boradagi sa’y-harakatlar yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Endi esa bosh mavzuyimiz bilan zamonaviy yondashuvlar haqida gaplashsak. Bugungi kunda ona tili ta’limida uch xil yondashuvdan foydalanilayotganini aniqladik. Bular bixevioristik yondashuv, integrativ yondashuv hamda kompetensiyaviy yondashuvlardir. Mazkur yondashuvlar mohiyatan bir-birini to‘ldirib boradi va o‘qituvchi dars davomida ulardan vaziyat talab qilgan holatni inobatga olib foydalanmog‘i zarur.

Bixevioristik yondashuvning kelib chiqishi aslida bixeviorizm inglizcha behaviou, ya’ni "xulq-atvor" degan ma’nolarni anglatib, XIX asr oxiri XX asr boshlarida AQSH ingliz psixologiyasida paydo bo‘lgan oqimning nomi bilan bog‘liq. Bizdagi ma’lumotlarga qaraganda bu yo‘nalishning asoschilari Dj. Uotson, E. Tomdayklar bo‘lishgan. Bixevioriszmning negizida psixologik tadqiqot predmeti sifatida psixika va ongni inkor etish yotadi. Bixevioristlarning fikricha, odam qanday psixikaga egaligidan qat'i nazar, u qo‘zg‘atuvchilarga javob beradigan o‘ziga hos mashinadir. Ya’ni inson xulq-atvori tashqi ta’sir hamda tashqi ta’sir bilan reaksiyaga kirishuv asosida shakllanadi va rivojlanadi. Psixologiyadagi bu yo‘nalish Yevropa mamlakatlarida XX asr boshlariga kelib ta’lim sohasiga ko‘chdi va taxminan chorak asrdan ko‘proq vaqt bixevioristik yondashuvdan to‘la foydalanildi. Yevropa mamlakatlari keyinchalik bixevioristik yondashuvdan faqat boshlang‘ich ta’limdagina qisman foydalanadigan bo‘lishdi. Bizda esa jadidlar qatag‘onidan keyin ta’lim tizimi to‘liq bixevioristik yondashuvga tayanadigan bo‘ldi.

Bixevioristik ta’limot asosida "mashqlar qonuni" yotadi. Ona tili ta'limida uzoq vaqt hukmronlik qilgan an’anaviy ta’lim shu yondashuvga asoslanadi. Bixevioristik yondashuv inson xulq-atvorining shakllanishi hamda rivojlanishini faqat va faqat "o‘rgatishga" bog‘liq deb hisoblaydilar. Demak, bixevioristik yondashuv mohiyatiga ko‘ra, ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchi hamisha passiv o‘rganuvchiga aylanishi kerak va ta’lim oluvchilarning ijtimoiy holati, ruhiyati, iqtidori, tarbiyasi qanday ekanligidan qat’iy nazar, ularga bir xil ko‘z bilan qarab bir xilda ta’lim berib o‘rgatilsa, mashq qildirsa, albatta, ko‘zlangan maqsadga erishiladi. O‘zbek pedagogikasi 1940-yillardan boshlab toki mustaqillik davriga qadar bixevioristik yondashuvdan foydalandi, ammo hamma vaqt ham ushbu yondashuv kutilgan samarani bermasligi uzoq yillar kuzatuvlari hamda tajribalardan ayon bo‘ldi. Ushbu yondashuv ko‘plab zamonaviy ta’lim namoyondalari tomonidan taqlid qilindi. Shu o‘rinda Demokrit ham o‘z fikrini shunday deb izohlagan edi:"Bilimning ko‘pligi aqlni oshirmaydi". Darhaqiqat bu yondashuvning maqsadi ya’ni natijasi jamiyatga bilimdon, ijrochi shaxsni yetkazib berish edi. Yanada tushinarliroq qilib aytganda o‘qituvchi o‘quvchiga o‘zining bor bilimini singdirishi nazarda tutilgan. Lekin bizga bu holat kerak emas. O‘quvchi o‘qigan narsasini uqishi kerak aslida.

Keyingi yondashuvimiz integrativ yondashuv bo‘lib turli fanlardan olingan bilimlar, ko‘nikma, malaka va tajribani hisobga olish, tayanish, integratsiya qilish, ona tilidan kommunikativ, kasbiy kommunikativ, ijtimoiy kompetentlikni baravar rivojlantirishni nazarda tutadi. Yana biri bu kompetensiyaviy yondashuv hisoblanib, u ta’limda har bir ta’lim oluvchining uquvi, layoqati va qobiliyatini inobatga olish nazarda tutadi.

Xulosa qilsak biz yuqorida bir nechta mavzular doirasini ko‘rib chiqdik. Shulardan keng ko‘lamlisi bu zamonaviy yondashuvlar bo‘ldi. Bizning fikrimizcha kommunikativ yondashuv eng samaralisi hisoblanadi. Buni amaliyotlarda ham qo‘llab ko‘rishimiz mumkun. To‘g‘ri bu kabi tahlillarni bir nechta kishilar tahlil qilgan bo‘lishlari mumkun, lekin biz ham ushbu mavzuni yangicha tahlil qildik hamda mavzuga oid fikrlarimizni keltirdik.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Babanskiy Y.Q. "Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari".- Toshkent: O‘qituvchi. 1990.

2. Nazarov K. "O‘zbek tili punktustsiyasi". - Toshkent: O‘qituvchi, 1976.

3. Ne’matova G. "Ijodiy tafakkurni rivojlantirish texnalogiyasi va o‘quvchining mustaqil faoliyati" ( Ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma). - Toshkent: RTM, 2001.

4. Roziqov O., Og‘ayev S., Maxmudova M., Adizov B. "Didaktika.- Toshkent: Fan, 1997.
5. cyberleninka.ru.

## ERKIN VOHIDOV SHE’RIYATIDA SINONIMLARNING AHAMIYATI

***Karimjonov Sherzodbek Ro‘zali o‘g‘li***
*ToshDO‘TAU Kechki bo‘lim, O‘TA, 305-guruh talabasi*
*sherzodbekkarimjonov0@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Erkin Vohidov she’rlarida ba’zi sinonimlarning izohlari va ma’nolari hamda qo‘llanish jihatlari keltirilib o‘tilgan, shuningdek, ijodkorning sinonim so‘zlardan mohirona qo‘llanganligi, ularning nafaqat she’riyatida, balkim tilshunoslik nuqtai nazaridan ona tilimizning nozik qirralarini, so‘z qo‘llash mahoratini badiiy va ilmiy jihatdan voqeaning mazmunini ilmiy yondashgan holda sodda tilda ochib bera olgan. Adibning ijodiy faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, faqatgina adabiyot sohasida emas, tilshunoslik sohasida ham muhim ishlarni amalga oshirgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunga isbot tariqasida tarjima yo‘nalishidagi faoliyati ham yaqqol na’munadir. Chet el yozuvchi-shoirlarining asarlarini mohirona tarjima qilganlarini, butun o‘zbek tilshunos va adabiyotshunoslari tan oladi.*

**Kalit so‘zlar:** *She’riyat tahlili, til va tilshunoslik, lingvistik qarashlar, sinonimlar ma’nosi, iboralarning ahamiyati, stilistika, semantik munosabat, leksik sath, shakl va mazmun, sinonimlarning lirikadagi o‘rni, she’riyatda so‘z qo‘llash mahorati.*

**Abstract.** *In this article, the explanations and meanings of some synonyms and aspects of their use in Erkin Vahidov's poems are presented, as well as the skillful use of synonyms by the creator, not only in his poetry, but also from the linguistic point of view of our native language. he was able to reveal the subtle aspects, the skill of using words artistically and scientifically, the content of the event in a simple language with a scientific approach. If we look at the creative activity of the writer, it is no exaggeration to say that he did important work not only in the field of literature, but also in the field of linguistics. His work in the field of translation is a clear example of this. All Uzbek linguists and literary scholars recognize that they skillfully translated the works of foreign writers and poets.*

**Keywords:** *Poetry analysis, language and linguistics, linguistic views, the meaning of synonyms, the importance of phrases, stylistics, semantic relationship, lexical level, form and content, the place of synonyms in lyrics, the skill of using words in poetry.*

Dunyodagi barcha tillarning asosini so‘z tashkil etadi. Shuningdek insonlarning nutqi ham aynan shu so‘zlarning qo‘llanilishiga bog‘liq. Nutqimizning ravon bo‘lishi va so‘zlagan so‘zlarimizning takrorlanmasligi uchun so‘z boyligimiz ko‘p bo‘lishi va sinonim so‘zlarni qo‘llashimizga bog‘liq desak mubolag‘a bo‘lmaydi va til birliklarining bir xil ma’noga ega bo‘lish hodisasasi sinonimiya deb ataladi. [1] Sinonimiyaning birligi bir umumiy ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar deyiladi ya’ni, sinonimlardir. Sinonim so‘zlar shunchaki xashamdorlik emas, balki tilning chinakam boyligidir. Sinonimlar so‘zning ma’noli shakllaridan biri bo‘lib, talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma’nosi bir xil bo‘lgan qo‘shimcha ma’no nozikligi, emotsion ma’nosi qo‘llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlar deyiladi. Sinonim so‘zlar xaqida so‘z borar ekan, biz sinonimlarni tilshunoslikda asosan ideografik va stilistik turlarga bo‘lamiz. Yuqoridagi ta’riflarga ko‘ra, sinonimiya asosan semantik ko‘rinish har qanday xolatda ham sinonimlarni belgilash stilistik me’zonlar, boshqa me’zonlar va birikadigan sof semantik me’zonlar asosida amalga oshiriladi. Sinonimlar doim kutilmagan birliklarni yoki logik ma’nolarni beradi, shuning uchun sinonimik takrorlash asarni stilistik jixatdan bezaydi. Ideografik sinonim tarjimon eng to‘n xolatda til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag‘alligi, rangsizligidan qochish uchun foydalanadi. Sinonimlar qator bir necha so‘zdan iborat bo‘lishidan qat’iy nazar unda bir so‘z asosiy shu sinonimik qatorning harakterini belgilovchi so‘z bo‘ladi.[1]

Sinonimlarni o‘rganish dastlab faqat leksik sathda bo‘lib, “..odatda, “bir xil ma’noli so‘zlar”, “bir-biriga yaqin ma’noli so‘zlar”,”yaqin, yoki bir ma’noli so‘zlar”, “uslubiy bo‘yoqlari, qo‘llanish sathlari bilan farqlanuvchi so‘zlar sifatida ta’riflanadi”.

“O‘zbek tilshunosligida sinonimlarga berilgan ta’rifga e’tibor berilsa, ularni belgilashda dastlab leksemalarning ma’no juhatidan bir xilligiga so‘ngra ma’nolarning umumiyligiga, keyinchalik esa ma’noviy o‘xshash(aynan)likka asoslanilgani kuzatiladi”. O‘tgan asrning 70-yillariga qadar sinonimlik ma’noning aynan bir xilligi asosida belgilangan bo‘lsa, 80-yillarga kelib, so‘zning semantik strukturasi bir qancha olimlar tomonidan semik tahlil asosida o‘rganila boshlandi (Sh.Rahmatullayev, H.Ne’matov, E.Begmatov, R.Rasulov shular jumlasidan). Sinonimlik hodisasi ham dastlab leksik sathda o‘rganilgan bo‘lsa-da, keyinchalik morfologik va sintaktik sinonimlar ham mavjudligi aniqlandi. Barcha sathlardagi sinonimlarga quyidagi ta’rifni berish mumkin: “Sinonimlar bir umumiy ma’no-mazmunga ega bo‘lgan, lekin emotsional-ekspressiv hamda funksional jihatdan

[1] SINONIMLARNING TURLARI, O‘XSHASH VA FARQ QILUVCHI JIHATLARINI TASNIFI, Nodira Timur qizi Baltayeva Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti magisrtanti, Meirxan Batirovich Baltayev Toshkent davlat transport universiteti Vagon va vagon xo‘jaligi kafedrasi assistenti

farqlanuvchi til birliklaridir ”. Sinonimlik variantlilikdan farqli ravishda fonetik sathda mutlaqo uchramaydi. Leksik sinonimlar semadagi ma’no bo‘yog‘ining darajalanishi, uslubiy xoslanishi, ba’zan salbiy–ijobiy bo‘yoqqa egaligi bilan farqlanadi. Buni matematik koordinatalr o‘qi orqali quyidagicha ko‘rsatish mumkin.

Sinonimlik o‘zbek tilshunosligida ma’nodoshlik deb ham yuritiladi. Bu atama ko‘proq leksik sinonimlarga nisbatan qo‘llangan. Sintaktik sinonimlar uchun mazmundoshlik atamasini taklif etamiz. Sintaktik sathda sinonimlik hozirgacha shakliy sintaksis tamoyillari bilan tasniflangan bo‘lib, ularda, asosan, morfologik belgi – ko‘rsatkichlar ( ko‘makchi morfemalar va yordamchi so‘zlar) ma’nodoshligi bosh omil hisoblanadi. Sintaktik sinonimlar noverbal vositalar bilan qo‘llanishi mumkin..[2]

Biz hozirgi tilshunoslikka kiritadigan ma’lumotlarimiz tilshunoslikning sinonimiyasini Erkin Vohidovning lirikasida ko‘rib chiqamiz. Erkin Vohidov 1936-yil 28-dekabrda Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanida o‘qituvchi oilasida tug‘ilgan. Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olgan (1955-1960). O‘qishni tamomlagach, turli nashriyotlarda, gazeta va jurnallar tahririyatlarida ishlagan. “Yoshlik” jurnalining birinchi bosh muharriri (1982). yozuvchi emas, adabiyotga o‘zining so‘z mahoratini kiritgan ijodkor sifatida ham millatning xotirasida abadiy yashamoqda.

O‘zbek she’riyatida o‘chmas iz qoldirgan inson, asarlarida so‘z qo‘llash mahoratini yuksak cho‘qqilarga olib chiqa olgan hamda xalqning qalbidan chuqur joy olgan taniqli mashhur ijodkor Erkin Vohidov ijodiga nazar tashlaymiz. Ijodkor nafaqat she’riyatda, balki nasrda ham asarlar yozib, kitobxonlarning muhabbatiga sazovor bo‘lgan.

Isyonkorlik, chorlovchanlik, olishqoq falsafa, teran mushohada she’riyat kemasining yelkani uchun yo‘lchi shamol vazifasini o‘taydi, shiddatiga shiddat qo‘shadi. Ammo bu shiddat ko‘p sonli “oddiy she’rxonlar”ni o‘ziga eliktiruvchi unsurlar – so‘zlar shirasi, tasvir nafosati ifoda nazokati bilan uyg‘unlasha olmas ekan, she’r quruqshoqlanib, qofiyalashtirilgan nasr tusiga kiradi, ta’sir doirasi torayadi, bir to‘p ziyolilardavrasidan nariga o‘tishi qiyin kichadi. Shu ikki muhim jihatni o‘z ijodida omixtalashtirish kamdan kam ijodkorga nasib etgan. Erkin Vohidov she’riyatining qudratiga ham, ommaviyligiga ham, eng avvalo, o‘sha mo‘jizakor uyg‘unlik sababchi bo‘lsa ne ajab?[3]

Tilshunoslikning asosiy termini bo‘lmish sinonimlarni Erkin Vohidovning she’rlari misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Dastlab, shoirning “Kamtarlik haqida” she’rini ko‘rib chiqamiz:

---

[2] O‘ZBEK TILIDA SINONIMIYA TALQINI, Polvonova Bashorat Mirobijonovna Farg‘ona davlat universiteti

[3] To quyosh sochgayki nur, Toshkent – 2018 “O‘zbekiston”

*Garchi shuncha mag‘rur tursa ham,*
*Piyolaga egilar choynak.*
*Shunday ekan, manmanlik nechun?*
*Kibr-u havo nimaga kerak.*

*Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam,*
*O‘tma g‘urur ostonasidan.*
*Piyolani inson shuning-chun,*
*O‘par doim peshonasidan.*

Ijodkorning ushbu she’rini sodda, ravon hisoblanadigan so‘zlashuv uslubida yozgan desak, adashmagan bo‘lamiz, chunki ushbu she’rda Erkin Vohidov hayotda uchraydigan achchiq haqiqatni nasihatdek qilib yozgan. Inson hayotda nimaga erishsa ham, aslida kim ekanligini unutmasligi, yuqori cho‘qqilarga erishgan taqdirda ham, avval kim bo‘lganligini unutmasligi lozim, ushbu jarayonni yozuvchi tushuntirib bermoqchi. Maqsadga o‘tadigan bo‘lsak, ushbu she’rni lingvistik – til vositasida tahlil qilamiz. Ushbu sh’erda qo‘llangan so‘zlarga e’tiborni qaratamiz: Birinchi to‘rtlikda ***mag‘rur*** so‘zi qo‘llangan, bu so‘zimizga sinonim sifatida ***g‘urur***, ***qadr-qimmat*** kabi so‘zlarni olishimiz mumkin. ***Manman*** so‘zi ham ishlatilgan bu so‘zning sinonimlarini esa ***gerdaymoq, kekkaymoq, kalandumog‘, dimog‘dor, kerik, kerilga, takabbur, kibr-havo*** kabi so‘zlar hisoblanadi. Aytishimiz mumkin, nega Erkin Vohidov ushbu so‘zlarning sinonimlaridan foydalanib ko‘rmagan, negaki umuman olganda, tilshunoslik deymizmi, adabiyotshunoslik deymizmi yoki boshqa sohalarga qarasak, ularda emontsional ekspressivlik degan tushuncha bor, shuning uchun ham yozuvchi bir xillikdan qochadida, ko‘proq bu she’rida badiiylikdan chekinadida oddiy uslubdan foydalanishga o‘tadi. Ijodida turli mavzularni mujassamlashtirgan shaxs sifatida nom qozongan shoir-yozuvchi, ommaga tushunarli bo‘lishi uchun bo‘lsa kerak ushbu uslubni qo‘llagan. Ijodkorning yana bir she’riga nazar tashlasak:

*Ufqlarga qo‘yib guldasta,*
*Tog‘ ortidan ko‘tardi-da bosh,*
*Pastga boqdi cho‘qqidan asta*
*Oltin qalam tutgan bir naqqosh.*

*Har nuqtaga sayqal berib u,*
*Vodiy uzra chizdi zar lavha.*
*So‘ng Quyosh deb imzo chekdi-yu,*
*Tongotar deb qo‘ydi sarlavha.*

Shoir ushbu she’rda ***ufq, sayqal, vodiy, chekdi*** kabi so‘zlardan foydalanadi. Hozir ularning sinonimlariga qarab chiqamiz. **Ufq – ma’nosi (yer va osmon tutashgan chegara) sinonimi –yo‘q. Sayqal – *jilolamoq, silliqlamoq, ishlov bermoq, husn bermoq, pardozlamoq, andozalamoq*** kabi sinonimlari mavjud. **Vodiy – *makon, joy, diyor, yer, o‘lka*** kabi sinonimlari bor. **Chekmoq – *qo‘ymoq, bosmoq*** (imzo qo‘yish yoki yozishga oid bo‘lganda qo‘llaniladi) sinonimlari keltirilgan. Bu she’rda adib, tongning ufqda kelishini, songra quyosh ona diyorlarga o‘z nurini sochishi, tong ortishidan toritib quyosh chiqishigacha bo‘lgan voqealarni she’rida chizib bergan. Kun boshlanish nuqtasini o‘z she’rida bayon qila olgan ijodkordir. Yana bir she’riga e’tiborimizni qarataylik:

*O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,*
*Oltin boshning kalla bo‘lgani shudir.*
*Bedil qolib Demyan Bedniyni suysa,*
*Qora sochning malla bo‘lgani shudir.*

*O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,*
*Dod demoqqa palla bo‘lgani shudir.*
*Ma’rifatdan ayru o‘ynasa, kulsa,*
*Aza chog‘i yalla bo‘lgani shudir.*

*O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,*
*Aldangani, alla bo‘lgani shudir.*
*Yulg‘ich aziz bo‘lib, bilgich xor bo‘lsa,*
*Paytavaning salla bo‘lgani shudir.*

*El komil bo‘lmasa, yurt emas ulug‘,*
*Beqadr mahalla bo‘lgani shudir.*
*Qalb to‘la nur xalqning rizqi ham to‘lug‘,*
*Ombor to‘la g‘alla bo‘lgani shudir.*

*O‘zbek o‘zligini anglasa bekam,*
*Uning «Barakalla» bo‘lgani shudir.*
*Olamga Navoiy nasliman degan*
*Ovozi barilla bo‘lgani shudir*.

Shoir ushbu she’rida, **bosh-kalla, suymoq, palla-chog‘, kulmoq, aldamoq, aziz, qalb, xalq, nur, anglamoq, olam** kabi so‘zlarni keltirib o‘tadi. Ularni tahlil qilamiz.

Sinonimlar:

**Bosh** – *kalla; suymoq – yaxshi ko‘rmoq, yoqtirmoq, sevmoq, sevib qolmoq, ko‘ngil bermoq, ko‘ngil qo‘ymoq;* **palla** – *chog‘, vaqt, zamon, muddat, fursat, payt, kez, kezak, mavrid, muddat, dam, on, lahza;* **kulmoq** – *tabassum qilmoq, tirjaymoq, irsahymoq, ishshaymoq;* **aldamoq** – *yolg‘on gapirmoq;* **aziz** – *mo‘tabar, xurmatli, e’zoz, e’zozli;* **qalb** – *ko‘ngil, bahr, dil;* **xalq** – *omma, olamon, aholi, tabo‘;* **nur** – *uchqun, yog‘du, yorug‘;* **anglamoq** – *tushunmoq, uqib yetmoq;* **olam** – *dunyo, jahon.*

Erkin Vohidov har bir she’rida qo‘llaydigan so‘zlarini izohini, ma’nosini va shu she’rga tushishi mumkin bo‘ladigan sinonimlarini to‘g‘ri yo‘naltira olgan shaxs hisoblanadi. Ushbu she’rida, boshqa she’rlarida uchraganidek, emotsional-ekspressivlikni maromida, joy-joyiga qo‘yib yozganiga she’rni tasirlanib, hayajon bilan o‘qishilishidan bilib olish mumkin. Yozuvchi so‘zlardan shunaqangi ishonch bilan yozib, she’riyatni so‘z bilan uyg‘unlata olganki, buni yuqorida Erkin Vohidovga fikr bildirib o‘tgan O‘zbekiston Qahramoni – Abdulla Oripovning ustozga bildirgan fikrlari ham tasdiqlashi mumkin. Erkin Vohidovning asarlarida nafaqat mana shunday so‘z mahorati borligini, balkim tilshunoslikda uchraydigan sinonimiyaning yaqqol na’munlalarini uchratishimiz mumkin. Bunda yozuvchi adabiyot yo‘nalishini bilibgina qolmay, tilshunoslikdan ham xabari borligi, asarlarida qo‘llagan takrorlanmas so‘z boyligidan ham payqaash qiyin emas. Erkin Vohidov ana shunday noyob iqtidor egasi, kuchli so‘z ustasi edilar.

Yozuvchi Erkin Vohidov o‘tkir qalam sohibi, o‘zbek millatining chinakam tom ma’nodagi she’riyatga poydevor qo‘ygan shaxslardan edilar. Shoirning hayot yo‘llariga e’tibor qaratilsa, ko‘plab qiyinchiliklarga qaramasdan, o‘z maqsadi yo‘lidan chekinmay, o‘z ijodigan ishongan holda, millatni o‘zining yuksak mazmun va mohiyatiga ega she’rlari bilan ta’sir qila olgan, xalqning yuragidan chuqur joy egallagan olim sifatida e’tirof qilsak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Adibning asarlaridan biz ma’naviy va ilmiy ko‘nikmalar olishimiz mumkin, she’rlarini tahlil qilar ekanmiz, undagi so‘zlarning izohini bizning ongimizga tushunarli bo‘lishi uchun so‘z o‘zagi manodosh va shakldoshligi, emotsional-ekspressivlik ta’sirining to‘g‘ri yondashtirilishini aks ettirolgan ijodkor sifatida xotiramizda yashab kelmoqda. Biz, ilm yo‘lidagi tadqiqotchilar, Erkin Vohidov kabi ijodkorlardek izlanuvchanlik, targ‘ib qilish mahorati, so‘z qo‘llashdagi uslublarni, ko‘nikmalarni mujassamlashtirish uchun qattiq mehnat qilishimiz shart va majburdir.

Erkin Vohidov adabiyotshunos bo‘libgina qolmay, tilshunoslik sohasini ham yaxshi tushunganini uning asarlaridagi so‘z qo‘llash mahorati orqali ham bilib olish mumkin. Ko‘p zamonaviy shoir va yozuvchilar so‘zlarmni takror qo‘llashayotganini kuzatamiz, shunda jiddiy xatoga yo‘l qo‘ymasliklari uchun ham lingvistikani yaxshi o‘rganmoqliklari kerak deb o‘ylayman. Erkin Vohidov she’rlari orqali she’riyatda uchraytgan muammoni balkim atofimizda kuzatayotganimiz imloviy, uslubiy xatolarni tuzatish uchun vosita sifatida keltirdik. Ushbu qo‘llanma orqali biz o‘z Ona tilimizni yaxshi o‘rganishimiz lozimligi va boshqa tillarni o‘zbek tiliga qorishtirib, uslubiy xatoga yo‘l qo‘ymasligimiz, mazmunni jozibali qilish uchun ko‘proq so‘z boylikka ega bo‘lishimiz asosiy vazifa qilib belgilangan. Qolaversa, maqolada chet so‘zlarni kundalik hayotda ona tilimiz bilan qorishtirib yubormasligimiz, bunga jiddiy yondashishimiz kerakligi yoritilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “To quyosh sochgayki nur”, Erkin Vohidov:hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida, “O‘zbekiston” Toshkent – 2018.
2. O‘zbek tilida sinonimiya talqini, Polvonova Bashorat Mirobijonovna Farg‘ona davlat universiteti.
3. Muzaffarova Zarrina. Milliy ruhiyat ifodasida ma’nodosh so‘zlardan foydalanish (Erkin Vohidov she’riyati misolida).
4. Azim Hojiyev, O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati, “O‘qituvchi nashriyoti” Toshkent – 1974.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
6. Mamatov, A. (2020). ANTONIMIYA ASOSIDA FRAZEOLOGIK SHAKLLANISH MASALALARI. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Смиринцкий А.И. Синтаксис английского языка. – M., 1957 3. Tursunov U., Muxtorov J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T., 1975.
8. M. A. Yusupova. KGK Jumanova. The use of source language in teaching foreign languages. Science and Education 2 (5), 765-767. 2021.
9. Турсунов С ва бошқалар. Хозирги ўзбек адабий тили–Тошкент. 1992

## BOLALAR VERBAL ASSOTSIATSIYALARINING AYRIM PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

***Mirnosirova Dilbar Nodirbek qizi,***
ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
1-kurs magistranti
mirnosirovadilbar@gmail.com

**Annotatsiya:** *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida so‘z va gap ko‘rinishida voqelanuvchi assotsiatsiyalarning deyktik xususiyatlari, ularda nutqiy akt ko‘rinishlari, xususan propozitsional hamda illokutiv akt turlarining ifodalanishi, ayrim verbal assotsiatsiyalar orqali pressuppozitsion axborotning berilishi haqida fikr yuritilgan. Pragmatik tahlillarda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi ustida o‘tkazilgan assotsiativ tajriba materiallariga tayanilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *assotsiatsiya, verbal assotsiatsiya, stimul, reaksiya, pragmatika, nutqiy akt, metaforik deyksis, propozitsional akt, illokutiv akt, pressupozitsiya.*

**Abstract:** *The article discusses the deictic features of verbal associations in the form of words and sentences in the speech of preschool children, the manifestations of speech acts in them, in particular, the representation of propositional and illocutionary acts, and the provision of presuppositional information through some verbal associations. Pragmatic analyzes are based on the materials of associative experiments conducted on the speech of preschool children.*

**Keywords:** *association, verbal association, stimulus, reaction, pragmatics, speech act, metaphorical deixis, propositional act, illocutionary act, presupposition.*

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi serqirraligi, bir vaqtning o‘zida turli til hodisalarining voqelanishi bilan kattalar nutqidan farqlanib turadi. Mazkur yosh davri bola lisoniy ongi, dunyoqarashi shakllanishi, lug‘at boyligining jadal sur’atlarda ortib borishi bilan xarakterlanadi. Bolaning dastlabki muloqotga kirishuv jarayoni ham aynan shu davrda kuzatiladi. Bu jarayonga tildagi lisoniy o‘ziga xosliklar bilan birga ijtimoiy hayotdagi hodisalar, bolani o‘rab turgan tashqi muhit omili ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Nutqi muayyan darajada shakllanib, o‘z ehtiyojlarini so‘z orqali erkin ifodalay olish qobiliyatiga ega bo‘lgan bolaning kommunikativ faoliyatida endilikda gapda ifodalanayotgan mazmunga qo‘shimcha ma’no yuklash, fikrni yashirin tarzda, muayyan leksema orqali bir necha tushunchani ifodalash ko‘nikmasi shakllanadi. Mazkur holat bir-birini yodga solish mexanizmi asosida yuzaga keluvchi verbal assotsiatsiyalarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Tajribalar davomida ma’lum bo‘ldiki, bola tomonidan stimul so‘zga nisbatan gap yoki so‘z birikmasi shaklidagi sintaktik qolip asosida berilgan javob reaksiyalarida predmet yoki shaxsga ishora qilish, tinglovchiga nutqiy ta’sir ko‘rsatish maqsadida til birliklaridan vaziyatga mosini tanlash yoki muayyan bir fikr orqali yashirin axborot berish holatlari ko‘proq kuzatiladi. Masalan, 5 yoshli Muslimaliyeva Muslima bilan suhbat davomida u *ayyor* stimuliga nisbatan ***“tulki bo‘ladide hammani aldiydi”*** javob reaksiyasini taqdim etdi. *Ayyor* stimulini eshitganda bola lisoniy xotirasida, dastavval, u eshitgan ertaklarda ushbu xususiyatga ega jonzot sifatida tasvirlanuvchi tulki obrazi hamda unga xos bo‘lgan

aldash harakati qayta tiklandi. Bu o‘rinda bola *tulki* so‘zi orqali *ayyor*ga ishora qilgan hamda metaforik deyksis shakllangan. Bolalar nutqida metaforik deyksisning ifodalanishini leksik assotsiatsiyalar misolida tadqiq qilgan olima M.Qurbonovaning xulosalariga ko‘ra, ko‘p ertak eshitgan, ertak asosida yaratilgan multfilmlarni ko‘rgan bola metaforik deyksisni hosil qilishda ularda ishtirok etgan asosiy qahramonlarga xos jihatlarga asoslanadi. Chunki ertak va multfilmlar orqali bola xotirasida yorqin saqlanib qolgan voqelik assotsiativ tabiatiga ko‘ra obrazli tafakkur tarzi uchun xizmat qiladi (Qurbonova, 2016, 333-bet). Mazkur holat 6 yoshli Mullaboyeva Habiba tomonidan *askar* so‘ziga berilgan ***yuziq yopiq narsa*** javob reaksiyasida ham kuzatildi. Bizningcha, bu holat bevosita tashqi omillar bilan bog‘liqdir. Mazkur yosh davrida bolalarning jangari mazmundagi kompyuter o‘yinlarini o‘ynashga qiziqishi hamda deyarli 30%, 40% miqdordagi vaqtini ushbu turdagi virtual o‘yingohlarda o‘tkazishi mavjud hodisalar mohiyatining ular tomonidan o‘zgacha talqin qilinishiga olib kelmoqda. Aksariyat hollarda jangari mazmundagi kompyuter o‘yinlari orqali askar shaxs qiyofasi niqobli tarzda tasvirlanadi. Bu holat bolalar nutqida ko‘rish sezgisi vositasida hosil bo‘lgan shaxs deyksisining yuzaga kelishi, yuzi yopiq narsa birikmasi orqali askarga ishora qilinishida asosiy omil sanaladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida shaxs, narsa-predmetga ishora qilish mazmunidagi verbal assotsiatsiyalar bilan birga stimul so‘zga nisbatan nutqiy aktlar, xususan, propozitsional akt orqali berilgan javob reaksiyalari ham salmoqli o‘rinni egallaydi. Propozitsional akt zamirida so‘zlovchining tasdiq yoki inkor mazmunidagi axboroti yotadi. Sh.Safarovning fikricha, gap ma’nosining asosini tashkil qiluvchi propozitsiya voqelikda yoki tasavvurda kechayotgan hodisa-faktning semantik ramzidir (Safarov, 2018, 101-bet).

Darhaqiqat, bu holat bir-birini yodga soluvchi stimul-reaksiya asosida shakllangan assotsiativ birliklarda ham ko‘rinadi. Kuzatishlarimiz davomida ma’lum bo‘ldiki, assotsiativ tajriba jarayonida sinaluvchilar tomonidan taqdim etilgan stimul so‘zga nisbatan tasdiq yoki inkor mazmunidagi gap sintaktik qolipiga ega til birligi vositasida reaksiya bildirilishi nafaqat bolalar, balki kattalar nutqida voqelanuvchi assotsiativ birliklarning ham o‘ziga xos jihati sanaladi. O‘zbek tilidagi 100 ta milliy-madaniy birlik bo‘yicha til egalari xotirasida tiklangan 42645 ta javob reaksiyasini o‘z ichiga qamrab olgan “O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati”da bu holat yaqqol kuzatiladi. (Qarang: Lutfullayeva va b., 2019). Gap strukturasiga ega javob reaksiyalarida muayyan stimul bo‘yicha sinaluvchining tasavvuri yoki xotirasida qayta tiklangan hodisa mohiyati o‘z aksini topadi. Biroq bolalar nutqida kuzatiladigan gap shaklidagi assotsiativ birliklar lisoniy xotirada tiklangan ilk tushunchani bayon etish orqali voqelanishi, bolada fikrini asoslash yoki tinglovchiga

nutqiy ta’sir ko‘rsatish ehtiyoji tug‘ilishi tufayli yuzaga kelishi bilan farqlanib turadi. Fikrimizni 200 nafar 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining *o‘rmon* stimuliga nisbatan bergan javob reaksiyalari ham tasdiqlaydi. Tajriba natijalarining struktur jihatdan statistik tahliliga ko‘ra, sinaluvchilar tomonidan mazkur stimulga jami 189 ta javob reaksiyasi taqdim etilgan bo‘lib, shundan 77 tasi so‘z, 12 tasi so‘z birikmasi hamda 96 tasi gap shaklidagi sintaktik butunlikdir. Ushbu statistik tahlilni quyidagicha ifodalash mumkin:




Gap shaklidagi javob reaksiyalarining 92 tasi tasdiq, 4 tasi inkor mazmundagi propozitiv aktni yuzaga keltirgan. Masalan, ***“o‘rmonda hayvonlar bo‘ladi”, “hamma narsa yuradi”, “o‘rmonda barcha hayvonlar yashaydi”, “bo‘rilar yeb tashiydi”*** gapi orqali o‘rmon haqidagi tasdiq mazmuniga ega axborot ifodalangan bo‘lsa, ***“o‘rmonga bormiyman”, “yo‘qolib qosa topomidi”*** kabi ifodalar orqali inkor mazmunidagi axborot berilmoqda. Pragmalingvistika doirasida olib borilgan tadqiqotlarda propozitsional akt murakkab tuzilishga ega bo‘lib, unda bir necha akt turlarining qorishuvini kuzatish mumkinligi to‘g‘risida ilmiy xulosalar beriladi (Qurbonova, 2018, 38-bet). Shunga ko‘ra, bolalar tomonidan stimul so‘zga nisbatan gap shaklida berilgan propozitsional akt mazmunidagi javob reaksiyalarida ham illokutiv, perlokutiv aktning uchrashini kuzatish mumkin. Masalan, 5 yoshli Yoqubjonov Muhammadjonning yuqorida ta’kidlangan o‘rmon stimuliga nisbatan ***“o‘rmonda yovuz odamlar bo‘ladi”*** javob reaksiyasida tasdiq mazmuni bilan birga tinglovchiga o‘rmonda yovuz odamlar bo‘lishi, u yerga borish inson uchun xatarli ekanligi haqidagi axborotni berish niyati ham mavjud. Ushbu kommunikativ maqsad bola nutqida illokutiv aktning voqelanganligini ko‘rsatadi. Bu o‘rindagi assotsiativ bog‘liqlik leksemalarning makondagi aloqadorligi, ya’ni bola tomonidan yovuzlik xususiyatiga ega odam o‘rmonda bo‘ladi deb idrok etilishi asosida yuzaga kelgan. Xuddi shu so‘zga nisbatan 6 yoshli Rayona Aziz qizining ***“o‘rmonga kemela, uyog‘***

***qorong‘u”*** shaklida bergan javob reaksiyasida esa o‘rmonning qorong‘uligi haqidagi xabar akti bilan bir qatorda u yerga bormaslik haqidagi ogohlantirish akti ham ifodalangan.

Bola 5-6 yoshga yetganda nutqidagi har bir fikrni eksplitsit tarzda, ya’ni ochiq ifodalashdan implitsit shaklga o‘ta boshlashi, voqea-hodisa, shaxs, narsa-predmetga nisbatan subyektiv, pragmatik bahosini berishi kuzatiladi. Chunki mazkur davrga kelib, bola lisoniy ongida gap va so‘z birikmasi qoliplari muayyan darajada shakllanib ulgurgan bo‘ladi. Assotsiativ birliklar tahlilida ayni shu jihat e’tiborimizni tortdi. 6 yoshli Qodirberganov Umrbek bilan o‘tkazilgan assotsiativ tajriba davomida u *ayyor* stimulini eshitganda “***hamma narsani o‘g‘irlaydi”*** deb javob berdi. Bu o‘rinda bolaning ***“ayyor odam narsalarni o‘g‘irlaydigan bo‘ladi”*** mazmunidagi yashirin axboroti bilan birga sinaluvchining stimul so‘zga nisbatan salbiy baho munosabati o‘z ifodasini topgan. Ushbu baho salbiy ma’no ottenkasiga ega *o‘g‘irlamoq* so‘zi vositasida namoyon bo‘lgan. *Avtobus* so‘ziga nisbatan 5 yoshli Ergashev Javohir tomonidan taqdim etilgan “***avtobusdachi adam keladila”*** reaksiyasida ham yuqoridagi kabi yashirin axborot berish holati kuzatiladi. Bu o‘rinda bola ***“adam avtobusda yuradila”*** tarzidagi presuppozitsion axborotni uzatishga harakat qilgan. Ammo bu o‘rinda presuppozitsiyani yuzaga keltirgan vosita til birligi emas, balki hodisalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikdir. Shu bois, ushbu o‘rindagi yashirin axborotni mantiqiy presuppozitsiya sifatida baholash hamda uni til birligi vositasida voqelangan lingvistik presuppozitsiyadan farqlash lozimligi haqidagi xulosaga kelish mumkin. E’tiborli jihati shundaki, mazkur o‘rinda bola ifodalanayotgan fikrning ta’sirchanligini oshirish maqsadida *-chi* ta’kid yuklamasidan foydalangan hamda buning natijasida nutqiy konnotatsiya hodisasi yuzaga kelgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bolalar kommunikativ faoliyatida voqelanuvchi assotsiativ birliklar ishora mazmuniga ega bo‘lishi, muayyan voqea-hodisa haqida tasdiq yoki inkor hukmni berishi yoki o‘zida yashirin axborotni tashishi mumkinligi bilan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining pragmatik jihatdan qator o‘ziga xosliklarga egaligini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**


1. Lutfullayeva, D. Davlatova, R. Tojiboyev, B. (2019). *O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati.* Toshkent: Navoiy universiteti. 332 b.
2. Сафаров, Ш. (2008). *Прагмалингвистика.* Тошкент. 317 б.
3. Қурбонова, М. (2016). *Болалар нутқида метафорик дейксиснинг ифодаланиши (Ўзбек болалари нутқига хос лексик ассоциациялар мисолида)*. Хорижий тилларни ўқитишнинг бугуни ва эртаси. Илмий-амалий анжуман материаллари. ЎзДЖТУ. 332-334-б.

4. Қурбонова, М. (2018). *Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари.* Филол. фан. д-ри ... дисс. Тошкент. 240 б.

## XV - XIX ASRLAR O‘RTALARIDA LUG‘ATCHILIK

***Nasirulloyeva Nigora Nasirullo qizi***
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs*
*nigoranasirulloyeva17@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada o‘zbek lug‘atchiligining tarixi, lug‘at maqolalarini joylashtirish tamoyillari, Alisher Navoiy asarlariga bag‘ishlangan lug‘atlar hamda o‘zbek tilshunosligida XV - XIX asarlar o‘rtasida yaratilgan lug‘atlar haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Leksikografiya, lug‘atchilik, “Badoyi ul - lug‘at”, “Abushqa”, “Sangloh”, “Maboni ul-lug‘at”.*

**Abstract.** *This article discusses the history of Uzbek lexicology, the principles of placing dictionary articles, dictionaries dedicated to the works of Alisher Navoi, and dictionaries created in Uzbek linguistics between the 15th and 19th centuries.*

**Keywords:** *Lexicography, dictionary, “Badayi ul-lugat”, “Abushqa”, “Sangloh”, “Maboni ul-lugat”.*

Ma’lumki, o‘zbek tilini ilmiy asosda o‘rganishga oid ilk ma’lumotlar leksikografiya sohasidagi qadimgi lug‘atlarda kuzatiladi. Mahmud Koshg‘ariy XI asrdayoq turkiy so‘zlar boyligini arab tilida izohlab bergan bo‘lsa, bu an’ana keyingi davrlarda ham Tole Imon Hiraviyning “Badoyi ul-lug‘at” (XV asr), Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma” (XVII asr), Muhammad Rizo Xoksorning “Muntahab ul-lug‘ot” (XVIII asr), Mirzo Mehdixonning “Sangloh” (XVIII asr), Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” (XIX asr) hamda muallifi noma’lum bo‘lgan “At-tuhfat uz-zakiyati f-il-lug‘at it-turkiya” (XIII asr), “Abushqa” (XVI asr) kabi turkiy lug‘atchilikning ko‘plab noyob durdonalari yaratilishi bilan davom etib keldi. Bu lug‘atlar ko‘pgina olimlar tomonidan o‘rganildi va hozirda ham bu lug‘atlarni o‘rganish davom etib kelmoqda. Ammo yetarlicha o‘rganilmagan lug‘atlar ham yo‘q emas.

“Lug‘at” – arabcha, *“til”, “sheva”, “lahja”, “so‘z”, “ibora”* kabi ma’nolarni bildiradi. Leksikografiya – lug‘at va uning tuzilishi, yaratilish tamoyillari haqidagi bilim - ta’limot, “lug‘atchilik” deb ham yuritiladi. Aslida leksikografiya va lug‘atchilik tushunchalari farqlanadi. *Leksikografiya* lug‘at tuzish nazariyasini, *lug‘atchilik* lug‘at tuzish amaliyotini ifodalaydi.

Leksikografiya bevosita leksikologiya bilan aloqador. Leksikada so‘zning lug‘at tarkibi, iste’mol darajasi, nutq, uslub hamda shakl va mazmunga bo‘lgan munosabati o‘rganiladi.

Turkiy tilda dastlabki yozilgan lug‘at **Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”** asaridir. Davr nuqtayi nazaridan yuqori darajada baholangan, haqiqattan, o‘ta noyob bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) asarining yaratilishi ham o‘ziga xos tarixga ega. Bu lug‘atning yaratilishi uchun hind va arab tilshunosliklari doirasida yaratilgan ko‘pgina qadimgi lug‘atlar, masalan, **Sibavayhiyning “Al Kitob”** asari, **Halil al Faraxidinning “Ayna kitobi”, Firuzabodiyning** 60 yoki 100 jildlik lug‘ati yoki **“Qomus”** asari kabi boshqa asarlarning manba bo‘lganligini qayd etish kifoya. Mahmud Koshg‘ariyning o‘zi “Devon”ning yaratilishida **Xalil ibn Ahmadning “Kitob ul-ayn”** asaridan foydalanganligini qayd etadi.

Turkiy leksikografiyada dastlabki lug‘atlar XI-XII asrlarda yaratilgan bo‘lsa, Yevropada, xususan, Rossiyada lug‘at tuzish ishlari XVII asrlardan boshlangan. Lug‘atlar o‘z navbatida 2 turga bo ‘linadi:

1) Filologik(lingvistik)

2) Ensiklopedik(qomusiy)

Har ikki lug‘at tipi turli jihatiga ko‘ra, yana ichki guruhlarga ajratiladi. Jumladan, lingvistik lug‘at turli maqsadda tuzilganligiga ko‘ra alohida turlarga ajratiladi:

1) umumiy lug‘at - umumiy lug‘atda barcha so‘zlar keltiriladi.

2) xususiy (maxsus) lug‘atda esa ma’lum bir sohaga oid so‘zlar keltiriladi.

Navoiy asarlariga qiziqish natijasida bir qator lug‘atlar paydo bo‘ldi. Masalan, Toli Imon Hiraviyning **“Badoyi ul- lug‘at”; “Sangloh”, “Lug‘ati atrokiya”, “Xulosayi Abbosi” (“Sangloh”ning qisqa varianti), “Muntahab ul - lug‘at”, “Abushqa”** va boshqalar.

**“Badoyi ul-lug‘at”** asari 1500-yil (XV asr) da Sulton Husayn Boyqaro buyrug‘i bilan Toli Imon Hiraviy tomonidan yozilgan. Ushbu lug‘at o‘zbekcha - forscha lug‘atdir. Unda 1000ga yaqin so‘z va iboralar izohlab berilgan. Asar hajmi 180 betni tashkil etadi. Lug‘atda ot, sifat, son, olmosh, bosh kelishikdagi so‘zlar hamda fe’lning “masdar” shakli qo‘llanilgan. Har bir so‘zning tovush tuzilishi, uning ma’nosi va grammatik xususiyatlari aks etgan. Grammatik izohdan so‘ng etimologik izoh o‘rin oladi. Masalan, lug‘atda *adash* so‘zining etimologiyasi haqida gapirib aslida *addash* bo‘lgani, keyinchalik bir “dol” tushib qolganini ta’kidlaydi. Shuningdek *ishton* so‘zi “*ich to‘n”* birikmasidan paydo bo‘lgan. Muallif misol keltirganda Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, ”Majolis un-nafois”, “Xamsa” tarkibidagi besh doston hamda “Chor devon”dan keng foydalangan. Lug‘atda Lutfiy, Husayn Boyqaro she’rlaridan, Mir Haydarning “Mahran ul-asror” asarlaridn ham misollar keltirilgan. Turkiy so‘zlar ichida arab tiliga xos ayrim tovushlar bilan boshlanuvchi so‘zlarning uchramasligi sababli boblarning soni 24tani tashkil qilgan. “Badoyi ul-lug‘at” chig‘atoy turkchasi

xususan Navoiy asarlari bo‘yicha tuzilgan bo‘lsa ham o‘g‘uz lahjasiga xos xususiyatlar mavjud. Asar nusxalari 2ta bo‘lib, biri Erondagi Sipohsolor kutubxonasida, ikkinchisi esa Sankt-Peterburg kutubxonasida saqlanadi.

**“Abushqa”** – chig‘atoycha - turkcha izohli lug‘at hisoblanadi. XVI asrda Turkiyada yozilgan. Lug‘atda asosan Navoiy zamondoshlarining asarlaridan foydalanilgan. Lug‘at tuzishda esa “Badoyi ul-lug‘at” asariga tayanilgan. O‘ndan ortiq nusxalari bo‘lib, nasta’liq xatida yozilgan. Asar hajmi 201 varaq ya’ni 402 betni tashkil etadi. 2000ta leksema izohlangan. Birinchi marta qisqartirigan holda G.Vamberi tomonidan nashr etilgan. Keyinroq Velyaminov Zernov tomonidan fransuz tilida kirish so‘zi bilan Sankt - Peterburgda 1869-yilda nashr etilgan. Velyaminov Zernov fikricha, lug‘atni ko‘chirgan kotib lug‘at nomini “*al-lug‘at an-navoiya va-l-istish-hodot al-chig‘atoiyya*” deb nomlangan. Keyinchalik Yevropa olimlari tomonidan “Abushqa” ya’ni lug‘atning ilk so‘zi bilan atala boshlangan. Abushqa - keksa, qari, nuroniy chol degan ma’nolarni bildiradi. Lug‘at 2054 ta so‘z va so‘z formalarini o‘z ichiga oladi. Bu so‘zlar 21 bobga bo‘lingan. Boblar so‘zlarning ilk harfi nomi bilan nomlangan. Masalan, “al-harf al-alif”, “al-harf-al-bo” va hk.

O‘zbek leksikografiyasiga oid bunday lug‘atlar dastlab Ovro‘pa olimlarining diqqatini tortdi. Ular yuqoridagi lug‘atlarning ko‘pini nashr etdilar. Jumladan, “Abushqa” lug‘atini G.Vamberi (1862) va V.V.Velyaminov-Zernov(1869); “Badoyi ul-lug‘at” asarini esa A.K.Borovkov (1961) nashr qilishgan. B.Hasanovning ta’kidlashicha, Alisher Navoiy asarlari asosida tuzilgan lug‘atlarda leksikograflar ko‘proq eski o‘zbek tiliga xos so‘zlarni tanlab olishga harakat qilgan. “Sangloh” va “Lug‘ati atrokiya”ga bir muncha arabcha va forscha so‘zlar ham kiritilgan. Eski o‘zbek tili so‘zlari deb olingan leksemalar ichida ham o‘zbek tiliga o‘zlashib “o‘z so‘zi”ga aylanib ketgan bir qator so‘zlar uchraydi. J.Klosonning hisobiga ko‘ra, “Sangloh” lug‘atida mo‘g‘ul, fors, arab va boshqa tillardan o‘zlashgan 970ga yaqin leksik birliklar mavjud.

Alisher Navoiy asarlari asosidagi lug‘atlarda arab alifbosi asosida har qaysi harfga bir nechta so‘z to‘plangan va muayyan harf ostida to‘plangan so‘zlarni *kitab,* “Abushqa”da *ba:b* deyilgan. Har qaysi kitob so‘zning birinchi bo‘g‘inidagi unlining xususiyatiga muvofiq uch bobga bo‘lingan. Bunda unlining maxsus harf bilan ifodalanish yoki ifodalanmasligi ahamiyatsiz bo‘lgan. “Sangloh”, “Badoyi ul-lug‘at”larda lug‘at maqolasida fe’llar -maq, -mak shakllarida, otlar esa bosh kelishik, birlik shakllarda beriladi. So‘zlarni alifbo tartibida joylashtirish uchun barcha harflar e’tiborga olinadi. Fe’l va ot o‘zaklaridan hosil bo‘lgan turli shakllar bu so‘z ostida birlashtiriladi. Masalan, Ash-: ashmak, ashurmak, ashamak, ashatmak, ashukmak, ashukturmak, ashlamak, ashlanmak va hk.

Navoiy asarlari yuzasidan yaratilgan lug‘atlar ichida “Sangloh” lug‘at maqolalarini joylashtirishda izchil va puxta tamoyilga bo‘ysunadi. B.Hasanovning kuzatishiga ko‘ra “Sangloh”da lug‘at maqolalari quyidagi sxema asosida joylashtiriladi:

1. Sarlavhaga chiqarilgan so‘z.
2. Sarlavhaga chiqarilgan so‘zning fonetik va orfografik izohi va undan hosil qilingan shakllar.
3. Sarlavhaga chiqarilgan so‘z va undan hosil qilingan shakllarning grammatik tavsifi.
4. So‘zning etimologiyasi.
5. Sarlavha so‘z va undan hosil qilingan shakllarning semantik tahlili.
6. Sarlavha so‘z va undan hosil qilingan shakllarning semantik tavsifini tasdiqlovchi materiallar.
7. Sarlavha so‘z va undan hosil qilingan shakllar ma’nolarining rumiy(turk), arab, fors va boshqa tillarda ifodalanishi.
8. O‘zidan oldingi mualliflar fikrlariga munosabati.
9. Ilovalar.

Grammatik nutayi nazardan sarlavha so‘zlar deyarli barcha so‘z turkumlarini o‘z ichiga oladi. “Sangloh” lug‘atida fe’llar so‘z turkumlariga nisbatan ko‘proq sarlavha so‘zga chiqarilgan. So‘zni tog‘ri o‘qish uchun sarlavhaga chiqarilgan so‘zning fonetik tavsifi katta ahamiyatga ega. Arab leksikografik an’anasida Qur’on so‘zlarini tog‘ri talaffuz qilishga alohida e’tibor berilganligi uchun puxta fonetik tavsiflash tizimi mavjud bo‘lgan. O‘zbek leksikograflari ham arab leksikograflarining bu an’anasidan ijodiy foydalangan. Sarlavha so‘zdan so‘ng so‘zni tog‘ri o‘qish uchun *bi-fatx, bi-kasr va bi-zammdan* biri beriladi. Bir so‘zni qo‘riqchi, qiroqchi, quruqchi emas, balki qaroqchi deb o‘qish faqat so ‘zdan keying bi-fatx fonetik izohi orqali amalga oshadi. O‘zbek leksikograflari sarlavha so‘ziga fonetik izoh bergandan so‘ng grammatik izoh ham berganlar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘zbek lug‘atchiligi uzoq tarix va boy an’analarga ega. O‘zbek lug‘atchiligi tarixida yaratilgan lug‘atlar o‘sha davrda yaratilgan buyuk allomalarimizning noyob asarlari haqida qimmatli ma’lumotlar beruvchi asarlardir. Asrlar silsilasidan bardavom o‘tgan bunday lug‘atlarning ahamiyati kundalik turmush tarzimiz qolaversa, adabiy jamoatchik uchun yuksak o‘rin kasb etadi. “Badoyi ul-lug‘at” Navoiy asarlariga tuzilgan ilk lug‘at bo‘lsa, “Abushqa” eng keng tarqalgan lug‘atdir. Yuqoridagi lug‘atlarda qo‘llangan so‘zlar hozirda ham ma’lum bir o‘zgarishlar bilan qo‘llanilib kelinmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu lug‘atlar hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Til imkoniyatlarining boyligini yorqin aks ettiruvchi har qanday asar, lug‘atchilik

tizimida bo‘ladimi badiiy asar bo‘ladimi kelajak avlod rivoji uchun o‘ziga xos manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Abdushukurov B. O‘zbek tili tarixi.(2021). Toshkent: Nodirabegim.
2. Abenova A, Sotimboyeva D. “ “Abushqa” lug‘atining tuzilishi va leksikografik xususiyatlari”. (2023). Journal of new country innovations.
3. Elmurodov A. “Badoyi al-lug‘at asarining o‘ziga xos xususiyatlari”. Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta’lim texnologiyalari.
4. Normamatov S. Leksikografiya asoslari. (2021). Toshkent: Nodirabegim.
5. Содиқов Қ. Тарихий лексикография. (2011). Тошкент.
6. www.tafakkur.net.
7. www.ziyo.uz.


## SOTSIOLINGVISTIKANING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA ULARNING TAHLILI


***Normatova Solihabonu Nodirjon qizi***

*O‘zDJTU 2-bosqich talabasi*

*Normatovasolixa02@gmail.com*



**Annotatsiya**:*Bugungi zamonda ta’limga bo‘lgan e’tibor kundan kunga oshib borar ekan, ta’lim tizimida yangi fanlar ham paydo bo‘la boshlaydi. Mana shunday fanlardan biri bu tilning jamiyatdagi o‘rni va qo‘llanilishini o‘rganuvchi soha sotsiolingvistika ya’ni ijtimoiy tilshunoslikdir. Til jamiyatning ajralmas bo‘lagi ekanligi va ushbu tilning insonlar hayotida qay darajada ahmiyatga ekanligi, ijtimoiy tilshunoslik sohasini obyekti, fanning muammolari maqolada yoritib o‘tiladi. Ushbu maqolada sotsiolingvistikaning turli yo‘nalishlari borasida so‘z yuritiladi. Sotsiolingvistikaning predmeti, obyekti, fan sifatida rivojlanib borishi to‘g‘risida fikr-mulohazalar yuritiladi hamda sotsiolingvistikaning tilshunoslik sohasiga qo‘shgan hissalari keltirib o‘tiladi.*



**Kalit so‘zlar:** *sotsiolingvistika, tilshunoslik, sotsiolingvistikaning obyetkti, sotsiolingvistikaning predmeti, tilshunos olimlar, makro lingvistika, mikro lingvistika*



**Annotation:***Today, as the demand for education is increasing day by day, new subjects are beginning to appear in the field of education system. One such science is sociolinguistics, that is, social linguistics, which studies the place and the use of language in society. The fact that language is an integral part of society and how important this language is in people’s lives, the object of sociolinguistics, the problems of this science are highlighted in the article. This article talks about different directions of sociolinguistics. Opinions on the development of*

*sociolinguistics as a subject, objects, and science are discussed, and the contributions of sociolinguistics to the field of linguistics are cited.*

**Key words:** *sociolinguistics, linguistics, objects of sociolinguistics, subject of sociolinguistics, linguists, macro linguistics, micro linguistics.*

Sotsiolingvistika haqida gap yuritar ekanmiz, avvalo ushbu sohaning maqsad va vazifalarini, nimalarni o‘rganishini bilib olishimiz zarur bo‘ladi. Ushbu fan tilshunoslik fanidan farqli ravishda til va uning jamiyat, ya’ni insonlar hayotida tutgan o‘rni haqida, tilning ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liqligi haqida o‘rganadi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu tilda so‘zlashayotganlar yoshi, mavqeyi, qaysi guruhga mansubligi, ushbu jamiyatning strukturasi va shu kabi bir qator vazifalar o‘rganiladigan sohadir. Bundan ko‘rinib turibdiki, sotsiolingvistika fani tilning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, jamiyatda sodir bo‘layotgan hodisalarning va ijtimoiy omillarning tilga bo‘lgan ta’siri va tilning ijtimoiy tabiatini o‘rganadi. Masalan, “dumini tugmoq” birligi tilshunoslik fanida ot hamda fe’lning qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan frazeologik birlik sifatida o‘rganilsa, sotsiolingvistika fanida esa ushbu birlik qaysi tabaqa vakillari orasida ishlatilishi, uning jamiyatdagi insonlarga bo‘lgan ta’siri va shunga o‘xshash yuqorida sanab o‘tilgan yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rganuvchi tilshunoslik sohasidir. Ushbu soha tarixiga nazar tashlar ekanmiz, “Sotsiolingvistika” atamasi ilk bor fanga 1952-yilda sotsiolog olim G. Currie tomonidan kiritilgan. Dastlab sotsiolingvistika sohasiga oid turli qarashlar J.A. Fishmanning “Readings in the society of language” asarida ko‘plab tilshunoslar, sotsiologlar, muloqot sohasidagi ko‘plab mutaxassislarning fikrlari orqali bayon etildi. Ammo bu bilan sotsiolingvistika sohasining ijtimoiy tabiati ushbu yillarda paydo bo‘ldi deya olmaymiz. Asosan bugungi sotsiolingvistika sohasi haqida bir nechta rus lingvistlari E.D. Polivanov, B.A. Larin, L.P Yakubiskiy va boshqalar, fransuz olimlari A. Meye, P. Lafarg va boshqalar, shved tilshunoslari A. Seshe, Sh. Balli va boshqalar, chexoslavak B. Gavranek va A. Metesius hamda boshqa tilshunoslar XX asrning birinchi yarmida o‘z qarashlarini aytib o‘tishgan. Demak, bundan ko‘rinib turibdiki, bu sohaning paydo bo‘lganiga uzoq bo‘lmadi, sotsiologiya fani yangi fanlar qatoriga kirar ekan.

Avval boshda sotsiolingvistikaning maqsad va vazifalari hamda bilan qisqacha tanishib chiqdik. Sotsiolingvistikaning nimalarni o‘rganishi bilan quyida atroflicha tanishib chiqamiz:

1. Til va jamiyatning o‘zaro bog‘liq ekanligini;
2. Jamiyat taraqqiy etib borgani sari tilning ham takomillashib, boyib borishi kerakligini;
3. Tilning qaysi tabaqa va qanday guruhlar orasida ishlatilayotganligini;
4. Adabiy til, shevalarning boyib kengayib borishini;

Bir-biriga yaqin bo‘lgan, ya’ni turmush tarzi o‘xshash bo‘lgan, iqtisodiy munosabatlari shakllangan, yashash muhiti o‘xshash insonlarning tillarini bir-biriga o‘zaro ta’sirini o‘rganadi.

**Sotsiolongvistikaning obyekti.** Tilshunoslarning sotsiolingvistikaning obyektini aniqlashda ikki xil usullari bor. Sotsiolingvistikaning obyektini aniqlashda lingvistlarni ikki guruhga ajratish mumkin desak yana ham to‘g‘riroq bo‘ladi. Demak, birinchi guruh tilshunoslari sotsiolingvistika obyektini aniqlashda butun til va jamiyat munosabatlarini, tilga tegishli bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadilar. Lekin, ular ushbu tilda so‘zlashuvchilar, ushbu tilning tarixi, kelib chiqishi hamda uning xususiyatlari borasida ish olib borishmaydi. Ikkinchi guruh tilshunoslari esa, asosan ushbu tilda so‘zlashuvchilarning individual munosabatlarini, shaxslararo muloqot yoki kichik guruhlarda bo‘ladigan muloqotlar orqali o‘rganadi. Umuman olganda tilshunos olimlar sotsiolingvistikani o‘rganishda tilga ham, uning ichki tuzilishiga ham ahamiyat qaratmaydilar. Ular asosan ushbu tilning so‘zlashilayotgan ijtimoiy muhitini, u yoki bu jamiyatdagi insonlarning tildan qanday foydalanayotganligini o‘rganadilar va tahlil qiladilar. Ya’ni ushbu jarayonda lingvistlar tilga ta’sir qiladigan barcha ijtimoiy omillar: so‘zlashuvchilarning tabaqalari, ularning yoshi, qaysi mansab egasi ekanligi, qanday ijtimoiy guruhga kirishi kabi xususiyatlarga alohida e’tibor bilan yondashadilar. Demak, yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, sotsiolingvistikaning obyekti til va uning ijtimoiy faoliyatidan iborat ekan.

**Sotsiolingvistikaning predmeti.** Sotsiolingvistikaning predmetini belgilashda tilshunos olimlar turli xil fikrlarni bildirib o‘tishgan. Asosan nemis tilshunoslari, jumladan, A.N Dittmar sotsiolingvistikaning predmetini aniqlash uchun o‘z fikrini bildirib o‘tgan. Uning fikriga ko‘ra tilshunoslik va ijtimoiy soha metodlaridan foydalangan holda kishilarning kimlar bilan, qay holatda, qaysi tilda, nima maqsadlarda va qanday ijtimoiy holatlarda gaplashishayotganini o‘rganish orqali sotsiolingvistikaning predmetini aniqlash mumkin. Yana bir lingvist D. Vunderlixning fikriga ko‘ra esa sotsiolingvistikada alohida suhbatlar, kommunikativ jarayonlarning ichidagi kuzatilishi mumkin bo‘lgan omillarni o‘zaro talqin qilish yo‘li bilan sotsiolingvistikaning predmetini aniqlash mumkin. Bu ikki tilshunosdan tashqari yana bir qancha tilshunoslar, jumladan, amerikalik sotsiolingvist S.M. Ervin-Tripp, Buyuk Britaniyalik sotsiolingvistlar ham sotsiolingvistikaning predmeti borasida o‘z fikr va mulohazalarini bildirib o‘tishgan. Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib sotsiolingvistikaning predmetini “inson va jamiyat” deb atashimiz mumkin.

**Sotsiolinvistikaning fan sifatida ravnaq topishi.** A. Kaypelning fikriga ko‘ra sotsiolingvistika sohasi o‘z nomi bilan o‘zini aniqlab keladi. Ya’ni

sotsiolingvistika termini bevosita sotsiologiya hamda lingvistika terminlarining jamlanmasi hisoblanib, jamiyatning tilga bo‘lgan ta’sirini o‘rganadi. Shu orada biz ushbu fanni til sotsiologiyasi bilan aralashtirib yubormasligimiz zarur. Ushbu soha esa tilning jamiyatga bo‘lgan ta’sirini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Yuqorida ma’lumot berilganidek, sotsiolingvistikaning hozirgi ko‘rinishi vujudga kelganiga hali uzoq vaqt bo‘lmadi. Ammo, shu paytga kelib ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan nafaqat ushbu sohaning o‘rganilish obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari o‘rganildi, balki tilshunoslar ushbu sohaning tilshunoslikka qo‘shayotgan salmoqli xissasi, tilshunoslik tabiatini ochib beradigan natijalarga ham erisha oldilar. Ma’lumki, tilshunoslik sohasi ravnaq topa boshlagan paytdan, Ferdinand de Sossyur davridan boshlab lingvistika ikkiga bo‘linadi: sinxron lingvistika va diaxron lingvistika. Ko‘plab olimlar bu ikki bo‘linishning muhim ahamiyat kasb etishini hamda bu bo‘linishlarning shartli ekanligini ta’kidlab o‘tganlar. Tabiiyki, ushbu bo‘linishlar sotsiolingvistika sohasida ham mavjud.

**Sinxron sotsiolingvistika** til hamda jamiyatga tegishli aloqalarning munosabatlarini va jarayonlarini o‘rganadi. Bundan ayonki, munosabatlar ushbu aloqalarning statistikasini o‘rgansa, jarayonlar esa ularning dinamikasini o‘rganadi. Ferdenant de Sossyur sinxron lingvistika haqida fikr yuritar ekan, u shuni ta’kidlab o‘tadiki, tilning holatiga nima aloqador bo‘lsa shularning barchasi sinxron linvistikadir. Sinxron sotsiolingvistika tilning ma’lum bir tamoyillarga asoslanganligi va uning funksional ajratishlar orqali vujudga keladi. Sinxron sotsiolingvistika metodik jihatdan tahlil qilinganda asosan tilning qurilishida asosiy vazifalarni bajargan vositalar hamda til tizimini tahlil etib o‘rganish asosiy vazifa hisoblandi. Buning asosiy sabablaridan biri esa bugungi rivojlanayotgan zamonimizda tilshunoslikning vazifaviy doirasi ancha kengayib bormoqda va eng asosiysi sinxronik tekshiruvda bugungi kunda tilning qurilishidagi tub o‘zgarishlar, uning sifatliligi hamda samaradorligi eng muhim ahamiyatni kasb etmoqda. Ushbu soha haqida, ya’ni sinxron sotsiolingvistika haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan “Directions in sociolinguistics” kitobi L.B. Nikolskiy, J. Fishman, J. Gampers va D. Hayms ning muallifi ostida chiqarilgan eng foydali manbaalardan biri hisoblanadi.

**Diaxron sotsiolingvistika** tilning taraqqiy etishining jamiyat rivojlanishi bilan o‘zaro aloqalarini o‘rganadi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, ma’lum bir tilning tarixini shu tilda so‘zlashuvchilar tarixi bilan, ya’ni xalq tarixi bilan bog‘lab o‘rganuvchi sotsiolingvistikaning yo‘nalishidir. Diaxron so‘zi grek tilidan olingan bo‘lib, “diaxroniya”- ikki davr bilan bog‘liq degan ma’noni anglatadi. Demak, ushbu sohaning til tarixi hamda xalq tarixini bog‘lab o‘rganishi bejiz emas ekan. Aytib o‘tilganidek, tilning o‘tmishi va tarixiga nazar tashlar ekanmiz bevosida uzoq o‘tmishga, ya’ni eramizdan avvalgi v asrga yuzlanamiz. Sababi shundaki, ushbu

davrda hind tilshunosligida gramatika shakllana boshlagan va bu Sanskrit deb atalgan. Bundan tashqari ushbu davrda arab tilshunosligida ham gramatik qonun-qoidalar atroflicha o‘rganilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, diaxron sotsiolingvistikaning yaratilishi mana shu kabi masalalar bilan bog‘liq ekan. Diaxron sotsiolingvistika va unga aloqador bo‘lgan boshqa masalalarni o‘rganishda quyidagilarga ahamiyat qaratishimiz kerak:

- Tilning taraqqiy etib borish tarixini sotsiolingvistik qarashlar hamda aspektlar yordamida o‘rganish;
- Ijtimoiy-tarixiy tilning xususiyat hamda turlarini o‘rganish;
- Aniq va ma’lum bir tarixiy tilning ijtimoiy-lingvistik jihatlama o‘rganish;
- O‘zaro ichki hamda tashqi omillar orqali tilning kelib chiqish evolutsiyasi va uning o‘zaro aloqadorligini o‘rganish;
- Tilning taraqqiy etish qonuniyatlarini o‘zlashtirish hamda tushunib yetish darajasini shakllantirib borish ;
- She’riyat dunyosining paydo bo‘lishida tarixiy-ijtimoiy tilning ahamiyati hamda o‘rni;
- Tilning ijtimoiy ma’no hosil qilishi boshqacha qilib aytganda ijtimoiy ma’no kasb etishi kabilar diaxron sotsiolingvistika yo‘nalishini o‘rganishda kerakli bo‘lgan jihatlar hamda asosiy muammolar hisoblanadi.

Sotsiolingvistika o‘zi shug‘ullanadigan obyektlarni o‘rganishda ularning ko‘lamiga ko‘ra makro hamda mikro sotsiolingvistika yo‘nalishlariga bo‘linadi.

**Makro sotsiolingvistika** tilning turli darajadagi shartlangan keng ko‘lamdagi jarayonlarini yorituvchi, ularni o‘rganuvchi sotsiolingvistika yo‘nalish hisoblanadi. Bunda ushbu jarayonlar jamiyatga to‘liqligicha yoki katta guruhlarda: ijtimoiy qatlam, etnos, etnik guruh kabilarga xos bo‘ladi. Bundan tashqari shuni ham qayd etib o‘tish joizki, makro sotsiolingvistika o‘z ichiga o‘ta muhim bo‘lgan lisoniy vaziyatlar tahliliga aloqador bo‘lgan muammolarni ham qamrab oladi. Ushbu muammolarni hal qilishda makroyondashuv asosida talqin qilinishi kerak bo‘lgan bir qator ustuvor yo‘nalish va usullar mavjud bo‘lib, “Dunyoning turli hududlaridagi sotsiolingvistik muammolar” nomli yirik to‘plam yordamida yaqindan tanishib olishingiz mumkin bo‘ladi.

**Mikro sotsiolingvistika** makro sotsiolingvistika yo‘nalishidan farq qilgan holda tilning kichik guruhlarda: oila davrasida, do‘stlar orasida, maktabgacha tayyorlov muassalaridagi suhbatlarda, maktablarda, sinfxonalarida bo‘ladigan suhbatlarda ishlatilishi orqali o‘rganiladi. Ushbu tilning ishlatilish darajasi nafaqat miqdori jihatidan kichik bo‘lib farq qiladi, balki uning sifat darajasi ham makro sotsiolingvistikada o‘rganiladigan katta guruhlarniki kabi bo‘lmaydi, ya’nikichik

guruhlarda qo‘llaniluvchi til qonuniyatlari katta guruhlarda ishlatilinmaydi yoki ta’sir darajasi bir-biridan farq qiladi.

Mikro sotsiolingvistika ham makro sotsiolingvistika singari turli muammolar bilan shug‘ullanadi va ushbu yo‘nalish shug‘ullanadigan muammolar ikki guruhga bo‘linad:

1. Til muayyan kichik guruh doiralarida qay tarzda qo‘llanilishi;
2. Ushbu til mana shu kichik guruh a’zolari tomonidan qanday holatda ishlatilinishi

Shu o‘rinda xulosa yasar ekanmiz, sotsiolingvistika sohasining bugungi ko‘rinishi paydo bo‘lib rivojlanganiga hali uzoq vaqt bo‘lmagan bo‘lsa-da, ushbu sohada bir qancha izlanish va tadqiqotlar olib borildi. Shu ayta olamizki, ushbu sohaning tilshunoslik sohasiga qo‘shgan hissasi ham ulkan bo‘ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Eshankulova.N.M. Sotsiolingvistika fan sifatida rivojlanish tarixi. Pedagogs international research journal-2022
2. Normamatova.G. Sotsiolingvistikaning asosiy masalalari. Journal of new century innovations-2022
3. Sultonava.D. Sotsiolingvistikaning tilshunoslikdagi o‘rni va fan sifatida olimlar tomonidan o‘rganilishi
4. Xudoyqulova.Sh. Sotsiolingvistika o‘quv-uslubiy majmua. Guliston-2018
5. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/sinxron-sotsiolingvistikaning-mazmuni-va-mundarijasi
6. https://arxiv.uz/ru/documents/referatlar/tilshunoslik/diaxron-sotsiolingvistika-va-uning-muammolari


## “KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDA TARIXIY SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI


***Qurbonboyeva Gulnoza Sunnatillo qizi,***

*GulDPI O‘FF 1-kurs talabasi*

*ostonakulovsunnatillo@gmail.com*



**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada o‘zbek yozuvchisi Abdulhamid Cho‘lpon tomonidan yozilgan “Kecha va kunduz” romanidagi iste’moldan chetda qolgan tarixiy so‘zlar va ularning asardagi, shuningdek, asardan tashqaridagi ma’nolari, etimologiyasi, qo‘llanish doirasi haqida gap ketadi. Asardagi hozirgi kunga kelib eskirgan qatlamga aylanib ulgurgan ba’zi so‘zlar yozuvchi yashagan davrni yanada yorqin aks ettiradi.*

**Kalit so‘zlar:** *Tarixiy so‘zlar, arxaik so‘zlar, leksema, etimologiya, ma’no ko‘lamdorligi.*

**Abstract.** *This article talks about historical words that are out of use in the novel “Kecha va Kunduz” written by the Uzbek writer Abdulhamid Cholpon, and their meanings, etymology, scope of use in the work , as well as outside the work. Some of the words in the work, which have become obsolete by now, more vividly reflect the period in which the writer lived.*

**Keywords:** *Historical words, archaic words, lexeme, etymology, scope of meaning.*

Insoniyat rivojlanib, jamiyat o‘zgarib borgani sababli tilimizda ham yuz berayotgan o‘zgarishlarni, ya’ni leksik o‘zgarishlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Buning natijasida esa tilimizda iste’molda bo‘lgan ayrim so‘zlar eskirgan qatlamga aylanib bormoqda yoki bu hodisaning aksi o‘laroq tilimiz imkoniyatlari kengayib, yangi leksemalar vujudga kelmoqda.

Bizga ma’lumki, o‘tmishga oid narsa, hodisalarni ifodalagan, biroq hozirgi tilimizda o‘z sinonimiga ega bo‘lmagan so‘zlarni tarixiy so‘zlar deb yuritamiz. Bu ibora fan tilida istorizmlar deb ham nomlanadi. Masalan, paqir, miri (pul birliklari), qushbegi, yasovul, qozi (mansab nomlari), omoch, yorg‘ichoq kabilar. Bu kabi so‘zlarga Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida ham duch kelishimiz mumkin:

Paranji – forscha “faranji”, ya’ni “ko‘ylak” so‘zidan olingan bo‘lib, ko‘pchilik musulmon ayollar begona erkaklarga ochiq ko‘rinmaslik uchun boshga yopinib yuradigan, bichimi keng va uzun to‘n shaklidagi, soxta yengli yoping‘ich (yuz chachvon bilan berkitiladi). Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘rta Osiyoda 15-16-asrlarda olimlarning choponi “faranji” deb nomlangan.

*“O‘rgangan qiz ichkari eshikdan hatlar-hatlamas paranjini irg‘itdi va o‘zining bolalik ruhi bilan yugurganicha borib Zebini quchoqladi”.* (4-bet)

Chimmat – (ayn. chachvon) bu ot asli tojik tilida “ko‘z” ma’nosini anglatadigan chashm oti bilan “bog‘ich” ma’nosini anglatadigan band otidan tuzilgan bo‘lib, o‘zbek tiliga juda murakkab tovush o‘zgarishlari bilan olingan. Bu ot asli ko‘zni to‘sadigan parda ma’nosini anglatadi. Ba’zi hollarda esa ko‘chma ma’noda qo‘llanib, parda, to‘siq ma’nolarini ifodalaydi.

*“Zebi chimmatini yuzidan oldi”.* (266-bet)

Mingboshi – 1) Ming kishidan tashkil topgan harbiy qism qo‘mondoni. Turk xoqonligi, qoraxoniylar, temuriylar armiyasida mingbegi; 2) O‘rta Osiyo xonliklarida harbiy-ma’muriy mansab. Qo‘qon xonligida xondan keyingi 2-oliy mansab. Asosan, harbiy ishlarga mutasaddilik qilgan. Xiva xonligi saroyidagi eng kichik amaldor; 3) O‘rta Osiyoning ruslar tomonidan bosib olinishi arafasida

Toshkent, Oqmachit singari shahar hokimlari. Keyinchalik mingboshi Toshkent dahalari boshliqlari. Daha mingboshisi aholi tomonidan saylanib, viloyat hokimi tomonidan tasdiqlangan. 19-asr oxiriga kelib mingboshi shaharda tijorat ishlarini nazorat qiluvchi kichik mansab egasiga aylangan. 4) 20-asrning 20-yillarida mingboshi O‘zbekistonda bir yoki bir necha qishloq birlashuvidan tashkil topgan ma’muriy idora boshlig‘i sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

*“ – Mingboshining qiziga aytmoqchimisiz? O‘sha chaqirsin deysizmi?”* (32-bet)

Dodxo (dodxoh) – (forscha – adolat talab etuvchi, adolat istovchi, da’vogar) 1) Buxoro xonligida adolat haq-huquq istovchilardan amir nomiga ariza qabul qiluvchi va uning javobini arzchilarga yetkazuvchi lavozimli kishi; 2) Qo‘qon xonligida qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor; 3) O‘tmishda Farg‘ona vodiysi va Toshkentda mingboshi va boshqa ba’zi amaldorlarni ulug‘lash uchun ishlatilgan so‘z.

*“ – Mingboshi dodxoning suygulik xotinlari bo‘lganidan keyin nima qilsa ta’bi-da!”* (50-bet)

Sart – qadimgi O‘rta Osiyodagi shahar va qishloqlarda yashab, dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik bilan shug‘ullanib kelgan turkiy xalqlar. Chor Rossiyasi hukmronligi davrida hozirgi O‘zbekiston hududidagi mahalliy xalqqa yevropaliklar tomonidan berilgan nom.

*“Bu soddadil “sart” amaldori muningdek pichinglarga tushunmasa ham, piching qiluvchi to‘ralarning o‘zlari mashhur rus adibining “Yetti osilganlar”idan ham so‘zda, ham ishda juda yaxshi xabardor edilar… ”* (55-bet)

Ellikboshi – 1) O‘rta asrlarda qirq-ellik otliq askar boshlig‘i. 2) O‘rta Osiyo xonliklarida kichik amaldor, oqsoqol. 3) Podsho Rossiyasi Turkiston o‘lkasini bosib olgach bu unvon tugatilgan, lekin Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakat davrida Shermuhammadbek tomonidan Farg‘ona vodiysida bu lavozim ham yuzboshi, mingboshi lavozimlari qatorida qayta tiklangan. 20-asrning birinchi choragida – sovet hokimiyatining dastlabki yillarida O‘zbekiston SSRda shaharda mahalla qo‘mitasining raisi, qishloqda esa qishloq oqsoqoli ellikboshi deb atalgan. Keyinchalik bu so‘z ham sheriklari qatorida iste’moldan chiqib ketgan.

*“Chinakam, burungi mingboshiga yaxshi bir uloqchi otni bekorga olib bergani uchun ellikboshilikka istehqoq qozonganidan keyin rosa olti yillik umri o‘z qishlog‘i bilan mingboshining mahkamasi o‘rtasida daftar ko‘tarib ot chopish, qishloqdan odam haydab chiqib katta yo‘lga suv septirish bilan o‘tdi”.* (55-bet)

Mirshab – (arabcha, mir – hukmdor, shab – tun) O‘rta Osiyo xonliklarida tungi shahar soqchisi va ularning boshlig‘i; Chor Rossiyasi davrida tungi soqchilik hamda

tartib intizom bajarilishini ta’minlagan va politsiya vazifasini bajargan. Mirshab mingboshi va katta oqsoqollar ixtiyorida xizmatda bo‘lgan.

*“Mingboshinig bu amri bilan unga tomon borayotgan Miryoqub mirshablarga ishorat qildi, ular uzoqlashdilar”.* (63-bet)

Bo‘lus (bo‘lis) – O‘tmishda Rossiya va unga tobe hududlarda uyezd tarkibidagi bir qancha qishloqni o‘z ichiga olgan ma’muriy bo‘linma hamda shunday ma’muriy-hududiy bo‘linma hokimi.

*“... bo‘lusining hokimi mutloqi o‘lan Akbarali mingboshi butun bo‘lusning yagona usuli jadida maktabini bog‘latib, muallimini haq bermasdan haydatdirdi...”* (82-bet)

Jadid – (arabcha - yangi) yangilik tarafdori, jadidchilik harakatining qatnashchisi. 20-asr boshlarida eski maktabdagi tartib va o‘qitish usullari o‘rniga yangi tartib va ta’lim-tarbiya usuli. Bu usul, jumladan, xat-savod chiqarishda hijo tizimi o‘rniga tovush tizimini kiritgan.

*“Jadidlar tomonidan haftada ikki marta zo‘rg‘a chiqariladigan bir gazetda mana shu besh-olti og‘iz so‘z boridi: ... ”* (82-bet)

Oq podsho – Chor Rossiyasi davrida rus imperatorining o‘zbeklar orasidagi nomi.

*“Shu xususda haqiqat yuzasidan izoh qilib ayturmizkim, Akbarali mingboshi qariyb o‘n to‘rt yildan buyon oq podshohimizning azamat davlatlariga sadoqat bilan xizmat qilib, shuncha zamon mobaynida hech qanday sarzanishga mustahiq bo‘lmadilar”.* (89-90-bet)

Yarimposhsho (yarim podsho) – Turkistonni bosib olish maqsadida Rossiya uyushtirgan harbiy yurishlarning rahbari, Turkistonning birinchi general-gubernatori(1867-82) bo‘lgan Konstantin Petrovich Kaufman xalq o‘rtasida istehzo bilan “yarim podsho” deb atalgan.

*“Podsholik, amaldor, yarimposhsho – hammasi puli borning og‘ziga qaraydi”.* (246-bet)

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni xulosa qilishimiz mumkinki, tarixiy so‘zlar xalq, millat uchun juda muhimdir. Negaki, yuqoridagi kabi tarixiy so‘zlar yoki arxaizmlar shu millatning taraqqiyotini hamda qanday tarixga ega ekanligini namoyon qiladi. Shuning uchun ham bizning tariximiz ko‘zgusi bo‘lgan bunday so‘zlardan qanchalik ko‘p bilsak, shunchalik yaxshi. Zero, tarixsiz kelajak yo‘q.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 ortiq so‘z va so‘z birikmasi. (2006-2008). A.Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.

2. Cho‘lpon. (2000). Kecha va kunduz. Toshkent: “Sharq” nashriyot matbaa kontsernining tahririyati.
3. N.Turniyozov, A.Rahimov. (2006). O‘zbek tili. Samarqand.

## XV – XIX – ASRLAR O‘RTALARIDA O‘ZBEK LUG‘ATCHILIGI

***Rahimova Mohira Anvar qizi***
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs talabasi*
mohirarakhimova29@gmail.com

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada o‘zbek lug‘atchiligining tarixi, lug‘at maqolalarini joylashtirish tamoyillari, Alisher Navoiy asarlariga bag‘ishlangan lug‘atlar hamda o‘zbek tilshunosligida XV - XIX asarlarda yaratilgan lug‘atlar haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar** : *lug‘atchilik, lug‘at, leksikografiya, “Sangloh”, “Maboni ul-lug‘at”, “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy”.*

**Abstract.** *This article discusses the history of Uzbek lexicology, the principles of placing dictionary articles, dictionaries dedicated to the works of Alisher Navoi, and dictionaries created in Uzbek linguistics between the 15th and 19th centuries.*

**Keywords*:*** *Lexicography, dictionary, “Sangloh”, “Maboni ul-lugat”, “Lugati chigatoyi va turki usmoniy”.*

Ma’lumki, o‘zbek tilini ilmiy asosda o‘rganishga oid dastlabki ma’lumotlar tilimizga oid qadimgi grammatik asarlar va lug‘atlarda uchraydi. Lug‘atlar tuzish va ularni o‘rganish har doim ilm ahlining e’tiborida bo‘lib kelgan va ularni o‘rganish va tuzishga ham ehtiyojlar mavjud bo‘lgan. Xususan, Alisher Navoiy o‘zining ilmiy qarashlari va turkiy til haqidagi fikrlarini “Muhokamat ul – lug‘atayn” asarida yoritib bergan. Navoiy asarlariga qiziqish va ularni o‘rganishga bo‘lgan harakatlar bir necha davrlarda turli qomuslar, lug‘atlar tuzishga turtki bo‘lgan. Shu kabi lug‘atlar sirasiga Tole Imon Hiraviyning “Badoyi ul-lug‘at” (XV asr), Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma” (XVII asr), Muhammad Rizo Xoksorning “Muntaxab ul-lug‘ot” (XVIII asr), Mirzo Mehdixonning “Sangloh” (XVIII asr), Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” (XIX asr) hamda muallifi noma’lum bo‘lgan “At-tuhfat uz-zakiyati f-il-lug‘at it-turkiya” (XIII asr), “Abushqa” (XVI asr) kabilarni keltirishimiz mumkin.

Lug‘at tuzishning ilk bosqichlari XI – XII asrlarga ya’ni Mahmud Koshg‘ariy nomiga borib taqaladi. Uning turkiy so‘zlarni arab tilida izohlab va to‘g‘ri talaffuz qilish yo‘llarini tushuntirib bergan “Devoni lug‘atit turk” qomusiy asari ma’lum. Sharqda leksikografiya va lug‘at tuzish an’ana va tamoyillari XI – XII asrlardan boshlangan bo‘lsa Yevropada, jumladan, Rossiyada bu kabi ishlar XVIII asrlardan

boshlangan. Navoiy ijodiga qiziqish va asarlari bilan tanishish uning tilini tushunish va o‘rganish uchun muhim manbalar sifatida Navoiy qo‘llagan so‘zlarning ma’nolarini ochib beruvchi lug‘atlar yaratila boshlangan. Shulardan biri **“Sangloh”** lug‘ati hisoblanib, XVIII asrda turkiy xalqlarning Afshar urug‘idan hisoblangan Mirza Mehdixon bo‘lib, u tuzgan lug‘at Navoiy asarlari bo‘yicha yozilgan lug‘atlarning eng kattasi edi. Muallif Mirza Mehdixon Eron podshohi Nodirshohning kotibi bo‘lib, lug‘at tuzishdan maqsadi Navoiy asarlarida uchraydigan murakkab so‘zlarni fors tilida so‘zlashuvchilarga yoritib berishdan iborat bo‘lgan. Barchaga ma’lumki, Navoiy qo‘llagan barcha so‘zlar ham ommaga tushunarli bo‘lmagan va muallifning fikriga ko‘ra ularning ma’nolarini tushunish toshdek qattiq bo‘lgan va shu sababli asarni “Sangloh” ya’ni toshli yer, toshloq deb atagan. Ushbu lug‘atning 3 ta nausxasi ma’lum bo‘lib hozirda Buyuk Britaniyada saqlanadi. Lug‘atni chop etish va keng yoyishda ingliz olimi J.Klosonni aytishimiz mumkin. U ushbu lug‘atni turli sharh va izohlar bilan Londonda nashr qilgan. Muallif lug‘atdagi so‘zlarning ma’nosini izohlashda Navoiyning poetic asarlaridan misollar keltiradi va yana qo‘shimcha tarzda Bobur, Husayn Boyqaro va Lutfiy ijodidan ham misollar keltiradi. Lug‘atda Navoiy ijodida uchrovchi bir qancha nodir so‘zlar izohlab berilgan.

Mehdixon lug‘atning fonetik tuzilishini bayon qilishda o‘sha davrdagi Astrobod o‘zbeklarining tili haqida ham qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. U davr tilida 9 ta unlli – ularning 6 tasi fonologik ahamiyatga ega, 28 ta undosh tovushlar bo‘lganligini aytib o‘tgan. Navoiy asarlari asosida tuzilgan lug‘atlar orasida bu lug‘at lug‘at maqolalarining izchil va puxta joylashtirilganligi bilan ahamiyatlidir.

**“Maboni ul-lug‘at”** asari XVII – XVIII asrlarga tegishli bo‘lgan muhim manba hisoblanadi. “Sangloh” lug‘atiga Mehdixon eski o‘zbek tilining muhim grammatik asari hisoblangan “Maboni ul-lug‘at” asarini ilova tarzida keltirib o‘tadi va bilishimiz mumkinki ushbu lug‘at boshqalarining yaratilishi uchun ham asos bo‘la olgan. Lug‘atning kirish qismida Navoiy asarlaring soni ko‘rsatiladi. Birinchi bo‘limda bir qancha harakat nomlari va sifatdoshlarni izohlagandan so‘ng o‘tgan zamon, hozirgi-kelasi zamon, buyruq mayli, fe’lning bo‘lishsiz shakllari haqida to‘xtaladi. Ikkinchi bo‘limda - ba’zi grammatik shakllarning shakllanishi jarayoni ko‘rsatiladi. Uchinchi bo‘limda olmoshlar; to‘rtinchi bo‘limda yuklama va morfemalar tavsifi; beshinchi bo‘limda yordamchi fe’llar; oltinchi bo‘limda orfografiya masalalari yoritiladi. Grammatikaning oxirida Navoiy asarlarida uchrovchi forscha unsurlar ilova qilinadi. “Maboni ul - lug‘at”ning xarakterli tomon shundaki, u yoki bu shaklning fors va o‘zbek tilida qanday qo‘llanilishini ko‘rsatadi. Fikrni tasdiqlash uchun Fuzuliy va Navoiydan misollar keltiradi.

Ushbu roʻyxatga kiritilishi mumkin boʻlgan lugʻatlardan yana biri Buxoro viloyati Qorakoʻl tumani Qunduz qishlogʻdan yetishib chiqaan Sulaymon Buxoriyning **“Lugʻati chigʻatoy va turki usmoniy”** asari hisoblanadi. Sulaymon Buxoriy koʻp yillik ilmiy tadqiqotlarini jamlab, ikki jildli “Lugʻati chigʻatoyi va turki usmoniy” lugʻatini tuzgan. Lugʻat muqaddimasiga 186 misrali «Manzumai chigʻatoy» avtobiografik she’riy asarini kiritgan. Lugʻatning birinchi jildi 8 ming soʻzdan tarkib topgan, 1882- yilda Istanbulda nashr etilgan. Oʻrta Osiyo turkiy badiiy adabiyotidan namunalarni oʻz ichiga olgan ikkinchi jildi, muallif uni tugallangan deb aytgan boʻlsa-da, hozircha topilmagan. Sulaymon Buxoriy lugʻati geografiya atamalari va joy nomlari jihatidan ham qimmatli manbadir. Unda Yaqin va Oʻrta Sharqdagi shaharlar va boshqa aholi maskanlari haqida nodir ma’lumotlar bor. “Lugʻati chigʻatoy va turki usmoniy” leksikografiya ilmining eng soʻnggi yutuqlari asosida tuzilgan boʻlib, unda 100 dan ortiq shoirlarning ijodidan foydalangan holda badiiy adabiyotlardan misollar keltirilgan. Soʻzning koʻp ma’noliligini tasdiqlash uchun u bir emas, bir necha adiblardan havolalar beriladi. Sulaymon Buxoriy lugʻatni tuzishdan oldin oʻzbek, arab, fors-tojik va usmoni turk tillarida yaratilgan hamma lugʻatlar bilan tanishib chiqqan. Aniqroq qilib aytganda, Sulaymon Buxoriy lugʻatchilikning nazariy va amaliy masalalarini chuqur bilgan va puxta egallagan. “Lugʻati chigʻatoyi va turki usmoniy”da dastlab chigʻatoycha (oʻzbekcha) soʻzlar berilgan, soʻngra bu soʻzlar usmonli turk tilida izohlangan hamda izohdan soʻng oʻzbekcha soʻz ishtirok etgan adabiy asar, folklor materiali illustrativ misol sifatida berilgan. Masalan, *“At”* soʻzi lugʻatda quyidagi tarzda berilgan: *at –faras; esp; ad; nam; shuhrat; nang.*

**Navoiy:** Bu gulšan ičrä yoqtur baqā guligä sabāt,
Ajab saādat erür čïqsa yaxšïlïk bilän at.
Čun pariyu hurdir atïŋ, begim,
Sur’at ičrä dev erür, atïŋ begim.
Har xadangikim ulus andïn qačar,
Nātavān jānim sarï atïŋ, begim.

Ushbu lugʻat iste’moli kam boʻlgan va yoʻqolib ketayotgan soʻzlarni yana qaytadan olib kirish va ularning izohlash bilan boyitilgan. Unutilib ketayotgan oʻnlab turkiy soʻzlarni tiklashda,oʻzbek tilining leksikasini boyitishda muhim manbadir. Bu lugʻat XII-XIX asrlarda yashab ijod etgan ijodkorlarning asarlarini chop etishda, oʻrganishda ham oʻziga xos manbadir.

Xulosa qilib aytganda leksikografiya, lugʻat tuzish masalalari, oʻzbek lugʻatchiligi uzoq tarix va boy an’analarga ega. Oʻzbek lugʻatchiligi tarixida yaratilgan lugʻatlar oʻsha davrda yaratilgan buyuk allomalarimizning noyob asarlari haqida qimmatli ma’lumotlar beruvchi asarlardir. Asrlar silsilasidan

bardavom o‘tgan bunday lug‘atlarning ahamiyati kundalik turmush tarzimiz qolaversa, adabiy jamoatchik uchun yuksak o‘rin kasb etadi. Til imkoniyatlarining boyligini yorqin aks ettiruvchi har qanday asar, lug‘atchilik tizimida bo‘ladimi badiiy asar bo‘ladimi kelajak avlod rivoji uchun o‘ziga xos manba bo‘lib xizmat qiladi. Lug‘atlar o‘zlarida har bir tilning muhim ma’lumotlarini saqlaganligi uchun oradan qancha vaqt o‘tsa ham e’tiborga molikdir. Ayniqsa o‘tgan asrlarda yaratilgan, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan asarlarda iste’molda bo‘lmagan, yoki kam qo‘llaniluvchi so‘zlar qaytadan esga olinadi va ularning foydalanish doiralari kengayishiga turtki bo‘lishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Abdushukurov B. O‘zbek tili tarixi.(2021). Toshkent: Nodirabegim.
2. Abenova A, Sotimboyeva D. “ “Abushqa” lug‘atining tuzilishi va leksikografik xususiyatlari”. (2023). Journal of new country innovations.
3. Elmurodov A. “Badoyi al-lug‘at asarining o‘ziga xos xususiyatlari”. Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta’lim texnologiyalari.
4. Normamatov S. Leksikografiya asoslari. (2021). Toshkent: Nodirabegim.
5. Содиқов Қ. Тарихий лексикография. (2011). Тошкент.
6. www.tafakkur.net
7. www.ziyo.uz


## O‘ZBEK TILIDAGI SO‘ZLARNI SEMANTIK JIHATDAN DARAJALASH VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI


***Sayfiddinova Go‘zal Odiljon qizi***
*ToshDO‘TAU O‘FF I kurs talabasi*
*gozalsayfiddinova3@gmail.com*



**Annotatsiya**. *Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi so‘zlarni darajalash tartibi va uning tahliliga doir misollar berilgan. Bugungi jahon tilshunosligining dolzarb masalalaridan bo‘lgan so‘zlarni darajalab ko‘rsatish va ularni tartibini sistema sifatida tadqiq qilish keng miqyosda o‘rganilmoqda. Shu o‘rinda o‘zbek tilshunosligida ham bu masalaga e’tibor qaratilmoqda. Maqolada o‘zbek tilidagi ba’zi so‘zlarni ingliz tili bilan qiyoslanib, darajalab ko‘rsatilgan holatda tadqiqot olib borildi. Maqolada so‘zlarni tartiblash holati **A1, A2, B1, B2** va **C1** darajalariga bo‘lib tahlilga tortildi. Bundan tashqari maqolada so‘zlarni darajalab tartiblash va uning ahamiyati haqida ham so‘z amaliy, nazariy qarashlar o‘z aksini topgan. Yanada aniqroq va tushunarli bo‘lishi uchun ayrim so‘zlarning tahlili berildi.*



**Kalit so‘zlar**: *darajali tartiblash, bosqich, frazema, sistema, o‘zbek tili, leksema, semantik xususiyat.*

**Abstract:** *This article gives examples of the order of ranking words in the Uzbek language and its analysis. The ranking of words and the systematic research of their order are being studied on a large scale, which are among the current issues of world linguistics. At this point, attention is being paid to this issue in Uzbek linguistics. In the article, some words in the Uzbek language were compared and ranked in English. In the article, the state of word order was divided into levels A1, A2, B1, B2 and C1. In addition, practical and theoretical views on word classification and its importance are reflected in the article. An analysis of some words was given to make it more clear and understandable.*

**Keywords:** *ranking, stage, phrase, system, Uzbek language, lexeme, semantic feature.*

Tilning leksik qatlamini o‘rganish, undagi so‘zlarni tahlil qilish doimiy dolzarb masalalardan bo‘lib kelmoqda. O‘zbek tilshunosligiga yangi yo‘nalish sifatida kirib kelayotgan antroposentrik tilshunoslik, uning yo‘nalishlari, graduonimiyada(darajalash) shaxs omilining o‘rni, subyektiv baho munosabati, til sohibining tafakkuri, dunyoqarashi, mental xususiyatlari, etnik belgilarini aks etishida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Jahon tilshunosligida tillar tipologiyasini o‘rganish XIX asr oxiri XX asr o‘rtalarigacha davom etib, ular orasidagi farq va o‘xshashliklarni aniqlash hozirgi tadqiqotlarda o‘z aksini topmoqda. Aynan shu davrda tilshunoslikning empirik (tasvir etish) jihatidan dialektik (mohiyat) tomonga o‘tishi kuzatilgan. Semantika tilshunoslikning uzviy qismi, uning tuzilishi keng qamrovli, pragmatik ma’no kasb etishi semantikaning predmet va uning belgisi o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Hozirgi kunga qadar bevosita graduonimiya termini bilan nomlanmagan bo‘lsa-da, shu kabi hodisani ko‘plab olimlar (N.Grech, G.Pavskiy, A.Potebnya, A.Nikulin, V.Vinogradov, N.Arutyunova, Y.Volf, I.Ubin, B.Norman, E.Sepir, D.Bolindjer, R.Boyar) o‘z ilmiy izlanishlarida tahlil etishgan. Ular aks ettirgan belgi darajalari Arastu davridan to hozirgi paytgacha graduonimiyani tadqiq etishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Graduonimiya (darajalash) hodisasi o‘z tadqiqini kutib yotgan lingvistik muammo, so‘zlovchining yetkazib bermoqchi bo‘lgan munosabatlari va maqsadi bilan uzviy bog‘liq. Bu esa har bir tilning o‘ziga xos ifoda vositalari, grammatik tuzilishlari mavjudligidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature review). Leksik birliklar D.Kruz tasnifida (zanjir, spiral, aylanasimon, martaba, daraja anglatuvchi leksemalar, miqdor va hajmiga ko‘ra darajalanuvchi atamalar/otlar) o‘z aksini topgan[4] va yuqoridagi tasnif ko‘rinishlarida so‘zlarning asl holati gradual munosabatga hech qanday qo‘shimchalar qo‘llanmagan holda shakllangan. Unda

[4] Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P.183-200.

darajalanishga oid ta’riflar mujassamlashganligini ko‘rish mumkin: a) qo‘shimcha vositalar qo‘llanmasligi;

b) asosiy lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra darajalanishi;

v) gradual shkalada ularning o‘zaro miqdori va belgisiga ko‘ra farqlanishi;

g) gradual qatordagi so‘zlar dominanta so‘z atrofida birlashishi.

Olim gap tuzish jarayonini o‘ziga xos darajalanishga mos ravishda sentence level (gap qatlami), clause level (qo‘shma gapning sodda gapga teng qatlami), phrase level (so‘z birikmasi qatlami), word level (so‘z qatlami), morpheme level (morfema qatlami) ko‘rinishida aks ettirgan.[5]

Turkiy tillar orasida birinchilardan bo‘lib o‘zbek tilida graduonimiyaning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Asos sifatida Alisher Navoiyning “Muhokamatul lug‘atayn” asaridagi “yig‘i” holatini ifodalovchi ingramoq → singramoq → yig‘lamsinmoq → yig‘lamoq → siqtamoq → o‘kirmoq → hoy-hoy yig‘lamoq darajalanish qatorini keltirish mumkin. [6]

Bugungi kunda chet tillarini o‘rganish tobora ommalashib bormoqda. Shubhasiz, buning uchun turli xil metod va qulay qo‘llanmalardan foydalaniladi. Misol tariqasida shuni aytishimiz mumkinki, oddiy ingliz tilini o‘rganish uchun juda ko‘p dasturlar, qo‘llanmalar va kitoblar yaratilgan. Bu esa tilni qisqa muddatda o‘rganishga yordam beradi. Bir qator jahon tillarida so‘zlar o‘z darajalariga, ya’ni ingliz tilida aytganda “level” lariga ega. Bunday darajalash tilni tezroq va yaxshi o‘rganishga yordam beradi. Masalan, quyidagi so‘zlar darajalarga bo‘lingan:

| A1 | A2 | B1 | B2 |
|---|---|---|---|
| good | excellent | terrific | outstanding |
| beautiful | pretty | attractive | adorable |
| clean | tidy | pure | neat |
| interesting | juicy | curious | piquant |

Misol uchun “good” so‘zi A1 darajada, “outstanding” esa B2 darajada. “Good” – “yaxshi” so‘zi hamma ishlatadigan, kichik yoshdagi bolalar ham tushunadigan so‘z sanaladi. Shu tufayli ham bu so‘z A1 darajaga olingan. Ammo “outstanding” so‘zi nisbatan kuchliroq ma’no ifodalagani va ko‘proq kitoblarda ishlatilgani, akademik so‘z bo‘lgani uchun B2 darajaga olingan. Buni boshqa so‘z misolida ko‘rib chiqamiz: “beautiful” – “chiroyli” so‘zi A1 deb olingan. Gapdagi “beautiful girl” birikmasini o‘zgartiramiz. Uning o‘rniga “Adorable girl” desak, gapimiz chiroyliroq chiqadi va yuqori baholanadi.

[5] Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P.183

[6] Dustmamatova N. O‘zbek va rus tillarida lug‘aviy graduonimiya. Filol. Fan. Nom.diss..(phd). – T.:2023.– B 5

Daraja ma’nosini ifodalovchi grammatik shakl keng qamrovdagi grammatik ma’noni ifodalashi mumkin. Bunday holatda daraja ma’nosini ifodalovchi vositalarga maydon nuqtayi nazaridan yondashilgani koʻrinadi. Bu oʻrinda hududiy belgilar, ijtimoiy muhit, turmush tarzi, axloqiy va boshqa me’yorlarning ta’siri seziladi. Etnik xususiyatlar miqdor yoki hajmni belgilovchi nomlarda ham ifodalanadi. Soʻzlarni darajalash tartibi shaxs ongi nuqtayi nazaridan kelib chiqib tahlilga olinadi, bu bugungi kun atroposentrik tilshunoslikning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Soʻzlarning darajalab tartibga solinishi muhim ahamiyatga ega. Masalan, xalqaro sertifikatlardagi suhbatda yoki yozma imtihonlarida baland darajadagi soʻzlarning ishlatilganiga qarab, baho beriladi. Umuman, bunday tartibdagi lugʻatlar bilan tilni oʻrganish, oʻrganganda ham chiroyli va mukammal gap tuza olish bilan oʻrganish yanada osonroq. Ammo ba’zi bir istisno tariqasidagi soʻzlar borki, ularni ma’lum bir darajaga solib boʻlmaydi. Bularga mevalar, joy nomlari va shunga oʻxshash ba’zi istisno soʻzlar kiradi. Masalan, “apple” – “olma” soʻzini hech qanday darajaga solib boʻlmaydi. Agar chiroyli qilib ifodalamoqchi boʻlsangiz, uning tasviriy ifodasidan foydalanishingiz mumkin. Negaki u standart darajaga ega. Shuningdek, joy nomlari (Oʻzbekiston, Amerika, Italiya va boshqalar) ham shular qatoriga kiradi. Bularni ham matnda chiroyli qilib bermoqchi boʻlsangiz, tasviriy ifoda bilan bersangiz boʻladi.

Biroq bularning A1, A2 va boshqa baland darajalari mavjud emas, bular standart darajaga ega. Oʻzbek tilida soʻzlarni bunday darajaga qoʻyib tartiblash hali sohada kuzatilmadi. Shu jihatdan bu ishni amalga oshirish lozim. Bunday darajalashning afzalliklari juda koʻp.

Birinchidan, bunday darajalash orqali oʻzbek tilini boshqa millat egalari oʻrganishiga keng imkoniyat yaratiladi. Chunki suhbat jarayonida yoki esse va insholarda qaysi soʻzlardan foydalanish aniqlashiladi.

Ikkinchidan, oʻzbek tili milliy sertifikati uchun manfaatli boʻladi, ya’ni sertifikatga tayyorlanayotganlar uchun qulay qoʻllanma va lugʻatlar shu darajalanish asosida boʻlsa, qulay va tushunarli boʻladi. Baholash tizimida ham yangiliklar yaratiladi.

Darajalanishni tahlilda koʻramiz. Masalan:

| A1 | A2 | B1 |
|---|---|---|
| Oʻsmoq | Katta boʻlmoq | Ulgʻaymoq |

Darajalanishni gap misolida koʻramiz:
Mening bolam oʻsdi – A1 daraja

Bu gapda “o‘sdi” fe’lini va “bola” ot so‘z turkumini baland darajadagi so‘zlarga almashtiramiz.

Mening farzandim ulg‘aydi – B1 daraja

Agar biz bu gapni C1 darajaga qo‘yib, adabiy shaklga kirgizsak, “farzand” so‘zining o‘rniga “avlod”, “ulg‘aydi” ning o‘rniga “kamol topdi” fe’lini qo‘yamiz. Natija quyidagicha:

Mening avlodim kamol topdi – C1

Shu o‘rinda savol tug‘ilishi tabiiy. Nimaga asoslanib, so‘zlarni darajaga solamiz? Odatda A1 darajadagi so‘zlar kichik yosh toifasi va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari foydalanadigan so‘z hisoblanadi. Shuningdek, bu so‘zlar kundalik so‘zlashuv uslubida ham ishlatilinadi. A2 darajada ham shunday. Ammo biroz balandroq bo‘ladi. U so‘zlarni kichik yosh toifasidagi maktab o‘quvchilari tushunadi va nisbatan kam qo‘llashi mumkin. B1 daraja esa A1 va A2 darajadan farqli ravishda biroz adabiy so‘zlar bo‘ladi va ularda ma’lum bir darajada uslubiy bo‘yoqdorlik ko‘zga tashlanadi. B2 va C1 darajalari esa adabiy so‘zlar, iboraviy so‘zlar va amalda uncha qo‘llanmaydigan ilmiy so‘zlar sanaladi. Masalan, quyidagicha:

| A1 | A2 | B1 | B2 | C1 |
|---|---|---|---|---|
| shamol | shabada | Yel | bo‘ron | sabo |

“Shamol” va “shabada” so‘zlarining ma’nolari aniq, hamma uchun tushunarli. Shuning uchun A darajaga olindi. “Yel” so‘zi esa nisbatan kam uchraydigan va kam qo‘llanadigan so‘zlar sirasiga kiradi. Shunigdek, u so‘zda adabiy bo‘yoqdorlik ko‘zga tashlanadi. Buning isbotini Hamid Olimjonning “O‘rik gullaganda” she’ridan parcha orqali ko‘ramiz:

…Har bahorda shu bo‘lar takror,
Har bahor ham shunday o‘tadi.
Qancha tirishsam ham u beor,
Yellar meni aldab ketadi…

Shuningdek, aksariyat C1 so‘zlari ibora bo‘lishi ham mumkin. Chunki ibora ma’naviy so‘z boyligi va kuchli uslubiy bo‘yoqqa ega so‘z hisoblanadi.

| A1 | A2 | B1 | B2 | C1 |
|---|---|---|---|---|
| maqtanmoq | kekkaymoq | manmansiramoq | osmon bo‘lib ketmoq | katta ketmoq |

A1 va A2 so‘zlari barcha uchun oson va tushunarli, izohga hojat yo‘q fikrimizcha. B1 darajadagi “manmansiramoq” so‘zi kuchli uslubiy bo‘yoqqa egaligi bilan ajraladi. Bu yerda asosiy e’tiborni B2 va C1 darajadagi so‘zlarga qaratish kerak. Negaki ular ibora sanaladi va tahlil talab etadi. Badiiy asarlarda e’tibor bersak ko‘proq iboralardan foydalaniladi, chunki ularning hissiy ta’siri oddiy so‘zlarga nisbatan kuchliroq.

*Xaho, - kulib yubordi Karomatxon, - katta ketib yubormadingizmi?(R. Fayziy “Cho‘lga bahor keldi”)*

Shunga o‘xshash frazema va maqollar orqali insonning qaysi saviyadaligini bilib olish mumkin. Bilamizki, ibora va hikmatli so‘zlar, maqollar insondan so‘z boyligi va badiiy mahoratni talab qiladi. Frazemalar esa ma’lum bir sohaga oid bo‘lishi ham mumkin, albatta.

Antonim so‘zlarni juftlash orqali ham baland darajali so‘zni hosil qilish mumkin:

| A1 | A2 | B1 | B2 |
|---|---|---|---|
| hamma | barcha | bari, butun | yosh-u qari |

“Yosh” sifati “qari” sifatiga antonim hisoblanadi. Bu yerda “yosh-u qari” umumlashtirish, jamlash ifodasini bergan.

Darajalashning yana bir yaxshi tomoni so‘z takroriga yo‘l qo‘yilmaydi.

| A1 | A2 | B1 | B2 | C1 |
|---|---|---|---|---|
| bilmoq | sezmoq | ilg‘amoq | voqif bo‘lmoq | aqli yetmoq |

E’tiborimizni B2 va C1 darajalarga qaratamiz. “Voqif bo‘lmoq” so‘zi nisbatan kitobiy, ya’ni badiiy uslubga xos. Shu sabab B2 darajaga olindi.

*Oradan uch kun o‘tgach, Dovud hukumati bu shov-shuvdan voqif bo‘lib, Tohirni saroyga chaqirishdi.(Mirmuhsin “Chodrali ayol”)*

C1 darajadagi “aqli yetmoq” so‘zi ibora sanaladi.

*Pul topishga aqli yetgan Zebining sarv qilishga ham aqli yetib qolar. (Said Ahmad “Qadrdon dalalar”)*

Ammo hamma o‘rinda ham yuqori darajadagi so‘zni ishlatib bo‘lmaydi. Uning o‘z o‘rni bor, albatta. Matnga, gapga biz tanlagan so‘z mos tushishi kerak. Adabiy nutqning asosiy belgilaridan biri ham silliqlik va ravonlikdir. Quyida ba’zi so‘zlar darajaga solindi:

| A1 | A2 | B1 | B2 | C1 |
|---|---|---|---|---|
| rahmat | rahmat | minnatdor bo‘lmoq | tashakkur | qulluq |
| sezgir | sergak | Ziyrak | uddaburon | tuyg‘un |
| chiroyli | go‘zal | Zebo | suluv | dilbar |

Agar biz o‘zbek tilidagi so‘zlarni darajaga solsak, B2 va C1 darajali so‘zlarning aksariyatini badiiy so‘zlar, iboralar va shunga o‘xshash adabiy-ilmiy so‘zlar tashkil etishining ehtimoli borligini ko‘ramiz. Bundan tashqari, darajalash insonning o‘z hissiyotlari darajasini aniq tushunishga yordam beradi. Masalan, Alisher Navoiyda “yig‘lamoq” so‘zining yuzdan ortiq darajalari berilgan.

Graduonimiya (darajalash tartibi) umumiy integral belgi semasiga ko‘ra sinonimiya, antonimiya kabi leksik paradigmalar bilan aloqadordir. Graduonimiya ma’no va emotsional jihatdan ortish/kamayish tartibidagi so‘zlardan iborat stilistik shakllar munosabatida ham namoyon bo‘ladi. Graduonimiya bir yo‘nalishda emas, integratsiya asosida tahlil qilinishi lozim bo‘lgan hodisadir. Graduonimiya mazmuni “semantika – grammatika – pragmatika” uchligi negizida tadqiq etishni taqozo qiladi. Bu yondashuv tildagi gradual munosabatni tahlil qilishning negizini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, bunday darajaga qo‘yib tartiblash o‘zbek tili ravnaqi uchun ma’lum bir darajada o‘zining hissasini qo‘shadi deb o‘ylaymiz. Yuqoridagi fikr va mulohazlarni ummumlashtirgan holatda bugungi tilshunoslikda darajalash tartibi barcha tillar uchun birdek manfaat kasb etmoqda - har bir tilni o‘rganuvchi auditoriya bu darajalanish orqali shu tilni qaysidir ma’noda o‘rganish uchun yengilik kasb etadi. Bu esa til organuvchilar qatorini kengaytiradi va nafaqat o‘zbek tilini chet elliklar uchun o‘rgatishda, bu barcha uchun birdek ahamiyat kasb etadi. Darajalangan so‘zlar shaxs ongi va tafakkurining qay holatda ekanligi va uning tushunish persepsiyasini ham anglatadi. Bu holatni pragmalingvistikada ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llash va uni tafakkuri doirasida ishlata olish qobiliyatini shakklantirishda ham sozlarni - leksik qatlamdagi barcha leksemalarni darajalash tartibida berilgan ilmiy va nazariy tadqiqotlar bugungi kun uchun juda zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P.183-200.
2. Dustmamatova N. O‘zbek va rus tillarida lug‘aviy graduonimiya. Filol. Fan. Nom.diss..(phd). – T.:2023.– B 5

3. Nematov H, Rasulov R. O‘zbek tili system leksikologiyasi. O‘qituvchi, –T.: 1995.
4. Sultonsaidova S . Sharipova O‘. O‘zbek tili stilistikasi.— T.: Yurist-media markazi, 2009.—B 112
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati.—T.: Universitet ,2000.— B 600
6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. —T.: O‘qituvchi , 1978.— B 407

## TEZ AYTISHLARNING BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

***Saylaubaeva Bibigul Jenisbay qizi***
*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU talabasi*
bibigulsaylaubaeva@gmail.com

**Annotatsiya**. *Maqolada xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan janri tez aytishlarlarning bolalar nutqini to‘liq va aniq rivojlantirishdagi o‘rni va bunga dalil sifatida tez aytishdan namunalar ilmiy-nazariy tahlil ostiga olingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *xalq og‘zaki ijodi, tez aytishlar, tarixiy taraqqiyoti,bolalar nutqi,talaffuz ko‘nikmalari, undosh tovushlar, nutqiy muammolar, diksiya*

**Abstract**. *In the article,the widespread genre of folk oral art is the role of fast sayings in the full and clear development of children’s speech and samples of fast sayings are taken under scientific and theoretical analysis as proof of this.*

**Key words*:*** *folklore, quick speech, historical development, children’s speech, pronunciation skills, consonant sounds, speech problems*

Xalq og‘zaki ijodi turlaridan biri bo‘lmish tez aytish ayrim nutq tovushlarining ko‘p qaytarilishi yoki tovushlarning so‘z va iboralar tarkibida talaffuzni qiyinlashtiradigan darajada murakkab joylashishiga asoslanadi.Ayniqsa, bu iboralar tez aytilayotgan paytda, aytuvchi bu murakkab tovushlarni talaffuz qila olmasdan adashib ketishi tinglovchilarning beozor kulgusiga sabab bo‘ladi.O‘zbek tilida bu iboralarning tez aytish deb nomlanishi ham shundan kelib chiqqan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotida tez aytishlar qadim zamonlardan beri mavjud. Professor Hodi Zarif tuzgan “O‘zbek folklori” xrestomatiyasida tez aytishga 12 ta misol keltirilgan. O‘tmishda katta yoshdagi odamlar ham o‘tirishlarda, to‘ylarda tez aytishda musobaqalashib, madaniy hordiq olganlar. Keyinchalik, asosan,bolalar repertuariga aylangan.Tez aytishlar bolalarning fikrlash qobiliyatini, so‘z boyligini oshirishga va nutqining ravon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Komenskiy ota-onalarga bolalar bilan muloqot qilishda narsalar nomlarini va so‘zlarini buzmasdan, to‘g‘ri aytish, bolalarga talaffuzi qiyin bo‘lgan va nisbatan

uzun so‘zlarni aytishni mashq qildirish va buning uchun o‘yin uslubidan foydalanishni maslahat beradi. Komenskiyning xizmati shundan iboratki, u pedagoglar ichidan birinchilardan bo‘lib bola nutqini rivojlantirishda,uning ona tilini butun go‘zalligi va milliy xususiyatlari bilan birgalikda o‘zlashtirib olishida she’riyat, ertaklar, maqollar va matallar, tez aytishlarning tutgan o‘rniga birinchi bo‘lib e’tiborini qaratadi.[7] Hozirgi kunda ham tez aytishlarning roli va ahamiyatini biron bir narsa bilan tenglashtirib bo‘lmaydi.

Nutqning to‘liq rivojlanmaganlik sabablarini tahlil qilgan V.K.Orfinskaya,Y.F. Sobotovich, S.S.Lyapidevskiy,Y.M. Mastyukovalarning olib borgan tadqiqqot ishlarida ham nutq buzilishi hodisasi keng aspektda o‘rganilib tahlil qilingan.[8]

Tez aytishni qayta-qayta mashq qildirish, berilgan matnni osongina diliga,tiliga jo qilib olish har tomonlama foyda so‘z o‘yini bilan ijro etiladigan har bir tez aytish zamirida bir nechta vazifalar yotgan bo‘ladi.Shularning birinchisi qayta-qayta mashq qilish,tinimsiz takrorlash natijasida bolaning nutqi chiqadi, tili ravon bo‘ladi.Bularning hammasi yig‘ilib bola tarbiyasiga bog‘lanadi.Bola dunyoga kelishi bilanoq uni kelajakda komil inson bo‘lib o‘sishi uchun mana shunday chora tadbirlarni qo‘llashga to‘g‘ri keladi.Aks holda bu ish kechiktirilsa, ko‘zlangan natija chiqmay qolishi mumkin.Bunday namunalar xalqimizning faqat til boyligimizga emas, so‘zlarning tiniq talaffuziga ham katta e’tibor bilan qaraganligini dalilllaydi. Olimlarning aniqlashicha, 100 ta namunadan 18 tasi “sh”, 17 tasi “m”, 15 tasi “k”, 10 tasi “s”, 8 tasi “j” va “ch”, 7 tasi “g‘” va “q” tovushlariga asoslangan bo‘lib, “l”, ”m”, “g”, “d”, “z” tovushlariga asoslanganlari nisbatan kam ekan. Xullas, tez aytishlar bolalar tarbiyasida , hatto talaffuz ko‘nikmalarini oshirishga katta e’tibor bilan munosabatda bo‘lganligini bildiradi.[9]

Undosh tovushlarni tovushlarni talaffuz qilishda o‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ida ma’lum bir to‘siqqa uchrab chiqadi.Agarda bolalarda biror undosh tovushni talaffuz qilishda nuqsonlar aniqlansa ularni tuzatish uchun undoshlar ziddlanishiga asoslangan tez aytishlardan foydalanish ham muhim hisoblanadi.

Yosh bolalarda talaffuz qilinishi qiyin bo‘lgan tovushlardan biri “sh” undoshidir. Ko‘p hollarda ushbu tovush “s” tarzida talaffuz qilinganining guvohi bo‘lamiz. Bu esa, albatta, nutqning g‘aliz bo‘lishiga, hatto ayrim so‘zlarning

[7] Komenskiy Y.A.Onalar maktabi.-Praga,1982 .-B.31.

[8] Azimov A.Tez aytishlar fonetik trenajyor sifatida, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2

[9] O.I.Adizova.Bolalar nutqini o‘stirishda tez aytishlarning o‘rni.-Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi -2/4-2024

ma’nolari o‘zgarib ketishiga sababchi bo‘ladi .Ushbu tovushni to‘liq va ravon aytishni quyidagi tez aytish orqali o‘rgatish mumkin:

*Qishda kishmish pishmasmish, pishsa kishmish qishmasmish.*[10]
*Shahrisabzlik Shohista Shahrixonga shoshildi.*
*Shokir sholipoyada shaqildoqni shaqillatdi.*
*Shol g‘am yesa, kofir bo‘ladi.*
*Shovotli Shukurjonning sho‘r sho‘rvasi*
*Shoiraning sho‘r sho‘rvasidan ham sho‘r*
*Shamol shovullab shovqin soldi,*
*Shalpangquloq qo‘rqqanidan shataloq otib qoldi.*
*Shu mushuk, shum mushuk,shumshuk mushuk.*

Maktab va maktabgacha ta’limda tarbiya oluvchi bolarada gapirish jarayonida “s” undoshi bilan bog‘liq muammolar ham uchrab turadi. Bunda ularga so‘zlarni aniq va chiroyli talaffuz qilishda “s” harfidan boshlanuvchi quyidagi tez aytishlar yordam beradi:

*Salim sochiqqa sochini artdi.*
*Salimning sadadagi sap-sariq sa’vasi sahar sayraydi.*
*San’at saroyi- saroylarning sarasi.*
*Sevara savatchaga sedana soldimi?*
*Sodiq Siddiqqa soat sotdimi?*
*Siddiq Sodiqqa soat sotdimi?*
*Silliqqina sirpanchiq,*
*Sirpan sezmaysan sovuq.*
*Salim sumkasiga patirni soldi,*
*Salima sumkasidan atirni oldi.*
*Soat soatini soatsozga sozlatdi.*
*Sotvoldi bosvoldi qovun sotib oldi.*
*Sovuqda tovuqqa tovoqda bodroq sochdim.*
*Sovuqda tustovuq sovuq qotdi.*

Kichik yoshdagi bolalarda talaffuz qilinishi qiyin bo‘lgan undoshlardan biri “ch” harfidir. Ko‘pchilik bolalar so‘zlarni talaffuz qilish jarayonida “ch” undoshini “sh” undoshi bilan adashtirish holati ham ko‘p uchraydi. Shunday holatlarda quyidagi “ch” harfi bilan bog‘liq tez aytishlar foyda beradi:

*Bir juft cho‘p ko‘pmi, qo‘sh juft cho‘pmi?*
*Chumchuq chug‘urchiqni cho‘qimasa,*
*Chug‘urchiq chumchuqni cho‘qimaydi.*

[10] Jumaboev M. Bolalar adabiyoti va folklori.-T. Fan , 2006.B.9.

*Chinoz jiydazoribchindan Chilonzor chinorzoridan katta.*
*Chovli- simdan, chovgum- misadan.*

Tez aytishlar, birinchi navbatda, inson diksiyasini yaxshilaydi. Tez aytishlar talaffuzni keskinlashtirishga va nutqni yanada chiroyli va aniqroq qilishga yordam beradi. Ikkinchidan, to‘g‘ri talaffuz qilingan tez aytishlar o‘quvchilarga aksentdan deyarli xalos bo‘lishga yordam beradi. Uchinchidan bu shunchaki kulgili! Ayniqsa, siz yolg‘iz bo‘lmaganingizda va bir xil bolalalar yonida o‘tirganda, hushtak va xirillagan tovushlar to‘plamini takrorlashga harakat qilishadi. Ammo natija darhol seziladi.

Tez aytishlar og‘zaki nutq mashqi bo‘lib, kichik yoshdagi bolalarda balki yoshi kattalarda ham ma’lum tovushlami to‘g‘ri va ohangdor talaffuz qilish ko‘nikmalarini orttiradi. Bu janrga mansub asarlar biyron so‘zlashga o‘rgatish bilan birga, ularga estetik zavq beradi, fikrlash qobiliyatlarini o‘stiradi, xotiralarini mustahkamlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. H.Zarif, O‘zbek folklori: Pedagogik institutlar uchun xrestomatiya. -T.:1941.
2. Komenskiy Y.A, Onalar maktabi maktabi.- T.-Praga. 1982
3. O.I.Adizova.Bolalar nutqini o‘stirishda tez aytishlarning o‘rni.-Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi -2/4-2024
4. Azimov Akbarjon, Tez aytishlar fonetik trenajyor sifatida, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2
5. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti va folklori.-T.: Fan. 2006.
6. Tez aytishlar-baxtiyor.uz
6. https://vikipediya


## “DEVONI LUG‘ATIT TURK” DA TIBBIY TERMINLARGA OID SO‘ZLAR.


***Soatova Sahobat Qo‘ldosh qizi***
*ToshDO‘TAU O‘FF 3-kurs talabasi*
*soatovasahobat77@gmail.com*
***Ilmiy rahbar:*** *Xolmuradova Mushtariy Faxrutdin qizi*



**Annotatsiya:** *Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asari XI asrda nashr etilgan tilshunoslik sohasidagi salmoqli asardir. U turkiy tilning eng qadimgi lug‘atlaridan biri bo‘lib, 1072 ga yaqin leksemalardan iborat. Asarning eng muhim jihatlaridan biri uning tibbiy terminga oid sòzlaridir. Ushbu maqola “Devoni lug‘atit turk”da tibbiy terminlarning tuzilishi va xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan.*



**Kalit so‘zlar**: *“Devonu lug‘atit turk”, tibbiy terminlar, affiks kasalliklar, epidemiya*

**Abstract:** *Mahmud Kashgari's work "Devoni Lugatit Turk" is an important work in the field of linguistics published in the 11th century. It is one of the oldest dictionaries of the Turkish language and consists of about 1072 lexemes. One of the most important aspects of the work is its use of medical terminology. This article aims to study the structure and characteristics of medical terms in "Devoni Lugatit Turk".*

**Key words:** *Turkish dictionary, medical terms, affix, dieases, an epidemic*

“Devoni lug‘atit turk” XI asrda Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan yozilgan turkcha lug‘at bo‘lib, taxminan 1100 betdan iborat. Kitob muqaddima, turkiy til tavsifi va asosiy lug‘atdan iborat. Lug‘at alifbo tartibida tuzilgan va so‘zlardan foydalanishning ko‘plab misollari bilan 8000 ga yaqin yozuvlarni o‘z ichiga oladi. “D.L.T”ning eng muhim mavzularidan biri so‘z yasalishi, ya’ni mavjud so‘zlardan yangi so‘z yasash jarayonidir. So‘z yasash har qanday tilning muhim qismi bo‘lib, uning so‘z boyligini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. “D.L.T” mazmunida so‘z yasalishi turkiy tilda yangi so‘z yasash jarayoniga taalluqlidir. Qoshg‘ariyning “D.L.T” asari turkiy so‘zlarning to‘liq ro‘yxatini taqdim etibgina qolmay, turk tili grammatikasi va sintaksisining turli jihatlarini ham tadqiq qiladi. Demak, lug‘at faqat alohida so‘z ma’nolarini emas, balki ularning grammatik shakllarini, hol qo‘shimchalarini, fe’l kelishiklarini ham o‘z ichiga oladi. Lug‘atda ikki yoki undan ortiq so‘zlarning qo‘shilib yangi so‘z yasalishi natijasida hosil bo‘ladigan qo‘shma so‘zlarning yasalishi haqida ham qimmatli ma’lumotlar berilgan. Turk tilida qo‘shma so‘zlar qo‘shimcha, old qo‘shimcha yoki ikkalasining birikmasini qo‘shish orqali ham yasaladi. Qoshg‘ariy qo‘shma so‘zlarning keng doirasini, jumladan, ikki yoki undan ortiq fe’l, ikki yoki undan ortiq ot yoki fe’l va otning qo‘shilib yasalishi bilan yaratilgan so‘zlarni o‘rganadi. Qoshg‘ariy o‘z asarida yoritgan so‘z yasalishining yana bir muhim jihati - mavjud so‘zga morfema (affiks) qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan so‘zlar bo‘lgan hosila so‘zlarning yasalishidir. Turk tilida hosila so‘zlar qo‘shimchalar yordamida yoki so‘z o‘zagini o‘zgartirish orqali yasalishi mumkin. Qoshg‘ariy hosila so‘zlarga, jumladan, fe’l va otlarga ko‘plab misollar keltiradi. Qoshg‘ariyni tashvishga solgan yana bir muhim soha turkiy so‘zlarning kelib chiqishi edi. U O‘rta Osiyo bo‘ylab ko‘p kezgan, turli turkiy qabilalardan ma’lumot to‘plagan va ularning lug‘atini yozib olgan. U turkiy so‘zlarning kelib chiqishini mahalliy lug‘at yoki qo‘shni tillardan fors, arab, mo‘g‘ul tillaridan o‘zlashtirilgan lug‘at deb tasniflashga harakat qilgan. Mahmud Koshg‘ariyning “D.L.T” asari turkiy tilshunoslik adabiyotiga qo‘shilgan qimmatli hissadir. Qoshg‘ariy bu asarida so‘z yasalishining turli mexanizmlarini, jumladan, affiksatsiya, birikma va takrorlanishni o‘rganadi.

Mahmud Qoshg‘ariy XI asrning O‘rta Osiyolik filolog olimi va tilshunosidir. 1072-1074 yillar davomida arab tilida “Turk tili lahjalari”ni tuzgan. Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Devoni lug‘atit turk” asarida arab tilining ilmiy uslublari orqali yaratgan asari turk tilining

rivojlanishi va shevalari haqidagi muhim va qimmatli manbadir. Mahmud ibn al-Husayn ibn Muhammad al Qoshg‘ariy Buxoro, Nishopur, Samarqand, Marv, Bag‘dod kabi shaharlarda olim uzoq vaqt yashagan va shu hududlarning tili, madaniyati, etnagrafiyasini o‘rganadi. Turkiy urug‘ va qabilalar yashagan barcha yerlarni birma bir o‘rganib, ularning tillaridagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlaydi. Til xususiyatlariga ko‘ra turkiy tillarni guruhlarga tasniflash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Mahmud Qoshg‘ariyning o‘zi bu haqida shunday deydi: “Puxta qo‘llanma bo‘lsin deb, har bir qabilaning o‘ziga xos xususiyatlariga qiyosiy qoidalar tuzdim…” Turkiy tillarni farqli belgilariga ko‘ra dastlabki ikki guruhga ajratadi: turklar ( chigil, qoshg‘ar, arg‘u, barsog‘on, uyg‘ur), o‘g‘uz va qipchoq qabilalari tillari. “D.L.T” turkiy tilshunos olim Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan XI asrda yozilgan turkiy tillarning to‘liq lug‘atidir. Kitob turkiy tillar tarixida muhim o‘rin tutadi va turkiy tilshunoslik uchun muhim manba hisoblanadi. Kitobning asosiy jihatlaridan biri bu so‘z yasashga munosabatidir. Qoshg‘ariy turkiy tillarda so‘zlarning qanday yasalishini ularning tuzilishidagi qoliplarni aniqlash va kelib chiqishini tahlil qilish orqali o‘rganadi, bu esa til grammatikasi va lug‘at boyligi haqida tushuncha berishga yordam beradi. Turkiy tilda so‘z yasashning eng keng tarqalgan usuli asosni qo‘shimcha va old qo‘shimchalar bilan birlashtirishdir. Qoshg‘ariy bu jarayonni asos ma’nosini o‘zgartiruvchi qo‘shimcha va old qo‘shimchalarning turli kontekstlarda qo‘llanilishini tahlil qilib tasvirlaydi. Masalan, “-li” qo‘shimchasi mansublik yoki sifatni bildiradi, chunki “guzel”da “guzelli” (go‘zallikka mansub) yoki “guzeldir” (go‘zal) bo‘lishi mumkin. Qolaversa, Qoshg‘ariy so‘z yasalishida turli qoliplarni aniqlab, ot, sifat va fe’llarning o‘zagi, infikslari va oxiri bilan ro‘yxatini taqdim etadi. Shuningdek, u arab, fors, xitoy kabi turkiy lug‘atning turli etimologik manbalariga izoh beradi. Qoshg‘ariy so‘z yasalishi tahlili bilan bir qatorda turli sosiolingvistik omillarni ham ko‘rib chiqdi. U turkiy tilning turli dialektlari va sosiolektlarini aniqlab, tilga mo‘g‘ullar, turklar, arablar va forslar kabi turli etnik guruhlar va madaniyatlar ta’sirida qanday bo‘lganini tushuntirib berdi.

Mahmud Qoshg‘ariyning "D.L.T" asarida qayd etilgan ko‘pgina so‘zlarimizning hozir ham tilimizda ishlatilishda davom etayotganligi shevalarni tilning 34 oziqlantiruvchi manba sifatida xizmat qilishini ta’kidlaydi. Mahmud Qoshg‘ariyning "D.L.T"ida yig‘ilgan so‘zlarning ko‘plari hozirgi adabiy tilida faol qo‘llanadi: qatlama (yog‘da pishirilgan qat-qat non), supurgi.

Asarda uch turkumga ajralgan barchasining grammatik xossalarini o‘sha davr nuqatai nazaridan kelib chiqib aniq ravshan holda yoritib bergan. Masalan qo‘shimchalar imlosini oladigan bo‘lsak, birgina –chi affiksni olaylik. Bu affiks XI asr til grammatik xossasiga ko‘ra otlarga qo‘shilib, ot yasalishida qo‘llanilar edi. Mahmud Qoshg‘ariy buni alohida affiks sifatida ko‘rsatmagan, uning ayrim so‘zlarga bergan izohidan –chi affiksini shaxsga tegishlilikni anglatuvchi sifatida keltirgan. -chi affiksni tahlil qilar ekanmiz bugungi kunda u: so‘roq-taajjub yuklamasi: sen-chi, kelsa-chi, Lolaxon-chi. Bunda -chi affiksi olmoshga,

otga, fe’lga ham bog‘lana olgan. Ot yasovchi (shaxs oti ) yasovchi: suv+chi, bo‘z+chi, gul+chi. Sifat yasovchi : a’lo+chi.

Asarda keltirilgan misollar orqali turkiy tilning so‘z yasalishi borasidagi keng moslashuvchanligi va ijodkorligini ko‘rishimiz mumkin. Asar turkiy til va adabiyot tarixida hal qiluvchi asar bo‘lib, turkiy tilda so‘z yasalishining tabiati va xususiyatlari bo‘yicha keyingi izlanish va tadqiqotlarga zamin yaratdi.

Bundan qariyb ming yil avval yashab o‘tgan turkiy xalqlarning buyuk tilshunosi Mahmud Koshg‘ariy “D.L.T” (“Turkiy so‘zlar lug‘ati”) asarida (XI asr) nafaqat ko‘plab ma’lumotlar bergan. til va etnografiyaga oid, balki turkiy xalqlar tibbiyotiga oid.

Ko‘rinib turibdiki, u anchadan beri to‘xtab qolgan. Qizig‘i shundaki, “D.L.T” (keyingi o‘rinlarda Devon – N.R.)da uchraydigan tibbiy so‘z va atamalarning salmoqli qismi ko‘pgina turkiy tillarda, xususan, o‘zbek tilida deyarli o‘zgarmagan holda saqlanib qolgan. tibbiyot tarixining ko‘plab qorong‘u tomonlariga oydinlik kiritadi.

Devon qariyb 100 yil davomida tilshunos, tarixchi va olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ko‘pgina tadqiqotchilar asardagi so‘zlarning kelib chiqishi, tuzilishi va yasalish shakllari bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borganlar.

Devondagi tabobatga oid so‘z va atamalar ayrim tadqiqotlardagina uchraydi, asarda turli kasalliklarga oid so‘zlarga oid asarlar deyarli yo‘q (qarang. Bayat 2003: 103-122; Chiroq 2015; Hauyenschild 1994: 25-100; Masattosh 2020: 1348-1358; O‘rindiq 2016: 195-212).

Asarga ko‘ra, qadimgi turklar “kasallik”, “kasallik”, “dard” so‘zlarini “dard” ma’nosida qo‘llashgan va “Devon”dagi turli kasalliklarga aloqador so‘z va atamalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Teri kasalliklari: 1) ala "ola, pes", mato "latta, shish", buqa "buqa", inaku "dabba", balg‘am "qizamiq", shish "shish", siğil "siğil", soknagu "tumor" tirnoq va et orasi”, temraku “Temratki”, tersgak “tirsak, terskay, terskan”, qizamiq “qizamiq”, orqa “yara turi”, chechak, chechak “chechak”, chechak “chechak”, urra “churra, dabba”. ", chor "churra".
2. Sovuqqonlik bilan bog‘liq kasalliklar “hiqichoq, iyq”, issiqlik “isitma”, elpinmak “sovuq, teginish”, tomoq “gripp”, isitma “isitma”, qamchi “isitma”.
3. Yuqumli kasalliklar: sariq isitma, bezgak, bezgak, bezgak, sariq isitma.
4. Ichki kasalliklar: diareya, yurak og‘rig‘i
5. Ruhiy kasallik: kuyish, epilepsiya
6. Tananing kasalliklari: semiz “yog‘”, ketu “cho‘loq, cho‘loq, cho‘loq”, cho‘loq “cho‘loq, kesilgan”.

O‘rta asrlarda keng tarqalgan kasalliklar bilan bog‘liq bo‘lgan bunday so‘z va atamalarning shakli va ma’nosini hisobga olsak, ularning ko‘pchiligi sof turkiy asosga ega ekanligi e’tiborga molik. Qizamiq inson tanasida qizil yaralarning tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lsa, sariqlik yuz va ko‘zning sarg‘ayishi bilan bog‘liq. Shuningdek, isitma so‘zining

kelib chiqishi tana haroratining koʻtarilishi, tana haroratining koʻtarilishi, elpinmak "qoʻl tegishi, shamollash" asosida qoʻl, shamol bilan bogʻliq sharoitlar va "tutqich" soʻzi turli xil odamlardagi harakatlar, vaqti-vaqti bilan sodir boʻladigan harakatlar, masalan, tutilishi va toʻxtatilishi.

Tugʻish — qadimgi turkiy toʻlganmoq fe'lidan olingan soʻz boʻlib, "azob, azob" [qarang. qoshgʻariy ii: 280]. Tumagu "tumov" soʻzining zamirida qadimgi turkiy tum "sovuq", tumlitmaq "sovumoq" (qarang. Qoshgʻariy I: 324; Qoshgʻariy II: 397). Bugungi kunda oʻzbek tilida tuman soʻzining shakllanishi ham qadimgi turkiy "tum" (sovuq) soʻzi bilan bogʻliq boʻlib, u "sovuq, havoning sovishi" ma'nosiga asoslanadi. Qolaversa, devondagi iq shaklidagi "hiccup, iyq" soʻzini tovush taqlidi deb hisoblash mumkin

Devonda uchraydigan kasalliklar nomlarining salmoqli qismini oʻsha davr turkiy adabiyotida uchratish mumkin. Xususan, Mahmud Koshgʻariy bilan deyarli bir davrda yashagan Yusuf Xos Hojib oʻzining "Qutadgʻu bilig" ("Baxtga yetaklovchi bilim") kitobida yuqorida tilga olingan kasalliklarning bir qancha nomlarini tilga oladi [Yusuf Xos Hojib 1971]. Bu asarda kasallikning umumiy nomi ig, dard boʻlib, sogʻlom turmush tarziga urgʻu berilgan.

Mahmud Koshgʻariy yashagan oʻrta asrlarda turkiy xalqlarning salmoqli qismi koʻchmanchi chorvachilik bilan shugʻullanib, kengroq yaylovlarda yashagan. Devonda topilgan kasallik nomlarining nisbati unchalik yuqori emas. Biroq, bezgak, isitma, tif, gerpes kabi shamollash, gripp bilan bogʻliq kasalliklarning nisbatan keng tarqalgan nomlari turkiy xalqlar yashaydigan Yevroosiyo kengliklarida yanada ekstremal iqlim bilan bogʻliq.

Oʻrta asrlarda shahar va aholi zich yashaydigan joylarda turli kasalliklar, xususan, vabo va oʻlat kabi epidemiyalar keng tarqalgan boʻlsa-da, koʻchmanchi va yarim koʻchmanchi chorvadorlarda bunday holat kam uchraydi. Bunga oʻsha paytdagi ob-havo sharoiti sabab boʻlgan, bu shaharlarda sanitariya darajasiga koʻra oʻzgarib turardi. Keng yaylovlar havosining musaffoligi, doimiy shamolli iqlim yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini oldi. Bu holatning Mahmud Koshgʻariy ijodida oʻz aksini topganligini ushbu tilshunos olimning quyidagi fikrlarida ham koʻrish mumkin.

"Uxlash, uxlash neng - tashlab ketilgan, unutilgan hamma narsa. Shuning uchun dangasalarni "uxlab yotgan odamlar" deb atashadi. Oʻgʻuzlar orasida oʻz shaharlarini tashlab ketmaydigan, urushmaydiganlar ham uxlayotganlar deyiladi. Dangasa – tashlab ketilgan degan ma'noni bildiradi"(Qoshgʻariy III: 2) Koʻrinib turibdiki, turklar uzluksiz harakatni ulugʻlagan, kundalik hayotda faol, mehnasevar kishilarni hurmat qilgan, harakasiz, dangasalar jamiyatda yetarlicha oʻrin topa olmagan va "yolgʻonchi", ya'ni "yolgʻonchi, dangasa" atamasini ishlatgan. shuni aytish kerakki, hozir ham oʻzbek tilining janubiy xorazm shevasida yotogʻ soʻzi "dangasa, dangasa" ma'nosini bildiradi [oxshl 1971: 128], bu soʻzning oʻzagi koshgʻariylar davridagi yotuq soʻziga borib taqaladi.

Devon tilidagi turli kasalliklarga oid so‘z va atamalarning yana bir qiziq tomoni shundaki, o‘rta asr Sharq adabiyotining aksariyat namunalaridan farqli o‘laroq, asarda vabo, vabo, umuman, epidemiyalar kam uchraydi. Bu esa turkiy xalqlar orasida bunday kasalliklar kamroq tarqalgan degan fikrni mustahkamlaydi.

Mahmud Koshg‘ariy ba’zi o‘rinlarda faqat shu kabi kasalliklarni tilga olgan bo‘lsa-da, u keltirgan ma’lumotlar hayvonlarga tegishli ekanligi tushuniladi. Tilshunos olim yut so‘ziga ishora qilib, uni “tabiiy, qishda hayvonlarni sovuqdan o‘ldiradigan yut” deb ta’kidlaydi (Qoshg‘ariy III: 156).

Qizig‘i shundaki, Devonda o‘rta asrlarda insoniyat uchun eng dahshatli ofat hisoblangan vabo va vabo kabi pandemiya kasalliklari haqida ko‘p ma’lumotlar yo‘q. Bu, yuqorida aytib o‘tilganidek, bir tomondan, turkiy xalqlarning tarqalish geografiyasi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, turklarning sog‘lom turmush tarzi bilan bog‘liq. Devonning sog‘lom turmush tarzi, davolash va shifobaxsh giyohlar haqida ko‘p ma’lumotlarga ega ekanligi ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, turkiy tilning boy xazinasi bo‘lmish “Devonu lug‘ati-t-turk” asaridagi ma’lumotlar nafaqat tilimiz uchun tarixiy manba, balki sog‘lom turmush tarzi va kundalik hayoti haqida ham muhim manba sifatida qimmatlidir. ajdodlarimiz hayoti.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Suxanberdiyeva, S. (2022). “Devonu lug‘otit turk” asarini o‘qitishda interfaol metodlar. Journal of Integrated Education and Research, 1(5), 248-252.
2.Usmonov, A., & Mizomova, F. (2021). O‘zbek leksikografiyasi xususida. Filologiya ufqlari jurnali
3. Ismatova, V. S. A. (2022). “Devonu lug‘otit turk” dagi mavhum otlarning semantik-uslubiy xususiyatlari. International conference on learning and teaching, 1(4), 311-316.

## ABDULLA QAHHORNING “DAHSHAT” HIKOYASIDA FRAZEOLOGIZMLARNING QO‘LLANILISHI

***Turdiyeva Aziza Sobir qizi,***

*GulDPI IFF 1-kurs talabasi*

*azizaturdiyeva070@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligidagi boy va mazmundor frazeologizmlar, ularning rang-barang ma’no-mazmunlari, tildagi va jamiyat*

*hayotidagi ahamiyati kabilar Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasi misolida ko'rsatib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Abdulla Qahhor, frazeologizm, ko'chma ma'no, sinonimlar, hikmatli so'zlar, maqollar, matallar, dialektlar, fosh qilmoq.*

Bugungi kunda dunyodagi deyarli barcha xalqlar hayotida ularning ajdodlaridan meros bo'lib qolgan, tarixiy an'analar asosida asrlar davomida turli xil ko'rinishlarda shakllanib kelgan frazeologizmlar, ya'ni barqaror birikmalar xalq tili va nutqida faol qo'llanib kelayotgan, ko'chma ma'noda qo'llanadigan, ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va ma'nosi bir so'zga, so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan turg'un birikmalardir. Frazeologizmlar og'zaki nutqda kishining nutqini bezashga, qisqa va lo'nda, mazmundor qilishga yordam bersa, yozma adabiyotlarda qo'llash esa o'sha asarni ta'sirchan qiladi. Kitobxon tomonidan o'qishliligini, asarning badiiy qiymatini oshiradi. Bunday birikmalarning eng yaxshi namunalarini Abdulla Qahhorning asarlarida ham ko'plab uchratishimiz mumkin. Bir qarashda Abdulla Qahhor asarlaridagi frazeologizmlarning bir nechtasini oldin boshqa asarlarda uchratmagandek tuyiladi, ya'ni ular sizda yangilikdek taassurot qoldiradi. Darhaqiqat, ularning ba'zilari xalq tilida uchramasligi ham mumkin. Bunday iboralar yozuvchining mahorati, so'z boyligi natijasida vujudga kelgan. Mazkur maqolada nafaqat xalq tilidagi, balki yozuvchining o'z tilidagi iboralarga yaqin turuvchi birikmalarni ham atroflicha o'rganamiz.

O'zbek kitobxoniga juda yaxshi ma'lumki, Abdulla Qahhor qisqa so'zda ko'p ma'no ifodalash, o'z asarlarida frazeologizmlardan unumli foydalangan yozuvchidir. Bu unsurlar yozuvchining "Dahshat" hikoyasida ham ko'zga tashlanadi. Hikoya kuz shamolining vahshati bilan boshlanadi. Bu o'rinda shamolning ko'z ochirmayotgani haqida so'z ketadi. "**Ko'z ochirmoq**" iborasi bir qarashda kuchli shamol tufayli yuzga, xas va boshqa narsalarning kelib urilishi, natijada kishi "**ko'z ocholmayotgani**" holati keladi. Albatta, bu ma'no ham o'z navbatida to'g'ri, ammo kengroq qaraydigan bo'lsak, bu iboraning boshqa ma'nolarda kelayotganini ham ko'rishimiz mumkin. Hikoyada shamolning ikki haftadan beri tinmayotgani haqida so'z yuritiladi. Demak, shamol tufayli qishloq hayotidagi odamlar o'z yumushlarini bajarishga qiynalishayotgani sir emas. Bu o'rinda iboraning ma'nosi bir so'zga teng ekanligini hisobga olsak, "**ko'z ochirmaslik**" iborasi **qiynamoq, yumushlarini bajarishga xalaqit bermoq** ma'nolarida ham kelgan deyishimiz mumkin.

Hozirgi o'zbek tilshunosligida **"qo'ymijoz"** so'zini frazeologizm sifatida olishmaydi. Albatta, frazeologizmlar faqat fe'l so'z turkumiga mansubdir. **Qo'ymijoz** so'zi esa sifat so'z turkumiga tegishli. Lekin, asardagi jumlani birikmalarga ajratsak, **qo'ymijoz bo'lmoq** birikmasi kelib chiqadi. Mazkur

birikmani ham qaysidir ma’noda iboraga kiritsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, bu yerda iboraning ma’nosi bir so‘zga, ya’ni asar nuqtayi nazaridan olsak, **tinch**, **sokin**, **jimgina** ma’nolarida kelmoqda. Hikoyada **“kafanligini sandiqqa solmoq”** birikmasi ham uchraydi. Biz bu birikmani ko‘p hollarda Abdulla Qahhorning mazkur hikoyasidagina uchratishimiz mumkin xolos. Ushbu birikma bu yerda Olimbek Dodxoning yoshi anchaga borib qolganligi, erta-indin o‘lim, albatta, o‘z hukmini o‘tkazmog‘i mumkinligi ma’nolarida qo‘llanilib kelmoqda. Shunday birikmalardan yana biri **“tilidan sovuq ter chiqarmoq”** iborasidir. Bu ibora Dodxoning go‘riston dahshatini o‘ylagan paytidagi holatiga nisbatan ishlatilgan va bu yerda **“qo‘rqmoq”** fe’liga, ya’ni bir so‘zga teng bo‘lib kelmoqda. Yozuvchi tilidan yaratilgan ikki va undan ortiq so‘zdan tarkib topgan bunday iboralarni hikoyada ko‘plab uchratishimiz mumkin. Masalan, **“bir qarich yerga cho‘kmoq”**- darchaga bo‘yra kelib urilgandan keyin u yerda o‘tirganlarning holatini ifodalab **“qo‘rqmoq”** ma’nosida kelyapti. **“Sochi boshidagi ro‘molni bir qarich ko‘tarmoq”**- Unsinning go‘ristondagi sag‘analarni ko‘rgandan keyingi holatiga nisbat berib kelyapti va bu yerda ham **“qo‘rqmoq”** ma’nosi ifodalangan. O‘z navbatida, bu uchala birikmani, ya’ni **“Tiligacha sovuq ter chiqarmoq”, “bir qarich yerga cho‘kmoq”**, **“sochi boshidagi ro‘molni bir qarich ko‘tarmoq”** iboralarini o‘zaro sinonim iboraga kiritishimiz mumkin. Chunki, har uchala ibora ham bir so‘z- **“qo‘rqmoq”** so‘zi ostida birlashgan.

**“Ikki oyog‘i gavdasidan keyinda qolmoq”** birikmasini ham yozuvchi tilidan yaratilgan ibora sifatida olishimiz mumkin. Unsinning go‘ristondan qaytayotgandagi holatini ifodalab kelgan bu ibora **“shoshilmoq, “yo‘li kamaymagandek tuyilish”** ma’nolarida kelmoqda. Darhaqiqat, juda katta qo‘rquvdan qutilgan odamning, ya’ni Unsinning bu yerdagi dahshatlardan qochishga qanchalik oshiqqani hech birimizga sir emas. Unsin ne azoblarda go‘riston vahshatidan qutilib qaytib kelgan paytda Dodxo **“pinakka ketgan”** edi. Bu ibora o‘z navbatida **“uxlamoq”** ma’nosida kelyapti, ammo **“pinakka ketmoq”** iborasi to‘liq emas, yarim-chala uyquga ketgan, uxlashni endi boshlagan ma’nolarida qo‘llaniladi va **“uxlamoq”** so‘zidan shu jihati bilan farq qiladi. **“pinakka ketmoq”** iborasi **mudramoq, ko‘zi ilinmoq** iboralari bilan sinonim bo‘la oladi. **“Pinak”** so‘zi o‘zbek tiliga tojikchadan kirib kelgan. Asarda, shuningdek, **xuruj qilmoq, rahna solmoq, mudramoq, yurak qilmoq, ko‘ngli ozmoq** kabi iboralar ham uchraydi. Bunday iboralardan yana bir qanchasini asarda ko‘plab uchratishimiz mumkin. Ularning har qaysisi o‘z o‘rnida hikoyani jozibali, mazmundor, qisqa va lo‘nda qilish uchun xizmat qilgan va yozuvchi tomonidan mahorat bilan qo‘llangan.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek adabiyotining yorqin namoyondasi, taniqli yozuvchi Abdulla Qahhor o‘zining deyarli barcha asarlarida frazeologizmlardan juda unumli foydalangan. Aynan mana shu frazeologizmlar yozuvchining jamiyatdagi illatlarni achchiq hajv yo‘li yoki haqiqatlar bilan fosh qilishga qaratilgan, qisqa lo‘nda va mazmundor hikoyalarining yaratilishiga asos vazifasini o‘tadi. Bu unsurlar yozuvchi asarlarini kitobxonlar tomonidan iliq kutib olinishiga, ularning o‘qishliligini oshirishga ta’sir o‘tkazdi. Ayniqsa, yozuvchining qisqa so‘zda ko‘p ma’no ifodalash qobiliyati, roman darajasiga teng asarlarni kichik hikoyalardagi qoliplarga joylashtira olishi tahsinga loyiqdir. Hozirgi kunda ham yozuvchining asarlarida qo‘llanilgan frazeologizmlar, maqollar, hikmatli so’zlar, ilmiy va badiiy faktlar ko‘pchilikni qiziqtirib, e’tiborini tortib kelmoqda va keng o‘rganilish tamoyilini taqazo etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Abdulla Qahhor. (2004). Dahshat. Toshkent.
2. Sh. Rahmatullayev. (2014). O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 1-jild. Toshkent.
3. Sh.Rahmatullayev. (1992). O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent.


## O‘ZBEK TILI LEKSEKASIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING AHAMIYATI


***Xusanova Feruza Asomiddin qizi***

*ToshDO‘TAU O‘FF 2-bosqich talabasi*

*Xusanovaferuza480@gmail.com*



**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada lug‘at boyligimizning asoslari bo‘lgan o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlam to‘g‘risida so‘z yuritiladi. O‘zlashgan leksemalar va o‘z qatlam so‘zlariga xos ba’zi farqli va o‘xshash tomonlar sanab o‘tiladi. O‘zlashgan leksemalarning bugungi kundagi ahamiyati Hakim Nazirning “Qaysi yo‘lni tanlay?”hikoyasi misolida ko‘rsatib beriladi, o‘zlashgan leksemalarga oid ba’zi mulohazalar aytib o‘tiladi.*



**Kalit so‘zlar:** *Umumturkiy so‘z, introlengvistik omil, ekstrolengvistik omil arabcha, fors-tojikcha, ruscha leksemalar, internet terminologiyasi, leksema o‘zlashtirish, leksema ishlatish.*



**Abstract:** *This article talks about native layer and assimilated layer, which are the foundationsof our vocabulary.Some differences and similarities between the acquired words and the words of their class are listed. Importance of adopted words today in Hakim Nazir's "Which way should I choose?" will be shown on the example of the story, some comments on the acquired words will be mentioned.*

**Keywords**: *Common Turkish word, introlinguistic factor, extralinguistic factor, Arabic, Persian-Tajik, Russian lexemes, Internet terminology, lexeme acquisition, lexeme use*

Jamiyat rivoji, tabiatdagi o‘zgarishlar, kishilar tafakkurining o‘sib borishi yangi so‘z va atamalarning yaratilishiga ehtiyoj tug‘diradi. Shuningdek, qadimdan xalqimizda bo‘lgan qo‘shnichilik aloqalari, ijtimoiy tuzumdagi siljishlar, davlat boshqaruvidagi o‘ziga xosliklar ham so‘zga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi. Bu esa o‘z navbatida ichki imkoniyatlar (introlengvistik) asosida yangi so‘z yasalishiga yoki tashqi tas’ir (ekstolengvistik) vositasida so‘z o‘zlashtirishga olib keladi. O‘zbek tili lug‘atining boyish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, bu omillarning ikkalasi ham salmoqli o‘rin tutganini ko‘ramiz. Xususan, qadimgi turkiy til (VII-X asr) leksikasida turkiy tillarning o‘zigagina mansub leksik birliklar ko‘p bo‘lgan. Shunday bo‘lsa-da sug‘dcha, sanskritcha va xitoycha so‘zlar ham amalda qo‘llangan. Eski turkiy til davri (XI-XIV asr) ga kelib bu hol biroz o‘zgardi va bu haqidaDadaboyev quyidagicha fikr bildirgan: “Qadimgi turkiy tildan farqli o‘laroq eski turkiy tilda sanskrit, sug‘d, xitoy tiliga oid o‘zlashmalarning sur’ati pasaydi, aksincha, arabcha va fors-tojikcha o‘zlashmalarning ko‘lami ancha kengaydi” [Dadaboyev ,2020,14]. Eski o‘zbek adabiy tili (XV-XX asr boshlari) leksikasidaturkiy til nufuziga bo‘lgane’tibor kuchaygan va ichki imkoniyatlar asosida boyish ancha mahsuldor bo‘lgan. Natijada o‘zbek tilida 2 ta qatlam vujudga keladi:

1)O‘z qatlam-o‘zbek tili leksikasining umumiy leksemalari va o‘zbek tilining o‘z leksemalaridan iborat qismidir [Jamolxonov,2013,297]. O‘z qatlamham o‘z ichida:

a) umumturkiy leksimalar,

b) o‘zbek tilining o‘z leksemalariga bo‘linadi.

Umumturkiy leksemalar ko‘plab turkiy xalqlarning (qozoq, qirg‘iz, turkman, ozarbayjon…) qadimdan foydalanib kelgan lug‘aviy birliklaridir (bosh-, qosh-, uch- kabi).

O‘zbek tilining o‘z leksemalari nisbatan yangi va o‘zbek tilining o‘zida yasalgan leksemalardir. Tilimiz lug‘at boyligining asosiy qismini tashkil etuvchi bu qism tilning ichki imkoniyatlari, qonun-qoidalari asosida hosil qilingan so‘zlardan iborat va ularni quyidagi holatlarda ko‘rish mumkin:

1.O‘zbekcha o‘zak+o‘zbekcha qo‘shimcha asosida hosil qilingan so‘zlar: terimchi, qotma, qatnashchi

2.O‘zbekcha o‘zak+ o‘zlashma qo‘shimchadan hosil qilingan so‘zlar: so‘rovnoma,bilimdon

3.O‘zlashma o‘zak+ o‘zbekcha yasovchi asosida hosil qilingan so‘zlar: Bunda leksemaning yasovchi asosi a) umumturkiy (bosh+la), b)arab (maorif+chi), d)fors-tojik (barg+siz), c)rus (dastur+chi) bo‘lishi mumkin.
4.O‘zlashma o‘zak+ o‘zlashma qo‘shimcha asosida hosil qilingan so‘zlar: madad+ (arab)+kor (tojik) madadkor, gazet (rus)+xon (tojik) gazetxon kabi. Qolaversa, o‘zbek tili semantik ma’noning kengayishi ko‘k “maysa”, ko‘k “osmon” va shevalardan ma’lum mezonlar asosida so‘z olish hisobiga ham boyib boradi. Yuqorida sanab o‘tilgan qatlam turkiy, xususan, o‘zbek tilining o‘z imkoniyatlari doirasidayanada yuqoriroq bosqichga ko‘tarilishini namoyon etsa, yana shunday ekstralengvistik ommillar mavjudki, ular ham tilning ichki qonuniyatlari singari til takomillashuvida muhim rol o‘ynaydi.

Til taraqqiyoti jarayonida bir tildan ikkinchi bir tilga bevosita leksema o‘tadi (madaniy aloqalar, shu so‘zga bo‘lgan ehtiyoj sabab bo‘lishi mumkin). Samixon Ashirboyev “O‘zbek tiliga so‘zlar, asosan, 3 manbadan: arab, fors-tojik, rus tilidan o‘zlashgan, lekin kamroq bo‘lsa-da boshqa tillardan ham o‘zlashgan so‘zlar bor” deydi [Ashirboyev,2021, 78]. Yuqoridagi tillardan so‘z o‘zlashtirilishining bir nechta sabablari bo‘lib, dastlab, arablar bosqini natijasida arab tili keng yoyilgan bo‘lsa, keyinchalik ruslar istilosi tilimizga o‘z ta’sirini o‘tkazgani hech kimga sir emas. Fors-tojik tilining o‘zlashtirilganiga sabab esa bu xalqlarning qadimdan bir ijtimoiy muhitda, yonma- yon yashab kelayotganidir.

2.O‘zlashgan qatlam-o‘zbek tili leksekasining boshqa tillardan o‘zlashtirilgan qismidir. Bu qismda arab, fors-tojik va rus tillaridan o‘zlashtirilgan leksemalar ko‘pchilikni tashkil qiladi [Jamolxonov, 2013,299]. O‘zlashgan qatlam va o‘z qatlamga oid leksemalar og‘zaki va yozma muloqotdaerkin qo‘llanilaveradi. Chunki ikki turdagi leksimalar ham allaqachon ongimizga singib bo‘lgan va biz ularni nutqimizda ajratmasdan qo‘llayverganimizholdabir nechta xususiyatlariga ko‘ra bir biridan farq qiladi. Xususan:
1.O‘z qatlam leksemalarining aksariyati ko‘p ma’nolidir, o‘zlashgan qatlamda bu qisman chegaralangan.
2.O‘z qatlam leksemalari ko‘proq aniq ma’noda ifodalansa, o‘zlashgan qatlamda mavhum so‘zlarni ko‘proq kuzatish mumkin.
3.O‘z qatlam so‘zlari asosan bir, ikki va uch bo‘g‘inli bo‘lsa, o‘zlashgan qatlamda aksincha, aksariyat so‘zlar ko‘p bo‘g‘inlidir.
4.O‘z qatlam leksemalarida urg‘u asosan so‘z oxiriga tushadi, o‘zlashma so‘zlarda esa urg‘u turli o‘rinlarda qo‘llanadi .

Yuqorida qayd etilganidek, eski turkiy til davridan boshlab yurtimizda arab, fors-tojik va keyinchalik rus tilining mavqiyi nihoyatda kengaydi, bu tillardan

o‘zlashgan so‘zlar lug‘at boyligimizning asosini tashkil etib bordi. Quyida ushbu tillarga xos ba’zi xususiyatlar sanab o‘tiladi:

1)Arab tilidan o‘zlashgan leksemalar. Bu leksemalar quyidagi o‘ziga xos xusuyiyatlarni namoyon etadi: a) leksema tarkibida, aksariyat hollarda, ikki unli yonma-yon kelishi kuzatiladi: saodat, matbaa, oila; b) ko‘roq diniy, hissiy, ilmiy va mavhum tushunchalar ifodalanadi: aza, avliyo, xulq, rukn, farishta; d)leksemalarning grammatik shakllari flektivlik xususiyatida bo‘lib, morfemalarga ajratilmaydi: olim, muallim, mutafakkir kabi.

2) Fors-tojik tilidan o‘zlashtirilgan leksemalar. Bu tillarda leksema oxirida undosh tovush qatorlashib kelishi kuzatiladi: daraxt, farzand, past kabi. Qolaversa, fors-tojik tillarida “o” unlisi leksemaning barcha bo‘g‘inlarida kelishini kuzatish mumkin: obodon, bahor kabi.

3) Rus tilidan o‘zlashgan leksemalar. Rus tilidan o‘tgan leksemalar anchagina xarakterli xususiyatlarga ega. a) leksema va bo‘g‘in boshida bir necha undosh qatorlashib keladi: shkaf, tramvay, traktor; b) bir bo‘g‘inli leksemalarda unli tovush cho‘ziqroq talaffuz etiladi: temp, puls kabi d) ruscha so‘zlar tarkibidagi qo‘shimchalar o‘zbek tilida yasalma sifatida olinmaydi: ultratovush, mikroto‘lqin.

Leksema o‘zlashtirish tabiiy jarayondir. Ayniqsa, bugungi tezkor zamonda ijtimoiy tarmoqlar orqali dunyoning turli joylaridagi xabarlar qisqa vaqtda turli hududlarga yetib borayotgani hech kimga sir emas. Bu jarayon haqida Sh. Rahmatullayev “Leksema o‘zlashtirish barcha tillar orasida sodir bo‘lib kelgan va bundan keyin ham kuchayadi-yu, so‘nmaydi”, -deya izoh qoldiradi [Sh. Rahmatullayev, 111]. Qolaversa, Mahmudxo‘ja Behbudiy ham bu haqida to‘xtalib: “Yalg‘uz turkcha so‘ylamak va yozmoq abadan mumkin yo‘q. Baqadri imkon arabiy va forsiyni oz yozayluq. Barcha ilmu fan istiloh va lug‘atlarig‘a turkchadan muqobil oxtarib vaqtni zoe etmayluk”-deydi [M.Behbudiy, 1915, 311]. Xuddi yangiliklar singari ularning nomlanishiga yoki ma’lum qismiga xos shunday so‘zlar kirib kelyapdiki, mutaxassis, olimlarimiz hali uni nomlashga ulgurmasdanoq jonli so‘zlashuvda ommalashmoqda. Bu hol o‘zbek tili leksikasida o‘zlashma so‘zlar qatlamining kengayib borishiga olib kelmoqda. Izlanishlarga ko‘ra, yolg‘iz internet terminalogiyasiga oid o‘zlashmalar bugungi kunda 54 foiz bo‘lib, ularning 31 foizi rus tiliga oid, 23 foizi ingliz tilidan o‘zlashgan baynalmilal internet terminlaridir [H. Dadaboyev,2020,18]

Hozirgi o‘zbek tilida o‘zlashgan so‘zlarning ahamiyatini va so‘zlarning mavqeyini bilish maqsadida Hakim Nazirning “Qaysi yo‘lni tanlay?” hikoyasidagi ba’zi so‘zlarni o‘rganib chiqdik. Xulosaga ko‘ra:

a) Og‘zaki va yozma so‘zlashuvda fors-tojikcha leksemalar va tojikcha so‘zlarga o‘zbekcha yasovchilarni qo‘shish orqali hosil qilingan o‘zlashma so‘zlarni ko‘plab uchratish mumkin,

b) Fors-tojikcha leksemalar ko‘proq kundalik turmushda eng faolqullanuvchi, xo‘jalik sohalariga oid o‘zlashmalardir.

c) Asarda arabcha leksemalar aynan o‘zlashtirilgan. Tilimizda so‘z 2 xil usulda o‘zlashtiriladi: o‘zicha olish va kalkalab olish.

1. O‘zicha olishda leksema aynan yoki juz’iy tovush o‘zgarishi bilan qabul qilinadi 2.Kalkalab olishda o‘zlashtirilayotgan leksemaning leksik ma'nosi va ma'noli qismlarga bo‘linishi saqlanadi, lekin o‘zlashtiruvchi tilning materiali bilan to‘ldiriladi [Sh.Rahmatullayev,2006, 110].

d) Arab tilidagi so‘zlar yaxlit holda o‘zlashtirilgan bo‘lsa, fors- tojikcha leksemalar ko‘proq yasalma holatda kuzatiladi.

e) Arabcha so‘zlarning aksariyati ilm, fan, ma’daniyat sohasiga oiddir.

f) Ruscha leksemalar aynan rus tilidan yoki rus tili orqali o‘zlashganini kuzatish mumkin. Masalan, asarda uchraydigan fabrika so‘zi lotin tilidan, botinka so‘zi italyancha va fransuzcha so‘zlar orqali kirib kelgan. Quyida asarda uchraydigan o‘zlashma so‘zlarning ayrimlari keltirib o‘tiladi.

| **N:** | **Arabcha** | **Fors-tojikcha** | **Ruscha** |
|---|---|---|---|
| **1** | Maslahat | Shogird | Stol |
| **2** | Tafakkur | Afsus | Daftar |
| **3** | Kasb | Ko‘cha | Fabrika |
| **4** | Qori | Mix | Brigada |
| **5** | Fikr | Bekor | Botinka |
| **6** | Mahalla | Taxta | Gazet |
| **7** | Madrasa | Bozor | Nos |
| **8** | Mashg‘ulot | Korxona | Maxorka |
| **9** | Hisob | Xuddi | |
| **10** | Soat | Dastgoh | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **11** | Dars | Kambag‘al | |
| **12** | Tartib | Bachkana | |
| **13** | Intizom | | |
| **14** | Maktab | | |
| **15** | G‘ubor | | |

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ashirboyev.S (2021). O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: Nodirabegim.
2. Dadaboyev.H (2020).O‘zbek terminologiyasi. Toshkent: Nodirabegim.
3. Rahmatullayev.Sh (2006). Hozirgi o‘zbek adabiy tili.
4. Ҳаким Назир (1995). Оқ фотиҳа ёки болалик саргузаштарим. Тошкент: Чулпон
5. Mahmudxo‘jaBehbudiy (1915). Tilmasalasi. “Oyna” jurnali, 1915 yil, 11—12-sonlar. 274—277, 306-311-betlar.
6. www.wikipidiya.org

# II BOB

# XORIJIY VA QIYOSIY TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI

# FRAZEOLOGIK MINIMUM: TUSHUNCHA, FUNKSIYA VA XUSUSIYATLARI

**Abdumannonov Xojiakbar Akmaljon o‘g‘li**
*Mustaqil tadqiqotchi, ADChTI,*
*Bo‘ston tumani kasb-hunar maktabi*
*Ingliz tili fani o‘qituvchisi*
*1998i.xuol1998@gmail.com*
*+998993296473*

**Annotatsiya**: *Filolog talabalar qoida tariqasida frazeologik birliklarning salmoqli qismini bilishlari va ulardan kontekstda foydalana olishlari kutiladi. Filolog talabalar tilni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun bilishi kerak bo‘lgan idiomalar soni til, fan sohalari va o‘quv maqsadlari kabi bir qancha omillarga qarab farq qilishi mumkin. Ammo shuni ta‘kidlash kerakki, tilni samarali bilish nafaqat alohida frazeologik birliklarni bilish, balki ularni kontekstda to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Maqola filologiya fakulteti talabalari uchun mo‘ljallangan frazeologik minimum haqida umumiy ma‘lumot berishga bag‘ishlangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *frazeologik birlik, frazeologik minimum, lug‘at, tamoyil, lingvodidaktika, didaktik funksiya, xususiyat.*

**Annotation**: *Students of philology, as a rule, are expected to be familiar with a significant number of phraseological units and be able to use them in context. The number of idioms that students of philology need to know to successfully master a language may vary depending on several factors, such as language, subject areas, and learning objectives. However, it is important to note that effective language proficiency includes not only knowledge of individual phraseological units, but also the ability to use them correctly in context. The article is dedicated to providing general information about the phraseological minimum intended for students of the faculty of philology.*

***Keywords****: phraseological unit, phraseological minimum, dictionary, principle, linguodidactics, didactic functions, characteristics.*

XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslik va didaktika sohalarining asosida “lingvodidaktika” deb nomlangan yangi ta‘limot vujudga keldi. Uning paydo bo‘lishining dastlabki davri 1990-yillar deb hisoblanadi. N.M. Shanskiy, L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev, R.K. Minyar-Beloruchev, R.A. Xoder, N.D. Galskova, E.G. Agzamova, A.N. Shchukina, I.A. Zimnyaya, A.R. Luriya va boshqa olimlarning sa‘y-harakatlari bilan ushbu fan mustaqil tarmoq maqomiga ega bo‘ldi. Bu yo‘nalishga akademik L.V. Shcherbaning ushbu fikri asos bo‘lib hisoblanadi: “... didaktikaga asoslanmagan metodologiya uchun biron-bir maxsus vazifani tasavvur

qilishning iloji yo‘q” [Щерба, 1974, 9-bet]. Keyinchalik L. Blumfild, R. Yakobson, L. Xarchenkov, F. Bruno, A. Maslou, K. Rojers va boshqalarning asarlari bu boradagi ilmiy izlanishlarga asos bo‘lib xizmat qildi.

“*Lingvodidaktika*” atamasi 1969-yilda rus tilshunos olimi N.M. Shanskiy tomonidan kiritilgan, 1975-yilda bu atama Rus tili va adabiyoti o‘qituvchilarining xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan xalqaro termin sifatida tan olingan. O.V. Mixalevaning fikricha, “*Lingvodidaktika* – til o‘qitish nazariyasi, tilshunoslik va didaktikaning integratsiyasidir. Lingvodidaktika – tilshunoslik va metodologiyaning integratsiyalashuvi natijasida vujudga kelgan tillarni o‘qitish metodologiyasining nazariy qismidir” (Михалева, 2022, 12-bet).

“Lingvodidaktika bir necha mustaqil va ayni paytda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ilmiy fanlarning o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga oladi: metodologiya, tilshunoslik, pedagogika, psixologiya, psixolingvistika. Qolaversa, u sanab o‘tilgan ilmiy fanlar bilan birgalikda chet tillarini o‘rgatish uchun lingvistik asos bo‘lib xizmat qiladi. Aytish mumkinki, lingvodidaktika bilan ushbu ilmiy fanlar o‘rtasidagi munosabat nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikdir” (Шаклеин, 2008, 24-25-bet).

“Metodik atamalar lug‘ati”ga ko‘ra “lingvodidaktika” (lot. *lingua* til + *didaktikos* ta‘lim beruvchi) atamasi “til o‘qitishning umumiy nazariyasi” degan ma‘noni anglatadi. Uning asosiy vazifasi chet tilini o‘qitish metodikasini ishlab chiqishdan iborat”. E.G. Azimov, A.N. Shchukinlar lingvodidaktika o‘qitish predmetini tilning tabiati va nutqiy jarayonlarning faollik mohiyati namoyon bo‘ladigan muloqot tabiati bilan bevosita bog‘liq holda asoslaydi”, - deb yozadilar (Азимов, Щукин, 1999, 126-bet). Ko‘rinib turibdiki, bu fan o‘qitish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchilar amal qiladigan asosiy qoidalarni belgilaydi.

Ma‘lumki, til o‘rganish jarayoni quyidagi zanjir bilan tavsiflanishi mumkin: ***o‘qituvchi → metod → vositalari → talaba***. Bu sxema o‘quv jarayonining bevosita tarkibiy qismlarini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotda bizni zanjirning uchinchi bo‘g‘ini qiziqtiradi. Ta‘lim vositalari deganda o‘qituvchiga rejalashtirilgan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradigan har qanday vosita (an‘anaviy va innovatsion) tushuniladi. Ko‘zlangan maqsadlarga erishish samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan mos keladigan vositani tanlashga bog‘liq. Bunday vositalar sirasiga, fikrimizcha, bizning filologiya talabalari uchun loyihalashtirilayotgan frazeologik minimum-lug‘atimiz ham kiradi.

Til birliklarining minimumlarini yaratilish tarixi XVII asrga borib taqaladi. Buyuk chex pedagogi Yan Komenskiy o‘zining “Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari” (1658-yil) lug‘at-darsligini aynan o‘quv maqsadida tuzgan. Shundan buyon turli soha vakillari, metodistlar, o‘qituvchilar va

leksikograflar diskurs, adresat va uning darajasini, lingvodidaktikaning boshqa tamoyillarini hisobga olgan holda o‘zlarining leksik va frazeologik minimumlarini yaratdilar. Lingvistik materialni minimallashtirishda ushbu materiallardan foydalangan holda faoliyatni sifatli amalga oshirishni ta‘minlaydigan minimal zarur til birliklarini tanlash hisobga olinadi.

“Frazeologik minimum – maktabda o‘rganilayotgan adabiy asarlar matnlarida uchraydigan va qo‘llaniladigan zamonaviy adabiy tilning frazeologik birliklari jamlanmasidir. Tilning frazeologik minimumi (maktab o‘quvchisi uchun), - deydi Yu.A. Maksyashina, - maktabda o‘rganilayotgan badiiy asarlar matnlarida qo‘llaniladigan zamonaviy tilning eng tez-tez uchraydigan va nominativ ahamiyatga ega frazeologik birliklari hisoblanadi. Frazeologik minimum barcha so‘z turkumlari bilan bog‘liq frazeologik birliklarni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, *руки опускаются, души не чаять, бабье лето, стреляный воробей, кожа да кости, глаза на лоб лезут, собаку съесть, пожирать глазами, пускать корни, злые языки, от земли не видать, ноль без палочки, душа нараспашку, кровь с молоком и под*” (Максяшина, 2004, 8-20-bet).

Minimal lug‘atlar haqida o‘ziga xos fikrni Bertran Rassell taklif qilgan: “minimal lug‘at” deganda ma‘lum bir fanning boshlang‘ich so‘zlari to‘plami tushuniladi, agar: a) fanda qo‘llaniladigan har bir so‘z ushbu “minimal lug‘at” so‘zlaridan foydalangan holda nominal ta‘rifga ega bo‘lsa va b) ushbu boshlang‘ich so‘zlarning birortasi boshqa boshlang‘ich so‘zlar bilan nominal ta‘rifga ega bo‘lmasa” (Рассел, 1957, 277-bet; Новиков, 2000, 715-bet).

Bu borada professor V.M. Mokienkoning fikrini ham hisobga olish kerak: “Minimum har bir til uchun universal bo‘lishi mumkin emas. Bunga sabab esa uning o‘zgaruvchanligi va ona tilida so‘zlashuvchilarning til darajasiga bog‘liqligidir” (Мокиенко, 2017, 333-345-bet).

O‘z mazmunidan kelib chiqib, ya‘ni kim uchun tuzilganligida frazeologik minimum asosan ikki turdagi til o‘rganuvchilarga mo‘ljallangan bo‘ladi: ona tilida so‘zlashuvchilarning o‘zlari uchun hamda chet tilida so‘zlashuvchilar uchun (tilni chet tili sifatida o‘rganadiganlar). Biroq birinchi frazeologik minimumlar faqat xorijliklar uchun mo‘ljallangan (Misol uchun: *Мартынюк А.П. Русско-немецкий фразеологический словарь-минимум. – М., 1969; Единый фразеологический минимум русского языка для национальной школы / Е.А. Быстрова, Л.Н. Кротова, Э.М. Миргаязова / Науч.-исслед. ин-т содерж. и методов обучения. М.: Ин-т содерж. и методов обучения, 1975; Яранцев Р.И. Справочник по русской фразеологии для иностранцев (выражение эмоций). – М.: Издательство Московского университета, 1976. – 92 с; Учебный фразеологический словарь русского языка: пособие для учащихся нац. школ /*

*Е.А. Быстрова, П.А. Окунева, Н.М. Шанский. – Л.: Просвещение, 1984*). Ona tilida so‘zlashuvchilarning o‘zlari ham frazeologik birliklarning ma‘lum bazasiga ega bo‘lishi kerakligi sababli ular uchun ham frazeologik minimumlar tuzish zarurati tug‘ilgan.

**Frazeologik minimumning didaktik funksiyalari**

Didaktika nuqtayi nazaridan frazeologik minimum, o‘quv maqsadlariga qaratilgan har qanday darslik singari ba‘zi bir talablarga javob berishi kerak. O‘quv qo‘llanmaning didaktik funksiyalari deganda uning ta‘lim mazmunining tashuvchisi va rivojlantiruvchi hamda tarbiyalovchi ta‘lim sharoitida o‘quv mazmunini amalga oshiruvchi qo‘llanmaning ko‘zlangan maqsadiga to‘liq javob beradigan asosiy o‘quv qo‘llanmasi sifatida maqsadli shakllangan xususiyatlari (sifatlari) tushuniladi. Binobarin, FM quyidagi didaktik funksiyalarga ega bo‘lishi kerak:

- *Axborot tashuvchi funksiyasi*. O‘quv minimum-lug‘ati o‘quvchilarning yoshi va bilim darajasiga mos keladigan yetarli va zarur til materialini taqdim etishi kerak, bu esa o‘z navbatida dunyoqarashni kengaytirish, shuningdek, o‘quvchilarda dunyoning frazeologik manzarasini shakllantirish uchun asos bo‘ladi;
- *Boshqaruv funksiyasi*. Minimum lug‘at tashkiliy bo‘g‘inning bir qismi bo‘lib, lisoniy ong bir qisminining fiksatori sifatida o‘quvchilarning bilish faoliyati jarayonida boshqaruvchi rol o‘ynaydi. Bu funksiya o‘quv qo‘llanmaning asosiy vazifasi sifatida qaraladi;
- *Transformatsion funktsiya*. Biz loyihalashtirayotgan FM ko‘p tilli frazeologik lug‘at bo‘lib, ilmiy bilimlarning moslashtirilgan (ya‘ni transformatsiyalangan) ko‘rinishidir. Bunga o‘z navbatida biz didaktik tamoyillarni hisobga olgan holda erishamiz;
- *Tizimlashtirish funksiyasi*. Ushbu funksiya biz FMga kodifikatsiyalaydigan materiallarning qat‘iy ketma-ketligini hisobga olgan holda amalga oshiriladi (ya‘ni tizimli qayta ishlash + talabalarning mavjud bilimlari);
- *Mustahkamlovchi funksiya*. Ushbu funksiyaga asosan qo‘llanma tilni o‘rgatish/o‘rganishda yordamchi vosita sifatida o‘quvchiga o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishga yordam berishi, shuningdek, qayta tayyorlash imkoniyatini ta‘minlashi, shu orqali uning fundamental bilimlarini rivojlantirishi kerak;
- *Muvofiqlashtiruvchi funksiya*. Bu funksiya shundan iboratki, bizning lug‘atimiz uning qo‘llanilish sohasining o‘zagi bo‘lib, ta‘lim jarayonini to‘ldiruvchi axborot manbalari uning atrofida birlashtirilgan bo‘lishi kerak;
- *Tarbiyaviy funksiya*. Minimum lug‘at o‘z mazmuniga ko‘ra o‘quvchilarning ma‘naviy rivojlanishi uchun ham potensial yo‘nalishga aylanishi kerak. Tarbiyaviy ta‘sirni ro‘yobga chiqarish uchun FMga kiritilgan materiallar shunday ko‘rsatilishi kerakki, undan foydalanish jarayonida u o‘quvchi bilan “suhbatlashib”, uning

barkamol, yuksak vatanparvarlik va ma‘naviy-axloqiy tuyg‘ularga ega bo‘lib shakllanishiga hissa qo‘shsin;

- *Rivojlantiruvchi funksiya*. Bu funksiyaga asosan biz loyihalashtirayotgan frazeologik minimum mustaqil ma‘lumotnoma sifatida til o‘rganuvchilarning kognitiv qobiliyatlarini, jumladan, aksiologik yo‘nalishni, o‘rganish motivatsiyasini, intellektual imkoniyatlar, ko‘nikma va qobiliyatlar tizimini yaxshilashga yordam berishi kerak;

- *Kommunikativ funksiya*. Frazeologik minimum, qoida tariqasida, ilmiy dunyoqarash va talaba o‘rtasida vositachisi sifatida ma‘lum bir tilni o‘rganuvchining atrofdagi odamlar bilan faol muloqotiga ko‘maklashishi kerak;

- *Farqlovchi funksiyasi*. Ushbu funksiya bizning o‘quv vositamizni quyidagicha ko‘rib chiqadi: uni tuzishda talabalarning dastlabki tayyorgarlik darajasi, motivatsiyasi va qobiliyatlari hisobga olingan. Ikkala omil (talabalar va o‘quv material)ga differensial yondashuv, shuningdek, talabalarning o‘quv jarayonini individuallashtirishga yordam beradi. Bu ularga nutq, adabiyot va qo‘shimcha vazifalarni erkin tanlash imkoniyatini beradi (11; 12).

**Frazeologik minimumning didaktik xususiyatlari**

Frazeologik minimum chet tilini o‘rganish jarayonida muhim o‘rin tutadi, o‘quvchilarda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, madaniy kontekstni tushunish va ularning so‘z boyligini kengaytirishga yordam beradi. Professor B.M. Bahriddinova “O‘quv lug‘atining eng muhim xarakterli belgisi o‘quv kompleksining to‘laqonli a‘zosi ekani, ta‘lim jarayoniga maksimal darajada moslashgani. Darslik kabi o‘quv lug‘atining ham adresati (foydalanuvchisi) aniq bo‘ladi. O‘quv lug‘atida so‘zlik foydalanuvchining uzluksiz ta‘limning qaysi bo‘g‘inida tahsil olishidan kelib chiqib, shu bosqich o‘quv dasturi, darslikda uchraydigan til birliklariga asoslanadi”, - deb hisoblaydi (Баҳриддинова, 2020, 15-bet).

Tegishli adabiyotlarni tahlil qilish asosida barcha kerakli ma‘lumotlarni o‘rganib, biz frazeologik minimum ma‘lum mezonlarga javob berishi kerak degan xulosaga kelishimiz mumkin. Fikrimizcha ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Maqsadli auditoriya: o‘quv lug‘ati ma‘lum bir fan yoki tilni o‘rganayotgan ma‘lum darajadagi talabalar kabi aniq maqsadli auditoriya ehtiyojlariga moslashtirilgan bo‘lishi kerak. Bizning holatda bular universitetlarning filologik fakultetlar talabalari.

2. Struktura va tartiblash: o‘quv lug‘ati kerakli ma‘lumotlarni topishni osonlashtirish uchun aniq tuzilma va tartibga ega bo‘lishi kerak. U alifbo tartibida, mavzu bo‘yicha yoki qiyinlik darajasi bo‘yicha tuzilishi mumkin. Minimumdan qulayroq foydalanish uchun biz frazeologik birliklarni joylashtirishning alifbo tartibidan foydalanishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

3. Kontekst va misollar: o‘quv frazeologik lug‘atida nafaqat iboralarning ta‘riflari (izohlari), balki o‘quvchilarga iboralar ma‘nosini tushunish va eslab qolishga yordam beradigan kontekst va qo‘llash misollari ham bo‘lishi muhim sanaladi.

4. Illyustratsiyalar: rasmlar, chizmalar yoki grafiklar kabi vizual materiallar o‘quvchilarga yangi frazeologik birliklarni yaxshiroq eslab qolishlariga va ularning semantik tomonlarini tushunishlariga yordam beradi.

5. Foydalanish qulayligi: o‘quv lug‘atidan foydalanish oson bo‘lishi, kerakli ma’lumotlarni tezda topish uchun aniq va tushunarli belgilar, havolalar va shu kabi boshqa vositalarga ega bo‘lishi kerak.

6. Muvofiqlik va ishonchlilik: o‘quv lug‘ati dolzarb va ishonchli ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak, shuningdek, tegishli bilim sohasidagi til yoki terminologiyaning joriy ishlatilishini aks ettirishi kerak. Bizning holatimizda lug‘at-minimumizga arxaik yoki iste‘moldan chiqqan iboralarni kiritish mantiqiy emas, chunki bunday lingvistik material ushbu sohadagi bilimlarning yanada o‘zlashtirilishiga to‘sqinlik qiladi.

V.G. Gak ta‘kidlaganidek, o‘quv lug‘atiga til o‘rganuvchiga o‘rganishning ma‘lum bosqichida zarur bo‘lgan “dolzarb va faqat o‘ta zarur ma‘lumotlar”, til birliklarigina kodifikatsiya qilinadi (Гак, 1971, 39-40-bet).

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash mumkinki, filolog-talabalar uchun frazeologik minimum til o‘rganish jarayonida samarali vosita bo‘lishi uchun uni tuzish jarayonida ham lingvistik, ham didaktik xususiyatlar hisobga olinishi kerak. Lingvistik xususiyatlarga tanlangan materialning xilma-xilligi, frazeografik (lug‘at) maqolalar dizaynidagi leksikografik aniqlik, semantik xususiyatlar, madaniy va etimologik havolalar kiradi. Didaktik xususiyatlarga murakkablik darajasi, tasviriy misollar tanlash, grammatik pometalar, ko‘p tillilik, tilning zamonaviyligi kiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. (1999) Словарь методических терминов (теория и практика преподавания языков). (472 с).. – СПб.: «Златоуст».
2. Баҳриддинова Б.М. (2020) Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол.фан. доктори (DSc) дисс. Автореф (72 бет). – Самарқанд.
3. Гак В.Г. (1971) Учебный словарь − краткая энциклопедия языка. // РЯЗР, − Москва. - № 4. – С. 39-40.
4. Михалева О.В. (2022) Лингводидактика и методика обучения иностранным языкам [Электронный ресурс]: учеб.-метод. пособие / авт.-сост. О.В. Михалева; Владим. гос. ун-т им. А.Г. и Н.Г. Столетовых. (136 с).. – Владимир: Изд-во ВлГУ.

5. Максяшина Ю.А. (2004) Фразеологический минимум русского языка: автореф. дис. … канд. филол. наук. (20 с).. – Великий Новгород.
6. Мокиенко В.М. (2017) Фразеология обучаемого и фразеология обучающего (проблемы методики освоения фразеологизмов) // Вестник РУДН. Серия: Русский и иностранные языки, и методика их преподавания. – № 15 (3). – С. 333-345.
7. Новиков Л.А. (2000) Избранное. (732 с)..– Москва: Изд-во РУДН.
8. Рассел Б. (1957) Человеческое познание. (556 с).. – Москва.
9. Шаклеин В.М. (2008) Русская лингводидактика: история и современность: Учеб. пособие. (209 с).. – Москва: РУДН.
10. Щерба Л.В. (1974) Преподавание иностранных языков в средней школе. Общие вопросы методики. (112 с).. – Москва-Ленинград.
11. https://studme.org/247242/pedagogika/uchebnik_didakticheskaya_harakteristika
12. https://studme.org/409441/pedagogika/didakticheskie_funktsii_uchebnika

## ARAB VA INGLIZ TILLARIDA KO‘PLIK SON KATEGORIYASI

*Abduraimova Dildora Karimovna*
*ToshDO‘TAU Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti, 2-kurs*
*abduraimovadildora643@gmail.com*
*+998997222311*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada arab va ingliz tillarida ko‘plik son kategoriyasining yasalishi hamda u bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar, ko‘plik hosil qiluvchi strukturalarning bu ikki tildagi o‘xshash va farqli jihatlarini misollar yordamida ko‘rsatib, ko‘plik son kategoriyasining ushbu tillardagi o‘ziga xos grammatik ma‘no va xususiyatlari yoritib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *son kategoriyasi, to‘g‘ri ko‘plik, siniq ko‘plik, o‘zak, jins, orttirish, tushib qolish.*

**Abstract:** *This article illustrates the unique grammatical meanings and characteristics of the number category of abundance in Arabic and English, illustrations of the similarities and differences of multiplier structures in these two languages.*

**Key words:** *number category, regular plural, irregular plural, stem, gender, gain, fall.*

Arab va ingliz tillari bir biridan ancha uzoq bo‘lgan mintaqa ekanligiga qaramay, aksar grammatik qoida va xususiyatlari bir biriga o‘xshaydi. Arab tilida

so‘zlarning ko‘pligini hosil qilish ancha murakkabdir. Shunga ko‘ra arab tilida ko‘plik son kategoriyasi 2 ga bo‘lib o‘rganiladi: **to‘g‘ri ko‘plik va siniq ko‘plik .**

***To‘g‘ri ko‘plik.*** Ismdan to‘g‘ri ko‘plik yasashda uning oxiriga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shiladi. Bunda birlik shakli o‘zgarmay turadi. Muzakkar jinsidagi to‘g‘ri ko‘plik shaxsni bildiradigan atoqli otlardan, ularning kasblarini bildiradigan so‘zlardan, "œة "œ ("œta marbuta") bilan tugamagan, ikkilik va to‘g‘ri ko‘plik qo‘shimchalaridan xoli bo‘lgan so‘zlardan hosil qilinadi. (Akmalxon Akmalxonov: “Ekslitsit va implitsit tarzda ko‘plik ifodalash“ to‘g‘risidagi maqola)

Muzakkar jinsdagi, odamni va uning kasbni bildiradigan so‘zlarning ko‘pligi uning oxiriga " وُنَ -" va muannas jinsdagi so‘zning ko‘pligi uning oxiriga " ـاتٌ " qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilinadi. Bu yerda ham ة harfi ت ga aylanadi (Б. З. Халидов, 1982, 53-bet). Muzakkar jins ko‘plikdagi so‘zlar ال -"al" artikli olganda qo‘shimchasi o‘zgarmaydi:
mudarrislar مُدَرِّسُونَ ← mudarris مُدَرِّسٌ + ونَ
mudarrisalar مُدَرِّسَاتٌ ← mudarrisa مُدَرِّسَةٌ + ـاتٌ To‘g‘ri ko‘plik, muannas jinsdagi ism ال artikli olganda tanvini tushib qoladi:
olimalar أَلْعَلِمَاتُ ← عَالِمَاتٌ + عَالِمـ
tikuvchilar أَلْخَيَّاطَاتُ ← خَيَّاطَاتٌ + خَيَّاطَ ← ـاتٌ + عَالِمَةٌ ← خَيَّاطَةٌ
Ushbu holat ingliz tilidagi quidagi holatga teng kela oladi. Ingliz tilidagi otlarning ko‘plik (plural form) shaklini yasash uchun aksar hollarda birlikdagi otlarga -s qo‘shimchasini qo‘shamiz. Masalan: birlikda cat bo‘lsa undan ko‘plik yasash uchun -s qo‘shimchasini qo‘shsak kifoya: *cats – mushuklar, pupils - o‘quvchilar, students - talabalar, pencils - qalamlar, trees - daraxtlar*. O‘zbek tiliga -s qo‘shimchasi “-lar” deb tarjima qilinadi. Lekin hamma otlarga ham -s qo‘shimcha qo‘shilmaydi. **-s, -ss, -sh, -ch, -x,** yoki **-o** harflari bilan tugagan otlarga ko‘plik yasash uchun **-es** qo‘shimchasi qo‘shiladi. Masalan: *buses - avtobuslar, watches - qo‘l soatlar, boxes - qutilar, dishes - idishlar, glasses - stakanlar, potatoes - kartoshkalar, torches - chiroqlar* va boshqalar. (Ingliz tili grammatikasi, 2006, 32-bet). So‘z oxirida undosh harf va y harfi kelgan otlarga **y** harfini tushirib qoldirib, **ies** qo‘shimchasini qo‘shamiz. Masalan: *one baby – two babies, one butterfly - two butterflies, one lady - three ladies, one strawberry - five strawberries, one cherry - seven cherries* va boshqalar. Lekin, so‘z oxirida unli harf va y kelsa, u holda -s qo‘shimchasini o‘zi qo‘shiladi. Masalan: toy – toys, boy - boys, key - keys, monkey - monkeys va boshqalar. Ko‘pgina otlarning ko‘plik shakli shu qoidalar asosida yasaladi. Agar birlik shakldagi ot **-f / -fe** harflari bilan tugasa, ko‘plik shaklini yasash uchun -f / -fe tushirilib, o‘rniga -ves qo‘shimchasini qo‘shamiz. Masalan: *leaf - leaves, knife - knives, wolf - three wolves, scarf - seven scarves* va boshqalar.

***Siniq ko‘plik.*** Mustafa G‘alayiniy: “Siniq ko‘plik – 2 tadan ko‘p ekanligini ifodalovchi, ko‘plikdagi vaznining birlikdagi vaznidan o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan son kategoriyasi,” – deb talqin qiladi. Sulaymon Fayyoz yuqoridagi fikrni davom ettirib: “Turli xil vaznlarda yasaladi. Bu vaznlarning ko‘pchiligi simoiydir,” – deb aytadi. Abdurahmon ibn Muhammad Anbariy: “Siniq ko‘plik deb aytilishiga sabab, bu ko‘plik idishning sinishiga o‘xshashligidadir,” – deb izohlaydi. Siniq ko‘plik deb so‘zning tarkibiga noo‘zak harflarning kirishi, unlilar almashinuvi natijasida yasaladigan ko‘plikka aytiladi. Ya‘ni so‘z o‘zagini tashkil etuvchi undoshlarning unlilari o‘zgaradi, ko‘plik shakl yasovchi undoshlar kiritiladi. Natijada uning birlik shakli o‘zgaradi. Shuning uchun bunday ko‘plik yasash usuli ***"siniq ko‘plik"*** deb ataladi. (Б. З. Халидов, 1982 45-bet) Siniq ko‘plikdagi tanvinli damma bilan tugagan ismlar uch kelishikda, dammaning o‘zi bilan tugagan ismlar esa ikki kelishikda turlanadi: bog‘ — bog‘lar حَدَائِقُ — حَدِيقَةٌ dars — darslar دَرْسٌ — دُرُوسٌ kitob — kitoblar كُتُبٌ — كِتَابٌ xabar — xabarlar خَبَرٌ — أَخْبَارٌ Qaysi so‘zning ko‘pligi to‘g‘ri ko‘plikda va qaysinisiki siniq ko‘plikda hosil bo‘lishini aniqlaydigan ma‘lum bir qoida mavjud emas. Buni aniqlash uchun bizga lug‘at kitoblari va o‘zimiz yod olgan so‘z boyligimiz qo‘l keladi. Ingliz tilida ham shunga o‘xshash holat mavjud bo‘lib ular ham siniq ya‘ni noto‘g‘ri ko‘plik hisoblanadi. Ular irregular plurals deb yuritiladi. Ularning o‘z ko‘plik shakli mavjud bo‘lib, **-s, -es, -ies** yoki **-ves** qo‘shimchalari emas, balki so‘z asosini o‘zgartirgan holatda ishlatishimiz kerak bo‘ladi. (A. Rustamov, 2006) Masalan *one man – two men, one mouse - three mice, one person - six people, one child - eleven children, one sheep - two sheep, foot - feet, goose- geese, tooth- teeth, fish - fish, deer - deer, woman - women* va boshqalar. Ushbu ro‘yxatdagi so‘zlarga -s qo‘shimcha qo‘shsak xato hisoblanadi. Har ikki tilda -lar ko‘plik shakli quyidagi mushtarak va farqli ma‘no semalariga ega: So‘zning umumlashtiruvchi ma‘nosi sof grammatik ko‘plik ma‘nosi bilan kuchaytiriladi. Kitoblar yozildi – كُتِبَتِ الكُتُبُ - books written. Qolaversa, har ikkala tilda ham ko‘plik ma‘nosini ko‘rsatuvchi grammatik affiksal morfemalar narsalarning aniq soni berilganda ham ot tarkibida saqlanadi. Three pens (pen emas) - ثَلاثَةُ أَقْلامٍ ( قَلَمٌ emas).

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Arab tilida ham, ingliz tilida ham ko‘plik son kategoriyasining o‘ziga xos hamda umumiy jihatlari mavjud bo‘lib, bu umumiylik ularning yasalish strukturasi va qoliplarida bo‘lsa, farqli jihati tarkibida ko‘plikni bildiruvchi marfemalar bo‘lgan yoki ko‘plik shaklidagi so‘zlar ma‘lum bir matn ichida kelganda ulardagi ma‘noning turlicha ifoda etish yoki etmasligi bo‘la oladi va holat tarjima jarayoniga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Akmalxonov. A: “Ekslitsit va implitsit tarzda ko‘plik ifodalash“ to‘g‘risidagi maqolasi.
2. Dexqonova. L: “Arabcha ko‘plik shakllarining o‘zbek tilida qo‘llanilishi” to‘g‘risidagi maqolasi.
3. Rustamov. A: “Ingliz tili grammatikasi”, Tashkent – “ O‘zbekiston Respublikasi Akademiyasi”, 2006.
4. Халидов. Б. З: «Учебник арабского языка», Ташкент — «Ўқитувчи», 1982.
5. Ғуломов А.: Ўзбек тилида кўплик категорияси. -Т.: Фан. 1944. -56 б.

## O‘ZBEK VA UYG‘UR TILLARIDA MUSHTARAK HAMDA MUSHTARAK BO‘LMAGAN SO‘ZLAR

*Bosimova Feruza Dilmurod qizi*
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs*
bosimovaferuzabonu@gmail.com
*+998339052003*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada o‘zbek va uyg‘ur tillaridagi bir qancha ma‘no va shakl jihatidan mushtarak bo‘lgan so‘zlar xususida fikr yuritiladi. Tarixan shakl va ma‘no taraqqiyoti o‘rganilib, bugungi kundagi ko‘rinishlari bilan solishtiriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *uyg‘ur tili, mushtarak so‘zlar, shakl va ma‘no taraqqiyoti.*

***Abstract:*** *This article discusses some words in the Uzbek and Uyghur languages that are common in terms of meaning and form. Historically, the development of form and meaning is studied and compared with their present-day manifestations.*

***Key words:*** *uyghur language, common words, the development of form and meaning.*

Til – bu insonga butun umri davomida hamroh va unga Alloh tomonidan berilgan eng oliy ne‘mat. Tabiat va jamiyatdagi har qanday hodisa xususan til hodisasi shakl va ma‘no birligiga ega. Har qanday til birligi, masalan, so‘z ham shakl va mazmun birligidan tashkil topgan deyish mumkin. Shu narsa aniqki, so‘zning shaklidan ko‘ra, uning mazmuni tezroq taraqqiy etadi.

Aytish kerakki, o‘zbek va uyg‘ur tillari bir, qarluq lahjasiga mansubligi va boshqa turkiy tilli xalqlardan farqli ravishda, nutqidagi, hozirda faol qo‘llanilayotgan so‘zlarning ko‘p qismini sof, qadimgi turkiy tilda qanday bo‘lsa, shunday holda saqlab qolganligi bois, bu ikki tildagi mushtarak ma‘noli mushtarak so‘zlar katta miqdorni tashkil qiladi. Biroq o‘zbek va uyg‘ur tillaridagi barcha so‘zlar Mutlaq bir xil deya olmaymiz. Shakli eskiligicha qolib, so‘z ma‘nosining

taraqqiy etib borish jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotning tubdan farq qilishi va hududiy chegaralarning mavjudligi sabab, bu ikki qardosh turkiy tilda aynan bir xil kechmagani aniq. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, o‘zbek va uyg‘ur tillaridagi bir qancha shakli o‘xshash – mushtarak so‘zlar aynan bir xil – umumiy ma‘nolarga ega emas. Boshqacha qilib aytganda, bu ikki tildagi mushtarak so‘zlarning barchasi ham bir ma‘no taraqqiyotini boshdan kechirmagan.

O‘zbek va uyg‘ur tillaridagi mushtarak va mushtarak bo‘magan so‘zlarning asosiylari sifatida quydagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Ko‘p ma‘noli mushtarak so‘z vaqtlar o‘tishi bilan tillarning birida o‘z ma‘nolaridan bittasini yo‘qotishi mumkin. Masalan, ***oyoq*** ( uyg‘urcha: **ئاياغ** [ajaq] / **ئاياق** [ajaɣ]) so‘zi Mahmud Koshg‘riyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida ikkita shakldosh so‘z sifatida keladi. Biri *odam, hayvon, qush va umuman jonli organizmlar gavdasining tayanib turishi va yurishi yoki o‘rmalashi uchun xizmat qiladigan a’zo (adaq tarzida ham talaffuz qilingan)*, ikkinchisi esa *idish, kosa; payola* ma‘nosini anglatgan. Bugungi kunga kelib, uyg‘ur tilida ***oyoq*** so‘zining tana a‘zosi ma‘nosi **ئاياغ** [ajaɣ], idish ma‘nosi esa **ئاياق** [ajaq] kabi ikki xil ko‘rinishga kelib qolgan. Bundan tashqari uyg‘urchadagi **ئاياغ** [ajaɣ] so‘zining shu so‘zdan o‘sib chiqqan bir qancha yangi ma‘nolari bor: *oyoq kiyim:* **پېشايۋاندا ئېگىشىپ تۇرۇپ ئاياغىنى مايلاۋاتقان ئوغلۇمنى كۆرۈپ ئارۇھىم ئۇركدى** [pəšajvanda əŋïšïp turup ajaɣïnï majlavatqan oɣlumnï körüp arvähïm urkdï] (peshayvonda engashib oyoq kiyimini kremlayotgan o‘g‘limni ko‘rib kapalagim uchib ketdi. Memtimin Hoshur hikoyalari).; *yana bir tarafi, yana bir yeri:* **كارىۋاتنىڭ ئاياغى** [karivatniŋ ajaɣï] *(karavotning bir yeri).* O‘zbek tilida esa bu so‘zning faqatgina tana a‘zosi ma‘nosi mavjud bo‘lib, idish ma‘nosi eskirgan va nofaoldir.

2. Muayyan vaqt orasida mushtarak so‘zga tillarning birida yangi ma‘no yuklanishi va natijada ma‘nosi farqli mushtarak so‘z yuzaga kelishi mumkin. Masalan, uyg‘urcha **ساقلىماق** [saqlïmaq] va o‘zbekcha ***saqlamoq*** fe‘llari azaldan mushtarak ma‘noli mushtarak so‘z bo‘lgan. Biroq uyg‘ur tilining keyingi taraqqiyoti jarayonida mavjud ma‘nolardan tashqari **ساقلىماق** [saqlïmaq] so‘ziga *kutib turmoq* degan ma‘no yuklangan:**تىللاخان ئۇنى ئۇزاق ساقلىدى** [Tilläxan unï üzaq saqlïdï] *(Tillaxon uni uzoq kutdi)*. O‘zbekchada esa bu ma‘no alohida *kutmoq/kutib turmoq* fe‘llari bilan ifodalanadi. Buning natijasida ikki tildagi mazkur mushtarak so‘zning ma‘no mushtarakligi yo‘qolgan. Yoki ***omonat*** (uyg‘urcha: **ئامانەت** [amanat]) so‘zini olaylik. Bu so‘z *ishonchlilik* ma‘nosini, shu ma‘nodan o‘sib chiqqan *saqlash uchun ishonib topshirilgan narsa* ma‘nosini anglatadi. Bundan tashqari, ***omonat*** so‘zi *vaqtincha*, *mustahkam bo‘lmagan* kabi sifat ma‘nolarini ham anglatadi. Bu so‘z o‘zbekchada va uyg‘urchada ayni shu ma‘noda qo‘llangan. Ammo keyinchalik o‘zbekchada bu so‘zning ma‘nolariga yangi *nomigagina, shunchaki; zo‘rg‘a*

ma‘nolarining qo‘shilishi natijasida uyg‘ur va o‘zbek tilidagi bu mushtarak so‘zning ma‘nolaridagi mushtaraklik yo‘qolgan. Abdusaid Ko‘chimovning “Halqa” nomli asarida ***omonat*** so‘zi ayni yuqoridagi ma‘noda qo‘llangan: “To‘ychi poygakdagi cho‘yan pech ustiga omonat o‘tirdi-da, yerga qaragancha, indamay, papirosga zo‘r berdi”.

3. Qachonlardir muayyan ma‘noda qo‘llangan so‘zning ikki tilda sekin-asta mutlaqo mustaqil ma‘no taraqqiyotini boshdan kechirishi shaklan mushtarak, ammo ma‘no jihatidan bir-biriga zid so‘zlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, ***o‘ch*** so‘zini olaylik. Bu so‘zning Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu Lug‘ati-t-turk” asarida *kek, intiqom* ma‘nolari keltirilgan. O‘zbek va uyg‘ur tillarida ham aynan shu ma‘nolari mavjud. Ammo har ikki tilda bu so‘z alohida-alohida ma‘no taraqqiyotini boshdan kechirgan. Masalan, uyg‘urchada **ئۆچ** [öč] so‘zining avval boshida *intiqom, qasos, kek* ma‘nolari mavjud bo‘lgan. Keyinchalik vaqtlar o‘tishi bilan, yuqoridagi ma‘nolaridan *yomon ko‘radigan, yoqtirmaydigan, sevmaydigan* kabi sifat ma‘nolari o‘sib chiqqan va hozirda har ikki ma‘nosi ham og‘zaki nutqda faoldir. O‘zbek tilida esa bu so‘zning bir qancha ma‘nolari mavjud bo‘lib, faqat salbiy ma‘noda qo‘llaniladi: *qasos (ot) - haqorat, alam o‘tkazganlik, umuman, yomonlik uchun qilinadigan javob tarzidagi ish, harakat, yomonlik; qasd; o‘ch olmoq (fe‘l) - ziyon yetkazgani, tahqirlagani va shu kabilar uchun javob tarzidagi ishni qilmoq; alamini olmoq (fe‘l) - umuman, alamini yo‘qotish, tarqatish uchun biror ish qilmoq*. Keyinchalik o‘zbekchada ***o‘ch*** so‘zining *nihoyatda berilgan, hirs qo‘ygan (sifat)* degan ma‘nosi paydo bo‘ldi va hozirda og‘zaki nutqda faol qo‘llaniladi. Yuqorida keltirilgan ***o‘ch*** so‘zining uyg‘urcha **ئۆچ** [öč] (yoqtirmaydigan, yomon ko‘radigan), o‘zbekcha ***o‘ch*** (nihoyatda berilgan, hirs qo‘ygan) ma‘nolari o‘zaro zidlikni hosil qilyapti. Masalan, uyg‘urcha **ئۇ كىتاب ئوقۇشقا بەك ئۆچ ئىدى** [u kïtab oqushqa bäk öč idï] jumlasi ***o‘ch*** so‘zini mushtarak deb o‘ylagan o‘zbek tomonidan *(u kitob o‘qishga juda o‘ch (nihoyatda berilgan, mukkasidan ketgan) edi)* tarzida tushinilishi mumkin. Lekin aslida bu gap uyg‘urchada *u kitob o‘qishni judayam yomon ko‘rar edi (yoqtirmasdi)* degan ma‘noni anglatadi. Uyg‘ur ziyolisi G‘oji Muhammad Muhammad o‘zining “Yoshlik bog‘i” asarida quyidagi jumlalarni keltiradi: **مەن ھەر كۆزۈمنىڭ يوقلۇقىنى ئېيتتىمۇ ئۇنىڭغا ئۆچ بولۇپ قالغىنىمنى، كۆر** [män ünïŋya öč bolup qalγïnïmnï, körär közümnïŋ yoqluqïnï əjttïm] (men unga yomon ko‘rib qolganimni, uni ko‘rishga ko‘zim yo‘qligini aytdim). ***O‘ch*** va **ئۆچ** [öč] so‘zlarining o‘zagi aynan bir, umumiy birlashtirivchi ma‘noga ham egaligini yuqorida ko‘rib o‘tdik. Bunday zid ma‘noli mushtarak so‘zlarning yuzaga kelishi bu so‘zlarning mutlaqo mustaqil ma‘no taraqqiyoti natijasidir.

4. Arab tilidan kirgan so‘zning mavjud ma‘nolaridan tashqari tillarning birida unga yangi ma‘no yuklanishi natijasida ham farqli ma‘noli mushtarak so‘zlar yuzaga

kelishi mumkin. Masalan, o‘zbek tili ham, uyg‘ur tili ham arab tilidan ***nizom*** so‘zini ayni bir ma‘nosi bilan olgan. Ammo keyinchalik o‘zbek tilida ***nizom*** so‘ziga *saf, qator* ma‘nosi ham yuklangan: *Askarlar birin-ketin nizom tortib turishdi*, uyg‘ur tilida esa **نىزام** [Nizam] so‘ziga ayni ma‘no berilgan emas. Bu ma‘no ifodasi uchun uyg‘ur tilida **قاتار** [qatar] so‘zi olingan. Bundan tashqari arabcha ***tamom*** so‘zi har ikki tilga ham bir ma‘noda *nihoya, har narsaning oxiri/tugashi* ma‘nosida o‘zlashgan. Lekin vaqtlar o‘tishi bilan uyg‘ur tilida **تامام** [tamam] so‘zining *hammasi, jami; bitta ham qolmay* degan ma‘nolari ham paydo bo‘ldi: **يىغىنغا چاقىرىلغانلار تامام كېلىپ بولدى** [Jïyïnya čaqirilyanlar tamam kəlip boldï] *(yig‘inga chaqirilganlarning hammasi kelib bo‘ldi).* O‘zbek tilida esa ***tamom*** so‘zining bu ma‘nosi yo‘q, bu so‘z o‘rniga *hammasi, jami* so‘zlari qo‘llaniladi.

O‘zbek va uyg‘ur tillaridagi farqli ma‘noli mushtarak so‘zlarni yuzaga keltirib chiqaruvchi sabab faqat shulardangina iborat emas, albatta. Til taraqqiyoti jarayonlari bemihoya murakkab shuning uchun ularni mazkur hodisaga olib keluvchi sabablar ham xilma-xildir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. Mahmud Koshg‘ariy (2017) “Devonu lug‘ati-t-turk”. Toshkent: G‘afur G‘ulom.
2. Shavkat Rahmatullayev (2003) “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”. Toshkent: Universitet.
3. https://lughet.com
4. https://izoh.uz
5. https://t.me/izohli_lugat_uz_bot
6. Abdusaid Ko‘chimov (1987) “Halqa”(21-bet). Toshkent: Yosh gvardiya.
7. G‘oji Muhammad Muhammad (2014) **“يېڭى ياشلىق”** [yašliq bəγï] (yoshlik bog‘i). (5-bet) 喀什：喀什维吾尔文出版社 (Qashqar: Qashqar uyg‘ur nashriyoti).
8. Memtimin Hoshur (2010) “Asarlardan tanlanma” (32-bet). – **شىنجاڭ ياشلار ئۆسمۈرلەر نەشرىياتى**


## QARAQALPAQ TILINDEGI METAFORALARDIŃ LINGVOPOETIKALIQ QÁSIYETLERI


*Jurakulova Hulkar Farxodovna*
*Nawayi mámleketlik pedagogika instituti ózbek tili hám ádebiyati fakulteti qaraqalpaq tili va ádebiyati jónelisi studenti*
*jurakuovahulkar@gmailcom*
*+998934300703*



**Annotasiya:** *Hár bir xalıqtıń tilinde jaratılǵan shıǵarmalarda xalıq tariyxı, mentaliteti, mádeniyatı sawlelenedi hám sol ayrıqshalıqlar óz gezeginde lingvokulturologiyalıq analiz obiekti bola aladı. Maqalada qaraqalpaq tilindegi*

*kórkem dóretpelerde qollanǵan lingvomádeniy birlik retindegi metaforalardıń lingvopoetik qásiyetleri analiz etilgen.*

**Gilt sózler:** *lingvokulturologiya, metaforalar, milliy-mádeniy ózgeshelik, lingvopoetika.*

**Abstract:** *The history, mentality, and culture of the people are reflected in the works of art created in each national language. And these features, in turn, can be the object of linguistic and cultural analysis. The article analyzes the linguopoetic features of metaphors as a linguistic and cultural unit used in literary works in the Karakalpak language.*

**Key words:** *linguoculturology, metaphors, national-cultural characteristic, linguopoetics.*

Málim, metaforalar xalıq mádeniyatın ańlatiwshı birliklerden biri retinde lingvokulturologiya pániniń obiekti esaplanadı. Ayırım haywan, ósimlik, predmet atları insanǵa yamasa kerisinshe predmetke salıstıra qollanıp, insannıń yamasa predmettıń túrli qásiyetlerin súwretlewde qollanıladı. Bul, pikirdıń emotsionalliǵin asıradı. Ayrım janıwarlar atlardan ibarat tilge tiyisli qurallar kórkem sóylew quramındaǵı materiallıq, logikalıq mánislerden uzaqlasıp, insanlardıń arnawlı bir qásiyetin obrazlı súwretlewde qollanıladı. Bul tilge tiyisli qurallar payda etken tımsallıq qurallar sóylewge sezim hám tásirsheńlikti asıradı (Sh.Usmonova, 2019,114-bet).

Hár qanday til hám mádeniyattıń ayriqsha qásiyetleri eń dáslep sol xalıq wákilleri tárepinen jaratılǵan shıǵarmalarda óz izin qaldıradi. Tómende kórkem dóretpelerde qollanǵan qaraqalpaq tilindegi metaforalardıń lingvomádeniy birlik retindegi táreplerin analiz etemiz:

Barlıq turkiy tillerde bolǵanı sıyaqlı qaraqalpaq tilinde de altın sózi túrli mánislerde qollanıladı :

**ALTIN** ximiyalıq element retinde tiykarǵı mánide qollanılıwı. **1. "**Júda qunlı, bahalı, jumsaq sarı túsli metal" (1, QTTS, 119-bet) mánisin bildiredi. Tómendegi awıspalı mánide qollanıladı:

*Quyash jarqırap ózinıń **altın** nurın jerge tógip turǵanı bolmasa, búgingi ayaz keshegiden beterirek.*(T.Qayipbergenov) "Quyashtıń altın nuri" sóz dizbegi *altın sózindegi "bahalı", "metall"semasi shetlesken;"reń", "jıltır"* semasi tiykarında metaforalıq máni payda etken. Tekstte bul máni obrazlı ańlatpa payda bolǵan. Tómendegi mısallarda "baxa" semasi tiykarında awıspalı máni payda bolǵan.

**Altın ásir** —rawajlanǵan, gúllengen dáwir. **Altın dáwir- 1.**Adamnıń, basınan keshirgen balalıq, jaslıq dáwirleri. Ex balalıq dáwirlerdıń ***altını,*** Uyalttıń sezim gódek etkendey. (J.Xojalepesov).

***Altın bas***-húrmetli, siyli, qádirli. Óser aǵa qutli bolsın elıw jasıń, Hámiyshe jumalasın erge tasıń, Ul qızıńnan aqlıq súyip, denıń saw-aman bolsın **altın basıń** (Aqsholpan Amaniyaz).

**Altın bosaǵa** -tuwısqan, ósip-óngen úyi, jeri, otbası.

**Altın qabaq** – turkiy xalıqlarına tiyisli mergenlik penen er júreklıkti sınaytuǵın, aqsha tigilip ótkeriletuǵın xalıq oyını.

**Marjan** sózi "monshaqtıń eń hasıl turi, qıp-qızıl bolıp dónip turatuǵın birgelkili mayda jıltıraq zat, qızlardıń bezenıw zatı" (2, QTTS, 135-136-bet) mánisin ańlatadı.

2. "*Bahalı zat, eń kerekli dúnya" awıspalı mánide tekstıń ma'nosida* matn tásirsheńlıgın asıradi : ***hinji -marjanları*—**bar aydınlarında, hasıl topıraqlar bar топыраклар бар, qayırlarınd, Pıllerdıń kúshi bar jayınlarında. Bir jerde turmastay asaw dáryasan (S.Nurımbetov).

*Sóyle inim, albıraysań nesine, Azım sóz marjanın termesin dersen* (I.Yusupov). "Sóz marjanı" sóz dizbeginde *marjan* sózınıń "Jipke tizib jasalǵan bezenıw búyumi " mánisine awıspalı mánide qollanılıp payda bolǵan metaforik máni kórkemlilikti táminlewge xizmet jasaydı.

**QURALAY**– kiyik . Bul otırǵanda olar qaqpanǵa túsken egiz quralayǵa usar edı (Sh.Seytov). **Quralay kóz** -dóngelek suluw qara kóz. Ayday júzińdı, ***quralay kózińdı*** *qarata almayman dep tartınasan* (J.Aymurzaev). Qızınıń boy jetip kiyatirǵanına júzine qirmizi ireń urıp ***quralay*** kózlerınıń sonsha tiniqlıǵına... ana quwanısh penen qaradı... Quralay (kóz) – qızlardıń sulıw kózin, quralaydıń kózine uqsatıw nátiyjesinde payda bolǵan metafora.

**Monshaq**– Ortası tesik, jıltır, jas balalardıń, xayal-qızlardıń moynına dizip salatuǵın tas. (3, QTTS, 190-bet) Keltirilgen mısallarda *monshaq* kóz jastıń kórinisin ańlatıw ushın qollanǵan: Adam ólgen jayıp qushak, Kózdin jası monshak-monshak, Qollarında ótkir pıshaq, Jalladlardı umıtpaspan (Kunxoja).

**ARISLAN** 1. Pıshıq tárizliler túrine kiretuǵın tırnaqları ótkir, kúshli, iri jırtqısh sut emiziwshi haywan. (4, QTTS, 193-bet) "kúshli, aybatlı, baxadır, dawjúrek, ójet, qaysar, batır, jigitlerdıń sultanı adam" haqqında usı haywanlarǵa salıstırıp sıpatlanadı. Dedi arıslan Ernazar biy (Berdaq).

**SUNQAR** óz mánisinde "alǵır, qarshıǵa, lashın". (5, QTTS, 339-340-bet) Tómendegi mısallarda sunqar metaforalıq "batır, er, azamat" mánisinde qollanılǵan: Lashın kibi kókke úshti, Sunqar eken jeti pushtı (Berdaq) *Aman kel sunqarım, men sorlı senlık* (Q.Dosanov). —Menıń sunqarlarım**,** ortańızda men turman, atıńızdı irkińler! (T.Qayipbergenov) .

**DÚMSHE** bos mánide “suw qaynatıwǵa arnalǵan sumegi joq, uslaǵıshsız, gúzege uqsaǵan metaldan islengen ıdıs. Dumshe metaforasi “*sawatı kem, shala sawat*” mánisinde qollanıladı: Jaman arba jol buzar, Dúmshe molla din buzar (Naqıl)

**GERNAY** óz mánisinde “dem menen úplep shertetuǵın mıstan islengen uzın saz asbabı”: Gernay qoymay tarttırdı, Sırnay qoymay sherttirdi (Berdaq). Qaraqalpaq tilinde “*Piyazdıń qatıp qalǵan ortasındaǵı ózegi, tutugi”na baylanıslı qollanıladı* (6, QTTS, 382-bet). Bul feyil da jasaydı: Piyaz gernaylap ketti.

Qaraqalpaq tilinde **láylek** (uzın ayaqlı qus) sózi tiykarında jasalǵan *layleki, láyleklew* sózleri menen metaforik mánide qollanıladi*:* ***Láyleki*** “jeńıl, ushqalaq, jeńıl oylı, jeńıl minezli, alańǵasar” mánisinde qollanıladı: . ... *sonday* ***láyleki*** *menen kórermen , -dep sırtqa shıǵıp ketti Ayzada* (6, QTTS, 94-95-bet) ***Láylekilew*** “jeńıllew, ushqalaqlaw” mánisinde: *Mına qızıń* ***láylekilewme*** *deymen, —dedi ǵarrı.*

Kórkem tekstlerdi lingvokulturologik analiz qılıw, qollanǵan lingvomádeniy sóz dızbeklerın ayrıqsha qásiyetlerin úyreniw zárúrli áhmiyetke iye bolıp, sol tarawdıń rawajlanıwın támiyinlewge hám tilde kóp qollanılatuǵın, tekst kórkemliligin ańlatıwǵa xızmet etetuǵın metaforalardıń semantik hám de lingvokulturologiyalıq táreplerin ańlaw imkaniyatın jaratadı.

**Paydalanılǵan ádebiyatlar:**


1. Usmonova, Sh. (2019). Lingvokulturologiya. (114-bet) Toshkent.
2. Dosımbetova, A.(2017). Ádebiyatta kórkemlew quralları, (oqıw-metodikalıq qollanba)- (11-bet). Nókis: ”Qaraqalpaqstan”.
3. Qaraqalpaq tilinin` túsindirme sózligi. (2023). (118-119-bet). 1.Nókis: Qaraqalpaqstan.
4. Qaraqalpaq tilinin` túsindirme sózligi. (2023). (135-136-bet). 5. Nókis: Qaraqalpaqstan.
5. Qaraqalpaq tilinin` túsindirme sózligi. (2023). (190-bet). Nókis: Qaraqalpaqstan.
6. Qaraqalpaq tlilinin` túsindirme sózligi. (2023). (193-bet). Nókis: Qaraqalpaqstan.
7. Qaraqalpaq tlilinin` túsindirme sózligi. (2023). 7. (339-340-bet). Nókis: Qaraqalpaqstan.


## O‘ZBEK VA TURK ANTROPONIMLARINING YUZAGA KELISH OMILLARI


*Nasriddinova Iroda Sayfiddin qizi*
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti,4-kurs*
*irodanasriddinova3@gmail.com*
*+998(90)3912303*

**Annotatsiya:** *Maqola o‘zbek va turk antroponimlarining yuzaga kelish omillari tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib unda ikki qardosh tildagi kishi ismlarining o‘xshash va farqli jihatlari haqida fikr yuritiladi. O‘zbek va turk antroponimlarining motivlanishiga doir tadqiqotlarda keltirilgan ba‘zi fikrlar xatoligi haqida to‘xtalib o‘tiladi. Tadqiqot natijalari o‘tmishda ikki tilda ham diniy-axloqiy motivlar ustun bo‘lganligi va bu holat bugungi kunda ham davom etayotganligini ko‘rsatadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Onomastika, antroponim, motiv, bag‘ishlov ismlar, orzu-istak ismlar, adabiyot, san‘at, sport, turkiy qabila, memorativlar.*

**Annotation**: *The article is devoted to the analysis of the factors of the emergence of Uzbek and Turkish anthroponyms. In the study, some errors of the opinions presented in the studies on the motivation of Uzbek and Turkish anthroponyms are discussed. The results of the research show that religious and moral motives prevailed in both languages in the past and this situation continues today.*

**Key words:** *Onomastics, anthroponym, motif, dedicatory names, literature, art, sport, Turkic tribe, memoratives.*

Ma‘lumki, har bir fan o‘zining tadqiq obyektiga ega. Onomastikaning tadqiq obyekti tildagi har qanday atoqli ot tiplaridir. (Begmatov E, 1998, 9-bet) Ushbu tadqiqot o‘zbek va turk tilshunosligidagi onomastika bo‘limining antroponim birliklariga qaratilgan.

Ismlar odamlarni bir-biridan ajratib turadigan aloqa vositasi hisoblanadi. Kishi nomlari oilalarning diniy e‘tiqodlari, ideallari va kutilgan jarayonlarini aks ettiradi. Bu holat oilalarni farzandlariga ism qo‘yishda ehtiyotkor bo‘lishga undaydi. Kishi ismlari insonlarning ijtimoiy kelib chiqishidan tortib ruhiy kechinmalarigacha, qiziqishlaridan tortib eng yomon ko‘rgan narsalarigacha muhim rol o‘ynaydi. Kishi o‘z ismining ma‘nosini idrok etib, psixologik yengillikka erishadi. U qaysi tildan olingan bo‘lmasin eshitilishi yoqimli, idrok etilishi qulay bo‘lishi kerak. Chunki, ismlar kishi psixologiyasiga ta‘sir etishi o‘rganilgandir. Chunonchi, uning ismi jasorat, kuch-qudratni ifoda etsa, o‘sha ismga muvofiq harakat qilishga intiladi, ong ostiga jasurlik, kuchlilik tuyg‘ularini joylashtiradi; aksincha, nafislik, noziklikni ifoda etsa, kishi psixologiyasida shu tuyg‘ularga moyillik shakllana boshlaydi. Payg‘ambarimiz Rasulullоh sollallohu alayhi vassallam bolalarning ismlarini go‘zal bo‘lishini istaganlar va hatto yomon ma‘noda keladigan ismlarni o‘zlari o‘zgartirganlar. Qur‘oni Karimda “Allohning go‘zal ismlari bordir. Bas, Uni o‘sha ismlar bilan chorlanglar (yod etinglar). Uning ismlarida haqdan og‘ib (noo‘rin joylarda ularni qo‘llaydigan mushrik) kimsalarni tark qilinglar.“ (Шайх Абдулазиз Мансур, 2021, 174-bet) Akademik V A.Gordlevskiy o‘zinining 1913-yilda yozilgan

“Usmonli turklarning shaxsiy onomastikasiga oid” nomli maqolasida turk ismlari tarixini ikki katta davrga bo‘lgan:

1) qadimiy ko‘chmanchilik hayotidan to musulmonlik davrigacha bo‘lgan davr;

2) musulmon davri va undan keyingi davr. Maqola muallifi fikricha, birinchi davrga chaqaloqni turli yovuz kuchlardan asrash motivi bilan bog‘liq ismlar kiradi. Keyingi davr esa islom dini tushuncha va tasavvurlari bilan bog‘liq bo‘lgan ( Г о р д л е в с к и й В. А, 154-bet). Bugungi kunda ikkinchi sababga ko‘ra bolalarga Allohning sifatlarini aks ettiruvchi ismlar, payg‘ambarimiz, ularning yaqinlari va dinda nomi tilga olingan buyuk kishilar ismlarini qo‘yish turkiy xalqlarda keng ommalashgan. Misol uchun: *Abdulloh, Abdurahmon, Abdurazzoq, Abdusamat* (Allohning ism va sifatlari. “*Abdu*”-“arabcha” qul, banda so‘zi bilan boshlanadigan ko‘pgina qo‘shma ismlar); *Muhammad, Mahmud, Ahmad, Akram, Rasul* (Payg‘ambarimiz Rasulullo sollallohu alayhi vassallamning ism va sifatlari); *Abu Bakr, Usmon, Umar, Ali* (to‘rt xalifaning nomlari); *Ibrohim, Odam, Dovud, Zakariyo, Ismoil, Yoqub, Idris* (payg‘ambarlarning ismlari); *Hasan, Husayn* (Hazrati Alining farzandlari); *Xadicha, Oysha, Fatima, Omina, Zaynab* (payg‘ambarimizning ayollari, onalari, qizlarining ismlari). O‘zbekiston va boshqa musulmon davlatlar singari, Turkiya aholisi orasida o‘g‘illariga payg‘ambarlarning ismini berish juda keng tarqalgan.

*Muhammet,Mustafa, Ali, Sümeyya, Rabia, Fatma, Ayşe.* Bundan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbek va turk millatlari orasida farzandga qo‘yiladigan diniy ismlarda umumiylik va mushtaraklik jihatlari mavjud.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, dunyodagi har bir xalqning o‘ziga xos nom berish an‘analari mavjud. Ushbu an‘anani tashkil etuvchi qadriyatlar qardosh xalqlar orasida ham o‘xshash hamda farqli vaziyatlarni aks ettirishi mumkin. Bu sohaga qiziquvchilarga yaxshi ma‘lumki, o‘zbek va turk millatlari asrlar davomida nom qo‘yish an‘anasini yaratishgan. Ushbu an‘ananing o‘xshash jihatlarini aks ettiruvchi asosiy elementlarni quyidagicha belgilash mumkin:

1. Islom dini va tarixidan joy olgan ismlar;
2. Millat tarixidan joy olgan ismlar;
3. Bola tug‘ilgan oy, fasl, kun, vaqtga doir ismlar;
4. Oila kattalari (boshliqlari)ning ismlari;
5. Adabiyot, san‘at, sport va davlat rahbarlarining nomlari bilan bog‘liq ismlar.

| **O‘zbek** | | **Turk** | |
|---|---|---|---|
| ***Erkak*** | ***Ayol*** | ***Erkak*** | ***Ayol*** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| ***1.Islom dini va tarixidan joy olgan ismlar*** | *Muhammad, Mustafo, Zakariyo, Zayd.* | *Summayya, Robiya, Fotima, Oysha.* | *Muhammet, Mustafa, Zekeriya, Zeyd.* | *Sümeyya, Rabia, Fatma, Ayşe.* |
| ***2.Millat tarixidan joy olgan ismlar*** | *Alpomish, Shiroq, Rustamxon, Amir Temur.* | *To'maris, Nodira, Bibixonim.* | *Oğuzhan, Doğukan, Fatih, Alperen.* | *Aysuhan, Begisu, İlayda, Aybala.* |
| ***3.Bola tug'ilgan oy, fasl, kun, vaqtga doir ismlar*** | *Rajap, Ramazon, Juma, Chorshanba, Yakshanba, Hayitboy, Oktyabr.* | *Bahor, Jumagul, Chorshanbagul,* | *Recep, Ramazan, Cuma, Şaban, Kasım, Ekim.* | *Bahar, Muharrem, Şevval, Nisan.* |
| ***4.Oila kattalari (boshliqlari)ning ismlari*** | *Hasan, Husayn, Yahyo, Ahmad.* | *Zaynap, Rohila, Oysara,* | *Haşan, Hüseyin, Yaşar, Ahmet.* | *Zeynep, Gülender, Selcan.* |
| ***5. O'lkada mashhur adabiyot, san'at, sport, davlat rahbarlari ismlari bilan bog'liq ismlar*** | *Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Muhammad, Yusuf, Bahodir,* | *Zulfiya, Zebiniso, Dilshodi, Barno, Munojot.* | *Yunus Emre, Mehmet Akif, Yaşar Kemal, Tarık Akan.* | *Deniz Baykal, Hülya Avşar, Ajda Pekkan.* |

Bola tug'ilgan oy, fasl, kun, vaqtga doir ismlarni har ikki tilga doir misollar orqali izohlashimiz O'zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika fakulteti Lingvistika

yo‘nalishi 1-kurs magistranti Avezova Anajon Ko‘paysin qizining “O‘zbek va turk antroponimlarining leksik-semantik xususiyatlari” nomli maqolasida keltirib o‘tgan: “Turklardan farqli o‘laroq o‘zbeklar farzandlariga oy nomlarini bermaydilar” (Avezova A, 2022, 609-bet)fikri xato ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbek ismlarining izohli lug‘ati (Nabizoda Muhammadhoshim, 2003, 400-bet)dan joy olgan xijriy qamariy yilning birinchi oyi *“Muharram”,* ikkinchi oyi *“Safar”,* yettinchi oy *“Rajap”,* to‘qqizinchi oyi *“Ramazon”;* Milodiy yil hisobidagi *“Yanvar”, “Oktyabr”(Oktyabr Mansurov)* oylari o‘zbek oilalarida tug‘ilgan farzandga ism sifatida qo‘yilishi fikrimizni tasdiqlaydi.

Butun xalqlarda farzand kutayotgan oilalar alohida hayajon va ruhiy-ma‘naviy jarayonni boshidan kechiradi va bu holatlar tug‘iladigan bolaga ism tanlashda turli motivlarni keltirib chiqaradi. Ushbu motivlarning o‘zbek va turk millatidan farqli jihatini belgilovchi elementlar quyidagi farqli jihatlarga ega : chaqaloqning tug‘ilgan kunidan yettinchi kuniga qadar ko‘zi ochilmasa, *Ochilboy*; bola dunyoga kelganda badanidagi mavjud belgilarga ko‘ra: *Xoldor, Normurod, Ortiq, Sunnat, Ziyoda, Norgul*; bolaning yuzi, ko‘zi, sochiga xos xususiyati, rangiga ko‘ra, *Qoracha, Sariq, Sariqul, Ko‘kko‘z;* ota-onasining yoshiga ko‘ra: *To‘qsonboy, Oltmishbek, Yetmishboy, Mo‘jiza;* Bolaning oilada nechanchi farzandligiga ko‘ra: *To‘xtasin, Kenja, Aziz, Aziza, To‘xtaoy.* Bundan tashqari, xalqimizda ota-onalar ko‘pincha farzandlariga bir-biriga yaqin ya‘ni ohangdosh yoki bir xil tovush bilan boshlanuvchi) uyqash ismlar tanlashga harakat qilishadi. Misol uchun: *Gulnoza, Dilnoza; Ahmadjon, Mahmudjon, Zahro, Zuhro.*

Ma‘lumki, shaxsni nomlash, atash turli omillar ta‘sirida yuz beradi. Jumladan, milliy etnografik an‘ana va udumlar, ishonch, tasavvurlar, hamda estetik motivlar (bolaga chiroyli ism tanlash), shuningdek, axloqiy tarbiyaviy motivlar, ya‘ni bolaga u kelajakda axloqiy jihatdan yetuk, komil inson bo‘lishini tilash mazmunini ifodalovchi ism qo‘yiladi. Diniy motivlar ham jamiyat hayotida alohida o‘rin egallaydi. Bu motiv ma‘lum tarixiy sharoit sababli o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsada uning asosiy mazmuni diniy e‘tiqod hisoblanadi. (Begmatov E,1965, 28-бет) O‘zbek va turk antroponimlarida bundan tashqari yana bir qancha turli motivlarga ega bo‘lgan ismlarni uchratish mumkin. Shu bilan bir qatorda bag‘ishlov va orzu-istak ismlar anchagina qismni tashkil etadi. Ikki til doirasida ushbu orzu istaklarning o‘xshash jihatlarini aks ettiruvchi asosiy elementlarni quyidagi jadval orqali tasniflaymiz.

| | | |
|---|---|---|
| **1. Bolaning yashab ketishini istash** | *Tursunoy, Turditosh, To‘xtasin, Yashar, Umrzoq, O‘lmas.* | *Dursun, Yaşar Durak, Durmuş Durali, Duran,* |

| | | |
|---|---|---|
| | *Bahodir,* | |
| **2. Bolaning irodali, chidamli, jismonan baquvvat bo‘lib ulg‘ayishini xohlash;** | *Botir, Jasur, Iroda, Metinboy, Mahkam, Po‘lat,* | *İrade, Arslan, Kaplan, Buğra,* |
| **3. Bolaning bilimdon, aql-zakovatli bo‘lishini istash** | *A‘loxon, Dono Olim, Fozil.* | *Bilgen, Alim,* |
| **4. Mehribon, yoqimtoy, dilkash inson bo‘lishini istash** | *Mehribon, Shirin, Mehrinoz, Dilnoz,* | *Şirin, Binnaz, Balkız,* |
| **5. Mard, jasur, shijoatli bo‘lib ulg‘ayishini istash** | *Jasur, Botir, Botirpo‘lat, Erali, Sherali* | *Cihangir, Canberk, Berkin, Batur, Polat, Alpay.* |
| **6. Tarixiy shaxslar ismini qo‘yish.** | *To‘maris, Alpomish, Temur, Jaloliddin.* | *Tomris, Bumin, Istemi, Bilge, Kültegin.* |
| | *Baxtigul,* | |
| **7. Bolaning omadli va baxtli inson bo‘lishini tilash** | *Baxtiyor, Baxtishod, Omad(bek)* | *Firuz, Göneniç, Olcay,* |

| | | |
|---|---|---|
| **8. Bolaning shodon, quvnoq bo‘lib ulg‘ayishini tilash** | *Dilshod,*<br>*Shodiya,*<br>*Quvondiq,*<br>*Quvonch,*<br>*Sevinch* | *Şadan,*<br>*Dilşad,* |

Tug‘ilajak farzandni, ayniqsa, bolasiz bo‘lgan oilalarda orzu-armon bilan kutishadi. Mana shu holat, farzandga muhtojlik ism tanlashga asos bo‘ladi: Buvizor, Istak, Istakoy, Istakxon, Keldi, Keldixon, Keldio‘roz, Keldiqiz, Kerakjon, Kerakxon, Momochuchuk, Sog‘indiq, Sog‘inboy, Sog‘inch, Tantiq, Tilabberdi, Tilagan,
Tilov, Tilovbeka, Tilovxon, Unabbergan, Ermakboy, O‘talsin,
O‘tatilov va boshqalar (Begmatov E, 2013, 176-bet). Turk ismlarining yuzaga kelish omillarini o‘rganish jarayonida yana bir narsa aks ettiki, turk oilalari uzoq muddat farzandli bo‘lishmasa ular qabriston va ziyoratgohlardagi aziz-avliyolarning qabrlariga nazr qilib farzand so‘rashadi va ularni qabrlarga ko‘ra nomlashadi. Gazeantepa atrofida yashovchilarning bolalari *“Habeş”, “Ökkeş”, “Bilal”, “Hıdır”*dir. Afyonda bu *“Emir”,* Diyarbakirdagi *"Shayx Muso"* nomli qabr ostida istalgan bola tug‘ilganda o‘g‘il bo‘lsa, “*Şehmuz*”, qiz bo‘lsa, “*Sultan*” deyiladi( Hılal Kalkandelen, 1999, 60-bet) Bunday ismlar turk xalqning diniy e‘tiqodlari, ishonishlari natijasida yuzaga kelgandir.

Ba‘zi nomlar o‘zbek xalqida ham turk xalqida ham ma‘lum bir motivlarga, oruz-istaklarga ko‘ra beriladi. Misol uchun oilada ketma-ket qiz farzand tug‘ilsa keyingi farzand o‘g‘il bo‘lishini istab o‘zbeklarda qizlarga *O‘g‘iloy*, *Ulbo‘lsin*; turklarda *Yeter, Tamam, Songül* ismlari qo‘yiladi. Kuzatishlarimiz shuni ham ko‘rsatadiki, turk millatida to‘ng‘ich qiz farzandga *Ilkay, Ilkgül, Ilknur*, O‘g‘il bolalarga nisbatan *Ilker* ismlari beriladi. O‘zbek millatida mazkur sababga ko‘ra nom berish juda nofaoldir. Izohli lug‘atda to‘ng‘ich o‘g‘il farzand uchun qayd etilgan *Ilkin* ismi istemolda deyarli ishlatilmaydi, to‘ng‘ich qiz bolalar uchun ismlar keltirilmagan. Bundan tashqari o‘zbeklarda kuchli, qudratli bo‘lsin deb farzandga Allohning sifatlaridan biri bo‘lgan *Qodir* ismi qo‘yilsa, turklar qadr kechasida tug‘ilgan bolalarga nisbatan *Kadir* ismini qo‘yadilar. *Xudoyberdi*, *Xudoybergan, Haqberdi, Tangriberdi(*Allohning tuhfasi va marhamati) kabi ismlarni o‘zbeklar Alloh ato qilganligi uchun farzandlariga berishsa, turklar “Allahverdi”, “Hüdaverdi”, “Hakberdi” kabi ismlarni Allohning ko‘zi ostida bo‘lsin, Alloh qo‘risin degan ma‘noda farzandlariga berishadi. Keltirilgan shakldosh, ma‘nodosh ismlar o‘zbek va turk xalqining chaqaloqqa nom qo‘yish maqsadlari turlicha

ekanligini ifoda etadi. O‘zbek tilining turkiy qatlam ismlari ham o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Izlanishlar natijasida ism bag‘ishlovlar – memorativlar o‘zbek turk xalqlarining tabiat va tabiat hodisalari haqidagi qadimiy tasavvurlari bilan, ya’ni ba’zi hayvonlar, o‘simliklar, jonivorlarni ilohiy deb bilib, sig‘inish, ularni totem sifatida e’zozlanishiga ko‘ra yaqin ekanligini ifoda etadi. Bunday ismlar yuzaga kelishining negizi qadimiy davr kishilarining so‘z (nom)ning sehrli kuchiga ishonishi va undan yordam kutish ifodasini aks ettiradi.

| Memorativlar | O‘zbek | Turk |
|---|---|---|
| 1. **Osmoniy jismlar nomidan yasalgan ismlar** | *Yulduz, Oyxon, Kuntug‘mish, Oynur, Quyoshxon.* | *Yıldız, Zuhal, Ayas, Aylin, Aynur, Güneş.* |
| 2. **Turli tabiat hodisalari va stixiyalari nomidan yasalgan:** | *Bo‘ron, Yomg‘ir, Chaqmoq, Yashin, Qorliboy.* | *Ayaz, Yağmur, Ruzgar.* |
| 3. **Turli geografik obyektlarning nomlaridan yasalgan nomlar:** | *Dengiz, O‘rmon, Sahrogul.* | *Deniz, Kumsal, Sahro, Derya,* |
| 4. **Hayvon va qushlarning nomi bilan aloqador ismlar:** | *Lochin, To‘ti, Qaldirg‘och, Qo‘chqor.* | *Büğra, Alparslan, Yağmurca, Kaplan.* |
| 5. **Turkiy qabila va urug‘larning nomidan yasalgan antroponimlar**. (Akramjonovna G, 2022, 89-bet | *Do‘rmon, Barlos, O‘zbek.* | *Foris, Haşim.* |

Bolaga munosib, yaxshi nom tanlashga intilish – eng qadimiy odat. O‘tmishda ko‘plab buyuk shaxlar tomonidan bu masala yuzasidan xilma-xil fikrlar bayon qilingan. Masalan, buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy bolaga nom qo‘yganda

tanlanadigan ism kishiga munosib bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi va “farzandingiz ulg‘ayganda o‘z otining noqulayligidan uyalmasin”,─ deydi:

Birisi qo‘ymoq erur yaxshi ot
Kim desalar topmagay andin uyot (Kilichev B, 2023, 141-bet).

Umuman olganda, xalq tilida mavjud ismlar jamiyat a`zolarining his-tuyg‘u va tafakkur tarzi ko‘rsatkichi hisoblanadi. Taraqqiy etgan har bir madaniyatli xalqning o‘z tili, adabiyoti, ma‘naviyati, madaniyati, tarixi va urf odatlari bo‘ladi. Bularning barchasi va xalqning milliyligi ismlarda yaqqol aks etadi. Tanlanayotgan ism qanday bo‘lishidan qat‘iy nazar u o‘zida ota-onaning orzu istaklarini mujassam etadi. Ismlar madaniyat, tarix, til nuqtai nazaridan muhim o‘rin tutadi. Keltirilgan nomlar o‘tmishda diniy-axloqiy motivlar ustun bo‘lgani va bu holat bugungi kunda ham davom etayotganini ko‘rsatadi. Ikki mamlakat hududidagi ismlar davrlarga bog‘liq holda yuzaga kelgan deb aytish mumkin. Islom madaniyatining kirib kelishi, ommaga tanilishi, o‘rganilishi yoki avj olishi bilan bog‘liq zamonlar turlicha kechib, ular shaxs nomlarida o‘z aksini topgan. Aksariyat ismlarning diniy xususiyatga ega ekanligi ularning umumiy jihatini namoyon qiladi. Bundan tashqari inson faoliyatining tabiatga ta‘siri natijasida yuzaga kelganligini ismlar ham mavjud. Yuqorida keltirilgan motivlar turkiy xalqlar ismlarining paydo bo‘lishi, ismlar fondining shakllanishi, boyishida asosiy omillar sifatida xizmat qilgan. Bugungi kunga qadar to‘plangan ismlar an‘anaviy fond sifatida qo‘llanilmoqda. Olim E.Begmatov ta`kidlaganidek: “Turkiy qatlamga mansub ismlarning ko‘pchiligi juda qadimiy davrlar mahsulidir. Ularni yasash, bolaga berish bilan bog‘liq motivlar, e‘tiqod va ishonchlar xalq orasida hozirda ham saqlanib turibdi.” (Begmatov E, 2013, 182-bet) Izlanishlar yana shuni ko‘rsatadiki, barcha turkiy nomlar ma‘lum bir an‘ana va e‘tiqodga asoslangan bo‘lib, ular farzandga qo‘yilish jarayonida o‘zida davr va xalq turmush tarzini, ularning orzu-istaklarini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham antroponimik birliklar o‘zida xalq mentaliteti va madaniyatini saqlovchi “so‘zlar xazinasi” bo‘lib, ular avloddan avlodga meros qilib qoldiriladi. Kishi ismlari yuzaga kelishini geografik muhit, madaniyat, tarix va xalqning dini kabi ko‘plab omillar belgilaydi. Ikki millat madaniyatida ham deyarli keng tarqalgan va ma‘lum e‘tiqod va an‘analarni aks ettiruvchi ismlar va ularning yuzaga kelish omillari orzu-istakni ifodalash nuqtai nazaridan mushtarak ekanligini namoyon qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. Begmatov E., O‘zbek ismlari ma’nosi, T., 1998.- 9b
2. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent, O‘zME nashriyoti, 2013. – B.182
3. Kilichev B. Onomastika – Buxoro., 2023. –B.141.

4. Шайх Абдулазиз Мансур (таржима ва тафсир муаллифи) Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. –Тошкент: Мовароуннаҳр, 2021. – Б.174
5. Aksan, Doğan, Her Yönüyle Dil Ana Çizgileriyle Dil Bilim, Türk Dil Kurumu Yayınları: 439, Cilt III, Ankara 1998.
6. Boz, Erdoğan, "2001 Yılında Afyon'da Verilen Çocuk Adları", Türk Dili, TDK Yayınları, S. 619, s. 17-24, Ankara 2003.
7. Boz, Erdoğan, "Türkiye Türklerinde Kişi Adı Olarak Meyve Adları", AKÜ Sosyal Bilimler Dergisi, C. V, S. 1 Haziran, 29-36, Afyon 2004.
8. Taş, Hülya, "Uludağ Üniversitesindeki Öğrenci Adları Üzerine Yapılan Bir Araştırma", Milli Folklor Uluslararası Halkbilimi Dergisi, Sayı 65, Bahar Ankara 2005.
9. Г о р д л е в с к и й В. А. Кличнойономастикеуосманцев / / Древности восточнме, Т. IV. С.154.

**Internet sahifalari:**

1. http://www.ziyouz.com
2. https://budizzz.com/pages/isimler-ve-anlamlari
3. https://dergipark.org.tr/tr/
4. https://scholar.google.com/

## O'ZBEK VA TURK TILLARIDA ZOONIM LAKUNAR

*No'monjonova Namunaxon Abdulxoshim qizi*
*ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti, 4-kurs talabasi*
*nomonjonovanamunaxon@gmail.com*
*+998901574734*

**Annotatsiya**: *Ushbu maqolada tilshunoslikda dolzarb muammoga aylangan lakuna fenomining tilga ta'siri va lingvokulturologiyadagi ahamiyati o'rganildi. O'zbek va turk tillaridagi zoonim lakunar birliklarni tadqiq qilishda qiyoslash, matniy-qiyosiy, tasniflash, tavsiflash kabi tahlil usullaridan foydalanildi. Bu ilmiy maqolaning ahamiyati shundaki, tillararo aspektda yaxlit tizimda tahlil qilingan o'zbek va turk tillaridagi lakunalarning antropotsentrik tilshunoslik tamoyillariga asoslanib lingvistika va madaniyatshunoslik nazariy asoslarini yaratishda, o'zbek va turk tillaridagi lakunalarni aniqlashda, o'zbek tilshunosligi va madaniyati tarixiga oid ilmiy materiallar to'plashda, lingvokulturologiya bo'yicha ilmiy ishlar, ma'ruzalar tuzishda yordamchi bo'la oladi.*

**Kalit so'zlar:** *tilshunoslik, lakuna, zoonim, muqobil, bo'shliq, uy hayvonlari, parranda.*

**Abstract:** *In three articles, the effect of the lacuna phenomenon, which has become an actual problem in linguistics, on the language and its importance in linguo-cultural studies were studied. Analytical methods such as comparison, text-comparative, classification, and description were used in the research of zoonym lacunar units in the Uzbek and Turkish languages. The importance of this scientific article is that, based on the principles of anthropocentric linguistics, lacunae in the Uzbek and Turkish languages analyzed in a holistic system in the interlinguistic aspect are used to create the theoretical foundations of linguistics and cultural studies, to identify lacunae in the Uzbek and Turkish languages, and to provide scientific materials related to the history of Uzbek linguistics and culture. can be an assistant in writing scientific works and lectures on linguistics and cultural studies.*

**Key words:** *linguistics, lacuna, zoonym, alternative, space, domestic animals, poultry.*

Ma‘lumki, til odamlar o‘z fikrlarini ifodalash va atrofidagi narsa-hodisa hamda tushunchalarni nomlash uchun foydalanadigan vositadir. Shu ma‘noda til foydalanuvchisining ehtiyojlarini qondiradi. Biroq inson ongida uchrashi mumkin bo‘lgan tushunchalarning cheksizligi va inson hayotiga doimiy ravishda yangi tushunchalarning kirib borishi tilning bu ehtiyojni qondirishda ayrim hollarda ojizlik qiladi yoki ma‘lum tizimdan tashqarida turli yo‘llar bilan ifodalashga sabab bo‘ladi.

Dunyo tillaridagi madaniyatlar doim o‘zaro aloqada va hamkorlikda bo‘ladi, bu hodisa ularning uzluksiz rivojlanishini ta‘minlaydi. Shu bilan birgalikda ba‘zi tillarning farqli jihatlari va turli bo‘shliqlar vujudga keladi. Bu hodisa zamonaviy tilshunoslikda «lakuna» deb ataladi. Lakuna bugungi kunda o‘zaro qiyoslanayotgan tillar o‘rtasidagi nomutanosiblik, ya‘ni tizimli farqlashda faol ishlatilmoqda.

Lakuna termini ilk bor kanadalik olimlar J. Vine va J. Drabelne tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Mazkur olimlar “Fransuz va ingliz tillarini qiyoslash uslubi” nomli kitobida lakunaga ikki til qiyosida aniqlanadigan lisoniy hodisa sifatida quyidagicha ta‘rif bergan: “Bir tildagi so‘zning boshqa tilda muqobili topilmagan o‘rinlarda lakuna hodisasi voqelanadi”. Ta‘rifdan ham ko‘rinib turibdiki, mazkur o‘rinda olimlar lakunaning ikki til miqyosida aniqlanadigan, ikki madaniyatning konseptosferasida bir-biriga muqobil bo‘lmagan tushunchalarni ifodalash uchun mazkur terminni qo‘llagan (“Til va adabiyot ta‘limi”, jurnali 2021-yil 9-son, 39-bet). Shundan kelib chiqqan holda, maqolamizda ikki til – o‘zbek va turk tillari- miqyosida keng tarqalgan zoonimlarni tahlil qilamiz.

Insoniyat bilan chambarchas bog‘langan tirik mavjudotlar qatorida hayvonot olami ilk pog‘onalarda turadi. Chunki oziqlanish, himoyalanish, kiyim-kechak kabi ko‘plab masalalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Biz doimo o‘zaro aloqada bo‘lgan hayvon turlarini nomlashga katta ehtiyoj sezamiz. Lekin geografik sharoit va

madaniyat ularga nom berishda salmoqli ta‘sir ko‘rsatgan. Geografik sharoitlar tufayli butun dunyoda barcha hayvon turlarining topilavermasligi, har bir jamiyatda turlicha farqlanishi va barcha leksik sohalarda mavjud bo‘lganidek bu borada ham xalqlarning hayvonlarni nomlashida bir qancha tafovutlar mavjud. Va bu o‘z navbatida tillararo lakunalarni keltirib chiqaradi.

Lakunalar faqat tillararo hayvonlarning tur nomlarida emas, balki turli mezonlar bo‘yicha til ichida nomlanishida ham uchraydi. Quyida berilgan jadvallar orqali o‘zbek va turk tillaridagi, asosan, yaqin munosabatda bo‘lgan uy hayvonlari va bazi parrandalar nomlarini ikki til kesimida ko‘rib chiqamiz.

**1-jadval. Qoramolning jinsi va yoshiga ko‘ra nomlanishi**

| | **Dişi** | **Erkek** | **Dişi ve Erkek** |
|---|---|---|---|
| **Tür** | İnek | Boğa (öküz) | Sığır |
| **Yavru** | **-** | **-** | Buzağı (Dana) |
| **Yaş (1)** | Düve | Tosun | **-** |
| **Yaş (2)** | Düve | Tosun | **-** |
| **Yaş (2-…)** | - | - | **-** |

| | **Urg‘ochi** | **Erkak** | **Umumiy** |
|---|---|---|---|
| **Turi** | Sigir | Ho‘kiz (buqa) | Mol (qoramol) |
| **Bolasi** | - | - | Buzoq |
| **Yoshi (1)** | Tana | - | - |
| **Yoshi (2)** | Tana | - | - |
| **Yoshi (2-…)** | G‘unajin | Novvos | - |

Ko‘rib turganimizdek, qoramolning umumiy nomi, erkagi, urg‘ochisi va bolasining ikki tilda ham alohida so‘z bilan nomlangan. Lekin bolasining yosh bo‘yicha nomlanishida tafovutlar mavjud. *Düve* – bir-ikki yoshdagi urg‘ochi sigir. O‘zbek tilida *tanaga* to‘g‘ri keladi. *Tosun* – bir-ikki yoshdagi yosh buqa, *novvos* – ikki-uch yasharlik buqa. Bu ikki so‘z garchi yosh buqani anglatsa ham yoshi bo‘yicha farqlanadi. *G‘unajin* - ikki yoshdan oshgan urg‘ochisi. Turk tilida bu so‘zning muqobili yo‘qligi uchun lakuna bo‘la oladi.

Bundan tashqari o‘zbek tilida bo‘g‘oz bo‘lmay qolgan yoki qochmagan sigirga nisbatan *qisir* atamasi qo‘llaniladi. Misol tariqasida X. To‘xtaboyevning *“*Felyetondan so‘ng” asarida *“Kuni kecha o‘zlari qisir g‘unajinni bo‘g‘oz deb sotdilar”* jumlasi qo‘llanilgan.

**2- jadval. Itning jinsi va yoshiga ko‘ra nomlanishi**

| | **Dişi** | **Erkek** | **Dişi ve Erkek** |
|---|---|---|---|

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Tür** | **-** | **-** | Köpek (it) |
| **Yavru** | **-** | **-** | Enik (göbelez, göcen) |
| **Yaş (1-2)** | **-** | **-** | **-** |

| | **Urg‘ochi** | **Erkak** | **Umumiy** |
|---|---|---|---|
| **Turi** | Qanjiq | Arlon | It |
| **Bolasi** | - | - | Kuchuk |
| **Yoshi (1-2)** | **-** | **-** | **-** |

It – odamlarning eng sevimli va vafodor hayvoni. Shunday bo‘lsada o‘zbek tilida yoshiga ko‘ra, turk tilida esa ham yoshi hamda jinsiga ko‘ra nomlashda bo‘shliqlar bor. Bu yerda *qanjiq va arlon* so‘zlarining turk tilida muqobili bo‘lmagani uchun lakunani yuzaga chiqaradi. Erkak kuchuk 10-12 itga aylanadi va *arlon* deyiladi, urg‘ochi kuchuk esa 7-8 oyda voyaga yetadi va u qanjiq deb ataladi. Lekin bu so‘z odamga nisbatan qo‘llanganda o‘ta qo‘pol so‘kishni, haqoratni bildiradi.

**3. Jadval. Otning jinsi va yoshiga ko‘ra nomlanishi**

| | **Dişi** | **Erkek** | **Dişi ve Erkek** |
|---|---|---|---|
| **Tür** | Kısrak | Aygır | At (beygir) |
| **Yavru** | **-** | **-** | Tay (taylak, kulun) |
| **Yaş (1)** | **-** | **-** | Tay |
| **Yaş (2)** | **-** | **-** | - |
| **Yaş (3)** | **-** | **-** | - |
| **Yaş (4)** | **-** | **-** | - |
| **Yaş (3)** | **-** | **-** | - |

| | **Urg‘ochi** | **Erkak** | **Umumiy** |
|---|---|---|---|
| **Turi** | Baytal | Ayg‘ir | Ot |
| **Bolasi** | - | - | Toychoq |
| **Yoshi (1)** | - | - | Qulun |
| **Yoshi (2)** | - | G‘o‘non | Toy |
| **Yoshi (3)** | - | Qunon | - |
| **Yoshi (4)** | - | Do‘non | Do‘non |
| **Yoshi (5)** | - | - | Pishti |

Otning jinsi va umumiy atalishi har ikki tilda ham mavjud. Lekin bolasining yoshiga koʻra nomlarida turk tilida boʻshliqlar bor. Bular - *gʻoʻnon qunon doʻnon va pishti*. *Gʻoʻnon* – ikki yashar aygʻir, *qunon*- uch yashar aygʻir, otning toʻrt yashar bolasi – *doʻnon* va keyingisi *pishti,* deb ataladi. Bu soʻzlar turk tili uchun lakuna hisonlanadi.

Nosir Fozilov "Qush qanoti bilan" qissasida *"Kunlar oʻtib, qulon-toy, toy-qunon, qunon esa doʻnon boʻlib yetishadi"* deb yozadi.

Bundan tashqari otning tugʻgani va boʻgʻozi – *"biya"* , eng qarisi esa "*qirchangʻi"* deyiladi.

**4. Jadval. Oʻrdakning jinsi va yoshiga koʻra nomlanishi**

| | **Dişi** | **Erkek** | **Dişi ve Erkek** |
|---|---|---|---|
| **Tür** | **-** | Suna | Ördek (Badi, badik, palaz) |
| **Yavru** | **-** | **-** | Civciv |
| **Yaş (1-2)** | **-** | **-** | Palaz |

| | **Urgʻochi** | **Erkak** | **Umumiy** |
|---|---|---|---|
| **Turi** | Churrak | Suna | Oʻrdak |
| **Bolasi** | - | - | Palapon |
| **Yoshi (1-2)** | **-** | **-** | **-** |

Oʻzbek xalqi azaldan parrandalarning erkagini *nar* soʻzi bilan, urgʻochisini *moda* soʻzi bilan atab kelgan. Shu bilan birga, biz bugungi kunda juda kam eshitadigan, nutqimizda qoʻllaydigan soʻzlar ham bor boʻlib, ular ham parrandaning nar va modasiga berilgan alohida nomlar hisoblanadi. Masalan, oʻrdakning bir necha turlari bor. Uning narini *soʻna* deyishadi. Modasi *churrak* boʻladi va bu turk tili uchun boʻshliq. Sababi jadvalda qayd etilganidek turk tilida modasi uchun alohida soʻz yoʻq. Oʻrdaksimonlar oilasiga koʻplab parrandalar kiradi. Masalan, patlari chiroyli va rang-barang boʻlgani *suqsur* deb ataladi. Hajman kichikroq boʻlgan turini esa *suqsuq* deyiladi. Oʻrdakning yovvoyi hayot kechiradigan va juda chiroyli bir turi *suralay* deyiladi. Toʻra Sulaymonning ushbu sheʻrida suralayning ana shu chiroyi taʻriflangan:

Bahor kelsa, boshlanur bogʻda bulbul xonishi,

Sa‘va, qumri nag‘masi, suralay tovlanishi.

Alisher Navoiy *o‘rdakning* jo‘rka, erka, suqtur, olmabosh, choqirqanot, temurqanot, aldaldag‘a, olapuka, bog‘chol *kabi yetmish turini ifodalovchi turkiy so‘zlar muqobili sart tilida yo‘qligi, leksemalarda gender farqlarning ifodalanmasligi, ularning barchasi uchun birgina* ***murg‘abi*** *so‘z ishlatilishi qayd etilgan: “…anda muqarrar va mashhur ilbosun o‘rdakdur. Va sort el* ilbosun*ni xud bilmas. Tog‘i turk o‘rdakning erkagin* “so‘na” *va tishisin* “bo‘rchin” *der. Va sort munga ham ot qo‘ymaydur. Va nar va moda ikkalasin* “murg‘obi” *der” deb yozib qoldirgan.*

*Ushbu lingvistik hodisani aslida Alisher Navoiy birinchilardan bo‘lib izohlagani va leksemalar asosida isbotlaganini “Muhokamat ul-lug‘atayn” asar orqali ko‘rishimiz mumkin. Lakuna hodisasi ikki til doirasida ham, bir til doirasida ham (adabiy til va sheva o‘rtasida) kuzatiladi. Masalan, shevadagi “idramoq” lakunar birligi adabiy tilda lakunanin hosil qiladi. Adabiy tildagi lakuna shevalar asosida bartaraf etilsa, tilning lug‘at qatlami yanada boyiydi.*

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikda lakuna fenomeni tilshunoslar va tarjimonlar tomonidan tildagi lingvistik bo‘shliqlarni aniqlash va ularni til imkoniyatlari asosida to‘ldirish, mavjud bo‘lmagan tushunchalarni tarjima qilish usullarini aniqlash doirasida qiyosiy, kontrastiv va lingvomadaniy jihatlarda tahlil qilinadi. Shu bilan birgalikda tilshunoslikda lakuna tushunchasining nutqimizda keng qo‘llanilishi va o‘rganilishi, yondosh hodisalardan farqlanishi, o‘zi alohida lingvistik kategoriya sifatida tan olinishiga sabab bo‘ldi. Buning natijasida lakuna tushunchasining mohiyati aniq va oson tushuniladigan darajada muayyanlashdi.

Turk va o‘zbek tillaridagi lakuna fenomenini taqqoslash madaniyatlararo muloqot, chet tillari tarjimashunosligi, tilni imkoniyatlardan kelib chiqib boyitish, o‘zbek tilini o‘rganish bilan bog‘liq qator muammolarni bartaraf etishda dolzarb ahamiyatga ega. Bunga qo‘shimcha ravishda, *adabiy tildagi lakuna shevalar asosida bartaraf etilsa, tilning lug‘at qatlami yanada boyiydi.*

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. “Til va adabiyot ta‘limi”, jurnali 2021-yil 9-son, 39-bet
2. Usmonova. Sh. Lingvokultrologiya. Darslik-2019, 246 b.
3. Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии. Благовещенск.: Изд-во БГПУ: 2003.- 364с.
4. Стернин И.А. Лексическая лакунарность и понятийная безэквивалентность. Воронеж: 1997.- С180

5. Songül İLBAŞ (Doktora Tezi) Eskişehir, 2019.

**Internet saytlari**

1. www.trt.net.tr
2. https://www.haberturk.com
3. https://www.pinterest.com.goz
4. https://oz.sputniknews.uz
5. https://www.wikipedia.org/

## EVOLUTION OF LANGUAGES AND ITS CONNECTION TO BRAIN ACTIVITY

*Ortiqova Mehrixon Doniyor qizi*
*first year student of the Faculty of*
*Theory and Practice of Translation TSUULL*
*ortiqovamehrixon@gmail.com*
*+998998952472*
*Scientific supervisor: Mohigul Akromjonova*

**Abstract.** *This article provides an anthropocentric analysis of languages, delving into their biolinguistic and psycholinguistic dimensions. Additionally, it sheds light on the influence of religious beliefs on the creation of language and explores the psychological ramifications of language on human cognition and behavior.*

**Keywords:** *cognitive abilities, brain activity, hemispheres, biolinguistics, proper nouns, abstract nouns, religious aspects, psycholinguistics.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada tillarning antropotsentrik tahlili, ularning biolingvistik va psixolingvistik o‘lchamlari o‘rganildi. Bundan tashqari, unda diniy e'tiqodlarning til yaratilishidagi ta'sirini yoritib, tilning inson ongi va xatti-harakatlaridagi psixologik ta'siri chuqur tahlil qilindi.*

**Kalit so‘zlar:** *kognitiv qobiliyatlar, miya faoliyati, yarim sharlar, biolingvistika, aniq otlar, mavhum otlar, diniy jihatlar, psixolingvistika.*

The study of language evolution explores the diversification, historical growth, and historical transformations that languages experience. Numerous factors, including cultural influences, environmental adaptations, migrations, exchanges between language groups, and technical breakthroughs, are involved in this process. Language evolution is impacted by social, political, and economic variables. For instance, trade, globalization, and colonialism have all aided in the spread of languages and the emergence of new linguistic variations. The development of writing systems, the printing press, and the internet, among other technical innovations, have also had a big influence on how languages change and communicate with one another. The

development of the human brain and cognitive abilities is believed to have been significantly influenced by the evolution of language. Additionally, there is a special scientific field that studies language and its impact on the brain called biolinguistics. It aims to comprehend how the human language system functions and how it developed. The human brain is divided into two hemispheres, the left and right, and each hemisphere is responsible for different functions. Language processing is mainly found in the left hemisphere in most people, more precisely in regions such as Wernicke's and Broca's areas.

Individuals have always named things based on where and how they lived. For example, people who resided in northern regions of the Earth have hundreds of names for snow. They were not familiar with blossoming trees or flowers until they encountered them. Brain activity functions in a similar manner: an individual perceives, interacts with, and assigns a suitable name to an object based on its sound or shape. Furthermore, linguists believe that a language containing numerous abstract nouns indicates that the language is older and more developed. However, if a language contains primarily proper nouns, it suggests that its speakers lived as nomadic tribes in the past. This is because they may not have needed to express emotions or use elaborate language, as their primary focus was on animal husbandry and hunting. According to statistics, the Arabic language contains more abstract nouns than other languages due to its rich literary tradition. Similarly, in the Uzbek language, there are numerous phraseological expressions, stable metaphors, and proverbs that are full of abstract nouns. This serves as concrete evidence of the rich history of our language, especially considering that our oldest literary examples date back to the 6th to 8th centuries.

Language evolution is the subject of numerous theories, most of which center on religious aspects. According to Christianity, there was originally only one language that God gave to Adam. After he was expelled from paradise and came to Earth, Adam had offspring. His children scattered to many regions of our globe, where they encountered a range of climates and made appropriate adaptations. The result of this was the creation of hundreds of languages worldwide.

“The limits of my language mean the limits of my world”, as Ludwig Wittgenstein once said. We can evaluate a nation or an individual based on their vocabulary range, which reflects the depth of their understanding. Individuals with a limited vocabulary are often perceived as unintelligent because they may struggle to articulate their surroundings. This limitation is closely tied to cognitive processes. Imagine what language would be like if all adverbs and adjectives were banned from dictionaries and citizens were only allowed to use verbs and nouns to build sentences. These people would probably become more aggressive and intellectually limited over time since they are unable to articulate the subtleties of their behavior and feelings.

Their capacity for reflection and contemplation decreases in the absence of descriptive words since thinking depends on the meaning that words offer. In the end, people would go back to acting like animals, losing touch with the depth of emotional interactions that words can elicit, the beauty of art, and the magic of poetry. They would start speaking in a robotic, emotionless tone and only conveying facts without any feeling. As a proof of my theory I am going to show quote by George Orwell from his book" Nineteen Eighty-Four". “Every year fewer and fewer words, and the range of consciousness always a little smaller. Even now, of course, there's no reason or excuse for committing thoughtcrime. It's merely a question of self-discipline, reality-control. But in the end there won't be any need even for that. The Revolution will be complete when the language is perfect. Newspeak is Ingsoc and Ingsoc is Newspeak,' he added with a sort of mystical satisfaction. 'Has it ever occurred to you, Winston, that by the year 2050, at the very latest, not a single human being will be alive who could understand such a conversation as we are having now?'” (George Orwell, “1984”, page 56).

There is another field which learns brain activity through language called psycholinguistics. It is the multidisciplinary study of the mental and psychological mechanisms behind the learning, producing, understanding, and application of language. "Any language, regardless of its material form, is a system of signs through which a person communicates the state of their mental processes to other members of the community. Therefore, unlike other forms of expression, it is motivated not only physically but primarily mentally from the outset. Additionally, language can only emerge within society - 'where a shared spiritual life exists and is directly perceived as universal.' Wundt (psychologist) also stresses that human language and human thought arise and develop simultaneously. Language serves as an objective gauge of thinking‘s progression communicated through it and functions as an essential and integral component of the thinking process itself."( Т.Н. Ушакова. - М.: ПЕ Р СЭ, 2006. - 68 с). Psychologists are skilled orators who acknowledge that language, when used with the correct tone, is one of the most potent tools for the human brain. It has the power to influence people more rapidly than anything else and can easily unveil secrets. When psychologists hypnotize someone, they speak in a smooth tone that influences the individual's neurological responses. “You may quarrel with his conception of the way in which the brain takes energy from the air, but his reference to the brain-mind relation is magnificent. “To consciousness the brain is the messenger.” And again, “The brain is the interpreter of consciousness.” So it is with speech. To the speaker the brain becomes “the messenger,” and for the listener the brain serves as the “interpreter.” The message is a sequence of words”.( Wilder Penfield, Lamar Roberts, 1959, page 7). These theories show that language is a social phenomenon and is more complex than

we have ever imagined. In the fifth century BC, Hippocrates, the father of medicine, wrote: 'Some people say that the heart is the organ with which we think, and that it feels pain and anxiety.' While this theory may seem incorrect in the light of new scientific discoveries, it holds a kernel of truth, especially considering that poets and writers acknowledge that they create written speech driven by the impulses of their hearts. "Of all the phenomena generated by collective human life, language is given the primary place. 'We will need language,' emphasizes the German psychologist, 'to create a stable psychology of the most complex spiritual processes..."'( Т.Н. Ушакова. - М.: ПЕ Р СЭ, 2006. - 66 с).

To sum up everything that has been started so far, language creates meaning which supports healthy brain activity. According to Islamic belief, the entire universe was created by a single word of Allah. This suggests that language is the genesis of life from nothingness. Without language, life itself would not have existed.

**REFERENCES:**


1. https://www.bsceducation.com/blog/inspirational-quotes-for-language-learners/
2. Психолингвистика: Учебник для вузов / Под ред. Т.Н. Ушаковой. - М.: ПЕ Р СЭ, (2006). - 416 с
3. George Orwell, “1984”
4. Wilder Penfield and Lamar Roberst, Speech and brain mechanisms, (1959), London: Oxford University Press.
5. https://yandex.ru/search/?text=psixolingvistika+&lr=10335&redircnt=171337911.


## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA OLMOSHLARNING IFODALANISHI


*Gulistan State Pedagogical Institute*
*Foreign language and literature 2nd year student*
***Sharipova E`zoza Fazliddinovna***
*fazliddindpr@mail.ru*
*+998972787416*



**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ingiliz va o‘zbek tillardagi olmosh hamda uning turlari bo‘yicha ilmiy ma‘lumotlarning asosli fikrlari keltirilgan. Turli fan tarmoqlari o‘zaro bog‘liq holda taraqqiy etadi. Ularning birida bosib o‘tilgan evolyutsion bosqich, yirik olamshumul ixtiro boshqa fanlardagi tadqiq ob‘ekti, muammo hamda maqsadlarga bevosita va bilvosita o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Natijada turli fan tarmoqlaridagi ilmiy izlanishlarni muayyan davrlarga ajratish, pirovard vazifalariga ko‘ra umumlashtirish imkoni paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘zbek va ingiliz tillardagi olmoshlar gapdagi vazifasi, grammatik jihatdan shakllanishi bir-biriga juda ham yaqin vazifavlarda kelishi haqida ham fikrlar bildirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *olmosh, kishilik, ko‘rsatish, o‘zlik, so‘roq, gumon, bo‘‘lishsizlik.*

**Abstract:** *This article presents the basic ideas of scientific information on pronouns and their types in English and Uzbek languages. Different branches of science develop interdependently. The evolutionary stage, a large universal invention passed in one of them directly and indirectly affects the object of research, problems and goals in other disciplines. As a result, it becomes possible to divide scientific researches in different fields of science into specific periods and generalize according to the final tasks. In addition, opinions were expressed about the function of pronouns in the Uzbek and English languages, and their grammatical structure, which are very close to each other.*

**Key words:** *pronoun, person, show, identity, question, doubt, indivisibility.*

So‘z turkumlarning ifodalanishi barcha tillarda bir-biriga monand shakllangan bo‘lib, faqat so‘zlar ilmiy jihatdan asoslanib tilning hususiyatiga qarab sistemaga solingan. Shu boisdan, ingliz tilida ham o‘zbek tilidagi singari boshqa so‘z, gap, so‘z birikmasi o‘rnida almashib keladigan so‘z turkumiga olmosh deyilishi bejizga emas. Masalan, Alex went to school – He went to school.

Shuni alohida ta‘kidlash mumkinki, ingliz tilida olmoshlar o‘zbek tilidagi singari 8 turi mavjud bo‘lib, ular quyidagicha ifodalanadi: (Gapparov & Qosimova, 2008, 355-bet).

a) personal pronoun;
b) possesive pronoun;
d) reflexive pronoun;
e) demonstrative pronoun;
f) reciprocal pronoun;
g) interrogative pronoun;
g‘) relative pronoun;
h) identifinite pronoun.

Ingiliz tilidagi “Personal pronoun” atamasi kishilik (personal pronoun) olmoshi bo‘lib, o‘zbek tilidagi singari uch shaxsdan biriga ishora qiluvchi olmosh hisoblanib, uning ikkita shakli mavjud: bosh shakl va to‘ldiruvchili shakl.

Ingiliz tilidagi bosh shakli birlik va ko‘plikda ifodalanib, u I – men, You – sen He/She/It – u; We – biz, You – siz, They – ular kabi shakllarda ifodalanadi. Bu ifodalanishlar deyarli o‘zbek tilidagi bilan bir-biriga yaqin shakllarda ko‘zga tashlanadi.

Bu tildagi 3-shaxs birlik shakli he, she, it olmoshlarini oladigan bo‘lsak, uning o‘zbek tiliga tarjimasi o‘zgarishsiz qolgan. Biroq he – erkak kishiga nisbatan, she – ayol kishiga nisbatan, it – esa jonli va jonsiz narsaga nisbatan ishlatilishiga qarab ajratilishi ingiliz tilining o‘ziga xos jihati ekanligidan dalolat beradi. Ularning

barchasiga nisbatan koʻproq koʻplik shaklining ishlatilishi esa "they" olmoshiga borib taʻqaladi.(Абдуллаев, 1978, 34-бет).

Matnda ifodalayotgan maʻnoni faqatgina tarjimasi orqali bilish mumkin boʻlgan jihatdan esa, olmoshlarining 2-shaxsdagi birlik va koʻpligi bilan ifodalanishida kuzatish mumkin. Bunday koʻrinish ingliz tilida toʻldiruvchili shakl deyiladi. Masalan, birlikda – me – menga, mendan, menda, meni; you – seni, senga, senda, sendan; him/her/it – uni, unga, unda, undan kabi. Koʻplikda esa us – bizni, bizga, bizda, bizdan; you – sizni, sizga, sizda, sizdan; them – ularni, ularga, ularda, ulardan kabi soʻzlar bilan ifodalanadi.(Ҳозирги ўзбек тили,1966, 390-бет).

Tilshunoslikning asosi boʻlgan har qanday grammatik kategoriyalar maʻlum bir oppazitsiyada yashaydi. Chunki bu har qanday hodisaning asosi hisoblanadi. Shu boisdan toʻldiruvchili va bosh shakldagi olmoshlar bir-biridan quyidagicha farqlanadi: toʻldiruvchili shakl fe'ldan (yani kesimdan) keyin kelsa, bosh shakl esa fe'ldan oldin, yaʻni ega vazifasida kelishi bilan farqlanib turadi.

Darhaqiqat, oʻzbek tilida olmoshlarga qoʻshiladigan qoʻshimchalarning ifodalanishi alohida boʻlsa, ingliz tilida olmosh va qoʻshimcha birgalikda, yangi oʻzak hosil qilishi bilan farqlanadi. Shunga alohida eʻtibor berish kerakki, ba'zan bir nechta qoʻshimcha qoʻshilganda ham bir xil koʻrinishda boʻlishi bilan eʻtiborlidir. Masalan, "me" olmoshi menga (joʻnalish kelishigi), menda (oʻrin-payt kelishigi), meni (tushum kelishigi), mendan (chiqish kelishigi) kabi shakllar orqali ifodalanishi mumkin (Gapparov & Qosimova, 2008, 355-bet.; Ҳозирги ўзбек тили,1966, 390-бет).

Ingiliz tilida olmoshlarning toʻldiruvchili va bosh shaklning 2-shaxs birlik va koʻplik formalari bir xil boʻlib, ularni yuqorida aytilganimizdek, fe'ldan (kesimdan) oldin yoki keyin kelishiga qarab aniqlash maqsadga muvofiqdir. Toʻldiruvchili shakldagi 2-shaxs birlik va koʻplikdagi olmoshlarni farqini esa tarjima orqali ajratish mumkin.

Ingiliz tilida shunday olmosh mavjudki, “Possesive pronoun” nomi bilan ifodalanadi, oʻzbek tilida bunday olmosh turi mavjud emas. Chunki bu olmoshlar oʻzbek tiliga tarjima qilganda olmoshning bosh shakli+qaratqich kelishigiga toʻgri keladi. Aynan bunday koʻrinish oʻzbek tili grammatikasida uchramaydi.

Bu tilda olmoshlarning yana bir turi, yaʻni egalik olmoshining asl va bogʻliq shakllari mavjudligi bilan farqlanadi. Asl shaklda birlik formasi quyidagicha ifodalansa, my – mening, your – sening, his/her/its – uning; koʻplik formasi esa, our – bizning, your – sizning, their – ularning kabi tuzilishlarga egaligi bilan farqlanadi.(Содиқова, 2019, 15-бет).

Egalik olmoshining bogʻliq shakli esa asl shakldan tubdan farq qiladi. U birlikda quyidagicha, mine – meniki, yourss – seniki, his/hers/its-uniki; koʻplikda

esa boshqa bir shaklda ifodalana oladi, jumladan, ours – bizniki, yours – sizniki, theirs – ularniki tarzida. Asl shakl otdan oldin, bog‘liq shakli esa otdan keyin ishlatilishi bilan ajralib turadi. Ushbu shaklidagi 3-shaxs birlik his va its olmoshlari bir xil, ularni otdan oldin yoki keyin kelishidan farqlanishi ingiliz tilining o‘ziga xos jihatlarini belgilab turadi. (Gapparov & Qosimova, 2008, 355-bet).

O‘zbek tilidagi kabi ingiliz tilida ham shunday olmosh uchraydiki, bu “reflexive pronoun” deb nomlanadi, ya‘ni o‘zlik olmoshi bilan bir xil vazifada kela oladigan olmosh turidir. Ya‘ni, o‘zlik olmoshi egalik olmoshining asl shakliga birlikga self, ko‘plikdagi shakliga – selves qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi. Faqat buning hisself va theirselves shakli mavjud emasligi bilan ajralib turadi. Biroq o‘rniga himself va themselves ishlatilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu birlik shaklida myself – o‘zim, yourself – o‘zing, himself/herself/itself – o‘zi tarzida, ko‘plikda esa, ourselves – o‘zim, yourselves – o‘zingiz, themselves – o‘zlari kabi shakllarda ifodalanishi bilan o‘zbek tilidagi o‘zlik olmoshining o‘rnini bosa oladi. O‘zlik olmoshi kesimdan keyin kelib egaga mos bo‘lishi kerak. Agarda o‘zlik olmoshi egadan keyin qo‘llanilsa kuchaytirish ma‘nosini ifodalashi bilan ajralib turadi. Masalan, I myself will do this. Gapda bring, feel, relax, concentrate, wash, take, shave, dress fe'llari kelsa o‘zlik olmoshi ishlatilmasligi bu tilning yana bir jihatini belgilab beradi. (Ҳозирги ўзбек тили,1966, 390-бет).

Ingiliz tilida ifodalanadigan olmoshlardan yana biri “interrogative pronoun” nomi bilan ifodalanib, o‘zbek tilidagi so‘roq olmoshiga teng kekladi. Bu so‘roq olmoshi o‘zbek tilidagi kabi gapning xohlagan joyida qo‘llana olmaydi, balki har doim gapda gap boshida ifodalanishi bilan ajralib turadi, uning alohida belgisi esa gap oxirida so‘roq belgisi qo‘yilishidadir. Masalan, Who – kim, Whom – kimga, kimga, kimda, kimdan, What – nima, Where – qayerda, Which – qaysi, whose – kimning, How – qanday, How much – qancha kabi so‘roq olmoshlari mavjud bo‘lib, olmosh so‘z turkumining boshqa bo‘sh qolgan grammatik amallarini bajarib keladi. (Gapparov & Qosimova, 2008, 355-bet).

Umuman olganda, o‘zbek va ingiliz tillardagi olmoshlar gapdagi vazifasi, grammatik jihatdan shakllanishi bir-biriga juda ham yaqin vazifavlarda kelishi bilan izohlansa, ba‘zi o‘rinlarda mutlaqo boshqa-boshqa vazifalarda kelishi yoki bir tilda mavjud bo‘lgan shakl, ikkinichi tilda ifodalanmasligi bilan tilshunoslarni hayratga solmoqda. Bunday jihatlarni o‘rganish, ilmiy tahlil etish tilshunoslikda yangi-yangi qirralarni kashf etishdek muhim masalalarni ochib berishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Abdullaev A.B. (1978). Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ko‘chirma shapli konstruktsiyalar. B. (34-bet). Toshkent: Fan.

2. Gapparov M., & Qosimova R. (2008). Ingliz tili grammatikasi. (355). Toshkent: Turon-Iqbol.
3. Hozirgi o‘zbek tili. (1966). Toshkent: Fan, 390-bet.
4. Sodiqova Sh.I. (2019). O‘zga gap sintaksisi va lingvopoetikasi. Fil. fan. bo‘yicha falsafa. dok. diss.. avtorefer. (15-bet). Toshkent.

## ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКАЯ ЕДИНИЦА КАК СПОСОБ ВЕРБАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПТА

### (на примере концепта “сердце” в английской языковой картине мира)

*Валиева Наргизахон Замир кизи*
*1 курс, отдел магистратуры УзГУМЯ*
*rakhmankulovanargizakhon@gmail.com*
*+998945573373*

**Аннотация:** *Данная статья освещает когнитивный аспект фразеологических единиц путем анализа вербализации концепта “сердце” в английской языковой картине мира. Актуальность темы исследования обусловлена тем, что выполнена в рамках современного направления лингвистики. Для анализа был использован метод когнитивной карты, который был применен в группировке фразеологических единиц с компонентом «сердце» исходя из их значений на основе структуры концепта, представленной В. Карасиком и Г. Слышкиным: смысловая, образная и оценочная составляющие. В результате исследования были выявлены следующие результаты: 3 образа представляют собой образную составляющую; оценочная составляющая включает в себя 8 групп-характеристик концепта; основную роль вербализации образной и оценочной составляющих концепта берут на себя фразеологические единицы.*

**Ключевые слова:** фразеологическая единица, концепт, вербализация, структура концепта, женщина.

**Abstract:** *This article highlights the cognitive aspect of phraseological units by analyzing the verbalization of the concept “heart” in English linguistic world picture. The relevance of the research topic is due to the fact that it was carried out within the framework of the modern direction of linguistics. For the analysis, the cognitive map method was used, which was applied in the grouping of phraseological units with the “heart” component based on their meanings based on the structure of the concept presented by V. Karasik and G. Slyshkin: semantic, figurative, and evaluative components. As a result of the study, the following results were revealed: three images represent a figurative component; the evaluation component includes eight groups of characteristics of the concept; The primary role*

*of verbalization of the figurative and evaluative components of the concept is taken on by phraseological units.*

**Keywords:** phraseological unit, concept, verbalization, concept structure, woman.

Как известно в последнее время, в связи с плавным переходом на антропоцентрическую парадигму, многие исследования проводятся в рамках современных направлений лингвистики, в число которых входит и когнитивная лингвистика. Данное направление лингвистики занимается изучением соотношения языка и ментальных процессов, уделяя особое внимание проблемам концептуализации, категоризации, концепту, структурам знаний и их вербализации. Целью данного исследования является выявление когнитивных аспектов фразеологической единицы путем изучения концепта и его вербализации с помощью фразеологических единиц на примере концепта «сердце» в английской языковой картине мира.

Основным методом исследования являются метод когнитивной карты. Метод когнитивной карты применен в группировке фразеологических единиц с компонентом «сердце» исходя из их значений. Этот метод применен на основе структуры концепта, представленной В. Карасиком и Г. Слышкиным (Карасик & Слышкин, 2001, с.75): смысловая, образная и оценочная составляющие.

Известно, что вербализация концепта осуществляется с помощью различных языковых единиц, которые относятся к разным языковым уровням, то есть концепт может выражатся:

- лексическими единицами;
- словообразовательными единицами;
- фразеологическими единицами;
- пословицами и поговорками;
- цитатами и афоризмами;
- текстами (Ashurova & Galieva, 2018, с. 39).

Также следуется отменить, что смысловая составляющая концепта в основном базируется на фиксированных словарных дефинициях. Образная составляющам представлена метафорическими лингвистическими выражениями, такими, как идиомы, словообразовательные единицы, пословицы, поговорки, цитаты, афоризмы и тексты. Оценочная составляющая выявляет отношение к понятию, его аксиологической значимости.

Как было упомянуто ранее основной целью данной работы является выявление когнитивных аспектов фразеологической единицы путем представления вербализации концепта с помощью фразеологических единиц.

В связи с этим нами будет рассмотрена образная и оценочная составляющие концепта «сердца» в английской языковой картине мира, которые в основном вербализируются с помощью фразеологических единиц.

Исходя из анализа материала лексикографических данных приведенных в фразеологических словарях английского языка, мы можем прийти к выводу, что образная составляющая концепта представлена следующими образами:

**1) сердце – вещь:**

*- break somebody‘s heart; to steel one‘s heart against; to put one‘s heart into; one‘s heart is not in it; to take heart; to give one heart; to lose heart; to have no heart; a heavy heart* (Кунин, 1984);

**2) сердце – сосуд:**

*- from the bottom of one‘s heart; have a soft corner in one‘s heart for somebody; have a warm corner in one‘s heart for somebody; have a warm place in one‘s heart for somebody; have a soft place in one‘s heart for somebody* (Кунин, 1984);

**3) сердце – еда:**

*- to eat one‘s heart out; with one‘s heart in one‘s mouth; bring one‘s heart into his mouth; make somebody‘s heart leap out of his mouth* (Кунин, 1984);

В то время как оценочная составляющая концепта представляет собой следующие характеристики:

**1) сердце доброе:**

*- be of good heart; in good heart* (Gulland & Hinds-Howell, 1986)*; dear heart; do somebody‘s heart good; keep a good heart; a kind heart; a soft heart; a sympathetic heart; a warm heart; kind-hearted; soft-hearted; warm-hearted; a light heart; with a light heart; light-hearted* (Кунин, 1984);

**2) сердце храброе:**

*- a heart of oak; take heart; lift up one‘s heart; take heart of grace; to give one heart; to put fresh heart into; find it in one‘s heart to; have the heart to; keep a hood heart; keep up heart; put heart in somebody; put somebody in good heart* (Кунин, 1984);

**3) сердце испуганное:**

*- with one‘s heart in one‘s mouth; bring smb‘s heart into his mouth; make smb‘s heart leap out of his mouth; have one‘s heart in one‘s boots; one‘s heart failed him; one‘s heart stood still; one‘s heart sank into one‘s shoes* (Кунин, 1984);

**4) сердце печальное:**

*- to be sick at heart; to break one‘s heart; break the heart of somebody; a broken-heart; broken-hearted; heart-broken; eat one‘s heart out; a heavy heart; lie at somebody‘s heart; heavy at somebody‘s heart; one‘s heart is broken; wring somebody‘s heart* (Кунин, 1984);

**5) сердце радостное:**

*- in good heart; to do one‘s heart good; with a light heart; to one‘s heart‘s content; to warm the cockles of one‘s heart; do somebody‘s heart good; a light heart; light-hearted* (Кунин, 1984);

**6) сердце милосердное:**

*- have a heart; a kind heart; a soft heart; a sympathetic heart; a warm heart; kind-hearted; soft-hearted; warm-hearted; one‘s heart goes out to somebody; one‘s heart goes warm towards; a bid heart; big-hearted* (Кунин, 1984);

**7) сердце честное, искреннее:**

*- from the bottom of one‘s heart; in one‘s heart of hearts; with all my heart; from the heart; have one‘s heart in something; whole-hearted; an open heart; with all one‘s heart* (Кунин, 1984);

**8) сердце бесчувственное:**

*- a heart of stone; to have no heart; harden one‘s heart; a hard heart; a heart of stone; a heart of flint; stony heart* (Кунин, 1984).

На основании сделанного исследования можно прийти к следующим выводам:

- вещь, сосуд, еда являются образами, которые представляют собой образную составляющую концепта в английской языковой картине мира;
- фразеологические единицы с компонентом «сердце» выявляют 8 групп-характеристик концепта, которые составляют оценочную составляющую концепта в английской языковой картине мира;

Исходя из проанализированных лексикографических данных, мы можем прийти к мнению, что основную роль вербализации образной и оценочной составляющих концепта берут на себя именно фразеологические единицы, поскольку будучи одним из видов лингвокультурем они отображают национальную специфику того или иного народа.

**ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:**


1. Ashurova, D. U., & Galieva, M. R. (2018). Cognitive Linguistics. (p. 107).
2. Gulland, D. M., & Hinds-Howell, D. (1986). Dictionary of English Idioms. Penguin Books, (p. 300).
3. Карасик, В. И., & Слышкин, Г. Г. (2001). Лингвокультурный концепт как единица исследования. In И. А. Стернин (Ed)., Методологические проблемы когнитивной лингвистики: Сборник научных трудов (pp. 75-80). Воронеж: Издательство Воронежского университета.
4. Кунин, А. В. (1984). Большой англо-русский фразеологический словарь (4th ed).. Москва: Русский язык, (с. 944).

# III BOB

## JAHON ADABIYOTI, QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI

# “BOBURNOMA”DAGI ORONIMLAR INGLIZCHA TARJIMALARDA

*Mubina Abbasova*
*2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** *Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari dunyo tillariga tinimsiz tarjima qilib kelinmoqda. Asar ingliz tiliga 3 marta tarjima qilingan. Bugungi davrgacha ularning muqoyasasi amalga oshirilmagan. Ushbu maqolada tarjimonlarning ayrim oronimlar va ularning tavsiflari tarjimalarida yo‘l qo‘yilgan xatoliklar haqida so‘z boradi.*

**Kalit sozlar:** *Oronimlar, tog‘, Shohi Qobul tog‘i , Qipchoq tog‘i, Xost tog‘i tarjima muammolari.*

**Abstract.** *This article is devoted to the translations concerning places’ names in the work "Baburnoma" done in its’ three different English translations. Author analyses some shortcomings done by translaters on translation issues and reveals the translation approaches to the original text.*

**Key words**: *mountains, Shoxi Kobul , Qipchoq , Xost , translation problems.*

Oronimlarga Shohi Qobul tog‘i , Qipchoq tog‘i, Xost tog‘i kabi misollarni keltirish mumkin.

Boburnomada aytiladi: *“Qal’aning janubida **Shohi Kobul**ning sharqida bir ulug‘ ko‘l tushubtur. Girdo-girdi bir shar’iy yovushur. **Shohi Kobul** tog‘idin **Kobul** sari boqa uch kichikrak chashma chiqar, ikkisi **Gulkina** navohisidadur. Bir chashma boshida **Xoja Shamu** otliq mazordur; yana bir chashma **Xoja Abdussamad** to‘g‘risidadur, **Xo‘ja Ro‘shnoyi** derlar.* [5; 107]. Ushbu matn J.Leyden-V.Erskinda quyidagicha tarjima qilinadi:

*– East of **Shah-of-Kabul** and south of the walled-town lies a large pool about a 2 miles [shar'i] round. From the town side of the mountain three smallish springs issue, two near **Kulklna**; **Khwaja Shamu**'s tomb is at the head of one; **Khwaja Khizr's Qadam-gah** -at the head of another and the third is at a place known as **Khwaja Raushanai**, over against Khwaja 'Abdu's-samad.* [10; 201]. – **Shoh-Kobul**ning sharqida va devor bilan o‘ralgan shaharning janubida taxminan 2 mil [sha'riy] aylanada katta hovuz bor. Tog‘ning shahar tomondan uchta kichik buloq chiqadi, ikkitasi **Kulklna** yaqinida; **Xoja Shamu** qabri birining boshida; **Xoja Xizr**ning **Qadamgohi** boshqasining boshida, uchinchisi esa **Xoja Abdusamad** qarshisida **Xoja Raushanai** deb nomlanuvchi joyda joylashgan.

Tahlil tushunarli bo‘lishi uchun asliyat va tarjima matnlarini jadval ko‘rinishida ko‘rsatish maqsadga muvofiq deb bildik.

Asliyat matni S. Beverijda quyidagicha beriladi:

– *To the south of the fortress, to the east of* ***Shah Kabul,*** *is a large lake nearly a league in circumference. Headed toward the city of* ***Kabul*** *from* ***Shah Kabul*** *Mountain are three small springs. Of the two in the* ***Gulkana*** *area, one is next to the* ***Khwaja Shamu*** *shrine and the other is at* ***Khwaja Khizr's*** *footprint. These two places are promenades for the inhabitants of* ***Kabul*** *The third spring is opposite* ***Khwaja Abdul-Samad*** *and called* ***Khwaja Rawshanai.*** [2; 169]. – Qal’aning janubida, **Shoh Kobul**ning sharqida, aylanasi qariyb bir liga bo‘lgan katta ko‘l bor. **Shoh Kobul** tog‘idan **Kobul** shahriga qarab uchta kichik buloq bor. **Gulkana** hududidagi ikkitasidan biri **Xoja Shamu** ziyoratgohi yonida, ikkinchisi esa **Xoja Xizr** izida. Bu ikki joy **Kobul** aholisi uchun sayrgohdir. Uchinchi buloq **Xoja Abdul-Samad** ro‘parasida joylashgan bo‘lib, u **Xoja Ravshanay** deb ataladi.

Asliyat matni uchinchi tarjimon V.Tekstonda quyidagicha tarjima qilinadi:

– Southward from the town and to the east of **Shah-Kabul**, there is lake nearly a farsang in circumference. Three springs of water issue from **Shah-Kabul**, and flow towards the city; two of them are in the vicinity of **Kelkeneh.** One of these runs by the tomb of **Khwajeh Shems**, and the other by the **Kedemgah** (place of the footsteps) of **Khwajeh Khezer**. These two places are the favourite resorts of the people of **Kabul.** The third fountain is opposite to **Khwajeh Abd-al-Simd**, and bears the name of **Khwajeh Roushenai**. [14; 137]. – – Shahardan janubda va **Shoh-Kobul**dan sharqda aylanasi bir farsangga yaqin ko‘l bor. **Shoh-Kobul**dan uchta buloq suv chiqadi va shahar tomon oqib chiqadi; ulardan ikkitasi **Kelkeneh** yaqinida joylashgan. Ulardan biri **Xoja Shams** qabri yonidan, ikkinchisi esa **Xoja Xizir**ning **Qadamgohi** (oyoq izlari joyi) yonidan o‘tadi. Bu ikki joy **Kobul** ahlining sevimli kurortlari hisoblanadi. Uchinchi favvora **Xoja Abd-al-Simd**ning ro‘parasida joylashgan bo‘lib, **Xoja Roushenai** nomi bilan atalgan.

Demak, uchala inglizcha tarjimlarni ham jadvalga solib tahlilga tortsak, ular quyidagicha aks etadi:

**Jadval 1. Oronimlar inglizcha tarjimalari qiyosi.**

| **“Boburnoma”ning asliyat matni (2002)** | **J.Leyden-V.Erskin (1826)** | **Susanna Beverij (1921)** | **V.Tekston (1996)** |
|---|---|---|---|
| Shohi Kobul | Shah-of-Kabul | Shah Kabul | Shah-Kabul |
| Shohi Kobul | Shah-Kabul, | Shah Kabul | Shah-Kabul |
| Kobul | Kabul | Kabul | Kabul |

| **Gulkina** | **Kulklna** | **Gulkana** | **Kelkeneh** |
|---|---|---|---|
| Xoja Shamu | Khwaja Shamu | Khwaja Shamu | Khwajeh Shems |
| Xoja Xizr | Khwaja Khizr's | Khwaja Khizr's | Khwajeh Khezer |
| **Xo‘ja Ro‘shnoyi** | **Khwajeh Roushenai** | **Khwaja Rawshanai** | **Khwajeh Roushenai** |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, joy nomlarini transliteratsiya, transfortmatsiya qilish va tarjimada aks ettirishda bir qancha xatoliklar sodir etilgan. Buni *Gulkina*, *Xo‘ja Ro‘shnoi* kabi joy nomlarining transliteratsiyasida aniq ko‘ramiz. Ingliz tarjimonlari tomonidan joy nomlarining noto‘g‘ri talqin etilishi, asliyat mazmunining ham o‘zgarishiga olib kelganin ko‘rish mumkin. Demak, joy nomlarining tarjimasi ham alohida va jiddiy o‘rganishga muhtoj ekan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Amonov Muxtorjon Umarovich. “Boburnoma”dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi” filol.fan.falsafa dok-ri. PhD. Farg‘ona davlat universiteti. – 2020.
2. Beveridge, Anette Susannah. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. – London, 1921. – 880 r.
3. Jo‘raeva G. “Boburnoma” asarida personajlar xarakteristikasi // Ilm sarchashmalari. Urganch – 2018, №8. – B. 34-36.
4. Zahiriddin Muhammad Bobir. Bobirnoma. Shamsiev P, Mirzaev S. – T.: O‘z SSR Fan nashriyoti., 1960. – 514 b.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002. – 335 b.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O‘qituvchi, 2008. – 287 b.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi – T.: Sharq, 2017. – 688 b.
8. Eugene A. Nida. Toward a science of translating. Leiden. E. J. Brill. – 1964. 170 pp.
9. Ibrohimov A. Bobur yaratgan bog‘lar // Boburiylar merosi.- Toshkent: Mehnat,1993.-B.7-12.
10. Leyden John. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan. – London., 1826. – 432 r.
11. Nida Ye. “Towards a Science of Translating” 1964, R.170.
12. Pajabov Feruz Umarqulovich. “Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari” filol.fan.falsafa dok-ri. PhD. Qarshi Davlat universiteti.. –2022.
13. Teshaboeva Ziyodaxon Qodirovna. «Boburnoma»ning inglizcha tarjimalaridagi

frazeologik birliklarning kognitiv va leksikografik tadqiqi. Filol.fan. dok-ri. O‘zDJTU. – 2021.
14. Thackston Wh.M. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. – New York, 1996. – 554 r.
15. Qilichev B. Onomastika. Buxoro davlat universiteti. Buxoro. – 2023.
16. Xudoyberganov R.Y., Ulug‘ov N. Mirkarimov …va boshqalar. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 624 b.

## O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EKVIVALENT BO‘LGAN AYRIM FRAZEOLOGIK ATAMALARNING ETIMOLOGIYASI VA ULARNING TARJIMASI

*Boltayeva Elshoda Alisherovna*
*ToshDO‘TAU Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 301-guruh talabasi*
*+998884118050*
*boltayevaelshoda@gmail.com*

***Annotatsiya**:Har bir tilning lug‘at boyligini boyitib turuvchi iboralar o‘sha tilda gaplashadigan millatning madaniyati,tarixi xususida avtomatik tarzda ma’lumot beradi.Buni o‘rganadigan bo‘lim esa frazeologizm ekanligi esa barchamizga ma’lum.Ushbu maqolada dastlab o‘zbek va ingliz tillarida keladigan va bir-biriga ekvivalent bo‘lgan ayrim iboralarning etimologiyasi,ya’ni qayerdan kelib chiqqanligi topiladi.So‘ngra frazeologizm bo‘limi haqida yoritilgan materiallar orqali ularni qanday tarjima qilish kerakligi haqida ma’lumotlar beriladi hamda ikki tildagi frazeologik birliklarning muqobil variant beriladi.*

***Kalit so‘zlar**:tarjima,iboralar,etimologiya,madaniyat,*

***Abstract:** Phrases that enrich the vocabulary of each language and automatically provide information about the culture and history of the nation that speaks that language. We all know that the unit of phraseology studies phraseological terms and idioms. In this article,firstly,some Uzbek and English idioms will be shown and will be found the etymology of these.Then, information is given on how to translate them through the materials covered in the phraseology, as well as the alternative phraseological units of the two languages.*

***Keywords:**translation,idioms,etymology,phraseologism,culture*

Til asrlar davomida insonlar tomonidan sayqallanib kelingan qimmatbaho va haqiqiy san’at asari deb bemalol ayta olamiz.Chunki ma’lum bir til o‘zida lug‘atdan tashqari,ekspressiv bo‘yoqdorlik,o‘sha davlat tarixi va madaniyati,urf-odatlari,insonlarning turmush tarzi kabi bebaho ma’lumotlar haqida tushunchalarni

beradi.Bu kabi axborotlarni esa aynan tilshunoslikning iboralar bilan o‘rganuvchi bo‘limi tilni o‘rganuvchilarga taqdim qiladi.Frazeologiyaning “otasi” esa shvetsariyalik tilshunos olim Charlz Balli bo‘lgan.Ammo uni alohida bo‘lim sifatida fanga kiritgan inson esa Rossiyalik olim Yevgeniy Dmitriyevich Polivanov hisoblanadi.Olim frazeologik tadqiqotlarning maqsadini belgilab berdi,bu esa frazeologiya so‘zlarning turg‘un birikmalarining ma’nosini o‘rganish imkonini berdi.[11]

Vaholanki, har bir ibora bejizga paydo bo‘lmaydi,uning kelib chiqishi esa ma’lum bir hodisa yoki urf-odatlar bilan bog‘lanishi mumkin.Xitoylik tadqiqotchi Yu Vang iboralarni tuzilishiga ko‘ra 8 kategoriyaga ajratadi.[12]

1) Gap iboralar: Keep your friends close, but your enemies closer.

2) Yarim gap iboralar: take the bad with the good, keep a beady eye on sb/sth, beat sb. at their own game, find your bearings

3) Fe`lli birikmalar: have been around, beat up,come across, bring about

4)Prepositional phrases – Predlogli birikmalar: by the dozen, in doubt, down through, on draught.

5) Otli iboralar: good faith,a golden handshake, hand in glove with sb., an Indian summer

6) Sifatli iboralar: far and away, full of beans, gone for a burton, further around the road.

7) Juft so’zlar,such as: aches and pains, safe and sound, give and take, back and forth.

8) Qat’iy o’xshatish, such as: flat as a pancake, drunk as a fish, easy as my eyes,poor as a church mouse.[13] Maqolada esa avval bir nechta ingliz iboralarini misol tarzida keltiramiz.“Every Jack has an his Jill”iborasini olsak.Ushbu iborani to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilganimizda “Har bir Jekning o‘z Jilli bor”degan ma’no kelib chiqadi.Iboraning kelib chiqishi esa XVIII asrda yozilgan “Ona g‘oz ohangi”degan qo‘shig‘i va undagi Jek va Jill obrazi bilan bog‘liqdir,ya’ni ular o‘zlariga mos juftliklar hisoblanadi.[14]Bu esa xususiyat jihatidan o‘zbek tilidagi “Teng tengi bilan”degan iboraga mos keladi.

“Like a cat in a strange garret”iborasining to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjimasi “Chordoqda o‘tirgan mushuk kabi”deganidir,[15]Bilamizki,chordoq uyning eng tepa,juda tor kichik

[11] http://www.phraseonet.com/en/phraseology

[12] You W. A Contrastive Research on the Definitions and Categories of ChineseandEnglish Idioms. Advances in Social Science, educational and Humanities ResearchVolume554.– Atlantis Press, 2021. – P.423-426.

[13] You W. A Contrastive Research on the Definitions and Categories of ChineseandEnglish Idioms. Advances in Social Science, educational and Humanities ResearchVolume554.– Atlantis Press, 2021. – P.423-426.

[14] https://www.classicfm.com/discover-music/jack-and-jill-nursery-rhyme-lyrics-origins-meaning-history/

[15] https://en.wiktionary.org/wiki/like_a_cat_in_a_strange_garret

qismi hisoblanib,u yerda uzoq vaqt qolish insonni va jonivorlarni noqulay vaziyatga ya'ni xavotirga solishi mumkin.Bu esa o'zbek tilidagi "Ignaning ustida o'tirmoq"iborasining muqobili desak bo'ladi.

Yoki bo'lmasa,"Bite off more than you can chew"iborasiga e'tibor beraylik. Bu iboraning kelib chiqishi 1800-yillarda Amerikada, odamlar tez-tez tamaki chaynagan paytdan boshlanadi. Ba'zida uni chaynovchi insonlar o'zlarining og'zilariga me'yordan ko'p miqdorda tamaki solishganda o'zlarini yomon his qilishgan.Bu esa o'zimizda "Ko'rpangga qarab oyoq uzat"degan ma'noli iboraga to'g'ri keladi,ya'ni imkonidan kelib chiqqan holda ish qilish kerakligini bildiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,bir madaniyatni ikkinchi madaniyatga tanishtirish jarayonida tarjimondan avvalo,o'sha millat madaniyati bilan tanish bo'lish,so'ng so'zlarning va iboralarning ma'nosini tushuna bilish talab etiladi.Buning uchun esa tarjimon millat tarixi,madaniyatiga oid bilimlarni va iboralarga oid bilimlarni ularning etimologiyasi bilan birgalikda o'rganishni talab etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. http://www.phraseonet.com/en/phraseology
2. You W. A Contrastive Research on the Definitions and Categories of Chinese and English Idioms. Advances in Social Science, educational and Humanities Research,Volume554. Atlantis Press,423-426 pages,2021.
3. https://www.classicfm.com/discover-music/jack-and-jill-nursery-rhyme-lyrics-origins-meaning-history/
4. https://www.yourdictionary.com/like-a-cat-in-a-strange-garret
5. https://www.oxford-royale.com/articles/bizarre-english-idioms-meaning-origins/


## MUROJAAT SHAKLLARIDA JINS KATEGORIYASINING IFODALANISHI

(o'zbek va ingliz tillari qiyosida)


*Nematova Shaxnozabonu Israiljon qizi*
*ToshDO'TAU Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti, 2-kurs*
*shaxnozabonu5151@gmail.com*
*+998943705151*



**Annotatsiya.** *Biz hayotimiz mobaynida xoh yozma bo'lsin, xoh og'zaki bo'lsin bir-birimiz bilan muloqotga kirishamiz. Ko'p hollarda so'zlarimiz kimgadir murojaat etish bilan boshlanadi.* O'zbek tilida kimgadir uning jinsiga qarab murojaat qilish tabiiy hol. Agar adresat kommunikant ayol kishi bo'lsa, unga opa, singlim, xolajon kabi so'zlar yordamida murojaat etiladi. *Ushbu maqolada aynan*

*mana shu murojaat shakllarining alohida tadqiqi berilgan. Unda murojaat shakllarining bir qator klassifikatsiyalaridan tashqari jins kategoriyasiga oid bir qator nazariy-amaliy qarashlar ham keltirib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar**: *murojaat shakllari, jins kategoriyasi, so‘zlovchi, tinglovchi, ta’sir birliklari, ayol, erkak.*

**Annotation.** *Throughout our lives, we engage in verbal and written communication with one another. Frequently, we begin our sentences by directing our words towards someone. In Uzbek, it is natural to address someone based on their gender. If the addressee is a female communicant, she addresses using words such as sister, little sister, aunt. This article offers a focused examination of these forms of address. It delves into various theoretical and practical aspects of gender and explores multiple categorizations of appeal formats.*

**Key words:** *forms of address, gender category, speaker, listener, influence units, female, male.*

Insoniyat yaralibdiki, odamlar bir-biri bilan muloqot qilish, fikr almashish, yangi bilimlar olishni xohlaydi. Kishilik jamiyatining muhim aloqa vositasi esa til hisoblanadi. Shuning uchun uni o‘rganish, tadqiq etish har doim dolzarb bo‘lib kelgan.

Til nihoyatda murakkab va ko‘p tarmoqli, ko‘p qirrali hodisa hisoblanadi. Tilning ekspressiv, akkumulyativ, gnoseologik, kommunikativ funksiyalari mavjud. Kommunikativ jarayonda insonlarning o‘zaro murojaat shakllari keng qo‘llaniladi. Murojaat shakllari muloqot jarayonida muhim o‘rin tutadi. Murojaat shakllari tilning aloqa vazifasini yuzaga chiqarishda so‘zlovchining fikrini, his-tuyg‘ularini, munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Murojaat shakllari orqali nutqning kimga qaratilgani va aytmoqchi bo‘lgan fikr ifodalanadi. (Abdurasulova, 2017)

Ma’lumki, har qanday muloqotda so‘zlovchi va tinglovchi komponentlar sifatida, albatta, ishtirok etadi. Bu muammoga bag‘ishlangan ko‘pgina adabiyotlarda so‘zlovchi, ya’ni xabar beruvchi, gapiruvchi **adresant kommunikator** deb, adresantning nutqi qaratilgan shaxs tinglovchi, **adresat kommunikant** deb, muloqotda bevosita ishtirok etuvchi omillar esa **ta’sir birliklari** deb yuritiladi. Ta’sir birliklarini shartli ravishda quyidagi ikki guruhga bo‘lib tahlil etiladi:

**1. Ichki ta’sir birliklari.** Bunga adresant va adresat shaxsi bilan bevosita bog‘liq quyidagi belgi-xususiyatlar kiradi: millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy belgilari...

**2. Tashqi ta’sir birliklari.** Bunga muloqotga ta’sir etuvchi quyidagi tashqi omillar kiradi: muloqot vaqti, vaziyat, holat, ijtimoiy muhit...(Yusupova, 2021)

O‘zbek xalqi uchun xos bo‘lgan murojaat shakllarini insonning yaqin kishilariga va notanish kishilarga nisbatan qo‘llanilishiga ko‘ra 2 guruhga ajratamiz.

Notanish kishilarga nisbatan qo‘llaniladigan murojaat shakllarini tilshunos Mo‘minov Siddiqjon 3 guruhga ajratib bergan. Ular quyidagilar:

1. Qarindosh – urug‘ nomlari orqali murojaat etish;
2. Lavozimi, kasb-kori, vazifa nomlari orqali murojaat etish;
3. Hayvonlarning nomlari orqali murojaat etish. (Asadova)

Biz yuqoridagi guruhlanishga qo‘shimcha ravishda yangi klassifikatsiyani kiritib o‘tmoqchimiz. O‘zbek tilida, shuningdek, ingliz tilida ham kishining jinsiga ko‘ra murojaat qilinishini 2 ga ajratishimiz mumkin:

1. Erkak jinsidagi shaxsga murojaat;
2. Ayol jinsidagi shaxsga murojaat.

*Biz ko‘rib chiqayotgan har ikki tilda ham jinsga qarab murojaat etish kuzatiladi. Erkaklarga nisbatan o‘zbek tilida aka, uka, og‘ajon, inim, birodar, qadrdon, og‘ayni, do‘stim, yigit, amaki kabi so‘zlardan foydalaniladi. Masalan,*

- *O‘zim aytib edim-a, **akajon**, — dedi u. — Ishonmasangiz, so‘rab ko‘ring.(Sh. Xolmirzayev, Darvesh)*
- *Ayol sharpamni sezib, boshidagi gardi ro‘molini peshanasiga tushirdi. — Salom alaykum, hormang, opa! — dedim. — Keling, **uka**, — dedi u. — Xush kepsizlar... Yaxshi joylashib oldinglarmi? (Sh. Xolmirzayev, O‘zbeklar)*
- *Bemalol, **og‘ajon**. He, paxta, paxta... Mana, sizlar ham o‘qishlarni qoldirib, ota-onalaringni tashlab keldinglar. Baraka topinglar. Rahmat... (Sh. Xolmirzayev, O‘zbeklar)*
- *Siz, **inim**, Salim mo‘ylovning jiyanimasmi?(Sh. Xolmirzayev, Bir ko‘rgan tanish)*
- *Zokir aka: «**Birodar**!» deb chaqirganlaricha qoldilar. (Sh. Xolmirzayev, Bir ko‘rgan tanish)*
- *Hayronmisiz, **qadrdon**? Men hayronman! Albatta! (Sh. Xolmirzayev, O‘zbeklar)*
- *Meni to‘g‘ri tushuning, **do‘stim**. (Sh. Xolmirzayev, Darvesh)*
- *Xo‘-o‘sh, yo‘l bo‘lsin, **yigit**? — dedi u. Uning ohangida allanechuk kinoya borga o‘xshab ketdi.(Sh. Xolmirzayev, Notanish odam)*
- ***Amaki**, o‘tiningizni unutdingizmi deyman? (Sh. Xolmirzayev, Notanish odam)*

*Ingliz tilida esa erkaklarga murojaat qilayotganda Mister, sir, old man, little boy kabi so‘zlar ishlatiladi. Masalan,*

- *“**Mr**. **Eden**,” was what he had thrilled to—he who had been called “Eden,” or “Martin Eden,” or just “Martin,” all his life. And “**Mister**!” ("Janob. U butun umri davomida "Iden" yoki "Martin Iden" yoki*

*shunchaki "Martin" deb atalgan odamni hayajonga solgan edi. Va "Janob!") (Jek London, Martin Iden)*

- *"Good-night, **sir**," said the policeman, passing on along his beat, trying doors as he went. (Xayrli tun, janob, - dedi militsioner eshiklarni taqillatib ketarkan.) (O.Genri, Yigirma yildan so‘ng)*
- *“No, **sir**. No cop can come in here without a warrant.”(“Yo‘q, janob. Hech bir politsiyachi bu yerga ordersiz kira olmaydi”.) (Jon Steynbek, G‘azab uzumlari)*
- *How has the West treated you, **old man**? (G‘arb sizga qanday munosabatda bo‘ldi, qariya?) (O.Genri, Yigirma yildan so‘ng)*
- *"Hey, **little boy**!" says Bill, "would you like to have a bag of candy and a nice ride?" (Hoy, bolakay! - dedi Bill, - bir qop konfet va sayr qilishni xohlaysanmi?)(O.Genri, Qizil boshliqning to‘lovi).*

*O‘zbek tilida bir murojaat shakli (qoqindiq) mavjudki, u faqat ayollarga nisbatan ishlatiladi, erkaklarga qarata bunday murojaat qilish to‘g‘ri emas* (Madvaliyev A. va boshqalar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2021). *Masalan, - Voy, onaginang aylangur, bo‘yginangga qoqindiq bo‘lay, - deb Sharofatbibi uzoq vaqt bag‘ridan Komilani qo‘ymadi (Oybek, Oltin vodiydan shabadalar). (Nematova, 2023)*

O‘zbek tilida kimgadir uning jinsiga qarab murojaat qilish tabiiy hol. Agar adresat kommunikant ayol kishi bo‘lsa, unga opa, singlim, xolajon, qizim, kelinoyi kabi so‘zlar yordamida murojaat etiladi. Masalan,

- *Ayol sharpamni sezib, boshidagi gardi ro‘molini peshanasiga tushirdi. — Salom alaykum, hormang, **opa!** — dedim. — Keling, uka, — dedi u. — Xush kepsizlar... Yaxshi joylashib oldinglarmi? (Sh. Xolmirzayev, O‘zbeklar)*
- *Lekin bilasizmi, **xola**, nazarimda, hammamiz ham juda oddiy bir narsani unutayotganga o‘xshaymiz. (Sh.Xolmirzayev, Ikki ko‘rgan bilish)*
- *Ijaraga qo‘ymoqchi bo‘lsangiz, **kelinoyi**, -dedi dallol. —Men sizga chet ellikning ko‘ngli kengroq, puli mo‘lrog‘idan topib beraman. Tashvish chekmang!.. (Q. Ochilov, Savdo)*
- *Yo‘q, **singlim**, o‘ldirmoqchi emasmiz. (A.Namozov, Gazetchilar)*
- ***Singlim**, juma namoziga kirib chiqqunimcha kutib tura olasizma? (T.Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol)*

Ingliz tilida ham deyarli shunday holat yuz beradi. Ularda ham ayol-erkakligiga qarab murojaat etish odat tusiga kirgan, lekin o‘zbeklar qarindosh otlari(opa, singil, kelinoyi, xola) bilan ifodalagan murojaat shakllarini ular miss, Mrs., young lady kabi so‘zlar bilan ifodalashadi. Masalan,

- *“A Mexican with a knife, **miss**,” he answered, moistening his parched lips and clearing his throat. ("Pichoqli meksikalik, xonim", - deb javob berdi u qurigan lablarini namlab, tomog‘ini qirib). (Jek London, Martin Iden)*
- *I will tell you how I did it. You remember the description of **Mrs. Snyder**? (Buni qanday qilganimni aytaman. Snayder xonimning tavsifini eslaysizmi?) (O.Genri, The Sleuths)*

Yuqorida qayd etilganidek, jinsga ko‘ra murojaat etish unsurlari biz tahlil qilib chiqqan ikkala tilda ham mavjud. Uning har tomonlama tadqiqi tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik uchun qimmatli manba hisoblanadi. Jins kategoriyasining murojaat shakllarida o‘z aksini topishi badiiy asarlarda, shuningdek, so‘zlashuvda ham yaqqol ko‘zga ko‘rinadi. Bu esa o‘z navbatida, ushbu kategoriyaning alohida tadqiq zaruratini belgilab beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Norxo‘jayeva X. (2021) *Rasmiy muloqot kommunikativ aloqa vositasi sifatida.* Toshkent: Til va adabiyot ta’limi.

2. Abdurasulova D. (2017) *O‘zbek va ingliz tillaridagi ayrim murojaat shakllari tahlili.* Toshkent: Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.

3. Asadova R. (2022) *O‘zbek xalqi uchun xos bo‘lgan murojaat shakllari.* Academic research in modern sciences konferensiya materiallari.

4. https://tafakkur.net/hikoyalar/shukur-xolmirzayev?s=kop-oqilgan

## TARJIMANING LINGVISTIK MUAMMOLARI

*Rashidova Soliha*
*ToshDO‘TAU 3-kurs*
soliharashidova16s@gmail.com
+998949050036
*Ilmiy rahbar: Abdazova Gulsanam*

**Annotatsiya**

*Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi tarjima jarayonida ko‘p uchraydigan grammatik muammolar haqida so‘z yuritadi. Tarjima jarayonida duch kelinadigan morfologik va sintaktik muvofiqlik hamda nomuvofiqlik holatlari, kelishik va egalik qo‘shimchalari bilan kelgan otlar tarjimasi va artikllarning o‘zbek tilida mavjud emasligi tufayli boshqa vositalar bilan ifodalanishi misollar orqali tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada qiyosiy tahlil hamda qiyosiy chog‘ishtirma metodlaridan foydalanilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Lingvistik muammolar, grammatik muammolar, morfologik nomuvofiqlik, sintaktik muvofiqlik, egalik qo‘shimchalari, artikllar, kelishiklar.*

***Abstract**: This article discusses the grammatical problems that are common in the translation process between English and Uzbek. Cases of morphological and syntactic compatibility and inconsistency encountered in the process of translation, translation of nouns with agreement and possessive suffixes, and expression of articles by other means due to the non- existence of articles in Uzbek language are analyzed through examples. Moreover, comparative analysis and comparative comparison methods are used in the article*

Til –millat koʻzgusi.U doimiy ravishda taraqqiy etib boradi. Oʻzbek tilining takomillashuvida Xll asrdan XX asr boshlarigacha bolgan davrda yashab ijod qilgan Lutfiy, Atoyi, Bobur va Ogahiy kabi mumtoz shoirlarimizning hissasi kattadir. [6] Bu davr mobaynida tilimizda bir qancha oʻzgarishlar kuzatildi: yangi soʻzlar qoʻshildi, xorijiy tillardan soʻzlar oʻzlashdi, ayrimlari esa arxaizm namunasiga aylandi. Shu bilan bir qatorda tarjimashunoslik sohasida ham sezilarli darajada rivojlanish boʻldi. Markaziy Osiyo tarixdan ma'lumki, koʻplab tillar boʻyicha tarjimashunoslikda yetakchilik qilgan. Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Beruniy, Zamaxshariy kabi dastlabki tarjimonlarimiz arab tilidan grek, hind, fors kabi tillarga koʻplab asarlarni tarjima qilishgan. [7] Vaqt oʻtib, tarjimashunoslik nazariyasi faniga Gʻaybulla Salom boshchiligida asos solindi [8] va shu kunga qadar koʻplab yutuqlarga erishib kelinmoqda. Lekin, doimiy izlanishlarga qaramay, tarjimonlar uchun qator lingvistik muammolarni koʻrish mumkin.

U.Uinter ta'biri bilan aytganda, "Tarjima qilish degani bizdan tashqaridagi va bizning ichimizdagi olamning bir boʻlagi talqinini, unga mumkin qadar ekvivalent boshqa talqin bilan almashirtirish demakdir". Oʻzbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida ham grammatik muammolar kuzatiladi va ularga yechim topishda tarjimonlar mahorat bilan ma'noni muqobil vositalar orqali ifoda etishadi. Bunday muammolarning asosiy sababi shundaki, oʻzbek tili Oltoy tillar oilasiga kirib, u agglyutinativ xususiyatga ega, unda grammatik shakl va yasama soʻzlarning soʻz oʻzagi va negiziga affikslar qoʻshilishi bilan yangi soʻz hosil qilinadi. Ingliz tili esa Hind-Yevropa tillar oilasidan boʻlib, morfologik jihatdan analitikdir. Demak, bu ikki til ham tipologik va genetik jihatdan farqli va tarjima jarayonida grammatik muammolar yuzaga keladi. Shuningdek, ingliz va oʻzbek tillaridagi gap tuzish qoidalariga koʻra gap boʻlaklarining tartibi turlicha ekanligi ham lingvistik muammoni keltirib chiqaradi.

1. Ingliz tilida ega+kesim koʻrinishida qat'iy tartibga ega gap strukturasi mavjud. Agar fe'l oʻtimli boʻlsa, gap oxiriga toʻldiruvchi qoʻyish mumkin. [4-135] :

**Malika writes a letter**. Lekin oʻzbek tilida soʻzlarning gapdagi oʻrni almashishi mumkin: Malika xat yozadi. Xatni Malika yozadi.

**His dog barks loudly** – Uning kuchugi baland ovozda vovullaydi.

2.Tarjima jarayonida sintaktik va morfologik jihatdan to‘liq, qisman muvofiqlik va nomuvofiqlik bo‘lishi mumkin.[4-135]

To‘liq morfologik muvofiqlik bir xil grammatik kategoriyalar bo‘lgan gaplar orasida uchraydi, bunda zamon, son va nisbat kategoriyalariga to‘liq moslashadi:books-kitoblar.[ 4-135]

Misollar:

**He does not like garlic**. U sarimsoqni yoqtirmaydi.

**She exercises every morning**. U har kuni tongda mashq qiladi.

**We always eat breakfast together**. Biz doimo birgalikda nonushta qilamiz.

Qisman morfologik muvofiqlikda esa tarjima uchun berilgan gaplar o‘rtasida gramatik kategoriyalari o‘zaro moslashmaydi. Sababi, ingliz tilida kelishiklar soni 2 ta: Bosh (umumiy) kelishik (The Common Case) va Qaratqich kelishik (The Possessive Case). [4-136]

Bosh kelishikdagi so‘zlar ingliz tilida ham o‘zbek tili kabi qo‘shimcha olmaydi: **The student** did her homework. **Talaba** uy vazifasini qildi. Ingliz tilida qaratqich kelishikda kelgan otlarga ‘s qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalib, bu o‘zbek tilidagi – “ning” qo ‘shimchasini beradi. Masalan: The girl’s phone – qizning telefoni.O‘zbek tilida esa 6ta kelishik mavjud bo‘lib, gaplarni ingliz tiliga tarjima qilishda bosh va qaratqich kelishiklaridan boshqa kelishiklar o‘rnini bosuvchi muqobil vositalardan foydalanamiz . [4-136]

| **O‘zbek tilidagi kelishiklar** | **Qo‘shimchalar** | **Misollar** | **Ingliz tilidagi kelishiklar** | **Qo‘shimchalar (ekvivelent vositalar)** | **Misollar** |
|---|---|---|---|---|---|
| Bosh kelishigi | - | **Men** talabaman | Bosh kelishik | - | I am a student |
| Qaratqich kelishigi | -ning | My brotherer’s dream is to become a champion | Qaratqich kelishigi | ‘s | Ukamning orzusi chempion bo‘lishdir |
| Tushum kelishigi | -ni | Men kecha ustozimni ko‘rdim | - | - | I saw my teacher yesterday |
| Jo‘nalish kelishigi | -ga,(-ka, -qa) | Men haftasiga bir marotaba | - | -to | I go to the gym once a week |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | sportr zaliga boraman | | | |
| O‘rin-payt kelishigi | -da | Bu kitobda ko‘p qiziqarli rasmlar bor | - | -in | There are many interestin g pictures in this book |
| Chiqish kelishigi | -dan | Ertaga dugonam Germaniyada n qaytadi | - | -from | My friend will come back from Germany |

Men Toshkentdan qaytdim. Bu gapdagi -“dan” chiqish kelishigini ingliz tiliga tarjima qilinganda “from” predlogini qo‘llash mumkin. I returned from Tashkent.

Tarjimada morfologik nomuvofiqlik ham kuzatilib, unda ikki xil tildan olingan gaplar grammatik kategoriyalar bo‘yicha mos kelmasligi mumkin. Masalan, o‘zbek tilida egalikning grammatik kategoriyasi yo‘qligi sabab, affikslardan foydalanamiz. Ingliz tilida esa bu holatda olmoshlar ishlatiladi: [4-136]

| **Egalik qo‘shimchalari:(2;213)** | **Misollar** | **Namunalar tarjimasi** |
|---|---|---|
| My-mening | My favourite subject is biology. | Mening sevimli fanim bilogiyadir. |
| Our- bizning | Our house is comfortable and bright | Bizning uyimiz yorug‘ va shinam |
| Your- sening, sizning | Your job is amazing and high-paid | Sening ishing ajoyib hamda yuqori daromadlidir |
| Your- sizning | Your age is not suitable for this job position | Yoshingiz bu ish o‘rniga mos emas |
| His- uning(erkaklar) | His height is very tall | Uning bo‘yi juda uzun |
| Her- uning (ayollar) | Her style of speaking attracted me | Uning so‘zlashuv uslubi meni maftun etdi |
| Its –uning( narsalar) | The dog hurt its pow | Kuchuk panjasini shikastlab oldi |

| | | |
|---|---|---|
| Their- ularning | Their intent was to inform us about the news | Ularning niyati bizni yangilik bilan xabardor etish edi |

Grammatik nomuvofiqlik sifatida “a/an” va “the” artikllarining o‘zbek tilida mavjud emasligini olishimiz mumkin. O‘zbek tilida birlik ma’nosini ifodalash uchun “a/an” artikllariga muqobil vosita yo‘q bo‘lib, otning o‘zi keladi: a pen- ruchka, an apple- olma. Bundan tashqari, ingliz tilida “the” artiklidan ham ko‘p foydalaniladi, u dunyoda yagona bo‘lgan narsalar, musiqa asboblari nomi, ayrim joy nomlari oldidan va boshqa holatlarda keladi va o‘zbek tiliga tarjima qilishda b “the” artiklining muqobil variant yo‘qligi sabab, otning o‘zini yozishga to‘g‘ri keladi. Masalan: the sea- sohil, the cinema- kinoteatr. [3-145]

Ingliz tilida millatlar nomini ko‘plikda yozishda ham “the” artikli keladi, lekin birlikda kelganda qo‘llanmaydi: [3-146]

The French- Fransuz.

The French love their local pharmacy.

Fransuzlar mahalliy dorixonasini yaxshi ko‘radi.

The Japanese- Yaponlar.

The Japanese take off their shoes before entering a house.

Yaponlar uyga kirishdan oldin oyoq kiyimlarini yechib kiradilar.

The Irish– Irlandiyaliklar.

The Irish love tea.

Irlandiyaliklar choyni yoqtirishadi.

Ingliz tilidagi grammatik qoidalarga ko‘ra ayrim geografik joy nomlari, dunyoda bitta bo‘lgan narsalar va osmon jismlari ham “the” artiklini talab etadi va ularni o‘zbek tiliga tarjima qilishda tushirib qoldiriladi: [3-144]

1. The sky- osmon

**I like taking a photo of the sky**. Men osmonni suratga olishni yoqtiraman.

2. The world- dunyo

**The tallest tower in the world is Burj Khalifa**. Dunyodagi eng baland bino Burch Halifa.

3. The countryside - shahar tashqarisi

**I enjoy the fresh atmosphere in the countryside**. Men shahr tashqarisidagi toza havodan zavqlanaman.

Grammatik muammolardan yana biri tillardagi son kategoriyasdagi farqlar. Ingliz tilida qat’iyan ko‘plikda keladigan so‘zlar o‘zbek, rus yoki boshqa tillarga tarjima qilishda birlikda kelishi ham mumkin.

Masalan: sheep – qo‘y, qo‘ylar.

Ya’ni, bu so‘zlar nafaqat birlik ma’noda, balki hech qanday qo‘shimchasiz ko‘plikda ham kela oladi va bu tarjima jarayonida muammo bo‘lishi mumkin. Bu holatda gapdagi otga bog‘lanib kelayotgan so‘zlarga qarab ma’no chiqariladi. Quyida ba’zi misollarni keltirib o‘tamiz:

1.Fish-baliq;

2.Deer-bug‘u;

3.Species-turli xil, nav;

4.Aircraft-havo transporti .

Gapdagi kelgan namunalar orqali ham yuqoridagi so‘zlarning birlikda ham ko‘plikda ham kelishini ko‘rishimiz mumkin:

**I caught a fish** - Men baliq tutdim.

**I bought two fish** - Men ikkita baliq sotib oldim.

**Deer are naturally timid creatures** - Kiyiklar tabiatan qo‘rqoq mavjudotdir.

**A deer watched them from the trees** -Kiyik ularni daraxtdan kuzatib turdi.

**There are many species of dogs** - Itlarning ko‘p turlari mavjud.

**Mountain gorillas are an endangered species** – Tog‘ gorillalari yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan tur hisoblanadi.

**The passengers got into the aircraft** –Yo‘lovchilar samalyotga chiqishdi.

**They came under attack from enemy aircraft** -Ular dushman samalyotlari tomonidan hujumga uchradi.

Yuqoridagi gaplardan xulosa qilish mumkinki, otlar oldidan kelgan “a” artikli va keying gapdagi kelgan songa qarab birlik yoki ko‘plikda ekanini bilib oldik.

Ingliz tilida shunday so‘zlar ham borki, ular doim ko‘plik shaklda bo‘ladi, ammo o‘zbek tiliga tarjima qilinganda birlik holatida beriladi.

1.News-xabar, yangilik.[5]

**Be quit. I want to listen to the news**. Tinchlaning. Men yangilikni eshtmoqchiman.

2.Measles- qizamiq (kasallik) [5]

4.Mumps- tepki (kasallik). [5]

**Most babies are immunized against measles and mumps**. Ko‘pgina chaqaloqlar qizamiq va tepki kasalliklariga qarshi emlanadi.

4.Calculus- hisoblash(matematika bo‘limi). [5]

**Isaak Newton invented calculus**. Isak Nyuton hisoblashni kashf etdi.

5.Rickets- raxit (yosh bolalar kasalligi) [5]

**A diet deficient in vitamin D may cause the disease rickets**. Vitamin D yetishmasligi raxit kasalligiga olib kelishi mumkin.

6.Billiards- bilyard (o‘yini) [5]

**He taught young ladies to play billiards**. U yosh xonimlarga bilyard o‘ynashni o‘rgatdi.

7.Molasses- qiyom, murabbo (shirinliklar pishirishda ishlatiladi). [5]
**Add the melted butter, molasses, salt and flour**. Eritilgan saryog‘ murabbo, tuz va un qo‘shing.
8.Dizziness- bosh aylanish. [5]
**He complained of headeches and dizziness**. U bosh og‘rig‘i va bosh aylanishi bo‘yicha shikoyat qildi.

Xulosa qilib aytganda, tarjima ikki tilni bog‘lash vositasi bo‘lib, tarjima jarayonida to‘liq, qisman muvofiqlik va nomuvofiqlik kuzatilishi mumkin. Ko‘pincha kelishik, zamon, son kategoriyalari bo‘yicha asliyat va tarjima tillaridagi farqlar lingvistik muammolarni yuzaga keltiradi va bu holatda tarjimon mahorat bilan maqolada ko‘rsatib o‘tilgan tarjima usullaridan foydalanishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. G‘aporov M & Qosimova,R.(2017) – Ingliz tili grammatikasi. Toshkent
2. Erkaboyeva, N. (2021) O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. Toshkent.
3. Raymond Murphy (2019) -English Grammar in Use.
4. G‘ofurov I&Mo‘minov O&N. Qamrabov (2012)– Tarjima nazariyasi. Toshkent.
5. Abdullayev X& Abdullayev H. (2023)-“Wisdom“o‘zbek-ingiz tili tarjima lug‘ati.
6. Yangiboyeva,Sh.(2022). Tarjimashunoslik, muammolar, yechim va istiqbollar. maqola
7. Murtazayeva M.(2022). Tarjima tarixidagi tarjima maktablarining faoliyati maqola
8. Ochilov. E. (2022). Zamona Luqmoni. Maqola

## HIKOYADA BADIIY TALQIN VA MAHORAT MASALASI (MOPASSAN VA U. HAMDAM HIKOYALARI MISOLIDA)

*Abduraximova Maxbuba Dilshod qizi*

*ToshDO‘TAU, OTAT fakulteti 3-kurs*

*mahbubaxon0203@gmail.com*
*+998880502122*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada fransuz adibi Gi de Mopassan va o‘zbek adibi Ulug‘bek Hamdam qalamiga mansub ikki hikoya tahlil qilinadi. Ulardagi inson umri haqidagi badiiy talqin borasida mulohazalar o‘rtaga tashlanadi. Turli davrda yashagan ijodkorlar uslubining mushtarak jihatlariga e’tibor qaratiladi. Maqolada tipologik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Mopassan, Ulug‘bek Hamdam, hikoya, badiiy talqin.*

***Abstract***. *This article analyzes two stories by the French writer Guy de Maupassant and the Uzbek writer Ulugbek Hamdam. They reveal commentary on the artistic interpretation of human life. Attention is paid to the general aspects of the creative style of different eras. Typological and comparative analysis methods were used in the article.*

***Key words:*** *Maupassant, Ulugbek Hamdam, story, artistic interpretation.*

Hikoya janri katta hajmda berish mumkin bo‘lgan badiiy matnni muxtasargina shaklda bayon qilishi mumkin. Bunday qisqalikda badiiy talqin masalasi muhim rol o‘ynaydi. “Hayot – murakkab hodisadir, yozuvchi shu murakkablikni tasvir eta bilsagina hayotning haqqoniy manzarasini yarata oladi” [Izzat Sulton. 1986. 235 bet]. Bugun insoniyat shiddatli, yugurik, globallashuv davrida yashamoqda. Hech bir soha adabiyotchalik uzun va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tmagan, qolaversa, Inson, uning hayoti, tashqi olam bilan o‘zaro ta’siri, insonlararo aloqasi va shu bilan birga uning ichki olami, o‘y-fikrlari, kechinmalari, his-tuyg‘ulari, quvonchi, iztiroblari, xullas, jamiki botiniy xususiyatlarini aks ettira olmaydi. “Real hayotdagi voqea-hodisalar san’at tiliga ko‘chganda orada farqlanish bo‘lishi tabiiy. Badiiy talqinda ijodkorning o‘z olami, o‘z qarashlari go‘zallik qonuniyatlari negizida aks etadi” [B. Karim. 2019. 12 bet]. Shunday ekan, biz yuqorida o‘rtaga tashlagan masalani ko‘rib chiqish uchun ba’zi adabiyot namunalariga murojaat qilamiz.

Bulardan biri - jahon adabiyoti, xususan, fransuz adabiyotining yorqin namoyondasi Gi De Mopassanning “Marjon shodasi” hikoyasi.[3] Ushbu hikoyani o‘qib chiqqanimdayoq insonning hayotidan qoniqmasligi, o‘zini baxtsiz his qilishi kabi holatlar faqat bugungi kunga xos holat emasligi, bu muammo makon va zamon tanlamasligi ayon bo‘ladi. Hikoya bosh qahramoni- Matilda Luizel xizmatkorlar oilasida tug‘ilgan, qo‘li kaltaligi uchun o‘zini doim baxtsiz his qilib yashagan, past tabaqadan bo‘lgani bois o‘zi orzulagan badavlat odamga emas, oddiygina idorada kotib lavozimida ishlovchi insonga turmushga chiqadi. U umri davomida o‘zining faqirligidan, oliynasab qatlamga mansub honimlardek obro‘-e’tibori, qimmatbaho liboslari, taqinchoqlari, hashamatli uy-joyi yo‘qligidan o‘ksib, o‘zining shunday kiborlar oilasidan bo‘lishga to‘la haqli bo‘lgani holda taqdir uni bunga muyassar qilmaganidan nadomatlar chekib yashaydi. Buni qarang, qariyb 200 yil avval yozilgan hikoyadagi ayolning his-tuyg‘u, kechinmalari bugungi kunimizga ham mos kelmayaptimi? Demak, asarda ilgari surilayotgan g‘oya umuminsoniy va umumzamoniy xususiyatga ega desak bo‘ladimi? Menimcha bemalol ayta olamiz. Endi hikoyadagi voqealar rivojiga e’tibor qaratsak. Rafiqasining doimiy noroziligi va xafaligini aritish maqsadida janob Luizel kiborlar davrasida o‘tkaziladigan bazmga taklifnoma keltiradi. Ammo ayol bundan quvonib ketmaydi. Chunki u

davraga qo‘shilish uchun munosib libosi yo‘qligini aytadi. Ayolini azbaroyi baxtli ko‘rishni istagan erkak o‘z manfaatlaridan voz kechib bo‘lsa-da (o‘ziga ov miltig‘i olish uchun jamg‘argan) pulini yangi ko‘ylak olishi uchun beradi. Ammo libos masalasining hal bo‘lishi ham ayolning chiroyini ochmaydi. U endi bazmga taqinchoqsiz borganidan bormagani afzalligini aytadi. E’tibor bering, bu xuddi bugungi o‘zbek ayollarining to‘y-hashamga borishi oldidan ro‘y beradigan mash-mashalarga naqadar o‘xshaydi. Go‘yoki hikoya qahramoni Matilda emas, balki Malika, Madina va h.k dek. Hikoyaga qaytamiz, eri esa unga bir kunga, bir necha soatga dugonasidan biror taqinchog‘ini olib turishini aytadi. Ayol ham badavlat dugonasinikiga borib, undan “qimmatbaho” marjon shodasini olib keladi. Endi ayol o‘zini to‘la baxtli his etib, bazmda qatnashadi. Hammaning diqqat-e’tiborida bo‘ladi, kuladi, o‘ynaydi. Bu xursandchilik esa birinchisi va so‘nggisi bo‘ladi. Chunki u bazmdan uyga qaytayotib, birovning omonati bo‘lmish marjonni yo‘qotib qo‘yadi. Hayotiy vaziyat! Uning hayoti ana shu nuqtada tubdan o‘zgarib ketadi. Ayol va eri marjonni izlab topisholmagach, katta miqdorda qarz olib, boshqa xuddi shunday qimmatbaho marjon xarid qilib, egasiga qaytarishadi. Kelajakdagi 10-15 yillik umrlari esa qarz to‘lash uchun cheksiz mashaqqatlar bilan o‘tadi. Bu yo‘lda uylaridan ayrilishadi, ayolning sog‘ligi, go‘zalligi, latofati, nazokati yo‘qolib, qo‘pol, qo‘rs insonga aylanadi. Ana bo‘lmasam! Bir necha soatlik “baxt” uchun bir oila yillab jabr bilan haq to‘lashadi. Eng alam qiladigan jihati esa yo‘qolgan marjon aslida soxta bo‘lgani va arzimagan pul turishi qahramonimizga oydinlashishida edi. Hikoyani o‘qib, tahlil qilarkansiz, muallifning mahoratiga tan bermay ilojingiz yo‘q. U hech kimga nasihat qilmaydi, hech kimga fikrini o‘tkazishga harakat qilmaydi; u shunchaki kichik bir voqelikni bayon etish orqali yuzimizga ko‘zgu tutadi xolos. O‘y-mulohaza yuritish, xulosa chiqarishni o‘quvchiga havola qiladi. Keling endi biz ham baholi qudrat xulosa chiqarishga urinib ko‘ramiz. Avvalambor, baxt nisbiy tushuncha ekanligini tushunishimiz kerak: har kim baxtni o‘zicha tushunadi, his qiladi. Kimgadir ertalab sog‘-salomat ko‘z ochgani ham bir baxt bo‘lsa, kim uchundir so‘nggi rusumdagi, urf bo‘lgan telefoni bo‘lmasa, o‘zini baxtli sanamaydi. Birovga yaxshimi-yomonmi bosh suqadigan boshpanasi borligi katta baxt bo‘lsa, yana boshqalarga Turkiya yo Dubayda dam olib kelish baxt. Bu mavzuda uzundan-uzoq gapirish va bahslashish mumkin. Men esa turkiy tilimiz asoschisi, mumtoz adabiyotimizning yorqin namoyondasi, ulug‘ bobokalonimiz Alisher Navoiyning:

O‘z vujudingga tafakkur aylagil,

Har ne istarsen o‘zingdin istagil. [Alisher Navoiy. 1985. 144-bet.]

degan hikmatli misralariga tayangan holda inson baxtni tashqaridan emas, o‘zida mavjud imkonlardan izlasa maqsadga muvofiqroq bo‘ladi deb o‘ylayman.

Sezganingizdek yechimga qarab boryapmiz! Endi ruxsatingiz bilan yana bir go‘zal hikoyani shu mavzu yuzasidan tahlilga tortsak-da, bejirim uzukka ko‘z qo‘ygandek bo‘lsak.

Dunyoning ulug‘ donishmandlaridan biri, shoir, mutasavvuf olim, mutafakkir inson - Mavlono Jaloliddin Rumiyning:

Narsa yo‘qki xoriji olam erur,

Har ne istarsen, o‘zingda jam erur. [Jalolidin Rumiy. 2017.120-bet.]

hikmatlarining yana-da go‘zal, o‘ziga xos, teran ma’no-mazmun aks etgan shakldagi namunasi o‘zimizning zamonaviy o‘zbek adabiyotimizda ham mavjud. Bu - istiqlol davri o‘zbek nasrining yorqin namoyondasi, shu bilan birga ham shoir, ham adabiyotshunos olim, tarjimon Ulug‘bek Hamdamning “Bir piyola suv” hikoyasidir. [Ulug‘bek Hamdam. 2017. 360-bet]

“Menga vazifa yuklatilgan edi…” deb boshlanadi ushbu asar. Uning qahramoniga muhim topshiriq topshirilgan. U ikkita ot qo‘shilgan, qandaydir yuk ortilgan aravani shomga qadar belgilangan manzilga yetkazishi, vaqtida ulgurishi uchun yo‘lda hech narsaga chalg‘imasligi lozim. Qahramonning bilgani shu! Qolgani esa unga qorong‘u. U yo‘lga chiqqanda quyosh endi bosh ko‘targan, o‘zi ham yosh va navqiron edi. Havo iliq, otlari ham unga maqsadi tomon ildam borishi uchun ko‘makchi edi. Qahramon avvaliga xush kayfiyat ila bor ovozi bilan qo‘shiq aytib boradi, keyin esa kuchini tejash uchun xirgoyi qiladi, keyin yanayam sekinlashadi. Yo‘l yurarkan, havo ham isib, quyosh tikkaga keladi va u chanqaganini his qiladi. Borgan sari tashnalikdan qiynaladi. Shunda uzoq yo‘l oldidan yonida suv olmaganidan afsuslanadi. Yo‘l yurib borarkan, bir karvonsaroyga duch keladi va ot-aravasini tashlab, ichkariga yo‘l oladi. Darvoza oldida hammani ichkari chorlayotgan parivashga mahliyo bo‘ladi, karvonsaroyga kirgach, chashmaga ko‘zi tushadi va hech o‘ylab o‘tirmay, zanjirlab qo‘yilgan bejirim piyolachani to‘ldirib suv ichadi. Uning chanqog‘i bosilishi uchun shu bir piyolagina suv kifoya qiladi. Qahramonimiz hayron qoladi. Chunki u bir necha marta suv to‘latib ichaman deb o‘ylagandi-da! Endi u ichgan suvining haqini to‘lasa, yana yo‘lida davom etaveradi. Ne yoziqki, u to‘lovni amalga oshirish uchun judayam uzundan-uzoq navbatda turib kutishga majbur bo‘ladi. Negadir navbatdagilar judayam g‘amgin, tund, befarqqa, baxtsizga o‘xshab ko‘rinadilar. U noiloj odamlar qatoriga navbatga turadi. Keyin esa kutish asnosida o‘zi ham shu insonlardan biriga aylanib qolayotganini sezadi. Uzoq va mashaqqatli kutishlardan keyin axiyri bir piyola suv badalini to‘laydi-yu, darvozaga yo‘naladi. Endi u avvalgidek yosh, navqiron emasdi. Qo‘llari qariyalarnikidek burishgan, tanidan darmon qochgan odam darvozaga

yaqinlasharkan yerga yuztuban yiqiladi. Og‘ziga, ko‘zlariga qum kiradi, lablari yorilib achishganini his qiladi. Paypaslanib, yerda yotgan tayoqni oladi-yu, amallab o‘rnidan turadi. Qiynalib yurib borib, qarshisida aravani ko‘rib, o‘ziga yuklatilgan muhim vazifa esiga tushadi. Ammo atrofda qosh qoraya boshlagandi. U kech qolganini, belgilangan vazifani ado etolmaganini o‘ylab o‘kinadi. So‘ng hasrat bilan aravaga suyanadi. Shunda yelkasiga nimadir oqib tushayotganini sezadi va aravadagi xumlarning ustini ochib qaraydi. Shunda o‘zi olib ketayotgan aravadagi hamma xumlar suvga to‘la ekanligiga guvoh bo‘ladi. Uning shu choqqacha ko‘rgan-kechirgani bir yon-u, bu hol bir yon bo‘ladi. “Suv esa asriy qumliklarga chak-chak tomardi” deb tugatadi adib o‘z tush-hikoyasini. Bu hikoya ramzlarga boy bo‘lib, har bir jumla ortida tamoman boshqa ma’no yotadi. Muxtasar qilib tahlil qiladigan bo‘lsak, muallif mo‘jazgina hikoyaga bani odamning butun umrini mahorat ila sig‘dirganini ko‘rishimiz mumkin. Axir hammamiz bu dunyoga kelar ekanmiz, har birimizning o‘z vazifamiz bo‘ladi-ku, to‘g‘rimi? Ana shu oliy maqsad yo‘lidan og‘ishmay, dunyoning hoy-u havasiga aldanmay umrguzaronlik qilish qancha insonga nasib etarkin?! Inson unutuvchi, u adashishga, xatolar qilishga moyil yaralgan. Chunki har bir odamda nafs bor. Qahramonning suv ichish maqsadida yo‘ldan chalg‘ib qolishiga sabab ham uning nafsi edi. Buni qarangki, u o‘z ehtiyoji ortidan yurib, o‘ziga yuklatilgan ulkan vazifani bajara olmadi, bir piyolagina suv haqini to‘layman deb butun umrini boy berib qo‘ydi. Achinarli tomoni esa u izlagan, topib ichgandan keyin, to‘lovini qilguncha aziz umrini o‘g‘irlagan o‘sha suvdan bir necha xumi aslida o‘zida mavjudligi edi. U o‘ziga kerakli narsani o‘zidan izlamagani uchun, tashqaridan qidirgani uchun maqsadiga yetolmadi…

Jamiki fikrlarimizni jam qilib, xulosa qiladigan bo‘lsak, insonning asl baxti-hayotga nega kelgani va yashashdan maqsadini anglab yetishida, o‘zi bajarishi lozim bo‘lgan oliy vazifani ado eta olishida, yo‘lda turli ko‘z olg‘uchi mayda-chuyda narsaga chalg‘imasligida va manzilga yetishda har ne talab etiladigan bo‘lsa, uni o‘zidan izlashida ekanini ko‘rishimiz mumkin. Ba’zan biz baxt deb intilganimiz aslida arzimas matoh bo‘lib chiqishi mumkin (yo‘qolgan marjon soxtaligi), umrimizni bilib-bilmay sarflab yuborgan, biz intilgan, bizga kerakli narsalar aslida shundoq ham o‘zimizda ekani (xum to‘la suvni olib yurgani) alal-oqibatda afsus-nadomatlarimizga sabab bo‘ladi. Shuning uchun inson o‘ziga baxt marrasini, cho‘qqisini tanlayotganda insonligidan (nima uchun yaratilgan?) kelib chiqib chuqurroq o‘ylab, yuksakroq tafakkur qilib, ichki olami bilan obdon hisoblashib olmog‘i, moddiy ne’matlarni esa hayotining maqsadi emas, balki murodiga yetish yo‘lidagi vosita o‘laroq ko‘rmog‘i ma’qulga o‘xshaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. “O‘qituvchi” nashriyoti, T.: 1986. 408 b.

2. Bahodir Karim. “Abdulla Qodiriy fenomeni”. Monografiya. Info Capital Group. T.: 2019. 480 b.

3. Mopassan G. “Marjon shodasi”. ziyouz.uz›jahon-nasri/gi-de-mopassan/gi-de-…

4. Navoiy A. Hikmatli so‘zlar. T.: O‘zbekiston MK nashriyoti. 1985. – 144 b.

5. Rumiy Jaloliddin. Nay nolasi: Hikmatlar. T.: Yurist-media markazi, 2017. – 120 b.

6. Hamdam U. To‘lin oy qissasi. Hikoyalar. T.: “O‘zbekiston” NMIU. 2017. – 360 b.

## CHINGIZ AYTMATOV ASARLARINING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASIDA ODORIZMLAR, KOLORISTIK VA FONOLOGIK BIRLIKLARNING IDROK ETILISHI VA QAYTA YARATILISHINING BA’ZI MASALALARI (“QIYOMAT” ROMANI MISOLIDA)

*Abdusalamova Lobar Akbar Qizi*
*“Ipak yo’li” turizm va ma’daniy meros xalqaro universiteti*
*tayanch doktoranti*
*tel:+998902131523*
*cool.abdusalamova@mail.ru*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola Chingiz Aytmatov ijodining uchinchi bosqichidagi qissa va romanlarida odorokolofonik motivlar poetikasi hamda ularning o‘zbek tiliga tarjimasi va idroki masalasini asarlarining originallari matni va ularning o‘zbek tiliga tarjimalarini qiyosiy tahlilini amalga oshirish asnosida odorizmlar, koloristik va fonologik birliklarning idrok etilishi va qayta yaratilishining ba’zi masalalarini bir qator hikoya, qissa va “Qiyomat” romani matnlari asosidagi o‘rganish va tahlili masalasiga bag‘ishlangan va e’tiborga molik saktaliklar, yo‘qotishlar, muallif uslubidan chekinishlarga dalillar keltirib o‘tilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *fonik-tovush ifodalovchi obrazlar, tabiat va inson obrazi, umumbashariy global dilemma, hid idrok etilishi, matn badiiy-estetikasi, asar kompozitsiyasi.*

***Abstract.*** *This article deals with the poetics of odoro-colophonic motifs in the stories and novels of the third stage of Chingiz Aitmatov's work, as well as the issue of their translation and perception into Uzbek language. It is devoted to the study*

*and analysis of the issues based on a number of stories, short stories and the texts of the novel "Doomsday" and evidences of notable mistakes, losses, and deviations from the author's style are presented.*

***Key words:*** *phonic-sound-expressing images, nature and human image, universal global dilemma, smell perception, artistic-aesthetics of the text, composition of the work.*

Chingiz Aytmatov asarlari dunyo bo‘yicha eng ko‘p chop etilgan yozuvchilar sirasiga kiradi. YUNESKO e’lon qiligan statistik ma’lumotlariga ko‘ra, Chingiz Aytmatov asarlari eng ko‘p o‘qiladigan adiblar orasida V.Shekspir va L. Tolstoydan so‘ng uchinchi o‘rinda turadi. XXI asr arafasida adibning kitoblari jahonning 168 mamlakatida 165 tilga tarjima qilinib, 830 marta, jami 67,2 million nusxada chop etilgani aniqlangan edi. Mazkur xalqaro tashkilotning ma’lumotlariga qaraganda, Chingiz Aytmatovning asarlari hozirgi kungacha jahonning 180 ga yaqin tillariga tarjima qilinib, 80 million nusxada nashr etilgan, bu raqamlar yillar o‘tgani sayin izchil ortib bormoqda. Adib nomini ilk bor jahonga mashhur qilgan “Jamila” qissasining o‘zi esa 50 dan ortiq tilga tarjima qilingan. Asar hozirgi kunga qadar o‘zbek tilida yetti bor nashr etilgan. Biz bunchalik e’tiborga molik sanoqli asarlarni bilamiz, xolos.

Chingiz Aytmatov asarlarining o‘zbek tiliga tarjimalarida ularning poetikasiga xos odorizmlar, koloristik va fonologik birliklarning idrok etilishi va qayta yaratilishi masalasini o‘rganish davomida, qator e’tiborga molik saktaliklar, yo‘qotishlar, muallif uslubidan chekinishlarga dalillar uchradi. Ularning nashrdan nashrga ko‘chishi, kamchiliklarning to‘g‘rilanmaganligi, tarjimondan ham ko‘ra noshir va muharrirlarning xato va aybi deysak, mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi. [Quronov D, 2019, 242-bet]

Odorokolofonik detallar Ch.Aytmatovning mashhur “Qiyomat” romanida o‘zgacha tus oladi. Tarjimon I.G‘afurov uni mahorat bilan o‘zbekchalashtira olgan. Asar kompozitsiyasi tuzilishi jihatidan nihoyatda qiziqarli. Unda bosh qaxramonlardan bo‘lgan Akbara va Toshchaynarning hayotlari xotimasi, so‘nggi kunlari qalamga olingan. Asarda bu paytning, nuqtaning asar ibtidosi sifatida tanlanishi favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, bu paytlar nafaqat jonvorlar, balki kishilik jamiyatlari ham muayyan hayotiy chorrahaga kelib qolishgan paytlar edi. Asarning asosiy mazmuniga ko‘ra, romanga va tarixga doir zamon, davr nihoyatda o‘zaro o‘xshab ketadi. Unga ulkan umumbashariy global dilemma ta’siridagi og‘ir kechinmalar – Tabiat va Insonning hayot va o‘lim o‘rtasidagi tanlovi jarayoni aks ettirilgan.

Asar kompozitsiyasining boshida, uning tugunida, kitobxonni qiyomatga xos fojelar silsilasi kutib turgani mumtoz adabiyotga xos tarzda rang tasvir va tovushlar

yordamida ifodalanadi. Bunda muallif qalamga olgan har bir peyzaj odorokolofonik detallarga to‘lib toshgan: “И только все настойчивей возрастающий и все прибывающий гул крупнотоннажного вертолета, пробирающегося в тот предвечерний час по каньону Узун-Чат к ледяному перевалу Ала-Монгю, задымленному в ветреной выси кручеными облаками, все нарастал, все приближался, усиливаясь с каждой минутой, и наконец восторжествовал - полностью завладел пространством и поплыл всё подавляющим, гремучим рокотом над недоступными ни для чего, кроме звука и света, хребтами, вершинами, высотными льдами. Умножаемый среди скал и распадков многократным эхом, грохот над головой надвигался с такой неотвратимой и грозной силой, что казалось, еще немного - и случится нечто страшное, как тогда - при землетрясении...” [Айтматов, 1987, 378 с.] Keltirilgan iqtibos misolida kuzatishimiz mumkinki, mutarjim qanchalik muallifning aytmoqchi bo‘lgan fikriga, asarning uslubi va metodiga mos o‘zbek tilidagi mavjud va o‘zi ixtiro qilgan yasama so‘zlardan mahorat bilan foydalanadi. Bunda tarjimonga nisbatan hech bir so‘zni qo‘llashiga norozilik bildirish mushkul, faqat ma’qullash qoladi, xolos: “Faqat o‘sha kunbotar chog‘ida Uzun Chot darasi bo‘ylab osmonning uzoq shamolgohida, sallador bulutlar qo‘ynida tutab yotgan Ola Mo‘ngu muz dovoni sari o‘tib borayotgan og‘ir vertolyotning guldiragan ovozi dam sayin yaqinlashib, kuchaygandan kuchayib borar va nihoyat, atrof-tumonat, tovush hamda yorug‘likdan bo‘lak hech narsa yetib borolmaydigan cho‘qqilar, tizmalar, mangu ko‘k muzliklarni tamom o‘z hukmiga oldi. Tog‘u toshlarga urilib, avvalgisidan yana beshbadtar zo‘raygandan zo‘raygan qaldiroq boshlar uzra shunchalar ayovsiz dahshat solar ediki, go‘yo yana ozgina shunday davom etsa, yana o‘sha yer qimirlaganiday... qiyomat-qoyim qo‘padiganday edi.” [Aytmatov, 2015, 178-bet]. Mazkur tarjimada originaldagi “ветреной выси” birikmasining “osmon shamolgohida”, “кручеными облаками” - “sallador bulutlar qo‘ynida”, “нечто страшное” - “qiyomat-qoyim qo‘padiganday” tarzida ijodiy o‘girilishi shubhasiz tarjima saviyasi va tarjimonning mahorati, o‘z ishiga sidqidil yondoshuvidan dalolatdir. Zero, asar kompozitsiyasi tuzilishidagi tugundayoq, asarning nomi “Qiyomat” – daxshatdli oqibat, yakun bilan bog‘liq o‘ringa bunday mohirona yondoshish, muallifning ijodiy uslubi hamda mazkur matnning badiiy-estetikasi chuqur o‘rganilganligi va tarjima matniga to‘g‘ri singdirilgani namoyishidir. O‘zbekcha tarjimada koloristika ham, fonik-tovush ifodalovchi obrazlar ham yaxshi saqlangan hamda o‘zbek kitobxoni uni to‘liq idrok etish imkoniga ega bo‘lgan.

Asarda bo‘rilar, ayniqsa Akbara hayratomuz tarzda tasvirlanib, insoniy xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Eng boshidan muallif uning obraziga insoniy tus beradi va miflashtiradi. U nafaqat xotirlash, eslash qibiliyatiga ega, balki

o‘z hissiyotlarini boshqa jonvorlarniki bilan qiyoslash va xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega. U his qila oladi, hatto orzuga beriladi. Muallif uni tasvirlashda rang-tasvirga, koloristikaga alohida e’tibor beradi: “Тем более что, Акбара и Ташчайнар были пришлыми в этих краях. Для опытного глаза даже внешне они разнились от их местных собратьев. Первое – отвороты меха на шее, плотно обрамлявшие плечи наподобие пышной серебристо-серой мантии от подгрудка до холки, у пришельцев были светлые, характерные для степных волков. Да и ростом акджалы, то бишь сивогривые, превышали обычных волков Прииссыккульского нагорья. А если бы кто-нибудь увидел Акбару вблизи, его бы поразили ее прозрачно-синие глаза - редчайший, а возможно, единственный в своем роде случай. Волчица прозывалась среди здешних чабанов Акдалы, иначе говоря, Бело холкой, но вскоре по законам трансформации языка она превратилась в Акбары, а потом в Акбару - Великую, и между тем никому невдомек было, что в этом был знак провидения.” [Айтматов, 1987, 378 с.] Keltirilgan iqtibosdan muallifning bo‘rilar xayotidagi e’tiborga molik jihatlar o‘ta qiziqtirganligi ma’lum bo‘ladi. Ularning tashqi qiyofasi koloristika yordamida individual xususiyat va unutilmas chizgilar bilan boyitiladi. Avvalo, ular bo‘y bastlari balandligi bilan ajralib turishadi – ularning qiyofasi ramziy ma’no-mazmun kasb etadi. Akbara va uning nari - “bo‘risining” tusi, juni boshqacha rangda. Yana bir qiziq jihat: Akbara o‘ziga xos alohida belgiga ega – ko‘zi “tip-tiniq ko‘k”, ismi ham “Ulug‘” ma’nosini ifodalaydi. Ushbu fazilatlar o‘zbek tiliga shu tarzda o‘girilgan: “Buning ustiga Akbara bilan Toshchaynar bu yerlarga kelgindi edilar. Razm solib qaralsa, ular u yerlik bo‘rilardan ajralib turardilar. Ularning yelka yollari ko‘krak junlariga quyunday buralib tushar, butun yelkalarini to kallaga dovur qalin jun qoplagan, xuddi dasht bo‘rilariniki kabi yollari oqish-ko‘kish tusda tovlanar edi. Shuning uchun bularni oqyol deb atashardi. Oqyollar Issiqko‘lning tog‘ atroflarini o‘ziga makon tutgan yerlik bo‘rilardan yirikroq, bo‘laliroq edilar. Agarda Akbaraga yaqinroqdan birovning ko‘zi tushsa, uning tip-tiniq ko‘k ko‘zlaridan tamomila hayratga tushgan, bunaqasini boshqa hech qachon uchratmagan bo‘lar edi. Shu yerlik cho‘ponlar bu qanjiq bo‘rini Oqdil deb yurishdi. Keyin-keyin borib Akbari dedilar, yana birmuncha vaqtlar o‘tib esa Akbara — Ulug‘ deb atadilar. Kim aytsa aytgandiru, lekin unga shunday nom berilishi bejiz emasdi. Bunda qazoning ham hukmi borga o‘xshab ko‘rinardi... Bultur bu yerlarda ko‘kyollar yo‘q edi.”[Aytmatov, 2015, 178-bet]. Bu yerda tarjimaning umuman yetarli daraja qoniqarli ko‘rinish olganligini e’tirof etgan holda, rus tilidagi “по законам трансформации языка” iborasi tushirib qoldirilganligi, “провидение” atamasi – ko‘chma ma’noli “qazo” bilan almashtirilganini kuzatamiz. Aslida “провидение” “taqdirida yozilganiga ko‘ra” ma’nosini anglatadi. Tajribali tarjimon

istemoli cheklangan bo‘lsada uning o‘rniga “qazo hukmi” tushunchasini qo‘llaydi, albatta bu optimal variant, biroq uning idroki keng kitobxonlar uchun murakkab kechadi.

Bo‘rilar o‘zlarini xuddi insonlarning oilaviy juftligi kabi tutadi. Ularga muhabbat, bog‘lanib qolish, nafislik, sog‘inch, g‘am kabi insoniy tuyg‘ular begona emas, rashk hissini asosan moda bo‘ri Akbara sezadi va bu sezgi “xiyonatkor” erinardan anqiyotgan ko‘ngilsiz hidni idrok etilishi orqali, uni maxsus tarzda xiyonatini bo‘rttirib ko‘rsatish maqsadida, fiziologik tafsilotlari bilan tasvirlanishi, odorizmlarning naqadar muhim yukni kutarib turganini ko‘rsatadi: “Лишь однажды был странный, неожиданный случай, когда ее волк исчез до рассвета и вернулся с чужим запахом иной самки - отвратительным духом бесстыжей течки, стравливающей и скликающей самцов за десятки верст, вызвавшим у нее неудержимую злобу и раздражение, и она сразу отвергла его, неожиданно вонзила клыки глубоко в плечо”.

Ushbu parcha tarjimasi o‘quvchida ikki xil hissiyot uyg‘otadi: o‘qimishli, o‘zbekcha, idrok etishga qo‘lay va, aksincha, silliqqina matnda nimadir yetishmayotgandek, yo‘qotilgandek. Sababi, original matn va uning tarjimasini qiyoslash jarayonida ma’lum bo‘ladi. Matndan Chingiz Aytmatov uslubiga xos yovvoyi jonvorlarni insonlarga xos fazilat kasb ettirish tamoyili ortga chekingan, chunki tarjimon originaldagi “ее волк” – “uning bo‘risi” yoki tarjimon ta’biri bilan aytsak, “uning arloni” tushunchasi shunchaki arlon atamasi bilan almashtirilgan. Qolaversa, arlon so‘zi erkak-nar bo‘ri ma’nosidan tashqari to‘daboshi, yetakchi ma’nolarida ham keng qo‘llanadi. Biz esa asar syujetiga ko‘ra bosh bo‘ri Toshchaynar-arlon emas, Akbara ekanligini bilamiz. Keyingi jumlada qo‘llanilgan begona bo‘rining “отвратительным духом бесстыжей течки” – “boshqa qanjiqning badbo‘y isini” tarzida o‘girilgan. Agar iborada “бесстыжей” – “beor, uyatsiz” ma’nosidagi epitet saqlanganida idrok etilishi to‘laqonliroq bo‘lgan bo‘lardi nazarimizda: “Faqat bir kuni kutilmagan sinoat bo‘lib o‘tdi. Arlon kechasi bilan yo‘q bo‘lib ketdi-da, tong azonda butunlay boshqa qanjiqning badbo‘y isini ergashtirgancha qaytib keldi. Daydigan arlon bo‘rilarni o‘n chaqirimlab uzoq yerlardan maraz hidiga chaqiradigan o‘sha yebto‘ymas yuho bo‘rining isiga Akbara sira toqat qilolmadi. Yomon g‘ashi kelib, achchig‘i chiqdi, nafrati qo‘zidi, to‘sindan shartta erkagining yelkasiga tishlarini qattiq botirdi.” [Aytmatov, 2015, 178-bet]. Shu asarning turli nashrlarida takrorlanib, saqlanib kelayotgan to‘sindan so‘zining imlo xato bilan chop etilayotganligini, originalda u to‘satdan- *“неожиданно”* ko‘rsatib o‘tmoq joiz. Albatta bu noshir va musahhixlarning xatosi bo‘lsa kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Qiyomat” romani tarjimasi bugungi kun kitobxonlari talabiga javob berishini, unga ham juziy tahrir zarurligi, boshqa

aksariyat asarlari qatiy taxrirga muxtojligini va ayrimlari takroran tarjima qilinish zaruriyati mavjudligini ko‘rsatdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Aytmatov Ch. Qiyomat. – T: Yangi asr avlodi, 2015.
2. Quronov D. Chingiz Aytmatov asarlari tarjimasiga doir // Filoloji ve Kültür araştirmalari. Ord. Prof. Aziz Kayumov’a Armağan Kitabı.- Karabük, 2019.- https://www.researchgate.net/publication/341508372
3. Айтматов Ч."Плаха", роман. Москва, "Молодая гвардия",1987.
4. Куйбишев, Звук и свет в жизни животных -: 1967. - С.48
5. Сохряков Ю.М. Художественные открытия русских писателей. - М.: 1990. - С.13.
6. О.Н. Юсупов. Структура художественного перевода. Вестник НУУ 3 (1), 318-320


## “JINOYAT VA JAZO” ASARIDA INSON FOJIASI


*Aliyeve E’zoza Qahramon qizi*

*ToshDO‘TAU O‘zbek tili adabiyoti fakulteti, 2- kurs*

*aliyevaezoza37@gmail.com*

*+998918124357*



***Annotatsiya.*** *Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy asarlarida qaxramonlarning ichki kechinmalari, obrazlarning ruhiy holatlari siyratini aks ettirishdagi o‘ziga xosliklari, qaxramonlarning ijtimoiy hamda ruhiy kechinmalari talqini asarda sintezlangan. Romanda aybdorlik, qutqarilish va yaxshilik va yomonlik tabiati mavzulari o‘rganiladi. Yozuvchining “Jinoyat va jazo” asari asosidagi tasvirlar buyukligi realliklarini badiiy talqin etish orqali ijodkor mohiyati va ko‘lamdorligi darajada akslantirilganligini yoritib berishga harakat qildim. Ayni shu muammo yuzasidan mazkur maqolada fikr- mulohazalar o‘z aksini topadi.*



***Kalit so‘zlar:*** *Jinoyatga barham berish, jinoyat, jazo, ijtimoiy psixologiya, muammolar, davr atmosferasi, ruhiy tasvirlar.*



***Abstract.*** *In the works of Fyodor Mikhailovich Dostoyevsky, the inner experiences of the characters, their peculiarities in reflecting the character’s mental states, the interpretation of the social and mental experiences of the characters are synthesized in the work. The novel explores the themes of guilt redemption and the nature of good and the nature of good and evil. I tried to clarify that the greatness of the images based on the writer’s work “Crime and Punishment” is reflected at the level of the creator’s essence and scope through the artistic interpretation of the realities. Opinions on this problem are reflected in this article.*

***Keywords:*** *Crime prevention, crime, punishment, social psychology problems, period atmosphere, mental images.*

Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy - taniqli rus yozuvchisi, faylasufi, jahon adabiyotining klassikasi va publitsist. YUNESKO ma'lumotlariga koʻra, u dunyodagi eng koʻp oʻqiladigan mualliflardan biridir. Fyodor Mixaylovich oʻz hayoti davomida 12 roman, 16 qissa va rus xalqining madaniyatini, uning koʻp qirrali ruhini va kundalik hayotini yorqin aks ettiruvchi koʻplab asarlar yozgan. Ijodiy faoliyati 1844 – yilda boshlangan. Birinchi romani – "Bechora odamlar" da (1846) xoʻrlangan, ijtimoiy adolatsizlikka duchor boʻlgan " kichkina odamlar " ning qismati hikoya qilingan. " Jinoyat va jazo " (1866), "Telba" (1868) romanlarida rus xalqining ma'naviy muammolari badiiy boʻyoqlarda yaqqol aks ettirilgan." Ogʻa- ini Karamazovlar" (1879-1880) romanida jamiyat va shaxs oʻrtasidagi chuqur ziddiyatli boʻlsada, rus va jahon adabiyotiga katta ta'sir koʻrsatgan. Dostayevskiy 19- asrdagi realistik roman janrini yangi oʻziga xos tomonlar bilan boyitdi. Adib toʻlaqonli badiiy obrazlarda nafaqat voqealar oqimini, insonlar taqdirini, qalb kurashini, balki jamiyat ma'naviy hayotidagi fojiaviy konfliktlarni ham bera oldi. Oʻzining intellektual romanlarida fikrlarning keskin kurashini, gʻoya va dunyoqarashning fojiaviy toʻqnashuvini mahorat bilan tasvirladi. Dostoyevskiy romanlari vazmin tasvir uslubi emas, aksincha, sof dramatik janrlarga xos keskinligi va liro- publitsistik pafosi bilan ajraladi. "Jinoyat va jazo" Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy adabiy merosidagi ana shu besh shox asarning birinchisidir. Roman jahon adabiyotining mumtoz namunalari sirasiga kiradi. Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy inson ruhiyatini salmoqli asarlari bilan jahon adiblari roʻyxatidan oʻrin oldi. Uning umuminsoniy qadriyatlarni tarannum etuvchi barcha asarlari allaqachon haqiqiy kitobxonlar javoniga terib boʻlingan. "Jinoyat va jazo" 1865 -1866- yillarda Fyodor Dostoyevskiy tomonidan yozilgan ijtimoiy- falsafiy roman. "Jinoyat va jazoni" oʻqish davomida shubhasiz hayratlantiradigani Rodion Raskolnikov boʻladi, deb tasavvur qilganman. Romanda sobiq talaba Rodion Romanovich Raskolnikov tomonidan sodir etilgan jinoyat va uning oqibatlari haqida hikoya qilinadi. Asarda chekka, isqirt bir qovoqxonada oʻtirib hayotini hikoya qilayotgan Marmeladov va u yerga tasodifan kirib qolgan Raskolnikovlar tasviri bilan boshlanadi. Misol uchun: Nimaga aynan voqea boshlanmasi Marmeladov hikoyasi bilan boshlangan?nima uchun bosh qaxramon qilib talaba shaxsi tanlangan? Raskolnikovning qotillikka qoʻl urishiga asosiy sabab nima edi. Romanda bosh qaxramon Rodion Raskolnikov mehribon qalbga ega inson oddiy, kambagʻal, sobiq, talaba oqni qoradan ajrata oladigan obraz hisoblanadi. Universitetda oʻqib yurgan davrlarida doʻstlari tomonidan tortinchoq va biroz gerdaygan, bilimi yaxshi boʻlganligi sababli oʻzini yuqori oldigan kishi sifatida

ta’riflangan. Raskolnikovda yaramas yovuz niyat bor edi, u sudxo‘r kampirni o‘ldirishni niyat qilib yurgan edi. Shunga qaramay, Raskolnikov nafaqat kampirni, balki kutilmaganda uning xonadonga qaytib kelgan muloyim siglisi Lizavetani ham bolta bilan chopib o‘ldiradi. Raskolnikovni qotillik qilishi dastlab,muhtojligi,onasi va singlisining yaxshi hayot kechirishini ta’minlash uchungina bo‘lib tuyuladi. Uning jinoyat sodir etib bo‘lgandan keyin ruhiy holati, vijdon azobi qiynalishi, hattoki tushlarida sudxo‘r ayolni o‘ldirgani ko‘rib chiqishi yozuvchining go‘zal mahoratida darak beradi. Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy ta’biri bilan aytganda, “Qotil ro‘parasida hal qilib bo‘lmaydigan savollar ko‘ndalang bo‘ladi, ilgari xayoliga ham kelmagan favqulodda hissiyotlar ich – etini kemira boshlaydi. Ilohiy adolatu zaminiy qonun- qoidalar ustun chiqadi va u o‘z aybiga o‘zi iqror bo‘lishga majbur bo‘ladi. Demak, Rodion Raskolnikov yo‘qchilikdan qutulish, tezda boyib ketish va yuksak mavqega ega bo‘lish maqsadida aql bovar qilmaydigan jinoyat sodir etadi.Fojiali jihati shundaki, bosh qaxramon o‘z jinoyatini oqlaydi.Ammo hayot qonunlari adolatli – jinoyatning jazosiz qolishiga imkon bermaydi. Har qanday jinoyatga jazo muqarrardir. Ruhiy jazo jinoyatchini o‘z aybiga, huquqiy jazo esa o‘z qilmishiga iqror bo‘lishga majbur etadi. “ Ijtimoiy, psixologik, falsafiy muammolar bir- biriga qo‘shilgan, aralshgan holda sintez qilingan. Asarda shu mudhish qotillik ortidan kelgan bexad- bepoyon uqubatlar, his – hayajonlar, inson ruhining hayratomuz g‘alayonlari o‘z aksini topgan. Dostoyevskiyning bu masalalarga qarashlari uning shaxsiy tajribasi, jumladan, Sibirda qamoqqa olinishi va falsafiy va ilohiyat g‘oyalar bilan chuqur aloqasi tufayli shakllangan. Uning asarlari adabiyot va falsafada ta’sirli bo‘lib qolmoqda va u rus adabiy an’anasidagi eng buyuk romanchilarda biri hisoblanadi

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jinoyat va jazoning muammosi muxit, axloq, irodasizlik. Dostoyevskiy romani orqali xalqini erkinligi, jamiyat farovonligiga erishish orzusi bilan yuzaga kelgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Albattaki, u buning uddasidan chiqa oldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy "Jinoyat va jazo".
2.Uzoq Jo‘raqulov “Hududsiz jilva”.-T.: Fan nashriyoti, 2006-203b.
3.Uzoq Jo‘raqulov “ Nazariy poetika”.- T.: G‘afur G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015-355b.
4.www.ziyo.uz

## “YUZINI YO‘QOTGAN ODAM” NOVELLASIDA SHAXS FOJIASI TALQINI

*Avazova Charos Po‘lat qizi,*
*ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik (jahon adabiyoti)*

*yo‘nalishi 1-kurs magistranti*
*charosavazova18@gmail.com*
*+998946313318*

**Annotatsiya**. *Adabiyotshunosligimizda novella alohida janr sifatida hali o‘zining ilmiy-nazariy asosini topmagan. Aslida gap badiiy asarlarning qaysi janrga mansubligida emas, ularga bugungi adabiyotshunoslik yutuqlaridan kelib chiqib, to‘g‘ri baho berishda. Maqo lada ham yapon novellasi misolida tabiat bilan inson, inson bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar va muommolar haqida so‘z yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *inson, jamiyat, niqob, munsipalet xizmatchisi, Murato Sindzi, jinoyat.*

**Abstract.** *In our literary studies, the novella as a separate genre has not yet found its scientific and theoretical basis. In fact, it is not a question of which genre the works of art belong to, but of giving them a correct assessment based on the achievements of today's literary studies. The article also talks about the relationship and problems between nature and man, man and society using the example of a Japanese novel.*

**Key words:** *man, society, mask, municipal employee, Murato Sindzi, crime.*

Adabiyotni haqli ravishda ijtimoiy hayotning eng sezgir barometriga qiyos etishadi. Darvoqe, jamiyatda yuz berayotgan voqea va hodisalar adabiyotda o‘z aksini topadi [6:248]. Adabiyotdan ham oldinroq inson ruhiyatida bo‘y ko‘rsatadi. Darhaqiqat, taniqli rus adabiyotshunosi A.Potebnya badiiy adabiyotga ta’rifini “eng umumiy tushuncha — inson faoliyati” [7:223], degan so‘zlar bilan boshlagan edi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, muammolarning muammosi — odam. Odamni chinakamiga aks ettirar ekansan, uning qilmish-qidirmishlaridan muammolar kelib chiqaveradi. O‘sha muammolarni hal etish esa sening ishing emas: uni hayot hal etadi va pirovardi, o‘sha “hal etilish” jarayoni yana adabiyotda aks etishi mumkin[16].

Har bir jinoyat aslida jamiyatga berilgan bir savoldir. Uning javobini ham, ildizlarini ham ko‘p holatda jamiyatning o‘zidan topish mumkin. Hech bir inson sababsiz jinoyat yo‘liga kirib qolmaydi. Tadsudzo Isikavaning “Yuzini yo‘qotgan odam” novellasida ham jamiyatga katta bir so‘roq o‘laroq jinoyat sodir etgan oddiy munsipalet xizmatchisi Murato Sindzining fojeasi hikoya qilinadi. U dastlab “jinoyat qilsam-u, qo‘lga tushmasam, qoyilmaqom ish qilgan bo‘laman. Qo‘lga tushmadimmi, demak, jinoyatchi ham emasman” deya avvaldan o‘ylangan rejasini amalga oshirish uchun bankka o‘g‘rilikka tushadi. Ammo baxtga qarshi kassir ayol uning yuzidagi yirik xolini ko‘rib qoladi. Endi o‘g‘ri turli yo‘llar bilan jinoyat

[16] https://www.hikmatlar.uz/quote/1172 // Shukur Xolmirzayev.

izlarini yoʻqotishga kirishadi. Dastlab yuzini plastik operatsiya qildirgan boʻlsa, soʻng ismini ham (Xarado Kenitiga) oʻzgartiradi. Uning fikricha, odamlar oʻzaro uch jihat - jins, ism, qiyofadan farqlanadi. “Ismim bilan qiyofamni esa oʻzgartirishga ulgurdim. Demak, bundan keyin mening faqat erkakligimgina qoldi” deb xayol surarkan, Murato Mariga uylanish haqida bergan erkaklik lavzidan qaytib, oʻzi bilmagan holda oʻsha oxirgi farqdan ham mosuvo boʻladi. U moddiy jihatdan boyigan holda qalbidagi qimmatli narsa - VIJDONini boy beradi: *Oldingi qiyofamda mening qalbim aks etar, qalbim bilan yuzim hamohang yashardi. Bu qiyofaning esa yuragimga hech bir aloqasi yoʻq qiyofamga qoʻshib vijdonimni ham boy berdim.* Vijdon inson esini taniy boshlashi bilanoq har kuni, har soatda bagʻoyat zarur boʻlgan bir narsadir. Odamning tabiati shunaqaki, har bir odam vijdonli boʻlishga intiladi. Albatta, vijdonsiz odamlar bor, ular hatto keragidan koʻproq ham uchraydi... Buning uchun bironta jinoyat kodeksida ularni ayblaydigan modda ham topolmaysiz. Ular vijdon azobidan ham qoʻrqmaydilar... Lekin shunga qaramay vijdonsizlarcha qilingan har bir ish, oʻz manfaati yoʻlida diyonatni yutib, boshqalarga aziyat yetkazib qoʻyilgan har bir qadam mutlaqo izsiz ketmaydi - bular oʻsha vijdonsiz odam qalbini, ruhiyatini zahmdan xavfliroq va sovuqroq dardga duchor qiladi, ularning qiyofasida shunday chandiqlar qoldiradiki, bora-bora bu chandiqlar uni odamiylik qiyofasidan mahrum etib, xuddi ingliz adibi Oskar Uayld romanining qahramoni Dorian Greydek mahluqqa aylantiradi [4:422]. Boshqacha qilib aytganda, Murato ham Dorian Greydek yuzini yoʻqotgan “odam”ga aylanadi: *oʻzimniki boʻlmagan qiyofa sohibi edim va men qanday uyatli ish sodir etmay, bundan yuzim qizarmasdi.*

Bizga hamma narsalar ta'sir koʻrsatadi, bizni hamma narsalar oʻzgartiradi. Har bir lahzada niyatimizni kutilmagan, nogohoniy, tasodifiy taassurotlar qurshab oladi, ular yozuvchi yaratayotgan personajning jumlalar koloritiga, fikr ohangiga, xarakter xususiyatlariga, adabiy asar syujetiga ta'sir qilib, ba'zan arzimas, ba'zan keskin darajada oʻzgartiradi [1:113]. Xuddi shu kabi jinoyatdan soʻng Murato xarakterida evrilishlar yuz bera boshlaydi. U oʻz ishini arzimas jinoyatdek qabul qiladi. Uning nazarida bankdagi pullar erkin qush kabi hech kimniki emas, bir bogʻlamini olsa davlatga biron ziyon yetib qolmaydi, muhimi, u hech kimga tan jarohati yetkazmadi. Demak, qilgan oʻgʻriligi afsuslanishga zarracha boʻlsin arzimaydi. Negaki minglab jinoyatlar ichida uning bu qilmishi tabiiy hol, gʻayrioddiy hech narsa yoʻq. Murato jamiyat uni Xarado deb tan olishi uchun oʻz rolini qoyilmaqom qilib oʻynaydi. Ya'ni eski ismi, ishi, dasxati va xotiralari bilan bogʻliq narsalarni ayamay “tahrirlaydi”. Oʻz ishiga oʻzi qoyil boʻlarkan, bir narsa uni oʻylantirib qoʻyadi: *faqat manglayimgina sal-pal oʻzimnikini eslatar, meni achinish hissi iztirobga solardi.* Bunda manglay soʻziga e'tibor beraylik. Diniy

qarashlarga koʻra inson taqdiri u dunyoga kelishdan avval manglayiga yozilgan boʻladi. Undan qochish imkonsiz. Murato ham muqarrar jazodan qutulishga turli tadbirlar koʻrgan boʻlsa ham qismatidan uzoqqa borolmadi, qoʻlga tushdi. Oʻzi bilan oʻzi murosa qilolmagan, yakdil boʻlolmagan odamda, tabiiyki, juratsizlik gʻolib keladi. Shu kabi qahramonimiz militsiyani chalgʻitishga ma'lum darajada erishganiga qaramay, vaqt oʻtishi bilan oʻzidan, vijdonidan yashirina olmay qoladi, juratsizlikka yoʻl qoʻyadi. Muallif oʻgʻri ruhiyatini uning harakatlari orqali yaxshigina tasvirlab bera olgan. Qahramonimiz endi jinoyatchining qismatiga yolgʻizlik bitilgan deb oʻzini butun bir jamiyatdan ajratib, hech kimga ishonmay qoʻyadi, har nedan shubhalanaveradi. Ertangi kunidan hadik-xavotirda yashash Muratoni nafaqat halovatidan, balki chin turmushidan ham mosuvo qildi: *Mening maxfiy sirim - botinim qoʻriqxonasi. Men bu bilan oʻzgalar va koʻnglim aro oʻtib boʻlmas devor qoʻyaman.* Qizigʻi, oʻzgalarning ishonchini xatti-harakatlari orqali oʻzi yoʻqotadi, oʻz jinoyatini oʻzi fosh qiladi. Negaki Murato politsiyadan oʻzi oʻgʻrilik qilgan joyga - bankka qanday borish mumkinligini soʻraydi, hatto unga yaqin joylashgan kichik restoranga kirib taom buyurtiradi. Bu, albatta, qilgan tadbirlarining natijasi boʻlgan yoki boʻlmaganligini tekshirish niyatida bajarilgan ish. Politsiya yuzini oʻzgartirgan Muratoni mutlaqo sezmagan boʻlsa, ayol qalbi - Mari uni bir koʻrishdayoq savqi tabiiy bilan taniydi. Bir jinoyat boshqasiga yoʻl ochadi qabilida Murato "gullab qoʻyish" xavfidan qoʻrqqani uchun avval yuzini operatsiya qilgan shifokorni, soʻng uni sevuvchi bu ayolni oʻldirmoqchi boʻladi. Ammo niyati amalga oshmasdan oldin qoʻlga tushadi. U "*sartarosh yana oʻsib chiqishini oldindan bilsa ham, soch olishini, kirxonadagilar yana kirga botishidan voqif holda, kir yuvishini qoʻymaydi. Shuningdek, politsiya bir oʻgʻrini tutib qamasa, boshqa oʻgʻrilar paydo boʻladi. Oʻgʻirlik ham politsiyachilik kabi bir kasb, oʻlmaydigan mashgʻulot*" [5:33] deb dunyo yaralibdiki, yaxshilik bilan yonma-yon ravishda yomonlik ham birga yashab kelayotganiga, mahbuslik bor-yoʻgʻi uni yangi jinoyatlardan toʻsib turishligiga ishora qiladi. Asar yakuni, ayniqsa, qamoqqa mahkum qilingan Muratoning soʻzlari oʻqirmanni ancha oʻylantirib qoʻyadi: *Birgina armonim ushbu hukmni niqobsiz oʻzimning asl qiyofamda eshitish edi* [5:44]. Bu goʻyo mudragan vijdonning qayta uygʻonayotganidan darak. Yuzini oʻzgartirish hodisasi ramziylik kasb etyapti. Tadsudzo Isikavaning ijodiy muvaffaqiyatlaridan biri - qahramon nutqi xoslanganlik darajasining ustuvorligiga erishganligi bilan izohlanadi. Jumladan, Muratoning "*Yaponiyada har kuni bunday oʻgʻirliklar son-sanoqsiz sodir boʻladi. Jinoyat kodeksida esa bu haqdagi bor-yoʻgʻi ikki satr yozilgan. Shu ikki satrni deb minglab oʻgʻrilar qamoqxonalarni toʻldirib yotibdi* [5:12]" degan nutqida zohir boʻlgan ichki "men"i, uning kayfiyatini toʻlaligicha namoyon etadi. Aslida oʻgʻirlikning turi, darajasi koʻp. Tahlilga tortilgan har qanday

badiiy asarning yaratilgan davrini va uning yaratilishiga turtki bo‘lgan sababni bilmay turib, asarni teran tahlil etish va haqqoniy xulosaga kelish imkonsiz. O‘rganilayotgan asarga tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashilmasa, qahramon ruhiy holatini ham, uni faoliyatga undagan sabablarni ham tushunmaslik mumkin [3:148]. Gap shundaki, Muratoning yuqoridagi so‘zlaridan o‘sha davr Yaponiya sud tizimida va konstitutsiyasida kamchiliklar va adolatsizliklarning talayligi anglashiladi. Uni bartaraf etib, o‘zgartirmasa jamiyat taraqqiyoti orqaga ketaveradi. Muallif jamiyatda xudkushlikning, jinoyatning ortib borayotgani haqida to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki qahramonlari harakatlari orqali ko‘rsatib otadi. Muratoning maktabda o‘qituvchilik qilayotgan akasi o‘z joniga qasd qiladi. Xo‘rlik, qashshoqlik, kam oylik uni shu yo‘lga majburlaydi. Ota-onasidan, butun oilasidan erta ayrilishiga ham ijtimoiy adolatsizlik sabab. Boylar boyib, kambag‘allar battar qashshoqlashib boradi. Hayot ziddiyatlarga, qarama-qarshiliklarga to‘la bo‘lgani uchun kishilarning tabiati, fe’l-atvori, dunyoqarashi murakkablashgan. Bu murakkablikning barcha jihatlarini hech bir nazariya to‘la-to‘kis ifoda qilib berolmaydi. Jumladan, hech bir adabiy metod, yo‘nalish, oqim ham inson dunyosini batafsil akslantirmaydi [2:118]. Muratoning dinga e'tiqod qilishiga yolg‘izligi sabab. U "cherkovga bitta maqsadni ko‘zlab boradi - yoqimtoy ayollarni korish uchun". Mari ikkisining ibodat bilan boshlangan kunlari muhabbat o‘yini bilan tugaydi. Ammo Murato unga uylanolmaydi. Chunki:

*- Halol mehnatim orqasida bir nimalik bo‘lishimga ko‘zim yetmasdi. Farovon hayot kechirishimga zarracha umidim bo‘lganida ham, Mari Tomsonga uylangan bo‘lardim. Afsuski, mening maoshim bilan bola-chaqa boqib bo‘lmaydi. ...Narx-navo esa osmonda. Ahvol shunday bo‘lmaganida, jinoyat haqida o‘ylarmidim. Demak, mening jinoyatim jamiyat tartiblaridan og‘ir emas* [5:12].

Qahramon nutqidagi bu intonatsiyani “eshitolgan” o‘quvchi uning ruhiyatiga kira biladi, demakki, asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, qahramonlararo munosabatlar mohiyatini chuqur anglaydi. Ko‘rinib turibdiki, jinoyatga jamiyatning o‘zi zamin yaratgan. Notenglik, ish haqining kamligi, narx-navoning balandligi, umidsizlik, yo‘qsillik Murato Sindzini jinoyatga boshladi. Hamma aybni tashqaridan izlash, novella qahramonini shu ko‘yga solganlarga g‘azab va nafrat qilish oson. Chunki biz “oq-oq, qora-qor” tarzidagi keskin ranglarga o‘rganib qolganmiz. Ammo kimdir jamiyatni emas, Muratoning o‘zini, darz ketgan vijdon, iymon va oriyatini qoralashi mumkin. Lekin unutmaslik kerakki, hech bir jinoyat o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Inson tabiatida mavjud hayot tarziga qanoat qilishdan ko‘ra, turmushni o‘zgartirish istagi, uni yanada yaxshilash havasi baland turadi. Bu havas, ayniqsa, kishining bolalik, yoshlik kezlarida kuchli bo‘ladi. Ehtimol, shu sababdandir, Murato ham o‘z holiga ko‘nmadi, hayotiga qing‘irlik yo‘li bilan bo‘lsa-

da chiroyli o‘zgartirish kiritishni xohladi. Uning jinoyati qashoqlikka qarshi isyon edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. So‘z kimyosi: badiiy esse / Yan Parandovskiy. Tarjimonlar: O.Sharafiddinov, M.Akbarov. - T.: Yangi asr avlodi, 2022. — B. 464.

2. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi (Adabiyotshunoslikka kirish) o‘quv-uslubiy majmua. — T., 2016. - B. 228.

3. O‘zbek adabiy tanqidi: [antologiya] / tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Karimov B; tahrir hayati Normatov U. [va boshq.]. — T.: Turon-Iqbol, 2017. — B. 544.

4. Sharafiddinov O. Tanlangan asarlar. — T.: Sharq, 2019. — B. 576.

5. Eynshteyn bilan iblisvachcha. [Matn]: hikoya va novellalar / Dino Butssati; tarjimon: U. Jo‘raqulov - T.: “Ziyo nashr,, nashriyoti 2020.-144 b.

6. Адабиёт ва замон: (Мақола, очерк, адабий портретлар). Тўплаб, нашрга тайёрловчилар: Норматов У, Олимов М. — Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. — B. 368.

7. Потебня А.А. Эстетика и поэтика.- М.,1976.- с.286.

8. https://www.hikmatlar.uz/quote/1172 // Shukur Xolmirzayev.

## O‘ZBEK VA RUS ADABIYOTIDA RAD ETILGAN AYOL OBRAZI (“O‘TGAN KUNLAR” VA “TELBA” ROMANLARI TALQINIDA)

*Askarova Lobar*
*ToshDO‘TAU, O‘FF 4-kurs*
*lobaraskarova@01gmail.com*
*+998 93 816 06 15*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada adabiyotdagi yana bir tipik obraz ya’ni “rad etilgan ayol obrazi” o‘zbek va rus adabiyoti talqinida ko‘rib chiqildi. O‘zbek adabiyotidan “O‘tgan kunlar” romanidagi Zaynab, rus adabiyotidan “Telba” romanidagi Nastasya Filipovna obrazlari maqolamiz obyekti sifatida olindi. Bu ikki obrazning rad etilishi va shu jarayonning obrazlarga qay darajada ta’sir etganligi batafsil yoritildi.*

***Abstract:*** *Another typical image in the literature, "the image of a rejected woman" was considered in the interpretation of Uzbek and Russian literature. The images of Zaynab from the novel "Utkan kunlar" from Uzbek literature and Nastasya Filipovna from the novel "The Fool" from Russian literature were taken as the object of our*

*article. The rejection of these two images and the extent to which this process affected the images were highlighted.*

***Kalit so‘zlar:*** *rad etilgan ayol obrazi, Zaynab, Nastasya Filipovna, ilk syujet, ilk obraz, Azozilning rad etilishi.*

***Key words:*** *the rejected female character, Zainab, Nastasya Filipovna, the first plot, the first character, the rejection of Azozil.*

Ayolsiz hayot bo‘lmas ekan, adabiyotda ayollar qatnashmagan asar ham yo‘q. Zero, “Ayol bo‘lmasa, adabiyot bo‘lmas edi. Adabiyot avvalo ayolga atab, ayol uchun, uning ko‘nglini olish, dilidagini bilish, ayol degan xilqat ne o‘zi -shuni anglash uchun yaralgan. Abdulla Qahhor aytganidek, qushning ham erkagi sayraydi. So‘z san’ati avvalboshi er kishining ijodidir, demak, erkakni qiziqtirgan bosh masala adabiyotning asosiy muammosi bo‘ladi. Erkakni esa, tabiiyki, eng avvalo ayol qiziqtiradi. Shu bois, adabiyotning asosiy qahramoni, bosh mavzui – ayoldir”[17]. Darhaqiqat, deyarli barcha qalam mahsullarida ayol obrazi asosiy o‘rinni egallaydi. Umuman olganda, asli hayot erkak va ayol munosabatlari ustiga qurilgan. U istalgan jihatdan bo‘lsin, ana shu ikki insonning munosabati zamirida mavjud bo‘ladi. Adabiyot esa inson va uning qalbini o‘rganuvchi fandir. Aytish mumkinki, adabiyotda turli mavzu va qarashlar ko‘p, ammo ularning tag zamirini qarasak, barchasi ayol va uning tevaragida aylanadi. Hatto mavzusi hayotni anglashga qaratilgan asarlarning ham mag‘zi birinchi navbatda, ayolni anglashga qaratiladi. “To‘g‘ri, so‘z san’atida ota-onaga muhabbat, tabiat go‘zalligi, halollik, bolalarni sevish, yovlarga nafrat... kabi o‘nlab mavzular bor, bularning har biri ming yillardan beri yuzlab xalqlarning so‘z san’atida chuqur, har taraflama ishlangan. Ammo baribir, ularning hech biri ayol tasvirichalik mavqe kasb etmaydi. Shu ma’noda, insonshunoslik bo‘lmish adabiyot birinchi navbatda ayolshunoslik, ya’ni ayolni o‘rganish, inkishof etish ilmidir. Kuzatsak, eng qadimgi asarlar ham ayolga bag‘ishlangan, ular konfliktini ayol va unga aloqador narsalar tashkil etadi. Hatto, aytish mumkinki, adabiyot taraqqiyoti ayol mavzusining badiiy tadqiqi, uning teranlasha borishi bilan chambarchas bog‘liq”[18].

Darhaqiqat, adabiyotda ma’lum tipik xususiyatlarni jamlagan umumiy obrazlarni ko‘p uchratamiz: bolalar, onalar, do‘st, dushman obrazlari kabi. “Rad etilgan ayol” obrazi ham shular jumlasidandir. Bu obrazning paydo bo‘lish tarixi ham boshqa obrazlar kabi uzoq tarixga, ilk inson zoti (ilk syujet va ilk obrazlar) paydo bo‘lgan

[17]Isomiddinov Z. Ikki ayol. Tafakkur, 2007,4-son

[18] Isomiddinov Z. Ikki ayol. Tafakkur, 2007,4-son.

davrlarga borib taqaladi. Bu mulohazamiz an'anaviy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ham o'z isbotini topadi,

Ya'ni Sharq adabiyotida adabiyotga asosi bo'lmish obrazlarning paydo bo'lishi badiiy, ijtimoiy, madaniy doiradagina cheklanib qolmay borliqning yaralishi, inson zotining paydo bo'lishi bilan bog'lanadi. Professor U.Jo'raqulov takidlaganlaridek: "Ilk syujet" deganda biz ilohiy kitoblar, xususan, "Qur'oni karim"da kelgan ilk odam – Odam alayhissalom to'g'risidagi ilohiy axborotni nazarda tutamiz. Xabarda kelishicha, Olloh taolo Odam alayhissalomni yaratgandan so'ng unga "barcha narsalarning ismlarini o'rgatdi", uni O'z marifatidan bahramand qildi. Odam alayhissalom, aynan, ma'rifati – Ollohga yaqinligi, Uni tanigani bois barcha mahluqotdan, hatto farishtalardan ham ustun bo'ldi.[19] "Baqara" surasida bayon qilinishiga ko'ra, mana shundan keyin Olloh farishtalarga Odamga ta'zim qiling deyishimiz bilan sajdaga egildilar. Faqat Iblis kibr va or qilib – kofirlardan bo'ldi" (34-oyat)[20]. Xuddi mana shu inson zoti yaralishi va Iblisning odamzotga dushman bo'lib qolishi voqeasiga Sharq adabiyotida aynan "ilk syujet"ning ilk genezesi deb qaraladi. Adabiyotdagi "oshiq"(Odam a.s), "ma'shuqa"(Havvo onamiz), "raqib"(Iblis) kabi obrazlar, Iblisning odam zotiga kibri tufayli abadiy dushman bo'lib qolishi, insonlarning shaytonning vasvasasiga uchib gunoh qilishlari va abadiy shayton bilan kurashib hayot kechirishlari adabiyotda "ilk syujet", "ilk obraz" sifatida aks etib kelmoqda.

"Rad etilgan ayol obrazi" ham xuddi shu "ilk syujet", "ilk obraz" genezesiga borib taqaladi. Voqelik jihatidan qaraydigan bo'lsak Iblis Odam (a.s) yaralmasidan avval farishtalar mudarrisi bo'lgan Azozil nomli farishta edi, Ollohning amriga bo'yinsunmaganligi, kibri va jaholati tufayli ulug' farishtadan kibrli Iblisga aylandi va uning darajasi farishtalarga ustozlik maqomidan insonlarni gunoh ishlarga undovchi, to'g'ri yo'ldan adashtiruvchidek salbiy darajaga tushdi. Biz o'rganayotgan "rad etilgan ayol obrazi" ham qisman Iblis kabi qismat egalaridir. E'tibor qaratadigan bo'lsak ko'plab "rad etilganlar" rad etilishlaridan avval Azozil kabi bo'lmasada risoladagidek insonlar qatorida hayot kechirishadi, ko'ngil qo'ygan insonlaridan rad javobini olgan (aynan Olloh shaytonni farishtalik darajasidan tushirgandek bo'lmasada qisman o'zlari ko'ngil qo'ygan shaxs tomonidan inkor qilingan shaxs sifatida) ayol endi shaytoniy hislarga moyil bo'la boshlaydi. O'z shaxsiy menini tahqirlangan deb his qilgan ayol endi ilgaridagidek bo'lmay, yaxshi hislatlari o'rnini yomon, shaytoniy hislar egallay boshlaydi. Bu tahqirlanishdan ayol endi hattoki boshqalarni halok etib bo'lsada o'chini olish harakatiga tusha boshlaydi.

---

[19] У. Жўрақулов. Назарий поэтика масалалари: муаллиф. Жанр. Хронотоп. Т:. Ғафур Ғулом , 2015, 152-бет.

[20] Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т:. "Чўлпон" нашриёти, 1992.

Ba’zi qahramonlarimiz buni o‘z ixtiyori bilan qilishga tayyor bo‘lsa yana boshqalari atrofidagi shayton yo‘liga kirgan boshqa kimsalarning undovi bilan bu darajaga yetib keladi. Bunday obrazlarni jahon va o‘zbek adabiyotining ko‘plab namunalarida uchratishimiz mumkin. Folklor janrlarida “Alpomish”, “Bilgamish”, “Ramayana” eposlarida, mumtoz adabiyotimiz namunalaridan A.Jomiyning “Yusuf va Zulahxo”, A.Navoiyning “Layli va Majnun” dostonlarida, o‘zbek adabiyotidan A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar”, I.Mirzoning “Bonu”, jahon adabiyotidan F.Dostayevkiyning “Telba”, Stendalning “Qizil va qora”, Shekspirning “Makbet” tragediyasida kabi asarlarida shunday ayollar obrazlarini ko‘rishimiz mumkin.

Birinchi o‘zbk romani hisoblanmish “O‘tgan kunlar” romanidagi Zaynab obrazi biz o‘rganayotgan obraz turiga yaqqol misol bo‘la oladi. Hammaga ma’lumki kundosh tushunchasi o‘zbek xalqi maishiy hayotida ming yillardan beri mavjud, “O‘tgan kunlar” romanidagi davr muhitida ham kundoshlik azobiga duchor bo‘lgan ayollarni uchratish tabiiy holdek qaralgan. Zaynab ham shu azobdan qiynalgan ayollardan biri edi. Bu obraz asarda tragig fojeaga sabab bo‘lsada butkul salbiy qiyofada talqin qila olmaymiz. Zaynab shunday fojega sabab bo‘lishida shu davrdagi jamiyat, undagi mezonlar, uning oilasi va ayniqsa tug‘ishgan opasining hissasi katta edi. Ular yoshlikdan birga katta bo‘lgan tug‘ishgan opa-singil bo‘lsalar ham oralarida katta farq bor edi. Jumladan: “Xushro‘y uzun bo‘ylik, qotmaroq va zarcha tanlik edi. Zaynab qisqa bo‘y, go‘shtdor va oq tanlik edi. Xush-ro‘yning harakati yengil va lavzi tez edi. Zaynab loppos va o‘nta so‘zga arang bitta javob qaytaradirg‘an edi. Xushro‘yning ko‘zi o‘ynab, har sekuntda o‘n yoqqa alang‘lar edi. Singlisi bo‘lsa birav bilan betma-bet kelib so‘zlashqanida ham ko‘zini hamisha bir nuqtadan uzmas edi. Xushro‘yga bolaliq chog‘idayoq uy ichi va qo‘ni-qo‘shni «shaddod» deb ism berganlar, chunki ul kimdan bo‘lsa-bo‘lsin, aytkanini qildirmay qo‘ymas, agar birarta ish uning tilagiga teskari ketsa shovqin-suronni xudda boshig‘a kiyib olar edi. Shuning uchun Xushro‘yning ra’yini bilmasdan qozon osilmas, unga yoqmagan gapka og‘iz ochilmas, ul bor joyda qadam ham sanalib bosilur edi. Zaynab egachisining aksicha o‘z yaqinlaridan «pismiq» deb ism olg‘an, onasi bo‘lsa achchig‘i chiqg‘anda «ming‘aymas o‘lgur» deb uni qarg‘ar edi”[21]. Zaynabning fe’li hamma narsani ichiga yutib oxirgi fursatlarda ayyuhannoz qilar va bu urinishi hech qanday natijasiz yakun topardi. Yoshligida hayit bayrami uchun olib kelinga mato yoqmaganligini shu payti aytmasdan, mato tikuvchiga berilib tayyor qilinganidan so‘nggina rayini oshkor qilib, endi kechligi oshkor bo‘lganidek ulg‘ayganidan so‘ng ham bu fe’lini qo‘ymaydi. Otabekka turmushga chiqqanidan ancha vaqt o‘tib kundoshi Kumushning kelish arafasida Otabekka o‘z ichki kechinmalarini oshkor qiladi. Tabiatan juda ziyrak bo‘lga Otabek ham bu hodisani

[21] A.Qodiriy, “O‘tgan kunlar”, T:. 2017

Zaynab uni quchib, shu paytgacha ichiga yig‘ilib kelgan dardlarini aytib yig‘lamaguncha payqamagan edi. Balki qahramonimizning fe’li o‘zgacharoq bo‘lib, oldinroq bu holatini eriga bildirganida, Otabek tomonidan boshqacharoq mumomala qilinardi, Zaynabning hislari bunday sovuqqon tarzda inkor etilmas, balki ularning taqdiri ham bunday yakun topmasmidi?!

Albatta bunda faqat Zaynabni ayblab bo‘lmaydi, uning atrofidagi yaqinlari, O‘zbek oyim ham sabr qil deb uqtirishlari ham sabab bo‘lgan. Endi Zaynabning Kumush kelganidan keyingi o‘ta tushkun kayfiyatiga keladigan bo‘lsak u avvalgidek hammasini ichiga yig‘di, qaynona tomonidan avvalgidek avaylashlar tugadi, Otabek tomonidan “mijozim zaif” javobini olgandan so‘ng shunga ham rozi bo‘lib chidadi, deyarli har kuni bo‘lib turadigan kundosh bilan tortishuvlar, o‘zini Kumush oldida zaif his qilish, buning ustiga Kumushning farzand kutayotganligini eshitishi alam ustiga alam tuyg‘usini oshirdi, bularning hammasi Zaynabda yetilib borayotgan o‘ch olish tuyg‘usini yanada alanglatardi. Mana shunday kunlardan birida Zaynab opasining uyiga borib hasratlashishga urinadi, o‘ta shaddod xulqli, o‘zining kundoshiga kun bermay haydab yuborgan, eri sakkiz yildan beri farzand ko‘rish orzusiga yetisha olmayotganini aytganda, hatto zahar berib erini ham o‘zini ham o‘dirishini aytib erini jim qilgan Xushro‘y singlisiga o‘z yo‘rig‘iga kirishini zimdan uqtiradi. Uning nazarida dushman ham do‘st ham insonning o‘ziga o‘zining munosabati, ya’ni “Dushman o‘zi nima degan so‘z? — dedi, — men senga boya ham aytdim: kishining dunyoda do‘sti yo‘q, magar nafsiga o‘zi do‘st; kishining dunyoda dushmani yo‘q, magar nafsiga o‘zi dushman!” – deb singlisiga uqtiradi. Zaynabga gaplari ta’sir qilayotganligini ko‘rib maslahat berishga o‘tadi. Oddiygina maslahat berib qolmay singlisini sabr kosasi to‘lgunicha kutadi. Bu maslahatlari Zaynabga ma’qul kelmasligini bilib turib oldiniga sabr qilishini, undan keyin o‘z ixtiyori bilan eridan javobini olishini aytadi, suyukli eridan ayrilishni ko‘z oldiga keltirgan Zaynabni o‘zini tutolmay ayyuhannoz qilayotganini ko‘rib, qulay vaziyatdan foydalanish uchun sekingiga asl maqsadiga o‘tadi. Xuddi shayton o‘z o‘ljasini sekin-asta zaharlab borganidek Xushro‘y ham singlisini o‘z yo‘rig‘iga hiyla-nayranglar bilan kirgizadi.

Zaynab endi rosmana qasd olishga kirishadi, endi kundoshi bilan ortiq ziddiyatlarga bormas, o‘zini uy ishlari bilan banddek ko‘rsatib ichida qanday o‘ch olishni reja qilib yurardi. Tabiiyki buni Kumush juda yaxshi anglardi, qattiq havotirga tushganini onasiga so‘nggi vidolashuvdek yozilgan xatidan ham anglashimiz mumkin. Oxir oqibat u dunyoda yakka-yu yagona raqibasi Kumushni zaharlaydi va asardagi tragig kulminatsiyaga sabab bo‘ladi. Zaynab dushmanidan qasd oldi lekin afsuski, bu bilan ham o‘z maqsadiga yeta olmadi. Aksincha bu o‘ch uni ham atrofidagilarini ham taqdirini fojeaga aylantirdi: Kumush o‘ldi, Otabek

umuman hayotdan umidini uzib urishga ketib halok bo‘ldi, ulardan qolgan farzand esa yetim qoldi, ota-ona orzusi yakka-yu yagona farzandidan ayirdi… Zaynab esa es-xushidan ayrilib butkul junungа aylandi, ko‘chalarda darbadar kezib hatto qilgan aybi uchun jazoga ham noloyiq holga tushdi. Uni bu ko‘yga kelishiga suyukli eri tomonidan cheksiz muhabbatiga nisbatan mehr ko‘rsatilish o‘rniga butkul inkor etilishi, shaytonsifat opasi tomonidan yo‘ldan urilishi va uni baxti deb aytolmasakda tinchgina hayotini buzgan Kumushbibiga bo‘lgan cheksiz nafrati sabab bo‘ldi. Bunday sabablar birov gapirsa yuziga tik boqmaydigan andishali Zaynabni qasoskor ayolga aylantirdi.

Rus adabiyotida ham ko‘plab shu tipdagi ayollarni uchratishimiz mumkin. F.Dostoyevskiyning ayollari ayniqsa “Telba” romanidagi ayol obrazlar serqirra, o‘ziga xos obrazlardir. Bosh obrazlardan biri bo‘lmish Nastasya Filipovna juda murakkab obraz, bu obrazning prototipi F.Dostayevskiyning muxlisi keyinchalik bir nechta asarlari uchun prototip bo‘lgan Apollinariya Prokofyevna Suslova edi. U juda ham shaddod, go‘zal ayol edi. Singlisi bilan universitetda ta’lim oladi, bu o‘sha davrda qizlari uchun juda kamyob hodisa edi. Singlisi Nadejda Suslova Rossiyadagi birinchi ayol dokrtor bo‘ladi, Polina esa san’atga qiziqardi. Uni zamondoshlari «femme fatale» ya’ni «ofatijon, ammo badxulq ayol» deb atashgan. F.Dostayevskiyning qizi Lyubov Dostayevskayaning tasvirlashicha u viloyat ayoli, «har yili universitetga kirar, ma’ruzlarda qatnashar ammo o‘qishga qiziqmasdi. Talabalar bilan namoyishlarda faol qatnashib yurardi...». U F.Dostayevkiyni adabiy kechalarning birida ko‘radi va yaxshi ko‘rib qolib yozuvchiga o‘zi yozgan hikoyalardan jo‘nata boshlaydi, garchi hikoyalari yaxshi yozilmagan bo‘lsada F.Dostayevkiy ularni qabul qilib yoshgina qizga yozishni o‘rgatishga harakat qila boshlaydi. Ularning orasida o‘n to‘qqiz yosh farq bo‘lsada Polina yozuvchiga sevgi maktublari yo‘llay boshlaydi, yozuvchi ham unga befarq emasdi ammo uning ayoli kasal bo‘lgani uchun Polinaning ajrashish talabini qabul qila olmaydi. Ayoli o‘lgandan so‘ng turmush qurish taklifini berganida esa Polina rad etadi.

F. Dostayevkiy uni o‘ta xudbin, mag‘rur, «buyuk egoist», «uning egoizmi va bema’niligi juda katta. U boshqa odamlardan hamma narsani, barcha kamolotlarni talab qiladi va odam ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa fazilatlar nuqtai nazaridan zarracha nomukammallikni kechirmaydi» deb ta’riflagan. Keyinroq yana aytadiki: «Men uni hali ham yaxshi ko‘raman, lekin men uni boshqa sevishni xohlamayman. U bu muhabbatga loyiq emas...”

Polina keyinchalik inqilobdan oldingi davrning eng ziddiyatli rus yozuvchilari va faylasuflaridan biri Vasiliy Rozanovga turmushga chiqadi. U bilan tanishganida Razanov hali talaba edi. U bir qarashda Polinani sevib qoladi. Rozanov uni Fyodor Dostoyevskiyning sobiq esvgilisi sifatida bilar edi. Bu uning qiziqishini uyg‘otish

uchun yetarli edi, chunki Dostoyevskiy uni eng ko‘p hayratga tushirgan yozuvchi edi. Rozanov shunchalik ehtirosli ediki, u o‘zini Dostoyevskiyning «Yer osti odami» deb atardi. Rozanov o‘z kundaligida faqat qisqacha yozuv qoldiradi: “Apollinariya Prokofyevna Suslova bilan uchrashish. Unga bo‘lgan sevgim! Suslova meni yaxshi ko‘radi, men ham uni juda yaxshi ko‘raman. U men uchratgan eng ajoyib ayol”. Ular uch yil sevgi munosabati bilan yashashdi va oxir-oqibat 1880-yilning noyabrida turmush qurishdi. O‘sha paytda Polina 40 yoshga to‘lgan, Razanov esa endigina 24 yoshda edi.

Ular 1886-yilda Polinaning yomon xulq-atvori sababli ajrashishadi. Rozanovning shaxsiy yozishmalaridan anglashimiz mumkinki, ularning birgalikdagi hayoti Rozanov uchun azobli kechgan. Suslova ommaviy rashk sahnalarini yaratdi va bir vaqtning o‘zida do‘stlari bilan boshqa erkaklar bilan ishqiy munosabatda bo‘ladi. Rozanovning qizi Tatyana o‘z xotiralarida shunday dedi: “Suslova uni masxara qilib, yozayotganlarini shunchaki ahmoqona kitoblar, deb aytdi; u uni haqorat qildi va nihoyat uni tashlab ketdi”. Suslova Rozanov bilan ikki marta ajrashdi, lekin u har doim uni kechirdi va uyga qaytishni iltimos qildi. Nihoyat ular ajrashgandan so‘ng, Rozanov tan oldi: «Uning fe'l-atvorida qandaydir ajoyib narsa bor edi, bu meni barcha azob-uqubatlarga qaramay, uni ko‘r-ko‘rona va qo‘rqoqlik bilan sevishga majbur qildi». Rozanov o‘zining bo‘lajak rafiqasi Varvara bilan uchrashganidan keyin Polina yigirma yil davomida qasos olish maqsadida u bilan ajrashishdan bosh tortadi. 1900-yillarning boshidan Polina Suslova Sevastopolda yolg‘iz yashagan. Uning bu yolg‘izlikdagi yillarida o‘zini qanday tutganini ko‘rsatadigan dalillar kam, ammo u baxtsiz oshiqlariga o‘zini sirli va tushanarsiz tutib ularni qiynoqqa solishda davom etganligi sir emas. U 1918-yilda 78 yoshida yolg‘iz vafot etdi.

Dastlab Polinaning jo‘shqin muhabbati F.Dostayevskiy tomonidan o‘zi kutganidek qabul qilinmadi. Shundan so‘ng u erkaklardan nafratlanib qoldi va boshqa erkaklarga nisbatan ham shu nafratni saqlab qoldi. Umri davomida boshqa seva olmagan bu ayolning siymosi Dostayevskiyning ko‘plab asarlaridagi ayol obrazlarning prototipi bo‘lib kirib keldi. Masalan, “Qimorboz” romanidagi Polina, “Telba” romanidagi Nastasya Filipovna, “Jinoyat va jazo”dagi Katerina Ivanovna va Lizavetta Nikolayevna, “Aka-uka Karamazovlar”dagi Grushenka kabi bir qancha obrazlar Polina Suslovaning siymosiga qurilgan edi. Ayniqsa “Telba” romanidagi Nastasya Filipovna xuddi shunday taqdir egasi sifatida tasvirlanadi. Nastasya Filipovna yoshligida ota-onasidan ayrilib Afanasiy Ivanovich Totskiyning degan boy zodagon qaramog‘ida katta bo‘ladi. Avvaliga e’tibordan chetda bo‘lgan qizcha yoshi ulg‘aya boshlashi bilan Totskiyning nazariga tushadi, eni qizaloqqa yaxshi g‘amxo‘rlik va ta’lim tarbiya berilib oqsuyak qizlardek katta qilinadi.

Totskiy qizdan o‘zining g‘araz maqsadi yo‘lida yillar davomida foydalanib kelar, qiz esa qaysidir ma’noda undan umidvor bo‘lib qolgandi, ammo vaqti kelib Totskiy qizni bir chetga surib boshqa bir oliy nasab qizga uylanish taraddudiga tushadi. Buni eshitgan Nastasya Filipovna juda mudhish ahvolga tushib qoladi va hech ikkinanmay Totskiy yashayotgan shaharga keladi va ochiq oydin Totskiyga tahdid qiladi. Ilgari “…allaqanday uyatchan, bir oz dumbulroq, ba’zan sho‘xligi va do‘lvorligi bilan jozibador, ba’zan esa ma’yus va o‘ychan, hurkak, hayrona, ko‘zi yoshli va bezovta qiz…” bo‘lgan Nastasyada endi bulardan asar ham qolmagandi. Totskiy bu o‘zgarishni o‘zicha mulohaza qilar lekin hech o‘yini o‘ylab tagiga yetolmasdi. Endi uning qarshisida ilgarigi muloyimgina qizaloq emas, hech narsadan tap tortmaydigan, aytganini qiladigan, odamni yuziga tik qarab ikkilanmay po‘pisa qila oladigan xilqat turar edi. Xuddi unga dunyoda hech bir narsaning hatto o‘z hayotining ham qadr-qimmati qolmagan edi. Uning qahriga duch kelgan odam naq Xudoning g‘azabiga uchragan kabi o‘zini juda ojiz his qilardi. Totskiy xuddi shunday ahvolda edi endi u bu vaziyatdan qanday chiqish yo‘llarini o‘ylar, nima qilib Nastasyani chalg‘itish mumkinligi haqida bosh qotirardi. Totskiy bu ayolni o‘zidan uzoqlashtirish uchun nimalar qilmadi deysiz: avvaliga ayolni zeb-ziynatlarga ko‘mib oqsuyaklar davrasiga qo‘shdi, bu davradagi ba’zi insonlar orqali Nastasyani ko‘nglini olmoqchi bo‘ldi, lekin bularning birortasi ham kor qilmasdi, xuddi uning yuragi yurak emas, toshga o‘xshar, hissiyotlari abadulabad qurib-qaqshab bitganday edi. Axiyri Totskiy o‘zi birorta oliy nasab inson topib Nastasyani unga turmushga berib, evaziga mo‘maygina pul taklif qilishga qaror qiladi. Istagan insonini ham ko‘z ostiga olib qo‘ygandi, bu inson Totskiy uylanmoqchi bo‘lgan qizning otasi general Yepanchinning xizmatchisi Gavrila Ardalionich edi. Ganya Nastasyani rostdan sevar edi ammo oradagi ba’zi bir ishlardan keyin sevgi o‘rnini alamga o‘xshash bir his egallagan edi.

Totskiy va Yepanchin Nastasya Filipovnaning oldiga kelib ochiq-oydin Totskiyning uylanishiga qarshi bo‘lmasligini, o‘zi ham anchadan beri uni ishqida yurgan Ganyaga turmushga chiqishini va evaziga anchagina pul taklif qilishlarini ustamonlik bilan taklif qilishadi.. Nastasya bu gaplarni eshitib zaharxanda qilib roziligini ammo Ganya bilan munosabatlari tez orada jiddiylashishini xohlamasligini aytadi, qachonki Ganya uni haqiqatda sevishiga amin bo‘sagina turmushga chiqishi mumkinligi va aytilgan mablag‘ni qabul qilishini faqat u pulni uni qizlik or-nomusi poymol qilinganligining haqqi deb emas, zotan, bu sharmisorlikka u aybdor emas, balki barbod bo‘lgan qismatiga to‘lov tarzida qabul qilishini va oxirgi to‘xtamini tug‘ilgan kunida ma’lum qilishini aytadi. Endi Nastasya ichida o‘ch olish uchun ko‘plab rejalar tuza boshlaydi. Buni aniq bilmasada Nastasyani yaxshi bilgan Totskiy nikohini kechiktirib turadi.

Bu orada Nastasya Filipovna bo‘lajak qaylig‘ining uyiga hech narsada tap tortmay yolg‘iz boradi. Bundan butun uy ichi hayratda qoladi, ayniqsa Nastasyaning o‘zini tutishi Ganyaning oilasiga umuman yoqmaydi, Ganya ham bu beodoblikdan yomon ahvolga tushgan edi. Bu uyda u ilk marta knyaz Mishkinni va o‘zining eski oshiqlaridan biri Rogojinni ham uchratib qoladi.

Va nihoyat kutilgan kun ham kelgandi. Nastasya Filipovna o‘z uyida bir qancha mehmonlarni kutib ola boshlaydi, ularning ichida Totskiy, Ganya, general Yepanchin, knyaz Mishkin va bir qancha kiborlar bor edi. Nastasya Filipovna o‘z rejasiga ko‘ra ish boshlaydi va kutilmaganda knyazga yuzlanib “Totskiy meni Ganyaga turmushga bermoqchi tegaymi yo‘qmi, sen nima desang shu bo‘ladi” - deb yuzlanadi. Bunda barcha qatori knyaz ham hangumang bo‘lib qoladi va axiyri bu ayolga nisbatan knyazda qandaydir iliq hislar bo‘lgani uchun knyaz “yo‘q tegmang” deb javob beradi. Buni eshitgan Nastasya Filipovna “bo‘ldi sen nima desang shu” deb tegmaslikka qaror qiladi. Bu javobdan Ganya va Totskiy sarosimaga tushib qoladi qolganlar esa hayron vaziyatni kuzatishadi. Shu payt Nastasya Filipovnaning yana bir oshig‘i Rogojin o‘z odamlaribilan kirib kelishadi, Nastasya u bilan ketishini, buning evaziga Rogojin unga yuz ming berishini ma’lum qiladi. Agar erga tegishni xohlaganida Ganechkadan tuzukrog‘iga tegib ketishi yoki uni shuncha yil azoblab kelgan Totskiyga ham tega olishini aytadi lekin bunday qilganda yana bir razilikka yo‘l qo‘yishini lekin u buni xohlamasligini aytadi. Chunki uning ichida qasos o‘ti shunchalar alanglanib turardiki, hatto Totskiy oyog‘i tagiga yalinib o‘ziga tegishini iltimos qilsa ham rozi bo‘lmas darajaga yetgandi. Endi u o‘ziga faqat ko‘cha hayotini ravo ko‘rardi, u jismonan qanchalik nopok bo‘lsa, qalban shunchalik pok edi. Bu holatni kuzatib turib bu ayolga g‘oyatda achinganidanmi yo uni sevganidanmi knyaz unga uylanishga tayyorligini, bundan oldingi hayoti uni mutlaqo qiziqtirmasligini aytib unga turmushga chiqishini taklif qiladi. Kutilmagan bu taklifdan hamma tashvishda qoladi, lekin Nastasya Filipovna bu taklifni qabul qilmaydi “men Totskiyga o‘xshab bir ma’sum go‘dakning boshiga yetishni xohlamayman” deydi va Rogojinning qo‘lidagi pulni olib o‘choqqa otadi “bu pulni faqat Ganya saqlab qolishi mumkin” deb qolganlarni yaqinlashtirmaydi. “menga bundan ham kam pul evaziga uylanmoqchi eding, ana pulni olu meni tinch qo‘y” deb Ganyani juda qiyin vaziyatda qoldiradi. Ha, Nastasya Filipovna shunday ayol ediki uni qasos olishga bo‘lgan ishtiyoqini na boylik na muhabbat va na o‘zining kelajagi so‘ndira olardi. Bu holatni guvohi bo‘lib turgan Ptitsin degan kishi Totskiyga qarab, “haqoratlangan odam haqorat qilgan odamining huzuriga borib shunday derkan: “sen meni haqorat qilding, shuning uchun sening oldingda men qornimni yorib tashlayman”. shu so‘zlarni aytgach, u o‘zini haqorat qilgan kishining qoshida qornini yorib ichak-chavog‘ini sug‘irib tashlarkan va boplab o‘chimni

oldim, deb o‘zidan xursand bo‘larkan”, shunday g‘alati tabiatli odamlar bo‘larkan dunyoda” - deb o‘xshatish qiladi. Darvoqea, Nastasya Filipovna ham xuddi shunday toifadan edi, o‘ch olish uchun o‘zini qurbon qilishiga qaramay xursand, xuddi hayotda uni o‘ch olish lazzatidan boshqa narsa qiziqtirmas edi.

Bu bazmdan keyin Nastasya Filipovna boshqa shaharga qochib ketadi, knyaz ham uning orqasidan boradi, ikkalasi bir muncha vaqt birga yashashadi ammo Nastasya knyazning bu mehribonchiliklari uni sevganidan emas achinganidan ko‘rsatilayotganligini sezib qolib knyazni haydab yuboradi. Hayoti shu zaylda davom etar, goh Rogojinga turmushga chiqishga rozi bo‘lib to‘yni tezlatishga qistar, goh to‘y kuni kelib qolganda turmushga chiqish fikridan qochib boshqa bir joyga qochib ketardi. Knyaz bularni eshitib uni Rogijin bilan tezroq turmush qurishini xohlardi ammo unday bo‘lmadi. Bu orada Knyaz o‘zining haqiqiy muhabbatini uchratadi lekin Nastasyaga bo‘lgan chuqur achinish hissi Aglaya bilan to‘ylari bo‘lish arafasida yana Nastasya Filipovnani yoniga qaytishga majbur qiladi. Gap shundaki Aglaya o‘zi bilan knyazning unashtiruvidan keyin Nastasya Filipovnaga nisbatan knyazda hali ham muhabbat hissi bor deb o‘ylaydi va knyaz bilan Nastasyaning oldiga boradi va hammasini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib haqiqatni bilmoqchi bo‘ladi. Afsuski Aglayaning bu qarori o‘ziga ziyon keltiradi. U ichidagi bor gapni, Nastasya Filipovnaning hamma aybini to‘g‘ridan to‘g‘ri yuziga aytadi, bu gaplarni eshitib yana bir bor tahqirlangan Nastasya knyazning nazdida xuddi hozir o‘lib qoladigandek tuyuladi. Bu alam ichida Nastasya knyazni o‘zi bilan olib qola olishini, xohlasa uni o‘ziga uylanishini aytadi. Bu gapni eshitgan Aglaya knayzga bir zum qarab turadi, knyaz hozir ketadigan bo‘lsa bu ayol aniq o‘zini parokanda qiladi, lekin u bilan qolsa Aglayadan ayrilishini o‘ylab bir zum ikkilanib qoladi. Bu holning guvohi bo‘lgan Aglaya cheksiz alam bilan shu zahoti ketib qoladi. Bu voqeadan keyin Nastasya Filipovna yana Ragojinni haydab to‘yga qizg‘in tayyorlana boshlaydi. Knyaz unga xuddi bolaga qilgandek g‘amxo‘rlik qiladi, ammo Nastasya yana to‘y kuni Ragojin bilan qochib ketadi, u o‘zini knyazga munosib ko‘rmaydi. Ragojin esa uni o‘z qo‘li bilan o‘ldirib qo‘yadi, ikki oshiq o‘z ma’shuqlarini garchi ikkisi ham bir xil darajada sevmasa ham o‘zlari uchun qadrli bo‘lgan ayolni o‘limiga sabab bo‘lishadi.

Shunday qilib bunday murakkab shaxsiyatga ega ayolning qismati o‘ch olish yo‘lida ayovsiz o‘lim bilan yakun topadi. Nastasya Filipovna shaxsiyati haqoratlangan, orzulari poymol bo‘lgan, hayotdan maqsadi faqat qasos olishgina bo‘lgan ammo shuncha razolat ichida yashamasin pokdomonligini yo‘qotmagan ayol edi. U o‘z shaxsiyatini haqorat qilishganini ko‘tara olmaydi, uni biz na yaxshi na yomon ayol deb ayta olmaydmiz, uni qismat haqiqiy telbaga aylantirgan edi. Jamiyatdagi telba insonlarga boshqalarga berilgan jazo qo‘llanilmaganidek bu

ayolga ham o‘quvchi bir aniq hukm ayta olmaydi, aytgan taqdirda ham uning jamiyat tomonidan qalban shikast yetkazilib hasta qilinganligi bu hukmni inkor etadi.

Yuqorida ta’kidlangan ikki obrazning fe’l-atvori, nasl-nasabi, hissiyotlari, kishilar tomonidan inkor etilish sabablari butkul farqli bo‘lsada qismatlari bir edi, ikkisining ham hayoti rad etilish natijasida barbod bo‘ldi. Ikkisi ham juda kuchli ruhiy zarba tufayli telbanamo hayotni tark etdilar. Mulohaza qilinsa bu ikki obraz ham hayotning mushkul sinovlariga yengilib shayton yo‘liga kirib, o‘z taqdirlarini barbod qilishadi. Shayton ham kibri tufayli to‘g‘ri yo‘ldan adashgan edi. Hayot bor ekan unda mahbubga oshiqlik va bu oshiqlik tufayli kimdir ziyon ko‘rishi tabbiy bir jarayon bo‘lib qolaveradi. Bu jarayonda kimdir g‘olib yana kimdir mag‘lub bo‘ladi. Muhimi g‘olib bo‘lish ham mag‘lub bo‘lish ham avvaldan yozilgan taqdir bitigi ekanligini his qilish va har bir inson bu dunyodagi o‘z pozitsiyasini unutmasligidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т:. “Чўлпон” нашриёти, 1992.
2. У. Жўрақулов. Назарий поэтика масалалари: муаллиф. Жанр. Хронотоп. Т:. Ғафур Ғулом , 2015, 152-бет.
3. Isomiddinov Z. Ikki ayol. Tafakkur, 2007,4-son
4. A.Qodiriy, “O‘tgan kunlar”, T:. 2017.
5. F.Dostoyevskiy "Телба", "Янги аср авлоди", 2021-йил.
6. https://dostoevsky-bts.com/blog/fyodors-femme-fatale/

## “ALPOMISH” VA “BILGAMISH” (“GILGAMISH”) DOSTONLARIDA O‘ZGA OLAM TIPALOGIYASI

*Asrorova Jasmina*
*TOSHDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs*
*jasminaasrorova@gmail.com*
*+998 99 772 90 63*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada “Alpomish“ va “Bilgamish“ dostonlarida keltirilgan o‘zga olamga o‘tish va o‘zga olamdan qaytish oralig‘ida sodir bo‘lgan sinovlarni, qiyinchiliklarni Alplar qanday yengib o‘tishlari keltirilgan. Shu bilan birga Alpning o‘zga olamda qanday Alp bo‘lib yetilishi va uch olam sohibi bo‘lishini “Alpomish“ va “Bilgamish“ eposlarida qiyosiy tahlilini ko‘ramiz.*

***Kalit so‘zlar:*** *epos, safar motivlari, eposlarda tipologik o‘xshashliklar, Alplik tizimi, sinov, uch olam, umrboqiylik.*

***Abstract:*** *This article describes how “Alpomish“ and “ Bilgamish“ mepics overcome the trials and tribulations that occurred between the transition to another*

*world and the return from another world. At the same time, we see a comparative analysis of "Alpomish" and "Bilgamish" epics about how Alp becomes Alp in another world and becomes the owner of three worlds.*

Muayyan bir adabiy hodisaning o'ziga xos va o'xshash jihatlarini o'rganish tipalogiya deb ataladi. Tipalogiya - o'xshashlikdan tafovutni, tafovutdan o'xshashlikni topish.

Alpomish dostoni xalqimiz orasida juda keng tarqalgan. U bugungi kunda ham ayrim baxshilar tomonidan kuylab kelinmoqda. Uning o'rganilish tarixiga qaraydigan bo'lsak, o'tgan asrning 1940-yillarida H.T.Zarifov va V.M.Jirmuniskiylar hamkorligida yaratilgan. "O'zbek xalq qahramonlari eposi" kitobi o'zbek alpomishshunosligining mustahkam tamal toshini qo'ydi. Keyinchalik, Mansur Afzalov, Maqsud Shayxzoda va Hodi Zarifovning dostonchilkka bag'ishlangan bir necha muhim ilmiy maqolalari e'lon qilindi.

1960-80-yillarda dostonlar poetikasi masalalarini ilmiy-nazariy tadqiq etishga e'tiborning kuchaytirilishi natijasida To'ra Mirzaevning "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari" ilmiy maqolasi o'zbek eposshunosligi taraqqiyotida muhim o'rin tutdi. To'ra Mirzaev dostonning 33 variantini qiyosiy tadqiq qildi va ikki versiyadan tarqalganini aniqladi. 1968-yilda barcha nazariy xulosalari va kuzatishlari asosida "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari" monagrafiyasini e'lon qildi.

Jahon adabiyotining qadimiy durdonalaridan biri "Bilgamish" ("Gilgamish") yuksak badiiyati va insonparvarlik ruhi sababli bu asar qadim qadimdan turli tillarga tarjima qilingan. Chexiyalik qadimshunos olim Yozef Klimaning aniqlashicha, asar olti qissadan iborat. Uning beshtasi dostonning hozirgi bizgacha saqlangan variantida aks etgan.

Xalq eposlarida safarga chiqish va safardan qaytish motivlari mavjud. Alpning safarga chiqish manzilini shartli ravishda o'zga olam iste'lohi bilan ifodalanib kelinadi. o'zga olamga o'tish, o'zga olamdan qaytish, o'zga olamdagi turfa xil to'siqlarga duch kelishi xalq eposlaridagi tipologik o'xshashliklarni safar jarayonida kuzatishimiz mumkin. Ushbu maqolada "Alpomish" va "Bilgamish" ("Gilgamish") eposlari bosh qahramonlarining Alp sifatida o'zga olamda shakillanishi, Alpning shakillanishi uchun safar sujeti amalga oshirilishini, shu safar va Alpning qiyinchiliklardan o'tishini ko'rib chiqamiz. Ushbu eposlarda o'zga olamga o'tish chegarasi Chilbir cho'li va O'lim daryosini hisoblanadi. Shu o'rinda chegaralar obrazlariga oydinlik kiritsak. Bulardan biri Alpomish eposidagi Chilbir Cho'li ya'ni o'zga olamga o'tish sujetini ko'rsak, Chiltonlar ilm karomat bilan Chilbir cho'lidan, Oyna ko'lidan, bahmal o'tovda uhlab yotgan yeridan Barchining ruhini olib ketadi, Alpomishning ham uhlab yotgan yeridan ruhini olib ketadi. Shu yerdan Alpomish Barchin bilan suhbatlashadi va o'zga olamga o'tish voqeligi

bo‘ladi. Dostonlardagi farqli jihatlarni ko‘rib chiqsak. Birinchidan, “Alpomish“ dostoniga to‘xtalsak, bunda o‘zga olam Qalmoq yurti hisoblanadi. Qalmoq yurtida Alp ko‘plab dushmanlarga duch keladi. Bular, Surxail kampir va uning 90 Alp o‘g‘illari, Qalmoq yurtining podshosi Toychixon. Alpomish dushmanlari qo‘ygan tuzoqqa tushadi. Mana shu tuzoqdagi davr Alp uchun juda muhim sanaladi chunki shu davr ichida Alp sinovlarga duch keladi va shu sinovlarni yengib o‘tgan Alpgina haqiqiy Alp bo‘lib yetishadi. Xo‘sh, Alpomish uchun berilgan sinovlarni tahlil qilsak, bulardan birinchisi G‘oz bilan bog‘liq sinovdir, ikkinchisi Qorajon bilan bog‘liq sinov va uchunchisi Tovka Oyim bilan bog‘liq sinovdir. Bu sinovlar Alpomishga chohga tushib qolgan paytda berilgan sinovlardir. Bularga birma bir to‘xtaladigan bo‘lsak, G‘oz bilan bog‘liq sinovda – G‘oz uch olam vakili hisoblanadi. Alpomish yarador G‘ozni davolaydi va u orqali o‘zining tirikligi haqidagi xatni yuboradi. Mana shu davr ichida Alpomish uch olam vakili hisoblangan G‘oz bilan aloqa o‘rnatadi. Alp uchun qo‘yilgan shart- uch olam sohibi bo‘lish amalga oshadi. Endi Qorajon bilan bo‘lgan sinovga keladigan bo‘lsak, Alpomishning tirikligini xabarini olgan Qorajon do‘sti Alpomishni qutqarish uchun yo‘lga chiqadi va do‘stining oldiga kelib uni chohdan olib chiqish uchun arqon tashlanganda Alpomish arqoni uzib Qorajon yordamini qabul qilmaydi. Bunga yetarlicha sabab mavjud bo‘lib, Alpomish bir millatning podshohi Qorajon do‘sti bo‘lsada o‘zga olam vakili hisoblanadi bunda Alpomish uning yordamini qabul qilib u orqali chohdan chiqsa uning millatini haqiqiy, yagona, to‘laqonli podshohi bo‘la olmaydi. Shu sababli, Qorajon yordamini rad etadi. Tovka Oyimni tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘zga olam yurtining malikasi hisoblanadi. Alpomish Tovka Oyim orqali chohdan chiqadi. Yaqin do‘stini yordamini qabul qilmagan Alpomish Tovka oyimdan foydalanadi. Bunga sabab nima? Shuni ayta olamizki, Tovka Oyim ayol obrazi bu ayol obraziga adabiyotlarda Shayton obrazi sifatida qaraladi. Buni nima aloqasi bor degan savol paydo bo‘lishi mumkin. Buning sababi shundaki, Alpomish Tovka Oyim bilan bo‘lgan davrda u orqali Shaytanat ilmini o‘rganadi va Shaytanat olamini ham egallaydi. Alpomishga berilgan bu sinovlardan ko‘rinib turibdiki, Alpomish mana shu davr ichida uch olam sohibi ya’ni yuqori olam – Samo, o‘rta olam – Yer va quyi olam – Shaytanat olamlarini egallaydi va O‘tda yonmas, Suvda cho‘kmas, Qilich chopmas bo‘ladi. Bu esa haqiqiy Sohibqiron Alp hisoblanadi. Endi “Bilgamish“ eposidagi o‘zga olam haqida gaplashsak. “Bilgamish“ eposida “Alpomish“ eposiga qaraganda qarama – qarshiliklarni uchratamiz. Ularni tahlil qilib chiqadigan bo‘lsak, bunda o‘zga olamga o‘tish chegarasi O‘lim daryosining eng quyi qismi hisoblanadi. Alpomish eposida Alp qiyinchiliklar bilan sinalgan bo‘lsa bunda aksincha, Bilgamish O‘zga olamda yaxshi obrazlarga duch keladi.

Bular Utnapishtim va uning xotini va  Urshanabi. Bilgamish uchun berilgan sinov shunday bo‘ladi;

Bilgamish oyoqlarin yozib, endi o‘tirgandiyam,-
Uni uyqu bosdi, cho‘lni bosgan chang-to‘zon kabi.
Utnapishti og‘iz juftlab, turmush o‘rtog‘iga dedi:
“Abadiyatni qidirayotgan qahramonga boq!
Uyqu uni qopladi, xuddi cho‘lga qo‘ngan chang-g‘ubor kabi“
“Turmush o‘rtog‘i, olisdagi Utnapishtiga dedi:
“Uni turtib qo‘y, u uyg‘onsin!
Kelgan yo‘lidan eson-omon qaytsin,
O‘zi kelgan darvozalar orqali uyiga borsin! “
Utnapishti og‘iz juftlab, xotiniga dedi:
“Inson deganlari yolg‘onchi! Seniyam aldar:
Ishonmasang non yop-u, uning boshi ostiga qo‘y,
Va uxlayotgan kunlarini devorda belgilayver“.

Shu muddat ichida qo‘yilgan nonlardan birinchisi- bo‘lindi, ikkinchisi-mog‘orladi, uchunchisi-yorildi, to‘rtinchisi-cheti oqardi, beshinchisi-qotdi, oltinchisi-yashangi holatda bo‘ldi va yettinchi noni qo‘yayotganda Bilgamish uyg‘onib ketdi. Shu orqali Utnapishtim Bilgamishga umirboqiylikning mohiyatini tushuntirdi ya’ni umirboqiylik tirik bo‘lib yashash emas balki, o‘zidan qoldirgan yaxshiliklari orqali bo‘lishini anglatdi. Utnapishtim Bilgamishga uyga qaytishini buyurdi va qaytayotganda unga Hayot Guli haqida aytib berdi. Bilgamish u gulni qo‘lga kiritdim deganda uni ilon olib ketdi. Utnapishtni maslahatlarini olgan va guldan ajralgan Bilgamish hayotning mohiyatini asl Umirboqiylikka qanday qilib erishish mumkinligini angladi va o‘z yurtiga qaytdi. Yuqorida aytgan safarimiz eposlarda shu bilan ortga qaytish orqali yakullanadi lekin, Eposlarda Alplar ortga qaytish jarayonida to‘siqlarga uchramaydi. Bunga sabab nima deydigan bo‘lsak, Alplar ular uchun berilgan sinovlardan o‘tishdi, sinovlarni yengishdi, uch olam egasi bo‘lishdi. Endi ular haqiqiy, to‘laqonli Alp bo‘lib shakillanishdi. Mana shu holatlar orqali Alpomish va Bilgamish  eposlarning tipologik o‘xshashliklarini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Alpning Alp bo‘lib shakillanishi uchun o‘zga olamga safar motivi amalga oshiriladi. Ikkala eposlarda ham Alplar o‘zga olamda haqiqiy Alp bo‘lib shakillanadi va o‘zga olamdan muayyan ilmlarni o‘rganib, ortga o‘z yurtiga qaytishadi. “Alpomish[22]“ eposida **zulm** voqeliklari tasvirlangan, “Bilgamish“ eposida esa **hikmat** voqeliklari tasvirlangan bo‘lsa ham, ikkala eposlarda Alplar shakillanishi uchun yetarlicha ilmlarga ega bo‘lishini bildiradi.

[22] Anvar Shukurov “Bilgamish“ dostoni 2020. B 57

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Amanova L. “Alpomish” - o‘zbek xalqining qomusiy eposi. Buxoro - 2017
2. Anvar Shukurov. “Bilgamish“ dostoni
3. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Mahmud Zarifov. “Alpomish” dostoni
4. www.ziyouz.com kutubxonasi

## O‘ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING MILLIY VA O‘ZIGA XOS IFODASI

*Berdiyeva Sabinabonu Zayniddin qizi*
*ToshDO‘TAU O‘FF 4-kurs*
*+998945673830*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada o‘zbek va ingliz adabiyotshunoslik lug‘atlari qiyosiy tadqiq qilingan. Mazkur lug‘atlarning milliy va o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lib, o‘zbek adabiyotshunoslik terminlaridan g‘azal, ruboiy, qit’a, nazira, tuyuq kabilar va ingliz adabiyotshunosligidan ode, metre, elegy, sonnet, pastiche kabilar tahlil etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *g‘azal, tuyuq, ruboiy, qit’a, nazira, sonnet, elegy, metre, pastiche, ode.*

**Abstract**: *In this article, Uzbek and English dictionaries of literary studies are comparatively studied. The national and specific features of these dictionaries were studied, and the terms ghazal, rubai, qita, nazira, tuyuk from Uzbek literature and ode, metre, elegy, sonnet, pastiche from English literature were analyzed.*

**Key words:** *ghazal, tuyuq, rubai, qita, nazira, sonnet, elegy, metre, pastiche, ode.*

Har bir millatning o‘zligini ifodalovchi tili va adabiyoti bor bo‘lib, bu milliylikni ifodalash atamalar orqali amalga oshiriladi. Har bir xalq adabiyotida o‘ziga xos bo‘lgan terminlari mavjud. O‘zbek adabiyotshunosligida g‘azal, qit’a, tuyuq, ruboiy, nazira, muxammas, fard, mustazod, musajja’, murabba’, musallas, musabba’, tarjiband, tarji’, tamsil, talmeh, tarkibband, tarse’, tafre’, tarix, musaddas, munsarih, mujtass, mukarrar, muzori’, muvashshah, muvozana, muammo, muashshar va boshqa ko‘plab badiiy san’at hamda she’riy janrlarga oid milliylikni ifodalovchi terminlar mavjud bo‘lib, bu terminlardan g‘azal, ruboiy, qit’a, muxammas, nazira, tuyuq kabilarning tahlili amalga oshiriladi.

**G‘AZAL**

“Adabiyotshunoslik lug‘ati”da g‘azal (ar. -ayollarga xushomad qilish, ayollarni madh etish) - Sharq mumtoz she’riyatida eng ko‘p tarqalgan lirik janr, 3-4 baytdan 19 baytgacha bo‘lgan hajmda yozilib, a-a, b-a, v-a, g-a… tarzida qofiyalanuvchi she’r.(Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Академнашр,2013, 201.)

Lug‘atda g‘azalning baytlar soni 23 baytgacha bo‘lgan g‘azallar ham adabiyot tarixida uchrashligi qayd etilgan. G‘azalning tarixiga ham murojaat qilinib, VII asr arab she’riyatida paydo bo‘lganligi, fors-tojik adabiyotida ilk g‘azallar muallifi sifatida Abu Abdullo Rudakiy, o‘zbek adabiyotidagi ilk g‘azal namunalari uchraydigan asarlar sanab o‘tilgan. Bular: Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Said Ahmadning “Taashshuqnoma” kabi asarlar.
Mazkur janrda ijod qilgan ijodkorlar sifatida mumtoz shoirlardan Sayfi Saroyi, Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Huvaydo, So‘fi Olloyor, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabilar e’tirof etilgan. Yangi davr she’riyatida g‘azalchilik an’analarini davom ettirgan ijodkorlardan Habibiy, Charxiy, Chustiy, E.Vohidov, J.Kamol kabilar keltirilgan.
G‘azalning mavzuviy jihatlariga ham to‘xtalingan, shuningdek, uni oshiqona, orifona, rindona, hajviy, publitsistik, axloqiy-ta’limiy turlarga bo‘lingan. Mazkur janr o‘zbek mumtoz she’riyatida keng qo‘llanganligi uchun uning boshqa qator ko‘rinishlari borligi qayd etilgan. Bular:

1. qofiyalanish tartibi yoki qofiya san’atlarining qo‘llanishiga ko‘ra g‘azali husni matla’ (a-a, a-a, b-a, v-a…), g‘azali qit’a (b-a, v-a, g-a…); g‘azali musajja’ (barcha baytlarda ichki qofiya bor), g‘azali zebqofiya (a-a, a-a, a-a, a-a…), g‘azali zulqofiyatayn (a-a, b-b, v-v, g-g…);
2. biror she’r san’ati asosiga qurilgani yoki yaratilish tarziga ko‘ra g‘azal-muvashshah, g‘azal-chiston, g‘azal-nazira, g‘azal-mushoira

G‘azaldagi baytlarning o‘zaro munosabati nuqtai nazaridan ham bir qator ko‘rinishlari tasniflangan:

1. Yakpora g‘azal. Uning barcha baytlarida bir mavzudan so‘z yuritiladi.
2. Parokanda g‘azal. Baytlarda turli mavzularda so‘z yuritiladi, uning butunligi vazn, qofiya, radif birligi hisobiga ta’minlanadi.
3. Musalsal g‘azal. Baytlari o‘zaro zanjirli bog‘lanish hosil qilib, matla’da qo‘yilgan mavzu silsilaviy tarzda rivojlantirib boriladi.
4. Voqeaband g‘azal. Kechinma biror-bir voqeaning mo‘jaz bayoni orqali ifodalanadi.

G‘azaldagi boshlanma, tugallanma haqida ham ma’lumot keltirilgan, birinchi bayt matla’ yoki mabda (boshlanish, boshlanma), oxirgi bayt esa maqta’ (tugallanma, xotima) deb yuritilishi matla’dagi ilk so‘zlar yoki misra yoki radifi g‘azal nomi sifatida yuritilishini qayd etilib, misollar keltirilgan: matla’ (Navoiyning “Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi, Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi” matla’li g‘azali), ilk misrasi (Navoiyning “Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali), radifi (Navoiyning

“Topmadim” radifli g‘azali), matla’dagi ilk so‘zlar (Navoiyning “Qaro ko‘zum” g‘azali) kabilar.

Lug‘atda ko‘rib o‘tilganidek g‘azal , uning ma’nosi, izohi, tarixi, turlari, qofiyasi, mazkur janrda ijod qilgan ijodkorlar haqida keng ma’lumotlar keltirilgan, biroq g‘azallardan misollar keltirilmagan.

**RUBOIY**

Ruboiy “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati” va “Adabiyotshunoslik lug‘ati” kitoblarida (ar. - to‘rtlik) hazaj bahrining axram va axrab shajaralarida yoziladigan mustaqil janr ekanligi qayd etilgan. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da ruboiy tarixiga ham yuzlanilgan: asoschisi sifatida Abu Abdullo Rudakiy hisoblanishi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida, shuningdek, yozma adabiyotimizning Navoiygacha bo‘lgan davrida dubaytiy vazniga tushadigan to‘rtliklar ko‘plab yaratilgan bo‘lsa-da, ruboiy vazniga tushadigan to‘rtliklar uchramasligi, Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi to‘rtliklar mutaqorib, Nasimiy, Lutfiy to‘rtliklari esa ramalda yozilganligi, Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida ruboiy sifatida keltirilgan fors tilidagi misollar hazaj bahrida, turkiydagilari esa ramali musaddasi maqsur (yoki mahzuf) vaznidaligi qayd etilgan.

“Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da ruboiy janrining taraqqiyoti Bobo Tohir Uryoniy, Umar Xayyom, Jomiy, Navoiy, Bobir, Xoja, Huvaydo, Ogahiy kabi ijodkorlarning nomlari bilan bog‘liqligi ifodalangan.

Ikkala lug‘atda ham ruboiyning qofiyalanish tartibiga ko‘ra : xosiy ruboiy va ruboiyi tarona turlari ko‘rsatilgan bo‘lib: birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi misralari o‘zaro qofiyalanib, uchinchi misrasi ochiq qoladigan (a-a-b-a) turi xosiy ruboiy, to‘rtala misrasi o‘zaro qofiyalanadigan (a-a-a-a) ruboiy tarona ruboiy.

Ushbu lug‘atlarda Navoiy va Bobur robiylaridan misollar keltirilgan. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da ikki turiga bittadan mos ravishda misol beriladi:

Xosiy ruboiy yoki ruboiyi xosa:

Hijronda sog‘inib meni shod etgaysen,
Men xastani muxlis e’tiqod etgaysen,
Bu xatni aning uchun bitidim munda,
Ko‘rgach bu xatimni meni yod etgaysen (Bobur).

Ruboiy tarona yoki taronayi ruboiy, Alisher Navoiy ruboiyning bu xilini ruboiya deb atagan:

Ko‘nglumni g‘amu dard ila qon ayladi ishq,
Ko‘z yo‘lidin ul qonni ravon ayladi ishq.
Har qatrani bilmadim qayon ayladi ishq,
Bedil ekanim buyla ayon ayladi ishq (Navoiy).

“Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-oʻzbekcha izohli lugʻati”da mazmunning ixcham va loʻnda shaklda berilishi, falsafiy umumlashmaning baquvvatligi, toʻrt misradan iborat she’riy hajmda shu teran va yaxlit falsafiy umumlashmani ifodalay olishi jihatidan misollar keltirilgan:

Soʻzdurki nishon berur oʻlukka jondin,
Soʻzdurki berur jonga xabar jonondin.
Insonin soʻz ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yoʻq ondin. (Navoiy)

Kim yor anga ilm, tolibi ilm kerak,
Oʻrgangali ilm, tolibi ilm kerak.
Men tolib ilmu tolibi ilm yoʻq.
Men bormen ilm tolibi, ilm kerak. (Bobir)

“Adabiyotshunoslik lugʻati”da ruboiyning kompozitsion qurilishi masalasiga alohida toʻxtalib, dastlabki ikki misrada gʻoya va maqsad, keyingi ikki misrada dalil va xulosa keltirilishi jihatidan birinchi misrasi tezis, ikkinchisi antitezis, uchinchi moddai ruboiya, toʻrtinchu misra esa sintez deyilishi ifoda etilgan.

“Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-oʻzbekcha izohli lugʻati”da ruboiy keyingi davr poeziyasida ham mavjudligi, M.Shayxzoda, Habibiy, Ramz Bobojon kabilar ijodida uchrashi ta’kidlangan.

**QIT’A**

Qit’a ham sharq mumtoz she’riyatida keng tarqalgan janr boʻlib, milliy istiloh hisoblanadi. Mazkur termin “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-oʻzbekcha izohli lugʻati”da keltirilmagan boʻlsa-da, “Adabiyotshunoslik lugʻati”da keng izoh berilgan.

Qit’a (ar.  - parcha, boʻlak, qism, bir kesim) ikki baytdan bir necha oʻn baytgacha (ayrim manbalarda 19 baytgacha deb belgilangan) hajmdagi, juft misralari oʻzaro qofiyalanib, toq misralari ochiq qoluvchi (b-a, v-a, g-a tarzida) she’r shakli; lirik janr. (Куронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати.  Академнашр, 2013, 388.)

Lugʻatda oʻzbek adabiyotida qit’aning ilk namunalari Ahmad Yassaviy ijodida uchrasa, keyingi davrlarda barcha ijodkorlar lirik merosida mazkur janr salmoqli oʻrin egallaganligi, qit’aning oʻzbek adabiyotida qaror topishi va takomilida Alisher Navoiyning oʻrni beqiyos ekanligi qayd etilib, lirik merosidagi qit’alar soni asarlari misolida keltirilgan. Navoiy merosida qit’aning masnaviy tipida qofiyalanuvchi xillari ham uchrashiga misol keltirilgan:

Nukta asnosida Habibulloh
Dedi, alkasibu habibulloh.

Ma’ni aytur bu so‘zga piri komil
Ki, so‘zu erdi haq sari shomil.
G‘araz ermas, bu kasbdin dunyo,
Bal erur kasbdin murod fano.

**MUXAMMAS**

Muxammas lirik turga mansub besh mirsali bandlardan tarkib topgan she’r shakli sanalib, ma’nosi “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati” va “Adabiyotshunoslik lug‘ati” kitoblarida (ar.  -beshlik) deya ifodalangan. Qofiyalanishi: dastlabki band misralari (a-a-a-a-a), keyingi bandlarining avvalgi to‘rt misrasi o‘zaro, oxirgi misrasi esa birinchi band bilan (b-b-b-b-a, v-v-v-v-a va h) tarzida bo‘ladi. Ikkala lug‘atda ham muxammasning ikki turi ko‘rsatilgan:

1. Mustaqil muxammas: mumtoz adabiyotshunoslikda “tab’i xud muxammas” deb yuritilib, uning barcha misralari bir shoir qalamiga mansubdir. Mazkur muxammas turida ijod qilgan ijodkorlar sifatida “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da Hofiz Xorazmiy, Navoiy, Mashrab, Ogahiy keltirilgan. Muxammasning bu turiga misol ularoq “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da:

…Gar meni majnuni shaydo no‘ya qilsam bahru bar,
Yo‘qsa shahru kuy aro har yon yugursam bexabar.
Demagikim, har eshikka nevchun aylabsan guzar.
Ey pari, gar telbarab bo‘lmish Navoiy darbadar,
Bu durur maqsud angakim, istagay har yon seni.  (Navoiy)

2. O‘zga shoir g‘azaliga bog‘langan muxammas taxmis deb atalib, u taxmischi shoirning o‘zga shoir g‘azalidagi har bir baytga o‘zidan yana uch misra qo‘shish orqali yaratiladi.

“Adabiyotshunoslik lug‘ati”da taxmis bog‘lagan mumtoz so‘z san’atkorlaridan Navoiy, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabilar, yangi davr shoirlaridan Habibiy, Chustiy, E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, J.Kamol kabilar va shular qatoriga  “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da Vasfiy, Charxiy, S.Abdulla, Oydin Hojiyevalar ham kiritilgan.

**NAZIRA**

Sharq adabiyotida nazira bitish ancha keng tarqalgan, zamondosh shoirlar yoki salaflar bilan o‘ziga xos ijodiy musobaqa tusini olgan an’ana hisoblanib, ikkala lug‘atda ham ma’nosi quyidagicha izohlangan:

Nazira (ar.  - o‘xshash, o‘xshash narsa, namuna), o‘zga shoir she’riga ergashish yo‘li bilan, unga o‘xshatma tarzida yoki javob sifatida yaratiluvchi she’r.[23]

Nazira tatabbu’(ar. biror narsaning ketidan tushish, izidan borish) deb ham yuritilishi qayd etilgan. “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da

mazkur termin izohi keng yoritilmagan, biroq “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da ko‘pgina ma’lumotlar va misollar keltirilgan.

“Adabiyotshunoslik lug‘ati” da naziraga nisbatan tazmin atamasi ham ishlatilishi, biroq tazmin va nazira jiddiy farqlanishi va farqlari haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, nazira bitgan shoirlar va ularning naziralari sifatida quyidagilar e’tirof etilgan:

“Devoni Foniy” Navoiyning Hofiz Sheroziy, Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Sa’diy, Mavlono Kotibiy, Mavlono Shohiy, Kamol Xo‘jandiy, Husayniy, Vafoiy, Qosim Anvor kabi o‘nlab shoirlar she’rlariga bog‘langan naziralardan tarkiblangan. Mumtoz adabiyotimizda g‘azal, qasida, murabba’ va masnaviylarga nazira bog‘lash kengroq ommalashgan. Mas., Jomiyning “Lujjat ul-asror” qasidasi Xisrav Dehlaviy qasidasiga, Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoniga, noma janridagi “Taashshuqnoma” (Said Ahmad) bilan “Latofatnoma” (Xo‘jandiy) Xorazmiyning “Muhabbatnoma”siga, Haziniyning “Arzim eshit , ey zolimu sitamgar” misrasi bilan boshlanuvchi murabba’si esa Muqimiyning “Arzim eshit, ey sarvi ravonim” misrasi bilan boshlanuvchi mashhur murabba’siga naziralardir.

**TUYUQ**

“Adabiyotshunoslik lug‘ati”da tuyuq (turkiy -tuymoq, his qilmoq) -turkiy xalqlar she’riyatidagi to‘rt misralik, tajnisli qofiyaga asoslangan, ramali musaddasi maqsur vaznida yoziluvchi lirik janr.

Tuyuq janri takomiliga hissa qo‘shgan mumtoz shoirlardan Lutfiy, Navoiy, Bobur, Yusuf Amiriy, Ubaydiy, Ogahiy kabilar sanab o‘tilgan. Lutfiydan misol keltirilgan va sharhlangan:

Ko‘z yoshum tuproq ila gar qotila,
Kelmagayman javridin, haqqo, tila.
G‘amzasi o‘ltirdi-yu, ul bexabar,
Men agar o‘lsam, ne g‘am ul qotila.

“Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da izohiga keng o‘rin ajratilmagan, biroq Navoiyning “Mezon ul-avzon” asaridagi tuyuqqa berilgan ta’rif o‘rinli berilgan va Navoiy tuyug‘idan misol keltirib, tahlil qilingan:

Yog‘di javring o‘qi hajring toshidek,
Qildi qon ko‘nglum ichin ham toshidek,
Sochqali mohim ayog‘ig‘a sipehr,
Ko‘z yoshumning la’lu durrin toshidek.

Ikkala lug‘atdan olingan g‘azal, ruboiy, qit’a, muxammas, nazira, tuyuq kabi istilohlarning nazariy tasnifiga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da

g‘azal terminiga keng izoh berilgan, ma’nosi, turi, qofiyasi kabilar batafsil yoritilgan, shuningdek tarixi va taraqqiyotiga ham to‘xtalib kimlar mazkur janrda ijod qilganligi sanab o‘tilgan, biroq g‘azallardan misol sifatida misralar keltirilmagan. Qit’a istilohining izohiga ham keng to‘xtalingan, ma’nosi, qofiyasi, mazmuni haqida ma’lumotlar keltirilgan va Navoiy qit’asidan bitta misol berib, tahlil qilingan. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da bu ikki termin berilmagan, chunki “G‘” va “Q” harfiga oid terminlar bu kitobdan joy olmagan. Muxammas, nazira, tuyuq atamalari ikkala lug‘atda ham keltirilgan bo‘lib, “Adabiyotshunoslik lug‘ati” nazariy tasniflash jihatidan “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”dan ustunlik qiladi.

Ingliz adabiyotshunosligida ham ode, metre, elegy, baroque, sonnet, antagonist, cacophony, cento(nism), epistle, euphony, farce, gothic, kinetic, logocentrism, metafiction, monody, negritude, pastiche, pastoral, phallologocentrism, picaresque, tenor va boshqa ko‘plab terminlar mavjud bo‘lib, mazkur bob uchun ode, metre, elegy, sonnet, pastiche kabilar tahlilga tortilgan.

**ODE - ODE (QO‘SHIQ)**

“A Dictionary Literary Terms and Theory” kitobida ode grekcha qo‘shiq, bir qancha uzunlikdagi lirik she’r deb ta’riflangan. Murakkab bayt tuzilmasiga ega, ohangi va uslubi rasmiy, yuksak his-tuyg‘ularni ifodalashi va uning ikki turi mavjudligi qayd etilgan, bular: 1) the public (xalqqa xos) 2) the private (shaxsiy)

Dafn marosimlari, tug‘ilgan kun, davlat tadbirlari kabi tantanali marosimlar uchun birinchi turidan foydalaniladi, ikkinchisi subyektiv holatlarni ifodalash uchun mos. Tennisonning “Ode on the Death of the Duke of Wellington” birinchisiga, Keatsning “Ode to a Nightingale” asari ikkinchisiga misol bo‘ladi.

Ilk yozilgan odelar Safo va Alkey tomonidan yozilganligi, Safoning “Ode to Aphordite” ya’ni Afroditaga, Alkeyning “Ode to Castor and Polydeuces” Kastor va Polidevkka yozgan odelaridan parchalar haligacha saqlanib qolganligi, bu ikkisidan keyingi ode yozganlardan biri Pindar hisoblanishi, uning odelari ommaviy bayramlar, yunon o‘yinlarida g‘alaba qozonganlar sharafiga yozilgan bo‘lib, yunon dramaturgiyasining eng nodir namunalari ekanligi qayd etilgan. Lug‘atda:

Pindardan so‘ng Goratsiy ham bir qancha odelar yozgan bo‘lib, uning odelari asosan alkeik va safoik shaklda yozilgan. Pindar va Goratsiy Yevropa uyg‘onish davri rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ayni paytda Provans canzo va Italyan canzonega yaqinlashgan. Dante canzonega quyidagicha ta’rif bergan: “bir mavzuda yoziladigan xor intermediyalarisiz fojiali uslubdagi kompozitsiyaga ega shakl”. Mazkur shakl Dante, Giniseli (Guinicelli) va ularning izdoshlari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Spenserning “Epithalamion” (1595) va “Prothabalamion” (1596) kabi asarlari shu

shaklda yozilgan. “Epithalamion” yigirma uchta muntazam qofiyalangan o‘n sakkiz misrali baytdan iborat.

XVI asr oxiri XVII asr boshlarida Uilyam Drummond, Semyuel Daniel va Maykl Drayton kabi ijodkorlar ode yozishga harakat qilishgani, biroq Ben Jonson Pindarik an’anani davom ettirgan holda yana ode yozishni boshlab berganligi, uning “Ode to Sir Lucius Cary and Sir H.Morison” (1629) nomli odesi borligi haqida gapirilib, misol keltiriladi:

It is not growing like a tree
In bulk, doth make man better be;
Or standing long an Oak, three hundred year,
To fall a log at last, dry, bald, and sear.
A Lily of a day
Is fairer far, in May
Although it fall and die that night;
It was the plant and flower of light.
In small proportions we just beauties see;
And in short measure, life may perfect be. (Cuddon J.A. A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory.Wiley- Blackwell, 2013. -P.506.)

Keyinchalik E.Marvell o‘zining “Ode upon Cromwell’s Return from Ireland” (1650) (“Kramvelning Irlandiyadan qaytishi”) va Abram Kovley Pindarik deb nomlangan odelarini nashr ettirdi. Uning odelari rang-barang va misralardagi metrlar erkin ifodalangan, bu esa Drydenga katta ta’sir o‘tkazdi. Uning quyidagi to‘rtta odesi adabiyot tarixidagi eng sara odelar hisoblanadi. Ular: “Threnodia Augustalis” (1685); “Ode to the Memory of Mrs Anne Killigrew” (1686); “Song for St Cecilia’s Day” (1687); va “Alexander’s Feast” (1697).

Pindarik uslubida ode yozgan ijodkorlar sanab o‘tilgan:

Lady Winchilsea “The Spleen”

Pope dastlab Horation uslubida “Ode on Solitude” asarini, keyinchalik Pindaric uslubida “Ode for Music on St Cecilia’s Day” asarini yozgan.

Shuningdek, Congreve, Isaak Watts, Akenside, Young ham Pindaric uslubida odelar yozgan va muvaffaqiyatga erishganlar. Oktavian Avgust davrining buyuk odelarini yozgan Cowper edi. Collins ham bir qator odelar yozgan: “Ode to Evening” , “Ode to Simplicity” (bu ikkisi Horatian shaklida), “Ode to Fear”, “Ode to Mercy”, “Ode on the Poetical Character”, “Ode to Liberty” kabilar.

Grayning odelari ham o‘ziga xosligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi: “The Ode on Spring” (1742), “Ode on a Distant Prospect of Eton College” (1742), “Ode on Adversity” (1742) va “Ode on the Death of a Favourite Cat” (1747)

Undan keyin Coledrigning “France” (1798), “Dejection”(1802), Shellyning “Ode to the West Wind” (1819); Keats tomonidan 1819-yillarda 6 ta ode yozilgan: “On a Grecian Urn”, “To a Nightingale”, “To Autumn”, “On Melancholy”, “On Indolence” va “To Psyche”

Lirikaning bu janrida ijod qilgan taniqli ingliz shoirlari: Robert Xerrik, Valter Savaj Landor, Metyu Arnold, Koventri Patmor, Frensis Tompson va Algernon Charlz Svinbern.

Ode janrida Angliyadan tashqarida, ayniqsa Italiya, Fransiya va Germaniyada ham ko‘p she’rlar yozilgan. Italiyada Uyg‘onish davrida Trissinio, Minturno va Alaman kabilar odelar yozgan. Fransiyada 1550-yilda Ronsord “The First Four Books of Odes” kitobini yozib bu janrda muvaffaqiyatga erishdi, bundan ta’sirlanib italiyan shoirlari Tasso va Chiabrera ham bir qancha e’tiborga molik odelar nashr ettirgan. Undan keyin Manzoni, Leopardi, Karduchi kabilar ajoyib odelar yaratdi. Germaniyada XVII asrda Vekerlin tomonidan bu janrga asos solingan. Keyingi asrda Gyote, Klopstok va Shiller klassik uslublardan foydalanishni qayta tikladilar deya qayd etilgan.

Ode janri haqida “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” va “The Routledge Dictionary of Literary Terms” lug‘atlarida ham ma’lumotlar keltirilgan, biroq eng mukammal izoh “A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory” kitobida berilganligi sababli mazkur kitobdagi ma’lumotlar bilan cheklanamiz.

**ELEGY - ELEGIYA**

“A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory” kitobida:

Elegiya (grekcha “lament”). Klassik adabiyotda elegiya har qanday she’r bo‘lib, elegik distichlardan tashkil topadi, shuningdek elegiyalar elegiklar ham deb ataladi. Elegiya mavzulari turli xil bo‘lib, ular o‘lim, sevgi, urush kabilardir. Elegiya asosan motam she’rlari uchun qo‘llangan, XVI asrdan boshlab alohida shaxs uchun motam she’ri yoki qandaydir fojiali voqea uchun nolali she’r vazifasida qo‘llash boshlangan. XVI asr boshlarida turli xil mavzularda elegiyalar yozilgan, masalan: Donne “Elegie V: His Picture” va “Elegie XVI: On his Mistris” . Keyinchalik elegiyada jiddiy mavzudagi she’rlar yozila boshlangan. Masalan: OEning “The Wanderer”, “The Seafarer” va Deorning “Lament”, Tomas Nashening “Adieu, farewell earth’s bliss”, Jonsonning “Vanity of Human Wishes”, Goldsmitsning “The Deserted Village”, Greyning “Elegy Written in a Country Churchyard”, Yangning “Night Thoughts”, Ketsning “Ode to Melancholy” va “ Volt Vitmanning “When Lilacs Last in the Dooryard Bloomed” kabilar.

Ko‘pgina elegiyalar maxsus insonlarga bag‘ishlangan aza qo‘shiqlari bo‘lganligi qayd etilib, misol sifatida quyidagilar keltirilgan:

Tomas Keryuning Jon Donne haqidagi elegiyasi, Jon Klevlendning Ben Jonson haqidagi, Genry Kingning “Exequy”, Popening “Verses to the Memory of an Unfortunate Lady”, Dr Jonsonning “On the Death of Mr Robert Levet”, Tennisonning “Ode on the Death of the Duke of Wellington” va Audenning “In Memory of W.B.Yeats” kabilar. Bularga qo‘shimcha ravishda “Astrophil” va “Daphnaida” kabilar, shuningdek, ingliz adabiyotida to‘rtta mashhur elegiya bor: Miltonning “Lycidas”, Shelleyning “Adonais”, Tennisonning “In Memoriam” va Matthyu Arnoldning “Thyrsis” kabilar.

Bu to‘rt elegiyadan uchtasi “pastroral elegiya” deb nomlanuvchi kichik janrga tegishli bo‘lib, ularning kelib chiqishi uchta Sitsiliya shoiri: Theocritus (mil.avv 3-asr), Moschus (mil.avv. 2-asr), Bion (mil.avv. 2-asr) larning marsiyalariga borib taqaladi. Spenser ingliz adabiyotining ilk shoirlaridan bo‘lib, Sir Filip Sidney uchun “Astrophil” (1586), Sir Artur Jorjning o‘limi munosabati bilan “Daphnaida” (1591) kabi elegiyalar yozgan.

Pastoral elegiya tarkibi quyidagicha ko‘rsatilgan:

a) sahna. Shoir va u motam tutgan odam cho‘pon sifatida tasvirlanadi;
b) shoir she’rni nido bilan boshlaydi va mifologik personajlarga murojaat qiladi;
c) tabiat cho‘ponning o‘limiga motam tutadi;
d) shoir o‘lgan cho‘ponning vasiylaridan u o‘lyotgan paytda qayerda ekanliklarini so‘raydi;
e) motam tutganlarning yurishi tasvirlanadi;
f) shoir ilohiy adolat va zamon illatlari haqida fikr yuritadi;
g) gulzor tasvirlanadi.

Yakunda o‘lim hayotining boshlanishi haqida fikr bildiriladi.

XX asrdagi Ikkinchi Jahon urushini tasvirlovchi urush va motam ruhidagi bir qator elegiyalar yozilgan. Dastlabki elegiyalar xotirlash va tasalli berish uchun yozilgan bo‘lsa, so‘nggi paytlarda yaratilgan elegiyalarga siyosiy tus berildi: Wilfred Owenning “First World War”she’rlari, Anna Akhmatovaning “Requiem” (1940), Paul Celanning “Death Fugue” (1948), Robert Lowellning “For the Union Dead”(1960), Carolyn Forchйning “The Country between Us” (1981) va Thom Gunning “The Man with Night Sweats” (1992) kabilar shular jumlasidandir.

Elegiya haqida “The Routledge Dictionary of Literary Terms” lug‘atida ham yuqorida keltirilgan ma’lumotlar qayd etilgan va unga qo‘shimcha sifatida elegiya haqida ko‘proq ma’lumot olish uchun ilmiy tadqiqotlar ro‘yxati keltirilgan: A.F.Potts, *The Elegiac Mode* (1967); Peter M. Sacks, *English Elegy: Studies in the Genre from Spenser to Yeats* (1985); Jahan Ramazani, *Poetry of Mourning: The Modern Elegy from Hardy to Heaney* (1994). ( P. Child, R. Fowler, The Routledge Dictionary of Literary Terms.Routledge Taylor and Francis Group, 2006, 67.)

**SONNET- SONET**

“A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory” kitobida sonetga quyidagicha ta’rif berilgan:

Sonet (italyancha “qo‘shiq” so‘zidan) olingan. Petrarka boshqa shoirlarga qaraganda, sonetni lirik turning asosiy she’riy shakllaridan biri sifatida eng ko‘p yaratgan ijodkor hisoblanadi. Sonet o‘n to‘rt misradan tashkil topgan, yambik pentametrlarni o‘z ichiga oluvchi lirik janrdir. Uning uchta asosiy shakli mavjud:

1. Petrarka. abba abba qofiyali yoki qofiyasi cde cde (yoki cdc cdc) .
2. Spenserin. abab, bcbc, cdcd, ee qofiyalaridan iborat .
3. Shekspir. abab, bcbc, cdcd, ee qofiyali.

Italiya shakli eng ko‘p tarqalgan. Sonet XVI asr boshlarida Sir Tomas Uayt tomonidan ingliz tiliga kirgan, biroq XVI asrning oxirida Angliyada mazkur janrda dastlabki sonetlar yozilgan. Ilk sonet Ser Filipp Sidney tomonidan (taxminan 1580-yillarda) yozilgan va 1591-yilda chop etilgan: “Astrophil and Stella”

Ingliz adabiyotida eng ko‘p sonetlar ketma-ketligi Shekspirning sonetlari bo‘lib, 154 sonetdan iborat, bular 1609-yilgacha nashr etilmaganligi qayd etilib, 94-raqamli soneti misol sifatida keltirilgan:

They that have power to hurt, and will do none,
That do not do the thing they most do show,
Who, moving others, are themselves as stone,
Unmovиd, cold, and to temptation slow;
They rightly do inherit heaven’s graces,
And husband nature’s riches from expense;
They are the lords and owners of their faces,
Others, but stewards of their excellence.
The summer’s flower is to the summer sweet,
Though to itself, it only live and die,
But if that flower with base infection meet,
The basest weed outbraves his dignity:
For sweetest things turn sourest by their deeds;
Lilies that fester, smell far worse than weeds. (Cuddon J.A. A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory.Wiley- Blackwell, 2013,686.)

XVII asr boshlarida sevgi haqida sonetlar yozilmay qo‘yilgandi. Ben Jonson, Yakoben va Karolin kabi ijodkorlar davrida hech bir lirik shoir sonet yozmagan. Biroq Donne “Holly Sonnets” nomi ostida diniy mavzudagi o‘n to‘qqizta sonet yozgan. Shundan keyin Milton davrigacha sonetlar yozilgan, biroq Miltondan so‘ng yuz yildan ko‘proq vaqt davomida sonetlar yozilmay qo‘ygandi. Romantizm davrida

sonet yozishga qiziqish boshlandi va Wordsworth, Keats, Shelley, Baudelaire kabi shoirlar bir qator ajoyib sonetlar yaratdi.

Mazkur lug‘atda sonet yozgan shoirlar va ularning asarlari sanab o‘tilgan:

Wordsworthning “Composed upon Westminster Bridge”, “September 3”, “1802”, “To Toussaint L’ Ouverture”, “On the Extinction of the Venetian Republic”; Shelleyning “Ozymandias”, “England in 1819” ; Elizabeth Barrett Browningning “Sonnets from the Portuguese”; Christina Rosettining “Monna Innominata”; Dante Gabreil Rossettining “The House of Life”; Vikram Sethning “The Golden Gate” va shu kabilar.

Sonet haqida “The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” kitobida ham ma’lumotlar keltirilgan, “The Routledge Dictionary of Literary Terms” kitobida sonet haqida to‘liqroq ma’lumot olish uchun ilmiy manbalar ko‘rsatilgan bo‘lib, ular quyidagilar: J. W. Lever, *The Elizabethan Love Sonnet* (1956); Hallett Smith, *Elizabethan Poetry* (1952); Antony Easthope, *Poetry as Discourse* (1983). Shuningdek, mazkur lug‘atda Ben Jonson va Donnelarning sonetlaridan misollar keltirilgan:

We’ll build in sonnets pretty rooms;
As well a well wrought urn becomes
The greatest ashes, as half-acre tombs (Donne).

**PASTICHE**

“A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory” kitobida pastichie (italyancha “pasta” so‘zidan) olinganligi, turli mualliflar yoki bitta muallifning asarlaridan jumlalar yoki to‘liq parchalari ko‘chirib yozilgan asar turi hisoblanishi, pastichening murakkab shakli bir yozuvchining uslubida yozilgan asar (misol uchun roman) ekanligi, bu uslubdagi asarga eng yaxshi misol sifatida esa Piter Akkroydning “The Last Days of Oscar Wilde” (“Oskar Uayldning so‘nggi kunlari”) (1983) berilgan.

“The Routledge Dictionary of Literary Terms” kitobida pastiche asarning bir qismiga yoki butunga qo‘llanishi uning asosan boshqa muallif(lar)ning asar(lar)idan ozmi-ko‘pmi o‘zgarmagan holda olingan iboralar, motivlar, epizodlar, tasvirlar va hakazolar iborat bo‘lishi, pastiche plagiat emasligi, aksincha ma’lum asardan ilhomlanib yaratiladigan asar turi ekanligi haqida ma’lumotlar keltirib, pastichega misol sifatida Joysning “Uliss” asari ham keltirilgan. Lug‘atda shuningdek, pastiche haqida Fredrik Jeymsonning fikri keltirilgan: “Pastiche parodiya kabi o‘ziga xos idiosinkretik uslubga taqlid qilish, o‘lik tilda gapirish”

Mazkur lug‘atda pastiche haqida batafsil ma’lumot olish uchun ilmiy manbalar keltirilgan:

Barbara Barber, *Pastiche* (1997); Ingeborg Hoesterey, *Pastiche: Cultural Memory in Art, Film, Literature* (2001); Fredric Jameson, *Postmodernism: Or, the Cultural Logic of Late Capitalism* (1992).(P. Child, R. Fowler,The Routledge Dictionary of Literary Terms. Routledge Taylor and Francis Group, 2006,167.)

**METRE yoki METER**

"The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms" kitobida: metre (meter deb ham ataladi), misra satrlarida ko‘p yoki kam takrorlanadigan tovush birliklarining muntazam o‘lchovi hisoblanadi. She'r to‘rtta asosiy metrik tizimdan birida tuzilishi mumkin:

1. *quantitative metre*, yunon va lotin tillarida qo‘llaniladigan miqdoriy o‘lchovda uzun va qisqa bo‘g‘inlar ketma-ketligidir.
2. *syllabic metre*, fransuz va yapon tillaridagi kabi, misralardagi bo‘g‘inlar sonini o‘z ichiga oladi
3. *accentual metre,* qadimgi ingliz tilida va keyinchalik mashhur ingliz misralarida topilgan, urg‘usiz bo‘g‘inlar sonidan qat'iy nazar, misralardagi urg‘uli bo‘g‘inlar soni
4. *accentual-syllabic metre,* misralarda bo‘g‘inlar umumiy soni doirasida mos ravishda joylashtirilgan urg‘uli bo‘g‘inlarning muntazam sonidan iborat.

Metrik chiziqlar fut(feet) bo‘g‘inlar soni bilan o‘lchanadi, shunga ko‘ra dimeter - ikki, trimeter-uch, tetrameter- to‘rt, pentameter- besh, geksameter-olti, pegtameter- yetti bo‘g‘inli she'r tizimidir.

Ikki duple metrdan ingliz adabiyotida eng keng tarqalgani yambik metr bo‘lib, unda urg‘uli bo‘g‘inlar ko‘pincha ular bilan almashinadigan urg‘usiz bo‘g‘inlardan keyin qabul qilinadi (x/x/x/va hokazo). Bu yambik metrga misol sifatida Jon Drydenning misralari keltirilgan:

And doom'd to death, though fated not to die.

Ingliz adabiyotida yambik metrdan ko‘ra troxaik metr ko‘proq qo‘llangan va unda urg‘uli bo‘g‘inlar urg‘usiz bo‘g‘inlardan oldin turadi, bo‘g‘inlar bir-biri bilan almashinib qo‘llanishi mumkin. Troxaik tetrametrga Longfellowning misrasi misol sifatida keltirilgan:

Dark behind it rose the forest

Shuningdek, *dactylic metre* ham bo‘lib, unda bo‘g‘inlar urg‘usiz bo‘g‘inlarning oraliq juftlaridan oldin kelishi seziladi, masalan, Tennysonning quyidagi misrasi keltirilgan:

Cannon in front of them.

*Anapaestic metre* ham bor bo‘lib, bunga misol sifatida Arnoldning anapaestic tremetri keltirilgan:

Of your fainting, dispirited race.

Metr termini “A Dictionary Literary Terms and Theory” kitobida “meter” deb keltirilgan va grekchadan olingan bo‘lib “o‘lchov” degan ma’noni anglatishi keltirilgan, shuningdek, misol ularoq Kolerijning “Metrical Feet” she’ri berilib, tahlil qilingan.

Ingliz adabiyotshunosligiga doir lug‘at kitoblardan ko‘rib chiqilgan ode, elegy, sonnet, pastiche, metre kabi terminlar ingliz adabiyotshunosligining milliy o‘ziga xosligini namayon qiladigan atamalardir. Bu terminlarning izohiga to‘xtalar ekanmiz, uchala kitob mualliflari mazkur keltirilgan terminlarni izohlashda uning ma’nosi, mazmuni, tarixi va taraqqiyotiga batafsil to‘xtalib, mazkur janrda ijod qilgan ijodkorlar nomi va asarlarini sanab, bir qator misollar keltirib o‘tgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Abrams M. H. A Glossary of Literary Terms. Seventh Edition. – USA.: Cornell University, 1999.
2. Адабиёт назарияси. 2 жилдлик. Адабий-тарихий жараён. Жилд. 2. – Т.: Фан, 1979
3. Childs, Peter and Roger Fowler. The Routledge Dictionary of Literary Terms. London and New York: Routledge Taylor and France Group. – 2006.
4. Chris Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – N.Y.: Oxford University Press, 2001
5. Cuddon J. A. A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory. – N.Y.: Wiley- Blackwell, 2013
6. Ҳотамов Н, Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати – Т.: Ўқитувчи, 1979
7. Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М.Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2013


## “TA’QIQ MEVASI” ASARI DETALI VA TADRIJI


*Farxodova Sevinch Feruz qizi*
*ToshDO‘TAU o‘zbek filologiyasi fakulteti, 2-kurs*
*Sevinchfarxodova22@gmail.com*
*Ilmiy rahbar: fil.fan.dok., professor. Uzoq Jo‘raqulov*



***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola Qur’oni Karimda keltirgan Odam alayhissalomning jannatdan quvilishiga sababchi bo‘lgan taqiq mevaning asrlar davomidagi tadrijiy rivojlanish bosqichini yoritadi. Unda mumtoz adabiyotdan to hozirgi davr adabiyotigacha bo‘lgan taqiq meva detalining o‘zgarib borishi, uning makon va zamon (xronotop)ga qanday ta’sir o‘tkazishi, asl manbaning mohiyatiga ko‘ra asarlarning qurilishiga doir o‘zgarishlar haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *“Taqiq mevasi”, detal, xronotop, Odam alayhissalom, Momo Havo, bug‘doy, anjir, uzum, olma.*

***Abstract.*** *This article describes the gradual development of the forbidden fruit, which caused the expulsion of Adam from Paradise, as mentioned in our holy book, the Holy Qur’an. In it, there is a word about the changes in the details of the forbidden fruit from classical literature to modern literature, how it affects space and time (chronotope), changes in the construction of works according to the essence of the original source.*

***Key words:*** *“Forbidden fruit”, detail, chronotope, Adam, Eve, wheat, fig, grape, apple.*

Adabiyotshunos olimlar Odam alayhissalomning jannatdan quvilishi, bu voqeaga sabab bo‘lgan taqiqlangan daraxtning mevasi haqida turli badiiy asarlarda tub mohiyatini saqlab, ba’zan asl mazmunini saqlagan holda detalni, ya’ni taqiq mevani turlicha o‘zgartirib talqin qilgan holatlar uchraydi. Odam Ato va Momo Havoning jannatdan haydalishi haqidagi asosiy va ishonchli manba – bu Qur’oni Karim. Odam alayhissalom haqidagi qissa muqaddas kitobimizning “Baqara” va bir necha “Sod”, “A’rof”, “Niso” suralaridagi takrorlanuvchi oyatlarida atroflicha bayon etilgan.

*“Va dedik: “Ey Odam! Sen jufting ila jannatni maskan tut. Uning qayeridan xohlasangiz, bemalol yenglar va mana bu daraxtga yaqinlashmanglar, aks holda zolimlardan bo‘lib qolasizlar”.*(“Baqara”surasi, 35-oyat)

Odam Ato va Momo Havoga jannatda to‘kin-sochinlikda yashashlari, u yerdagi barcha noz-ne’matlardan tanovul qilishi, ammo faqat bir daraxtning mevasiga yaqinlashmasliklari buyurildi. Qur’oniy qissada aynan qaysi meva ekanligi aytib o‘tilmagan. Sababi insoniyat uchun qaysi mevaligi muhim emas, aksincha aynan shu qissaning tub zamiridagi ma’nosiga e’tibor qaratilgan. Shayton o‘zining kirdikorlari bilan Odam alayhissalom va uning juftini yo‘ldan ozdirdi va mudhish gunoh, ya’ni man etilgan daraxt mevasini yeyishiga sababchi bo‘ldi. Natijada, ular jannatdan tushirildi. Eng go‘zal ne’matlardan, bitmas-tuganmas huzur-halovatdan ayrildi. Bundan kelib chiqadiki, ishonchli manbada taqiqlangan meva orqali sanoqli narsalar- insonning o‘ziga zarar keltiradigan holatlari, amallari man qilingan. Shuningdek, inson o‘zining nafsini aqlidan ustun qo‘yib, insoniyat tarixidagi eng katta xatoni qilishi orqali insonning sabri sinalgan.

Keyinchalik ushbu qissa turli davrlar mobaynida asarlarda kela boshladi, ya’ni asl ma’no-mazmuni o‘zgarmay xronotop, detalning fabulasi o‘zgardi. Masalan, Nasiriddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida qissa janriga oid manbalar Odam alayhissalomning ta’rif-tavsifi bilan boshlanadi. Bu asarda ham Odam Ato va Momo Havoning jannatga kiritilishi, barcha ne’matlardan yeyishi,

lekin bug‘doy daraxtiga yaqinlashmasliklari haqida so‘z boradi. Ko‘rinib turibdiki, detalning nomi, shakli aniq ko‘rsatilgan. Qissa davomida esa savol-javob shaklida isbot ham keltirilgan.

Unda yerda yashaydigan odamzodning taomi bug‘doy bo‘lishi (kundalik yeyiladigan non bug‘doydan tayyorlanadi), jannatda esa yer yuzidagi in’omlardan-da ulug‘roq, g‘aroyibotroq ne’matlar nazarda tutilib: *“Jannatda hamma ne’matlardan yegil, bug‘doy yemagil!”*(Nosiruddin R, Qisasi Rabg‘uziy 1-kitob, -T: Fan, 1990) tarzida Rabg‘uziy izoh bildirgan. Rabg‘uziy bug‘doyni aynan taqiq mevasi ekanligiga urg‘u bermoqda.

Bundan tashqari Qur’oni Karimning Odam alayhissalom haqidagi qissasidan oziqlangan keyingi manba – bu Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va Hukamo” asari. Unda bayon etilishicha, *“Havo Odam alayhissalomning so‘l yonidan yaratildi. Va ba’zi rivoyatda andoqdurkim, Havo dunyoda yaratilib erdi. Har taqdir bila Odamg‘a bug‘doy yemakdin nahiy bo‘ldi. Ba’zi uzum, ba’zi anjir debdurlar”*(A. Navoiy, Tarixi anbiyo va hukamo, 1990, 5-bet)

Yillar o‘tgan sayin har bir ijodkor o‘zining asarlarida yashab turgan muhitidan, xalqning o‘rtasida tarqalgan rivoyatlardan kelib chiqib taqiq mevaga turlicha ta’rif berishgan. Bundan kelib chiqadiki, xronotopga moslashgan, asl mohiyati saqlangan holatda detalning xususiyati ochib berilgan. Mir Alisher Navoiy ham detalni bug‘doy, ba’zi yerlarda uzum va anjir ekanligini aytib o‘tgan. Bilishimizcha, ma’lum bir asrlar o‘tgandan so‘ng aynan shu qissaning turli davrlarda turlicha talqinidagi variantlari yetib kelgan.

Shundan so‘ng So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asarida ham xuddi “Qisasi Rabg‘uziy”da uchraganidek detal bug‘doyga o‘zgartirilgan. Ammo detal fabulasi o‘zgargani bilan xronotop va voqeaning mazmuni saqlangan. Aslida har bir voqea, obraz, detal ilohiy mazmunni, vazifani ifodalaydi. Detalning vazifasi- ma’lum bir voqeaning sodir bo‘lishiga ko‘mak beradigan muayyan bo‘lak. “Sabot ul-ojizin”da detal takabburlik tushunchasining ma’nosini yoritishga qaratilgan.

Hozirgi yillarda esa modernizm oqimida ijod qilayotgan Nazar Eshonqulning “Taqiq mevasi” asari ham deyarli shu mavzu doirasida yozilgan. Adib boshqa tasavvufiy asarlarga qaraganda Odam alayhissalomning jannatdan quvilishi haqidagi qur’oniy qissaga yangicha yondashmagan, aksincha buzib talqin qilgan, ya’ni Nazar Eshonqul ilohiylik bilan badiiylikni umumlashtirmay, ko‘p hollarda o‘zining badiiy haqiqatini asarda gavdalantirgan. Masalan, Iblis (Ma’bud)ni iloh darajasiga ko‘targan, uning nomini ulug‘lagan, ilohlarning vazifasini yuklagan: *“Ma’bud bu yerda yo‘qni borni qilar, tasqaradan suluv, qo‘rqoqdan qahramon, fohishadan malika chiqara olar, u sahnada saltanatlar yaratar va buzar, dunyoni zir titratgan qirollaru jahongirlarni birpasda gadoga aylantirar, as’asa va a’mol ato*

*etar yoki mahrum qilar, marhamat qilar yoki gunoh tamg‘asini bosar, har narsaga qodir, barcha narsaga yaratuvchi, nom beruvchi, sohib karami, jon ato etuvchi va jon oluvchi edi…”*(Eshonqul. N, Taqiq meva, -Toshkent “Akademnashr” 2022, 292-bet)

Ikkinchidan, ijodkor asari davomida asl manbadagi voqealarga nisbatan g‘arazli tuyg‘ularini ifodalab bosh ko‘targan, qo‘zg‘olonini esa Havo tilidan bildirgan:*”Mening chizish-chizmasligimdan qat’iy nazar, Ayol daraxt oldiga borishini, o‘sha mevani yeyishi muqarrarligini bilardi, bilsa ham, o‘jarlik bilan o‘zimcha Ma’budga, uning xohish-irodasiga qarshi vaqtni cho‘zish bilan muqarrarlik isyon qilardim, go‘yo shu yo‘l bilan bo‘lsa-da mevaning uzib olinishini bir zumga bo‘lsa ham kechiktirishini o‘ylardim.* (N.Eshonqul, Taqiq mevasi, -Toshkent “Akademnashr” 2022, 280-bet.)

Zero, O‘tmish va kelajak bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Tarixda bo‘lib o‘tgan voqealarni, insonning taqdirida yozilgan bitiklarni hech qachon o‘zgartirib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda Mixail Baxtinning:*”Bu o‘rinda nimaiki o‘tmishda bo‘lib o‘tgan deya tasvirlansa, aslida kelajakda ro‘y berishi mumkin yoki kelajakda ro‘y beradi. Mohiyatan, u o‘tmish voqeligi emas, kelajakning maqsadi, burchi o‘laroq namoyon bo‘ladi.”*(Бахтин. М, Вопросы литературы и эстетики. –М: Художественная литература, 1975, стр. 283.)

Uchinchidan, asar syujeti muqaddas kitobimizda keltirilgan qissaning mohiyati bilan uyg‘unlik kasb etmagan, aksincha adibning momosi tomonidan aytib berilgan qadimgi cho‘pchakning ta’siri nisbatan ko‘proq sezilgan va urg‘u berilgan. Shundan kelib chiqib taqiqlangan daraxtning mevasi - olma dovuchchasi (detal) asosiy mazmundan o‘rin olgan. Butun bir asarning o‘zagini olma mevasi tashkil qiladi. Misol qiladigan bo‘lsak, Malakning olma gulli ko‘ylak kiyishi, Iblisning olma daraxtining tagiga borib qizlarga izhori dil qilishi, insonning taqdiri olma daraxtida aks etishi, muhabbat va ishq hidini taratayotgan olma gulining hidi- hamma-hammasi detalning xususiyatlarini syujetga moslab ochib beradi. Bu asarda “olma” detali ishq-muhabbat, yor tanlash ma’nosida qo‘llanilgan. Lekin detal qur’oniy qissaning na mazmunini, na yakunini, na voqealar rivojini yoritishga xizmat qilgan. Aslida, Kalomullohning qissalariga asoslanib asar yaratish mumkin, ammo noto‘g‘ri talqin qilib emas. Chunki bu insonlarning fikriga, dunyoqarashining o‘zgarishiga olib keladi. Xulosa qilib aytganda, Alloh insonlar uchun nozil qilgan inoyatlariga shukr qilishimiz va ularni to‘g‘ri targ‘ib qilishimiz darkor. Bu jarayonda badiiy so‘z qudratidan ayni vosita sifatida foydalanilar ekan. Adabiyotning asl vazifasini esdan chiqarmaslik lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, “Hadis va hayot” 20-juz, -T: “Hilol-nashr” Toshkent, 2016.
2. Nosiruddin R, Qisasi Rabg‘uziy 1-kitob, -T: Fan, 1990.
3. Navoiy. A, Tarixi anbiyo va hukamo, 1990.
4. Eshonqul. N, Saylanma II, Taqiq meva, -T: “Akademnashr” 2022.
5. Бахтин. М. Вопросы литературы и эстетики. –М: Художественная литература, 1975.

## “SHAMOL” FANTASTIK HIKOYASIDA FOLKLORNING O‘RNI

***Ikromov Akmal Ikrom o‘g‘li***
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs*
*ikromovakmal13@gmail.com*
*+998912241676*
*Ilmiy rahbar:f.f.d., professor Umida Rasulova*

***Annotatsiya.*** *Amerikalik yozuvchi Rey Bredberining “Shamol” fantastik hikoyasida folklor unsurlarining uchrashi tabiiy, albatta. Ushbu maqolada hikoyaning ma’no ko‘lamlariga to‘xtalib o‘tish jarayonida asarning folklor bilan munosabati haqida ham mulohaza yuritildi.*

***Kalit so‘zlar:*** *shamol, bunyodkor, vayronkor, tabiat, hodisa, muvozanat, mif*

***Abstract.*** *In the fantastic story "The Wind" by the American writer Ray Bradbury, the meeting of elements of folklore is natural, of course. In this article, while focusing on the scope of meaning of the story, the relationship of the work with folklore was discussed.*

***Key words:*** *wind, creator, destroyer, nature, event, balance, myth*

Insonning faoliyati har qachon tafakkur etish va yaratish singari jarayonlar bilan bevosita bog‘liq holda bo‘ladi. U, avval, tosh va yog‘ochdan olov chiqardi. Ana shunda odamzod isinish imkoniga ega bo‘ldi. U atrof – olamni imkon qadar o‘rganib, o‘zlashtirib bordi. Mohiyatni qidirar ekan, salohiyati halicha “hazm qila olmagan” hodisa va unsurlarga qo‘rquv ila munosabatda bo‘ldi. Vaqtlar o‘tishi bilan insonning qo‘rquvlari ham o‘zgardi, ortib bordi. Keyin u qo‘rquvning mohiyatini anglash uchun sabab qidirdi. So‘ngida esa o‘sha inson tomonidan “soxta mohiyat” – “mif” yaratildi.

Barchamizga ma’lumki, miflar jahon xalqlari folklorshunosligida alohida tarixiy tafakkur bosqichi sifatida o‘rganiladi. Bugun ana shu mifologiyaning unsurlari fantastik hikoyalar tarkibida ko‘zga tashlanib turmoqligi ham tabiiy hol sanaladi. Biz tahlilga tortmoqchi bo‘lgan “Shamol” hikoyasida ham ushbu hodisani inkor etmagan holda, tahlil jarayonida mifologiyaga ehtiyoj sezamiz.

Hikoya syujeti uyida yolg‘iz qolgan Allinning hayotiga xavf solayotgan shamoldan cho‘chib, do‘sti Gerbni yoniga chaqirishi va do‘sti u bilan qolganda barchasining sokin – hech bir shamol isyonisiz o‘tishi, ammo Allin yolg‘iz qolganda yana shu holning boshlanishi – shamolning jazavaga kelishi kabi hodisalarni qamrab oladi. Garchi Gerb do‘stining taklifiga ko‘nib, uning yonida tunashga majbur bo‘lsada, ich – ichidan Allinning so‘zlari, shunchaki, ruhiy bezovtalikdan ekanligini anglab boradi. U Allin boshdan kechirganlarini eslab, bu holni do‘sti uchun tabiiy jarayon sifatida ko‘radi. Ammo so‘nggi tunda Allin takror qo‘ng‘iroq qilar ekan, Gerb chiqa olmasligini, uyida mehmon borligini ta’kidlaydi. Bu esa Allinning so‘nggi tuni edi.

Albatta, hikoyani o‘qish jarayonida konfliktni yuzaga keltirayotgan shamol, aslida, nima edi? – degan savolning tug‘ilishi tabiiydir. Javob uchun mifologiyaga yuzlanishga to‘g‘ri keladi. Falkonarning “Kelt afsonalari va fantastika (www.jstor.org) nomli tadqiqotiga qaraganda, kelt folklorida “The Buggane” (Baggane) nomli jizzaki shamol mavjudoti bo‘lganligi, u uylarning tomlarini uchirib yuboruvchi (Devid Kastello keltirgan arxiteplardan biri – tuslanuvchi arxitepiga misol bo‘la oluvchi folklor qahramoni) mifologik mavjudot ekanligi aytiladi. Uning hukmdori esa Shamol qirolichasi bo‘lib, u o‘zining “Shamollar oroli”ga turfa yerlardan bolalarni o‘g‘irlab kelishi va dunyoning to‘rt tarafidagi shamollarni ham qo‘l ostida ushlab turishi aytiladi.

“Qur’oni Karim”da tabiat hodisasi sanalmish shamol ikki xil vazifani o‘taydi: bunyodkorlik va vayronkorlik. Tabiatdagi ekinlarning urug‘larini sochish, rizq – ro‘z undirish, bulutlarni haydab kelib yomg‘ir yog‘dirish, qorlar yog‘ishi – bularning barchasi inson uchun ne’mat ekanligi ta’kidlab o‘tiladi: “Biz shamollarni urchituvchilar etib yubordik. Bas, osmondan suv tushirib, u ila sizlarni serob qildik.”. (Qur’on 15:22). (https://xojabuxoriy.uz).

Bundan tashqari, “Qur’oni Karim”da shamolning har turli xususiyatlari borasida ham so‘z yuritiladi. Yaratgan bandalarining amallariga qarab, tabiat hodisalarini mo‘minlarga mukofot yoki osiy bandalarga jazo sifatida yetkazadi.

“Qur’oni Karim”dagi qissalarda uchta vaqt haqida so‘z boradi. Bular quyidagilar – bomdod, shom va xufton vaqti. Ayni shu vaqtda osiy qavmlarga shamol, to‘fon, qichqiriq va zilzila singari ofatlar kelganki, ular bu qavmlarga Allohning jazosi edi, - deyiladi: “Alloh bulutlarni haydashini, so‘ngra birga to‘plashini, uyib qo‘yishini ko‘rmayapsanmi?! Bas, uning orasidan yomg‘ir chiqayotganini ko‘rursan. U zot osmondan, undagi tog‘lardan do‘l tushirib, U o‘zi xohlagan kishilarga musibat yetkazur va uni o‘zi xohlagan kishilardan burib yuborur. Uning chaqmog‘ining yarqirashi ko‘zlarni ketkazgudek bo‘lur.”. (Qur’on 24:43). (https://xojabuxoriy.uz).

Boshqa bir o‘rinda esa, shunday ta’kidlanadi: “Alloh shunday zotki, shamollarni yuborib, ular ila bulutni qo‘zg‘atar va u (bulut)ni osmonda O‘zi xohlaganicha yoyar va bo‘lak – bo‘lak qilar, bas, uning orasidan yomg‘ir chiqayotganini ko‘rasan. Qachon u (yomg‘ir)ni O‘z bandalaridan xohlagan kimsalarga yetkazsa, ular darhol shod bo‘lurlar.”. (Qur’on 30:48). (https://xojabuxoriy.uz).

“O‘zbek mifologiyasi” darsligida shamol to‘g‘risida quyidagi fikrlar keltiriladi: “Haydar kultiga (Muhammad payg‘ambarning kuyovi – Ali shaxsiga) barcha tabiat hodisalari homiysi sifatida qaralgan. U istasa, shamolni qo‘zg‘atadi, yo to‘xtatadi deb, odamlar Haydarga yalinib – yolvorib, unga iltijo qilib, shamol so‘raganlar.”. (Mamatqul Jo‘rayev, Davronoy O‘rayeva, (2019). O‘zbek mifologiyasi, Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti.).

Yuqorida shamolning o‘zbek va yevropa folkloridagi o‘rni, shuningdek, “Qur’oni Karim”dan ayrim namunalar keltirildiki, bundan maqsad tahlil jarayonini yanada aniqlashtirib olmoqlikdir, xolos.

Hikoyada Gerb va ayolining suhbati davomida Allinning so‘zlariga ishonchsizlik munosabatida bo‘lib, buni yolg‘izlikning insonga ta’siri sifatida ko‘rishga urinadilar. Ammo yozuvchi suhbat vositasida Allin aytayotgan shamolning, aslida ham, mavjud ekanligini isbot qilib boradi: “U – buni yozsang bo‘larmidi? – dedi Gerb Tompson og‘irligini bir oyog‘idan ikkinchisiga tushirib. Ovunarding, unutarding o‘sha Himolayingni, shamollar vodiysi – yu, hamma po‘rtana, dovullarni. Bahonada yo‘l taassurotlaringdan yana bir bob yozib qo‘yarding.”, “U bechora urush vaqtida Himolayda ko‘p azob chekkan. – dedi Gerb Tompson.”, “Yomg‘ir ham urib turgan… Do‘l, shamol – hammasi baravariga kelgan o‘sha vodiyda. Allin menga ko‘p marta aytib bergan. Juda qiziq hikoya qiladi… Eng tepaga ko‘tarilibdi, hammayoq bulutmish… butun vodiy guvillarmish.”, “Tovushlarga qaraganda, bitta emas, minglab shamollar esgan. Butun dunyoning shamoli. – U sanchiqini og‘ziga olib bordi. – Allin shunaqa derdi.”, “Uydirmami, yo‘qmi, u necha bor falokatga yo‘liqdi! Bombeyda po‘rtana, ikki oy o‘tib Yangi Gvineya sohillarida to‘fon. Kornuolldagi voqea – chi?”.

Biz yuqorida dalil sifatida keltirayotgan jumlalar shamolning inson yolg‘izligidagi o‘rinsiz qo‘rquv emas, balki, aslida ham hikoyada mavjud antoganizm kuch - sharpaning borligini isbotlashga qaratilgan sanaladi. Yozuvchi esa antoganistni shakllantirishda folklor unsurlaridan foydalana olgan.

Devid Kastello o‘zining “The fundamental elements of fantasy” nomli ishida sharpa arxitepiga quyidagicha izoh beradi: “Fantastik adabiyotning zulmat hukmron qismini ifodalovchi sharpa hikoyalarda antoganizm – qarama – qarshi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. U dahshat ramzi sanalib, qahramon hikoyada u bilan yuzma – yuz

kelishi va, albatta, sharpani yengib chiqmog‘i lozim. Bu arxetip, aksaran, qahramonning ichki qo‘rquvlarini, kuch vositasida bostirilgan orzu – istaklarini, yoki ular duch kelishi lozim bo‘lgan voqealardagi keskin qarorlarini o‘zida mujassam etadi. Ular Voldemort va Sauron (Jirkanch) singari jismoniy raqib bo‘lishlari mumkin hisoblansa ham, asosan, mavhum va ichki kuch ko‘rinishida namoyon bo‘lishadi. Bir qator hikoyalarda sharpa va qahramon orasidagi o‘zaro aloqa markaziy qilib begilanib, bunda qahramonning kuchi, zaifligi va axloqiy e’tiqodlarining qay darajada ekanligi namoyon bo‘ladi. Sharpaga qarama – qarshi tarzda qahramon nafaqat tashqi kuchlar bilan jangga kirishadi, balki, o‘zining shaxsiyatidagi yupqa chiziq ajratib turgan yovuzlik va ezgulik bilan ham tinimsiz bellashadi.” (www.servicescape.com).

Allin Gerbga shamol uning uyidagi stixiya kuchlari bilan bo‘lgan yakkama – yakka jangning qurbonlariga bag‘ishlangan, omon qolganlardan biri tomonidan yozilgan kitobni varaqlayotganligi haqida aytadi. Albatta, yozuvchi bu yerda ham jumboqni yechishni o‘quvchining zimmasiga tushiradi. Ya’nikim, stixiya kuchlari haqida tashqi ma’lumot talab etiladi.

“Stixiya (yunoncha stoicheion — dastlabki narsa, ibtido, element) — 1) qadimgi natural falsafada — tabiatning asosiy elementlari (masalan, qadimiy xitoy falsafasida — suv, olov, daraxt, metall, yer; yunon falsafasida — yer, suv, havo, olov, keyinroq efir va hokazo.); 2) tabiatda ro‘y beradigan, kishi qarshilik ko‘rsata olmaydigan hodisa, kuchli tabiiy ofat (yong‘in, toshqin, zilzila, to‘fon va boshqalar.)” (https://uz.wiktionary.org/wiki/stixiya).

Yozuvchi hikoya mobaynida o‘quvchini “Nega?”, - degan savol bilan asar so‘ngiga qadar ushlab turadi. Garchi Allin Gerbni yoniga madadga chaqirsa – da, mutloq haqiqatni do‘stiga aytmayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Ehtimol, bunga sabab Gerbning Allinni ham bu mashmashalarga tortqilashni istamayotganidan ham bo‘lishi mumkin: “U Himolaydagi inidan chiqib, meni qidirib topdi. Shamollar vodiysidagi buzg‘unchilik niyatlarini pishitib, berkinib yotgan inini bilaman. Ana shu unga tinchlik bermaydi. U qachonlardir, qandaydir qilib dunyoga kelib qolgan... Qayerda tug‘ilishini, qayerdan madad olishini va qayerda kuni bitishini men bilaman. Shuning uchun meni ham, u bilan qanday kurashish lozimligini ko‘rsatib beradigan kitoblarimni ham ko‘rarga ko‘zi yo‘q. Og‘zimni yopib qo‘ymoqchi, o‘zining bahaybat jismiga singdirib, bilimlarimni o‘zlashtirib olmoqchi. Niyati – meni o‘z tomoniga og‘dirib olish.”

Hikoyada herror janri bilan fantastikaning munosabati ajoyib tarzda ko‘rsatib berilgan. Kastello fantastik asarlardagi bu masala haqida ham “Fantastikaning asosiy elementlari” maqolasida, alohida, ta’kidlab o‘tadi.

Mahoratli yozuvchi Rey Bredberi Allinning holatini Gerbning uyidagi kichik vaziyat bilan ochiq - oydin ifodalab beradi: “Sakkiz yarimgacha u yoq – bu yoqdan gaplashib o‘tirishdi, keyin qarta o‘ynaydigan stolni o‘rtaga surib, “qopqonga tushirish” o‘yinini boshlashdi. Gerb Tompson qartani uzoq, o‘ychan aralashtirdi. Shitirlashi xuddi chiy pardaning ochilishiga o‘xshaydi, so‘ng tarqatdi. Qartalar birin – ketin shipillab, o‘yinchilar ro‘parasiga tushaverdi. Suhbat o‘z maromida.”

Bir so‘z bilan aytganda, Bredberi folklor unsurlaridan inson ruhiyatini aks ettirishda mohirona foydalana oldi. U qahramonlari orqali o‘zi aytmoqchi bo‘lgan haqiqatlarni oshkor qildi: “O‘zimiz yashaymiz – u, boshqa odamlar qanday fikr yuritadi, qanday yashab, qanday o‘ladi, mana bular haqida o‘ylamaymiz. O‘zimizga qachon o‘lim kelishini kutib yuramiz.

Demoqchimanki, biz mana shu yerda oromkursilarga qapishib o‘tiribmiz – u, qandaydir o‘ttiz mil narida, katta ko‘hna bir uyni zulmat qoplab, jinlar o‘yinga tushyapti. Dunyodagi eng yaxshi odamlardan biri...”.

Asar yakunida shamol Gerb Tomsonning uyiga tashrif buyuradi. O‘zi bilan esa, Allinning ruhini ham keltiradi.

Hikoyadagi jumboq adib mahoratining nechog‘liq buyuk ekanligiga yana bir bor dalil, - desam, yanglishmagan bo‘laman.

Insonga qo‘rquv hissini solayotgan shamolning asl maqsadi ham olamda yaratilayotgan har bir narsaning hikmatini o‘qishga chorlaydi. Inson har qancha kuchli bo‘lmasin, tabiat hodisalari qarshisida ojizligicha qolaveradi. Zero, tabiat hodisalarini boshqarib turuvchi Olloh Taollo borliqdagi barcha narsani muvozanatda saqlab turuvchi tanho buyuk zotdir.

Hikoyada qalamga olingan inson va tabiat masalasi fantastikaning zamonaviy fantastika subjanriga mansub sanalib, janrning bugungi kun bilan bog‘liqligini yaqqol namoyon etib bera oldi. Rey Bredberi “Shamol” hikoyasida inson, tabiat va folklor munosabatini uyg‘unlashtirgan holda inson hayotining bir qismini mohirona, o‘z o‘rnida, sirli tarzda ko‘rsatib bera oldi. Adib ijodida bu uslub “Marsga hujum” romanining “Esher II” bobida ham ko‘zga tashlanadi.

Yaratganning qudratini qarangki, tabiat hodisasi sanalmish shamolni na ko‘z bilan ko‘rib bo‘ladi, na qo‘l bilan tutib bo‘ladi. Ammo uning olamga va insonga keltiradigan ezguliklari, jumladan, kulfatlari ham beqiyosdir.

Ushbu hikoya esa, o‘z navbatida, kishini o‘yga toldiradi. Hayot mazmunini yanada yaxshiroq anglashga, to‘g‘ri yashashga va, eng muhimi, Yaratuvchi zotga yana bir bor shukronalik keltirmoqqa da’vat etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mamatqul Jo‘rayev, Davronoy O‘rayeva. (2019). O‘zbek mifologiyasi. Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti.

2. https://uz.wiktionary.org/wiki/stixiya
3. https://xojabuxoriy.uz
4. www.jstor.org
5. www.servicescape.com

## ADABIY TA’LIM JARAYONIDA QIYOSIY TAHLIL METODIDAN FOYDALANISH

*A. Medenova*
*Nizomiy nomidagi TDPU*
*Qozoq tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi,*
*N. Abduvalitov*
*p.f.f.d. (PhD), dotsent*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada adabiy ta'lim jarayonida qiyosiy tahlil metodidan foydalanishning samarali yo‘llari g‘arb va sharq adabiyotidagi o‘ziga xos o‘xshashliklarini qiyoslash asosida yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *shaxs, adabiy aloqlar, qiyosiy tahlil, folьklor, masal.*

***Abstract:*** *In this article, effective ways of using the method of comparative analysis in the process of literary education are highlighted based on the comparison of the specific similarities between Western and Eastern literature.*

***Key words:*** *personality, literary relations, comparative analysis, folklore, parable.*

Bugungi kunda ta’lim oluvchilar qalbida o‘zlikni anglash tuyg‘usining mustahkamlanishiga e’tibor kuchaymoqda, o‘z milliy xususiyatlarini saqlash va shu asosda jahonda madaniyatining ilg‘or jihatlarini o‘zlashtirish masalasi ham kun tartibiga qo‘yilmoqda. Shu munosabat bilan, umumiy o‘rta maktablarda o‘zbek va jahon adabiyotini o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish va bunda samarali usullarni amalga tatbiq etish taqozo qilinmoqda. Milliy va jahon adabiyotini uzviylikda va qiyosiy o‘rganishni umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning optimal yo‘llaridan deb hisoblash mumkin.

Ma’naviy yetuk shaxs tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish adabiy ta’lim jarayonida bir qator tamoyillarni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. O‘quvchilarning badiiy didi shakllanishi, ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirishi g‘arb va sharq adabiyoti bilan tanishtirish orqali rag‘batlantiriladi. G‘arb va sharq adabiyotidagi o‘xshash hodisalarni anglash yagona adabiy jarayonni tushunishga olib keladi.

Dunyo xalqlari ma’naviy merosini o‘rganish milliy adabiyot imkoniyatlarini baholashga hamda qiyoslashga zamin yaratadi. Binobarin, jahon xalqlari

adabiyotidagi tajribalar va yo‘nalishlar boshqa xalqlar an’analari bilan sintezlashib, milliy adabiyotning boyishi va tasvir ko‘lamining takomillashishiga ham olib keladi. Demak, har qanday adabiy ta’sir muayyan xalqning milliy an’analari hamda ijodkorning individualligiga asoslanishi qatorida qayta evrilishlar, qisman yangilanishlarga asoslangan hodisa sanaladi. Bu jihatlar, ayniqsa, jahon va o‘zbek folklori namunalari syujetidagi mushtarakliklar misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Masalan, adabiyot darsliklarida mashhur yunon masalchisi Ezop shaxsiyati, muallif “men”ining badiiy aksi ko‘z ochgan bir qator hikoyatlar o‘zbek xalq ertaklari yoki xalq orasida keng tarqalgan rivoyatlar syujetining qiyosiy o‘raganilishga imkon beradi.

Folklor an’analaridan unumli foydalanish hodisasiga Ezop ijodidagi bir qancha masallarda duch kelinadi. Jumladan, Ezopning “Burgut, zag‘cha va cho‘pon” masalini hind xalq eposi “Kalila va Dimna” bilan qiyoslab o‘rganishda asar tili, obrazlar tizimi yoki xulosalardagi uyg‘unlik tahlilga tortiladi. Masallarga e’tibor qilaylik:

**“Burgut, zag‘cha va cho‘pon” masalidan**

“Yuksak qoyadan shiddat bilan qo‘zg‘algan burgut suruvdagi qo‘zichoqni ildi-yu ketdi. Zag‘cha buni kuzatib turgandi, hasaddan ichi kuyib, o‘zining ham shunday qilgisi kelib qoldi. Zag‘cha jon-jahdi bilan chinqirganicha borib qo‘chqorga tashlandi: panjalari qalin junga o‘ralashib qoldi-yu, uchishga ham, qochishga ham imkoni bo‘lmay qoldi. Uning jon xalfida pitirlayotganini ko‘rgan cho‘pon gap nimadaligini fahmladi-da, darhol tutib oldi: qanotlarini qirqib, o‘zini ermak uchun bolalariga eltdi. Bolalari chuvillashib: “Bu qanday qush?” – deya so‘raganlarida, cho‘pon aytdi: “Men-ku buning zag‘chaligini bilaman-a, biroq uning o‘zi o‘zini burgut hisoblaydi-da?!”

Alqissa, o‘zingdan zo‘rroqlar bilan bellashaman, deb chiranganing bilan hech ish chiqarolmaysan, kulgi bo‘lganing qoladi, xolos”[24].

**“Kalila va Dimna”dan:**

“Bir kir yuvuvchi bor edi. U har kuni suv labida kir yuvar va o‘sha suvda qurt-qumursqalarni tutib yeb yuradigan bir g‘ozni ko‘rar edi. Bir kuni bir lochin semiz kaklikni tutib kelib, go‘shtidan bir oz yedi-da, qolganini tashladi. Buni ko‘rib, g‘oz o‘ziga o‘zi dedi: “– Bu qush kichkina jussasi bilan katta qushlarni tutib yeydi, men bo‘lsam shu shakl va haybatim bilan mayda-chuyda narsalarga qanoat qilib yuribman. Endi kattaroq kabutar, kakliklar tutishga harakat qilay.

Shu payt bir kabutar suv labiga qo‘nmoqchi bo‘lgan edi, g‘oz uning ketidan quvdi. Ammo kabutar chap berib uchib ketdi. G‘oz suv labiga yiqildi, og‘zi loyga

[24] Ahmedov S., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism. – Toshkent: Sharq, 2020. – 41-b.

botib qoldi. Qutulishga harakat qilib zo‘r bergan sari battaroq bota boshladi, kir yuvuvchi yugurib kelib uni ushlab oldi-di, uyiga olib ketdi. Yo‘lda uchragan bir do‘sti undan so‘radi:

– Qo‘lingdagi nima?

Kir yuvuvchi dedi:

– Bir lochin ishini qilmoqchi bo‘lgan g‘oz. O‘z ehtiyojidan ortiqcha narsa ketidan yugurib o‘z hayotini barbod qildi. Bu masalni shuning uchun keltirdimki, bilib qo‘y: o‘z ishing bilan mashg‘ul bo‘lmay, senga to‘g‘ri kelmaydigan hunarga yopishmoqchi bo‘lsang, oqibati xuddi shunday bo‘ladi”[25].

Demak, o‘xshash syujetlar ma’lum sabablarga ko‘ra yuzaga kelgan vaziyatlardan xulosalar yasash yoki turli xalqlar o‘rtasidagi adabiy aloqalar ifodasi sifatida yuzaga kelgan, degan qarashlarni ilgari surishga zamin yaratadi.

Masallarni qiyosiy o‘rganish jarayoni quyidagicha rejalashtiriladi:

1. O‘quvchilarni qiyoslanayotgan asar matni bilan tanishtirish;
2. Asar tahliliga doir savol-topshiriqlar tuzish;
3. Mualliflarning fikrni obrazli aks ettirish mahoratini baholash;
4. Taqqoslanayotgan obrazlarning muhim xususiyatlarini belgilash;
5. Masallarga xos yetakchi xususiyatlarni aniqlash.

**Masallarning qiyosiy tavsifi**

| **Qiyoslash obyekti** | **“Burgut, zag‘cha va cho‘pon” masalida** | **“Kalila va Dimna” masalida** |
|---|---|---|
| Asar tili | Sodda, qisqa va tushunarli | |
| Obrazlar tizimi | Cho‘pon | Kir yuvuvchi |
| | Zag‘cha | G‘oz |
| | Burgut | Lochin |
| | Qo‘zichoq | Kaklik |
| | Cho‘ponning bolalari | Kir yuvuvchining do‘sti |
| Xulosa | Qo‘lidan kelmagan ishga urinib, nom qozonmoqchi bo‘lgan, oqibatda ayanchli va kulgili ahvolga tushgan kishilar obrazi majoziy tarzda gavdalantirilgan. | |

Qiyoslash orqali o‘quvchilarda masallarga xos universallik, funksionallik, umumlashmalik va ixchamlik elementlari haqida tasavvurlar shakllanadi.

Xulosa qilish mumkinki, Sharq va G‘arb xalqlari adabiyotida keng uchraydigan turli mavzudagi masallar muayyan xalqning milliy koloritini aks ettirishi nuqtai

[25] Kalila va Dimna / Tarjimon: Suyima G‘aniyeva. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 243-b.

nazaridan barcha davrlarda ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mushtarak syujetlar har bir xalqning ehtiyojlari, qadriyat va an’analari ta’sirida alohidalik kasb etgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ahmedov S., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism. – Toshkent: Sharq, 2020. – 41-b.

2. Kalila va Dimna / Tarjimon: Suyima G‘aniyeva. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 243 b.

3. Abduvalitov N. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jahon adabiyotini o‘qitish metodikasi. (Uslubiy qo‘llanma) Toshkent,”Nodirabegim” 2021.

## “ATIRGULNING TIKONI” HAMDA “EMILI UCHUN ATIRGUL” HIKOYALARIDA RAMZLAR POETIKASI

***Nabiyeva Mohinur Alisher qizi,***
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs*
*Mohinuralisherova7@gmail.com*
***Ilmiy rahbar: Norqulova Maftuna***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Gabriel Garsia Markesning “Atirgul tikoni” va Uilyam Katbert Folkner ijodiga mansub “Emili uchun atirgul” hikoyalarining qiyosiy tahlili berilgan va ulardagi ramzlar poetikasi haqida mulohazalar yuritirilgan. Shuningdek, maqolada ikki hikoyadagi “Atirgul” timsolining asl mohiyati, bu timsolning badiiy adabiyotda tutgan o‘rni haqida so‘z boradi. Bundan tashqari, maqolada ramz va ramzlashtirish tushunchalariga ham alohida izoh berib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Ramz, atirgul, tikon, qon, janr, detal, syujet, tahlil.*

***Annotation.*** *This article provides a comparative analysis of Gabriel García Márquez's “The Thorn of the Rose” and “A Rose for Emily” by William Cuthbert Faulkner, and comments on the poetics of symbols in them. Also, the article talks about the real meaning of the symbol “Rose” in two stories, the place of this symbol in fiction. In addition, the article also gives special comments on the concepts of symbol and symbolization.*

***Key words:*** *Symbol, rose, thorn, blood, genre, detail, plot, analysis.*

Ma’lumki, O‘rta asrlarga kelib, taqlid(mimesis) o‘rnini ramzlashtirish (simvolizatsiya) egallay boshladi. Ramzlashtirish – “mutlaq go‘zallik”, “asliy go‘zallik”, “mutlaq haqiqat”, “haqiqat” singari turlicha nomlar bilan yuritilsa-da, bitta maqsad − Haqni anglashga qaratilgan. Ayni chog‘da, ramz ishora qiladi, xolos, ya’ni bilish amalining natijasi mudom anglash-anglamaslik chegarasida qoladi. Agar shu jihatlar nazarda tutilsa, ramzlashtirishning nazariy asoslari Rumda − antik madaniyat bilan yangi nasroniylik g‘oyalarini o‘zida uyg‘un

mujassam etgan. Vizantiyada tizimga solingani g‘oyat tabiiy ko‘rinadi. Jumladan, bu ishning boshida turgan ilohiyotchi-estet Dionisiy Areopagitga ko‘ra, “asliy go‘zallik” (ya’ni Haq) mavjud narsalarning hammasiga, har birining o‘ziga yarasha go‘zallik baxsh etadi, ya’ni “asliy go‘zallik” mavjudlikning sababi, jami go‘zallikning manbaidir. Ma’naviy-ruhiy izlanishlar maqsadi − asliy go‘zallik, unga eltuvchi vosita esa moddiy olamdagi go‘zallikdir. Zero, moddiy olamdagi narsahodisalarning barida asl go‘zallikdan darak bor, har biri undan o‘ziga yarasha nur olgan. Shu bois moddiy va ma’naviy reallikdagi hamma narsa ramz (simvol)dirki, ularning har biridan ilohiy nur taraladi, har birida Yaratgandan nedir bor (Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари, 2007, 440-441-бет). Darhaqiqat, bizning atrofimizdagi jamiki moddiy narsalar Haqqa ishora qiladi, uning buyukligi, kuch-qudratini insoniyatga tasvir etadi.

**“**Ramzlar ongosti – ko‘ngil tubining mevasi”,-deydi Erix Fromm va shuning uchun ham ularni biror chet tilini o‘zlashtirgan kabi o‘rganishni taklif etadi. Har bir yozuvchi va shoirning ko‘ngil kechinmalari ularning asarlarida mujassam bo‘ladigan bo‘lsa, bu asarlarning tubidagi haqiqiy ma’nosi ramzlarda yashirin ekanligini ilg‘aymiz. Borliqni o‘z holicha emas, badiiy aks ettirishning turlaridan biri aynan ramz hisoblanib, u qadimdan to bugungi adabiy jarayongachayashab kelmoqda. Ramziy obrazlarni o‘rganish rus adabiyotshunosligida XX asr boshlaridan amalga oshirildi. N. Kostomarov [Kostamarov,
1860] xalq og‘zaki ijodi poetikasi bo‘yicha shug‘ullangan folklorshunoslar ichida birinchilardan bo‘lib, bu borada samarali ishlarni olib borgan. Ramz o‘tgan asrning 80yillaridan keyin xitoy adabiyotshunosligida teran tadqiq qilina boshlangandan so‘ng, olimlar tomonidan bu atamaga nisbatan turli farq qiluvchi qarashlar ilgari surila boshladi. Buning natijasida ramz haqida chuqur ilmiy asoslangan nazariy qarashlar paydo bo‘ldi.Bu ilmiy nazariyalar ramz tushunchasini atroflicha yoritib bera olgan.

Badiiy asarlarning tub mohiyatiga yetishda ramzlar tahliliga alohida e’tibor qaratish lozim, albatta. Badiiy ijod jarayonida qo‘llaniladigan ramzlar o‘zining xarakteri, imkoniyatlari va bajaradigan vazifalari jihatidan alohida qimmatga ega. Biz tahlil qilayotgan Gabriel Markesning “Atirgul tikoni” va Uilyam Folknerning “Emili uchun atirgul” hikoyalari sarlavhasidagi “atirgul” timsoli asar mazmunini yaqqol ifodalab, badiiyligini oshirgan. Demak, bu ikki hikoya sarlavhasining bir qismi sifatida gul muhim ramz rolida namoyon bo‘lgan.

Sharqda gul muhabbat ramzi hisoblangan. Mumtoz adabiyotda gul ma’shuqaga, bulbul esa oshiqqa tenglashtirilgan. Bu ayniqsa, she’riyatdao‘z aksini topgan. Mumtoz she’riyatda atirgul va bulbul muhabbati mavzusi keng miqyosda

kuylangan. Tasavvufda bulbul jonni, qizil atirgul esa Yaratuvchining barkamol go‘zalligini bildiradi. Badiiy asarning tahlilida atirgulning rangi, shakli va gulbarglari muhim o‘rin tutadi. Masalan, havorang atirgul erishib bo‘lmaydigan narsaning timsoli hisoblanadi. Oq atirgul esa hayot, xohish, ehtiros va ayni vaqtda mehr-muruvvat ramzidir. Gomer atirgulni gullar malikasi sifatida tarannum etgan. Atirgul “ma’buda” Afroditaning belgisi hisoblangan. Shuning uchun Afrodita kabi atirgul ham muhabbat va go‘zallik ramzidir ( Мингбоева, Дилрабо Тимсоллар тилсими [Матн]: Тимсоллар тавсифи ва таржималар, 2022,280-бет). Gabriel Markesning “Atirgul tikoni” va Uilyam Folknerning “Emili uchun atirgullar” hikoyalari ham aynan mana shu timsol negizida birlashadi.

“Atirgulning tikoni” hikoyasining muallifi Gabriel Garsia Markes Kolumbiyaning Arakatka shahrida tug‘ilgan. Markesning ijodida hikoya janri alohida o‘rinni egallaydi. Ko‘pgina tadqiqotchilar, yozuvchilar Frans Kafka, Jon Dos Passos, Albert Kamyu, Ernest Xeminguey va ayniqsa, Uilyam Folknerning Garsia Markes ijodiga ta’sirini ta’kidlaydilar (Muhammadjon Xolbekov. XX asr modern adabiyoti manzaralari (09). Lotin Amerikasi “sehrli realizmi”(02). Markesning Mersedesga bo‘lgan kuchli muhabbati uning yozgan asarlarida ham o‘z aksini topgan. Balki, shuning uchunasarlarida sevgini ishonarli darajada gavdalantira olgan. “Atirgul tikoni” hikoyasida ham ikki sevishgan yoshlarning ko‘nglidan o‘tgan kechinmalarini, baxt va baxtsizlik tushunchalarini kitobxonlarga to‘laqonli yetkazib bera olgan.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A’zam bu hikoyani “Men izlagan hikoya” nomi ostida quyidagicha izohlaydi: “Men bu hikoyani ko‘p yillar burun “Ogonyok” jurnalida o‘qigan edim. “Tafakkur” nashr etila boshlagach, uning sahifalarida shu hikoyani ko‘rish istagi tug‘ildi. Deyarli har sonda rejaga kiritiladigan asar, mana, olti yildirki, jurnaldan o‘rin ololmay, niyatimiz amalga oshmay keladi. Sababi – hikoya “yo‘qolib” qolgan. Olatasir saksoninchi yillarning ikkinchi yarmida chiqqan, lekin aniq qaysi yil-u qaysi sonda ekani yoddan ko‘tarilgan edi, uyimda saqlanayotgan jurnal taxlamlarini qayta-qayta varaqlayman – topilmaydi, topilmaydi.

Holbuki, jahon adabiyotida bundan boshqa ham ne-ne durdonalar bor! Buni qarangki, izsiz yo‘qolgan narsa Alisher Navoiy nomidagi bosh kutubxonamiz rahbariyatining sa’y – harakati bilan osongina topildi. Darvoqe, asar qahramonlari qismatida bizning shu hikoyani “yo‘qotib” qo‘yishimizga o‘xshashroq bir tushunmovchilikmi, sinoatmi bordek. Sinoatki, andak batafsil, sarmastu shohona hayot tasviri bilan boshlangan asar nogahonda..”,- deydi yozuvchi Erkin A’zam. “Atirgul tikoni” hikoyasining bunchalik ixlosmandlik bilan izlanishining sababini bilish uchun qisqa bayonini tahlil qilish kifoya.

Markesning “Atirgulning tikoni” hikoyasi muhabbat haqidagi go‘zal va mahzun asar. Unda butun hayoti hashamga, farovonlikka burkangan sohibjamol Nena Dakonte va Billi Sanchesning sevgi kechinmalari tasvirlab berilgan. Har ikkala obraz ham shaharni yotqizib-turg‘izadigan nufuzli xonadonlarining farzandlari edi. Billi Sanches har yili sinfdan sinfga o‘ta olmay, barcha xususiy va davlat maktablarining tuzini tatib ko‘rgan, axiyri ko‘pchilikning qarg‘ishiga uchragan yomon bolalar to‘dasiga qo‘shilib ketgan, xushsurat bir bezori edi. Nena Dakonte esa 18 yoshli, Shveytsariyadagi Shatelen internatida ta’lim olib, to‘rtta tilni o‘z ona tilidek biladigan xushro‘y qiz edi. Marbele plyajida noqulay vaziyatdagi uchrashuvi ular o‘rtasida zino sodir bo‘lishi va ikki oylik homilaning nikohsiz paydo bo‘lishiga olib keldi.

Dastlab, Hikoya Nena Dakonte va Billi Sanchesning asal oyini o‘tkazish uchun Parijga chiqqan sayohatidan boshlanadi. Ular yo‘lga Billi uchun tayyorlab qo‘yilgan eng so‘nggi nusxadagi “Bentli” rusumli mashinada yo‘lga chiqishgan edi. Yo‘l davomida Nenaning nikoh uzugi taqilgan barmog‘idan qon sizib chiqib, qo‘liga o‘ralgan ro‘molcha qonga bo‘kib, sira to‘xtamas edi. Uning bu ahvoliga yo‘lga chiqmasidan oldin, ikki yoshning nikohi munosabati bilan hadya qilingan “qizil atirgul” tikoning kirishi va natijada, nozik qo‘lning qizil qonga belanishiga sabab bo‘ldi. Bu tikon qizning qo‘lini jarohatlabgina qolmay, uni bevaqt o‘limga olib keldi. Hikoyadagi “atirgul”, “tikon”, “qizil” va “qon”ni timsol sifatida keltirish mumkin. Badiiy tahlilda bu timsollarni turlicha talqin qilish mumkin. Bizningcha, ular poklikdan (atirgul) gunohga o‘tdi va qilgan gunohlari uchun jazo (tikon) olib, qon (atirgul qizilligi) to‘kib jon beradi.

G‘arbda atirgul poklik va avliyolik ramzi. Atirgulda tikanlarning mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi – bu bilan gunohlar uchun muqarrar jazo to‘g‘risidagi tasavvurga urg‘u beriladi. Shuningdek, tikanlar shahidlik alomati (chunki ular Isoning tyork o‘simligidan yasalgan tojiga kiradi). Atirgulning qizil tusi – Isoning xochda to‘kkan qonidir ( Мингбоева, Дилрабо Тимсоллар тилсими [Матн]: Тимсоллар тавсифи ва таржималар,2022,45-бет). Shu o‘rinda, e’tiborimizni Nenaning yoshligidan inga-ingasini eshitgan va uning qo‘lini jarohatlab, vafot etishiga sabab bo‘lgan  o‘sha mash’um nikoh kunida qizil atirgul bergan doya ayolda ham bir ramziylik yashirin emasmikin, degan fikrlar ham yo‘q emas.

Bu doya ayol orqali “Hayot beruvchi ham Alloh, oluvchi ham Allohdir.”,- degan fikrni yozuvchi tag ma’no sifatida hikoyada yashirin ifoda etgan bo‘lishi mumkin. “Emili uchun atirgul” hikoyasining muallifi XX asr AQSH  adabiyoti tarixida birinchi o‘rinni egallagan adib Uilyam Folkner hisoblanadi. Yozuvchi XIX asrda V.Irving, M.Tven va S.Kreyn, XX asrda S.Anderson ijodida rivojlangan amerika qissalari an’analarini davom  ettirish bilan birga, kichik nasrning ko‘pchilik

zamondoshlari va izdoshlarida sezilarli darajada ajratib turadigan takrorlanmas o‘ziga xos hikoya qilish uslubini yaratdi( Muhammadjon Xolbekov. XX asr modern adabiyoti manzaralari. Uilyam Folkner. Jahon adabiyoti va madaniyati 18.09.2018). Uning “Emili uchun atirgullar”,“To‘zonli sentyabr”, “Uosh”, “Qora musiqa” singari hikoyalari Ibrohim G‘afurov tomonidan XX asrning 80-yillarida o‘zbek tiliga tarjima qilingan (U.Hamdamov, A.Qosimov. Jahon adabiyoti. (o‘quv qo‘llanma) 2017,307-bet). Folknerning “Emili uchun atirgul” hikoyasi boshlanish qismidanoq voqealarnining sirliligi va jumboqligi bilan o‘qirmanni o‘ziga tortadi. Hikoyaning ilk jumlasi asar mohiyatini yoritishda muhim ahamiyatga ega: Miss Emili Grirson o‘lganda, uni ko‘mish uchun butun shahar yig‘ildi: erkaklar qulagan ma’budga e’zoz-ikrom yuzasidan, xotinlar esa kamida o‘n yil inson qadami yetmagan xonadonni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgani ichlari oshiqib keldilar, chindan ham bu eshikka ham bog‘bon, ham oshpaz bo‘lgan qari xizmatkordan boshqa hech kim yaqin yo‘lamasdi. Miss Emili o‘limining bu qadar g‘aroyibligining sababi, u yashagan xonadon bilan bog‘liq jumboqning sirliligi o‘quvchining diqqatini voqeaga qarata oladi, shu o‘rinda asarning qiziqarliligini ham oshiradi.

Hikoya davomida, Miss Emili otasidan ayrilgan yillari Sartoris degan odam tufayli soliqlardan ancha yil ozod bo‘lib yuradi, garchi bu chiqarilgan farmoyish Sartoris o‘limidan keyin bekor bo‘lsa-da. Miss Emili otasi vafoti sababli g‘am-anduhda yurgan kezlari, Gomer Berron bilan tanishadi va uning yuzida yana hayotga muhabbat uyg‘onadi. Biroq, bu muhabbat uzoqqa bormadi. Emilini oxirgi marta dorixonadan margimush olganidagina ko‘chaga chiqqanini ko‘rishgan, Gomer Berronni esa oxirgi bor shlyapada Miss Emilining uyiga negr xizmatkori bilan kirib ketganidagina ko‘rishgan, xolos. Shushu odamlar Miss Emilining dafn marosimiga kelishadi va voqealar tuguni aynan shu hodisadan keyin yechiladi.

Endi, Miss Emili gullarga ko‘milib yotar, bosh tomonida otasining pastelda ishlangan teran o‘yga botgan surati osig‘liq turardi. Uyning tepa qavatida qirq yildan beri inson qadami tegmagan, eshigi qulflab tashlangan xona borligi hozir ma’lum bo‘lgan edi. Miss Emilining jasadi appon-sappon o‘z qabriga qo‘yilgandan so‘nggina bu xonani buzib ochdilar. Xuddi yangi kelin-kuyovlar turadiganday qilib yasatilgan va jihozlangan xonaning uzoq yillar o‘tirib qolgan changi qattiq harakat tufayli birdan to‘zib ketdi. Uy ichi achimsiq go‘r hidiga to‘lgandi. Rangi o‘chib ketgan pushti kimxob choyshab qatlari, chiroqlarning pushti soyabonlari, billur shishachalar va kumushdan ishlangan, soch-soqol anjomlari sochilgan mo‘jaz stolchalar − hammayoq gardga qoplangandi. Kumush buyumlar shunchalar ham xiralashib ketgandiki, endi ularga o‘yib yozilgan bosh harflarni ko‘rib bo‘lmasdi. Shu yerning o‘zida xuddi hozirgina yechilganday yoqa va galstuk yotardi, ularni yerdan ko‘tarib ko‘rganlarida chang pardasi ichra yarim gardish aniq iz qoldi.

Stulning suyanchig‘ida tekislab tashlab qo‘yilgan kostyum osilib turardi. Polda botinkalar, ularning yonida paypoqlar yotardi. Er kishining o‘zi esa karavotda edi. Jag‘i irshayib ochilib qolgan qo‘rqinchli bosh suyak chanog‘iga qaragancha anchagina jim turib qoldik. Murda xuddi kimnidir quchoqlaganday bo‘lib yotardi, lekin muhabbatdan boqiyroq uzun uyqu vaqt o‘tishi bilan uning barcha a’jubaliklari va nayranglarini tekislab, undan ma’shuqasini tortib olganday edi. Uning suyaklari uzra tungi ko‘ylakning churik parchalari laxtalanib yotardi. O‘lik xuddi karavotga singib ketganday edi va faqat shu ondagina biz ikkinchi yostiqda yengilgina bosh izi qolganligini ko‘rdik. Ichimizdan kimdir qo‘li bilan izni paypasladi va oldinga enkayib, ko‘zga tashlanmas to‘zonning quruq va achchiq hidini dimoqqa tortgancha biz bo‘zrang po‘lat tusidagi uzundan uzun soch tolasiga ko‘zimiz tushdi ( Фафуров таржимаси “Ёшлик” журнали, 1986 йил, 6-сон)”,deb hikoyani sirli yakunlaydi, Uilyam Folkner. Folknerning “Emili uchun atirgul” hikoyasi sarlavhasida kelgan “atirgul” timsolini asarning ikki o‘rnida uchraydi. Dastlab, Miss Emili chinniga gul solishdan bolalarga dars berganligi haqidagi jumlada uchraydi. “Gul” va “chinni” detallari ham qaysidir ma’noda ramziy ifodani o‘zida mujassamlashtirgan. Hikoyada, aynan, nasroniy insonlar hayoti tasvirlangan bo‘lib, chinni bezatish nasroniylarning diniy ramzi hisoblangan. Shu jihatdan bu ikki detalni jihatdan tahlilga oladigan bo‘lsak, gul – o‘lgandan so‘ng poklangan insonni, chinni esa tobutni ifoda etsa, go‘yoki o‘lim marosimini olib boruvchi shaxs o‘ziga izdosh qoldirish maqsadida bilganlarini o‘rgatayotganga mengzasa bo‘ladigandek tuyiladi.

Hikoyaning keying o‘rnida keladigan gul tasviri, Emili o‘lganda uning atrofi gullarga ko‘milib yotish voqeasida namoyon bo‘ladi. “Atirgulning tikoni” hamda “Emili uchun atirgul” hikoyalari G‘arb adabiyoti na’munalari hisoblanib,hikoyalarda bevosita nasroniylik dinining chizgilari yaqqol sezilib turishi bilan ham bir-biriga juda yaqin.

“Atirgul” – ikki hikoyada ham ayol ramzini ifoda qilgan, uning qizil rangi – sevgi, undagi tikonlar kemtiklikdan yuzaga kelgan g‘am-qayg‘u, tikonlar sabab oqqan qon esa qayg‘u-alamning ustun kelib, jonning tanadan uzilishi kabi ma’nolarni aks ettirgan. Hikoyalardagi “atirgul”ning qizil rangi turli xil ramziy ma’nolarda qo‘llanilgan. Masalan, turkiy xalqlarda – navqironlik, nasroniylikda – muhabbatni, kshtariylarda – ehtiros, hind xalqlarida qizil rang dahshat, o‘lim, motam rangi sanalgan. Fransuz rassomi Matiss: “Qo‘limga yashil bo‘yoq olsam, bu mening maysa rasmini chizmoqchi ekanligimni bildirmaydi” deganidek, hikoyadagi gulning qizil rangi va qonning qizilligi ikki xil ma’noni ifoda etgan, ya’ni atirgulning qizil rangi sevgimuhabbatni ifoda etgan bo‘lsa, qonning qizilligi esa o‘limdan darak bermoqlikdir.

“Atirgulning tikoni” hikoyasida Nina Dakonte o‘z sevgisini, qalbida mavjlanayotgan tuyg‘ularning turmush o‘rtog‘i Billi Sanches tomonidan hashamat ichra bir muddat e’tiborsiz qoldirilganidan, qizning muhabbati g‘amga almashib, go‘yoki suvsiz qoldirilib, so‘lgan atirguldek oxir-oqibat halok bo‘lishiga olib keldi. “Emili uchun atirgul” hikoyasida esa Emili Grirsondagi muhabbat kuchining izdan chiqishi esa Gomer Berronni o‘zi bilan tubsiz sevgi qariga olib ketdi. To‘g‘ri, Emili Gomerni o‘ldirdi, o‘zi esa ancha yil yashadi, ammo u ruhan o‘lgan, uning hayotni his qilmagan tanasi tirik edi, xolos. Emili umrining oxiriga qadar Gomer bilan xayoliy va sirlihayot tarzida yashaydi, uning jonsiz tanasini tobutga sira bergisi kelmaydi. Shu o‘rinda, Emili otasi o‘lgach uch kungacha murdani ruhoniy va doktorlarga bermagani yodimizga tushadi. Miss Emili ham bir tikonli gul edi, atrofdagilar unga yaqinlasha olishmadi, Gomer esa gulga oshiq bo‘lib, tikanini unutdi. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Gabriel Markes “Atirgulning tikoni” va Uilyam Folkner “Emili uchun atirgul” hikoyalari hozirgi kunga qadar o‘z ahamiyatiuni yo‘qotmagan, qayta-qayta o‘qilayotgan, kitobxonlar orasida keng muhokamalarga sabab bo‘layotgan asarlar sirasiga kiradi.

XX asrning eng mashhur adiblari tomonidan yozilgan bu ikki hikoya, ularning boshqa asarlariga o‘xshamagan “sirli realizm” ruhida yozilganligi bilan ham ajralib turadi. Hikoyalar hajm jihatdan kichik bo‘lsa-da, ularning tag zamirida qat-qat ma’nolar, ramzlar yashirin. “Atirgulning tikoni” hikoyasidan gulning birgina tikoni oqibatida hashamat ichida davron surayotgan ikki yoshning endigina boshlangan hayotini o‘lim orqali izdan chiqib ketsa, “Emili uchun atirgul” hikoyasida esa gulning tikoni uni yaxshi ko‘rib, uzmoqchi bo‘lgan oshiqning o‘limi bilan yakunlanib, inson qalbida o‘zgacha hislarni uyg‘otishi bilan yakunlanadi. Ma’lumki, hikoyalar o‘z sirini hozirga qadar boy berganicha yo‘q, bu sirlar tufayli ongda tugunlar xosil bo‘ladi. Shuning uchun ham bu asarlarga kitobxon qayta-qayta murojaat qilib, o‘sha yashirin yechimni ochishga harakat qiladi. Bu tugunlarni faqatgina, keltirilgan detallarning ramziy jihatdan tahlil qilish orqali yechimga ega bo‘lish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Атиргулнинг тикони (Матн) / тўпловчи С.Ёқубов. – Тошкент: «O‘zbekiston» НМИУ, 2016. – 182 -198 б.
2. Иброҳим Ғафуров таржимаси “Ёшлик” журнали, 1986 йил, 6-сон.
3. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими [Матн]: Тимсоллар тавсифи ва таржималар.
   – Тошкент: “Adabiyot” нашриёти, 2022.
4. Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari. Uilyam Folkner.

5. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари. -
Тошкент: Фан, 2007.
6. Hamdamov U, Qosimov A. Jahon adabiyoti. (o‘quv qo‘llanma). -T.: «Barkamol fayz media», 2017,352 bet.
7. https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/gabriel-garsia-markes-atirgul-oshkoraqotillik.html
8. https://uz.eferrit.com/emily-uchun-gul-unvon-haqida-nima-muhim/
9. https://yoshlikjurnali.uz/mulohaza/kichik-janrning-katta-dunyosi/

## METAFORA SATHIDAGI HIKOYA

*Qaxramonova Sabinabonu Dilshodovna*
*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti*
*O‘zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi.*
*sabinabonuqaxramonova@gmail.com*
*+998883240702*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Lotin Amerikasi adabiyoti namoyondalaridan biri bo‘lgan Xulio Kortasar ijodi hamda hikoyalarining o‘zbekcha tarjimalari haqida atroflicha ma’lumot berilgan. Yozuvchining “Ishg‘ol qilingan uy” hikoyasi tahlili orqali Xulio Kortasar ijodiga xos xususiyatlar ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *hikoya, personaj, obraz, uslub, ramziylik, detal, fusunkor realizm***.**

**Abstract:** *This article provides detailed information about the work of Julio Cortazar, one of the representatives of Latin American literature, and Uzbek translations of his stories. Through the analysis of the writer’s story “Ishg‘ol qilingan uy”, the characteristics of Julio Cortazar’s work are revealed.*

**Key words:** *story, character, image, style, symbolism, detail, magic realism.*

XX asr Lotin Amerikasi adabiyoti o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u doimo rivojlanish, izlanish yo‘lidan bordi. Lotin Amerikasi adabiyoti namayondalari asarlarida milliy ruh, bashariyat taqdiri, jamiyatdagi qusurlar yaqqol ifodalanadi. Shu kabi ijodkorlar orasida fusunkor realizmda ijod qilgan ikki qit’ada birdek mashhurlikka erishgan Xulio Kortasar ham bor .

Xulio Kortasar argentinalik yozuvchi bo‘lib, u Lotin Amerikasi adabiyotida individual uslubiga ega bo‘lgan yozuvchi sifatida e’tirof etiladi. Xulio Koratasar 1914-yil Belgiyaning Bryusell shahrida tavallud topgan, uning yoshlik yillari Buenos-Ayres shahrida o‘tdi. Universitetni moliyaviy tanqislik tufayli tugatolmagani uchun yetti yil davomida qishloq o‘qituvchisi bo‘lib ishlashga majbur bo‘ldi. U nasrning ko‘pgina janrlarida salmoqli ijod qilgan bo‘lsa-da, she’rlari bilan

ham o‘z muxlislariga ega edi. Ijodkorning ilk she’riy to‘plami “Hozirlik” nomi ostida chop etildi. Kortasar ko‘plab asarlar yaratgan bo‘lishiga qaramay, hammasini ham nashrga bermagan. Yozuvchining dastlabki “Ishg‘ol qilingan uy” hikoyasi ustozi Lui Xorxe Borxes tomonidan chiqariluvchi jurnalda chop etilgan. “Kortasar ijodidagi alohida jihat shundaki, uning o‘zi tayyorlab nashrga topshirgan hikoyalar har gal har xil holatda nashr ettirilgan. Ular har gal qayta ishlangan, boyitilgan, syujet qobig‘ida turli munosabat qavatlar paydo bo‘la borgan. Bu esa uning asarlari haqidagi adabiy qarashlarning, tarjimalarning uzluksiz o‘zgarib borishiga olib keladi”. (Hamdamov, Qosimov, 2017, 323-bet). Xulio Kortasar kichik hajmdagi hikoyalarida ham katta falsafiy qarashlarni, insoniyatni qiynab kelayotgan muammolarni aks ettirgan. U barcha hikoyalarida yolg‘onga, zulmga, jaholatga qarshi turadi. Adib har qanday asarida uslub va tafakkur o‘yiniga oid turli badiiy kombinatsiyalardan foydalanadi.

O‘zbek tiliga Kortasarning sanoqli hikoyalarigina tarjima qilingan. Oz bo‘lsa-da qilingan mazkur ishlar adabiy jarayon takomiliga muayyan hissa qo‘shadi. Olim Otaxon, Ne’mat Arslon, Sharifjon Ahmad tarjimalari orqali o‘zbek o‘qirmanlari Kortasar ijodi bilan tanishdi. Ular Xulio Kortasar asarlarini nashrga tayyorladilar. Kortasar hikoyalarini Olim Otaxonov va Ne’mat Arslonov rus tilidan , Sharifjon Ahmad esa to‘g‘ridan to‘g‘ri ispan tilidan tarjima qilgan bo‘lib, yozuvchining ichki kechinmalari, dardlarini to‘laqonli his qilish uchun adib yozgan Parij yo‘llarida yuradi, ko‘chalarda tirbandliklarga qolib ketadi, binolarni o‘z ko‘zi bilan ko‘radi. Bu orqali Sharifjon Ahmad Kortasar istagan “hammuallif -tarjimon” bo‘lishni, yozuvchiga yana-da yaqinroq bo‘lishni xohlaydi.

“Xulio Kortasar ijodini birinchi marta o‘zbek adabiyotiga keng targ‘ib qilgan, umuman, “kortasarchilik” kasalligini adabiy muhitimizga “yuqtirgan” ijodkor Olim Otaxon edi. “Men o‘tgan asrning 80-yillari boshida birinchi marta Kortasar nomini O.Otaxondan eshitganman. Olim aka “Ishg‘ol qilingan uy” hikoyasi haqida gapirib, hikoya usuli, ruhiyati, ifoda usulini milliy nasrimizga qiyoslab tahlil qilib bergandi. Keyinchalik “Aksolotl”, “Tilla baliqchalar” hikoyalari haqida ham shunday jo‘shib gapirgan. Albatta, Olim akaning hayajonli tahlillaridan so‘ng Kortasar biz uchun salkam afsonaviy adibga aylangan, bizda uning ijodiga qiziqish epidemiya shakliga kirgan”. (Kortasar, 2024, 6-bet)

Ushbu maqolada yozuvchining “Ishg‘ol qilingan uy” hikoyasi to‘g‘risda fikr yuritishga urinamiz. Syujet odatdagi voqeaband hikoyalar syujetidan farq qiladi. Bu hikoyada real voqelik fonida inson ruhiyatining ramziylashtirilgan talqini yetakchilik qiladi. Hikoya yoshi qirqqa yaqinlashib qolgan, ammo hali turmush qurmagan aka-singilning hayot tarzi tasviri bilan boshlanadi. Ular har kuni ertalab uyg‘onib, oynalarni ochib hamma joyni tozalab bo‘lishgach, o‘zlarining doimiy

ishlari bilan band bo‘ladilar. Irena xonasiga kirib kun bo‘yi bir nimalar to‘qiydi. Uy egalari bundan boshqa ishlar bilan mashg‘ul bo‘lmaydilar. Ularning kundalik hayot-tarzi shundan iborat. Aka-singil uchun ota-bobolarning xotirasi mudom barhayot bo‘lgan uy hamma narsadan qadrli, ular qo‘rqadigan yagona narsa - ota makonidan judo bo‘lish.

Kitobxonga aniq tasavvur uyg‘otish uchun yozuvchi uyning chizmasini, xonalar joylashuvini berib o‘tadi. Xonalar birin-ketinlikda noma’lum kuchlar yordamida zabt etila boshlanadi. Uy egalari, shovqin va g‘o‘ng‘illagan ovoz eshitilgan xonalarni qulflab, boshqa xonada yashay boshlaydilar. Ularning kunlik qiladigan yumushlari kamayib, yengillashib boradi, axiri, noma’lum kuchlar so‘nggi xonani ham ishg‘ol qiladi-yu aka-singil uyni qulflab chiqib ketishadi. Hikoya syujeti shu zaylda tugaydi. Hikoya fusunkor realizmga xos bo‘lgan metaforik obrazlar ustiga qurilgan. Fusunkor realizm yondashuvidagi asarlarda faktlar cheksiz fantaziya bilan qorishib, inson va butun jamiyat mohiyatini ochib berishga asoslanadi. Shu o‘rinda adabiyotshunos olim va yozuvchi Nazar Eshonqulning ushbu uslub yoyilishida Kortasar nomini alohida e’tirof etganini keltirib o‘tishimiz mumkin . “Garchi biz “fusunkor realizm” haqida Tal’at Solihov saboqlaridan eshitgan bo‘lsak ham, umuman, bu qanday uslub, nimaga suyanadi, nimaga tayanadi, voqelikni qanday tasvir etadi – bu haqida tasavvurga ega emasdik. Kortasar hikoyalari menga, umuman, bizning avlodga bu uslub haqida to‘laqonli tasavvur bera olgan deb bemalol ayta olaman”. (Kortasar, 2024,6-7-betlar).

O‘z davrida ham ushbu hikoya ko‘plab tadqiqotchilarning diqqat markaziga tushdi va Nazar Eshonqul fikricha adabiyotshunoslar hikoyani turlicha talqin qilishgan:

Ayrim tadqiqotchilar talqiniga ko‘ra uy oila ramzi. Xonalarning ketma-ket ishg‘ol qilinishi esa o‘sha davr oilaviy munosabatlar, xususan aka-singil qadriyatlarining buzilishi ifodasi. Insonning qadriyatlarga bo‘lgan munosabati ishorasidir. “Bir toifadagi tadqiqotchilar sirli shovqinni insonning yolg‘izligi deb tahlil qilishdi. Ularning fikricha, yolg‘izlik uyni, keyin aka-singilning ko‘nglini ham zabt etib oldi. Boshqa adabiyotchilar bu noma’lum kuchni o‘sha davrda Argentinani zo‘rlik bilan changalida ushlab turgan va butun mamlakatga qo‘rquv, vahima solayotgan xuntaning timsoli, uyni esa Argentina deb taxmin qilishdi: ularning talqiniga ko‘ra, aka-singil qo‘rquv tufayli o‘z uylarini tashlab ketishdi”. (Kortasar, 2024, 15-bet).

Fikrimizcha, yozuvchi bejiz qahramonlarni yolg‘izligiga urg‘u bermagan, ulardagi yolg‘izlik, oila qurmasdan o‘tib ketishlikka sabab o‘sha uy hamda Argentinadagi ma’naviy muhitning buzilishidir. Go‘yoki xonalar ishg‘ol qilinsa uy egalari qalbidagi sof, bashariy qadriyatlar ham yo‘qlikka yuz tutadi. Aka-singil

uydan chiqib ketishi natijasida ularning hayotida uydan boshqa muhim narsalar ham paydo bo‘la boshlaydi.

Xulio Kortasar postmodernist yozuvchi bo‘lib, uning ijodida hikoyalar alohida o‘rinda turadi. Kitobxon hikoyalarni o‘qish jarayonida Kortasar shaxsiyatini yaqindan tanishga muvaffaq bo‘ladi. Adib asarlarida erk, adolat, inson sha’nini ulug‘lash kabi g‘oyalarini o‘ziga xos uslub va yo‘nalishda ilgari suradi. Hikoyalari orasida “Ishg‘ol qilingan uy” yuksak darajani egallaydi. Asar ramziy asosga qurilgan va hikoyada nainki, Argentina, nainki bitta oila, balki bashariyat hayotida kechayotgan ma’naviy tanazzul ifodalanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hamdamov.U, Qosimov.A . Jahon Adabiyoti, (O‘quv qo‘llanma) .Toshkent: Barkamol fayz media, 2017.

2. Jo‘raquov. U, Hamroyev. K. Qiyosiy adabiyotshunoslik, (O‘quv qo‘llanma). Toshkent: Lesson press nashriyoti, 2021.

3. Jo‘raquov. U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop, Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijod uyi, 2015.

4.Nazar Eshonqul. Mendan “men”gacha . Adabiy- tanqidiy maqolalar to‘plami- Toshkent: Akademnashr, 2014.

5. Xulio Kortasar. Ishg‘ol qilingan uy. Hikoyalar. Ispan tilidan Sharifjon Ahmad tarjimalari. Toshkent: Akademnashr, 2024.

## “NOVVOY QIZ” HIKOYASIDA VOQELIK VA BADIIY OBRAZ UYG‘UNLIGI

***Qudratova Shohista Azamatovna,***

*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti,3-kurs*

*shohistaqudratova9@gmail.com*

*Ilmiy rahbar:Norqulova Maftuna*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Cho‘lponning “Novvoy qiz” hikoyasidagi voqelik va badiiy obraz o‘rtasidagi uyg‘unlik haqida so‘z yuritiladi. Umuman, Cho‘lpon nasriy asarlarining mazmun-mohiyati, adib ijodida hikoya janrining o‘rni yuzasidan mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, maqolada XX asr o‘zbek adabiyotiga realistik hikoyalari bilan kirib kelgan adib va uning hikoyalarida hayotni badiiy aks ettirish tasviri ustunlik qilishi kabi fikrlar bildirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Syujet, kompozitsiya, badiiy obraz, realistik tasvir, hikoya, voqelik, talqin, tahlil.*

***Annotatsion.*** *This article talks about the harmony between the reality and the artistic image in the story “The Baker Girl” by Cholpon. In general, the content and essence of Cholpon's prose works and the role of the narrative genre in the literary*

*work were discussed. Also, in the article, opinions such as the fact that realistic stories entered Uzbek literature of the 20th century and that the image of artistic reflection of life prevails in the stories of writers.*
***Key words:*** *Plot, composition, artistic image, realistic image, story, reality, interpretation, analysis.*

O‘zbek nasri, dramaturgiyasi, tanqidchiligiga katta hissa qo‘shgan, XX asr adabiyotining yorqin vakillaridan biri Cho‘lpon o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega.

Nazm, nasr, dramuturgiya, adabiyotshunoslik, tanqidchilik va tarjimachilik sohasida qalam tebratgan Cho‘lponning asarlari, she’rlari, maqolalari va tarjimalari o‘zbek kitobxoniga yaxshi tanish. Ayniqsa, “Kecha va kunduz” romani Cho‘lpon ijodining cho‘qqisi hisoblanadi. Adib katta janrlardan tashqi, kichik janrlarda ham qalam tebratgan bo‘lib, uning hikoyalari adabiyotshunoslar tomonidan hozirga qadar o‘rganiladi, tahlil, talqin qilinadi.

XX asr o‘zbek hikoyalarining tarixiy-nazariy xususiyatlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, hikoyaga xos badiiy kompozitsiyasining har bir adib ijodida o‘ziga xos tarzda poetik butunlik kasb etganligini ko‘rinadi. Hikoya epik turning eng kichik janri bo‘lsa-da, unda qahramon taqdir yo‘lining kichik bir epizodi ixcham va ravon tasvirlanadi. XX asrning 20-30-yillarida o‘zbek nasri yangi yo‘nalishlari bilan yangi bosqichga ko‘tarila boshladi. Bu davr hikoyalarida realistik hikoyachilik bilan birga hajviy hikoyalar yaratishga ham e’tibor berila boshlandi. Masalan, Abdulla Qodiriy “Kalvak maxzumning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lat tajang nima deydi?” kabi asarlari bilan hayviy hikoyachilikka asos solgan bo‘lsa, Cho‘lpon “Oydin kechalarda”, “Qor qo‘ynida lola”, “Novvoy qiz” kabi hikoyalari bilan realistik hikoyachilikka asos soldi. Cho‘lponning bu hikoyalarida realistik tasvir yordamida qahramonlar ruhiyatining turfaligi badiiy vositalar bilan ochib berilgan. Adib hikoyalarda psixologik tahlil ustun bo‘lib, insoniy tuyg‘ularning ma’naviy tubanliklar tufayli toptalish jarayonlari aks etgan. Bu haqida adabiyotshunos D.Quronov shunday deydi: “Cho‘lponning realistik adabiyot tamoyillarini egallash yo‘lidagi izlanishlari milliy tariximizdagi bag‘oyat mas’uliyatli – millatning istiqbol yo‘lini belgilash zarurati ko‘ndalang bo‘lgan bir davrga to‘g‘ri keldi”( Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi,2004,23-bet). Haqiqatdan ham, adib jamiyatdagi ma’naviy evrilishlarga befarq bo‘lmadi, ijtimoiy hayotni isloh qilish yo‘lida tinmay harakat qildi. Shuning uchun Cho‘lpon nasrida hayotni badiiy aks ettirish o‘z aksini topadi.

Shuningdek, adib hikoyalarida oddiy xalqning turmush tarzi, davr fojialari, XX asrda ayollarga bo‘lgan munosabat kabi masalalar yoritiladi. Cho‘lpon hikoyalarini kuzatar ekanmiz, ularda Yevropa ma’rifatchiligiga xos xususiyatlar ham ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, “Qurboni jaholat”, “Doktor Muhammadyor” hikoyalarida bu xususiyatlar yaqqol ko‘rinadi.

Choʻlpon qaysi mavzuga murojaat etmasin, badiiy voqelikni poetik til va obrazlar orqali mujassamlantirishga erishdi. Shu ma'noda uning 20-yillarda yozgan "Oydin kechalarda", "Qor qoʻynida lola", "Novvoy qiz" singari hikoyalari oʻzbek adabiyotidagi realistik hikoyachilikning dastlabki mumtoz namunalaridir. Choʻlpon bu hikoyalarida oʻzbek xotin-qizlarining ayanchli taqdirini turli badiiy boʻyoqlarda tasvirlar ekan, har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi shu jamiyatning xotin-qizlarga boʻlgan munosabati bilan belgilanadi, degan gʻoyani ilgari suradi. Umuman, oʻzbek xotin-qizlarining mustamlakachilik sharoitidagi taqdiri tasviri Choʻlpon ijodining asosiy gʻoyaviy yoʻnalishini belgilab bergan (Wikipedia.org).

Haqiqatdan, bu davrda mehnatkash xalqning turmushi ogʻir kechar, ayniqsa, oʻzbek ayollarining mashaqqatli qismatida zarracha oʻzgarish boʻlmadi.

XX asrda koʻp jadidchilar ijodida mehnatkash xalqning turmush tarzini oʻzgartirish, jamiyatda ayollarga boʻlgan munosabatning yaxshilanishi uchun harakat qildilar. Choʻlpon, Hamza ijodida xotin-qizlarining erkinligi, ozodligi va ma'rifatini kuylovchi asarlar yaratildi. Hamzaning "Maysaraning ishi", "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" kabi asarlarida ayollar erki, ularning jamiyatda alohida oʻringa egaligi, ma'rifat ulashishda erkaklar kabi ayollar ham bir maqomda turishi kabi masalalar yoritildi. "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" dramasidagi Maryam obrazi oʻz erki uchun, ochiqcha, kurash olib boradi. Oʻzidan yoshi ancha katta boʻlgan eshonni, bilimi, ma'rifati bilan yengishni uddasidan chiqadi. "Maysaraning ishi" asarida ham Maysaraning ma'rifatliligi, uddaburonligi tufayli bir nechta ayollar oʻz erkiga, ozodligiga erisha oladi.

Choʻlponning hikoyalarida ham ayollar taqdiri mavzusi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, adibning "Novvoy qiz" hikoyasidagi qahramon taqdirida kechgan fojeliklar, oʻzi oila qiyinchiliklari, turmush mashaqqatlari boshiga tushgan novvoy qizning jamiyat tomonidan tahqirlanishi tasvirlanadi. Avvalo, hikoya sarlavhasiga e'tibor qarataylik. Adib tomonidan hikoyaga "Novvoy qiz" deb nom berilishi, bejiz emas. Non muqaddas ne'mat. Uning har magʻzi, har boʻlagida mehnatkash xalqning mashaqqati, hayot mazmuni yotadi. Non bilan oshno boʻlgan kishidan esa yomonlik chiqmaydi, nomussizlik qilmaydi. Jamiyat tomonidan razillik qurboniga aylangan qahramon qizning aybsizligi, samimiyligini isbotlash uchun ham uni "Novvoy qiz" deb atagan ( Erkinova Fotima. Mamadaliyeva Mamlakat. Choʻlponning "Novvoy qiz" hikoyasidagi chizgilar,2022). Lekin, mana shu samimiylikka ham koʻz tashlaydigan, uni oʻziniki qilishni xohlaydigan nomard insonlar ham bor oramizda. Mana buning, yaqqol misoli Oʻlmasboydir. U qizga erishish uchun shunchalik mukammal reja tuzadi-ki, xotinlarning qachon qovun saylidan kelishini oldindan bilib turadi. Yetmagandek, qilig'ilikni qilib qoʻyib, oʻzini "kalimagoʻy" deb atashi, kishini ensasini qotiradi. Oʻlmasboy-ku qilar ishni qildi,

jamiyatchi? Jamiyat, atrofdagi odamlar nega bu holga ko‘z yumdilar? Qizning onasini o‘lganini bilmagan odamlar, qanday qilib bu darajada qizni aybdorga chiqara olyapti?! Orqasida himoya qiladigan tog‘i bo‘lmagan, kimsasiz qizni jamiyat nomusini yer bilan yakson qildi. Uning tarafini hech kim olmadi, hamma uni qo‘li bilan bigiz qilib ko‘rsatib o‘tdi. Qizning aybdor emasligini, O‘lmasboyning uyidagi devor va derazalar bilan o‘sha yerda qolgan non savatidan boshqa kim biladi? Hech kim! U jonsiz narsalardan un chiqmasa, ovoz eshitilmasa, tovush kelmasa, nima qilish kerak?

Dengiz - qiz qullarday jim turib so‘zladi. Qirg‘oq – O‘lmas tog‘larday tinch turib tingladi. Qirg‘oq ag‘darildi. Tog‘lar yiqildi. Dengiz mavjlari va to‘lqinlarini quchog‘iga olib,ularni qirg‘oqlardan saqlash, qo‘riqlash qayg‘usiga botdi( Cho‘lpon. Asarlar. II jild, 1994, 297). Qiz endi oldingidek, jim turmadi. U endi “Xotinlar sho‘bosining raisasi”. Endi uni hamma eshitadi. Mana endi u jamiyat oldida, fikrlarini baralla ayta oladi. “Qing‘ir ishing qiyig‘i qirq yildan keyin ham chiqadi”, deganlaridek, aybdor o‘z jazosini oldi.

Hikoyada muallif ayolning muqaddas ekanligini, Haq tomonidan erkaklarga omonat qilib berilganligini uqtirmoqchidek, go‘yo. Muqaddas dinimiz Islomda ham barchaga birdek xitob qilinib, erkak va ayollarga tenglik ila muomala qilingan. Qur’oni Karimning Niso(Ayollar) nomi bilan alohida sura nozil qilingan bo‘lib, unda ayollarga muomala qilish hukmlari bayon etilgani dinimizda ularning ehtirom qilinganini ko‘rsatib beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Cho‘lpon “Novvoy qiz” hikoyasida xotin-qizlar huquqlari, ularning muqaddas ekanligi ta’kidlash bilan birga, mudrayotgan jamiyatni uyg‘otishga harakat qilgan. Hikoyada aybdor bir inson deb ko‘rsatiladi, ammo faqat bir inson emas, balki bu yerda butun jamiyat aybdor. Novvoy qiz esa man shu mudroq jamiyatning qurboniga aylanadi. Oxir oqibat haqiqat qaror topadi. Adib bu hikoya bilan ayollarning jamiyatda alohida o‘rni borligiga urg‘u beradi. Haqiqatdan, ayol – jamiyat ko‘zgusidir. Uni qadrlash, ko‘zqorachiqday asrash, jamiyatdagi har bir insonning vazifasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Erkinova Fotima. Mamadaliyeva Mamlakat. Cho‘lponning “Novvoy qiz” hikoyasidagi chizgilar. 2022. №2.
2. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. T.:Sharq, 2004.
3. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi.T.:G‘afur G‘ulom, 2017.
4. Sharafiddinov Ozod. Cho‘lponni anglash. T.:Sharq, 2004.
5. Cho‘lpon. Asarlar. II jild. T.: Xazina, 1994.

# QAYG‘USIZ ABDOL VA ALISHER NAVOIY IJODIDA TASAVVUF BILAN SUG‘ORILGAN SATRLAR (“VUJUDNOMA” VA “HAYRAT UL-ABROR” ASARLARI MISOLIDA)

*Safartosheva Shalola Aktam qizi,*
*Chirchiq davlat pedogogika unversiteti magistranti*
*shalolasafartosheva.@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada turk tasavvuf adabiyotining yirik vakili Qayg‘usiz Abdolning “Vujudnoma” va Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarlaridagi tasavvufiy o‘rinlarning o‘xshashligi haqida gap boradi va misollar bilan izohlanadi.*
***Kalit so‘zlar:*** *Tasavvuf, Qayg‘usiz Abdol, Alisher Navoiy, “Hayrat ul-abror”, yetti sayyora, o‘n ikki burch, tasavvufiy istilohlar, inson tana a’zolarining uhroviy vazifalari.*
***Annotation:*** *This article talks about the similarity of mystical places in the works of “Vujudnoma” by Kaygusiz abdol, a major representative of Turkish Sufi literature and “Hayrat ul-abror” by Alisher Navoi and explains them with examples. provides detailed information about the life and work of Kaygusiz Abdol, a major representative of Turkish Sufism literature that Uzbek readers have not yet met.*
***Key words:*** *Sufism, Kaygusiz Abdol, Alishe Navoi, “Hayrat ul-abror”, seven planets, twelve duties, mystical reforms, heavenly functions of human body parts*.

Inson yaratilibdiki, o‘zini anglash, borliqning bir zarrasi, ajralmas va muhim bir bo‘lagi ekanini o‘rganish va chuqur his qilish barcha ilmlarning dolzarb, o‘rganilayotgan va eskirmas mavzusidir. Bunday qarashlarning, xulolasalarning mushtarakligi ijod mahsulining turli ko‘rinishlarida aks etadi. Xususan, asrlar osha millatlarni, qalblarni, fikrlarni bir-biri bilan tanishtirib, bog‘lab kelayotgan badiiy adabiyot va uning tamal mavzusi tasavvuf bu o‘rinda yetakchilardandir. Tasavvuf ta’limoti o‘zining tadrijiy taraqqiyotiga ega bo‘lib, Sharq olamida, xususan, Islom dunyosida VIII asrning o‘rtalarida bo‘y ko‘rsata boshlagan. Irfoniy hayotdagi bu hodisa o‘z davri adabiyotlarida gavdalana boshlaydi, hattoki, asosiy mavzuga aylanib qoladi. Biror asar yozishda ham xoh u tarixiy bo‘lsin, xoh u ilmiy bo‘lsin, xoh u badiiy bo‘lsin asar debochasi tasavvufiy kayfiyatda, dastlab Haqqa hamd-u sanolar, keyin Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga na’t, to‘rt chohariyorga bag‘ishlovlar bilan bezatilgan. Bundan tashqari mushtaraklik kasb etuvchi boshqa unsurlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Quyida turk mutasavvuf ijodkori Qayg‘usiz Abdolning “Vujudnoma” va g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarlari misolida tasavvufiy unsurlarning o‘xshash va farqli o‘rinlarini ko‘rib chiqamiz. Hali o‘zbek kitobxonlarining ko‘pchiligi tanib ulgurmagan

Qayg‘usiz Abdol ham turk tasavvuf vakillaridan biri. Turk mutasavvufchi olimi Abdurahmon Go‘zal va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan uning hayoti va ijodi batafsil o‘rganilgan, tadqiq qilingan.

Ma’lumki, insonlik Sharq mumtoz adabiyotida jami yaratiqlar orasida eng buyuk, sharaf toji bilan siylangan yuksak maqomdir. Qayg‘usiz Abdolning “Vujudnoma” asarida inson tanasining turli a’zolari bilan ba’zi diniy, tasavvufiy va borliqqa oid tushunchalar o‘rtasida o‘xshatish, qiyoslashlar keltirilgan va ular o‘rtasida aloqa o‘rnatishga harakat qilingan. Masalan: qora qishni shariatga, yozni tariqatga, kuzni ma’rifatga, bahorni haqiqatga o‘xshatadi. Navoiyda ham tariqatning to‘rt bosqich shunday izohlanadi. Asarda Qayg‘usiz Abdolning hol tasvirlari ham uchraydi. Unga ko‘ra, shoir oyog‘i yerga tegmasdan, doimo osmonda, bo‘shliqlarda sarson uchib yurishi, nimanidir izlashi keltirilgan. Bundan tashqari asarda inson tana a’zolarining har biriga, o‘n ikki burch va yetti sayyoraga tasavvufiy, uhroviy vazifai a’mol yuklatilganligi haqida so‘z boradi. Alisher Navoiy “Xamsa”sining falsafiy-tarbiyaviy mazmundagi birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” ham mumtoz adabiyot an’analariga muvofiq tarzda boshlanadi.

“Bismillohir-rahmonir-rahim, Rishtag‘a chekti necha durri yatim” deb Navoiy Islom dinining asosiy kitobi bo‘lgan Qur’onning mashhur bosh jumlasi (“Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman”)ni keltiradi. Shundan so‘ng ushbu arabiy jumladagi har bir so‘zning har bir harfiga katta ma’no yuklatilganligi haqida nazmiy izohlar beriladi. Navoiyning Alloh va uning ismi butun koinot va mavjudot bilan chambarchas bog‘langanligini dostonning avvalida go‘zal tashbeh, tasvirlar bilan keltiradi. Bu o‘rinda Navoiy harf san’atidan ko‘proq o‘z diniy-falsafiy qarashlarini yorqin ifodalashda badiiy vosita sifatida foydalangan. Qayg‘usiz Abdol ham asarining boshidan oxirigacha kitobot san’atidan unumli foydalanadi.

Yaratilgan narsalarning eng buyugi, sharaflisi inson deya ikki asarda alohida urg‘u beradi. Qayg‘usiz Abdolda uchragani kabi Navoiyda ham yetti sayyora va o‘n ikki burchga murojaat, tashbehlar mavjud. Bundan tashqari ikkala asarda ham harflar bilan bog‘liq tavsiflar uchraydi. “Vujudnoma”da harflarga inson tanasidagi ma’lum bir a’zolari bilan juftlik hosil qilib, o‘z vazifasi borligi aytiladi: “Asl odamning vujudi yigirma sakkiz harf uzra yaratilmishtir.[1]

Odamning boshi Arshdir va nuqtayi “ba”dir.
Va ikki qoshi, biri “fa”dir va biri “kof”dir,
Va ikki ko‘zlari, biri “ayn”, biri “g‘ayn”,
Va ikki qulog‘i, biri “zal”dir,
Va iyagi “jim”dir,
Va burni “alif”dir,
Va dudog‘i “te”dir,

Va ust dudog‘i “be”dir".[26]

Shu zaylda arab alifbosidagi yigirma sakkiz harfga alohida to‘xtalib o‘tiladi. “Hayrat ul-abror”da Navoiy “Bismillahir rahmanir rahim” tarkibidagi arabiy harflarni boshqa tomondan: olam va odam oldidagi vazifalarini tashbehlar bilan keltiradi:

“Bo”si burun “bo”i bashorat durur
Shamrasi kirmakka ishorat durur.
“Sin”i salomat yo‘lining zinasi,
Balki saodat yuzi oinasi.
“Mim”i ochib manzili maqsadg‘a yo‘l
Balki bu manzil aro sarchashma ul.
Har “alif”ikim yeridur jon aro,
Sham o‘lub ul toza shabiston aro.
“Lom”lari barcha livoyi zafar,
Berib anga jilva havoyi zafar.
“Ho”si xuviyatni qilib jilvagoh,
“Lom”i bila qoyili “Al-mulku lah”.
Ravzasi jannatg‘a eshik “ro”lari
G‘uncha vahdatg‘a beshik “xo”lari.
“Mim”ki “nun”din qilibon intiho,
Jong‘a qo‘yub minnati bemuntaho.
“Yo” bila “mim”i qilib izhori yam,
Aylagali g‘arqai bahri karam.
Nuqta-u tashdid anga chaqmoq-u tosh,
Qilmoq uchun partav “alif” shami fosh.

“Bismilloh”ning “b” harfi bilan boshlanishiga Yaratgandan (arab alifbosida bosh harf “alif”, keyingisi “be”dir) keyingi muhtaramlikka ega bo‘lgan Muhammad sollallohu alayhi vasallam ekanligiga va uning yer yuziga rahmat o‘laroq jo‘natilganligiga ishora deydi Navoiy. Yana ko‘plab o‘rinlarda mushtaraklikni ko‘rishimiz mumkin.

---

[26] A.Go‘zal, Qayg‘usiz Abdol, s. 76.

“Vujudnoma”dan olingan ushbu parcha maqola muallifi tomonidan erkin tarjima qilingan. Quyida asl varianti:
Âdemin: Başı Arş'dır ve Nokta-i Bâ'dır,
Ve iki Kaşi, biri fa'dır ve biri kâf'dır,
Ve iki gözleri, biri ayn ve biri gayn,
Ve iki kulağı, biri zâl'dir.
Ve çenesi, cim'dir,
Ve burnı: Elif'dir,
Ve dudağı: ت'dir,
Ve üst dudağı: ب'dir.

**Quyida ikki asarda uchraydigan ayrim istilohlarning qiyosiy jadvali**

| | Qayg‘usiz Abdolning “Vujudnoma” asarida kelgan tana a’zolari nomlari, burj nomlari va ularning anglatgan ma’nolari | | | | Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror asarida kelgan burj nomlari |
|---|---|---|---|---|---|
| № | **Asarda burjlarga qiyos qilingan tana a’zolarining nomlari** | **Burjlar nomlari** | **Tana a’zolarining o‘zbekcha tarjimasi** | **Tana a’zolariga yuklatilgan tushunchalar (vazifai a’mollar)** | **Burj nomlari** |
| **1.** | Baş | Hemel | Bosh | Toj-u davlat | Hamal |
| **2.** | Alın | Seratan | Peshona | Nuri hidoyat | Savr |
| **3.** | Kollar | Sevr | Quloq | Poki nubuvvat | Javzo |
| **4.** | Eller | Cevza | Og‘iz | Kalimayi shahodat | Saraton |
| **5.** | Göğüs | Esed | Ko‘ks | Qur’oni hikmat | Sher |
| **6.** | Baldırlar | Devl | Oyoq | Quvvati Alloh va Jamoli hikmatulloh | Sunbula |
| **7.** | Gübek | Mizan | Qosh | Olami qudrat | Palla |
| **8.** | But | Kavs | Ko‘z | Nuri Vahdat | Aqrab |
| **9.** | Kasuk | Sünbülr | Burun | Yo‘li Jannat | Qavs |
| **10.** | Zeker | Akrep | Ko‘ngil | Mehri muhabbat | Jadi |
| **11.** | Dizler | Cedy | Qo‘l | Qudrati Alloh | Dalg‘a |
| **12.** | Taban | Hut | Tovon | | Hut |

| | Qayg‘usiz Abdolning “Vujudnoma” | “Vujudnoma”ga ko‘ra sayyoralaning inson yaratilishidagi vazifalari | Alisher Navoiyning “Hayrat ul- | Ularning bugungi kundagi nomi |
|---|---|---|---|---|

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | asarida kelgan yetti sayyora nomlari | | abror” asarida kelgan nomlari | |
| **1.** | Zuhal | Tarbiya etar, qon bo‘lur | Zuhal (Kayvon) | Saturn |
| **2.** | Mirrih | Tarbiya etar, et bo‘lur | Bahrom | Mars |
| **3.** | Zühre | Tarbiya etar, suyak bo‘lur | Zuhra | Venera |
| **4.** | Şems | Tarbiya etar, ruh bo‘lur | Mehr | Quyosh |
| **5.** | Utarid | Tarbiya etar, harakat hosil bo‘lur | Tiyri qalamzan | Merkuriy |
| **6.** | Kamer | Tarbiya etar, vujudga kelur | Oy | Oy |
| **7.** | Müşteri | Tarbiya etar, olamga bo‘lur | Mushtari | Yupiter |

Ilm borki, ko‘kdan tushmish Haqning ne’mati kabi na din, na millat, na makon tanlaydi. Xalqlarni, ko‘ngillarni yaqinlashtiradi. Biri Hirotni, biri Ko‘niyani diyor etgan ilm va ijod ahlining namoyandasi bo‘lgan Qayg‘usiz Abdol va Alisher Navoiy asrlar va makonlar tafovutiga qaramasdan o‘z asarlarida Haq ilmining aynan bir qirralarini aks ettirishgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror” dostoni. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot, 2006.
2. Alisher Navoimy. “Hayrat ul-abror” dostoni. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot, 1989.
3. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 15 tomlik. 13-tom. –Toshkent: Fan, 1997.
4. “Hayrat ul-abror” dostonining o‘rganilish tarixi. Behzod Rustamov, 2021
5. Sh.Sirojiddinov va b. “Navoiyshunoslik”. – Toshkent: “Tamaddun”, 2018.
6. Prof.Dr. Abdurrahmon Go‘zal, Turk xalq she’riyati.
7. Бертельс Е.Эю Суфизм и суфийская литература. М.: Наука, 1995. С. 54
8. Najmiddin Komilov, Tasavvuf. T:. “Movaraunnahr – O‘zbekiston”, 2009.
9. https://www.turkedebiyati.org/kaygusuz-abdal/
10. https://aregem.ktb.gov.tr/TR-12787/kaygusuz-abdal-1341--1444-.html
11. Prof. Abdurrahmon Go‘zal. Alovuddin G‘aybiy Qayg‘usiz Abdal (hayoti va asarlari), Anqara, 20


## CHARLZ DIKKENSNING “OLIVER TVISTNING BOSHIDAN KECHIRGANLARI” VA G‘.G‘ULOMNING “SHUM BOLA “ SARGUZASHT ASARLARI QIYOSIY TAHLILI


***Turg‘unboyeva Aziza Tursunboy qizi***

*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti,2-kurs*

aturgunboyeva7@gmail.com +998936361609

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Charlz Dikkensning "Oliver Tvist sarguzashtlari" romani va G'.G'ulomning "Shum bola" qissasi taqqoslanadi. Bu ikki sarguzasht asarning o'xshash va farqli tomonlari qahramonlar, jamiyat odamlari, ijtimoiy hayot muammolarini tasvirlash orqali ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *voqelar rivoji, qahramonlar tavsifi, asar g'oyasi, qahramonlar xarakteri.*

***Annotation:*** *In this article are compared novel of Charles Dickens "Oliver Tvist adventures" and G. Ghulam's story "Shum bola". The similarities and differences of these two adventure works are revealed by describing the characters, society people and problems of social life.*

***Key words:*** *way of describing events, character description, idea of novel, character of hero.*

Jahon adabiyotida ham o'zbek adabiyotida ham sarguzasht asarlar juda ko'p yozilgan. Masalan, "Don Kixot", "Tom Soyerning sarguzashtlari", "Guliverning sayohatlari", o'zbek adabiyotida "Sariq devni minib", "Matmusaning sarguzashtlari", "Shaytonvachchaning nayranglari" kabilar mavjud. O'zga ijtimoiy muhit, boshqacha dunyoqarashi bilan ajralib turuvchi o'zbek sarguzasht asarlari va jahonga mashhur sarguzasht asarlarda mushtarak va farqli jihatlarni aniqlash maqsadida mavzusi bir-biriga yaqin bo'lgan G'afur G'ulomning "Shum bola" va Ch.Dikkensning "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari" asarlari orqali undagi masalalar qiyoslanadi. Qiyoslash ushbu ikki yozuvchi uslubini ochib berishda ham samarali usul hisoblanadi. Ёзувчининг индивидуал услубини аниқлаш ва тушуниш учун икки ёзувчининг ижодини бир-бирига қиёслаш усулидан фойдаланиш мумкин. Бундай қиёслаш жараёнидаги муштарак белгилар хар иккала ёзувчи ҳам ягона ижодий методга асосланганлигини англатса, ёзувчиларни бир-биридан ажратиб турадиган ҳислатлар ҳар иккала ёзувчининг ҳам оригинал услуб соҳиби эканликларидан гувоҳлик беради.(Т. Бобоев. 2002. 550-551.)

G'afur G'ulom va Ch.Dikkens asarlarini qiyosiy tahlil qilishda milliy dunyoqarash, siyosiy tuzum hamda davr ruhini hisobga olish lozim. Ch. Dikkensning "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari" romanida ingliz siyosiy tuzumi qanday bo'lganligi, o'sha davrda qabul qilingan "Kambag'allar uchun bastiliyalar" qonuni amalda qo'llanishi oqibatida xalq hayoti qanchalik qiyin ahvolga kelib qolganligi asardagi tasvirlangan voqealardan bilinadi. Romanda ham XX asr Angliya hayoti real tasvirlanadi. G'.G'ulomning "Shum bola" sida ham zamon og'irligini ko'rsatuvchi, insonlardagi yomon jihatlarni ochib beruvchi o'rinlar bor. Ikki asarni solishtirish jarayonida yozuvchilarning, ya'ni Dikkens va

G‘.G‘ulom o‘zining ma’yus bolaligini qalamga olishganini bevosita guvohi bo‘lamiz. Chunki G‘afur G‘ulom o‘z asarida atrofdagi barchani doim yetim bolalardan foydalanishga uringanini ko‘rsatgan bo‘lsa, Dikkens asarida Angliya muhitida qanchalik yetim bolalar ezilayotgani tasvirlanadi.

**1.Asarlarda fikrni bayon qilish, voqealarni tasvirlash yo‘sini.** Har ikkala asarning bayon uslubi bir xil emas. “Shum bola” dagi voqealar Qoravoy tilidan hikoya qilinsa, “Oliver tvistning boshidan kechirganlari” da barcha voqealarda muallif aralashuvi borligi, har bir bob boshlanmasi izohlar bilan boshlanishida ko‘rinadi. Bu o‘rinda, adabiyotshunos olim Hotam Umurovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli: “Muallif barcha asarlarining hikoyachisi bo‘lganligi sabab, u “qo‘momdonlik” vazifasini bajaradi: har bir personajning o‘rnini, o‘y-kechinmalarini, fikr-mulohazalarini, harakatlantiruvchi muhitning shart-sharoitlarini, muomala-munosabatlarini ta’rif- tavsiflash, ko‘rsatish orqali – hammasini bir maqsadga – asarda ifodalanayotgan fikr- g‘oyani ro‘yobga chiqarish uchun harakatga keltiradi.( Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. 153- bet) Asarda ba’zi qahramonlar tasvirida muallifning salbiy munosabati bilinib turadi.

*Епископнинг жуббасини ёҳуд қавм бидлининг уч қирра қалпоғи уқаларини* ***тортиб олинг-чи*** *– унда* ***ким бўлиб қолади*** *улар?Одам.* ***Оддий одам****! Гоҳо одамнинг қадр-қиммати ва ҳатто авлиёлиги баъзилар ўйлагандан кўра кўпроқ камзулу нимчаларга боғлиқ.*(Ta’kid bizniki T.A)( Чарлз Диккенс. Оливер Твистнинг бошидан кечирганлари. 1984.189-b.)

Hojibobo singari kimsalar ustomonlik bilan, “chiroyli qilib” o‘g‘rilik ko‘chasidan ”mo‘ralashga“ Qoravoyni undaydi. “Shum bola” asarida qahramonlarning gap-so‘zlaridan asarni o‘qish davomida o‘quvchi qaysi qahramon qanday ekanligini haqidagi xulosani o‘zi beradi. Menimcha, bu kitobxonlarda fikrlashni oshiradi va bunday qahramonlarga nisbatan salbiy munosabat uyg‘onishiga va jamiayatdagi “hojibobolar” dan uzoq yurish kerakligini anglashiga dasturilamal bo‘la oladi.

*Oyoq-qo‘ling chaqqongina, epchil yigitsan. Sen ham axir qarab turmasdan, boshqacharoq yo‘l bilan bo‘lsa ham tirikchilikning payidan bo‘lsang edi, o‘g‘lim… Axir kissa-karmon degan gaplar ham bo‘ladi. Naqdina pul – ham yengil, ham qimmat, ham yashirishga oson bo‘ladi. Naqdina bo‘lsin, bolam, naqdina bo‘lsin…(talaba.su.)*

**2.Bosh qahramonlar tavsifi.** Ch.Dikkens asari qahramoni – Oliver Tvist. U ota-onasidan yetim qoladi. Onasi uni dunyoga keltiriboq “Mehnat uyi” dagi azoblardan qutiladi. Oliver tabiati juda boshqacha, u hech qachon yomon ishlarni qilmaydi, qo‘lidan kelmaydi. O‘g‘rilar to‘dasiga tushgach, unga o‘rgatilgan qoidalar

besamar ketadi. Uning qo‘lidan og‘rilik kelmaydi. Hatto yolg‘on gapirishdan- da andisha qiladigan darajada sof edi. Qoravoy ancha hayot chig‘irig‘ida pishgan. Oliverga nisbatan ustomon. Shum bolada Sulton o‘g‘rilarga qo‘shilgan va yana boshqa vaziyatlarda yashash uchun kurashdan charchamasligi ko‘rinadi. Shu o‘rinda ikki xalq dunyoqarashidagi farq bir darajada ko‘rinadi. To‘g‘ri, u ko‘p “sho‘xlik” lar qiladi. Uni zamon shunday “ulg‘aytirib” qo‘ygan edi. Jamiyatdagi barcha kishilar yetimdan foydalanish payida bo‘lar edi. Hech kim chin dildan yetim boshini silagisi kelmas edi.

**3.Asardagi mavzu va g‘oya.** Ikki asar markazida yetim bolalardan foydalanish va ularni jinoyat yoliga olib kirish kabi mavzular qalamga olinadi. Kattalarning bolalar mehnatidan foydalanib, mehnatini qadrlamaslik kabi holatlar tasvirlangan. Past qatlamdagilar muntazam kamsitilishi va bir kosa ovqatga qavmning ne-ne mashaqqatlar bilan erishishi asosiy muammo sifatida tasvirlanadi.

*Болаларнинг ғиштин деворли ҳайҳотдай ҳонада овқатлантирар эдилар ҳонанинг бир бурчагида қозон қурилган бўлиб, емак вақти белгилапган соатда олдига пешбанд тутиб олган назоратчи ёҳуд икки аёл кўмагида ана шу қозондан гўжа сузиб берарди, қатъи байрам кунлари бундан мустасно бўлиб, болага аталага қўшимча икки чорак унция нон ҳам берилар еди. Товақчани ҳеч қачон асло ювиб ўтиришга ҳожат қолмасди.(* Чарлз Диккенс. Оливер Твистнинг бошидан кечирганлари.1984. 16- бет.)

**3.Sujet va kompozitsiyani shakllantirish**. “Oliver Tvistning sarguzashtlari” romanida sujet tuguni Oliverning tobutsozning uyidan qochishidan boshlanadi, ungacha qahramon taqdirga bo‘ysinayotgan edi. Qahramonning Londonga ketayotib, Fedjin to‘dasiga aloqador kishi bilan tanishib, shu to‘daga tushib qolgan o‘rinlarda voqealar rivoji tezlashadi. Bu “harakat dinamikasining ko‘tarilishi” deyilsa, asar so‘nggidagi Oliverning va Rouz nasablarining aniqlanishida “harakat dinamikasining pasayishini” ni ko‘ramiz. Romandagi kulminatsion nuqta – Sayks tomonidan Nensini o‘ldirilishi va o‘zini ham osib qo‘yishidagi o‘rinlardir.

“Shum bola” da esa voqelar rivoji – Qoravoyning halfanaga deb yog‘ va tuxum o‘girlab, qo‘lga tushib qolishi va uydan ketishidan boshlanadi. Qolgan voqealar bir tekisda ketadi. Asar kompozitsiyadagi g‘oyani ta’sirchan ifodalashda yozuvchi xalq maqollari va turli o‘xshatishlar bilan beradi. Masalan, “It quvgan tulkiday Omon menga ergashdi”, “ Zinadan chiqqan itdek to‘rt oyoqlab zinaga tirmashib chiqdim”, “ Qo‘ylar xuddi sutga tushgan sichqondek boshlarini ko‘tarib suzardi” va boshqalar.

**Asardagi makon konsepti:** “Shum bola “ asaridagi asosiy voqealar Toshkent va uning atrofidagi qishloqlarda sodir bo‘ladi, “Oliver Tvistning boshidan kechirganlari” da London va uning atroflari voqealar ro‘y bergan o‘rin hisoblanadi.

**4.Qahramonlar xarakteri va ularning o‘xshash va farqli tomonlari.** Asardagi qahramonlar turlicha. Oliver Tvist xarakteri asar boshida qanday bo‘lsa, oxirigacha o‘zgarmaydi. Hayot sinovlarida toblanib, uddaburonlik yoki yomon xislatlar shakllanmaydi. Yosh ayol Nensi va Braunlou xarakteri dinamikdir. Qolgan obrazlar – Fedjin, Sayks va Rouzlar xarakterida statik belgilar yuqori bo‘lib, ularning xatti-harakatlarida o‘zgarish kuzatiladi. “Shum bola” dagi qahramonlarda o‘zgarish uchramaydi, Oliverdan farqli Qoravoy uddaburon, qanday vaziyat bo‘lishidan qat’i nazar o‘zini tuta oladi. Asardagi qahramonlar turlichaligi bilan birga o‘xshash jihatlari ham bor. Masalan, Fedjin va uning atrofidagi kissavurlar va “Shum bola” dagi Sulton o‘g‘ri va uning to‘dasi bir-biriga juda yaqin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Gafur Gulom va Ch.Dikkensning ushbu asarlarida ma’lum darajada hayotida uchratgan voqealarni qalamga olishi seziladi. Dikkens otasi qamalgach, mehribonlik uyiga jonatilgan va poyabzal fabrikasida ishlagan, Oliver tasvirlashda yozuvchi hayotida sodir bolgan ba’zi voqealarni qalamga olgani seziladi. Gafur Gulom ham yoshligida ota-onasidan yetim qolgani e’tiborga olinsa, demak, ushbu asarlarda ham avtobiografik ruh kozga tashlanishi seziladi. Ular jamiyatdagi voqealar kuzatuvchisi olaroq o‘z asarlarida “ogriqli nuqtalar” dan so‘z ochishgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Т. Бобоев. ТОШКЕНТ—“ЎЗБЕКИСТОН”- 2002. 550-551.
2. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / Mas’ul muharrir: B. Valixo‘jayev. 153- bet
3. Чарлз Диккенс. Оливер Твистнинг бошидан кечирганлари. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1984.Тошкент.189-b
4. talaba.su.


## MIXAIL SHOLOXOV VA SHUKUR XOLMIRZAYEV: IJODIY KONSEPSIYADAGI MUSHTARAKLIK


*To‘xtayeva Elnora*
*ToshDO‘TAU, o‘zbek til va adabiyoti fakulteti, 2-kurs,*
+998991045202
toxtayevae@gmail.com



**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada ulug‘ rus yozuvchisi Mixail Sholoxov va o‘zbek yozuvchisi Shukur Xolmirzayev ijodidagi mushtarak ijodiy jihatlar, xususan inson konsepsiyasi va uni yuzaga chiqarish tamoyillari haqida fikr yuritiladi. Har ikki ijodkorga xos badiiy tasvirlash mahorati haqida mulohazalar bildiriladi. Maqolada qiyosiy-tipologik tahlil metodidan foydalanildi.*

**Kalit so‘zlar:** *Shukur Xolmirzayev, Mixail Sholoxov, hikoya, inson konsepsiyasi*
**Abstract.** *This article discusses the common creative aspects of the works of the great Russian writer Mikhail Sholokhov and the Uzbek writer Shukur Kholmirzayev, in particular, the human concept and the principles of its creation. Comments are made about the artistic skills of both creators. The article used the method of comparative-typological analysis.*
**Key words:** *Shukur Kholmirzayev, Mikhail Sholokhov, story, human concept*

Ozod Sharafiddinov yozadi: “Dunyoning hamma sirining tagiga yetish mumkin, lekin Inson degan jumboqning tagiga yetib bo‘lmaydi. Inson tabiatiga cheksizlik, bitmas-tuganmaslik xos. Xullas, adabiyotda inson yoxud qahramon muammosini samarali hal qilmoq uchun birinchi navbatda, falsafiy planda inson konsepsiyasini mukammal ishlab chiqmoq kerak”(Шарафиддинов, 2012, 264-bet). Yozuvchi odatiy insonlardan farqli o‘laroq “ishontira olish” va “ko‘ra olish” qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Asarlarning bir-biridan farqi, yil o‘tsa-da o‘z mavqeyini yo‘qotmay kelishi ham uning hayotdan asarga qay mahorat bilan ko‘chirib o‘tilishiga bog‘liq. So‘nggi yillarda adabiyotda yangi so‘z aytish haminqadar qiyin bo‘lmasin, ijod ahli har zamon har asrda buni yechimini topishni uddalagan. Qachonki, asosiy o‘rinda INSON turmas ekan, bunday asarlar, o‘z ko‘zlagan manziliga yeta olmaydi.

Bu o‘rinda INSONni old qatorga olib chiqa olgan xalqchil, insonparvar, vatanparvar ijodkorlar sirasiga Shukur Xolmirzayevni bemolol kirita olamiz. Bu xususda yana shularni aytish mumkinki, adabiyot shaxsiyatni talab qiladi, bu ikkisi bir-biridan ajratilsa, sun’iylik yuzaga chiqadi. Zamonaviy nasrning yetuk ijod ahllaridan Nazar Eshonqul o‘zining “Ham hayotda, ham adabiyotda shaxs edi”,-deganida, adibning faqatgina asarlarini emas, hayotini ham o‘qigan edi (Nazar Eshonqul, “Yoshlik”, 2012/9). Xuddi shu maqolada keltiriladiki: “Shukur Xolmirzayev maktabida esa hayotni, muhitni fosh qilishdan ko‘ra insonning shu muhitda tutgan o‘rni va og‘rig‘ini ko‘rsatish muhim o‘rin tutadi. Muhit o‘zining barcha kirdikorlarini, butun fojeasini inson ko‘ngliga qamab tashlagan, inson ko‘ngli shu muhitning aksidir. Kimki muhitning o‘zini aks ettirishga kirishsa, jimjimalarga aldanib qoladi, muhitning tasvirchisiga aylanadi”. Bu tarafdan Nazar Eshonqulning fikrlari o‘rinli, biz ko‘p o‘rinlarda bunga amin bo‘lamiz, birgina “Notanish odam” hikoyasidagi o‘sha chol jamiyatda kim edi?!( Холмирзаев, 2003, 448-bet). Uni birov tanirdimi?, Mansabi nima edi? Uning shu muhitdan tutgan o‘rni nima edi?! Beminnat, bemansab yaxshilik qilish edi, shunchaki yaxshilik qilish xolos. U qaytib bu kulbaga kelib, bu o‘tinlarni yoqishi noma’lum, uni kim ishlatishi, u insonlar kim, uni ham bilmaydi. To‘g‘ri, bu yaxshiligi balki juda kichikdir, balki uni hech kim bilmas, ko‘rmas, ammo uning niyati bu emas, uning niyati yaxshilik qilish edi xolos.

Insonlarning jamiyatdagi o‘rni ularning mansabi, nechta kitob yozganidan emas, yaxshilik to‘la limmo-lim qalbidan kelib chiqadi.

Yana shu maqolada ijodkor Shukur Xolmirzayevning “Alpomish” dostonini qanchalik sevishi, u haqida qanday to‘lib toshib gapirgani aytib o‘tiladi. Shu o‘rinda ramziy obrazlar masalasi ko‘tariladi. Adibning ko‘pgina asarlarida ot obrazi orqali ramziylik ko‘chib yuradi.

“Sholoxovning ashaddiy muxlisi edim” nomi ostidagi adabiy suhbatlarining birida adib, Tinch Don romon epopeyasini 4 marotaba o‘qib chiqqanini ta’kidlab shunday deydi: “Keyingi kuzatishlarimdan fahmlab qoldimki, “Tinch Don” romanining taxminan to‘rtdan bir qismi tabiat tasviridan iborat.”(Холмирзаев, 2003). Shukur Xolmirzayev va Sholoxovning mushtarak tomonlaridan yana biri tabiat tasviridan mohirona foydalana olganligi. Adib Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasi haqida gapirarkan, asar davomida faqatgina bir marta tabiat tasviri kelganligi, u ham bo‘lsa kichik detal ekanini aytib o‘tadi. Sholoxovning “Hol”, “Podachi” kabi hikoyalarini o‘qir ekansiz, adib tabiatning hech bir detalini ko‘zdan qochirmaganiga guvoh bo‘lasiz. Shukur Xolmirzayevning “Notanish odam”, “Bir ko‘rgan tanish”, “Podachi”, “Omon ovchining o‘limi” kabi hikoyalarida ham adibning tabiat va otni qanchalik yaxshi ko‘rishi anglashiladi. Omon ovchi va Nikolkalarning shaxiyatini esa ayro tasavvur qilib bo‘lmaydi, ham botindan, ham zohirdan. Har ikki qahramon ham hali bola paytidan otasi tomonida ot minishni sevdirilishi, bunga hamohang ikkisining fitratidagi jasurlik, mardlik, otga bo‘lgan ishtiyoq yirik planda ko‘zga tashlanadi. Umarali Normatov o‘zining “Ijod sehri” asarida: “Tengdoshlaridan biri hazil aralash Shukurni “o‘zbeklarning Sholoxovi” deb atardi”,- deyishi mana shu yerda oydinlashadi. Yana o‘sha asarda:”Bu hazil gap tagida jiddiy asos bor. M. Sholoxov rus adabiyotida o‘z ona yurti – Don ruhi-koloritini kashf etgani kabi, Shukur Xolmirzayev XX asr milliy adabiyotimizga Surxon, aniqrog‘i, Boysun ruhi-koloritini olib kirdi.”( Норматов, 2007, 352-bet)

Dilmurod Quronov fabula va syujetga to‘xtalar ekan shularni ta’kidlaydi: “Adabiyotshunoslikda “syujet” va “fabula” istilohlarini ishlatishda turlichalik bor: ayrim adabiyotshunoslar bu ikki istilohni sinonim sifatida ishlatsalar, rus formal maktabi vakillari “fabula” deganda asarda tasvirlangan voqealarning hayotda yuz berish tartibini, “syujet” deganda esa ularning asarda joylashtirilish tartibini tushunadilar”( Куронов, 2013, 408-bet). Shukur Xolmirzayev “Podachi” hikoyasida esa adib bu qonunlarni chetlab o‘tganiga guvoh bo‘lasiz(Холмирзаев,2003, 408-bet). Odatiy asarlardan farqli o‘laroq adib ilk kezdayoq yechimni qo‘lingizga tutgizadi. Sholoxovning shu nomdagi hikoyasida esa yuqoridagi qonun bir maromda kechadi. Bir xil nom, ikki xil yondahuv.

Hatto “Omon ovchining o‘limi”da adib sizni hikoya boshidanoq bashoratchilikka tayyorlab boradi.(Холмирзаев, 2005, 464-bet). Birgina “Kimni umri nimada kechsa, shuning ustida o‘ladi” g‘oyasi asar so‘nggini bashorat qilishga yordam beradi. Ammo hikoya shu bilan birga hayotga shunchalik yaqinki, dialoglar, voqea-hodisalarning ba’zilarda yashagan, ba’zilarini ko‘rgan, ba’zilarini eshitgan ham siz. Adib asarlariga detal o‘laroq oddiy shaxs, oddiy muhit, oddiy narsalarni oladi. Muhimi har ikki ijodkor asarlaridagi bosh g‘oya - “Inson taqdiri”, INSONdir. Birgina misol Sholoxov o‘zining “Hol” hikoyasida cholni xo‘rlayotgan voqealarni tasvirlar ekan, hatto hayvonga ham bu turli qiynoq turini qo‘llashmaydi deydi. Omon ovchida esa inson fojeasi talqin etiladi. Imom Buxoriydan keltirilgan hadislardan birida “Rahm qilinmaganga rahm qilinmaydi” deyiladi, balki shunda umri so‘nggida qahramon mash’um taqdir bilan yuzlashadi. Asarlardan ko‘zlangan asosiy masala, g‘oya insonni shakllantirish, uning yirtqich hayvondan komil shaxs darajasiga chiqarish. Cholni xo‘rlab azoblaganlar, na oilasiga na hayvonlarga ko‘nglida bir iliqlik yo‘q, Omon ovchi bular hammasiga, jamiyatdagi chirkin illatlar, insonni insoniylikdan chiqarayotgan badbinliklarga bir oyna xolos. Sababi adabiyot nafaqat qalb ishi, balki insonni tarbiyalovchi ustoz hamdir. Agar asarlar shu maqsadda yozilmas ekan, ular bir uyum so‘zlar majmuasi bo‘lib qolaveradi.

“Shaxsan men kitobxonni bir yoqqa torta bilgan, uning didiga mo‘ljallab – unga asarini nima qilib bo‘lsa ham yoqtirish maqsadida emas, o‘sha didni bir bahya bo‘lsa-da ko‘tarish niyatida ter to‘kkan yozuvchilarni sevaman”, – degandi adib. Butun umri davomida shunga ko‘ra ijod qildi, shunga ko‘ra yashadi. Yana yaqinlari aytganidek o‘z qahramonlari kabi oddiy va samimiy bo‘lib qoldi.

Ikki yozuvchining o‘z ijodida Inson konsepsiyasini qay darajada yoritgani haqida muxtasar qilib, quyidagi dastlabki xulosalarga kelamiz:

1. Har ikki yozuvchi uchun eng birinchi mushtarak badiiy jihat – *Inson obrazi real hayotdan olingan, umumlashtirilgan, yetuk obrazlar sanaladi.*
2. Adiblarning qahramonlari harakat qiladigan asarlar uchun yana bir umumiy jihat – asarlarining *haqqoniyligi.*
3. Har ikki adib asarlaridagi *Inson – milliy o‘ziga xos xususiyatlar bilan to‘yingan obrazlar ekanligi.*
4. Ham o‘zbek, ham rus adibi ijodidagi *Inson vataniga, oila qadriyatlariga sodiq kishilar ekanligi e’tirof etilgan.*
5. Shukur Xolmirzayev va Mixail Sholoxov asarlarida inson va tabiat uyg‘unlikda tasvirlangan.

O‘ylahsimizcha, bu kichik urinishimizdan so‘ng, keyingi s’ay-harakatlarimiz ortidan ijodkorlarning Inson konsepsiyasini qay darajada to‘laqonli reallashtirgani omillariga to‘xtalamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Шарафиддинов О. Оламнинг қалби. Т.: “Маънавият”. 2012. – 264 б.
2. Shukur Xolmirzayev. Adabiyot, yozuvchi va ijod haqida & Nazar Eshonqul. Shukur Xolmirzayev haqida Xurshid Davron kutubxonasi https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shukur-xolmirzayev-adabiyot-yozuvchi-va-ijod-haqida.html
3. Холмирзаев Шукур. Танланган асарлар. III жилдлик. 1-жилд. Ҳикоялар. Т.: “Шарқ”, 2003 – 448 б.
4. Шукур Холмирзаев: «Шолоховнинг ашаддий мухлиси эдим» (2003) - www.ziyouz.uz. https://ziyouz.uz/suhbatlar/l-r-sp-1934971251/
5. Норматов, Умарали Ижод сеҳри. — Т.: «Шарқ», 2007. — 352 б.
6. Адабиётшунослик луғати. (Д. Қуронов ва б.) “Академнашр” Т. : 2013. 408 б.
7. Холмирзаев Шукур. Танланган асарлар. III жилдлик. 2-жилд. Ҳикоялар. Т.: “Шарқ”, 2005 – 464 б.

## CHEXOV HIKOYALARIDA BADIIY TRAGIZM

*Xayitova Shahlo*
*ToshDO‘TAU o‘zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs*
*Kxayitovashahlo@gmail.com*

***Annotatsiya**. Ushbu maqolada dramatik janrga xos bo‘lgan badiiy tragizm eelementlaring hikoyalarda aks etishi Chexov asarlari misolida ko‘rsatilgan. Bir nechta hikoyalardagi tragik vaziyatlar tahlilga tortilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Tragediya, drama, roman, syujet, epos, hikoya, roman, fojia, janr, o‘lim, hayot, inson.*

***Abstract.** In this article, the elements of artistic tragedy characteristic of the dramatic genre are reflected in the stories using the example of Chekhov’s works. Tragic situations in several stories are analyzed.*

***Keywords:** Tragedy, drama, novel, plot, epic, story, novel, tragedy, genre, death, life, human.*

Adabiyotda hammaga ma’lum va mashhur tragediya degan janr bor. Bu janrga mansub asarlar yunon madaniyati cho‘qqiga ko‘tarilgan paytda ancha rivojlangan, taraqqiy topgan. U haqidagi ilk yozma manba Aristotelning “Poetika” asaridir. Unda aytilishicha: “Tragediya muayyan hajmli, turli qismlari turlicha sayqallangan til yordamida, bayon vositasida emas balki, xatti-xarakat orqali ko‘rsatiladigan va iztirob bilan inson ruhini poklovchi muhim va tugal vosita tasviridir”. (Aristotel, 1980,16-bet) Demak tragediya sahna asari va uning o‘ziga xos ma’lum qonun-

qoidalari mavjud. Biz esa quyida badiiy tragizm haqida so‘z yuritamiz. Shu sababli ta’rifdagi “iztirob bilan inson ruhini poklovchi” jumlasiga to‘xtalaman.

Trgediyaning ilk omili bu fojia, ya‘ni halokatdir. Lekin har qandayi emas, iztirob olib keluvchi, o‘sha iztirob orqali inson ruhini poklovchi halokat. Bu hodisa har qanday badiiy asarda bo‘y ko‘rsatishi mumkin. Xoh u kichik lirik she‘r bo‘lsin, xoh katta hajmli roman. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, tragediyaga xos holatlarning boshqa janr namunalarida ifoda etilishi badiiy tragizmni hosil qiladi. Uning hikoyalardagi namunasini Chexov qalamiga mansub asarlarda ko‘ramiz. Avvalo muallif uslubi so‘zdan ustalik ila foydalanishi, hajman qisqa yozishi, achchiq va kinoyaviy tili orqali ajralib turadi. O‘zbek adabiyotida Abdulla Qahhor uchun katta maktab vazifasini aynan Chexov bajargan degan gaplar haqiqat. Matyoqub Qo‘shjonov Qahhor ijodi haqida yozgan “Mashhur hikoynavis” maqolasida buni tasdiqlaydi: “Abdulla Qahhor” komik fantaziyaga boy yozuvchilardan, uning qator pyesalari borki, ular o‘zlarining janr yo‘nalishi bilan komik va satirik planda yaratilgandir. Yozuvchining bu sohadagi asarlari N.Gogol va A.Chexov asarlariday katta satira darajasiga ko‘tarilgan”. (Matyoqub Qo‘shjonov,1982-yil, 112-bet)

Chexov hikoyalarining deyarli barchasida (fojeliksiz yozilgan badiiy asar bo‘lmasa kerak. Ijod darddan tug‘iladi, degan gaplar haqiqat) dard, iztirob, fojia mavjud. Ammo ularning ahamiyati oddiy, sodda va hayotiy voqealar planida yuksak darajaga chiqa olishida. Masalan “Musibat” hikoyasidagi Galchinskiyni olaylik. U o‘lasi qilib urgan xotinini bo‘ronli kechada do‘xtidga olib ketadi. O‘z vijdonini ovutish, qolaversa qirq yillik hayoti davomida qadriga yetmagan ayolini endi o‘lim yoqasida qayg‘urib bemorga gapirib boradi. Bemorni chalg‘itishga urinishlari ham o‘zini chalg‘itishdan boshqasiga yaramaydi. Ammo kampir allaqachon jon taslim qilgan, sovuq tanaga tushgan qor ham erimay qolgandi. Hikoyada tragizm o‘lim bilan boshlanyapti, ammo haqiqiysi yakunga qoladi. Xotinining o‘lganini bilgan Galchinskiy yo‘lni yo‘qotganligidan, ham sovuqdan va kayfi balandligi sabab bo‘lib uyquga ketadi. Uyg‘ongach esa bir umrga oyoq-qo‘lidan ajralganidan xabar topadi. U ham ko‘pchilikka o‘xshab hali erta, hali ishlashga ham, xotinimga g‘amxo‘rlik qilishga ham, odamdek yashashga ham ulguraman deb o‘ylagandi, ammo hayot hech qachon, hech kimni kutib turgan emas.

Suvon Meli “So‘z-u so‘z” dagi maqolasida yozishicha: “Tragizm fojiali voqea, vaziyat yoki holatni hissiyotni avj nuqtasida turib tasvirlash va shu hissiyotni kitobxon yoki tomoshabinga ayni shu kuch bilan yuqtirishdir.” (Suvon Meli, 2017, 47-bet) Chexov hikoyalarida fojia avj nuqtada tasvirlanmagan joylarda ham o‘quvchi tragik pafosni yuksak darajada his qilib turadi. Yana o‘sha maqolada roman tragizmi haqida: “Tragediya janridagi tragizm dramatik tur qonun-qoidalariga bo‘ysunsa, romandagi tragizm epik tabiatga bo‘ysunadi. Epiklik. Bir ma’noda, roviy

– bayoniylik ikkinchi ma’noda, ulug‘vor – sokinlik, vazminlikdir. Dramatik tarzda, ya’ni tragediyadagi tragizm ehtiroslar jo‘shqinligi, ziddiyatlarning dramatik to‘qnashuvidan hosil bo‘lsa, epik tur janri bo‘lgan romandagi tragizm turfa voqealar, idealar, tarmoqli syujetlar mazmuni va hissiy kuchini bir nuqtaga mohirona yig‘ishda vujudga keladi.” (Suvon Meli, 2017, 52-bet) Shulardan kelib chiqib yondashadigan bo‘lsak, hikoya tragizmi ham epik tabiatga ega, ammo roman tragizmi bilan ayni bir deb aytolmaymiz. Chunki roman hajman katta, voqealari keng ko‘lamli, fojia turli qismlarga turlicha sochilgan, lekin ma’lum nuqtalarda birlashgan holda bo‘ladi. Hikoya esa qisqa, asosan unda bir necha qahramon ishtirok etadi. Bu esa fojiani yanada kuchliroq, ta‘sirliroq tasvirlash imkoniyatini beradi.

Masalan, epik tragizm dramatik tragizmga nisbatan qadimiyroq. “Ammo u eposda qamrovi keng voqea ichida berilgani uchun dramatik jihatdan biroz yutqazadi.” ( Suvon Meli, 2017, 53-bet) Haqiqatan ham, tragizm dramada eposga nisbatan yuksakroq bo‘y ko‘rsatadi. Ammo yuqorida yozganimdek hikoyada tragizm imkoniyati ancha oshishini ko‘rishimiz mumkin. Bunga hikoya janri xususiyatlari bemalol imkon beradi. Chexovning yana bir asari “Uyqu istagi” oddiy, enaga qiz Vankanig har kecha bolaga qarab chiqish, uy tozalash, xo‘jayinlaring buyruqlarni bajarish tasvirlari bilan boshlanadi. Ilk boshlanmadayoq unga nisbatan xayrixoxlik, ichki iztirobni sezasiz. Ammo haqiqiy fojia hikoya yakunida, qiz uyqu istagiga bo‘ysunib bolani o‘ldirib qo‘ygach eng yuksak cho‘qqisiga ko‘tariladi. O‘lim – tragizmning eng asosiy unsuri. Ammo bu hikoyada o‘limning sodir bo‘lishi hech kutilmagan, anglanmagan holatda yuz beradi. Siz tragik qahramonni umuman ayblay olmaysiz. Vanka hech narsani bilmagan, ozgina bo‘lsa-da tushunmagan ahvolda shu ishni qiladi. Natijada qo‘lga kiritilgan tinchlik va uyqudan boshqa hech narsani qabul qilolmaydi. Endi bu o‘rinda insonning biologik ehtiyojlari o‘zini ko‘rsatishi ham, kichik qizga rahm qilmagan, natijada bolasidan ayrilib qolgan uy bekasining fojiasi ham bor. Bu asardagi syujet tizimi, tragik pafos, o‘lim drama tragizmi bilan aynan mos keladi. Muallif uslubi o‘quvchiga hikoyani bir nafasda o‘qish imkonini beradi. Bu esa o‘ziga xos ohongdorlik jozibani yanada oshiradi.

Lekin Chexovning shunaqa hikoyalari ham borki, syujet chizig‘i umuman boshqacha. Ammo unda bir odamga emas balki butun hayotga, insoniyatga tegishli tragik fojia yuksak nuqtalarda yuz ko‘rasatadi. Oddiy “Garov” sabab umrining o‘n besh yilini qamoqda faqat ilm olish bilan o‘tkazgan yurist ozodlikka chiqishidan bir necha soat avval xat yozib pullardan vos kechadi. Xatdan parcha keltiramiz: “Biroq men sizlarning kitoblaringizdan nafratlanaman, dunyoning butun baxt-saodati va donishmandligidan jirkanaman. Qanchalik mag‘rur, oqil va go‘zal bo‘lmang, o‘lim sizlarni dala sichqonlari qatorida yer yuzidan supurib tashlayajak, sizlarning avlodlaringiz, tarixingiz, daholaringizning abadiyati esa qora buyug‘da halok

bo‘lajak yoki yer shariga qo‘shilib kulga aylanajak. Sizlar aqldan ozib, tog‘ri yo‘ldan adashgansiz. Yolg‘onni haqiqat deb qabul qilasiz, badburushni esa go‘zal hisoblaysiz.” (Chexov, 2022, 47-bet) Mana shu joyda ham fojelik o‘lim bilan qorishyapti. Insonlar umri davomida xuddi o‘lmaydigandek, bu hayotning so‘ngi yo‘qdek yashashadi. Asosiy narsalar e’tibordan qolib, keraksiz narsalarga ko‘p vaqt sarflab yuborishadi. Bunga o‘xshash holat Ulug‘bek Hamdamning “Bir piyola suv”ida ham bor. Qahramon o‘z yonida ko‘za to‘la suv qolib karvonsaroydagi bir piyola suv haqi uchun umrini o‘tkazib yuboradi. Afsus qilganida esa juda kech, karvansaroy, ya‘ni dunyo ohangrabosi uni yeb ado qiladi.

Uzoq Jo‘raqulov yozishicha, “Layli va majnun”ning syujeti asosida juda ko‘p asarlar yozilgani, asarning mashhurligi sababi uning aynan tragizm bilan yo‘g‘rilganida. “Insonda minglab tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ruhiy-ma‘naviy ehtiyojlar bilan bir qatorda iztirob, g‘am-qayg‘uga bo‘lgan ehtiyoj ham juda kuchli. Chunki o‘z vaqtida Arastu ham to‘g‘ri anglab, kashf etgan katarsis, ya‘ni iztiroblar olovida poklanish, odamlarning eng ulkan va eng ulug‘vor ruhiy ehtiyojidir.” ( Jo‘raqulov, 2015, 122-bet) Aytishadi-ku, inson baxtdan ko‘ra baxtsizlikka ko‘proq yaqin bo‘ladi. Ya‘ni bizni qancha shod va xursand damlarimiz bo‘lmasin dunyoga kelish va ketish paytida yig‘laymiz va azoblanamiz. G‘amgin musiqa, kino yoki kitobdan ta‘sirlanamiz. Quvonch bir zumda uchib ketsa, baxtsizlik onlari uzoqroq davom etadi. Umuman hayotimiz tragediyalar va dardlar ichida ko‘proq kechadi. Bunday holat badiiy asarda o‘z aksini topsa qalbga ko‘proq yaqin, insonni yanada to‘lqinlantiruvchi, hamdardligini oshiruvchi, natijada bizni yanada sayqallovchi bo‘ladi.

Asarning darajasini, qanchalik zalvorli ekanligini ham undagi tragik pafos kuchi belgilab beradi. Bu holat hikoyaga ham xos bo‘lib hozirgi kunga qadar keng ko‘lamda o‘rganilmagan. Sunbula Bobonazarovaning “Hikoya tragizmi” maqolasida Andre Moruaning bir hikoyasidagi yakka shaxs, ya‘ni bosh qahramon tragizmi tahlil qilingan. Unda fojia bilan boshlangan voqelik o‘lim bilan yakunlanadi. Ammo biz badiiy tragizm elementlarining har qanday hikoyada bo‘y ko‘rsatishi mumkinligi haqida biroz bahs yuritdik. Zero inson yaratilibdiki, tragizm mavjud va hayot so‘ngiga qadar u har qanday ijod namunasi, san’at asarlarida aks etadi. Yuqorida Anton Chexovning bir nechta hikoyasini ko‘rib chiqdik. Ijodkorning boshqa ko‘plab asarlarida ham badiiy tragizm elementlarini ko‘rishimiz mumkin. Hammasidan chiqaradigan xulasamiz esa shulardan iborat: tragizm dramaga xos unsur bo‘lsa ham ko‘proq eposga tegishli va nasriy asarlarda, umuman har qanday badiiy ijod namunasida o‘z aksini topadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Poetika” G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘nat nashriyoti Toshkent – 1980.
2. Suvon Meli “So‘z-u so‘z” Toshkent: Sharq – 2017.
3. Uzoq Jo‘raqulov “Nazariy poetika masalalari” G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2015
4. Matyoqub Qo‘shjonov “Saylanma” 2-jild G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti Toshkent – 1982.
5. “Sirli hilqat” Anton Chexov Hikoyalar G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2022.
6. “Uyqu istagi” Anton Chexov Hikolar Ziyonashr Toshkent - 2019

## “SHOH EDIP” ASARIDA BASHORAT TIPOLOGIYASI

*Xurramova Sevinch Husan qizi*
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti,2-kurs*
*sevinchxurramova189@gmail.com*
*+998951216221*

***Annotatsiya**:Maqolada qadimgi yunon antik adabiyotida bashorat motivi ,uning janrlararo taraqqiyoti qiyosiy aspektda o‘rganilgan va ,xususan, ,,Shoh Edip‘‘ fojeasi misolida bashoratning tragediyada asosiy o‘rin tutishi,uning epos va afsonadan farqli jihatlari tadqiq etilgan.Bundan tashqari, qadimgi sharq va g‘arb adabiyotida bashoratning kelishi,ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli xususiyatlarga ham urg‘u berilgan.*

***Kalit so‘zlar**:bashorat ,epos,tragediya,xalq qissalari,afsonalar ,tugun,fojea.*

***Abstract**:The article examines the motive of prophecy in ancient Greek literature,its cross-genre development,in particular ,the role of prophecy in tragedy,its different aspects from epics and legends,as an example of the tragedy ,, Oedipus the King‘‘.In addition, the arrival of prophecy in ancient Eastern and Western literature,the relationship between them similar and different features are also highlighted.*

***Key words**:prophecy,epic,tragedy,folk tales,legends,node.*

Sharq og‘zaki va yozma adabiyotida kezib yuruvchi mezon borki,ya’ni mashhur shaxslar,xalq doston va qissalar qahramolarining qismati oldindan bashorat qilinadi:u tug‘ilmasdan burun taqdiri qandaydir karomatli kishi tomonidan aytiladi yoxud dahoning o‘zi karomat egasi bilan uchrashib o‘zi haqida bilib oladi.Karomatli kishi esa yo pir,valiy bo‘lib,jamiki bilimlarni o‘zida jamlagan bu dunyo va ohirat ilmini o‘zlashtirib,yaratgan nazari tushgan zot hisoblanadi.Misol uchun, o‘zbek xalq

dostoni ,,Alpomish‘‘da Alpomishning keyingi taqdiri Shohimardon pir tomonidan , yozma doston,,Farhod va Shirin‘‘da donishmand Suqrot orqali bildiriladi.Bular haqiqatdan biroz yiroq to‘qima asarlar bo‘lsa,tarixda o‘tgan mashhur shaxslar haqida ham asarlarda bashoratlar uchraydi,binobarin, ,,Qissayi Mashrab‘‘da piri Ofoqxo‘ja Mashrabning kimning qo‘lidan o‘lim topishini aytadi. Radiy Fishning ,,Jalloliddin Rumiy‘‘tarixiy-biografik romanida esa Rumiyga piri Said Burhoniddin :,,Sen hademay do‘sti anis orttirasen !‘‘ deb uning Shamsiddin Tabriziy bilan bir kun ko‘rishishini bashorat qiladi.E’tibor qaratilsa,sharqda qahramon taqdiri boshidagi ya’ni qahramon tug‘ilmasidan oldin paydo bo‘lgan yoki yangi dunyoga qadam qo‘yishi bilan taqdiri bashorat qilinadi va qahramon bu bashorat chizig‘i bo‘ylab harakat qiladi,peshonasiga neki yozilgan bo‘lsa boshidan kechiradi ,oxirida esa murod -maqsadiga yetadi.

Qadimgi yunon antik adabiyotiga qaralsa,u yerda ham bashorat motivi ko‘p uchraydi va hattoki butun asar syujeti shu motivga asoslanadi.Bu yerda ham sharqda bo‘lgani kabi qahramonlar alohida sifatlari bilan boshqalardan ajralib turadi va odatda aristokratlar qatlamiga mansub bo‘ladi.Bashoratning yunon ma’budlari bilan bog‘liqligi uning shunchaki oddiy narsa emas,balki ilohiyotga ,samoga bog‘liqligini anglatadi.Dastlab,afsona,ertak kabilarda bashorat motivi ko‘zga tashlansa,epos va hatto tragediyaga kelib voqealar rivoji boshqaruvchisi maqomiga chiqib oladi.Masalan,Homerning ,,Illiada‘‘dostoni va uning mantiqiy davomi bo‘lgan ,,Odissey‘‘da Kassandra aytgan bashorat butun asar syujet chizig‘ini shakllantiradi.Bunda asar qahramoni bashorat bilan qarama-qarshi qo‘yiladi,shu orqali uning bardoshi,sabri sinaladi.Misol uchun uzoq yillik Troya urushi odamlar uchun go‘yo bir imtihon,unda irodalar mustahkamlanadi,yangi sarguzashtlar boshdan kechirilib,ibtidoda qilingan bashorat bildirmaygina voqealar rivoji,qolaversa,intihoni o‘z zimmasiga olib oladi ,biroq uning ichida o‘z rolini o‘ynayotgan qahramon-inson bundan g‘ofil qoladi,balki u haqda bilmay ham ssenariy bo‘yicha o‘z vazifasini to‘kis ado etadi.

Vaqtlar o‘tishi bilan janrlar taraqqiy eta boradi,qay bir davrda ma’lum bir janr muhim ahamiyatga ega bo‘lsa,taraqqiyot bosqichini bosib o‘tsa,yana biri kelib esa uning o‘rnini egallaydi.Xuddi shunday antik adabiyotda ham tragediyalar paydo bo‘ldiki,eposdan farqli o‘laroq bashorat motivi unda keskin tus oldi,hattoki cho‘qqisiga erishdi deyish mumkin,negaki eposdan farqli o‘laroq tragediyada asosiy nuqta olinadi,ya’ni yechimsiz muammo qo‘yiladi.Qahramonlar holatiga ko‘ra esa epos qahramoni tragik qahramonga taqqoslaganda taqdirga ko‘nikuvchan va oqim bo‘ylab suzsa,fojea qahramoni esa bashoratga qarshi chiqadi,ma’budlar hukmini o‘zgartirmoqchi bo‘lib ,natijada chiqib bo‘lmas,boshi berk ko‘chaga kirib qolishi ayni haqiqatdir.

Jumladan,antik adabiyot durdonalaridan hisoblanmish Sofoklning ,,Shoh Edip‘‘ tragediyasi har doim adabiyotshunoslikda qiziqib kelingan va turlicha talqinlarga sabab bo‘lgan asar.

Tragediyani Edip haqidagi afsonalar bilan qiyoslasak,afsonada voqea to‘laligicha bayon etiladi,tragediyada bo‘lsa voqea tugundan boshlanadi va hissiyotga boy sahnalar qalamga olinadi.Afsonada Edipning haqiqiy ota-onasi, otasi uni Kiferon g‘origa nima sababdan tashlab kelgani,oldin qanday voqealarni boshidan o‘tkazgani asrab olgan ota-onasi ,bolalari ,ularning ismlari ,Edipning o‘limi haqida keng ma’lumot berilgan bo‘lsa,fojeada bunga to‘xtalmaydi.Sofoklda sahna Feva shahridagi o‘latdan boshlanadi. O‘lat -bu birinchi tugun,ikkinchi tugun ham bo‘lib,Feva shahri podshohi Layning o‘limidir.Mana shu ikki yirik fojeaga yechim qidirish asnosida qahramon bashorat qilingan taqdirning to‘riga qanday ilinib qolganini bilmay g‘aflatda qoladi,tabibning o‘zi haqiqiy kasal bo‘lib chiqadi. Tragediya janrining talablaridan kelib chiqib,unda voqeadan ko‘ra Edip hissiyotlar qurshovida ,fojeaning yolg‘iz aybdori bo‘lib aks etadi.

Asarda bosh obraz Edip bir paytda Feva shahrining xaloskori,mazlumlarning himoyachisi bo‘lsa,aslida ota-onasining gunohlari va gunohlardan sodir bo‘lgan fojeaning qurboni,taqdirdan qochmoqqa tuynuk qidirib,bas kelolmay uning qa’riga qulagan qushdir. Tragediyada Edipning taqdiri:otasini o‘ldirib,onasiga uylanishi ma’bud Apollon tomonidan bashorat qilinadi,xuddi Zevs Promitey qo‘lidan o‘lim topishi bashorat qilingandek va bu keksa Tiresiyga ma’lum bo‘ladi.Tragediya boshida qo‘yilgan tugun ,ya’ni shaharga yopirilgan o‘lat va uning talafotlari :ekinlarning ildiz otmasdan qurishi, yilqi,chorvalarning qirilib ketgani,bolalarning o‘lik tug‘ilishiga sabablarni qidirish butun fojeaga kirishga darvozani ochib beradi.Tabiiyki ,Edip -shoh va muammoni hal qilish ko‘proq uning zimmasida.Ular Kreonni ma’bud Apollonning oldiga talofatning sababini bilishga jo‘natganda u shunday javob bilan qaytadi,ya’ni Apollon aytadi:,,Bu yurt tuprog‘ida bir qonli dog‘ bor,Yuvib tashlash kerak gazak olmasdan‘‘(Sofokl,18-b). Afsonada Edip Delfaga taqdirini bilishga borganda orakul (karomatgo‘y)dan otasini o‘ldirib onasiga uylanishini biladi-yu ,ammo uni haqiqiy dunyoga keltirilganlarni bilolmaydi.Tragediyada ham ,,qonli dog‘‘ nima ekanligini bilish maqsadida Kreonning taklifi bilan keksa donishmand Tiresiyni o‘z huzuriga chorlaydi.Edip Tiresiydan haqiqatni so‘raganda:,,Bilgan narsang koni zarar bo‘lsa ,bilimdonlik mudhishdir ,yo rab!‘‘(Sofokl,25-b),degan javobni oladi .Bu yerda Tiresiy obraziga to‘xtalish lozim.U ma’budlardan kelgan ilohiy xabarni anglay oladigan,o‘zgacha bir karomatga ega shaxs..Odatda ana shunday karomatli kishilar sifatida keksa,bechorahol qahramonlar tanlanadi,ammo ular el ko‘ziga notavon,baxtsiz ko‘rinsa-da,aslida asar voqealarini boshqaradi. Tortishuvlardan so‘ng

Tiresiy:,,Jazolab bo‘lmaydi haqiqatni ,shoh‘‘(Sofokl,27-b),-deydi va muammoni yechishda pozitsiya Edipdan Tiresiyga o‘tadi.

Tragediyada qahramonlar xilqatida sarkashlik,faqat o‘zini haq sanash ,bashoratni o‘zgatirmoqchi bo‘lish,yolg‘on haqiqat bilan o‘zini ovutish va boshida voqeaga to‘g‘ri baho bera olmaslik kabilar kuzatiladi.Masalan,Edip Polib o‘zining haqiqiy otasi emasligini biroz anglagan bo‘lsa-da, Korinfdan otasi o‘limi xabarini olib kelgan elchi gaplarini eshitib :,,Xullas,bekor gapdir,qismat,bashorat,Polib olib ketdi barin uzlatga ‘‘(Sofokl,50-b)deb xursand bo‘ladi,o‘zicha qismatga chap berganday bo‘ladi.

Sofokl tragediyasida Edip bashoratdan ya’ni ma’bud Apollon uning peshonasiga bitgan qismatdan qochishga qattiq urinadi,uni inkor qiladi,ammo borgan sari shubhalar to‘riga o‘ralashib boraveradi.Tuganmas iztirob iskanjasida qolib ,javobsiz savollar yurak-bag‘rini tirnaydi.

Bu yerda eposda kuzatilmaydigan narsa ko‘riladi,qanday qilib o‘jar qahramon qadardan qochib qadarga borib qolganini bilmay qoladi,oxiriga kelib savollari o‘z javobini topadi,tugun yechiladi,aybdorlik hissi qattiq jismini o‘rtaydi,tanini olov bo‘lib kuydiradi,ammo ana shu iztirob olovi qahramonnni ruhiy tozartiradi,gunohlardan poklaydi.Oxirida fojea qurboni Edip so‘nggi nuqtaga yetib keladi va,,O taqdir yo‘limga tushgan chorraha…‘‘(Sofokl,68-b),deb iqror bo‘ladi,o‘zini aybdorlik chohiga tashlaydi.Kuchli ruhiy zarbalar ta’sirida qolgan Edip oqimga qarshi suzmoqchi bo‘lib,unga g‘arq bo‘ladi.Tragediyada ,,Zanjirband Promitey‘‘dagi Zevs o‘z qismatidan qochgan kabi ,Edip ham charxpalakni teskari aylantirib,suv chiqarmoqchi bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki,bashorat jo‘n narsa emas,bevosita samo va ilohiyot bilan bog‘liqdir, u sharq va g‘arb adabiyotining o‘xshash motivi ,ya’ni umumbashariy motiv sifatida keladi.Qadimgi dunyo adabiyotida bashorat afsonadan ertakka,eposdan tragediyaga qarab yuksalib boradi va aynan tragediya janrida o‘z cho‘qqisini namoyon etadi deb aytish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. R,Fish. Jaloliddin Rumiy.-T.:Yoshlar matbuoti,2023.-272 b.
2.Sofokl. Shoh Edip.-T.:Adabiyot va san’at nashriyoti,1979.76 b.
3.U.Jo‘raqulov.Nazariy poetika.-T.:G‘afur G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.-355b.
4.Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik asoslari.-T.:G‘afur G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.-308 b.

## XX ASR NEOROMANTIK ADABIYOTDA AYOLLAR OBRAZI

*G‘ofurova Madinaxon Odiljon qizi*

*ToshDO‘TAU TNA(ingliz tili) fakulteti,*
*+998777092204*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada XX asr neoromantizm adabiyotida ayollar obrazi o‘rganilgan. Neoromantizm oqimining tarixiy rivojlanishi, o‘ziga xos xususiyatlari rus yozuvchisi Aleksandr Grin va o‘zbek adibi Hamid Olimjonning asarlari misolida tahlil etilgan. Neoromantizmda qahramonlarning ruhiy dunyosi, ijodkorlarning estetik ideali misollar orqali ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ayol obrazi, romantizm, ertak-doston, qiyosiy tahlil, manba, realizm, adabiy oqim*

***Abstract.*** *This article explores the portrayal of women in 20th-century neoromantic literature. It analyzes the historical development and distinctive features of neoromanticism, using examples from the works of Russian writer Alexander Grin and Uzbek author Hamid Olimjon. Neoromanticism highlights the inner world of characters and the aesthetic ideals of writers through various examples.*

***Keywords:*** *women, romanticism, fairy tale-epic, comparative analysis, source, realism, literature stream*

Neoromantizm XIX asrning ikkinchi yarmidagi realistik va naturalistik oqimlarga javoban XX asr boshlarida birinchi marta adabiyotda paydo bo‘lgan muhim adabiy oqimlardan biri hisoblanadi. Ayrim mutaxassislar uni alohida adabiy oqim sifatida tasniflashsa, boshqalari modernizmning bir qismi deb hisoblashadi. Ammo u o‘zigacha mavjud bo‘lgan romantizm an’analarini shunchaki ko‘chirib o‘tkazmay, uni zamonning fikr va qarashlariga mos ravishda yangiliklar bilan to‘ldirgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida bir qancha G‘arbiy Yevropa mamlakatlari va Amerika Qo‘shma Shtatlari yangi iqtisodiy, siyosiy o‘zgarishlarni boshidan o‘tkazdi. Monopolistik birlashmalar paydo bo‘la boshladi. Angliya, Fransiya, Germaniya va AQSh davlatlari Afrika, Osiyo va Tinch okeani havzasida bosqinchilik urush siyosatini olib bordi. Urushlardan charchagan xalqqa umid va orzu qilishga turtki bo‘ladigan bir harakat kerak edi, adabiyot esa buning uchun eng yaxshi vosita bo‘la olardi va shu tariqa neoromantizm paydo bo‘ldi. Neoromantizm ko‘proq ichki tuyg‘ularga asoslangani bilan ahamiyatlidir. Uning asosiy xususiyatlari, odatda, zamonaviy jamiyatni tanqid qilish va o‘tmishdagi oddiy davrlarga intilishdan iborat. Neoromantiklar zamonaviy jamiyat qadriyatlarini rad etar ekan, o‘z o‘quvchilarini uzoq o‘tmishga yoki sivilizatsiya ta’siridan yiroq ekzotik o‘lkalarga (Afrika, Osiyo, Janubiy Amerika) olib boradilar. Ularning favqulodda kuchli, romantik qahramonlari yorqin bo‘yoqlarga boy, g‘aroyib sayohatlar bilan to‘la dunyoda yashaydilar.

Neoromantizmning shakllanishi noaniq, ba’zilar buni realizmdan oldingi davrning tiklanishi deb bilsalar, ba’zilar modernizmning dastlabki bosqichi sifatida qaraydilar.

Bu oqim bir qator asosiy xususiyatlariga qaramay, har bir mamlakatda individual madaniy xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘ziga xos tarzda rivojlandi. Jumladan, neoromantizmning asosiy xususiyatlari to‘liqligicha Nitsshe va Shopengauer asarlarida ko‘rinadi, ya’ni qahramon o‘ziga xosligi bilan boshqalardan ajralib turadi, u barcha qiyinchiliklarni yengadi va ularga taslim bo‘lmaydi. Masalan, Nitsshe asarlarining qahramonlari "supermen", "irratsionallik", standartga rioya qilmaslik xususiyatlariga ega.

Shu bilan birga, ingliz neoromantizmi uchun kuchli qahramonlarni oddiy odamlar bilan almashtirish odatiy holdir. U, shuningdek, atrofidagi dunyoga qarama-qarshi, lekin ayni paytda u hamma narsaga qodir emas, balki taqdirning og‘irligi ostida sinmaydigan shaxs sifatida belgilanadi (bunday qahramonlar Kipling asarlariga xosdir).

Artur Konan Doylning Sherlok Xolms obrazi ham neoromantik qahramon. Konan Doyl o‘z qahramoniga g‘ayrioddiy fikrlash qobiliyatini beradi, hatto aytish mumkinki, uni haqiqiy "supermen qiladi". Shu bilan birga, Sherlok mutlaq ijobiy qahramon: u har doim ham qonun doirasida ishlamaydi, lekin odamlar manfaati uchun uning harakatlari ijobiy, to‘g‘ri natijaga olib keladi.

Neoromantizm XX asrda rus adabiyotiga ham kirib keldi. Misol tariqasida Aleksandr Grinning “Alvon yelkanlar” asaridagi Assolni shunday qahramon sifatida olishimiz mumkin. U taqdir hukmi ostida yashadi — alvon yelkan orqali taqdir shahzodasini kutdi; u o‘z jamiyatida begona edi — xalq uni qabul qilmadi, shu bilan birga, qizning samimiy qahramon va hatto bolalarcha sodda ekanligi, ya’ni u taqdirga qarshilik qilmasdan, uni qandaydir aqldan ozgan deb hisoblagan odamlarga e’tibor bermasligi neoromantizmning yana bir o‘ziga xos xususiyatidir.

XX asr o‘zbek adabiyotida ham neoromantizm usullari ko‘zga tashlanadigan bir necha asarlar mavjud. Misol uchun, Hamid Olimjonning hammamizga tanish "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostoni.

Mashhur shoir qalamiga mansub ushbu asar xalq og‘zaki ijodidagi "Oygul bilan Baxtiyor" ertagining adabiy qolipga solingan shakli ekanligi hammamizga ma’lum. Shoir o‘zi aytib o‘tganidek:

Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda
Ko‘p ertak eshitgandim,
So‘ylab berardi buvim.

Esimda o‘sha damlar:
O‘zi uchar gilamlar,
Tohir-Zuhra, Yoriltosh,
Oyni uyaltirgan qosh...
Buvimning har qissasi,
Har bir qilgan hissasi
Fikrimni tortar edi,
Havasim ortar edi… (Hamid Olimjon, 1999, 33-bet)

Bu asar xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lishiga qaramay to‘liqligicha neoromantizm oqimidagi asardir. Oygul o‘z hurligi yo‘lida eng qaltis choralardan ham cho‘chimay, qiz bola boshi bilan maqsad sari dadil va ongli intiladi. U o‘zining "peshonasi sho‘r"ligiga ko‘nmagan, o‘z xalqi hayotini yaxshi tomonga o‘zgartirish uchun kurashgan qiz sifatida tasvirlanadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan ikki asarga nazar solsak, ijodkorlar neoromantizm orqali o‘z millati ayollarining jasoratlarini ochib beradilar. Dunyoni romantik ruh bilan idrok qila oladigan ulug‘ yozuvchi Aleksand Grinning "Alvon yelkanlar" qissasida oddiy, ammo kuchli sevgi hikoya qilinadi. Bashorat qissaning yagona fantastik elementi hisoblanadi. Assol butun jamiyatga qarshi turib, o‘z shahzodasini kutadi, bu orqali yozuvchi orzu qanchalik ahmoqona ko‘rinmasin, baribir bir kun amalga oshishini ta’kidlaydi. Asarda qizchaning og‘ir iztiroblari tasvirlanadi: Assol yoshligidayoq onasidan ajrab qoladi va otasi qo‘lida tarbiyalanadi, u mo‘jizalarga ishonch ruhida o‘sadi. Otasining: "Yaxshi ko‘rish san’atidan bebahra kishilar uchun yomon ko‘rishdan boshqa yumush qolmaydi,qizim"— degan gaplari unga doim ilhom bag‘ishlaydi. (Aleksandr Grin, 2023, 15-bet) Qizcha sadoqat bilan o‘z saodatli damlarini kutib yashaydi.

"…baliqchi ovga chiqqanida hech kimga nasib qilmagan eng yirik baliqni tutishni orzu qiladi , to‘g‘rimi? Niyati sidqidildan bo‘lsa,u bir kuni orzusidagi o‘ljani qo‘lga kiritadi. Orzuga qarab imkon tug‘iladi…" (Aleksandr Grin, 2023, 71-bet)

Ushbu jumla asarni to‘liq tushunishimizga yordam bera oladi.Chunki orzular bir kun, albatta, amalga oshadi.

Ammo "Oygul bilan Baxtiyor" dostonida ijodkor hech o‘rinda Oygulga nisbatan "sho‘rlik", "bechora" degan so‘zlarni ishlatmaydi. Chunki yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, u o‘z orzusiga erishish yo‘lida hech bir qiyinchilikdan qo‘rqmaydi. Adib Oygul timsolida barcha o‘zbek ayollarining matonatini,jasoratini to‘laqonli ochib beradi. Oygul yurtdoshlarini ozodlikka olib chiqdi. Tadbirkor, erksevar Oygulning oqilona harakatlarigina voqealarning aynan shu tarzda xotimalanishiga zamin yaratadi.Oygul o‘z vatani Jambilni zolim xondan qutqarish

uchun o‘z yori Baxtiyor bilan birgalikda harakat qildi. Endi u Assoldek faqat orzu qilib o‘tirmadi, orzusi yo‘lida harakat qildi. Oygulning orzusi kichik bir qiznikidek emasdi, u o‘z vatanini ozod qilish uchun mardonavor kurashdi. Orzusiga erishdi va xalqining roziligini oldi. Buni shoir shunday tasvirlaydi:

Oyguldan jahon-jahon
El barcha rozi bo‘ldi,
Qalbi shodlikka to‘ldi.
Qirq kecha-yu qirq kunduz,
Barcha erkak, xotin-qiz
0‘ynab bayram etdilar,
Zolim xonni yo‘qotib,
Qayg‘ularini otib,
Murodiga yetdilar. (Hamid Olimjon, 1999, 63-bet)

Ko‘rinib turibdiki, ikki asarda ham ayol obrazi asosiy qahramon sifatida tasvirlandi. Yagona farqi — milatga xos turli jihatlar ijodkorlar tomonidan turlicha ochib berilgani, xolos.

Asarlar yordamida neoromantizmning boshqa xususiyatlari ham tushuntirilgan, masalan, romantik ruh bilan idrok qilish, kuchli sevgi va qahramonlarning harakati orqali umidlarni amalga oshirish kabi. Bu esa neoromantizmning boshqa adabiy usullardan farqini ko‘rsatadi. Masalan, Oygul barcha orzulariga sevgilisi Baxtiyor yordami bilan erishgani yoki Assolning orzusini amalga oshirish va uni ahmoq emasligini insonlarga ko‘rsatib qo‘yish uchun harakat qilgan Grey obrazlari asarlardagi yana bir muhim usul hisoblanadi.

Neoromantik asarlarda qahramonlar orqali inson qalbidagi orzu-istaklar ochib beriladi. Yuqoridagi asarlarda esa ushbu orzularga erishishda inson qalbini tushuna oladigan va har qanday holatda ham imkon boricha yelkadosh bo‘la oladigan insonlar ham ko‘rsatib beriladi.

Yozuvchilar o‘z asarlarida inson hayoti faqat zulmatdan iborat emasligi, balki yaxshi insonlar ham borligini asarlarda obrazlari orqali ko‘rsatib berganligi tahsinga loyiqdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Oygul bilan Baxtiyor". Hamid Olimjon. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti Toshkent 1999.

2."Alvon yelkanlar". Aleksandr Grin. Toshkent Yoshlar matbuoti, 2023. Rus tilidan Fozil Tilovat tarjimasi.

# HIKOYADA KEKSA ODAM OBRAZINING TIPOLOGIYASI (Shukur Xolmirzayevning “Qadimda bo‘lgan ekan”, Normurod Norqobilovning “ Ayriliq quvonchi”, va Jek Londonning “Hayot qonuni” hikoyalari misolida)

*Shakarboyeva Mashxura Bekzod qizi*
*ToshDO‘TAU O‘FF 2-kurs talabasi*
*shakarboyevamashxura@gmail.com.uz*
*+998991460504*

**Annotatsiya.** *Maqolada realizm yo‘nalishida yozilgan mashhur o‘zbek yozuvchilari Normurod Norqobilovning “Ayriliq quvonchi” , Shukur Xolmirzayevning “Qadimda bo‘lgan ekan” hamda jahon adabiyotining taniqli yozuvchisi Jek Londonning “Hayot qonuni” hikoyalaridagi keksa odam obrazlari haqida mulohaza yuritilgan. Maqola qiyosiy-tipologik usulda tahlil qilingan. Tahlil qilish jarayonida hikoyada shafqatsiz hayot qonuniyati keksa odamlar hayotini tasvirlashda yetakchilik qilganligi,turli hikoyadagi turli obrazlarning mushtarak xususiyatlar hamda farqlari aniqlangan. Shuningdek tahlil qilish jarayonida bir necha olimlarning fikrlaridan foydalanilgan. Fikr va mulohazalar hamda olimlarning keltirilgan fikrlaridan so‘ng shunday xulosaga kelindi,uchala hikoyada ham hayot haqiqatlarini tasvirlashda, keksa obrazi bilan bog‘liq haqiqatlarni ochishda mualliflar shafqatsiz realizm mezonlaridan yaxshi foydalanishgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Realizm,shafqatsiz realizm, keksa odam obrazi, hikoya,qarilik.*
**Keywords:** *Realism,cruel realism, the image of an old man,the story,old age.*

Dinidan, millatidan, irqidan qat’iy nazar inson bilan bog‘liq xalqlar o‘rtasida, millatlar o‘rtasidagi kundalik hayot, o‘lim, tug‘ilish, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy hayotdagi hodisalar o‘xshashdir.

Hayotni uzun bir yo‘l deb tasavvur qilsak,inson ushbu yo‘lda safarga chiqqan bir yo‘lovchi kabidir. Tabiiyki, safarda ne-ne mashaqqatlar, sinovlar kutib turadi. Ammo yo‘lovchi hisoblangan inson sinovlar-u mashaqqatlarni yengib o‘tish uchun harakat qiladi va qisman uddalaydi ham.

Hayot juda beshafqat.Inson tug‘iladi, bolalik chog‘ida o‘ynaydi, sho‘xlik qiladi, yoshlik davrida sevadi-seviladi, 35-40 yoshlarga kirgandan so‘ng hayot tashvishilari bilan o‘ralashib qoladi va oxiri keksalik davrida beli kuch-quvvatdan, ko‘zi nurdan qoladi, ya’ni safari oxirlab qolgan davri bo‘ladi. O‘sha davrdagi keksa odamlar har qanday jamiyatda, vaziyatda bo‘lishidan qat’iy nazar hayotda yaqinlarining, jamiyatning ularga munosabati,shuningdek, o‘y-xayollari, hislari, tuyg‘ulari o‘xshashlikni aks etadi.

Qissada taqdir, romanda davr koʻrsatilsa, hikoyada esa bugungi kundagi voqealar, ijtimoiy hodisalar,tipologik jihatdan janr imkoniyatlaridan kelib chiqib oʻsha davrdagi umri tugab qolgan keksa odam obrazi bilan bogʻliq voqealar talqin qilib kelingan. Bunday xususiyatlarni Shukur Xolmirzayevning “Qadimda boʻlgan ekan”, Jek Londonning “Hayot qonuni” hamda Normurod Norqobilovning “Ayriliq quvonchi” hikoyalarida ham koʻrishimiz mumkin.Jumladan, “Hayot qonuni” hikoyasida Koskush cholning bosib oʻtgan hayot yoʻlini, oʻtib ketgan kunlarini, voqealarini eslashini koʻramiz.

“Buyuk Ochlik davrida chollar gulxan yoniga suqilib, oʻtmishning elas-elas xotiralarini yodga olishar, Yukonning paydar-pay uch qish mavsumida muzlamagan, soʻng uch yoz davomida muzlar erimay turgan ogʻir davrlari haqida hikoya qilishardi. Oʻsha ochlikda Koskush onasidan ayrildi. Lososlar yoz chogʻida ham bu yerlarga kelishmadi, qish mavsumi esa bugʻularsiz kirib keldi. Hatto keksalar ham qachonlardir shunday ocharchilik sodir boʻlganini eslay olishmas edi. Bugʻular bu yerlarga kelmay qoʻyganidan keyin yana yetti yil oʻtdi. Quyonlar bolalamas, itlarning terisi suyagiga yopishgan edi. Goʻdaklar ojiz ingrashar, tunning tubsiz va zimiston qoʻynida jon taslim etishar, ochlik ayollar va keksalarga ham ayovsiz chang solardi.”(https://www.ziyouz.com.)

Shuningdek, bunday holatni Shukur Xolmirzayevning “Qadimda boʻlgan ekan” hikoyasidagi Maqsad bevaning ham Oʻsar bilan suhbatida kuzatishimiz mumkin.

“— Urush-purush boʻladimi yana, bolam?
— Nimaga? Urush yoʻq endi, — dedi Oʻsar oʻrnidan turmoqchi boʻlib. — Davlatlar yarashganiga ming yil boʻldi.
— A, nimaga qimmatchilik boʻlarmish?
— Kim aytdi? — Oʻsar sholcha chetini tutgancha qoʻzgʻaldi. — Tavba... Hojar aytdimi, enasini...
Kampir kuldi.
— Hazil... Soʻk, soʻk. Tus bobongga oʻxshaysan... Umring oʻxshamasin, iloyi. Voy, men sonimdi ochib oʻtirippan-ku, oʻlay men... Bod bu... Bobong oʻlgandan keyin qor kechib, choʻpchak yigʻib, tandir qizitaman deb...
Huvv…”(https://www.ziyouz.com.)

Maqsad bevaning ham, Koskushning ham oʻy-xayollarida, gap-soʻzlarida oʻtib ketgan kunlarini eslashini kuzatamiz.

Atrofimizga nazar tashlaydigan boʻlsak, koʻp keksalarning yosh bolalar bilan yaqin munosabatda boʻlishini yoki oʻsha bolalarning qaysidir odatlari haqida gapirib turib oʻzining bolalikdagi odatlari bilan qiyoslashiga guvoh boʻlamiz. Bunga Jek

London hikoyasidagi Koskushning nevarasi haqidagi o‘y-xayollarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

“Sit-Kum-To-Xa bobosini o‘ylab, ko‘proq o‘tin g‘amlaganida, uning hayot soatlari sal uzaygan bo‘lardi. Axir, bu unchalik qiyin emas-ku. Lekin Sit-Kum-To-Xa juda beg‘am qiz. Zing-Xaning nabirasi bo‘lgan Bobrning o‘tkir nigohlariga duch kelganidan keyin esa u ajdodlarini umuman izzat qilmay qo‘ydi. Umuman olganda, yoshligida hamma ham shunaqa bo‘ladi. Uning o‘zi ham yoshlikning o‘yinqaroq damlarida shunday yo‘l tutmaganmidi?” (https://www.ziyouz.com.)

Yoki Normurod Norqobilovning “Ayriliq quvonchi” hikoyasidagi:

“Chol esa terisi halviragan oq badanini qoqsuyak barmoqlari bilan qashlab, silab-siypalab yana qih-qihlaydi. Epsizlarcha kir yuvayotgan bolaning harakatlarini masxaralab kulishda davom etarkan, deydi:

— Bu ishing bo‘madi. Undan ko‘ra meni biror jar-parga olib bor-da, itarib yubor.

Bola qovoq osib, to‘ng‘illaydi.

— Yo‘q, hech qachon!

— Mendan enang bezor, tog‘ang bezor, hamma bezor, nima qilasan kirimni yuvib. Birato‘la qutulib qo‘ya qolasan deyman-da.

— Muso tog‘am sizni yaxshi ko‘radi.

— Sen-chi?

— Yomon ko‘raman.

— E, nechun? — chol battar qih-qihlaydi.

— Jardan itarib yubor deganingiz uchun.

— Itarib yubormaysanmi?

— Yo‘q!

— Itarib yuboraqol, — chol bu safar ermaklab emas, erkalanib kuladi.

— Yo‘q dedim-ku sizga! — bola chinqirib yuboradi.

— O‘zimning ulimdan-da!” (https://www.ziyouz.com.)

Norboy chol va bolaning suhbatida ham ushbu holatni ko‘rishimiz mumkin. Har bir insonda yiroqdagi yaqin kishisini sog‘inish hissi bo‘ladi. Ayniqsa, qariliq davriga kelib o‘zi tarbiya qilgan, katta qilgan uzoqdagi nevarasini ko‘rgisi, suhbatlashgisi keladi, u haqida ko‘p o‘ylab qoladi xuddi Norboy chol shahardagi Muso o‘g‘lini, maqsad beva esa Kenjatoyini sog‘ingani kabi.

Masalan, “Ayriliq quvonchi” hikoyasida Norboy chol shahardagi Muso o‘g‘lini har doim tepalikda kutadi.

“Chol yo‘ldan ko‘z uzmagan ko‘yi, qo‘lidagi non bo‘lagini og‘ziga olib boradi. Tamshanib, shima boshlaydi. Ivigan non ushoqlari soqoliga ilashadi, yerga sochiladi. Uni zimdan kuzatib o‘tirgan bolaning esa yig‘lagisi keladi. Men hech qachon bovo bo‘lmayman, bovo bo‘lish juda yomon ekan, deb o‘ylaydi.

Xayolini cholning jonsarak ovozi bo‘ladi.
— Anovu kelayotgan Muso tog‘ang emasmi?
— Yo‘q, Qalandar amaki, — deydi bola va har doimgidek izoh beradi. — Muso tog‘am piyoda emas, moshinda keladi. O‘zining moshini bor-ku.“
.”(https://www.ziyouz.com.)

Va yana bir o‘rinda Musoni o‘ylab, u haqida qayg‘uradi:
“— O‘sha...o‘sha gapingiz uchun, — bola beixtiyor qo‘lidagi kirni eza boshlaydi.
— Muso tog‘am kelsin, barini aytib beraman.
— Muso tog‘ang qiynalib ketdi-da, ulim, — chol jiddiy tortib, badanini siypalashdan to‘xtaydi. — Bola bechora meni deb hamma bilan qirqpichoq bo‘layapti. Uzilishib ketmasin deb qo‘rqaman.” (https://www.ziyouz.com)

Shukur Xolmirzayevning hikoyasidagi qahramon Maqsad beva ham faqat shahardagi Kenjatoyini so‘raydi.Quyidagi o‘rinda buni kuzatishimiz mumkin:
“— Ho‘, umrdi sizlarga bersin, — dedi momo. — Bizdi ishimiz pishgan...
Tushimga bobong kiradi. “Haliyam juribsanmi?” deydi. — Momo kulibgina qo‘ydi. — “Ha, jurippan, deyman. Omonatini olmasa, nima qilay?” — So‘ngra u O‘sarga o‘ychan tikilib qoldi. — Kenjaboy qayerda?
Nos otib olgan O‘sar:
— Shahayda, — dedi. Va bir zum boshini burib, ho‘mrayib qoldi. Keyin xo‘rsinib yubordi. — Uniyam isi ko‘p-da, momo. Jo‘jalayi boy. Etajda tuyadi...
Kampir gap ma’nosini yaxshi uqmagan bo‘lsa-da, bosh irg‘adi.
— Omon bo‘lsin, qayerda bo‘lsayam... Meniki emas, davlattiki. Ha, o‘zginang yaxshi juribsammi? Bolalaring...” (https://www.ziyouz.com.)

Yana hikoyaning boshqa o‘rinlarida ham shunaqa holatlarni kuzatishimiz mumkin.

Shuningdek, “Hayot qonuni” hikoyasida qahramon Koskushning o‘lim, ajal haqida ko‘p o‘ylashini Shukur Xolmirzayev va Normurod Norqobilovning qahramonlarida ham kuzatamiz.

“Oldinda olis yo‘l turibdi, kun esa sira uzayishni istamaydi. Oldinda ularni hayot va tiriklik qonuniyatlari kutmoqda, zinhor-bazinhor ajal emas. Chol esa endi ajalga shu qadar yaqinki...
Koskush bir daqiqa bu fikrdan dahshatga tushdi. U qo‘llarini cho‘zib, titroq barmoqlari bilan yonginasidagi o‘tin uyumini paypaslab qo‘ydi. O‘tin borligiga amin bo‘lgach, qo‘llarini mo‘yna ostiga berkitdi va yana atrofni tinglashga tutindi.” (https://www.ziyouz.com.)

Koskushning bunday o‘ylari fikrimizga dalil bo‘lsa, bunday dalilni yana “Ayriliq quvonchi” hikoyasida Nurboy chol hamda bolaning suhbatidan ham topishimiz mumkin.”

“— Bu ishing bo‘madi. Undan ko‘ra meni biror jar-parga olib bor-da, itarib yubor. Bola qovoq osib, to‘ng‘illaydi.
— Yo‘q, hech qachon!
— Mendan enang bezor, tog‘ang bezor, hamma bezor, nima qilasan kirimni yuvib. Birato‘la qutulib qo‘ya qolasan deyman-da.” (https://www.ziyouz.com.)
“Hayot qonuni”, “Ayriliq quvonchi”, “Qadimda bo‘lgan ekan”-uchala realizm yo‘nalishida yozilgan hikoyalarda ham shunday o‘rinlar borki, yurakning qaysidir nuqtasiga tegib achitadi, odamni o‘ylantirib qo‘yadi.

Misol qilib, “Hayot qonuni” hikoyasida Koskushning qabila boshlig‘i bo‘lgan o‘g‘li tomonidan qoldirilib ketilishi, “Qadimda bo‘lgan ekan” hikoyasida esa O‘sarning xotiniga ozroq aql kiritish uchun Maqsad bevani uzoq yerdagi daraxt tagiga qoldirib kelishi yoki “Ayriliq quvonchi” hikoyasida farzandlarning Nurboy cholga munosabatini keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, “Ayriliq quvonchi” hikoyasida farzandlar Nurboy cholning ozroqqina nafaqasini talashishi,Bozorboyning faqatgina odamlarning gap-so‘zlari uchungina Nurboy cholga g‘amxo‘rlik qilayotgani yoki “Qadimda bo‘lgan ekan” hikoyasida O‘sarning ba’zi bir o‘y-xayollari ,xotini bilan suhbatlari hamda “Hayot qonuni” hikoyasida Koskushning o‘zi ham bir vaqtlar o‘z otasini qoldirib ketganligi kabi haqiqatlar yozilganki, ularni rad qilib bo‘lmaydi hamda bunday voqea-hodisalar uchala hikoyalarda ham o‘xshashdir. Zero Belinskiy aytganidek, “Realizm-hayotni butun yalang‘ochligi va haqqoniyligi bilan qayta tiklashdir”.(Umurov,2004,256-bet)
“Faqat realizm inson va jamiyat hayotini real(aniq) va rost tadqiq etish yo‘lidan boradi.”(Umurov,2004,257-bet)

Bunday hayot haqiqatlarini hikoyada tasvirlashda esa yuqoridagi har bir muallif o‘z hikoyalarida shafqatsiz realizm mezonlariga ustalik bilan amal qilishgan.

Keltirilgan fikr va mulohazalardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, Normurod Norqobilov, Shukur Xolmirzayev hamda Jek London hikoyalaridagi keksalik paytida farzandlarning o‘z otalarini o‘z holicha qo‘yib qo‘yishlari,g‘amxo‘rlik qilmasliklari, ijtimoiy voqealar, moddiy holatlarni, bir so‘z bilan aytganda, hayot haqiqatlari aynan bir xil tasvirlangan bo‘lsa, sharq adabiyotiga mansub Normurod Norqobilovning “Ayriliq quvonchi” hikoyasidagi bolaning Norboy cholga mehribonligi, Shukur Xolmirzayevning “Qadimda bo‘lgan ekan” hikoyasidagi O‘sarning Maqsad bevani ochiq-oydin tashlab ketyotganini bildira olmaganligi hamda qoldirib ketish uchun ketayotgan yo‘lda ham vijdoni qiynalganligi g‘arb adabiyotiga tegishli Jek Londonning “ Hayot qonuni”

hikoyasidagi nevara qiz va Koskush munosabati, o‘gilning osonlikcha va ochiqchasiga Koskushni tashlab ketishi farqli jihatlaridandir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.D.Quronov va boshqalar(2013). Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent:Akademnashr.
2.H.Umurov.(2004).Adabiyotshunoslik nazariyasi
3. Jo‘raqulov.U.Hamrayev.K.(2021). Qiyosiy adabiyotshunoslik. Ilmiy-nazariy qo‘llanma. –T.: 2021
4. www.ziyouz.com

# GABRIEL GARSIE MARKESNING “BUZRUKNING KUZI” ASARINING TAHLILI

*Rajabova Lobar Shuhrat qizi,*
*ToshDO‘TAU O‘FF 2-kurs talabasi*
*rajabovalobar48@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Lotin Amerikasi yozuvchisi Gabriel Garsie Markesning 1975-yilda yozilgan “Buzrukning kuzi” nomli asari tahlilga tortiladi. Asar bosh qahromoni buzruk obrazi tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Buzruk , davlat , xalq ,general , kelajak*

**Abstract.** *In this article, the work of the Latin American writer Gabriel García Márquez, written in 1975, entitled "Autumn of Perversion" is analyzed.*

**Keywords:** *President, state, people, general, future.*

Lotin Amerikasining yorqin vakili, sehrli realizm adabiy oqimining asoschilaridan biri Gabriel Garsie Markes 1927-yil Arakata shahrida tug‘ilgan. Ko‘plab asarlar yozgan Markesning birinchi hikoyasi 1947-yili “Uchinchi itoatkor” nomi bilan chop etiladi. Shundan so‘ng yozuvchining ketma ket asarlari nashr qilina boshladi. 1955-yil “To‘kilgan yaproqlar”, 1958-yil “Polkovnikka hech kim yozmaydi”, 1962-yil “G‘arazli soat” povestlari realistik ruhda yozilgan. 1962-yil “Grande-ona dafn marosimi” nomli fantastik hikoyalari jamlangan to‘plami nashr etildi. 1966-yil Kolumbiya tarixiga bag‘ishlab ‘'Yolg‘izlikning yuz yili" nomli roman epopeyasini yozdi. Ushbu asar yozuvchiga katta shuhrat va mashhurlik olib keldi. 1985 -yil rafiqasi Mersedes Barcha Pardoga bag‘ishlab “Vabo va muhabbat” nomli romanini yozadi . Asarda folklor va mifologiyadan foydalanib, o‘ziga xos milliy ongni tiklashga harakat qilgan. Yozuvchi 1982-yil adabiyotga qo‘shgan ulkan hissasi uchun Nobel mukofoti bilan taqdirlanadi .

Yozuvchi 1975-yilda yozgan “Buzrukning kuzi” romani haqida Esquire (Eskvayr) jurnaliga bergan intrvyusida “Buzrukning kuzi”- meni toabad unutilishdan saqlaguvchi asardir” deya ta’rif beradi. Asar grotesk shaklida yozilgan bo‘lib, romanda zolimlarning umumlashtirilgan qiyofasi orqali shakllantirilgan Lotin Amerikasi diktatorining hayoti hikoya qilinadi . Qahramon juda fantastik va bema'ni tasvirlangan bo‘lib, uning protipi Venesuala prizidenti Xuan Visente Gomes, Meksika rahbari Porferio Diaz va uning raqibi Paragvay prizidenti Gaspar Fransiya, Kuba generallari Xurardo Macho va Fulxensio Batistadan olingan. Ba'zi o‘rinlarda Gitler va Stalinga ham ishoralar berilgan. Romanda diktator ruhiyatiga chuqur kirib boriladi, uning yolg‘izligi, paranoyasi va u yashayotgan dunyosi o‘rganiladi. Gabriel Garsie Markes 1 asr davom etgan zolim tuzum va hokimiyatning bema’niligini tasvirlash uchun o‘ziga xos sehrli realizmdan foydalanadi. Asar tili murakkab bo‘lganligi uchun kitobxondan uni o‘qish jarayonida katta sabr va matonat talab qiladi.

Asar bosh qahramoni buzruk– inson tabiatining eng yaxshi va eng yomon jihatlarini o‘ziga mujassamlashtirgan umumlashma obraz. U o‘ta shafqatsiz, qat'iyatli, hiylagar, o‘z o‘rnida qo‘rqmas va mard. Amerikalik dengizchilar yordamida prezident bo‘ladi.

Asar davomida bosh qahramonga general deya murojat qilinadi va faqatgina bir o‘rinda uning ismi tilga olinadi. Sakarias- "xo‘jayin esladi" degan ma'noni anglatadi.

Asar 6 bobdan iborat bo‘lib, 1-bob generalning o‘limi bilan boshlanadi. Bu o‘lim haqiqiy emas va birinchi ham emasdi. Patrissio Aragones- generalning qiyofadoshi, uning qo‘lidagi qo‘g‘irchog‘i bo‘lib, uni prizidentga o‘xshashi uchun tashqi ko‘rinishini o‘zgartirishgan, hatto prizidentga o‘xshab cho‘loqlanib yurishi uchun oyog‘ini kesib, tovoniga chiziq tushirishgan edi. U nafaqat o‘zining prizidentga o‘xshash qiyofasi bilan uni himoya qilar, balki uning o‘rniga davlatni ham boshqarar, siyosiy uchrashuvlar o‘tkazar prizident nomidan qaror qabul qilar edi. U bir umr generalning buyruqlarini bajarib general kabi yashadi, general kabi o‘ldi va general kabi ko‘mildi. Aragonesning jasadi ham generalning maqsadi uchun xizmat qildi.U uchun janoza marosimi uyishtiriladi . Buzruk Aragonesni general deb o‘ylashlari uchun hamma narsani tayyorlaydi. Chunki u o‘lganidan keyin nimalar bo‘lishini , uning o‘limidan so‘ng dunyo qay darajada o‘zgarishini ko‘rmoqchi ed. U shunday qildi ham. Xalq uning haqiqatdan o‘lganligiga ikkilansada buni rost bo‘lib chiqishidan, vanihoyat ozod va hur hayot kechirishdan umid qilardi. Siyosatchilar shuncha yillardan beri hayotini zulmatga aylantirgan buzrukdan qutilganliklarini nishonlab mayitni yer bilan bir qilib sudrashadi. Afsuski, ularning xursandchiligi uzoqqa bormaydi. Bularni ko‘rgan general taziya marosimida u uchun yig‘lagan ayolga uy tuhfa qilib, uning o‘limidan xursand bo‘lganlar va mayitini xorlaganlarni boshiga bitmas tuganmas azob uqubatlar soldi. Taziya marosimidan so‘ng u

hokimiyatni qayta qo‘lga oldi, yangi qonun-qoidalar joriy qildi. Bu o‘rin kuchli kinoya bilan yozilgan bo‘lib, yozuvchi mahorat bilan tarixdagi prizidentlarning hokimiyat va davlat tepasida qilgan o‘yinlarini ko‘rsatib beradi. Lotin Amerikasi tarkibiga kirgan davlatlarda bir marta prezident bo‘lgan insonga prezidentlik vakolati muddati tugagandan keyin ikki marta ketma ket saylovda qatnashishi taqiqlangan. Ular yana prezident bo‘la olishlarri uchun keyingi saylovni kutishga majbur edilar. Bunday holatda prizidentlar davlat boshqaruvi va hokimiyatni qo‘ldan boy bermaslik uchun o‘zlarining o‘rinlariga keyingi saylov vaqtiga qadar boshqa o‘z vakillarini tayinlagan va ma'lum muddat o‘tgandan keyin yana hokimiyat tepasiga kelishgan. Bu usuldan Meksika prizidenti Parferino Diaz foydalangan.

General 1 asrdan ko‘p prizidentlik qildi va davlatning iqtisodiy, ma'naviy ahvolini tanazzulga uchratib, xalqning boshiga bitmas tuganmas azob-uqubatlar soladi. Buzruk oilaviy sharoiti og‘ir bo‘lgani, otasiz o‘sgani uchun tuzuk-quruq tarbiya ko‘rmagan, hech qayerda tahsil olmagan, ilmiy salohiyati past, dunyo qarashi tor obraz. Asarda davlat patriaxati bo‘la turib o‘qish va yozishni bilmasligi, joriy etyotgan qarorlarining oqibati haqida qayg‘urmasligi, faqat o‘z manfaatini ustun qo‘yib, xalqni moddiy va ma'naviy jihatdan inqirozga olib kelishini ko‘ramiz. Romanda generalning onasi soddaligi va bilimsizligi sabab o‘zi bilmay Admiral Xinggins qo‘mondonligida Amerika dengiz harbiy piyodalari kelishi sharafiga o‘tkazilgan katta ziyofatda *"agarda o‘g‘lim respublika prizidenti bo‘lishini bilganimda, uni albatta o‘qitgan bo‘lardim, senorlar"*(G.Markes, "Buzrukning kuzi", 80-bet,"Yangi kitob" nashri),-deya bergan e'tirofi uning respublika prezidenti bo‘lishga mutloq noloyiq ekanligini ko‘rsatib beradi.

Asardagi ona obrazi- Bendiyson Alvarado. Ona bu ilohiy hilqat bo‘lib, sharqda ham g‘arbda ham, dini, millati va irqidan qat'iy nazar, har makon va zamonda onaning yuragi farzandim deya uradi. Onalar farzand ajratmaydilar, bolalari xoh yaxshi bo‘lsin, xoh yomon undan vos kechmaydilar. Buzrukning onasi ham xuddi shunday ayol bo‘lib, u har doim o‘glining yonida turib to o‘limiga qadar uning qilyotgan qilmishlari va gunohlarini boshqalardan yashirib, uni himoya qilib yashadi. Buzruk ham farzand sifatida onasining oldidagi barcha burchlarini ado etadi. Uning yaxshi jihatlarini onasiga qilgan yaxshiliklari va ko‘rsatgan mehr-e'tiborida ko‘ramiz. Lekin bu uni prizident sifatida qilgan gunohlarini oqlamas edi.

Ba’zi amaldorlar o‘z nafsini qondirish maqsadida xalqning haqqi bo‘lgan mol-mulkni undira boshlaydilar. Afsuski bunday amaldorlar hozirgi kunda ham juda ko‘p va ular faqat o‘zlarini o‘ylab davlat va xalqni kambag‘al qilyotganini tushunmaydilar. Romanda amaldorlarning shu jihatlariga ham urg‘u berib, buzrukning latereya o‘ynagan qismi kiritilgan. Buzruk har gal uyushtirilgan latereya o‘yinlarida qatnashar va muqarrar u g‘olib chiqadi, to‘g‘rirog‘i g‘olib chiqitishar edilar. Afsuski, xalq

prizidentning yutuqlari jabrini faqatgina mol-mulki bilan emas, jonlarining bir parchasi bo‘lgan farzandlari bilan ham o‘taydilar. Davlatning kelajagi bo‘lgan bolalar o‘zlarining haqqi bo‘lgan yutuqlarni o‘z qo‘llari bilan prizidentga topshirar va buni hech kimga aytib qo‘ymasliklari uchun qamoqxonada kun kechirardilar. Bu yerda yozuvchi bejizga bolalardan foydalanmagan. Yosh avlod bu vatanning kelajaklaridir va har bir rivojlanmagan davlatning, ajdodlari o‘z vaqtida vatan uchun qilmagan ishlarining badalini kelajak avlodlar o‘taydi.

Xalq qo‘zg‘aldi, undan fazandlarini xunini olmoqchi bo‘ldi, unga qarshi suiqasdlar uyishtirildi. Ammo hech biri g‘alaba qozonolmadilar . Buzruk o‘ziga qarshi uyishtirilgan bosqinlarda hech nimadan qo‘rqmasligi, tinch zamonlardagi kabi pinagini buzmay uxlashi va o‘limga qarshi mardanovor turishi shafqatsiz laqabini olgan Kuba prizidenti Batistani eslatadi.

Xalq buzrukni sevmaydi, undan qo‘rqadi, qo‘rquvlari esa sevganday ko‘rsatadi. Uni sohta hurmat ehtirom ko‘rsatib, dohiy darajasiga ko‘tarishadi. Asarda uni *"Butun mamlakat sizning ixtiyoringizda, xazrat padarim, mana u poyingizda" deya ko‘kka ko‘tarishadi*(G.Markes, "Buzrukning Kuzi", 227-bet, "Yangi kitob" nashri). Aslida mamlakat prezident poyida emas, prezident mamlakat poyida bo‘lmog‘i kerak. Shundagina davlat rivojlanadi, ravnaq topadi, xalq hayoti osonlashadi.

Xulosa qilib aytganda, biror bir davlatning rivojlanishi uchun davlat boshqaruvidagi prezidentdan tortib kichik amaldorlarni ham tez-tez o‘rnini o‘zgartirilib turilishi kerak. Biror amaldor hokimiyat tepasida qancha ko‘p vaqt qolsa, uni qo‘l ostida ishlovchilarga ham xalqqa ham shuncha ko‘p zarar yetqizishni boshlaydi. Menimcha, Lotin Amerikasining prezidentlik muddatini cheklashlari to‘g‘ri bo‘lgan. Prezidentlar qancha tez-tez o‘zgarib tursa davlat shuncha tez rivojlanadi. Ushbu romanda yuqoridagi kabi g‘oyalar yorqin aks etgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Gabriel Garsie Markes (2023) “Buzrukning kuzi”. Yangi kitob.
2. Muhammadjon Xolbekov(2012)“*Lotin Amerikasi romani yoxud gabriel Garsie markes”* .“Sharq yulduzi” jurnali 6-son
3. https://web.archive.org/web/20070624195918/http://hronos.km.ru/sobyt/1930kuba.html#machado

## TARJIMADA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR VA MUAMMOLAR TAHLILI

***Keldiyorova Farangiz Akbar qizi***
*ToshDO‘TAU TNA 2-kurs*
*farangizkeldiyorova911@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola tarjima jarayonidagi lingvomadaniy so‘zlar hamda ularni tarjima qilish usullari, shuningdek, so‘z birikmalar, terminlar va gaplarni asliyat tilidan tarjima tiliga o‘girishda yuzaga keladigan muammolarni tahlil qiladi. Maqoladan ko‘zlangan maqsad shuki, milliy koloritga xos so‘zlar tarjimasida adekvatlikka erishish, undagi qiyinchiliklarga yechim topish hamda lingvomadaniy so‘zlarning tarjima qilish usullari kabi jarayonlardan iborat. Maqola uchun manba sifatida Abdulla Qahhor qalamiga mansub “Anor” asari olingan.*
***Kalit so‘zlar****: madaniyat, lingvomadaniyat tushunchasi, milliy kolorit, epitetlar, badiiy adabiyot tarjimasi, transliteratsiya, transformatsiyalar.*
***Abstract.*** *This article analyzes the linguistic words in the translation process as well as the methods of their translation, as well as the problems that arise when translating word combinations, terms and sentences from the original language into the translation language. The goal of the article is to achieve adequacy in the translation of words specific to national Colorite, as well as to find solutions to the difficulties in it, as well as the methods of translation of linvomadaniyy words are made up of as action . As a source for the article, the work “Pomegranate”, attributed to the pen of Abdullah Qahhor, was taken.*
***Keywords****: culture, the concept of linguistics, national coloritis, epithets, translation of fiction, transliteration, transformations.*

Bugungi kunda tarjima va tarjimashunoslik sohalarining ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Bugungi yoshlar uchun tarjima sohasida keng ko‘lamli imkoniyatlar yaratilmoqda. Bundan tashqari, yurtimizda turizmning rivojlanishi bilan birga tarjima sohasidagi professional kadrlarning ushbu soha bo‘yicha faoliyati ham ortib bormoqda. Tarjima va tarjimonlik uzoq asrlardan buyon dunyo xalqlari tarixi va madaniyatida shakllanib kelayotgan ko‘hna ijodiy faoliyat sohalaridan biridir. Tarjima va tarjimonlar orqali insoniyat qavmlari bir-birlaridan xabardor bo‘ldi, o‘zaro borish-kelish qildi. Shu bilan birga savdo, hunarmandchilik, uy-joy, yo‘l qurilishi, dehqonchilik, aslaha-anjomsozlik kabi sohalarni asrma-asr tadrijiy rivojlantirib, yo‘lga qo‘yib bordi.

Madaniyat va lingvomadaniyat tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Madaniyat bu har bir elatning bor bilim va qadriyatlarining jamlanmasidir. Shu singari go‘zal va takrorlanmas jihatlar esa har bir millatning tilida o‘z aksini topadi. Til ijtimoiy hodisa bo‘lganligi uchun biz tarjima jarayonida shu millatlarning madaniyati bilan uchrashamiz. Tarjimonning vazifasi esa manashunday go‘zal xususiyatlarni mahorat bilan asarda keltirilganidek tasvirlashi lozim. Bu kabi tarjimani amalga oshirish uchun esa, avvalo, o‘sha xalqning madaniyatidan xabardor bo‘lishi juda muhimdir.

Tarjimon tarjima jarayonida lingvomadaniy so‘zlarni tarjima qilishda bir qancha muammolarga duch kelishi mumkin. Lingvomadaniyat tilda va nutqda o‘z aksini topgan va mustahkamlangan xalq madaniyatini o‘rganadi. U birinchi navbatda, muayyan madaniyatning mif, afsona, urf-odat, an’ana, udum, taomil, ramzlarini tadqiq etadi. Hozirgi kunda til va madaniyat tushunchalari birgalikda o‘rganilmoqda. Bu ikki tushunchani birlashtirib yangi tushuncha lingvomadaniyat (lingvokultrologiya) tilshunoslikda paydo bo‘ldi va bu shakllanish jarayoni bir necha davrni o‘z ichiga oladi. Xo‘sh, avvalo, bunday adabiy va xalq og‘zaki ijodiga tegishli matnlarni tarjima qilishda qanday qiyinchiliklarga uchrash mumkin? Qiyinchiliklardan biri bu manbalarning turli madaniyat va tillarga tegishliligidir, ya’ni ularning lingvomadaniy xusuiyatlari turlichadir. Yana bir qiyinchiliklardan biri turli millatlarga tegishli bo‘lgan urf-odatlar tasvirlangan matnlarni tarjima qilishdir. Chunki shu xalqlarga tegishli bo‘lgan atamalar, so‘zlar, idiomalar, realialarning boshqa tildagi ekvivalenti bo‘lmasligi mumkin yoki ular boshqa ma'noni anglatishi mumkin. Bunday holatlarda so'zma-so‘z tarjima qilish xavfli hisoblanadi va tarjimondan tasavvurni talab etadi. Turli tarjima usullarida turlicha metodlardan foydalanish mumkin. Masalan, badiiy tarjima jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish orqali ekvivalenti mavjud bo‘lmagan so‘zlarni tarima qilish osonlashadi:

Epitetlar hodisa yoki obyektning badiiy xususiyatlarini beruvchi obrazli ta’rif. U sifat yoki ot, fe’l yoki ergash gap shaklida berilishi mumkin. Epitetlar adabiyot nazariyasining asosiy atamalaridan biri bo‘lib, so‘zni ta’riflaydi va uning ifodaligiga ta’sir qiladi. Asosan epitetlarni yozishda sifatlardan foydalaniladi.

Metaforalar tarjima qilinayotgan matndagi belgilarning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda semantık jihatdan tarjima qilish uchun foydalaniladi.

Neologizmlar asl ma’no saqlanib qolgan holda yangi zamonaviy so‘zlar yordamida tajima qilishdir.

Ironiya esa so‘z va qarama-qarshilikni solishtirish orqali tarjima qilish.

Topologiya va asosli nomlar joy va odamlar nomlari o‘quvchilarni hayratda qoldirish uchun bir xil ma’noda tarjima qilinadi.

Milliy xos so‘zlar xalqning madaniyatini, turmush-tarzini, urf-odat, an’ana va umumlashtirib aytganda o‘sha xalqning lingvomadaniyatini aks ettiradi. Badiiy asarlarda xos so‘zlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Tarjima jarayonida xos so‘zlarning tarjima qilinayotgan tilda aynan ma’nosi mavjud bo‘lmasligi yoki bu so‘zga yaqin ma’no kasb etuvchi so‘z ham bo‘lmasligi mumkin. Turli tillarning milliy o‘ziga xususiyatlari adabiyotning barcha janrlarida o‘z aksini topadi.

Tarjima qilingan adabiyotni o‘quvchi o‘qiyotgnda u boshqa millatga mansub bo‘lgan hazilni to‘g‘ri tushuna bilishi va ayni qayerda kulishni topa olishi kerak bu

esa tarjimonning mahoratiga va qanchalik darajada o‘sha millatning madaniyatidan xabardorligiga bog‘liq. Asosan, badiiy adabiyotlarni tarjima qilish jarayonida asardagi umumiy ta’sir kuchini o‘quvchi xotirasida muhrlanib qolishi va tarjima qilingan asar asliyat tilidagi asar kabi haqiqiy ma’noni anglata olishi, o‘quvchi o‘qiyotganda u boshqa millatga mansub bo‘lgan hazilni to‘g‘ri tushuna bilishi va ayni qayerda kulishni topa olishi kerak bu esa, albatta, tarjimonning mahoratiga bog‘liq va qanchalik o‘sha millatning madaniyatidan xabardor ekanligiga bog‘liq, shu bilan birga bu kabi muammoli jarayonlarni bartaraf etish uchun quyidagi tarjima usullaridan foydalanish mumkin:

1. Transformatsiyalardan foydalanish - notanish so‘zlarning o‘rniga boshqa hamma tushunadigan so'zlardan foydalanish.

Transformatsiyalar ham 5 turga bo'linadi.

1. Birinchi turi keng ma’noli so‘zlarni tarjima qilishdir. Bu usul ingliz tilidan aksariyat fe'llarni tarjima qilishda foydlaniladi. Bunga misol qilib " to have", "to make", "turn", "to get", "to do" va boshqalar bu fe’llar kontekstda turli fe’llar bilan birga kelib turli ma’nolarni anglatadi va aniq ma’noni tarjimada berishni talab qiladi.
2. Ikkinchi turi umumlashtirish, bu turda esa ayrim keraksiz va ortiqcha so‘zlar qisqartiriladi yoki olib tashlanadi. Masalan, joy nomlari, mahsulot nomlari o‘quvchiga informativ xarakterga ega emas, shuning uchun bu so‘zlarni olib tashlash yoki bosha so‘z bilan almashtirish mumkin.

3. Uchinchi turi bu ikki hodisa o‘rtasidagi mantiqiy aloqa. Bunda, asosan, ikkita yoki uchta gap bitta gap shaklida yoziladi, ular orasidagi ortiqcha so‘zlar olib tashlanadi va bu gapning ma’nosiga putur yetkazmaydi.

4. Oxirgi turi gapning tushurib qolingan qismini to‘dirish. Bu odatda asliyatdagi stilistik usullarni tarjima tilida muqobili yoki ekvivalenti yo'q bo‘lgan holatlarda qo‘llaniladi

Transliteratsiyalardan foydalanish- muqobili mavjud bo‘lmagan so‘zlarni talaffuzini berish. Bu asosan kishi ismlari, joy va geografik nomlar, lavozimlar, atoqli otlarda keng qo‘llaniladi.

Tarjima jarayonida lingvomadaniy so‘zlar tahlilini Abdulla Qahhorning “Anor” (“Pomegranate”)hikoyasi misolida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu asar Abdulla Qahhor ijodiyotining yorqin namunalaridan biri hisoblanib, voqealar hayotiy muammolarga asoslangan va chuqur ma’noga boy asardir. Ushbu asarni tarjimon Shuhrat Sattorov o‘zbek tilidan ingiliz tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Ushbu

asar tarjimasida lingvomadaniy so‘zlarning ko‘plab namunalarni ko‘rishimiz mumkin:

Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, **qalami yaktagining** yengi zulfinga ilinib tirsakkacha yirtildi.

Tarjimasi:

As Turobjon was coming hurriedly through the door, the sleeve of his **kalami robe** caught on safety chain.

Ushbu jumladagi “qalami” va “yaktak” lari o‘zbek milliy xos so‘z hisoblanadi. Tarjimon “qalami” so‘zini tarjimada so‘zning mohiyatini to‘liq aks ettirish maqsadida so‘zning o‘zini qo‘llagan, hamda so‘z yana-da tushunarliroq bo‘lishi uchun izoh sifatida tarjima qilgan . Ushbu jumladagi “yaktak” so‘zi ham o‘zbek xalq milliy kiyimi hisoblanadi va tarjimada “robe” so‘zidan foydalanib tarjima qilingan. Lekin “robe” so‘zi “yaktak” so‘zining ifodalovchi ma’nosini ifoda eta olmaydi. Shuning uchun aynan shu o‘rinda tarjima jarayonida xatolikka yo‘l qo‘yilgan bo‘lishi ham mumkin.

Qozonning zangi chiqib qoraygan **go‘jaga** qatiq ham rang kirgizolmadi.

Tarjimasi:

**The Go‘ja** was dark from the cauldron’s rust

Ushbu jumladan ham ma’lumki, “go‘ja” so`zi tarjimada ham shu so`z bilan tarjima qilingan. Ya’ni bu so‘z ham o‘zbek milliy koloritiga ega so‘zlardan biri hisoblanadi, uning ma’nosi “Qo‘qonjo‘xori (oq jo‘xori) yoki qayroqi bug‘doydan tayyorlanadigan suyuq taom. Go‘ja tayyorlash uchun, avvalo, donga ishlov beriladi”, tarjimada ham bu so‘zga izoh berib o‘tilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz lozimki, tarjima va madaniyat bir-biriga bog‘liq tushunchalarni anglatadi. Tarjimada bir xalqning madaniyatini va unga xos milliy ruhni umumlashtirib tarjima qilish va milliy xos so‘zlar anglatuvchi ma’noni ochib bera olish tarjimondan katta mahorat talab qiladi. Undan tashqari, lingvokultrologik so‘zlar tarjimasida juda ham ziyraklik talab etiladi va jumlalarni

tarjima qilishda muqobili bo‘lmagan holatlarda ularga izoh berish va transliteratsiya usulidan foydalanish tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Nazarmatova Yorqinoy Maxmudaliyevna. Maqola: ”TARJIMADA LINGVOMADANIY MUAMMOLAR TAHLILI “
View of TARJIMADA LINGVOMADANIY MUAMMOLAR TAHLILI | Journal of Universal Science Research (universalpublishings.com)
2. Jo‘raqulova Maftuna Iskandarovna. BADIIY TARJIMADA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR
https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-tarjimada-lingvomadaniy-xususiyatlar/viewer
3. Abdulla Qahhor “Anor”hikoyasi
4. „go'ja“ uchun qidiruv natijalari - Vikipediya (wikipedia.org)

# IV BOB

# FOLKLORSHUNOSLIK VA DIALEKTOLOGIYA, AMALIY FILOLOGIYA VA KOMPYUTER LINGVISTIKASI MASALALARI

# O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA KOMPYUTER LINGVISTIKASINING O‘RNI

*Ergashev Hamid O‘ktam o‘g‘li*

*ToshDO‘TAU 3-kurs*

*khamidergashev555@mail.com*

*+998883771007*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada, kompyuter lingvistikasining kelib chiqishi va uning til bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlari keltirilgan. Milliy tilni rivojlantirishda kompyuter uslubining o‘rni va mezonlari, shuningdek o‘zbek tilshunosligida kompyuter lingvistikasi bilan bog‘liq hal etilishi lozim bo‘lgan vazifalar sanab o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Kompyuter lingvistikasi, matnlar, tarjimalar, tilshunoslik, o‘zbekt tili, tahrirlash, lug‘atlar.*

**Abstract:** *This article presents the origins of computational linguistics and its linguistic aspects. The role and criteria of the computer method in the development of the national language, as well as the tasks to be solved related to computer linguistics in Uzbek linguistics are listed.*

***Key words:*** *Computer linguistics, texts, translations, linguistics, Uzbek language, editing, dictionaries.*

Bugungi kunga kelib, dasturlash ishlari, kompyuter va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda tilshunoslikning ham kompyuter va raqamli texnologiyalar bilan bog‘liqlik tomoni, bugungi zamon talabi ekanligi yaqqol aks etib turibdi. Bugungi davr muammolarini hal qilishga yo‘naltirilgan, yoshlarning ham texnikani, ham xorijiy tillarni mukammal o‘rganishlarini ta’minlaydigan soha, bu - Kompyuter lingvistikasi.

Bu soha fan sifatida 1960 – yilda AQSHda shakllandi. Mazkur fan XX asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan matematik lingvistika fani asoslaridan kelib chiqqan. Turli xorijiy tillarni kompyuterda tarjima qilish, bilimlarni diagnostika qilish, matnlarni tahrir etish kabi amaliy dasturlarni ishlab chiqishda asos bo‘lganligi bois, kompyuter lingvistikasi yo‘nalishiga zamin yaratildi.[27]

[27] Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi.-Toshkent, 2007.-B.37-38.

Kompyuter lingvistikasi – inson va kompyuterning, shuningdek, turli hududlarda yashayotgan kishilarning o‘zaro aloqa munosabatiga kirishuviga imkoniyat yaratadi. XX asr o‘rtalariga kelib O‘zbekiston fan – texniki sohasida ham kompyuterga oid „mashina tarjimasi“, „mashina tilshunosligi“ kabi bir qancha atamalar faollasha boshladi. Ammo bu atamalar matematikaga oid izlanishlarda kuzatildi. Keyinchalik tilshunoslikda ham kompyuter tizimida izlanishlar olib borildi. O‘zbek tili materiallari bo‘yicha kompyuter tilshunosligiga oid tadqiqotlar olib borgan olimlar H.Arziqulov, S.Rizayev va S.Muhamedovalardir. Mazkur olimlar, asosan, kompyuter lingvistikasining statistik tahlil yo‘nalishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan. O‘zbek kompyuter lingvistikasini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Milliy universitetida 2001-yilda kompyuter lingvistikasi laboratoriyasi tashkil etildi. Laboratoriyada o‘zbek tilining matematik va kompyuter modellarini yaratish, o‘zbek tilidagi matnlarni tahrir qilish, inglizcha - o‘zbekcha kompyuter modellarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy va amaliy-tadqiqiy ishlari olib borildi.

Laboratoriyada nafaqat kompyuter tilshunosligi, balki kompyuter adabiyotshunosligiga oid izlanishlar ham olib borildi. Lingvistikaga doir masalalar, ya’ni tillarni o‘qitish, bilimlarni baholash, matnlarni tahrir qilish, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish bilan bir qatorda, adabiyotshunoslikning kompyuter bilan hamkorlikdagi vazifalari: badiiy asarni referatlash, dunyo miqyosidagi kutubxona, adabiyot uchun obyektiv va universal tahlil dasturlarini yaratish, asarlarni tartibga solish, joylashtirish, qidirishga oid tadqiqotlar ham amalga oshirildi.

Mutaxassislar va tilshunoslar o‘zbek tilining matematik va kompyuter modellarini yaratish, o‘zbek tilidagi matnlarni tahrir qilish, inglizcha – o‘zbekcha kompyuter tarjima dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy va amaliy – tadqiqiy ishlar olib borishmoqda. Lingvistikaga doir masalalar, ya’ni tillarni o‘qitish, bilimlarni baholash, matnlarni tahrir qilish, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish kabi masalalar o‘rganilmoqda.

O‘zbek tilining kompyuter uslubini shakllantirish milliy til mavqeyini yuksaltirishga, ma’lumotlarni ona tilida qabul qilish imkoniyatiga zamin hozirlaydi.

O‘zbek tili kompyuter uslubining mezonlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

a) aniqlik, qisqalik, Io‘ndalik; bir qiymatlilik;

b) jahon andozalariga moslik;

d) barcha uchun birdek tushunarli bo‘lish (muayyan bir fikrning umumxalq tomonidan bir xil tarzda qabul qilinishi);

e) turli badiiy tasvir vositalari, modallik, sinonimlikdan xolilik (sinonimlardan dominanta so‘zlar tanlab olinadi);

f) so‘zlar, asosan, bir ma’nolilik kasb etadi, ko‘chma ma’nolar e’tiborga olinmaydi (ya’ni bu usiubda so‘zlarning faqat denonativ semalari qamrab olinadi);

g) kompyuter talablari qat’iy hisobga olinadi, simvollar, modellar, kodlardan foydalaniladi.

O‘zbek tilining kompyuter uslubini yaratish ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Bu quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

– o‘zbek tili axborot uslubining yuzaga kelishi shu tilda ma’lumotlar bazasini shakllantirishga xizmat qiladi;

– kompyuter tizimining o‘zbek tili asosida ishlashini ta’minlaydi; kompyuter tizimidagi buyruqlarning shu tilda amalga oshirilishiga zamin yaratadi;

– o‘zbek tilidan rus tiliga (rus tilidan o‘zbek tiliga), o‘zbek tilidan ingliz tiliga (ingliz tilidan o‘zbek tiliga) tarjima dasturlari takomillashadi;

– o‘zbek tilidagi matnlarni tahrir qilish imkoniyati yaratiladi; ijtimoiy sohalarga doir matnlarda yo‘l qo‘yilayotgan imloviy nuqsonlar bartaraf etiladi;

– barcha soha mutaxassislarining savodxonligi ortadi.[28]

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida kompyuter Iingvistikasi bilan bog‘liq hal etilishi lozim bo‘lgan quyidagi vazifalarni ta’kidlash mumkin:

– o‘zbek tilining kompyuter uslubini yaratish;

– axborot matnlaridagi qoliplilik, qisqalik mezonlarini belgilash;

– kompyuter izohli va tarjima lug‘atlarini yaratish;

– o‘zbek tili va adabiyot darsliklarining elektron versiyasini ishlab chiqish;

– kompyuterda inglizcha-o‘zbekcha tarjima dasturlari uchun lingvistik ta’min yaratish;

– kompyuterdagi matnlarni avtomatik tahrirlash dasturlarini yaratish.

Bu vazifalarni amalda bajarish uchun tilshunoslar va kompyuter mutaxassislari birgalikda ish olib borishlari lozim.

O‘zbek kompyuter lingvistikasida ilk marta bajarilgan amaliy ishlar sifatida kirill va lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosining kompyuter dasturlariga ilova qilinishini, o‘zbek tilidagi ba’zi o‘yin dasturlari, ba’zi darslik va qo‘llanmalar, “orfoslovar”lar, kirill yozuvidan lotin yozuviga, lotin yozuvidan kirill yozuviga tabdil qiluvchi “TransEdit” tizimi hamda antivirus dasturlarini keltirish mumkin.

O‘zbekistonda kompyuter Iingvistikasi sohasini rivojlantirish maqsadida Xalqaro konferensiyalar o‘tkaziImoqda, davlat ahamiyatiga molik hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilmoqda. 2018-yil 18-20 oktyabrda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida kompyuter lingvistikasi masalalariga bag‘ishlangan “Turklang 2018” Xalqaro konferensiyasi o‘tkazildi.

[28] Xolmanova Zulfiya Turdiyevna. Kompyuter lingvistikasi. 160-161-B.

Kompyuter lingvistikasi yirik sohadir. Uni qo‘shimcha fan sifatida chuqur o‘zlashtirib bo‘lmaydi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bu sohada yuzlab olimlar, o‘nlab ilmiy tekshirish institutlari ish olib borayotgan, yo‘nalishlar, fakultetlar, xalqaro miqyosdagi uyushmalar, yig‘inlar tashkil etilayotgan bir paytda o‘zbek kompyuter lingvistikasini rivojlantirish masalalari imkon doirasida hal etilmoqda.

Birinchi vazifa sohaning har tomonlama yetuk mutaxassisini shakllantirishdan iborat. Shu maqsadda universitetlarda alohida kompyuter lingvistikasi yo‘nalishlarini ochish, fakultetlar tashkil etish lozim bo‘ladi. Mazkur yo‘nalishda qiyosiy tilshunoslik, matematika, mantiq, kompyuter dasturlash tili, o‘zbek tili, xorijiy til kabi fanlardan olingan bilimlar kompyuter lingvistikasi bo‘yicha malakali mutaxassis shakllantirishni ta’minlaydi. Kompyuter lingvistikasi rivojlangan xorijdagi yirik ilmiy tadqiqot markazlari bilan muttasil ilmiy aloqalar yo‘lga qo‘yiladi.

Dunyo kompyuter tarmoqlarida o‘zbek tilidagi ma’lumotlar bazasining yaratilishi va o‘zbek tilidagi matnlarni avtomatik tarzda boshqa tillarga (yoki boshqa tildagi matnlarni o‘zbek tiliga) tarjima qiluvchi dasturlarning yaratilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslikning yangi yo‘nalishi bo‘lgan kompyuter lingvistikasi bir qator nazariy va amaliy tilshunoslik yo‘nalishlarining vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. Kompyuter lingvistikasi amaliy xarakterga ega bo‘lib, til bilan bog‘liq muammolarning amaliy jihatlariga e’tibor qaratadi, uni aniq maqsadga yo‘naltirilgan dasturlar, metodlar, tizimlar yordamida hal etish bilan shug‘ullanadi. Kompyuter lingvistikasida ko‘proq sun’iy tillar (programmalashtirish tillari, algoritmik tillar)ga tayaniladi, tabiiy tillarning mavjud imkoniyatlari cheklanadi, bunda tabiiy tilga ishlov berilib, kompyuterga moslashtiriladi.

Kompyuter lingvistikasi fani taraqqiyoti, tilshunoslikning boshqa yo‘nalishlari taraqqiyotini ham ta’minlashga xizmat qiladi. Lingvistik ma’lumotlar statistikasida, turli mazmundagi lug‘atlar yaratishda kompyuter lingvistikasining ahamiyati katta. Bu fan nafaqat tilshunoslik, balki boshqa sohalar taraqqiyotiga ham ljodiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi.-Toshkent, 2007.-B.37-38.
2. Xolmanova Zulfiya Turdiyevna. Kompyuter lingvistikasi. 160-161-B.
3. Keldiboyeva Shaxnoza Sherlar qizi. O‘zbek-Finlandiya pedagogika instituti talabasi. Kompyuter lingvistikasining milliy til taraqqiyotidagi o‘rni.

# RAQAMLI NASHRIYOT FAOLIYATINI ZAMONAVIY USULDAGI CHET EL TAJRIBASINI TATBIQ ETIB TASHKIL ETISH MASALASI

Qurbonova Roza Shamshidinovna
*ToshDO‘TAU Noshirlik ishi yo‘nalishi 3-kurs*
rozashams97@gmail.com

***Annotatsiya.****Maqolada kitob chop etish yoki tayorlash haqida, zamanoviy nashriyot tashkil etish masalasi, elektron kitob tayorlash va uni kitobxonlarga yetkazich, ikkita usulda ya’ni qog‘oz kitob yoki elektron kitob tayorlashda dizaynning ahamiyati, kompyuter grafikasini noshirlik sohasidagi o‘rni, noshir uni yaxshi bilish darajasi, muqova ko‘rinishining ahamiyati, elektoron kitoblarni saytlarga va ijtimoiy tarmoqlarga, bloglarga, platformalarga joylash, qog‘oz kitoblarning ahamiyati, ularni ishlash va tarqatish uchun ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar hamda firk mulohazalar keltirilgan.*

***Abstract.*** *The article is about publishing or preparing a book, the issue of establishing a modern publishing house, preparing an e-book and delivering it to readers, the importance of design in the preparation of a paper book or e-book in two ways, the role of computer graphics in the field of publishing, the publisher's knowledge of it level, the importance of the appearance of the cover, the placement of e-books on sites and social media, blogs, platforms, the importance of paper books, the effective use of social media for their operation and distribution, information and different opinions are given.*

***Kalit so‘zlar:*** *Nashr, nashriyot, noshir, kitob, elektron kitob, muxarrir, musahhih, korrektura, korrektor, muqova, dizayn, kompyuter grafikasi.*

***Key words:*** *Publication, publisher, publisher, book, e-book, editor, proofreader, proofreader, proofreader, cover, design, computer graphics.*

**Noshirlik** yoki nashriyot ishi — nashriyotlar tashkil etish, kitoblar, gazeta, jurnallar, tasviriy san’at asarlari va boshqa bosma mahsulotlarni tayyorlash, nashr qilish va uni tarqatishga oid soha.

Nashriyot—bosma asarlarni chop qilish, nashr qiluvchi korxona yoki muassasa.

Raqamli nashriyotlar – bu bosma nashriyotda sanab o‘tgan nashriyotlarning elektron ko‘rinishi deyishimiz mumkin. [ A.S.Davronov, NOSHIRLIK ASOSLARI, Toshkent «Yosh avlod matbaa» 2021, 4-5-bet.]

Muharrir— arabcha so‘z bo‘lib, ozod etuvchi, tahrir qiluvchi, yozuvchi degan ma’nolarni bildiradi. Muharrir—nashriyot yoki boshqa mas’ul nashrlarda muayyan matnni turli jihatdan tahrir qilib, bosmaga tayyorlovchi xodim.

[ “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent 2006 yil, 663-bet]

Musahhih (arabcha so‘z bo‘lib, to‘g‘irlovchi, tuzatuvchi, imzo qo‘ygan degan ma’nolarni anglatadi[“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent 2006 yil, 648-bet]), korrektor — bosmaxona nusxalarida terishda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatuvchi tahririyat, nashriyot, bosmaxona xodimi. Musahhihning vazifasiga muallif qo‘lyozmasini tekshirish (orfografik, punktuatsion xatolarni tuzatish, abzatslar qo‘yish va h.k.) ham kiradi [ https://uz.wikipedia.org/wiki/Musahhih].

Korrektura (lot. correctura — to‘g‘rilash, yaxshilash) — bosmaxonada yoki boshqa usullar bilan ko‘paytirish uchun tayyorlangan matn va grafik materiallardagi xato va kamchiliklarni tuzatish jarayoni. Korrektura uchun terilgan harflardan yoki bosma qolipdan ottisk (mas, vyorstka, granka) olinadi. Bu ottisk asl nusxa (original) ga solishtirib o‘qiladi va yo‘l qo‘yilgan xatolar standartdagi korrektura belgilardan foydalanib ko‘rsatiladi va shunga ko‘ra operator (harf teruvchi) xatolarni tuzatadi [ https://uz.wikipedia.org/wiki/Korrektura].

Onlayn nashriyot — internet-texnologiyalarni rivojlantirish natijasidir. Bu nisbatan qog‘ozli kitob (p-Book) - rasm, matn yoki bosma mashinadan qog‘ozga bosib chiqarilgan kitobdan mutlaqo boshqa o‘qishdir.

Internet-nashrlarni tarqatish va tushirish tarmoqning ba'zi afzalliklariga bog‘liq. Eng muhimi, onlayn-nashriyot zaif kitoblar bozorini faol ravishda rag‘batlantirdi. Onlayn nashriyotlardan foydalanish hafta ichi kunlarda qattiq mehnat qiladigan kishilarni o‘zlarining uy-joylaridan tashqariga chiqmasdan kitob sotib olishni hojat qoldirmasdan, ularning ta'miga mos keladigan kitoblarni tatib ko‘rishga majbur qilishlari mumkin. Shu nuqtai nazardan, tarmoq an'anaviy kitoblarni olib kelish uchun o‘zining afzalliklaridan foydalanmoqda. Bu burchakdagi potentsial o‘quvchilar nashriyot bozorini qazish va samarali ravishda kengaytirmagan holda topilmadi.

An’anaviy nashriyot bilan taqqoslaganda, onlayn nashriyot ko‘p jihatdan ajoyib afzalliklarga ega:

1. Resurslarni tejash

Qog‘oz nashrlar ko‘plab o‘rmon resurslarini iste’mol qiladi va atrof-muhitning jiddiy ifloslanishiga olib keladi. Onlayn kitob sotish va onlayn nashriyot jarayoni faqatgina modeldir.U an’anaviy jismoniy tashuvchidan hali og‘ishmagan. Ammo, kelajakda onlayn nashriyot, yakuniy mahsulot e-kitob bo‘lib, u an'anaviy modelden mutlaqo voz kechadi va uni amalga oshiradi. Kitob butunlay yuklab olinadi va onlayn tarqatiladi, qog‘ozsiz nashriyotni to‘liq amalga oshiradi va shakldagi, aylanma va manzilli usullarini inqilob qiladi. shu bilan ijtimoiy resurslarni tejash va

atrof-muhitning ifloslanishini kamaytirish (daraxtlarni tejash, qog‘oz ishlab chiqarishni qisqartirish, bosib chiqarish va transport jarayonlarini qisqartirish). Atrof muhitning ifloslanishi va boshqalar.). Shu nuqtai nazardan onlayn nashriyot haqiqiy yashil sanoat bo‘ladi.

2. Bir vaqtning o‘zida nashr qilish va o‘qish

E-kitoblar aslida an'anaviy ma'noda onlayn nashriyot bilan bir vaqtning o‘zida chiqarilgan bo‘lib, haqiqiy nol inventarizatsiyani haqiqatga aylantiradi. Kasb-tahlil natijalariga ko‘ra, elektron kitob hozirda onlayn muomaladagi eng mos mahsulotdir. Bu logistika va inventarizatsiya bo‘lmagan elektron kitoblarning eng issiq savdo nuqtasidir.

3. Chop etishdan qochish

Onlayn nashriyot muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan va madaniy to‘plash qiymati bilan asarlarni nashr etishni osonlashtiradi. Eng tez, erta o‘qishni istasangiz, uni onlayn yuklab olishingiz yoki onlayn buyurtma qilishingiz mumkin. Internet nashriyoti deganda haqiqattan nashr qilinmagan nashrlarni ham aytish mumkin. (Shuningdek, "talab qilinadigan bosim" ning yangi nashriyot modeli nafaqat kitoblarni o‘qitish odatiga mos keladi, balki nashriyot va kitob do‘konlariga yangi marketing usullarini ham qo‘shib beradi.)

4. Past narx

Onlayn nashriyot to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qiydiganlarga qaratilganligi sababli, nashriyotlar va kitob do‘konlari kabi ba'zi oraliq aloqalarning xarajatlarini kamaytiradi, shuning uchun bir xil kontent, onlaynda ko‘rish yoki internet orqali xarid qilish narxi faqatgina 30% dan 70% gacha bir xil bo‘ladi. Arzon narxlari tufayli ham foydalidir.

5. Oson qabul qilish

Kalit so‘z so‘zlarining so‘rovi orqali siz kerakli kontentni tezda topa olasiz va onlayn kitoblarni qog‘ozli kitoblardan eng muhim afzalliklaridan biri bo‘lgan katalogni va to‘liq matnli qidiruvni amalga oshirishga imkon beradi.

6. Batafsil erkinroq o‘qing

O‘quvchilarning vaqt va makon bilan chegaralanishi shart emas, qayerda bo‘lishidan qat'i nazar, elektron kitoblar internet orqali yuklab olinishi mumkin va qo‘lda o‘qiydigan o‘quvchiga elektron kitoblarni, hatto yorug‘lik yoki yorug‘lik bo‘lmagan muhitda ham o‘qishingiz imkoni mavjud va kitobxonlar yuzlab yoki ko‘proq onlayn adabiyotlarni saqlab qolishi mumkin. [https://srcyrl.joyful-printing.net/info/the-impact-of-web-publishing-on-traditional-pu-31423385.html].

Har ikkila nashriyotda ham muxarrir va musahhih faoliyat olib boradi, ularning o‘rni kitob sifatini ta’minlashda beqiyos.

Chet davlatning noshirlari kitobni nashr qilish uni yaratish bu kitob sa'nati degan fikrni ilgari surdi. Yani kitobni yaratishda uning dizayni, muqobasi mazmuni darajasida muhim va dolzarbligi haqida gap ketmoqda. Nashriyotda ishlaydigan kam sonli odamlar kitobni loyihalash, terish va ishlab chiqarish uchun Adobe InDesign yoki Adobe Photoshop-dan qanday foydalanishni bilishlari kutilmoqda [https://thefutureofpublishing.com/2021/10/the-25-the-best-books-about-book-publishing/].

Shunki ana'naviy va zamonaviy elektron nashr mahsulotlarida muqova kitobning eng ko'p o'ziga jalb qiluvchi vosita hisoblanadi. Muqovadagi rasmlar va naqshlarda asar mazmuni va yozuvchining estetik madaniyati ko'rinadi. Bunda biz har bir yozuvchiga dizaynni yaxshi bilishini talab qila olmaymiz, lekin nashiriyotga bu talabni qo'yish joyizdir. Asarni tahrirlash davomida uning mazmunini oshib beradigan rasmni tanlash va uni yaratish noshirning vazifasidir.

Shuning uchun ham "Noshirlik ishi" yo'nalishi ta'limida "Kompyuter grafikasi" fani va "Web dizayn" fanini o'qitilishi qanchalik to'gri? Dizayn sohasini yaxshi bilishi noshirlik ishining samarasini belgilaydimi?

Kompyuter grafikasi — grafik displey (monitor) ekranida tasviriy informatsiyani vizuallash („ko'rinadigan" qilish) [https://prezi.com].

Dizayn (ingliz tilidan design injener-konstruktor, lotinchadan designare o'lchab ko'rmoq, o'lchab bermoq) - bu ijodiy faoliyat bo'lib, uning asosiy maqsadi sanoat buyumlarini formal sifatini belgilaydi.

Web-dizayan (ingliz tilidan olingan bo'lib, web-design - websahifani loyihalash ma'nosini bildiradi) - bu web-sahifani jihozlanishidir. Web dizayn sayt uchun huddi poligrafiya dizaynni va qog'ozli nashrlar dastgohlari singari muhim rol o'ynaydi. Web-dizayn deganda nafaqat web sayt uchun grafikli elementlarni yaratib, balki uning strukturasini loyihalash. Unda harakatlanish vositalari, ya'ni butun saytni yaratish tushuniladi. Web muharrirlarni va grafik muharrirlar ham nashriyot muharrirlari kabi tahrirchi hamda tahlilchi bo'lmog'i lozim. Shunday ekan zamanoviy, texnika rivojlangan, raqamli dunyodagi kitobxonlar uchun uzoq vatq foydalanishi uchun asar yaratmoqchi bo'lgan nashriyot muharrirlari ham web dizaynni bilishi ya'ni sayt muharriri va grafik dizayneri bo'lmog'i shart. Bu zamon talabi, zamonaviy kadr o'z sohasini hamda yondosh sohalarni bilishi bilan birgalikda boshqa yangi sohalarning texnikalarini o'z sohasiga kirita oladigan va undan foydalana oladigan mutahasis bo'lishi mumkin.

Shu sababdan ham noshirlik ishi yo'nalishida web-dizayn, kompyuter grafikasi hamda multimedia va onlayn nashrlar fanlari o'qitilmoqda, har bir fan noshirlikga bog'langan holda o'rgatilmoqda. Lekin bizning fikrimizcha bular bo'linishi kerak ya'ni, grafik dizayn bilan ishlaydigan noshir alohida, elektron nashr

bilan ishlaydigan noshir alohida muqovani yaratuvchi noshir alahida sohaga ajralishi va alohida yo‘nalishlarda o‘qitilishi to‘gri. Shunki bir odam zo‘r tahrirchi adabiyotchi bo‘lishi mumkin lekin dizayn sohasi qiyin, murakkab sohalardan biridir, elektron nashriyot va sayt yaratish alohida bir yo‘nalish asosida o‘rgatilsa natija zo‘r bo‘lardi. Hozirda noshirlik yo‘nalishida bu fanlar mavjud lekin samaradorlik kam, shunki hamma talaba barcha fanni yaxshi o‘zlashtira olmaydi va lekin talaba bu fanlarni o‘zlashtirishga majbur. Shuning uchun noshirlik ishi yo‘nalishini yana yo‘nalishlarga bo‘lish darkor. Masalan grafik dizayner noshir, sayt yaratuvchi noshir, tahrirchi noshir yo‘nalishlariga bo‘lish mumkin va yo‘nalishdan kelib chiqib mutahasis fanlar shuqurrroq o‘rgatilishi mumkin bo‘ladi. Hozirda “Noshirlik ishi” yo‘nalishini tugatgan mutahasis umumiy zo‘r noshir, tahrirchi kompyuter dizayneri hamda sayt yartuvchisi, kitob nashr qilish uni elektron nusxasini yaratishni bilib chiqadi, o‘zi hamma ishni bajaradi yoki hech narsani bilmay, hech birini o‘rgana olmay bitirishi ham mumkin, shunki bir birindan uzoq bu sohalarni qo‘shib, bitta yo‘nalish uchun foydalanish hamda hammasini o‘zlashtirish qiyin. Bir sohani o‘zinigina o‘rganish oasn. Lekin zamonaviy kadr o‘z sohasidan boshqa unga kerakli va yondosh hamda yangi sohalarning ma’lum bir texnikalarini bilishi, keyin uni o‘z tajribasida qo‘llay olishi kerak. Bu raqamli zamon talabidir. Hozirda bir sohani bilish kamlik qiladi.

Kitob tahrirlash

1. Asosiy nusxani ko‘chirish - bunda grammatikani, imlo xatolarini, so‘z o‘zgarishidagi nomuvofiqliklarni va asosiy sintaktik xatolarni uslublar bo‘yicha qo‘llanma standartlariga rioya qilgan holda tuzatish.

2.Oraliq nusxa ko‘chirish - asosiy nusxa ko‘chirishga qo‘shimcha ravishda, muallifning asosiy g‘oyasini, asar mazmunini saqlab qolgan holda til tekshiriladi va tuzatiladi hamda o‘zgartirish kiritish haqida va yaxshilash taklif qilinadi.

Keng qamrovli tahrirlash yoki ishlab chiqish tahriri - asosiy va o‘rta darajadagi tahrirlarga qo‘shimcha ravishda, ishning ravshanligi, tuzilishi va o‘qilishini yaxshilash uchun loyihaning mazmuni va tuzilishi chuqur ko‘rib chiqiladi.

Elektron kitob nashriyoti

Fayllarni konvertatsiya qilish bo‘yicha mutaxassislar raqamli hujjatlarni Amazon Kindle, Apple iPad, Barnes va Noble Nook, smartfonlar, planshetlar va butun dunyo bo‘ylab har bir mashhur elektron kitob o‘quvchida yoqimli bo‘lishi uchun eng yuqori sifatga aylantiradi.

Muqova dizayni

Kitob muqovasi dizayneri kitobning vizual o‘ziga xosligini shakllantirishda va uning muvaffaqiyatiga hissa qo‘shishda muhim rol o‘ynaydi.

Muqovaning nafaqat professional ko‘rinishini, balki bosma va raqamli vositalarning sanoat standartlariga ham mos kelishini va veb-saytingizda elektron kitob, qattiq yoki yumshoq muqovali yoki eskizni to‘g‘ri ko‘rsatishini ta'minlash uchun tartib, tipografiya va rang tamoyillarini tushunish muhim.

Kitobingizni vizual tarzda ko‘rsatadigan va kitobxon undan mamnun bo‘lodigan muqovani loyihalash, muqova kitobni uzoq vaqt zararsiz saqlanishini ta’minlashiga etibor berish, yosh to‘yifasini hisobga olish(ya’ni bolalar kitobini qalin va og‘ir muqovada qilinsa yaxshi natija bermaydi) kerak.

Interer dizayni va formatlash

Bu erda kitobning ichki dizaynining 3 ta muhim elementi mavjud:

1.Tipografiya: Matn uchun to‘g‘ri shrift, o‘lcham va intervalni tanlash kitobning o‘qilishi va umumiy hissiyotiga katta ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

2.Tartib: ko‘zga ko‘rinadigan va o‘qish uchun qulay dizayn yaratish uchun chetlari, oraliqlari, bo‘limlar ochilishi va sarlavhalari kabi elementlarni ko‘rib chiqish bosqichi.

3.Grafika: Rasmlar, diagrammalar va surat(fotosuratlar ham bo‘lishi mumkin) kabi grafikalardan foydalanish kitobning ichki sahifalarining vizual jozibadorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Platformani yuklash bo‘yicha yordam

1.Platforma tanlanadi (Lulu, Barnes & Noble, Amazon KDP, IngramSpark, Apple Books va boshqalar) va fayllarni chop etish va elektron kitob nashr qilish uchun yuklash.

2. Word yoki PDF faylni istalgan platforma uchun ma'lum bir trim hajmiga mos ravishda qayta formatlash mumkin.

Marketing va veb-dizayn

Ajoyib veb-saytlardan varaqlarni sotish, ARC sharhlari, ijtimoiy media profilini sozlash, reklama materiallari, kitob treylerlari va boshqalar uchun Technica marketing jamoasi sizni qamrab oldi.

Biz jozibador vizual nashrlar orqali mashaqqatli mehnatingizni namoyish qilib, ishingizni alohida ko‘rsatishga yordam beramiz, deb mana shu ko‘rinishda reklama va kitobni chop etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan technicaeditorial.com sayt bor.

Bu saytda zamonaviy nashriyot ish faoliyati va noshir qanday ishni tashkil etishini o‘rganish mumkin. Mana shu tartibni bilgan noshir o‘z tajribasi bilan birga amalda tatbiq etsa samarali natijaga erishadi [https://technicaeditorial.com/author-services].

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.A.S.Davronov, NOSHIRLIK ASOSLARI, Toshkent «Yosh avlod matbaa» 2021, 4-5-bet.
2. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent 2006 yil, 663-bet.
3.https://uz.wikipedia.org
4. https://srcyrl.joyful-printing.net/info/the-impact-of-web-publishing-on-traditional-pu-31423385.html
5.https://thefutureofpublishing.com/2021/10/the-25-the-best-books-about-book-publishing/
6.https://prezi.com/p/dgxvtinyyyzj
7.https://technicaeditorial.com/author-services

## SAID AHMAD MUALLIFLIK KORPUSINING BIBLIOGRAFIK BAZASINI YARATISH TEXNOLOGIYASI

***Turdibekova Nigora O‘rol qizi***
*O‘zbek filologiya fakulteti 4-kurs*

***Annotatsiya.*** *Mualliflik korpusi muayyan bir muallif qalamiga mansub matnlar majmuasidan iborat tizim bo‘lib, asosan, yozuvchining yozish uslubi, asarlaridagi til, matn xususiyatlarini axborot texnologiyalari yordamida semantik tasniflab, tadqiq etishga asoslangan elektron shakdagi ma’lumotlar bazasi sanaladi. Maqolada Said Ahmad mualliflik korpusining ta’lim jarayonidagi ahamiyati, korpusni yaratish zarurati, korpusning semantik bazasida mavjud ma’lumotlar, Adib qalamiga mansub hikoya, qissa, intermediya va ronamalarini semantik teglash xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan.*

***Kalit so‘zkar:*** *Said Ahmad, mualliflik korpusi, interfeys, metama’lumot.*

***Abstract:*** *The corpus of authorship is a system consisting of a set of texts belonging to a certain author's pen, the basis, the writer's style, the language of his works, the tools of text software technologies are semantically classified, and the research is considered a reliable electronic database. The article provides information on the importance of Said Ahmed's author corpus in the educational process, the need for the corpus, the information available in the semantic base of the corpus, and the semantic tagging of stories, short stories, interludes and novellas written by Adib.*

***Keywords:*** *Said Ahmad, author corpus, interface, metadata.*

Korpus (lotincha “tana” demakdir) elektron holda saqlanadigan til birliklari majmuasi bo‘lib, tilshunoslar uchun turli muammolarni hal etish manbasi, foydalanuvchilar uchun esa lingvodidaktik va ta’limiy ahamiyatga ega tizimdir. Korpus tilshunosligi kompyuter lingvistikasi zamirida shakllangan soha bo‘lib, uning obyekti tabiiy tildagi matnlar, predmeti esa til korpuslari hisoblanadi. Muayyan tilning deyarli barcha tipdagi matnlari bazasidan iborat, turli maqsadlar doirasida lingvistik izohlari bilan qayta ishlangan korpus turi Milliy til korpusi, muayyan maqsadga mo‘ljallangan maxsus korpuslar esa uning xususiy / tarkibiy turi hisoblanadi[29]. Jumladan, aksentologik korpus, parallel korpus, mualliflik korpusi, gazetalar korpusi, ta’limiy korpus, badiiy matnlar korpusi va h.k[30].

Mualliflik korpusi muayyan bir muallif qalamiga mansub matnlar majmuasidan iborat tizim bo‘lib, asosan, yozuvchining yozish uslubi, asarlaridagi til, matn xususiyatlarini axborot texnologiyalari yordamida semantik tasniflab, tadqiq etishga asoslangan elektron shakdagi ma’lumotlar bazasi sanaladi. Mualliflik korpusining boshqa korpuslardan farqi uning bazasida muayyan bir muallif asarlari jamlanadi, matnlar qayta ishlanadi, grammatik va semantik teglanadi, qidiruv tizimi orqali muallifga tegishli materiallardan zaruriy ma’lumotlar, lingvistik ifodalar aniqlanadi, matnlar asosida statistik ma’lumotlar taqdim etiladi, metama’lumotlar aniq beriladi. Shunday qilib mualliflik korpusi keng imkoniyatli qidiruv tizimiga ega bo‘lib, muallif ijod qilgan barcha tur va janrdagi asarlar qamrab olinadigan, maxsus parametrlar asosida ham qidiruv imkoniyatiga ega, hajmi chegaralanmagan, muallif va uning ijodi bilan bog‘liq manbalarni qulay va tezkor olish mumkin bo‘lgan elektron ma’lumotlar bazasi hisoblanadi.

Said Ahmad mualliflik korpusining dolzarbligi. Bugungi kunda mualliflik korpuslarini yaratish, rivojlantirish zamonaviy korpus lingvistikasining eng ilg‘or yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mualliflik korpuslari yordamida hatto anonim ijod mahsullari mualliflarini aniqlash mumkin.

Maqolada korpus uchun Said Ahmad bibliografiyasini shakllantirishga asos manbalar tahlilga olingan. Avvalo, bibliografiya nimaligini bilib olsak. Bibliografiya (yunon tilidan: bibitsiofa, bibliografiya, so‘zma -so‘z kitob yozish), amaliyot sifatida, kitoblarni jismoniy, madaniy ob’ektlar sifatida akademik o‘rganish; shu ma’noda, u ham ma’lum bibliologiya. Umuman olganda, bibliografiya kitoblarning adabiy mazmuni bilan emas, balki uning tavsifi, uning nashrlari va nashrlari tarixi bilan bog‘liq.

---

[29] Raupova L., Elov B., Abjalova M., Alayev R. O‘zbek tilining ta’limiy korpusi va uning imkoniyatlari. // O‘zbekistonda til va madaniyat, – Toshkent: ToshDo‘TAU, 4/2021. – B. 60-75.

[30] Захаров В., Богданова С. Корпусная лингвистика. – СПб. Санк-Петербургский ГУ, 2020. – С. 23.

Bibliografiya, bibliografiya amaliyotining mahsuli, kitoblar va jurnaldagi maqolalar kabi boshqa asarlarning tizimli ro‘yxati. Bibliografiyalar kitoblar va maqolalar oxiridagi “keltirilgan asarlar” ro‘yxatidan to to‘liq mustaqil nashrlargacha. Alohida asarlar sifatida ular o‘ngda ko‘rsatilganlar yoki kompyuterlashtirilgan bibliografik ma’lumotlar bazalari kabi majburiy hajmlarda bo‘lishi mumkin. Kutubxona katalogi, deb nomlanmagan bibliografiya, bibliografik xususiyatga ega.

Bibliografik asarlar maqsadiga qarab tafsilotlar hajmida farq qiladi va ularni odatda ikkita toifaga bo‘lish mumkin: Hisoblangan bibliografiya (shuningdek, kompilyativ, ma’lumotnoma yoki tizimli deb ham ataladi), natijada ma’lum bir toifadagi nashrlar ko‘rib chiqiladi va tahliliy, yoki tanqidiy, bibliografiya, kitob ishlab chiqarishni o‘rganadi. Bibliografik asarlar ikkinchi darajali yoki uchinchi darajali manbalar hisoblanadi.

Bibliografiya bu umumiy omilga ega bo‘lgan yozuvlarning ko‘rsatma yoki keng qamrovli ro‘yxati: Bu mavzu, til, davr yoki boshqa mavzu bo‘lishi mumkin. Bunga alohida misol - asar tayyorlashda ishlatilgan yoki hisobga olingan manbalar ro‘yxati, ba’zan a deb ataladi ma’lumotnoma ro‘yxati.

Iqtibos formatlari turlicha, lekin bibliografiya kitobidagi yozuv odatda quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi:

- Muallif (lar)
- Sarlavha
- Nashriyotchi
- Nashr qilingan sana

Said Ahmad bibliografiyasini yaratishda bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, adib hayoti va ijodi bo‘yicha monografiyalar, dissertatsiyalar, maqola va videofilmlar yaratilgan. Said Ahmad hayoti, ijodi va o‘zbek adabiyoti bo‘yicha 40ta dissertatsiya va maqolalar ishlangan. “Borsa kelmas darvozasi”, “Sarob”, “Oftob oyim”, “Qorako‘z majnun”, “Taqdir, taqdir, muncha shafqatsizsan?”, “Xanka bilan Tanka”, “Bir o‘pichning bahosi”, “Otpuska”, “ Olqindi”, ”Chuchvara”, “Lampa shisha”, “Xotinboz chumchuq”, “Sobiq”, “Azroil o‘tgan yo‘llarda”, “Qoplon” kabi hikoya va hajviyalari bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuningdek, Umarali Normatov Said Ahmadning bir qancha hikoyalari bo‘yicha maqolalar yozgan[31], Ibohim G‘afurov[32], Bahodir Karimov adib hikoyalarida obrazlararo ziddiyatni ochib bergan[33], Dilmurod

[31] Normatov U. Said Ahmad [Adabiy portret], T., 1971.

[32] G‘afurov I. Prozaning shoiri, T.,. 1984.

[33] B.Karim. Said Ahmad hikoyalarida obrazlararo ziddiyat. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 2

Xoldarov adib hikoyalaridagi uslub muammosi bo‘yicha tadqiqot qilgan[34], Olim Usmonov “Qorako‘z majnun” hikoyasida sadoqat, mehr, hiyonat mavzusi haqida maqola yozgan[35], Ruxsora To‘laboyeva “Sarob” hikoyasida qahramon tragizmini yoritib bergan[36], Hamdamova Shamshoda “Oftob oyim” hamda “Qorako‘z Majnun” hikoyalarida onalar obrazi haqida[37], Dilobar Berdiyeva adib hikoyalarining ma’no jilosi haqida[38], Hakimjonova Sadoqat ba’zi hikoyalaridagi ota va farzand obrazi tahlilini yoritib bergan[39], Akram Xamraqulov “Qorako‘z majnun” asarlarida begonalashgan obrazlar haqida[40], Sharopova Abdunazar “Qoplon” satirik hikoyasida ilgari surilgan jamiyatdagi laganbardorlik illatining qoralanishi aks ettirilgani haqida[41]. Roman va komediyalari bo‘yicha bir qator ishlar qilingan. Jumladan, Boltaboyeva Ozodaxon “Kelinlar qo‘zg‘aloni” komediyasida keltirilgan antroponimlar haqida maqola yozgan[42], Alloqov Farrux milliylikni ifodalagan “Ufq” romani haqida[43], Boyqo‘ziyev Murodjon “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasida aks etgan kulgi yaratuvchi vositalar va ularning tasnifi tahlil etilgan[44], Matniyazova Maftuna Said Ahmadning “Jimjitlik” romani va ushbu romanda turg‘unlik yillarining aks etishi, bugungi kunda romanning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni xususida so‘z yuritilgan[45], Mahsuma Dehqonova adibning obraz yaratish mahorati, “Ufq” trilogiyasi haqida umumiy ma’lumotlar, “Qochoq” nomlangan parcha romanning qisqacha mazmuni haqida ma’lumotlar berilgan[46], Shoira Saydullayeva adibning “Ufq” trilogiyasi tarkibidagi “Qirq besh kun” romani hamda “Qorako‘z”

---

[34] D.Xoldarov. Said Ahmad hikoyalarida uslub muammosi. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 39

[35] Usmonov O. Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasida sadoqat va hiyonat mavzusi talqini. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya – T., 2020. – B. 44

[36] To‘laboyeva R. Said Ahmad “Sarob” hikoyasida qahramon tragizmi. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya – T., 2020. – B. 53

[37] Hamdamova Sh. Said Ahmad ijodida onalar obrazi. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya – T., 2020. – B. 86

[38] Berdiyeva D. Hikoya ulkan ma’no jilosi. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya – T., 2020. – B. 90

[39] Hakimjonova S. Ota va farzand obrazi tahlili. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya – T., 2020. – B. 104

[40] Xamraqulov A. Said Ahmad asarlarida begonalashish obrazi. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya – T., 2020. – B. 109

[41] Sharopova A. “Qoplon” hikoyasida laganbardorlikning qoralanishi. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya – T., 2020. – B. 140

[42] Boltaboyeva O. Said Ahmadning antroponimlar vositasida kulgi yaratish mahorati. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 49

[43] Alloqov F. Said Ahmadning “Ufq” romanida milliylik. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 93

[44] Boyqo‘ziyev M. Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘aloni” komediyasida kulgi yaratuvchi vositalar tasnifi Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 113

[45]Matniyazova M. “Jimjitlik” romanining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 135

[46] Dehqonova M. Said Ahmadning obraz yaratish mahorati “Ufq” romani asosida. International scientific journal of Biruni. – T., 2022

majnun hikoyalarini tanqidiy fikrlash orqali o‘rganish bo‘yicha ba’zi xulosalar o‘rtaga tashlangan[47], 7ta monografiyalar, to‘plamlar va o‘quv qo‘llanmalari bo‘lib. Ulardan, Turkiy adabiyot durdonalari to‘plamida adib haqida ma’lumotlar va ba’zi hikoyalari keltirilgan[48]. Adib asarlari bo‘yicha tilshunoslikda qilingan ishlar 13ta: Adburahmonov Shavkatjon badiiy nutqda oksyumoron birikmalardan foydalanish S.Ahmad hajviyalari mikromatni misolida tahlil qilingan[49], Oydin Mo‘minova adib asarlardagi frazeologik birliklarning lingvopoetik tahili haqida[50], Orzibonu Yusupova sintaktik birliklardan biri – ajratilgan bo‘laklarning ayrim lingvopoetik xususiyatlari zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri, so‘z ustasi Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi misolida o‘rgangan[51], Nargizaxon Umarova badiiy matnda so‘zdagi konnotativ ma’noning muhimligi, bu konnotativ ma’noni harakatga keltirish, unga asoslangan holda yaxlit badiiy mazmunga xizmat qiladigan original badiiy ma’nolarni yuzaga keltirish yozuvchining mahoratiga bog‘liqligi xususida fiklar berilgan[52], Mahmudova Sadoqat Said Ahmad asarlari misolida “Ostona” konsteptining lingvomadaniy xususiyatlarini ochib bergan[53], Abdurahmonova Sayyora S.Ahmadning hajviy asarlarida kinoyaviy tag ma’no hosil bo‘lishining lisoniy asoslari tadqiq qilingani haqida[54], Isabayeva Gulhayo o‘zbek tilimizning naqadar go‘zalligi va jozibadorligi haqida fikrlar bildirilgan. Tilimizning boyishiga va go‘zalligini dunyoga ko‘rsatishga ulkan hissa qo‘shgan mohir yozuvchi Said Ahmad haqida so‘z yuritilgan[55], Hasanov Abdumannon Said Ahmadning “Tanlagan asarlar”idagi dialektizmlarning til leksikasini boyitishdagi imkoniyatlari haqida mulohazalar bildirilgan[56], Mahmudova Farangiz Said Ahmadning hajviyalarida lisoniy imkoniyatlarning voqealanishi haqida[57], Mahmud

[47] Saydullayeva Sh. Said Ahmad asarlarini tanqidiy fikrlash orqali o‘rganish haqida mulohazalar – T., 2022

[48] Turkiy adabiyot durdonalari. Mirkarim Osim Abdulla Qahhor Said Ahmad. “O‘zbekiston”. – T., 2022. – B. 310

[49] Abdurahmov Sh. Said Ahmad hajviyalarida oksyumoron birikmalardan foydalanish. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 143

[50] Mo‘minova O. Said Ahmad asarlardagi frazeologik birliklarning lingvopoetik tahili. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 148

[51] Yusupova O. Said Ahmad “Ufq” asarida ajratilgan bo‘lakalarning uslubiy xususiyatlari. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 153

[52] Umarova N. Said Ahmad asarlarida adresant va adresat kognitsiyasi. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 158.

[53] Mahmudova S. O‘zbek tilida “Ostona” konsteptining lingvomadaniy xususiyatlari. Qarshi davlat universiteti ilmiy kengashi. – T., 2022.

[54] Abdurahmonova S. Said Ahmad hajviyalarida kinoyaning lisoniy asoslari” Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 172.

[55] Isabayeva G. Said Ahmad xarakter yaratishda o‘zbek tili imkoniyatlarida foydalanish mahorati. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 168.

[56] Hasanov A. Said Ahmad asarlari leksikasida dialektizmlarning qo‘llanishiga doir mulohazalar. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 163.

[57] Mahmudova F. Said Ahmad hajviy asarlarida lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqealanishi. Qarshi davlat universiteti ilmiy kengashi. – T., 2022.

Rajabov Said Ahmad ijodi lingvistika, xususan, sintaksis nuqtayi nazaridan o‘rganilib, adib asarlaridagi sintaktik figuralar tadqiq qilangani haqida[58], ta’lim muassasalarida Said Ahmad hayoti va ijodining o‘qitilishi bo‘yicha qilingan ishlar 14ta bo‘lib ular quyidagilar: Quvvatova Dilrabo o‘z maqolasida Said Ahmadning “Sarob” hikoyasida o‘zligimizni, milliy-axloqiy qadriyatlarimizni toptashga qaratilgan mudhish siyosatning ayanchli qurbonlari ota va o‘g‘il munosabatlari orqali xalqimizning mash’um qora kunlari aks etgan[59], N.M.Rahmatova Said Ahmad ijodini o‘rganishda zamonaviy metodlardan foydalanish haqida[60], Hayitbek Bilolov Said Ahmadning urush mavzusidagi hikoyalarida inson taqdiri masalasi tahlilga tortiladi. Umumbashariy qadriyatlar takomillashuvida urush illatlarining inson taqdiriga bo‘lgan salbiy ta’siri va uning oqibatlari xususida fikr yuritilgan[61], Rahmonova Matluba “Qorako‘z majnun” hikoyasini tahlil qilishda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish usullaridan bo‘lgan FSMU ta’lim texnologiyasidan foydalanishning samarasi haqida fikr yuritilgan[62], internet ma’lumolari 7ta, adib hayoti bo‘yicha tayyorlangan videolavhalar 12ta.

Said Ahmad asarlarining korpus uchun janrlar bo‘yicha tasniflaydigan bo‘lsak uning 6ta hikoyalari to‘plami, 70 ta hikoyalari, 81 ta, 10 ta hajviyalari, intermediyalari, 2 ta qissa, 2 ta romanlari, “Yo‘qotganlarim va topganlarim”, “Qorako‘z majnun”, “Kiprikda qolgan tong”, “Zilzila” kitoblari, 3 jildli “Tanlangan asarlari” korpus uchun yig‘ib olinadi. Mazkur korpus ta’lim jarayonida o‘quv materialini tayyorlashda qulay axborot manbayi vazifasini bajaradi, o‘qituvchi o‘quv mashg‘uloti uchun tez fursatda serqirra, mazmunli, ishonchli, o‘quv materialini tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Korpus tarkibi. Korpus 9 rukndan iborat:

1-rukn: “Said Ahmad tarjimayi holi” bo‘limi adibning hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma’lumotlar bazasi hisoblanadi.

2-rukn: Korpus bo‘yicha oddiy va maxsus qidiruv. Ushbu ruknda hikoyalari bo‘lib, adibga tegishli barcha hikoyalari ro‘yhat qilingan va undan mutolaa sifatida foydalanish mumkin.

---

[58] Rajabov M. Said Ahmad asarlarida sintaktik figuralarning qo‘llanishi. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 189.

[59] Quvvatova D. Said Ahmadning “Sarob” hikoyasida ota-o‘g‘il munosabati. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 200.

[60] Rahmatova N.M. Said Ahmad ijodini o‘rganishda o‘qitishning zamonaviy metodlari va “Aqliy hujum” dan foydalanish. Вестник магистратур. – T., 2020.

[61] Bilolov H. Said Ahmadning urush mavzusidagi hikoyalarida inson taqidir masalasi. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 245

[62] Rahmonova M. Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasini o‘rganishda FSMU texnologiyasidan foydalanish. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. – T., 2020. – B. 222

3-rukn: Ushbu ruknda 80 ta hikoyalari bo‘lib, adibga tegishli barcha hajviyalari ro‘yhat qilingan va undan mutolaa sifatida foydalanish mumkin.

4-rukn: Said Ahmadning intermediyalari jamlangan bo‘lib, bundan ma’lumotlar bazasi sifatida foydalanish mumkin.

5-rukn: “Qadrdon dalalar”, “Hukm” qisslari semantik teglangan holda foydalanuvchiga taqdim etiladi.

6-rukn: “Kelinlar qo‘zg‘aloni”, “Kuyov” komediyalari keltiriladi.

7-rukn: “Ufq”, “Jimjitlik” romanlari keltiriladi.

8-rukn: “Yo‘qotganlarim va topganlarim” asari alohida ruknda bo‘lib, unda asarda keltirilgan barcha adiblarning (tarjimayi holi, asarlari, Said Ahmad bilan suhbatlar) keltiriladi.

9-rukn: Said Ahmad hayoti va ijodiga oid tadqiqotlar.

Yaratilgan korpus mutaxassislar uchun ma’naviy ehtiyojni qondirish manbasi, ta’lim bosqichlarida o‘quv materiali, sohalarga oid ma’lumotlar manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Said Ahmad mualliflik korpusi ta’limiy, lingvistik, ijtimoiy, tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu korpusni yaratish natijasida quyidagi imkoniyatlar yuzaga keladi:

–Said Ahmad shaxsini o‘rganish;

–adib uslubini tadqiq etish;

–adib ijodini lingvistik tahlil qilish;

–ijodkorning so‘z qo‘llash imkoniyati va mahoratini tadqiq etish;

–mualliflik iboralarini jamlash;

–mualliflik parafraza, parema, hikmatlarini jamlash; tasviriy ifodalarning qo‘llanilish ko‘lamini ijodkor kontekstidan aniqlash mumkin bo‘ladi.

Korpusdan nafaqat adabiyotshunoslar va tilshunoslar, balki barcha soha vakillari, shuningdek, abituriyent va tadqiqotchilar, Said Ahmad shaxsi va ijodiga qiziquvchi xorijliklar ham foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘zbek kompyuter va korpus lingvistikasini targ‘ib etish hamda rivojlantirishga, ta’lim jarayoni va tadqiqot ishlarini yuksaltirishga, barcha yoshdagi mutaxassislarning ta’limiy ehtiyojini qondirishga, so‘z boyligi hamda savodxonlikni oshirishga qaratilgan zamonaviy mualliflik korpusi yaratilib, amaliyotga tatbiq etildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Adabiyot” umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Toshkent., G‘.G‘ulom nashriyoti, 2019. 185-bet.

2. Dolimov S., Ubaydullaev X., Ahmedov Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T., O‘qituvchi, 1967. 292-bet

3. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. –Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.
4. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. T., Yangi asr avlodi. 2005. 310-bet
5. Normatov U. Ufqlarning chin oshig‘i. T., Yurist-media markazi, 2008. – B. 96.
6. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr. 2011. – 160 b.
7. Raupova L., Elov B., Abjalova M., Alayev R. O‘zbek tilining ta’limiy korpusi va uning imkoniyatlari. // O‘zbekistonda til va madaniyat, – Toshkent: ToshDo‘TAU, 4/2021. – B. 60-75.
8. Захаров В., Богданова С. Корпусная лингвистика. – СПб. Санк-Петербургский ГУ, 2020. – С. 23.
9. Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика. − (Электрон ресурс): Лицензия Creative commons Attribution Share Alike 3.0 Unported (Электрон ресурс)
10. Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546

## NUMPY KUTUBXONASI IMKONIYATLARI VA TILSHUNOSLIKDA QO‘LLANILISHI

*Qodirov Kamoliddin Qodirjon o‘g‘li*
*ToshDO‘TAU talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Data Science va sun’iy intellekt sohalarida kerak bo‘ladigan Python dasturlash tilining Numpy kutubxonasi imkoniyatlari va tilshunoslikdagi muhimliligi keltirilgan.*

***Abstract:*** *This article presents the capabilities of the Numpy library of the Python programming language, which is needed in the fields of Data Science and Artificial Intelligence, and its importance in linguistics.*

***Kalit so‘zlar.*** *Numpy, python, sun’iy intellekt, neyron tarmoqlar, nlp, data science, ma’lumotlar tahlili*

***Keywords.*** *Numpy, python, artificial intelligence, neural networks, nlp, data science, data analysis*

NumPy (Numerical Python) kutubxonasi massivlar va matritsalar yordamida hisob-kitoblarga kelganda Python dasturlash tili uchun eng muhim va tegishli

kutubxonalardan biridir. NumPy massivlar, chiziqli algebra, statistika va boshqa matematik operatsiyalar bilan ishlash uchun ko‘plab funktsiyalar va vositalarni taqdim etadi. Quyida NumPy kutubxonasining dolzarbligining ba’zi asosiy jihatlari keltirilgan:

1. Ishlash: NumPy C tilida amalga oshiriladi, bu massiv operatsiyalari uchun yuqori unumdorlikni ta’minlaydi. Bu kutubxonani ma’lumotlarni ko‘p talab qiladigan hisob-kitoblar uchun mos qiladi.

2. Ko‘p o‘lchovli massivlar: NumPy har xil turdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladigan va bir nechta o‘lchamlarga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan massivlarni (ndarraylar) taqdim etadi. Bu NumPydagi asosiy saqlash ob’ekti bo‘lib, uni ilmiy va muhandislik hisoblash uchun ajoyib vositaga aylantiradi.

3. Matematik funktsiyalarning boy to‘plami: NumPy matematik operatsiyalarni bajarish uchun boy funktsiyalar to‘plamini o‘z ichiga oladi, jumladan arifmetika, trigonometriya, statistika, chiziqli algebra va boshqalar.

4. Boshqa kutubxonalar bilan integratsiya: NumPy boshqa mashhur ma’lumotlar tahlili, vizualizatsiya va mashina o‘rganish kutubxonalari, masalan, pandas, Matplotlib, SciPy va scikit-learn bilan yaxshi integratsiyalashgan. Bu Python yordamida murakkab tahliliy ilovalar yaratish imkonini beradi.

5. Hamjamiyatni qo‘llab-quvvatlash: NumPy ishlab chiquvchilar va tadqiqotchilarning faol hamjamiyatining bir qismi bo‘lib, uning yangilanishi va doimo rivojlanib borishini ta’minlaydi. Kutubxonaning yaxshilanishlar va tuzatishlar bilan yangi versiyalari muntazam ravishda chiqariladi.

6. Ta’lim manbalari: NumPyga bag‘ishlangan ko‘plab o‘quv qo‘llanmalar, qo‘llanmalar va onlayn kurslar mavjud bo‘lib, u yangi va tajribali dasturchilar uchun ochiq bo‘ladi.

Umuman olganda, NumPy ilmiy va muhandislik hisoblash uchun Python ekotizimining tegishli va ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda. U samarali, yuqori samarali raqamli operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi va boshqa ko‘plab ma’lumotlar fanlari va mashina o‘rganish kutubxonalari va ilovalarining asosi hisoblanadi.

Sun’iy intellekt (AI) - kompyuter fanining sohasi bo‘lib, u odatda inson aqlini talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir tizimlar va dasturlarni yaratishga intiladi. Sun’iy intellekt bilan bog‘liq ba’zi asosiy tushunchalar va operatsiyalar misollar bilan izohlanadi:




1-rasm. Neyron tarmoqlari qo‘llanilishi

Mashina o‘rganishga misol: elektron pochta xabarlarini spam yoki spam emas deb tasniflash. Izoh sifatida Mashinani o‘rganish - bu kompyuterga aniq dasturlashtirilmagan holda ma’lumotlardan o‘rganish imkonini beruvchi texnikadir. Elektron pochtani tasniflashda model qaysi elektron pochta spam deb hisoblanishini aniqlash uchun tarixiy ma’lumotlardan "o‘rganishi" mumkin.1-rasm

Neyron tarmoqlariga misol: konvolyutsion neyron tarmog‘i yordamida tasvirni aniqlash. Izoh sifatida Neyron tarmoqlar inson miyasining ishlashidan ilhomlangan matematik modeldir. Ular tasvir, matn va tovush kabi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun ishlatiladi. Tasvirni aniqlashda konvolyutsion neyron tarmog‘i fotosuratlardagi ob’ektlarni avtomatik ravishda aniqlay oladi.

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)ga misol: Matnni bir tildan ikkinchi tilga avtomatik tarjima qilish. Izoh sifatida NLP - bu insonning tabiiy tilini qayta ishlash va tushunish bilan shug‘ullanadigan AI sohasi. Masalan, matnni bir tildan boshqa tilga tahlil qiluvchi va tarjima qiluvchi avtomatik tarjima tizimi.




2-rasm. Massivlar ustida amallar

Tavsiya tizimlarga Misol: Onlayn do‘konda mahsulot tavsiyalari. Izoh sifatida Tavsiya qiluvchi tizimlar moslashtirilgan tavsiyalar berish uchun foydalanuvchi ma’lumotlaridan foydalanadi. Misol uchun, onlayn-do‘konga tashrif buyurganingizda, tizim xaridorga uning xarid qilish tarixi va afzalliklaridan kelib chiqib, uni qiziqtirishi mumkin bo‘lgan mahsulotlarni taklif qilishi mumkin.1-rasm

Avtonom tizimlarga misol: O‘z-o‘zini boshqarishga qodir avtomashinalar. Izoh sifatida avtonom tizimlar odamlardan mustaqil ravishda qaror qabul qilish va

harakat qilish qobiliyatiga ega. Masalan, o‘zi boshqaradigan avtomobillar atrof-muhitni his qilish va haydash qarorlarini qabul qilish uchun sun’iy intellektdan foydalanadi.




3-rasm.Mashina tarjimasi

**Numpy kutubxonasining tilshunoslikda muhimliligi.** NumPy kutubxonasidan tilshunoslikda matn ma’lumotlarini qayta ishlash va tahlil qilish hamda lingvistik ma’lumotlar ustida turli raqamli amallarni bajarish uchun foydalanish mumkin.3-rasm. NumPy tilshunoslikda foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlarga misollar:

**Matnni oldindan qayta ishlash.** NumPy matn ma’lumotlarini qayta ishlash va qayta ishlash uchun ishlatilishi mumkin, masalan, to‘xtash so‘zlarini olib tashlash, lemmatizatsiya, tokenizatsiya va matnni muayyan belgilar yoki formatlardan ajratish.

**Statistik matn tahlili.** NumPy matnning statistik tahlilini amalga oshirish uchun foydali bo‘lishi mumkin, masalan, so‘z chastotalarini hisoblash, so‘z ahamiyatini baholash uchun TF-IDF matritsalarini yaratish, bigram va trigram chastotalarini tahlil qilish va hokazo.

**Matnni qayta ishlashda mashinani o‘rganish.** Tilshunoslik matnni tasniflash, his-tuyg‘ularni tahlil qilish, tilni aniqlash va boshqa ko‘plab vazifalar uchun mashinani o‘rganish algoritmlaridan foydalanadi. NumPy-dan mashinani o‘rganish modellarini o‘rgatish va sinovdan o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etish va manipulyatsiya qilish uchun foydalanish mumkin.

**Mavzuni modellashtirish.** NumPy matn mavzusini modellashtirish bilan bog‘liq operatsiyalarni bajarishda foydali bo‘lishi mumkin, masalan, LDA (Latent Dirichlet Allocation) yoki NMF (Non-salbiy matritsa faktorizatsiyasi). Bu usullar matn to‘plamlaridagi mavzularni aniqlash imkonini beradi.

**Til va semantika tahlili.** Matn tili va semantikasini tahlil qilish uchun turli usullardan foydalanish mumkin, masalan, Word2Vec yoki GloVe yordamida so‘zlarning vektor ko‘rinishi (Word Embeddings). NumPy ushbu usullar bilan bog‘liq vektor va matritsa operatsiyalari uchun ishlatilishi mumkin.

**Tillarni dialekt tahlili va taqqoslash.** Tilshunoslikda dialektlarni tahlil qilish va tillarni taqqoslash muammolari ham paydo bo‘ladi. NumPy lingvistik ma’lumotlarni solishtirish va tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Bu vazifalarning barchasi ko‘pincha katta hajmdagi matn ma’lumotlarini va matritsa operatsiyalari, statistik tahlil va mashinani o‘rganish kabi turli xil matematik operatsiyalarni qayta ishlash va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. NumPy ushbu ma’lumotlar va lingvistik muammolar bilan samarali ishlash uchun kuchli vositalarni taqdim etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Python for Data Analysis – Wes McKinney
2. NumPy 1.5 – Ivan Irdis
3. SciPy and NumPy
4. "Introduction to Machine Learning with Python: A Guide for Data Scientists" by Andreas C. Müller & Sarah Guido
5. "Elegant SciPy: The Art of Scientific Python" by Juan Nunez-Iglesias, Stefan van der Walt, and Harriet Dashnow
6. "Python for Data Analysis" by Wes McKinney
7. "Numerical Python: A Practical Techniques Approach for Industry" by Robert Johansson
8. "Hands-On Machine Learning with Scikit-Learn, Keras, and TensorFlow" by Aurélien Géron
9. "Python Machine Learning" by Sebastian Raschka and Vahid Mirjalili


## “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDA QADIMGI INONCHLAR VA MIFOLOGIK TASAVVURLARGA OID SO‘ZLAR TAHLILI


*Dehqonova Nilufar San’atjon qizi*

*ToshDO‘TAU Folklorshunoslik va*

*dialektologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

*nomonovanilufar95@gmail.com*

*+998990806800*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada “Devonu lug‘otit turk” asaridagi mifologik leksemalar statistikasi hamda ularning bugungi kunda ham qo‘llanilish yoki iste’moldan chiqqanligi shuningdek, “Yada toshi” bilan bog‘liq mifologik tasavvurlar haqida fikr va xulosalar keltirilgan. Bundan tashqari asarda so‘z magiyasi bilan bog‘liq inonchlar, joy nomlari va qabilalar nomlarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq afsona va rivoyatlar, so‘zlar izohi uchun keltirilgan she’riy parchalar va maqollar o‘ziga xos uslubda badiiy ifodalangan.*

**Kalit so‘zlar:** *Mifolegema, “yada toshi”, “yatladi”, ko‘k tubulg‘on, “it qush”, so‘z magiyasi.*

**Abstract.** *This article presents the statistics of mythological lexemes in the work "Devonu lug‘otit turk" and their use or obsolescence today, as well as personal opinions and conclusions about the mythological images related to "Yada Stone". In addition, the work contains beliefs related to word magic, legends and narratives related to the emergence of place names and tribal names, poetic fragments and proverbs cited for the explanation of words in a unique artistic style. expressed.*

**Key words:** *Mythology, "Yada Stone", "yatladi", kok tubulgon (name of the bird), "bird-dog", word magic.*

XI asrning barcha sohalar uchun bebaho manbasi hisoblangan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari mana necha asrlarki o‘z qadr va qimmatini yo‘qotmay kelmoqda. Ushbu asar nafaqat lingvistika, etnografiya, geografiya, tarix fanlari uchun balki, folklorshunoslik fani uchun ham muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarda qadimgi qabilalar turmush tarzi, maishiy-ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq leksemalar izohini yanada ochib berish uchun Mahmud Koshg‘ariy xalq og‘zaki ijodi namunalaridan unumli foydalangan. Har bir so‘zning izohi uchun maqol yoki to‘rtliklardan foydalangan. Bu folklor namunalari o‘z navbatida o‘sha davr insonlarining tasavvuri, tafakkuri, mifologik dunyoqarashini anglashimiz uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, ushbu asarda keltirilgan ayrim so‘zlar bugungi kunda ham iste’molda bo‘lsa, ba’zilari shaklan saqlangan bo‘lsa-da, ma’no to‘liq saqlanib qolmagan. “Devon”dagi qadimiy inonchlar, mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq so‘zlar ko‘pchilik olimlar tomonidan tahlil qilingan, lekin yaxlit bir butunlikda faqat mifologik jihatdan tahlil qilinmagani uchun ushbu ishimizda shu jihatlariga alohida e’tibor qaratdik.

Bizning kuzatishimizcha so‘zlar statistikasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, qadimiy mifologik tasavvurlarga oid 33 ta leksema keltirilgan. Ular izohi uchun 2ta she’riy parcha, 1ta maqol, 6ta afsona keltirilgan. Qadimiy inonchlar bilan bog‘liq

83ta so‘z va so‘z birikmasi keltirilgan bo‘lib, ular izohi uchun 5ta she’riy parcha, 9ta maqol, 12 ta qadimiy mifologik tasavvurlarga asoslangan afsona keltirilgan. Xususan, “Ko‘k tubulg‘on”, “It qush” leksemalari bir qator olimlarimiz tomonidan tahlil qilingan. Koshg‘ariyning o‘zi “Ko‘k tubulg‘on” so‘ziga izoh berib shunday yozadi: “Ko‘k tubulg‘on – bir qushning nomi. Aytishlaricha, bu qushning ikki qanotida po‘lat bo‘ladi va qanoti bilan toqqa urib, bir tomondan boshqa tomonga o‘tadi. Bu so‘zni menga o‘zim foydalanib yurgan bir kishi aytdi”. (“Devon” 1-jild, 474-bet).

Folklorshunos olim Mamatqul Jo‘rayevning fikicha, bu mifologik afsonada qadimgi turkiylar folklorida mavjud bo‘lgan xayoliy qush to‘g‘risidagi xalq qarashlari o‘z ifodasini topgan. O‘zbek tilida qattiq patlari o‘sib chiqqan qush poloponini “temirqanot bo‘libdi” deb ta’riflashda ham shu tasavvurlarning izi saqlanib qolgan. Bundan tashqari lug‘atshunos olim, Koshg‘ariy, “Baroq” so‘ziga izoh berib quyidagilarni yozadi: “Baroq – serjun it. Turkiy xalqlar e’tiqodiga ko‘ra, burgut qariganda ikkita tuxum qo‘yar emish. Tuxumlarning biridan o‘sha baroq otli kuchuk paydo bo‘lar emish. Itlarning eng tez yuguradigani va ovni qattiq saqlaydigani shu baroq itdir. Ikkinchi tuxumdan jo‘jasi chiqar emish. Bu uning jo‘jalarining oxirgisi bo‘lar emish”. Ko‘rinadiki, qadimgi turkiylarning mifologik e’tiqodlariga ko‘ra baroq ajabtovur qush bo‘lib, u burgut tuxumidan g‘ayrioddiy paydo bo‘ladigan afsonaviy it nomi hisoblanadi. Eng ajablanarlisi, ushbu “Baroq – it qush” haqidagi ko‘plab afsonalar turkiylar orasida og‘izdan og‘izga o‘tib bugungacha saqlanib qolgan.

“Devon”da yana mifologik qarashlar bilan bog‘liq “Yada toshi” va u ishtirokidagi marosim keltirib o‘tilgan. Koshg‘ariy “Yada toshi” yordamida yomg‘ir chaqirish marosimiga bevosita o‘zi ham guvoh bo‘lgani haqida shunday deydi: “Yada - yomg‘ir, shamol va boshqalarni talab qilish uchun maxsus toshlar (yada toshi) bilan fol ochish usulidir. Bu odat ular orasida keng tarqalgandir. Men buni yag‘molar shahrida o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. U yerda paydo bo‘lgan bir yong‘inni so‘ndirish uchun shunday fol qilinggan edi, Xudoning amri bilan yozda qor yog‘di. Ko‘z oldimda yong‘inni so‘ndirdi” (Koshg‘ariy, 2017, 324-bet). Turkiy qavmlar diyorini kezib, so‘z va iboralarni yig‘ish bilan bir qatorda xalq og‘zaki ijodi, urf-odat va marosimlarga oid boy materiallarni to‘plagan Mahmud Koshg‘ariy “yada toshi” bilan bog‘liq tasavvurlarni ham jiddiy o‘rganganligi bois “yomg‘ir toshi” vositasida o‘tkazilgan marosimni shunday tasvirlaydi: “bek yadachiga duo o‘qitdi. Shuning uchun shamol esdi. Yomg‘ir yog‘di. Bu hodisa turklar mamalakatida mashhurdir. Tosh orqali shamol, yomg‘ir, sovuq qo‘zg‘otiladi”. (Koshg‘ariy, 2017, 320-bet) Boshqa bir o‘rinda olim “**yatladi**” fe’liga “afsunchi yomg‘ir yog‘dirish uchun yada toshi bilan duo o‘qidi” deb izoh bergan (Koshg‘ariy, 2017, 320-bet).

Yana shuni ta’kidlash lozimki, “Yada toshi” bilan bog‘liq tasavvurlar Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan davr - XV asrgacha yetib kelgan. Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar”ga kiritilgan “Qoshing mehrobini vasl ahli etmish qiblai maqsud” deb boshlanuvchi g‘azalidagi ushbu bayt so‘zimizning yorqin dalilidir:

Yada toshig‘a qon yetgach, yog‘in yog‘qondek ey soqiy,

Yog‘ar yomg‘urdek ashkim chun bo‘lur la’ling sharob olud. (Jo‘raqo‘ziyev, 2016, 43-49-bet).

Zahiriddin Boburning “Boburnoma” asarida esa Xoja Mulla Sadr ta’rifida quyidagilarni o‘qiymiz: “…Tolibi ilmligi bor edi, lug‘atni xili bilur edi, inshosi ham yaxshi edi. Qushchulug‘ni va yadachilikni ham bilur erdi”, - deydi. (Z.M.Bobur, 1969, 98-bet).

“Devon”da mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq ko‘plab obrazlar, timsollarni uchratishimiz mumkin. “Devon”ni mifologik qatlam jihatidan o‘rganish jarayonida kosmogonik va kalendar miflar bilan birga so‘z magiyasi bilan bog‘liq mifolegemalarni aniqladik. Ushbu asarda ajdodlarimizning osmon yoritqichlari bilan bog‘liq mifologik hamda kosmogonik tasavvurlariga oid qiziqarli ma’lumotlar uchraydi. Olim “Devon”ning 1-jildida “**oy**” so‘ziga izoh berar ekan, *“o‘n to‘rt kunlik oyga “tolun aj (to‘lin oy) deyiladi”* deb yozadi va *“a:j tolun bolsa eligin imlamas”*, ya’ni “Oy to‘lin bo‘lsa, qo‘l bilan imlanmas” maqolini keltiradi (“Devon”. 1-tom, 110-11-bet).

To‘lin oy ko‘ringan tarafga qarab qo‘l bilan imlamaslik tabusi XI asrda istiqomat qilgan qavmlar orasida keng yoyilganligi bejiz emas. Chunki, qadim zaminlarda yashagan ajdodlarimiz oy, quyosh va yulduzlarni muqaddaslashtirib, topinganlar. Quyosh va oyning kecha-kunduz o‘rin almashib turishi, osmon to‘la charog‘on yulduzlarning jilolanib ko‘rinishi qadimgi odamning e’tiborini jalb etgan. “Hudud al-olam” nomli asarda yozilishicha, qadimgi turkiy qavmlar, xususan, chigillar quyosh va yulduzlarga sig‘inishsa, tatarlar bu olamda oftobdan muqaddasroq narsa yo‘q deb bilishgan. Bu asarda qirg‘izlarning bobokalonlari Zuhra va Mushtariy yulduzlarini mo‘tabar sanashganligi haqida ham ma’lumotlar bor (Bartold, 1930, 43,170-bet).

Olim N.Ya.Bichurinning ta’kidlashicha, qadimgi turkiylar erta tongdan uyidan chiqqach, avvalo ufqdan bosh ko‘tarayotgan quyoshga, kechqurun esa oyga ta’zim bajo keltirishni farz deb bilishgan. O‘tovlarining eshigini kunchiqarga qaratib qurishga odtalangan uxuanlar esa yer, osmon, quyosh, oy, yulduzlarga, shuningdek,

ota-bobolarining arvohlari haqiga qurbonlik qilganlar (Bichurin ,1957, 50,142-144-bet).

Xulosa qilib aytganda, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq so‘zlar tahlili mifologiya fani uchun yana ko‘plab yangi ma’lumotlar olishimizda, fan rivojida juda muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Koshg‘ariy, M. (2017). *Devonu lug‘otit-turk (Turkiy so‘zlar devoni)*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. Жўракўзиев, Н. (2016, 23-май). *Алишер Навоий ва мифология*. (43-49-бет). Тошкент: “Алишер Навоий ва XXI аср” мавзуидаги Республика биринчи илмий-назарий анжумани материаллари.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. (1969). *Бобурнома.* (98-бет). Тошкент: Фан.
4. Бартольд, В.В. (1930). *“Hudud al-alam”. Рукопись Туманского изд. с введением и указателями,* С.43, 170.
5. Бичурин, И. (1957). *Собрание сведений о народах, обитающих в Средней Азии в древние времена.* С.50,142-144.


## “DAM SHU DAMDIR, O‘ZGA DAMNI DAM DEMA” EPIK QOLIPI TAHLILI


*Hakimjonova Dilrabo Nazirjon qizi*

*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi*

*xakimovadilrabo420@gmail.com*

*+998936723579*



**Annotatsiya.** *Maqolada xalq dostonlarining epik syujeti, motivlar tizimi, voqealar rivojida o‘ziga xos funksiyaga ega “Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema” epik qolipining Naqshbandiya tariqatidagi birinchi dasturga ma’lum ma’noda bog‘liqligi, ideal qarashlarni o‘zida aks ettirgan mazkur qaytariq xalq ma’naviy tafakkuri hosilasi ekanligi to‘g‘risida ayrim mulohazalar berib o‘tilgan.*



**Kalit so‘zlar:** *epik syujet, epik qolip, motiv, qaytariq, epos, doston, tariqat, tahlil, talqin.*

**Abstract.** *In the article, the epic plot of folk epics, the system of motives, and the unique function in the development of events, "the moment is this moment, don't bother another moment" are related to the first program of the Naqshbandi order, and some comments are made about the fact that this return, which reflects ideal views, is a product of the national spiritual thinking.*

**Key words:** *epic plot, epic pattern, motive, return, epic, cult, analysis, interpretation.*

Dostonlarning boshlanish va tugallanish nuqtasi, personajlar xatti-harakati, obrazlar aro munosabatlar, safar, sinov, jang motivlari, voqealar rivojida takrorlanib turadigan ifoda va tasvirlarga nisbatan epik qolip atamasi qo‘llanadi. Xususan, “Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema”, “Oshiqning fahmidir qorong‘u kecha” kabilar.

Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema,

Boshing omon davlatingni kam dema.

Mazkur qolip syujet, motivlar tizimi, voqealar rivojida o‘ziga xos funksiyani amalga oshirishi bilan xarakterlanadi.

Dam so‘zining izohi quyidagicha:

1.Nafas, tin.

2.Bir nafaslik fursat; lahza, vaqt.

3.Temirchilarning qo‘ra yoki o‘choqdagi ko‘mirni yondirish uchun havo yuboradigan, charmdan ishlangan asbob. (Hojiyev, 550-551-552-betlar) Epik qolipdagi dam so‘zini birinchi va ikkinchi izohga tayangan holda tahlil etish maqsadga muvofiqdir: Nafasni olding, ammo qayta chiqara olmasliging, chiqarding-u, qayta ololmasliging mumkin. Ayni fursatda ichingga kirganigina seniki. Har lahzada ogoh bo‘l.

Qolipda takror kelgan “dam” va “damdir” so‘zlari semantikasidagi ma’no nozikligi insonni favqulotda sergaklikka undaydi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari ta’kidlaganidek:‘‘Odam “dam” deganda nafas oladi, “damdir” deganda nafasni chiqaradi. Inson nafas olsa-yu, chiqara olmasa, yoki chiqarsa-yu, qayta nafas ololmasa, demak, u bu olamda yo‘q. Ajali yetgani shu”. (Erkin Malik, 2018, 13-bet)

Naqshbandiya tariqatida o‘n bir asosga ega bo‘lgan muayyan dasturlar mavjud:

1. Hush dar dam.

2. Nazar bar qadam.

3. Safar dar vatan.

4. Xilvat dar anjuman

5. Yod kard.

6. Bozgasht.

7. Nigoh dosht.

8. Yoddosht.

9. Vuqufi zamon.

10. Vuqufi adad.

11. Vuqufi qalb.

Fikrimizcha, “Alpomish” dostonida uchraydigan “Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema” epik qolipining asosi mazkur tariqatda birinchi dastur hisoblangan “Hush dar dam”ga borib taqaladi. “Hush dar dam”, ya’ni “Har nafasda hushing bo‘lsin” shiori har bir olingan va chiqarilgan nafasda hushyor turish, Uning yodidan bir lahza ham bebahra qolmaslikni taqazo etadi. Dostonlar turli e’tiqodiy qarashlar, magiyalar, mifologik tasavvurlardan tashqari tasavvufga doir timsol va tushunchalardan ham holi emas. Bizningcha, xalq dostonlarida tasavvuf chizgilarining mavjudligi mazkur qolipni Naqshbandiya tariqati usul va arkonlariga tayangan holda tahlil etish, ushbu tariqatdagi birinchi dasturga bog‘lash uchun asos bo‘la oladi. Xalq ushbu qaytariq orqali umrni behuda o‘tkazmaslikka chorlaydi. Dostonda Qorajon va Boychiborni Boboxon tog‘ida bog‘lab ketishgan payti Qorajon:”Poygaga bekor kelgan ekanman, qalmoqlarning ketganiga ancha vaqt o‘tdi, agar ilgaridan ot o‘zib borib qolsa, do‘stimning betiga qanday qarayman?” deb turganida eshonning ruhunati unga qarata quyidagilarni aytadi:

Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema,

Boshing eson davlatingni kam dema,

Qoldim deb, Qorajon, sira g‘am yema. (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, 1998, 143-bet)

Mazkur qolip aynan Eshonning ruhunati tilidan aytilishi “Hush dar dam” dasturiga ma’lum ma’noda bog‘liq ekanligining isbotidir. Chunonchi, dostonlarda ko‘plab uchraydigan pirga qo‘l berish, valiy zotlardan yordam so‘rash holati “Uvaysiylik” bilan bog‘liq. Dostonning yana bir o‘rnida Yortiboy oqsoqol tilidan quyidagilar keltiriladi:

Ushbu damning damlarini dam dema,

Boshing eson, davlatingni kam dema,

Sen ketar bo‘lsang, Qalmoq yurtiga,

Bul elatni ham qolar deb g‘am yema. (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, 1998, 23-bet)

Xo‘sh, qachon insonning boshi eson bo‘ladi? Qachonki, u o‘tmish yoki kelajak uchun emas, ayni dam – bugun uchun yashasa. Zero, boshning omon bo‘lishidan, ortiq baxt, davlat bormi? Go‘yo, xalq mazkur qolip orqali o‘z donoligi, donishmandligini ko‘rsatgandek.

Shayx Najmiddin Kubroning “Usuli ashara” kitobida:”Nafas insonning og‘zi va burnidan kirib-chiqadigan havo bo‘lib, uning bir kunlik miqdori yigirma to‘rt mingga yaqindir. Shu bois har kim umr bo‘yi olgan nafasicha Haqqa olib boruvchi yo‘l imkoniyatiga sohibdir. Yo‘lchi qadam ba qadam ilgarilaganidek, bu yo‘lda sabot ko‘rsatganlar ham har nafasda Ollohga tobora yaqinlashib borurlar. Aslida ular yagonadir. Ammo har odim manzil nihoyasiga olib boruvchi vosita bo‘lganligidan ham har qadam oldingga yurish va ilgarilash hisoblanadi. Shuning uchun har bir inson nafasini va vaqtini muhofaza qilishi kerak”, - deyiladi. (Najmiddin Kubro, 2005, 2-bet)

Shuningdek, Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida mazkur baytni keltirib o‘tadi:

Moziyu mustaqbal ahvolin takallum ayla kam,

Ne uchunkim, dam bu damdur, dam bu damdur, dam bu dam.

Ibrohim Haqqul yuqoridagi baytni quyidagicha talqin qilgan: “Tasavvuf nuqtayi nazarida nafas uch ma’noni anglatadi. 1. Tiriklikni ta’minlovchi nafas, ya’ni havo; 2. Dam, fursat, lahza; 3. Murshiddan yetadigan fayz va ishq o‘tida yongan qalbning faraxlanishi. “Risolai Kushayriy” muallifining ta’riflashicha, nafas sohibi hol sohibidan ko‘ra nozikta’b va ko‘p pokizadir. Vaqt esa vasl sohiblariga, hol ruh sohiblariga, nafs esa sir sohiblariga xosdir. Demak, qalb sohiblari vaqtga, ruh sohiblari hollariga, sir sohiblari nafasga loqayd bo‘lishlari mumkin emas. Navoiyning Vaqt, Hol, Nafas bahsidagi ancha-muncha fikr-tuyg‘ulari mana shu uch asosga tayanadi”. (Ibrohim Haqqul, 2007, 14-15-betlar)

Navoiy “dam”ning haqiqati nafas, fursat, lahzada deydi. Mazkur qarash xalq dostonlarida uchraydigan epik qolip mohiyati bilan mushtaraklik kasb etadi. Shuningdek, damni, ya’ni nafasni murshiddan yetadigan fayz, ishq o‘tida yongan qalbning faraxlanishi bilan bog‘lash esa bevosita tasavvuf ta’limoti bilan bog‘liq.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, azaldan mavjud diniy e’tiqodlar, turli afsona, rivoyatlar, qadriyat, an’ana, urf-odatlar majmuasidan iborat eposlar syujeti, motivlar tizimi, voqealar rivojida xalq ideallari tasvirlangan. Doston aytuvchi tinglovchi ko‘z o‘ngida o‘tmishni qayta jonlantiradi. Tinglovchi yoki o‘qirman esa o‘z idealini aynan ana shu kechmishdan topadi. Baxtin ta’rifi bilan aytganda “birinchilar” va “eng yaxshilar” dunyosi hisoblangan eposlarda xalqning ijtimoiy, ruhiy-ma’naviy, madaniy holati, tarixi o‘z aksini topgan. Hatto dostonlarda qaytariq tarzida uchraydigan epik qoliplar ham ma’lum ma’noda xalq ma’naviy tafakkurining hosilasi, donolik, donishmandlikning bir belgisidir. Chunonchi, dostonlar og‘zakilik, anonimlik, an’anaviylik, jamoaviylik, variant va

versiyaviylik kabi xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Ushbu o‘zgarmas tizimga asoslansak, yuqorida tahlilga tortilgan epik qolipda shoh Naqshband ismi bilan mashhur bo‘lgan Muhammad ibn Muhammad Bahouddin Buxoriy rahmatullohi alayhga nisbat beriladigan, 8-asrlarda yuzaga kelgan Naqshbandiya tariqatidagi birinchi dastur “Hush dar dam” bilan ma’lum ma’noda mushtaraklik mavjud. Navoiy asarlari (xususan, “Mahbub ul-qulub”)da ham ushbu dasturga murojaat ko‘zga tashlanadi. Faqat boshqacha va teranroq shaklda. Navoiy qarashlarida dam, nafas, fursat, lahzaning mohiyati sof tasavvufona shaklda namoyon bo‘ladi, aynan Naqshbandiya ta’limotiga tayaniladi. Xalq dostonlarida esa mohiyatan “Hush dar dam” asosida yuzaga kelgan, ammo chuqur tasavvufiy ma’noda emas, xalqning har daqiqa, lahzani g‘animat sanab, umrni g‘aflatda o‘tkazmaslik, kelajak yoki o‘tmish emas, bugun uchun yashash, g‘ofillikdan qaytariq tarzida yangraydi. Ideal xalq qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. (1998). Alpomish. (23-143-betlar). Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa kontserni bosh tahririyati.
2. Hojiyev, A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (550-551-552-betlar). Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti.
3. Haqqulov, I. (2007). Navoiyga qaytish. (14-15-betlar). Toshkent: “Fan” nashriyoti
4. Shayx Najmiddin Kubro. (2005). “Usuli Ash’ara”. (2-bet) Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
5. Malik, Erkin. (2018). Xotira uyg‘onsa go‘zal. (13-bet). Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.


## MOTAM MAROSIMI AYTIMLARIDAN NAMUNALAR TAHLILI


*Haydarova Ruhshona Dilshod qizi*

*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*

*ruxshonahaydarova56@gmail.com*

*+998939995307*



**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada oilaviy marosimlar tarkibidagi motam marosimi aytimlari haqida fikr yuritiladi.Motam marosimlarining inson hayotidagi ahamiyati, inonch va ibtidoiy tasavvurlari keltirib o‘tilgan. Yig‘i va yo‘qlovlardan namunalar*

*orqali motam marosimlari aytimlari, motam yor-yori haqida so‘z yuritilgan. Namunalar “O‘zbek xalq qo‘shiqlari” (saylanma) kitobidan keltirib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar**: *motam, yig‘i, yo‘qlov, motam yor-yori, ramz, tol*

**Abstract.** *This article reflects the mourning rituals present in family rituals.The importance of mourning rituals in human life, the perception of faith and primitiveness are presented. Examples from cry and destroy refer to mourning ritual rituals, mourning keep-yori. ,, quoted from the book " Uzbek folk songs.*

**Key words**: *mourning, weeping, crying, sobbing, symbol, willow.*

Har bir insonning hayoti tug‘ilganidan to so‘nggigacha marosim bilan bog‘liq. Marosim bevosita kishilarning tabiat hodisalariga, ijtimoiy voqelikka bo‘lgan muayyan munosabati asosida yotuvchi turli-tuman qarashlar tasavvurlar tufayli tug‘iladi (Sarimsoqov, 1998). Oilaviy marosimlar tarkibidagi motam marosimi ham insoniyat hayotida nafaqat o‘zbek xalqida balki boshqa xalqlarda ham o‘z o‘rniga ega. Motam marosimlari yig‘i va yo‘qlovlardan iborat. Yig‘ilarni va yo‘qlovlarni bir-biridan farqlab olishimiz lozim. Yig‘ilar inson vafotidan to “uch”, “yetti” marosimlari bo‘lgan davrda o‘tqazilsa, yo‘qlovlarda esa aksincha “yetti” marosimidan keyingi bosqichlarda hattoki bayram yoki yig‘inlarda aytilishi mumkin. Yo‘qlovlar vafot etgan insonga nisbatan xarakter berilib, uni eslanishi, qilingan yaxshi ishlari bilan yo‘qlanishi, motam tutuvchining ichki kechinmalari, yod etish, xotirlash, yo‘qlash sanaladi.

Yig‘i va yo‘qlovlardan namunalar orqali bu ma’lumotlarga yanada aniqlik kiritamiz:

Piyolada choy bergan

Yonboshidan joy bergan

Enajonim boyvuchcham

Piyolada bergan choylari

Sharbat ekan bilmabman

Enajonim boyvuchcham .

Mazkur misralarda onasidan ajralgan qizning ichki kechinmalari iztiroblari keltirilgan. Ona har doim farzandini hayotida birinchi o‘ringa qo‘yadi. Ba’zi bir farzandlar esa ona qadrini anglab yetganlarida kech bo‘lgan bo‘ladi. Keyingi misrada esa:

Tut yog‘ochday mevalim

Qayrag‘ochday soyalim

Enajonim boyvuchcham

Sutni suvday shopirgan

Moyni qorday ishirgan

Enajonim boyvuchcham

Yuqlovlar haqida yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda bu misralarda farzand onasining xarakterini ochiqlayapti.

Onasini tut va qayrag‘ochga qiyoslash orqali tut daraxti mevasi ko‘p bo‘lishi va qayrag‘ochni soyasida salqinlasa bo‘ladi degan ma’noda onasini xislatlarini yo‘qlovlar orqali ifodalagan. Yuqoridagi misollar yo‘qlovlardan namuna edi, yig‘ilardan namunalar kam keltirishni joiz deb bilamiz.

Toldan tayoq kesganim

Tol chiviqday o‘sganim

Voy bolam

Yig‘lab qoldi bolasi

Bo‘shab qoldi xonasi

Voy bolam

Tilagingga yetmading

O‘ttizdanam o‘tmading

Voy bolam.

Bu yig‘i buvisi vafot etgan nabirani o‘limida aytib yig‘lagani. Ko‘rinib turibdiki, vafot etgan o‘ttiz yoshdan oshmagan. Orzulariga yetmagan bir yigit. Ramzlarga e’tibor beradigan bo‘lsak, bu yerda tol ramzi oshiq yigit ko‘p vaziyatlarda erkak kishi ma’nolarini anglatib turadi.

Qora ro‘mol qo‘limda

Qorayib qoldim yo‘lingda

Voy bolam

Sariq ro‘mol qo‘limda

Sarg‘ayib qoldim yo‘lingda

Voy bolam

O‘tgan ishga salovat

Joyingda topgin xalovat

Xalovating o‘zingga

Bir ko‘ringin ko‘zimga

Enasini go‘riga tushgan

Voy bolam

Qora ro‘molni keltirilishi bu yerda motamni ayriliqni ifodalayapdi, boshqa nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, ro‘mol oila ramzi ro‘molning qorayishi oiladagi mudhish ayriliq oilaning endi to‘kis emasligidan dalolat. Sariq ro‘molga ham shu nisbatni berishimiz mumkin. Sariq rang ham bu yerda ayriliq ramzi hisoblanadi. Yig‘i so‘ngida esa oila a’zolarini taqdir hukmiga ko‘ngani bir marta ko‘ziga ko‘rinishini, joyida halovat topishi bilan yakunlaydi.

Ammasini jiyanini yo‘qlab aytgani:

Bo‘ynimdagi qo‘sh xalqam

Billa o‘sgan bosalqam

Voy jigarim.

Ko‘rmay qoldim ko‘zingni

Eshitmay qoldim so‘zingni

Voy jigarim

Suyab suvingni bermadim

Silkib to‘shaging solmadim

Voy jigarim

Bosh bolasidan ayrilib

Boshmaldog‘i qayrilib

Akam-o qanday turadi?

Voy jigarim

Bu motam yo‘qlovida ammasi jiyanini yo‘qlab aytgani keltirib o‘tilganini guvohi bo‘lamiz. Ammasi jiyanini yosh vafot etganini unga ammalik vazifasini to‘liq ado etmaganini, farzandning esa katta farzand ekanligi aytib o‘tilgan. Farzand oilada katta farzand bo‘lganligi sababli boshmaldoq, ya’ni bosh barmoqqa qiyoslagani bundan maqsad esa farzandning oiladagi o‘rni qanchalik muhimligi ifodalangan.

Bel bog‘layman po‘tasiz,

Qanday boqaman otasiz.

Oq-oqqina qo‘zilar,

Yaylov o‘ti tilaydi.

Yetim qolgan bolalar,

Ota ko‘ngli tilaydi

Vo uyim, Vo kunim, Vo davron.

Bu keltirib o‘tilgan yig‘i oilaning oila boshidan ajralgani, endi ro‘zg‘or oila tashvishi bolalarning onasi zimmasiga qolishi tasvirlangan. Ayol qalbidagi iztiroblar: oila boshidan, uy egasidan, yaxshi kunlaridan ajralgani yaqqol namoyon bo‘lgan so‘ngi misrada desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Oq-oqqina qo‘zilar,

Yaylov o‘ti tilaydi. (a)

Yetim qolgan bolalar,

Ota ko‘ngli tilaydi. (b)

Yig‘idagi bu to‘rt misraga alohida e’tibor beradigan bo‘lsak, boshidagi ikki misra (a) tabiat tasviri berilish orqali keyingi kelgan ikki misrani (bu) ifodalab kelyapdi. Natijada tabiat tasviri ramziylikni ifodalab kelmoqda. Yetim qolgan bolalarni oq qo‘zilarga qiyoslanishi bejiz emas.

Motam yor-yori.

Hay-hay o‘lan, hoy o‘lan, armonli qiz yor-yor,

Onalari ko‘ngliga darmonli qiz yor-yor.

Lolaxon ham ketyapti u dunyoga kelinchak,

Oyim qizim sochlari qora tolga halinchak.

Sakkiz behisht ichida podshoh qizi yor-yor,

Hur qizlarning ichida hamroh qizi yor-yor.

Orzusiga yetmagan armonli qiz yor-yor,

Oxiratga kelinchak dardmonli qiz yor-yor.

Motam yor-yorlari o‘zbek motam marosimi folklorida o‘z o‘rniga ega janr hisoblanadi. Uning ildizi to‘y yor-yorlariga borib taqaladi. Motam yor-yorlarida balog‘atga yetgan yosh qiz, ba’zan yigitlarga nisbatan aytiladi. Ota-onasining farzandidan ayrilib orzu-umidlari chilparchin bo‘lgani motam yor-yorlarida aks

etadi. Yuqorida keltirilgan motam yor-yorida an'anaviy qaytariq holida kelgan “yor-yor” so‘zi to‘y marosimlarida keladigan yor-yor an’anaviy qaytariladigan so‘z bilan bir xil vazifada, bu esa yuqorida aytib o‘tgan fikrga yana bir isbot bo‘la olsa kerak. Motam marosimlarida vafot etgan insonni kelinchakka qiyoslashadi. Bu motam yor-yorida ham vafot etgan yosh qiz Lolaxonni oxirat kelinchagiga qiyoslashmoqda. Shu o‘rinda ramzlarga ham to‘xtalib o‘tish lozim. Bevaqt vafot etgan qizning sochlari “qora tolga halinchak” sifatida keltirilgan. Biz bilamizki, tol o‘zak ramz sifatida qaralgan tol ramzi yigit, oshiq yigit, er kishi obrazlarda namoyon bo‘ladi. Qora rang esa ko‘p hollarda baxtsizlik ko‘ngilsiz voqealar sodir bo‘lganda ishlatilgan, ammo ikkalasi birgalikda (ya'ni qora va tol) yana bir yangi ramzni tobut ramzini keltirib chiqarmoqda.

**Xulosa.** Motam marosimi folklorida har bir xalqning o‘ziga xos maishiy turmush tarzi bilan bog‘liq real voqealar ifoda etiladi. Motam qo‘shiqlari motam marosimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida yashab kelmoqda. Yig‘ilar, yo‘qlovlar, motam yor-yorlari, motam allalari motam marosimining verbal qismini tashkil etuvchi asosiy poetik janrlardir. Motam marosimi qo‘shiqlaqrining obrazlar tarkibi juda boy va rang-barang bo‘lib o‘ziga xos ramziylik kasb etadi buni yuqorida keltirilgan namunalardan bilishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbek Xalq qo‘shiqlari (saylanma). Turdimov, Sh., Nazarova, Sh., - Toshkent: FAN nashriyoti.
2. B.Sarimsoqov “O‘zbek marosim folklori” Toshkent: - 1986, O‘zbekiston , FAN nashriyoti.
3. O‘rayeva Darmon ,,O‘zbek motam marosimi folklorining janriy tarkibi genezisi va badiiyati” PhD Toshkent - 2005
4. Muzaffarova Sh. “O‘zbek xalq yig‘i va yo‘qlovlar poetikasi” PhD

## ADABIY TILDAGI AYRIM LEKSEMALARNING SHEVALARDA ANGLATUVCHI MA’NOSI

*Isroilova Gulshanoy Xoldarali qizi*

*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi*

*gulshanoyisroilova@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ga kiritilgan hamda adabiy tilda keng qo‘llanadigan ayrim leksemalarning aynan Farg‘ona viloyati Bag‘dod tumani shevasida qanday ma’noda qo‘llanishi o‘rganilgan. Maqolani yozish jarayonida Farg‘ona viloyati shevalarining fonetik, leksik, grammatik jihatlari atroflicha o‘rganildi. Hamda qiyoslash metodi orqali shevadan yig‘ilgan so‘zlar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ga kiritilgan shakldoshlari bilan solishtirilib, ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar o‘rganildi.*

**Kalit so‘zlar:** *adabiy til, izohli lug‘at, leksema, dialektal ma’no.*

**Abstract:** *In this article, the meaning of certain lexemes included in the "explanatory dictionary of the Uzbek language" and widely used in the literary language is studied in the dialects of the Fergana region. In the process of writing the article, the phonetic, lexical and grammatical aspects were thoroughly studied. Also, the words collected from the dialect through the method of comparison were compared with their counterparts included in the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language", and the similarities and differences between them were studied.*

**Key words:** *literary language, annotated dictionary ,lexeme, dialectal meaning.*

Bilamizki, o‘zbek adabiy tili morfologiyasiga Farg‘ona shevasi asos qilib olingan. Farg‘ona viloyati O‘zbekistonning janubiy qismida joylashgan bo‘lib, u yerda asosan qarluq lahjasi vakillari istiqomat qiladi. Qiziqarlisi shundaki, o‘zbek adabiy tilida qo‘llanadigan ayrim so‘zlar ushbu shevada umuman boshqa ma’noda qo‘llanar ekan. Masalan, adabiy tildagi **“erimoq”** so‘zi izohli lug‘atda “issiq ta’siri natijasida qattiqligini yo‘qotmoq, suyuq holga o‘tmoq; yumshamoq” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikkinchi jild. Toshkent. 2022) deb keltirilgan bo‘lsa, Bag‘dod tumani shevasida suyunchi sifatida biror narsa olib berish ma’nosida ishlatiladi. Misol: Adabiy tilda qo‘llanishi: *Yerlar erib, hamma yoq shilt-shilt loy, qo‘rg‘on kunguralaridagi qirovlar bug‘ga aylanib, ko‘kka ko‘tarilmoqda edilar. (A. Qodiriy, O‘tkan kunlar).*

Shevada qo‘llanishi: *Aka, ulli böpsiz qačan erïsïz endi!?*

**“Qidirmoq”** so‘zi adabiy tilda “nimanidir topishga harakat qilmoq, izlamoq” ma’nosida ishlatilsa, shevada “qayergadir mehmon bo‘lib borish” ma’nosida ishlatiladi. Adabiy tilda: *Hayot shoxlarga tikilib qaradi. U ovoz egasini tanigan, taniganini qidira boshlagan edi. (M. Ismoiliy, “Farg‘ona tong otguncha”).* Shevada: *Dädäsi, bügün ānamlakka qidirib borsam maylimi?*

**“Ishqamoq”** so‘zi dabiy tilda ishqalamoq so‘zining aynan sinonimi sifatida ishlatilsa, shevada bu so‘z “birontasini kimgadir yomonlab, o‘sha insonga nisbatan unda nafrat uyg‘otish” ma’nolarida ishlatiladi. Adabiy tilda qo‘llanishi: *Yormat sevinganidan kaftini ishqab, kulib, tanchadan bir qadam nariga cho‘kka tushdi. (Oybek, “Tanlangan asarlar”).*

Shevada qo‘llanishi: *Hadep ukaŋdi akaŋga išqörma,ekäläsi urišip ketsa, sen arasatta qālasan.*

**“Chorbog‘”** so‘zi adabiy tilda dam oladigan joy ma’nosini bildirsa, shevada ekin ekiladigan joy ma’nosini bildiradi.Adabiy tilda: *Alisher Navoiy shahar tashqarisidagi chorbog‘iga ko‘chib chiqdi. (M.Osim,”Karvon yo‘llarida”).*

Shevada: *Bu bāhār čārbāγimizga faqat kärčika ektik.*

Yoki **“chinni”** so‘zi adabiy tilda kosa, piyola, likop kabi idishlar tayyorlanadigan xomashyo sifatida ishlatilsa shevada aynan kosa ma’nosida ishlatiladi. Adabiy tilda qo‘llanishi: *Sopol chinni bo‘lmas, begona-ini. (Maqol)*

Shevada qo ‘llanishi: *Qizim, āvqatlanib činnilarni tāzalab yuvvārgin.*

**“Xo‘jayin”** so‘ziga adabiy til nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, biror tashkilot yoki korxona boshlig‘iga ishchilar shunday murojaat qilishadi. Shevada esa turmush o‘rtog‘i, ya’ni erini ayollar shunday atashadi. Adabiy tilda: - *Xo‘jayin, mashina tayyor, - dedi shafyori. (Gazetadan.)*

Shevada: *Xo‘jeyinim tuvilgan kunimga yaŋi sirγa sāvγa qildi.*

Yoki **“ayyor”** so‘zini oladigan bo‘lsak, adabiy tilda hiylakor, makkor ma’nolarida kelsa, shevada bu so‘z dangasa ma’nosini ham anglatadi. Adabiy tilda qo‘llanishi: *Mirzakarimboy ilonning yog‘ini yalagan odam: hamma boylar kabi ayyor.*

Shevada qo‘llanishi: *Minča aʒʒārsan,bālam, ettadan kečkača faqat ʒātasan.*

Qarindosh-urug‘ nomini anglatuvchi **“ota”** so‘zi adabiy tilimizda dada ma’nosida ishlatilsa, shevada “dadaning yoki onaning dadasi, ya’ni bobo” ma’nosida ishlatiladi. Adabiy tilde qo‘llanishi: *Otamisiz, nimasiz axir, o‘g‘lingizni tiyib olish sira xayolingizga keladimi?*

Shevada qo‘llanishi: *Qaraŋ, ātä pensäŋizni āldizmi?*

**Xulosa.** Bu kabi so‘zlar qatorini ko‘plab davom ettirish mumkin. Bu kabi so‘zlar nafaqat Farg‘ona viloyati shevalarida, balki boshqa hudud dialekt va shevalar lug‘atida ham kuzatiladi. Mustaqil izlanish jarayonida shunday xulosaga keldik, bunday so‘zlar qatorini yanada boyitib, ularning lug‘atini ham tuzish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ashirboyev, S. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent – 2013.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikkinchi jild. Toshkent – 2022.
3. Internet saytlari. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Farg%CA%BBona

## QORATUT SHEVASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI (SAMARQAND VILOYATI OQDARYO TUMANI)

*Isomiddinova Nargiza Jozilboy qizi*
*ToshDO‘TAU Folkorshunoslik va*

*dialektologiya yo‘nalishi 2-kurs magistranti*

*Nargizaisomiddinova16@gmail.com*
*+998941230531*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqola Samarqand viloyati Oqdaryo tumani Qoratut qishlog‘ining tarixi va shevasi, uning adabiy tildan farqlanishi haqida bo‘lib, unda ba‘zi adabiy tilda uchramaydigan so‘zlar ma‘nosi tahlil qilingan. Qoratut shevasi fonetik, morfologik jihatdan o‘rganilib, o‘ziga xos xususiyatlari keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar**: *hudud, sheva, fonetik, morfologik, adabiy til, qipchoq shevasi.*

**Abstract**. *This article is about the history and dialect of Karatut village, Okdarya district, Samarkand region, its difference from the literary language, and the meaning of some words not found in the literary language is analyzed. The Karatut dialect is studied phonetically and morphologically, and its characteristics are presented.*

**Key words:** *region, dialect, phonetic, morphological, literary language, kipchak dialect.*

Sheva xususiyatlari tahlil qilinayotgan hududning nomi: Oqdaryo. Qadimda bu hudud “Miyonqol” deb atalgan. Har bir hududning nomlanish tarixi bo‘lgani kabi, bu hududning ham o‘ziga xos nomlanish tarixi mavjud. Nomning ma’nosi ikki daryo oralig‘idagi orol degani. Zarafshon daryosi Oqdaryo va Qoradaryoga bo‘lingan va daryolar orasidagi orol shunday nomlangan. Keyinchalik bu hudud nomi Oqdaryo deb o‘zgartirilgan. Oqdaryo tumanining markazi Loyish shaharchasi

hisoblanadi. Shaharcha nomining ma’nosi Loyli ish degani. Avval bu shaharcha botqoqlik va qamishzordan iborat bo‘lgan. Keyinchalik odamlar ko‘chib kelib bu hududni o‘zlashtirishgan. Oqdaryo tumani aholisi etnik jihatdan xilma-xil. Bu hududda o‘zbek, tojik, qozoq, rus, turk, tatar kabi millatlar istiqomat qiladi. Oqdaryo tumani qishloqlaridagi aholi, asosan, qipchoq lahjasida gaplashadi. Ya’ni j-lovchi xususiyatga ega. Loyish shaharchasi aholisi, asosan, qarluq lahjasi va Oqdaryo tumani Dahbed shaharchasi, Yangiqo‘rg‘on qishlog‘i eronlashgan shevada gaplashadi. Bir so‘z bilan aytganda, Oqdaryo tumani hududida 3ta sheva vakillarini uchratamiz:

*1) qipchoq lahjasi (Qoratut va boshqa qishloqlar);*

*2) qarluq lahjasi (Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi)*

*3) eronlashgan sheva (Oqdaryo tumani Dahbed shaharchasi)*

**Shevaning o‘rganilishiga doir.** Bugungi kunga qadar va hozirda qipchoq, qarluq lahjalari va eronlashgan shevalar bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda. Biz ta’kidlayotgan hudud shevasining xilma-xilligi, ularning qiyoslanishi va o‘ziga xos jihatlari o‘rganilganicha yo‘q. O‘zbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevalarda qayd qilinadigan so‘zlar, faqatgina shevalarda qo‘llaniladigan va adabiy tilda bo‘lmagan so‘zlar ham juda ko‘p. Bunday so‘zlar badiiy adabiyotda shevalarning o‘ziga xos jihatlarini namoyon etishda qo‘llaniladi. Shevalarning yillar mobaynida o‘zgarib borishi so‘zlarning tuzilishiga ta’sir qiladi. Bunda ma’no o‘zgarmasa ham, so‘z tuzilishida farq bo‘lishi mumkin.

Qoratut shevasidagi ba’zi so‘zlarning adabiy tildan farq qilishini ko‘ramiz.

**Insonlar hayotida faol ishlatiladigan qarindoshlik nomlari, xususiyat ifodalovchi so‘zlarning shevalarda qo‘llanilishi:**

*jäzna – pochcha, bölä – xolavachcha, qäjmika– qaynopa, kätäta – buva, kätena – buvi,o‘ta – buva, o‘na – buvi, tämäqsov – ochko‘z odam, arqaliq – jahli tez odam, supräqoqti – kenja farzand, suqänaq – har bir ishga kirishib ketadigan odam, bashmaldaq – bosh barmoq, činäqaj – kichkina barmoq, ül – o‘g‘il, arqaliq – jahli tez odam, mug‘ambir – hiylagar odam, ena – ona, qayni – qaynuka, aytuvchi – jarchi, arriq – ozg‘in, qiziqqon – jahli tez, chakak – iyak, varaja – titroq, mingrov – jinni;*

**Taom, o‘simlik va hayvon nomlarining shevalarda qo‘llanilishi:**

*lağčak, tuppa – kulchatoy, bärak – chuchvara, g‘ilmindi – yupqa, mäjak – tuxum, särimoj–saryog‘, shulla – shovla, pidäna – yalpiz, olboli – gilos, qäroli – olxo‘ri, čakki – suzma, zäldori – o‘rik, jung‘ičqa – beda, qiči – jag‘– jag‘, olashaqshaq – chug‘urchuq, pishak – mushuk, tona – yosh sigir, g‘unajin – sigir, obdish – qaynagan suv, sarqit – qolgan ovqat, toqqiz– to‘qqiz – ovqat ma’nosida, surguruch – shirguruch, sutlosh – shirxo‘rda, ashkadi – qovoq, adrasmon – isiriq, pang‘ – mog‘or;*

**Uy-ro‘zg‘or buyumlarining shevalarda qo‘llanishi:**

shuvutki– supurgi, lapatka –kurak, tavoq – lagan, lagan – tog‘ora, olacha – gilam, paqir – chelak, tarnov – nov, havunchak – arg‘umchoq, pishmak – bosma kran, cho‘lpi – suzgich, ko‘pchik – par yostiq;

**Boshqa so‘zlarning shevalarda qo‘llanishi:**

unkimoq – sasimoq, jovlik – hammasi, gartak – ozgina, gay payti – bir paytlar, uchlog‘ich – qalam ochqich, chertak – chordoq, jo‘n – oddiy, matal – ertak, tartanak – o‘rgimchak ini, zangari –yashil, qing‘ir – egri, erish – noqulay

**Fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar. Otlarning fonetik o‘zgarishga uchrashiga misollar:**

žuzum – uzum, näšxona –oshxona, pičak – bichak, tevä – tepa, buzov – buzoq, sijir – sigir, tov – tog‘, bäla – bola, shuvut – shivit, soviz – sabzi, chaynik – choynak, belbov – belbog‘, juvundi – yuvundi, kipt – kift, sach – soch, chuvin – chivin, kartishka – kartoshka, aqlik – oqlik (mato ma’nosida), buvday – bug‘doy, dastarqan – dasturxon, savap – savob, payda – foyda, mardiqarchiliq – mardikorchilik;

**Olmosh va ravishlarning fonetik o‘zgarishga uchrashiga misollar:**

mänov – mana bu, anov – anavi, qajtib – qanaqa qilib, šujtib – shunaqa qilib, manag‘da – mana bu yoqda, öšag‘da – o‘sha yoqda, bäqa – bu yerga, qag‘da – qayerda, šag‘da – shu yerda, äqqa – u yoqqa, qandajčiqin – qanday, šundajčiqin – shunday;

**Fe’llarning fonetik o‘zgarishga misollar:**

täjla – tashla, kelopti – kelyapti, boropti – boryapti, boroppan – boryapman, ketoppan – ketyapman, išlopti – ishlayapti, kemadi – kelmadi, qarabjär – qaravor, borag‘aj – bora qol, kelag‘aj – kela qol, kelajik – kelaylik, körajik – ko‘raylik, borsag‘ – borsak, žur – yur, žurag‘aj – yura qol, baradig‘an – boradigan, keladig‘an – keladigan, ketadig‘an – ketadigan.

**Adabiy tilda uchramaydigan ba’zi so‘zlar**

*Gärtak – biror narsa ulashilayotganda ozroq ma'nosida qo'llanadi.*

*bösag'a – uyning ostonasi*

*qorasuvoq – birinchi suvoq*

*itmurun – na'matak*

*tonä – yosh sigir*

*oläšaqšaq – chug'urchiq*

*pišak – mushuk*

*unkimoq – sasimoq*

*žovlik –hammasi*

*paqir – chelak*

*köpčik – par yostiq*

*näšxona – oshxona*

*žittakkina – ozgina*

*orqaliq – jahli tez odam*

*suqanaq – har bir ishga kirishib ketadigan odam*

*endigi yil – kelasi yil*

*itmurun – na'matak ko'p yillik o'simlik ma'nosida*

*moltimoq – quloch otmasdan suzish*

*mulgimoq – mudramoq*

*imirsiq – yalqov odam*

*uyutqi – qatiq ivitish uchun sutga solinadigan achigan qatiq*

*irga – uy burchaklari va gir aylanasi, uy ma'nosi ham bor*

*og'uz – sigir bolalaganda sog'ib olinadigan birinchi to'q sariq rangdagi sut*

*qidirmoq – mehmonga bormoq*

*qidirishxola – bolalar o'yini nomi*

*ilimiq – issiqroq ma'nosida* (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006).

**Shevalarning morfologik xususiyatlari**

Oqdaryo shevasidagi so‘zlarga kelishik qo‘shimchalari qo‘shilishi natijasida ba’zi o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Masalan, qaratqich kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilganda fonetik o‘zgarish – tovush almashishi yuzaga keladi:

*“uy+ning” uyding.*

Ham asos, ham qo‘shimcha fonetik o‘zgarishga uchrashi mumkin:

“mardikor+chilik” mardiqarchiliq.

Bunda qo‘shimcha bilan uyg‘un holda asosda ham fonetik o‘zgarish yuzaga kelgan. Yoritilayotgan shevada qo‘shimchalarning adabiy tildagidan farqli tomoni ularning fonetik o‘zgarishga uchraganidir.

Sifatdosh yasovchi -gan qo‘shimchasining -g‘an shaklida qo‘llanishi e’tiborni tortadi: ber+gan shevada berg‘an, ol+gan shevada og‘an tarzida ishlatiladi (bunda asosda tovush tushib, qo‘shimchada tovush almashyapti). Bu shevada har qanday qo‘shimcha tarkibidagi -g, -k, -q harflari -g‘ ga o‘zgaradi:

to‘yga - to‘yg‘a, kelaqol - kelag‘ay, borsak - borsag‘.

Xulosa qilib aytganda, Qoratut shevasi qipchoq shevasi hisoblanganligi uchun adabiy tildan birmuncha farq qiladi. Qoratut shevasining o‘ziga xos jihatlari ko‘p va biz biroz xususiyatlarini o‘rgandik. Hozirgi kunda juda kam uchraydigan -g‘ay qo‘shimchasi bu shevada saqlanib qolgan. Shevaning fonetikasi va morfologiyasida ham farqlarni keltirdik va bu tadqiqotlar, izlanishlar hali davom etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ashirboyev, S. O‘zbek dialektologiyasi. - Toshkent, 2021.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (2006).
3. https://n.ziyouz.com


## O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODIDA ILON OBRAZI


*Mardonova Fazilat Faxriddinovna*

*ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 2-kurs talabasi*

*@Fazilat_Mardonova +998902460812*



**Annotatsiya.** *Maqolada o‘zbek folklorining epik janrlarida mifologik obrazlar, xususan ilon obrazi bilan bog‘liq tahlillar olib borilgan. Ilon obrazi mifologik qarashlar negizida ma’lum bir o‘ziga xos poetik ifodalarni, ruhiy kechinmalarni*

*namoyon etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, turkiy xalqlar folklorida ilon obrazi bilan bog‘liq turli xil mazmun-mohiyat kasb etuvchi namunalar uchraydi. Doston, afsona va ertaklarda ilon obrazining o‘ziga xos ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ularning an’anaviy voqealar rivojida tutgan o‘rni, mifik xususiyati, xalq dunyoqarashi bilan bog‘liq uzvlari o‘rganilgan. Ilon obrazining turli qiyofalarda kelishi qiyosiy tahlil etilgan.*

**Kalit so‘zlar**: *obraz, tizim, mif, mifologiya, ramz, tahlil, ilon obrazi, an’anaviy timsol, epos, afsona, ertak, syujet.*

**Abstract.** *The article analyzes mythological images, especially the image of a snake, in the epic genres of Uzbek folklore. The image of a snake serves to express certain unique poetic expressions and spiritual experiences based on mythological views. Especially in the folklore of the Turkic peoples, there are examples of various meanings related to the image of the snake. In epics, legends and fairy tales, there are unique manifestations of the image of the snake, and their role in the development of traditional events, their mythical features, and their links with the worldview of the people have been studied. The appearance of the image of the snake in different guises is comparatively analyzed.*

**Key words:** *image, system, myth, mythology, symbol, analysis, snake image, traditional symbol, epic, myth, fairy tale, plot.*

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi doston, afsona, ertak va qo‘shiqlari mavzu jihatdan rang-barang bo‘lib, bu tafakkur durdonalarining asosiy mohiyatini kishi e’tiborini jalb etuvchi, xilma-xil mifologik dunyoqarashga asoslangan voqealar tashkil etadi. Bunday tizimli, notabiiy voqealar asosida mazmun yaratish, xalq og‘zaki ijodining qo‘shiq janrida ham mavjuddir. “Oq ilon, oppoq ilon” qo‘shig‘ida berilgan ramziy ifoda oq ilonning “yigit” timsolida kelayotganligi misralarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Hoy oq ilon, oppoq ilon,

Oydinda yotganing qani.

Sen ko‘ngilni yomon deding,

Yaxshini topganing qani.

Hoy oq ilon, oppoq ilon,

To‘ningni tashlab ketma,

Olib-olib menga yomon,

Kuningni tashlab ketma.

Dilfuza Fayziyevaning ta'kidlashicha: "Ilonning goh odam, goh jonivor sifatida tasvirlangan holati ham ana shu mifologik tasavvur asosida kelib chiqqan. o'zbek xalq ertaklarida ilon – odam tipidagi personajlarning bir necha talqinlari mavjud. Ana shunday epik ko'rinishlardan biri ilon-yigit timsolidir. "Opa-singillar", "Ilon yigit", "Ilon shoh" kabi ertaklarda tasvirlangan ilon aslida o'z ko'rinishini o'zgartirgan yigitdir" (Fayziyeva, 2003, 71-bet). "Ilon yigit" ertagida ulkan bir daraxt bo'lib, unda ilonlar shoxi istiqomat qilar edi. Bir kuni do'stlarim bilan shu daraxtni ko'rgani bordik, mevalari shunaqangi chiroyli ediki, odamning yegisi kelardi. Daraxtdan bitta mevani olar-olmasimdan yonimda ilonning vishillagan ovozi keldi. "Ey shaxzoda birgina shu xatoying uchun ilonga aylantirib qo'yaman. Qachonki dunyoda eng go'zal qiz senga tegishga rozi bo'lsa, shundagina o'z holinga qaytasan". Keyinchalik go'zal qizga uylangan ilon bir yumalab xushqomat shaxzodaga aylanibdi.

Ilon obrazining suv va hosildorlik, barhayotlik g'oyalari bilan bog'liqligi o'zbek folklori uchun xarakterlidir. Shuning uchun bu obrazni deyarli barcha janrlarda uchratish mumkin. Qolaversa, qadimdan xalq qarashida ilon boylik va o'g'il farzand ramzi sifatida shakllanib qolgan. O'zbek xalq lirikasini o'rgangan A.Musaqulov "O'zbek ertaklarida ilonlar (ajdarlar), ilon pari, ilonshoh obrazlari ko'p uchraydi. Mutaxassislar jahon xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar tasavvurida ilon, ayol va quyosh o'rtasida mustahkam aloqa mavjudligini aytadilar" deb, ilon tarixan totem bo'lib, keyinchalik badiiy ko'chimga aylanganligini izohlaydi (Musaqulov, 2010, 67-bet).

"Ilon pari" ertagida daraxt tagida bir pari qiz dam olib o'tirgan emish, podshoh qizni ko'rgan zamon hushidan ketibdi. O'ziga kelib qarasa, pari yuziga suv sepib turgan emish. Podshoh uning qo'lidan suvni ichib, saroyga olib kelibdi va to'y-tomosha bilan uylanibdi. Buvilarimiz: – Dashtda ko'rma ilon bo'ladi. Qirq yil odam ko'rmasa u pariga aylanadi-da, odamga kunduzi pari bo'lib, kechasi ilon bo'lib ko'rinadi, – der edilar. Hatto bugungi kunda ham goh hazil, goh rosti ayollar ilonga o'xshatiladi. Xalq qo'shiqlarida qizlarning nozikligi, go'zalligi yoki sochining uzunligi ilonga o'xshatilgan bo'lsa, ertak va dostonlarda ilon – pari, (pari – go'zallik) muhabbat egasi, oila ramzi, qayta tirilturuvchi (evrilish) sifatida gavdalanadi. Uydan oq ilon chiqsa, irim qilinib o'ldirilmagan. Chunki oq ilon nargi dunyodan xabar beruvchi arvoh yoki uyning egasi (qo'riqchisi) sifatida ulug'langan.

"Uch og'a-ini botirlar" (Ertaklar to'plami, 2000, 90-bet) ertagida jasurlikni ko'rishimiz mumkin: " – Endi men o'zimning qilgan yaxshiligimni aytay, – debdi Kenja botir va ariqdan chiqqan ilon voqeasini aytibdi. O'sha joyda ikki bo'linib

yotgan ilon tanasini olib kelib koʻrsatibdi. Podshoh qilgan ishidan pushaymon boʻlibdi. Kenja botirdan uzr soʻrabdi". Uch ogʻa-ini botirlar ertagining shu qismidan bilishimiz mumkinki, ilon obrazining badiiy koʻchim tizimida turlicha mazmun-mohiyatni yetaklaydi. Bu oʻrinda ilon yomonlik keltiruvchi dushman. Uning oʻldirilishi Kenja botir uchun omad keltirdi.

"Ilonning ishi zahar solmoq" ertagida ilon yaxshilikka yaxshilik emas balki, yomonlik qilish payida boʻldi. Bir choʻpon daladan qaytayotganda, katta ariqning narigi yogʻidagi toʻqayga oʻt ketganini koʻribdi. Bir vaqt suv boʻyiga kelib qarasa, qamish ichida bir katta ilon vishillab kuyib ketayotgan emish. Choʻponning rahmi kelibdi, qoʻlidagi uzun tayoqning uchiga xaltani boylab ilon tomonga uzatibdi. Ilon jon holatda oʻzini xaltaga uribdi, choʻpon xaltani tortib olib, ogʻzini ochibdi, ilonni yerga tushiribdi. Lekin choʻponning bu yaxshiligiga ilon yomonlik bilan uni chaqishga urinibdi. Oqibatda, *"yaxshilikka yaxshilikmi yoki yomonlikmi?"* – degan savolga sigirdan, daraxtdan va tulkidan javob qidirishibdi. Bundan koʻrinadiki, jamiyatimizdagi ba'zi insonlar yaxshilik sari intiladigan va yaxshilik yoʻlida qay holda boʻlsa ham, yordam beradi. Afsuski, hayotda yaxshilikka yaxshilik bilan emas, balki yomonlik bilan javob qaytarguvchilar ham mavjud.

"Goʻroʻgʻlining tugʻilishi" dostonida ham ilon obraziga xos badiiy oʻxshatmani uchratishimiz mumkin. Ahmadbek Goʻroʻgʻlining Yovmit elidan araz urib, kelmay ketgan kunidan beri shu uyda ilonday toʻlgʻanib, ayiqday agʻanab ham oʻgʻlidan, ham xotinidan ayrilib yotib edi. Ilon kabi insonlar uyga siqmaganidek, bu yerda Ahmadbek ham uyga sigʻmayapti (Goʻroʻgʻlining tugʻilishi, 1996, 30-bet). Oʻzbek xalqida "tiling yomonligidan bir uyga ham sigʻmaysan" degan iboralar xalqimiz tomonidan qoʻllanadi. Bu iboraning xalqimiz tomonidan qoʻllanilishi ham bejiz emas.

Ilon haqida faqatgina ertak, qoʻshiq yoki dostonlar bilan cheklanibgina qolmay balki, afsonalarni ham yaratishgan. Bu bilan ba'zi hududlarda ilonni afsonaviy shaklda e'zozlashlarini ham koʻrishimiz mumkin.

Hindistonda ilonga sigʻinish besh ming yildan koʻproq tarixga ega. Uning ildizlari oriygacha boʻlgan madaniyatning chuqur qatlamlariga borib taqaladi. Misol uchun, Kashmir haqidagi afsonalarda sudralib yuruvchilar vodiy hali cheksiz botqoq boʻlganida qanday hukmronlik qilgani haqida hikoya qilinadi. Buddizmning tarqalishi bilan afsonalar Buddaning najotini ilonga bogʻlay boshladi va bu najot Nayranjana daryosi qirgʻogʻida eski anjir daraxti ostida sodir boʻldi. Buddaning ma'rifatga erishishiga yoʻl qoʻymaslik uchun iblis Mara dahshatli boʻron qildi. Ammo ilon Buddaning jasadini yetti marta oʻrab, uni yomgʻir va shamoldan himoya qildi.

Umuman olganda “ilon” bilan bog‘liq bunday badiiy ifodalar xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xosligini, tafakkur va dunyoqarashini, so‘z san’atining bebaho shakllarini, maishiy hayot tarzi bilan bog‘liq jihatlarini namoyon etishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алавия М. (1974). Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Тошкент: “Фан” нашриёти. – 224 б.

2.Fayziyeva D. (2003). O‘zbek xalq ertaklarida ilon-odam obrazi. Folklorshunoslik. 1-kitob. – Navoiy. – B. 63-65.

3. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. (2010) – Toshkent: “Nasaf” nashriyoti. – 200 b.

4. Мусақулов А. (2010). Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: “Фан” нашриёти. – 308 б.

5. Uch og‘a-ini botirlar ertagi. (2000). Нашрга тайёрловчи М.Афзалов. – Тошкент: “Фан” нашриёти. – 600 б.

## “ALPOMISH” DOSTONIDA HOMIY OBRAZLAR

*Murodova Shahzoda Dilshod qizi*

*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*

*shahzodamurodova20@gmail.com +998976423436*

**Annotatsiya.** *Maqolada “Alpomish” dostonida uchraydigan homiy obrazi va ko‘makchi qahramonlarning mifologiya bilan bog‘liqligi, dostonda ularning asosiy vazifasi kabi masalalar to‘g‘risida fikr yuritildi. “Sarchashma” ko‘rsatuvi asosida folklorshunos olimlarning fikrlari ham keltirib o‘tildi.*

**Kalit so‘zlar:** *Doston, homiy obrazi, ko‘makchi qahramon, maqom, o‘zga makon, inert.*

**Abstract.** *The article discussed issues such as the image of the patron in the epich “Alpomish” and the relationship of supporting characters with mythology, their main role in the epic. Based on the “Sarchashma” show, the opinions of folklore scientists were cited.*

**Keywords:** *Epic, patron image, supporting character, status, other space, inert.*

Ma’lumki, Mustaqillik yillarida folklor materiallarini nashr etish ham sifat, ham miqdor, ham qamrov jihatdan oʻsdi. Jumladan, dostonning Berdi Baxshi, Poʻlkan baxshi, Ergash Jumanbulbul oʻgʻli, Bekmurod Joʻraboy oʻgʻli va Saidmurod Panoh oʻgʻli variantlari Toʻra Mirzayev tomonidan alohida kitob shaklida chop etildi. 1999-yilda Termiz shahrida “Alpomish” dostoni va uning jahon xalqlari epik ijodiyotida tutgan oʻrni” mavzusida xalqaro ilmiy anjuman oʻtkazildi. Ilmiy konferensiya materiallari oʻzbek, rus va ingliz tillarida bosmadan chiqarildi. Shu yili “Alpomish” dostoniga bagʻishlangan eng yaxshi tadqiqotlarning natijalari “Alpomish” – oʻzbek xalq qahramonlik eposi” nomli ilmiy toʻplamda oʻz aksini topdi. Bundan tashqari, doston folklorshunoslarimiz tomonidan monografik planda keng tadqiq qilindi. Bu borada, ayniqsa, H.Zaripov, T.Mirzayev, Sh.Turdimov, J.Eshonqulovlarning tadqiqotlari ahamiyatga molik.

Bugungi kunda “Alpomish” dostonini keng ommaga tanitish, dostondagi millatning milliy qadriyatlari, turmush tarzi va epik tafakkur hosilalarini oʻquvchiga yetkazish uchun ommaviy axborot vositalaridan ham foydalanilmoqda. Xususan, “Madaniyat va ma’rifat” telekanalida efirga uzatilgan “Sarchashma” turkum koʻrsatuvlari “Alpomish” dostoni tahliliga bagʻishlangan. Koʻrsatuvda dostondagi mifologik qarashlar, qahramonlarning funksional vazifalari, ramziy obrazlar tahlili keng yoritilib berilgan. Unda doston tahlilini yozuvchi va jurnalist Nazar Eshonqul, uning savollariga atroflicha javob bergan folklorshunos olimlardan Shomirza Turdimov va Jabbor Eshonqulovlar ishtirok etishgan. Shuningdek, koʻrsatuv yigirma qismdan iborat boʻlib, ayrim oʻrinlarda Oʻzbekiston xalq baxshisi Abdunazar Poyonov dostondan parcha kuylagan.

Ma’lumki, folklor asarlarida tasvirlangan epik qahramon xarakter-xususiyatlarinining yoritilishida homiy obrazi muhim badiiy funksiya bajaradi. “Homiy obraz qahramonning tugʻilishidan tortib, uning barcha sarguzashtlarida ishtirok etadi. Unga maslahat beradi, ogʻir shart va topshiriqlarni bajarishda, toʻsiqlarni yengib oʻtishda, “oʻzga makon”dan biror narsa yoki parini olib kelishda koʻmaklashadi.” (Nurmanov, 2007, 103-bet) Haqiqatan ham, xalq ogʻzaki ijodining ertak, afsona, doston kabi janrlarida bosh qahramonga koʻmaklashuvchi koʻplab homiy obrazi tasvirini uchratish mumkin. Jumladan, xalq eposlarining qahramonlik turiga mansub dostonlarida homiy obrazi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki homiy obrazi qahramonlik dostonlari uchun mezon sifatida qaraladigan “alplik tizimi”da yetakchi rol oʻynaydi. (Turdimov, 2023, 186-bet) “Alpomish” dostonida Shohimardon va Rajabxoʻja pirlari, shuningdek, chiltanlar qahramon homiysi, Qaldirgʻoch va Qorajon obrazlari esa koʻmakchi obraz hisoblanadi. Xususan, “Sarchashma” koʻrsatuvida “Alpomish” dostonidagi homiy va koʻmakchi obrazlar masalasiga doir fikrlar bildirilgan.

Boshlovchi Nazar Eshonqul ikki olimdan dostondagi Qultoy obrazining vazifasi, Alpomishning Qultoy qiyofasiga kirishi bilan bog‘liq epizodlar va ularning shaxsiyati borasidagi fikrlarini so‘ragan. Folklorshunos Shomirza Turdimov Qultoy obrazining mohiyatini to‘liq anglash uchun “Alpomish” dostoni bilan parallel to‘g‘ri keladigan “Go‘ro‘g‘li” dotonidagi Soqibulbul obrazi bilan taqqoslash kerakligini ta’kidlab o‘tadi. Olim o‘zbek folklorida, odatda, qahramonning otiga qarovchi shaxs homiy maqomida kelishini ta’kidlaydi. Shuningdek, u dostonda tasvirlangan Qultoy obrazi sifatlariga alohida to‘xtalib, uning katta kuch-quvvat sohibi ekanligi, to‘qson to‘qay yilqini bir “hayt” deb saflash kabi qobiliyatlarga egaligi, umuman olganda, Qultoy obrazida Boysun-Qo‘ng‘irot elining ma’naviy qiyofasi aks etganligini ta’kidlaydi. Folklorshunos bu boradagi fikrlarini davom ettirib: “Alpomishning chap yelkasida Shohimardon pirning, o‘ng yelkasida Qultoyning panja izi borligidan Qultoyning kuchini, quvvatini, maqomini anglayvering. Shomonlikda bir hayvondan ikkinchi hayvonga evrilish uning qayta yaralib, yangi maqomga ega bo‘lganini qayta yaralganini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan Alpomishning Qultoy qiyofasiga kirishi, Alpomishning Qultoy maqomiga teng bo‘lgani, g‘ayb olami vakiliga aylanganini bildiradi. Amir Temur haqidagi xalq kitoblarida uning piri vafot etganida endi uning o‘zi shu maqomga ko‘tarilganligi ochiq aytiladi. Zindonda olingan maqom Alpomishning Qultoy darajasiga yetganini, Qultoyning vazifasi va dostondagi o‘rnini ko‘rsatadi”. Folklorshunos Jabbor Eshonqulov esa Alpomishning Qultoy bilan kurash tushishi Qultoy obrazining oddiy emasligini, homiy obrazligini isbotlovchi dalil deb ko‘rsatadi. Olim Alpomishning aynan Qultoy qiyofasiga kirishida Alpomish doim o‘zini qo‘llab-quvvatlab turgan obraz maqomiga erishishi, u endi Qultoyning kuch-quvvatiga ega bo‘lishi, ma’naviy kamol topishi kabi yashirin ma’nolar borligini ta’kidlaydi. Yuqorida keltirilgan ikki folklorshunos olimlarning fikriga tayanib, Qultoy obrazining dostonda muhim ahamiyatga ega ekanligi, qahramonning maqsadiga erishish yo‘lida homiy obraz sifatida gavdalangani, vaqti kelganida esa qahramonning homiy obraz maqomiga erishib, ma’nan kamol topganini ko‘rishimiz mumkin.

Bundan tashqari dostonda uchraydigan chiltanlar ham yetakchi qahramonning homiy obrazi hisoblanadi. “Folklorda chiltanlar obrazi kishilarga yaxshilik ulashuvchi, ularning ruhini yovuz kuchlardan himoya qiluvchi Xizr obrazining yordamchilari sifatida talqin etiladi” (Turdimov, 2023, 49-bet). Darhaqiqat, chiltanlar obrazi dostonlarda, asosan, qahramonlarning ruhlarini tushda birlashtirishadi. Bu orqali qahramonlarning taqdiri birlashishidan darak berishadi. Xususan, “Alpomish” dostonida chiltanlar Alpomish va Barchinning ruhini ularning tushida birlashtirishadi va bu orqali oxir-oqibat Alpomishning yo‘li Barchin bilan kesishini anglashimiz mumkin.

Boshlovchi olimlardan dostonda o‘zining muhim o‘rniga ega obrazlardan biri Qaldirg‘och haqida, xatning Qaldirg‘och tomonidan topib olinishi va akasi Alpomishni inert (qahramonning sust holati) holatdan uyg‘otishi, ot tanlashda ko‘mak berishida qanday ma’no borligi, umuman, dostondagi Qaldirg‘och obrazining missiyasi nimadan iborat ekanligi haqida fikr bildirishlarini so‘raydi. Professor Shomirza Turdimov dostondagi Qaldirg‘ochning missiyasi mohiyatan Qultoyning missiyasi bilan kesishishi, ikkala obraz bir umumiy makonning fuqarolari ekanligi haqida so‘zlab, ayni vaqtda Qaldirg‘ochning Alpomishga singil, Yodgorga amma ekanligi jihatidan bu obrazning ijtimoiy hayot bilan bog‘liq o‘rinlarini ham sanab o‘tadi. Folkorshunos bu obrazning missiyasi nomidan anglashilib turganini ta’kidlaydi va xabarchi ramzlar orasida qaldirg‘ochning borligi xat topib olinishi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida so‘zlaydi. Olim Qaldirg‘och otga taqqan tumorga ham e’tibor qaratish kerakligini va unda Qaldirg‘ochning butun el duogo‘yi bo‘lib gavdalanishini aytib o‘tadi. Uning ta’kidlashicha, Qultoy va Qaldirg‘och xos odamlar bo‘lib, ular boshqa qahramonlar anglamagan haqiqatlarni anglaydilar. Masalan, Alpomish tanlagan otning tulpor ekanini Alpomishdan ko‘ra Qaldirg‘och tezroq anglaydi. Yana shu ta’kidlanadiki, oramizda dostonning har bir qahramonini eslatadigan kishilar bo‘lib, dostondagi obrazlar har bir qatlamning yig‘indisidir. Professor Jabbor Eshonqulov Qaldirg‘och obrazini ko‘makchi qahramon sifatida talqin etadi. Olimning fikricha, folklorda qahramon faoliyat ko‘satmasa ham, uning homiy yoki ko‘makchi obrazlari faoliyati qahramonning faoliyatda ekanligini ko‘rsatadi. Qaldirg‘och obrazi dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida har jihatdan mukammal ishlanib, doston voqeligida bu ko‘makchi obrazning ko‘magi, avvalo, xatni topib olgani, akasini Barchinni qutqarishga undagani, Qultoy oldiga yuborib, ot tanlagani, otning ilohiy tulpor ekanligini anglatgani, otni egarlagani va Alpomishni yo‘lga kuzatganida namoyon bo‘lishida o‘z aksini topishini ta’kidlagan. Yuqorida keltirilgan fikrlardan Qaldirg‘och obrazi dostonning barcha variant, versiyalarida uchraydigan, dostonda muhim o‘ringa ega obraz ekanligini, bu obrazsiz, doston mukammal bo‘lmasligini anglashimiz mumkin. Bizningcha, Qaldirg‘och obrazi homiy obraz emas, balki ko‘makchi qahramon. Chunki ko‘makchi qahramon ko‘plab o‘rinlarda yetakchi qahramonga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi, unga yordam berishi mumkin, lekin u baribir homiy obraz maqomiga teng kela olmaydi. Homiy obraz yetakchi qahramonni qiyin vaziyatlardan olib chiqishi va qahramonni o‘zi bilan teng maqomga erishishiga sababchi bo‘ladi.

Dostondagi Qorajon obrazi yana bir ko‘makchi qahramon hisoblanadi. Qorajonning ko‘makchi qahramonlik xususiyatlari uning, dastlab, Alpomish va Barchin bilan bir vaqtda tush ko‘rishida, Alpomish bilan do‘st tutinib, uning

nomidan Barchinga sovchi bo‘lib borishida, shartlarda Alpomish nomidan ishtirok etishida namoyon bo‘ladi. “Qorajon – chegaradagi odam. O‘z onasi, akalariga maslagi o‘gay – ikki o‘t orasida qolgan qahramon. Qalmoqning sakson to‘qqiz alpi, podshosi Barchinni olmoqchi. Qorajon esa Barchin Alpomish bilan ketsin, deydi. Alpomishga yordam beradi. Borib-borib o‘zi ham Boysun-Qo‘ng‘irotga muhojir bo‘ladi.” (Turdimov, 2023, 207-bet) Folklorshunos Jabbor Eshonqulov yuqorida ta’kidlaganidek, folklorda qahramon faoliyat ko‘satmasa ham, uning homiy yoki ko‘makchi obrazlari faoliyati qahramonning faoliyatda ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, Qorajonning Alpomish tarafidan poyga va kurashlarda ishtirok etishi ham Alpomishning faolligini anglatadi. Yuqoridagi fikrlardan dostondagi Qorajon obrazining ham ko‘makchi qahramon ekanligi va yetakchi qahramonning maqsadiga yetishishida qo‘llab-quvvatlovchi obraz ekanligiga amin bo‘lamiz.

Yuqoridagi tahlillar asnosida homiy obrazlar, umuman, folklor asarlarida, xususan, qahramonlik dostonlarida muhim ahamiyat kasb etishi anglashiladi. Qahramonlik dostonlarining asosiy mezoni hisoblangan “alplik tizimi”ni homiy obrazlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Qahramon bevosita o‘z homiylarining tarbiyasini oladi, ularning doimiy himoyasida bo‘ladi. Tahlillar asosida biz Shohimardon pir, chiltanlar va Qultoyni homiy obrazi, Qaldirg‘och va Qorajon obrazlarini esa ko‘makchi qahramon sifatida talqin etdik. Shuningdek, homiy obrazi qahramonning hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unga har qanday qiyin vaziyatda yordam beradi, uni o‘z maqomi sari yetaklaydi. Ko‘makchi qahramonlar ham o‘z o‘rnida qahramonga yordam ko‘rsatishadi, ammo homiy obrazidek yetakchi qahramonni o‘z maqomiga olib chiqolmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. “Sarchashma” turkum ko‘rsatuvi //Эпос - халқ руҳияти калити [20.11.2021] https://www.youtube.com/watch?v=Qpb_9Osodl8
2. “Sarchashma” turkum ko‘rsatuvi //Эпос - халқ руҳияти калити [27.11.2021] https://www.youtube.com/watch?v=qXnaJSaKSR0
3. “Sarchashma” turkum ko‘rsatuvi //Эпос - халқ руҳияти калити [04.12.2021] https://www.youtube.com/watch?v=Jh7ndhGGqWM
4. “Sarchashma” turkum ko‘rsatuvi //Эпос - халқ руҳияти калити [11.12.2021] https://www.youtube.com/watch?v=yaINyaI4VoE
5. Turdimov, Sh. (2023). O‘zbek mifologiyasi va folklori. (49, 186, 207-betlar). Toshkent.
6. Nurmanov, F. (2007). Xizr obrazi genezisi va uning o‘zbek folkloridagi talqini. (103-bet). Filol. fan. dok. diss. Toshkent.

# SAMARQAND VILOYATI QIPCHOQ LAHJASINING O‘RGANILISH TARIXI

*Rahmonova Dilso‘z Shukur qizi*

*ToshDO‘TAU Folklorshunoslik va dialektiktalogiya mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

*Rahmonovadilsoz410@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqola Samarqand viloyati qipchoq lahjasining o‘rganilish tarixini yoritib beradi. Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlar va erishilgan natijalar tahlil qilinadi. Shuningdek, Pastdarg‘om tumani lahjasining o‘rganilish darajasiga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada Samarqand viloyati qipchoq lahjasining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Lahjaning o‘ziga xos jihatlari misollar yordamida tushuntiriladi. Tadqiqot natijalari Samarqand viloyati qipchoq lahjasining o‘zbek tilshunosligi uchun ahamiyatini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kelajakda lahjani yanada chuqurroq o‘rganish zarurati ta’kidlanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Samarqand viloyati, qipchoq lahjasi, o‘rganilish tarixi, Pastdarg‘om tumani, fonetik xususiyatlar, leksik xususiyatlar, grammatik xususiyatlar, o‘zbek dialektologiyasi*

**Abstract.** *This article will cover the history of the study of the Kipchak dialect of the Samarkand region. The work carried out by the researchers and the results achieved are analyzed. Special attention is also paid to the level of study of the dialect of the Lowdargom district. The article details the phonetic, lexical and grammatical features of the Kipchak dialect of the Samarkand region. The specific aspects of the dialect are explained using examples. The results of the study show the importance of the Kipchak dialect of the Samarkand region for Uzbek linguistics. At the same time, the need for further study of the dialect is emphasized in the future.*

**Keywords:** *Samarkand region, Kipchak dialect, history of study, Pastdargom district, phonetic features, lexical features, grammatical features, Uzbek dialectology.*

O‘zbek tili turli lahja va shevalarni o‘z ichiga olgan boy va xilma-xil tildir. Ushbu lahjalardan biri Samarqand viloyati qipchoq lahjasi bo‘lib, u o‘zining o‘ziga

xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Samarqand viloyati qipchoq lahjasi asrlar davomida shakllangan va rivojlangan bo‘lib, mahalliy aholining turmush tarzi, urf-odatlari va an'analarini o‘zida aks ettiradi.

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi nafaqat o‘zbek tilshunosligi, balki turkologiya uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Lahjaning tadqiqi turkiy tillarning taraqqiyoti va o‘zaro ta’sirini o‘rganishga yordam beradi. Bundan tashqari, lahja ma’lum bir hududning tarixiy-madaniy merosini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi bir necha o‘n yilliklar davomida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Dastlabki izlanishlar XX asr boshlarida boshlangan bo‘lib, keyinchalik yanada kengaytirildi va chuqurlashtirildi. Turli davrlarda V.V. Reshetov, K.K. Yudahin, E.D. Polivanov, A.K. Borovkov kabi taniqli olimlar lahjaning fonetik, leksik va grammatik jihatlarini tadqiq etishgan.

Mustaqillik yillarida Samarqand viloyati qipchoq lahjasini o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbek tilshunoslarining yangi avlodi lahja tadqiqiga o‘z hissasini qo‘shdi. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Ishayev kabi olimlar lahjaning turli jihatlarini atroflicha yoritib berishdi.

Shu bilan birga, Samarqand viloyatining ba’zi tumanlari, jumladan, Pastdarg‘om tumani shevasi hali to‘liq o‘rganilmagan. Ushbu hududning o‘ziga xos til xususiyatlari tadqiqotchilar e’tiborini tortadi. Pastdarg‘om shevasining boshqa tumanlar shevalari bilan o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Samarqand viloyati qipchoq lahjasini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar XX asr boshlaridan buyon olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar turli usullar va yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilar lahjaning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini yoritish uchun tavsifiy, qiyosiy-tarixiy va statistik tahlil usullaridan foydalanganlar.

Tavsifiy usul lahja materiallarini to‘plash va ularning asosiy xususiyatlarini tavsiflashda qo‘llaniladi. Tadqiqotchilar lahja sohasidagi dala ishlarini olib borishgan, ya'ni lahjani o‘z muhitida kuzatish va o‘rganish orqali ma'lumotlar to‘plashganlar. Ular mahalliy aholi bilan suhbatlar o‘tkazish, og‘zaki nutqni yozib olish va so‘z boyligini qayd etish kabi usullardan foydalanganlar.

Qiyosiy-tarixiy usul lahjaning boshqa lahja va shevalar, shuningdek, o‘zbek adabiy tili bilan taqqoslash imkonini beradi. Tadqiqotchilar Samarqand viloyati qipchoq lahjasining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash uchun uni boshqa hududlardagi

o‘xshash lahjalar bilan qiyosiy o‘rganishgan. Bundan tashqari, lahjaning tarixiy taraqqiyotini kuzatish uchun eski yozma manbalardan ham foydalanilgan.

Statistik tahlil usuli lahja materiallarini miqdoriy jihatdan o‘rganish imkonini beradi.Tadqiqotchilar lahjadagi ayrim fonetik, leksik va grammatik hodisalarning uchrash chastotasini aniqlash uchun statistik ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlashgan. Bu usul lahjaning umumiy xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asr boshlarida V.V. Reshetov va K.K. Yudahin kabi olimlar lahja materiallarini to‘plash va tavsiflashga e’tibor qaratishgan (Решетов, 1940, 15-22 стр). Ular asosan lahjaning fonetik va leksik xususiyatlarini yoritishga harakat qilishgan. Keyinchalik E.D. Polivanov va A.K. Borovkov lahjaning grammatik tuzilishini ham o‘rganish zarurligini ta'kidlashgan (Поливанов, 1935, 72-стр).

Mustaqillik yillarida Samarqand viloyati qipchoq lahjasini tadqiq etishda yangicha yondashuvlar qo‘llanila boshlandi. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Ishayev kabi olimlar lahja leksikasini mavzuiy guruhlarga ajratib o‘rganish, sheva so‘zlarining etimologiyasini aniqlash, lahja va adabiy til munosabatlarini tadqiq etish kabi usullardan foydalandilar (Shoabdurahmonov Sh, 1983, 232-bet).

Pastdarg‘om tumani shevasi bo‘yicha A.Shermatov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida e’tiborga loyiq (Shermatov, 2008, 120-bet).Tadqiqotchi tuman shevasining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini batafsil yoritib bergan. U sheva materiallarini to‘plash va tahlil qilishda an'anaviy usullar bilan birga eksperimental fonetika usullaridan ham foydalangan.

Xorijiy tadqiqotchilar ham Samarqand viloyati qipchoq lahjasini o‘rganishga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Jumladan, nemis olimi G.Doerfer qipchoq lahjalarining tasnifiga oid tadqiqot olib borgan va Samarqand viloyati qipchoq lahjasiga oid muhim fikrlarni bildirgan (Doerfer, 1968, 276–294-bet).

Lahjani o‘rganishda aholining etnografik xususiyatlarini inobatga olish ham muhim sanaladi. Ayrim tadqiqotchilar, xususan, B.Jahongirov Samarqand viloyati qipchoq lahjasini o‘rganishda etnografik jihatlarni ham e’tiborga olish zarurligini ta’kidlagan (Jahongirov, 1987, 45-49-bet).

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi bo‘yicha olib borilgan ko‘p yillik tadqiqotlar natijasida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi fonetik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Unda unlilarda labiallashtirish hodisasi kuzatilib, /o/ va /o‘/ unlilari /u/ unlisi bilan almashishi mumkin. Shuningdek, ayrim undoshlar talaffuzida ham farqlar

mavjud. Jumladan, qipchoq lahjasida /q/ undoshi koʻpincha /gʻ/ tarzida, /k/ undoshi esa /g/ tarzida talaffuz etiladi (Shoabdurahmonov Sh, 1983, 232-bet).

Lahja leksikasi juda boy va xilma-xil boʻlib, unda turkiy, forsiy va arabiy soʻzlar faol qoʻllaniladi. Ayrim soʻzlar oʻzbek adabiy tiliga nisbatan farqli ma'nolarda ishlatilishi mumkin. Masalan, “qozon” soʻzi adabiy tilda “idish” ma’nosini anglatsa, lahjada “katta idish” ma’nosida qoʻllaniladi (Ishayev, 1993, 158-bet).

Grammatik jihatdan Samarqand viloyati qipchoq lahjasi bir qator oʻziga xos xususiyatlarga ega. Kelishik qoʻshimchalari va shaxs-son qoʻshimchalarida ayrim farqlar kuzatiladi. Fe'lning oʻtgan zamon shakllari ham adabiy tilga nisbatan farqlanishi mumkin (Asqarova, 1994, 44-bet).

Pastdargʻom tumani shevasi Samarqand viloyati qipchoq lahjasining ajralmas qismi boʻlib, umumiy xususiyatlar bilan birga oʻziga xos jihatlarga ham ega. Tuman shevasida ba'zi fonetik oʻzgarishlar, masalan, /h/ undoshining qoʻshilishi yoki tushib qolishi kuzatiladi. Shuningdek, shevada ayrim oʻziga xos soʻzlar ham mavjud (Shermatov, 2008, 120-bet).

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi hududiy jihatdan bir xil emas va ichki farqlanishlarga ega. Viloyatning turli tumanlarida lahja xususiyatlari bir muncha oʻzgarishi mumkin. Bu hol aholining kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyoti bilan bogʻliq boʻlishi mumkin (Shoabdurahmonov, 1983, 232-bet).

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi namunalarini oʻrganishda muhim manba hisoblanadi. Lahjada yaratilgan maqollar, topishmoqlar, ertaklar, dostonlar va qoʻshiqlar xalqning turmush tarzi, urf-odatlari va qadriyatlarini oʻzida aks ettiradi (Afzalov, 1960, 182-bet).

Lahja leksikasi xalq tabobati, hunarmandchiligi va qishloq xoʻjaligi sohalari bilan bogʻliq terminlarni oʻz ichiga oladi. Ushbu terminlarni oʻrganish orqali xalqning moddiy va ma’naviy madaniyati haqida qimmatli ma’lumotlar olish mumkin (Marufov, 1981, 98-bet).

Samarqand viloyati qipchoq lahjasining shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar muhim rol oʻynagan. Viloyatning geografik joylashuvi, savdo aloqalari va etnik tarkibi lahjaning oʻziga xos xususiyatlarini belgilab bergan (Ibrohimov, 1995, 84-bet).

Lahja taraqqiyotida adabiy til bilan oʻzaro ta’sir ham katta ahamiyatga ega boʻlgan. Bir tomondan, lahja adabiy tilga ta'sir koʻrsatgan boʻlsa, ikkinchi

tomondan, adabiy til lahjaning ayrim xususiyatlarini o‘zlashtirgan. Bu jarayon til taraqqiyotining tabiiy hodisasi sanaladi.

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar nafaqat o‘zbek tilshunosligi, balki turkologiya uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ular qipchoq guruhidagi boshqa tillar va lahjalarni o‘rganishda qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi (Johanson, 1995, 313–347-bet).

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalarini tahlil qilar ekanmiz, ushbu lahjaning o‘zbek tilshunosligi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tadqiqotlar lahjaning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini atroflicha yoritib bergan bo‘lsa-da, hali o‘rganilishi lozim bo‘lgan jihatlar ham mavjud.

Lahjaning fonetik xususiyatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qipchoq lahjasi o‘zbek adabiy tilidan ayrim jihatlari bilan farqlanadi. Unlilarda labiallashtirish hodisasi va undoshlarda /q/, /k/ kabi tovushlarning o‘zgarishi lahjaning o‘ziga xos jihatlaridan sanaladi. Biroq, bu o‘zgarishlar hududiy jihatdan qay darajada farqlanishi va boshqa omillar ta'sirida yuzaga kelishi masalasi hali to‘liq o‘rganilmagan.

Leksik jihatdan Samarqand viloyati qipchoq lahjasi juda boy va xilma-xil ekanligi aniqlandi. Lahjaning so‘z boyligi turli sohalarga oid terminlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, ayrim so‘zlarning kelib chiqishi va taraqqiyoti masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Kelgusida lahja leksikasining etimologik tahlili va boshqa tillar bilan qiyosiy o‘rganilishi yangi ilmiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Grammatik jihatdan lahja o‘zbek adabiy tilidan farqli xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Biroq, bu farqlarning kelib chiqish sabablari va tarixiy taraqqiyoti masalasi hali to‘liq o‘rganilmagan. Shuningdek, lahjaning sintaktik tuzilishi va stilistik xususiyatlari ham alohida tadqiqotlarni talab etadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Samarqand viloyati qipchoq lahjasi hududiy jihatdan bir xil emas va ichki farqlanishlarga ega. Viloyatning turli tumanlarida lahja xususiyatlari bir muncha o‘zgarishi mumkin. Bu farqlanishlarning sabablari va omillarini aniqlash uchun keng qamrovli dala tadqiqotlarini olib borish zarur.

Pastdarg‘om tumani shevasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar alohida e'tiborga loyiq. Ushbu tuman shevasining o‘ziga xos jihatlari aniqlanib, boshqa tumanlar shevalari bilan qiyosiy o‘rganildi. Biroq, Pastdarg‘om shevasining boshqa qipchoq lahjalariga munosabati va o‘zaro ta'siri masalasi hali to‘liq yoritilmagan.

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi o‘zbek xalq og‘zaki ijodining muhim manbalaridan biri ekanligi ham tadqiqotlar natijasida o‘z tasdig‘ini topdi. Lahjada yaratilgan folklor namunalari xalqning turmush tarzi va madaniyatini o‘rganishda qimmatli manba hisoblanadi. Kelgusida ushbu namunalarning janr xususiyatlari va badiiy-estetik qimmatini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Samarqand viloyati qipchoq lahjasining shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar katta rol o‘ynagan. Ushbu omillarning lahja taraqqiyotiga ta’sirini yanada chuqurroq o‘rganish uchun multidisiplinar yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shuningdek, lahjaning adabiy til bilan o‘zaro ta’sirini ham inobatga olish lozim. Bu ta’sirning yanada teranlashishi va kengayishi natijasida lahja va adabiy til o‘rtasidagi farqlar qisman yumshashi mumkin. Til taraqqiyotining ushbu jarayonini kuzatish va tahlil qilish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi o‘zbek tilshunosligi tarixida muhim o‘rin tutadi. Bir necha avlod tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan ishlar natijasida lahjaning asosiy xususiyatlari ancha yaxshi o‘rganildi. Tadqiqotlar lahjaning fonetik, leksik va grammatik jihatlarini atroflicha yoritib berdi.

Shu bilan birga, lahja tadqiqi hali tugallanmagan jarayon bo‘lib, kelgusida yangi izlanishlarga boy mavzu sanaladi. Samarqand viloyatining ayrim tumanlari, xususan, Pastdarg‘om tumani shevasini yanada chuqurroq o‘rganish va boshqa qipchoq lahjalariga munosabatini aniqlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Lahjaning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko‘rsatgan omillarni tadqiq etishda multidisiplinar yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq. Bu esa o‘z navbatida lahjaning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy qiyofasini ham yoritishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyati qipchoq lahjasini o‘rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bu boradagi izlanishlar nafaqat o‘zbek tilshunosligi, balki jahon tilshunosligi rivojiga ham munosib hissa qo‘shadi. Kelajakda lahja tadqiqini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish barcha tadqiqotchilarning muhim vazifasi sanaladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Решетов В.В. (1940) Основные особенности кипчакских говоров Самаркандской области. Научный бюллетень Самаркандского университета (15-22 стр.)

2. Юдахин К.К. (1941) Узбекский язык. Введение фонетика. Морфология. – Москва 138-стр.

3. Поливанов Е.Д. (1935) Материалы по грамматике Узбекиского языка. Введение фонетика и морфология. – Ташкент; 72-стр.

4. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Haydarov A., Rasulov I. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. 232-b.

5. Ishayev A. Samarqand viloyati qipchoq shevalari leksikasi [nomzodlik dissertatsiyasi]. – Samarqand; 1993. 158-b.

6. Asqarova M. Samarqand viloyati qipchoq shevalari fonetikasi [nomzodlik dissertatsiyasi]. – Samarqand; 1994. 144-b.

7. Shermatov A. Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumani o‘zbek shevalari. – Toshkent: Fan; 2008. 120-b.

8. Doerfer G. Die Klassifikation der Türksprachen. Zeitschrift der Deutschen Morgenländischen Gesellschaft. 1968; 118 (2), 276-294.

9. Jahongirov B. Samarqand viloyati qipchoq shevalarining etnografik xususiyatlari. O‘zbek tili va adabiyoti. 1987; (3), 45-49-b.

10. Daniyarov X. Opyt istoricheskogo izucheniya uzbekskix dialektov. – Tashkent: Fan; 1975. 130-s.

11. Rasuljanovna RN. Issledovaniya po kipchakskomu dialektu uzbekskogo yazyka [dissertation]. – Tashkent; 1984. 170-s.

12. Afzalov M. Samarqand o‘lkasi xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Badiiy adabiyot; 1960. 182-b.

13. Marufov Z. Samarqand viloyati shevalari leksikasi. – Toshkent: Fan; 1981. 98-b.

14. Ibrohimov S. O‘zbek tili Samarqand viloyati qipchoq shevalari tarixidan. Samarqand; 1995. 84-b.

15. Johanson L. On Turkic Converb Clauses. In: Haspelmath M, König E, editors. Converbs in Cross-Linguistic Perspective. Structure and Meaning of Adverbial Verb Forms. Berlin, New York: Mouton de Gruyter; 1995. p. 313–347.

16. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2016. – 176-b.

## MAQOL JANRI VA UNI DOSTONLARDA TUTGAN O‘RNI

*Rahimqulova Muhayyo Rahimqulovna*

*ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti*

*ta’limi fakulteti 1-kurs talabasi*

*rahimkulovamuhhayo@gmail.com +998915467196*

**Annotatsiya**. *Maqolada xalq og‘zaki ijodining janrlaridan maqol va uning janr xususiyatlari, maqolning folklorshunoslikda tutgan o‘rni, maqollarning nazariy asoslari, janriy xususiyatlari, qolaversa maqollarni boshqa janrlar bilan aloqadorligi o‘rganilgan. Xalq dostonlarida mavjud maqollar tahlil etilgan. Xalq og‘zaki ijodidagi janrlararo aloqadorlik xususiyatlari, maqollarning variantlilik jihatlari tadqiq etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Folklor, maqol, variant, tahlil, aloqadorlik, obraz, strukturaviy vazifasi, doston, voqea, janr, tahlil.*

**Abstract.** *In the article, the proverb and its genre characteristics, the role of the proverb in folklore studies, the theoretical foundations of proverbs, genre characteristics, and the connection of proverbs with other genres are studied in the article.The proverbs in folk epics areanalyzed. The characteristics of inter-genre communication in folklore,the variant aspects of proverbs have been studied.*

**Key words:** *folklore, proverb, variant, analysis, relevance, image, structural function, epic, event, genre, analysis.*

Maqol xalq og‘zaki ijodida eng faol janr hisoblanadi. Dunyo xalqlari folklorida esa eng ko‘hna janrlardan biridir. Maqol xalq ijodiyatining bebaho namunasi bo‘lib, xalqning qadimdan sayqal topib kelayotgan tajriba mevasi hisoblanadi. Milliy madaniyat, tarix va urf-odatlar, xususan, insonning tabiat va jamiyatga bo‘lgan munosabatlari maqollarda ixcham shaklda o‘z ifodasini topadi. Bu barcha turkiy xalqlar adabiyoti uchun xos xususiyat bo‘lib, ular har bir xalqning mentalitetini aks ettiradi. Insonlar o‘zlarining dunyoqarashi, maishiy hayot va fikrlash tarzidan kelib chiqqan holda hayotiy tajribalaridan olingan xulosasi sifatida maqollar paydo bo‘lgan. Shu xususiyati bilan maqollar xalq madaniyati, urf-odati, milliy tafakkuri, tarixiy va maishiy turmush tarzini o‘rganishda yetakchi janrdir.

Maqollar kattalar tomonidan ijro etilib, yoshlarning ongini o‘stirishga xizmat qiladi. Ularni to‘g‘ri so‘z, rostgo‘y, mehnatsevar, mard, jasur, salobatli va matonatli bo‘lishga o‘rgatadi, kishidagi eng insoniy fazilatlarni targ‘ib etadi. Shuningdek, yozuvchi, shoirlar va notiqlarning so‘z boyliklarini orttiradi, ularning asarlarini badiiy jihatdan g‘oyat ta’sirli qiladi. Yevropa va Amerika folklori mutaxassisi Archer

Teylor paremiologiya olamida mashhur bo‘lib ketgan quyidagi ta’rifni keltiradi. “Ta’riflab bo‘lmaydigan bir sifat borki, u bizga qaysi gap maqol, yoxud maqol emasligini aytib turadi. Shuning uchun hech qanday ta’rif jumlani maqol sifatida aniqlashga imkon bermaydi. Muayyan tilda so‘zlashmaydiganlar o‘sha tildagi maqollarni taniy olmaydilar, hamda ko‘plab maqollar Elizaveta va qadimgi ingliz tilida maqollik kasb etmaydi. “Maqol janriga aniq ta’rif berish imkonsiz”, degan da’vo bilan boshlagan Teylorning yuqoridagi, biroz kinoyli kirish so‘zlari dunyo paremiologlari tomonidan ijobiy qarshi olinadi. Darhaqiqat, maqol xalq ichida paydo bo‘lgani sabab, shu xalq vakillarigina maqollarni ajrata olish qobilyatiga ega bo‘ladilar (Toshpo‘latova, 2023, 60-bet).

Zotan, maqollardagi milliy elementlar uni matal, ertak, xalq qo‘shiqlari bilan bir qatorda milliy kolorotni aks ettiruvchi folklor janrlari safida yetakchi o‘rin egallashida muhim rol o‘ynaydi.

Folklorshunoslikda janrlararo munosabatlar o‘rganilar ekan, bir-biriga bog‘liq janrlar va ularning bir-biriga ta’siri, yoki bir janrning boshqa janr kesimida o‘ziga xos faollik darajasi, janriy xususiyatlarning maqsad va vazifalari tahlil etiladi. Shu ma’noda, eng yirik epik janr hisoblangan dostonlarda eng kichik va ixcham kompozitsiyaga ega maqol janrining uzviy aloqadorligi tahlil etilganda, har ikki janrning badiiy o‘ziga xos xususiyatlari ko‘zga tashlanadi.

Baxshilar Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Egamberdi Ollomurod o‘g‘li ijrosidagi “Alpomish” dostonida mavjud maqollar maishiy hayotning bir davriga mansub bo‘lsa-da, hududiy hamda subyektiv jihatdan farq qiladi. Doston variantlarida maqollarning ba’zi namunalari asl holida, ba’zilari esa baxshilarning ijro jarayonida vazn yoki vaziyat talabi bilan shevalarga moslashtirilib, qisman o‘zgartirilgan holda ishlatilgan.

Dostonda “O‘yinda o‘zgan, chinda o‘zadi” maqoli hayvonlar timsolida “xarakter” xususiyatlarini ochib bergan. Poygachilar har kuni ot sovutib yolg‘on poygaga qo‘yib keladi. Boychibor otlarning changini ko‘rmay qoladi. “O‘yinda o‘zgan, chinda o‘zadi” degan gap bor, hazil poygada otning changini ko‘rmay qoladi. Chin poyga bo‘lgan so‘ng qanday keladi? – deb, qalmoqlar sinchiga izza beradi. Zo‘rni zo‘r biladi, valini vali biladi,tulporni tulpor biladi (Alpomish, 2016, 160-bet).

Ya’ni, kuchli odam o‘ziday kuchli odamga teng keladi, ma’nosida qo‘llangan.

O‘yinda o‘zgan, chinda o‘zadi – dostonda nafaqat insonlarning aql-zakovati, qolaversa, hayvonlarning ham egasiga mehri ham o‘ziga xos qaysarliklari ajoyib tasvirlangan. Boychibor yolg‘on poyga bilan chin poyganing farqiga boradi. Shu

bois, yolg‘on uchun jon koyitmaydi. Zero, dostonda aytilgan “O‘yinda o‘zgan, chinda o‘zadi” maqoli orqali yana, mashqda qiyin bo‘lsa, jangda oson bo‘lishi kabi bir ta’kid ifodalanmoqda. Maqol gapning qisqa va zalvorli bo‘lishiga xizmat qilmoqda. Qolaversa, yuqorida ta’kidlaganimizdek ikki ma’noni ifodalashga – Boychibor otining zotdor, sezgir ekanini tasdiqlasa, yana masqda toblangan jangda g‘olib bo‘lishi ayon ekanligi tasdiqlanmoqda. Maqolning bugungi kundagi mazmunan ma’nodoshi “Mashqda qiyin bo‘lsa, jangda oson bo‘ladi” maqoliga teng keladi. Ko‘rinib turibdiki, maqollarning kompozitsion xususiyati zamon va makonning ta’siri bilan uzviy bog‘liqdir. Variantlilik ham har bir ijrochi, kuzatuvchi, tinglovchining hayot tajribasi, dunyoqarashi bilan yuzaga keladi. Dostonlarning variantliligi qatorida ularda mavjud maqollarning ham o‘ziga xos variantlari uchraydi.

Dostonlarda an’anaviy takrorlarning mavjudligi ham janrlarning o‘ziga xos jihatini asoslab turadi.

“Alpomish” dostonida Yortiboy oqsoqol tomonidan Boysariboyga qarab “Ushbu damning damlarini dam dema, boshing eson, davlatingni kam dema” degan maqol aytiladi. Boshiga tashvish tushgan insonni birgina shu iboraning o‘zi tinchlantirishi mubolag‘a emas. Qachonki u tajribali inson tomonidan va o‘z o‘rnida aytilsa.

Dostonlarda takror keladigan maqollar ham mavjud bo‘lib, ularning mazmun-mohiyati baxshining mahorati bilan o‘zgarib boradi. Masalan, “Ushbu damning damlarini dam dema, Boshing eson, davlatingni kam dema” maqol tizimidan shakllangan misralar “Malika ayyor”, “Kuntug‘mish” dostonlarida ham uchraydi. Ammo ijro o‘rni va mohiyati boshqa-boshqa mazmun uchun xizmat qiladi.

Masalan: “Avazning yarasi andak tuzalib, otga minadigan bo‘ldi. Otga minib, tog‘dan pastga tushib, Torkistonning cho‘liga Malika parini axtarib keta berdilar. Shunda Asad mergan Avazga qarab, Avaz sen mening esonligimdan g‘am yema deb, bir so‘z deb bora berdi:

Ushbu damning damlarini dam dema,
Shukur qilgan, davlatingni kam dema,
Men eson-da, Avaz o‘g‘lon, g‘am yema. (Malika ayyor, 2019, 5-bet)

Alpomish dostonida bu misra o‘z yurti qavmidan ko‘chib ketayotgan insonni tinchlantirishga qaratilgan bo‘lsa, keyingi dostonda yo‘lga otlanayotgan Avazni Asad mergan tomonidan xavotirlanmaslikni, ta’kidlovchi o‘zgacha mazmun mohiyat yotadi.

“Kuntug‘mish” dostonida esa ushbu qaytariqning asl mohiyati o‘zgacha ko‘rinadi. Masalan: “Qoraxon podsho o‘g‘lining dardini ishqdan bilib, ko‘ngli buzilib, yurak-bag‘ri ezilib, qaddi bukilib, ko‘zidan yoshi to‘kilib, o‘g‘liga qarab, bir so‘z aytib turibdi:

Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema,

Shukur qilgin, davlatingni kam dema,

Bir yor uchun yotarmikan mard kishi,

Bir yor bo‘lsa, bolam, yordam g‘am yema…” (Kuntug‘mish, 2021, 5-bet).

Yuqoridagi dostonlarda tinchlantirishga va xavotirlanmaslikni undovchi mazmunga qaratilgan bo‘lsa.

Bu dostonda esa Qoraxon podsho o‘g‘li Kuntug‘mishni shukur qilmoqlikka, vaqtida hamma narsani qadriga yetmoqlikka va qadrlamoqqa undaydi.

Har uchala dostonda berilgan takror bu termaning mazmun-mohiyati ijrochilarning va ijro o‘rnining boshqa-boshqa ekani bilan ham ajralib turibdi. Bu holat esa baxshilarning mahorati bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Ravshan qahramoni yovmit elining xoni Odilxon beklaridan jig‘alixonning o‘g‘li Gajdumbek nazariga tushgan obraz. Ravshan “Assalomu alaykum”, – deb Gajdumekning oldiga bordi. Gajdumbekning yuzi qamashib, nima deb gapirarini bilmay, qizi Bibi Hilolga “osh qil”, – deb buyurdi.

Ravshanbekka, “Manovi otni o‘tga qo‘y”, – deb buyurdi. Ana endi Gajdumbekning uyati ketdi,ko‘rgan izzalari biror tanob yerga yetdi. Ravshanbek dasturxonni yozib, obdastani qo‘liga olib, Gajdumbekningqo‘liniyuvdirib, shirai sharbatlarni olib qo‘ydi. Bu ishni Gajdumbek ko‘rib, “Elga el kelsa davlat,eldan el ketsa mehnat,” – dedi (Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi, 2021, 27-bet).

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ham maqollar o‘ziga xos tarzda ifodalangan. Dostonda berilgan “Elga el kelsa davlat, eldan el ketsa mehnat” maqoli bugungi kunda “Davlat kelsa, yo‘l ochar, davlat ketsa do‘st qochar” maqoliga mazmunan teng ko‘rinadi. Ushbu maqol orqali yurtning birlashishi katta davlat ekanligi ta’kidlanmoqda. Bu ta’kid doston g‘oyasini yanada aniqlashtirishga xizmat qilgan.

Dostonda Rustambek davlatli bo‘lib ketgan edi. Kelgan odamlarga ziyofat qildi. Lekin, mezbonlar Rustambek o‘g‘lingiz bir xil bolalarni urib, bir xilining qulog‘ini yulib, bir xillarini belgili bo‘lsin deb pichoq bilan qulog‘idan tilibdi. Shu qilgan ishi hamma katta-kichikka so‘z bo‘libdi. Zargar shahriga bu ishlar qattiq

tegibdi, – dedi. Shu oʻrinda ushbu maqol berilgan: “Bor maqtansa topilar, yoʻq maqtansa choyilar”. Ana shunda Rustam:

– Sizlar mehmon boʻlib kelgan ekansizlar, – dedi. Bir la’li tillani olib kelib, shu oʻtirgan amaldorlarning oldiga qoʻydi. Haligilar, bori bilan kim borabar boʻladi, deyishib, aytganiga pushaymon qilishdi. Bu Rustam boydir, har yerda boyligidan bizlarga zoʻrlik qiladi, – deb olamay qaytib ketdilar (Goʻroʻgʻlining tugʻilishi, 2021, 75-bet).

“Bor maqtansa topilar, yoʻq maqtansa choyilar” dostondagi ushbu maqol obrazlarning xarakter jihatlarni ochib bergan. Bu maqol xalq tilida “Maqtanganning uyiga bor, kerilganning toʻyiga bor”, “Maqtanma gʻoz – hunaring oz” variantlari bor. Maqtanchoqlik insonga xos ish emas, borliqda maqtanma, yoʻqlikda qaygʻurma deganidek, maqtanchoqlik – magʻrurlikdan dalolatdir, maqtanchoqlik va kibr bir-biriga juda yaqin sinonim soʻzlardir.

Dostonda keltirilgan “Es berganga dast berar, dast berganga es berar” maqoli voqea jarayonini aniqroq ochib berishga xizmat qiladi. Yilqichilar goʻristonga borib, baytalni bir arvohning emganini koʻrishadi. Bu voqeadan qoʻrqib ketgan yilqichilar Rustambekning oldiga shoshilishadi.

Voqeani eshitib Rustambekning yuragi “jiz” etdi. Rustam borib haligi yuragi yorilib ketganday boʻlib yotgan yilqichilarni gapga soldi.

– Nima koʻrdinglar? – dedi. Yilqichilar bizlar yap-yalongʻoch bir arvohni koʻrdik.Oʻzi yosh bachchaga oʻxshaydi – dedi, – “Es berganga dast berar, dast berganga es berar” – deganday Rustambek mozoristonda bir goʻrning oldiga borib aytdi” – Bibi Hilol singlimning qornida bolasi bor edi, shu tugʻib, bola shundan boʻlganmikan”.

Shu goʻr, singlim Bibi Hilolning goʻri, oʻzim mana bu toshni qoʻygan edim. Rustambek sahar vaqtida kelib goʻrni poylab yotdi (Goʻroʻgʻlining tugʻilishi, 2021, 63-bet).

“Es berganga dast berar, dast berganga es berar” maqoli dostonda oʻrinli qoʻllangan, voqealar rivojini juda chiroyli yoritgan. Bu maqolning bugungi kunda izohi keltirilmagan.

Umuman olganda, maqollarning oʻrganilishi oʻzbek millatining nomoddiy manbasi hisoblangan xalq ogʻzaki ijodi bilan bogʻliq ma’naviy merosni saqlab qolish hamda milliy madaniyati hisoblangan soʻz san’atini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqollar mazmuniy bir butunlik nomi ostida tadqiq etilar ekan, nutqiy birliklarni shakllantirish omili hisoblanadi. Xalq maqollari faqat badiiy asar matnida

emas, publitsistik, memuar asarlar matnida ham qo‘llanadi. Shuningdek, maqollar o‘z ijodkori bo‘lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og‘zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir. Uning xalq dostonlarida baxshilar tomonidan o‘ziga xos shaklda va variantda ijro etilishi, mahalliy ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda, badiiy g‘oyani ifodalash uchun muhim vosita ekanini ham asoslaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alpomish dostoni. (2016). Nashrga tayyorlovchhi: Hodi Zarif, To‘ra Mirzayev. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

2. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. (2021). Aytuvchi: Muhammad Jomurot o‘g‘li Po‘lkan shoir. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat.

3. Kuntug‘mish dostoni. (2021). Nashrga tayyorlovchi: Hodi Zarif. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat..

4. Malika Ayyor dostoni. (2019). Nashrga tayyorlovchi: Hodi Zarif. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat.

5. Toshpulatova, D. (2023). O‘zbek va ingliz folklorshunosligida maqol janri talqini. O‘zbek tili va adabiyot. 2, 60-64-bet.

## XALQ DOSTONLARIDA GO‘ZAL YOR TASVIRI VA TAHLILI

*Rahimqulova Ohista Annaqul qizi*

*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi*

*fakulteti 2-kurs talabasi*

*ohistarahimqulova@gmail.com*

*+998943636251*

**Annotatsiya:** *Maqolada badiiy asardagi va xalq dostonlarining ayrim turlaridagi go‘zal yor (ayol) tasvirining ba’zi o‘rinlari tahlilga tortildi va badiiy asar bilan muqoyasa qilindi.*

**Kalit so‘zlar:** *Xalq dostonlari. Romantik doston. Qahramonlik dostoni. Badiiy asar. Go‘zal yor.*

**Annotation:** *This article artistic in a work and people epics some types beautiful place (a woman) of the image some seats to the analysis and a work of art with was compared.*

**Keywords**: *folk epics.a romantic epic.the sage of addiction.a work of art.beautiful place.*

*Jomon xotin kepak bermay o‘g‘ri qilar itini,*

*Oshtaxtaga g‘archillatib o‘ltiradi bitini.*

*Xalq maqoli.*

Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan xalq maqolining turli ko‘rinishdagi variantlari mavjud: “Erni er qiladiganam xotin, qaro yer qiladiganam xotin”, “epli xotin, sepli xotin” kabi. Biroq maqolamiz aynan bu haqida emas. Maqolamiz sevikli yor, vafodor ayol obrazining xalq dostonlaridagi tasviri va tahlili xususida. Bizga ma’lumki,badiiy adabiyotni nasrni, nazmni go‘zal mashuqa obrazisiz tasavvur qilish mushkul, albatta. Aynan bu obrazning tub ildizi, genezisi ilk syujetdagi Momo Havvoga borib taqaladi. Badiiy adabiyotda bu obrazni, ya’ni yorga bo‘lgan muhabbat botiniy ma’noda Yaratiqqa bo‘lgan muhabbat deb talqin qilinadi va har bir asarda, eposda, romanda aynan oshiq-mashuqa-raqib (ag‘yor) obrazlari keladi va bu obrazlar Odam Ato – Momo Havvo – iblis uchligiga o‘xshatiladi. Zeroki, go‘zal yorga umuman insonlarning bir-biriga bo‘lgan sevgisi bu albatta go‘zal tuyg‘ular sanaladi va chin yurakdan sevgan inson qalbida ezgu tilaklar,sof tuyg‘ular hukmron. Bu albatta Yaratganga yaqinlik uni sevish, bizningcha! Bu haqida juda ko‘plab yozilishi, gapirilishi mumkin, lekin biz fikrimizni muxtasar qilsak-da, maqolamizning asosiy qismiga o‘tsak. Adabiyotshunoslarimiz ta’kidlab o‘tganidek:

*“Epos millatning pasporti, eposi tan olinmagan davlat millat ham, davlat ham bo‘la olmaydi”*

Albatta, yuqoridagi fikrlar juda asosli va to‘g‘ri. Illo har bir xalqning nafaqat eposi, balki uning adabiyoti, ma’naviyati orqali biz o‘sha xalq haqida uning madaniyati, urf-odatlari, rasm-rusmlari, hattoki e’tiqodi to‘g‘risida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin. To‘g‘ri xalq dostonlarida go‘zal qiz, suyukli yor turlicha doston turlariga ko‘ra uning ishtirokini inobatga olgan holda turlicha ta’riflanadi, talqin qilinadi. Dastlab biz badiiy adabiyotdagi go‘zal yor tasvirini berishni joiz topdik: *“O‘tkan kunlar” romanida Kumush tasviriga e’tiborimizni qaratsak: “Uning qora zulfi par yostiqning turlik tomonig‘a tartibsiz suratda to‘zg‘ib,quyuq jinggila kiprak ostidag‘i tim qora ko‘zlari bir nuqtag‘a tikilgan-da nimadir bir narsani ko‘rgan kabi…qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis,*

*qiyig‘ qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi…to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi biroz qizilliqg‘a aylangan-da, kimdandir uyalg‘an kabi…”*

Juda go‘zal-a?! Ushbu jumlarni o‘qiyotib, yozayotib hech tugatgisi kelmaydi odamning, go‘yo o‘sha go‘zal ko‘z oldimizda bor bo‘y basti bilan gavdalangandek. Yoki dostonlarimizning gultoji hisoblanmish “Alpomish” qahramonlik turiga mansub dostondagi yor tasvirini ko‘rib o‘tsak “Shul vaqtlarda Barchin ham barkamol, bo‘yi yetgan, har yag‘irini o‘n besh qarich keladi, bu ham alp”. Bu albatta, yuqorida aytib o‘tganimizdek qahramonlik dostoni Barchin – alp qiz, ayol, balki unga yanada jimjimador so‘zlar bilan badiiyat berish, ta’riflash muhim emasdur. Uning ta’rifiga e’tibor beradigan bo‘lsak beixtiyor bu qiz bolami o‘zi deymiz. Bu bejizga xalq dostoni, xalq og‘zaki ijodi emas, unda mubolag‘aga keng o‘rin berilishi bu albatta, tabiiy bir hol. Lekin bizningcha, aynan yor, ayol obraziga yanada chiroyliroq ta’riflanishi zarurmidi, illo u alp bo‘lsa-da, avvallo u nozik xilqat vakili aynan uning boshqa vakillardan ajratib turadigan ham uning shu jihatlari hisoblanadi. Bu xalq dostoni u o‘z nomi bilan xalqniki og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan, uni o‘zgartirishning iloji bordir, ammo uning qanaqadur badiiyligiga putur yetar, zero u shunday saqlanib qolgan, shunday bizga yetib kelgan. Endi biz xalq dostonlarining ishqiy-romanik turidagi go‘zal yor ta’rifiga o‘rin beramiz. “Kuntug‘mish” dostoni Kuntug‘mish Xolbekaning suratini ko‘rgandagi ta’rifi: *“Xolbeka oyimning to‘lgan kamoli oyday jamoli munavvar bo‘lib turibdi”.* Qoraxon Xolbekaning ko‘rgandagi ta’rifi: “Qog‘ozda bir qiz turibdi qayqayib qoshini kerib, labini burib, chikka bel bo‘lib, shirin qilib qilib kulib, taraqqos boylab, suqsurday bo‘ylab, tovusday taranib, bellari buralib turibdi. Qoraxon insof qilib qarasa, No‘g‘oy yurtining qizi tuva yer yuzining barnolari bir tola mo‘yiga arzimaydi”. Albatta maqola o‘quvchisida o‘z-o‘zidan savol tug‘iladi, oshiq bu yerda Kuntug‘mishmi yoki uning otasi Qoraxonmi? Chunki Xolbekani Kuntug‘mish ko‘rgandagi ta’rifi hajmi, qamrovi juda qisqa. Qoraxon ko‘rgandagi ta’rifi esa juda chiroyli ta’riflangan shahzoda bir necha marta Xolbekani su’ratini ko‘rar ekan qayta-qayta xushini yo‘qotadi uning go‘zalligini ta’riflashga majoli yetmas shu jihatdan doston kuylayotgan baxshi Xolbeka ta’rifini mukammalroq qilib Qoraxon zimmasiga yuklagan, bizningcha. Endi yana bir shu turga mansub dostondagi yor tasvirini ko‘rib o‘tsak: “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonidagi Bibi Hiloloyning Ravshan ko‘rgandagi ta’rifi: *“Ravshanbek tiklab qarasa, hur tal’atli, maloyika kelbatli, shirin so‘zli, jodu ko‘zli, zulfi tol-tol bo‘lib betiga tarmashgan latibasi labiga tushgan, munchoqlari kindikdan oshgan”.* Albatta, bu ham ishqiy-romanik turdagi doston namunasi, bu albatta tabiiy hol bo‘lishi joizdir.

Xulosa qilib aytganda, har qanday adabiy tur, janr, nasr, nazm bo‘ladimi, ularning barchasida yor tasviri juda go‘zal va chiroyli ta’riflar orqali beriladi,

ta’riflanadi. Zero go‘zal qizni, yorni sevish yuqorida ta’kidlaganimizdek uning botinida buyuk Yaratiq turadi. Biz yuqoridagi fiklarimizga qo‘shimcha tarzda shuni aytib o‘tishimiz lozimki, qahramonlik dostonlarida ham qizni, yorni ta’rifiga kengroq va go‘zalroq ta’riflashimiz lozim deb topdik. Mayli qanday bo‘lishidan, qanday ta’riflanishidan qat’iy nazar xalq dostonlari bizning milliy va o‘lmas, qimmatli boyligimizdur. Ularni boricha qadrlash, qabul qilish va ertaga bizdan keying avlodga ham yetkazib berishimiz lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Alpomish” dostoni. “Zukko kitobxon” nashriyoti – 2022, 44-bet

2. “Kuntug‘mish” dostoni Ilm-ziyo-zakovati. T.: - 2021, 7-10-betlar

3. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni. Ilm-ziyo-zakovati. T.: – 2021, 14-bet

4. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romani “Sharq” nashriyoti. T.: - 2005, 28-bet.

## YAKKABOG‘ SHEVASIDA AN’ANAVIY LEKSIKADAGI SHEVAGA XOS SO‘ZLARNI O‘RGANISH

*Toshtemirova Gavhar Quvvataliyevna*

*ToshDO‘TAU Folklorshunoslik va dialektologiya yo‘nalishi 2-kurs magistranti*

*gavhartoshtemirova@mail.ru +998911000654*

**Annotatsiya.** *Ma’lumki, so‘nggi yillarda respublikamizda tilga bo‘lgan e’tibor jadal sur’atda rivojlanib bormoqda. Shu munosabat bilan yurtimizning turli hududlarida yashovchi aholi shevasining o‘zbek adabiy tiliga munosabati masalasini o‘rganish dolzarb masalaga aylandi. Jumladan, Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani Terak qishlog‘i va unga tutash hududlar shevasiga xos bo‘lgan leksikani tahlil qilish hamda uning o‘zbek adabiy tilida tutgan o‘rnini o‘rganish katta ahamiyatga ega.*

**Kalit so‘zlar:** *Dialekt, leksika, sheva, shevaga xos so‘zlar, fonetik o‘zgarishlar, qarluq.*

**Annotation.** *It is known that in recent years attention to the language has been rapidly developing in our republic. In this regard, the study of the relationship of the dialect of the population living in different regions of our country to the Uzbek literary language has become an urgent issue. In this article, the main criterion is the analysis of the vocabulary of the names of dishes characteristic of the dialect of*

*the village of Terak, Yakkabog district, Kashkadarya region, and the study of the question of its relationship with the Uzbek literary language.*

**Key words:** *dialect, vocabulary, adverb, dialect words, phonetic changes, deafness.*

**Kirish.** Har qaysi adabiy til milliy xalq yoki millat tilining yuksak bosqichi bo‘lib, u me’yorlashgan yoki me'yorlashtirilgan til hisoblanadi.

O‘zbek adabiy tili bir necha tamoyillardan foydalaniladi: fonetik, fonematik, morfologik, grafik, tarixiy-an`anaviy, ramziy va boshqalar.

Har bir adabiy til o`zining tayanch dialektiga ega bo`ladi. To`g`ri, o`zbek adabiy tilining shakllanishida shevalarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etadi, lekin ma`lum shevalar adabiy til uchun asos, tayanch (baza) vazifasini bajaradi, ya`ni o`zbek adabiy tili muayyan sheva va shevalardan leksik, fonetik, grammatik xususiyatlarni adabiy til fakti sifatida oladi hamda o`sha sheva va shevalar guruhi taraqqiy etishi bilan birga taraqqiy etadi, chunki sheva jonli til bo`lib, u doimo rivojlanishda, o`zgarishda bo`ladi, shu tufayli ham adabiy til shu sheva yoki shevalar guruhi rivojlanishi bilan bog`liq ravishda taraqqiy etib boradi, aksincha, adabiy til o`zining tayanch dialektiga ega bo`lmasa, u bora-bora muomaladan chiqib ketadi. O`zbek adabiy tili shartli ravishda fonetik jihatdan Toshkent shahar dlalektiga, morfologlk jihatdan esa Farg`ona dialektiga tayanadi. Farg`ona dialektidagi so`z shakllari, asosan, fe`l shakllari xususan o`zbek adabiy tiliga norma sifatida qabul qilingan. Aslida adabiy tilni bir yoki ikki sheva yoki dialekt bilan bog‘lab qo`yish juda ham to`g`ri emas, balki o`zbek adabiy tili shevalar hisobiga boyib, mukammallashib borishini bilamiz. Shu ma`noda shevalar adabiy tilning boyish manbai bo`lib qoladi. Garchand, adabiy tilda qarluq-chigil-uyg`ur lahjasining unsurlari ko`p uchrasada, unda qipchoq va o`g`uz lahjalarining xususiyatlari ham norma sifatida ishtirok etgan o`rinlar mavjud. Masalan, adabiy tildagi *jun, jo`natmoq, joni, jo`nalish* so`zlari qipchoq lahjasiga xosdir. Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarning aks etishi dilektizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi mavzuni aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham *fonetik dialektizm*, *morfologik dialektizm* va *leksik dialektizm* turlariga ega bo‘ladi. *Fonetik dialektizm* badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarning aks etishidir. Masalan, *onakki/ikki* (Marg‘ilon), *galdi/keldi* (Xorazm).

*Morfologik dialektizm* badiiy asarda shevaga xos morfologik elementlaming qo‘llanishidir. Masalan, *Shotto* – shu yerda “Qora ko‘zlar”, *gech galdingiz* “Xorazm”.

*Leksik dialektizm* shevaga oid so`zlarning badiiy asarlarda qo‘llanishidir. Masalan, darponmanlar – bezovtalanmanglar “Xorazm”, Badiiy adabiyot tili xalq (millat) tili boyliklarining qayta ishlangan ko`rinishidir. Shu jarayonda badiiy so`z ustalarining voqea yoki qahramon sarguzashtlari o`tadigan shevaga murojaat qilishlari e`tirof etilgan.

Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Badiiy adabiyotda adib dialektizmlardan ikki o`rinda foydalanadi, ya`ni dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko`rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida hamda adabiy tilda sinonimi bo`lmagan so`zlarni imkonsizlikdan qo`llaydi. Hatto butun boshli badiiy asarda mahaliiy sharoit, mahalliy mentalitetni, ruhiyatni ifodalashda to`lig`icha sheva xususiyatlaridan foydalangan holda tasvirlaydi. Bunga J.Sharipovning “Xorazm”, T. Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarlarini keltirish mumkin. Shuni ta`kidlash lozimki, dialektlar adabiy tilning boyishi uchun tabiiy manbalardan biri bo`lib qoladi. Dialektizmlarning adabiy tilga singib ketish jarayoni dastlab qiyin kechadi, lekin badiiy adabiyotning ta`sirchan kuchi orqali bir asarda qo`llangan dialektizm keyingi asarlarga o`tadi va shu tariqa umumxalq mulkiga aylanadi va adabiy tilda o‘zlashib ketishini ta’minlaydi.

Bizga ma’lumki, “Har bir til va dialekt leksik tarkibi asosini xayotiy zarur tushunchalar ifodasi bo‘lgan, davrlar mobaynida turg‘un va yashovchan bo‘lgan, shu til egalarining barchasi uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar tashkil qiladi. Bularga tabiat hodisalari (chaqmoq, yomg‘ir, shamol, qor), tabiiy unsurlar (suv, daryo, daraxt, tog‘, tosh), holat – harakat (yurmoq, uxlamoq, ichmoq) ni va shu kabilarni ifodalovchi so‘zlar kiradi. Bu so‘zlar o‘zbek tilida so‘zlashuvchi jamoa uchun umumiy bo‘lganidek, shevalar uchun ham umumiydir. Shunga ko‘ra, o‘zbek tili leksik tarkibining asosiy qismini tashkil etuvchi so‘zlar o‘zbek shevalari va o‘zbek adabiy tili leksik tarkibining ham asosiy qismini tashkil etadi ” (Reshetov. B.B, Shoabduraxmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi, - Toshkent, 1978, 162 – bet.).

Boshqa shevalarda bo‘lgandek, Yakkabog‘ “ ye ” lovchi qarluq shevasida ham aynan shunday xolatda ko‘rish mumkin. Chunki bu sheva vakillari nutqida

ham adabiy tildan o‘rin olgan leksemalar, ko‘pincha fonetik o‘zgachaliklar bilan qo‘llanaveradi. Shunday leksikalar jumlasiga: ko‘ra, qiyiz (qingiz), gilam, dasturxan (dasturxon), chaynak (choynak), piyala (payola), kasa (kosa), qoshiq, qozan (qozon), kabi uy-ro‘zg‘or buyumlari; non, qont (qand), sho‘rva, paluv, (palov), qotiq (qatiq), sut singari oziq-ovqat nomlari, kaklik, chumchiq (chumchuq), kaptar, ot, eshak, tuya, qo‘y, echki kabi xayvonlar; tol, terak, jontaq (yantoq), g‘o‘za, mosh, zig‘ir, arpa, badring (bodiring) qabilidagi o‘simliklar, don va meva nomlari; xandaq, soy, tov (tog‘) kabi geografik nomlar va boshqalar kiradi.

To‘plangan materiallarni adabiy tilda uchramaydigan, faqat region she-vasiga xos leksemalarni uch guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq. Ular quyidagilardan iborat: 1) adabiy tilda muqobili bo‘lmagan so‘zlar; 2) adabiy tilda muqobili bor so‘zlar; 3) adabiy til leksemalar bilan sheva leksemalari ma’nolaridagi o‘zgachaliklar.

1. Adabiy tilda muqobili bo‘lmagan so‘zlar. Muayyan bir sheva vakillarining moddiy turmush kechirish tarzlari, ular joylashgan hududning iqtisodi, ma’lum bir joyda u yoki bu ishlab chiqarish soha-sining rivojlanishi tufayli shu xududda ishlovchi aholi leksikasida boshqa hududlardan farq qiluvchi so‘zlar yuzaga kelgan. Masalan, chorvachilik bilan shug‘ullanadigan joylarda chorvachilikka oid, dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lingan regionlarda g‘allachilik, bog‘dorchilik, paxtachilik va shunga o‘xshash sohalarga oid maxsus so‘z va terminlar xossasi paydo qilingan. Bundan tashqari, biror hududda qadimdan o‘troq bo‘lib ishlab kelgan aholi boshqa hududlarda yashovchi aholidan o‘ziga xos moddiy-madaniy turmush tarzi, aholi ruhiyati va boshqa ko‘plab xususiyatlari bilan ham bir muncha farqlanadi. Bu omillarning barchasi, tabiiyki, sheva vakillari tilining leksikasida o‘zining yaqqol ifodasini topgan. Garchi, o‘zbek tili shevalarining leksik tarkibida an’anaviy leksika asosiy o‘rinni egallasada, qayd etilgan omillar u yoki bu shevada faqat shu shevagagina xos bo‘lgan, adabiy tilda qo‘llanmaydigan leksik qatlamning nutqida saqlanib, lokal xarakterga ega bo‘lib qolgan (Турсунов, Мухторов, Рахматуллаев, 1969, 159-160-бетлар).

Adabiy tilda qo‘llanmaydigon, faqat shevalargagina xos leksemalarga quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin: *kurtik* – qishda aravaning katta g‘ildiragi bosimida xosil bo‘lgan iz; *onata* – ekin ekilgandan keyin u unib chiqqunga qadar birinchi sug‘orish; *dalla* – mevaning yeyishga yaroqli qismi; *chapchaqovun* – to‘liq yetilmagan qovunga nisbatan aytiladi; *yachmich* – issiq nonni maydalab qaymoq aralashtirilib tayyorlanadigan taom; *kelichak* – quritilgan mevalarni solib maydalashga moslashgan temir idish; *kelisop* – mevalarni urib ezishda ishlatiladigan temirdan yasalgan buyum; Senam Jumanning ulig‘a o‘shqap

*gavso‘qat* (o‘zidan besh-olti yosh kichik bolalar bilan o‘ynaydigan bola ma’nosini ifodalaydi) bo‘p qoldingma, hech ko‘chadan kelmay qolding (Yakkabog‘–Terak); Olim *g‘indanak paypanglab* tikanni ichiga kirib ketdi (Yakkabog‘ Terak); Anavi *ganajik shippilab* suvga borib keldi (Yakkabog‘, Turon). Respondentlarning izoh berishlaricha “*gavarak* ham *ganajik* ham bir xil ma’noda, ya’ni, kichkina o‘zini eplay olmaydigan lekin sho‘x bolaga nisbatan aytiladi. Bu so‘zlarningni adabiy tilda aynan ma’nosi ko‘rsatilmagan.

2. Adabiy tilda muqobili bo‘lgan shevaga xos so‘zlar. O‘zbek tili sheva va lahjalarning xilma-xilligi, ulardan har qaysisining o‘ziga hos leksik qatlamalari mavjudligini tasdiqlovchi omillardan yana birini quyidagicha sharxlash mumkin: u yoki bu shevada mavjud bo‘lgan leksemalarning ma’nosi adabiy tilda yoxud o‘zga shevalarda boshqa-boshqa leksemalar bilan ifodalanadi: bunday so‘zlar shaklan bir-biriga mutlaqo o‘xshamaydi, lekin ular real borliqdagi ayni bir tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi.

To‘plangan materiallardan Yakkabog‘ tumani Qarluq shevasida ham ayni shu xildagi ko‘plab munosabatdosh so‘zlar mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Sheva vakillari nutqida “shippa borib, shippa qayt” degan jumla ko‘p ishlatadi. Unda shippa leksemasi adabiy tildagi g‘irillab so‘zi anglatgan ma’noni qoplay oladi. Shu bilan birga, adabiy tilda shippa so‘zining manosini tez, darrov kabi so‘zlar hamda oyoqni qo‘lga olib frazeologizmi bilan ifodalanish mumkin. Masalan, Jamshid bozorga *shippa borip, shippa qayt* (Yakkabog‘, Terak). Hamsiya *xashmanlab* yopishmasdan oldin haqiqatni bilingda! bu yerda “xashmanlab” so‘zi adabiy tildagi “bilmay” so‘zining aynan o‘zi. Fonetik jihatdan farqlansada, “bilmay” so‘zi bilan aynan ma’nodoshdir. Malla momo yoshi kata bo‘lsayam, shunday *qirqqopar* (bu yerdagi “qirqqopar” leksemasi adabiy tildagi “yolg‘on” so‘zi bilan bog‘liq sinonimdir). To‘plangan materiallarni tahlil qilib ko‘rilganda, quyidagi so‘zlarga oid leksemani shevada ishlatilib, ularning o‘zbek adabiy tilida ham muqobillari borligi aniqlandi: *lovlovi* – lavlagi; *chsnak* – chesno‘k; *bolgar* – bulg‘or qalampiri; *savak* – hokondoz vazifasini bajaruvchi asbob; umalig – 3 yoki 4 litr suv solib (asli rus tilidan kirib kelgan so‘z bo‘lib, умывальник – ya’ni qo‘l yuvish uchun foyda-laniladigan jumrakli kichik sisterna) qo‘yiladigan qo‘l yuvishda foydalaniladigan asbob.

3. Avvalo shuni qayd etish lozimki, Qarluq shevasida ham kishilik faoliyatining barcha sohalarini qamrab olgan leksik qatlamlar mavjud bo‘lib, ular tarkibidagi so‘z va terminalarning bir qanchasi adabiy tildagi so‘z va terminlar bilan munosabatdoshlikni xosil qiladi. Adabiy tilda “bahor, kuz oularida kechasi haroratning pasayishi tufayli mayda tomchilar tarzida yerga inadigan havodagi, ya’ni, atmosferadagi bug‘, namlik; havodan ingan musaffo tomchi” ma’nosini

ifodalash uchun ‘shabnam” hamda “shudring” so‘zlari bilan munosabatdoshlik xosil qiladi: *Uyg‘anib kelip, boqqa chiqsam shuvat chushipti* (tushipti) (Yakkabog‘ Qarluq).

Yakkabog‘ tumanining Turon, Tatar, Samoq qish-loqlarida informantlarning quyidagi jumlasidagi “shuvat” so‘zining ma’nosiga etibor berildi: *Xavo soviptimi kechasi shuvat tushipti (chushipti).* Jumladan “shuvat” so‘zi “yerning yoki narsalarning betida xosil bo‘ladigan yupqa qorsimon zarralar” manosini ifodalashi ma’lum bo‘lmoqda. Bu o‘rinda shuvat leksemasi ayni shu ma’no bilan adabiy tildagi “qirov” so‘zi bilan munosabatdosh bo‘lib kelaoladi. S. Rahimovning guvohlik berishicha, Surxandaryo viloyatining Sariosiyo tumanida xam shuvat so‘zi “qirov” manosini ifodalab kelar ekan (ertalab shuvat tushipti) (Рахимов С. Сурхандарё узбек шевалари луғати. 187- бет.). Keltirilgan dalillardan shevadagi shuvat so‘zi, birinchidan, omonim bo‘lib kelsa (shudring va qirov tamoman boshqa-boshqa metereologik xodisalardir), ikkinchidan, adabiy tildagi shudring va qirov so‘zlari bilan munosabatdoshlikni xosil qilgan.

Endi quyidagi jumlalarga e’tibor beraylik: *Erali arg‘amchini olib kel.* “Bu gap adabiy tilda arg‘amchi arqon leksemasini anglatadi”. *Alimardon lappa – lappa ovqat yesang bo‘meyma, ozib cho‘ki bo‘p ketibsan,* (bu gapda cho‘ki – ozg‘in ma’nosida keladi. O‘z navbatida, shevadagi cho‘ki so‘zi asli ma’nosida “novda, shox bo‘lagi; yog‘och parchasi; biror maqsad uchun maxsus tayyorlangan tayoqcha” ma’nolarini bildirib, adabiy tilda norma deb qabul qilingan cho‘p leksemasi bilan munosabatdosh bo‘lib hisoblanadi.

Umuman olganda, Yakkabog‘ tumanida Qarluq lahjasida ishlatilayotgan va adabiy tilda boshqa – boshqa shaklda munosabatdosh bo‘lgan so‘z va terminlar juda ko‘pligi bilan ajralib turadi

Kuzatishlarimiz natijasida ayni shu sheva vakillari nutqida faol qo‘llanayotgan ko‘plab leksemalar borligi aniqlandi. Ular esa o‘zbek adabiy tilida qayd etilmagan, aniqrog‘i, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da o‘z ifodasini top-magan. Hatto, biz tomondan aniqlangan bu kabi so‘zlarning aksariyat qismi “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”da ham aks ettirilmagan.

**Xulosa.** Keltirilgan dalillarning har biri o‘ziga xos sheva leksemalariga ega bo‘lib, ular hozircha o‘zbek adabiy tiliga kirmaganligidan dalolat beradi, bu Yakkabog‘ tumani Qarluq shevalari leksik jihatdan boyligini ko‘rsatadi.

Bu so‘zlarning xozirgi kunda ham sheva vakillari tomonidan keng ishlatib kelinayotganligi ularning barqaror tus olinganligini tasdiqlaydi.

Ularni doimiy ravishda “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”ga qo‘shib borish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ashirboev, S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, Nodirabegim. 2021.176 b.
2. Shoabdurahmonov, Sh. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek shevalari. – Toshkent, Fan. 1962. 370 b
3. Reshetov V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, O‘qituvchi. 1978. 231 b.
4. Шоабдурахмонов, Ш. Карлукский наречий узбекского языка. – Тошкент, 1983.
5. Jo‘raev, B. Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari. – Toshkent, Fan. 1962.
6. Jabborov, X. O‘zbek tilining dexqonchilik leksikasi. Filol. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2017.
7. Qudratov, T. Quyi Qashqadaryo oraliq shevalari. Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1968.
8. Shoimova, N. O‘rta Qashqadaryo “je” lovchi qipchoq shevalari leksikasi. Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2001

# V BOB
# MUMTOZ ADABIYOT MUAMMOLARI

# CHO‘LPON IJODIDA AYOL OBRAZI
# (“NOVVOY QIZ” HIKOYASI MISOLIDA)

***Abdullayeva Rufina Usman qizi,***
*ToshDO‘TAU, O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs*
*rufinaabdullayeva1@gmail.com +998930361177*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada jadid davri bosqichlari va tuzum nuqtayi nazaridan kelib chiqqan mafkuraviy g‘oyalar va ularda ayollarning o‘rni ilmiy-falsafiy, didaktik tahlil etiladi. Jadid adabiyotining ayollar obrazini alohida bir timsol, alohida bir mavzu sifatida yoritib, misollar tariqasida ochib berishga harakat qilinadi. Xususan Cho‘lpon hikoyalaridagi ayollar tasvirida butun millat xotin-qizlarining taqdirini ochiq-oydin ifodalab berganligi haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar**: *jadid, taraqqiyot, ziyoli, taqdir, ayol, muhit, davr, jaholat, ma’rifat, mustamlaka, ilmsizlik, erk, erksizlik, hurriyat.*

**Abstract.** *In this article, the ideological ideas and the place of women in them are scientifically and didactically analyzed from the point of view of the stages and system of the modern era. An attempt is made to illuminate the image of women in modern literature as a separate symbol, a separate subject, and to reveal it as examples. In particular, there are comments that the depiction of women in Cholpon's stories openly and clearly expresses the fate of the women of the whole nation.*

***Key words:*** modernity, development, intellectual, fate, woman, environment, era, ignorance, enlightenment, colonialism, ignorance, freedom, freedom

*Jadid adabiyotida ayollar timsoli o‘ziga xos hisoblanadi. Bunda o‘sha davr tuzumi qattiq qoralanib, ayollarni ilm-ma’rifatga, jaholat botqog‘idan chiqishga qaratiladi. Ayollarning erk-ozodligi, ilm-ma’rifatga qiziqishi, ota-onasi ra’yidan chiqolmay taqdir hukmiga bo‘yin egishi asarlarda bir-biriga qarama-qarshi konflikt tarzda jadid adabiyoti mafkurasini yoritib bera oldi. Xususan, Cho‘lponning bir qancha hikoyalarida ushbu masala yaqqol ko‘rinadi. Cho‘lponning asosiy maqsadi mana shu mavjud tuzimni tag-tomiri bilan o‘zgartirish edi.*

Cho‘lpon iste’dodiga xos lirik nazokat va nafosat shoir nasriy asarlarining o‘ziga xosligini belgilab keladi. Cho‘lpon qaysi mavzuga murojaat etmasin, badiiy voqelikni poetik til va obrazlar orqali mujassamlantirishga harakat qilgan. Shu ma’noda uning 20-yillarda yozgan “Oydin kechalarda”, “Qor qo‘ynida lola”, “Novvoy qiz” singari hikoyalari o‘zbek adabiyotidagi lirik nasrning dastlabki mumtoz namunalaridir. Cho‘lpon bu hikoyalarida o‘zbek xotinqizlarining ayanchli

taqdirini turli badiiy rejada tadqiq etar ekan, har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi shu jamiyatning xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi, degan g‘oyani bu asarlar osha “qizil ip” yanglig‘ o‘tkazgan. Umuman olganda, o‘zbek xotin-qizlarining mustamlakachilik davridagi achinarli taqdiri tasviri ijodkorning she’rlarida ham, hikoyalaridan tortib “Kecha va kunduz” romanining ham asosiy g‘oyaviy yo‘nalishini belgilab bergan. Zebining ilojsizligi o‘sha davr ayollari erksizligi sifatida ochib beriladi.

*Adabiyot maydoniga endigina qadam qo‘ygan paytlaridan ko‘nglida roman yozish orzusi bo‘lgani uning ilk hikoyalaridan yaqqol sezilib turadi. “Doktor muhammadiyor”da roman uchun yozsa bo‘ladigan ma’lumotlar hikoyaga sig‘dirilgan. Va keyinroq yozilgan “Qor qo‘ynida lola”, “Novvoy qiz” hikoyalarida ham qamrov ko‘lami hikoyadan kengroq berilgan.* Cho‘lponning kichik-kichik hikoyalaridan tortib, katta janrdagi barcha asarlarida, ma’rifatparvar ijodkorlar ijodida ayollar timsoli o‘ziga xos mavzuga aylana oldi. o‘sha davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib, ayollarni qul sifatida baholash, ayollarni nazir sifatida taqdim etish, ularni o‘z erkidan, ilm-ma'rifatdan yiroq qilish holatlari ko‘plab uchrab turishi jadid adabiyotida chinakam mavzuga aylandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

*“Novvoy qiz” hikoyasiga e’tiborimizni qaratsak. Hikoyaning asosiy mavzusi xotin-qizlar huquqlari, ularning muqaddas ilgari surilgan. Asar markazida Novvoy qizning mudhish taqdiri gavdalanadi. Asarning boshlanmasi ham qayg‘u bilan boshlanadi: “Qilg‘ilik qilinib, bechora qizning qizligi olinib, bo‘lar ish bo‘lib bitgandan keyin, ikkalasi jimjit bo‘lib ikki tomonga cho‘zilishdilar” (*https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulhamid-cho-lpon-1897-1938/abdulhamid-cho-lpon-novvoy-qiz-hikoya *).*

Jadid adabiyotida ayollar timsoli o‘ziga xos hisoblanadi. Bunda o‘sha davr tuzumi qattiq qoralanib, ayollarni ilm-ma’rifatga, jaholat botqog‘idan chiqishga qaratiladi. Xususan, Cho‘lponning *hikoya*dagi novvoy qiz timsoli orqali o‘sha davrda yashagan ayol-qizlarning hayoti, erksizligi oydinlashadi.

O‘lmasboy shomga aytilgan azonni eshitib, xona pardalarini ochadi. Shunda novvoy qiz ustini shosha-pisha berkitadi. Ushbu jarayonda ko‘rishimiz mumkinki, o‘zbek xotin-qizlari fitratida bo‘lgan sharm-hayo tufayli ust boshini to‘g‘rilash fikri yuzaga kelgan. Bundan tashqari, asarda O‘lmasboyning novvoy qizga qarata qo‘llagan “oyim qiz” iborasi novvoy qiz qalbiga og‘ir botadi. Bu holat, qahramon ruhiyatini xatti-harakatlar, gap so‘zlar orqali ochib bergan. Novvoy qiz yuzida o‘zgarish paydo bo‘ladi va shu O‘lmasboyga qarata “Imonsiz”, – deydi. *Shu zaylda uyiga bazo‘r yetib kelgan bechora qiz yolg‘izgina suyanchig‘i bo‘lgan onasining o‘limi ustidan chiqadi.*

*“Keng yurt… Ko‘p xalq… Kampirning o‘lgani, ko‘milgani bir mahallaga ham bilinmagani bilan, qizning “allakim” bilan o‘ynashib yurgani hammaga bilingan, butun shaharda dovrug‘ bo‘lgan edi”. Asarning g‘oyaviy qiymati ham shunda namoyon bo‘ladi. Mustamlaka tuzum girdobiga tushgan xalq bir yo‘qsil qizga yordam berish o‘rniga uni jamiyatdan nafratlanishiga, odamlar yiroqlashishiga sabab bo‘ladi. Buning oqibati esa bechora qizda “eski, yirtiq bir qator kiyim, ezilgan yurak, charchagan gavda, gangigan esgina qoldi… (*https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulhamid-cho-lpon-1897-1938/abdulhamid-cho-lpon-novvoy-qiz-hikoya ).

Asar oxirida sud zali tasvirlangan bo‘lib: “… paranjisiz, qo‘lida papka ko‘targan bir yosh xotin to‘g‘ri sud hay’ati yoniga keldi. U bezgakday titrardi”. Asarning eng muhim, keskinlashgan lahza xuddi shu joyda sodir bo‘lgan. Ayol kim edi? Hayratlanarlisi shundaki, ayol – o‘sha “oyim qiz” edi. Shu vaziyatda ayol aytgan so‘zlar butun zalni titratadi. *Unda bir paytlar nomussiz sanalgan novvoy qiz xotinlar sho‘basining raisi sifatida gavdalanadi. Ilgari razillikdan ozor chekkan, iymonsizlikka qarshi kurasha olmagan bechora qiz asar oxirida kuchli bir qat’iyat egasiga aylanadi (*Erkinova, F. Mamadaliyeva, M. 2022).

Xulosa qilib aytganda buyuk adib Cho‘lpon ham nazm-u nasrida ayollar ta’limi masalasi ilgari surish orqali ayollarning haq huquqini tanishga, o‘zining nimalarga qodir ekanligini anglatishga undadi. Hikoyalarida uquvsiz, irodasiz zamon zayli va taqdirga osongina ko‘nib ketadigan, soddaligi tufayli balolar qozonida qaynagan, qiyinchiliklarni boshidan kechirgan ayol qizlarning ko‘zlarini ochishga, dunyoga yanada teranroq nazar tashlashga chorlamoqchi bo‘ldi. Shuni aytish kerakki, Cho‘lpon o‘zining nasriy asarlarida ezilgan, turmush qiyinchiliklari qozonida qaynagan, nomusi, orzulari toptalgan, jamiyatda, oilada bir so‘z aytishga ham haqqi bo‘lmagan, taqdiri o‘zgalar qo‘lida bo‘lgan xotin-qizlar haqida hikoya qiladi. Hikoyalarni mutolaa qilgan inson o‘tgan asr ayollarining kechmishi, turmush manzaralari haqida bilib olishi mumkinligi namoyon bo‘ladi. Adib hikoyalarida o‘zining ilgari surgan fikrlari orqali xotin-qizlarni ilmli bo‘lishga, maqsadlari uchun kurashishga, o‘zligini anglashga chorlaydi.

***Foydalanilgan adabiyotlar:***


1. Erkinova, F. Mamadaliyeva, M (2022). Cho‘lponning “novvoy qiz” hikoyasiga chizgilar. Science and innovation international scientific journal
2. *Karimov, N. (2003). Cho‘lpon (ma’rifiy roman). Toshkent. Sharq.*
3. *Quronov, D. (2004). Cho‘lpon nasri poetikasi. Toshkent. Sharq.*
4. *Safarov, X. Hikoyalarda davr ruhi. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 7-son.*
5. *Cho‘lpon asarlar. (2016). Toshkent. Akademnashr. 2-jild.*

6. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulhamid-cho-lpon-1897-1938/abdulhamid-cho-lpon-novvoy-qiz-hikoya

## ROBIYA ADAVIYYA FAOLIYATIDA SHARIAT VA TARIQATNING O‘RNI

*Abovova Mohinur Hosil qizi*
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs*
*mohinurabovova@gmail.com*
*Ilmiy rahbar: fil.fan.dok., prof. Iqboloy Adizova*

**Annotatsiya**. *Ushbu maqola o‘zbek mumtoz adabiyotida Robiya Adaviyya obrazi va uning so‘fizim ibtidosida tutgan o‘rni masalasini yoritishga bag‘ishlanadi. Robiya Adaviyyaning shariat va tariqatga munosabati, axloqiy mezonlari, go‘zal tabiati va odobi haqida so‘z yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar.** *Robiya Adaviyya, Basra, so‘fizim, shariat, tariqat, ma‘rifat, haqiqat, hushu’.*

**Abstract.** *In this article, the role of the image of Rabia Adaviyya in Uzbek classical literature, her role in the beginning of Sufism, the work of Rabia Adaviyya in Sharia and Tariqat, and the fact that she was a beautiful example to humanity with her work in Sharia and Tariqat are discussed. is conducted.*

**Key words.** *Rabia Adaviyya, Basra, Sufism, Shariat, Tariqat, Enlightenment, Truth, Consciousness*

Tarixdan insoniyat o‘ziga yo‘l topish, ma’naviyatini yuksaltirish uchun ham amal, ham ilmda na‘muna bo‘luvchi olimlarga va kitoblarga muhtoj bo‘lgan. Shu sababli ham Alloh yerga payg‘ambarlarini yuborgan. Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam hayotlik davrlarida ham erkak, ham ayollarga birday ta‘lim berar edilar. Payg‘ambarimizning vafotidan so‘ng insonlar dunyoga muhabbat qo‘ya boshladilar. Shu sababli ular o‘rtasida bo‘linish bo‘lib, bir toifa dunyodan butkul kechib tun-u kun ibodatga berilgan bo‘lsa, yana bir toifa dunyo va dinni barobar ko‘rar edilar. Shu sababli, shariat va tariqat ahllari orasida fikriy qarama-qarshiliklar yuzaga kela boshladi. Shariat olimlari tariqatni dinga kiritilgan bir yangilik, tariqat amallarini esa islom aqidalariga to‘g‘ri kelmaydigan g‘oyalar bilan to‘la deb hisoblagan.

Shariat va tariqat haqida gapirar ekanmiz, avvalo, tariqatning shariatdan ayricha tushuncha emas, balki tariqat va shariat birgalikda jam bo‘lib haqiqatga olib borishini unutmaylik. Robiya Adaviyya ham shariat, tariqat va ma‘rifat bosqichlaridan o‘tib haqiqatga yetishganlardan edi.

Lohijiy “Sharhi Gulshani roz” kitobida yozadiki: “Shariat va tariqat ahlulloh iboralaridan bo‘lib, biri zohirning salomatligidan, ikkinchisi botinning salomatligi - istiqomatidan dalolat beradi”.

Abul Qosim Qushayriy yozadi: “Shariat – bandalik zaruriyatining amrlari, haqiqat esa – Xudo mushohadasi. Va haqiqatdan madad olib oziqlanmagan shariat maqbul bo‘lmaginiday, shariatga bog‘lanmagan haqiqat ham natijasiz va samarasizdir. Shariat xalqqa (ommaga) mo‘ljallangan majburiy amrlar, haqiqat esa, Haq yo‘lidan xabar beruvchi xos kishilarning nasibasi”. Agar shundan kelib chiqib xulosa qilsak, tariqat shariat va haqiqat orasidagi bosqich, vosita ekanligi ma‘lum bo‘ladi.(Нажмиддин Комилов, 1996, 53-бет)

Shunday qilib, tariqat Alloh yo‘lidan Alloh sari ruhiy-ma‘naviy sayr-u safarga chiqqan eranlarning taqdiri, ko‘ngil mayli. Tariqat shariatni ham o‘z ichiga oladi, ammo u shariatdan o‘zib ketadi. Shariat ahli behisht tamaida ibodatga mashg‘ullar, tariqat ahli esa Haq diydori uchun jondan kechganlar. Tariqatning asl mohiyati ibodat va poklik bo‘lgani uchun u dini islomga zid emas. Hech bir jihati bilan shariatga putur yetkazmaydi. Shariat – musulmonlik kamolotiga asos, tariqat – bashariy vujuddan qutulib, ruhiy kamolotga muyassar bo‘lish orzusi. Demak, maqsad bir, ya‘ni Parvardigor tomon intilish, insoniylik haqiqatini topish.(Нажмиддин Комилов, 1996, 54-бет)

Darhaqiqat, Robiya obrazi tariqatda alohida o‘rin egallaydi. “Islom so‘fizimining ibtidosi Robiya al-Adaviyya nomi bilan bog‘liq. U dunyoning barcha lazzatlaridan voz kechishga undaydigan tarkidunyochilikning chinakam ishq, ya‘ni Allohning ishqi bilan yashashga undaydigan so‘fizmga aylanishida asosiy, hal etuvchi rol o‘ynagan ayoldir” – deydi taniqli nemis olimasi Annemariye Shimmel o‘zining “Jonon mening jonimda” kitobida.(Аннемарие Шиммел, 1999, 56-бет).

Insoniyatning, xususan, sharq ayollarining tafakkur teranligi, ma‘naviyatining yuksalishiga bir qator orifa ayollar na‘muna bo‘lgan. Ulardan biri Robiya Adaviyyadir. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarining “Orifa ayollar zikri” da birinchilardan bo‘lib, Robiya Adaviyyani va undan tashqari yana 34 ta ayol avliyolarning hasbi holini bayon etadi. Robiya ilm, axloq, fahm, fasohat, itoat va qanoatda o‘z davrining avliyo erkaklariga ham dars beradigan darajada edi. O‘z davrining mashhur voizi bo‘lgan Hasan Basriy Robiyaning ham ustozi, ham do‘sti edi. Ular bilan bo‘lgan irfoniy suhbatlardan birini Fariduddin Attor “Tazkirat ul-avliyo” asarida keltiradi: “Naqldurki, Robiya shayx Hasan Basriyga uch narsa berdi: biri mum, biri igna va biri qil. Ya‘ni, mumdek muloyim bo‘l, ignadek hammaning yirtiqlarini tikkin, o‘zing yalang‘och bo‘lgil va hojatmandlarning hojatini qudrating yetguncha bitkarmoqqa sa‘y va ko‘shish qilgil va qildek nozik riyozat bilan!”. (Fariduddin Attor, 2013, 87-bet). Bundan ko‘ramizki, Robiya teran ilmi bilan shariat

voizi, ustozi Hasan Basriyga ham nasihat qila olgan. Robiya Adaviyyani shariat va tariqatga birday amal qilganini uning faoliyatiga daxldor ba‘zi hikoyalarda ham ko‘rishimiz mumkin. Jumladan,“Mo‘mina ayollar ibrati” kitobida Fotimaxon Sulaymon qori keltirgan hikoyat ham bunga misol bo‘la oladi: “Bir ayol Robiyaga dedi: “Ey Robiya, men seni Alloh yo‘lida yaxshi ko‘raman”. Robiya dedilar: “Osiylik qilma! Allohga ibodat et”. U ayol so‘radi: “Ibodat qilayotganda Allohni ko‘rasizmi?” Robiya dedilar: “Agar men uni ko‘rmaganimda ibodat qilmasdim. Rasulullоh salallohu alayhi vasallam: “Allohni ko‘rib turgandek ibodat qil”, deganlar.(Fotimaxon Sulaymon qori qizi, 2022, 105-bet). Robiya payg‘ambarimiz hadislari bilan ayolga nasihat qilar ekan, namozni Allohni ko‘rib turgandek yoki Alloh uni ko‘rib turgandek hushu’ bilan o‘qish haqida Qur‘oni Karimda ham keltirilgani haqida eslab o‘tmog‘imiz lozim. Alloh taolo Mu‘minun surasining 1-2-oyatlarida marhamat qiladi: “Batahqiq, mo‘minlar zafar topdilar. Ular namozlarida hushu’ qiluvchilardir”.(Shayx Muhammad Sodiq, 2023, 57-bet).

Hushu’- qo‘rquv bilan sokinlikning birga qo‘shilganidir. Mazkur najotga erishuvchi mo‘minlarning sifatlaridan biri – namoz o‘qiganlarida Alloh taolo maqomi huzurida qalblarini, vujudlarini, harakat-u sakanotlarini qo‘rqinch va sokinlik o‘rab olishidir. Bu holat esa faqat namozni oliy darajada qoyilmaqom qilib ado etadigan mo‘minlardagina bo‘ladi.(Shayx Muhammad Sodiq, 2023, 58-bet).

Robiya Adaviyya shariat buyruqlarini butun qalbi bilan amalga oshiruvchilardan edi. Hattoki, kechalari tinmay tahajjud namozi o‘qib chiqar ekan, ko‘p hollarda xufton namozi tahorati bilan bomdod namozini o‘qir edi. Uning ibodati Qur‘onda, hadisda ta’kidlangan amrlarning oliy ko‘rinishida amalga oshar edi. Shu sababli ham, uning shariatda tutgan o‘rni beqiyosdir. Ibodat so‘zi “abd” so‘zidan olingan bo‘lib, ma’nosi “qul”, “banda” degani. Robiya xuddi Alloh taoloni ko‘rib turgandek ibodat qildi. Turmush qurish taklifi berilsa ham, turmush qurmay, Allohga oliy muhabbat bilan banda bo‘lib o‘tdi. Uning sha’riat va tariqatni birday egallab haqiqatga erishgani, insoniyat ma’naviyatining takomillashuviga ulkan hissa qo‘shgani, sabr, taqvo, zuhd, ilm va amali bilan hozirgi davr ayollariga ham go‘zal na’muna bo‘la oladi. Uning hayotini chuqurroq o‘rganish insonlarga adab beruvchi adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridandir. Chunki bu kabi obrazlarni o‘rganish insoniyatni dunyoga ko‘ngil berish, o‘zligini unutib, nafsiga qul bo‘lish kabi yomon illatlardan forig‘ etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adizova, I. (2023). Navoiy eslagan shoirlar. *Miasto Przyszlości* , *36* , 7-11.

2. Аннемарие Шиммел. (1999). Жонон менинг жонимда. (56-бет). «ШАРҚ» НАШРИЁТ-МАТБАА КОНЦЕРНИ БОШ ТАҲРИРИЯТИ

3. Фаридуддин Аттор. (2013). Тазкират ул-авлиё. (87-бет). Тошкент: ғофур ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи

4. Нажмиддин Комилов. (1996). Тасаввуф. (53-54-бет). Тошкент: «Ёзувчи» нашриёти.

5. Fotimaxon Sulaymon qori qizi. (2022). Mo‘mina ayollar ibrati. Toshkent: “Hilol – Nashr” nashriyoti.

6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2023). Tafsiri Hilol 4-juz. Toshkent: “Hilol – Nashr” nashriyoti.

## ALISHER NAVOIY G‘AZALLARINING QOFIYA HARFLARI ISHTIROKIGA KO‘RA TURLARI

*Akbarova Mushtariy Abdurashid qizi*
*ToshDO‘TAU 1-kurs magistranti*
mushtariyakbarova809@gmail.com *+998935731598*

**Annotatsiya**. *Poetika ilmining bilimdoni Alisher Navoiyning ilmiy merosi tadqiqi adabiyotshunoslik uchun muhim vazifalardan biri. Navoiy poetikaga oid nazariy qarashlar bilan birga uning amaliy jihatini ham yuksaltirdi. Xususan,buni Navoiy g‘azallarida yaqqol ko‘rish mumkin. Ijodkor qofiyaning ko‘plab turlaridan foydalangan, shu jihatdan shoir g‘azallarini tahlil qilish orqali turkiy qofiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rish mumkin. Ushbu maqolada mumtoz poetikada turkiy qofiyaning Alisher Navoiy g‘azallari asosida muayyan turlari o‘rganilib, tadqiq etildi.*

**Kalit so‘zlar:** *Mumtoz poetika, qofiya ilmi, mujarrad, muassas, murdaf, muqayyad qofiya, ridfi asliy, ridfi zoyid.*

**Abstract.** *Researching the scientific legacy of Alisher Navoi, a connoisseur of poetics, is one of the important tasks for literary studies. Along with theoretical views on poetics, Navoi also raised its practical aspect. In particular, this can be clearly seen in Navoi's ghazals. The artist used many types of rhyme, and in this respect, the unique features of Turkish rhyme can be seen by analyzing the poet's ghazals. In this article, specific types of Turkish rhymes in classic poetics were studied and researched based on Alisher Navoi's ghazals.*

**Keywords:** *Classic poetics, the science of rhyme, mujarrad, muassas, murdaf, muqayyad rhyme, ridfi asli, ridfi zayid.*

Mumtoz poetikaning tarkibiy qismlaridan biri - qofiya ilmi qadim tarixga ega bo‘lib, uning nazariy asoslari dastlabki davrdanoq shakllana boshlagan. Qofiya ilmi she’rshunoslikda muhim ilmlardan biri bo‘lib olimlar tomonidan tan olingan. Qofiya ilmi she’rshunoslikning barcha janrlarini qamrab oladi, xususan, g‘azal janrini ham.

Navoiy ijodining asosiy qismini g‘azallar tashkil etgan bo‘lib ular o‘ziga xos qofiya tizimiga ega. Mumtoz adabiyotda qofiya harflarining joylashuvi qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra turlarini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega. Raviydan oldin joylashuvchi *ridf, ta’sis, qayd* - qofiya harflari qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra **mujarrad, muassas, murdaf, muqayyad** turlarini hosil qiladi. Navoiy poetika ilmining bilimdoni sifatida uning amaliy ifodasi o‘laroq g‘azallarida qofiyaning deyarli barcha turidan unumli foydalanib, rang-barang qofiya tizimini yaratgan. Ular orasida muassas qofiya ham o‘rin olgan. Qofiyaning muassas turi ta’sis harfi bilan bog‘liq. Ta’sisning ishtiroki muassas qofiya turini hosil qiladi.

Bu nag‘ma erdimu yo‘q ersa **ofat**, ey hofiz,

Ki, bazm ahlig‘a solding **qiyomat**, ey hofiz.

Baytdagi *ofat* va *qiyomat* qofiyadosh so‘zlaridagi “alif” harfi ta’sis, albatta, ta’sis daxil harfi bilan birga keladi. Bundan kelib chiqadiki, “fa” va “mim” harflari daxl hisoblanadi. Barcha baytlarda ta’sis - “alif” harfining kelishiga to‘liq rioya qilinishi muassas qofiya turini yuzaga keltiradi.

Tanimni qilsa g‘amzang yuz **jarohat,**

Yetar har zaxmdin jonimg‘a **rohat.**

*Jarohat, rohat* qofiyadosh so‘zlaridagi o unlisi - ta’sis harfi sanaladi.

Murdaf qofiya turi ridf harfining ishtiroki bilan bog‘liq. Ridf raviydan oldin keluvchi qofiya harfi bo‘lib, “orqasida turish degan ma’noni anglatadi. Ridf raviydan oldingi cho‘ziq unli hisoblanib, o, u, iunlilari ridf sifatida kela oladi. Fors adabiyotshunosi Shamsiddin Qays Roziy murdaf qofiyaning ridfi asliy va ridfi zoyidga asoslangan turlarini izohlagan. Alisher Navoiyning “Xazoyin ul maoniy” kulliyotidan joy olgan quyidagi g‘azallarda qofiyaning bu turlarini uchratishimiz mumkin.

Jahdim andoqdur yetishgaymenmu deb vaslingg‘a **bot**

Kim, qabul etman og‘ir deb chiqsa egnimdin **qanot.**

Qofiyadosh so‘zlar hisoblangan *bot va qanot* tarkibidagi raviydan oldingi “alif” - o unlisi ridfi asliy hisobalanadi. “alif”, “vov”, “yo” harflari cho‘ziq unli vazifasini bajargandagina ridfi asliy qofiya bo‘lib kela oladi va murdaf qofiyani shakllantiradi.

Jafo tariqida andin erur jahong‘a **rusux**

Ki, qildi mehru vafo rasmu royini **mansux.**

*Rusux, mansuz* qofiyadosh so‘zlaridagi “vov” - u unlisi ridf hisoblanadi va murdaf qofiyani tashkil etadi.

Qayd harfi ishtirok etgan so‘zlarning qofiyalanishi muqayyad qofiya turini hosil qiladi. Qayd raviy va undan oldin kelgan qisqa unli orasidagi undosh tovush hisoblanadi. Raviy va qayd o‘rtasida biror harfning kelishiga ruxsat etilmaydi. Qayd sokin holda bo‘ladi. Ahmad Taroziy o‘zining “Funun ul balog‘a” asarida qaydni “sokinu-l qayd” deb nomlaydi[64].

Ey ko‘ngul, yor o‘zgalar domig‘a bo‘ldi **poybast,**

Senga mushkil holatu bizga qatiq ish berdi **dast.**

Qofiyadosh so‘zlardagi s tovushi qayd hisoblanadi. Muqayyad qofiyani ridfi zoyid qofiyadan farqlash lozim. Muqayyad qofiyada qayd qisqa unli va raviy orasida keladi, orasiga boshqa harf qo‘shilmaydi. Ridfi zoyid ridfi asliy bilan birga ishtirok etadi, ridfi zoyid ridfi asliy va raviy o‘rtasida kela oladi: *rost - norost* kabi.

Buzug‘ ko‘ngulga fano bo‘lsa kom, cheksun **ranj**

Ki, ranj chekmasa hargiz muyassar o‘lmas **ganj.**

*Ranj, ganj* qofiyadosh so‘zlaridagi n tovushi qayd hisoblanadi.

Qofiyaning harflar ishtirokiga ko‘ra turlaridan biri hisoblangan mujarrad qofiya raviydan oldingi qofiya harakatlarining kelishiga asoslanadi. Raviydan oldingi tavjihning kelishi mujarrad qofiyaturini hosil qiladi. Alisher Navoiy qofiyaning ko‘plab turlariga namunalar keltirgan.

O‘rtasa ishq meni, so‘rma **sabab,**

Kuysa xoshok yolindin, **ne ajab.**

Olimlarning fikriga ko‘ra ridf va qayddan xoli qofiya turi mujarrad qofiya sifatida keltiriladi. *Sabab* va *ajab* qofiyadosh so‘zlaridagi “sin” va “jim” undoshining harakati tavjih bo‘lib, uning ishtiroki qofiyani shakllantirgan.

Qani sening kebi olamda **dilrabo** mahbub,

Ko‘z ila qotilu lab birla **jonfizo** mahbub.

*Dilrabo, jonfizo* qofiyadosh so‘zlaridagi “alif” - o unlisi raviy sifatida mujarrad qofiyani hosil qilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy g‘azallarida

[64] Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun-l-balog‘a. (Nashrga tayyorlovchilar H.Boltaboyev, J,Jo‘rayev) – T:. MUMTOZ SO‘Z,2016.-B.66

qofiyaning harf ishtirokiga ko‘ra deyarli barcha turlariga asoslangan qofiyadosh so‘zlardan unumli foydalangan. Bu esa g‘azallarni rang-barang bo‘lishini ta’minlagan. Navoiy qofiyada raviyning o‘rni muhim ekanligini, raviy harfdan tashkil topishi, ba’zan qofiyadagi ba’zi kamchiliklar sabab harakatlar ham zarurat yuzasidan raviy sifatida olinib, bunday so‘zlar qofiyadosh so‘z sifatida keltirilshini ta’kidlaydi. Alisher Navoiy Balog‘a ilmini, xususan, ilmi qofiyani yaxshi bilgan hamda uning go‘zal namunalarini turkiy til imkoniyatlari bilan yana ham bezagan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. 15 jildlik. 1 jild. –T., 1963.
2. Alisher Navoiy. Navodi ush shabob.15 jildlik. 2 jild. –T., 1963.
3. Alisher Navoiy Badoye ul vasat. 15 jildlik. 3 jild. –T., 1965.
4. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. 15 jildlik. 4 jild. –T., 1965.
5. Hamroyeva O. Mumtoz qofiya nazariyasi asoslari. - Toshkent: Bookmany print, 2022.
6. Rustamov A. Qofiya nima? — T.: Fan, 1976.
7. Shamsi Qaysi Roziy. Al-Mu’jam fi ma’oyiri ash’oru-l-ajam. - Dushanbe: Adib, 1991. - Sah. 161.
8. Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog‘a. - T.: Xazina, 1996.


## NIKOLAS VALMSLEYNING ALISHER NAVOIY IJODIGA OID TADQIQOTLARI


*Durdona RAXMONOVA*,

*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti,3-kurs*

*rdurdona358@gmail.com*

*+998888051103*



**Annotatsiya** *Ushbu maqolada Nikolas Jerard Valmsleyning Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid izlanishlari tahlil etilgan, ulardagi eng muhim jihatlar va xulosalar o‘zbek navoiyshunosligi natijalari bilan qiyoslangan. Shuningdek, tadqiqot nima maqsadda, qanday yozilganligi, tadqiqotchi Navoiy ijodining qaysi nuqtalariga alohida to‘xtalganligi haqida so‘z boradi.*



**Kalit so‘zlar:** *Alisher Navoiy, badiiy ijod, adabiy ta’sir, an’an, tazkira, muxammas, kotiblar.*

**Annotattion.** *This article, Nicholas Gerard Walmsley's research on the life and work of Alisher Navoi is analyzed, the most important aspects and conclusions in them are compared with the results of Uzbek Navoi studies. Also, the purpose of the research, how it was written, and what points of Navoi's work the researcher focused on.*

**Key words:** *Alisher Navoi, artistic creation, literary influence, tradition, tazkira, mukhammas, scribes.*

O‘zbek mumtoz adabiyotining betakror siymosi bo‘lgan Alisher Navoiy ijodi o‘zining teran mohiyati va olamshumul ahamiyati bilan hamisha dolzarblik kasb etib boraveradi. Shu bois buyuk mutafakkir asarlarini tadqiq etishga bo‘lgan qiziqish xorijda ham ortib bormoqda. Ayni paytda navoiyshunoslik sohasining qamrovi kengayib, yangi-yangi tadqiqotlar bilan boyib bormoqda. Endi navoiyshunoslar oldida xorij navoiyshunosligini yanada chuqur o‘rganib, uning yangi taraqqiyot tendensiyalarini belgilash istiqbol uchun muhim vazifa bo‘lib turibdi.

Alisher Navoiy ijodi bugungi kunda G‘arb adabiyotshunosligida ham yangi mezonlar asosida tadqiq etilmoqda[65]. Xususan, ingliz yozuvchisi va tadqiqotchisi Nikolas Jerard Valmsleyning Alisher Navoiy ijodiga oid tadqiqotlari fikrimizning yorqin isbotidir. Olim Navoiy hayoti va ijodi bilan jiddiy qiziqadi. Xususan, u 2014-yilda chop etilgan “The Yasaviyya in the Nasāʾim al-maḥabba of ʿAlī Shīr Navāʾī: A Case Study in Central Asian Hagiography” nomli maqolasida Navoiy ijodining agiografiya (avliyolar hayoti tadqiq etiluvchi soha)ga bog‘liq jihatlarini, jumladan, Navoiyning Ahamad Yassaviy bilan bog‘liq qarashlarini o‘rgangan[66].Shuningdek,olim 2012-yilda O‘zbekistoga tashrif buyurgan.2012-2014-yillar oralig‘ida tadqiqotchi Navoiyga oid tadqiqotlariga jiddiy kirishadi va o‘zbek olimlari bilan birgalikda 300 ga yaqin Navoiy g‘azalini tarjima qilganligini alohida ta’kidlagan.

Nikolas Valmsley 2015-yilda Amerika Qo‘shma Shtatlarining Indiana universitetida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid maxsus dissertatsiya ham yoqlagan. Mazkur dissertatsiyaning mavzusi “O Navai: imitation, innovation, and the invention of a Central Asian literary icon” deb nomlangan bo‘lib, uning asosiy qismi besh bobni o‘z ichiga oladi. Ishda, asosan, Navoiy ijodining o‘zidan keyingi Markaziy Osiyo adabiyotiga ta’siri masalalari ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotchi dastlabki bobni quyidagi besh fasl doirasida yoritibi bergan:

---

[65] Алишер Навоийнинг мероси ва унинг жаҳоншумул аҳамияти. Илмий-назарий анжуман маърузалари тезислари. – Т.: Фан, 2001. – 54 б.

[66] Walmsley Nicholas. The Yasaviyya in the Nasāʾim al-maḥabba of ʿAlī Shīr Navāʾī: A Case Study in Central Asian Hagiography. – Journal of Sufi Studies: Vol. 3. Issue 1. 2014. – P. 38 – 66.

1. Navoiyning hayoti va ijodi.

2. Navoiy haqida zamondoshlari va shogirdlarining fikrlari.

3. Navoiy Yevropa olimlari nigohida.

4. Navoiyning tili va uslubi.

5. Navoiy va Markaziy Osiyo.

Dissertatsiyada har bir qism bo‘yicha ma’lumotlar keltirilib, ular manbalar bilan asoslangan va bob xulosalar bilan yakunlangan. E’tiborli tomonlardan biri shuki, tadqiqotda navoiyshunoslik so‘zi "Navaiana" (navoiyona) tarzida ishlatiladi va yozuvchi bu ma’lumotni Genri Hofmandan olganligini ham aytib o‘tadi[67]. Valmsley o‘z kuzatishlarida, asosan, Mixail Nikitskiy, F.A.Belin, Vasiliy Bartold, Mariya Subtelniy va o‘zbek olimlaridan Aziz Qayumov tadqiqotlariga tayanadi. Shu kabi tadqiqotlar asosida Navoiyni 1441-yil 9-fevralda uyg‘ur baxshilari oilasida tug‘ilgan degan yangilish talqinga ergashadi. Shu bilan bir qatorda Valmsley Navoiyning ko‘plab asarlariga to‘xtalib, "Xamsa" haqida quyidagilarni yozadi: "Navoiy 1483-1485-yillar oralig‘ida Xamsa asarini yaratadi. Nizomiy tomonidan fors she’riyatining janri sifatida asos solingan "Xamsa" nomidan ko‘rinib turganidek, didaktik va afsonaviy mavzudagi sarguzasht nazmdan iborat to‘plamdir. Navoiy ham turkiy tilda bu asarni yozgan va uni yozishda shoir nafaqat Nizomidan, balki Xojuning "Gavharnoma" asaridan ham ta’sirlangan”. Bundan tashqari Navoiyning Abdurahmon Jomiy vafoti munosabati bilan yozgan "Xamsat ul-mutahayyirin" asari ham Valmsley e’tiborini tortgan. Asar bilan to‘liq tanishib chiqqan tadqiqotchi: "Bu asarning hayratlanarli tomoni shundaki, u biografik asargina emas, balki adabiy harakatlarga turtki bo‘ladigan do‘stlik haqidagi asar hamdir.U faqatgina tarjimayi hol bo‘lib qolmay, haqiqiy memuar asar namunasidir. Ushbu asar orqali biz o‘z-o‘zini anglash, inson o‘zini qanday malomat qilishi kerakligi va boshqa ko‘plab narsalarni o‘rganishimiz mumkin"[68], – degan xulosaga keladi.Valmsley Devid Damroshning “Jahon adabiyoti tarjimada yoki asl tilida o‘z kelib chiqish madaniyatidan tashqarida tarqaladigan barcha adabiy asarlardir”,- degan fikriga tayangan holda Navoiy asarlari,shubhasiz, jahon adabiyotining namunasidir degan yanglish fikrga tayanadi.Buning sababi sifatida tadqiqotchi shoirning asarlarini o‘zi yashagan hududdan ancha uzoqda tarqalganligini ko‘rsatadi.

[67] Nicholas Gegard Walmsley. O Navai: imitation, innovation, and the invention of a Central Asian literary icon. PhD diss. – Indiana: 2016. – P. 80.

[68] Ko‘rsatilgan manba, – P. 70 – 71.

Tadqiqotning ikkinchi bobida tazkirachilik haqida fikr yuritilib, tazkira o‘zi qachon yaratilganligi, uning ichki tuzilishi to‘g‘risidagi kuzatishlari bayon qilinadi. Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasi, o‘sha davr va undan keyin tuzilgan tazkiralarga Navoiyning ta’siri kabi masalalar tahlil etiladi. XV – XX asrlarda yaratilgan tazkiralarni o‘qigan kishining ko‘z o‘ngida Alisher Navoiy serqirra ijodkor sifatida gavdalanishi, ushbu tazkira o‘z tabiatiga ko‘ra bir vaqtning o‘zida uch xil zamon belgisiga – sinxronik, diaxronik va anaxronik – mansubligi ochib beriladi. Shuningdek, tazkira "Taboqot" nomli asarlardan kelib chiqqani, unda hukmdorlar, ulamolar, shayxlar kabi nufuzli shaxslar sinflarga bo‘lib, saralab tavsiflangani bayon qilingan.

Tadqiqotchi ilk tazkiralar sifatida Muhammad Avfiyning "Al-bob" va Qazviniyning "Tarixi guzida" asarlarini keltirgan. Ularning birinchisida 300ta fors shoirlari haqida fikrlar mavjud ekani, asar 12 qismga bo‘lingani va aynan 8ta bo‘lim shoirlarga bag‘ishlangani ko‘rsatib beriladi. Nikolas ayni shu usul, ya’ni tazkiralarni bo‘limlarga bo‘lish Navoiy va Davlatshoh Samarqandiy tazkiralarida ham uchrashini alohida qayd etadi. Bu bobda tadqiqotchi o‘sha davrda va undan keyin yaratilgan tazkiralarda Navoiy yetakchi o‘rinda turganligini asoslashga harakat qiladi. Navoiyning barcha tazkiralarda alohida o‘rin egallashining sabablari sifatida uning o‘z asarlarini ham turkiy, ham forsiy tilda yozgan sermahsul ijodkor ekani, temuriylar adabiyotida yetakchi shaxs ekani kabilar keltiriladi.

Biroq Valmsley Navoiyning turkiy tilda asarlar yozishini biroz boshqacha baholagan. Uning ta’kidlashicha, Navoiyning shon-shuhrati chig‘atoy turkiysidagi asarlariga qaratilayotgan bo‘lsa-da, uning asarlarida fors tili unsurlari ko‘proq ko‘zga tashlanadi. U forsiy shoir bo‘lsa-da, turkiychada yozgan. Bu holatni Valmsley Chauser misolida quyidagicha tushuntirgan: “Chauserning ingliz tilisi u uchun o‘ziga xos fransuzcha edi. Boshqacha qilib aytganda, fransuzchadan inglizchaga o‘tish edi”. Shuning bilan bir qatorda Valmsley Navoiy haqidagi tazkiralarga birma-bir to‘xtalib, Muhammad Sodiq Hamadoniyning 871 kishidan iborat "Taboqoti Shohjahoniy" tazkirasini alohida e’tirof etgan. Bu asar xronologik tartibda temuriylardan boshlanib, Mo‘g‘il hukmdori Shohjahongacha davom etgani, tazkirada Navoiy Alisher ibn Kichkina nomi bilan yuritilgani ko‘rsatib berilgan.

Shu tarzda ko‘plab yaratilgan tazkiralarni o‘rganib chiqqan tadqiqotchi Navoiy hayoti va ijodi bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelgan:

1. Navoiy kamida bir necha avlod hukmronlik qilgan sulolalarga xizmat qilgan oiladan bo‘lgan.
2. U Sulton Husayn Boyqaro bilan bolaligidan do‘st bo‘lgan.
3. U shoir Jomiyning yaqin do‘sti bo‘lgan.
4. U yuzlab jamoat ishlari uchun mas’ul bo‘lgan.

5. U son-sanoqsiz rassom va hunarmandlarga homiylik qilgan.

6. U ham chig‘atoy turkiy, ham forsiy tilda ijod qilgan.

7. U birinchi turkiy "Xamsa" muallifi[69].

Ko‘rinib turibdiki, Valmsleyning bu boradagi xulosalari zamonaviy o‘zbek navoiyshunosligi xulosalaridan jiddiy farqlarga ega emas[70].

Tadqiqotning uchinchi bobida esa Valmsley qo‘lyozma asarlarga to‘xtalib, ularning qadr-qimmati, umrboqiyligi va orginalligini ochib bergan. Kotiblar ichida Abduljamil kotib tadqiqotchining e’tiboridan chetda qolmagan. Abduljamil kotib o‘zining mashhur "Tuhfat al-salotin" asarini tuzishda Navoiyga tayangani va undan ikki maqsadga ko‘ra foydalanganligi, birinchisi, ishqning bosqichlarini ochib berishda, ikkinchisi Navoiy asarlarining ichki tuzilishidan foydalanib o‘z asari tuzilishini belgilashda. Asar tarkibiy jihatdan dastlabki besh tuhfa, Allohga hamd, Muhammad (s.a.v)ga na’t bilan boshlangan. Tadqiqotchi ushbu asarlarning bir nechta o‘rinlarini alohida ajratib o‘tib, ularni Navoiy asarlari bilan bog‘lashga intiladi. Valmsley asardagi e’tiqod, ishonch, so‘fiylik, zohidlik, faqr va fano, boylik, qashshoqlik haqidagi mavzularni bevosita Navoiyning "Hayrat ul-abror" va "Lison ut-tayr" asarlarining g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liqligini aytib o‘tadi. Xoh masnaviy, xoh g‘azallar mavzusi, xoh forsiy, xoh turkiy tilda bo‘lsin, mavzular bir xil: moddiy olam egasi o‘z nafsini yo‘q qilish ilinjida moddiylikni rad etgan darveshdan ko‘p narsa o‘rganadi. Buni ko‘rsatish uchun Abduljamil Navoiyning o‘n uch baytdan iborat g‘azalidan bir qancha baytlarni keltiradi. Bu baytlarda hukmdor va darvesh o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar ta’kidlanadi. Tadqiqotchining fikricha, Navoiy g‘azalidagi podshohlik va darveshlik Husayn Boyqaro va shoirning o‘ziga oiddir.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobida esa XIX asr boshlarida Amir Umarxon davridagi adabiy muhit, o‘sha davr shoir-u yozuvchilarining asarlarida Navoiyning ta’siri, Navoiy g‘azallariga muxammas bog‘lash an’anasi kabi masalalar ko‘zdan kechirilgan. Amir Umarxon davrida adabiyot, san’at, tibbiyot, qurilish ishlari gullab yashnagani, shuning uchun ham bu davrda ko‘plab shoir-u shoiralar, kotiblar, tarjimonlar yetishib chiqqani ta’kidlanadi. Valmsley bu bobda XIX va XX asr boshlarida, asosan, Qo‘qon va Xivadagi adabiy muhit, xususan, Alisher Navoiy ijodiga javob tariqasida yozilgan muxammaslarni va bu muxammaslarni yozgan shoirlar qachon, qayerda, qanday sharoitda yozganligini, javoblar qanday shaklda saqlanganligini ko‘rib chiqqan. Navoiy asarlari Nizomiy, Fuzuliy, Bedil asarlari bilan bir qatorda islom mohiyati, fiqh va falsa kabi an’anaviy yo‘nalishlarni qamrab olganligi sababli O‘rta Osiyo maktablarida o‘quv dasturiga kiritilgani qayd etilgan.

---

[69] Ko‘rsatilgan manba, – P. 148 – 150.

[70] G‘aniyeva Suyima. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. – T.: Fan, 1968. – B. 90 – 100.

Shu bois qo‘qonlik va xivalik olimlar Navoiyning asarlari bilan tanish bo‘lishi bilan bir qatorda ko‘plab muxammaslar bog‘lagani asoslangan.

Valmsleyning xulosalariga ko‘ra, yuz yil davomida O‘rta Osiyoning kamida o‘n uch shoiri, asosan, xiva va qo‘qon adabiy muhiti vakillari Navoiyning "Aylab " radifli g‘azaliga muxammas bog‘lagan. Muxammas yozgan shoirlar ichida tadqiqotchi Munis va Ogahiyni alohida e’tirof etgan. Shuningdek, tadqiqotchi “Aylab” radifli g‘azalning matla’si va ko‘plab ijodkorlarning matla’ning birinchi misrasiga bog‘lagan muxammaslarini maxsus tahlil qiladi. Bu jarayonda shoirlar bir-birini to‘ldirib borgani va har bir shoirning bog‘lagan misrasi bir-biriga o‘xshashi, ya’ni biri ikkinchisini taqozo etgani ochib berilgan.

Beshinchi faslda esa Valmsley Navoiy asarlarini tushunish, turkiy til grammatikasi, o‘sha davrda va undan keyin tuzilgan lug‘atlarga to‘xtalib o‘tgan. Lug‘at haqida fikr yuritib tadqiqotchi shunday deydi: “Lug‘atlar Navoiyning adabiy idiolektiga, ya’ni bir kishi gapiradigan tilga yo‘l ochadi”. Navoiy asarlariga bag‘ishlangan leksikografik asarlar XVIII asrning boshlaridan boshlab,ayniqsa, O‘rta Osiyoda ko‘proq nashr etilgan. Bu bobda leksikografik asarlar turiga kiruvchi kichik asarlardan boshlab eng yiriklarigacha ko‘rib chiqilgan.Shuningdek, tadqiqotchi Navoiy asarlarini yoritib berish jarayoni uning hayotlik davrida boshlanganligini aytib o‘tgan. Toli Imoniyning “Badai al-lug‘at” asari bunday asarlarning birinchisidir.Bundan keyingi lug‘atshunos olim sifatida Mahdixon Astrabodiy va Fath Ali Qojar Qazviniy tan olingan.Bu lug‘atlardagi har bir bob boshlang‘ich unlisiga ko‘ra bo‘lingan.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqotda Alisher Navoiyning vafotidan to XIX asr oxirigacha (1500 – 1900) turkiy adabiyot rivoji, mazkur sohaga Navoiy ijodining ta’siri masalalari o‘rganilgan. Xususan, Markaziy Osiyo, Hindiston, Eron va Usmonlilar o‘lkasida Navoiyning adabiy merosi va an’analarini saqlab qolishda, yoyishda kitobxonlar, ijodkorlar qanday rol o‘ynaganligi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu tadqiqotda Alisher Navoiy obro‘-e’tiborining asoslari va u nima uchun keying davr o‘zbek adabiyoti uchun muhim sanalganligi ham tadqiq etilgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nicholas Walmsley. The Yasaviyya in the Nasāʾim al-maḥabba of ʿAlī Shīr Navāʾī: A Case Study in Central Asian Hagiography. Journal of Sufi Studies. Vol. 3. Issue 1. 2014. – P. 38 – 66.

2. Nicholas Gegard Walmsley. O Navai imitation, innovation, and the invention of a Central Asian literary icon. ProQuest LLC, 2016.

3. G‘aniyeva Suyima. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. – T.: Fan,1968.

4. Алишер Навоийнинг мероси ва унинг жаҳоншумул аҳамияти. Илмий-назарий анжуман маърузалари тезислари. – Т.: Фан, 2001. – 54 б.

5. Маллаев Н. Асрлар эътирофи ва таъзими. − Т.: Фан, 1978. – 64 б.

## “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA VAFO VA SADOQAT TALQINI

*ERGASHEV AVAZBEK*
*ToshDO‘TAU talabasi*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada “Hayrat ul-abror” dostonida vafo va sadoqat tushunchasining badiiy talqini haqida tahlillar amalga oshirilgan. Komil inson sifatlarida – vafo va sadoqat muhim o‘rin tutishi dalillangan. Ikki vafoli yor hikoyati va vafo to‘g‘risidagi qarashlar o‘rganilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *“Hayrat ul-abror”, vafo, sadoqat, ikki vafoli yor, talqin, tahlil.*

Necha asrladan buyon ham nazmda, ham nasrda yashab kelayotgan mavzulardan biri vafo va sadoqat mavzusidir. Bu mavzu mumtoz adaiblar qatori Hazrat Navoiy ijodida ham munosib o‘rin egallaydi. Komil insonga xos bo‘lgan adab, qanoat, saxovat kabi xislatlar bilan bir qatorda vafo va sadoqat ham “Xamsa” dostonlarida, ayniqsa, “Hayrat ul-abror”da yuksak darajada badiiy talqin etilgan. “Hayrat ul-abror” dostonining sakkizinchi maqolati vafo haqida. Dostonni o‘qir ekanmiz, Hazrat Navoiy Vafoni – kondan qazib olinadigan yoxud dengiz qa’ridagi durlardan-da a’lo hisoblab, uni butun jahonni yoritib turuvchi gavharga qiyoslaydi. Chindan ham, vafo tushunchasi insondagi noyob xislatlardan biri. Negaki, vafoli inson bo‘lish – mushkul ish. Hazrat ham bejizga “Kimda vafo gavhari bo‘lsa, unga doimo azob-uqubat yor bo‘ladi”, - deya ta’kidlamagan. Shuning uchun ham uni ko‘pincha Anqo[71] ga o‘xshatishadi. Ma’lumki, Alisher Navoiy ijodida islomiy ruh yetakchilik qiladi. Jumladan, “Hayrat ul-abror” dostoni ham shunday xarakterga ega. Chunki asardagi qaysi maqolat yoki hikoyatni o‘qimaylik, unda dinimiz ahkomlarining shoirona ta’rifu tavsiflarini uchratamiz. Shoir vafoni tasvir etar ekan, undagi “vov” harfi “Semurg‘” so‘zidagi “sin” harfining o‘ndan biri (“vov” son e’tibori bilan 2 ga teng) bo‘lganidek yashirinligini, “fo”si Qof tog‘i ostidagi “fo” dek ayon va “alif”i “kimyo” so‘zi oxiridagi “alif”ning o‘ziligini aytadi, nuqtasi esa dunyodagi eng aziz o‘simlik (mehrigiyo) chanog‘idagi (kamyob) urug‘ ekanligini ta’kidlaydi. Vafo ta’rifida davom etar ekan, uni dunyodagi qimmatbaho narsalarga solishtiradi. Uni har qanday dur-u javohirlardan ham a’lo hisoblaydi:

*Har durining lam’asi sham’i farog‘,*

[71] **Izoh:** Anqo - afsonaviy qush, rivoyatlarda u qushlar podshosi deya tasvirlanadi; uning qanoti va patlari esa oltin-u kumushdan deya talqin etiladi.

*Ne dur-u sham', duri shabcharog'.* – (“Hayrat ul abror”, …bet). Ya’ni, uning qiymati shu darajadaki, butun bir konning bahosidan, konninggina emas, butun borliq va makonning bahosidan ham ortiq.

Hazrati Odam – Alloh tarafidan bekam-u ko‘st yaratilgan oliy mavjudot, “uning yer yuzidagi xalifasi”. Ammo mana shu buyuk inson hamisha dard-u g‘amlarini, sirlarini tinglovchi, uni tushunib, his eta oluvchi odamga muhtoj. Agar ichidagilarni tashqariga chiqarmasa, ko‘nglidagilarini birovga aytmasa, - deydi Navoiy, - dard uning tanasidan chiqqan shu’lani alangalatib, tutunini osmonning naryog‘iga o‘tkazib yuboradi:

*Tig‘i balo ko‘ksini chok aylagay,*

*Dard oni bir damda halok aylagay.* (“Hayrat ul abror”, …bet). Ya’ni: balo tig‘i ko‘ksini yorib, dard uni bir nafasda halok qiladi.

Hazrat shu o‘rinda vafodor inson haqida ham to‘xtalib o‘tadi. Vafolilar ko‘pincha, azob-uqubatga duchor bo‘lishadi. Bunday odam kimni ko‘rsa, o‘zini unga do‘st deb biladi, unga o‘zining mehrini, gavhardan-da qimmat vafodorligini izhor etadi. U kishi yaxshi odammi, yomon odammi, baxti kulganmi, yo‘qmi - bundan qat’iy nazar, unga beixtiyor shafqat ko‘rsatadi. Lekin afsuski, ba’zi bir odamlar vafoning qadrini anglab yetmay, vafodor insonlarning sha’nini toptayveradilar:

*Har kishi hamkim bu guhar bor anga,*

*Ranj-u ano doim erur yor anga.* (“Hayrat ul abror”, …bet). Ya’ni: Kim ushbu guhar – vafo bor ekan, jabr-u jafo unga doim yor bo‘ladi.

Chindan ham, biror kishi boshqa birovga yaxshilik qilgan bo‘lsa-yu, o‘rniga ming jafo ko‘rsa ham, jafolardan batamom qutula olmaydi (ular kelishda davom etaveradi). Axir mevali daraxtning shoxlari gullab, qancha ko‘p meva tugmasin, uni termoqchi bo‘lgan kishilar shuncha ko‘p tosh otishadi; kon ham qancha ko‘proq gavhar berar ekan, konchi uning ko‘ksini shuncha ko‘p chok qiladi deya o‘z fikrlarini dalillaydi.

Navoiy fikricha, yolg‘iz odam – odam qatorida sanalmaydi. So‘qqabosh orzusiga ham yetolmaydi, hattoki osmon shohi deya ta’riflanuvchi burgutning ham bir qanoti sinar ekan, harchand harakat qilmasin, ucha olmaydi, axir, “qars – ikki qo‘ldan chiqadi”. Ikki toshni bir-biriga urmasa, o‘t qayoqdan paydo bo‘ladi?

Haqiqatan, yolg‘iz inson- dursiz chig‘anoqdek, chunki ichida sadafi bo‘lmagan chig‘anoqning oddiy toshdan nima farqi bor? Do‘st-u yorsiz inson - misoli qanotsiz qush. Dunyoga o‘z hukmini o‘tkazuvchi jahongirlar ham do‘st-u yorga muhtoj, agarda ularning ham yonida hamdami bo‘lmaganida edi, ichidagi buncha dard yuki ularga og‘irlik qilgan bo‘lardi. Demak, yor shunday bebaho bir gavharki, unga shoh-u gado birdek muhtoj. Yolg‘izlik esa faqat Yaratganga xos. Xo‘sh, unda nega barcha

bir-biriga oshno bo‘lib ketolmaydi? Aynan shu savol bilangina biz mavzuning mohiyatini to‘la anglay olamiz. Buning sababi – ishonch va sadoqatdir.

Navoiy ham bunday sifatlarga ega bo‘lganlarni topish mushkul deb bilgan. Agarda bo‘lsa, u odamzot ichida emas, balki malak – farishtalar orasida bo‘lishi mumkin deya ta’kidlaydi. Qizig‘i shundaki, o‘z fikrini isbotlash uchun e’tiroz bildiruvchilarga savol bilan yuzlanadi:

*Gar sanga bor ersa, bu so‘zda xafo,*
*Qaysi parichehrada ko‘rdung vafo?*

Agarda shoir ta’riflagan o‘sha vafodor inson odamlar orasida bo‘lsa ham, juda kamyob. Lekin noumid – shayton. Uni qidiruvchilarga Navoiy aytganidek, “g‘alaba yaqindir” oyati madad. Mabodo shunday yorga duch kelinsa, ular haqqiga hatto osmon ahli ham “ko‘z tegmasin” deya duo qiladi. “Agarda, - deydi Navoiy, - kim yoridan vafo ko‘rib, unga javoban jafo qilmasa, jonim uning yo‘lida qurbon bo‘lsin”.

Maqolat so‘nggida shoir saboga murojaat qilar ekan, uning holini o‘sha u izlayotgan noma’lum vafoli yoriga yetkazishini o‘tinadi. U ham shunday vafodorga muhtojligini anglatib, uni topmasa, bu dunyoda yashashidan maqsadi qolmasligini aytadi, ko‘nglida armon ila yo‘qlik olami tomon ketishni afzal ko‘rishini ta’kidlaydi.

Agarda kimda kim o‘sha yorga yetishsa, butun jism-u jonini unga sadqa qilsin, borlig‘ini unga bag‘ishlasin, yo‘qsa, menga taqlid qilgan holda mening yo‘limni tutsin deya o‘z tavsiyasini beradi. Bilamizki, Navoiy vafo borasida nihoyatda sobit. Sevgan qizining boshqa kishiga turmushga chiqqanini eshitganda ham unga bo‘lgan sevgisidan voz kechmaydi. O‘z sevganiga vafo ko‘rsatib hayotda toq o‘tadi. Navoiy nazdida vafoli bo‘lish ikki tarafdan bo‘lsa, ko‘ngillarga safo keltiradi:

*Aylasalar ikki tarafdin vafo,*
*Yetgay alar jonig‘a oncha safo*

*Kim sifati sig‘magay avroq aro,*
*Demayin avroqki, ofoq aro,* - deya o‘z xulosalarini yakunlaydi.

Avvalgi yozilgan “Xamsa”larning birinchi dostoni an’anasi o‘laroq “Hayrat ul-abror”da ham har bir maqolatdan so‘ngra shu mavzuga mos bo‘lgan bir hikoyat keltirilgan. Jumladan, sakkizinchi hikoyatda Amir Temur istilosi davrida Hindistonda uyushtirilgan qatli om va uning ikki vafodor yor sababli to‘xtatilishi hikoya qilingan.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida vafo va sadoqatni qadriyat darajasiga ko‘targan. Vafoli bo‘lish insondan mashaqqatlarga tayyor bo‘lishni, irodali, adalotli bo‘lishni ham talab qiladi. Dostondagi ikki vafoli yor hikoyati bunga yorqin dalildir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.Yusupova, O.Davlatov; Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostoni. - “Tamaddun” nashriyoti, Toshkent-2021.

# TARIXIY ASARLARDA VA TAZKIRALARDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SIYMOSI

*Eshniyozova Matluba Ne‘mat qizi*

*ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta‘limi fakulteti 2-kurs*

eshniyozovamatlyuba@gmail.com

*+998932303103*

***Annotatsiya.*** *Maqolada shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatiga, uning badiiy-ilmiy salohiyatiga va shaxsiyati, fazilatlariga oid ma’lumotlar tarixiy asar va tazkiralar asosida ochiqlangan. Natijada Zahiriddin Muhammad Bobur portretiga oydinlik kiritilgan. Adabiyotshunoslikda adabiy va badiiy portret chizgilariga oid xulosalar asnosida adabiy portretga urg‘u qaratilgan. Shuningdek, bir nechta tazkira va tarixiy asarlardagi Bobur Mirzo haqida tarixiy ma’lumotlar hamda uning shaxsiyatiga doir fikr va mulohazalarga tayanib, umumlashtirilgan holda Bobur adabiy portreti yoritilgan.*

**Abstract:** *In the article, the information about the life and work of the king and poet Zahiriddin Muhammad Babur, his artistic and scientific potential, personality and qualities is revealed based on historical works and sketches. As a result, the portrait of Zahiriddin Muhammad Babur was clarified. In literary studies, the emphasis is on the literary portrait during the conclusions about the lines of literary and artistic portraits. Also, based on historical information about Babur Mirza from several tazkiras and historical works, as well as thoughts and opinions about his personality, Babur's literary portrait is highlighted.*

***Kalit so‘zlar****: tazkira, tarixiy asar, “Boburnoma”, “Mubayyin”, aruz ilmi, Hindiston, Kobul, musiqa ilmi.*

***Key words***: tazkira, historical work, "Baburnoma", "Mubayyin", science of aruz, India, Kabul, science of music

*Tarixdan ma’lumki, biron bir tarixiy shaxs hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlarni to‘plash va kitob shaklida yozib qoldirish ishlari ancha rivojlangan bo‘lib, ko‘pincha, podshohlarning nasabi, harbiy yurushlari va fazilatlari haqidagi ma’lumotlar shu shaklda to‘plangan. Shohning*

*fazilatlari, saxovati, ilmi, kuch-qudrati haqida madh etilgan bu tarixiy asarlar keyinchalik ijodkor va san'atkorlar haqida ham ularning zamondoshlari tomonidan ma'lumotlar yozib qoldirish ishlari bilan boyitildi, va ular "tazkira", "noma" va "tarixiy asar" nomi bilan yuritildi. Bu kabi tazkira va tarixiy asarlarda yozuvchi tasvirlayotgan shaxs haqida mavjud ma'lumotlarini va o'zining bu ma'lumotlarga xolisona xulosasini beradi. Yozuvchi go'yoki uning so'zlar vositasida tasvirini chizib, u insonning shaxsiyati va fazilatlarini yanada to'liqroq ochishga harakat qiladi. Adabiyotda aynan portret janri deb yuritiladigan bu janrda har bir portretga olingan shaxsning qaysidir jihatlari ochib beriladi va yozuvchining xulosasi bilan umumlashtirlib, uning yaqqol tasviri yuzaga chiqadi.*

*Adabiyotshunos olim D.Quronov adabiy portretga shunday ta'rif beradi: "B*iron-bir shaxs hayoti va faoliyatini atroflicha yorituvchi hujjatli yoki memuar ocherk tipidagi asarlar ham analogiya asosida ba'zan portret deb ataladi (masalan, "Ajoyib kishilar hayoti nashri" turkumidagi asarlar). Shuningdek, tanqidchilikda keng tarqalgan yozuvchi hayoti va ijodini yorituvchi adabiy tanqidiy asarlar janri adabiy portret deb belgilanib, muomala amaliyotida ko'pincha portret deb yuritiladi" (Quronov va boshqalar, 2013, 228-bet). O'zbek adabiyotida adabiy portret janrida talaygina asarlar yaratilgan. Biroq biz turli manbalardagi ma'lumotlarlarni jamlagan holda Mirzo Bobur adabiy portretini kuzatmoqchimiz.

Bir qancha ma'lumotlarga tayanib shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning tarixiy asarlar va tazkiralardagi portretiga to'xtalar ekanmiz, har bir tarixiy asar va tazkira mualliflarining Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatiga hamda uning shaxsiyatiga, qolaversa, adabiy-ilmiy merosiga turlicha yondashishganini ko'ramiz. Dastlab Sharqda tazkiranavislik an'anasini Hazrat Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasini, shuningdek, "Latoyifnoma" nomi bilan fors tiliga tarjima qilish orqali davom ettirgan *Faxriy Hiraviy*ning tazkirasini ko'rib chiqsak. *Faxriy Hiraviy* qalamiga mansub *"Ravzat us-salotin" ("Sultonlar bog'i" 1551-1555*) tazkirasi sulton, shahzoda va podshoh xonadoni vakillaridan chiqqan ijodkorlar hamda amir, shoirlar haqidagi noyob tazkiradir. Tazkirada shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ma'lumotlar quyidagicha ta'rifini topgan: *"Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh Umarshayx Mirzo farzandi edi. Va Amir Temur Sohibqironning majid avlodi sultonlaridandir. Undan keyin fahm-u farosatda va shamshir zarbida Sulton Husayn Mirzoga teng podshoh yo'q edi. Uning ishlaridan biri ushbu bo'lib, ozgina qo'shin bilan Hindiston mamlakatlarini musaxxar qilgan. Va doimiy sipohiylarga e'tiborli va ma'qul bo'ldi"*

(*Hiraviy, 2014, 68-bet*) deya Bobur Mirzoning jahongirlik va qilichbozlik mahoratini hamda oliy nasab, adolatli sarkarda bo‘lganligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, *“Va musiqa ilmida benazir edi. Va turkiy va forsiy ash‘orda va aruz va qofiyada yuksak mahorati bor edi. Va “Mubayyin” degan fiqhga oid nazm qilgan kitobi nihoyatda yaxshi bitilgan. Forsiyda ham ravon va aniq ayta olardi. Ammo turkiy she’riyatga moyilroq edi”* (*Hiraviy, 2014, 68-bet*) deyish orqali Bobur Mirzoning adabiyot ilmi va san’atda tengsiz mahorat egasi ekanligini qayd etadi. Bobur Mirzoning forsiy va turkiy mat’lasidan namuna keltirish orqali uning shoirlik mahoratiga yuksak baho beradi.

XVI asr Movarounnahr, Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Sharqiy Turkiston va Hindistonda yashagan 288 shoir haqidagi ma’lumotlar joy olgan *“Muzakkiri axbob” (Do‘stlar yodnomasi)* tazkirasida muallif *Hasanxoja Nisoriy* Bobur Mirzo nasabi hamda Chig‘atoy sultonlari ichida eng sarasi va zo‘r shijoatlisi ekanligini, shamshirining zarbi bilan Movarounnahrni bir necha bor saqlab qolishga harakat qilganini aytib, uni shijoatli podshoh sifatida tasvirlaydi. Keyingi ma‘lumotlarda esa uning Hind o‘lkasi sari yuz tutganini, Hind yurti va uning xalqi ta’rifini keltirib, Bobur Mirzoning hind xalqi boshida daryo misol qo‘li bilan saxovat olamini yoritib yuborganini aytish orqali odil va saxovatpesha, xalqparvar shoh bo‘lganini ko‘rsatib beradi. Nisoriy Bobur Mirzo fazilatlari haqida to‘xtalarkan, uning aruz bo‘yicha yozgan risolasini dengizga qiyoslaydi: fiqh masalariga oid “Mubayyin” asarini ulug‘laydi. Uning donishmandligiga shubha qilmay, turkiy va forsiy she’rlarini yuqori baholaydi. Bobur Mirzoning adabiy-ilmiy salohiyati jihatidan yuqori ekanligining guvohi bo‘lamiz. Ma‘lumotlarning so‘nggida ijodidan ikkita matla’ keltirilib, ularning “dilpazir, ajoyib-u benazir , ko‘p sudmand, va’zda aytish uchun dilpisanddir”, deya Bobur Mirzoning so‘zamolligini ta’kidlaydi. So‘ngra Bobur Mirzoning Agrada vafoti va uning Kobulga dafn qilingani haqida yozadi. Podshoh uchun Qur‘on tilovat qilib, Allohdan unga oliy darajotlar tilab, fikrini tugallaydi.

Keyingi manba *“Tazkirayi Qayyumiy”* o‘zbek adabiyotining o‘rta asrlardan tortib, to XX asrgacha yashab ijod etgan ko‘p vakillari hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar jamlanganligi bilan ajralib turadi. Bunda *Po‘latjon Qayyumov* biron shoir xususida so‘z yuritarkan, ilmiylik tamoyilini bosh mezon qilib oladi. Tazkirada Bobur Mirzoning nasabi, onasi haqida va 11 yoshida shoh bo‘lgani, keyinchalik urushlar natijasida mulkni berib, Afg‘onistonga safar qilgani, u yerdan Hindistonga hujum qilib, Ibrohim Lo‘diy qo‘shinini zabt etgani, mamlakatni egallagani kabi hayoti va podshohlik yillari haqida qimmatli ma’lumotlar berilgandir. Hindistondagi mayda xonliklarni tugatib, u yerda obodonlashtirish, qurish, bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgani haqida aytilgan ma‘lumotlardan Bobur Mirzoning naqadar adolatli

shoh, bunyodkorlik xislatlariga e‘tibor qaratganini anglash mumkin. Tazkirada uning vafoti va qabri haqida ham ma’lumotlar berilgan. Bobur Mirzoning olim va adib sifatida qilgan ishlari nihoyatda qiymatli ekanligini undan qolgan ikkita kitobi haqida ma’lumot berish orqali muallif yuksak baholagan. Jumladan, “Boburnoma”ning tarixiy ahamiyati va tili qiymatida ash’ori obdorlari, ruboiy, g‘azallari nodir ekanligini ta’kidlaydi. “Boburnoma”ni nabirasi Akbarshoh tomonidan chig‘atoy tilidan tojik tiliga tarjima ettirilgani haqida kerakli ma’lumot berib, Bobur Mirzo ijodidan namuna ruboiylar keltirish orqali Bobur Mirzoning badiiy mahoratini ko‘rsatib beradi (Qayumiy, 1998, 51-54-betlar).

Shuningdek, tarixiy asarlarda Bobur Mirzo hayoti va uning shaxsiyati, adabiy-badiiy mahorati haqida keltirilgan ma’lumotlarga to‘xtalar ekanmiz, dastlab Bobur Mirzo bilan zamondosh bo‘lgan, u bilan suhbatda bo‘lib, uni yaqindan biladigan *Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”* asarini chetlab o‘ta olmaymiz.

Bu asarda muallif ota-onadan yetim qolib, g‘ariblik ahvolida qolganida Boburni unga otalarcha mehribonlik qilganini minnatdorlik bilan eslaydi. Uning ta’limi uchun qayg‘urib, uni savodli qilishga harakat qilgani, o‘z suhbatiga hamsuhbat qilib, g‘amxo‘rlik qilganini Bobur Mirzoning *“Sening otang-pochcham, mening tog‘am-xon, sening aka-ukalaring,qarindosh-urug‘laring shahidlik sharbatini ichishdi,Allohga beadad shukrki; sen mening yonimga eson-omon kelding.Endi ulardan ayrilganingga hech g‘am chekma.Chunki men ularning o‘rnini ortig‘i bilan bosaman.Ulardan qanchalik mehr-muhabbat va rahm-shafqat kutish mumkin bo‘lsa,shularning hammasini,hatto undan ham ko‘pini men senga bera olaman”(Mirzo Muhammad Haydar, 2010, 18-bet)* deb aytilgan so‘zlari bilan ta’kidlaydi.

Shuningdek, asarda Bobur Mirzoning tug‘ilishi bilan bog‘liq ma’lumotlar va Hazrati Eshon Xoja Ubaydulloh tomonidan ismining qo‘yilishiga to‘xtaladi. Bobur Mirzoning fazilatlarini quyidagicha eslash orqali uning muruvvatli podshoh bo‘lganini tasdiqlaydi: *“U turli fazilatlar bilan bezangan va maqtovli xislatlarga ega bo‘lgan bir podshohdir, uning barcha fazilatlaridan shijoat va muruvvati ustun turardi” (Mirzo Muhammad Haydar,2-kitob yettinchi fasl).*

Uning adabiy-badiiy mahoratini quyidagi ta’riflar bilan yaqqol ochib beradi: *“Turkiy she’rni Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas. Turkiy tilda benihoya nafis devoni bor. “Mubayyin” nomli she’riy asar yozgan bo‘lib, fiqhga oid bu bag‘oyat foydali risola odamlarga maqbuldir. Turkiy aruzga oid asar bitgan bo‘lib, hech kim*

*ungacha turkiy aruz haqida bu qadar aniq yozolmagan. Hazrati Eshon Xoja Ubaydullohning "Risolai volidiya" asarini nazmga solgan. Uning turkiy tilda "Vaqoe'" ("Boburnoma") nomli tarixiy asari bo'lib, juda jonli, ravon, beg'ubor va tushunishga oson bir tarzda bitilgan. Musiqiy va boshqa san'atlarda ham Boburga teng keladigan odam uning xonadonida undan oldin yuzaga chiqmagan edi" (Mirzo Muhammad Haydar, 2-kitob yettinchi fasl )* deya uning yirik adabiy merosi borligini aytish bilan yakunlaydi.

Yana bir tarixiy asar *"Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin" (Qo'qon xonligi tarixi)* haqida yozilgan bo'lib, muallifi Mirzoolim Mushrif XIX asrda Qo'qonda badiiy adabiyot bilan birga tarixnavislik ham ancha taraqqiy etishiga o'z hissasini qo'shgan ijodkor hisoblanadi. Bobur va uning farzandlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan bu asarda Boburning tug'ilishidan to Qobul sari yuzlangunicha bo'lgan voqealar hamda farzandlarining hukmronlik davrlari haqida tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Boburning boshidan o'tganlari haqida batafsil fikr yuritgan holda yozuvchi ushbu asarda Shayboniyxon bilan bo'lgan urush haqida, ukasi Jahongir Mirzo bilan ziddiyatga borgani va Eron shohi Ismoil podshohning qo'llab-quvvatlaganlari haqida ma'lumotlar keltirgan. Qolaversa, Boburning Hindistondagi adolat bilan qilingan saxovatli ishlari haqida aytib, uning naqadar oliyjanob podshoh bo'lganini ta'kidlaydi. Umrining so'nggida oxir zamon talablariga sho'ng'ib ibodatni tark etmaganini aytib o'tadi. Asarda Boburning hayoti va podshohlik faoliyatiga doir qimmatli ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, yanada Bobur shaxsiyatini yaqindan tanishga yordam beradi. Mazkur asarda Boburning adabiy-ilmiy hamda san'atkorlik jihatlariga e'tibor qaratilmagandir. Uning "Boburnoma" asari bo'yicha yoki "Mubayyin" risolasi bo'yicha ham ma'lumotlar uchramaydi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan har bir tarixiy asar va tazkirada Bobur shaxsiyati va uning hayoti va podshohlik faoliyatiga doir ma'lumotlar keltirilgan. Uning adabiy-badiiy mahorati va ijodkorlik salohiyatiga urg'u berilgan. Jumladan, Faxriy Hiraviy Bobur Mirzoning jahongirlik va qilichbozlik mahoratini hamda oliy nasab, adolatli sarkarda bo'lganligini, adabiyot ilmi va san'atda tengsiz mahorat egasi ekanligini tasvirlaydi. Ammo Faxriy Hiraviy "Boburnoma" to'g'risida hech qanday ma'lumotga to'xtalmaydi.

Hasanxoja Nisoriy esa o'z tazkirasida Boburning hayoti va Hindistongacha bo'lgan voqealar to'g'risida ma'lumotlar beribgina qolmay, Bobur Mirzoning fazilatlari haqida to'xtalganda, uning aruz bo'yicha yozgan risolasini dengizga qiyoslashi, donishmandligini e'tirof etadi. Shuningdek, Bobur Mirzo uchun ham kimdir risola yozib, u asar ham "Mubayyin" deb atalganini Nisoriy tazkirasida

qo‘shimcha ma’lumot sifatida ko‘rishimiz mumkin. Nisoriy tazkirasida ham “Boburnoma” asariga to‘xtalmagan.

Mirzo Muhammad Haydar “Tarixi Rashidiy” asarida Bobur hayotini aniq va yaqqol ko‘rsata olgan. Chunki Mirzo Haydar Boburga yaqin va u bilan hamsuhbat bo‘lganligi bois uning shohlik va insoniylik fazilatlarini mamnuniyat bilan xotirlagan. Biroq turkiy aruzga oid asar bitgan bo‘lib, hech kim ungacha turkiy aruz haqida bu qadar aniq yozolmaganini, Hazrati Eshon Xoja Ubaydullohning “Risolayi volidiya” asarini nazmga solganligini tazkira va tarixiy asarlarda uchratmaymiz.

Yana bir tarixiy asar “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin” bo‘lib, muallif Mirzoolim Mushrifda faqatgina Boburning hayoti va shohlik faoliyati qamrab olingan bo‘lib, unda uning adabiy-badiiy mahorati ochib berilmagan. Boburning saxovatpesha shoh va adolatli sarkardalik faoliyati yoritilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Қуронов, Д. ва бошқалар. (2013). Адабиётшунослик луғати. (406 бет). Тошкент: Академнашр.

2. Ҳотамов, Н., &Саримсоқов, Б. (1979). Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. (368 бет). Тошкент: Ўқитувчи.

3. Ҳиравий, Ф. (2014). Равзат ус-салотин, жавоҳир ул-ажойиб. (177 бет). Тошкент: Мумтоз сўз.

4. Нисорий, Ҳ. (1993). Музаккири аҳбоб. (344 бет) Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.

5. Қаюмов, П. (1998). Тазкираи Қаюмий. (246 бет) Тошкент.

6. Ҳайдар, М. (2010). Тарихи Рашидий. (751 бет) Тошкент: Шарқ.

7. Мушриф, М. (1995). Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. (127 бет) Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти.

## MASHRABNING AYRIM G‘AZALLARIDA FANO VA BAQO TALQINI MASALASI

*Fayzullayeva Muazzam Mustafo qizi*
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiya fakulteti*
*4-kurs talabasi fayzullayeva_2003@mail.ru*

**Annotatsiya.** *Maqolada tasavvuf adabiyotining bebaho va nodir namoyondasi bo‘lgan Rahimbobo Mashrab g‘azallaridagi fano va baqo irfoniy falsafasi talqini atroflicha tadqiq etildi. Fano va baqo g‘oyalarining so‘fiy adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati Rahimbobo ijodiyotidagi ayrim g‘azallardan olingan parchalar misolida yaqqolroq ko‘rsatildi.*

**Kalit so‘zlar:** *tasavvuf, fano va baqo, irfoniy g‘oya, foniylik maqomi, voqe‘lik.*

**Abstract**. *In the article, the interpretation of the mystical philosophy of death and survival in the ghazals of Rahimbobo Mashrab, which is an invaluable and rare manifestation of Sufism literature, was thoroughly researched. The role and importance of the ideas of death and survival in Sufi literature was more clearly demonstrated by the example of excerpts from some ghazals in Rahimbobo‘s work.*

**Keywords:** *Sufism, death and survival, mystical idea, status of mortality, reality*

“Fano” va “baqo” atamalari diniy-axloqiy tushuncha sifatida Sharq irfoniy, tasavvufiy, falsafiy va badiiy adabiyotida juda keng qo‘llanilgan. Bu ikkala so‘z ham arabcha izohda fano “mavjud bo‘lmaslik”, “yo‘qlik” ma‘nolarida kelsa, baqo fanoning ziddi sifatida “davomiylik”, “abadiylik” kabi ma‘nolariga ega. Shuningdek, baqo boshqa arab tilli izohli lug‘atlarda ham “abadiylik”, “bardavomlik” va “sobit turish” ma‘nolarida keladi. Asosan, narigi dunyo boqiylik sifatida tasvirlangan bo‘ladi. Masalan, bir inson vafot etsa, “dorul baqoga safar qildi”, deyiladi[1]. Tasavvuf ilmi istilohida esa maqtanilgan xulq-atvorlarning muridda jam bo‘lishiga nisbatan aytiladi[2].

Fano haqida so‘z borganda esa bu istiloh “baqo”ning ziddi o‘laroq lug‘atda “yo‘q bo‘lish”, “halok bo‘lish” va “o‘lim” ma‘nolarida keladi. Misol uchun: Bir qavm boshqa bir qavmni halok qilsa, “fano qildi” deb ham ishlatiladi. Tasavvuf ilmi istilohida esa, yomon xulq-atvorlarning muriddan soqit bo‘lishiga nisbatan qo‘llanadi.

Murid har qanday vaziyatda bo‘lmasin, mana shu ikki sifatdan biri unda, albatta, mavjud bo‘ladi. Agar bir sifat kelsa, boshqasi uni tark qiladi. Murid baqoni, yani, har qanday holida ham Alloh taoloni his etib turadi va hech qachon bu holatdan ajramaydi, deb ham ta‘riflashadi. Qaysiki murid yomon sifatlardan foniy bo‘lsa, go‘zal sifatlarda boqiylasha boshlashi haqida ilmiy-nazariy adabiyotlarda ma‘lumotlar keltirilgan.

Islom dinida baqo – Alloh sifatlaridan biri. Tasavvufda baqo Allohning boqiy do‘sti bo‘lib qolish uchun o‘zidan voz kechish, barcha yaxshi sifatlarni o‘zida mujassam qilish deb ham tushuniladi. Fano – o‘zidagi barcha yomon sifatlarni yo‘q qilish yo‘li bilan Allohga yaqinlik hosil qilishlikdir. Tasavvufda solik fano maqomiga yetgach, Allohning haqligi va ulug‘ligi to‘g‘risidagi fikr-u zikrga g‘arq bo‘lib, bu foniy dunyodagi jamiki narsalarni unutib yuboradi. Bu maqom «fano filloh» deb ataladi[3]. Junayd al-Bag‘dodiyga ko‘ra hamma narsa Allohda boshlanadi va vaqtinchalik tafriqdan keyin Unda mavjud bo‘lishi uchun yana Unda jam‘ bo‘lishi holati fano va baqo tushunchalari bilan umumiy bog‘liqdir. Fano – Allohga g‘arq bo‘lish, bandaning o‘zligi “erib”, xuddi tomchi ummonda yo‘qolib ketganidek,

kichik narsaning katta narsada yo‘q bo‘lib ketish hissi. Qudsiy hadis mazmuni – “Agar Men bandamni yaxshi ko‘rsam, uning ko‘radigan ko‘zi, ushlaydigan qo‘li, yuradigan oyog‘i bo‘laman”. Fanoning eng yuqori bosqichi – jam‘dir. Baqo – fanodan keyin kelib, atrofdagilarga fanoda olgan ilohiy bilimlarni yetkazish holati. Xususan, insoniyatning butun tarixi Qur‘onda tasvirlangan al-Miysoq – Xudo va bandalar o‘rtasidagi bitimni bajarishga va yaralishidan oldingi holatiga qaytishga intilishi bilan bog‘liqdir. Xarrozga ko‘ra, fano – qalbdan barcha shahvat va dunyo hoy-u havaslarining yo‘q bo‘lishi. Baqo – qalbda faqatgina Allohning qolishi. Jam‘ – har ishda Xudoni ko‘rmoq. Shuningdek jam‘ ma‘rifatulloh uchun, tafriq esa bandalik uchunligi haqida ayrim mulohazalar ham aytilgan. Farq – Xudoni va Uning maxluqotlarini mohiyati yaratilgan mavjudotlar shaklida ko‘rish.

Bu tushunchalar Qur‘ondagi Anfol-17: “Otganingizda Siz otmadingiz, (ey, Muhammad!) balki Alloh otdi”; Baqara-115: “Mashriq ham mag‘rib ham Allohnikidir. Bas, qaysi tarafga yuzingizni qaratsangiz, o‘sha tomonda Allohning “yuzi” mavjuddir” kabi oyatlarning so‘fiyona talqinidir[4].

Turkiy tasavvufiy terminlar lug‘atida keltirilishicha uch turli fano mavjuddir:

1) “Fano fil-kusud”: Qulning o‘z shaxsi irodasi va istagiga ko‘ra emas, Allohning irodasi va xohishiga ko‘ra harakat qilishi, o‘z irodasini Allohning irodasida foniy qilishi va yo‘q qilishi. Bu holdagi solik “La maqsudi illallah”, “La matlubi illallah”, “La mabudi illallah”, “ilahi anti maqsudi va rizaqi matlubi” der.

2. “Fano fish-shuhud”. Allahdan boshqa narsani ko‘rmaslik. Ishq va vijdon ta‘sirida har narsani Ollohning tajallasi sifatida ko‘rish. “La mashudi illallah” bu holdagi soliklarning so‘zidir.

3. “Fano fil-vujud”. Borlikda foniy bo‘lish, har narsani ham Olloh o‘laroq ko‘rish, Olloh o‘laroq bilish va bu holga zavq va shavq bilan yetishish. Bu martabada bo‘lganlar “La mavjudi illallah” derlar. Bu mazmun-mohiyatlarni umumlashtirgan holatda ifoda etadigan bo‘lsak, qul (banda)ning o‘zini o‘zi ko‘rmaslik holi,- deyish maqsadga muvofiqdir. (Ibn Arabiy) Bu martabada bo‘lganlar: “La faili illallah”derlar. Bundan tashqari “Fano fish-shayx – Fano fil-pir” – muridning murshidda, darvishning pirida foniy bo‘lish holi ham mavjuddir. Muridning o‘z shaxsiy iroda va istaklarini yo‘q etib o‘rniga shayxning iroda-orzusini qo‘yishi, ya‘ni, shayxga o‘zining to‘g‘ri fikridan ko‘ra xatosini afzal ko‘radigan darajada itoat qilish, shayxda foniy bo‘lish Allohda foniy bo‘lishning muqaddimasi va boshlang‘ichidir. “Fano fir-Rasul”: Solikning Hazrati Payg‘ambarga nisbatan tuygan ishq va muhabbati ta‘sirida unda foniy bo‘lishi holidir.

Ta’kidlanganidek, fano mavzusi – ummon misoli keng va chuqurdir. Bu ummonga sho‘ng‘igan g‘avvos – solik baqo durrini qo‘lga kiritadi.

Hazrat Navoiyning tazkiralarida fanoning talqin qilinishi ayni mavzuning lirik va liro-epik asarlaridagi talqinlaridan yondashuv nuqtai nazari bilan ma‘lum darajada farqlanadi. Lirik asarlarda va dostonlarida fano xususida so‘z borganda, asosan, muallifning subyektiv qarashlariga, ya‘ni, fano muallif nazdida qanday ma‘no-mohiyatga, talqinga ega ekaniga guvoh bo‘lganimiz holda tazkiralarda, xususan, “Nasoyim ul-muhabbat”da bu tushunchaning obyektiv talqinini ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni tazkirada aniq tarixiy shaxslar, avliyo zotlar, ulug‘ so‘fiylar hayot yo‘lida ro‘y bergan, shaxsan ular bilan sodir bo‘lgan voqea-hodisalar berib boriladiki, sinchiklab e‘tibor qilinsa, bu yuksak martabali zotlarning aksariyatida fano maqomidagi turfa hollar ro‘y berib turgani yaqqol anglashiladi. Bunga tazkiraning ilk sahifalaridayoq shohid bo‘lamiz. Masalan, asarda ilk o‘rinda zikr etilgan Shayx Uvays Qaraniy haqida o‘qir ekanmiz mana bu tasvirga duch kelamiz: “Uhud urushida Payg‘ambar s.a.v.ning muborak tishi shahid bo‘lg‘onin eshitib, mutobaat uchun o‘ttiz ikki tishin ushotti. Har birinki, ushotur erdi, der erdiki, shoyad bu tish emas erdi ekin. Yana birni ushotur erdi. To mundoq qilib, barcha tishlarin ushotti”[5]. Uvays Qaraniyning ushbu lavhadagi holi – “Fano fir-rasul” ekanini xulosa qilish mumkin. *Fano fir-rasul* – Rasulullоh s.a.v.ni juda sevmoq va u kishida foniy bo‘lmoq. U zotni molidan, hatto jonidan ham ko‘proq sevmoqdir.

Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” muqaddimasida “Nafohot” haqida so‘z yuritarkan, asar haqida “ishorat ahli tiliga vobasta va ul tillar vuqufidin bahravarlar va ul iborat-u ishoratdin boxabarlar ul alfozdin o‘z qobiliyatlari xurdida va ishtig‘ollari muqobalasida naf‘lar toparlar va fayz elturlar” deya ta‘riflaydi. Bu shuni ko‘rsatadiki, “Nafohot”ning tarjimasi bo‘lmish “Nasoyim” ham ishorat tili bilan yozilgan. Fano va baqo, shubhasiz, ana shu ishorat tilini anglashdagi kalit tushunchalardandir.

“Fano” lug‘aviy jihatdan “o‘lmoq”, “halok bo‘lmoq” mazmunida kelsa-da, istilohda so‘fiy ko‘zidan “g‘ayri naqshi”ning o‘chishi ma‘nosini anglatadi. Xususan, Islomiy tasavvufga ko‘ra, bandada yo‘qlik holi yuz berib o‘z sifatlari uni tark etadi va o‘rnini Allohning sifatlari egallaydi. Ya‘ni, banda inson sifatida tashiydigan sifat va fe‘l-atvoridan xalos bo‘lib kamolot bosqichiga yetadi va yetuklashadi. Bunda yomon sifatlar va axloqlar o‘rnini ilohiy sifatlar yoki Allohda mukammal bo‘lgan ilohiy odatlar egallaydi. Bir so‘z bilan aytganda, fano komil Alloh taoloning sifatlari va axloqida yangilanish va yuksalish masalasidir. Yanada aniqroq izohlaydigan bo‘lsak, fano maqomoti banda o‘zining insoniy borligini unutib, xulq-atvori va xatti-harakatlarida ilohiy amrlarni shaxsiy xohish-istaklaridan ko‘ra afzal ko‘rishi va u o‘z nafsidan foniy, lekin Alloh huzurida qoim bo‘lishini anglatadi.

Rahimbobo Mashrab ham so‘fiy, ham lirik va faylasuf shoir, ayni holda insonsevar mutafakkir va erkin tafakkur ilovdori, adolatsizlikka qarshi kurashning fidoyi yo‘lchisi edi.

Mashrabning ijodi ko‘p qirrali. Ayniqsa, “vahdat-ul vujud” tasavvuf falsafasiga oid fikr-u qarashlar, his-tuyg‘ular Boborahim Mashrab ijodida yuksak o‘rinda turadi. U zavq-u jazbaga berilgan shoir sifatida barcha olam va borliqni ishqdan deb tushunadi. Uningcha, ishq hayot va harakatning turtkisi, yaralishning maqsadi.

Mashrab haqiqiy oshiq, ishq o‘tida kuyib kul bo‘lgan shoir, uning ruhiy ummonida ishq to‘lqinlanib turadi, alangali his va hayajonlarini yurakka sig‘dirolmay so‘z orqali ifoda qilmoqchi bo‘ladi. Lekin tuyg‘ulari shuncha alangali, nihoyasiz va sonsizkim lafz, kalima va iboralar qolipiga sig‘maydi, she’r vazni unga torlik qiladi. Shu sababli u ham ba‘zan Jaloliddin Rumiy singari she’riy an’analar chegarasidan chiqib nihoyat shirin, yoqimli va sodda iboralar bilan o‘z his-hayajonlarini ifodalab “ming ma‘nini bir nukta bilan muxtasar etdim” deydi. Shuningdek, Rahimbobo she’rlarida vazn va qofiyalar bo‘yicha ba‘zi kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Uning birincha sababi aytib o‘tilgan omil hisoblansa, ikkinchi sabab uning she’rlarini ko‘chirishda xattotlar (kotiblar) tomonidan yo‘l qo‘yilgan sahv va xatolar hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, Boborahim Mashrab qalandarona hayot kechirish jarayonida o‘z she’rlarining hammasini to‘plab devon shaklida tartibga solishga muvaffaq bo‘lmagan. Keyinroq uning she’rlari yozma nusxalardan tashqari og‘izma-og‘iz ham aytilib kelgan va turli mintaqalarda rivoyat qilinib yurgan. G‘oliban, uning asarlarini to‘plaganlar ham yozma nusxalar, ham ana shu xalq orqali aytilib yurgan she’rlarni uning ajoyib hodisalarga to‘lib toshgan hayot qissalari bilan qo‘shib yozib olganlar.

Boborahim Mashrabning forscha she’rlari uning o‘zbekcha she’rlariga nisbatan to‘g‘riroq ko‘chirilgan. Buning sababi shu bo‘lsa kerakki, ko‘pincha nusxalar turkiy til bilan chuqur oshno bo‘lmagan kotiblar tomonidan ko‘chirilgan. Bunday holatni Alisher Navoiyning ba‘zi bir asarlari va Ubaydiyning kulliyotida ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Mashrab barcha “Vahdatul-vujudiy” so‘fiylardek butun koinotda faqat bitta haqiqat, bitta haqiqiy mahbub – yagona yaratuvchini ko‘radi. Bu yo‘lda Ka‘ba va butxona farqiga bormaydi, shoir nazdida, Ka‘baga qarab yo‘l olgan va butxonaga qarab yuz tutganlarning hammasi, o‘sha yagona Haqiqatni izlaydilar. Shuning uchun ham uning kofirligi yoki musulmonligiga ko‘ngil bog‘lamaslik kerak, negaki, u azaldan “Anal-haq” aytib kelgan, shu sababli uning ishq sog‘arida har doim Mansur qoni may o‘rnida mavj urib turadi:

*Anal-haqgo‘yi ijodam, tajalliy parvari ishqam,*
*Mudom az xo‘ni Mansuram mayi dar sog‘ari ishqam,*

*Na az kufram tammanoiy, na az islomam ummidiy,*
*Nadonam ka‘ba-u butxona az ham, kofari ishqam.*

Boborahim Mashrab “al-faqru faxiy” mazmunida rivoyat qilingan hadis asosida barcha dunyoviy havo va havas, nafsoniy istaklar, mol-u davlat, toj-u taxtga berilishdan ozod bir inson sifatida faqr (faqirlik) gadosi bo‘lib yashaydi. Hofiz She’roziy “darvish-u gado bo‘lib yashayotgan bo‘lsam ham o‘zimning bitta jundan to‘qilgan qalpog‘imni yuzta shohona toj bilan almashtirishga hozir emasman” degan edi. Xuddi shunday Mashrab ham fanodan baqoga yetishish yo‘lida o‘zini unutgan jonkuyar darvesh edi. U gohi ikki olamni ikkita kovush (nalayn) kabi tashlab ketadi, chunki u haqiqiy sultonning devonalaridan va oyoqyalang rindlaridan bo‘ladi:

*Kavnaynro chu nalayn andoxtiymu raftiym,*
*Devonagani shohiym, rindi baraha poyim.*

Tasavvuf ta‘limotida Ibnul Arabiy asos solib rivojlantirgan fano va baqo ulkan falsafiy tushunchalaridan o‘sib chiqqan “Vahdat-ul vujud” yo‘nalishi Mashrab ijodiyotining ikkinchi tomoni va ajralmas qismini tashkil etib she’rlariga Jaloliddin Rumiy g‘azallaridek sho‘r-u hayajon, joziba va zavq, harorat va go‘zallik bag‘ishlaydi. Ularni o‘qigan kishi qaytadan o‘qigisi keladi. Shoir Jaloliddin Rumiy va uning sirdoshi mahshur orif Shams Tabriziyga ixlos ko‘zi bilan qarab, o‘zbekcha she’rlaridan birida “Shamsi Tabriziy manam, gohiy Jaloluddin manam” deb ularni tilga oladi. Rahimbobo she’rlarda Jaloliddin Rumiyning she’riy uslubi aks etadi va u ishlatgan ayrim atamalar ko‘zga tashlanadi.

*Az oshno gusasta, payvasta em bo do‘st,*
*Bo xiyshtan nishasta, lekin zi- xud rahoiym*
*Bo shayx ahd basta, bo luliyon nishasta*
*Dar har kujoki biyniy, hangomai xudoyim*.

Tarjimasi: - Oshnolar bilan aloqani uzib do‘stga qo‘shilganmiz, o‘zimiz bilan o‘tirgan bo‘lsak ham o‘zimizdan ozod bo‘lganmiz – ajralganmiz. Biz shayx bilan ahd-u paymon qilib lo‘lilar bilan o‘tirishganmiz, har joyda ko‘rsang biz Xudoning hangomasimiz. Birinchi ikki qatorni tushunish o‘quvchiga og‘irlik qilmaydi. Ya‘ni unda muayyan badiiy timsollar bilan so‘fiyona fikrni dalillashga harakat qilingan. Masalan, oshno – yashaliyotgan foniy dunyo ramzi. Bu istilohning o‘tkinchilik va vaqtinchalik ma‘nosida kelishining sababi oshno so‘zining lug‘aviy ma‘nosi bilan ham bog‘liqdir. Odatda bu so‘z insonning vaqtinchalik tanishiga yoki o‘z tengquriga nisbatan murojaat shakli hisoblanadi. “O‘zbek tili izohli lug‘at”ida ham oshno so‘zining birinchi lug‘aviy ma‘nosi sifatida “tanish, tanish-bilish” ma‘nosi keltirilgan va bunga muqoyasa sifatida “Bir ko‘rgan oshna, Ikki ko‘rgan qarindosh” maqoli berilgan. Demak, foniylikni, vaqtinchalikni ifodalash uchun so‘zning ayni mazmuni mosdir. Misrada boqiy hayot, abadiylik va baqo tushunchalari do‘st badiiy

timsoli orqali yorqinroq ochib berilishiga harakat qilingan. Baqo tushunchasining badiiy timsoli sifatida do‘st so‘zining berilishiga asosiy sabab yana so‘zning lug‘aviy ma‘nosidadir. “Izohli lug‘at”da “qarashlari, dili, ish faoliyati yaqin bo‘lgan, inoqlik, ahillik bilan bog‘langan ikki yoki undan ortiq kishining har biri; o‘rtoq” degan ta‘rif berilgan va do‘st so‘zi qatnashgan birikmalar sifatida “qadrdon do‘st, chin do‘st, qiyomatli do‘st, vafodor do‘st” birliklari keltirilgan.Diniy tasavvufda esa so‘zning “Alloho, ey xudo” ma‘nolari borligi aytilgan. Unga ko‘ra she’rdagi birinchi qatorni “oshno ya‘ni fanodan uzulib do‘st ya‘ni boqiylikka ergashganmiz, Alloh yo‘liga kirganmiz va fanodan baqo bo‘lganmiz” deya tushunish mumkin. Ayni shu joyda “Vahdat-ul vujud” falsafiy ta‘limotining asl mazmuni bilan aloqadorlik yuzaga keladi, “do‘stga qo‘shilish” Ollohga qo‘shilish, ulkan va yakka vujud bilan birlik hosil qilish demakdir. Matndagi “o‘zimiz bilan o‘tirgan bo‘lsak ham o‘zimizdan ozod bo‘lganmiz” jumlasini “tanamizda yashayotgan bo‘lsak ham tanaviy istaklarga qul emasmiz, ozodmiz” deya tushunish o‘rinlidir. Parchaning keyingi ma‘nolarini tushunishda esa biroz qikyinchiliklarga duch kelinishi mumkin. Bu yerdagi mazmunni aniq belgilab olish uchun “shayx” va “lo‘li” so‘zlariga e‘tibor berish va ma‘noni yorqinroq ochish uchun bu so‘zlarni “kalit so‘z” sifatida tanlab olish muhimdir. Shayx – Islom dini tarqalgan mamlakatlarda, avvalo, bilimdon kishilarga, so‘ngra ulamo va faqihlarga berilgan nom; keyinchalik muqaddas joylarning mutasaddilari ham shayx deb yuritilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, shayx – mutlaq din insoni. Keyingi “kalit so‘z” lo‘li so‘ziga esa izohli lug‘atda “ asli vatani Hindiston bo‘lib, turli davrlarda u yerdan tarqalib, dunyoning ko‘p joylarida to‘dalashib, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi hayot kechiruvchi, ba‘zi joylarda turg‘un yashaydigan bo‘lib qolgan xalqning nomi” deya ta‘rif berilgan. Bu izohlarda ko‘ringanidek lo‘lilarning e‘tiqod turi hind xalqi dini – buddaviylik bo‘lishi ehtimoli yuqorid, ya‘n, bu xalq Islom diniga mutlaqo yiroqdir.

Rahimbobo Mashrab esa bu ikki – shayx va lo‘li obrazlarini bir-biriga kontrast qo‘yish orqali ulkan tasavvufiy ma‘noni bermoqchi bo‘lgan, nazdimizda. Tasavvuf ta‘limotida “din va uning farzlari bir shakl, asosiy e‘tiborga molik jihat – mohiyatdir” degan qarash mavjud. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, Ollohning oshiqlari Unga bo‘lgan muhabbati keng va kuchliligi sababidan Uning din qoliplariga sig‘maydilar. Mashrabga o‘xshab Ollohga yetishish yo‘lining jazba tutumini tutganlar uchun shayxning qoida va qonunlari ham bir qolipdek ko‘rinsa ajabmas. Hatto Rahimbobo Mashrab shayx va zohidlarni, din ulamolarini keskin tanqid qilardi, “Qissayi Mashrab”da bu bilan aloqador bir qancha voqealar ham keltirilgan. Shunga ko‘ra Mashrabning Shayx bilan ahd-u paymon qilgani holda lo‘lilar bilan do‘st tutinishi juda hayratlanarli hol emas.

Bu ishi bilan Mashrab shayx yoki lo‘li bo‘lishidan qat‘iy nazar “tug‘ilishda hamma musulmon bo‘lib tug‘ilishi”ni, jon qorinda paydo bo‘lmasidan oldin ruh osmonda bir dinga – Islom diniga e‘tiqod qilishini, dunyodagi butun xalqlarning asl dini – Islom ekanini eslatmoqchi bo‘lgandek. Ya‘ni Mashrab uchun dunyodagi har bir inson Olloh taoloning bandasi, shunday ekan u uchun hamma teng va birdir. Bu sababdan shoir shayx bilan ham lo‘lilar bilan ham oshnodir. Shu o‘rinda bu misradagi mazmun boshqa bir tasavvufiy g‘oya bo‘lishi mumkinligini ham aytmog‘imiz darkor. Rahimbobo buyuk so‘fiy va irfoniy shoir sifatida turli dinlar va mazhablarni bir-biridan farqlanadigan, ammo bir manzilga olib boradigan yo‘llar deb bilgani ayon haqiqatdir. Bu sababdan u shayx yoki lo‘li bo‘lishidan hamda ularning dini, yasham yo‘li, e‘tiqodi, dunyodagi maqsad va istaklari har xil ekanligidan qat‘iy nazar oxirdagi borar yo‘li va maqsadi bir ekanligini yaxshi anglagan. Zotan, Jaloliddin Rumiy hazratlari “Masnaviyi ma‘naviy” xazinalarida aytganlaridek, “Yo‘llar xilma xil bo‘lsa ham lekin maqsad birdir”. Xususan, yana shuni aytishimiz kerakki, baytdagi mazmun ham mutlaqo fano va baqo tushunchalaridan o‘sib chiqqandir, inson foniy dunyo bilan aloqani uzib Alloh sari intilishi, o‘zida yashayotgan bo‘lsa ham o‘zini(tana va tanaviy istaklar nazarda tutilmoqda) unutishi, o‘zidan ajralishi kabi holatlarni boshidan kechirishi uchun, albatta, fano va baqo olamiga qadam qo‘ygan bo‘lishi kerakdir. Chunki banda dunyo fano maqomiga erishishi uchun, avvalo, o‘z tanasida fanolik hosil qilishi ya‘ni o‘zida foniy bo‘lishi muhimdir. Shu o‘rinda aytib o‘tadigan bo‘lsak, fano va baqo falsafiy g‘oyalarining tasavvuf nazariyasida bir qancha ma‘nolari bordir. Xususan, ilmiy-nazariy adabiyotlarda va tasavvuf lug‘atlarida fano tushunchasiga “bandaning o‘zini ko‘rmaslik holi”, “banda ko‘zidan “g‘ayri naqsh”ning o‘chishi”, “bandalik ixtiyor-irodasidan butkul uzilmoq”, “o‘zlikni yo‘qotib, butun borliqdan kechib, ilohiyatga singish” “o‘zining harakatlarini ko‘rishdan foniy bo‘lish”, “Allohga g‘arq bo‘lish, bandaning o‘zligi “erib”, xuddi tomchi ummonda yo‘qolib ketganidek kichik narsaning katta narsada yo‘q bo‘lib ketish hissi” kabi ta‘rif va tavsiflar berilgan. Fano tushunchasining bu ta‘riflardagi asosiy ma‘nosi qisqaroq qilib aytilganda bu bandaning o‘zini butkul unutishi va dunyodan uzilib Allohga qattiq bog‘lanishi holidir. Ammo fano istilohining bu ma‘nolari biroz yuzakiroqdir. Bizningcha, bularni faqatgina muayyan adabiyotlarda berilgan qisqa va boshlang‘ich ma‘nolar sifatida tushunish o‘rinlidir. Tasavvuf adabiyotida esa bu tushunchalar ma‘nosi biroz boshqacharoq va chuqurroqdir. Islom tasavvufi istilohida fano “yomon xulq-atvorlarning muriddan soqit bo‘lishiga” nisbatan qo‘llanadi, baqo esa “maqtanilgan xulq-atvorlarning muridda jam bo‘lish” holatidir. Mashrab g‘azaliyotidagi fano va baqo tushunchasini ham mazkur tasavvufiy ma‘nolarga ko‘ra talqin qilgan ma‘quldir. To‘g‘ri, bir qarashda g‘azallaridagi fano

“ vujudda yo‘qlik”, “o‘zni unutish” va “dunyodan uzilib hamma narsani Alloh inon-ixtiyoriga berish” ma‘nolarida kelgandek. Lekin bu yerda e‘tiborsiz qolayotgan bir jihat bor: banda qachonki o‘zini unutsagina, nafsoniy xuruj va istaklaridan voz kecha bilsagina unga yaxshi sifatlar kela oladi. Axir nafsidan, tana istaklaridan umumiy olganda g‘ayri yo‘llarga boshlovchi moddiy vujuddan va u bilan bog‘liq xohishlardan ajrala olmagan bandadan yomon axloqning ketishi va unga yaxshi fazilat-u go‘zal xulq- atvorning kelishi dargumondir. Qur‘oni karimning eng mashhur surasi Yusuf surasidagi 53-oyat ham shunday nozil qilingan: ”Men nafsimni oqlamayman. Chunki nafs – agar Parvardigorimning o‘zi rahm qilmasa, albatta, yomonlikka buyurguvchidir”. Demak solikning tasavvufdagi fanoga erishishining birdan bir yo‘li ham o‘z vujudi va undagi nafsini unutishidir. Shunday ekan, shoir g‘azaliyotida fano va baqo falsafiy g‘oyalari borligini inkor qilishning iloji yo‘q. Aslida Rahimbobo g‘azallarida tasavvufiy fano va baqo ko‘p uchraydi, ammo yuqoridagidek “o‘zni yo‘qotish va Allohga singish” ma‘nosidagi fano va baqo g‘oyalari kelganda ham ularni bemalol tasavvuf falsafasiga kiritishga haqlimiz. Jumladan, yuqoridagi baytda aytilganidek, har insonni Allohning bandasi va yaratig‘i olaroq ko‘rish hamda barcha insonlarning oxirdagi borar yo‘li va maqsadini bir deb bilish ham “muridda jam bo‘lishi lozim bo‘lgan maqtanilgan sifat”larning eng go‘zali va yuksagidir.

Shoirning bir g‘azali shunday matla’ bilan boshlanadi:

*Ibodat qilgin-u mag‘rurlikni tashlagin dildan,*
*Jahannamni sagidur kimki bo‘ldi g‘abri mag‘ruri*.

Baytda mag‘rurlikdan kechish yo‘qsa mag‘rurlikka chuqur mukkasidan ketgan banda jahannamning sagi – iti bo‘lishligi haqida so‘z bormoqda. Bu yerda jahannamning iti birikmasi ko‘chma ma‘nodadir. Mag‘rurlikdan yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak kibr-u havodan ajralmagan banda it kabi jahannamning eng quyi yerida o‘tirishligi aytilmoqda.

Yana bir g‘azalining maqta’si esa shunday yakun topadi:

*Shuhratim ofat bo‘lar deb Mashrabing qo‘l olmadi,*
*Ko‘zda yoshim qatrasi durri baqolarni ko‘ring.*

Bu misrada ham shoir shon-shuhrat ya‘ni ortiqcha havo va mulozamatning ofat ekaniga urg‘u berib o‘tmoqda. Yuqorida keltirilgan ikki misrada ham mag‘rurlik kibr-u havo qoralanib bandani Allohdan uzoqlashtiradigan g‘ayri illatlar sifatida ta‘kidlanmoqda. Shuningdek, tasavvuf adabiyoti nazariyasida solikning fanoga yetishish yo‘lidagi ilk to‘siq uning kibr-u havosi ekanligi va banda har zamon o‘zini faqir olaroq bilishi lozimligi aytiladi. Jumladan, tasavvufshunos olim Ibrohim Haqqul fanolik martabasi haqida ayta turib shunday deydi: ”Fanolikning asosiy shartlaridan biri – faqirlik. Faqirlik shu mazmundaki, unda kibr “havo va havas”,

manmanlik daf qilingan bo‘lishi lozim”. Shu o‘rinda ta‘kidlashimiz kerakki, kibr-u havo barcha badxulq gunohlarga yo‘l ochuvchidir. Allah azza va jallaga nisbatan sodir etilgan ilk gunohi azim ham kibr edi. Ha, Iblisni Allohning buyrug‘iga qarshi chiqishga undagan narsa undagi takabburlikdir: “ Eslang, (ey, Muhammad!) Biz farishtalarga: “Odamga sajda qilingiz!- deb buyurishimiz bilan ular sajda qildilar. Faqat Iblis bosh tortib takabburlik qildi va kofirlardan bo‘ldi” (Baqara surasi, 34-oyat). Shu sababdan Rahimbobo Mashrab g‘azaliyotida mag‘rurlik va kibr “muriddan soqit bo‘lishi lozim bo‘lgan illat” (fanolik), faqirlik esa “muridda jam bo‘lishi lozim bo‘lgan maqtanilgan fazilat” (baqolik) sifatida keladi. Zero, Quroni azimning “Luqmon‘ surasi 18-oyatida “…va yerda kerilib yurmagin! Chunki Alloh barcha kibrli, maqtanchoq kishilarni suymas” deyilgan. Bil’aks, yirik tasavvufshunos olim Abu Nasr Sarroj ham solikning ruhiy-ma‘naviy kamoloti bosqich(manzil, bekat)lari hisoblanmish tariqat maqomlari sirasiga to‘rtinchi asosiy rukn qilib “Faqr”ni kiritgan edi.

Shoirning juda ko‘p g‘azallarida, xususan, “Keldi” radifli g‘azali maqta’sida ham “fano” irfoniy tushunchasining bir ma’nosi bilan bog‘liq poetik holatni ko‘rishimiz mumkin:

*Devonayi Mashrabsan, qo‘rqib nega yig‘larsan,*
*Oshiq kishiga o‘lmoq ki, ayni muddao keldi.*

Misrada lirik qahramon oshiq kishiga ya‘ni o‘ziga o‘limning ayni muddaoda kelganligini, aniqroq aytadigan bo‘lsak, oshiq uchun o‘limning muhim va maqbul hodisa ekanligini ta‘kidlamoqda. Zotan, oshiqlar o‘lim bilangina Mahbub(Alloh)ga yetishmog‘i mumkindir. Shuningdek, bu parchalardagi mazmunning “fano” timsol-tushunchasining tasavvuf nazariyasidagi dastlabki – “o‘lmoq”, “halok bo‘lmoq” ma‘nolari bilan bog‘liqligi ko‘zga tashlanadi. Ya‘ni maqta‘dagi “fanolik” holati “o‘lmoq”, “moddiy vujuddan ajralmoq“ orqali sodir etilmoqda. Bu yerda e‘tibor berishimiz lozim bo‘lgan yana bir jihat borki, misradagi “fanolik”ni yuzaga keltirayotgan “o‘lmoq” holatini to‘g‘ridan to‘g‘ri ”vujudiy halok bo‘lish” ma‘nosida tushunmaslik kerak, bu “o‘lmasdan burun o‘lish” tasavvuf falsafasi ham bo‘lishi mumkin. Xususan, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns" asarida valiylik (fanolik) martabasiga erishmoq xususida quyidagi fikr va qarashlar keltiriladi: "Abu Ali Jurjoniy rahimahullohu derlar: Vali(y) uldurlarkim, o‘zini(ng) holidin foniy va haqning mushohadasida voqe‘ bo‘lsa va o‘z nafsidan xabar bermagi mumkin bo‘lmas. Alloh taolodin ori yolg‘onda qaror etsa u valiy bo‘lmas”. Yuqoridagi e‘tirofda keltirilgan “o‘zini(ng) holidan foniy va Haqning mushohadasida voqe‘ bo‘lmoq” tushunchasi tasavvufdagi “Mutu qabla an tamutu”, ya‘ni “o‘lmasdan burun o‘lmoq” falsafasini yoritadi. Haqiqatan ham, o‘z holini unutib, Haqning mushohadasiga mashg‘ul bo‘lmaguncha, o‘lmasdan turib o‘lish” holini kamolga

yetkazmaguncha tasavvufiy masalalarda, asosan, Haq oshiqligi yo‘lida oliy martabalarga erishib bo‘lmaydi. Jomiyning e‘tiroficha, bu valiylik (fanolik)yo‘lida qo‘yilgan birinchi qadam hisoblanadi. Shu ma‘noda, Jomiyning bu fikri Hazrati Imom Rabboniyning “…o‘lmasdan burun o‘lim haqiqatga aylanmaguncha, muqaddas Zotga yetib bo‘lmas… bu fano holi valoyat (valiylik) martabalariga tashlanadigan ilk qadam va ishning ibtidosida hosil bo‘ladigan bir kamol darajasi erur” mazmundagi fikrlariga hamohangdir.

Umuman olganda, Rahimbobo g‘azaliyotida “fano va baqo” tushunchalari bilan bog‘liq poetik-so‘fistik holatlarni juda ko‘p uchratish mumkin. Deyarli har bir g‘azalining har bir misrasida fanolik-baqolik holi ko‘zga tashlanadi. Bundan kelib chiqib shoir g‘azaliyotida ushbu tasavvufiy tushunchalarning qo‘llanish ko‘lamini ancha keng va ko‘pma’noli deya hisoblay olamiz. Ammo tadqiqot ishimizning bu qismida shoirning butun g‘azallaridagi “fano va baqo” g‘oyalari talqinini keltirishimizning iloji bo‘lmadi. Zero, tadqiqot ishining hajmiga miqdor jihatdan cheklov qo‘yilgandir. Biroq ayrim g‘azallardan olingan parchalar misolida ushbu irfoniy tushunchalar talqinini yorqinroq va ochiqroq berishga atroflicha harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar:


1 منظور ابن تأليف من كتاب العرب لسان

2 القشيرية الرسالة معاني شرح بيان في القدسية الافكار نتائج : الكتاب
( القشيرية للرسالة الأنصاري زكريا الاسلام شيخ شرح على حاشية وهي )
العروسي طفىمصد العلامة : المؤلف
علي محمد الوارث عبد الشيخ : ضبطه
العلمية الكتب دار : الناشر
م 2007 سنة الثانية : الطبعة
الأجزاء عدد

3.Islom ensiklopediyasi. – ©»O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. 50-bet.

4. I.Usmonov. Tasavvuf: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Toshkent Islom universiteti. – Toshkent: Islom universiteti, 2012. 50-bet.

5. Alisher Navoiy. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. Holoti Pahlavon Muhammad. Nazm ul-javohir. Nasoyim ul-muhabbat… TAT. J. 10. — Toshkent, G‘afur G‘ulom, 2013. 99-bet.


**ALISHER NAVOIYNING «HAYRAT UL-ABROR» DOSTONIDAGI**

# 10-MAQOLAT TAHLILI

*Gavhar Sulliyeva Bahrom qizi*
*Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU, OAT 2-kurs*
*talabasigavharsulliyeva55@gmail.com+998974322234*

***Annotasiya:*** *Ushbu maqola buyuk bobokalonimiz, so‘z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiyning behisob meroslaridan biri bo‘lgan "Xamsa" asarining birinchi dostoni «Hayrat ul-abror», ya'ni «Yaxshi kishilarning hayratlanishi» ning birgina to‘g‘rilik va egrilik haqidagi 10-maqolatiga bag‘ishlangan. Unda to‘g‘rilikning foydali tomonlari va "Sher bilan durroj" hikoyatidagi sher va durroj shaxsiyati tahlil qilingan.*

***Abstract:*** *This article is devoted to the 10th article of the first story of “Khamsa” Hayrat ul-Abror, it means "Amazement of good people", which is one of the innumerable legacies of our great grand thinker, the king of words, Mir Alisher Navoi. It analyzes the beneficial aspects of honesty and the personalities of Lion and Durraj story.*

***Kalit so‘zlar:*** *Alisher Navoiy, Xamsa, Hayrat ul-abror, sher, durroj, maqola.*

***Key words:*** *Alisher Navoi, Khamsa, Hayrat ul-abrar, lion, durraj, article.*

Navoiy "Hayrat ul-abror"da barcha salaflaridan andoza oldi va ayni paytda uslub, g‘oya ,mazmun , hajm, badiiyat va obrazlar nuqtai nazaridan ularnikiga o‘xshamagan orginal muqaddimaviy dostonni yaratdi. Navoiy maqolotlarida tasavufiy-ma'rifiy mohiyat kuchli . Shuningdek, har bir bob,maqolot va hikoyat zamirida o‘z davri ijtimoiy-siyosiy muommolariga real munosabat aks etgan.Navoiyning ijod ummonidan bir tomchisini tahlil etadigan bo‘lsak, uni naqadar mahurat egasi ekaniga yana bir bor amin bo‘lamiz. Navoiyning «Xamsa» asariga kirgan birinchi doston «Hayrat ul-abror», ya'ni «Yaxshi kishilarning hayratlanishi» deb nomlanadi. Mazkur doston 63 bob, 20 ta maqolatdan tashkil topgan. Har bir maqolat bir mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, shoir, avvalo, o‘quvchini bu mavzu bilan tanishtiradi. So‘ngra o‘sha mavzuga munosabat bildirib, uni har jihatdan tasvirlaydi. O‘quvchining tasavvurlari aniq bo‘lishi uchun juda ko‘p qiyoslar, obrazli o‘xshatmalar keltiradi va eng so‘ngida mavzuga mutanosib ibratli hikoyat bayon qiladi. Biz ko‘rib o‘tmoqchi bo‘lgan o‘ninchi maqolat ham xuddi shunday qurilishga ega. Dostonning bu maqolati rostlik, to‘g‘rilik tushunchalariga bag‘ishlangan.

Bobomiz har bir inson o‘ziga to‘g‘rilikni odat qilmog‘i haqida so‘z yuritarkan, turli narsa va hodisalarning, kundalik turmushda ishlatadigan juda ko‘p buyum va jihozlarning to‘g‘ri va egri xususiyatlarini solishtiradi. Masalan, biron manzilga bormoqchi bo‘lsangiz, o‘sha yerga eltuvchi to‘g‘ri yo‘l bo‘lsa-yu, Siz aylanma

yo‘ldan yursangiz, albatta manzilga kechroq yetasiz. Sham o‘zi to‘g‘ri bo‘lgani holda, uni tikka qo‘yib yondirasiz. Atrofga shu'la sochib, kishilarga uzoq vaqt yorug‘lik beradi. Shuning uchun ham u kerakli narsa sifatida e'zozlanadi, ehtiyot qilinadi. Shu'laga intilgan parvona - maydagina kapalak uning atrofida aylanib, egri harakatlar qilgani uchun o‘sha shu'laga urilib yonib ketadi. Yoki rubob, dutor, tor kabi cholg‘ularga e'tibor qiIsangiz, cholg‘uchiIar torlardan yoqimli kuylar chiqarish uchun sozlab olishadi. Ya'ni torni tarang tortishadi. Tor egri holatda tursa, cholg‘u sozlanmagan bo‘ladi, demak unda kuyni yaxshi ijro etib bo‘lmaydi. Shoir bu qiyos orqali odamlar to‘g‘ri yurib, to‘g‘ri ish tutsalar, o‘zgalarga ham, o‘zlariga ham foyda keltiradiIar, ulardan manfaat ko‘rgan kishilarning hurmatini qozonadilar, qayerda bo‘lmasin, izzat ko‘radilar, deydi. Aksincha, to‘g‘ri ish yuritmay, biror yomon g‘araz bilan har xiI aylanma, egri harakatlar qilsalar, ularning holi voy, xuddi parvonadek kuyib-yonib qoladilar. Egrilik borib-borib har xiI yomon illatlarga yetaklaydi. Fikri egri bo‘lgan, Xudodan, qonundan qo‘rqmaydigan odam hamma ishni o‘zim xohlaganimcha qilaverishim mumkin, deb hisoblaydi. Birovlarning narsasiga, mol-mulkiga ko‘z tikadi, o‘g‘rilikdan hayiqmaydi. Ko‘pgina davlatlarda qadim zamonlardanoq qo‘li egri, o‘g‘ri odamlarni qo‘lini kesib, jazolashgan. Navoiy bobomiz yashagan davrda ham shunday tartib hukmron bo‘lgan. Shoir dostonda ana shu jazo usulini nazarda tutib, qo‘li egri odamlarni xalq qo‘lini kesib "to‘g‘rilaydi" , deydi. Kimki to‘g‘rilik yo‘li qanday ekanligini bilmoqchi bo‘lsa, bu yo‘l ikki xil bo‘ladi, deb aytadi. Birinchisi, to‘g‘ri so‘z odam. Agar u to‘g‘ri so‘zli bo‘lsa, uning ishi, o‘zi ham to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Ikkinchi toifa kishilar andisha bilan, betgachoparlik qila olmay, «to‘g‘ri» deguvchilardir. Navoiy birinchi toifani to‘liq ma' qullagan holda, ikkinchisi ham «yomon emas» deya inkor qilmaydi. Chunki bunday kishilar asli egri maqsadlilar emas. Ular yaxshilik ko‘zlab, murosa-madora ma'nosida, azbaroyi ezgu niyatda yolg‘onni «to‘g‘ri» deydilar. Albatta, iloji boricha yolg‘onni gapirmagan ma'qul. Ammo sharoit majbur etsa, toza ko‘ngilda ish bitmog‘i uchun yolg‘onni tasdiqlash ayb emas. Shu o‘rinda shoir o‘z zamonasidan biroz noliydi. Odamlar rostgo‘ylikdan chekinayotgani, yolg‘on-yashiq kuchayib ketayotganidan xavfsiraydi. Xudoning buyurgan amallari, to‘g‘ri deb bandalariga ko‘rsatgan yo‘riqlarini noto‘g‘ri tushunuvchilar bor. Xato gapirishga o‘rgangan odam noto‘g‘ri fikrni to‘g‘ri deb qabul qiladi. Shundanmi, shoir o‘z atrofini qamragan odamlardan to‘g‘ri, rost gapirgani qashshoqlik, yetishmovchilikdan boshqa narsani bilmaydi, deydi. Barcha jamoa istagi egrilik bo‘lsa, sen o‘z haqligingni isbotlashga har qancha urinma, baribir hech narsa qilolmaysan hamda ularga yoqmaysan. Zero, egrilikning ham, to‘g‘rilikning ham o‘z ta'rifi bor. Egrilik yolg‘ondan paydo bo‘ladi, to‘g‘rilik haqiqatdan. Demak, muallif, yolg‘on so‘zlash, yolg‘on harakat qilish egrilikka olib keladi, deb hisoblaydi. So‘zining isboti uchun

bog‘bon va dehqonning ishini misol keltiradi. Bog‘bon yaratajak bog‘ini reja bo‘yicha, ya'ni daraxtlarni bir tartibda ekib, parvarish qilmasa, har yerda tarvaqaylab, qiyshiq-qing‘ir o‘sgan daraxtlar bog‘ni changalzorga aylantiradi. Dehqon esa urug‘ sochadigan yerini shudgor qilib, so‘ng mola bosmasa, ya'ni tekis qilib olmasa, sochgan urug‘i bir xilda unib chiqmaydi. Chunki notekis yerda ekinlar bir xil sug‘orilmaydi. Ba'zi joylarga suv ko‘proq tushadi, ba'zijoylarga esa kamroq. Xuddi quyosh ham sokin turgan suvda to‘g‘ri va to‘la aks etsa, chayqalgan suvda nurlar sinib egri ko‘ringandek. Demak, hamma tirikjonzot batartiblikdan, reja va to‘g‘ri parvarishdan quvvat olsa, nega insonlar shulardan o‘rnak olmaydi?! Yolg‘on gapiradi va egri yuradi. Agar bilmagan holda yolg‘on so‘zlansa, so‘ng bilgach, undan qochilsa, buni ayb deb bo‘lmaydi. Chunki o‘sha odam baribir to‘g‘ri yo‘lga tushib oladi-da. Bu bilan hazrat Navoiy inson hayotda adashishi, chalg‘ib qolishi mumkin, lekin vaqti bilan o‘z xatosini anglasa va bundan afsuslanib, uni tuzatishga urinsa, u holat kechiriladi, deb tushuntiradi. Ammo yolg‘on gapirish odatga aylangan bo‘lsa, mana bu yomon, kechirilmaydigan gunoh. Musulmon odam, mard kishi hech qachon yolg‘on so‘zlamaydi. Yolg‘on so‘zlaydigan odamni musulmon demaydilar. Yolg‘onchining gapi hech qachon e'tibor topmaydi. Agar u xalqni yolg‘on gaplari bilan aldab yurgan bo‘lsa ham, Xudoni aldolmaydi-ku! Navoiy bunda «Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi» degan xalq maqoliga monand fikr aytadi. Ya'ni: - " yolg‘onni xaloyiq ko‘zidan qancha yashirmasinlar, maxfiy saqlashga urinmasinlar, bari bir oxirida yolg‘on o‘zini ma'lum qiladi" . Agar majbur bo‘lib qolganingda ham rost gapni aytish iloji bo‘lmasa, yolg‘onni ham gapirma, deydi. Shu tariqa yolg‘onning kishilar tabiatidagi yaramas va badbin illatligini, uning oqibatlarini qator qiyos-u o‘xshatishlar bilan qoralab kelib, muallif, asar badiiy qurilmasiga ko‘ra bu o‘rinda ham majoziy bir hikoyatga murojaat qiladi. Ya'ni "Sher bilan durroj" haqidagi ramziy rivoyatni keltirib, o‘z tikrlarini yanada ta'sirliroq bo‘lishiga erishadi. Alisher Navoiy aynan sher va obrazi orqali majoziy ma'nolarni ifodalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygani albatta hech birmizga sir emas . Biroq ushbu hayvonlarning aksida esa butun insoniyatning nuqsoni ifodalanishi bejiz emas . Majoz orqali insonning xarakterini tasvirlash kabi g‘oyalar Navoiy ijodidan ham o‘rin egallagan . ( Ey durroj ! ) Mening senga hech qasdim , dushmanligim yo‘q . Xotirjam bo‘lib , meni o‘zingga ishonchli do‘st deb bil . Qo‘rqishni yig‘ishtir , hamdamim , sirdoshim bo‘l ; aysh va xursandlik vaqtida birga kuylashadiganim bo‘l . Men ham sening kuylaringni eshitib , shod bo‘lay ; nag‘malaring bilan qayg‘udan ozod bo‘lay Shart shuki , senga bir ziyon yetsa , falak seni hiyla bilan bandga solsa , marhama qo‘lini senga yordam uchun cho‘zay , bosh panjam bilan dushmanni yerga barobo Sadoqat masalasida o‘zimni ko‘rsatib , seni dushman tuzog‘idan xalos qilay . Bunda sher obrazi ko‘rinishdan vahshiy va yirtqich bo‘lib ko‘rinsada , aslida

u samimiy birovga yomonlikni aslo ravo koʻrmaydigan bir jonzot hisoblanadi . Biroq butun hayvonlar undan hadiksirab , qoʻrqib yashar , doimo undan qochishga urinishardi . Bu zot esa hech kim kutmagan bir ishni amalga oshirdi . U qoʻrqib parvoz qilib yurgan qushga qarab , sen bilan doʻst boʻlishni , sening kuyingdan har doim baxramandlikni , ham yomon , ham yaxshi kunimda yonimda boʻlishingni , sirdoshim , hamrohim boʻlib qolishni istashini aytib qoladi . Shu bilan birgalikda mabodo durrojning boshiga musibat tushsa , uni qutqarishga tayyor sadoqatli bir doʻst ekanligini isbotlamoqchi boʻladi . Bundan tashqari sadoqat deya ataluvchi tuygʻuni va xislatni shu yoʻlda ishlatishini aytib oʻtadi . Sultonning tepasida humo qushi aylanganday , sher boshida durroj aylanib parvoz qilardi . Sher uning sayrashini eshitib , kuyida yolgʻon borligini fahm qilib , der edi : - Yolgʻon gapirma , yomon boʻladi . Toʻgʻri odamlar oldida yolgʻon qoralanadi. Durroj pandni eshitmas , oʻzi bilan oʻzi mast , ataylab figʻonini hech pasaytirmas edi . Bir kun bir ovchi uni tutish uchun oʻz tuzogʻini yoygan edi , u don bilan suvni koʻrib , uning oldiga borgach , ovchi uning ustiga tuzoqni tortdi . Tuzoqda u baxtsiz qichqirib , bir necha bor : « Dod , meni tutdilar ! » - dedi . Bu soʻz sher qulogʻiga eshitildi , lekin uning bu ashulasini har galgidek yolgʻon deb oʻyladi . Bunaqa yolgʻonlarni u koʻp eshitgani uchun ( durrojning ) chin qichqirigʻini ham yolgʻon deb gumon qildi . U qancha rostakamiga qichqirmasin , rostini ham yolgʻon deb hisobladi . Uni qutqarish uchun iltifot koʻrsatmadi , natijada uning hayoti qirqildi . Yuqorida keltirilgan parcha Durrojning yolgʻon ishlatib , sherni sinamoqchi boʻlgani , sher unga bir necha bor ogohlantirish bergan boʻlsada, qush unga parvo qilmaydi , oʻz bilganidan qolmay manmanlik , takabburlik ila yolgʻon ishlatadi . Uning yolgʻonlari axiyri uning boshiga yetib , ya'ni uni ayanchli taqdir sari olib boradi . U nogahon ovchi qoʻygan tuzoqqa tushib , butun vujudi ila kuylab nola tortsada , sher uning ovozini eshitib , yana yolgʻon ishlatayotgandir deb oʻylaydi va uning qichqrib dod solishiga parvo qilmaydi . Natijada oʻzining yolgʻon qilmishlari uni hayotiga nuqta qoʻyadi . U oʻzining oʻylamay qilgan ishining oqibati yomonlikka olib kelishini oʻylamagan edi . Har bir yolgʻonchilikning mana shunday oqibatlari borligini shoirimiz oʻz hikoyatlarida tasvirlab , insonlarni toʻgʻrisoʻzlikka chaqiradilar . Kimki beixtiyor rost gapirsa , yolgʻon gapirsa ham , xalq uni rost deydi . Soʻzda , Navoiy , nima desang ham rostini gapir ; rostni kuylagan ohanglarga tahsin ayt . Albatta yolgʻonchilik qilib oʻz umriga zomin boʻlgan Durroj qismatini Navoiy zoʻr majoziy obrazlar orqali talqin qilgan . Shoir rostgoʻylikni , halolllikni , mehnatsevarlikni ham qadrlab , bunday xislatlarni oʻz asarlarida mohirona tasvirlab beradi . Durroj obrazi orqali Navoiy oʻsha davrdagi yolgʻonchi , muttaham , kazzob , takabbur va manman insonlarni ochishga harakat qilib , insonlar tomonidan aytilgan har bir rost va yolgʻon soʻzlarini xalq birdek qabul qilishligini ham uqtirib ketadi . Ularning

yolg‘on ishlarining oxiri mana shunday yakun topishiga ishora qilib , insonlarni tog‘ri yo‘lga boshlashga chaqiradi . Yolg‘onchilar hech qachon va hech qayerda obro ' topa olmaydi . Ularni xalq qoralab , nafrat bilan tilga oladi . Navoiy hazratlari har qanday holatda ham rost gapirishlikka chorlab , rostgo‘ylik bu insonning ziynati ekanligini ham ta'kidlab o‘tganlar . Navoiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati shundaki , unda insonning illatlari qoralanib , uning o‘rnida ezgulik doimo g‘olibligi tan olinadi . Yoshlarni tarbiyalashda bunday hikoyalar o‘rni benihoya cheksizdir . Chunki Navoiy o‘gitlari va undagi chuqur ma'no butun insoniyat olamini yomonlik dunyosidan ogoh qiluvchi nasihat maktabi va ibrat namunasi bo‘lib qoladi .

**Adabiyotlar:**

1. Rahimova G. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). – Samarqand: SamDU nashri. 2022. – 303 b.

2. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр (насрий баёни) www. ziyo.uz kutubxonasi

3. https://tafakkur.net/sher-va-durroj/alisher-navoiy.uz 4.civil.uz.kutubxona

## “FUNUN UL-BALOG‘A” ASARIDA NAZARIY MA’LUMOTLARNING BERILISHI VA ASAR TILI MASALASI

*Habibullayeva SABINA,*
*ToshDO‘TAU,*
*magistrant*

***Annotatsiya*** *Maqolada o‘zbek klassik adabiyotining namunasi “Funun ul-balog‘a” asarining Abduqodir Hayitmetov tarjimasi haqida so‘z yuritilgan. Asarda Qur’oni karimdan kelgan ba’zi oyatlar tahlili va hadisi shariflarning to‘g‘ri izohlari xususida atroflicha o‘rganilgan. Shuningdek, Ilmi balog‘aning aspektlari asosida mumtoz va nazariy poetika jihatdan tahlilga tortildi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Qur‘oni karim, Hadisi sharif, ilmi balog‘a, tovushlar uyg‘unligi, detal, mutaharrik (harakatlar), bayon uslubi*

***Annotation****: In this article, Abduqadir Hayitmetov's translation of the work of Funun ul Baloga, an example of Uzbek classical literature is demonstrated. In the work, some verses of the Quran are analyzed and worked with the interpretation of the Hadith. Classic and theoretical poetics is analyzed according to aspects of Ilmi Baloga.*

***Keywords:*** *the Qur'an, Hadith, Ilmi baloga, harmony of sounds, detail, mutakharric(actions), narrative style.*

O‘zbek adabiyotida klassik namunalar salmoqdorligi ajralib turadi. Ular mumtoz adabiyotning gultoji bo‘lsa, jahon adabiyoti uchun qiyosiy va nazariy asoslarga ega bo‘lgan manbadir. Yozib qoldirilgan ba’zi shunday klassik asarlar borki, u asar ham mumtoz poetikaga oid ilmlarni o‘zida jamlaydi, ham jahon adabiyotidagi aspektlarni o‘zida mujassam etadi. Jumladan, Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari turkiy adabiyot uchun ilk nazariy manbadir. Bu asarni ilmiy jihatdan tadqiq etgan O.Hamroyevaning “Turkiy manbalarda mumtoz qofiyaning nazariy asoslari”, B.Boyzoqovning “Funun ul-balog‘a” va mumtoz sharq poetikasi: tarixiylik, tipologiya va individuallik” nomli ilmiy ishlari ahamiyatlidir.

“Funun ul-balog‘a” asari balog‘at ilmining rivojiga salmoqli hissa qo‘shibgina qolmay, mumtoz adabiyotni chuqurroq o‘rganishda ham yetakchilik qiladi. Ammo asarni tushunish va anglash mustaqil o‘rganuvchilar, kitobxonlar uchun birmuncha to‘siqlarni keltirib chiqarmoqda. Negaki, kitobdagi bayon uslubi va til nuqtayi nazaridan olimlarga, xos kishilarga mo‘ljallab tarjima qilingan. Natijada eski mumtoz so‘zlarni tushunish, g‘azal ichida kelganida mag‘zini chaqish asarning qofiya qismidagi arabiy birikmalarni, iboralarni, vaholanki, oddiy harakatlarini tushunish oddiy o‘quvchi tugul, oliy o‘quv yurti talabasi uchun ham og‘ir keladi. Bizningcha, buning oldini olish uchun asarda keltirilgan namunalarning sharhi bugungi zamon kitobxonlariga soddalashtirilgan holatda berib o‘tilishi maqsadga muvofiq. Maqolamizda Abduqodir Hayitmetovning “Funun-ul balog‘a” asari tarjimasidagi ba’zi o‘zgarib ketgan so‘zlar, gaplar, harakatlar (mutaharrik), Qur’oni karimdagi oyatlar izohi va hadisi sharif ma’nolari asosidagi fikrlar tahlilga tortildi. Biz ushbu tadqiqotimizda, ba’zi suralarning to‘g‘ri tabdili asosida izohlar keltirib o‘tildi. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, “Funun-al balog‘a” asari nafaqat, mumtoz poetikaga oid nazariy qarashlar jamlanmasigina bo‘lib qolmay, tarixiy, nazariy jihatdan tarixiy poetikaning ham birlamchi asosi hisoblanadi. Asarda mumtoz poetikaning lafziy san’atlaridan foydalanilgan. Misol uchun, tajnis ul-xat, saj’ ul-mutavosiy, tajnis. Aynan shu badiiy san’at uchun namuna sifatida Qur’oni karim va hadisi sharifdan namunalar keltiriladi. Shu orqali samo ilmi jozibasi arab, turk, fors tilida ochib beriladi. Bilamizki, g‘ayb ilmini tushunish, anglash qiyin. Buning uchun insonda naqlga amal qiladigan ilm va aql kerak. Bu insonlar uchun o‘ta zaruriy ehtiyojlardan biridir. Payg‘ambarlar va nabiylar davrida bu ilm tarqoq, asl intelekt shaklida mavjud bo‘lib, tafakkurda anglash va idrok etish ham shu mavjud holida kechgan. Vaqtlar o‘tishi bilan bu ilmni tovushdan matngacha struktur jihatdan o‘rganish, adab ilmlari orqali uning daqiq va nozik ma’nolarini tushuntirish sekin-asta rivojlana boshlandi. Bu “ilmi balog‘at” ilmidir. Ilmi balog‘atning mustaqil ilm sifatida yuzaga kelishiga asosiy omillar poetika va voizlik bo‘lgani alohida

ta’kidlanadi. Biz shu qatorga nazariy poetikani ham qo‘shmoqchimiz. Chunki, aynan ilmi balog‘ani o‘rganishda asosiy manbadan boshlab, uming tovushdan mantgacha bo‘lgan struktur jihatlari tahlilga tortiladi, o‘rganiladi. Balog‘at ilmining genezesi haqida adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori Uzoq Jo‘raqulov o‘zining “Ilmi balog‘aning mansha’i” maqolasida “ilmi balog‘at”ning bugungacha davom etib kelayotgan xronologik tizimini to‘rt bosqichga ajratadilar. Ushbu bosqichlardagi barcha tasniflarda “ilmi balog‘at”, uning asl kelib chiqish tamoyillari, kanonlashuv bosqichlari haqida fikr mulohazalarini keltirib o‘tadilar.

Asarning “Hurufu qofiya” (3-fasl), “Harakoti qofiya” (4-fasl), kabi fasllarida Qur’oni karimdagi ba’zi suralar va hadisi sharifdan ayrim misollar keltiriladi. Bu badiiy san’atlar bilan ochib beriladi. Aynan shu fasllarda “ilmi balog‘at” ning go‘zal namunalarini uchratish mumkin. Aynan shu yerda mumtoz poetikaning nazariy poetika ilmi bilan aloqadorligini hamda tovush, so‘z, jumla, matn orqali bu qanday ifodalanganligini ko‘rishimiz mumkin.

وَالعادِياتِضَبْحًا , فَالْمُوْرِياتِ قَدْحًا , فَلْمُغِيْرَاتِ صُبْحًا , فَأَثَرْنَ بها نَقْعًا , فَوَسَطْنَ بها نَقْعًا

Tafsiri: “Harsillab chopadigan, chaqmoqlar chaqadigan, tong paytida bostirib boradigan, bas o‘shanda chang-to‘zon ko‘tarib, shu bilan dushman jamoasining o‘rtasida kirib keladigan otlarga qasam”.[*Шайх Абдулазиз Мансур (таржима ва тафсир муаллифи) Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири (“Адият”) сураси. 2021. – Б.568.* ]

**“Adiyat” surasida** “Saj’ ul mutavosiy” badiiy san’atini ko‘rishimiz mumkin. Bu yerda ham raviyda, ham_vaznda, ham qofiyada moslik bor.

“Funun ul-balog‘a” asarining uchinchi va to‘rtinchi qofiya deb nomlangan faslida Qur’oni karimdagi suralar va hadisi sharifdan ba’zi namunalar keltirilganligini ko‘rdik. Ammo ba’zi o‘rinlarda ularning ayrim juz’iy xatoliklar bilan berilganiga ham duch kelamiz. Muqaddas kitobimiz va hadisi sharifimiz bizga o‘zligimizdan, asl haqiqatlardan darak beruvchi ochiq manbadir. Bugungi kunda yozilayotgan asarlarning ba’zilarida yoki bizgacha yetib kelgan ayrim manbalarda ham Qur’oni karimdan olingan ma’lumotlar xato va kamchiliklar bilan berilayotgani ko‘zga tashlanadi. O‘qiguvchi doim ham buni anglay olmaydi. Ushbu asarda ba’zi shunday uslubiy nomuvofiqliklar uchrab turadi. Balki texnik xatoliklar ayrim jumlalarda g‘alizliklarni keltirib chiqargandir. Ammo bu buzilishlar shu ikki faslda ko‘p uchragan. Bu ko‘proq nimalarda namoyon bo‘lgan:

5. Arab alifbosidagi bir nom bilan ataluvchi uch xil shakldagi harflarda (س،ص،ث،ز،ظ،ذ)

6. Harakatlarning almashib ketganligida;

7. Qur’oni karimdan keltirilgan tafsirlarda sura nomining keltirilmasligi va buning natijasida ba’zi tafsirlarning o‘xshash bo‘lib qolishi (modomiki, bir oyat boshqa oyatda ham kelishi mumkin. Ammo ma’noda bir xil tizim saqlanmaydi. Mazmundagi nomuvofiqlik shakl jihatdan tafsirga teskari bo‘lib qolgan(

**“G‘oshiyah” surasi** (arabcha: سورة الغاشية, nomining ma’nosi — o‘rab olguvchi) — Qur’onning 88-surasi. Makkiy suralardan biri bo‘lib, 26 oyatdan iborat. **Uning 25-oyati :**

اِنَّ اِلَيْنَ اِيَابَهُمْ، ثُمَّ اِنَّ عَلَيْنَ حِسَابَهُمْ

Tarjimasi: 1. Albatta o‘zimizga qaytish bordir.

2. So‘ngra ularni hisob-kitob qilish yolg‘iz bizning zimmamizda bo‘lishi kerak. [*Шайх Абдулазиз Мансур (таржима ва тафсир муаллифи) Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири (“Ғошеях”) сураси. 2021. –Б. 295.]*

**Ushbu oyat Abduqodir Hayitmetov tarjimasida:**

“Inna ilayna yo baxum, Summa anna alayna hisobaxum” tarzida kelgan. Shu ko‘rinishida tarjima qiladigan bo‘lsak:

Ma’nosi: 1. Men ulardan mamnunman 2. Buning uchun hisob-kitob qilishimiz kerak.

Bilamizki, arab tilida harflar nuqtasi, harakati va sifati bilan farq qiladi. Bir harf, hatto 3 xil shaklda ifodalanishi mumkin (S - ( .(س،ص،ث

Tarjima jarayonida bu uch harfni krill alifbosida birgina “c” orqali bersa bo‘ladi. Buni krill va arab alifbosidagi farqlar deb to‘g‘ri anglangan holda ham ko‘chirmada juda ko‘p xatoliklar mavjud. Ayniqsa, unlilar (arab tilida harakatlar) da kamchiliklar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, yuqoridagi tarjimada kasra va alifning qolib ketgani, hamda fatha o‘rnida kasra yozilib, natijada 1-oyat: “Men ulardan mamnunman” tarzida tarjima qilinayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni “yabaxum” emas iyaabahum ( (اِيَا بَهُمْ ) tarzida , “anna” emas, inna ((اِن shaklida bo‘lsagina mazmun to‘g‘ri bo‘ladi. Asarda asl manbadan ko‘chirma manbaga xato tarzda so‘zlar tarjima qilinganligi natijasida mazmunda katta o‘zgarish paydo bo‘lgan. Ya’ni “G‘oshiyah surasi” ning 25-oyati juda ijobiy ma’no kasb etgan. Qur’oni karimdan olingan ba’zi suralarni tarjimon o‘z asariga ayrim xato va kamchiliklar bilan tushurganligiga qaramay, shu ifodada berayotganlarining tarjimasiga e’tibor bermay ularning tarjimasini tafsir kitoblarda qanday bo‘lsa shu tarzda tagidan ifodalab ketilgan. Aynan shu plagiat sabab “Funun ul-balog‘a”

asarining tarjimasi mavjud va bizgacha yetib kelgan degan, noto‘g‘ri qarash shakllanishiga sabab bo‘ladi.

**“Infitor” surasining 12-13 oyati:**

إِنَّ اَلابْرَارَ لَفِيْ نَعِيْم،

وَ اِنَّ الْفُجَّرَ لَفِيْ جَحِيْم

Tarjmasi: Yaxshilar jannatiydur, buzuqlar do‘zaxiy [ *Шайх Абдулазиз Мансур (таржима ва тафсир муаллифи) Қуръони карим маъноларининг таржима ватафсири (“Инфитор”) сураси. 2021. –Б. 295.*]

**Abduqodir Hayitmetov tarjimasida:** Minal abrori lafi na’im, va innal fujjora lafi jahim” tarzida kelgan.

Ma’nosi: 1. Solihlar orasida ko‘p ne’mat bor .

2. Zolimlar esa do‘zaxdadirlar.

“Infitor” surasi (arabcha: سورة الانفطار, nomining ma’nosi — “Yorilish”. Qur’onning 82-surasi. Makkiy suralardan biri, 19 oyatdan iborat. Tarjima jarayonida bu suraning 12 va 13-suralarida xatoliklar yuz bergan. 12-oyatda “inna” (albatta) so‘zining o‘rniga “min” (-dan qo‘shimchasi) kelgan. 13-oyatda harakatlarda o‘zgarishlar bo‘lgan “fujjoro” (zolimlar) so‘zi “fujjora” shaklida ekan. Bu arab grammatikasi jihatdan olib qaralsa, muzakkar va muannas jinsning almashib qolganiga o‘xshaydi.

Yuqorida biz muqaddas Qur’oni Karimdagi ba’zi suralardan olingan oyatlarning ko‘chirmadagi tahlili bilan tanishdik. Ayrim hadislarda ham shunday kamchiliklar ko‘zga tashlanadi:

خُلْقِيْ فَحَسَّنْ خَلْقِيْ حَسَّنْتَ كَمَا اللّٰمَّ

Ma’nosi: “Ey Alloh, yaratilishligimni yaxshi qilganingdek, xulqimni ham yaxshi qilgin” !” [ Найитметов А. «Фунун ул-балоға». Ўзбеклик тили ва адабиёти журнали, 1-сон, 2022. Б.67 ]

**Abduqodir Hayitmetov tarjimasida:** Allohumma kamo xassanta xaliki va xassin xulqi

Ma’nosi: “Ey Xudoyim, fe’l-atvoringni yaxshilaganingdek, mening xulqimni ham shunday yaxshila”.

Bu yerda “kamaa” (kamo), “xolqiy” (xaliki), “fahassan” (vahassin). Ushbu jumlalarning barchasida harakatlar no‘to‘g‘ri ishlatilgan. Shuning natijasida

hadisning ma’nosi uslubiy jihatdan buzilgan. Allohning murojati emas, Allohga murojaat tarzida almashgan.

Yana bir hadisi sharifda keltiriladi:

النَّاسِ مِن بِلَيسِ علَيْكَ

Ma’nosi: “Senga odamlardan yomonlik yo‘q!” [ Найитметов А. «Фунун ул-балоға». 2022. - Б.46 ]

Tarjimada: Alayka bil yasi min an nos.

Ma’nosi: Senga odamlardan balo yo‘q

Yana bir boshqa hadisda:

هُوَ حَامِلٌ لِعْبَى أُمُوْرُوكافٍ كاغِلٍ لِمَصالِحِلْ جُمْهُوْرٌ

Ma’nosi: U homiydur, ishlarning og‘irligini ko‘targuvchidur va u kifoya qilguvchidur. Umumning foydasiga kafildur. [ Найитметов А. «Фунун ул-балоға».2022. - Б.55]

**Abduqodir Hayitmetov tarjimasida**: 1. Huva homin hamalun li a’boul-umr

2. Va kofin kofilun li misolixini-jumhur

Bu yerda so‘zlardagi harakatlarning almashishi ba’zi jumlalarn o‘zgarishiga olib kelgan. Birinchi bandda: “Haamin” (homin-homiyning), “Haamilun” (hamalun-olib bormoq), “liabiyyu” (liaboul-o‘ynoqi), “umuvrun” (umr -umr). [Bir jumlada bu so‘zlarni yig‘ish mumkin bo‘lmagani uchun so‘zlar tarjimlari bilan berildi]

Xulosa qilib aytganda, “Funun ul-balog‘a” asaribugungi mumtoz va nazariy poetika ilmi uchun qimmatli manbadir. Bu asar ilmi balog‘aning eng go‘zal namunasi. Ushbu maqolada, Abduqodir Hayitmetovning “Funun ul- balog‘a” asarining tarjimasi asos qilib olindi. Unda ilmi balog‘aning asl asosi orqali genetik tahlillar amalga oshirildi. Qur’oni karim va hadisi sharifdan keltirilgan suralarning asl varianti va hasilarning to‘g‘ri izohi orqali tabdil qilindi. Bularning barchasi material sifatida mumtoz poetikaga doir, o‘zbek adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlarda yordam beradi, maktab darsliklarining yangi nashrlarida ham oson foydalanish mumkin.

## Adabiyotlar

1. Абдукодир Найитметов «Фунун ул-балоға». Ўзбеклик тили ва адабиёти журнали, 1-сон, 2022.

2.Жўрақулов У. (2023). «Илми балоғат»нинг маншаъи. Sharq-u G‘arb renessans adabiyoti: Navoiy va Shekspir Mavzuidagi Mavzuidagi Xalqaro Ilmiy-

Nazariy Konferensiya Materiallari, 1(1). извлечено от http://universal-adabiyotshunoslik.tsuull.uz/index.php/conference/article/view/2

*3. Шайх Абдулазиз Мансур (таржима ва тафсир муаллифи) Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири . – Тошкент: Моваройннаҳр, 2021.*

## “QISASI RABG`UZIY”DA JANNAT TASVIRI

*Keldiyorova Xumora*
*ToshDO‘TAU talabasi*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyondasi Nosiruddin Rabg‘uziy asarida tasvirlangan jannat tasviri,asardagi hikoyatlar orqali badiiy obrazlar ta’rifi va jannat tasnifi berilgan. Muammoni o‘rganishda adib yozgan “Qisasi Rabg‘uziy”asaridan foydalanilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Rabg‘uziy, “Qisasi Rabg‘uziy”, jannat, payg‘ambarlar, tasvir, tahlil.*

Jannat-taqvodor mo‘minlar narigi dunyoda rohat va farog‘atda yashaydigan joy. Jannatga qarama-qarshi do‘zax qo‘yiladi.Qur’onda jannat daraxtzor, ariqlarda zilol suvlar oqib turadi deb, tasvirlangan. U yerda insonlar qarimaydi va kasal ham bo‘lmaydilar. Diniy ma’lumotlarda keltirilishicha, jannatda havzi Kavsar mavjud bo‘lib, uning suvi oq va muzday deb ta’riflanadi. Havzi Kavsardan jannat ahli suv ichishadi. Jannatning 8 ta darvozasi bor va inson qilgan ezgu ishlariga ko‘ra turli xil darvozalardan jannatga kiradilar. Qadimdan bizga ma’lum bo‘lgan Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham jannat va u haqida hikoyatlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu asar turkiy adabiyotda qissa janrining ilk namunasi hisoblanadi. “Qisasi Rabg`uziy” jami 72 qissadan tashkil topgan. Asarda muqaddima, lirik kechinmalar va xotima kabi tarkibiy qismlar mavjud. Nosuriddin Rabg‘uziy Qur’on Karimda keltirilgan payg‘ambarlar haqidagi qissalarni, undan tashqari hikoyatlarni mohirona yo‘l bilan ochib bergan. Asarda jami 23 ta payg‘ambarlarimiz haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, payg‘ambarlar bilan bog‘liq holda jannat tasviri ham mavjud.

Savol tug‘iladi. Xo‘sh, nega Jannat tasviri va payg‘amlar hayot yo‘llari chambarchars bog‘liq? Aynan mana shu asardagi Jannat tasvirlarini tahlil qilgan holda bunga yechim topishga harakat qilamiz. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida mavlo taolo yakshanba kuni ko‘klamni yaratdi, dushanba kuni oyni, yulduzlarni, kunni yaratdi, seshanba kuni qush-qurtlarni, farishtalarni yaratdi, chorshanba kuni suvlarni, bulutlarni, ellarni yaratdi, payshanba kuni ujmoh (jannat), tamug‘ (do‘zax)ni, rahmat va azob farishtalarini yaratdi. Juma kuni odamni yaratdi. Shanba

kuni hech narsa yaratmadi. Aynan mana shu ma'lumotlar "Val-qavlu fis-samovati val-arzi" hikoyatida berib o'tilgan. Payshanba kuni jannatning yaratilishi bejiz emas. Inson bajargan amallari, qilgan yaxshi va yomon ishlari ortidan jannatga yoki do'zaxga kirishi aniqlanadi. Hikoyatning eng muhim jihati ham do'zax va jannatning borligiga qaratilgan. Asar Ollohga hamd bilan boshlanib, hikoyatda Olloh bizni odamiy yaratdi, yilqi, qora yaratmadi, deb yoziladi. Muhammad Mustafo sallollohu alayhi vasallamga nazmda ta'rif beradi. Ta'rifdan so'ng esa ushbu jumlalarni keltiradi: "Ukush itig' salomlar to'rt eshinga, to'quz xotunga, ikki aminga, sayidi sodat ahl ul-jannat tashrifluk o'g'lonlarunga va sallimu tasliman qasiran". ("Qisasi Rabg'uziy", …12 bet.). Rabg'uziy bu bayt orqali payg'ambarimizga salom aytib, jannatga tashrif qilishga arziydigan o'ktam o'g'lon deya, ta'riflagan. "Qisasi Rabg'uziy" asarida yana bir jannat haqidagi keltirilish "Qissasi Odam safiy alayhis-salom" hikoyatida beriladi. Ushbu hikoyatda nasr, nazm va shular bilan birgalikda savol-javoblar ham berib o'tilgan:

Savol: Jon kururda bir soatda kirdi, chiqarda emgak birla chiqar, hikmat na turur?

Javob: Kirurda izi azza va jalladin "yarhamka rabbiy" xitobin eshitti ersa o'ngay kirdi, "chiqarda yana rahmat sevinchin eshitmaguncha chiqmasman teyur. Ko'rmasmusen kimning baxti bor ersa va apshiru bial-jannatial lati quntum tu'aduna, bashoratin eshitib o'ngay chiqar, kim badbaxt ersa jonim qattig'lig' birla chiqar" ("Qisasi Rabg'uziy", …18 bet). Bu hikoyatda ham berilgan savolga aniq va misollar bilan javob olingan. Jon kirishda bir soatda kirdi, chiqishda esa emgak *(mahsaqqat, qiyinchilik)* bilan chiqadi. Nega aynan shunday? Nosiruddin Rabg'uziyning teran falsafasi orqali Qur'ondan keltirilgan oyatlar sharhi bu javobni go'zal dalillab bergan. Jon chiqib ketayotganda rahmat sevinchini eshitmasa chiqmayman der ekan. Agar kimning baxti bor bo'lsa "abshiru bial-jannatial lati quntun tu atu'na" bashoratini eshitsa tez chiqadi, kim badbaxt bo'lsa joni qattiqlik bilan chiqadi. Ushbu misollar orqali Nosiruddin Rabg'uziy insonning jannatga kirishi yoki do'zaxiy odam ekanligini ajratib ko'rsatishga harakat qilgan. Hikoyatda jannatning ta'rifi beqiyos tarzda berilgan. Shunday bir naql bor yorlar bir-biriga vafoli, sadoqatli bo'lib, bir-birini qattiq sevishsa jannatda ham birga bo'ladilar. "Bibliya" kitobida Jannat go'zal bog' sifatida tasvirlanadi. Unda Odam Ato bilan Momo Havo yashagani, ular gunoh ish qilib qo'yganlaridan keyin jannatdan quvilgani haqida yozilgan. Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida ham Odam Ato va Momo Havo haqida hikoyatlar berilgan. Hikoyatda aytilishicha, Odam Ato jannat ichida yarim kun qoldi. U jahonning bir kuni bu dunyoning hisobida besh yuz yil bo'lur. Tuproqdan yaratilgandan keyin to jannatga borguncha ming ikki yuz qirq yil fursat o'tgandi. Hikoyatda Odam Atoni jannatga kiritganlarida

u yerdagi ne’matlarni, hurlarni, qasrlarni tomosha qilib yurib, o‘ziga o‘xshagn mahluqotga ko‘zi tushmagach, ko‘ngli to‘lmadi. Shunda Olloh taolo Odam Atoni uyquga cho‘mdirdi. Uzoq davom etgan uyqu orasida Olloh taolo Odam Atoning chap biqini qobirg‘asidan Momo Havoni yaratdi. Hikoyatda berilishicha, Havoni yer yuzida yaratildimi yo jannatda, bu xususda ulamolar orasida ixtilof bor. Nosiruddin Rabg‘uziy ham “Qissai odam safiy alayhis-salom” hikoyatida aynan shu xususda yozib o‘tgan: *”Ey odam, juftung birla ujmohga kirgil, ne’matlarini yeng. Bu bir yig‘ochga yaremang – zolim bo‘lg‘aysiz”.* (“Qisasi Rabg‘uziy”, …20 bet). Bu hikoyatda Odam Atoning yaratilishi haqida so‘z borar ekan, Olloh taolo o‘zining pok zoti bilan Odam Ato va Momo Havo nokohiga xutba qiladi. Xutbada quyidagi parcha ham bor edi: *”Ey Odam, jannatimga kir va mevalarimdan tanavul qil. Mana bu darxtga yaqinlashinglar. Salom bo‘lsin har ikkalanglarga va mening rahmatim ham bo‘lsin, odamlarning parvardigori bo‘lgan Ollohga shukr”.* (“Qisasi Rabg‘uziy”, … 20 bet). Ya’ni Olloh taola odamni yaratganda unga barcha yaxshiliklarni tilagan. Mening jannatimda rohat ol, qilgan yaxshi ishlaringni evaziga deb xitob qilgan. Yana bir rivoyatda keladi: *“Qamug‘in dunyoga keldi, dunyoni ko‘rib keling dedi. Keldilar dunyoni ko‘rdilar, shu yerda qoldilar, azroqi yonib keldilar xitob keldi: boshqalaring qani”, deb. Aytdilar: “Dunyoni ko‘rdilar, ko‘ngillari dunyoni tiladi, unda qoldilar”. Yorlig‘ keldi: “Ujmohga boring, ujmoh nima ekanligini ko‘ring”. Bordilar, ujmohni ko‘rdilar, ular ujmohni yoqtirib, ujmohda qoldilar. Yorlig‘ keldi: “Aznlaringiz qani?” Aytdilar: “Ilohiy, ular ujmohni tanladilar, u yerda qoldilar”.* (“Qisasi Rabg‘uziy”, …23 bet). Aytishlaricha dunyoda qolganlar kofirlardir, jannatda qolganlar mo‘minlar erdilar. Ujmohni unamay hazratga kelganlari qullar edi. Yorlig‘ kelib dedi: ”Dunyoga qolmay, ujmohni tanladingiz endi nima tilaysizlar?” Ular aytdilar: Ilohiy bizga dunyo kerakmas, bizga sen keraksan. Biz Allohning qullarimiz, faqt ungagina itoat qilib duo qilamiz. Jannat shunchalar farog‘atli joyki dunyo ne’matlari qolib, jannatni tanlaganlarga Allohning rahmati bo‘lsin. “Qisasi Rabg‘uziy” qissasida keltirilgan: “Ibrohim ilkinda tirilgan qushlar so‘zi” hikoyatida to‘rt qushning o‘lgani, yani jannatdan quvilgani haqida keltiriladi. Bu qushlar: tovus, qarg‘a, o‘rdak va tovuq. Ularning jinoyati turlicha bo‘lib, payg‘ambarlar bilan adovatli bo‘lib qoladi. Ularga yomonlik qiladi. Jannatga kirishlik kabi baxtga hamma ham sazovor bo‘la olmaydi. Jannatga kirish mashaqqatli. Bu joyga hamma ham sazovor bo‘lmaydi. ”Odamlar, jinlar va odamlarning yaratilishi haqidagi hikoyatda Jablit va Tablitning yettinchi farzandi Xoris haqida ham keltiriladi. Hikoyatda Xoris judayam makkor deb tilga olinadi. Lekin Xoris do‘zaxning holi chekkasiga o‘tirib ibodatga kirishadi. Ko‘p yillar ibodat qilgach, Tangri uni oltinchi qavatga chiqaradi. Unda ham ziyoda ibodat qilgani uchun osmonga chiqaradi. Shu tariqa yettinchi osmonga chiqadi. Tangri

so‘ngra, jannatga kirgizdi. Jannatda farishtalarga ustoz bo‘ldi. Shunda Xoris otini o‘zgartirib, Azozil deb ataldi.

Jannat shunday makonki, unga faqat loyiqlar kiradi. Azozil ham boshida makkor edi va do‘zaxda umr ko‘rardi. Ibodatga ixlos bilan yondashib, kecha-yu kunduz sajdada bo‘lganligi uchun Tangri uni ketma-ket osmonga ko‘tarib, jannatga kiritdi. Qalbimizni isloh qilib, yaxshi amallarimizni ko‘paytiraylik. Rabg‘uziy bu hikoyati orqali sabrli, qanoatli va ixlosli bo‘lish haqida gapiradi. Jannatga esa osonlikcha kirib bo‘lmaslik ta’kidlangan. Jannatdagi hayot abadiy, bezavoldir. Jannatga kirganlarni Olloh turli ne’matlar bilan siylaydi. U yerda g‘am-g‘ussa va tashvish yo‘q. Odamlarning yaxshi ko‘rgan barcha narsasi muhayyo bo‘ladi. Termiziy rivoyatiga ko‘ra: ”Agar jannatdagi tirnoqchalik bir narsa dunyoga ko‘rinsa, butun yer-u osmon o‘rtasidagi narsalar ziynatlanib, yashnab ketadi. Agar Jannat ahlidan bir kishi chiqib, yengini ko‘rsatsa, quyoshning nuri yo‘qoladi, xuddi yulduzning nurini quyosh yo‘qotganidek”. Jannat shunday nurli joyki, uning nuri butun falakka yetadi. Xuddi yulduzning nurini quyosh o‘z nurlari bilan yo‘qotib qo‘yganidek. Nosiruddin Rabg‘uziy asari orqali jannat qanchalik nurli joy ekanligini payg‘ambarlar hayotidan, Qur’oni Karim oyatlaridan va berilgan hikoyatlar orqali mohirona ochib bergan.Bahrom Jalilovning “Jannatiy hurlar va mumtoz adabiyotda go‘zallar tasviri”maqolasida ham jannat tasvirining nozik jihatlari ochib berilgan.Maqolada tahlil qilingan oyat bunga yorqin misol: Rahmon surasining 46-oyatida bunday deyilgan ekan:”Robbisi huzurida turishdan qo‘rqqanlar uchun ikki jannat bor”.Ya’ni qiyomat kuni Parvardigori olamning huzurida savollarga javob berishdan qo‘rqib,tirikligidayoq tayyorgarlik ko‘rib,yaxshi amallar bilan kun kechirganlarga ikki jannat bor ekan. Insonlarga alohida jannat,jinlarga alohida Jannat bor va u ikkala jannat ham serdaraxt,shox-novdalarida mevalar ko‘p,soya-salqinlik manbaidir(50-oyat).

Xulosa qilib aytganda, Rabg‘uziy jannat tasvirini kitobxon ko‘z o‘ngida tasavvur etish imkonini bergan. Jannatga xos sifatlarni asosli manbalarga tayanib bayon qiladi. Muallif jannatning poetik tasvirini bir o‘rinda jon chiqish holati bilan bog‘lasa, boshqa o‘rinda jannatga loyiq bo‘lish haqidagi qarashlari bilan ifoda etadi. Jannat shunday bir joyki, unga faqat munosib insonlar kira oladi. Buni Rabg‘uziy hikoyatlar mazmuniga ham singdirib yuborgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. E.Fozilov, A.Yunosov, H.Dadaboyev: Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. ”Yozuvchi” nashriyoti. – Toshkent: 1990.

2.B.Jalilov:”Jannatiy hurler va mumtoz adabiyotda go‘zallar tasviri”-maqola

3.U.Qobilov:”Alisher Navoiy she’riyatida payg‘amlarlar obrazi”-maqola

# ALISHER NAVOIY NA’T G‘AZALLARIDA TAMSIL SAN’ATI

*Mahmudova Diana, ToshDO‘TAU*

**Annotatsiya.** *Mumtoz adabiyot namunalarini o‘rganish va tahlil qilish, asar mohiyatini to‘g‘ri va to‘liq tushunish badiiy tafakkur masalalarini kengroq tahlil etishni talab qiladi . Ma’naviy xazinamizni boyitish ishlariga o‘z hissasini qo‘shgan buyuk siymolar ijodining tubmohiyatini tashkil etuvchi diniy-irfoniy mazmun ortidagi haqiqatlar sirini ochish uchun ular yozgan asarlardagi badiiy san'atlardan yaxshi xabardor bo‘lish taqozo qilinadi. Bu jihat, ayniqsa, badiiy adabiyot sohasida ijod qiluvchi, shu sohaga tegishli bo‘lgan oliy o‘quv yurtlari, ijod maktablari va fan o‘qituvchilari mustaqil izlanuvchilar uchun nihoyatda zarur bo‘lgan masalalardan deb bilaman. Ushbu maqolada mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodining o‘ziga xos qismi bo‘lgan na’t g‘azallari va tamsil san'atining qo‘llanishi bilan bog‘liq o‘rinlarga e'tibor qaratamiz.*

**Kalit so‘zlar** : *na’t g‘azallar , dalillashga asoslangan she’riy san'at , tamsil san'ati , Muhammad alayhissalom sifatlarining ulug‘lanishi .*

**ABSTRACT.** *The transition to the study of Uzbek classical literature as a word art in schools and higher educational institutions always requires a more extensive and in-depth analysis of the issues of artistic skill in the course of the lesson, outside the lesson, during the lessons. In order to discover the magic of the artistic potential of our outstanding poets and writers who created the invortal treasure of our centuries-old classical literature, it is required to have a thorough knowledge of the artistic Arts in the works they wrote. I know that this is especially necessary for teachers of language literature, students of universities and schools. In this article we will talk about some of the artistic Arts in the creativity of the great thinker Alisher Navoi, some examples from poems are given.*

**Key words:** *na't ghazals, poetic art based on evidence, symbolic art, glorification of Muhammad's attributes.*

Sharq musulmon adabiyotining ajralmas qismi sifatida uzoq asrlik taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan mumtoz adabiyotimiz uchun payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga maqtov, alqov aytish unga salovat aytish masalasi mumtoz adabiyotning tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi .Odatda , yirik adabiy asarlarning kirish qismida hamd va na't , munojot kabi tarkibiy qismlar keltiriladi. Jumladan , Alisher Navoiyning bir qator yirik asarlarida na't bilan boshlangan o‘rinlarni ko‘rish mumkin . Ma'lumki, hamd va na't gazallari muallifning Alloh va uning payg‘ambariga bo‘lgan muhabbati , e'tiqodi va shukronalik hissini aks ettiruvchi ichki tuyg‘ularning ifodasi ramzi sifatida maydonga kelishi bilan bir

qatorda badiiy asarning o‘ziga xos tarkibiy qismi, kompozitsiya unsuri sifatida adabiy hodisa ham hisoblanadi. Qaysidir badiiy asarga yoki uning muallifiga baho berishda muallif ilgari surayotgan fikr ortiga yashiringan ma'rifiy- tarbiyaviy, falsafiy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammolar ko‘lami qalamga olingan obyekt va u bilan bog`liq ibratga chaqiruvchi jihatni dalillash uchun ishlatilgan she’riy san'atlarning turfa xilligi, mantiqiy asosliligi , ijodkor g‘oyasini ochib berishdagi o‘rni kabi masalalarga ham alohida diqqat qaratilgan . Mavzuga aloqador adabiyotlar bilan tanishish davomida shuni anglash mumkinki, na’t g‘azallar va ularda qo‘llangan tamsil san’atining shoir tomonidan istifoda etilishi bir qadar xayoliy-romantik , majoziy xarakterga ega bo‘lgan mumtoz adabiyotni birmuncha hayotiylashtirganligiga ,ya'ni real voqelikka yaqinlashtirganiga guvoh bo‘lamiz . Negaki tamsil san’ati yuzaga chiqish usuliga ko‘ra hayotiy dalillashga tayanadi.

Ilmi bad’i yoki sanoyi’ ilmi nomi ostida yuritiladigan mumtoz Sharq she'riyatining tarkibiy unsurlaridan biri bo‘lgan badiiy tasviriy vositalar asosini “ uch katta guruh: ma'naviy-lafziy va mushtarak san’atlar” (Atoullo Husayniy) tashkil qiladi . Ilmi bad’i – badiiyat ilmiga doir dastlabki asar aruz vaznining shakllanish davri va jug‘rofiy hududi bilan bog‘liq holda arab adabiyotshunosligida IX asrda Ibn Mu’taz , Nasr binni Hasan , Qudama ibn Ja’far nomlari bilan bog‘liq bo‘lsa, fors-tojik adabiyotida u o‘zining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarildi . Xususan , Umar Roduyoniy, Rashididdin Vatvot , Shams Qays Roziy , Vohid Tabriziylar ijodida bu yo‘nalishda yozilgan mumtoz asarlarni uchratish mumkin. Turkiy adabiyot tarixida esa bu mavzudagi ilk manba sifatida Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul- balog‘a” asarini keltirish mumkin.

Mumtoz adabiyotimiz tarixidagi aruz bilan bog‘liq ilk yozma yodgorliklardan tortib keyingi davr shoirlarining ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, asarning kompozitsiyasida o‘ziga xos dogmatik tuzilishga amal qilinganligini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni har qanday ko‘lami keng asar u devon yoki doston bo‘lishidan qat'i nazar, butun olamning Yaratuvchisi bo‘lgan Allohga hamd va bani basharning eng ulug‘ va eng komil insoni Muhammad alayhissalom madhi , muborak surati bilan birga ilohiy siyratini ta'rif-tavsif qiluvchi o‘ziga xos qismlar bilan boshlangan . Ba’zan butun boshli asar Rasuli akramga salovat na’tidan iborat bo‘lgan. Jumladan, Alisher Navoiyning fors tilda yozilgan ” Sittai zaruriya “ qasidalari tarkibidan o‘rin olgan “ Ayn ul-hayot fi na’ti Rasul alayhissalovat” qasidasi fikrimiz dalilidir.

Alisher Navoiy asarlari lug‘atida na’tga shunday ta'rif berilgan: “ Na’t - payg‘ambarlarni madh etish , yaxshi sifatlarini aytib , maqtash” . Vikipediya ma’lumotlarida ham shunga o‘xshash fikrlarni uchratish mumkin. “Na’t (arabcha – maqtov, tarif ) mumtoz adabiyotning an’anaviy tarkibiy qismlardan biri. Odatda , katta she'riy-epik asar(doston)lar , ba’zan ilmiy asarlar bosh qismida hamd va

munojotdan keyin keladi. Na’t,asosan ,payg‘ambar sha’niga aytiladigan maqtovdan iborat bo‘lib , ko‘pgina mumtoz she'riy asarlarda uchraydi” . Masalan , Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”da birinchi, ikkinchi boblar Allohga hamd , uchinchi bob munojot , to‘rtinchi bob na’t , beshinchi bob Meroj tuni ta’riflari sifatida keltirilgan bo‘lsa , mos ravishda “Saddi Iskandariy” dostoni muqaddimasining birinchi, ikkinchi bobi hamd, uchinchi,to‘rtinchi boblari payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) vasfida salovat va salomlar bilan boshlanadi. Shu o‘rinda , yirik epik asarlar tarkibida kelgan na’tlar bilan devonlar tarkibida kelgan na’tlarning shakli va joylashuv jihatdan farq qilinishini aytib o‘tish lozim . Negaki dostonlar va ilmiy asarlar tarkibidagi na’tlar hajm va janr jihatidan devonlar tarkibiga kirgan na’t g‘azallardan ajralib turadi . Garchi har ikkalasida ham mushtarak mazmun yetakchilik qilsa-da , ularning ifoda tarzidagi tafovutni aniq ajratish mumkin. Jumladan , “ Saddi Iskandariy” dostonining uchinchi bobida na’t qismiga kirishda maxsus nasriy parcha orqali bobda aytilishi nazarda tutilgan fikrlarga ishora qilinadi: “ Ul Rasuli amin na’tikim, risolat xutbasida muborak alqobi sayyid ul- mursalin keldi va u shafe’ ul-muzannibun vasfikim , humoyun sifati “va mo arslonoka illo rahmatan lil-olamin “ yozildi ,” alayhi afzalus- salovat va almaluttahiyat” . Ya’ni “ Tabarruk nomlari “ “sayyid ul-mursalin “ ( payg‘ambarlar ulug‘i) bo‘lgan gunohkorlar himoyachisi va muborak sifatlariga “ biz seni butun olamga faqat rahmat bo‘lsin deb yubordik” deb yozilgan Rasuli amin vasfidakim, salovatlarning eng afzali va salomlarning eng mukammal unga bo‘lsin”.

“Xazoyin ul-maoniy” dan joy olgan g‘azallarning joylashish tartibiga e'tibor qilsak, asosan, devon tuzilish qoidalariga qat'iy amal qilinganligini ko‘rishimiz mumkin.

*Itlaring maxsusi mahzundir Navoiy, koshki,*
*Kirsa bu mahrum ham ul zumrayi mahramazo.*
*(“ G‘aroyib us-sig‘ar” , 6-g‘azal )*
*Ulusni tutdi Navoiy so‘zi aning birla ,*
*Magar Rasuli alayhissalom qildi hadis.*
*(“ G‘aroyib us-sig‘ar” , 89-g‘azal )*

Shunisi e'tiborliki, “ Xazoyin ul-maoniy” ning eng oxirgi g‘azali , ya’ni “Favoyid ul-kibar”ning 650-g‘azali ham na’ti g‘azal bo‘lib “to‘rt daftar” to‘rt devonda keltirilgan na’tlari xususida ham so‘z yuritiladi. Garchi devondagi an’anadan chekinib bo‘lsa-da, Navoiy hazratlari o‘ziga xos boshlanma va tugallanmaga qo‘l uradi. Allah hamdi bilan boshlangan kitob Payg‘ambarimiz madhi bilan poyoniga yetadi. Bu o‘ziga xos ramziylik zamirida esa hazrat Navoiyning pok islomiy qarashlari va e'tiqodi bilan bog‘liq jihatlar o‘rin tutgan.

Tamsil (ar. – misol keltirish, dalillash) – she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan badiiy san'at. Bunda birinchi misradagi fikr bilan keltirilgan misol o‘rtasidagi munosabat, ya'ni mantiqiy aloqa ko‘pincha qiyosiy yo‘nalishda bo‘ladi. Tamsil san'ati mohiyatiga ko‘ra irsoli masal san'atiga o‘xshab ketsa-da, fikrning, maqsadning isboti uchun hayotiy dalillar keltirishi bilan undan farqlanadi, chunki irsoli masaldamashhur maqol, hadis yoki hikmat dalil sifatida keltiriladi. Tamsil haqidagi dastlabki ma'lumot Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam” (1218-1233) asarida keltirilgan bo‘lib, muallif tamsilni istioraning bir turi sifatida sanab o‘tadi: “Ushbu san'at ham istioralarga mansubdir. Faqat u istioraning misol keltirish bilan bog‘liq turi bo‘lib, agar Shoir biror fikrga ishora qilmoqchi bo‘lsa, boshqa ma'noni anglatuvchi so‘zlarni shu fikrga monand qilib keltiradi va shu orqali o‘zi maqsad qilgan ma'noni ifodalaydi”. Aynan shu kabi fikrlar ilmi badi'ga doir boshqa manbalar: Husayn Voiz Koshifiyning “Badoyi' ul-afkor” (15-a.) va Atoulloh Husayniyning “Badoyi' us-sanoyi'” (15-a.) asarlarida ham takrorlangan. Alisher Navoiy ijodida tamsil san'atining istifoda etilishi alohida jihat kasb etadi.Shoir lirikasida ushbu san'atning qo‘llanilishida janrlararo tabaqalanish mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, poetik dalillash g‘azal janrida, asosan, bir bayt doirasida ko‘rinsa, qit'a va ruboiyda bir she'r doirasida, tarji'bandda esa har bir band doirasida namoyon bo‘ladi, lekin takrorlanuvchi maqta'-bayt tufayli bandlar bir-biri bilan bog‘lanib keladi. Natijada maqta'dagi mazmunni dalillash musalsal, ya'ni bosqichli holat kasb etadi (Yo.Is’hoqov) Masalan, quyidagi misolda dalillash usuli g‘azaldagi bayt doirasida namoyon bo‘lmoqda:

Orazin yopqach ko‘zumdin sochilur har lahza yosh,
O‘ylakim paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘ach quyosh.

Baytni tahlil qilsak : ul yor yuzini berkitgach , ko‘zimdan yoshlar to‘kiladi, xuddi quyosh ketgach, osmonda yulduzlar ko‘ringani kabi .

Bunday misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin . Alisher Navoiy ijodida tamsil san’ati keng istifoda etilgan bo‘lib ,ushbu badiiy tasvir vositasining shoir na’t g‘azallarida qo‘llanish holatlarini ko‘rib chiqamiz:

*Yuzungdin anjum, anjumdin quyosh nur iqtisob aylab*
*Aningdekkim, quyoshdin oyu oydin qiyrgun g‘abro.*
*(“ G‘aroyib us-sig‘ar” , 7-g‘azal)*

Ushbu baytning ikkinchi misrasi birinchi misraga misol tariqasida keltirilgan . Baytning mazmuni shunday : Payg‘ambarimizning go‘zal yuzlari shu darajada yorqin, nurliki , yuzidan yulduzlar, yulduzlardan quyosh nur oladi . Va bu fikrni dalillash uchun hayotiy misol sifatida oyning quyoshdan nur olishi-yu , oy tufayli qorong‘i kechaning yorug‘ bo‘lishi misol sifatida keltirilgan .

*Yo‘q bo‘ldi kalomingdin asfori samo barcha*
*Asfori samoviydin bo‘lg‘an kebi yo‘q pojand.*
*( “ G‘aroyib us-sig‘ar” , 114-g‘azal)*

Bayt mazmuni : sening so‘zlaringdan asfori samo – samo kitoblari ( Tavrot , Injil Zabur ) yo‘q bo‘ldi , xuddi “Avesto” samo kitoblari orasida bo‘lmagani kabi . Bilamizki,payg‘ambarimizga haq din – islom dini va haq kitob - Qur’oni Karim nozil bo‘lgandan keyin undan oldingi samoviy kitoblarning barchasi “yo‘q bo‘ldi” , ya’ni inkor etildi .Ushbu baytda bu holat zardushtiylikning muqaddas kitobi bo‘lgan “ Avesto “ boshqa samoviy kitoblar oldida o‘z qimmatini yo‘qatgani kabi, islom dinidan oldingi muqaddas kitoblar ham inkor qilinganligi misol qilib keltirilgan .

*Tuzubon adl , ko‘ngil mulkini obod etding ,*
*Mulk ma’mur bo‘lur , adlg‘a shah bersa rivoj .*
*( “Badoye’ ul-vasat” , 92-g‘azal .)*

Ushbu baytning ham ikkinchi misrasi birinchi misraga misol tariqasida keltirilgan . Baytning mazmuni quyidagicha : sen adolat egasisan , o‘z adulating bilan ko‘ngil mulkini obod etding ; negaki shoh adolatli bo‘lsa , mamlakat obod bo‘ladi . Bilamizki , Payg‘ambarimiz har ishda adolat tug‘ini tutgan , komil inson bo‘lganlar . Ushbu baytda ham Allah Rasulining adolatli ekanliklari qalamga olingan .

*Ehtiyoj aylabon izhor quyosh ra’yingg‘a*
*Xalq andoqki quyosh nuriga bo‘lg‘ay muhtoj .*
*( “Badoye’ ul-vasat” , 92-g‘azal )*

Bayt mazmuni : Quyosh sening ra’yingga ehtiyojmand bo‘ldi , xuddiki xalq – odamlarga quyoshning nuri kerak bo‘lgani kabi . Odamlarning quyosh nuriga muhtoj bo‘lishlari quyoshning ham Payg‘ambarimizning ra’ylariga muhtoj bo‘lishiga misol sifatida keltirilgan.

*Sof ko‘nglida yuzing mehrini go‘yo asramish ,*
*Tush chog‘i har kun quyosh aksi emas Zamzam aro .*
*( “ G‘aroyib us-sig‘ar “ , 6-g‘azal .)*

Bayt mazmuni : sof , toza , pok insonlar qalbida yuzing mehrini asraydi , xuddi tush chog‘i quyoshning aksi Zamzamda ko‘ringani kabi . Hammaga ma’lumki , Zamzam suvi eng sof , toza , tiniq suv hisoblanadi . Ushbu baytda ham pok qalbli insonlar ko‘ngli Zamzam suviga , Payg‘ambarimizning muborak yuzlari olamni yorituvchi quyoshga tenglashtirilgan holda , Nabiy alayhissalomning jamolini ko‘nglida asrashi tush payti quyoshning aksi Zamzam bulog‘ida jilvalanishiga misol qilib keltirilgan .

*Esib rahmat nasimi chun damodam sunbuling sori ,*
*Bo‘lub ruhonilar jaybi labolab anbari soro .*

*( “ G‘aroyib us-sig‘ar “ , 7-g‘azal .)*

Bayt mazmuni : Ruhoniylarning yoqalaridan mushkanbar hidi kelganidek , sochlaring orasidan rahmat nasimi – shamoli esib turadi . Payg‘ambarimiz shu darajada pok , xushbo‘y edilarki , mushkanbarga hojat yo‘q edi . Chunki sochlari orasidan esgan rahmat shamoli ruhoniylarning yoqasidan keladigan hid – mushkanbar hidini eslatardi .

*Charx izing gardiga qildi kavkabi sayyor Xarj,*
*Javhar olmoqg‘a g‘aniy qilg‘an kabi dinor xarj.*
*( “ G‘aroyib us-sig‘ar “ ,94 –g‘azal )*

Bu paytda shoir tashxis san’atidan foydalangan holda Me’roj tunida o‘z tashrifi bilan 7 osmoni munavvar aylagan zotning izin ko‘rmoq uchun , hech bo‘lmaganda muborak izlarining gardi uchun butun sayyoralarning yulduzlarni xarj qilmoqchi bo‘lgan charxning holatini dalillash uchun hayotiy bir misol keltiradi . Ya’ni boy kishi qimmatbaho gavharni qo‘lga kiritmoq uchun dinorni ayamasligi tamsil sifatida keltirilib o‘tilgan .

Aynan shu bayt mazmuniga monand tasvirlarni “ Saddi Iskandariy” da keltirilgan Meroj tuni voqeasiga bag‘ishlangan na’tda quyidagi holatda uchratish mumkin:

*Boshig‘a aning evrulib har falak ,*
*Nechukkim , falak uzra xayli malak,*
*Charog‘ig‘a parvonalardek nujum ,*
*O‘zin o‘rtamaklikka aylab hujum .*

Meroj tuni bayoni bilan bog‘liq na’t g‘azallardan yana birida tamsil uchun olingan misol Buroq otiga mingan Muhammad alayhissalomning markabi izini tavof qilayotgan malak-farishtalar holatini izohlash uchun :

*Yuzi tubon tushubon markabing iziga malak,*
*Yer uzra qursni qilg‘on kebi gadoy talosh .*
*( “ Navodir ush-shabob” , 242-g‘azal “ )*

**Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak , buyuk mutafakkir ijodida qo‘llangan badiiy san'atlar ,jumladan , tamsil san'ati o‘zining badiiy go‘zalligi , poetik jozibadorligi bilan bir qatorda o‘quvchi ong-u shuuriga ko‘rsatadigan ma'naviy ta'siri bilan ham ahamiyatlidir . Zero , Alisher Navoiydek din-u diyonat va adolatni ilgida barobar tuta olgan “ millat quyoshi” olamlarga rahmat bo‘lib kelgan buyuk inson - Muhammad alayhissalom hadislari va Haq Taolo buyurgan amallarni badiiy so‘z orqali xalqqa yetkaza olgan “ chin mo‘minlik “ rutbasiga loyiq shaxs edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Юсупова Д. Узбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври), Академнашр, -Т.,2013.-Б. 60
2. Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги, Mumtoz soz, -Т.,2011.-Б. 79
3. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия, Шарқ, -Т., 1998. -Б.4
4. Қаюмов А. Асарлар 3жилд, Mumtoz soz, -Т., 2009.-Б.147
5. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 1-2 жилдлар. Фан,
-Т., 1987-1988. -Б.144
6. "Садди Искандарий " : А. Каюмов ва бошка ; - Тошкент. Г. Гулом номидаги нашриёт . 1991. - 832 б.

## JOMIYNING “SALOMON VA ABSOL” DOSTONI HAQIDA

*Mansurova Shahnoza O‘tkir qizi,*
*ToshDO‘TAU magistranti,*
*Shahnozam1205@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Jomiyning “Salomon va Absol” asari yaratilishi va o‘zigacha yaratilgan dostonlardan qaysi xususiyatlariga ko‘ra farq qilishi, yozilish uslubiga xos xususiyatlar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, qahramonlarning shakllantirilishiga oid farazlar Dimitri Gutash, Fayaz Parvana va Iraj Dehganning ilmiy tadqiqotlari asosida o‘rganildi.*

**Abstract.** *This small study was focused on the creation of Jomi’s "Salomon and Absol" and what characteristics it differs from the novels created by itself, as well as the characteristics of the writing style. Also, the hypotheses of the formation of heroes were studied on the basis of scientific research by Dimitri Gutash, Fayaz Parvana and Iraj Dehgan.*

**Kalit sozlar**: *“Salomon va Absol”, yunon qissalari, Chad G. Lingvood, Dimitri Gutash, Fayaz Parvana, Iraj Dehgan, tarjimalar, asarning saqlanishi.*

Dunyo badiiy tafakkurida shunday asarlar yaratilganki, oradan necha asrlar o‘tsada ular o‘zining asl qimmatini yo‘qotmagan. Bunday noyob durdonalarning insoniyatga beradigan ma’naviy ozuqasi yillar o‘tgani sayin kengayib boradi. Ushbu maqolada Jomiyning “Salomom va Absol” masnaviysi o‘zbek olimlari va hamda jahon olimlari tomonidan qay darajada o‘rganilganligini aniqlashga harakat qildik. Shu bilan birgalikda, o‘rganishlar jarayonida tadiqiqotlar asarning qaysi xususiyatlariga ko‘ra olib borilganligiga aniqlik kiritish ham bu boradagi ilmiy ishlarning mohiyatini belgilashda yordam berdi. Chunki, aynan, Jomiyning ushbu

asari yuzasidan bizda olib borilgan tadqiqiqotlar oz bo‘lib, bu jahon olimlarining, jumladan, Eron, Afg‘on, Tojik va Ingliz tadqiqiotchilarining bu mavzudagi ilmiy faoliyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish zaruratini tug‘diradi. Jomiyning hayoti va ijodiga doir ilmiy ishlarni kuzatganda asarning yaratilishi, undagi sujet ko‘lami tahlili hamda Jomiyning falsafiy qarashlariga e’tibor berilganini ko‘ramiz. Qolaversa, Jomiyshunos olimlardan biri Jafar Muhammadiyevning “Vahdat-ul vujud” risolasida asarning kelib chiqishi haqidagi farazlar berilgan bo‘lib, olim o‘zining qarashini Zehra Muhojiriyning fikrlari asosida dalillaydi. [Muhammadiyev,2008:14]

“Salomon va Absol” mavzusidagi asarlar keng ko‘lamda tadqiq qilishni talab etishi bilan ahamiyatlidir. Jomiyning “Haft avrang”i tarkibidagi “Salomon va Absol” o‘zbek xalqi bilan bir qatorda tokijlar, afg‘onlar-u eroniy va boshqa xalqlar uchun birday qadrli asardir. Sabab esa bu dostonning qurilishiga asos bo‘ladigan, ba’zi bir obrazlarning kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan umumiyliklar va tarixiyliklarning mavjudligidir. Ikki obraz – Salomon va Absol Jomiygacha bir necha asarlar yaratilishiga asos bo‘lgan. Bu turkum asarlar umumbashariy, falsafiy qarashlarni o‘zida ifoda etgan. Bu asar borasida olimlar tulicha qarashga ega. Asar 1480-yilda yozilgan bo‘lishiga qaramay, 1485-yilda yozib tugatilgan “Xamsa” tarkibiga kiritilmagan. Keyinchalik “Silsilat-ul zahob” bilan birgalikda jamlanib “Haft avrang” (1487) deb nomlanadi. Navoiy “Saddi Iskandariy”ning yettinchi bobi, ustozi Jomiyga bagishlangan bobida Jomiyning “Xamsa” tuzganligi va uning beshta dostoni haqida to‘xtaladi:

*Bolib jilvagartabi ko‘zgusida*
*Ki, sabt ayladi “Xamsa” o‘trusida.* [Navoiy, 1993:51]

Bunga esa biz keyingi ikki doston 1487-yilda qo‘shilganligi va Navoiy “Xamsa”sini 1483-1485-yillarda yozganligini sabab qilib ko‘rsatishimiz o‘rinlidir. Ammo Navoiy Jomiy vafotidan keyin unga bag‘ishlab yozgan “Xamsat ul-muttahayrin”da “Salomon va Absol”ni “Haft avrang”dagi ikkinchi doston sifatida sanab o‘tadi. [Navoiy, 1993:58]

Masnaviy shaklidagi ushbu doston yaratilganidan to bugungi kunga qadar turli tillarga tarjima qilindi va nusxalar ko‘chirildi. Ba’zi manbalarda “Salomon va Absol”ga ilk marotaba Kamoliddin Behzod tomonidan minyatura ishlanganligi va mashhur xattot Sulton Ali Mashhadiy nusxa ko‘chirganligi haqida ma’lumotlar uchraydi. 1556-yilda Sulton Ibrohim Mirzo ushbu asardan nusxa ko‘chirtirishni buyurgan va Ibrohim Mirzoning bundan asosiy maqsadi Jomiynning “Haft avrang”ini o‘g‘li Shoh Tamhaspga sovg‘a qilish bo‘lgan.Sultonning fikricha, asar shahzodaga to‘y munosabati bilan beriladigan eng yaxshi sovg‘a edi. Chunki “Haft avrang” va uning tarkibidagi har bir doston kuchli ma’naviy tayanch bera oladigan

falsafiy qarashlar va romantik ruhiyatga boydir. Bu kitob uchun esa 1499-yilda Venetsiayda Aldus Manutius tomonidan nashr etilgan nusxasi asos qilib olingan. Nusxa koʻchirish va suratlar chizish ishlarida Hirotning va Mashhad-u Qazvinning oʻsha davrda eng mashhur xattotlari ishtirok etganlar. Aynan, mana shu nusxa III asr mobaynida turli shohlar va kolleksionerlar tomonidan saqlanib kelingan. Nega asar bir muqim sulola qolida qolmaganiga sabab, Safaviylar sulolasida Shoh Abbos uni safaviylar sulolasiga oid boʻlgan Ardabil maqbarasiga hadya qilganida edi. Keyinchalik asar Janubiy Osiyoda humukdorlik qilayotgan Mughal imperiyasining qoʻliga oʻtadi, ammo qanday qilib Eroniy oʻlkada saqlanayotgan kitob birdan bir Hindistonda hukumronlik qilayotgan sulola qoʻliga oʻtdi. Bu davlatlar orasidagi qandaydir aloqa natijasida sodir boʻlganligining ehtimoli yuqoridir. Chunki kitob sulolaviy maqbarada saqlanayotgan edi. “Haft avrang”ga Boburiylar tomonidan qoʻshilgan sahifalardan anglashiladiki, u Hindistonda saqlangan davrda Shoh Jahon va uning oʻgʻli Avrangizeb ham kitobga egalik qilishgan. [4] Qolaversa, olimlar unga ilova qilingan qoʻshimcha sahiflarda Qajar davriga xos uslublarni ham koʻrishgan. Anglashiladiki, Qajarlar 1785-1906-yillarda Eronda taxtda boʻlgan sulola boʻlib, asar shu sulola hukumronligi davrida eronda boʻlgan. Avrangizebning taxtda boʻlishining soʻnggi yiliga (1707) nazar tashlasak, biz uchun asarning keying yetmish besh yil davomidagi taqdiri va u yana qanday qilib Eronga qaytarilganligi noma’lum bolib qoladi. Asarning keyingi taqdiri 1926-yilda Milanda sotuvga qoʻyilishi-yu, Hagop Kevorkian tomonidan sotib olinish va yigirma yil oʻtib, Simson univeristetiga sotilishi bilan tugaydi. [Simpson, Marianna, 1949] Asar hozirda shu universitetga qarashli boʻlgan Vashingtondagi “Feer Gallery of Art” muzeyida saqlanadi.

Asar turli tillarda dunyoga tarqaldi, xususuan, 1850-yilda Londonda eron tilida Forbes Falconer tomonidan keng omma e’tiboriga havola etildi. 1856-yilga kelib esa Edvard Fitsdjerald “Salomon va Absol”ni ingliz tiliga tarjima qildi. Asarning fransuzlar yurtiga kirib borishida Avgust Briktening xizmati beqiyosdir. Asar 1927-yilda fransuz tilida doston koʻrinishida nashr etildi. Doston ilk bor rus tilida sovet sharqshunosi Konstantin Chaykin tomonidan tarjima qilingan va **1935-yil** III Xalqaro Eron san’ati va arxeologiyasi kongressida bosib chiqarilgan. [6] Bizining yurtimizda ham Jomiyning bu durdona asari bir necha bor tarjima qilindi. Jumladan, 1989-yilda A.Qayumovning soʻzboshi muharriligida Olimjon Boriyev tarjimasi bilan “Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanat nashiryoti”da bosmadan chiqsarilgan nusxasi qolganlariga nisbatan mukammalligi bilan ajralib turadi.

Qolaversa, asarning yana bir muhim jihati shundaki, Jomiy bu asarni yozishdan maqsadini asarning oʻzida bayon etadi.Taqsiri uning madhiga asar

yozishni so‘raydi. Bu haqida dostonning “Bu madhiyalarni tilga olishdan maqsad shuki, Hazrati shaxriyornng madhi maroqlidir…” bo‘limida shunday bayon etadi:

*Bu madhim boshqa bir shoh talashida,*
*Iqbol toji bu kun uning boshida…*
*Shohlar vasfi elddan pinhon bo‘lsa soz,*
*Ofarin, shunday deb aytmish ul mumtoz:*
*“Dilrabolar vasfi bolar yaxshiroq,*
*O‘zgalar tilidan madh etilgan choq”.* [Jomiy, 1989:199]

Shu o‘rinda asavol tug‘iladi, Jomiyga asar yozishni buyurgan taqsiri kim edi?

Bu savolga javob izlashda, yuqoridagi misralarda bayon etilgan *“Iqbol toji bu kun uning boshida”* tasviriga e’ribor qaratish va Mariana Shreve Simpson va Massumeh Farhadning bu asar borasidagi ba’zi fikrlarini inobatga olish o‘rinlidir. Ularning qarashlariga ko‘ra, asarda Safaviylar davriga xos ko‘plab belgilar mavjud bo‘lib, Islom davrning durdona asaridir. Va tabiiy ravishda matndan xulosa chiqadiki, bu davrda hukumronlik qilayotgan shoh Jomiyga uning madhiga asar yozishni buyurgan.

Asar yozilgan davrda Eronda Oq Quyunlilar hukumronlik qilayotgan va ularning hukumdori Sulton Ya’qub ibn Uzun edi. Sulton Ya’qub ijodkor va ilm ahliga e’tibor qaratgan hukumdorlardan bir bo‘lib, ko‘plab iste’dod egalarini o‘z atrofiga yiqqan. Jumladan, Baba Fighani, Ahli Shirazi hamda Jomiyning jiyani Hatefi va boshqalar. [8] Manbalarda Jomiy Sulton Yaqub hukumdorlik qilgan davrda u bilan ayni saroyda yoki ayni shaharda yashamaganligi va ular maktublashganlari haqida ma’lumotlar uchraydi. [Lingvood, 2011:23] Ma’lum bo‘ladiki, Jomiy bu davrlarda Tabrizdan uzoqda yashagan. Ammo taqsiriga atab bir necha asarlar yaratdi, xususan, Sulton Ya’qubni madh etgan qasidalar va marsiya. Shunindek, Shoir sochiga oq tushganda hukmdorining istagini rad etolmagan holda yaratgan “Salomon va Absol” dostoni Oq quyunlilar shohiga bag‘ishlang eng yaxshi falsafiy ruhdagi va har bir xalq istaydigan shoh tasviri yaratilgan asar bo‘ldi.

Xosh, Nega, aynan, Salomon yoki Absol va nega bu asar Sulton Ya’qubga bag‘ishlab yaratildi? Jomiygacha bu qahramonlar nomi bilan bog‘liq turli xil variantdagi asarlar Arab va Yunon adabiyotida mavjud edi. [Deghan, 1994:233] Bundan tashqari, Jomiy yaratgan durdonaning ungacha yaratilgan Ibn Sinoning “Salomon va Absol” qissasi, Ibn Tufayl hamda Ibn Haldunning Ibn Sinoning asarini arab tiliga erkin tarjima qilish bilan yaratilgan asarlaridan sujeti va kompozitsion qurilishi bilan tomoman farq qiladi, qolaversa, Jomiyning asar davomida o‘z qahromonlariga bergan xarakter-xususiyatlari ham asarnning yana bir farqli tomoni bo‘la oladi. Abdurahmon Jomiy falsafiy mazmunga ega bo‘lgan ushbu asarini ramalda yaratdi, ham oqilishga oson bo‘lsin, ham Iraj Dehghanning qarashlari bilan

ifodalaydigan bolsak, u o‘zining salaflari Firdavsiy va Rumiydek (Firdavsiyning o‘z hukumdori madhiga bagishlangan“Shohnoma”si va Rumiyning falsafiy mazmunga ega bo‘lgan masnaviysi ramali musaddasi mahzuf/maqsurda yaratilgan) an’anaviy deb bilgan yo‘lni tanladi. [Deghan, 1971:56] Bundan tashqari ba’zi olimlar, xususan, Chad G. Lingvood Jomiy va Rumiyning asari o‘rtasidagi bu bog‘liqlikni kenroq tahlil qiladi va asar sujetida ham o‘xashliklar bor degan xulosaga keladi: Rumiyning “Masnaviy”sida ham qirol o‘zining xizmatkori bilan ishqiy munosabatda bo‘ladi va bu allegoriya Jomiy tomonida kuchli tasvir bilan gavdalantiriladi. [12-8] Bundan tashqari shu olimning boshqa bir fikrlariga diqqat qaratadigan bo‘lsak, olimning fikricha, Jomiy ushbu asarida Ya’qubning protipini yaratishga harakat qilgan va bu asardagi ba’zi bir xususiyatlar bilan izohlanadi. Jumladan, Absolning o‘ldirilish voqeasi Ya’qubning ichkilikdan voz kechishi bilan, Salomonning otasi huzuriga qaytishi Ya’qubning otasi Uzun Hasandan taxtni olishi bilan teng qo‘yiladi, qolaversa, Salomonga nasihat qilgan Qirolning vaziri obrazi va Ya’qubning vaziri Qozi Iso Savaji o‘rtasida bogliqliklar taqqoslanadi. Bu manbalar yuqordigan savollarga javob topishda qisaman bo‘lsa-da, yordam beradi. Demak, Abdurahmon Jomiy bu asarni taqsiriga bag‘ishlab, uning prototipini chizibgina qolmay asl shoxlik, dinga, aqidaga sodiq qolishlik, Shohning yo‘lidan chiqadigan turli sinovlar va hamda ular o‘ziga odat qiladigan ba’zi salbiy illatlardan uzoq bo‘lishini istaydi. Ammo asarning asosiy planida bo‘lgan Salomon va butun boshli asar uning ma’naviy kamolot yo‘lini topishi uchun yaratilgan ekan, Salomon va Sulton Ya’qubni bir-biriga qiyoslash qay darajada o‘rinli? Salomon va uning atrofidagi shaxslar hamda Ya’qub va uning atrofidagi shaxslar orasida bog‘lilik faraz qilib o‘rganilgandir, ammo asarda Salomonning tugilish motivi o‘ziga xos tarzda yaratilgan. Bu xususiyat uning o‘zgachaligini, atrofidagilardan tomoman farq qilishini anglatadi, ya’niki u neoplatonik kuchga ega bo‘lgan obraz ekanligini ifodalaydi. [Parvana, 2022:2] Qolaversa, Salomon va Absol o‘rtasidagi munosabatlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Absol Salomonni o‘n to‘rt yoshigacha katta qilgan va Absol yigirma yoshda, Salomon o‘n to‘rt yoshda ekan ularning o‘rtasida munosabatlar Absolning harakatlari natijasida paydo bo‘ladi. Ammo yana diqqat qaratilishi kerak bo‘lgan jihat shuki, Absol Salomonga enagalik qilish uchun yollangan va nihoyatda go‘zal qiz edi. To‘g‘ri, Jomiy bu qahramonni nihoyatda go‘zal tasviri bilan yaratgani shohlar atrofida paydo bo‘ladigan illatlar, avvalo, o‘zining go‘zal ko‘rinishi bilan ularni o‘ziga jalb qilishi mumkin va bu qay darajadadir Absolning majoziy qahramon, ma’lum bir illatlaning tasviri sifati gavdalantirilganliga asos bo‘la oladi. Biroq Jomiy Absolni Salomonga juda yaqin qahramon, uning enagasi sifatini beradi, bu esa malum bir ma’noda homila bo‘lmay tug‘ilgan Salomonga onalik qilish vazifasi hamdir. Bizning fikrimizcha, bu hodisa

ostida turgan asosiy sujet kelib chiqishi jihatdan yunon qissalariga borib taqaladi, chunki Jomiy asarga olib kirgan o‘zgarishlar Ibn Sino va Ibn Tufaylning “Salomon va Absol”idan Absolni ayol obrazi qilib tasvirlagani va ular o‘rtasidagi ishqiy munosabat bilan farq qiladi. Bu borada Iraj Deghan Jomiy mazkur asarni yozishda Tusiy asariga suyanganligini va ular o‘rtasida umumiyliklar ko‘p ekanligini aytadi. [14-11:120] Shulardan biri Salomonning ona qornida mavjud bo‘lmasligidir. Qolaversa, olim Salomon va Absolning kelib chiqishi yunon qissalariga borib taqalishi va bu epik voqea yunon tilidan arab tiliga Hunayn ibn Ishaqning tarjima qilishi bilan kirib kelganiligi borasidagi o‘z farazlarini bayon etadi. Bu ikki qahramon asrlar davomida ko‘plab asarlarning yaratilishi uchun asos bo‘ldi. Tusiy, Ibn Tufayl, Ibn Sino va Jomiyning asarlari shular jumlasidandir. Ular yaratgan asarlar sujet chizig‘i hamda ba’zi qahramonlarga berilgan xarakterlar bilan bir biridan farq qilsa-da, ammo ularning barchasi falsafiy mazmunga ega bo‘lib, insonning kamolotga erishish yo‘lida duch kelinishi mumkin bolgan ayrim illatlar xususida so‘z yuritiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Muhammadiyev, Jafar. 2008. Jomiy va Vahdat-ul vujud ta’limoti, monografiya. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – B.132.

2. Navoiy, Alisher. 1993. Saddi Iskandariy. Mukammal asarlar to‘plami. – T.: Fan. – B.727. (20 tomlik, 11-tom)

3. Navoiy, Alisher. 1999. Xamsat ul-muttahayyirin. Mukammal asarlar to‘plami. – T.: Fan. – B.224. (20 tomlik, 15-tom)

4. https://en.wikipedia.org/wiki/Haft_Awrang

5. Sultan Ibrahim Mirza's Haft awrang: a princely manuscript from sixteenth-century Iran: Simpson, Marianna Shreve, 1949, Internet Archive

6. ttps://oliymahad.uz/36287

7. Jomiy, Abdurahmon. 1989. Layli va Majnun; Salomon va Absol. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. – B.224.

8. Ya'qub Beg - Wikipedia

9. Lingvood, Chad. 2011. Jamis Salaman va Absal: Political Statements and Mystical Advice Addressed to the Aq Qoyunlu Court of Sultan Ya’qub (d. 896/1490). – Journal of Persianate Studies. 44:2, 175-191

10. Dimitri, Gutash. 1994. Ibn Tufayl on Ibn Sino‘s eastren philosophy. – Oriens.34, 222-241.

11. Iraj, Dehghan. 1971. Jami’s Salomon and Absol. – Journal of Eastren studies.30:2, 118-126.

12. 8

13. Fayaz, Parvana.2022. Jami’s Rhetoric of Old Age and Aging in Salomon and Absol. – Afghanistan 5:1, 30-59. 14.11

## BOBUR FARDLARINING QOFIYA TIZIMI

*Mavlonova Aqida Mahmud qizi*
*ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) 1-kurs magistranti*
*aqidamavlonova160@gmail.com +998935288022*

**Annotatsiya**. *Poetika ilmining bilimdori Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy va ilmiy merosi tadqiqi adabiyotshunoslik uchun muhim vazifalardan biridir. Bobur poetika ilmiga oid risola yaratish barobarida uning amaliy natijasini asarlarida ko‘rsatib berdi. Ushbu maqolada Bobur fardlarining poetikasi mukammalligini ta’minlab beruvchi qofiya tizimi tadqiq etildi. Bobur devonidagi fardlarning qofiya turlari aniqlandi.*

**Kalit so‘zlar:** *Qofiya, qofiya turlari, radif, fard, qofiya harakatlari, raviy, muassas, murdaf, mutlaq, mujarrad.*

**Abstract.** *The study of the creative and scientific heritage of Zahiriddin Muhammad Babur, a connoisseur of poetics, is one of the important tasks for literary studies. While creating a treatise on the science of poetics, Babur showed its practical results in his works. In this article, the rhyme system that ensures the perfection of the poetics of Babur's fards has been studied. Rhyme types of fards in Babur's court were determined.*

**Keywords:** *Rhyme, types of rhyme, radif, fard, rhyme movements, narrator, institution, murdaf, absolute, mujarrad*

Fard mumtoz adabiyotda hajm jihatidan eng kichik janrlardan biri bo‘lib, odatda shoirning falsafiy-xulosaviy fikrlarini aks ettiradi. “Fard” so‘zi ham “yakka, yolg‘iz” degan ma’noni anglatib, yirik asarlarning so‘ng qismlaridagi xulosalar va “qissadan hissa” o‘rinlari fardlarda aks etadi [Hamroyeva, 2022, 30-b.]. Devonlarda esa mustaqil janr sifatida alohida o‘rin egallaydi. Xorazmiy “Muhabbatnoma” asarida fard asar xulosasi sifatida keltirilgan bo‘lsa, Navoiy va Bobur devonlarida alohida janr sifatida keladi. Fard ikki misradan iborat bo‘lib, ular o‘zaro qofiyalanishi (a-a) yoki qofiyalanmasligi (a-b) mumkin. Bu esa shoirga ijodiy erkinlik beradi.

Bu dunyodin farah yo‘qtur meni mahzung‘a **jononsiz**, - a
Jahondin kim desun, billoh, kerakmas manga jon **onsiz**. –a
Yoki
Sening uchun vatanim ko‘h-u dasht bo‘lg‘usidur, - a
Aning uchunki, vafosiz g‘azol ko‘runasen. – b

Zahiriddin Muhammad Bobur fard janrida samarali ijod qilgan. Bobur devonida 65 ta fard jamlangan. Bobur fardlarining deyarli barchasi qofiyalangan. Faqatgina devondagi fardlardan 2 tasi: 5, 11 raqamli fardlar o‘zaro qofiyalanmagan, xolos.

Bobur fardlari o‘ziga xos qofiya tizimiga ega. Shoir qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra turlaridan unumli foydalangan. Muraddaf va radifsiz qofiyalar shoirning ma’lum bir maqsadini ifodalash uchun keltirilgan bo‘lib, 65 ta farddan 35 tasi muraddaf qofiyali fardlarni tashkil etadi. Muraddaf qofiyali fardlarda ta’kid ma’nosi kuchliroq bo‘ladi va baytning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi.

Base, firoqida ichsam chog‘ir yig‘im *keladur,*
Manga chog‘irni kelturmangki, achchig‘im *keladur.*

Bormi ekin hech nima olamda hijrondin *yamon,*
Har nekim, ondin yamonroqdur, budur – ondin *yamon.*

Bobur fardlarida qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra turlaridan murdaf va mujarrad qofiya turlari samarali foydalangan hamda nisbatan faoldir.

**Murdaf qofiya:**

Firoqingdin yovushtum o‘lg‘ali, ey yo<u>r</u>, kelgaysen!
Visolingga, base, mushtoqmen, zinho<u>r</u> kelgaysen!

Murdaf qofiya turi qofiya hurujlaridan biri – ridfga asoslanadigan qofiya turi bo‘lib, raviydan oldingi cho‘ziq unli *ridf* sanaladi. [Hamroyeva, 2022, 98-b.] Demak, farddagi *“yor – zinhor”* qofiyadosh so‘zlaridagi r – raviydan oldingi *o* unlisi ridf bo‘lib, murdaf qofiya turini shakllantirgan.

Bor, archi, boisi yuz sho‘ru yuz gunoh chog‘ir,
Chog‘ir firoqi halok etti meni, <u>o</u>h chog‘ir.

**Muqayyad qofiya:**

Qadin ko‘z jo‘yborig‘a ko‘ngul bexo<u>s</u>t keltursa,
Ayog‘idin ko‘tarmay boshni tengri ro<u>s</u>t keltursa.

Muqayyad qofiya turi raviydan oldin qayd – undosh tovush kelishiga asoslanadi. *“Bexost – rost”* so‘zlaridagi *s* undoshi muqayyad qofiya turini yuzaga keltiruvchi qayd sanaladi.

Kel ey rafiqi gulro‘y, ketur rahiqi gulra<u>n</u>g,
O‘zung ichib manga qo‘y, ko‘tar navo tuzub cha<u>n</u>g.

**Mujarrad qofiya:**

Bizga chun mehring yo‘q, elga mehribonli<u>g</u>‘ qilmag‘il,
Yaxshilig‘ chun qilmading, bari yomonli<u>g</u>‘ qilmag‘il.

Mujarrad qofiya turi raviydan oldin qisqa unli (qofiya harakati) yoki raviy unli tovush bilan tugashiga asoslanuvchi qofiya turi sanaladi.

Vahmu usrattin amone toptuq,

Yangi jon, toza jahone toptuq.

Shoir fardlarining aksariyatida qofiyaning qo‘shimcha tarkibiga ko‘ra muqayyad qofiya turi yetakchilik qiladi. Unga ko‘ra qofiyadosh so‘z qofiya harflarining tayanchi bo‘lgan *raviy* bilan tugaydi.

Ishqni har kimki qilur ixtiyor,

Men kibi olamda bo‘lur xor zor.

Farddagi “*ixtiyor – zor”* so‘zlari o‘zaro qofiyadosh so‘z sifatida *r* – raviy, tirgak tovush bilan tugagan. Bunday qofiya muqayyad qofiya turini shakllantiradi.

Raqib yo‘ldoshu men hajrdin duto o‘ldum,

G‘arib turki sitamgarg‘a mubtalo o‘ldum.

Farddagi *“duto – mubtalo”* so‘zlari o‘zaro qofiyadosh bo‘lib ko‘rinib turganidek, o – raviy bilan tugagan.

Bobur qofiyada o‘ziga xos ohangdorlikni oshirish maqsadida qofiyaning mutlaq qofiya turidan ham unumli foydalangan. Bunda qofiya turi muqayyad qofiya turidan farqli o‘laroq, raviydan keyingi qofiya huruflari: vasl, xuruj, mazid, noyira kabilar kelishiga asoslanadi.

Garchi olamda visol ayyomi dilkashdur, axiy,

To biling‘ay vasl qadri hajr ham xushdur, axiy.

Yuqoridagi fardda *“dilkashdur – xushdur”* so‘zlari o‘zaro qofiyadosh bo‘lib, *sh* – undoshi raviy, *d* – vasl, *r* – xuruj qofiya harflaridan tashkil topgan, ya’ni raviy – sh undoshidan so‘ng ham qofiya harflari kelgan. Bunday qofiya turi mutlaq sanaladi.

Gar ko‘zumdin tushtum, ersa, ko‘rdum ani bodadin,

Bo‘ldi taqsir, emdi sen o‘tkar meni aftodadin.

| | Raviy | Vasl | Xuruj |
|---|---|---|---|
| Bo | D | D | N |
| Afto | D | D | N |

Bobur fardlarida hojiblar ishtirokini ham ko‘rishimiz mumkin. Hojib mumtoz qofiyaning muhim unsurlaridan biri bo‘lib, radif singari takror asosiga quriladi. Biroq bu takror radifdan farqli o‘laroq, qofiyadan oldin joylashadi.

Ul pari ruxsora hargiz notovonliq ko‘rmasun,

Yaxshidir yaxshi kishi, hargiz yomonliq ko‘rmasun!

Ushbu baytda *“notovonliq – yomonliq” s*o‘zlari o‘zaro qofiyadosh, *“hargiz”* so‘zi esa qofiyadan oldin takrorlanuvchi hojib, *“ko‘rmasun”* so‘zi radif hisoblanadi.

Ulfatim el birla ozdur, ko ‘pdur el javri manga,

Ne mening tavrim yoqar elga, ne el tavri manga.

Bir fikru bir havodadur har nafas ko‘ngul,
Har lahza yuz havodadur, bulhavas ko‘ngul.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mumtoz poetika ilmining bilimdoni Zahiriddin Muhammad Bobur fardlarida qofiyadosh so‘zlarning mukammalligiga alohida e’tibor bergan. Garchi ixcham bo ‘lsa-da, shakl va mazmun butunligiga asoslangan fard janri Bobur qalami bilan mukammallikka erishgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bobur she’rlari. O‘zR FA ShI Asosiy fondi. Inv. 8814. 1914.
2. З.М.Бобур. Девон. – Тошкент: ЎзР ФА, 1958. – 180 б.
3. Бобур. Девон. 3 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1965. – 234 б.
4. З.М.Бобур Девон. (Нашрга тайёрловчи А.Абдуғафуров) – Тошкент: Фан, 1994. – 196 б.
5. Hamroyeva O.J. Mumtoz qofiyaning nazariy asoslari. Qo‘llanma. – Тошкент: BOOKPRINT, 2022. – 200 b.
6. Rustamov A. Qofiya nima? — T.: Fan, 1976.

## “SAB’AI SAYYOR”DA SA’D OBRAZI

*Miravlatova Nozima Elyor qizi*
*ToshDO‘TAU 4-bosqich talabasi*
*nozimamamurova7@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada “Sab’ai sayyor” dostonida uchinchi iqlimdan kelgan musofir hikoyatidagi Sa’d obrazi xarakteristikasi, xusisiyatlari, timsollar olami va ularning boshqa asarlardagi qahramonlar bilan qiyosi o‘rganilgan. Navoiy barcha obrazlari qatorida Sa’d obrazida ham insonni ezgulikka intilishga, komil inson bo‘lishga da’vat etadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Sab’ai sayyor, Sa’d, obraz, timsol, ranglar talqini, ishq yo‘li, tahlil.*

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi, ijtimoiy faoliyati barcha zamonlar uchun ibrat maktabi, ruhiy tarbiya manbai bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Ayniqsa, asar qahramonlarining ezgulikka intilishi, komillikni tarannum etilishi alohida e’tiborga molikdir. Shu fazilatlar Navoiyning Sa’d obrazida ham o‘z aksini topgan. Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida dushanba kuni yashil qasrda Bahrom

uchinchi iqlimdan kelgan darveshdan tinglagan hikoyati Sa’d haqida edi. Sa’d mehmondo‘st, muruvvatpeshaligi bilan shuhrat topib, bir kuni mehmonlardan tush ko‘riladigan g‘or haqida eshitib qoladi. G‘ordagi tush ta’birini Luqmon orqali biladi va oldidagi sinovlarni ham uning yordami bilan yechadi.

Navoiy asarlari buyuk obida demakdir. U so‘z san’atkorlaridan hayot voqealarini rostgo‘ylik bilan tasvirlashni, kitobxonga ma’naviy-estetik oziq berishni, uning bilimi va didini takomillashtirishni talab qilar edi. Ushbu hikoyatda ham ayni maqsadlar ilgari surilib, o‘quguvchini ma’nan komillikka chorlaydi. Hikoyatdagi bosh obraz Sa’d sahovat va muruvvatpeshalikda, oliyhimmatlikda tengi yo‘q. Navoiy bu obrazning nomlanish o‘rinlariga ham alohida diqqat qaratgan. Sa’d so‘zi *baxt, tole, yaxshilik* degan ma’nolarni anglatadi. Navoiy Sa’d obrazini quyidagi misralar bilan ta’riflaydi:

*Borcha fazlu hunar aro mohir,*
*Yuzidan xushmandlig‘ zohir.*
*Misr shohicha naqdu mol ichra,*
*Yusufi Misrcha jamol ichra.* (“Sab’aiy sayyor”, 180-bet)

**Ma‘nosi:** *barcha fazl-u hunarlarga mohir farzand bo‘lib, jamoli Yusuf misriydek go‘zal, moli-dunyosi ham Misr shohinikidek behisob edi.*

Navoiy Sa’d obrazini Yusuf payg‘ambarga qiyoslaydi. Sa’d obrazi ham jismoniy ham ma’naviy tomondan yetuk yaratilgan. Sa’d mehmonlarga yaxshilik qilish bilan birga, ulardan boshqa hunarlarni o‘rganish maqsadida chaqirgan. Hikoyatda uning kimyo, tib bilimlarini ham mukammal egallaganligi bayon etilgan. Asardagi bosh obraz hunar orqali ko‘ngil sofligiga erishgan, jamiki axloqiy fazilatlarni egallagan. Sa’dning Faylaqus “So‘zlaringni o‘zing boshidan oxirigacha aytasanmi yo men aytib beraymi?” - deb so‘raganida, “Hikmatni Luqmon yaxshiroq aytgani”- deb javob berishi, uning naqadar zukko va so‘zga mohirligini ko‘rsatadi. Shuningdek, ulug‘lar oldida hokisorlik, tavozelik bildirish har doim inson hurmatini aziz qilishi Navoiyning badiiy talqinida tasvirlangan. Sa’d boshidan kechirgan sarguzashtlari, yor vasliga yetish uchun chekkan mashaqqatlari, tilsimlarni yechishi go‘yo Farhodni eslatib yuboradi. Qatron, sehrgar kabi timsollar ham Sa’d obrazining xarakterini ochib berishga yordam beradi.

Qatron – yovuzlik timsoli. Navoiy asarning barcha hikoyatlarida munofiqlik va zolimlikni qoralaydi. Ezgulik egilsada, bukilsada yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadi. Tom ma’noda Qatron timsoli ikkiyuzlamachi, yovuz, chirkin insonlar timsolida gavdalantirilgan. Ahamiyat beradigan bo‘lsak qatronni Alloh zikri aytilgan toshlar bilan yengish mumkin bo‘ladi. Munofiq, yovuz niyatli kimsalarni ham yengish yo‘li shunday - Alloh zikri. Sa’d yechishi kerak bo‘lgan yana bir tilsim ajdaholar va kampir bo‘lib, ko‘rgan narsalari ro‘yo soxta ekanligi ma’lum qilingach bu tilsimni

ham osonlik bilan yengib o‘tadi. Navoiy bu timsol orqali insonlar ba’zan ko‘rganlariga shu qadar ishonadilarki, natijada haqiqatni unitishini, asl murakkablik oddiylikda ekanligini, inson doim ko‘rganiga ishonib ketavermasligini o‘quvchilarga anglatishga harakat qilgan. Navoiy nafaqat obrazlar ramziyligiga balki hikoyatdagi ranglar va raqamlar o‘rniga ham alohida ahamiyat beradi va ularda olam-olam ma’nolarni mujassamlaydi. Hikoyat sarlavhasi: “Dushanba kuni Bahromning navbahor monand ahzar libos bila gunbazi axzarg‘a yuz qo‘yg‘oni va sarvi sabzrang sabz xullae bila jomi zumradfom ichinda zulol hayotno‘sh qilg‘oni va chashmai zindagonidan Xizr hayoti kasb etqani”.

Bu yerda hamma narsa yashil rangda ifodalangan. Bahrom qasri ham yashil. Qasrdagi malikaning libosi, ko‘rinishi ham yashil. Uning qomati ham sarv daraxti singari yashil. Bahrom ham yashil rangga kirgan. Sharob badiiy vosita orqali yashil rangga o‘xshatilgan. U yashil rang bilan jilolalanadigan zilol suv bilan qiyoslanadi. Jon ham yashil, zumrad rangda U Xizr ichgan hayot bulog‘iga o‘xshatiladi. Xizr so‘zining o‘zi ham arabcha bo‘lib, “yashil”, “yashil” bo‘lish ma’nolarini anglatadi. Yashil rang so‘fiy ta’limotida ulug‘ ranglardan biri hisoblanadi. Sharq xalqlarining tasavvurida bu rang hayot ramzidir, u samoviy mavjudotlar bilan bog‘lanadi. Yashil rang, shuningdek o‘tmish bilan kelajak timsoli vazifasini ham bajargan. Shuning uchun ham Alisher Navoiyning dostonida yashil rangli libos kiygan Sa’d ismli yigit ikki musofir yordamida va o‘zining chuqur bilimlari asosida baxtli kelajakka erishadi. Sa’dning bu baxtli hayotini Alisher Navoiy yashil rang bo‘yoqlar orqali yorqin ifodalaydi:

*Rangi azhar bahor rangi erur,*
*Sabzau marg‘zor rangi erur.*
*Af’ai g‘am chu elga ayladi zo‘r,*
*Ani jomi zumrad ayladi ko‘r.*
*Sho‘xkim bo‘ldi sarvdek cholok,*
*Sabzai xatti aylar elni halok.*
*Xizr bu rangdin nishon topdi,*
*Tong yo‘q az umri jovidon topdi.* (“Sab’aiy sayyor”, 195-bet)

Shu bilan birga, ikki musofirning shahrisabzlik ekanligi va ularning ham yashil libosda ekanligi e’tiborga molikdir. Shahrisabz yam-yashil vodiylari, so‘lim go‘shalariyla butun jahonga mashhurligi sir emas. Alisher Navoiy joy nomlarini qo‘llashda ham shakl-shamoiyliga, ma’no–mazmun va xususiyatlariga alohida ahamiyat qaratgan.

Alisher Navoiy Sa’d obrazi orqali yoshlarni zakovatli, jasoratli, ma’rifatli, axloqiy barkamol bo‘lishga chaqiradi. Sa’d va Navoiyning boshqa asar qahramonlari kengroq o‘rganilsa, shaxs nomlarining o‘zi atagan qahramonlar

xarakteriga mutlaqo munosib ekanligiga yanada iqror bo‘lamiz. Navoiy keltirgan har bir obraz o‘z fe’l-atvoriga mos surat va siyratga, qolaversa, ichki dunyosini, maqsad va qarashlarini ochib bera oladigan nomga ega obrazlardir. Navoiy Sa’d obrazini yaratar ekan mavzularining markazi hisoblanmish ishqdanda uni bebahra qoldirmaydi. Navoiy asarlarida ishq o‘zgacha va va rang-barang talqinlarda tarannum etadi. Sa’d ishq mayidan sarxush oshiq. Navoiy oshiq obrazi talqini orqali inson ma’naviyatini ochib berishga harakat qiladi. Xususan “Mahbub ul-qulub” asarida “ishq zikrida” bobida ishq to‘g‘risida “Ishq axtaredur duraxshanda, bashariyat ko‘zi nur va safosi andin va gavharedur raxshanda, insoniyat tojining ayb va bahosi andin. Mehredur tole’, mahzun xotiralar xoristoni andin gulshan va badredur lome’, tiyra kungullar shabistoni andin ravshan”, deya pok tuyg‘uning buyuk qudratini tasvirlaydi. (“Mahbub ul-qulub”. 1-35)

Darhaqiqat, Navoiy Sa’d obrazini yaratar ekan qalbini ishqqa, iymonga to‘liq qilib yaratadi. Sa’d yor visoli hajrida, tunda ko‘chada sarxush yurgani va shu tufayli dushmani Qatron qo‘lida asir bo‘lib qolish voqealari ishqning maydan ko‘ra kayfi kuchliroq, jon o‘rtovchi ekanligini anglaymiz. Ammo Sa’d sarxush bo‘lishiga qaramasdan maqsadini doim yodda saqlab Alloh zikri bilan jismi kuchga kirishi va dushmanini mag‘lub etishi ishqning ilohiy tuyg‘u ekanligini yana bir bor oydinlashtiradi. Ahamiyatga molik jihati Sa’d yoriga ilk qadamni ya’ni Qatron bilan jangni Alloh zikrini aytgan toshlar orqali yengishida ham alohida ramziylik bor. Inson avvalo, yaratganni keyin esa yarattiqlarni sevmog‘i kerak. Agar insonning Allohga ishqi haqiqiy bo‘lsa, Alloh ham bandasiga istagan narsasini beradi. Shu boisdan ham Sa’d taqvo bilan zikr aytdi – dushmanini yengdi.

Navoiy Sa’d obrazi yaratish orqali Allohga muhabbatli bo‘lish va til doim Alloh zikri bilan band bo‘lishi, er yigit maqsadiga erishishi uchun odim qadam bosishi, yaxshilikni kasb etishi, hunar o‘rganishi, halimlik, ma’rifat va muruvvatpeshalik kabi ezgu xislatlarni o‘zida jo etishi kabi bir qator insoniy fazilatlarni tarannum etgan.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. A. Hojiahmedov. Xamsa. Yoshlar. – Toshkent: 2023. 317–325-betlar.

2. S.Xasanov. Navoiyning yetti tuhfasi. G‘.G‘ulom.–Toshkent: 1991. 77-169-betlar.

3. V.Rahmonov. “Sab’ai sayyor”. G‘.G‘ulom. – Toshkent: 2020. 180-bet.

4. N. Komilov. Tasavvuf. O‘zbekiston. – Toshkent: 2009.

5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. Fan. – Toshkent: 1992.

10-jild.

6. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub// Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 14-tom. Fan. – Toshkent: 1998. 315-bet.

## BAHROM GO‘R TIMSOLINING YARATILISHIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIIY TO‘QIMA . (Alisher Navoiy ijodi misolida)

*O‘sarboyeva Ruxsora Rustam qizi*
*Chirchiq Davlat Pedagogik a universiteti talabasi*
*ruxsoraosarboyeva4@gmail.com +998975452584*
*Ilmiy rahbar: Sabitova Tojixon*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy yaratgan Bahrom timsoli, xalq og‘zaki ijodidagi afsona, rivoyatlardagi, tarixda o‘tgan shaxs va yozma adabiyotda yaratilgan Bahrom Go‘r obrazining badiiy to‘qima va tarixiy xaqiqatga doir tomonlarini ochib berishga harakat qilindi. Bu obrazning ijobiy va salbiy tomonlari ko‘rsatib berildi.*

**Kalit so‘zlar**: mutafakkir, afsona, rivoyat, mulohaza, pand-nasixat, shijoat, obodonchilik, adolatparvarlik, fuqaroparvarlik, xudbinlik, zulmkorlik.

**Keywords:** thinker, myth, narrative, reasoning, teaching, ambition, prosperity, justice, patriotism, selfishness, oppression.

Sharq adabiyoti va xalq og‘zaki ijodida Bahrom timsolining yaratilishi qadim-qadim zamonlarga borib taqaladi. Eng avvalo, bu obraz folklor asarlarida o‘z aksini topdi. U juda ko‘p afsonalar, rivoyatlarda berildi. Tarixda o‘tgan Bahrom Yazdijird o‘g‘li keyinchalik yozma adabiyotda Bahrom Go‘r timsolida yoritildi.

Birinchi bo‘lib yozma adabiyotda afsona va rivoyatlardan va yozma manbalardan foydalanib Abulqosim Firdavsiy o‘zining "Shohnoma" asrida Bahrom Go‘r haqida doston yaratadi. Firdavsiy o‘z asarida Bahromning shohligi tarixi va uning nomi bilan bog‘liq bir nechta afsona va rivoyatlarni hikoya qiladi. Firdavsiy o‘z dostonida Bahromni ikki xil tarzda: ijobiy va salbiy qilib beradi. Ijobiyda-shavkatli, adolatli, xalqparvar podsho, vatanparvar bahodir, pahlavon va mohir ovchi sifatida; Salbiyda-aysh-ishrat va ehtirosga berilgan hudbin va qahr-g‘azabi qattiq dahshatli kimsa sifatida tasvirlaydi. Ayniqsa salbiy tasvirda otasiga tortgan, chunki Sosoniylar podsholaridan Yazdigurd (ayrim o‘rinlarda Yazdijurd) zulimkorligi bilan xalqning va saroy a'yonlarining g‘azab va nafratiga giriftor bo‘lgan ekan. U o‘z hukumronligining sakkizinchi yili o‘g‘il farzand ko‘radi. Shuncha yomon bo‘lishiga qaramay o‘g‘li Bahromning taqdirini, kelajagini o‘ylab, uni o‘ziga qaram bo‘lgan Yaman shohi Nu'mon va uning donishmand o‘g‘li Munzirning tarbiyasiga topshiradi. Bahrom yahshi tarbiya oladi. U 18 yoshga kirganida ikkita ot bilan ikkita go‘zal kanizak sovg‘a qilishadi. Bahrom bu qizlardan Ozoda degan go‘zal chang chaladiganini sevib qoladi. Ko‘pincha uni o‘zi bilan birga

olib chiqadi. Kunlarning birida Bahrom Ozodaning aytganidek qilib mohirlik bilan ikki kiyikka o`q uzadi. Kiyiklarga rahmi kelgan Ozoda Bahromning mahoratini maqtash o‘rniga, uni shafqatsizlikda ayblaydi. G‘azablangan Bahrom Ozodani tuyaning oyoqlari ostida toptab halok qiladi. Bu asrda Bahrom zulmkor, qahru g‘azabining cheki yo‘q sifatida ko‘rinadi.

Otasi Yazdijurd o‘lgandan keyin Bahrom Eronga qaytib toj-taxtni olmoqchi bo‘lganda, otasidan qattiq norozi bo‘lgan saroy a'yonlari unga qarshilik ko‘rsatadilar. Yazdigirdning uzoq qarindoshlaridan bo‘lgan Kisro, ayrim manbalarda Doroni taxtga o‘tqazadilar. Bahrom odil, adolatli podsho bo‘lishiga qasam ichib, shart qo‘yib ikki sherning, ya'ni arslonning o‘rtasiga qo‘yilgan tojni jasorat bilan oladi va mamlakatni obod qilib davlatini adolat bilan boshqara boshlaydi. Bahrom ayrim ertaklardagi dono podsholar kabi oddiy fuqarolik kiyimlarini kiyib mamlakatini kezib chiqadi, turli toifadagi kishilar bilan suhbatlashadi, xalqining arz-dodini eshitadi, el-yurt uchun anchagina foydali va kerakli ishlarni amalga oshiradi. Chin xoqoni hujum qilganda, jasorat bilan mardlarcha o‘z mamlakatini tadbirkorlik va ustalik bilan himoya qiladi.

Munajjimlaar Bahromni 63 yil umr ko‘rishini bashorat qiladilar. Undan keyin Bahrom o‘z oldiga shunday maqsad qo‘yadi: hayotining bir qismini aysh-ishratga, bir qismini adolat bilan boshqarishga, qolganini esa toat-ibodatga bag‘ishlaydi. Muddat bo‘lganda taxtini o‘g‘liga topshirib, osoyishta va tinchgina jon beradi.

Firdavsiy asarida Bahromning o‘zi sarguzashtlarida ham, qoliplovchi hikoyayu, boshqa hikoyalarda ham bosh qahramon sifatida berilgan. Albatta bunda tarixiy haqiqat va ayrim o‘rinlarda Bahrom obrazini ideallashtirish, shuningdek badiiy to;qim ustunlik qiladi.

Yozma adabiyotda Firdavsiydan keyin Bahrom Go‘r haqida Ozarbayjonning ulug‘ mutafakkir shoiri Nizomiydan boshlab Sharq adabiyotida Bahrom timsoli xamsachilikning an'anaviy bir obraziga aylanib qoldi. Nizomiy 1197 yilda yozgan "Xaft paykar" ("Yetti go‘zal") 4600 baytdan iborat bo‘lib, o‘z davrining hukumdori Alouddin Ko‘rpa Arslon (1174-1207) ning topshirig‘i bilan yaratilib, u ayrim manbalarda "Bahromnoma" deb ham yuritiladi.

Nizomiydan keyin asli Shahrisabzlik bo‘lib Xindistonda yashagan Xusrav Dehlaviy o‘zining "Hamt behisht" ("Sakkiz jannat") "Xamsa"sidagi 4chi dostonini 1302 yilda yozgan. Uning hajmi 3352 bayt bo‘lib, 7bob muqaddima, yakunlovchi qism bir bob, umumiy soni 8ta, asr nomi bilan bog‘liq.

Amir Xusrav Dehlaviydan keyin Ozarbayjon olimi G‘azanfar Aliyevning bergan ma'lumotiga ko‘ra 300gacha yaqin ijodkorlar "Xamsa" yaratishga harakat qilgan. Bulardan oltitasigina bunga erishgan. Nizomiy, Dehlaviy, Jamoliy, Ashraf,

Jomiy, Navoiy. Bulardan Abdurahmon Jomiy, Ashraf Marog‘iy, Kotibiy Turshiziy, Abdulloh Xotifiy va Muhammad Avfiylar Bahrom haqida yozganlar.

Demak, ular yaratgan asrlardan shuni aytish mumkinki, Bahrom obrazi haqida Alisher Navoiyga qadar juda katta ijodiy tajriba to‘plangan. Mumtoz adabiyotda adabiy an'ana vujudga kelgan va u yuqori takomil bosqichlarini kechirgan edi.

Buyuk shoirimiz Alisher Navoiy bu asarlarning barchasini mukammal, chuqur o‘rganib chiqadi va salaflarining yutug‘u kamchiliklarini aniqlab o‘z asariga yangi ma'lumotlar, yangi vazifalar va yangi rejalar tuzishni belgilab oladi. Xamsachilik an'anasiga sodiqlik bilan Alisher Navoiy 4chi dostonini Bahromga bag‘ishlashini salaflari kabi Bahrom va Dilorom hikoyasini qoliplovchi hikoya qilib olib uning ichiga haftaning yetti kunida yetti qasrdagi yetti musofirning darveshlardan tinglaydigan yetti hikoyaning kiritilishi va ustozlari kabi o‘z dostonini hafif bahrida yaratishi lozimligini niyat qiladi. Buning uchun shoir adabiy an'analarning talablariga rioya qilgan holda ijodiy yondoshib, boshqalar yo‘l qo‘ygan kamchiliklardan xoli bo‘lib, ularning yutuqlaridan ijodiy foydalanib o‘zi yangi va original asar yaratishni orzu qildi va bunga erishdi. Albatta bunda Navoiy o‘zi yaratgan Bahrom obrazini ijobiy tomonlarini ibrat qilib tarixiy haqiqatlarni ochishga harakat qilsa, salbiy tomonlarini kelajak avlod uchun tanbeh bo‘lsin deb yomonlik va xudbinlik baribir halokatga olib kelishini badiiy to‘qimalar orqali ro‘yi rost ochib bergan. Chunki Navoiy salaflari Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviylarning kamchiliklari haqida so‘zlab "Bo‘lsa tarix alarg‘a gar matlub, Anda so‘z bog‘lamoq emasdur xo‘b",-deb tamomila ijodiy badiiy to‘qima obraz yaratish vazifasini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi.

Agar biz ulug‘ mutafakkir shoir Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asariga murojaat qilsak, unda tarixiy shaxs Yazdijurd Sosoniylar sulolasidan bo‘lib, qadimiy Eronda 399-420 yillarda hukumronlik qilgan edi. U nihoyatda zolim va nodon bo‘lib xalqini juda qiynagan. Podshohligining sakkizinchi yili o‘g‘il farzandli bo‘lib, ismini Bahrom qo‘yadi va arab podshohi ya'ni Yaman shohi Nu'monga unu tarbiya qilish uchun beradi. Bahrom Nu'monning o‘g‘li Munzir bilan mard va jasur sifatida voyaga yetadi va ov qilishga nihoyatda o‘ch bo‘ladi. Navoiy buni quyidagi misralarga jo qilgan:

Shoh Bahrom aning kibi shah edi
Qim, sipehr anga xoki dargah edi.
Avval o‘lg‘och Suhayldek tole',
Bo‘ldi mulki Yaman uza lome'.
Chun Yaman bo‘ldi nuri ichra g‘ariq,
Tufrog‘i mushku toshi bo‘ldi aqiq.
Shoh Nu'mon? atobek o‘ldi anga,

Shafqat ichra atodek oʻldi anga.

Boʻldi Munzir rafiqu damsozi,

Hamnishinu nadimu hamrozi. (A. Navoiy. "Mukammal asarlar toʻplami", 10-tom, 73-74-bet).

Bu oʻrinda shuni ham aytish lozimki, Bahrom uchun qurilgan afsonaviy qasr shu Xavarnaq shahrida boʻlib, tarixiy ma'lumotlarga koʻra u yer yuzida tengi yoʻq muhtasham qasrlari bilan shuhrat topgan shahar boʻlgan ekan.

Endi Bahromning laqabi Goʻrga e'tibor beradigan boʻlsak, Goʻr-yovvoyi eshak, qulon ma'nosida, ikkinchi misrasida qabr, mozor ma'nosida qoʻllangan.

Ishratidin Yamangʻa ravnaq oʻlub,

Qasri ayshi aning Xavarnaq oʻlub.

Buyla qasrin yasar zamon me'mor,

Charx me'moridek kelib Sinmor.

Ishi ov ovlomoqta chekmak jom,

Tortibon jom, qilmoq ovgʻa xirom.

Ov aro komi borcha bodau Rud,

Goʻr soʻzi Bahrom nomi bilan birga ishlatilishining sababi, u qulonlarni ov qilishni juda sevgan. Shuning uchun Goʻr uning laqabiga aylangan. "Ani Bahrom Goʻr dedilar. Muning jihatin ba'zi dedilarkim, goʻrni shersayd qilgʻanda, aning oʻqi egnisidan oʻtub, yerga tegdi. Ba'zi debdurlarkim, Goʻr ovigʻa koʻp moyil erdi."(A. Navoiy "Mukammal asarlar toʻplami", 16-tom, 235-bet).

Ikki sher olidin chu toj oldi,

Otasi mulkidin xiroj oldi.

Sherlar olidin chu oldi kuloh,

Shervashlarni ayladi roʻboh.

Ajdar oʻlturdi chunki tortib ranj,

Topti ul ranj dast muzdi ganj

Kishvaridin ketardi chun toroj,

Etti yillik maof tutti xiroj.

Kim, yeti yil ketarsa eldin ranj,

Ne ajab yetsa, tengridin anga ganj.

Bu misrada quyidagi ma'lumotga ishora etilayapti: Navoiy "Tarixi muluki Ajam"da yozishicha, Yazdajurdning zulmini koʻp tortgan xalq uning oʻgʻli Bahromning shoh boʻlishini qat'iyan istamaydilar va Ardasher naslidan boʻlgan Kisro otliq kishini taxtga oʻtqazadilar. Bu voqeani Bahrom eshitgach, ota taxtini egallash maqsadida Nu'mon bilan yetib keladi. El Bahromni tan olmaydi. Shunda Bahrom: mamlakatda xavf tugʻilsa qaysi birimiz daf'eta olishimizga qarab, shoh tayinlangiz,- deydi. Shunda xalq shohlik tojini ikki och sherning oʻrtasiga qoʻyib,

tojni kim ololsa, shuni shoh tayinlaymiz deyishadi, Kisro toj olishga jur'at yetmaydi. Bahrom esa, shu ikki och sherni yengib, toju-taxtga erishadi.

Alisher Navoiy ochiqchasiga Xusayn Bayqaroga pand-nasihat, fikr-mulohazalarini ayta olmay o‘z dostoning xotimasiga "tush" epizodini ilova qiladi. Emish Navoiy Bahromni tush ko‘radi. Bahrom unga o‘z sarguzashtlarini eslatib o‘tadi, so‘zni Husayn Boyqaroga burib, uning saltanati, harbiy shijoati, obodonchilik ishlaridagi faoliyati va boshqa jihatlarini ta'riflaydi. Shundan keyin u o‘zining ayrim xatti-harakatlari va fe'l-atvoridagi nuqsonlardan (ishratparastlik, xudbinlik va boshqalar) afsus-nadomat chekib, Husayn Boyqaroda ham shunday nuqsonlarni ko‘radi, unga nasihat qiladi:

...Ul dag‘i aysh sori moyildur,
Nag‘mu savt birla xushdildur…
Shahlar ichra manga erur monand,
De olurmen: erur manga farzand…
Endi shohingga de salomimni,
So‘ngra mundoq etur payomimii:
Qi jahon kimsaga vafo qilmas,
Shohlig‘tarkiga kiro qilmas,
Shahki ming yil oning hayotidur,
Garaz o‘lganda yaxshi otidur.

Mislsiz katta jur'at bilan aytilgan bu so‘zlar Navoiyning dostondan kuzatgan asosiy didaktik maqsadi edi. "Tush" epizodi faqat Bahrom obrazininggina emas, balki butun dostonning ham haqiqiy qimmatini oshiradi. Bahrom obrazidagi tajassumning asosiy mohiyati ham shundadir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarixda yashab o‘tgan Bahrom, xalq og‘zaki ijodida tasvirlangan Bahrom, yozma adabiyatda zuhr etilgan Bahrom obrazi zolimligi va xudbinligi tufayli haqiqatni ko‘rsatib turibdi. Badiiy to‘qimaga asoslangan Alisher Navoiy ijodidagi Bahrom timsoli esa har tomonlama ijobiy tomonlaridan o‘rnak oladigan shoh sifatida ko‘rinsa, salbiy tomonlari bilan aysh-ishrat, kayfu-safo, zolimligi tufayli uni va boshqalarni ham halokatga olib kelishi muqarrar ekanligi kelajak avlod kishilariga ibrat bo‘lishini taqozo etib turibdi.

Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asarida tasvirlangan Bahrom bilan "Sab'ai sayyor" dostonidagi bosh qahramonning harakteri deyarli bir hil. Boshida ijobiy, adolatli bo‘lgan timsol, keyinchalik salbiy-xudbin, aysh-ishratga berilgan bo‘lib hayotning o‘zi uni jazolaydi. Bu asarida Navoiy o‘zining fikrini juda chiroyli bera olgan.

Ilgari Eronda Bahrom haqida afsona, rivoyat, ertaklar yaratilgan bo‘lsa Alisher Navoiy o‘z dostoni "Sab'ai sayyor"ni yaratgandan so‘ng keyinchalik turkiy xalqlarda

Bahrom obrazi bo‘lgan katta-katta dostonlar yaratildi. Shuningdek, Turkiyada, Ozarbayjonda, Tojiklarda ham ertaklar paydo bo‘la boshladi. Bu

Bu go‘zal dostonning g‘oyalari, timsollarini va hikoyalarini o‘rganish, ularni tahlil hamda tadqiq etish galdagi vazifalarimizdandir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. Navoiy (2000). "Mukammal asarlar to‘plami", 16-tom, Fan, 234-bet.
2. A. Navoiy (2000). "Mukammal asarlar to‘plami", 10-tom, 73-74-bet.
3. A. Qayumov. (2009) "Asarlar". 3-jild, "Mumtoz so‘z", 2009.
4. N. Mallayev. (1991) "So‘z san’atining gultoji". G‘ofur G‘ulom.
5. O. Madayev (2018). "Navoiy suhbatlari". O‘qituvchi.
6. Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova, O. Davlatov , (2019). "Navoiyshunoslik". Tamaddun.

## ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANINING KO‘ZGA TASHLANGAN XUSUSIYATLARI

***Oltinova Diyora Jahongir qizi***
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*
*Gumanitar fanlar fakulteti*
*O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Abdulla Qodiriy, badiiylik, millat turmushi, vatan muhabbati, muommo*

***Annotation****: This article talks about the characteristics of Abdulla Qadiriy's novel "The Past Days".*

***Keywords:*** *Abdulla Qadiriy, artistry, the life of the nation, love of country*

O‘tkan kunlar, ba’zi manbalarda O‘tgan kunlar – o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy qalamiga mansub o‘zbek adabiyotidagi birinchi roman. 1969-yil „O‘zbekfilm“ kinostudiyasida ushbu roman asosida „O‘tgan kunlar“ nomli film suratga olingan. Adib romanni yozishda arab yozuvchisi Jurji Zaydon asarlaridan ilhomlangan. Roman 1920-yillar boshida yozilgan bo‘lib, 1922-yil ilk bor „Inqilob“ jurnalida chop etilgan va 1926-yilda alohida kitob holida nashr etilgan.

Yozuvchi bir vaqtning o‘zida o‘zbek ayolining taqdirini ham kuzatib boradi. Ayrim an’analar, jumladan, ko‘pxotinlik, Kumush va Zaynabning o‘rtasida o‘limga olib boruvchi xusumatga sabab bo‘ladi. Yozuvchi go‘zal, Otabekka bo‘lgan sevgi bilan ayrim qiyinchiliklarni yengib o‘tuvchi Kumush obrazini yaratadi. Biroq asar

fojia bilan yakunlanadi: Kumushbibi kundoshi tomonidan zaharlab o‘ldiriladi, Otabek esa vatanini himoya qilaman deb vafot etadi.

“O‘tkan kunlar" romanida xalq, millat turmushi manzaralarini, milliy urfodatlarni, millat vakillariga xos xususiyatlarni jonli, hayotiy ifodalash, asarning ruhida, ichki mazmunida so‘zlash tarzida milliylikning namoyon bo‘lishi milliy ruhning yanada ta‘sirchan ifodalanishiga xizmat qilgan. Romandan olingan ushbu parchada esa o‘zbek qizlariga xos bo‘lgan milliylik aks etgan: " Oftob oyimning shu yo‘sun chaqirishi uchto‘rt qaytalab bo‘lsa-da, Kumush eshitmaganga solinib arzimagan narsalar bilan shug‘ullang‘an bo‘lib chiqa bermadi. Otabekning yuzidagi o‘ychanliqqa razm qo‘yg‘an sayin Oftob oyimning haligi shubhasi ulg‘aya bordi, kuyavning ko‘zini shamg‘alat qilib qizining oldig‘a kirdi va shivirlab Kumushni urisha boshladi: «Esingni yedingmi qizim, ering sani deb Toshkand degan shahardan kelsayu, san kim keldi deb oldig‘a chiqmasang. Tur, chiqib so‘rash, arazlab ketib qolsa nima qilasan?» Oftob oyimning bu keyingi so‘zi chindan ham Kumushni o‘ylatib qo‘ydi: «...Ketib qolsa nima qilaman?»25 degan jumlani ko‘nglidan kechirdida, onasidan ilgarirobir narsa oladirg‘andek bo‘lib, o‘ziga termulib turg‘an Otabekka yer ostidan sekingina bir kulib boqdi va toqchadag‘i keraksiz bo‘lg‘an bir piyolani olib, yana uyga kirib ketdi. O‘zbek oyimning sihirchi-joduchi deb qarg‘ashi ham hikmatsiz bir gap emas. Kumushbibining bu kulib qarashi Otabekka ajib bir inqilob yasag‘an edi. Undagi oniy bu o‘zgarish juda qiziq va sira ishonmasliq edi. Ul bu yer tegidan bir kulib boqish ta’siri bilan ustidagi tog‘dek bosib yotqan «orzu»ni ag‘darib solg‘an va qushdek yengil tortqan edi.

Yozuvchi asar boshlanishida biz hozir «ijtimoiy muammo» deb aytayotgan muhim masalaga e’tiborni qaratadilar. Qora tunlar qayerdan boshlanishini ko‘rsatadilar. So‘ng bu muammo go‘yo unutilganday tuyulib, ishqiy mojarolarga berilganday bo‘ladilar. Ishqiy mojaro hal etilganday tuyulgach esa yana o‘sha ijtimoiy muammoga endi Yusufbek hoji ishtirokida qaytadilar. Qipchoq qirg‘inini, undan Otabekning qanday larzaga tushganini tahlil etmay turaylik. Asosiy e’tiborni Yusufbek hoji so‘zlariga qarataylik.

Avvalo Kumush… Abdulla Qodiriy uni suyib-suyib yozganlar. Kumushni Otabek ko‘proq sevar edimi yo Abdulla Qodiriy sevar edilarmi, degan muammoga men hanuz aniq javob topa olmayman. Har holda Abdulla Qodiriyning sevgilari buyukroq bo‘lgandir. Yo‘qsa, Otabek Kumushni bu qadar o‘tli muhabbat bilan seva olmas edi. Yozuvchi Kumushda faqat go‘zal malakni ko‘rganmilar? Men o‘zimcha yozuvchi Kumush timsolida go‘zal Vatanni ko‘rganlar, deb o‘ylayman. Kumushga bo‘lgan sevgilari Vatanga bo‘lgan sevgilari edi, deb xayol qilaman. Kumushni biz dastlab ko‘rganimizda u xasta edi. Ajabki o‘shal zamonda yurt ham xasta edi. Otabekning muhabbati Kumushga dalda berdi, shifo berdi. Agar yurt o‘g‘lonlari

Vatanga shunday muhabbatda bo‘lganlarida edi, Vatan xastalikdan bosh ko‘tararmidi…

Agar Kumush timsolida Vatanni nazarda tutgan bo‘lsalar, u holda Kumushning o‘limidan iztirobga tushganlari, yig‘laganlarining sababi oydin bo‘lar? Yozuvchi bir go‘zal malakning o‘limidan emas, Vatan kelajagining zaxarlanganidan qayg‘uga berilmadilarmi ekan? Kumush o‘ldi. Ammo uning o‘g‘li tirik. Demak, Vatan kelajagiga umid bor. Yozuvchining so‘nggi so‘zidan ma’lumki, Yodgorbekning bir o‘g‘li sho‘rolar tomonida, ikkinchisi o‘sha damda «bosmachi» deyilganlar tomonida ekan. Bunda ham ramz bordek ko‘rinadi.

Ro‘monda ortiqcha tasvir, bayon yo‘q. Men har gal uni qo‘lga olganimda shuni o‘ylayman. Har narsaning vaqti, soati bo‘lganidek, «O‘tgan kunlar» ham vaqti kelib,asl holicha, yozuvchi hayot ekanliklaridagi nashrga asoslangan holda kitob qilindi. Bu ishni yozuvchining nabiralari, Habibullo Qodiriyning o‘g‘illari Xondamir Qodiriy amalga oshirdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2014

2. Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. –T.: Adabiyot va san’at, 1986

3. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. O‘zbeklar turmushidan tarixiy ro‘mon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – B. 40.

4. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. “Sharq” nashriyoti. Toshkent.

## MAYSARANING MAKRI YOXUD MAZLUMLAR OHI HAQQA YETGANDA

*Parizoda Axrorxo‘jayeva, Farg‘ona davlat universiteti*
*1-bosqich magistranti*
*Parizodaruziboyeva@gmail.com, (91) 059-30-60*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada jadid dramaturgiyasining eng yaxshi asarlaridan biri bo‘lgan Hamza Hakimzoda Niyoziy qalamiga mansub “Maysaraning ishi yoki burungi qozilar” dramasi tahlil etiladi. Dramadagi ayollar xarakteri, xususan, Maysara obrazining ruhiyati, fe’l-atvoridagi o‘ziga xosliklarga, o‘sha davrda ayollarga bo‘lgan munosabatlarga alohida to‘xtalib o‘tiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *jadid dramasi, Oyxon, Maysaraning makri, obrazlar psixologiyasi, obrazlararo o‘xshashlik,.*

**Annotation:** *This article analyzesbthe drama “Maysaraning ishi yoki burungi qozilar” written by Hamza Hakimzada Niyazi, one of the most original works of modern dramaturgy. The character of women in the drama, in particular, the psyche*

*of Maisara's character, the peculiarities of her character, and the attitudes towords women at that time are emphasized.*

**Key words:** *modern drama,Oykxon, Maisara's trick, psychology of images, similarity between images.*

Har davrning o‘z mavzusi, o‘z muammosi va o‘z qahramonlari bo‘ladi. Ular zamonasining eng oldi kishilaridan bo‘lib xalqni bir mushtarak maqsad, bir o‘y, bir istak atrofida birlashtirishga intiladi. Ana shu qahramonlar davrning, kishilarning har qanday qarshiligiga bo‘yin egmaydi, aksincha, yanada shiddatu shahd bilan harakat qiladi. Kimdir olqishlaydi, kimdir tosh otadi. Kim haq ekanligini esa yillarning o‘zi isbot etadi.

Jadidlar – ma'tifatparvar bobolarimiz ham ana shunday bir maqsadni ilgari surgan edi. Ular xalqni ilmi-ma'rifatga yetaklash, ularni dunyo madaniyati va ilm-fani bilan tanishtirish, yangi dunyolarni kashf etish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirdi: gazeta va jurnallar, o‘quv darsliklar nashr ettirdi, yo‘sillarga yordam berdi, ilmga intilgan yoshlarni xorijga o‘qishga yubordi, yangi romanlar, yangi dramalar yozishdi. O‘zlarining otashnafas she'rlari, asarlari orqali millat madaniyatini yuksaltirishga harakat qildi. Yangi o‘quv binolari, yangi o‘qitish usullarini tadbiq etishdi. Bu harakatlar qisqa fursatlarda o‘z natijasini bera boshladi.

Bu davrda o‘z g‘oyalarini teranroq anglatishda sahna asarlaridan keng foydalanildi. O‘z navbatida omma uchun qiziq bo‘lgan "Padarkush" (Mahmudxo‘ja Behbudiy), "Baxtsiz kuyov" (Abdulla Qodiriy), "Biz va Siz" (Abdulla Avloniy), "Yorqinoy"(Abdulhamid Cho‘lpon), "Juvonmarg" (Abdulla Badriy), "Mazluma xotin" (Xoji Muin) kabi dramalar sahna yuzini ko‘rdi.

Bu dramalar maishiyligi, hajviyligi, kundalik hayotga yaqinligi, ijro mahoratining yuksakligi va mavzuning puxtaligi bilan keng yoyildi. Bu dramalar oz bo‘lsa-da o‘ylashga, fikr yuritishga undadi.

Bu davrda drama janrida sermahsul ijod qlgan Hamza Hakimzoda Niyoziy "Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi", "Burungi saylovlar", "Qozining sirlari", "El quzg‘unlari", "Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi " kabi asarlar yaratdi. Bu sahna asarlari achchiq kulgiga boyligi, soxta dindorlar ustidan nihoyatda ustalik bilan kulinganligi, qochirimlarga va inkor etib bo‘lmas haqiqatlarga to‘laligi bilan ajralib turdi. O‘zbek dramaturgiyasining dunyoga kelishi, janrlarining ko‘payishi va rivojlanishida Hamza Hakimzodaning roli shak-shubhasiz beqiyosdir. Garchi dramaning ilk namunasi Behbudiy tomonidan yozilgan bo‘lsa ham bu adabiy turning barcha janrlarida yetuk asarlar yaratish uning zimmasiga tushdi. Yana shunisi ham muhimki, u o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib dramatik trilogiya ("Loshmon fojiasi", 1916-19-y), dramatik tetralogiya ("Farg‘ona fojiasi", 1918-20), she'riy dramalar ("Saylov oldidan", "El quzg‘unlari") ni adabiyotimiz xazinasiga

olib kirdi. Bu faktlar o‘zbek dramaturgiyasining tom ma’nodagi asoschisi Hamza Hakimzoda Niyoziy bo‘lganligini yana bir bor tasdiqlaydi.[72]Taniqli va mahoratli rejissor Bahodir Yo‘ldoshev “Oyina” jurnaliga bergan interviyusida shunday deydi: “Bizda Hamza bilan bo‘ylasha oladigan dramaturg yo‘q. Uning har bir pyesasidan tilni, voqealarni bir-biriga qanday bog‘lashni o‘rganish mumkin. Odatda pyesalar o‘qiladi yoki yoziladi. Hamzani ham o‘qiysiz, ham ko‘rasiz. Yumorlari juda nozik, askiyalar me’yoridan o‘tmagan.”[73]

“Maysaraning ishi”[74] daramasi ham Hamza ijodining eng sara asarlaridan biridir. Ushbu drama uch pardadan iborat bo‘lib unda xotinga o‘ch, birovning haqqiga hiyonat qilishdan, birovning xaramiga ko‘z olaytirishdan cho‘chimaydigan, shariat qonunlarini o‘zining oydasiga hal etadigan amaldorlar, ochko‘z kimsalar va qalbi sof sevgi-muhabbatga to‘lgan, mehnatkash, dilkash odamlar haqida so‘z boradi.

Dramaning bosh qahramonlaridan biri bo‘lgan Maysara nihoyatda oqila, tadbirli, ishning ko‘zini biladigan, aqlli ayol. U jiyani Cho‘pon va kelini Oyxonlarning baxtli hayot kechirishi uchun harakat qiladi. Amaldorlarni xiyla bilan qo‘lga tushiradi. Muallifning o‘zi ta’kidlaganidek botir yurak[75] deganicha bor. Uning nutqidagi ohangdoshlik, qofiyadoshlik Cho‘lponning “Yorqinoy” dramasidagi Kal obrazini eslatadi.

Bu drama tomoshabinda ham, o‘quvchida ham sof, samimiy kulgu uyg‘otadi. Qahramonlar tilidan aytilgan ba’zi gaplar kishini mulohazaga chorlaydi. Cho‘ponning ota yurtiga borib, otasidan qolgan bog‘lardan xabar olish haqidagi fikrini sevgilisi Oyxonga aytayotgandagi suhbatida bir qator shunday ibratli fikrlarni ko‘rishimiz mumkin:

Oyxon: “Chehra degan ko‘ngilning oynasidir”.[76]

Cho‘pon: “Behuda o‘ylarga yig‘lamoq – sog‘ yurakni dog‘lamoqdir.[77] O‘rtada sir yashirilgan sevish, chin sevish hisoblanmaydi”.(18-b)

Oyxon: “Erlarda vafo bo‘lsa, xotinlarda jafo bo‘lmasdi”.(19-b)

Maysara: “Bekorga ko‘z yoshlamoq – jafo bilan o‘ynashmoqdir”, “Er yigitning bosh solgani o‘lganidir” , “Sher yigitni odam o‘ldirmas, nomus o‘ldiradir” (20-24-b)

---

[72] Solijonov Y. Haqiqat izlagan adib. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yoldosh-solijonov-haqiqat-izlagan-adib.html

[73] https://oyina.uz/uz/article/466 Hamzaning badali

[74]Keyingi o‘rinlarda “Maysaraning ishi” deb yuritiladi

[75] Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. “Фан” нашриёти. Т.:1989

[76] Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. “Фан” нашриёти. Т.:1989

[77]Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. “Фан” нашриёти. Т.:1989. 16-b

Albatta dramani o‘qigan kitobxon yoki tomoshabin bu fikrlarni inkor etolmaydi. Aksincha, Hamzaning so‘z qo‘llash mahoratiga, topqirligiga yana bir bor guvoh bo‘ladi, olqishlaydi.

Shuningdek ushbu dramada bir nechta kamchiliklar ham ko‘zga tashlanadi. Misol uchun Oyxon va Cho‘ponning suhbatiga e’tibor qaratsak:

*–Nega so‘zlamay xomush turursan? Yuragingda sir tutma! Chunki o‘rtada sir yashirilgan sevish chin sevishlardan sanalmaydi. Men har birisini ochib so‘zlaganim eng keyingi sevishlarimni bildirganim emasmi, Oyxon!*

*–Farishtam Cho‘pon! Sen har narsa desang men ishonurman, lokin sensiz bir nafasga ham chidolmasman...*[78]

Ushbu diologda Oyxon o‘z sevgilisiga “farishtam” deb murojaat qiladi. Odatda bu so‘z qizlarni, ayollarni erkalash uchun qo‘llaniladi va bu an’anaga ham aylanib ulgurgan. Bu o‘rinda biz an’anaviylikning buzilganini ko‘rishimiz mumkin. Balki muallif Cho‘lponning begunohligi nuqtai nazaridan uchbu terminni qo‘llashni joiz topgandir. Buni bir o‘ylab ko‘rish kerak.

Yana bir o‘rinda Cho‘lponning kelinoyisi Hurzodning Xisor hokimi bilan bo‘lgan voqeasi haqida so‘z boradi va Hurzod nomusini himoya qilib, ikki go‘dagini yetim tashlab, o‘zini Amudaryoga otib nobud bo‘lganini aytadi. Cho‘ponning ota-onasi, akasi vafot etgan bo‘lsa, Hyrzodning yetim go‘daklarining taqdiri nima bo‘ldi? Bu haqida hech qanday fikr bildirilmaydi. Bu – ikkinchi masala.

Uchinchi masala Mulla Do‘st obrazi bilan bog‘liq. Ma’lumki, Mulla Do‘st ikkinchi pardaning ochilishida qozining hovlisida supur-sidir qilib yurgan bo‘ladi va shu holatda bir qo‘shiq kuylaydi.

*Olma-anoringga balli,*
*Yakdona holingga balli,*
*Tangrim, meni sho‘r loydan*
*Yasagan kulolingga balli...*

Bu o‘rinda Hamza Tangri bilan kulolni boshqa-boshqa qilib qo‘llaydi. Aslida odamizodni yo‘qdan bor qilgan yaratuvchi kulol Yaratganning o‘zi emasmi?! Bu ham aksioma.

Dramada oshiqlarning chin sevgisi, ahdiga vafosi, sadoqati, ular o‘rtasidagi samimiy munosabatlar diologlar orqali keng ochib berilgan. Dramadagi har bir ayol tadbirli, mulohazali, sharm-hayo va andishali qilib tasvirlaydi.

Xalqimizda “Ayol kishining makri qirq tuyaga yuk bo‘ladi”,- degan gap bor. Hamza Hakimzoda Niyoziy ham bu dramada ochko‘z amaldorlarni qo‘lga tushirishda ayollarning ana shu makridan keng foydalanadi. Maysaraning makri Mulla Ro‘zini ham, Mulla Do‘stni ham, Xidoyatxonni ham, Qozini ham qo‘lga

[78] Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. “Фан” нашриёти. Т.:1989. 18-b

tushiradi va alal oqibat sharmandagarchilikka olib keladi. Mulla Ro‘zini ho‘kiz terisini kiyishga, Xidoyatxonni echki terisini kiyishga, Mulla Do‘stni chirog‘poya bo‘lishga, Qozini beshikka belanishga ko‘diradi. Maysara so‘zlarni shu qadar ustamonlik bilan qo‘llaydiki, ishonmaslikning imkoni yo‘q.

Mulla Ro‘zi va Xidoyatxonning qanday ko‘ndirilganligi va Oyxonni ko‘rish ishqida necha marta hozirlik ko‘rgani-ku ma’lum, lekin dramaning qo‘lyozma nusxasida 14 bet tushib qolganligi sababidan Mulla Do‘st va Qozining bu jarayondagi holatlari aniq emas. Bu drama haqida Rejissor Bahodir Yo‘ldoshev quyidagicha ma’lumot beradi: “Shoir o‘lganidan keyin Mannon Uyg‘urdan “Hamza oldingizga ko‘p kelardi, mabodo pyesalari sizda emasmi”, deb so‘rashadi. “Cerdakni ko‘ringlar, bir tugun olib keluvdi, men o‘sha yoqa tashlab qo‘ygandim”, deydi u. Shu bilan “Boy ila xizmatchi”, “Paranji sirlari”, “Maysaraning ishi ” topilgan. Agar o‘shanda axtarib kelishmasa, umuman yo‘q bo‘lib ketardi”[79]. Balki ana shu 14 sahifa Mannon Uyg‘ur cherdagida yo‘qolgandir, yana bilmadim.

Dramada mazlumlar birlashsa ko‘p narsani hal qilishi mumkinligiga ishora beriladi. Hamzaning bor dramaturgik mahorati, obrazlarni his etish va yaratish qobiliyati nomoyon bo‘ladi. Bu drama xalqchilligi, samimiy kulguga boyligi, qahramonlar xarakteriga mhorat bilan yondashilgnligi bois ham hali hamuz teatrlarimiz sahnasida namoyish etilmoqda. Ijodkorning ijoddan topgan baxti mana shu bo‘lsa kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

**1.** Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. “Фан” нашриёти. Т.:1989

**2.** Jadidlar. Behbudiy Mahmudxo‘ja. T:. Yoshlar nashriyot uyi. 2022

**4.** Qosimov B. Uyg‘ongan millat ma’rifati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2011

**5.** Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq, 1997.

**6**. Solijonov Y. Haqiqat izlagan adib.

https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yoldosh-solijonov-haqiqat-izlagan-adib.html

**7**. https://oyina.uz/uz/article/466 Hamzaning badali

## YANOSH EKMANN MUMTOZ ADABIYOT TADQIQOTCHISI

[79] https://oyina.uz/uz/article/466 Hamzaning badali

*Qo‘chqorova Gulnoza Ravshan qizi*
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs*
*Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori, dotsent O.Tojiboyeva*
*ravshanqizigulnoza@gmail.com*
*+998334358180*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola venger olimi Yanosh Ekmanning ilmiy faoliyati haqida. Mumtoz mumtoz adabiyot namoyandalari ijodini tadqiq qilar ekan, ularning til xususiyatlariga, jumladan, badiiy estetik jihatlariga ham alohida e’tibor berganliklarining guvohi bo‘linadi. Olimning ham tilshunos, ham adabiyotshunos sifatida olib borgan ilmiy izlanishlari tadqiqot obyekti sifatida olindi.*

**Kalit so‘zlar:** *Sharq va G‘arb, turkiy asarlar, chig‘atoy turkchasi, lug‘at.*

**Abstract:** *This article is about the scientific activity of the Hungarian scientist Janos Ekman. Mumtaz, while researching the work of classical literary figures, witnesses their special attention to language features, including artistic aesthetic aspects. The scientific research conducted by the scientist as both a linguist and a literary critic was taken as an object of research.*

**Key words:** *East and West, Turkish works, Chigatai Turkish, dictionary.*

Yanosh Ekmann 1905-yil 21-avgustda Vengriyaning Kesthely shahrida tug‘ilgan. Otasining ismi Yanosh, onasining ismi Magi Marta edi. Mazhabi katolik bo‘lgan. Boshlang‘ich va o‘rta maktabni tugatgandan so‘ng, u 1925-yilning sentabr oyida Budapesh universitetining adabiyot fakultetiga qabul qilinadi. U yerda professorlar Nemet, Gombocz va Kmoskolarning shogirdi sifatida o‘qishni davom ettirdi. 1927-1928-yillarda Vengriya ta’lim vazirligi tomonidan berilgan stipendiya bilan Vena universitetida tahsil ola boshladi. U yerda avstriyalik turkolog professorlar Kraelitz va U.Mjikdan dars oldi.

Nihoyat, 1929yil arab filologiyasi bo‘yicha “ En eski Arap haritasına göre Doğu Avrupa ile Batı Asya” (Eng qadimgi arab xaritasiga ko‘ra Sharqiy Yevropa va G‘arbiy osiyo) nomli dissertatsiyasi bilan (ushbu dissertatsiya Geography News, VI-I101, jurnalida chop etilgan) Budapesh universitetida Oliy ta’limni tamomlagan. Yanosh Ekmann “O‘rta maktab o‘qituvchisi” diplomini shu universitetga qarashli namunaviy maktabda bir yil stajor o‘qituvchi bo‘lib ishlab oldi (1930).

1920-yil Istanbulga kelib, u yerda bir muddat qolib ketadi. 1930-1942-yillar davomida Vengriyada o‘rta maktab o‘qituvchisi sifatida faoliyat olib bordi. 1936-yilning yozida Turkiyaga qilgan safari chog‘ida Markaziy va Janubiy Anadoluda ham ishladi. 1937-yilda arab, turk va venger filologiyasi bo‘yicha doktorlik darajasini oladi. 1938-1939-yillarning yoz oylarida Vengriya Milliy Maorif vazirligi tomonidan ajratilgan mablag‘ bilan Shimoliy-Sharqiy Bolgariyadagi turklar yashaydigan hududlarga sayohat qiladi. Eski Jumada qo‘lga kiritgan ba’zi turkiy

matnlardan tashqari, ayniqsa, Varna turk lahjasiga doir boy material to‘playdi. “ Die Türkische Mundart von Warna” (Varnaning turk lahjasi) nomli maqolasi ham ushbu izlanishlarining yakunida yozilgan.

1942-yil dekabr oyida Vengriya Milliy Maorif Vazirligi tomonidan turkologiya (eski va yangi turkiy tillar) bo‘yicha ish olib borish uchun Berlinga yuborildi, ammo urush sababli ortga qaytishga majbur bo‘ldi.

Turkiyada turk tili ustida ishlash va bu sohada ikkinchi doktorlik dissertatsiyasini yozish uchun prof. Nemetning tavsiyanomasi bilan prof. Jeferog‘lu oldiga keladi va “Şecere-i Terâkime'nin Grameri” (Shajarai tarokima grammatikasi) mavzu qilib topshiriladi. Biroq urush va moddiy ta’minotning qisqarishi sababli tugatilmay qolib ketadi. 1948-1951-yillarda Turk Ensiklopediyasi tahrir hay’ati a’zosi bo‘lgan.

O‘zining ikkinchi vatani hisoblangan Turkiyadagi so‘nggi o‘n yillik faoliyati davomida o‘rta turkiy davr ustida ishladi, qoraqoniylar, Xorazm va Chig‘atoy turkchalari haqida maqolalar e’lon qildi va fakultetda shu kurslardan dars berdi.

Yanosh Ekmannning turk tiliga, adabiyotiga bo‘lgan mehr-muhabbati yuqori darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa *“Çağatay Manual”* (Chig‘atoy tilida qo‘llanma) kitobi bu boradagi yorqin namuna bo‘lib xizmat qiladi. Olimga do‘stlari ko‘p bor “Siz ko‘p tillarni bilasiz, lekin ulrning qaysi birida o‘ylaysiz?” deya savol berar ekan. Shunda olimning xotirasiga bir voqea kelibdi va uni aytib beradi: “Los Anjelesda ekanligimda sayr qilib yurib bir bog‘ yonidan o‘tdim. U yerning uy bekasi hovlidagi gullarni sug‘oryotib qo‘lidagi yelim shlangni beixtiyor menga qaratib yubordi. Men unga “Ehtiyot bo‘l, xotin, ustimni xo‘l qilyapsan” deb baqirdim. Ayol menga qarab qoldi. Keyin bilsam men unga turkcha gapirgan ekanman. So‘ng inglizchada uzr so‘rab ketdim. Savolingizdan kelib chiqib aytaman, men vengercha emas, turkcha o‘ylayman”. Ko‘rinadiki, Ekmann turkchaga alohida muhabbat qo‘ygan. (H.F. Hofman, 1972, 156-bet)

Olimning bir qancha nashrlari mavjud. U “Gadoyi devoni”ni nashrdan chiqaradi. Xuddi shunday *“Nehjü’l -feradis”* (Nahjul farodis)ni ham yozib to‘liq holda nashr qilish uchun nashriyotga topshirdi. Professor A. Bodrogligeti bilan “O‘rta turkcha lug‘at” tayyorlayotganini ham aytadi. O‘zi hayotlik chog‘ida nashr ettira olmagan asarlaridan biri Sharqiy turkchada yozilgan Qur’oni Karim tarjimasi bo‘lib, bugungi kunda Manchestrda va shu nom bilan mashhur.

Yanosh Ekmann umri davomida Turkiyani ikkinchi vatani deya qaragan va ta’kidlaganimizdek, turkiy asarlar ustida ko‘plab tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, olimning ushbu yo‘nalishdagi ilmiy faoliyatini ikki qismga bo‘lib ko‘rib anchayin maqsadga muvofiq bo‘ladi. Birinchisi, tilkshunoslik yo‘nalishidagi faoliyati; ikkinchisi, adabiyotshunoslik faoliyati. 1950-yilda turk tili va uning tarixiga doir

to‘plam nashrdan chiqaradi. Bu to‘plamda turk tilining turli lahja, grammatik shakllari bilan bo‘g‘liq bir nechta tadqiqotlar joy olgan. Bundan tashqari Chig‘atoy tiliga doir ko‘plab tadqiqotlar ham olib borgan. Quyida ilmiy ishlaridan bir nechta namunalar keltirildi:

1. *Razgrad Türk ağzı: Türk dılı ve Tarıhı hakkında Araştırmalar I, Ankara 1950, 1-25.* (Razgrad turk lahjasi: turk tili va tarixi haqida tadqiqot I, Anqara 1950, 1-25.)

2. *Yunan harfli Karamanlı ımlası hakkında: Türk dılı ve Tarıhı hakkında Araştırmalar I, Ankara 1950, 27-31.* (Yunon harflarida Karamanli tilining imlosi. Ushbu to‘plam, 27-31.)

3. *Anadolu Karamanlı ağızlarına ait araştırmalar I. Phonetica: DTCFD VIII 1950, 165-200.* (Anadoli Karamanli lahjasiga oid tadqiqotlar I. Fonetika: 1950, 165-200.)

4. *Türkçede -raq, -rek ekine dair: TDAY Belleten 1953, 49-52.* (Turkchadagi -roq va -rak qo‘shimchalariga doir. Turk tilidan tadqiqot yilnomasi, 1953,49-52.)

5. *Bolmasa kelimesine dair: TDAY Belleten 1954, 33-38.* (Bo‘lmasa so‘ziga doir. Turk tilidan tadqiqot yilnomasi, 1954.)

6. *Türkçede D,T ve N seslerinin türemesi TDAY Belleten 1955, 11-22*. (Turk tilida T, D va N tovushlarining kelib chiqishi. Turk tilidan tadqiqot yilnomasi, 1955,11-22.)

7. *Çağatay dili hakkında notlar: TDAY Belleten 1958, 115-126.* (Chig‘atoy tili haqida qaydlar, 1958, 115-126.)

8. *Çağataycada yardımcı cümleler: TDAY Belleten 1959, 27-58.* (Chig‘atoy tilida yordamchi so‘zlar, 1959, 27-58.)

9. *Küçük Çağatay Grameri: TDED X 1960, 41-64.* (Kichik Chig‘atoy grammatikasi, 1960, 41-64.)

10. *Çağataycada isim- fiiller: TDAY Belleten 1962, 51-60.* (Chig‘atoy tilida ot va fe’llar, 1962,51-60.)

11. *Çağatay Manual (Indiana University Publications. Uralic and Altaic Series. Vol. 60). Bloomington -The Hague, 1966*. (Chig‘atoy tilidan qo‘llanma. Indiana Universiteti nashriyoti. Ural va Oltoy turkumlari. jild. 60). Bloomington - Gaaga, 1966.)

12. *Doğu Türkçesinde bir Kur’an çevirisi: TDAY Belleten 1967, 51-69.* (Sharqiy turkchada Qur’oni Karim tarjimasi, 1967, 51-69.)

Adabiyotshunoslik yo‘nalishida ham tilshunoslikdan kam bo‘lmagan darajada ilmiy izlanishlar olib borgan, nashrlar ettirgan:

1. *Nehjü'l -feradis. Tıpkıbasım, Ankara 1956.* (Nahjul farodis. Faksimili nashri, 1956.)

2. *Çağatay dili örnekleri I, Nevai divanlarından parçalar: TDED IX 1959, 33-64.* (Chig'atoy tili namunalari (I): Navoiy devonlaridan parchalar", Istanbul universiteti Adabiyot fakulteti Turk tili va adabiyoti jurnali, 9-jild, 1959, bet. 33-64.)

3. *Kıpçak Edebiyatı, Türk Dünyası Edebiyatı, (Çeviren: H. Açıkgöz), Türk Dünyası Araştırmaları Vakfı 1991, s. 57*. (Qipchoq adabiyoti, Turk dunyosi adabiyoti, (Tarjimasi: H. Açıkgöz), Turk dunyosi tadqiqot fondi nashrlari, Ankara 1991, bet. 57.)

4. *Ali Şir Nevaî, Bilgi Dergisi, nr. 119, İstanbul 1957, s. 4, 5*. (Alisher Navoiy", Bilgi jurnali, №. 119, Istanbul 1957, bet. 4, 5.)

5. *ÇAĞATAY DİLİ ÖRNEKLERİ II - Gedai divanından parçalar. Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi. 2012; 10(0): 65-110*. (Chig'atoy tili namunalari II - Gadoyi devonidan parchalar. Turk tili va adabiyoti jurnali. 2012; 10(0): 65-110.)

6. The Dīvān of Gadā'i. *Indiana University Publications. Uralic and Altaic Series.113*). *Bloomington -The Hague, 1971, 538.* (Devoni Gadoyi, (Indiana universiteti nashrlari. Ural va Oltoy turkumi, 113-jild.) bet. v, 538. Bloomington, Indiana universiteti; Gaaga, Mouton, 1971.)

Adabiyotshunoslik tarixida Gadoiy ijodini ilk bor Yanosh Ekmann tomonidan o'rganilganligi diqqatga sazovor holat hisoblanadi. U1960-yilda "Gadoiy devoni" ni Parij Milliy Kutubxonasidagi qo'lyozma nusxasidan foydalangan holda nashrdan chiqartiradi. Ilk nashr bo'lganligi sababli, undan keying tadqiqotlarda olim nomi va u bajargan ish albatta tilga olib o'tiladi. Ushbu nashrda 50ta she'r, ya'ni 48ta g'azal, 1 qasida va 1 mustazod o'rin olgan. Y.Ekmann so'z boshida "Gadoiy hayoti va ijoda to'xtalib, uning yashagan davrini aniqlashga harakat qiladi, o'zigacha chet el nashrlarida e'lon qilingan Gadoiy haqidagi umumiy ma'lumotlarni e'lon qiladi. U shoir devoni bilan tanishgach, Gadoiy uslubi tabiiy, zo'r, qudratli shoir ekanligi, asarlarining tili g'oyat sodda va aruz vaznini yaxshi egallaganligini" (Ahmadxo'jayev. E., 1978, 13-bet) qayd etadi. "Devon"ning Erkin Ahmadxo'jayev tomonidan 1973-yilgi nashrida yagona Parij nusxasidan foydalaniladi hamda to'liq holga keltirilib, 230 g'azal, 1 mustazod, 1 qasida. 5 tuyuq va qit'a kiritiladi. (https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/gadoiy.html)

1957-yilda nashrdan chiqqan "Alisher Navoiy" nomli asari ham Navoiyning hayot va ijod yo'li chet el adabiyotshunosligida ham keng o'rganilishiga bir yirik qadam bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotda Navoiyning hayoti, ijodi hamda asarlari alohida-alohida bo'limlarga ajratib berilgan. Avval shoirning bolalik yillaridan to vafotigacha bo'lgan davrdagi temuriylar bilan bo'lgan munosabatlari, so'ng faoliyat olib borgan kasblari hamda o'sha davr mobaynida qanday ishlar

amalga oshirgani haqida batafsil va to‘liq ma’lumot keltiradi. Asarlarini quyidagicha turkumlarga ajratadi:

a) Devonlar (turkiyda hamda forschada tartib berilgani)
b) Masnaviylar
c) Xamsa
d) Tazkiralar
e) Holotlar
f) Diniy asarlar
g) Tilshunoslik
h) Tarixiy asarlar

Oxirida Navoiy asarlari bibliografiyasini ham ilova qiladi.

Y.Ekmann nafaqat venger balki butun dunyo o‘z millati olimi deb bemalol ayta oladi. Umrini ilm yo‘liga bahshida qilganligi, ko‘plab asarlar yozganligi, qo‘lyozmalar nashrdan chiqarganligi, turli bilim yurtlarida pedagogik faoliyat olib borganligi hayot, ijod yo‘li qanchalik ibratli ekanligini ko‘rsatib beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. T.D.K., Haberleşme Üyelerimiz: 7, János Eckmann, Türk Dili, IX/104 (1960).
2. Osman F. Sertkaya Kayıplar: János Eckmann (21.VII.1905-22.XI.1971), Türk Kültürü, Cilt X, (1972)
3. H.F. Hofman, János Eckmann, 1972.
4. https://www.iranicaonline.org/articles/eckmann.
5. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/gadoiy.html
6. https://islamansiklopedisi.org.tr/ali-sir-nevai


## “HAYRAT UL-ABROR”DA SHAKL VA MAZMUN TUSHUNCHALARI


*Quchqorova Charos Ismoil qizi*
*ToshDO‘TAU 1- kurs magistranti*
*charosquchqorova1909@gmail.com*



**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada “Hayrat ul-abror” dostonidagi shakl va mazmun tushunchalari atroflicha o‘rganilgan. Surat va siyrat masalasi doston tarkibidagi maqolotlar va hikoyatlar orqali tavsiflangan.*



**Kalit so‘zlar**: *surat va siyrat, botin va zohir, shakl va mazmun, moddiyat va ma’naviyat.*

**Abstract:** *In this article, the concepts of form and content in the epic "Hayrat ul-abror" are studied in detail. The issue of inner and outer is described through articles and stories in the epic.*

**Keywords**:*image and character, inner and outer, form and content, materiality and spirituality*.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asari qomusiy asar bo‘lib, uning asosiy qismini tashkil etuvchi maqolat va hikoyatlarda barcha zamonlar uchun o‘ta dolzarb bo‘lgan barkamol avlod, komil inson haqidagi ulug‘ mutafakkirning teran axloqiy-ma’naviy, ijtimoiy-falsafiy mulohazalari badiiy ifodasini topgan. "Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) janr xususiyati va kompozitsiya tuzilishi jihatidan “Xamsa”ning boshqa dostonlaridan tubdan farq qiladi. “Hayrat ul-abror” falsafiy-ta’limiy dostondir. Bu asarida Navoiy falsafiy ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta’limiy qarashlarini bayon etish, kishilarga ta’lim va o‘git berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Insonning suvrat va siyrati, ichki va tashqi ibodati, botin va zohiriy olami haqidagi Navoiyning qarashlari Islom bobida, Salotin zikrida, Xirqa kiygan riyokor shayxlar xususida, Qanoat bobida, Xunasasifat oliftalar kabi maqolotlarda o‘z aksini topadi. Navoiy uchinchi maqolatda sultonlar haqida fikr yuritadi. Sultonni haqiqiy hukmdorga aylantiradigan narsa bu uning toji yoki zarbof to‘ni emas, balki adolati va xolisligidir. Hukmdorlik toji hamma narsani hal qilganda gado boshiga toj kiyib sultonga aylanar edi. Shu o‘rinda Navoiy hukmdor ham oddiy tuproqdan yaratilgan banda ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Qanoat ta’rifiga bag‘ishlangan yettinchi maqolatda yuqoridagi fikrlarning davomi sifatida quyidagi bayt keltiriladi:

*Shoh boshining sharafi toj emas,*

*Angla ani shohki, muhtoj emas.*

*Shoh agar ul bo‘lsaki, muhtojdur,*

*Harf ila muhtojda ham tojdur.*

Ya’ni shohni sharafi uning tojida emas, agar u haqiqiy adolatli shoh bo‘lsa, u tojga muhtoj emas. Shu o‘rinda Navoiy so‘z o‘yini qiladi, “muhtoj” so‘zida ham “ toj” bor, lekin u shohlikka da’vo qilmaydi.

To‘rtinchi maqolatda Navoiy jamiyatning quyi tabaqasi - darveshlar haqida fikr yuritadi. Ushbu maqolatning uchdan ikki qismi riyokor shayxlar hajviga bag‘ishlagna bo‘lib, qolgan o‘ttiz besh bayti chin so‘fiylar ta’rifidadir. Qalloblik bilan janda kiyib olgan shayx, shom-u sahar zikr aytib, ga’vg‘o

qilasan. Jandangning hamma tomonlariga yamoq qadalgan, bu yamoqlar hammasi soxta xudojo‘ylik va riyo iplari bilan tikilgan. Navoiy “riyoyi xirqapo‘shlar” timsolini yaratar ekan, uchta asosiy jihatga e’tibor qaratadi: birinchidan, bunday diyonatsiz dindorlar ommani aldaydigan darajada tashqi suratlarini so‘fiylarga moslashtirganlar: xirqalari darveshlarnikiday quroq parchalardan tikilgan, qo‘llarida hamisha tasbih, eski sallani chirmab, doimo zikr tushish orqali odamlarning e’tiborini o‘zlariga jalb etadilar. Ular tashqi ko‘rinishlari ila chin so‘fiylarga o‘xshashga harakat qilishadi, kiyimlari, odatlari, harakatlari bilan ularga taqlid qilishadi.

Ikkinchidan, bu toifaning muridlari ham shayxlariga o‘xshab, yolg‘on, hiyla va riyoni san’at darajasida o‘zlashtirganlar. Ular ham riyokorlikda ustozlaridan qolishmaydi, shuhratparastlik mashhur bo‘lgan bu muridlar faqat ustozlarining nomidan foydalanishga harakat qilishadi. Ular nasha tarqatadigan bangi shayxlarini Xizr deb ataydilar, safsatalarini karomat sifatida talqin qilib, ovoza qiladilar. Har gaplarini haqiqat deya talqin etadilar. Birov agar zarracha shubha yo e’tiroz bildirsa, unga qarshi jamiyki tuhmat va bo‘htonlarni ishga soladilar. Dunyoda ulardan ustun karomatgo‘y yo‘qdek his etadilar o‘zlarini . Uchinchi jihat shuki, bu nayranglar va soxta mashhurlikdan asosiy maqsad - boylar nazariga tushish, ko‘proq niyoz to‘plash, alaloqibat, mamlakat sultoni inoyatlaridan bahramand bo‘lishdir. Dunyo moli uchun o‘zlaridan so‘fiy yasab olgan bunday kimsalar jamiyat va din uchun juda xavflidir. Ularning yolg‘on tashviqotlariga diniy ilmiga kam bo‘lgan juda ko‘p insonlar ishonishi mumkin. Navoiy xulosasi bo‘yicha, din va diyonat niqobi ostida riyokorlik qiladigan, odamlarni to‘g‘ri yo‘ldan adashtiradigan bu toifa eng yomon kimsalardir:

*Bu el erur barcha yomondin yomon,*

*Kimki yo‘q ondin yomon - ondin yomon.*

Haqiqiy so‘fiylar esa, bularning aksi: bu dunyoning yaxshi-yomoni bilan ishlari yo‘q, yolg‘on, shuhratparastlik va riyodan uzoq, ko‘ngli muhabbat va ma’rifat nuri bilan munavvar, Iloh yo‘lida sobitqadam, payg‘ambar sunnatidan bir qadam ham chetlashmasdan ruhiy kamolotni kasb qilgan zotlar, bu yo‘lda hatto “Xizr bir axzar (yashil) giyoh”dir. Ular uchun dunyo moli ahamiyatsiz, kiygan kiyimlari va yeyayotgan taomlari muhim emas, bu dunyoda yashashdan maqsad haqiqiy Yor uchun ibodat qilishdir. Ushbu maqolat so‘ngida Xoja Abdulloh Ansoriy haqida hikoyat keltiradi. U : “Mening ishim toat qilish va Tangrining buyruqlariga bo‘ysunishdan iborat! - der edi. – Mening maqsadim do‘zax o‘ti bilan qo‘rqitish ham emas, taotlar evaziga jannat va’da qilish ham emas. Kimki qo‘rqqani uchun Xudoga ibodat qilar ekan, u nafsi tilagan narsadan

xalos bo‘lish yo‘lini qidirib ish tutgan bo‘ladi. Kimki umid bilan bechorahol yashar ekan, uning tilagi jannatda osudalikka erishishdir. Alloh qil dedimi, mening odatim qilishdan iboratdir. Buni U qabul qiladimi yoki rad etadimi, bu bilan ishim yo‘q. Jannat zohidga, do‘zax yengiltaklarga bo‘laqolsin” , – deydi. lbodatni do‘zaxdan qutulish yo jannatga kirish uchun emas, balki Haq taolo buyrug‘iga so‘zsiz amal qilish deb bilish kerak:

*Biym ila him Haqni parastish qilur,*

*Nafs najotini tilab ish qilur.*

*Kim chekar ummid ila farsudaliq,*

*Qasdi erur ravzada osudaliq*

Do‘zaxdan qochib yoki jannat umidida ibodat qilayotgan inson haqiqiy oshiq emas, zero qalbi Alloh ishqi bilan to‘lgan inson faqat mahbubining vaslini istaydi, xolos. Uni na do‘zax azobi tashvishga soladi, na jannat tuhfalari. Orif inson Yor vasliga mushtoq, unga yetsa, murodi hosil bo‘ladi. O‘n oltinchi maqolatda Alisher Navoiy jismoniy kuch-quvvatiga aldanib qolib, o‘zini davlat tayanchi va barqarorlik posboni deb o‘ylaydigan takabbur bahodir va beklarni tanqid qiladi. Maqolat sarlavhasi quyidagicha*: Xunasasifat oliftalarning dunyo zeb-ziynati, deb hiylakorlik ko‘rsatishlari va jonfido muhabbat egalarining dindan quvvat olib, boshni tik tutib yurishlari; g‘azavot maydonining kengligi vasfidakim, mard bilan nomardning shu yerda bir-biridan farqi ko‘rinadi; shahidlik qoni ma’rifidakim, bu gunoh tutunidan yuzi qora bo‘lganlarning yuzini qizil qiladi.*

Navoiy tasviriga ko‘ra, ijtimoiy odoblarni nazar-pisand qilmasdan, yanada haybatli ko‘rinish uchun uzun mo‘ylovlar qo‘yib, qulog‘iga ayollarga o‘xshab sirg‘a taqadigan bu mushtumzo‘rlar mardlik lofini ursalar ham, aslida maydagap, lofchi, ezma, nomard kimsalardir. Manfaat uchun jang maydoniga kiradigan, qaysi hukmdor ko‘proq pul va’da qilsa, o‘sha tomonga o‘tib oladigan sotqinlar faoliyatining jihod va g‘azotga hech qanday aloqasi yo‘q. Haqiqiy g‘azot Vatan, millat, insoniy sha’n kabi muqaddas narsalarning toptalmasligi uchun o‘z jonini ayamaydigan fidoyi kishilarning qo‘lidangina keladi. Maqolatga ilova qilingan hikoyatda buyuk muhaddis Abdulloh Muborakning niqob kiyib jang maydonida qilgan jonbozliklari, u kishining yuzlarini ko‘rmoqchi bo‘lganlarga bu ishni Alloh uchun qilganliklari va ko‘z-ko‘z qilish maqsadida emasliklarini ta’kidlaganlari go‘zal tasvirlar asosida bayon qilib berilgan. Urush maydonida musulmon sarbozlarning qo‘li past kelayotgan bir paytda niqobdor kimsa paydo bo‘ladi va dushman askarlarni yer bilan yakson qiladi. Jang yakunida

hamma uning kimligiga qiziqadi. Shunda Xasan ibni Rabe' niqobdorga so‘zlaydi: “Tangrining rizoligi haqqi, yuzingni och!” Tangrining nomini eshitgan keyin yuzidagi niqobini yechdi- bu butun dunyo xalqining oldi – Ibn Muborak edi. Xasan unga xalqqa o‘zini tanitishi kerakligini aytadi, ammo Ibn Muborak uning gaplariga shunday javob beradi: “Men Uning ishqida jihod qildim. Agar U meni tanisa, mening maqsadim ham shudir. Tanimasa, nima qilgan bo‘lsam, olam eli foydasigadir! Har bir odam tilgini yordan tilar ekan, yor raqiblardan maxfiy ravishda ish ko‘rishi kerak. Lekin din uchun jang vaqtida bu kichik masala bo‘lib, nafs bilan jang qilgan ulug‘roqdir” . Orif kishining tilagi yolg‘iz Alloh visoli ekan, uning harakatlari, qilayotgan amallari atrofdagilardan maxfiy bo‘lishi kerak. Ko‘z-ko‘z qilinayotgan har bir amal o‘z qiymatini yo‘qotadi. Ayniqsa, nafsni yengish uchun qilinayotgan jihot ulug‘roqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. //Oltinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.

2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror (nasriy bayoni bilan). – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2006.

3.Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. XX томлик. VII том. Ҳайрат ул-аброр. – Тошкент: Фан.

4.Рустамов А. “Ҳайрат ул-аброр”даги биринчи сарлавҳанинг шарҳи // Шарқ юлдузи. 11-сон. – Тошкент, 1983.

## MUHSINIY LIRIKASIDA QOFIYAGA ASOSLANGAN BADIIY SAN'ATLAR O‘RNI

***Qurbonova Muxlisa Abdulla qizi,***
*ToshDO‘TAU O‘FF, 4-kurs*
*muxlisaxonqurbonova@gamil.com*
*+998881650583*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Husaynquli Muhsiniy ijodi misolida qofiya san'atlari o‘rganildi. Bu orqali qofiyaning badiiy kuchi ko‘rsatib berildi. Misralarning jozibasi, ritmi tahlil qilindi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Qofiya, badiiy san'atlar, tajziya, zulqofiyatayn, zulqavofiy, ritm, tashtir.*

***Abstract**. In this article, the art of rhyming was organized as an example of the work of Husaynkuli Mukhsini. Through this, the artistic power of the rhyme was shown. The rhyme and charm of the verses were analayzed.*

***Keywords**: Rhyme, artistic arts, tajzia, zulqafiyatain, zulqawfi, tastir, rhythm.*

Qofiya san'atlari qofiyadosh so‘zlarning hushohangligi va jarangdorligi, umuman, obrazliligini ta'minlovchi vositalardan biridir. She'riyatimizda qofiya asosida shakllantiriladigan rang-barang san'atlar mavjud. Ulardan biri – **zulqofiyatayn san'ati.** Zulqofiyatayn – ikki qofiyaga asoslangan she'riy san'at. Bunda bir bayt tarkibida asosiy qofiyadan tashqari yana bir qofiyadosh so‘zlar juftligi keltiriladi. Quyidagi Muhsiniy qalamiga mansub she'riy misralarda zulqofiyataynning go‘zal namunalarini ko‘rishimiz mumkin:

*Demang ishq-u muhabbat bir **baloyi jovidondur** bu,*
*Bilolmaskim tabibe, jon aro **dardi nishondur** bu.*

*Har na o‘lg‘ay yozilon **sarlavhai taqdirda**,*
*O‘lmag‘ay dasti mubaddal **hiyla**-vu **tadbirda**.*

Zulqofiyatayn she'rning ifodaliligini oshirib, musiqiyligini kuchaytiradi. Shoirdan katta mahorat talab qiladi. Shunga ko‘ra she'riyatda zulqofiyataynning bir necha ko‘rinishi mavjud:

a) baytda qofiyadosh ikki so‘z yonma-yon emas, alohida-alohida kelib, qo‘shni misradagi "o‘z sherigi" bilan jipslashtiriladi:

*Bo‘lmag‘ach sho‘ri **muhabbat** nazm-u **abyoting** aro,*
*Donish-u fahm-u **zakovat** birla **ash'oring** abas.*

*Xatt-u holing **lashkari** yuzungda **to‘fon** aylamish,*
*Hind favji **kishvari** Rumiyni **vayro**n aylamish.*

Ushbu baytlarda ***"muhabbat", "abyoting"; "zakovat", "ash'oring"*** **so‘zlari va** ***"lashkari", "to‘fon"; "kishvari", "vayron"*** so‘zlari misrada yonma-yon emas, alohida-alohida joylashgan bo‘lib, misralararo qofiyadoshlikni vujudga keltirganki, bu hodisa mumtoz zulqofiyatayn namunasidir.

*b)* juft so‘zlardan tarkib topgan zulqofiyatayn:

*Toqatim toq bo‘lub, ketti madorim tandin,*
*Qilaram shavq tamannosida to **sabr-u sabot.***
*Sharafi hijrata yo banda, usharraf o‘lg‘on,*
*Marhamat qil hama mo‘min qulunga **favz-u najot.***

*Oshiq o‘lg‘il joninga **ranj-u balo** istar esang,*

*Turlu-turlu, gunguna **jabr-u jafo** istar esang.*( Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.56)

Yuqoridagi baytlardagi ***“sabr-u sabot” , “favz-u najot”*** va ***“ranj-u balo”, “jabr-u jafo”*** juft so‘zlari o‘zaro qofiyadosh. Demak, juft so‘zlar asosida zulqofiyatayn san’ati vujudga kelgan. Shuni ham aytish lozimki, bu xil zulqofiyatayn juft so‘zlarning har ikkala qismi teng bo‘lishi shart emas.

*d)* she’riyatda radifli zulqofiyataynlar ham uchrab turadi:

*Ko‘ray deb kecha-kunlar har ko‘changdin ming **guzorim bor**,*
*Yuzi subhi, sochi savdosidin layl-u **nahorim bor**.*

*Ochmasun ko‘ngle parishonlig‘, sochingni **tobi vor**,*
*Yig‘lasun ko‘z, gulshani husnung guli **serobi vor**.*

Birinchi baytdagi ***“guzorim”*** bilan ***“bor”, “nahorim”*** bilan ***“bor”,*** ikkinchi baytdagi ***“tobi”*** va ***“vor”, “serobi”*** va ***“vor”*** so‘zlari munosabatida ohangdoshlik hodisasi bor. Ayni chog‘da, baytlarda, asosan, ***“guzorim” – “nahorim”*** hamda ***“tobi” – “serobi”*** so‘zlari qofiyadosh, ***“bor”, “vor”*** so‘zlari shaklan radifdir. Ammo baytlarda radiflar qofiyalar bilan semantik jihatdan birikib, zulqofitayn san’atining tarkibiy qismiga aylanib qolgan.

e) she’riyatda uch qofiyali baytlar ham uchrab turadi. Muhsiniy devonida ham mazkur qofiya qo‘llangan baytlar bor:

***Ne qaror-u sabr** qoldi, kelasizmu ey **nigorim**,*
***Chu firoq-u za’f** birlan keta boshladi **madorim**.*

***Chekti** saf tiyri mija, g‘amza bila soldi **g‘ulu,***
***To‘kti** qon kufri ko‘zi jon-u tanimdin har **su**.*

Baytda qofiya sonining ishtiroki bilan bog‘liq bo‘lgan **zulqavofiq san’ati** qo‘llangan. Birinchi baytda ***“nigorim” va “madorim”*** so‘zlari asosiy qofiya bo‘lib kelgan bo‘lsa, ***“ne qaror-u”*** va ***“chu firoq-u”*** birikmalari misralar boshida o‘zaro qofiydaoshlikni hosil qilgan. Ikkinchi baytda ***“g‘ulu”*** va ***“su(v)”*** so‘zlari asosiy qofiy bo‘lib kelgan. ***“Chekti”*** va ***“to‘kti”, “tiyri”*** va ***“kufri”*** so‘zlari ham o‘zaro qofiyani paydo qilgan. Mazkur badiiy san’at haqida “Badoye us-sanoye” asarida ma’lumot keltirilgan: “Ul she’rnikim, anda ikkidin ortiq qofiyani lozim qilsalar, ani zulqavofiy derlar”.

Ushbu qoidaga muvofiq, zulqavofiy san’atining asosiy xususiyati ikkitadan ortiq qofiyaga asoslanishidir.

*Qilmangiz, ahbob-u yorim, menga **rahm-u shafqatim**,*
*Donishim-la elg‘a ravshan harna **ul-vu raf’atim,***
*Or etarsizlar ko‘rub bu za’f **jism-u suratim**,*

*Ey falak, keltur yana qo‘ldin yiturg‘on davlatim,*
*Qolmadi ta’ni zamon ahlig‘a* ***tob-u toqatim****.*

Qofiyaga asoslanadigan badiiy san’atlardan biri **tashtir** bo‘lib, “Badoye us-sanoye” asarida izohlanadi. Risolalarning aksariyatida tashtir san’ati haqida ma’lumot uchramaydi. Tashtir san’atining o‘ziga xos xususiyati shundaki, baytning har ikki misrasi ikki bo‘lakka bo‘lingan holda ichki qofiya keltiriladi. Bunda misralardagi ichki qofiyalar o‘z doirasida, ya’ni misralarning orasida sodir bo‘ladi. Birinchi misradagi qofiya ikkinchi misradagi so‘zlar bilan qofiyadosh bo‘lishi shart emas.

*Fig‘onkim,* ***charxi*** *kajravdin base* ***javr-u jafo*** *ko‘rdum,*
*Hamisha* ***zahri*** *g‘am no‘shi-la, na bir* ***zavq-u safo*** *ko‘rdum.*

Yuqoridagi misolimizda ***“charxi”*** hamda ***“zahri” , “javr-u jafo”*** va ***“zavq-u safo”*** qofiyalari ichki qofiya sanalib, tashtir san’atini vujudga keltirgan.

Qofiya san’atlaridan yana bir bu – **tasmit san’atidir.** Tasmit san’ati bevosita ichki va asosiy qofiyani birlashtirib turuvchi san’at sifatida keltiriladi. “Shamsiddin Qays Roziy qasidaning besh misrasi o‘zaro qofiyalanib, oltinchi misrasi alohida qofiyalanish shakliga ega san’atga nisbatan tasmit atamasini qo‘llaydi”. (О.Хамроева. Темурийлар давридаги поетикага доир рисолаларда қофия илмининг қиёсий таҳлили. —Т: Bookmany print, 2022. -198 б.)

Muhsiniyning “Hurriyat” muxammasida har to‘rt misra o‘zaro qofiyalanib, beshinchi misralar alohida qoflanib kelgan:

*Fasod-u fitna birla tiyra erdi chehrayi* ***ofoq****,*
*Adolatlu hukumatg‘a hamisha ko‘z edi* ***mushtoq****.*
*Chekub zulm-u taadiy, el edi toqatlari chun* ***toq****,*
*O‘zi rahmi kelub bizga yubordi hazrati* ***xalloq****,*
*Shukr qilsunlar emdi qilg‘on istidoyi hurriyat.*

“Keyinchalik tasmit san’ati asosida yozilgan she’rlar musammatlar sifatida banddagi misralarning miqdoriga qarab musallas, murabba, muxammas, musaddas, musabba, musamman, mustasne va muashshar kabi she’r shakllariga ajralgan”.(Атоуллох Хусайний. Бадойиъ ус-санойиъ (Форсчадан А.Рустамов таржимаси) — Т. 1981, -Б. 87)

Masalan, Muhsiniyning Nodira g‘azaliga muxammasida:

*Bu dahrg‘a* ***roygona*** *kelding,*
*Mehnat o‘qina* ***nishona*** *kelding.*
*Bilgondegu bilmayona kelding,*
*Maqsad na edi,* ***jahona*** *kelding,*
*Kayfiyatini bayon etib ket.*

**Tajziya san'ati** ham bayt misralarining ichki qofiyadishligiga asoslanadigan badiiy san'atlardan biridir. "Tajziya" so'zi "bo'lak-bo'lak qilmoq" degan ma'noni anglatadi. Tajziyaning tashtir san'atidan farqi shundaki, birinchi misra yarmining ikkinchi misra yarmi bilan musajja' holatda bo'lishiga asoslanadi.

*Jong'a har bir so'zlaringdur shahd-u* ***shakardin*** *laziz,*
*Sharbati maygun labingdur obi* ***kavsardin*** *laziz.*

Misralardagi ***"kavsardin"— "shakardin"*** qofiyadosh so'zlari asosiy qofiya bo'lib, misra o'rtasidagi ***"so'zlaringdur" —"labingdur"*** so'zlari o'zaro ichki qofiyaga asoslanadigan tajziya san'atini yuzaga keltirgan.

Muhsiniy ijodida uchraydigan she'riy san'at turlaridan yana biri – musajja' san'atidir. Musajja' saj'li, qofiyali degan ma'noni anglatib, mumtoz adabiyotdagi qofiya bilan bog'liq badiiy san'at. Musajja' baytlari ichki qofiyali g'azal bo'lib, unda baytlardagi misralar to'rt bo'lakka teng bo'linib, oldingi uch bo'lak mustaqil holda qofiyalanadi, to'rtinchi bo'lak esa she'rdagi asosiy qofiyaga ohangdosh so'z bilan tugallanadi. Muhsiniy g'azaliyotida bu shaklda yozilgan g'azal mavjud bo'lib, uning matla'lari musajja' emas, oddiy usulda bitilgan. Bobur o'zining "Muxtasar" asarida "musajja' g'azallarning matla'ida saj' kamroq rioyat qilibturlar. Agar rioyat qilinsa yaxshiroq bo'lgusidur", – deydi. Muhsiniyning quyidagi g'azali musajja' usulida bitilgan va Bobur aytganidek, matla'da saj' rioya qilinmagan:

*Tanimda ishq o'tidin otash-u* ***so'zonlig'im*** *bordur,*
*Kabob o'lmush jigarlar, dog'i dil* ***biryonlig'im*** *bordur.*

*G'am-u anduh erur lashkar, sariri kulfatim -bistar,*
*Boshimda telbalig' afsar, ajab* ***sultonlig'im*** *bordur.*

*Manam bir ojizu bekas, fitoda misli xor-u xas,*
*Shumor etmas mani bir kas, shubu* ***arzonlig'im*** *bordur.*

*Dilimda yo'qtur oromi, jahonda Muhsiniy nomi-*
*Ko'rolsam shohi islomiy, shubu* ***armonlig'im*** *bordur* .(Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.56)

Ushbu g'azalda qo'llangan musajja' usuli g'azal ohangdorligini g'oyatda kuchaytirib, unga ayricha joziba va latofat bag'ishlagan. Chuqur mazmun va go'zal badiiy shakl uyg'unligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, Muhsiniy ijodida qofiya san'atlari o'zining badiiy ifodasini topgan. Bu she'rning go'zalligiga, ritmning jozibasiga, ma'naviy teranligi, ohangdorligi, jilosiga bevosita ta'sir qilgan. Misra, bayt, banddagi qofiyalarda, qofiyadosh so'zlarda shoirning g'oyaviy-badiiy niyati o'z tajassumini

topgan. Ijodkor qofiya vositasida o‘quvchi diqqatini she’rdagi eng muhim fikrlarga jalb qila olgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


8. Quronov, D. (2018). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: “Akademnashr”.
9. Yusupova D. (2019) Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Ta’lim media.
10. Атоуллох Хусайний.(1981) Бадойиъ ус-санойиъ (Форсчадан А.Рустамов таржимаси) — Т.
11. Қуронов Д. (2010) Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: “Академнашр”.
12. Муҳсиний. (2008). Барҳаёт гулшан. Фарғона: Фарғона нашриёти.
13. О.Хамроева.(2022) Темурийлар давридаги поетикага доир рисолаларда қофия илмининг қиёсий таҳлили. —Т: Bookmany print.
14. Ҳожиаҳмедов А. (2008) Мумтоз бадиият луғати. —Тошкент: “Янги аср авлоди”.


## SHAYBONIYXONNING O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDAGI O‘RNI


*Rahimqulova Ohista Annaqul qizi.*
*ToshDO‘TU o‘zbek filalogiyasi fakulteti 2-kurs talabasi.*
*ohistarahimqulova@gmail.com, +998943636251*



**Annotatsiya:** *Maqolada Shayboniyxon shaxsiyatining salbiy va ijobiy xislatlari muqoyasa qilinib, qiyofasiga aniqliklar kiritilgan. Uning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi o‘rni aniqlangan. She’riyatdagi mahorati, iste’dodining o‘ziga xos xususiyatlari talqin etilgan.*



**Kalit so‘zlar:** *Muhammad Shayboniyxon, Bobur Mirzo, Boburnoma, Hasanxo‘ja Nisoriy, Muzakkiri ahbob, Abdurauf Fitrat, Tanlangan asarlar, Muhammad Solih, Shayboniynoma.*



**Annotation**.*This article compares the negative and positive qualities of Shaibani Khan's personality and focuses more on his positive qualities of poetry.*



**Keywords:** *Muhammad Shaibani Khan.Babur Mirza's "Boburnoma" work.Hasankhoja Nisari's "Muzakkir ahbob" novel.Abdurauf Fitrat's "Tanlangan asarlar".Muhammad Solih's "Shahboniynoma" novel.*

*“Muhammad Shayboniyxon uzoq yillardan buyon o‘zbek tarixi uchun aniqrog‘I siyosatchiga aylangan tarixchilaru, tarixshunosga aylangan siyosatdonlar uchun o‘tmishning o‘gay farzandi bo‘lib qolmoqda”*

*Xurshid Davron.*

Muhammad Shayboniy 1451-yilda tug‘ilgan. Abulxayrxonning nabirasi Shohbudoq sultonning o‘g‘li, tug‘ilganda unga turkiylar odatiga ko‘ra ikki ism Muhammad (arabcha) Shayboniyxon (turkiycha) ismlari qo‘yilgan. Abulxayrxon unga Shohbaxt deb laqab qo‘ygan. Shayboniyxon g‘oyat katta jismoniy kuchga, harbiy tashkilotchilik qobilyatiga ega edi. U yoshligida otasi Budoq sulton onasi Qo‘zibegimdan yetim qolgach, otasining sodiq xizmatkori Qorachabek oilasida tarbiyalanadi. Keyinchalik Shayboniyga Turkiston va O‘tror hukmdori Muhammad Mazid tarxon homiylik qiladi va Shayboniy Buxoro madrasasida ta’lim oladi.

Shayboniy ruhoniy ulamolarga katta hurmat bilan qarar, hatto, bolalarcha itoat qilar edi. Temur kabi bu ham Damashq va Halab ulamosi bilan munozaralarda qatnashgan. Qur’onning ba’zi bir oyatlari haqida Hirotning peshqadam tafsirchilari bo‘lgan Qozi Ixtiyor va Muhammad Yusufga e’tiroz bildirgan edi. Uning islom dini borasida yaxshi baholarga ega ekanligini, hattoki, Bobur ham o‘z asarida tan oladi. Shuning uchun uni “xalifat ur-rahmon”, ”imom az-zamon” ya’ni “tangrining yerdagi xalifasi” va “davr imomi” deb atashgan. Bu nomlar unga 1506-yl berilgan.

Manbalarda uning maorif va madaniyatdan xabardor, hatto, bu borada temuriy shahzodalardan hech qolishmasligi aytiladi. Zamondosh shoirlarning aksariyatidan yuqori darajada turuvchi qalam sohibi bo‘lgan. Uning she’rlari buyuk iqtidor va go‘zal tabiatga molik, turkiy, arabiy ham forsiy tillardan xabardor ekanligini ko‘rsatadi. Quyidagi g‘azal ham Shayboniyxonning noyob iste’dod egasi, o‘tkir qalam sohibi ekanligini tasdiqlaydi:

Yuzungni ko‘rdim ul chortoq ichinda,
Ochilmish toza gul yaproq ichinda.
Tabassum qilsang ul g‘uncha labingdin
Degaysen bol tomor qaymoq ichinda.
Necha ko‘zloding, ey ra’no g‘izolim
Meni yondurmog‘il avloq ichinda.
Karam qilg‘il, kel emdi, ey azizim,
O‘tirg‘il didayi mushtoq ichinda.
Jahonning ko‘zi hargiz ko‘rmishi yo‘q,
Na qildi lablaring so‘rmoq ichinda.
Kel ey soqiy, yukunub bir ayoq tut,
Mango dilbar bila qishloq ichinda.
Mango javr aylading, ey bag‘ritoshim,

Koʻngulni soqlomay dil toq ichinda.
Muxolif Vaxshni qishlab tururda,
Turush bermay turur turmoq ichinda.
Cherikning gardini koʻrmoy qochiptur
Masaldur:- Qul qochor oʻrmoq ichinda.

Ushbu gʻazalda bevosita majoziy ishq tarannum etilmoqda. Gʻazaldagi har bir misra oʻziga xos usulda. Undagi qofiyalar ham, badiiy san'atlar ham takrorlanmasdur. Jumladan, gʻazaldagi qofiyalarga e'tiborimizni qaratsak: Chortoq, yaproq, qaymoq, avloq, mushtoq, soʻrmoq, qishloq, dil toq, turmoq, oʻrmoq kabi qofiya uchun tanlangan soʻzlar oʻziga xos musiqiylikka ega. Qoʻllanilgan badiiy san'atlar ham uning mavqe'yini yanada oshirgan.

Muxolif Vaxshini qishlab tururda,
Turush bermay turur turmoq ichinda.

Misralarda qoʻllangan "Turush, turur, turmoq" kabi soʻzlar vositasida alliteratsiya (tavze') (- she'rda, jumlada, bandda va qisman nasriy asarlarda bir xil undosh tovushlarining takrorlanishi) hamda ishtiqoq (arabcha "soʻzdan soʻzni ajratish"- bir oʻzakdan hosil boʻlgan, ya'ni oʻzakdosh soʻzlarni keltirish) san'atining goʻzal na'munasini yaratgan. Uning mahorati ham shunda. Ya'ni bir misraning oʻzida qoʻshaloq san'atning mujassamlashganligidadir.

Cherikning gardini koʻrmoy qochibtur
Masaldur: Qul qochor oʻrmoq ichinda.

Ushbu misralarda esa, yana bir san'atning takrorlanmas na'munasi yaratilgan. Ya'ni irsoli masal (arabchha, "masal keltirmoq","maqol keltirish") san'atidur. Misralar orqali, (cherik-askar, gard-chang, oʻrmoq-yigʻishtirish, toʻplash ma'nolariga ega boʻlib), dushman ikkinchi tomonni toʻs - toʻpolonini koʻrib, chekinishga, qochishga urinadi. Ya'ni mashuqaning chiroyini koʻrgan har qanday oshiq uning chiroyidan, goʻzalligidan oʻzini qoʻyishga joy topa olmaydi degan ma'noda.

Ayni shu gʻazal "Shayboniynoma" dostonining 166-167-betlarida keltirilgan boʻlib, muallif mazkur oʻrinda oʻz fikrlarini keltirib oʻtadi:

Shaboniygʻa beribtur nusratin haq,
Qovub men xusrav(in) chaqmoq ichinda.
Chun bu she'r oʻldi mashhur anda,
Boʻldi Lashkar eli ma'mur anda.

Bu baytlar orqali Shayboniyxonning shoir sifatidagi ulkan, hech bir shoirnikiga oʻxshamagan iste'dodini sezamiz. Undan xalq ogʻzaki ijodidan ham unumli foydalanganini anglashimiz mumkin.

Bundan tashqari quyidagi baytlar ham juda ajoyib va she'riyat muxlislarini befarq qoldirmaydi.Bayt:

G‘unchadek ko‘nglim g‘ami hijronidin qon bog‘ladi,

Mujdayi vaslin eshitib,ko‘nglim ochildi yana.

Ushbu g‘azal ham "Shahboniynoma"dostonining 48-bo‘lida berilgan bo‘lib,"Hazrati imom-uz-zamon va xalifat-ur-rahmonning dardmandonalik holida aytgan abyoti" deb nomlanadi. Ya'nikim, ushbu g‘azal Shayboniyxonning bemor payti yozgani anglashiladi. Ushbu misrada tashbeh (o‘xshatish) san'atinig go‘zal na'munasini ko‘rishimiz mumkin. She'rda "Sog‘inchdan, hijrondan meni g‘unchadek ko‘nglim qip-qizarib alvonrang rangni oldi deyilmoqda. Biz, albatta, juda ko‘plab she'r na'munalarida, umuman, mumtoz adabiyotda ko‘ngilni, qalbni shishaga, Ka’baga o‘xshatishlarini ko‘p uchratganmiz. Shayboniyxon g‘azalidagi ushbu o‘xshatish hech kimnikiga o‘xshamagan o‘ziga xoslikni namoyon qiladi.

Bobur Shayboniyxonni har taraflama salbiy bo‘yoqlar bilan chizadi. Hattoki, uning shoir sifatidagi yaratgan she’rlarini ham ijobiy baholamaydi. ”Yana har necha kunda bir bemaza bayt aytur edi va minbarda o‘qutub, chorsuda osturub shahr elidin sila olur edi”. Bu munosabatni biz to‘g‘ri tushunishimiz lozim. Sababi, Boburning Vatandan uzoqda sarson-sargardon yurishiga sababchi sub’yekt sifatida qaraydi. Hasanxo‘ja Nisoriy esa o‘zining “Muzakkiri ahbob” tazkirasida Shayboniy haqida Boburdan farqli ijobiy fikrlar bildiradi: U o‘z asarining “Maqola birinchi ruknining birinchi fasli foniy davlatdan mangulik mulkiga safar qilgan chingiziy sultonlar jamoasi zikrida” nomli birinchi qismida Shayboniyxon haqida uning ilmli, hatto, barcha ilmlarni egallaganligini aytib, Boburga butunlay qarshi fikrlar bildiradi. Jumladan, ”Sohibqiron xon ilmu fazilatlardan xabardor, aniqrog‘i ularni puxta va to‘la egallagan kishi edi. She’riyat sohasi va shoirlarga e’tiqod-e’tibori katta bo‘lgan. Mudom olimu fozillarni o‘ziga hamsuhbat qilgan. Yaxshi she’rlari bor”, - deydi. Shayboniyxon yollanma qo‘shin boshlig‘idan xon darajasiga ko‘tarilgan tarixiy shaxsdir. Shuning o‘ziyoq uning shaxsiyati yuqori ekanligi va ismining ma’nosi ham unga bejiz berilmaganligining bir isbotidir.

U nafaqat sarkarda balki, Shohbaxt, Shayboq, Sheboni, Shohibek,Shayboniy kabi taxalluslar bilan g‘azal, ruboiylar bitgan shoir hamdir. Uning adabiy merosidan bizgacha bir necha o‘zbekcha g‘azal, ruboiy va o‘g‘li Temur sultonga bag‘ishlab yozilgan pand-nasihatlardan iborat “Bahr-ul xudo” asari yetib kelgan (uning yagona nusxasi hozirda Turkiyada saqlanadi). Ayrim rivoyatlarga ko‘ra, Shayboniyxon temuriylarga, xususan, Sohibqiron Amir Temurga havas qilib, o‘g‘lining ismini Temur (Temur sulton) qo‘yganini aytishadi. Atoqli olim Abdurauf Fitrat o‘zining “XVI asrdan so‘ngra o‘zbek adabiyotig‘a umumiy bir qarash” maqolasida XVI asrdan keyingi davr adabiyotiga baho berar ekan, xususan, Shayboniyxon haqida

quyidagi fikrlarni aytib o‘tadi: ”Shayboniyxon o‘zining adabiy tarbiyasini Buxoroda olgan va bir muddat temuriylarning saroyida yashagan edi. Bu davrning ma’lum shoirlarini ko‘zdan kechirmak istaganimizdan boshlab oldimizda tiklangan shoir Shayboniyning o‘zidur. Shayboniyning butun she’rlar majmuasi hanuz qo‘limizg‘a tushmadi. lekin “Shayboniynoma”dan boshqa tazkira va majmualardan to‘plag‘animiz na’munalar uning san’atga tuban bir shoir ekanligini ko‘rsatmakda”. Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asari Shayboniyxonga bag‘ishlangan bo‘lib, uning temuriylarga qarshi yurishlari, o‘z davlatini qay tarzda bunyod etgani, uning avvallo hukmdor, jangchi, ota va yaxshi bir shoir sifatidagi xislatlarini ochib beruvchi tarixiy asardir. Asar dastavval, Shayboniyxonning yetuk bir shaxs sifatida kamolotini ochib beruvchi asar hisoblanadi. Asar 76 bob, 8902 misradan iborat bo‘lib, asosiy voqealar 17-bobdan boshlanadi. Asar muallifi Shayboniyxon bilan birga ko‘plab yurishlarida u bilan qatnashadi. Bu asar, avvallo, tarixiy-memuar asar desak yanglishmaymiz. Shunga qaramay, ushbu asar olimlar, fan ahli tomonidan yaxshi o‘rganilmagan va yuqori baholanmagan. Buning sababi qilib esa, asar she’riy shaklda, tushunish ozmuncha murakkabroqdegan vaj keltiriladi. Bobur Mirzoningxabar berishicha: ”Asarni o‘qigan kishi Muhammad Solihning she’rlaridan bee’tiqod bo‘lur”, - deydi. Ushbu asarning yuqori baholanmasligining yana bir sababi esa, asarda Shayboniyxon timsoli juda ilohiylashtirilib temuriylarni, temuriy hukmdorlarni tahqirlash, ustidan kulishgacha borilganligidir. Sababi esa, asar muallifi dastlab temuriylar saroyida xizmat qilib, keyinchalik otasi ayrim sabablarga ko‘ra temuriylar tomonidan qatl etilib, mol-mulki talon-taroj qilinishi vajidan uning temuriylarga bo‘lgan nafrati va ular xizmatidan ketib, Shayboniyxondan ko‘p yaxshiliklar ko‘rgani. Yana Shayboniyxonning temuriylarga qarshiligi, dushmanligi hisoblanadi. ”Shayboniynoma” asaridagi 10-bobda berilgan "Ul hazrat tabi'ning maddohligi" bobida Shayboniyxon shaxsiyatiga, shoirligiga berilgan ayrim o‘rinlarni e’tiboringizga havola qilamiz:

Tabi birla mutasavvirdur o‘zi,
Hol birla mutasavvufdur o‘zi.

Tabidur asru biyik himmatidek,
So‘z-uni yaxshi bori niyatidek.

She'rni xo‘p tanir zavq bila,
O‘zi ham xo‘p aytur shavq bila.

Turki abyoti erur sharbati nob,
Forsiy she'rlari ham serob.

Borcha serobu salisu dilkash,
Tabi ahlig‘a jalisu dilkash.

Asru mashhur muammolari bor,
Turkcha til bila imolari bor.

Qalami dog‘i erur mushkfishon,
Xatidek bermadilar hech nishon.

Darmandonadur ovozi aning,
Bordur ul shevada ejozi aning.

Xulosa qilib aytganda, Shayboniyxon obrazining hali o‘rganilmagan, fan ahliga ma’lum qilinmagan jihatlari ko‘b. Zero, u hukmdor bo‘lishiga qaramay, har bir fan sohasining, adabiyotning, diniy-dunyoviy ilmlarning ham sohibidir. Uning ijodini o‘rganish o‘zbek mumtoz adabiyoti, ilm – fani taraqqiyotida muhim xulosalarga keliushga asos beradi. Bu ishlarni amalga oshirish adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Muhammad Solih. Shayboniynoma”asari. G‘afur G‘ulom nashriyoti T-1989.

2.Zahriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”asari. “Yangi avlod” nashriyoti T-2015.

3.Hasanxo‘ja Nisoriy. “Muzakkiri ahbob”. Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasi. Abdulla Qodiriy nomidagi “Xalq merosi”nashriyoti, T-1993. B-20

4.Abdurauf Fitrat. “Tanlangan asarlar”. 2-jild. “Ma’naviyat”nashriyoti. T-2000.

5. I. Adizova. ”O‘zbek adabiyoti tarixi”. Darslik (XVI-XIX asr I yarmi). “BOOKMANY PRINT”.T-2023.

## “MAORIF VA O‘QITG‘UVCHI” JURNALIDA XOTIN-QIZLAR MUAMMOLARINING BADIIY TALQINI

*Raximova Chamangul Dilshod qizi*
*ToshDO‘TAU, O‘FF 4-kurs talabasi*
*chamangulraximova@gmail.comtel+99890 099 63 69*

***Annotatsiya.*** *Maqola 20-30-yillardagi adabiy muhit va xotin-qizlar hayotidagi tub burilishlarga bag‘ishlangan fikrlar bilan boshlanadi. Bu davrda faqatgina adabiy muhitdagina emas, balki ayollar hayotida ham tub katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Asosiy markazida “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalida nashr etilgan xotin-qizlar masalasiga bag‘ishlangan asarlar tahlili, ushbu mavzular bo‘yicha olib borilgan bahs-munozaralar va muallifning bu bahs-munozaralarga munosabati keltirilgan. Ushbu asarlardan kelib chiqib, umuman, o‘sha davr xotin-qizlarining dunyoqarashi, muammolarini qay darajada hal qilishi haqidagi fikrlar ham berilgan. Cho‘lponning “Paranji”, Elbekning “Erk nima?”, Shokir Sulaymonning “Dog‘li yo‘qotish” kabi asarlari tahlilga tortilgan.*

***Kalit so‘zlar****: Paranji, jurnal, xotin- qizlar, xalq, erk.*

***Abstract.*** *The article begins with thoughts on the literary environment of the 20s and 30s and the radical changes in women’s lives. The main focus is the analysis of the works devoted to the issue of women published in the magazine “Education and Teacher”, the debates on these topics and the author’s response to these debates. On the basis of these works, in general, the views of women of that time and the extent to which they solve their problems are given. Cholpon’s “Parandji”, Elbek’s “Erk nima?”, and Shakir Sulaymans “Dog‘li yo‘qotish” were analyzed.*

***Key words****: veil, magazine, women, people, man.*

Milliy uyg‘onish davri adabiyoti, umuman olganda, 20-30-yillarda sho‘ro adabiy muhitida adabiyot mafkuralashtirildi, partiyaviy tazyiq ostida sinfiy dushman axtarish ruhi kuchaydi, so‘z, ijod erkinligi bo‘g‘ildi, vulgar sotsiologizm tomirlari ildiz otdi. “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”dek shoh asarlarimiz zararli deb topildi, jadidchilik adabiyoti namoyondalari esa turli ayblar, bo‘htonlar deb qoralandi. 30-yillar o‘rtasidan markaz Yozuvchilar uyushmasi qurultoyining qarori bilan rasmiy kuchga kirgan sotsialistik realizm metodi haqidagi aqidaning keng joriy etilishi oqibatida o‘zbek adabiyotiga partiyaviylik, sinfiylik, g‘oyaviylik, shaklan milliy, mazmunan sotsialistik degan tushunchalar chuqur singib bordi. Mumtoz adabiyotga munosabat o‘zgardi. Mashrab, Yassaviy, Boqirg‘oniy, Boyqaro, Feruz (Muhammad Rahimxon) kabi ijodkorlar merosi batamom qoralandi. Sho‘ro mafkurasining zug‘umi, tanqid va adabiyotning jiddiy xatolari tufayli Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, So‘fizoda, Elbek, Botu, Usmon Nosir singari shoir va yozuvchilar, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud kabi adabiyotshunoslar bizdan tortib olindi.

Bu davrda faqatgina adabiy muhitdagina emas, balki ayollar hayotida ham tub burilishlar yasaldi. Paranji tashlandi, ayollar erkaklar bilan teng huquqli bo‘ldi, jamiyatning faol a’zosiga aylandi. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali bu masalarni o‘rganishda muhim manbadir.

Ushbu jurnalda o‘z davrining dolzarb muommosi bo‘lib kelgan xotin-qizlar masalasiga doir ko‘plab maqolalar, hikoya va qator she‘rlar chop etilgan.Elbek, Mahmud Odil, Cho‘lpon, Shokir Sulaymon, Oltoy, Bektosh singari ijodkorlar ma‘rifatparvarlar ayollarni jamiyatda o‘zligini anglashi, erki uchun, qadr-qimmati uchun kurashishga undaganligini ko‘rishimiz mumkin. Xotin-qizlar masalasi va muammolari yoritilgan asarlarga e’tibor qaratsak, bularning ba’zilarida ularning ilm-ma’rifatli bo‘lishi, hunar o‘rganishi, buning uchun paranjidan qutulishi kerakligi borasidagi ma’rifiy muammolar kuylansa, ba’zilarida esa ular ham farovon turmushga loyiqligi, yosh qizlarning ota-onalari tomonidan majburan keksa boylarga uzatilayotganligi, ularning o‘z oilasida qadr-qimmati yo‘qligi, tirik jon sifatida emas, bir matohdek qaralishi, erkaklar tomonidan ezilishi kabi maishiy muammolar ochiq-oydin ko‘rsatib berilgan. Masalan Cho‘lponning “Paranji” (Cho‘lpon, 1925, 50-bet) she’rida xotin-qizlarga murojaat qilinib, paranjini yirtishi, yoqishi, yo‘q qilishi o‘zgacha pafos bilan aytilgan.

Yirtingiz,
Go‘rlarga eltingiz!
Yonduring chimmatni,
Bo‘g‘masun,
To‘smasun ,
Tabini ziynatni!
Yo‘q bo‘lsun,
Yo‘q bo‘lsun,
Paranji!

Shuningdek, Cho‘lpon she’rda xotin-qizlarning yulduzlardan nur, shu’lalardan to‘r olib o‘ynab-kulishini, tiniq ko‘ldan chiqqan bir to‘p pari kabi gullab yashnashini, paranji ostida berkinib, “Menga ham erk” degan qizlarning holatini go‘zal tasvirlarda chizib beradi.

Ammo, Elbek bu voqeani “Erk nima” (Elbek, 1925, 19-bet) she’rida boshqacha tasvirlaydi. Bu she’rni “Erk ma’nosin yanglish tushung‘uvchi xotin-qizlarg‘a” ataganligini aytadi. She’rda ayollar uchun erk qanday bo‘lishi tushuntiriladi. Ma’nosi tushunarli bo‘lishi uchun she’rning o‘zini keltiramiz:

Ko‘p zamonlar erksiz qoldiq,
Eng so‘ng, erkni qo‘lg‘a oldiq.
Otni “chuv” deb qamchi soldiq,
Tez yurdikda yo‘lda toldiq.

“Ot yozuqli!” dedik sotdiq,
Lash-lushlarni qo‘ldan otdiq.

Qimirlamay toshdek qotdiq,
Oyoq choʻzib jim-jit yotdiq.

“Erk oldiq” deb erkalagan,
Erk qonunin tirkalagan.
Hoy yanglishgʻon xotin-qizlar,
Erk otini minmang sizlar!
Erk muqaddas qonun erur,
Mazlumlarga erklik berur.
Kimki bunga koʻkrak kerur,
Erk chechagin albat terur.

Erk otigʻa bermay oziq,
Qattiq chopmoq gunoh-yoziq.
Erk maʼnisi chopmoq emas,
Esi borlar bunday demas.

Erk maʼnisi erkin boʻlmoq,
Ilm-u hunar bilan toʻlmoq.
Yoʻqsil elga bilim bermak,
Mashaqqatga koʻkrak kermak!

Koʻringanidek, sheʼrda …erk qonunin tirkalab yanglishgʻon, qattiq chopgʻon xotin-qizlarga murojaat etilmoqda. Erkin boʻldik, paranjini tashladik deb oʻzlariga yarashmaydigan ishni qilmaslik, erkdan toʻgʻri foydalanib, ilm-hunar oʻrganish, yoʻqsil elga bilim berish, mashaqqatlarni aql bilan engish haqida soʻz boradi.

Xotin-qizlar muammolariga bagʻishlangan asarlarni oʻrganish mobaynida bu davrlarda ayollarning huquqlari aksar hollarda haqiqatan ham toptalganining guvohi boʻlamiz. Bu, albatta, maʼrifatsizlik, ilmsizlik natijasi. Zeroki bu haqida professor N.Jabborov shunday deydi: “Binobarin, har bir millatni, uning vakillarini jaholatdan qutqarguvchi yagona vosita –ilm va maorifdir. Kimki ilm va maorifga munosib darajada eʼtibor bersa, shubhasiz, saodatga erishadi” (Жабборов, 2005, 14-15-бет). Aynan 20-30-yillarda xotin-qizlarning paranji tashlashi voqeasi sodir boʻldi. Bu bir tomondan yaxshilikka xizmat qildi. Lekin, Turkiston xalqiga tushuntirmasdan, bu ishning mohiyati, natijasini aytmasdan, mentalitet, urf-odat masalalarini inobatga olmasdan shiddat bilan tez fursatda qilinganligi koʻplab isteʼdodli qizlarimizning ayanchli oʻlim topishiga sabab boʻldi. Bu jurnalda nashr etilgan sheʼrlarda ham oʻz aksini topadi. Elbek soʻzlari bilan aytganda, …erk qonunin tirkalab yanglishgʻon, qattiq chopgʻon xotin-qizlar oʻz boshlariga balolar sotib olishdi. Bu haqida

jurnalimizning 5-6-sonida Shokir Sulaymonning “Sir” taxallusi ostida bergan “Dog‘li yo‘qotish” (Sir, 1928, 35-bet) bag‘ishlov hikoyasida shunday so‘zlar berilgan.

**(O‘zbek davlat truppasining talantli aktrisasi Tursunoy xotirasiga bag‘ishlanadi. 1928-yil 19-may. Buxoro shahrida vafot etdi)**

**(Nasr)**

Hay attang…”Tursunoy”ni yo‘qotdiq. O‘zbek sahnasi manguga ko‘ra olmaydi uni. Ko‘z yoshlarning endi foydasi yo‘q. Topolmaydi uni. Qip-qizil marjon donalarning bitta gavhari – qimmatli sadafi. O‘ynoqi, biyron, suygumli – Tursunoy. Qorong‘u tunlarning kirli qo‘ynida hadaf bo‘ldi. Zahar, uchli o‘tkir pichog‘ning keskin tig‘lari, shumli qo‘llarida qayrildi. Ma’suma bo‘g‘zidan qon yaladi.Vaqtsiz qurbon bo‘ldi Tursunoy… Ilon zaharli tilidan asalmi beradi? “Yirtiqchilar” bolasi orqangiz nima silaydi? Bo‘rilar tumshug‘i qonsizmi bo‘ladi? Mana, Tursunoy yo‘q! Sora, Zamira, Bahrioylarning g‘ururli ko‘klariga, motam chechaklari taqildi. Motam chechaklari….

Yo‘qotish dog‘li, alamli! Nachora? Kurash qurbonsiz bo‘lmaydi…Sahnamiz yana ham gullaydi. Biz eslaymiz, yashnaydi. Eslaymiz qimmatli Tursunoyni, yodlaymiz “Halima”day “doston”ini. Biroq yangi ruh, yangi zavq, yangi kuch, tetik qadam bilan, olg‘a otlang‘on olov yuraklarni ko‘rib quvonamiz!

Albatta, ayollarning ochiqlikka chiqishi ularga juda yaxshi imkoniyatlar berdi. Ilm o‘rgandi, hunar bilan shug‘ullandi, ishladi. Bu xayrli ish oddiy, sodda xalq bilan birgalikda bosqichma bosqich olib borilganda yuqoridagi nasrda berilgan muammolar bo‘lmas edi.

“Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalida xotin-qizlar masalasiga bag‘ishlangan asarlar bilan tanishar ekanmiz, bu mavzu juda bahsli ekanligining guvohi bo‘lamiz. Yangi adabiyotga qadam qo‘yayotgan Mahmud Odilning 1928-yil 8-,9-sonida nashr etilgan “Ozod xotin so‘zi” (Mahmud Odil, 1928, 61-bet) nomli she’rida ilondek oyoqlariga yopishgan erksizlik ipidan qutulib, erkin hayotga erishgan ayol so‘zlari keltirilgan. Ayol ilgari erkaklar oyoqlari ostida ezilgani, erk ashulasini aytolmagani, endi esa o‘z erki ila ishda va o‘qishda erkaklar bilan teng huquqli bo‘lib ishlayotgani, o‘qiyotgani aytilib, yurt taraqqiyoti uchun o‘z hissasini qo‘shayotgani ta’kidlanadi:

Ilgari iplandik, erksizlik ipi,
Oyoqlarimg‘a o‘ralg‘on edi,
Erk osmonimg‘a ucholmas edim.

Endi erkliman, o‘z erkim ila,
Ishda, o‘qishda erkaklar ila,

Aralash ishlab, o‘qimoqdaman.

Ushbu she’rda o‘z kelajagi uchun qayg‘uradigan, olg‘a intilib o‘qiydigan, ishlaydigan, o‘z fikriga ega uddaburon xotin-qizlar haqida gap borsa, jurnalning 1928-yil 7-sonida Mahbuba Rahim qizining “Aldangan qiz” (Mahbuba Rahim qizi, 1928, 31-34-bet) va Elbekning “Yangi turmush izlovchi” (Elbek, 1926, 25-27-bet) hikoyalarida aldangan xotin-qizlarning achchiq qismati yotadi. Bu hikoya qahramoni Mastonoy va Qahhorxo‘janing ayoli o‘z mustaqil fikriga ega emasligi, kim nima desa unga ergashib ketaverishi, hayotga teran nazar bilan boqmasligi bois mana shunday og‘ir hayotga duchor bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, hayotining qanday kechishi ma’lum ma’noda insonning o‘ziga ham bog‘liq. Bu yo‘lda ma’rifat ko‘p muammolarga echim bo‘ladi. Zero bu fikrimizni professor Q.Pardayev shunday ifodalaydi. “XX asr boshlaridagi ma’rifatchilik harakati jamiyat hayotini isloh qilish masalasini kun tartibiga qo‘yar ekan, bunda ma’rifat va jaholat ziddiyati asosiy muammo darajasiga ko‘tarildi” (Пардаев Қ, 2021, 70-бет). “Aldangan qiz”, hikoyasidaotasidan juda yosh yetim qolgan, ro‘zg‘orga yordami tegishi uchun choyxonada idish yuvib kun kechirgan, oxir oqibat aldangan Mastonoy haqida hikoya qilinadi. Qodirning shirin gaplariga uchib aladangan Mastonoyning o‘g‘ir qismati, ko‘rgan qiyinchiliklari tasvirlanadi. Qodir Mastonoyni ishontirib o‘zi esa boshqa qiz bilan bo‘lib ketganli, oxir oqibat ikkisini ham baxtsiz qilib qo‘ygani qalamga olinadi. “Yangi turmush izlovchi” hikoyasida ham Qahhorxo‘ja xotinining ustiga yana uylanib, oxirida uni ham tashlab boshqasiga ko‘ngil qo‘yishini ko‘rishimiz mumkun. Adabiyotshunos Gulzoda Soatovaning “Elbekning yangi hikoyalari tahlili” (Soatova G, 2023, 84-95-bet) maqolasida “Yangi turmush izlovchi” hikoyasini tahlil qilar ekan bugungi kunda ham dolzarb bo‘lgan mavzuga aylanib ulgurganini ta‘kidlab, fikrinini shunday davom ettiradi: “Yoshlik kuchiga, g‘ayratiga uchib, hoy-u havasga berilgan Qahhorxo‘janing qismati barcha davrda uchraydigan illat. Buning echimi tarbiya masalasiga borib taqaladi. Oilada mustahkam tarbiya topgan, dunyoqarashi keng farzand hech qachon bunday hayot yo‘lini tanlamaydi”.

Xulosa qilib aytganda, “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali 20-30-yillardagi xotin-qizlarning taqdiridan so‘zlovchi asosiy manbalardan biridir. Unda nashr etilgan asarlarda ayollarning erk ne’matidan bahramand bo‘lib, ilm-ma’rifat o‘rganishi, yoshlarga bilim berishi, shu bilan birgalikda xotin-qizlarning achchiq, huquqi toptalgan hayoti tasvirlangan. Biz bu asarlarni mutolaa qilib, o‘tgan davrlarda yashagan xotin-qizlar hayoti bilan tanishamiz, yaxshi tomonlarini o‘zlashtiramiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Cho‘lpon. Paranji. She’r. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. – Toshkent, 1925. – № 2. – B.50.

2.Elbek. Erk nima? She’r. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. – Samarqand, 1926. – № 3. – B.19.

3. Жабборов Н. Маърифат нимадир, жаҳолат надир? // Тафаккур, 2005, 3-сон. – Б. 14-15

4. Sir. Dog‘li yo‘qotish. Nasr. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. – Samarqand, 1928. – № 5. – B.35.

5. Mahmud O. Ozod xotin so‘zi. She’r. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. –Samarqand ,1928. № 8-9. – B. 61.

6. Mahbubu Rahim qizi. Aldangan qiz. Hikoya. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. – Samarqand, 1928. – № 7. – B.31-34.

7. Elbek. Yangi turmush izlovchi. Hikoya. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. – Samarqand, 1926. – № 7-8. – B.25-27.

8. Пардаев Қ. Ал-ислоҳ ва XX аср бошлари ўзбек адабиёти. 2021. – Тошкент: Маҳалла ва оила, – Б. -70.

9. Соатова Г.Н. 2023. “Елбекнинг янги ҳикоялари таҳлили”. Ўзбекистон: тил ва маданият. Адабиётшунислик 1 (2): 84-95.

## MASHRAB SHE’RIYATIDA MUSTAZOD JANRINING O‘RNI

***Raxmatova Karima Erkinovna***

*ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti,4-kurs*

*raxmatovakarima@gmail.com+998912447597*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada XVII asrda qalam tebratgan ijodkorlardan biri hisoblangan Mashrabning ijodida mustazod janrining mavqeyi haqida batafsil yoritildi. Muhim jihati shuki, Mashrabdek hech kim hali bunchalik ko‘p mustazod yaratmaganini, shu bilan bir qatorda har bir mustazodida shakl va mazmunning an’anaviy tarzda saqlab, yozilganini bilan ham boshqa shoirlardan ajralib turilishiga guvoh bo‘ldik.*

**Kalit so‘zlar :** *mustazod, janr, vazn, hazaj, an’ana.*

**Abstract.** *In this article, the position of the mustazad genre in the work of Mashrab, who is considered one of the artists who shook his pen in the 17th century, was explained in detail. The important point is that no one has created so many mustazads like Mashrab, and at the same time, we have seen that each mustazad is distinguished from other poets by the fact that the form and content are preserved and written in a traditional way.*

**Keywords:** *mustazad, genre, weight, hazaj, tradition.*

Mustazod vazni XVII – XIX asrlar o‘zbek she’riyatida ham keng qo‘llandi va o‘zbek mumtoz adabiyotida mustahkam o‘rin egalladi. Bunda Mashrab ijodining ta’siri sezilarli bo‘ldi, deb aytish mumkin. Ko‘plab tadqiqotchi olimlar tomonidan, Mashrabning mumtoz she’riyatda eng ko‘p va har jihatdan mukammal mustazod yaratgan ijodkorlardan biri ekanligini ta’kidlab, e’tirof etishadi. Shoir o‘z mustazodlari bilan bu janrning adabiyotda mustahkamlanishi va boyishiga katta hissa qo‘shdi. U murakkab, nozik lirik janr bo‘lgan mustazodda ham badiiy mahoratini yana bir namoyon qilgan. “Uning mustazodlari eng yaxshi g‘azallari kabi sho‘x va ta’sirchan bo‘lib, ravon va yengil o‘qiladi, kitobxon yodida tez saqlab qoladi. Shoir mustazodining mavzusi – ishq-muhabbat, oshiq sadoqati ma’shuqa go‘zalligi, nozu ishvasi, jabr-u jafosi, ahd-u vafosi (Ҳошимжонов 2008, Б.148).” Mashrab xalq og‘zaki ijodini yaxshi bilgan, o‘zi ham xalqona uslubdagi she’rlar yaratishga alohida e’tibor berganligi va hozirgacha fanda shoirning yigirmadan ortiq mustazodlari borligi aniqlangan. Bu janrning o‘zbek mumtoz adabiyotida o‘rin egallashida Mashrabning xizmatlari nihoyatda kattadir.

Shoir o‘z mustazodlarida ham yor go‘zalligini madh etdi, uning barkamol chiroyi va fazilatlarini ulug‘ladi. Mustazodlarning ham lirik qahramoni otashin sevgi o‘tida yongan, o‘z sevgilisi tomon talpinayotgan sadoqatli oshiqdir. Lirik qahramonning kechinmalari, visolga yetishish yo‘lida intilishi, orzu-umidlari, hijron azobida qiynalishi, dard-u hasratlari hayotiy lavhalarda o‘z ifodasi topadi. Tasvirning badiiyligi, til soddaligi, vaznning ravon va o‘ynoqligi shoir mustazodlarni xalq qo‘shiqlariga yaqinlashtiradi, tinglovchi yodida uzoq saqlanib qolishini ta’minlaydi:

*...Ey bodi sabo, turg‘ilu sur’at ila borg‘il,*
*Jononima yetkur.*
*Dilxastalig‘ilim birla salomiyu payome*
*Bisyor va bisyor* (Абдуғафуров 1979, Б. 81-82).

Ko‘rinadiki, keltirilgan she’r an’anaviy mumtoz mustazod vaznida yaratilgan. Mashrab bunda shamolga murojaat qilar ekan, undan o‘zining holati haqida yoriga xabar berishini, dilxastalig‘i bilan uning salomini yetkazishini bisyor va bisyor so‘raydi. Oshiq qanchalik ishq dardida mubtalo bo‘lgani, yor uning holatidan xabardor bo‘lishini xohlaydi. Shoir go‘zal tashbehlardan foydalanish orqali mustazodning badiiy jozibasini yana bir pog‘onaga ko‘targan.

Mashrabning mustazodlari ichida real inson – ma’shuqaning husn-u malohatini, yurakni o‘ynatadigan darajadagi jozibasini namoyon etuvchi namunalar ancha. Ularning hammasida ishqi ilohiyning ifodasini ko‘raverish to‘g‘ri emasligini adabiyotshunos R.Orzibekov ta’kidlab o‘tadi: Bunday namunalarning sehri kitobxonni insonning real hayotiy tuyg‘ulari bilan

uchrashtiradi, unda hayotga, undagi go‘zalliklarga nisbatan zavq uyg‘otadi, yuragini qitiqlaydi (Orzibekov, 2006, 52-53-bet).

Mashrabning deyarli barcha mustazodlari fusunkor musiqiy ohangdorlikka ega bo‘lib, kitobxonning yuragiga tez yo‘l topa oladi. Shoirning har bir mustazodida ajoyib hayotiy orzu-istaklarni, kechinmalarni uyg‘otadi. Faqat mazmun tomondan emas, balki shakl jihatdan ham mustazodning an’anaviy vazndan mohirona foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Buni quyidagi namunalar orqali tahlil qilamiz.

Mashrabning

*Ey moh, netay, ishqing o‘ti ayladi rasvo,*
*Devona bo‘lubman,*
*Ishqing o‘ti siynam uzadur, senga na parvo ,*
*Parvona bo‘lubman* (Абдуғафуров, 1979, Б. 75).

matla’ bilan boshlanuvchi mustazodi *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod* vaznida yozilgan. She’rning asosiy misralari **rasvo, parvo** qofiyadosh so ‘zlari mujarrad qofiyani, qo‘shimcha misralari esa **devon**a, **parvon**a so ‘zlari esa murdaf qofiyani ifodalanishi bilan ahamiyatlidir. Qo‘shimcha misralari esa **devon**a, **parvon**a so‘zlarida “a” qisqa unli bo ‘lganligi sababli undan oldin turgan “n” tovushi raviy hisoblana. Mumtoz qofiya ilmida qisqa unli raviy bo‘lolmadi. Raviy bo‘lishi uchun unli cho‘ziq talaffuz qilinishi lozim. She’r an’anaviy ishq mavzusidadir. Shoir o‘zining devona bo‘lishining sababi yorning ishq o‘ti uni rasvo aylaganini, unga parvona bo‘lganligini ana shu ishqning o‘ti qalbini uzib tashlagan bo‘lsa ham, yorning unga befarqligini natijada unga parvona bo‘lib qolganligini go‘zal tashbehlar bilan ifodalab beradi.

*Sensan e malik saltanating olama to‘lg‘on*
*Kim barchadin a’lo,*
*Bu jonu ko‘ngul ishqing aro volayu hayron ,*
*Ey orazi zebo(*Абдуғафуров, 1979, Б. 77).

Ushbu mustazodda esa Mashrab o‘z yoriga murojaat shaklida, ishqida maftun va hayronligini, barchadan ustun va a’lo ekanligini malik so‘zi orqali ifodalab bergan. Vazn jihatdan *hazaji musammani axrabi makfufi maqsuri mahzufi mustazod* shaklida yozilgan bo‘lib, asosiy misra oxiridagi rukn mafoiylun aslining maqsur tarmog‘i mafoiylga, orttirmaning ikkinchi rukni esa mafoiylun aslining mahzuf tarmog‘i fauvlunga teng bo‘ladi.

*Nogoh ko‘runub, jilva qilib o‘tti parizod*
*Bag‘rimni qilib qon,*
*Furqat ila g‘am dashtida dil ayladi noshod*
*Ul va’dasi yolg‘on* (Абдуғафуров, 1979, Б. 84).

Bu mustazodda esa Mashrab bir qancha tashbehlar yordamida yorning ishqida qanchalik yonib, o‘rtanishini akslantirgan. Uning birgina noz-karashma bilan o‘tib ketgani uchun bag‘rini qon qilganini aytadi. Natijada uning yolg‘on va’dasi ayriliq bilan g‘am dashtida dilni shod aylamaganini ta’kidlab o‘tadi. Shoir tashbehning mutlaq tur qo‘llagan. Vazn jihatdan hazaji *musammani axrabi makfufi maqsuri mustazodda* bitilgan bo‘lib, asosiy misra va orttirma oxiridagi hijolarning o‘ta cho‘ziqligi bilangina farq qiladi.

Keyingi mustazodida Mashrab ma’shuqasining husni-yu malohati, ayniqsa, uning kaklik kabi chiroyli yurish bilan rom aylaganini, keyinchalik uni maftun qilganini ta’kidlab o‘tadi:

*Ko‘rdumki bukun parivashu dilbaru ra’no*
*Yo‘l uzra shitobon,*
*Xush suratu xush xil’atu xush raftoru zebo*
*Chun kabki xiromon* (Абдуғафуров, 1979, Б. 82).

Shoir birgina shu bayt orqali tashbehning ikki turidan mohirona foydalangan. Yorni bir vaqtining o‘zida parivash, dilbar, ra’noga o‘xshatishi mutlaq tashbehni hosil qilgan bo‘lsa, uning kaklikdek yurishi esa tashbehi mashrut ya’ni shartli o‘xshatishga yaqqol namuna bo‘la olgan.

Mashrabning “Qissayi Mashrab”, “Shoh Mashrab” kabi asarlarida ham mustazod janrining namunalari uchraydi. Bu asarlar voqealar tizimida yozilgan bo‘lsa ham, Mashrabning his-tuyg‘u va kechinmalarini ochib berishda nazmdan keng o‘rinda foydalanilgan, shularning orasida mustazod ham alohida o‘ringa ega. “Qissayi Mashrab”, “Shoh Mashrab” asarlari tarkibida keltirilgan mustazodlarda, asosan, mavzu jihatdan oshiqning yor ishqida kuyib yonishi-yu, uning jamoliga mahliyo ekanligi haqida fikr yuritadi. Masalan quyidagi mustazod Oqbo‘tabiyga Mashrabning Toshkentga kelganligini xabarini anglatish shaklida aytilgan bo‘lsa:

*Bul xasta vujudimni meni o‘rtadi bir yo‘l*
*Ul g‘unchai xandon.*
*Ul gul yuzini ishqida men volai bulbul,*
*Ul zulfi parishon.*

keyingisi Buxoro ahli bir xojaning ustidan kulgan jarayoni talqin qilinadi:

*Vasling topay desam, sanamo, fikru g‘amim bor,*
*Bir necha mahaldur,*
*Hijroni firoq, so‘zishi dardu alamim bor,*
*Bag‘rim to‘la qondur…*

Adabiyotshunos olim J.Yusupov Mashrabning bir asari haqida muxtasar fikr bergan. Bu asar “Qissayi Me’rojnomayi Rasuli Akram s.a.v”dir. Unda “Qissayi

Mashrab” qo‘lyozmalarining deyarli barchasida bor bo‘lib, u mustazod janrida yozilgan. Hajman mustazod janriga xos bo‘lmagan anchagina katta, ammo mazmunan yaxlit bir mavzu tafsilotini o‘zida aks ettirgan asardir (Ҳошимжонов, 2008, Б. 333).

Mashrab ijodida mustazod muhim mavqe ega. Chunki boshqa ijodkorlarga nisbatan ko‘proq ushbu janrda qalam tebratgan. Shoir mustazod janriningshakl va mazmun jihatidan an’anaviyligini saqlab qolgan holda, o‘zbek mumtoz she’riyatiga o‘z hissasini qo‘shdi. Mashrab ham *hazaji musammani axrabi makfufi* mahzufi mustazod vaznida she’rlar yaratganini ko‘rsatadi. Aynan unda *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod, hazaji musammani axrabi makfufi maqsuri mustazod, hazaji musammani axrabi makfufi maqsuri mahzufi mustazod* kabi o‘lchovlarda yozilganligini kichik tadqiqotimiz jarayonida amin bo‘ldik.

**Foydanilgan adabiyotlar:**


1. Orzibekov R. O‘zbek adabiyot tarixi. – Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi, 2006. – 272 b.
2. Yusupova D. Aruz vazni va mumtoz poetika asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 304 b.
3. Абдуғафуров А. Машраб шеъриятидан. – Тошкент: КП МК, 1979. – 127 б.
4. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 224 б.
5. Ҳошимжонов М. Машраби мўътабар ўзум. – Тошкент: Миллий кутубхона, 2008. – 400 б.


## “LISON UT-TAYR” DOSTONIDA HAZRATI ALI SIYMOSINING BADIIY TALQINI


*Ro‘zimamatova Sevaraxon Ixtiyor qizi*
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs*
*ruzimamatovasevara@gmail.com +998994648925*



**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi hazrati Ali siymosining badiiy talqini tahlilga tortilgan. Hazrat Aliga bag‘ishlangan maqolat va hikoyat mazmunini yoritishda bevosita hadislarga tayanganligi borasida ayrim mulohazalar berildi.*

***Abstract****. This article analyzes Alisher Navoi’s artistic interpretation of Hazrat Ali in the epic “Lison ut-tair”. Some comments were made regarding the direct*

*reliance on hadiths in covering the content of article and stories dedicated to Hazrati Ali.*

***Kalit so‘zlar:*** *Maqolat, hikoyat, tahlil, talqin, obyekt, hadis*

Ali ibn Abu Tolib karramallohu vajhahu (taxminan 600-661-yillar) islomda „xulafo ar-roshidin“ (“to‘g‘ri yo‘ldan borgan xalifalar”), dindorlar o‘rtasida „choryorlar“ deb atalgan dastlabki to‘rt xalifadan to‘rtinchisi bo‘lib, Quraysh qabilasining hoshimiylar xonadonidan hisoblanadi. Muhammad alayhissalomning amakivachchasi va kuyovlari bo‘lgan hazrati Ali otasi – Abu Tolib ibn Abdulmuttalib, onasi – Fotima binti Asad ibn Hoshimlar oilasida tug‘ilgan. To‘qqiz yoshidan Muhammad sollallohu alayhi vasallamning tarbiyasida bo‘lgan. Laqabi – Haydar, islomda vujudga kelgan shialik harakati bevosita Ali ismi bilan bog‘liqdir.

Xalq og‘zaki ijodida, turkiy adabiyotlardagi afsona-yu rivoyatlarda Ali nomini ko‘p uchratish mumkin. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodida ham mazkur obrazning turli badiiy talqinlari mavjud. “Lison ut-tayr”, “Nazm ul-javohir”, “Me’zon ul-avzon” kabi asarlarida Ali roziyallohu anhu obrazi go‘zal usulda talqin etilgan. Mazkur siymosini yodga olar ekanmiz, Navoiy bolaligidan Qur’on va hadisdan ta'lim olish barobarida hazrat Alining hikmatlari bilan tanish ekanligini, u zotga alohida mehr qo‘yganligini e’tirof etish zarur. Alisher Navoiy turkiy tildagi adabiyotshunoslik masalalariga bag‘ishlangan “Mezon ul-avzon” asarida hazrat Alining devon tuzganligi va she’rlarini aruz vaznida yozganligi haqida ma’lumot berib o‘tadi. “Va Amir ul-mo‘minin Ali karramallohu vajhahuning ash’ori ko‘pdur, balki devoni bor. Va bu nazmlarning asli va zobitasi aruz buhur va avzonig‘a mavqufdir”

Murakkab irfoniy mavzuda yozilgan “Lison ut-tayr” dostonining madh qismida ham so‘nggi roshid xalifa yuksak she’riy mahorat bilan tasvirlangan. Dostonning o‘n birinchi bobida hazrat Ali borasida so‘z yuritiladi. Dostondan olingan quyidagi baytlarni tahlilga tortamiz:

Ahli din ichra amirul-mo‘minin,

Taqviy ahlig‘a imomul-muttaqin.

Chunonchi, hazrat Ali siymosini o‘rganar ekanmiz, sof islomiy manbalarga tayanamiz. Navoiy Ali roziyallohu anhuning fazilatlarini bayon etar ekan, dastlab din ahli orasidagi martabalarini ta'riflaydi. Baytda buyuk sahoba musulmonlar ichidagi eng afzal shaxs sifatida – taqvo ahlida taqvodor imom ekanliklari tavsiflanadi.

Ilm shahri anbiyog‘a intiho

Vasfida aytib Aliyun bobaho

Ushbu misralar esa Ali roziyallohu anhuning ilmlari qay darajada ekanini isbot etadi. Imom ibn Abdulbar keltirgan hadisda Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam:

“Men ilmning  hovlisiman, Ali uning eshigidir. Kim ilmni istasa, uning eshigidan kelsin”, deganlar. Ali ibn Abu Tolib musulmon ummati ichida Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamdan keyingi eng ilmli kishi edilar. Yechilishi qiyin bo‘lgan masalalarni o‘sha kishi yechar edilar. Bu o‘ta mashhur bo‘lganligidan keng tarqalgan masalga aylanib ketgan. Arablarda hozirgacha biror masala yechilmay qolsa, “Bu bir masalaki, uni yechgani Abul Xasan yo‘q”, degan ibora aytiladi. Abul Xasan hazrati Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhuning kunyalaridir”(Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2022,185-bet)

Duldulining po‘yasi andoqki barq,

Zulfiqoridin aduv qon ichra g‘arq.

Keyingi baytda Alisher Navoiy hazrat Alining jasoratini ko‘rsatish maqsadida “duldul”, “zulfiqor” obyektlaridan foydalangan. Duldul – diniy rivoyatlarga ko‘ra, Muhammad(s.a.v) mingan va keyinchalik hazrati Aliga tortiq etilgan uchar otning ismi yoki laqabi. Keltirilgan misralarda ham duldul otning uchqurligi yashinga o‘xshatilyapti. Zulfiqor esa islom tarixidagi eng mashhur qilich hisoblanadi. Buyuk hamyurtimiz Abu Iso at-Termiziyning “Shamoili Muhammadiya” asarlarida keltirilishicha, payg‘ambarimiz Rasuli Akram (s.a.v)ning yettita yoxud o‘n bitta qilichlari bo‘lgan. Har birining alohida nomi bo‘lib, eng mashhuri “Zulfiqor” bo‘lgan. Payg‘ambarimiz uni har doim o‘zlari bilan olib yurganlar, vafotlaridan keyin qilich Ali va uning avlodlariga o‘tgan. Qilichda arabcha “Lo fato ilo Ali, lo sayf illo Zulfiqor” bayti bitilgan bo‘lib, uning tarjimasi “Alidan boshqa qahramon, Zulfiqordan bo‘lak qilich yo‘q” degan ma’noni bildiradi. Navoiy aynan mazkur misralar orqali hazrat Alidagi shijoat va yengilmas jangovorlik mahoratini ochib bergan.(Iqbol Humoyun, 2019-yil)

Ittihodida nubuvvat sham’ining

Sozi bu kim sen meningsen, men sening.

Mazkur baytda Navoiy Payg‘ambarimiz (s.a.v) va Ali (r.a) o‘rtalaridagi ahd mavjudligiga ishora qiladi. Baro ibn Ozib roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam Ali ibn Abu Tolibga: “Sen mendansan va men sendanman”, dedilar. Payg‘ambarimizning bu gaplari bizdagi ba’zi kishilarning o‘zlariga eng yaqin bo‘lgan kishilarga “Ikkimiz bir odammiz”, deyishlariga o‘xshashdir. Nabiy alayhissalom boshqa hech kimga aytmagan bu gaplari u zotning huzurlarida hazrati Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhuning maqomlari qanchalik yuqori ekanini ko‘rsatadi.(Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2022, 180-bet). Keyingi bobda Hazrat Alining e'tiqod va ibodatda mustahkam ekani vasf etilgan hikoyatni keltiradi. Unga ko‘ra, g‘azot janglaridan birida Hazrat Aliga o‘q tegadi. O‘qning uchi uning suyagigacha botib, tortib olishning iloji bo‘lmaydi. Shunda sahobalar payg‘ambarimizdan bu ishning chorasini so‘raganlarida Rasuli

akram: “U namoz o‘qiyotgan paytda o‘qni tortib olish payida bo‘lingiz. U namozga shunday berilgan bo‘ladiki, o‘qni tortib olgsnlaringni bilmay qoladi”,–deydilar. Sahobalar aytilgandek qiladilar va Alloh kushoyish berib, bir lahzada jarohatdan na dard-u na o‘q uchi qoladi.(Sirojiddinov, Yusupova, Davlatov, 2020,198-bet)

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonidagi hazrati Ali siymosining madhi bevosita tarixiy voqealarga muvofiq tasvirlangan. Yuqoridagi misollarda esa Alisher Navoiyning so‘nggi roshid xalifaga ixlosmand bo‘lganligini va u zotning shaxsiyatlaridan nechog‘lik ta'sirlanganini ko‘rish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Alisher Navoiy. “Mezon ul-avzon”. Toshkent: Ma’rifat, 2019

2.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2022) *Hadis va hayot*. (180,185-bet). Toshkent: Hilol nashr.

3.Sirojiddinov,Sh.,Yusupova,D.,& Davlatov,O. (2020) *Navoiyshunoslik*. (198-bet). Toshkent: Akademnashr.

4.Iqbol Humoyun. (2019). *Islom tarixIsidagi eng mashhur qilich*. @Darakchi.uz.

5.Islom ensiklopediyasi. (2005). (26-bet). Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.

## KOMRON MIRZO HAYOTI VA ADABIY MEROSI

*Shaymardonova Shahribonu Odilqodir qizi*
*Toshkent davlat o‘zbek tili va adbiyoti universiteti*
*O‘zbek filologiysi fakulteti 207-guruh talabasi*
*Shaymardonovashahribonu@gmail.com*
*Ilmiy rahbar: fil.fan.dok. prof. Iqboloy Adizova*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Komron Mirzo hayoti va ijodi bo‘yicha olib borilgan izlanishlar va tadqiqotlar haqida so‘z boradi. Komron Mirzoning hayot yo‘li, faoliyati, tartib bergan devoni va asarlarining qo‘lyozma nusxalari xususida ma’lumotlar keltirilgan.Komronning shoir sifatidagi o’rni belgilab berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Komron Mirzo, Xudobaxsh, Humoyyunnoma, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy.*

***Abstract:*** *This article talks about the researchess and studies conducted on the life and work of Kamron Mirza. The article provides information about Kamron Mirzo's life path, activities, the book he ordered and his manuscripts.*

***Key words:*** *Kamron Mirza, Kxudobahsh, Humayunnama, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoi.*

Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy faoliyatini Hindistonda muvaffaqiyat bilan davom ettirib, forsiy va turkiy tillarda ijod etgan shoirlardan biri Boburning o'g'li Komron Mirzodir. Komron Mirzo g'azal, ruboiy, qit'a, fard va masnaviy janrlarida ijod qilib, o'z davri adabiy hayotida ko'zga tashlangan va shoir sifatida tan olingan. Uning hayoti va ijodi haqida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" va boshqa asarlarida, Gulbadanbegimning "Humoyunnoma"sida, Abul Fazl Allomiyning "Akbarnoma"si va boshqa manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Komron Mirzo hayoti va ijodini o'rganishda keyingi yillarda O'zbekistonda ancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, N.Nizomiddinov, N.Rahimov, R.Inomxo'jaev, J.Jo'raev, S.Do'stov, S. Hasanov va boshqalarning kitoblari va ilmiy maqolalari e'lon qilindi, devoni nashr ettirildi. O'zbekistonda yashab turgan afg'on olimasi Shafiqa Yorqin Komron Mirzo davri, hayoti, ijodi va badiiy mahoratiga doir nomzodlik dissertatsiyasi yoqladi.

Komron Mirzo 1509-yili Zahiriddin Muhammad Bobur oilasida dunyoga keldi. Uning onasi Gulruxbegim bo'lib, bekchik qabilasi amirining qizi bo'lgan.[80] Komron Mirzo yaxshi tarbiya ko'radi. Bobur Humoyunga yozgan xatida Komron Mirzoga e'tibor berishni , u bilan kelishib ish qilishni maslahat bergan. Garchi tengdosh bo'lsalar ham, Bobur Humoyunni o'z davlatining merosxo'ri hisoblab, Komronga Humoyunning maslahatidan chiqmaslikni buyurgan. Ammo, Zahiriddin Muhammad Bobur vafoti (1530) dan keyin ular o'rtasida kelishuv uzoq davom etmadi.Humoyun o'z amirlari bilan chiqisha olmaganidan, mamlakatda tarqoqlik yuz bera boshlaydi. Ayrim amirlar Komron tomon o'ta boshlaydilar. U Afg'onistonda o'z hokimiyatini mustahkamlay boshladi. Humoyun Eron podshosi Shoh Tahmosbdan yordam so'radi. Komron Mirzo ikki marta safaviylar qo'shinlariga zarba berdi. O'zini Shoh deb e'lon qildi. Humoyun 1546 yilda Erondan katta yordam olib, Komron Mirzoga qarshi qo'shin tortti. Ayrim Amirlar uning tomoniga o'tdilar. Urushda Komron yengildi, xiyonat tufayli asir tushdi va Humoyun Mirzoning farmoni bilan ko'ziga mil tortilib ko'r qilinadi. Komron

[80] 1Шафиқа Ёрқин. Комрон Мирзонинг ҳаѐти ва ижодий мероси ф.ф.н. диссертацияси автореферати, Тошкент1999, сах.7. яна: Гулбаданбегим. Сах.28

Mirzoning Humoyunga munosabati o‘ta salbiy bo‘lmagan, buni uning Humoyunga bag‘ishlab yozgan she’rlaridan bilish mumkin . U Humoyunni shoh sifatida tan olgan, unga bo‘ysunishni o‘ziga burch deb bilgan. Ammo, hamma zamonlarda bo‘lganidek, hokimiyat talashuv bu fojialarga sabab bo‘lgan. Komron Mirzo aftidan o‘z xatolarini tushunib, hokimiyatdan butunlay voz kechgan va Haj safarini ixtiyor qilgan. Komron Mirzo Hajni ado qilgandan so‘ng, o‘sha yerda qolishga qaror qilgan. 1556-yilda Arafot marosimidan so‘ng ahvoli yomonlashib vafot etgan. Jasadi Xadichai Kubro mazori yaqinida dafn etilgan. Komron Mirzo deyarlik otasi Zahiriddin Muhammad Bobur umricha umr ko‘rdi. U Hindistonda shakllangan turkiy tildagi adabiyotning so‘nggi namoyondalaridan edi. Komron Mirzo fors va turkiy tillarni mukammal bilgan, turkiy tildagi she’rlarida forscha bayon uslubi sezilib turadi. Uning forsiy va turkiy she’rlarni o‘z ichiga olgan devoni bizgacha yetib kelgan. Bu devonda Komron Mirzoning o‘zbek va fors tillarida yaratgan 1500 misra she’ri joy olgan. Devonning tarixiy ahamiyati yana shundaki, qo‘lyozmaning boshlanishi va oxirida ushbu nodir nusxaning boburiylar xonadoniga mansubligidan dalolat beruvchi, 20 dan ortiq Hindiston davlat arboblarining muhrlari bosilgan. Hozircha uning uch nusxasi ma’lum. Ulardan biri Hindistonning Patna shahridagi “Xudobaxsh” kutubxonasida, ikkinchisi Kalkutta Osiyo jamiyati qo‘lyozmalar fondida va uchinchisi Rampur shaharidagi Rizo kutubxonasida saqlanadi.[81] Devon nusxalari bir-biriga juda yaqin bo‘lib, ular Komron Mirzoning ijodiy faoliyatiga doir yetarli ma’lumotlar bera oladi.Taniqli o‘zbek olimi professor Saidbek Hasanov 1993-yili shu nusxalar asosida uning devonini Toshkentda nashr ettirdi. Devonidan namuna she’rlar to‘plamlar sahifalarida ham e’lon qilingan. Komron Mirzoning fors tilidagi she’rlarini 1929-yili Hind olimi Muhammad Mahfuzulhaq alohida kitob qilib nashr ettirgan. Devondagi har ikkala tilda aytilgan she’rlarning miqdori 171 ta bo‘lib, shulardan g‘azal 72 ta, ruboiy 37 ta, fard 44 ta, masnaviy 3 ta, qit’a 5 ta, tarkiband 1 ta, to‘rtlik 1 tadir. Komron Mirzo she’rlarining ko‘pchiligi tasavvufona ruhdagi she’rlardir. Ularda shoirning hayot, dunyo, inson, o‘lim haqidagi mulohazalari falsafiy mazmun bilan sug‘orilgan. Devondagi turkiy she’rlarning birinchisi, hamma shoirlarda bo‘lganidek, borliqning yaratuvchisi va mohiyati – Parvardigori olamning maqtoviga bag‘ishlangan hamddir. Shoir olamdagi har bir zarrada uning husni tajalliy etadi, namoyon bo‘ladi, jamoli olamga oro beruvchi oftobdir, -deydi.

Zihi har zarradin husning huvaydo,

Jamoling oftobi olamoro.

[81] Саидбек Ҳасанов. Комрон Мирзо. Девон.- Тошкент: Ёзувчи, 1993й.

Agar zohir, agar botinda sensen,

Ko‘zu ko‘nglum aro pinhonupaydo.

Agar yumsam ko‘z, ar har sorochsam, Sening husningni aylarmen tamosho.

Gahi oshiq, gahe ma’shuq etarsen,

Bo‘lub har suvrat ichra oshkoro.

Komron Mirzo ijodida, avvalo ustoz shoirlarning kuchli ta’siri sezilib turadi:

Eyki, Nizomiyg‘a beribsen nizom,

Manga ham ul rishtada ber intizom.

Xusravkim, Hindda chekti alam,

Mamlakatni ayla manga yakqalam.

Jomiyki, chekti o‘shal sofi jom,

Dardini ham manga tutqil mudom.

Sendin agar turkiyda bo‘lsa navo,

Tab’i tahiydin chiqarursen sado.

Komron Mirzo ijodda ko‘proq Amir Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Mavlono Haydar Xorazmiy, Zahiriddin Muhammad Boburga ergashgan. U o‘zidan ilgari o‘tgan buyuk ustozi merosidan bahrmand bo‘lib, ulardan ta’lim olgan va kuchli ta’sirlangan. Chunonchi, u turkiy tilda she’r yozishda Navoiy darajsiga yetishni istab:

Turkiyda Navoiyg‘a yetsam, ne ajab, G‘oziy,
She’rimga quloq solsa mahbubi suxandonim,

deb yozadi. Boshqa bir g‘azalida tazmin san’atidan foydalanib, Alisher Navoiyning mashhur g‘azalidagi matla’:

Ne bo‘ldi dardima, ey bevafo, davo qilsang,
Vafog‘a va’da qilib, vad’ag‘a vafo qilsang

baytinio‘zining she’rida ikkiga bo‘libkeltirgan:

Davo visoling erur ko‘ngluma, tarahhum etib,

“Ne bo‘ldi dardima, ey bevafo, davo qilsang”.

Visol mujdasini etkurub, karam aylab,

”Vafog‘a va’da qilib, va’dag‘a vafo qilsang”.

Navoiy baytida tazod (dard-davo, bevafo-vafo), tardu aks (vafog‘a va’da– va’dag‘a vafo) san’atlari vositasida go‘zal ma’no ifoda etilgan. Komronning qo‘shgan misralarida esa iyhom san’ati ishlatilib, dardning davosi visol ekanligi izohlangan.

Shuningdek, Komronning:

Sendan ayru har zamon ko‘nglum mening g‘amnokrok,

Ko‘kragim hajr ilgidin pirohanimdin chokrok.

Matla’li g‘azali ham Alisher Navoiyning Samarqandda aytilgan deb taxmin qilinadigan:

Ko‘kragimdur subhning pirohanidin chokrok,

Kiprigim shabnam to‘kulgan sabzadin namnokrok.

Matla’ini esga tushiradi.

Komron Mirzoning boshqa janrlarda aytilgan she’rlari ham ma’nodor va go‘zal badiiy san’atlar bilan bezalgan. Xususan, Komron Mirzoning g‘azal, ruboiy, fard, qit’a va masnaviylari Zahiriddin Muhammad Boburning shu janrlarda aytilgan she’rlariga juda yaqindir.

Jumladan, uning Boburni eslatuvchi quyidagiqit’asini ko‘raylik:

Tokim g‘ayr o‘ldi mahram harame,
Mani mahrumi ul haram qildi.
Mani, shoho, sipohi dardu g‘am,
Olam eli aro alam qildi**.**

Qit’ada mahrami, harame, mahrumi, haram kabi o‘zakdosh so‘zlarning har biri ma’noni ifodalash uchun xizmat qilgan va ishtiqoq san’atini hosil etgan, “olam” va “alam” so‘zlari tajnis san’ati namunasidir. Shaklan bir xil bu so‘zlarning biri olam, dunyo ma’nosini bildirsa, ikkinchisi alam, ya’ni bayroq ma’nosida kelgan. Shuningdek, dardu g‘am, alam so‘zlari ma’nodosh bo‘lib ta’dil san’ati yuzaga kelgan. Shohga murojaat - iltifot va alamni ikki (bayroq va alam qilish) ma’nosida ishlatishi iyhomni yuzaga keltirgan. Qit’aning mazmuni yangilik emas. Shoir, ey shoh, sening dargohingga begona kirib chiqadigan bo‘lgandan beri meni uyingdan begona qildi va bu bilan dardu g‘am lashkari meni olam eliga bayroq qilib ko‘rsatdi, demoqchi. Ammo ana shu mazmun bir necha tasviriy vosita va san’atlar orqali ifodalanganligi uchun go‘zal so‘z san’ati yuzaga kelgan.

Komron Mirzoning bir masnaviysini ko‘raylik:

Ey, o‘zini joh ila mast aylagan,

Himmatin ul poyada past aylagan.

Himmat emas ulki, jahon olg‘asen,

Himmat erur buki, borin solg‘asen.

Komronning ta’rif berishicha bu masnaviyni u akasi bilan xafalashib yurganda bu satrlarni unga qarata yozadi. Ammo ba’zi paytlarda u satrlardagi kinoyani o‘ziga oladi. Bu she’rga ta’rif berayotganda u otasi Zahiriddin Muhammad Boburni bir necha masnaviylarini o‘ziga qarata yozganini aytib o‘tadi. Bu masnaviyda u men avvalgi da’volarimdan voz kechib, o‘zligimdan forig‘ bo‘ldim. Himmat - barini olishda emas, baridan voz kechishda ekanini endi astoydil his etdim deydi.

Komron Mirzoning yana bir baytini keltirsam.

Lolaning jismida qonlig‘ kafanin ko‘rganda,

Kafan-u jismi figorimni mening yod aylang.

Bizga ma’lumki Humoyun Mirzoning farmoni bilan Komron Mirzo ko‘zlariga mil torttirilgan. Bu baytda u ko‘ziga mil tortganlarida borliq dunyo uning xayolida qonli kafan tusini olganini, bu hodisa yodidan hech chiqmasligini aytadi.

Uning devonida yana bir bayt diqqatni tortadi.

O‘lmayin vahki o‘luvdan battar ahvolim bor,

Tutib ilkimni vasl sori rohbar bo‘l.

bu baytni Komron Mirzo o‘z rafiqasi Chuchuk begimga atab bitgan. Komron Mirzo she’riyatining markazida inson sevgisi, hayot go‘zalligi, hayotga bo‘lgan muhabbat, zamonaning bevafoligi, alam-sitamlar, zamondan nolish va yaxshi fazilatlarni ulug‘laydi. Shoir vafo va sadoqatni ulug‘laydi, jannat halovatlaridan sevgi yo‘lidagi hissiyot va tuyg‘ularini afzal ko‘radi:

Jannat ul-ma’voda tubiy jilvasin qilmas havas,
Kimki, kurdi kuying ichra qaddi raftoring saning.

Komron Mirzo she‘riyati XVI asrda Hindistonda va Afg‘onistonda bo‘lib o‘tgan voqealarning badiiy aksi, shoir qalbining kechinmalari ifodasi, so‘z san’atining o‘ziga xos namunalari sifatida o‘rganishga loyiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Саидбек Ҳасанов. Комрон Мирзо. Девон.- Тошкент: Ёзувчи, 1993й.

2.Асрлар нидоси, -Тошкент:1982, 42-83 саҳифалар.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур (Илмий мақолалар тўплами). Тошкент: Ёзувчи, 1994.
4. Ўзбек адабиѐти тарихи. 5 томлик. 3 том.- Тошкент. Фан, 7-44 бетлар.
5. Hasanxo‘jaNisoriy. Muzakkiri ahbob.Toshkent.:A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti, 1993.
6. Faxriy Hiraviy. Ravzat us-salotin javohir ul-ajoyib.- Toshkent. Mumtoz so‘z, 2014.
7. Iqboloy, A. (2023). BOBUR IJODIDA KICHIK MASNAVIY JANRI. Rol naslediya Zahiriddina Muxammad Babura v razvitii vostochnoy gosudarstvennosti i kultury.

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODINING ANGLIYADA O‘RGANILISHI

*Suyunboyeva Mohichehra To‘lqin qizi*
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 4-kurs*
mohichehrasuyunboyeva47@gmail.com *+998887108745*

**Annotatsiya.** *Maqolada dunyo olimlari katta hurmat va qiziqish bildirgan davlat arbobi, mohir sarkarda, adolatli podshoh, “Boburiylar” sulolasi asoschisi, taniqli adib va iste’dodli shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodining Angliyada o‘rganilishi, mashhur “Boburnoma” asarining ingliz tiliga tarjima variantlari tadqiq etilgan. Ingliz bobur shunos olimlaridan Anetta Suzanna Beverij, Uilyam Erskin, Jon Leyden va Viler Tekstonlarning Bobur shaxsiga nisbatan bildirilgan fikr-mulohazalari tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *“Boburnoma”, tarjimalar, Jon Leyden, Uilyam Erskin, Anetta Beverij, Viler Tekston, Haydarobod va Kerr nusxalari, uchinchi tarjima.*

**Annotation.** *This article talks about the life and work of Zehiriddin Muhammed Babur, a statesmen, a skilled general, a just king, the founder of “Baburi” dynasty, a famous writer and a talented poet, who showed great respect and interest among world scientists, is studied in England, as well as English translation versions of the famous “Boburnoma” researched. Annetta Susan Beveridge, William Erskine, John Leyden and Wheeler Texton, among the English Babur scholars, analyzed the opinions of Babur as a person.*

**Key words:** *“Baburnama”, translations, John Leyden, William Erskine Annetta Susan Beveridge, Wheeler Texton, Hyderabad and Kerr copies, third translation.*

Mashhur temuriy sarkarda, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati haqida milliy va jahon miqyosida ko‘plab izlanish, tadqiqotlar olib

borilgan va haligacha bu jarayon jadal sur’atlarda davom etib kelmoqda. Ammo B.Valixo‘jayev haqli ta’kidlaganidek: “ … bu qutlug‘ ishni Boburning o‘zi “Boburnoma”da boshlab bergan edi. Shundan so‘ng Movaraunnahr, Afg‘oniston va Hindistonda yozilgan tazkira va tarixiy asarlarda Bobur haqida ma’lumot berish kuzatiladi”. Haqiqatan, Bobur hayoti va ijodi haqida ma’lumot beruvchi eng ishonchli va nodir manba uning “Boburnoma” asaridir. Shuningdek, Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”, Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asalarlarida ham u haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bobur ijodi, asarlarini dunyoning ko‘plab xalqlari, jumladan, inglizlar ikki yuz yildan beri o‘rganib keladilar. Bobur Mirzoning nomini jahon miqyosida mashhur qilgan ham boshqa biror xalq emas, boburiylar saltanatiga xotima bergan inglizlarning o‘zlari bo‘ldi, albatta ( Sobirov, 2002, 15-bet). Maxamatismiol Sobirov o‘z dissertatsiyasida inglizlarning “Boburnoma”ni uzoq yillar davomida qunt bilan o‘rganib, yuksak badiiy did va katta muhabbat bilan o‘z tillariga o‘girganlari va uchta tarjima variantlari ( Jon leyden-U.Erskin, A.S.Beverij va Viler Tekston) ni sanab, avvalgi ikki tarjimani uchinchi-1996-yil Viler Tekston tomonidan qilingan tarjima bilan solishtirgan holda tahlil qiladi. Chunonchi, Jon Leyden 1804-1805 yillarda “Boburnoma” qo‘lyozmalarini bevosita turkiy asliyatdan o‘rganishga kirishdi. Jon Leyden boshlagan bu ishni uning vafotidan so‘ng u bilan bir vaqtda bu asarni forscha tarjimasidan o‘girishga kirishgan Uilyam Erskin poyoniga yetkazdi va 1826- yilda chop ettirdi. Bu tarjima oradan salkam bir asr o‘tgach 1921-yili Dublin universiteti arab, fors tillari va Hindiston tarixi bo‘yicha professor janob Lyukas King tomonidan tahlil va talqin qilinib, “ Memoirs of Zehir-ed-din Muhammed Babur” (Zahiriddin Muhammad Bobur esdaliklari) nomi bilan yana nashr ettirildi. “Boburnoma”ni ilk bor 1871-yili fransuzchaga tarjima qilgan Pave De Kurteyl Jon Leydenning ingliz sharqshunosligida tutgan o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tgan. Uning yozishicha, Jon Leyden sharqshunos mutaxassisgina bo‘libgina qolmay, o‘z davrining mashhur hakimi va shoiri ham edi. Jon Leydenning rafiqasi Izabella Skott esa Buyuk Britaniyaning taniqli a’yonlaridan biri, mashhur yozuvchi Valter Skottning singlisidir. Jon Leyden “Boburnoma”dan qilgan nasriy va nazmiy parcha tarjimalarini adib Valter Skottga taqdim etganida u hayratda qoladi. Asardagi tarix, geografiya, ma’danshunoslikka oid ma’lumotlarni maxsus fanlar bilan shug‘ullanuvchi olimlar hukmiga havola qiladi, o‘zi esa Boburning ijodiy faoliyatiga qiziqib, uning she’riyatiga juda yuqori baho beradi. Valter Skott “Boburnoma” tarjimasini yaratishda Jon Leydenga ham moddiy, ham ma’naviy ko‘mak berganligi ma’lum ( King, 1921, 445-447-bet ). Jon Leyden bevaqt vafot etgach, ushbu tarjimani 1816-yilda U.Erskin oxiriga yetkazgan. U.Erskin o‘z asarining dastlabki nomini “Temuriylar sulolasidan bo‘lmish Bobur shoh va

Humoyun davridagi Hindiston tarixi" deb atagan va 1821-yilda nashr ettirgan. Muallif o‘z ilmiy xulosalarini asoslashda "Tabaqoti Akbariy", "Tarixi Rashidiy", "Xulosat-ul Akbar", "Xulosatu-t-tavorix", "Shajarotu-l-atrok" kabi ko‘plab ilmiy-tarixiy qo‘lyozmalardan keng foydalangan.

Jon Leyden va Uilyam Erskindan qariyb bir asr o‘tib boburshunos Anetta Suzanna Beverij xonim 1899-1921-yillar davomida "Boburnoma" ustida izlanish olib borgan. O‘zining butun ijodiy faoliyatini, umrini "Boburnoma"ni tadqiq etishga bag‘ishlagan fidoyi olima 23 yillik og‘ir, mashaqqatli mehnati samarasini, ota-onasiga yoki umr yo‘ldoshi Henri Beverijga ham emas, balki Boburning o‘ziga, uning sharafiga bag‘ishlab, tarjima sarvarag‘iga "This work is dedicate to Babur's fame"- "Bu asar Boburning shon-shavkatiga baxshida etiladi" degan hayajonli so‘zlarni bitadi (Sobirov, 2002, 7-bet). Bu satrlar Zahiriddin Muhammad Boburning nozik didi, o‘zgacha uslubi, betakror qalbi tarjimonni ham asir qilganiga dalil. Beverij xonim izlanishlari boshqalardan farqli o ‘laroq uzoq muddatli va ilmiy asoslangan deyish mumkin.Sababi bu jarayonda u asarning o‘zigacha ma'lum bo‘lgan nusxalaridan iborat alohida jadval ham tuzib chiqadi:

1) Edinburg (Shotlandiya) Milliy Kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozma (Adv.18.3.18);

2) Britaniya muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozma (Add.№ 26324);

3) Hindiston jamiyati Indian Office qo‘lyozmasi (№ 178);

4) Bengal Osiyo Jamiyati (Asiatic Society of Bengal) qo‘lyozmasi (№ 121);

5) Manchesterdagi Lindeniana kutubxonasi nusxasi;

6) Haydarobod nusxasi;

7) Sank-Peterburg Davlat universiteti kutubxonasi qo‘lyozmasi (№ 0.683);

8) Sank-Peterburg Tashqi ishlar kollegiyasidagi (hozirgi Rossiya FA Sharqshunoslik instituti, Sank-Peterburg bo‘limi) qo‘lyozmasi (№ 685);

9) Sank-Peterburg Osiyo muzeyidagi qo‘lyozma (№ 590);

10) Senkovskiy qo‘lyozmasi (hozirgi Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sank-Peterburg bo‘limidagi) qo‘lyozma (№ 117)

Anetta Beverij mavjud qo‘lyozmalarni qayta o‘rganish jarayonida, "Boburnoma"ning asl nusxasiga eng yaqin matnni aniqlash uchun eng muhim ahamiyatga ega, degan xulosaga keladi. Bular: Elfinston, Haydarobod va Georg Yakob Kerr nusxalaridir. Yapon olimi, professor Eiji Mano "tanqidiy matn"ni

yaratishda Elfinston va Haydarobod nusxalaridan asosiy tayanch manba sifatida foydalanganligi sababi ham shunda ( Olimjonov, 2022, 113-bet).

Uchinchi inglizcha tarjima 1996-yilda Garvard universitetining professori tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, mutaxassislar tomonidan avvalgi ikki tarjimaga nisbatan yutuqlari mavjudligi, hajm jihatidan ixchamlikka erishilganini e’tirof etishadi. Ta’kidlanishicha, Jon Leyden va Erskin tarjimasida badiiy sharhlarning kengayib ketgan bo‘lsa, Anetta Beverij tarjimasida esa ilmiylik yaqqol ko‘zga tashlanib, uning natijasida mutolaada biroz zerikish paydo bo‘lgan va uslubning jozibasiga putur yetgandek tuyulgan. Tekston tarjimasida oldingi variantlarni o‘rganish natijasida ham nisbatan kamchiliklar kam bo‘lishi tabiiy, albatta. Uning asardagi she’riy parchalar tarjimasida so‘zni so‘z bilan emas, ma’noni ma’no bilan o‘girishga ahamiyat berganligi seziladi. Tekston Bobur ijodini o‘rganar ekan qalban hayrat va hurmat hissini tuyib, uning jang-u jadallar, hayotiy sinovlar qurshovida bo‘lib yaratgan ilmiy, badiiy, she’riy asarlar yozishiga tahsin aytib, bunday insonlar kishilik tarixida kamdan kam uchrashini qayd etadi.

Umuman olganda, uchchala tarjima ham o‘z davri uchun mukammal va ahamiyatlidir. “Boburnoma” asari g‘arb xalqlari uchun eng avval sharq haqida ma’lumot beruvchi manba bo‘lib, uni kitobxonlarga yetkishizdek muhim va mashaqqatli ishni zimmasiga olgan mutarjimlarning dunyo adabiyoti, xorij bobur shunosligiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Sobirov, M. (2002). *“Boburnoma”ning inglizcha tarjimalarida muallif uslubi va badiiyatini qayta tiklash muammolari.* (7-15-bet). Filol.fan.nom.diss. Toshkent.

2. Biography of John Leyden’s *“Memoirs of Zahired-din Muhammed Babur*” annotated and resived by sir Lucas King. In two volumes, volume II. Humphrey Milford Oxford University Press, 1921.P.445-447.

3. Olimjonov, D. (2022). *“Boburnoma” asarining ingliz tarjimoni.* (112-113-bet). Maqola.

4. Erskin, U. (2005). *Bobur Hindistonda*. Toshkent.

5. www.ziyouz.com

## BAYRAMXON VA BOBURIYLAR MUNOSABATI

*Tolibjonova Maftuna Tohirjon qizi*
*Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti*
*Magistratura bosqichi talabasi 2-kurs*

+998998277792

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada, Bobur va uning avlodlarining Muhammad Bayramxonga bo‘lgan munosabati haqida so‘z boradi. Bayramxon badiiy ijod bilan bir qatorda siyosatda ham o‘z o‘rniga ega. Boburning avlodlariga ko‘p yillar otaliq, ustoz va maslahatchi lavozimlarida faoliyat yurgizgan. O‘zining jonkuyarligi va fidokorligi bilan tarixda munosib o‘rniga ega. Tarixiy manbalar yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Boburiylar, Bayramxon, avlod, munosabat, tarixiy manba, siyosat, toju-taxt.*

***Annotation:*** *This article talks about the attitude of Babur and his descendants towards Muhammad Bayram Khan. Bayramkhan has a place in politics as well as artistic creation. Babur's descendants have been fathered for many years. worked as a teacher and consultant. He has a worthy place in history with his enthusiasm and selflessness. Historical sources confirm the above points.*

***Key words:*** *Baburis, Bayram Khan, generation, relationship, historical source, politics, throne.*

Hindiston adabiyoti ko‘plab adabiyotshunoslarning diqqatini har davrda tortib keladi. Ijodkorlarining o‘ziga xos mahorati, asarlaridagi poetik yangilanishlartatqiqotchilarning qiziqishni yanada orttiradi. Shunday davr adabiyotidan biri Hindistonda Boburiylar davri adabiy muhitidir. Bu davr adabiy muhitida Muhammad Bayramxon muhim o‘rin tutadi. Bayramxon boburiylar safiga oddiy askarlik davridan boshlab faoliyat yuritgani haqida tarixiy ma’lumotlar mavjud. Bayramxon 16 yoshidan boshlab Boburning o‘g‘li Humoyun xizmatiga kirgan. Shundan so‘ng umrini saroy hayoti bilan bog‘lagan. Bayramxon dastlab o‘zining sadoqati, aqli, zehnining o‘tkirligi, tadbirliligi bilan tanilgan. Shoirligi bilan esa Boburning alohida mehrini qozongan. Bobur uning ijodi bilan tanishib chiqqan. She’rxonlik kechalarida faol qatnashishiga ruxsat bergan. O‘zining tutishi, siyosiy hayotdagi mustaqilligi Boburni tamomila e’tiboriga tushadi. Shu boisdan o‘g‘li Humoyun bilan yaqin bo‘lib ketishlariga sababchi bo‘lgan. Saroyda Bayramxonning badiiy ijod bilan shug‘ullanishi uchun alohida muhit yaratilgan. Tadbirlari qo‘llab-quvvatlangan. Mohirona jangchiligi tufayli ko‘plab janglarda g‘alaba qozongan. Bunday noyob qobiliyat egasi har doim ham tug‘ilavermasligiga ishonch hosil qilgan Bobur uni o‘z safiga oladi. Bu esa Bayramxonning saltanatdagi nufuzini tezroq oshib, muhim lavozimlarga saylanishida ko‘prik bo‘ladi. Zahiriddin Muhammad Bobur vafoti (1530) dan keyin taxtga chiqqan Humoyun Bayramxonni o‘ziga eng yaqin maslahatchi qilib oladi hamda Bayramxon Humoyunning vafotiga qadar doimo u bilan birga bo‘ladi. Boburiylarning Hindiston va Afg‘onistonda yirik markazlashgan davlatining qaror topishida

uning xizmatlari katta, deb hisoblashadi. Muhammad Bayramxon Humoyun bilan uning ukalari Komron Mirzo, Mirzo Askariy, Hindol Mirzolar orasidagi janjallarni bartaraf qilish, ularni yarashtirish va shu orqali markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun ham ko‘p kuch sarflaydi.

Humoyun Bayramxonga Xoni xonon unvonini berib, o‘z o‘g‘li Akbarning otalig‘i qilib tayinlaydi. Akbar tarbiyasi butunlay Bayramxonning nazorati ostida amalga oshiriladi. Bayramxon Humoyunning jiyani va Boburning nevarasi Salima Sultonbegimga uylanadi. Salima Sultonbegim shoira bo‘lib, “Maxfiy” taxallusi bilan she‘rlar ham yozgan, go‘zalligi uchun uni Zebunniso deb ataganlar. 1556-yilda Bayramxonning o‘g‘li Abdurahim dunyoga keladi. Abdurahim ham otasi vafotidan so‘ng Akbar (1556-1605) podshohligi davrida Xoni xonon unvonini olgan. U arab, fors, urdu, sanskrit tillarini ham mukammal bilgan. O‘z davrining iste‘dodli shoiri, olimi sifatida tanilgan, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sini fors tiliga tarjima qilib, uning jahoniy shuhrat kasb etishiga o‘z hissasini qo‘shgan. Humoyun 1556- yilda vafot etgandan keyin taxtga 14 yashar Akbar o‘tiradi. U yosh bo‘lganligi sababli mamlakatni boshqarish Bayramxon ixtiyorida edi. Biroq, 1560-yilda saroyda Bayramxonga nisbatan uyushtirilgan fitna sababli Akbar bu otaliqni hokimiyatdan chetlatib, podsholikni o‘z qo‘liga oladi. Bundan norozi bo‘lgan Bayramxon o‘ziga tegishli odamlari bilan Akbarga qarshi chiqadi. Lekin Akbar qo‘shinlari tomonidan engilib, Tilvar qal‘asiga qamaladi. U kechirim so‘rab, qal‘adan Akbarga maktub yo‘llaydi. Akbar uni kechiradi va saroyda qabul qilib, unvonlarini qayta tiklaydi. Dushmanlar fitnasi kuchayib borayotganligi sababli Bayramxon saroyda qolishni istamaydi. 1560-yil 31-dekabrda Bayramxon Gujarotda o‘ldiriladi. U dastlab GujarotningPatna degan joyida ko‘miladi, 1578-yilda qabri Mashhadga olib kelinadi. Bayramxonning o‘g‘li Abdurahim Akbar tarbiyasiga olinadi.

**(**Adabiy muhit va poetika muammolari. O‘quv qo‘llanma. –Samarqand: SamDU nashriyoti. – 2021 y. – 180 bet).

Muhammad Bayramxon nafaqat siyosiy faoliyati bilan balki, shoir tabiatlilik jihati bilan ham Boburning e’tiboriga tushgan. Bayramxon va boburiylar munosabati haqida so‘z borar ekan, tarixiy manbalar buni asosli baholaydi. Adabiyotshunos va tatqiqotchi I. G‘.Nizomiddinovning “Madaniy hamkorligimiz sahifalaridan” deb nomlangan monagrafiyasida quyidagicha ma’lumotlar berilgan:

”Bayramxon ham avval Humoyun va so‘ng Akbar davrida eng oliy mansablar-bosh qo‘mondon “Vakalussaltona” (bosh ministirlik) lavozimlarini egallagan. Ammo akbar saroyidagi Maham ona boshliq oppozision guruhlar Bayramxonning tobora o‘sib borayotgan obro‘ va ta’siridan cho‘chib Akbarni unga qarshi qo‘yadilar. Natijada Bayramxon barcha lavozim va amallardan chetlatiladi, xo‘rlangan va

yakkalangan shoir o‘z otasining hunini istab yurgan bir qasoskor tomonidan o‘ldiriladi”(1.21-bet).

Yuqoridagi manba ma’lumotlardan sezilib turibdiki, Bayramxon boburiylar siyosiy hayotida muhim vazifalar yuklatilgan shaxs bo‘lgan. Shuning uchun ham Bayramxon haqidagi faktlar bugungi kungacha yetib kelgan. Hukmdor saroyiga yaqin kishilarning xavfsizligi muhim o‘rin tutgan. Ammo moziyga boqadigan bo‘lsak, ko‘plab hukmdor va saroyga yaqin yurgan kishilarning hayoti doimo xavf ostida bo‘lgan. Bu muhit Bayramxonni ham chetlab o‘tmagan. Tatqiqotchi ishida bu vaziyatni shu tarzda baholaydi:

“Bayramxon zamonasining yirik sarkardasi va davlat arbobi edi, u barcha aql-zakovati bilan o‘z sinfi manfaati yo‘lida ko‘r-ko‘rona xizmat qildi. Bayramxon u yashagan davr nihoyatda ashaddiy, mavjud tuzum din erkinligi va ijtimoiy erkka chorlovchi har qanday da’vatni yo‘rgakdayoq bo‘g‘ib tashlashga tayyor ekanligini juda kech bildi. Hindistonni qayta zabt etish kurashidan birmuncha avval Bayramxon Qandahor o‘lkasining hokimi bo‘lib turgan edi; shu kezlarda u yozgan edi:

*Na din g‘amidin dami parishondurmen,*
*Na kufur hujumidin harosondurmen*
*Butxona va masjid menga yakson ko‘rinur,*
*Go‘yoki na kofir va na musulmondurmen.*

Bayramxon yuqoridagi ruboiysi orqali birinchi navbatda yashagan muhitiga ishora qilyapti. Yuqoridagi ma’lumotlardan Bayramxonning turkmanlardan kelib chiqqani haqida ma’lumot keltirildi. Shundan kelib chiqilsa, Bayramxonda bunday kayfiyatning paydo bo‘lishi tabiiy. Chunki, saltanat ag‘darilib o‘rniga boshqa yangi tuzumning o‘rnatilishida aholida ikkitomonlama qarashning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. O‘z-o‘zidan diniy g‘alayonlar avj olgan. Bayramxon esa o‘sha muhitning jonli qurbonidir. Lekin Bayramxonning bu ruboiysi “Yulduzli tunlar” asarida quyidagicha yoritib berilgan:

“Humoyun otasi Boburdan ibrat olib din peshvolariga yo‘l bermaydi. Ulardan yuqoriroq turish uchun “Qonuni Humoyuniy” degan yangi nizom ham o‘ylab chiqardi. Tarixchi Xondamir yozib chiqqan bu qonunga binoan Humoyunning qo‘l ostidagi odamlar tabiiy mavjudoddagi osmon, yer va ularning oralig‘I timsolida uch qismga bo‘lib chiqildi. Birinchi toifa-ahli davlat, unga podsho, vazir, bek va a’yonlar kiradi. Ikkinchi toifa-ahli saodat, ya’ni din peshvolari, ulamolar, shoirlar, olimlar. Uchinchi toifa-ahli murod, ya’ni aslzoda ayollar, sozandalar, xonandalar, musavvirlar va boshqa san’atkorlardir. Shayxulislom Said Halil ikkinchi o‘ringa tushib qolganidan norozi”

Yuqoridagi parchadan shuni bilishimiz muhimki, Bayramxon bu yerda aybsiz aybdor edi. Bayramxon bu yerda Xondamirning fikrlarini qo‘llab-quvvatlagani uchun ular o‘rtasida nizo kelib chiqadi. Bu nizo Bayramxonga qimmatga tushadi. Said Halil Bayramxon bilan bir safda bo‘lishni xohlamaydi. Ruboiydagi ma’no-mazmun orqali Bayramxonni hindlarning dahriy shoiri Kabir singari kufr yo‘liga kirgani haqidagi ayblovlar qo‘yiladi. Bayramxonning saroydagi va hukmdor oldidagi obro‘sini Humoyun qo‘llab-quvvatlagan holda bu she’riy parcha majoziy ma’noda yozilganini aytib, shunday tadbir ko‘radi: “-Taqsir, Bayramxon Allohga sajda qiluvchi chin musulmon, faqat Bayramxon bu ruboiyni majoziy ma’noda bitmishdir,-dedi.-bunday kayfiyatlar ulug‘ shoirlarda ham bo‘lgan. Jannatmakon otamning xuddi shu mazmundagi ruboiysi bor. Balki o‘qigandirsiz? Humoyun davlatida Bobur xotirasi muqaddas hisoblanar, bunga shayxulislom ham shak keltirmas edi. Humoyun otasining Bayramxonnikiga o‘xshagan ruboiylarini o‘qib bergach, Said Halil sal hovuridan tushdi”. (2. 16-bet). Lekin, manbalarda Said Halil baribir Bayramxonga qarshiligicha qoladi va bu munosabat keyinchalik, dushmanlikka aylanadi.

I. G‘.Nizomiddinovning monagrafiyasida quyidagicha mulohaza yuritgan:

“Diniy taassub va e’tiqod asosida xalqlarni ajratish, kamsitilishlikka qaratilgan bu achchiq va ochiq aytilgan satrlar qog‘ozga tushgan vaqtda Bayramxon hukmron doiralar uchun kerakli shaxs edi, uning harbiy salohiyati reja va zakovati azim Hindistonni qayta tasarruf etish yo‘lida suv va havodek zarur edi. Endi esa Hindiston yana egallagan; bir din, bir mazhabni qurol qilmoq va shu qurol yordamida aholini qattiq qo‘lda tutib turmoq kerak. Dinga loqayd qaragan, shi’a va sunniy mazhablarining “farqiga bormagan” Bayramxon ortiqcha kishi bo‘lib qoladi. Bu xildagi xo‘rlanishlar Bayramxon ruhiyatida salbiy ta’sir etadi, uning ijodida chuqur iz qoldiradi:

*Avval meni hidmatingga mahram qilding,*
*Bazming aro hamzabonu hamdam qilding,*
*Oxirina iltifotni kam qilding,*
*Rasvoi tamom ahli olam qilding.*

Bayramxonning bu to‘rtligi “Avlodlar dovoni” asarida hukmdorga yuborgan maktub so‘nggida keltiriladi. Ruboiy mazmunidan kelib chiqadigan bo‘lsak, hukmdorning qarori Bayraxonga salbiy ta’sir etgani, oilasi bilan ko‘chini yig‘ishga sabab bo‘ladi. U bunday munosabatni kutmagan va og‘ir anduhlar bilab qarshilagan. Bu borada adabiyotshunos olimning xulosalarini keltirishni joiz deb topdik.

“Bayramxon kelajak avlodlar nazdida ijodiy merosi va satriy durdonalarida ilgari surgan ilg‘or fikr va andishalari bilan qadr topdi: bu borada birhaqiqatni qayd qilib o‘tmoq joiz. Mo‘g‘ullar hujumi va ular hukmronligi davridagi g‘orat va

vayronagarchiliklar, umum ochlik va qashshoqlik ta’siri ostida Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotida uzoq davr tasavvuf (so‘fuzim) oqimi hukmronlik qilgan. Ulug‘ Navoiy va Boburiylar ijodiga ergashgan Bayramxon so‘fiyona pessimistik e’tiqoddan voz kechib, o‘z lirik satrlarida tabiat go‘zalligi, hayot lazzatlari, yor vaslini madh va tarannum etdi”.

Tatqiqot ishimiz yakunlab borar ekan. Muhammad Bayramxonning Boburiy hukmdorlar o‘rtasidagi munosabatini yuqoridagi parchalar orqali ochib berishga harakat qildik. Umuman olganda, Bayramxon va hukmdorlar o‘rtasida ancha yillar iliq munosabat hukm surgan. Ammo o‘z davrining chirkin amaldorlari buni sovuqlashishiga sabab bo‘lgan. Bayramxon har bir hukmdorga o‘z sadoqati, mehri bilan xizmat qilgan. Mamlakatda e’zoz topgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sulaymonov.I.(2021) Adabiy muhit va foetika muammolari. (180-bet). O‘quv qo‘llanma.Samarqand.
2. Qodirov. P.Humoyun va Akbar.(2018). “Sharq”nashriyoti (672-bet) Toshkent.

## O‘ZBEK SHOIRI TURDI HAQIDA MULOHAZALAR

*Toshmamatov Qahramon Mahmadoliyevich*
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs*
*toshmamatovqahramon@gmail.com +998902444199*
*Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori, professor Dilnavoz Yusupova*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola, avvalo, Abdurauf Fitratning “O‘zbek shoiri Turdi” maqolasidagi qarashlariga bag‘ishlangan. Maqolada Turdi Farog‘iy ijodiyotini ilk topgan o‘zbek shoiri, dramaturg, adabiyotshunos, jurnalist, pedagog Abdulhamid Majidiyning tadqiqlari va fikrlariga javoban yozilganligi sababli A.Majidiy maqolasiga ham yuzlanilgan. Uning maqolasi bilan ham tanishilib, Turdi haqidagi fikrlari umumlashtirilgan holda berilgan. Qolaversa, Turdi Farog‘iy asarlarini A. Majidiyning fikrlariga, Turdining o‘z she’rlaridan olib, uning davrga, xonga bo‘lgan munosabati va avtobiografiyasiga, xarakteriga hamda Turdi she’riyatining ba’zi saktaliklariga oid Abdurauf Fitratning qarashlari o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar.*** *Abdulhamid Majidiy, “O‘zbek shoiri Turdi” maqolasi, Fitrat, Subhonqulixon, “Bu mulk” g‘azali, yuz, abjad usuli, sarvat, ilmi qofiya.*

Milliy uyg‘onish davrida hali ilmiy tadqiqotchilik bugungi kundagidek shakllanmagan bo‘lsa ham, bir qancha samarali ishlar qilindi. Ayniqsa, Abdurauf Fitrat tomonidan ham tilshunoslikka, ham adabiyotshunoslikka doir bir qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Tilshunosligimiz gramatikasini qoidalashtirishga doir dastlabki tadqiqlar, adabiyotshunoslikka oid mumtoz adiblar va ularning asarlari

qo‘lyozmalarini o‘rganish, ommaga ma’lum bo‘lmagan ijodkorlarni va ularning hayotiga doir tadqiqot natijalarini e’lon qilish masalalari o‘rtaga qo‘yilib, bu yo‘lda bir muncha harakatlar qilindi[82]. Chunki shu yo‘llar bilan millatni uyg‘otish va uyg‘ongan millat bilan esa mustabid tuzum zulmidan xalos bo‘lish mumkinligini ular juda yaxshi bilishardi.

XX asrning 20-yillarida o‘zbek shoiri, dramaturg, adabiyotshunos, jurnalist, pedagog Abdulhamid Majidiy Turdi Farog‘iyning asarlarini topib, ***“Zarafshon”*** gazetasining 1925-yil 217-219-sonlarida e’lon qiladi. Va shu yili ***“Maorif va o‘qutg‘uchi”*** *jurnalida* ***“O‘zbek shoiri Turdi”***[83] *maqolasi va she’rlaridan na’munalar e’lon qildi. Shoir asarlari yuksak ijtimoiy g‘oyalar talqiniga bag‘ishlangani e’tirof etilib, yuqori baholandi”*[84]*:*

“*Turdi degan shoir zamonasining kuchli, chin haqiqat sevguchi shoiri bo‘lsa ham, turli qattiq sabablar orqali ul o‘zining eliga tanailmag‘an...*

*“Turdi” hayotdan bezgan kishi, ul hayotni tor ramka ichra bo‘g‘uq, “xayamol” tilchi-yu-so‘zchi va qulluqchilar bek!..Qaro davrning kishisi bo‘la turib, qorong‘uni yorib, yirtib chiqishg‘a intilishi uning “turmush o‘zgarishchisi” ekanini ko‘rsatadir…”.*

Bundan tashqari, Majidiy fikriga ko‘ra:

- Turdi o‘zbek adabiyotiga “*hayotnavisliq tak-kursisini solg‘on”*;
- Sharq shoirlarining asosiy ma’ruzasi bo‘lgan tasavvuf unda uchramaydi;
- Turdi turmush rassomi: “*o‘zbekning avom tilida el tirikchiligidan yozg‘uvchi “hidoyatnavis” adib, keng tushunchali , botir yurakli jiqqa avom shoiri”*
- Turdi birlik tarafdori. Haqsizliklar, zulmdan qutulishni faqat birlikda deb o‘ylaydi va bunga chaqiradi;
- Turdi sodda, xalqona, xalqqa tushunarli tildan foydalangan, ba’zan arabiy, forsiy so‘zlardan foydalansa ham “*she’rning soddaligiga saktalik keltirmaydur*”;
- Turdining she’rlari va adabiyotda qo‘llagan uslubi, o‘zbek adabiyoti tarixida tenggi yo‘q gavhar qatorida sanashga haqli “*tarixiy adab*” parchasidir;
- Turdi boshqa shoirlarga qaraganda kerak til, kerak mavzu va kerak ruh bilan yozgan. Shu sababli boshqalar uning mavqeini egallay olmaydi.

Qolaversa, Abdulhamid Majdiy maqolasining bir joyida Turdining eli, yurti, kimligi haqida ma’lumot yo‘qligini yozadi. Abdurauf Fitrat buni qaysidir ma’noda

---

[82] Fitrat tomonidan Toshkentda “*Chig‘atoy gurungi*” jamiyatini tashkil etishi, bu jamiyatda Q.Ramazon, Elbek, Sh. Zunnun, G‘.Zafariy, Sh.Rahimiy, G‘. Yunus va boshqalar bilan birga tilshunosligimiz va adabiyotshunosligimizga oid ilk tadqiqlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, risolalarini misol tariqasida keltirish mumkin**.** ***QARALSIN***: *Qosimov B. va boshq.: Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti, -T.: “Ma’naviyat”, 2004, 231-B.*

[83] A. Majidiy. O‘zbek shoiri Turdi. Maqola. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. – Toshkent, 1925. – № 9-10. – B.52-63.

[84] Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XVI-XVII ASR I-yarmi), o‘quv qo‘llanma. -T.: “Fan” - 2006. 88-b

ochiqlash uchun 1928-yilda ***“O‘zbek shoiri Turdi”***[85] nomli maqolasini e’lon qiladi. Bu maqolada Turdi Farog‘iyning she’rlari yordamida shaxsiyatini, davrga bo‘lgan munosabatini bir qancha misollar yordamida ochiqlaydi.

Dastavval Fitrat Abdulhamid Majidiyning Turdi haqidagi fikrlarini keltirgan holda xulosalaydi:

- xon so‘zi o‘lim bilan bir ma’noda yurgan bir vaqtda xonga isyon qilgani va uning noto‘g‘riligini ko‘rib jim turmagani;
- Turdi haqsizlik, qon to‘kishlar davrida vijdonan azoblanganlar va kuyganlarning biri ekanligi;
- Xalq ustida zulm qilgan Turdining beklarga sizlar faqat sarvatning, mansabning qulisiz, qachon *sarvat*[86]yo‘qolsa, hokimligingiz boshqalarning mahkumligi bilan birga yo‘qolar, tarzidagi gaplari.

Bularning uchinchisida A.Majidiy sal shoshilib qo‘yganligini Fitrat ta’kidlab o‘tadi va maqolaning keyingi qismlarida bu sal yanglish fikr ekanligini Turdi Farog‘iyning she’rlaridan olib bosqichma-bosqich isbotlaydi. Turdining ***“Bu mulk”*** radifli g‘azalini keltirib, unda ***“Poytaxti Kishvari Subxonqulixondur bu mulk”*** misrasidan shoir poytaxti Subxonqulixonning hukmronligida bo‘lgan bir o‘lkada, ya’ni Buxoroda turganligini aytadi va naqadar fitna-yu fasodlarga, kufr-u tug‘yonlarga, zulmga to‘lib ketganidan***, “xayli kofiriston”*** bo‘lib ketgan ***“bu mulk”***dan Turdi ketishni xohlagan:

*Bir sari azm ayla, joyi nomusulmondur bu mulk,*
*Fitnai avbosh, zulmu kufru tug‘yondur bu mulk.*

*Bir kalima hurmatidin lek islom oti bor,*
*Mutlaqo kirdori xayli kofiristondur bu mulk.*[87]

Turdining Xo‘jand hokimi Oqbo‘tabiyga bag‘ishlangan bir muxammasi bor. Unda shoirning ***“yuz”*** qabilasidan hamda qabila boshliqlarining ***“ yuz qozoni boshida sarjo‘sh”*** ekanligini keltiradi. Muxammasga ko‘ra Turdi Oqbo‘tabiyga xeshlik da’vosini qilgan. Ya’ni Oqbo‘tabiy bilan bir mayxonada qaynagan, Oqbo‘tabiy xumning sof mayi bo‘lsa, Turdi xumning ***“durdi”*** loyiligini ta’kidlaydi. Oqbo‘tabiy ***“yuz”***lardan bo‘lganini inobatga olinsa, Turdi ham bu da’voga ko‘ra, ***“yuz”*** qabilasidandir. Buning sababini Fitaratning o‘zi maqolasida isbotlaydi *“Muhammad Rahim otaliq o‘g‘li Oqbo‘tabiy bizga yot kishi emas. U Farg‘ona xonlarining sulola boshlig‘i bo‘lg‘on Shoxruh otaliqning zamondoshi bo‘lg‘on, Shohruh otaliqning qizini olg‘on. 1138- (1721) inchi yildan keyin Shoxruh o‘g‘li Rahimxon tomonidan*

---

Fitrat. O‘zbek shoiri Turdi. Maqola. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. – Samarqand, 1928. – № 12. – B.44-48.[85]

[86] Sarvat - a. boylik, davlat, mol-dunyo

[87] Fitrat maqolasida “*xalqi kofiristondur*” deb berilgan

*o‘ldirilgan. Oqbo‘tabiyning otasi Rahim Otaliqning Subxonquli zamonida Xo‘jand va O‘ratepa hokimi bo‘lib turg‘on Rahimbiy yuz ekaniga shubhamiz yo‘q. Rahimbiy yuzning o‘g‘lig‘a xeshliq da’vo qilg‘on Turdining ham yuz qabilasidan ekani , tabiiy, lozim bo‘ladir* ”[88].

Turdining Oqbo‘tabiyga bag‘ishlangan *“Yod mandin kim erur…”* deb boshlanuvchi muxammasida Subhonqulixon bilan nizolashmasdan burun Buxorodagi hayoti qanday bo‘lganligini aytib o‘tadi:

*….Hukm joriy, so‘z qabuli, birdur dar gush edim,*
*Ahli davlatlar bilan yor-u, harf hamdush edim.*
*Xush zamonlar yuz qozoni boshida sarxush edim,*
*Bu zamon yuvg‘on qozon ostida qolg‘on yuvindiman.*

*Charxi dun qildi manga javr-u jafolar behisob,*
*Gardishi davron berur, har lahza yuz ming bixunob.*
*Har sori yeldim, yugurdim suvsinib mavj-sarob,*
*Tashlanib, gardi kudurat zabr – yonida xarob*
*Bahr davlatidin yiroq, gardani shikasta Mundiman.*

Ko‘rinib turibdiki, Turdi Subhonqulixondan oldingi hayoti uning davriga kelib, jabr-u jafoga, “…*yuvg‘on qozon ostida qolg‘on yuvindi*…”ga aylanib qolgan. Subhonqulixondan ayrilishga ham mana shu o‘ziga, xalqqa bo‘lgan xorlik, zulm, adolatsizliklar sabab bo‘lgan. Buni shoirning o‘zi ham ta’kidlaydi:

*Fuqaro bo‘ldi bu shoh asrida ko‘p zor-u nahif,*
*Zulmdin bo‘ldi raiyat elikim xor-u zaif,*
*Sol tarixini etdim chu hayrondin taklif,*
*Dedi: “din” boshdin oyog‘idin tushib “islom zaif”.*
*Davri Subxonquli jabr umarosi yapaloq.*

Abdulhamid Majidiy shu banddagi ***“Davri Subxonquli jabr umarosi yapaloq”*** misrasini ta’rix deb o‘ylab, abjad usuli bilan hisoblaganda 1132(milodiy 1719) chiqqan. Ammo S,Ayniyning haqli e’tiroziga uchragan Majidiy bu ta’rixni shubhali deb e’lon qilgan. Chunki Subxonqulixon o‘limi hijriy 1113- (milodiy 1701) yilga to‘g‘ri keladi.

Fitrat esa ta’rix bu misrada emas, balki undan oldingi misraning ***“islomi zaif”*** va ***“din”*** so‘zlarida bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi[89]. Bularni abjad usulida hisoblab hijriy 1102-yilini chiqaradi va bu haqiqatdan mantiqqa to‘g‘ri keladi. Chunki Subxonqulixon shu yillari Buxoroda turib, ba’zi beklar bilan nizo chiqargan.

---

[88] Fitrat. O‘zbek shoiri Turdi. Maqola. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. – Samarqand, 1928. – № 12. – B.44-48.

[89] *Islomi zaif” so‘zi abjad usuli bilan 1092 bo‘lib, munga bosh-oyog‘I ketgan “din”ning “I”si (arabcha yo bilan), ya’ni 10 qo‘shilg‘onda 1102 bo‘ladir*. Fitratning maqolasida shunday berilgan.

Ular bilan ko‘p urushlar olib borgan. Beklar Subxonqulixonga qarshi isyon qilishgan. Isyonchilar yuz qabilasi beklaridan Fozilbiy, qatag‘on qabilasi beklaridan O‘z Temurbiy, yubu qabilasi beklaridan Tog‘mabiy boshliq ishtirok etdilar. Bunda yuz qabilasidan Turdi ham ishtirok etdi[90]. Ammo isyonchilar yengilishdi, Subhonqulixonga birin-birin taslim bo‘lishdi.

Bu isyonda qatnashgan Turdi Fozilbiy isyonida aralashib, Buxorodan chiqadi. Isyonchilar bilan chekinib, O‘ratepa va Xo‘jandga boradi va Rahimbiydan yordam so‘raydi. Ammo Rahimbiy bunga jur’at qilolmay rad javobini beradi. Turdi Farog‘iyning ***“Tor ko‘ngullik beklar…”*** deya boshlanadigan g‘azali ham qabila boshliqlarini, beklarni birlikka chaqirishi ham ularni Subhonqulixonga qarshi isyonchilar bilan birlashtirmoq uchun yozilgan bo‘lsa ajab emas (Fitrat nazdida ham shunaqa). Fitratning yuqoridagi fikrlari va keltirgan misollari A.Majidiyning shoshilibroq bergan fikrlari da’vosining isboti edi. Uningcha, Turdi umuman, xonlik idorasiga emas, Subhonqulixon idorasiga qarshi, uning **“sarvat”**iga qarshi emas, Subhonqulixon saroyidagi raqiblarg‘a qarshi she’r yozgandi.

Fitratning keyingi fikrlariga ko‘ra, Turdining Oqbo‘tabiy zamonidagi hayoti juda yomon bo‘lgan. Saroydan ahamiyatli o‘rinda tura olmagan. Moddiy ehtiyojlar sabab egilib qolgan. Bunga Turdining quyidagi misralari misol bo‘la oladi.

*Boshqa bir ko‘h – g‘am, bir ot kahu – ibmidin,*
*Bir ko‘ngul yuz pora yo‘qluq za’fi vahm-u bimidin.*

*Qad bukub, bo‘ynim egib, tegdi oyoqlarg‘a boshim,*
*Ahli-dunyo poybo‘su, xizmat-u ta’zimidin.*

Turdining bunday og‘ir vaziyatga tushib, cho‘kib qolgan, barcha yor-do‘stlari, qabilasidan umid uzgan. Va buning alamlarini, qayg‘ularini tarannum qilib she’rlar bitgan[91].

O‘rta Osiyo adabiyotiga xonliklar davrida turli ichki nizolar, bo‘lar-bo‘lmas mayda ikir-chikir tortishuvlar natijasida e’tibor susaydi. Nafaqat adabiyot, balki butun bir millat qoloqlashdi, ham iqtisodiy, ham siyosiy tomondan zaiflashdi. Bu esa tashqi kuchlarga nihoyatda qo‘l keldiki, necha asrlardan beri Turkistonni bosib olishni reja qilib yurgan, ayg‘oqchilari orqali tinmay xabarlar olib turgan xorijiy bosmachilarning ishini xamirdan qil sug‘urganday osonlashtirdi.

Abdurauf Fitrat shular haqida so‘zlar ekan, Turdi davrdosh shoirlarga qaraganda yaxshiroq yozganini e’tirof qiladi. Turdi birgina so‘zlarni emas, o‘xshatishlarni, majozlarni ham soddalashtiradi. Uning she’rlari saroy doiralariga kirolmaganligini,

[90] Fitarat maqolasida Turdini yuz qabilasi boshliqlaridan deb keltiradi.

[91] Fitrat ta’biricha, Turdi “ortiq butun o‘zbekni so‘kadir; bular musulmon emas, bularda insof yo‘q, marhamat yo‘q deb zorlanadir. U endi o‘z qayg‘ularini, o‘z alamlarini tarannum qilib yig‘lashdan boshqa bir ishga yaramaydir”.

ammo omma tomonidan yaxshi qabul qilishga iste'dodli o'xshatmalar, majozlarga ega ekanligini ta'kidlaydi. U ana'naviy ***"ishq, oshiq savdolar"*** haqida oz she'r yozgan. Ko'plab she'rlari Subhonqulixon va saroydagi raqiblariga bo'lgan ziddiyatli kurashlarini aks ettirgan. Kurash uchun hujum, chaqiriq, yengilganidan so'ng umidsizlik, yig'lash holatiga tushgan. *"Mana Turdi she'rlarining xulosasi"* [*bu ta'bir Fitratniki*].

Bundan tashqari, Fitrat Turdining she'rlaridagi ba'zi kamchiliklarga ham to'xtalib o'tadi. Jumladan, uning qofiya qo'llashdagi kamchiliklari[92], jumla qo'llashdagi ayrim buzishlar va boshqalar.Turdi *ko'rdi, surdi, qurdi* so'zlariga *kundi, yuvindi* so'zlarini qofiya qilib ishlatadi. To'g'ri, zamonaviy she'rlarga bu so'zlar qofiya sifatida olinsa ham, mumtoz qofiya ilmi talablari yuzasidan bular qofiyadosh so'zlar emas. Buning sababi shuki, zamonaviy she'riyatda qofiyadosh so'zlarning faqat raviysi muhim. Lekin mumtoz qofiya ilmida esa ham raviy va unga yondosh harflar ham ahamiyatli o'ringa ega.

Fitratning yana ba'zi fikrlarini quyida keltirib o'tamiz:

a) Turdi zamondosh shoirlar Mashrab, Huvaydo, Majzub, So'fi Olloyorga qaraganda ularning hammasidan yaxshiroq yozgan;

b) u faqat so'zlarni emas, o'xshatishlarni, majozlarni ham soddalashtirgan;

c) omma tomonidan yaxshi qabul qilishga istedodli bo'lgan o'xshatmalar, majozlar ko'p;

d) Turdi boshqa shoirlar kabi "may, oshiq, savdo" yo'llarida kam she'r yozgan;

e) Uning she'rlari Subhonqulixon saroyidagi raqiblari bilan bo'lgan kurashni aks ettirgan. Qolaversa, Fitrat Turdining "Turkona xirom ayladi ul sho'xi diloro" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalini shaklicha yomon emasligini ham ta'kidlab o'tgan.

Shuni ta'kidlash joizki, A. Majidiy Turdi she'riyatining yutuqlarini, boshqalardan farqli taraflarini e'tirof etgan. Ammo Fitrat esa Turdi she'riyatining ham yutuqlariga, ham kamchiliklariga shoirning ijodidan kelib yondashdi, uning she'rlarini tahlilga tortish orqali kerakli fikrlari bilan tahlilni xulosalagan.

Abdurauf Fitratning Turdiga oid qarashlariga xulosamiz shuki, Fitrat Turdi Farog'iyning topilgan she'rlari yuzasidan xulosa bildirgan. Aniqrog'i, Turdining o'z asarlaridan kelib, she'rlarini sinchiklab tadqiq qilish natijasida uning tarjimai holi va davrga bo'lgan munosabati haqida ahamiyatli fikrlar bildirgan. Uning she'rlaridagi ayrim kamchiliklar haqida ham xolis baho bergan. She'rlari poetikasi haqida ko'p

[92] Turdi ko'rdi, surdi, qurdi so'zlariga kundi, yuvindi so'zlarini qofiya qilib ishlatadi. Ammo bular qofiya talablari yuzasidan qofiyadosh so'zlar emas.

to‘xtalmaganimiz boisi, bular yana bir tadqiq uchun manba bo‘lishi, yana ham kengroq asarlariga kirish uchun ilmiy ish, maqola shakllanishini inobatga

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Qosimov B. va boshq. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T.: “Ma’naviyat”, 2004. – B. 240
2. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XVI-XVII ASR I-yarmi), o‘quv qo‘llanma. – T.: “Fan” – 2006. 240 b.
3. A. Majidiy. O‘zbek shoiri Turdi. Maqola. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. – Toshkent, 1925. – № 9-10. – B.52-63.
4. Fitrat. O‘zbek shoiri Turdi. Maqola. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. – Samarqand, 1928. – № 12. – B.44-48.
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Abdurauf_Fitrat
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulhamid_Majidiy
7. https://www.ziyouz.com/


## “BADOYE UL-VASAT” DEVONIDA YOQUB VA YUSUF OBRAZLARINING BADIIY TALQINI XUSUSIDA


*Toshpo‘latova Gulsevar Akbar qizi*
*ToshDO‘TAU OAT 2- kurs*
*qiyomiddinxudoyberdiyev@gmail.com*



***Annotatsiya.*** *Alisher Navoiyning kulliyoti - “ Xazoyin ul – maoniy” tarkibiga kiruvchi “Badoye ul – vasat“ (O‘rta yosh go‘zalliklari) devoniga kiruvchi baytlardagi Yoqub va Yusuf obrazlarining talqini va tahliliga to‘xtalib o‘tdik . Shoir mazkur talmehlarni qo‘llashdan qanday badiiy maqsadlarni ko‘zlagani tahlilga tortildi. Ishda analitik-tipologik tahlil metodidan foydalanildi.*



***Kalit so‘zlar:*** *Alisher Navoiy, “Badoye ul-vasat” devoni, g‘azallar, Yoqub va Yusuf obrazi talqini*



***Abstract.*** *We focused on the interpretation and analysis of the images of Yaqub and Yusuf in the verses of "Badoye ul-vasat" (Beauties of middle age), which is part of Alisher Navoi's collection - "Khazayin ul-maoniy". It was analyzed what artistic goals the poet intended from the use of these talmehs. Analytical-typological analysis method was used in the work.*



***Key words:*** *Alisher Navoi, "Badoye ul-wasat" divan, ghazals, interpretation of the image of Yaqub and Yusuf*


Muhammad Fuzuliy turkiy devonining debochasida “Ilmsiz she’r asossiz devordir. Asosi yo‘q devor bee’tibordir “,- deb yozgan . [1, Fuzuliydevoni, 5-bet].

Navoiyning olimligini shoirligidan, shoirligini mutaffakirligidan, mutaffakirligini buyuk va betimsol shaxsiyatidan ajratib ko‘ring . Ko‘z o‘ngingizda tamoman boshqa shoir paydo bo‘ladi. Hazrat Naviyning ijod olamini , xususan , san‘atxonasiga erkin va ishonch bilan intilishining bosh yo‘li ham ilmdir, irfondir. Adabiyotshunos-olim Y. Is’hoqov yozadiki: “Alisher Navoiyning Yaqin va O‘rta Sharq adabiyoti tarixi hamda poetikasini nihoyatda chuqur va izchil bilganligi, mumtoz poetikaning barcha unsurlarini mukammal o‘rganib chiqib, o‘z analiy faoliyatida mahorat bilan qo‘llaganligiga hech shubha yo‘q”. [2, 18]. Biz kuzatishlarimizda Navoiy sharq-musulmon adabiyotida keng tarqalgan Yoqub va Yusuf payg‘ambarlar obrazining badiiy talqini jihatlariga muxtasargina to‘xtalamiz. [3, 43].

Asosiy qism. Vaholanki, Navoiyning birgina bayti har jihatdan o‘rganilib, zohiriy va botiniy ma’nolarini, she’riy san’atini qoyillatib talqin etish, o‘nlab g‘azallarga bitilgan sayoz tahlillardan afzaldir. [4, Ibrohim Haqqul. 45]. “Badoye ul-vasat“ devoni (O‘rta yosh go‘zalliklarini) 35 – 45 yoshni umrning kuziga qiyos etilgan va shunday nomlangan. [5]. Bu devonga 650 ta g‘azal kiritilgan . Devondagi birinchi g‘azal esa Mutlaq muhabbat mazharining “navbahori orazi” tavsifi bilan boshlanib, unda shoir olamining go‘zalligi, tabiatdagi yaralish va ijod jarayonining asl ijodkoriga sano yo‘llashda eng nozik iboralar, eng chiroyli tashbehlarni qo‘llaydi :

Ey navbahori orazing subhiga jonparvar havo ,
Andin gul-u bulbul topib yuz barg birla ming navo. (5, 65)

Bu devon arab alifbosiga asoslangan holda, ya’ni g‘azallar alifbo tartibida joylashtirilgan, unga Navoiy yoshlik davrida yozgan qasidasi, lug‘z janriga oid she’rlar topqirlikni, tuyuqlar esa hassoslikni, sezgirlikni talab etadi . O‘rta yoshlarda inson, odatda, hayot haqiqatlarini to‘la bir shaklda tushunadi, qalbidan o‘tkazadi. Bu janrga mansub she’rlar esa ayni shu holatga mos keladi. Alisher Navoiy devonni tartiblashda bu holatga ham diqqat qaratgan, nazarimda . H. Sulaymonova tuzgan jadvalga e’tibor qaratsak, bu devon tarkibiga 650 ta g‘azal, 1 ta mustazod, 2 ta muxammas, 2 ta musaddas, 1 ta tar’jiband, 1 ta qasida, 60 ta qit’a, 10 ta lug‘z va 13 ta tuyuq jamlangan ekan. Aslida, devonlardagi she’rlarning bunday taqsimlanishi nisbiy bo‘lib, Navoiy o‘z she’rlarini devonlarga taqsimlaganda ularning xronologiyasiga emas, balki har bir she’rning ruhi, uslubiga ko‘proq e’tibor qaratgan.

Kipriking tushkan ko‘ngul ichra xayoling, ey pari
Go‘iyo Yusuf nuzul etmish chahi Bobil aro. (5, 20)

Ushbu bayt “alif harfining ofatlarining ibtidosi “badoye”da keltirilgan 19-g‘azaldagi bayt edi. Unda, Qur’oni Karimda keltirilgan Yusuf qissasiga ishora

qilingan va bu g‘azal an’anaviy yetti bayt bo‘lib, ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan bo‘lib, bunda ishq mavzusi talqin qilingan. Ko‘ngulga yor xayoli tushgan soniyadan bamisoli Yusufning ayriliq chohiga tushgandayman. Birinchi misrada qism orqali butunga ishora – istiora bilan ishq uchquniga ishora etilmoqda. Ikkinchi baytda uzoq mashaqqatli ayriliqqa mubtalo bo‘lganlik holati ayonlashmoqda.

Ne o‘qirsen qissada Ya’qub huzninkim, erur,
Oncha yuz bir oy g‘amidin baytul – ahzonimda sabt. (5,62)

Ushbu bayt ham devonning ibtidosida keltirilgan 79- g‘azaldan parcha edi, bu g‘azal ham an’anaviy yetti baytdan iborat bo‘lib, takrir san’ati qo‘llanilgan. Yusuf qissasiga nazar tashlanib, Yusuf yo‘qolganda otasi Ya’qubning chekkan iztiroblari keltirilgan va bu esa telmeh san‘atini keltirib chiqargan. Bu yerdagi sabt so‘zi esa dastlabki ma’nosida – vujudimda ayriliq g‘ami mahkam bo‘ldi deya qo‘llanilgan. Demak, bayt hijron yukinung mubolag‘ali tasvirini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Visoling bay’ida sud etmish ul tojirki, Yusufdek
Agar ming bandasi bo‘lsa, barin bu vajh uchun sotmish. (5, 191)

Ushbu bayt ham alif harfida keltirilgan 256 – g‘azaldan parcha edi, u 9 baytdan iborat bo‘lib, hazaji musammani solim vaznida bitilgan bo‘lib, unda ishq kuylangan va o‘sib borish san‘atiga, ya’ni fikrlar rivoji asosiga qurilgan. Bunda ham talmeh san’atini yuzaga keltirgan. Majoziy ma’nodagi ishq savdosi keltirilgan. Bu – o‘sha mashhur voqeaga ishora qilmoqda: Zulayho Yusufni savdosida barcha boyliklarini sotganiga qiyos qilinmoqda. Sen usta tojir bo‘lsang ham, yorni vasf etishga dunyo moli yetmaydi, deganday.

Orazing naqshiki chiqmas tiyra ko‘nglumdin dame,
Qildilar go‘yoki Yusuf suratin zindonda naqsh. (5, 192)

Ushbu g‘azal 9 baytdan iborat bo‘lib, mavzusi ishq hisoblanadi, bunda ko‘ngulda yor surati naqshlandi, xuddi zindonda Yusuf surati naqshlangan kabi.

Zanaxdon chohi-yu gesu kamandi gar bu yanglig‘dur,
Erur vasfig‘a bersam tul Yusuf qissasi ko‘tah. (5, 305)

Ushbu bayt devonning “He” harfining “Humoyunvashlarning halokangezlig‘lari “badoye’” din qismidagi 521 – g‘azaldan olingan bayt hisoblanadi. U hazaji musammani solim vaznida bitilgan, 9 baytdan iborat bo‘lib, unda ishq tarannum etilgan. Talmeh va takrir san‘atlari bilan ziynatlangan. Ma’nosi: go‘zal iyaklari (bag‘baqasi)-yu, dorday uzun sochlari vasfining ta’rifi “Yusuf qissasi”dan-da uzunroqdir.

Guldin ul gulrux isin topqach Navoiy ochti ko‘z,
O‘ylakim, Ya’qub ko‘nglakdin mahi Kan’on isi. (5, 44)

Ushbu bayt “Yo” harfining Yag‘moyillarining yuz ko‘rguzmaklari “Badoye’“ din” qismidagi 644 – g‘azal hisoblanadi. Ushbu g‘azal ham 9 baytdan iborat bo‘lib, ramali musammani mahzuf vaznida, unda mehr – oqibat haqida so‘z ketkan. Baytdagi ma’noda esa yor isini sezishi go‘yo Yusufnining ko‘ylagini iskab, uning tirikligidan darak topgan, qayta ko‘zlari ochilgan Ya’qub kabi. Bu g‘azalda metonimiya, talmeh va takrir san’atlarining bir ajib uyg‘unlikda qo‘llanganiga guvoh bo‘lamiz.

Xulosa. Mana yuqoridagi parchalar asosida devonda keltirilgan Yusuf va Ya’qub obrazlari mavjud baytlarning tahliliga to‘xtalib o‘tdik. Bu baytlarning barchasida bu obrazlar talmeh, tashbeh san‘atlarini yuzaga keltirgan. Alisher Navoiy g‘azallarining muayyan qismini orifona g‘azallar tashkil qiladi. Shoirning barcha she’rlarida, u xoh hamd, xoh na’t g‘azallar bo‘lsin , xoh oshiqona yohud rindona g‘azallar bo‘lsin - har birida irfoniy ma’no -mazmun mujassam.

1. Biz kuzatgan baytlarda qo‘llangan “Yusuf qissasi” obrazlari orqali ayriliq tuyg‘usining kuchaytirib ta’riflanganiga guvoh bo‘ldik.
2. Qissa qahramonlari nomini keltirish orqali ma’shuqning sabot va sadoqatli ishqiga ishora qilingan.
3. Navoiy g‘azallarida qissadagi ota va bola bilan bog‘liq voqealar poetik talqini har doim o‘xshatishlar zanjiriga uzviy bog‘lanib, badiiy mantiqni kuchliroq ifodalashga xizmat qilgan.
4. Navoiy g‘azallaridagi bu an’anaviy talmeh hech qaysisida bir-birini takrorlamaydi, har gal yangi poetik vazifada qo‘llanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Фузулий. Девон. Бадиий адабиёт нашриёти. 1959. – 254 б.
2. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Т.: “O‘zbekiston”. 2014. – 320 б.
3. Қуръони Каримнинг машҳур суралари фазилати. Нашрга тайёрлаганлар: Аббос Аҳмад, Иброҳим Нуруллоҳ. Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Т.:2021. – 672 б.
4. Бадиий матн таҳлили ва талқин муаммолари. Тўплам. “Баёз”. Т.: 2012. – 304 б.
5. Алишер Навоий асарлари мукаммал тўплами. Йигирма томлик. Бешинчи том. Бадоеул-васат. Т.:“Фан“. 1990. – 544 б.


## NAVOIYNING NASRIY ASARLARIDA QO‘LLANILGAN SHE’RIY JANRLAR VA ULARNI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLAR


*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*
*Gumanitar fanlar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti ta'limi*

*yo‘nalishi talabasi: Tursunpulatova Gulinur Alisher qizi.*
*Ilmiy rahbar:Achilova Emina*

**Annotatsiya**:*Ushbu maqolada Alisher Navoiyning tarix, tasavvuf, din tarixiga oid prozaik asarlarida uning ilmiy va falsafiy qarashlari o‘z aksini topgandir Bu turkumdagi asarlarning har qaysisining o‘ziga xos yo‘nalishi va ahamiyati, xususiyatlaridan tashqari ularni birlashtirib turuvchi jihatlari hamda Navoiy g‘azallarini o‘tishda interfaol usullar haqida ma’lumot berilgan*

**Kalit so‘zlar**:*Lug‘z, Tarjiband, Tamsil san’ati, qit’a, fard, Nafohat ul uns.*

Istiqlol davrida ulug‘ Alisher Navoiy merosini ,uning tarixiy ,adabiy ,falsafi, diniy-axloqiy qarash va g‘oyalarini asl holicha ,shoir yaratganidek tarzda tadqiq qilish va o‘qitish- o‘rganish zarur. Navoiy asarlari badiyatini o‘rganish masalasi esa dolzarb masalalardandir. Shuningdek ,shoir adabiy merosi umumiy hajmining aniq miqdorini aniqlash ham nihoyatda zarur hisoblanadi. Ma’lumki, “Xazoyin ul – maoniy “kulliyotida Navoiyning 2600 g‘azal, 210 qit’a, 13 chiston, 10 lug‘z, 86 fard, 133 ruboiy, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muxammas, 5 musaddas, 4 tarjiband, 4 mustazod, 1 tadan musamman, tarkibband, soqiynoma va masnaviysi kiritilgan.(SH.Sirojiddinov,2018)

Shoirning nasriy asarlari mavzu mundarijasi, g‘oyaviy badiiy xususiyati axloqiy ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga ko‘ra ulug‘ ijodkor merosida alohida o‘rin tutadi.” Mahbub ul- qulub “,”Munshaot”, “Tarixi mulki ajam”, “Holoti Sayid Hasan Ardasher “singari didaktik, tarixiy va memuar asarlarida Navoiyning “Xazoin ul- maoniy” kulliyotiga kirgan kirmagan turli janrdagi o‘nlab baytlari bor. Shoirning “Xamsa”, “Lison ut tayr”kabi asarlarida ilgari surilgan diniy tasavvufiy, ijtimoiy-falsafiy axloqiy tarbiyaviy mazmundagi fikr qarashlari ushbu asarlarda ham izchil davom ettirilgan va rivojlantirilgan. Shunga ko‘ra, Navoiy nasrida qo‘llangan lirik janrlar alohida o‘rganilishi kerak. Bu birinchidan, nasr va nazmning mushtarakligini ko‘rsatsa, ikkinchidan, Navoiy nazmning umumiy hajmi borasida muqim va muhim qarorga kelishga, ya’ni uning baytlari umumiy miqdorini to‘liq aniqlashga imkon yaratadi. Zero, shoir o‘zi yozgani (Nazmu nasrim kotibi taxminshunos, Yozsa yuz ming bayt etar erdi qiyos”) singari tahmin haqiqatga aylanardi .Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiyning nasriy asarlari, jumladan, “Mahbub ul qulub“, “Munshaot”, “Tarixi mulki ajam”, “Holoti Sayid Hasan Ardasher” singari asarlarida ruboiy, fard, qit’a, masnaviy janrlaridagi bir necha o‘nlab baytlar qo‘llanilgan.( Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub, Munshaot, Vaqfiya 20 jildlik.-Toshkent: Fan, 1998. 300-b).Xususan:

1 “Mahbub ul qulub “da 10 ta ruboiy, 11ta qit’a, 12 ta masnaviy, 68 ta mustaqil bayt, 4 ta shoir “nazm” deb izoh bergan she’r mavjud.

2 “Munshaot” Navoiyning maktublardan tuzilgan asari bo‘lib, unda 75 ta ruboiy, yana bir necha masnaviy keltirilgan.

3 “Tarixi mulki Ajam” –tarixiy asar. Unda 68 ta podshoh haqida ma’lumot berilgan. Asarda shoirning o‘zi “she’r”deb izoh bergan to‘rtliklarning umumiy soni 47 ta. Diqqat qilmagan kishi barini to‘rtliklar deb hisoblaydi. Aslida unday emas. Qofiyalanishiga e’tibor qilinsa, ana shu 47 ta to‘rtlik hammasi a-a-b-b tarzida qofiyalangan. Shundan aytish mumkinki, bu baytlar masnaviylardir. Yana 2 o‘rinda 1 baytdan a-a tarzida qofiyalangan bayt bor. Asarda 3 ta masnaviy :biri 8 bayt, ikkinchisi 10 bayt, uchinchisi 50 baytdan iborat. Jami she’riy parchalarning umumiy miqdori :232 bayt, 464 misra

4 “Holoti Sayid Hasan Ardasher “- Navoiyning memuar asarlari sirasiga kiradi. Asarda 2 ta ruboiy, shoir “bayt” deb izoh bergan 8 bayt, “fard” deb izoh bergan 1 bayt, “nazm “deb izoh bergan 2 bayt, shuningdek, izoh berilmagan 9 bayt, 1 ta ikki baytdan iborat Ardasher vafotiga bag‘ishlangan forsiy tarixiy keltirilgan. Izoh berilmagan baytlarning uchtasi Mavlono Lutfiy qalamiga, bittasi Mavlono Muqimiy qalamiga mansub. Qolganlari Navoiyning o‘z baytlari.Ushbu raqamlarning o‘zi ham Navoiy nasrini, xususan, “Mahbub ul–qulub”, “Munshaot”, “Tarixi muluki Ajam”, “Holoti Sayid Hasan Ardasher “ singari asarlarini lirik janrlar nuqtai nazaridan o‘rganish maqsadga muvofiq ekanini ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy asarlarining deyarli barchasida pand-nasihat, o‘git, axloq-odobga doir fikrlarni uchratish mumkin. Xususan, "Nazm ul-javohir"dagi ruboiylar boshdan-oyoq kalomi jomi' san'ati asosida yozilgan. Masalan: Har kimki habibing o‘lsa evrul boshig‘a, Mahvo‘l yuzig‘a, jonni fido qil qoshig‘a, Tosh ursa, ravoningni tufayl et boshig‘a, Tajdidi muhabbat angla bormoq qoshig‘a. Navoiy g‘azallarining aksariyatida axloqiy yoki ijtimoiy ruhdagi baytlar uchraydi. Shuningdek, to‘laligicha ijtimoiy-axloqiy masalalarga bag‘ishlangan ko‘plab g‘azallar mavjud. Masalan, Shoirning quyidagi matla’li g‘azali zamon va zamona ahlidan shikoyat asosiga qurilgan:

Topmadim ahli zamon ichra bir andoq hamdame Kim, zamon osibidin bir-birga aytishsoq g‘ame.

(Navodir ush-shabob, 576-g‘azal) Kalomi jomi’ san’ati Alisher Navoiyning faqat lirik she’rlarida emas, balki "Xamsa" tarkibidagi dostonlar, "Lison ut-tayr" dostoni va boshqa nasriy asarlari tarkibidagi she’riy parchalarda ham qo‘llanilgan.

ifodalashini ko‘rsatib turibdi. Bularni chuqur o‘rganish yangi O‘zbekistonimizning yosh mutaxassislari uchun nihoyatda zarur deb bilaman. Navoiy lirik merosi turkiy adabiyotimiz tarixidagi eng mukammal va betakror ijod namunalaridir. Ularni o‘qib-o‘rganish, ma’no-mohiyatini tushunishda bugungi

kunda zamonaviy ta’lim texnologiyalari va interfaol metodlarga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Ona tili va adabiyot darslarida ta’limning texnik vositalaridan, kompyuter texnologiyasidan foydalanish masalalari S.Nishonova, T.R.Niyazmetova va boshqa bir qator metodist olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. Ta’lim tizimida adabiyot darslari, xususan, Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganishda adabiy materiallarni kengroq o‘rganish imkonini beradiganda axborot texnologiyalaridan foydalanishga keng yo‘lga ochilmoqda. Shoir asarlarining elektron variantlari ham kitobxonlar va o‘quvchilarga havola qilinmoqda. Elektron axborot ta’lim resursining asosiy tashkil etuvchilari quyidagilar: Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish bo‘yicha ma’ruza matni. Bunda fanning kalendar-tematik rejasi asosida ma’ruza matni beriladi. Maruza matnida talaba ushbu fanni o‘rganishi uchun zarur bo‘lgan barcha mavzular qamrab olinadi. Unda har bir mavzu uchun tayanch so‘z va iboralar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi. Media fayllar. Audio, video materiallar. Mazkur blok dars mavzusini yorituvchi .mp3 formatidagi audiorolik, .swf yoki .avi formatidagi videoroliklar. Navoiy g‘azallarining ko‘pchiligi mashhur hofizlar tomonidan qo‘shiq qilib kuylangan. Ulardan dars jarayonida foydalanish o‘quvchi ijodiy fikrlashini, estetik didini o‘stiradi. Shuingdek, shoirning hayoti va ijodiy faoliyati, asarlari asosida ishlangan kinofilmlardan namunalar ko‘rsatilishi mumkin.

Axborot texnologiyalarini ta’im tizimiga tadbiq etish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ta’lim tizimida axborot texnologiyalarni qo‘llash shaxsiy kompyuterlar va axborot texnologiyalarinnig pedagogik dasturiy vositalari hamda multimedia vositalarining yaratilishi bilan bog‘liqdir.Bugungi kunda AKTlarining multimedia vositalarida o‘quv materiallarini obrazli ko‘rinishda ifodalash imkoniyati mavjud. Ma‟lumotlarning matn ko„rinishida emas, balki obrazlar ko‘rinishida taqdim etilishi bilim olish va fikrlashga ijobiy ta‟sir qiladi. Ko‘rinishidagiga nisbatan o‘quvchi diqqatini tez jalb etishi bilan birga oson o‘zlashtirishga ko‘proq yordam beradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari an’anaviy o‘qitish texnologiyasidan inson intellekti rivojlanishining yangi shoxobchasiga mos keladigan obrazli ko‘rinishda ma’lumotlarni taqdim etishi, muloqot tillari bilan boq’liq muammolarni yechishga hamda jahondagi kommunikatsion jarayonlarning rivojlanishiga olib kelishi bilan ham farqlanishi mumkin. O‘quv materiallarini obrazlar ko‘rinishida taqdim etish vositasida o‘quvchilarning bilish jarayonga, jumladan, o‘quv materiallarini qabul qilish, ma’nosini anglash, esda saqlash va takrorlash kabi jihatlarga ma’lum darajada ta’sir etish mumkin. Shuingdek, bu metodika o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishlarini orttirishi bilan birga o‘quv materialini ko‘p kuch sarf qilmasdan o‘zlashtirishlariga

erishtiradi. Buni an’anaviy o‘qitish metodikasi bilan taqqoslaganda yaqqol ko‘rish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov, Navoiyshunoslik(darslik) Toshkent 2018

2. Yusupova.D O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi Akademnashr,-Toshkent.,2013.

3.Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub, Munshaot, Vaqfiya 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1998. 300-b.

4. O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik Toshkent: Fan, 1977. — 462 b

5.www.ziyouz.com sayti.

# ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA “SHOH” VA “GADO” OBRAZLARI (“G‘AROYIB US-SIG‘AR” MISOLIDA)

*Usmonova Maftuna Valijon qizi,*
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs*
*maftunausmonova22@gmail.com +998931441479*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devoniga kirgan g‘azallardagi “shoh” va “gado” obrazlarining turli o‘rinlarda turlicha ma’nolarda qo‘llanishi haqida so‘z boradi va har bir ma’no misollar vositasida tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *“G‘aroyib us-sig‘ar”, shoh, gado, lirik qahramon, tasavvuf.*

**Abstract.** *This article talks about the use of the images of "king" and "beggar" in different places in the ghazals included in Alisher Navoi's "Garayib us-sigar" divan, and examples of each meaning are given. All usages are analyzed.*

**Key words:** *“Garayib us-sigar”, king, beggar, lyrical hero, mysticism.*

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ma’nolar olami rang-barang, tafakkur gulshani bepoyondir. Buning isbotini ijodkor lirikasidagi “shoh” va “gado” obrazlarining turfa ma’nolarda qo‘llanishida ham ko‘rish mumkin. Quyida ana shu qo‘llanishlarni “Xazoyin ul-maoniy”ning ilk devoni bo‘lmish “G‘aroyib us-sig‘ar”ga kirgan g‘azallar misolida ko‘rib chiqamiz.

Alisher Navoiy lirikasidagi “shoh” va “gado” obrazlari orqali ijodkorning zamonga, siyosatga, atrofidagi odamlarga nisbatan munosabatini kuzatish mumkin. Albatta, ifoda uchun aynan ushbu obrazlarning tanlanishi ham bejiz emas. Bu

obrazlarning turli o‘rinlarda turlicha ma’no kasb etishini tushunish va ularni tahlil qilish orqali shoir ko‘zlagan maqsadni aniqlash mumkin.

Jumladan, shoir she’riyatida gadolikning afzalligiga, hayot tarziga aylantirilganiga qayta-qayta urg‘u beriladi. Quyidagi baytda ushbu fikrning isbotini ko‘rish mumkin:

*Ey ko‘ngul, qo‘yg‘ilki, mundin so‘ng gadolig‘ fan qilay,*
*Ko‘yida bu fan bila bir yo‘l boshin maskan qilay.*

Lirik qahramon ko‘ngilga murojaat qilib, bundan so‘ng gadolik ko‘chasiga kirib, qolgan umrini ana shu hidoyat ko‘chasida o‘tkazishini, shu yo‘lni o‘ziga maskan qilishini aytadi. Yana boshqa misolga nazar tashlaydigan bo‘lsak:

*Orazing mehrida og‘zingdur gadolig‘ qilg‘anim,*
*Haq seni xurshid qilmish, zarrae bergil zakot.*

Ushbu baytda lirik qahramon endi ko‘ngilga emas, Haq xurshid qilgan seviklisiga murojaat qiladi va yuzining mehri og‘zida gadolik qilganini aytadi. “Og‘iz” tasavvufiy ma’noda “pirning so‘zi” ma’nolarida qo‘llanadi. Ya’ni o‘zining oliy maqsadiga yetishtirishi mumkin bo‘lgan ustozi oldida gadoligini aytadi, undan zakot berishini so‘raydi. “Zakot” so‘zining qo‘llanilishi murshidning darajasi komillikka yetgani, endi unga ilmining zakotini berishi kerakligi ma’nosini ifodalagan. Har ikki holatda ham “gadoning asosiy kasb qilingan”ini tushunish mumkin va bu “gado” obrazning o‘ziga xos ko‘rinishini ifodalaydi.

Bundan tashqari, yuqoridagi ma’nodan biroz boshqacha tarzda gadolikning shohlikdan ustun qo‘yilishini ham ko‘rish mumkin, ya’ni kimki, Haq yo‘lida gadolikni tanlar ekan, uning dunyoga, dunyoviy mol-davlatga muhabbati bo‘lmasligi, barcha moddiy narsalardan ustun darajaga chiqishi ta’kidlanadi. Quyidagi baytda ushbu so‘zlarning isbotini ko‘rish mumkin:

*Ey gadoyingning gadoyi barcha ahli taxtu toj,*
*Kim, gadoyingdur, anga yo‘q taxt ila toj ehtiyoj.*

Baytdan ko‘rinadki, u xoh gadolarning gadosi bo‘lsin, xoh butun dunyo boyligiga ega bo‘lsin, Alloh taologa gadolikni kasb etar ekan, uning na taxt, na tojga ehtiyoji qoladi. Bu baytni Navoiy “Xamsa”sining oxirgi dostoni bo‘lmish “Saddi Iskandariy”ning birinchi bayti bilan ham qiyoslash mumkin. Ya’ni:

*Xudoyo, musallam xudoliq Sanga,*
*Birav shahki da’bi gadoliq Sanga.*

Yo Allohim, uluhiyyat (xudolik) faqat senga xos. Dunyoda qaysiki shoh bo‘lsa, uning shohligi Senga gadolik bilandir. (Жўракулов, 2017, 155-бет). Ayni shu ma’noda, lirik qahramonning “gadolikni o‘ziga sharaf deb bilishi” quyidagi misolda ham o‘z aksini topadi:

*Shah tilar davlat baqosin, men gado yor og‘zini,*

*Ranjadur shohu gado bir komi nomavjud ila.*

Ma’lumki, shohlar asosan mol-u davlat payida bo‘ladi, gado istayotgan “yor og‘zi” esa yuqoridagi aytilganidek pirning so‘zlarini bildiradi. Ikki obraz ham nima istashidan qat’iy nazar, “komi nomavjud”da, bu istak ranjida birdir, degan ma’no anglashiladi. Baytda “shoh” va “gado”ning yonma-yon kelishi tazodni yuzaga keltirgan va shoir ifodalamoqchi bo‘lgan holatni yana-da kuchaytirishga xizmat qilgan.

Yuqoridagi baytlarda shoir o‘zining gadoligiga alohida urg‘u bergan bo‘lsa, endigi ma’nolarda bunga zid ravishda o‘zining “podshoh”ligiga e’tiborni qaratadi:

*Gulxan aro ostingda kul, uryon boshingda ishq o‘ti,*

*Bu nav’ taxtu toj ila sensen Navoiy podshah.*

Bu baytda ishq o‘ti lirik qahramonning oyog‘i ostida kul, boshida yalang‘och ekanligi, bu holda u toj-taxtga ega podshoh ekanligi anglashiladi. Demakki, ishq diyorida shoir o‘zini podshoh sanaydi va bu so‘zga yangi ko‘chimlar yuklaydi.

Keyingi misolda shoirning o‘ziga nisbatan “shoh” so‘zini qo‘llashi boshqacharoq ma’noda namoyon bo‘ladi:

*Dushmanimsiz do‘stlarkim, qovdingiz aylab hujum,*

*Benavolig‘ kishvarida podsholig‘din meni.*

Darhaqiqat, Navoiyning ma’nolar olami rang-barang. Ushbu baytda zamondan, dushmanga o‘xshash do‘stlardan norozilik bildiriladi va ular lirik qahramonni benavolik mamlakatidagi podsholikdan quvganligi aytiladi. Oddiy odamlar nazdida, podshohlik ulug‘ martaba, gadolik esa insonning hayotdagi inqirozidek ko‘rinadi, ammo xoslar uchun ushbu hodisa teskari mazmun kasb etadi. Yuqoridagi baytda ham ayni shunday ma’no kelib chiqadi.

Bundan tashqari, sarvari koinot payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v ga bag‘ishlangan na’t g‘azallarda ham ushbu obrazlardan faol foydalanilgan:

*Shahlarg‘a gado andoqkim keldi bukun muhtoj,*

*Tongla bo‘lubon shahlar ehsoniga hojatmand.*

Ya’ni, jamiki shohlar, mol-u davlat egalari u zotga, Haq taolo oldida chin gadolikni, faqirlikni bajo keltirgan payg‘ambarimizga muhtoj bo‘lishlari yoxud qiyomat kunida u kishining shafoatlariga ehtiyojmandliklari haqida gap ketmoqda. Ko‘rinadiki, “gado” payg‘ambarimizga nisbatan ham qo‘llanilib, sharaflantirilmoqda.

Ma’lumki, Alisher Navoiy lirikasining asosiy qismini oshiqona g‘azallar tashkil qiladi. Shu mavzudagi g‘azallarda ham shoir u yoki bu ko‘rinishda “shoh” va “gado” obrazlaridan unumli foydalanadi. Masalan:

*Men gadoliqqa ne loyiq ollida, nevchunki bor*

*Nozi husn aylarda ul oy husnu noz ahlig‘a shah.*

Ushbu baytda “shah” ma’shuqaning husn olamidagi martabasini, noz ahli orasidagi mansabini anglatib, lirik qahramon uning oldida hatto gadolikka ham o‘zini ravo ko‘rmaydi. Shu ma’noda quyidagi baytda ham ma’shuqaning “podshoh” ligiga e’tibor qaratiladi:

*Shoh bo‘ldi ishq ichinda sohibasrorim mening,*
*Ishq manshurida tug‘rodur bu shahkorim mening.*

Faqat endi u husn yo noz ahli orasida emas, jami ishq maskanida yorning hukmdorligi tilga olinadi va u “ishq manshurida” – ishq farmonidagi “tug‘ro” – sarlavhaga o‘xshatiladi. Demak, yuqoridagi ko‘rinishlarda “shoh” timsoli yorga, ma’shuqaga nisbat o‘laroq ishlatiladi.

Albatta, buyuk mutafakkirning ma’nolar olami turfa. Har bir so‘z, fikr, ifoda o‘ziga xos bo‘lib, ijodkor mahoratidan darak. Navbatdagi ko‘rinish “shoh” va “gado” obrazlari orqali hayotiy shohga nisbatan o‘z aksini topadi. Ma’lumki, Navoiy nafaqat shoir, olim, balki zukko siyosatchi sifatida ham tarix sahnasida namoyon bo‘ladi. U lirikasida ham goh malakat boshqaruvchisiga nasihat, goh murojaat, goh taskin tarzida ushbu obrazlardan foydalanadi:

*Iydgoh ahli hujumi birla, ey shah, qilma kibr*
*Kim, falak bu jam’ni holi parishon qilg‘usi.*

“Iydgoh” - bayram o‘tkaziladigan joy, saylgoh. “Iydgoh ahli hujumi” bazm-u jamshidga, dunyo go‘zalliklariga berilish ma’nosida qo‘llangan Shoir shohga qarata:“Bazm-u jamshidga mukkasidan ketib, kibrga berilma, taqdir bundaylarning holini parishon, xarob qiladi”-deya xitob qiladi. Darhaqiqat, kibr nafaqat podsholarning, balki butun odamzotning, uning nafsoniy illatlarining eng yomonidir.

*Zamona ahlidin ko‘z tutmasun mehru vafo podosh,*
*Kishi yuz yil alarg‘a gar vafo aylab, jafo cheksa.*

Ushbu baytda Navoiy podshoga taskin berishga intiladi, albatta, har qanday davlat egasi atrofida unga qarshi fitna xayolida yuradiganlar topiladi, ammo odil va shavkatli podsholar ularni deb maxzun bo‘lmasligi kerak. Yuqoridagi baytda agar shoh zamona ahlidan sadoqat ko‘rmas ekan, bunday hol uning jafo chekishiga sabab bo‘lar ekan undan hech mehrni ko‘z tutmasligini aytadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Navoiy o‘z she’riyatida “shoh” va “gado” obrazlaridan faol tarzda foydalangan. Jumladan, “gadolik asosiy hayot tarzi sifatida”, “gadoning shohdan ustunligi”, “o‘ziga nisbatan “shoh” sifatini qo‘llashi”, “payg‘ambarimizga nisbatan sharaf ma’nosida “gado” qo‘llanilishi”, “ishq olamida ma’shuqaga nisbatan” va “davlat boshqaruvchisiga qarata” kabilardir. Albatta, davomiy izlamlar bulardan tashqari ma’nolarni ham kashf eta oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Навоий, А. (1988). Ғаройиб ус-сиғар. Тошкент: Фан.
2. Навоий, А. (1993). Садди Искандарий. Тошкент: Фан.
3. Фозилов, Э. (1983). Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тошкент: Фан.
4. Жўрақулов, У. (2017). Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поетикаси. Тошкент: Турон-Иқбол.

## AHMAD YASSAVIY HAYOTI VA IJODI

## MEHMET FUAT KO‘PRULU ILMIY NIGOHI OSTIDA

## (“Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar” asari asosida)

***Xaydarkulova Jasmina Sur’at qizi***
*ToshDO‘TaU OTAT fakulteti 2-kurs talabasi*
*jasminaxaydarkulova@gmail.com +998957727633*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola Mehmet Fuat Ko‘pruluning(04.12.1890–28.06.1966) “Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar” monografiyasi asosida yozilgan va biz bu maqola orqali Mehmet Fuat Ko‘prulu nafaqat Xo‘ja Ahmad Yassaviyni ilmiy asosda o‘rganganligi, balki o‘z monografiyasi bilan butun turk adabiyoti rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasiga ham guvoh bo‘lishimiz mumkin. Shu bilan birga, Fuat Ko‘prulu haqida ham qisqacha ma’lumotga ega bo‘lamiz.*

***Kalit so‘z:*** *Tasavvuf, shariat, chillaxona, tariqat, mutasavvuf, vali*

***Abstract.*** *This article is written basedon Mehmet Fuat Koprulu’s(04.12.1890 28.06.1966) monograph “Early mystics in Turkish literature” and through this article we can see that Mehmet Fuat Koprulu not only studied Khoja Ahmed Yassavi on a scientific basis, but also with his monograph, we can also witness his great contribution to the development of Turkish literature. At the same time, we get brief information about Fuat Koprulu.*

***Key word:*** *Sufism, sharia, chillahona(cold room), sect, mystic, the governor*

Mehmet Fuat Ko‘prulu 1890-yilda Istanbulda dunyoga kelgan. 1913-yilda eng yosh Istanbul dorulfununida turk adabiyoti tarixi mudarris(professorlik)ga erishdi. Adabiyot va san’at qaynagan turli jabhalarda faoliyat yuritdi. 1958-1959 o‘quv yilini Garvard universiteti taklifi bilan Kembrijda o‘tkazdi. Fuat Ko‘prulu turk

adabiyotini, shu jumladan, Sharq va G‘arb adabiyotlarini ham chuqur o‘rgandi. Undan bizga 1500dan ortiq maqola va ko‘p sonli kitoblar meros bo‘lib qoldi. Fuat Ko‘prulu hayoti va ijodini o‘rganar ekanmiz, professor Xo‘ja Ahmad Yassaviyni o‘rganilishga qo‘shgan qimmat ma’lumot va kitoblariga duch kelamiz. Uning aynan “Xo‘ja Ahmad Yassaviyning chig‘atoy hamda usmonli adabiyotlariga ko‘rsatgan ta’siri”, “Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar” kabi ijod na’munalarida bunga yorqin misol bo‘la oladi. Endilikda asarlar ichiga chuqurroq nazar tashlasak, Ahmad Yassaviyning tug‘ilishidagi bashoratlardan tortib, toki Yassaviya tariqati Qipchoq, Onado‘li xududlari, Tukman, Ozar ellarida tarqalishi va uning ta’sirigacha yoritilgan. Biz “Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar” monografiyasi orqali ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, eng avvalo, monografiyaning nashrlarini va unga tegishli ma’lumotlarni o‘rganishimiz kerak. Monografiya muallif 28 yoshida bir yarim yil davomida asrni yozib tugatgan, 3 marta nashr qilingan, usmonli turk tilida yozilgan va muallifning o‘g‘li takidlaganidek asaning yangi nashri(1976) qisman avvalgilariga qaraganda to‘liqroq va mukammalroqdir. Bunga 2ta sababni misol qilib keltirgan, birinchidan, “Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar” asarining 1-nashridan so‘ng muallifning olib borgan izlanishlari kiritilgani, ikkinchidan, qaydlarga taaluqli bo‘lib, izlanishlarning bir qanchasi aynan shu qaydlarga ilova qilingani aytib o‘tilgan. Asar diniy va tasavvufiy jihatdan o‘zining milliy g‘oyasiga ega. “Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar”da biri XII asrda Turkistonda, ikkinchisi Onado‘li elida yashagan va biri ikkinchisining mantiqiy davomiga aylangan Ahmad Yassaviy va Yunus Emro hayot va ijod yo‘li haqida. Endi asarning ichki tuzilishi haqida gaplashamiz. Bilamizki, VI asrda Ko‘kturk deb atalgan turklar Sibirdan Baykal ko‘ligacha, Osiyoning o‘rtalarigacha buyuk xoqonlik barpo etishgan.O‘zaro taxt va meros masalalari oqibatida turk xoqonligi ikkiga G‘arbiy va Sharqiy turk xoqonligiga bo‘linib ketdi. Aynan shu davrdan boshlab yangi din Islom yoyila boshladi. Lekin bu paytda Sharqiy turk xoqonligi Movarounnahrni bosib olishga tayyorgarlik ko‘rayotgan edi. Xurosondan chiqqan islom dini targ‘ibotchilari bunga imkon berishmadi va Jayxunning janubidagi Marv va Balxga tomon yurish qilishdi. Turklar kutmagan tomondan Qutayba ibn Muslim hujum qilardi. Oxir oqibat Turklar ko‘plab chekinishlar sabali inqirozga yuz tutdi, “Sosoniy saltanati arab qilichi qarshisida bo‘yin egdi”( Asar muallifi). Shu tariqa asta-sekinlik bilan islom dini butun O‘rta Osiyo va Sharq bo‘ylab yoyila boshladi. Xuroson islom dinini qabul qildi va Samarqand, Buxoro buyuk islom markazlariga aylandi. Hattoki, o‘sha davrda islom dinining eng asosiy tarafdorlaridan biri sanalgan Qoraxoniylar islomiyatni mamnuniyat bilan qo‘llab-quvvatlashardi va o‘z davrining yetuk, bilimli shayxlari, darveshlari va tasavvuf olimlari Turkistonda yetishib chiqardi. Shayxlarning obro‘yi shu qadar oshib ketdiki, xukmdorlar ham ularning roziligisiz

biror ish qila olishmasdi. X va XI asarga kelib, Turkistonda shu qadar xalq shoirlari, ijodkorlari va tasavvvuf olimlari koʻpaydiki, endilikda oʻz sohasining malakali mutasavvuflariga boʻlgan talab yanada oshdi. “Qutadgʻu bilik” va shu kabi asarlar madrasa koʻrgan kishilar tomonidan mutolaa qilinsa, oddiy xalq shoirlar tomonidan yozilgan tasavvufiy she’rlarni oʻrganish orqali bilimlarini oshirib borishardi. Bunday asarlar oradidagi eng qimmatlilari “ sagu” – marsiya, yigʻilar hisoblanardi.

Turkistonning Sayram shahrida Ahmad ismli bola tugʻilishi haqida fikr yuritishdan oldin, uning dunyoga kelishi haqidagi hikoyatlar bilan tanishsak. Birinchisi, Ahmadning kichik paytida Xizir alayhissalomdan nozil boʻladiki, Ahmad yetti yoshidan otasida yetim qoladi va Hazrati Paygʻambarimizning ma’naviy ishorati bilan Sayramga kelgan sahoba Shayx Bobo Arslondan tarbiya oladi. Ikkinchisi, Hazrati Paygʻambarning gʻazolarindan birida Ashobi kirom niyatida och qolib, uning huzuriga keldilar va biroz yegulik istagida boʻldilar. Hazrati Paygʻambarning duosiga binoan Jabroilamin jannatdan bir tovoq xurmo keltirdi: biroq u xurmolardan biri yerga tushdi. Hazrati Jabroil dediki, “Bu xurma sizning ummatingizdan Ahmad Yassaviy ismli birining qismatidir”. Hazrati Paygʻambar bu omonat xurmoni egasiga qaytarmoqchi boʻldilar va buni kim zimmasiga oladi deb sahobalarga qaradilar shunda Bobo Arslon buni oʻz zimmasiga olishlikka tayyorligini bildirdi va Hazrati Paygʻambar shu xurmo donasini olib Arslon Bobo ogʻziga soldilar va muborak tufiklaridan ham ehson qildilar. Shunda usrida bir parda paydo boʻldi va Hazrati Paygʻambar Arslon Boboga Sulton Ahmad Yassaviyni qanday topish borasida ta’lim berdilar va uning tarbiyasi bilan shugʻullanishni buyurdilar. Bu paytda Sayramning eng taniqli shayxlaridan biri Shayx Ibrohimning oilasida oʻgʻil farzand dunyoga keldi. Ahmadning onasi Shayx Ibrohim xalifalaridan boʻlgan Shayx Musoning qizi Oysha Xotun boʻlib, opasi esa undan 3 yosh katta Gavhar Shahnoz edi. Onasi Oysha Xotun va otasi Shayx Ibrohim bu dunyoni erta tark etishdi. Shundan soʻng yosh Ahmad opasi bilan Yassiga koʻchib keladi. Arslom Bobo esa Sayramga – Yassiga – kelib, taniqli turk shayxiga aylangan edi. Ahmad shayxning iltifoti va duolariga sazovor boʻldi. Ammo Arslon Bobo Ahmad juda yosh paytida bu dunyoni tark etti: “ Qabizul arvohning uning jonini olgani, huzlarning ipak matodan kafan bichgani, yetmish ming malak yigʻlab-yigʻlab uni jannatga olib ketgani yozilgan.(“Devoni hikmat” 7-bet) Shunga koʻra ham biz toʻlaqonli ravishda Ahmad Yassaviy Arslon Bobo qoʻlida tarbiyalandi va uning ruhiyatiga katta ta’sir koʻrsatdi deb ayta olmaymiz. Ammo bir voqea sodir boʻlib, Kichik Ahmadning ismi butun Turkustonga tarqalib ketdi. Aynan oʻsha davrlarda Movarounnahr va Turkistonni Yassaviy ismli hukmdor boshqarar edi. Qishda Samarqand, yozda Turkiston togʻlarida yashardi. U ham barcha turk hukmdorlari kabi ov qilishni yoqtiradi va bir kun oʻlja ortidan quvib Qorajuq togʻiga kelib qoladi. Togʻning

qing‘ir-qiyshiqligi sababli ov qilishi juda qiyin bo‘ladi, shuning uchun tog‘ni olib tashlashga qaror qiladi. Shu o‘lkadagi barcha valilarni yig‘ib tog‘ni olib tashlash uchun duo qilishlarini buyuradi. Valilar uch kun tinimsiz duo qilishadi, ammo hech narsa sodir bo‘lmaydi. Shunda hukmdor “Mamlakadagi oriflar, valilardan kelmani bormi?” deb so‘raydi. Ular Shayx Ibrohimning o‘g‘li Xo‘ja Ahmad juda yosh bo‘lgani uchun uni chaqirishmaganini aytishadi. Darhol Sayramga odam yuborib bolani olib kelishni buyuradi. Yosh Ahmadning yoniga kelib, ular bilan birga hukmdorning xizmati otlanishi kerakligini xabar berishadi. Hali yoshligi sabali opasi Gavhar Shahnoz bilan maslahatlashib ko‘rishni so‘raydi. Opasi unga otasi vasiyatiga binoan ibodatxonaga borishini, o‘sha yerdagi bir dasturxonni ochishi kerakligini, agar ocha olsa, demak, maydonga chiqishi mumkinligini aytadi. Ahmad esa darsturxonni olib, hech o‘ylab o‘tirmay Yassiga yo‘l oladi. Yassi tog‘ida avliyolar, sarkardalar, sipohlar jami 99000 kishi ter to‘kib mehnat qilishayotgan edi. Shunda Ahmad dasturxonni ochib, bir dona nonni olib hammaga bo‘lib beradi. U otasining xirqasi ichida duosining natijasini kutardi va birdan osmondan qattiq dovul yog‘adi. Barcha o‘zini chetga oladi va chodirlarga bekinishadi. Biroz o‘tgach chodir ichidan chiqib qarasalar, Qorajuk tog‘i o‘rnida xuddi shu nomli qasaba yastanib turardi. Bu yer Xo‘ja Ahmad avlodlarining yeridir. Buni ko‘rgan hukmdor o‘zining Yassaviy nomini boqiy qolishini istab Ahmadga uni taqdim qiladi. Shunda hukmdor: “Olamda kimki bizni yaxshi ko‘rsa, sening noming bilan yod etsin” deydi. Shundan so‘ng ul zotning ismlari “Xo‘ja Ahmad Yassaviy” bo‘ldi.

Fuat Ko‘prulu nega Xo‘ja Ahmad Yassaviy bu qadar mashhur bo‘lib ketdi vaholangki, o‘sha davrda Yassaviydek olim-u fuzalolar ko‘p ediku degan savolga Ahmad Yassaviyning hayotida uchragan bir necha hikmatli voqiyalarni keltirib o‘tadi. Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat”da 7 yoshidan 50 yoshigacha bo‘lgan hodisalarni bayon etar ekan, “ Yigirma olti yoshida ishq jazavasida yonib, Mansur kabi “diydor” uchun jiddu-jahd qilganini, biroq biror bir pirga yetisholmay, turli dardlarga duchor bo‘lganini va nihoyat, yigirma yeti yoshida pirga bog‘lanib, dargohga loyiq bo‘la olganini” aytadi. Ba’zi hikmatlarida “zoti ulug‘ Xo‘jam, senga sig‘inib keldim” deb yozadi va biz bundan Arslon Boboning davati bilan Buxoroga borganida o‘zi qo‘l berib shogird tushgan Shayx Yusuf Hamadoniyni nazarda tutyotganligini bilishimiz mumkin. Aynan Ahmad bin Mavlono Jaloliddin Koshoniy Abdulxoliq G‘ijduvoniyning “Maqonot” asarida Yusuf Hamadoniy va uning xalifalari haqida shunday ma’lumot beradi: “Xo‘ja abu Yusuf hamadoniy hazratlarining eng bilimli va o‘zlari ishongan to‘rt xalifalari bor edi. Birinchisi, Xo‘ja Ishoq ikkinchisi, Xo‘ja Hasan Andokiy uchinchi Xo‘ja Ahmad Yassaviy” deb ularga tariff berilgan, ammo to‘rtinchi xalifa haqida ma’lumot keltirilmagan. G‘ijduvoniy Yassaviyga tarif berar ekan: “U karomat va ajoyibotlar sohibi erdi 512-

yilda bu dunyodan koʻchdilar" shaklida "Maqonot" asarida keltirib oʻtadi. Lekin, ma'lum boʻlishicha 512-yil shaklida keltirilgan qisni nusxalashda xato ketgan va biz buni 562-yil deb koʻrsatishimiz mumkin. Yassaviy ustozining vafotidan soʻng, ma'lum muddat Buxoroliklarni islom dinini qabul qilishga da'vat etadi. Bir qancha yuzlab muridlarga botiniy va zohiriy ilmlardan dars beradi, boʻsh vaqtlarida esa qoshiq va choʻmich yasab sotadi. Shu oʻrinda xalq orasida keng tarqalgan bir hikoya etiborimni tortdi. Ahmad Yassaviy qoshiq, choʻmiq yasar edi, dedik va ularni bozorda sotardi ham ammo bozorga oʻzi bormas balkim hoʻkizining ustiga xurjin ilib, yasagan buyumlarini ichiga solib uni shahar bozori tomonga yoʻnaltirib yuborgan. Bu buyumlarni sotib olmoqchi boʻlgan mijoz asboblarni olib, pulni xurjin ichiga solib qoʻyardi. Agar xaridor pulni toʻlamasa, hoʻkiz oʻsha insonning ortidan qolmas edi. Xuroson ahli Yassaviyni juda yaxshi koʻrib xurmat qilishar. Bir safar katta majlis uyushtirilib, Xoʻja ahmadni ham taklif qilishga kelishdilar va shunda oralaridan biri turna qiyofasiga kirib, Xoʻjaga xabar berish uchun yoʻlga chiqdi. Botiniy quvvatdan buni sezgan Ahmad muridlariga yetti valining kelishinib aytib, oʻzi ham turnaga aylanib oldi va mehmonlarga peshvoz chiqdi. Ular Samarqandning daryo orqali kesib oʻtiladigan xududiga yetib kelishdi va birin-ketin tuyalari bilan oʻtayotganlarida bir savdogar choʻka boshladi va shunda " Agar jonim omon qolsa, molimning yarmini ehson qilaman" dedi. Yassaviy buni eshitib savdogarga yordam berdi. Savdogar esa Xoʻjaning oyoqlari yiqilib, molining yarmini unga xadiya qildi. Xoʻja Xurosonga kelib, mol-mulkning barchasini u yerning eranlariga bagʻishladi.("Valoyatnomayi Hoji Bektosh Vali") Yassaviyning shuhrati tobora yuksaklashib borar, muridlar uni koʻrmay turib oʻziga ustoz deb hisoblashardi. Sirtdan uni koʻrolmagan xasadgoʻy kimsalar uning shaniga yomon gaplar chiqarib, tuhmatlar yogʻdirishardi. Emishki, Xoʻjaning majlislarida yuzi ochiq ayollar erkaklar bilan bir boʻlib zikr qilisharmish. Yuqorida aytilganidek, Xuroson va Movarounnahrda shayxlari, ahli masjid imomlari bunday holatlarga qattiq qarashar edi. Shu sababli ham Xoʻjaning majlislarini tekshirib koʻrdilar va ular bu aytilgan gap-soʻzlarning barchasi tuhmat ekanligiga toʻlaqonli amin boʻldilar. Shunda Ahmad Yassaviy ularga saboq berish maqsadida, muridlari bilan birga oʻtirgan majlisda muhrli huqqani oʻrtaga qoʻyibdi va " Oʻng qoʻli balogʻatga yetgan kunidan to shu kungacha hech bir avrat a'zolariga tegmagan avliyo bormi?" deb soʻrabdi. Shayxning muridlaridan biri Jalol Ota oʻrtaga chiqibdi. Yassaviy huqqani uning qoʻliga tutqazibdi va Movarounnahr, Xuroson tomonga yoʻllabdi. Ular manzilga yetib borishibdi, olim va shariat peshvolari huqqani ochishibdi. Huqqa ichida paxta va yonib turgan olov bor emish. Ular hech ham bir-biriga zarar bermas, na olov soʻnar, na paxta yonib bitarmish. Shunda oxiri ular bu masalaning javobini tushunib yetishibdi. Unga koʻra, Haq yoʻlida erkak va ayol majlislarda birgalikda zikr yoki

ibodat qilsalar-da, Olloh Taolo ularning qalblaridagi kirlarni, fisqu-fasodni va o‘zgaga dushmanlik hissini yo‘q qilishga qodir. Oxirida hammalari bo‘lgan barcha ishlardan rosa hijolat bo‘lishib, sovg‘a-salom olib qilgan gunohlarini yuvishga tushishibdi.(“Javohir-ul abror min amvojil bixar”, 82-84 bet) Ko‘rib turganingdek, ul zotning har bir harakatlarida bir hikmat bor. To‘g‘rilik va iymon to‘g‘risida gap ketar ekan, Xo‘ja Ahmad Yassaviy barcha ezgulik, poklik va halollik kabi hislatlarni o‘zida mujassam etgan ulug‘ mutasavvifdir.

Xo‘ja Ahmad Yassaviy butun umrini davomida tariqat va shariatni uyg‘unlashtirish, insonlarni xuddi “Qur’oni Karim”da keltirilgandek to‘g‘ri yashashga da’vad qilishga sarifladi. Uning yaratguvchi Ollohga, islom diniga, Muhammad (s.a.v) payg‘ambarga bo‘lgan muhabbati chin, samimiy va shu bilan birga barkamol edi. Foniy dunyoni qo‘yib, u dunyo haqida o‘ylash, ibodat qilish, tan bilan bir qatorda ruhni ham poklash kerakligini bot-bot takrorlar va bularni boshqalarga o‘rnak bo‘lishi uchun o‘z hayotiga tadbiq etardi. Bunga yaqqol misol sifatida, barchamiz bilgan Ahmad Yassaviy chillaxonasini keltirishimizning o‘zi kifoya. U payg‘ambarning hech bir sunnatidan ortda qolmagan edi. Shu sabali ham 63 yoshga to‘lganidan so‘ng uch arshin chuqurligida chillaxona qurdiradi. Manbalarga nazar tashlasak, Yassaviy chillaxonadagi hayoti unchalik uzoq davom etmagan va rivoyatlarda aytilganidek 99000 murid to‘planmagan. Balki, uning dovrug‘i butun Turkiston va Movarounnahrda ovoza bo‘lganligi uchun ham shu kabi so‘zlar tarqalgan. Chillaxonaga kelsak “Taqiyaning bir chetida narvon orqali tushiladigan, g‘ishtin bino bo‘lib, Hazrati Ilyos va Hazrati Xizirning himmatlari tufayli asrlar davomida bu binoga zarar yetmagan” deb keltiriladi Fuat Ko‘prulu asarida. Bino shu qadar tor bo‘lganki, ibodatda egilib, turish vaqti yelka, qo‘l, oyoqlarni shilib turgan. Bu holar uyquni kelmasligiga va xushyor tortib turish uchun yordam bergan, shu sabali uni “Sarhalqa-i siynarishon” deyilgan(“Javohir-ul abror min amvojil bihar” 88-90 bet). Xo‘ja Ahmad Yassaviy necha yoshda vafot etganligi aniq emas, lekin ba’zi tahminlar bor. Bir rivoyatga ko‘ra 120 yosh, boshqasida 133 yosh, Yassida keng tarqalga rivoyatga ko‘ra 125 yoshga qadar deb qaraladi.

Chillaxona haqida ko‘plab rivoyatlar bor va ularning barchasi chillaxonaning karomati ko‘pligidan so‘zlaydi. Shunday rivoyatlarning birida bir kun fuqarolar majlisi bo‘libdi. Majlis vaqti shu qadar issiq vaqtga to‘g‘ri kelibdiki, u yerda o‘tirganlar rosa chanqashibdi. Suv uchun mas’ul Hakim Otani koyishibdi, shunda Hakim Ota suv tadorigini ko‘rish uchun ketayotganida, qulog‘iga suv tovushi eshitilibdi. O‘girilib qarasa, majlis o‘rtasida xuddi o‘choqqa yoxud hammom gulahiga o‘xshash olov paydo bo‘libdi. U barchani kuydirayotgan emish. Shunga Ahmad Yassaviy qo‘lida qadah bilan paydo bo‘libdi va qadahni olovga botirib

Hakim Otaga tutibdi. Uning aytishicha suv shunchalik totli va muzdek ekanki, chanqoqni shu zaylning o‘zida qondirakan. Majlis ahlining barchasi bu suvdan ichibdi va Yassaviy qo‘llarini olov uzra tutganlarida olov o‘chibdi. Lekin Ollohning hikmati bilan o‘sha joyda bir katta idish paydo bo‘libdi. Odamlar uni “xum-i ishq”( ishq xumi) deb nomlashibdi. Aytishlaricha, agar kimning niyati holis bo‘lsa, o‘sha tolibning qo‘li qanchalik qisqa bo‘lsa ham uning tubiga yetadi, agar niyati hosil bo‘lmasa qo‘li qancha uzun bo‘lsa ham tubiga yeta olmas ekan.(“Javohir-ul abror min amvojil bixar” 91-94 bet) Rivoyatda Ahmad Yassaviy bejizga issiq paytda kelib, ahli fuqaroga suv tutmaganlar bunda ham bir qancha ramziy belgilar bor. Agar rivoyatga adabiyotshunos sifatida yondoshsak, olovning paydo bo‘lishi insonlarni kuydirishi orqali shuni bilishimiz mumkinki, islomdan oldin insonlarning razolatga, qabohatga botgan davri sifatida gavdalanadi, yer yuzida o‘g‘irlik va notinchliklar ko‘paygan payt edi va aynan mana shu paytda Muhammad (s.a.v) payg‘ambar orqali islomning kirib kelishi, insonlar uchun misli tashnalikdan qondiruvchi suv bunga misol bo‘la oladi. Bularning barchasi chillaxonada bo‘layotgani ham bekorga emas, chillaxona insonlarni ruhini va ongini poklovchi makon ro‘li o‘ynamoqda. Shu kabi rivoyatlar va ramziy obrazlar orqali manoqiblar Ahmad Yassaviyni qay darajada xurmat qilishlari va e’zozlashlarining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Xo‘ja Ahmad Yassaviyning tariqati, xotirasi va silsilasi X asrgacha yetib kelishada uning xalifalari o‘rni juda muhimdir. Xo‘janing ilk xalifasi Arslon Boboning o‘gli Mansur Ota, undan keyin Mansur Otaning nevarasi Abdul Malik Ota, uning ortidan evarasi Toj Xo‘jadir. Toj Xo‘ja esa mashhur Zangi Otaning otasidir. Ikkinchi xalifa hijriy 615-yil(1218-19)da vafot etgan xalifa Said Ota haqida aytarlik ma’lumot yo‘q. Uchinchi xalifa “darveshlar ahvolidan turkiy tilde kalmiat-i hikmatomuz va latoyif-i ibratangizlari”bo‘lgan Hokim Otani ko‘rsatishimiz mumkin. U Ahmad Yassaviy va boshqa xalifalardan erta vafod etgan bo‘lsa ham o‘z paytida xalqni irshodga boshlagan. Uning shimoliy turklar orasida tarqalgan va bizgacha yetib kelgan “Hakim Ota Kitobi” manoqiblar to‘plami mavjud. Shu bilan birga, Xo‘ja Ahmad Yassaviyning asosiy va uning to‘laqonli ishonchini oqlagan xalifalari ham bor: So‘fi Muhammad Donishmand Zarnuqiy, Sulaymon Hakim Ota, Bobo Mochin, Amir Ali Hakim, Hasan Bulganiy, Imom Mirg‘oziy, Shayx Usmon Mag‘ribiy. Bu xalifalarning o‘ziga yarasha qobiliyatlari bor edi. Masalan Bobo Mochin Yassaviyga xalifa bo‘lishdan oldin Xuroson eranlaridan to‘rt yuz yoshli vali edi va u har kuni hammaning ko‘z o‘ngida to‘rt farsahlik masofani uchib o‘tardi. Shu kabi qobilyatlaridan g‘ururlanib anchagina kibrga botadi va biz boshida ko‘rgan Ahmad Yassaviyni obro‘sizlantirish maqsadida to‘qigan ayollar va erkaklar bir joyda zikr qilishlar to‘g‘ri emas ma’nosidagi yolg‘onni ham aynan Bobo Mochin yaratgan. Bu ayblon asossiz ekanligi ma’lum bo‘lgandan keyin Ahmad Yassaviy

amri bilan Hakim Ota va so‘fi Muhammad Donishmand uni tutib, takka ustuniga bog‘lab besh yuz martta kaltaklashadi, ammo ta’sir qilmaydi. Shunda yana bir marta urishganda Mochin orqasida bir nishon paydo bo‘ladi va u dod solib yig‘lay boshlaydi. Bu holatni Xo‘ja Ahmad Yassaviy shunday tavsiflaydiki, Bobo Mochin har gal bir necha farsah ko‘kka ko‘tarilganida uning origa bir jin ilashib olarkan va besh yuz martta kaltaklanganidan keyin yana bir urilgandan so‘ng u mochini tashlab ketibdi va Mochin haqiqiy og‘riqni sezibdi. Shundan keyin Bobo Mochin Ahmad Yassaviyga shogird tushdi va eng ishonchli muridlardan biriga aylandi, hatto Yssaviy bilan birga uch bor xilvatga kirdi.(“Javohir-ul abror min amvojil bixar”, 75-77 bet)

Tasavvuf ayni gullab yashnagan paytda ko‘plab insonlar Yassaviy janoblariga murid bo‘lib tushishni xohlashi tabiiy hol edi, shu sababli ham bo‘lajak muridning amal qilishi kerak bo‘lgan bir qancha odob qoidalari mavjud edi. Ular:

1)Hech kimni shayxidan ortiq fazilatli bilmasligi va unga mutloq tobelik ko‘rsatishi; chunki murid huzurida butun kun turli ovqatlar yoyish va kechalari uxlash botin yo‘lini to‘smaydi, biroq shayxidan ayro o‘z rizosi bilan ro‘za va namozga turgan, uryon va giyon hayot sutdigan darvishning taraqqiy yo‘li yopiladi.

2) Murid shayxining ramz va ishoratini anglay oladigan darajada aql-zakovatli bo‘lishi.

3) Shayxining har turli so‘z va fe’llariga rizolik hamda itoat etishi.

4) Shayx xizmatida bo‘larkan, uning roziligiga erishish uchun chaqqon va epchil bo‘lishi, zero, Rizoulloh uning zimmasidadir.

5) Aytgan so‘ziga sodiq, va’dasiga vafodor bo‘lishi, shayxning fe’li o‘zgarib radga sabab bo‘lmasin va hech qachon shak-shubhaga bormasin. Aks holda bu xusron-i mujibdir.

6)Vafoli hamda biat ahdida metin irodali bo‘lishi.

7) Murid barcha mol-mulkini sahyxiga bag‘ishlashga tayyor bo‘lishi lozim. Botin ko‘zi boshqa turli ochilmaydi.

8) Shayxning sirlarini aslo fosh etmaslik.

9) Shayxning barcha talab, pand-nasihatlariga so‘zsiz amal qilishi.

10) Ilohiy visolga erishish uchun shayx koʻrsatgan yoʻlda jonini fido qilishga tayyor turishi hamda doʻ stga doʻst, dushmanga dushmandek munosabatda boʻlishi vojib. (“Javohirul-abror min amvojil bixar”, 120-bet)

Yuqoridagi qoidalardan koʻrinib turibdiki, tasavvuf yoʻlini tutgan odam foniy dunyodagi barcha narsalardan uzulishi, yoʻl koʻrsatuvchisi, aniqrogʻi ustozing aytgan soʻzidan chiqmasligi va uning barcha talablariga boʻysoʻnishi kerak. Xoʻja Ahmad Yassavviyning bu qoidalarni belgilashdan koʻzlangan maqsad u ham vijdoni oldida pok boʻlishni, ham oʻzida bor ilmlarni kelajak avlodga oʻrgatish boʻlgan. Xoʻja Ahmad Yassaviy tariqati insonlarbi faqrlikka, zohidlikka, qalandarlikka chorlaydi. Yashashdan asosiy maqsad esa, toat-ibodatga berilgan holda Yaratganning visoliga, uning roziligiga erishishdir. Yassaviyning fikricha haqiqiy soʻfi boʻlish uchun yeyish-ichishdan, kimhob toʻnlar kiyishdan, koʻp uxlashdan, bemani va notoʻgʻri gaplarni gapirishdan oʻzini tiymogʻi kerak. Agar kimda-kim shu yoʻsinda yashasa, albatta, oxiratda Ollohning eng suygan bandalaridan bir boʻladi.

Agar inson butun umri davomida ibratli hayot kechirsa, u bu dunyoni tark etganidan keyin ham oʻzgalar uni avval qilib ketgan ishlari uchun ham qadrlashadi, unga atab she’rlar bitishadi. Xoʻja Ahmad Yassaviyning din, ilm va ustoz, shogird an’analaridan kelib chiqib, Yassaviy barchamiz ibrat maktabini deb bemalol ayta olamiz. Tarixiy faktlarlarga nazar tashlasak, Hazrat Amir Temur Xizr alayhissalom bilan Buxoroga borishni niyat qiladi va yoʻlda Turkistonga kirib oʻtadi. Turkistonlik Xoʻja Ahmad Yassaviy Amir Temurning tushiga kiradiva “Ey oʻgʻlon! Tez Buxoroga yoʻl ol, inshaolloh u ertangi shohning oʻlimi sening qoʻlingda. Butun Buxoro xalqi seni kutmoqda” deydi. Ertasiga Turkiston hokimi Noʻgʻayboq Xonni yoniga chaqirib, Ahmad Yassaviy qabri uzra maqbara qurishni buyuradi.(“Risolayi tavorixi bulgʻoriy”, 26-bet) Koʻrinib turibdiki, ul zotning oʻlimlaridan soʻng ham xalq uchun va din uchun koʻrsatgan karomatlariga hali ham mukofotlar ila javoblar qaytarilmoqda. Xoʻja Ahmad Yassaviy butun Turkiston va Movarounnahrga yoygan tariqati darveshlar, sayidlar va din peshvolari tomonidan katta ehtirom va olqishlar bilan kutib olindi. Tariqatning bosqichlarini oddiy xalq bajara olishining imkoni yoʻq, chunki har bir bosqich oʻrganuvchidan uzoq vaqt, kuchli sabr va ruhiy poklik talab etardi va Yassaviy aytgandek “nafsni tepib dargohida qabul boʻl”ishni istagan haqiqiy obid, zohidlarning qoʻlidan kelar edi. Yassaviy mana shundan tariqatni yaratdi va oʻzi ham shariatning 4 bosqichidan oʻtish uchun butun umrini sarfladi. Agar inson rostdan ham Ollohning jamolini koʻrishni xohlasa va bu uchun tinmay toat-ibodat qilsa, yaratganni zikr qilsa, albatda, bunga erishishi mumkinligi haqida fikr yuritadi va asarlari orqali buni isbotlab beradi. Fuat Koʻpruluning asari Ahmad Yassaviyni nafaqat ilmiy tomondan, balki diniy tomondan ham oʻrganganligi bilan

o‘quvchi o‘ziga jalb etadi, o‘yga toldiradi. “Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar” asarini o‘qish davomida men bir tushunchaga inson bu dunyoda qancha umr ko‘rgani yoki qanday ijtimoiy ahvolda yashagani bilan emas, balki shu umri davomida kelgusi avlodlarga qoldir qimmatli bilimlari, ibratli hayoti bilan asrlar davomida nomi mangullikka bitilishi mumkinligiga amin bo‘ldim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Mehmet Fuat Ko‘prulu.(2013) Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar. Turkiya: ALFA Nashr Tarqatish San. Va Tij. Ltd Shirkati.
2. Qurbonova Elnura. G‘.(2022) Ahmad Yassaviy ijodining turkiyada o‘rganilishi. Toshkent: Dissertatsiya
3. Xo‘ja Ahmad Yassaviy.(2004) Devoni hikmat. Toshkent: Movarounnahr.
4. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy.(2003) Maqomoti Yusuf Hamadoniy. Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. Grenar.(1898) Turkiston va Tibet. Turkiya: E. Leru.
6. N.Osimbek.(1926) Turk adabiyoti tarixi.Istanbul: Eron adabiyoti.
7. Haziniy “Javohir-ul abror min amvojil bixar”.


## “CHIN SEVISH” DRAMASIDAGI XRONOTOPNING O‘ZIGA XOS JIHATI.


*Yo‘ldoshaliyeva Gulshanoy Dilmurod qizi*
*ToshDO‘TAU, O‘FF 4-kurs talabasi*
gulshanoyimmmm@gmail.com



***Annotatsiya.*** *Yozuvchi ijodini umumbashariy doirada, ijodkor dunyoqarashi, so‘z qo‘llash prinsipini o‘rganish, u yozgan asarlardagi syujet va kompazitsion o‘ziga xosliklar o‘zbek adabiyotida kam e’tibor qaratgan masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbek adabiyotshunosligi yozuvchi ijodidagi xronotop masalalarini tadqiq etish yo‘sinida biz o‘ylaganchalik o‘rganilgan, deya olmaymiz. Fitratning dramalarini xronotop doirasi nuqtayi nazaridan tadqiq qilish yangi va zaruriy masala sanalgani uchun ham “Chin sevish” dramasini tahlilga tortdim.*

***Abstract.*** *Studying the writer's creativity in a universal framework, the creator's worldview, the principle of using words, the plot and compositional peculiarities of his works is one of the issues that have received little attention in Uzbek literature. We cannot say that Uzbek literary studies has been studied as much as we think in terms of researching chronotope issues in the writer's work. Because*

*the study of Fitrat's dramas from the point of view of the chronotope is considered a new and necessary issue, I analyzed the drama "Chin Sevesh".*

***Kalit so‘zlar:*** *xronotop, kompozitsiya, syujet, davr, motiv, adabiyotshunoslik, Qur'oni Karim, janr, komponent*

***Key words:*** *chronotope, composition, plot, period, motive, literary studies, Qur'oni Karim, genre, component*

Drama janrini belgilovchi asosiy badiiy komponent – syujetdan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Sababi dramaning kompozitsiya, remarka, monolog, dialog uslub singari boshqa kompanentlari aksar ijodkor, makon va zamon individualligi bilan bog ‘liq bo ‘ladi. Faqatgina syujet va obraz, drama qaysi makon, qaysi zamon va qaysi ijodkor qalamiga mansub bo ‘lmasin zamonning qay yo‘sindaligini va an’anviylikni o‘zida aks ettirib beradi. An’anaviylik degani esa, mohiyat e’tibor bilan, klassitsizm[93] tamoyili hisoblanadi. Shu ma’noda dunyoda biror asar yo‘qki, klassitizm tamoyilidan xoli bo‘lsin. Bu shunchaki tamoyil ham emas balki adabiyotning temir qonuniyati hamdir. Faqat joriy estetik qonuniyatlar doirasida kelib ketgan asar klassitistik , uni samoviy, umuminsoniy ideallari asosida yangilangan asar esa klassik, ya’ni “namuna”ning o ‘zi bo ‘ladi.[94]

Drama syujeti- drama janrini belgilovchi muhim badiiy unsur syujetdan kelib chiqishi maqsadga muvofiq. Chunki, dramaning kompozitsiya, remarka, dialog, uslub singari boshqa unsurlari ko‘proq ijodkor va ijodkor yashagan zamon va makon individualligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shubhasiz, bu unsurlardan foydalanishda ijodkorning subyektivligi, mahorati, ehtiyojlarning ta’siri, zamonning qanday yo‘sindaligini ta’siri bo‘lmasligi mumkun emas. Lekin syujet va obraz, qaysi makon, zamon ijodkor tomonidan qalamga olinmasin, shartli ravishda qisman tipologik, an’anaviydir. An’anaviylik degani esa, klassitsizm[95] tamoyilidir. Shuni ta’kidlash joizki, dunyo adabiyotida hech bir asar klassitsizm tamoyilidan alohida emas, bu

---

[93]Крамер С.Н. История начинается в Шумере.-М.:«Наука» Главная редакция восточной литературы, 1991.-С. 18.

[94]Jo‘raqulov, Uzoq.Nazariypoetikamasalalari: Muallif. Janr. Xronotop. Ilmiy-nazariytadqiqotlar, adabiytanqidiymaqolalar/ U. Jo‘raqulov.-Toshkent:G‘afurG ‘ulomnomidaginashryot-matbaaijodiyuyi, 2015.-356b. 152-153 betlardan olindi.

[95]Jo‘raqulov, Uzoq.Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. Ilmiy-nazariytadqiqotlar, adabiytanqidiymaqolalar/ U. Jo‘raqulov.-Toshkent:G‘afurG ‘ulomnomidaginashryot-matbaaijodiyuyi, 2015.-356b. 151-152 betlardan olindi.Bu o ‘rinda “klassitsizm” terminini keng ma’noda qo‘llayapmiz. Buni XVII Yevropa falsafiy-madaniy muhitida maydonga kelgan, borliq, va inson fenomeniga ratsional yondashuv tamoyilini ilgari suradigan klassitsizm bilan aynan tushunmaslik lozim. Kening ma;nodagi klassitsizm deganda biz diniy, falsafiy, madaniy, ijtimoiy an’analarning qonuniyligi odamzot tabiatiga xos “namuna”ga intilish, undan ta’sirlanishni nazarda tutamiz. Adabiyot va boshqa turdagi klassitsizm, bunday asarlarning umuminsoniylik darajasi mana shu “namuna”ning nima va qaysi darajada ekani bilan belgilanadi. Agar Yevropa adabiyotining turli davrlarida Antik yunon san’ati “namuna” vazifasini bajarsa, Sharq –islom dunyosi uchun esa “Qur’oni Karim” va payg ‘ambarimiz Muhammad mustafo sollahi alayhi vassallamning muborak hadislari eng oliy “namuna” maqomida turadi.

tamoyil ham emas, balki adabiyotning temir qonuniyati hamdir. Faqat joriy estetik qonuniyatlar doirasida qolib ketgan asar klassitsizm, uni samoviy, umuminsoniy ideallar asosida yangilangan asar esa, klassik ya'ni namunaning o'zi bo'ladi.[96]

Abdurauf Fitratning "Chin Sevish" dramasi, o'z davrida va keying davrlarda kitobxonlar tomonidan iliq kutib olingan asar. "Chin sevish" dramasi klassik asardirki, uning syujetidagi belgilarni ilk o'qishdayoq anglash murakkabroq, lekin qata-qayta o'qish jarayonidan so'ng o'zini namoyon qiladigan mohir drama hisoblanadi. Va bu "Qur'oni Karim"dahi "eng go'zal qissa"ga borib taqaladi. Bu fikrni asoslash uchun, eng avval, eng go'zal qissa tushunchasi, uning voqeligi, adabiyotda o'rganilishi, jahon va o'zbek adabiyoti takomili uchun nima bergani xususida bafurja fikr yurtishimiz lozim.

"Eng go'zal qissa" tushunchasi adabiyotshunoslikda aynan shu yo 'sinda qo 'llanmasada barcha qadimiy asarlar, zamonlar osha umumbashar "Yusuf" qissasining syujetini asos qilib olgan adabiyot durdonalarini uchratishimiz mumkun.

Qayd etish joizki, sharq adabiyotida mashhur bo 'lgan bu sayyor syujet "Yusuf va Zulayxo" bo 'lib, dastlab diniy manbalarda "Tavrot", "Injil", "Qur'oni Karim" kitoblarida bayon qilingan. "Yusuf" surasi Qur'oni Karimning 12-surasi bo 'lib, u 11-oyatdan iborat, "eng go 'zal qissa" deb ta'riflangan. U payg 'ambarimiz janobi Muhammad Mustafo sollahi alayhi vassallamning boshlariga musibat tushganda tog 'alari Abu T|olib va zavjalari Xadicha onamiz vafot etgan kunlarida Makkada nozil bo 'lgan. Payg 'ambar Yusuf a.s.ning badiiy adabiyotdagi obrazi qissa va dostonlarda o 'z aksini topgan ba'zi badiiy asarlarda ismi kelmasada, uning hayot yo'lini syujeti ko'chib o'tgan. Bu mavzuni arab va fors tillarida Firdavsiy, as-Saolabiy, Ibn Sino, Kisoiy, Abdurahmon Jomiy, turkiy tilda esa Qul Ali, Sayyod Hamza, N.Rabg'uziy asar yaratganlar. Xalq dostonlari orasida ham "Yusuf va Zulayho" dostoni uchraydi. Alisher Navoiy ham "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida payg 'ambarlardan 20-o 'rinda Yusuf a.s. to 'g 'risida ma'lumot keltirilgan. "Yusuf" sayyor syujeti deganda biz ilohiy kitoblar, asosan, Qur'oni Karimda kelgan "Yusuf" surasi – Yusuf a.s to 'g 'risida kelgan ilohiy ma'lumotni nazarda tutamiz. Qur'oni Karimning "Yusuf" surasi avvalidan oxirigacha boshqa voqea, narsalar aralashtirmay hikoya qilingan yagona sura. Bu surada ko 'proq oilaviy munosabatlardagi salbiy jihatlar, hukmron doiralar ichidagi iltifotlar, ularning atrofdagilarning holatiga e'tibor berilgan. Diniy-ma'naviy tarbiyasi bo 'lmagani tufayli "to'qlikka sho 'xlik" qilishlaridan namunalar keltirilgan. "Yusuf" qissasi biz bilgan "Zabur", "Injil", "Tavrot" da dastlab aniq bayon qilingan bo 'lsa, vaqtlar o'tib xalq og 'zaki ijodida yaratilishi, ayrim buzilgan

[96]Jo'raqulov, Uzoq.Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. Ilmiy-nazariytadqiqotlar, adabiytanqidiymaqolalar/ U. Jo'raqulov.-Toshkent:G'afurG 'ulomnomidaginashryot-matbaaijodiyuyi, 2015.-356b. 152- betdan olindi

variantlarini “Quroni Karim”dagi sahih habarlar so ‘ngi bor yangiladiki, shuning uchun “eng go ‘zal qissa” syujeti haqidagi tasavvurimizda ayni manbalarga tayanishimiz har jihatdan to‘g‘ri.

Qissada kelishicha, Ulug‘ payg‘ambarlar- Ibrohim, Is’hoq, Yaqub (a,s)larning sulolasi bo‘lmish Yusuf yosh yigitlik paytida aka-ukalarining fitnasiga uchrab quduqqa tashlanishi, qul qilib sotilishi, Zulayxoning hiylasiga uchrab Yusufning foydasiga hal bo‘lishi, vazir bo‘lib butun yurtni boshqarishi, Yaqub a.sning fazrandiga yetishishi voqealari bayon qilingan. Qayd etganimdek, “Yusuf” haqida qissa sharq adabiyotining deyarli hamma namunalarida o‘z aksini topgan. U yoki bu qismi yaratilgan badiiy asarlarda bor va ushbu qissadan Yevropa va shatrq adabiyotida keng foydalaniladi. Masalan, Abdurauf Fitratning “Chin sevish” dramasidagi syujet ham “eng go‘zal qissa” syujeti asosida qurilgan. Dramada tugundan boshlanadi. Bog‘da Zulayxo Nuridddinxonning dardini neligini anglamay o‘tirgan voqeadan anglash mumkkinki, Zulayxoning Nuriddinxonda ko‘ngli bor. Nuriddinxon esa, homush, hushi o‘zida emas bir holatda tasvirlanadi. Birinchi pardada Rahmatulloxonning bog‘ga tashrifi, “badiiy” gaplari bilan Zulayxoning ko‘nglini olmoqchi bo‘lgani va Zulayxo Rahmatulloh bilan suhbatlashishni istamasli bayoni beriladi. Birinchi pardada kitob detali bor, ushbu detal shuni anglatadiki, Zulayxo va Nuriddinxon o ‘rtasidagi iliq munosabat bor va ushbu munosabatga jamiyat noto‘g‘ri hukm chiqaradi ya’ni ikki obrazning bir-birida ko‘ngli bor degan tahmin qilinadi, aslida Nuriddinning dardi jamiyatning borgan sari botqoqqa tushayotganidan havotirida edi. Mana shu syujet “Yusuf” qissasidagi savdogar Azizning ayoli Zulayxo bilan Yusufning o‘rtasida bo ‘lgan voqeada ham namoyon bo‘ladi. 2-pardada esa Rahmatullohning uyida Ayyubxon, Sherxon va G ‘ulom Haydarlar to‘planishib, chog‘ir ichishib, Nuriddinni yo‘q qilish uchun hiyla o‘ylab topishadi va niyatlariga yetishadi. Qissaga qaytadigan bo‘lsak, Yaqub a.sning farzandlari o‘z inilari Yusuf a.sni quduqqa tashlashlari, otalari Yaqub a.sga esa yolg‘on so‘zlashlari ayni syujetdir. Fitratning dramasidagi syujetda hibsga olinsa, Yusuf qissasida esa quduqqa tashlanadi. Nuriddinxon ham tom ma’noda abadiy ozodlikka erishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Крамер С.Н. История начинается в Шумере.-М.:«Наука» Главная редакция восточной литературы, 1991.-С. 18.

2. Jo‘raqulov, Uzoq.Nazariypoetikamasalalari: Muallif. Janr. Xronotop. Ilmiy-nazariytadqiqotlar, adabiytanqidiymaqolalar/ U. Jo‘raqulov.-

Toshkent:G‘afurG ‘ulomnomidaginashryot-matbaaijodiyuyi, 2015.-356b. 152-153 betlardan olindi.

3. Jo‘raqulov, Uzoq.Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. Ilmiy-nazariytadqiqotlar, adabiytanqidiymaqolalar/ U. Jo‘raqulov.-Toshkent:G‘afurG ‘ulomnomidaginashryot-matbaaijodiyuyi, 2015.-356b. 151-152 betlardan olindi

## ALISHER NAVOIY IJODIDA MUQBIL VA MUDBIR OBRAZLARINING BADIIY TALQINI

***Yusufjonova Gavharbonu Husanboy qizi,***
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 2-kurs*
*gavharbonuyusufjonova@gmail.com*
Ilmiy rahbar: fil. fan. dok, prof, Dilnavoz Yusupova

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida Muqbil va Mudbir obrazlari yoritilgan. Bu obrazlar shoirning “Sab’ai sayyor”, “Lison ut-tayr” va “Mahbub ul-qulub” asarlari asosida konseptual jadval orqali tadqiq qilingan. Maqola muallifi mazkur asarlarda ikki obrazni o‘zaro qiyoslash orqali Alisher Navoiyning falsafiy-axloqiy qarashlarini talqin qiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *konseptual jadval, obraz, epizod, qiyoslash, doston.*

**Abstract.** *This article describes the characters of Mukbil and Mudbir in the works of Alisher Navoi. These images are explored through a conceptual table based on the poet’s works “Sabai Sayyor”, “Lison ut-Tayr” and “Mahbub ul-Kulub”. The author of the article interprets the philosophical and moral views of Alisher Navoi, comparing the two heroes of these works.*

***Key words:*** *conceptual table, image, episode, comparison, epic.*

Musulmon Sharq adabiyotida falsafiy-didaktik ruhdagi asarlar G‘arb adabiyotiga nisbatan keng rivojlangan. Bunga dalillar ham talaygina. Shulardan biri Nizomiy Ganjaviyning beshligidagi birinchi doston “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”) ayni shu yo‘nalishdagi doston hisoblanadi. Ushbu dostonning vujudga kelishida XII asr klassigi Hakim Sanoiy “Hadiqat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar bog‘i”) dostonining ta’siri bor. “Hadiqat ul-haqoyiq” asari falsafiy-didaktik yo‘nalishdagi dostonlarning ibtidosidir. Alisher Navoiy ham forsigo‘y salaflari kabi bu yo‘nalishning rivojlanishiga o‘z asarlari orqali salmoqli hissa qo‘shdi.Navoiyning ijodiy merosi o‘rta asrlar turkiy adabiyotining noyob durdonasi hisoblanadi. Asarlarida hikoya janri orqali o‘zining falsafiy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, didaktik qarashlarini to‘laqonli ravishda bayon qilgan. “Xamsa” tarkibidagi “Hayrat ul-abror”, “Saba’i sayyor”, “Saddi Iskandariy” dostonlarida ham hikoya janridan

samarali foydalangan, shu jumladan “Saba’i sayyor” dostonida qoliplovchi voqea va unga bog‘langan 7 ta hikoyat keltirilgan. Bundan tashqari uning “Lison ut-tayr” dostonida 65 ta hikoyat keltirilgan bo‘lib, ushbu hikoyatlarni adabiyotshunos olim Sh.Sharipov mavzu jihatidan 4 ga bo‘lib tasniflashni ma’qul ko‘radi. Ular quyidagi guruhlardir:

1. Ijtimoiy-siyosiy va falsafiy mavzudagi hikoyatlar.
2. Din va tasavvuf vakillari, ularning ba’zi muhim qarashlariga oid hikoyatlar.
3. Axloqiy-ta’limiy hikoyatlar.
4. Ishq-muhabbat mavzusidagi hikoyatlar.[97]

Navoiy umrining so‘nggi yillarida yozgan nasriy asari “Mahbub ul-qulub” bo‘lib, mazkur asar muallifning butun hayoti davomida to‘plagan boy tajribasi va xulosalarining yig‘indisidir. Asarning kompozitsion qurilishi o‘ziga xos bo‘lib, Navoiy uni uch qismga bo‘ladi. Uning ikkinchi qismi “Hamida af’ol va zamina xisol zikrida” deb nomlanib, o‘n bobda Navoiy ijodining o‘zak masalalaridan hisoblangan tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze va odob, zikr, tavajjuh, rizo, ishq kabi tushunchalarning irfoniy-axloqiy talqini keltirilgan. Har bir bobda ruhiy tarbiyaning muhim bosqichlari bo‘lmish ushbu o‘nta insoniy fazilatning asl mohiyati ochilib, mashhur shayxlar va afsonaviy personajlar nomi bilan bog‘liq ibratli hikoyat va rivoyatlar bilan dalillanadi[98].

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, Navoiyning asarlarida hikoya janrining o‘rni beqiyos. Ana endi ushbu asarlarda qo‘llanilgan Muqbil va Mudbir obrazlariga to‘xtalsak. “Saba’i sayyor” dostonida ushbu obrazlar 6-hikoyat tarkibida uchraydi:

*Forig‘ o‘lg‘och bu dur nisordin,*

*Dedikim: “Boxtar diyoridin*

*Qildilar azmi Xovar ikki kishi,*

*Tun-u kun sayr o‘lub alarming ishi.*

*Birisi Muqbili biyobongard,*

*Yana bir Mudbir bihornavard.*

[97] Bu haqda qarang: Мамадалиева З. “Лисон ут-тайр” образлари: рамз ва мажоз олами. – Тошкент: Tamaddun, 2014.

[98] Маҳбуб ул-қулуб /Алишер Навоий. Қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2016. – Б. 328.

Yuqoridagi baytlar hikoyani boshlanishi bo‘lib, Boxtar degan diyordan Xovarga qarab ikki kishi safar qilgani, ularning ishi tun-u kun sayr qilish va hamrohlarningbiri biyobonlar kezadigan Muqbil, ikkinchisi daryolar sayr qiladigan Mudbir ekanligi haqida ma’lumot beradi. Bu hikoyatda Muqbil ijobiy obraz, Mudbir esa salbiy obraz ekanligi quyidagi baytlarda namoyon bo‘ladi:

*Muqbil – ozodai humoyunfol,*

*Elga maqbul etib ani iqbol.*

*Mudbir andoqki borsa har sori,*

*O‘lturub yuzda gardi idbori.*

Ayni shu obrazlar “Lison ut-tayr” dostoning tarkibida ham mavjud bo‘lib, Tazarv uzriga Hudhud javob tarzida keltirgan hikoyat tarkibida uchraydi. Tazarv o‘z uzrida o‘zining husn va chiroyga ega qush ekanligi, benihoya jamol va go‘zallik uni kishilar nazdida sevimli qilgani hamda odamlar chiroyli kishilarning azob chekishini ravo ko‘rmasligi haqida so‘z yuritadi. Hudhud uni quyidagi baytlar orqali tanqid qiladi:

*Senki xotunlar kibisen xudpisand,*

*Yetkusi zotingg‘a erlikdin gazand.*

*Er kirar er soniga himmat bila,*

*Er emas faxr aylag‘on ziynat bila.*

*Erga xulq-u fe’l erur zebi jamol,*

*Yangi zarkash hullasidur eski shol.*

Ushbu baytlarda er kishi himmati bilangina er sanalishi, ziynati bilan faxrlanuvchi er – er emasligi, haqiqiy go‘zalik uning yaxshi fe’l-atvorida bo‘lishi haqida so‘z boradi. Hudhud Tazarvga javoban bir yo‘lda ketayotga ikki o‘rtoq, birinchisi nuqsonli gumroh Mudbir, ikkinchisi esa komil sifatli tariqat bilimdoni Muqbil haqidagi hikoyatni keltiradi.

Muqbil va Mudbir obrazlar yuqorida keltirilga ikki dostondan tashqari “Mahbub ul-qulub” asarining ikkinchi qismida ham uchraydi. Navoiy ushbu qismning oltinchi bobida kishini xalqning muhabbatiga sazovor qiladigan xislatlar tavoze (kamtarlik) va odob haqida so‘z yuritadi va so‘zlarining xulosasi sifatida Muqbir va Mudbir hikoyatini keltiradi.

Navoiyning asarlarida Muqbil va Mudbir timsollari va ular bilan bog‘liq voqealarni quyidagi konseptual jadvalda ko‘rish mumkin:

| **Qiyoslanuvchi jihatlar** | **“Sab’ai sayyor”** | **“Lison ut-tayr”** | **“Mahbub ul-qulub”** |
|---|---|---|---|
| Muqbil obrazi | Iqboli peshonasi yarqiragan kishi | Xudojo‘ylar haqida, dindagi komil va ogoh kishilar to‘g‘risida so‘zlovchi kishi | Ogoh, odob va tavoze tufayli ulug‘vor kishi |
| Mudbir obrazi | Qayerga bormasin, yuziga pastkashlikning g‘ubori qo‘ngan kishi | Butni vasf etuvchi kofirlarga o‘xshab faqat nuqson ahli haqida so‘zlovchi kishi | G‘ofil johilligi tufayli kekaygan kishi |
| Muqbilning hikoyat so‘ngidagi holati | Xovar shohi uni rost so‘zligi va yaxshi xislatli odam ekanligi uchun o‘z oldiga vazr qilib oldi | Mamlakat shohi Muqbilga yuz hurmat va ehtirom ko‘rsatdi. U shohning shuhbatiga musharraf bo‘lib, oliy martabaga erishdi | Odob va tavoze sharofatidan maqsad gavharini topdi va shoh gulzoridan bahra oldi |
| Mudbirning hikoya so‘ngidagi holati | Xovar shohi oldida yolg‘on-yashiq so‘zlarni gapirar ekan vujudi shishdi va yorilib o‘ldi | Bir odamga xanjar urib, halok qilganligi sababli shoh undan qasos olish haqida hukm chiqardi | Gerdaygani tufayli o‘sha shaharning hammomiga go‘lax (o‘t yoquvchi) bo‘ldi |
| Sayohat epizodi | Boxtar degan diyordan Xovarga qarab | Ikki do‘st yo‘lga tushdi, yura-yura go‘zal | Ittifoqo, ikki hamroh biyobondan o‘tib Madoyin shahariga |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ikki qildi | kishi | safar | shaharga kelishdi | yetib | kirish borar edi | niyatida |

Ushbu konseptual jadval orqali ko‘rishimiz mumkinki, Navoiyning har uchala asarida ham Muqbil ijobiy obraz sifatida va Mudbir salbiy obraz sifatida gavdalangan. Navoiy o‘z asarlarida bu qahramonlarni keltirish orqali insonlarni yaxshi fazilatlar orqali ezgulikka erishishi va yomon fazilatlar orqali halokatga uchrashi haqida o‘zining falsafiy-axloqiy qarashlarini bayon qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Алишер Навоий. Хамса: Садди Искандарий. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.8.
2. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.9.
3. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.9.
4. Алишер Навоий. Қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2016.
5. Мамадалиева З. “Лисон ут-тайр” образлари: рамз ва мажоз олами. – Тошкент: Tamaddun, 2014.


## ALISHER NAVOIY IJODIDA G‘OYAVIY O‘XSHASH HIKOYATLAR TALQINI


***Normahammadova Tursunoy Farxodjon qizi,***

*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs*

*normahammadovatursunoy@gmail.com*

*Ilmiy rahbar: fil. fan. dok, prof, Dilnavoz Yusupova*



***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”dostonidagi “Ikki vafoli yor” hikoyati hamda “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Ikki do‘st” hikoyati, ularni bog‘lab turuvchi g‘oyaviy o‘xshash fazilat – vafo haqida so‘z yuritiladi.*



***Kalit so‘zlar:*** *doston, hikoyat, vafo, do‘st, shoh, Chingiz, Xorazmshoh, Amir Temur.*

***Abstract.*** *This article talks about Alisher Navoi's story "Two Faithful Friends" in the epic "Khairat ul-Abror" and "Two Friends" in the epic Saddi Iskandari, about the ideologically similar quality of loyalty that binds them.*

***Key words:*** *epic, story, loyalty, friend, king, Genghis Khan, Khorezmshah, Amir Temur.*

Hazrat Alisher Navoiyning ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak choʻqqisidir. "Xamsa" dostoni esa ana shu choʻqqidagi betakror xazinadir. Navoiyga qisqa muddatda turkiy tilda "Xamsa" yaratish baxti nasib etdi. 1483-1485-yillarda Navoiy "Xamsa"ni yozib tugatdi. Bu asar butun turkiy olamda katta burilish yasadi. Turkiy adabiyotda "Xamsa" oʻz mavqeyiga ega eng noyob xazinaga aylandi.

Mazkur maqolada "Hayrat ul-abror" va "Saddi Iskandariy" dostonidagi hikoyatlarning gʻoyaviy oʻxshashligi haqida soʻz yuritiladi. Ma'lumki, "Xamsa" besh dostondan iborat boʻlib, birinchi doston "Hayrat ul-abror" pand-nasihat ruhidagi didaktik asardir. Dostonning birinchi bobi "Bismillahir rohmanir rohiym" ("Mehribon va rahmli Olloh nomi bilan boshlayman") oyatining shoirona talqiniga bagʻishlanganligi uchun "basmala bobi" deb ham ataladi. Bu bob nafaqat "Hayrat ul-abror" uchun, balki, umuman, "Xamsa" uchun kirish vazifasini oʻtaydi, chunki keyingi dostonlarda biz bu ilohiy jumlani uchratmaymiz[99].

"Saddi Iskandariy" dostoni esa "Xamsa" tarkibidagi beshinchi doston boʻlib, eng yirik doston hisoblanadi. Bu doston dunyodagi buyuk siymolardan biri Iskandar talqiniga bagʻishlangan. Dostonning tuzilishi Iskandar voqeasi, nazariy masala, hikoyat va hikmatlardan iborat. "Hayrat ul-abror" va "Saddi Iskandariy" dostonlarini oʻqish davomida gʻoyaviy jihatdan bir-biriga oʻxshash hikoyatlarni koʻrishimiz mumkin. Quyida "Hayrat ul-abror" dostonida keltirilgan "Ikki vafoli yor" hamda "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ikki doʻst ittifoqligi" haqidagi hikoyatlarni koʻrib chiqamiz. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida *vafo* haqida toʻxtalar ekan, "Vafoga yetishishni istagan kishining ishi suv ustida yugurishdek va tuproq ustida kema haydashdek boʻlmagan ishdir" - deydi.

*Yuz topilur, bir desa bu kon aro,*
*Yuz desa ming oncha bu ummon aro.*

*Gʻayri hamul durki, jahontob erur,*
*Kim bu tengiz qa'rida noyob erur.*

*Bir dur agar aylasa zohir jamol,*
*Ikkisi jam oʻlmoq emas ehtimol.*

[99] Муҳиддинов М, Муллаҳўжаева К. Қомусий луғат. «Ҳайрат ул-аброр». Тошкент – 2016. Б.229

*So‘rsa otin ahli safo javhari,*
*Oh chekib deki, vafo gavhari*[100]*!*

Navoiy vafoni “Dengiz ostidagi noyob dur” deya ta’riflaydi. Agar o‘sha dur o‘z jamolini ko‘rsatadigan bo‘lsa, unga yana bir shunaqasini qo‘shish imkoniyati yo‘q. Sofdil odamlar u javharning otini so‘rasalar, oh chekib, “Vafo gavhari” deb javob berish kerakligini aytib o‘tmoqda.

*Aylasalar ikki tarafdin vafo,*
*Yetgay alar jonig‘a oncha safo.*

*Kim sifati sig‘magay avroq aro,*
*Demayin avroqki, ofoq aro.*

Vafo agar ikki tomondan bo‘lsa, ularning hayoti shunchalik shodlik topadiki, buning ta’rifi varaqlarga, varaqlarga emas, hattoki ufqlarga ham sig‘maydi. Alisher Navoiy vafo haqida o‘zining qarashlarini bayon etgandan so‘ng fikrlarini dalillash maqsadida “Ikki vafoli yor” hikoyatini keltiradi. Ushbu hikoyatda vafoning eng yuksak darajasi ko‘rsatib berilganiga amin bo‘lamiz. Unga ko‘ra, Temur Ko‘ragon Hindistonni qiyinchilik bilan fath etgandan so‘ng aholini qatli om qilishga buyuradi. Shu payt ikki vafoli yor: “Avval mening boshimni ol”,- deydi, sherigi esa “Menikini ol birinchi”,- deydi. Holat shunday davom etgandan so‘ng ularni o‘ldirishdan voz kechadi. Ikkalasi bir-biriga vafosi tufayli sog‘-omon qolishadi.

*Bir-biriga kechti alar qonidin,*
*Shoh dag‘i kechti ulus qonidin*[101].

“Saddi Iskandariy” dostoni “Xamsa”dagi eng katta va yakunlovchi doston hisoblanadi. Asar 89 bob, 7215 baytdan iborat. Doston aruzning mutaqorib bahrida yozilgan.

Dostonning 24-bobida agar ikki shoh o‘rtasida urush bo‘lmasa ham, noahillik bo‘laversa, jamiyatda tinch-osoyishta hayot bo‘lmasligi haqida aytib o‘tilgan.

*Rafiq iki darvesh, beishtiboh,*
*Erur yaxshiroqkim, aduv ikki shoh.*

Yuqoridagi baytda ikki darveshning do‘stligi bir-biriga dushman bo‘lgan ikki shohning do‘stligidan afzal ekanligi aytib o‘tilmoqda.

Alisher Navoiy ushbu bobni dalillash maqsadida “Ikki do‘st ittifoqligi” haqidagi hikoyatni keltiradi. Bu voqea Chingiz va Xorazmshoh o‘rtasidagi jang bilan bog‘liq.

[100] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. «Ҳайрат ул-аброр». Тошкент – 1991. Б.153.
[101] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. «Хайрат ул-аброр». Тошкент – 1991. Б.161.

*Hamonoki Chingiz topib zafar,*
*Aning mulkin qildi zer-u zabar.*

Urushda Chingiz zafar qozonadi va ularning mulkini ostin-ustun qilib yuboradi.

*Magar Shom mulkida erdi bu hol*
*Ki, iki rafiqi mavaddatxisol.*
*Ko'zidin oqar qonlaridin ikov,*
*Yudilar ilik jonlaridin fido.*
*Tilab har biri aylamak ibtido*
*Ki, jonin yana birga qilgay fido.*

Bu voqea Shom mamlakatida sodir bo'ladi. Ikki do'st asirga tushib qoladi va ularni o'ldirmoqchi bo'lganida, jonini har ikkisida birinchi qurbon qilishni istaydi.

*Ki: "Avval mening boshima tig' sur,*
*Chu men o'ldum, ul dam aning bo'ynin ur!"*

Birisi: "Avval mening boshimni ol", desa, do'sti esa menikini deydi. Shu zaylda ularning har ikkisi jonini bir-biriga qurbon qilmoqchi bo'ladi. Bu payt Chingiz yuqoridagi holatni tushida ko'radi.

*Ki: "Kechgil xaloyiqqa ozordin,*
*Vafo o'rgan ushbu iki yordan*
*Sanga kinavar bo'lsa, Xorazmshoh,*
*Ul ishtin jahon ahlig'a ne gunoh".*

Bir kishi Chingizga "Xaloyiqqa ozor berishdan voz kech. Mana shu ikki do'stdan vafoni o'rgan. Sen bilan Xorazmshohning orasida xusumat bo'lsa, bu ishda insonlarning nima gunohi bor",- deydi.

*Iki shoh chun bo'ldilar kinaxoh,*
*Jahon ahli bo'ldi sarosar taboh.*

Ikki do'st bilan qotil o'rtasida bo'lgan mojarolar xalq ichida yaxshilik timsoli bo'lib qoldi.

*Vale iki darveshning himmati,*
*Muvofiqlig'i yumni xosiyati*[102].

Ikki darveshning himmati tufayli shohlik o'rtasidagi dushmalik tig'i ko'tarildi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, "Xamsa" dostonidagi hikoyatlar mundarijaviy doston "Saddi Iskandariy"da ham takrorlanadi. Ikkala hikoyatni ham

[102] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. «Садди Искандарий». Тошкент – 1991. Б.134-135.

bog‘lab turuvchi fazilat – *vafo.* Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining sakkizinchi maqolatida “vafo” haqida so‘z yuritib, uni dalillash maqsadida “Ikki vafoli yor” hikoyatini keltiradi. “Saddi Iskandariy”da esa Iskandar va Doro o‘rtasidagi kelishmovchilik haqida gapiriladi. 24-bobda ziddiyat va ixtilof haqida so‘z yuritilar ekan, qo‘rqinchli ixtiloflar podshohlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar va ziddiyatlar ekanligi aytib o‘tiladi. Ikki darveshning do‘stligi adovatda bo‘lgan ikki podshohning do‘stligidan afzalroqdir. Fikrlarning isboti sifatida “Ikki do‘st” hikoyati keltiriladi. Ikki do‘stning vafodorligi sababli, podshohlar o‘rtasidagi ixtiloflarga ham chek qo‘yilishi mumkinligini yuqoridagi hikoyatlar orqali guvohi bo‘ldik.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ҳайрат ул-аброр. Тошкент: Фан,1991.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Садди Искандарий. Тошкент: Фан,1991.
3. Алишер Навоий. Қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2016.
4. Алишер Навоий. Садди Искандарий. МАТ. 20 жилдлик. - Т.: Фан, 1993. Т.
5. Эркинов А.С. Алишер Навоийнинг пейзаж яратиш махорати (“Садди Искандарий” достони мисолида): Филол. фан. номз. дисс. ... - Тошкент, 1990.
6. Қаюмов А. “Садди Искандарий”. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.


## NAVOIY IJODIDA GUMANIZM G‘OYALARI


***Oxunova Gulchehra Sobirjon qizi***
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi*
*Fakulteti 2-kurs talabasi*
*Email: gulchehraoxunova@gmail.com*
*Tel: +998913497365*



***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Navoiy ijodi va uning qarashlari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Uning inson, borliqqa nisbatan fikrlari va umuminsoniy mazmunga ega bo‘lgan gumanistik qarashlari islom dini falsafasidan oziqlanganligi haqida qayd etilgan. Mutafakkir o‘z asarlarida diniy va dunyoviy qarashlari va ijodidagi gumanizm g‘oyalari yoritilgan*

***Abstract:*** *This article provides detailed information about Navoi's work and his views. It is noted that his views on man and existence and his humanist views with a universal meaning were nourished by the philosophy of the Islamic religion. The thinker's religious and worldly views and ideas of humanism in his works are highlighted in his works*
***Kalit so‘zlar:*** *Navoiy, “Xamsa”, gumanizm, borliq, inson, zohiriy tomon, botiniy tomon, qarash*

***Key words:*** *Navoi, "Khamsa", humanism, existence, human, outer side, inner side, vision*

Navoiy falsafasining, uning inson haqidagi fikrlarini, estetik g‘oyalarini, borliq haqidagi fikrlarini anglash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Navoiyning mutlaq borliq mavjudligini tan olib, uni zamon va makon nuqtai nazaridan cheksiz deb izohlaydi. Borliqni avvali va oxiri yo‘q, deb hisoblaydi. “Hayrat ul-abror” asarida Navoiy mutlaq borliqqa shunday ta’rif beradi:

*Ey senga mabdada abaddek azal,*

*Zot-i qadimning abadiy, lam yazal.*

*Ne bo‘lub avvalda bidoyat senga,*

*Ne kelib ohirda nihoyat senga* [1: 13-14].

Ushbu asarda Navoiy azal va abadning nisbiyligini haqida mantiqiy xulosa chiqaradi. Makonning to‘liqlik va bo‘shliqdan iborat, deb hisoblaydi. Mutlaq borliq esa ikki qismni ichiga oladi: “Ne anga zamonu makon ihtimoli, ne zamonu makon andin xoli. Ne xalo aning yeridur, ne malo, ammo ham xalo-vu ham malo andin to‘la” [1: 17].

Mutlaq borliqning asosiy xususiyatlaridan birini Navoiy nuqtai nazaridan zotning vojibligini, ya’ni obyektivlik g‘oyasini ilgari suradi. Bu borliq insonga ta’siri bo‘lmaydi, u bor bo‘lgan va bor bo‘ladi. Nisbiy borliqni esa olim borliqqa qaram deb ko‘radi. Mutlaq borliq ta’sirida nisbiy borliq bor bo‘ladi, yoki, aksincha yo‘q bo‘lishi mumkin. Lekin nisbiy borliq mutlaq borliqqa hech qanday ta’sir o‘tkazolmaydi:

*Arzu falak yo‘qidinu boridin,*

*Barchaning ixfosiyu izhoridin.*

*Ne azamat ichra anga sud o‘lub,*

*Ne jabarutiga ziyon bud o‘lub* [1: 49].

Mutlaq borliq yagonadir, va ushbu mutlaq borliq haqida Navoiy shunday deydi:

*Hamd angakim, vojibg‘i bi-z-zot erur,*

*Homid aning zotiga zarrot erur.*

*Vahdat-i zotiga quyoshdek tanuq,*

*Zarradin afzun-u quyoshdin yoruq* [1: 9].

Navoiyning qarashlarida borliqning paydo bo‘lishi mutlaq borliq harakati bilan bog‘liq deb ko‘rsatilgan:
*Chu bir junbish etti ayon bahr-i zot,*

*Padid o‘ldi amvojidin koinot* [1: 239].

Dunyoda hech qaysi narsa o‘zidan o‘zi paydo bo‘lmaydi va yo‘q bo‘lmaydi. Koinotda qancha cheksiz bo‘lsa ham, unda bo‘shliq bo‘lmaydi. Koinotda barcha narsa bir biriga bog‘liqdir, har biri biriga vosita:
*Qatragacha qulzum-i zaxxordin,*

*Zarragacha shamsa-yi zarkordin.*

*Oni munga, muni anga band etib,*

*Bir-biriga barchani payvand etib.*

*Vositalar bo‘ldi ayon to‘-bato‘,*

*Bir-biriga bog‘lanibon mo‘-bamo‘* [1: 22].

Navoiyning umuminsoniy mazmunga ega bo‘lgan gumanistik qarashlari islom dini falsafasidan oziqlangan bo‘lib, mutafakkir o‘zining asarlarida insonning diniy va dunyoviy jihatlari, zohiriy va botiniy tomonlarini har tomonlama yoritib berishga harakat qilgan.
Navoiy insonni aqlsiz tasavvur qilmaydi. Inson qanday ish bilan shug‘ullanmasin aqlga, tafakkurga, uning kuchiga ishonishi kerak, degan fikr mutafakkir asarlarining muhim jihatini tashkil qiladi. Mutafakkirning yana bir muhim xususiyati, bizning fikrimizcha, shundan iboratki, ul zot o‘zining g‘azal, ruboiy va dostonlarida insonparvarlikka oid qarashlarni bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki o‘zi buyuk insonparvar shoir degan nom qozondi, odamiylikda boshqalarga o‘rnak bo‘ldi. U doimo oddiy xalq g‘am-tashvishiga sherik bo‘ldi, ularga homiylik qildi. Alisher Navoiyning “Xamsa”ga kirgan dostonlarining har birida insonparvarlik g‘oyalari yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” va boshqa dostonlaridagi Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Iskandar, Suqrot, Aflotun timsollarida vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak axloqiy fazilatlar, oliyjanob qadriyatlar jamlangan. Bu obrazlar allomaning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va gumanistik qarashlariga mos holda bayon qilinadi. Hazrat Navoiy odamiylik, vafodorlik, mehr-oqibat, xalq g‘amida yashash, uning

farovonligi, baxt-saodati yo‘lida hatto jonini fido qilish, xayr-ehson, o‘zgalarga saxiylik qilish kabi fazilatlarni hamma narsadan yuqori qo‘yadi. Mutafakkir bu bilan insonni, uning xislatlarini ulug‘laydi, uni boshqa jonzotlardan a’lo ekanligini ishonarli tarzda isbotlab beradi.

Navoiy insonning o‘z ma’naviy va ruhiy tabiati bilan boshqa mavjudotlardan ajralishi, har bir insonning insoniylik darajasi uning ma’naviy yuksalish darajasi bilan belgilaydi. Kishining qiymati uning odamiyligi bilan belgilanadi. Uning odamiyligi esa mol-dunyosi ko‘pligi yoki martabasi balandligi bilan emas, balki ushbu molu dunyosini xalq xizmatiga sarflashi bilan belgilanishi afzalroqdir. Boylik orttirish, ushbu yo‘lda insonlarga jabr qilish, mansabga intilish, va ushbu yo‘lda kishilarga zulm o‘tkazish bilan ovora bo‘lgan insonlardan ko‘ra, shoir oddiy va kambag‘al bir komilni yoki dehqonni ming karra afzal ko‘radi. Chunki birinchisi borliq qonunlardan bexabar va qimmatbaho insoniylikni o‘tkinchi molu dunyoga almashtirib, hayotini maqsadsiz o‘tkazadi. Ikkinchi inson esa o‘z mehnati bilan o‘ziga va jamiyatga bebaho naf qiladi. Hodisalarga to‘g‘ri ko‘z bilan qaragan insonlarni Navoiy “ma’no ahli” deb biladi, yuzaki qarashlarga ega odamlarni esa “suvrat ahli” deb ataydi.

Shoir inson mohiyatini uning ijtimoiy faoliyatida – jamiyatga foydali kasb bilan shug‘ullanishi, xalqqa manfaati tegishi, odamlarning og‘irini yengil qilishida, deb biladi. Uning xalq g‘amini o‘z g‘ami deb bilmaydigan odamni odam qatoriga qo‘shmasligi bejiz emas:

*Odamiy ersang, demagil odami*

*Onikim, yo‘q halq g‘amidin g‘ami* [1: 256].

Alisher Navoiy nafsoniyatiga berilib ketgan insonlarni tanqid ostiga oladi. Bunday dardga chalingan insonlarni birovning tushgan kulfatga parvo qilmaydi, birovga yaxshilikni ravo ko‘rmaydi, har doim yolg‘iz o‘zi haqida qayg‘uradi. Bunday odamlar “barchaga o‘zgadan o‘zi azizroq va o‘zgalar so‘zidan o‘z so‘zi azizroq” deb taqiqlaydi[1:149]. Navoiy odamlarni yomon xislatlardan holi ko‘rishni xohlaydi.

“Mahbub ul-qulub” asarida Alisher Navoiy odam va odamiylik haqida, chin insoniy fazilatlar to‘g‘risida asrlar mobaynida xalq tajribasi va bilimi haqida yig‘ilgan fikrlarni bayon etadi. Ushbu asarda shoir o‘zining ijtimoiy g‘oyalarini ilgari suradi, chuqurlashtiradi, yangi dalillar bilan isbotlaydi.

Navoiy inson ma’naviy dunyosini boyitish uchun, eng avvalo, o‘zini anglashi zarur deb hisoblaydi. Ushbu yo‘lda quyidagi amallarga bo‘ysinishi lozim: birinchidan, nafsiy quvvatlarni ma’naviy quvvatlarga bo‘ysindirishi; ikkinchidan, ilm olishi va

hunar egallashi; uchinchidan, ilm, hunar, mol-dunyosini ezgulikka yo‘naltirishi; to‘rtinchidan, ko‘nglini insondagi go‘zallik bilan boy ettirishi.

Navoiy o‘z davrining mashhur davlat arbobi bo‘lishi bilan bir vaqtda u buyuk mutafakkir ham edi. Shoir siyosat, davlat qonunlariga oid maxsus asarlar yozib, Turonda siyosiy-huquqiy ta’limotlarning rivojlanishini yangi pog‘onaga ko‘targan shaxsdir.

Alisher Navoiyning merosi ko‘p olimlar tadqiqotlarining katta va muhim obyekti bo‘lib qoldi. Alisher Navoiyning olijanob g‘oyalari va ilhombaxsh asarlari tinchlik va insoniyat taraqqiyotida hamkorlikni mustahkamlashga yordam bermoqda. Navoiyning ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari bugungi kun bilan hamohangligi hozirgi globallashuv zamonida ma’naviy merosi madaniy transformatsiya jarayonini takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish uchun kuchli gumanistik ahamiyatga ega.

Alisher Navoiyning ijodida gumanizmning ahamiyati va o'ziga xos joyi bor. Navoiyning asarlarida insoniyatga hurmat, muhabbat, adolat va insongina qadrlashga bag'ishlangan gumanistik mazmunlar o'zini ko'rsatadi. Navoiyning poeziyasida insonning ruhiy, ma'naviy va jismoniy rivojlanishi, uning azaliy qadriyatiga e'tibor berilishi, insonning eng yuqori erkinliklari va huquqlariga hurmat ko'rsatilishi gumanistik xususiyatlardir. Navoiyning "Majolis-un-Nafos" asari, "Xamsa" dastani va boshqa asarlari insoniyatga hurmat va muhabbatni ta'kidlaydi. Navoiyning ijodida gumanizmning ahamiyati shunday bo'lsa, u insoniyatga qarshi muhofaza, zulm va zulumotlarga qarshi turish, insonga adolat, hurmat va muhabbat bilan munosib qarashni o'z ichiga olgan. Bu gumanistik mazmunlar Navoiyning asarlarida dindorlik, insoniylik va adolatni o'z ichiga olgan shoir va fikrdoshlar uchun o'zaro aloqador va ilhomlantiruvchi bo'lib qolgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Alisher Navoiy. Hayrot ul-abror. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 7 tom. –T. Fan. 1991.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 8 tom. –T. Fan. 1991.
3. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 9 tom. –T. Fan. 1992.
4. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 10 tom. –T. Fan. 1992.
5. Alisher Navoiy. Saddi Iskandari. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 11 tom –T. Fan. 1993.

6. Alisher Navoiy. Lisonut-tayr. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 12 tom. –T. Fan. 1996.
7. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 14 tom. –T. Fan. 1998.
8. Alisher Navoiy. Tarixi muluki ajam. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 16 tom. –T. Fan. 2020.

# VI BOB

# ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTI

# SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARINING MAVZU KO‘LAMI YOXUD ADIB ASARLARIDA KO‘TARILGAN IJTIMOIY RUH

***Abdiraimova Gulmira Xolmirza qizi,***
*ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti.*
*gulmiraabdiraimova13@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev yaratgan ijod namunalaring o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasi va ularga asos bo‘lgan voqealar, shu bilan bir qatorda, adib asarlariga asos bo‘lgan milliy va ummum insoniy xarakterlarga urg‘u berildi. Shuningdek ijodkor qalamga olgan mavzularning bugungi davr uchun ahamiyati haqida to‘xtaldi.*

***Abstract.*** *In three articles, the contributions of works created by Shukur Kholmirzayev to Uzbek literature and the events that were the basis for them were emphasized, as well as the national and general human characters that are the basis of literary works. The artist spoke about the importance of the themes written by the artist for today's era.*

***Kalit so‘zlar:*** *qadriyat, milliy urf-odat, milliy ruh, udumlar, inson, tabiat, ruhiyat, ifoda tasvir.*

**Keywords:** value, national tradition, national spirit, traditions, human, nature, spirit, expression image.

Shukur Xolmirzayev o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biridir. Uning ijodi rang-barang va sermahsulligi bilan ajralib turadi. XX asrning 60-70-yillarida o‘zbek adabiyotiga “surxon odamlari” qiyofasini chizish bilan kirib kelgan yozuvchi milliy hikoyachilik maktabini yanada boyitdi. Shuning uchun ham adabiyotimizdagi ushbu janr taraqqiyotini Shukur Xolmirzayev nomisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Yozuvchi ijodida uchraydigan voqeani tasvirlash prinsiplari, obrazlarning shakllanish bosqichlari, xulosani yechimsiz, kitobxon hukmiga qoldirish yo‘llari Shukur Xolmirzayevning adabiyot oldidagi xizmatlari naqadar beqiyosligini ko‘rsatadi. “Boysun odamlari”, “Boysun tog‘lari”, “Boysun madaniyati” – xalq og‘zaki ijodidan tortib oddiy xalqning qanday kiyinishigacha chizilgan betakror tasvirlar bevosita yozuvchining o‘zi tug‘ilib o‘sgan makon bilan bog‘liqdir. Bu xususiyat Shukur Xolmirzayevning deyarli barcha hikoyalarida – “Notanish odam”, “Og‘ir tosh ko‘chsa”, “Arpali qishlog‘ida”, “Nasib etsa”, “Bahor o‘tdi”, “Shudring tushgan bedazor”, “Farzand”, “Qumrilar”, “Tabassum”, “Qariya”, “Odam” kabilarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shukur Xolmirzayev ijodining, xususan, hikoyalarining o‘ziga xosligi, betakrorligi aynan milliylikka qorishiq inson xarekteri haqida so‘z yuritilishida edi. Aytish joizki, yozuvchi adabiyotga kirib

kelgan XX asrning 60-yillarida, asosan, tasvir obyekti sifatida inson va tabiat masalasi olingan edi. Buning boisi yozuvchining ong-u tafakkurida chuqur iz qoldirgan voqea va hodisalarning koʻpchiligi aynan uning bolaligida yuz bergan edi. Bolalikday goʻzal bir davrni Boysun togʻlariga yaqin qishloqda oʻtkazgan boʻlajak yozuvchi tabiatga juda erta mehr qoʻygandi. Bora-bora bu mehr ulgʻayib, yozuvchining oʻtkir nigohini shakllanishiga yordam berdi. Tabiat mavzusi orqali ochib beriladigan inson koʻngli bilan bogʻliq masalalar Shukur Xolmirzayev yaratgan deyarli barcha janrlardagi asarlarda oʻz ifodasini topgan. Misol uchun, yozuvchi asarlarida tasvirlangan inson va hayvonot dunyosining bir-biriga chambarchas bogʻliqligi haqidagi mavzuni olaylik. Kichkinagina “Koʻngil” hikoyasidan tortib kattagina “Dinozavr” romanigacha bu mavzuni qamrab olganini koʻrishimiz mumkin. Yozuvchining ijodiy mahorati oʻsib borgani sayin oʻz-oʻziga qoʻygan talabi ham shunga mutanosib tarzda balandlab bordi. “Ijodiy maqsad” yanada keng oʻzanlar – imkoniyatlar bera oladigan janrlar – qissa, esse va roman kabilarda oʻz ifoadsini topdi. “Oʻn sakkizga kirmagan kim bor?”, “Oq otli”, “Toʻlqinlar” kabi qissalari, “Soʻnggi bekat’, “Olaboʻji”, ‘Dinozavr”, “Qilkoʻprik” kabi romanlari fikrimizning ayni dalil.

Har qanday tashqi tasvir orqali inson koʻnglida yuz berayotgan taloto‘plarni – oʻzgarishlarni tasvirlash uslubi oʻzbek adabiyotida chinakamiga yangilik edi. Bu uslub keyinchalik boshqa ijodkorlar ijodiga ham qaysidir ma’noda turtki – ochqich boʻldi desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqadigan boʻlsak, adibning muhabbat mavzuyidagi “Nasib etsa”, “Shudring tushgan bedazor”, “Arpali qishlogʻida”, ‘Uhh”, “Nimadir yoʻq boʻldi”, “Farzand”, “Bir guzar odamlari”, “Bodom qishda gulladi”, “Bahor oʻtdi” kabi hikoya va novellarida yozuvchi ijodining oʻziga xos qirralari namoyon boʻladi. Mana shuning oʻziyoq yozuvchi shaxsiyati va ijodi haqida ma’lum bir xulosalar berish imkonini beradi. Shukur Xolmirzayev ijodining talay qismini inson va jamiyat munosabatlarini tadqiq etishga bagʻishladi. Bu badiiy tadqiqotlar samarasi oʻlaroq, hikoyachilikda yuksak marralarga erishdi. Bir oʻrinda yozuvchining oʻzi yozadi: “Men Boysunda tugʻilganman. Boysun togʻlik joy. Oʻn ikki yoshimda oʻzim yolgʻiz miltiq koʻtarib ovga chiqib ketardim. Soʻngra, bu yerda yashirishning hojati yoʻq, qaysarroq edim… Lekin bitta narsani yaxshi koʻrardim: bu ham boʻlsa, masalaning mohiyatini tushunish edi”. Bu fikrlardan shunday xulosa anglashiladiki, XX asrning 50-60-yillarida, ya’ni boʻlajak yozuvchining asosiy ijodiy prinsiplari shakllanmasdan turib, unda oʻzini qurshab turgan borliqning mohiyatining anglashga boʻlgan bir ichki intilish boʻlgan. Yosh yozuvchi inson hayotini, yashash tarzini, mangu tiriklik manbayini bevosita inson koʻngli bilan aloqadorlikda, chambarchas bogʻliklikda deb qaragan edi. Balki bu qarash negizi qadim Baqtriya nomi bilan bogʻliqdir.

Chunki bir paytlar dunyoning eng kuchli davlatlaridan biri bo‘lgan bu o‘lkada tabiat – inson va borliq birligi masalasi yuqori darajaga ko‘tarilgan edi. Aytish kerakki, bugungi siz-u biz bilgan Boysun o‘sha davrda Baqtriyaning tarkibida bo‘lgan. Surxon odamlariga xos bo‘lgan soddalik, samimiylik, diltortarlik ana shu zamonlardan beri davom etib kelayotgan ruhiy vobastalik natijasi bo‘lishi mumkin desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Boysun odamlari qadim-qadimdan inson ko‘nglini avaylashga o‘rgatadi. Ya’ni unga bir ne’mat singari qarab, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lganlar. Bu fikrimizning isbotini “Arpali qishlog‘ida” hikoyasida ko‘rsa bo‘ladi. Unda quda bo‘lishni har qancha xohlashsalar-da, farzandlarining ko‘ngliga quloq solishni eng birinchi insoniy vazifasi deb bilgan ota-onalar haqida aytiladi. Bundan tashqari yozuvchi xotiralaridan birida yozadi: “Momomning Tiniqoy kampir haqida aytadigan ertagi bo‘lardi. Uning mazmunini keyinchalik chaqishga urinib ko‘rdim… Shundan keyin mening tabiatga, jonivorlarga, parrandalar, hatto yirtqich hayvonlarga ham munosabatim o‘zgarib ketib, ularni o‘zimga qandaydir yaqin qarindosh deb biladigan bo‘ldim”. (Xolmirzayev Sh. “SHARQ” nashriyoti T:: 4-jild, 255-bet) Darhaqiqat, bu ertakda “Tiniqoyning ayiq eri” hasratida aytadigan qo‘shig‘i mazmunida ham inson ko‘ngli bilan nozik masalalar o‘z aksini topgan edi. Shukur Xolmirzayev jahonning mashhur yozuvchilari qatorida ular asarlari bilan bemalol tenglasha oladigan asarlar yaratdi. Muhabbat mavzusidagi hikoyalarida bo‘rtib turadigan insonni tushunishga urinish, buni izohlash tamoyillari har qancha tadqiq etishga arziydi. Shunisi hayratlanarliki, bu mavzuda turli yillarda yozilgan “Nasib etsa”, “Bodom qishda gulladi”, “Nimadir yo‘q bo‘ldi”, “Uhh”, “Farzand”, “Shudring tushgan bedazor”, “Arpali qishlog‘ida” kabi hikoyalari davr nuqtayi nazaridan bir-biridan keskin farq qilsa-da, yagona konsepsion xulosa – odam ko‘nglini yaxshiroq tushunishni targ‘ib qiladi. Jahonning eng ilg‘or hikoyanavislari – Jek London, Ernest Seton Tompson, Tolstoy, Tagor va boshqalar qatorida Shukur Xolmirzayev barakali ijod qildi. Redyard Kipling, Orosio Kiroga, Stendal, Lev Brant, Ernest Heminguey, Gabriel Garsia Markes, Yuriy Kazakovlarning turli ijtimoiy muammolarni ko‘tarib chiqqan ko‘plab hikoyalari bevosita muhabbat masalalarini ham chetlab o‘tmaydi. Ana shu jihatdan garchi ma’lum bir uyg‘unlikka ega bo‘lsa-da, Shukur Xolmirzayev hikoyalarida tasvirlangan muhabbat mavzusi o‘ziga xos tarzda xulosalanadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, yozuvchining o‘z aytar so‘zi – falsafiy mushohadasi bor.

Shukur Xolmirzayev sodir bo‘layotgan murakkab hayotiy jarayonlar va kishilarning ziddiyatlardan iborat ichki olamini kashf etib borgani sayin dastlabki hikoyalaridagi romantik pafos endi o‘z o‘rnini realizmga bo‘shatib berdi. Bu holat yozuvchi uchun o‘zbek adabiyotiga “shafqatsiz realizm” unsurlarini olib kirish imkoniyatini berdi. Shu boisdan ham Shukur Xolmirzayev o‘tgan asrning 80-90-

yillarida yaratgan asarlarida mazkur davrdagi xalq va jamiyat hayotini chuqur tadqiq etdi va bu narsa adabiyotshunoslik uchun tahlil qilish imkonini beradi. Shukur Xolmirzayev umri davomida “So‘nggi bekat”(1976), “Qilko‘prik”(1984), “Yo‘lovchi”(1987), “Olabo‘ji”(1992), “Dinozavr”(1-kitob,1996) singari romanlarni yozdi. Bu romanlar ichida “So‘nggi bekat”, “Yo‘lovchi” va “Olabo‘ji” romanlari o‘tgan asrda hukm surgan sho‘ro jamiyatining 70-80-yillarida kelib chiqqan ichdan yemrilish jarayonlarini yorqin badiiy obrazlar vositasida aks ettiradi. Bu romanlarda ko‘tarib chiqilgan ijtimoiy masala yozuvchining “Dinozavr” romanida o‘zining boshqacha bir talqinini topdi. Sho‘ro davlatining xalqparvar davlat ekaniga, u olib borgan ichki va tashqi siyosat yo‘llari xalq manfaatiga xizmat qiluvchi mash’ala ekaniga astoydil ishongan kishilarning hayoti va ruhiy olamidagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar tasviri ushbu romanning asosiy mavzusi sifatida yoritilgan. Shukur Xolmirzayev o‘z davrida o‘zbek adabiyotida qalam tebratgan yozuvchilar ichida dastlabkilardan bo‘lib xalqimiz tarixida “bosmachilar harakati” deb atab kelingan davrni o‘rgana boshladi. Yozuvchining “Qilko‘prik” romani va 1987-yilda yozilgan “Qora kamar” pyesasi shu mavzu haqida hikoya qiladi. Adashgan kishilar fojiasi ushbu asarlarda o‘z ifodasini topgan. Abror Hidoyatov nomidagi yoshlar teatrida sahnalashtirilgan “Qora kamar” spektakli zamon odamlari uchun o‘tmishga yondashishning yangicha ko‘rinishi paydo bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etdi. 1990-yilda xuddi shu teatrda sahnalashtirilgan “Ziyofat” pyesasi Shukur Xolmirzayevning o‘zbek xotin-qizlarining sho‘ro davridagi fojiali taqdiriga bag‘ishlangan edi. Shu bilan bir qatorda yozuvchi umrining so‘nggi yillarida Shukur Burxonov, Botir Zokirov, Ro‘zi Choriyev, Shuhrat, Odil Yoqubov, O‘lmas Umarbekov, Abdulla Oripov, Matyoqub Qo‘shjonov singari adabiyot va san’at namoyondalari bo‘lgan mashhur shaxslar haqida esselar va adabiy-tanqidiy maqolalar yozdi. Adabiy davralarda Shukur Xolmirzayev haqida gap ketganda ko‘pchilik uni roman janrida bir qator asarlar yozgani va bular o‘sha davr o‘zbek romanchiligi tarixida muayyan o‘ringa ega bo‘lishiga qaramay, ijodkorning, avvalo, hikoyanavisligini aytishadi. U o‘zining bir qator hikoyalarida – “Tog‘larga qor tushdi”, “Xorazm, jonginam”, “Ozodlik”, “Bulut to‘sgan oy”, “Bandi burgut”, “Odam”, “Ko‘ngil”, “Kimsasiz hovli”, “Qariya”, “Omon ovchining o‘limi”, “Podachi” kabilarda Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor kabi mashhur o‘zbek yozuvchilarining eng yaxshi an’analarini nafaqat davom ettirdi, balki o‘zbek hikoyachilik maktabida yangi nom qoldirdi. Rus va Yevropaning taniqli yozuvchilaridan ijodiy mahorat sirlarini o‘zlashtirdi. Ayni paytda uni o‘z tajribalari bilan boyitdi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida obrazlarning yangiligi, yodda qoladigan darajada yorqinligi, kompozitsion qurulishning o‘ziga xosligi, qahramonlar tili va xarakterining rang-barangligi bilan ajralib turishini ta’kidlab

o‘tish joiz. Ulug‘ adabiyotshunoslardan biri Begali Qosimov yozuvchi to‘g‘risida so‘z yuritarkan, u haqida shunday yozadi: “XX asr tarix mulkiga aylanib bo‘ldi. Endi o‘tmish o‘z xulosalari bilan ertangi kunning qanday bo‘lishi uchun xizmat qiladi. Shukur Xolmirzayev esa ham o‘tmishni, ham bugunni, ham ertani o‘z umriga jo qildi”. (Begali Qosimov, “Nasriy asarda qahramon yaratish”, “Ozbekiston adabiyoti va san’ati”, 5-son, 3-bet) Davlat rahbarimiz aytganidek, har bir ilmiy yangilik, ilmiy kashfiyot eng avvalo yangicha fikrlash va dunyoqarashga turtki beradi, ma’naviyatning shakllanishiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. Yozuvchining o‘zi bu haqida to‘xtalib o‘tarkan: “…el-u vatanning mustaqilligi, ozodlikka chiqishi ulug‘ bir shodiyonalikdir. Sen esa – Turonzamin nomli bir madaniy mamlakatning madaniy fuqarosi sanaysan o‘zingni! Endi sen aytgin-chi, bir adib sifatida avvalo nimalar qilding, nimalarga erishding, nimalarga yetishding?” – degan savolga o‘zi javob berarkan, shunday deydi: “Ana shundan keyin dunyoga ko‘zim qayta ochilgandek – insoniyatni yangitdan ko‘rayotgandek bo‘ldim. Bildimki, insoniyat e’tiqodlarsiz yasholmas ekan. E’tiqodlar – inson tadrijiy takomilining ma’naviy hosilalari ekanki, bunga aqlim yetganiga qaraganda shakkoklar safida ekanman. Bu mening ikkinchi dunyoviy yutug‘im – topildig‘im bo‘ldi. Tabiiyki, tirikligim ma’nosi bo‘lmish adabiyotga – yozuvchilik kasb-korimga ana shu baland darajamdan qaraydigan bo‘ldim”. (Xolmirzayev Shukur, “Ijodkor adolatli bo‘lishi kerak”, 2012-yil, 12-son) Bu qarashlar yozuvchining keyinchalik yaratilgan bir qator asarlarida o‘z ifodasini topdi.

Biz hikoyalarini tahlil qilayotgan nosir yozadi: “Uslubda hamma narsa mujassam, dunyoqarashdan tortib, nuqtai nazargacha”– deydi. Asar har qanday holda ham o‘zi uchun o‘zi javob berishi kerak. San’at haqiqati sal-pal bo‘lsa-da hayot haqiqatidan balandda turmasa, u san’at atalib nima qiladi” (Xolmirzayev Shukur, “Davr, adabiyot va jamiyat”, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 1989-yil, 3-son.) Bu shuni anglatadiki, tikuvchi tikayotgan kiyimi ham sifat jihatidan, ham o‘lcham jihatidan buyurtmachiga nechog‘lik yoqishini o‘ylab mehnat qilsa, ter to‘ksa, ijodkor ham xuddi shunday, o‘zi yaratgan asar ma’no tarafdan ham, uslub tarafdan ham boshqalar uchun suyukli bo‘lishini, qadr topishini ko‘zlab nimadir qoralashi shart. Adabiyotda Shukur Xolmirzayev degan nasr maktabi bor. Yuqoridagi oltinga teng fikrlar bu maktabda o‘tiladigan saboqlardan namunalar edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boboyev T. “Badiiy adabiyot haqida” T:O‘zadabiynashr, 2001.210 b.

2. Umuruv X. “Adabiyotshunoslik nazariyasi” . A.Qodiriy nomidagi xalq merosi

nashriyoti.T.:2004. –260-b.

3. “Shukur Xolmirzayev – zamondoshlari xotirasida”, G‘afur G‘ulom nomidagi nahriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
4. Xolmirzayev Sh. Saylanma. 1-jild. T.: “SHARQ”. 2003. –448-b.
5. Xolmirzayev Sh. Saylanma. 2-jild. T.: “SHARQ”. 2005. –464-b.
6. Qozoqboy Yo‘ldosh. Ochqich so‘z. “Tafakkur” nashriyoti. 2019. –688-b.
7. Xolmirzayev Sh.Ijodkor adolatli bo‘lishi kerak! O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2012 yil, 12.
8. Xolmirzayev Sh. “Jahonbop asar yoza olaman, lekin...”, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”. 2002, 48.
9. Normatov. U. “Bugunning hikoyalari”, “Jahon adabiyoti”, 1993, №3.
10. Umurov. H. “Adabiyot nazariyasi”. Toshkent, 2002.
11. Xolmirzaev. Sh. “Komil inson orzusi yoxud adabiyotning ibrat yaratish ma’suliyati”, O‘zAS, 2001-yil

## BAHODIR QOBULNING “ENASHAMOL” QISSASIDA SYUJET MASALASI

***Abdujalilova Gulmiraxon Odiljon qizi***
*FarDU 1-bosqich magistranti*
*gulmiraxonsultonova71@gmail.com*
*+998913265267*

***Annotatsiya.*** *Bugungi kunda zamonaviy o‘zbek adabiyotini chuqur o‘rganish, keng ommaga targ‘ib qilish, uni xalqaro miqyosga ko‘tarish dolzarb va muhim masala hisoblanadi. Shu jumladan, hali to‘laligicha o‘rganilmagan asarlarni tadqiq qilish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ijodkor Bahodir Qobul asarlari ana shunday asarlar qatoriga kiradi. Ushbu maqolada badiiy asarning asosi hisoblangan syujet masalasi Bahodir Qobulning “Enashamol” qissasi misolida tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *qissa, syujet, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim.*

***Abstract.*** *Today, deep study of modern Uzbek literature, promoting it to the general public, and raising it to the international level is an urgent and important issue. Among them, the research of works that have not yet been fully studied is one of the important issues. The works of the artist Bahadir Qabul are among such works. In this article, the issue of the plot, which is the basis of the artistic work, is analyzed on the example of Bahadir Qabul's short story “Enashamol”.*

***Key words:*** *story, plot, exposition, knot, development of events, climax, solution.*

Adabiyotshunoslikda badiiy asarni o‘rganish, xususan, syujetning badiiy-estetik funksiyasini tadqiq etish dolzarblik kasb etadi. Zero, yangicha badiiy tafakkur shakllari bugungi o‘zbek nasrida an’ana va yangilaanish, obraz va obrazlilik masalasida faol namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, syujet elementlarining joylashishi, jumladan, uning asar kompozitsiyasidagi o‘rni, syujet rivojidagi ahamiyati muhim vazifalardan sanaladi. Boshqa tomondan olganda, Bahodir Qobul nasri hali yetarlicha o‘rganilmagan. Asarlarida syujet masalasini tadqiq etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Zotan, syujet poetikaning asosiy unsuri sifatida yozuvchi badiiy mahoratini namoyon etadi.

Ma’lumki, syujet va uning tarbiy qismi haqidagi tadqiqotlar Aristotel, Yuliy Skaliger, Gegel kabi mutafakkirlar ishlarida keng tadqiq etilgn. Lekin XX asrga kelib, syujet va uning tarkibi haqida Leonid Timofeev, Gennadiy Pospelov, Izzat Sulton, Dilmurod Quronov, To‘xta Boboyev kabi olimlar ishlarida nisbatan kengroq tadqiq etilgan.

Syujet badiiy asarning asosiy tuzilishini tashkil etadi. U voqealar tizimi, voqealar silsilasi deb ham ataladi. Syejet atamasi nisbatan keng tushuncha bo‘lib, Adabiyotshunoslik lug‘atida quyidagicha ta’rif berilgan: “Syujet (fr. syujet - predmet, asosga qo‘yilgan narsa) – badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri, asardagi bir-biriga uzviy bog‘liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimi. Syujetlilik badiiy adabiyotning xos xususiyatlaridan biri bo‘lib, Syujet tur yo janridan qat’iy nazar, barcha asarlarda bor, biroq uning namoyon bo‘lishi ko‘p jihatdan qaysi tur yoki janrga mansubligiga bog‘liq. Masalan, lirikada voqealar tizimi yo‘q, lekin unda o‘y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji bor va bu uning syujetini tashkil qiladi” (Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent, “Akademnashr”-2010).

Haqiqatan ham, badiiy asarning qaysi janrga mansubligidan qat’iy nazar syujet asar qurilishining asosiy unsuri hisoblanadi.

Badiiy asar syujeti ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim kabi elementlardan tashkil topadi. Bu tarkibiy qismlar turli asarda turlicha ko‘rinishda bo‘ladi. Asarda ushbu zanjir ketma-ketligining buzilishi yoki ba’zilari tashlab ketilishi mumkin. Bu badiiy asar haraqkteriga ko‘ra farqlanadi.

Badiiy asarda qahramonlar haqida, voqealar kechadigan makon haqida ma‘lumot beruvchi, o‘quvchiga tanishtiruvchi qismi ekspozitsiya sanaladi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov ekspozitsiyaga quyidagicha ta‘rif bergan: “Ekspozitsiya sujetning boshlanish qismi bo‘lib, o‘quvchini asar voqealari kechadigan joy, qahramonlar, asar konflikti yetilgan shart-sharoitlar bilan tanishtiradi.” (Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari.– Toshkent:Akademnashr, 2018,111-bet). Haqiqatan ham, badiiy asar haqida, voqealar kechadigan joy,

qahramonlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish uchun asarda ekspozitsiya bo‘lishi kerak.

Adabiyotshunos Q.Yo‘lchiyevning fikricha, ekspozitsiya ba’zan porteret yoki peyzaj bilan ham boshlanadi. “Aynan syujet voqealariga aloqador detal, obrazlarni bir makonga to‘plashi, asar mazmunidagi asosiy g‘oya, … kechinma va muammolarni yorqinroqligini ta’minlaydi.( Yo’lchiev Q. Lirik she’rda syujet va topoxronos. Scientific journal of the Fergana State University, 2021. №1. 102-107). Natijada ekspozitsiya voqealarning jonli va badiiy mukammalligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ya’ni, inson uchun tarjimayi hol naqadar zarur bo‘lsa, badiiy asar uchun ham ekspozitsiya shu qadar zarur. Bu o‘quvchiga asarni oson anglashga, qahramonlarni ko‘z o‘ngida gavdalantirishga yordam beradi. Bu ekspozitsiyaning badiiy-estetik funksiyalaridan biri hisoblanadi. Lekin ekspozitsiyaning asarda keltirilishi ham hajmi ham ixtiyoriy hisoblanadi. Ya’ni yozuvchi asarda ekspozitsiyani umuman keltirmasligi, hajmini esa yirik yoki qisqa tarzda berishi mumkin. Masalan, Bahodir Qobulning “Enashamol” qissasida ekspozitsiya o‘rni asar boshida keltirilmagan. Bunda yozuvchi kechiktirilgan ekspozitsiyadan foydalangan.

Tugun asardagi muhum qismlardan biri hisoblanadi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov quyidagicha ta’rif bergan. “Voqealarining boshlanishiga turtki bo‘lgan voqea, asar konflikti qo‘yilgan joydir. Ekspozitsiyadan farqli o‘laroq, tugun syujetning zaruriy elementi sanaladi, ya’ni u syujetda har vaqt hozirdir. Faqat ayrim hollarda, xususan, ba’zi xronikali syujetlarda, shuningdek, “ichki harakat” dinamikasi asosidagi syujetlarda u yetarlicha bo‘rtib ko‘zga tashlanmasligi mumkin. Tugun, odatda, asarning boshida, ekspozitsiyadan keyinoq beriladi. Ba’zan muayyan badiiy-estetik maqsadni ko‘zda tutgan holda uning o‘rni o‘zgartirilishi ham (masalan, “O‘tkan kunlar” romanida Otabek bilan Kumushning dafatan uchrashib qolishi - asarning tuguni, biroq bu voqea birinchí bo‘lim nihoyasida bayon qilinadi) mumkin” (Quronov D.Adabiyot nazariyasi asoslari.– Toshkent: Akademnashr, 2018).

“Erta ko’klam to’ldan keyin uyda ish sal kamaygan kunlarning birida otam orqalaridan yurishimga imladilar. Opam bilishlari shart emas ish ekanligini, menga katta odamdek muomala qilayotganlaridan dovdiragan bo’lsamda, bildirmasdan ergashdim. Bir yoni Oymakon, bir yoni Oyqortog’ning belidagi supagacha oldinma-keyin indamay bordik” (Bahodir Qobul, Enayo‘l, Toshkent, Mashxur-Press,2018).

“Enashamol” qissasida otaning bolasiga notanish bo‘lgan tomonga qarab olib ketishi orqali tugun hosil qilingan, Aynan ushbu jumlalarning keltirilishi asarga o‘ziga xoslik keltirgan.

Syujet qurilishi va ularni tiplarga ajratish masalasida adabiyotshunos A.Rahimov o‘zining “O‘zbek romani poetikasi” (syujet va konflikt) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida bu masalaga atroflicha yondashgan holda tadqiqot olib borgan bo‘lib, syujetning 4 xil: xronikali, konsentrik, retrospektiv va assotsiativ shakllari mavjud ekanligini ko‘rsatib o‘tadi. Ushbu syujet tiplarining har biri o‘ziga xos bo‘lib, xronikali syujet tipida voqealar xronika tipida birin-ketin davom etadi. Bahodir Qobulning “Enashamol” qissasida xronikali syujet turi uchraydi.

Bahodir Qobul nasrida, xususan “Enashamol” qissasida o‘tkir, keskin voqealarga asoslangan syujet ko‘rinishi uchramaydi. Voqealar bir maromda roviy bola tilidan hikoya qilib beriladi.

Xulosa qilib aytganda, “Enashamol” qissasida xronikali syujet tipi yetakchilik qiladi. O‘tkir, keskin voqealarga asoslangan syujet ko‘rinishi uchramaydi. Voqealar bir maromda roviy bola tilidan hikoya qilib beriladi. Ekspozitsiyaning o‘rni asar boshida keltirilmagan. Bunda yozuvchi kechiktirilgan ekspozitsiyadan foydalangan. Asarni o‘qish mobaynida qahramonlar taniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Qobul B. (2018). Enayo‘l. Toshkent: “Mashxur-Press”.

2.Quronov D. (2018). Adabiyot nazariyasi asoslari.Toshkent: Akademnashr,

3.Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. (2010).Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent: “Akademnashr”.

4.Rahimov A. (1993). O‘zbek romani poetikasi.

5.Yo’lchiev Q. (2021). Lirik she’rda syujet va topoxronos. Scientific journal of the Fergana State University,№1.

## “SADOQAT” QISSASIDA IT OBRAZI VA UNING ADABIY MA’RIFIY OMILLARI

***Abdurahimova Shahzoda Murodjon qizi***

*ToshDO‘TAU, O‘FF, 2- kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. Uzoq Jo‘raqulov*

shahzodawind@gmail.com

***Annotatsiya****. Maqolada yozuvchi Mamura Zohidovaning “Sadoqat” qissasidagi it obrazining qo‘llanishi va uning vazifalari haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *obraz ,sujet, uslub , qissa, majoz, ramz*

***Annotation***. *In Uzbek literature, the reference to the image of a dog is in various forms. The article discussees the use of the image of a dog and its functions in the story "Sadoqat" by writer Ma'mura Zohidova .*

***Keywords****: image, plot, style, metaphor, symbol*

Sharq adabiyotida odamni tabiatning bir qismi sifatida tasvirlash adabiy an'analardan biri hisoblanadi. Badiiy adabiyotida hayvonlar olamini aks ettirish nozik bir mahorat talab qiladi. Ma'lum bir muddat san'tkor hayvonlar, parrandalar, qushlar bilan "yashaydi" va ularga insoniy muhabbatni "izhor qiladi".

Hozirgi o'zbek adabiyotida maromiga yetkazib tasvirlangan hayvonlar-u parrandalar obrazlari ko'p emas. Egam Rahim, Shukur Xolmirzayev, Nazar Eshonqul, Emin Usmon, Ma'mura Zohidova va yana bir necha yozuvchilar ijodida tabiat va uning "fuqarolari" obrazi aks etgan. Shu o'rinda obraz tushunchasiga to'xtalmoqni lozim topdik. Asarning badiiy estetik jozibasi obrazlar orqali namoyon bo'ladi. Ijodkor o'z fikri va ularni ushbu poetik vosita yordamida yanada yorqinroq va ta'sirchanroq ifoda etadi. Adabiyotga hayotdagi hamma (inson ,narsa, buyum, hayvon, hodisa, predmet, o'simlik…) unsurlar kirar ekan, kirganda ham san'atkor ongida va qalbida jilolanib, boyib , kattalashib eng muhimi insonlashib va bir butunlik kasb etib muhrlanar ekan, ularning barchasini obraz deb yuritish qonuniyatdir.[4, 34-bet]

Adabiyot tarixida biror obraz , motiv yohud personaj yo'qki, ma'lum bir vazifa bajarmasa. Ba'zan salbiy ba'zan, ijobiy obraz sifatida namoyon bo'lib insoniyatning ochilmagan qirralarini "kashf qilish"ga yordam beradi. Masalan, asarlarda yirik planda namoyon bo'layotgan it obrazi. Nazar Eshonqul qalamiga mansub "Bahovuddinning iti" asarida it- toza ruh , kuchli iymon, erk... kabilarga ramz sifatida qo'llanilsa, Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasida o'g'illardan topilmagan mehr va vafoni itdan topgan onaga hamroh bo'lib gavdalanadi. Mixail Bulgarkovning "Ityurak" asarida insonning va nafsning yomoni itdan ham tuban bo'lishi Sharik laqabli kuchuk orqali yuzaga chiqqan. "Itlikni shu yerda qoldirib, uning yoniga odam bo'lib qaytamiz." [3, 152-bet] kabi jumlalardan it nafs, shahvatni ifodalayotganini anglash qiyin emas. It obrazining asl vazifasi va genezesi Qur'oni Karimda zikr etilgan "As'hobi kahf"ga borib taqaladi."Islom ensklopediyasi"da; "As'hobi- kahf (arab. "g'or egalari") – o'z zamoni podshosi Daqyonus zulmidan qochib, Robbilariga bo'lgan imonlarini saqlash maqsadida g'orga kirib yashiringan va Alloh taoloning irodasi, ilohiy mo'jiza bilan ko'p yillar uxlatib qo'yilgan yosh yigitlar va ularning iti." "Ularni uyg'oq deb o'ylaysan, holbuki, uxlab yoturlar. Ularni goh o'ngga , goh chapga ag'darib tururmiz. Itlari esa

, ostonada old oyoqlarini choʻzib yotur.Gar ularni koʻrsang, ortga oʻgirilib qochar va ulardan qoʻrqinchga toʻlar eding.”

Chunki, tasvirlangan holatlari shuni taqozo qiladi. Oʻzlari uygʻoqqa oʻxshaydilar, ammo uxlab yotibdilar. U yoq-bu yoqqa qimirlaydilar, ammo uygʻonib oʻrinlaridan turmaydilar. Buning ustiga, itlari ostonada old oyoqlarini choʻzib yotibdi.[2,466-467-bet]

Xalq ogʻzaki ijodi namunalari ,jumladan, qirgʻiz xalqining sevimli eposi “Manas”, yunonlarning “Odisseya” va oʻzbek xalq dostonchiligining yorqin namunasi “Alpomish” da ham it obrazi uchrab, oʻz ishini “qoʻlidan kelgancha” bajargan. Bundan tashqari, dono xalqimizdan qolgan afsona va rivoyatlarda itlarning kelib chiqishini afsonaviy qushlarga bogʻlashgan. Jumladan, XIX asrning buyuk tilshunosi Mahmud Koshgʻariy oʻzining “Devonu lugʻotit turk” asarida “baroq” soʻzini izohlab, quyidagilarni yozadi: “baroq- serjun it. Turkiy xalqlar e’tiqodiga koʻra, burgut qariganda ikkita tuxum qoʻyar emish. Tuxumlarning biridan oʻsha baroq otli kuchuk paydo boʻlar emish...” [5. bet-359]

It obrazi qadimgi turkiylar mifologiyasida muhim oʻrin turadi. Hatto u totem sifatida qaraladi. Qadimgi kishilarning e’tiqodiga koʻra, it narigi dunyo - oʻliklar mulkiga kirish eshigining qoʻriqchisi emish. “Avesto” miflarida esa muqaddas it oʻlgan kishilarning ruhi narigi dunyoga oʻtadigan “Chinvat koʻprigi”ning posboni sifatida talqin etilgan.

Mumtoz adabiyotda esa Alisher Navoiy ,Abdurahmon Jomiy, Sa’diy Sheroziy , Furqat va bir qancha adabiyotning yorqin namoyondalari gʻazallarida it obrazi qoʻllanilib, ijobiy ma’noda oshiqning yorga vafosini boʻrttirib,. salbiy ma’noda nafs oʻyinlarini ifodalab kelgan:

“Majnun boshini sajdadin olmas edi aslo

Gar layli itin julidin topsa musallo”

Yuqoridagilardan ma’lumki, it obrazi bugungi kungacha muborak Kitobda, Hadisi shariflard, folklorda, mumtoz adabiyotda ,turli ma’nolarda qoʻllangan.

Ijodkor Ma’mura Zohidovaning “Sadoqat” qissasini tahlilga tortar ekanmiz, bu janrda oʻziga jalb qilish xususiyati kuchliligini ta’kidlamogʻimiz lozim. Qissada bir kishi va u bilan bogʻliq boʻlgan bir necha kishining taqdiri oʻrtacha hajmda tasvirlanadi ekan, personajlar ozdir-koʻpdir voqealar qoʻynida tasvirlanadi va ularning tabiatlari hodisalar tasviri asnosida namoyon boʻla boradi. Qissa ocherk bilan “birodarki”,bugungi kunda ham “shaydolari” koʻp.

Qissanavis Ma’mura Zohidova “Sadoqat” qissasida it obrzini yirik planga olib chiqqan ijodkorlardan biri. Asar tili soda, tillar “qoqilmaydi’, ifoda aniq ramzlar koʻchasida “sangʻilmaydi’. Avvalo, asar nomiga e'tibor qilsak, sadoqat juda ham keng tushuncha boʻlib, doʻstning doʻstga, oshiqning yoriga, insonning vatanga, odamning Yaratuvchisiga boʻlgan vafosini bildiradi. Asar barcha vafolarni tarannum etadi. Qissadagi Qoplon laqabli it egasini bir dam unutmaydi. Itning fitratida nima borligini uning oʻzi ham anglab, “Biz kimni egamiz deb bilsak uning xizmatiga sodiqlik tuygʻusi bilan tugʻilganmiz”[1,150-bet] deydi. Bu jumla bilan yozuvchi biz insonlar ham oʻzimizni anglab, Egamizni unutmaslikka chorlayotgan boʻlsa ajab emas. Asar qahramoni Qoplonning qalbida ham ajdodlaridan meros qolgan vafodorlik, ogohlik gullab yashnayveradi. Zero buni uning “vov-vov” laridan anglamoq oson:” Oʻz ishimni maroq bilan, hech qayerga sigʻmay bajarardim. Tunlar uxlamas edim. Mabodo mushuklar kelmasligi aniq boʻlib sal koʻzim ilinib qolganda ham, uy eshigi ochilib birortalari hojatxonaga chiqishsa, ularga doim hushyor ekanimni bildirgim kelar, devorlarda hech qanday sharpa boʻlmasa ham oʻsha yoqqa qarab vovullab chopar, uy egalarini xursand qilar edim. Xotirjam boʻlishlarini istar edim. Ha-da, menga ishonib bemalol dam olishsin. Axir men bu yerda nima qilib turibman?”[1,168-bet]

Qoplon shunchaki qornini qanday qilib boʻlsa-da toʻydirishni oʻylaydigan itlardan emas. Hatto faqat egasi yiliga ikki marta yuvib beradigan tovoqdan ovqat yeydi. Garchi unda ham boshqa itlardagidek shakl - toʻrt oyoq, ikki quloq, ikki koʻz, bir dum boʻlgan boʻlsa-da, ayrim ikki oyoqlilardan ustun. Qoplon insonlardek oʻylaydi, mulohaza qiladi, xafa boʻladi, sevinadi. Hatto uning qalin doʻsti - Toymas va koʻngil qoʻygani - qoʻshni qiz Boʻynoqqinasi bor edi. Bolalarni jondan yaxshi koʻradi. Ba'zan unsiz yigʻlaydi: "Bir kuni biz oltita qoldik. Bunga men aybdor boʻldim. Onamga rahmim keldi. Oʻchoq orqasiga oʻtib yigʻladim."[1,153-bet] Zamonaviy texnikalar rivojlanib, qalblar qattiqlashayotgan bir paytda qoplonning sof tuygʻulari qalb muzlarini eritadi goʻyo.

Qissada kitobxonlar e’tiborini tortadigan koʻplab jumlalardan yana biri: “Agar yer yuzidagi oziq-ovqatlar toʻgʻri taqsimlanganidami, agar Xudo yaratgan har bir jonzotning risqi yerda bor ekaniga odamlar ishonishganidami, yana agar odamlar bunday shohona dasturxonlar atrofida oʻtirib ovqatlanishga sarf etgan pullarining oz qismini boʻlsa-da, peshonasida insoniyatga Sodiq doʻst boʻlish yozugʻi bor itlarga sarflanganidami, Qoplon bilan teng tugʻilgan shoʻrlik urgʻochi kuchuklar yerga tiriklay koʻmilmasdi.” [1,184-bet] Toʻgʻri, tabiatdagi barcha narsalar inson uchun. Hatto barcha maloyiklar insonga sajda qiladi. Undagi hayvonlar yeyishga, minishga, biz insonlarni qoʻriqlashga yuborilgan. Ular oʻzlariga berilgan missiyani a'lo darajaga bajarayotgan bir paytda nega ulardan yegulik qizgʻoniladi?! Zero, oluvchi

ham beruvchi ham Allohdir. Asardagi bunday jumlalar tafakkur yo‘llaridan yurib, qalb vodiysidagi vijdon eshiklarini qoqishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, it obrazi - ma'nolar maxzanining oltin kaliti. Xalq og‘zaki ijodi yohud badiiy asarlarda goh Yorga eltuvchi vosita bo‘lib kelsa, goh Yordan ayruvchi nafsni ifodalab keladi. “Sadoqat” qissasida yozuvchi it vositasida insoniyatga murojaat qilib, insonlarning “pok-pokiza” qalbiga oyna tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:

1. Ma'mura Zohidova. Manglaydagi yoziq. -Toshkent: Adabiyot, 2021. B-150,168,153,184

2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tavfsiri Hilol.3-juz. Hilol-nashr. Toshkent, 2023. B-466,467.

3. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. G‘afur G‘ulom. Toshkent, 2016. B-152.

4. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazaritasi.Abdulla Qodiriy.Toshkent, 2004. B-34.

5. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk.1-tom. Toshkent. B-359

**Foydalanilgan saytlar**:

1. Uz.wikipedia.org/wiki/As'hobi_kahf

2.Cyberleninka.ru/article/n/nikohdan-so-ng-ado-etiladigan-urf-odatlar-tasviri-alpomish-dostoni-misolida

3. http://old.muslim.uz

## MUHAMMAD RAHMON IJODI JANRLARI VA POETIK SHAKLLARI

*Baratova Sarvinoz Sherbek qizi*

*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti,2-kurs*

***Sherbekovna104@gmail.com* +998942054083**

***Annotatsiya:*** *Maqolada Muhammad Rahmon ijodi janrlar bo‘yicha tahlil qilingan. Mumtoz she’riyat, xalq og‘zaki ijodi, xorijiy adabiyotlardan o‘zlashgan janrlar va poetik shakllardagi she’rlari e’tiborga olingan, janr talablari jihatidan o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *janr turlari, g‘azal, masnaviy, muxammas, to‘rtlik, ballada, erkin she’r.*

***Abstract:*** *The article analyzes Muhammad Rahman's works by genres. Poems in classic poetry, folk oral art, genres and poetic forms adopted from foreign literature are taken into account and studied in terms of genre requirements.*

***Keywords:*** *genre types, ghazal, masnavi, mukhamas, quartet, ballad, free verse.*

Lirik turga mansub asarlarni janrlarga ajratishda turlicha prinsiplar mavjud. Adabiyotshunoslikda ulardan ikkitasi – shakl xususiyatlaridan kelib chiqib tasniflash hamda mazmun xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tasniflash keng tarqalgan. Shunga ko`ra, o`zbek she'riyatida qo`llanilgan she'riy janrlarni, bizningcha, tubandagicha janr turlariga ajratish mumkin:[103]

1) shakl xususiyatlariga ko`ra (bandning tarkiblanishi, qofiyalanish tartibi va h.) ajraluvchi janrlar: g`azal, mustazod, tuyuq, ruboiy, tarjiband, tarkibband, musammatlar;

2) anjumanga mo`ljallangan janrlar: nazira, badiha, muammo, chiston (lug`z);

3) xorijiy adabiyotlardan o`zlashgan janrlar: sonet, xokku, tanka, oktava, oq she'r, epigramma va h.;

4)xalq og‘zaki ijodi janrlari: qo‘shiq, alla, aytishuv;

5) individual ijodiy eksperiment tarzida maydonga kelgan janrlar: qayirma (U. Azim), ignabarg, uchchanoq (A. Obidjon), fiqra (F. Afro‘z) va b.

Bu janrlarning Muhammad Rahmon ijodida qo‘llanishini tahlilga tortamiz:

1)Shakl xususiyatlariga ko‘ra ajraluvchi janrlardan Muhammad Rahmon ijodida bir necha g‘azallar uchraydi – “Qandoq qilay” radifli, “Ko‘rinaman” radifli, “Bo‘lg‘usi” radifli , “Ichinda’ radifli g‘azallar. “Qolmish” radifli g‘azali hazaj bahrining hazaji musaddasi solim vaznida yozilgan bo‘lib, quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Kuyibman ish otashida, kulim qolmish,*

*Kulim ko‘ziga to‘tiyo gulim qolmish.*[104]

“Tuyaqush” she’ri musammatlardan masnaviy janrida yozilgan, e’tibor qaratamiz:

*Qo‘rqoq edi tuyaqush,*

*Ham nodonroq, boyaqish.*

[103] Dilmurod Quronov “Adabiyot nazariyasi asoslari” “Innovatsiya – ziyo” Tosh.: 2020, 257-bet

[104] Muhammad Rahmon “Yo‘l ko‘rayotgan odam” Saylanma. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Tosh.:2010,102-bet

*So‘kishni bilmasdi u,*

*Cho‘qishni bilmasdi u.*

*Qochishga ham chog‘i yo‘q*

*Go‘yoki oyog‘i yo‘q.*[105]

Muhammad Rahmon musammatlardan muxammas janrida ham ijod qilgan. Quyida Navoiyning “Yig‘lay” radifli g‘azaliga nazira shaklda yozilgan muxammasiga e’tibor qaratamiz. Muxammas yetti banddan iborat bo‘lib, quyidagi band bilan boshlanadi:

*Yer qattiq, osmon besutun yig‘lay,*

*Qurib chashmi selobim, xun yig‘lay,*

*Ichdan yig‘lay vale berun yig‘lay,*

*Necha hajringda chekib un yig‘lay,*

*Har kecha yig‘layu, har kun yig‘lay.*[106]

Hozirgi o‘zbek she’riyatida bandga asoslangan she’r shakllari ham ko‘p jihatdan isloh qilingan bo‘lib, mumtoz she’riyatdagi musammat turlari qofiyalanishiga ko‘ra turli poetik shakllarda namoyon bo‘ladi. Shulardan Muhammad Rahmon ijodida ikkilik, to‘rtlik, beshlik band usulida yozilgan she’rlar uchraydi. Ko‘plab she’rlari rang-barang qofiyalanagan to‘rtlik bandlarga asoslangan. “Oybek” she’rining bir bandini misol keltirish mumkin:

*Bo‘lolsa ham qalbingga tilmoch,*

*Qo‘l – qo‘l ekan, ko‘z ham ko‘z ekan.*

*Yashar kimdir lutfingga muhtoj,*

*So‘z ham asli rizq-u ro‘z ekan.*[107]

Shukur Xolmirzayev xotirasiga bag‘ishlangan “So‘nggi tashrif” she’rida mumtoz she’riyatdagi muxammas janrining qofiyalanish talablariga rioya etilmagan bo‘lsa-da har bandi besh misradan iborat:

---

[105] Muhammad Rahmon “Yo‘l ko‘rayotgan odam” Saylanma. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Tosh.:2010, 149-bet

[106] Muhammad Rahmon “Yo‘l ko‘rayotgan odam” Saylanma. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Tosh.:2010, 145-bet

[107] Muhammad Rahmon “Yo‘l ko‘rayotgan odam” Saylanma. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Tosh.:2010, 28-bet

*Boshimiz goh egik, goh ko‘kka yetdi,*

*Umr lahza-lahza o‘tdi-yu ketdi.*

*Boqdim cho‘qqilarga… toqatim bitdi!–*

*Sayron jayronlardek yelamanmi-yo‘q,*

*Bu tog‘larga  yana kelamanmi-yo‘q.*[108]

Ko‘rinib turibdiki, bu she'r aruzdagi muxammas emas, balki har bandi besh misradan iborat barmoq vazniga mansub she'riy shakl.

2)Muhammad Rahmon ijodida xalq og‘zaki ijodiga oid bo‘lgan janrlar ham uchraydi. "Xalq ohanglarida" she'riga e'tibor qaratsak, to‘rtinchi va beshinchi misralar uchun xalq qo‘shiqlaridan olingan "Sevar yorim, salomat bo‘l" misralari olingan:

*Dilda kir yo‘q, kin ham yo‘q,*

*Sendan mening ginam yo‘q.*

*Qo‘l ko‘tarsam qo‘l sinsin,*

*Sanchadigan ninam yo‘q.*

*Sevar yorim, salomat bo‘l!*

*Sevar yorim, salomat bo‘l!*[109]

Shuningdek, Muhammad Rahmon ijodida to‘rtlik shaklidagi Hazrati Bashir hikmatlari ham salmoqli o‘rin egallaydi:

*Shayton qutqu solar, goh baland dasti,*

*Bor uning azaldan bandaga qasdi.*

*Barhaq barhaqligi tasdig‘i uchun*

*Oyni muhr qilib falakka bosdi.*

***

*Yolg‘onchi qo‘ymading, bo‘ldi desak ham,*

[108] Muhammad Rahmon “Yo‘l ko‘rayotgan odam” Saylanma. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Tosh.:2010, 190-bet

[109] Muhammad Rahmon “Yo‘l ko‘rayotgan odam” Saylanma. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Tosh.:2010, 80-bet

*Sabrimiz kosasi to‘ldi desak ham.*

*Endi tobutingni kim ko‘taradi,*

*Kimsa ishonmaydi, o‘ldi, desak ham.*[110]

3) Muhammad Rahmon ijodida xorijiy adabiyotlardan o‘zlashgan janrlarni tahlil qilganimizda ballada janrida va erkin she’r tizimida yozilgan she’rlarni uchratdik. Lirik tur epik turning ba'zi xususiyatlarini qamrab olganda lirik-epik janrlar maydonga keladi. Odatda lirika namunasi hisoblangan ballada aslida lirik-epik janrga kiritilishi lozim. Ballada kichik she'riy lavhada muayyan voqeani tasvirlaydi va unga muallifning munosabatini ifoda qiladi. Masalan, "Etik haqida ballada" da shoir har kecha egasining qotilini izlab yo‘lga chiqadigan etikni tasvirlaydi, so‘nggi bandda haqiqatni o‘z tilidan aytadi:

*So‘nggi tishi qolguncha*

*Yerni tishlab bo‘zlaydi.*

*Bu etik egasining ...*

*Qotilini izlaydi.*[111]

Zamonaviy o‘zbek she'riyatiga mumtoz she'riyatdan farqli janrlar va poetik shakllar kirib keldi. Izzat Sulton 2 tomlik “Adabiyot nazariyasi”da “lirikamizning bugungi janr qiyofasini ko‘proq qandaydir qorishiq, eski, “sof janr” talablaridan holi, “universal”, sintetik she’riy shakl belgilamoqda”[112] deb ta’kidlaydi.

Muhammad Rahmon she'riyatida ham mana shunday shakllar uchraydi. Erkin she'r tizimida yozilgan "Taqvim varaqlayotgan odam", "XXI asr", “Yakshanbalar” she'rlarida muayyan vazn va qofiya talablariga rioya etilmaydi, shoir kechinmalari va fikrlarini hech qanday qoliplarga solmay, erkin ifoda etadi. "XXI asr" she'rining bir bandiga e'tibor qaratamiz:

*Oshiqni biryo‘la mahv etish uchun*

*Doriyu behush-la changlangan*

*Atirgul hidlatish shart emas:*

---

[110] Muhammad Rahmon “Yo‘l ko‘rayotgan odam” Saylanma. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Tosh.:2010, 130-bet

[111] Muhammad Rahmon “Yo‘l ko‘rayotgan odam” Saylanma. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Tosh.:2010, 140-bet

[112] Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. 2t.- T.: Fan, 1979.- B.267

*Vositalar topilgan ta'sirchan, yangi.*

*Deylik, mana kimyoviy qurol!*

*Ming, milyon qurolning bittasi bo‘lib*

*Behush yiqiladi bechora Farhod.*

*Qahqaha uradi uning ustida*

*Yuziga gazniqob tortgan yosuman. .*[113]

Xullas, shoir Muhammad Rahmon o‘z ijodiy faoliyati davomida xalq qo‘shiqlari shaklidan, mumtoz she'riyatning g‘azal, muxammas, masnaviy, boshqa xalqlar poetik ijodidan ko‘chgan ballada, erkin she'r kabilardan unumli foydalanganki, bu shoirning zamonaviy milliy she'riyatimizni an'anaviy she'riy janrlar va poetik shakllar bilan boyitganini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Dilmurod Quronov “Adabiyot nazariyasi asoslari” “Innovatsiya – ziyo” Tosh.: 2020.
2. Muhammad Rahmon “Yo‘l ko‘rayotgan odam” Saylanma. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Tosh.:2010.
3. Izzat Sulton “Adabiyot nazariyasi”.2 tomlik. 2t.- T.: Fan, 1979.
4. To‘xta Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari” Toshkent – “O‘zbekiston” – 2002.
5. To‘xta Boboyev “She’r ilmi ta’limi” Toshkent “O‘qituvchi” 1996.
6. Muhammad Rahmon “Abadiy nido” Toshkent “Ma’naviyat” 2011.


## MODERNIZM ADABIYOTIDA O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘RNI
## (OMON MUXTOR “KO‘ZGU OLDIDAGI ODAM” ASARI ASOSIDA)


***Beshimova Mohinoz Erkin qizi***

*ToshDO‘TAU magistri*

*mohinozbeshimova@mail.ru*

*+998991214361*



***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada, modernistik asarlarda o‘zbek xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari Omon Muxtor ijodi orqali tahlil qilindi. Modernizm yo‘nalishiga oid qarashlarning turlichaligiga ko‘ra, bunday asarlarning ham milliy ruhini , koloritini yuzaga chiqaruvchi rivoyat, xalq*


[113] Muhammad Rahmon “Yo‘l ko‘rayotgan odam” Saylanma. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Tosh.:2010, 115-bet

*qo‘shiqlari, maqollarni alohida o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Maqolada adibning “Ko‘zgu oldidagi odam” romanidagi folklor namunalarining maqsad va vazifalari ilmiy-nazariy aspektda tahlilga tortildi.*

***Kalit so‘zlar**: modernizm adabiyoti, milliy kolorit, ijodkor ekspressionizmi, milliy ruh, inson konsepsiyasi, obrazlar tizimi, psixologik tasvir.*

***Abstract.** In this article, the unique features of Uzbek folk art in modernist works were analyzed through the work of Amon Mukhtir. According to the diversity of opinions on modernism, it is one of the urgent issues to study the narrative folk spoons and proverbs that create the nationalism of such works. In the article, the goals and tasks of the folklore examples in the write’s forest were analyzed in a scientific-theoretical aspest*

***Key words:** modernist literature, national color, creative expressionism, national spirit, human concept, system of images, psychological structure*

Yozuvchi yoki shoir asar yozarkan, albatta, unga o‘z xalqining milliy urf-odatlari-yu, an’analari, rivoyat-u naqllarini ham singdiradi. Aynan milliy kolorit va xalq og‘zaki ijodining o‘rni adabiyotda muhim ahamiyatga ega . Chunki har bir asar kitobxonga o‘sha xalq bo‘yicha tasavvur uyg‘otishga xizmat qilmog‘i kerak. Shu ma‘noda badiiy asarlarda folklor namunalaridan foydalanish adabiyotshunoslik oldidagi muhim vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda. “Chunki har bir davr adabiyoti folklorda o‘z aksini topadi, badiiy sayqallanadi”[114]

Bu jihat adabiyotda tobora o‘z so‘ziga ega bo‘layotgan modernizm adabiyotini ham cheklab o‘tgani yo‘q. XIX asar oxiri XX asr boshlarida o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan modernizm hammaning e‘tiborini o‘ziga tortdi. Chunki ushbu oqim adabiyotdagi an‘anaviy usullardan tubdan voz kechdi. “Modernizmga xos umumiy xususiyatlardan biri shuki, u obyektiv voqelikning tasviri o‘rniga uning ijodkor tasavvuridagi badiiy modelini yaratishni maqsad qildi. Ya‘ni bu o‘rinda voqelikni aks ettirish emas, ekspressionizm ya‘ni ijodkorning o‘z-o‘zini ifodalashi ustuvor ahamiyat kasb etdi”[115]. Shu sababli ham istiqlolning dastlabki yillarida modernistik ruhda yozilgan asarlarni baholashda turlicha qarashlar vujudga keldi. Lekin shunga qaramasdan ushbu asarlarda ham o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari va milliy urf-odatlardan o‘ziga xos uslubda foydalanildi.

90-yillarda adabiyotga yangi kirib kelgan modernizmda barakali ijod qilgan Omon Muxtor asarlarida ham o‘zbek folklori milliylikni aks ettirdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning “Ming bir qiyofa”, “Ko‘zgu oldidagi odam”, “Tepalikdagi xaroba”, “Ffu”, “Ayollar saltanati va mamlakati” kabi qator asarlari tarkibidagi rivoyatlar, naqllar, badiiy obrazlar aynan asarga o‘zgacha bir ruh bag‘ishlab turadi.

[114] Otaboyeva D. Badiiy asarlarda folklor an’analarining aks etishi va ijodkor mahorati. In-academ.uz
[115] Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. T.:Akademnashr,2020. B.10

Adabiyotshunos olim D. Quranov Omon Muxtor ijodining ushbu qirrasiga shunday baho beradi: “Xususan, adib milliy folklor, diniy rivoyatlar va Sharq mumtoz adabiyotiga xos norealistik usullarni asos qilib oladi-da, ularni modern usullari bilan boyitadi. Natijada ular milliy adabiy zaminning o‘zidan o‘sib chiqqandek, sof milliy estetik hodisadek taassurot qoldiradi”[116]. Asarlarda o‘zbek xalq qo‘shiqlari, rivoyatlar, ba‘zan xalq og‘zaki ijodidagi badiiy obrazlar o‘ziga xos vazifa bajarganini guvohi bo‘lamiz. Biz tahlilga tortgan “Ko‘zgu oldidagi odam” romanida ham sovet mafkurasining va unga ishongan insonlarning achchiq qismatini yoritishda folklor namunalaridan unumli foydalanilgan.

Eng avvalo, adib ijodida asar epigraflari alohida ahamiyatga molik. Har bir asarda adib o‘zbek xalq qo‘shiqlari misralarini epigraf qilib oladi. “Ko‘zgu oldidagi odam” romaniga ham “Mendan nima istaysan, Ko‘zgu, senga nima kerak” misra epigraf qilib olingan. Ijodkor bunga eski bir qo‘shiqdan deb izoh beradi. Asarlarga o‘zbek xalq qo‘shiqlaridan misol olinishining bir sababi shundaki, hech qaysi bir xalq og‘zaki janri millatning dardini qo‘shiqdek ta‘sirli va ommabop chiqara olmaydi. Shu tufayli adibning qator asarlarida milliy qo‘shiqlarimiz misralari epigraf qilib olinganini ko‘rishimiz mumkin. Kitobxon uchun asar nomi va epigrafdagi Ko‘zgu so‘zlari jumboqqa aylansa-da, asar voqealari orqali ushbu ramzning sinoatlari ochilib boradi.

Adabiyotda Ko‘zgu timsoli o‘ziga xos ma‘nolarga ega. Ko‘zgu dastlab insonning qalbi, uning botinining ramzi sifatida talqin qilinadi. Inson Ko‘zgu qarshisida o‘ziga, o‘z vijdoniga hisob beradi. Hayotda kishi hammani ham aldashi mumkin, lekin hech qachon o‘zini alday olmaydi. Bu hodisa asar voqealariga ham ko‘chgan. Obrazlar tizimidagi Siroj muallim xuddi shunday Ko‘zgu qarshisidagi odam. Asar boshida jamoatchilik fikricha, yaxshi muallimning sir-sinoatlari voqealar rivojida asta-sekinlik bilan yuzaga chiza boshlaydi. Aslida, Siroj muallim o‘zi yashab turgan jamiyatning tutgan ishiga mamnuniyat bilan xayrixohlik bildiruvchi, uni qo‘llab-quvvatlaydigan, yuqori mansabdagilarga yoqish uchun tashabbuskorliklar ko‘rsatadigan laganbardor bir obraz. U odamlar orasida o‘zini madaniyatli, ziyoli xokisor, ayollarni qadrlaydigan insondek tutsa-da, ammo uning botini butunlay qabih. U xalq tilida aytganda, “Usti yaltiroq, ichi qaltiroq” bo‘lgan tuzum laychalarining tipik vakilidir. U insonlarnigina emas, yashab turgan yurtining ham ozod va erkin bo‘lishi xohlamaydi. Yuqoridan kelayotgan buyruqlarni hech bir so‘zsiz bajarib tursa bas. O‘zining obro‘-e‘tibori uchun hatto o‘z yurtini sotishga ham tayyor. Xuddi shunday insonning aynan muallim kasbida keltirilishi ham katta bir falsafa yotganligining namunasidir. Chunki muallim boshqa kasblar singari bitta yoki ikkita insonni emas, butun bir millatning ongini, ma’naviyatini zaharlashi, yoki

[116] Қуранов Д. Адабиёт надир – Т.: Зарқалам, 2006. Б.120

unga oʻzligini tanitishi mumkin. Siroj muallim esa birinchi toifadagi insondir. Lekin u qilayotgan ishlari zohiran toʻgʻridek, risoladagidek tutsa-da, lekin ich-ichidan aslida vataniga, oʻz millatiga xiyonat qilayotganini his qiladi. Shuning uchun soatlab Koʻzgu qarshisida oʻzini oʻziga oqlashga, oʻzini himoya qilishga harakat qiladi. Soʻnggida esa Koʻzguning chil-chil sinishi bilan tugaydi.

Siroj muallimga konflikt tarzida Badalbek uchuvchi obrazi tasvirlanadi. Avvalo, obrazning kasbi kishi eʻtiborini tortadi. Badalbek inson konsepsiyasida mustamlakachilikka ich-ichidan qarshi, biroq qoʻlidan hech ish kelmaydigan noiloj erkka tashna insonlarning milliy obrazini gavdalantiradi. Yozuvchi bu obrazning achchiq taqdirini yoritishda quyidagi rivoyatni keltiradi: “Bir kuni bir kishi dor tagida oʻtirarkan. Hamma shoshilib u tomon borishibdi va “Sen bu yerda nima qilib oʻtiribsan” deb soʻrashibdi. “Meni osinglar” debdi boyagi odam. “Nega?!” deb soʻrashibdi. Boyagi odam shunday gap qilibdi… “Menga hayotdan ham oʻzingdan ham norozi boʻlma… hech narsani eshitma!”- deyishdi. Qulogʻimga paxta tiqib oldim. “Hech narsani koʻrma ” deyishdi. Oʻzimni oʻz koʻzlarimni bogʻlab yurdim. “Gapirma” deyishdi. Tilimni tishlab yurdim. “Kulma” deyishdi. Bunga ham koʻndim. “Endi hech narsani sezmagandek yur. Oʻylama ” deyishdi. Men tirik odamman. Idrok qilmay yasholmayman. Undan koʻra meni osib qoʻya qolinglar”[117]. Rivoyatda Badalbek ham xuddi oʻsha kishi kabi oʻlim topadi.

Yana shuni ham taʻkidlab oʻtishimiz joizki, modernizm adabiyotida, aksariyat hollarda, adib aytmoqchi boʻlgan fikrini loʻnda ifodalashi uchun ramzlarga koʻproq murojaat qiladi. Shu bilan birgalikda asar strukturasi ham topishmoq shakliga oʻxshab ketadi. “Koʻzgu oldidagi odam” romanining syujetida ham topishmoq va jumboqlar muhim rol oʻynaydi. Xalq ogʻzaki ijodi namunasi boʻlgan rivoyatlarning yana bir funksiyasi aynan mana jumboqlarga oydinlik kiritishdir. Misol uchun, oʻlgan Siroj muallimning ikki yildan yana qaytib kelishi sirini yechishga harakat qilayotgan Vali tilidan shunday hikoyat keltiriladi: “Qabristonda koʻpincha bolalikda eshitgan bunday rivoyatlar negadir yodimga tushadi…

Bir shoh tilanchining qizini sevib qolgan ekan. U qizga, senga uylanaman, sen malika boʻlasan, faqat sharti: tilanchilikni tashla, bu kasbni unut, bundan soʻng xayolingga ham keltirma, debdi. Tilanchining qizi rozi boʻlibdi. Ular toʻy-tomosha qilishib, birga yashay boshlashibdi. Shoh malikani ardoqlab, zar-zevarga koʻmib tashlagan ekan… lekin oradan yillar oʻtib, malikaning oʻziga tegishli xilvat bir xonada baʻzan berkinishi shohning diqqatini jalb qilibdi. U malikani kuzata boshlabdi… Malika avvaldan oʻrgangan kasbini unutolmaganidan, eshiklarni ichkaridan yopib, xonadagi qator tokchalarga erinmay bir boʻlakdan non qoyib

[117] Мухтор О. Тўрт томон қибла: Уч романдан иборат Шарқ дафтари: Шарқ, 2000. (Koʻchirmalar shu kitobdan olinadi va sahifasi qavs ichida koʻrsatiladi).

chiqar, keyin tilanib, tokchalardan nonni terib olar ekan… ” [118]

Ushbu rivoyat asar syujetida Siroj muallimning nima uchun qaytib kelganiga bir ishora sifatida keltirilgan. O‘zbek xalqi mustaqillikka erishib, yelkasi endi oftob ko‘rgan davrlarda Siroj muallimga o‘xshagan tuzumning aldovlariga ishonib, yana uni qaytishi uchun bel bog‘lagan nomardlarning jinoyatlari ramzlar orqali tasvirlab berilgan. Ularning butun vujudlari-yu aql-idroklariga qullik deb atalmish kishanlar solib bo‘lingan. Bunday insonlar boshqacha hayotni tasavvur qilishmaydi. Shuning uchun xuddi tilanchi malikaday parchalangan SSSR dan umidvor bo‘lib yashayveradilar, ming afsuski.

Asarning yana bir e‘tiborli jihati shundaki, yozuvchi obraz portretini yoxud uning ruhiy psixologiyasini ochishda remarkalardan unumli foydalanadi. Remarkalarning ba‘zilari esa xalq qo‘shiqlari yoki ibratli voqealarning ma‘lum bir parchalaridir. “Xoh yaxshimi, xoh yomon,menga bir xotin lozim” (o‘sha kitob 88-bet), “Ta‘lim bergan ustozingdan ayrilma”(o‘sha kitob. 108-bet), “Biz muridlar qaysi yo‘l bilan Ka‘baga boraylik, pirimiz mayxona tomonga boshlayapti” (o‘sha kitob. 108-bet), “Bizga salom aylab keling”, “Har dam seni ko‘rgim kelur” kabi misollar asardagi personajlarning psixologiyasini, xarakterini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

“Omon Muxtor romanlarida G‘arb modernizmiga xos ifoda shakllarini qo‘llagan bo‘lsa-da, inson konsepsiyasini yaratishda Sharqning azaliy hayot falsafasidan uzilib ketmaydi”[119]. Ushbu jihat yozuvchi ijod merosi milliy zaminning mevasi ekanligini anglatib turadi. Yuqoridagi misollardan tashqari ijodkorning asarlarida milliy ruhni tanituvchi yana ko‘plab detallarga duch kelishimiz mumkin. Va jihat har bir badiiy asar, u qaysi yo‘nalish, qaysi oqimda yozilmasin, baribiri tub ildizi ming yilliklarga borib taqaladigan xalq og‘zaki ijodidan ilhomlanishini yorqin bir misolidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**


1. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. T.:Akademnashr,2020
2. Мухторов О. Кўзгу олдидаги одам.-Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1996
3. Мухтор О. Тўрт томон қибла: Уч романдан иборат Шарқ дафтари: Шарқ, 2000.
4. Otaboyeva D. Badiiy asarlarda folklor an’analarining aks etishi va ijodkor mahorati. In-academ.uz


[118] Мухторов О. Кўзгу олдидаги одам.-Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1996. Б.90

[119] Қуранов С. Минг бир қиёфада еркин инсон ғояси// Шарқ юлдузи, 2023 №10.

5. Қуранов Д. Адабиёт надир – Т.: Зарқалам, 2006
6. Қуранов С. Минг бир қиёфада еркин инсон ғояси// Шарқ юлдузи, 2023 №10
7. https://ziyouz.com
8. https://cyberleninka.ru
9. https://uz.m.wikipedia.org

## XURSHID DO‘STMUHAMMAD TARIXIY HIKOYALARIDA RUHIYAT TASVIRI

***Ergasheva Muqaddas Alisher qizi***

*ToshDO‘TAU, Adabiyotshunoslik nazariyasi fakulteti*

*1-kurs magistri*

*alisherovamuqaddas@gmail.com*

*+935753409*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammadning tarixiy hikoyalar turkumidan o‘rin olgan “Qazo bo‘lgan namoz”, “Umid guli” nomli hikoyalarida ruhiy holat va ijodkorning badiiy g‘oyasi ochib berilgan. Xurshid Do‘stmuhammadning g‘oya tanlash mahorati, kichik hikoyalarda ruhiy holat, hamda uning badiiy ijodi aks etgan hikoyalar taqqoslab o‘rganilgan. Mazkur hikoyalarning mavzu jihatini ijodkor o‘z tabiatidan olib yaratgan. Yozuvchi ijodida so‘zlarning qisqa va o‘z o‘rnida ifodalanganligi kitobxonni jalb etadi. Hikoyalarda g‘oya va mavzuga nisbatan falsafiylik mavjud. Har bir hikoyaning ichida bir ma’no yashiringan. Bu asarlarda kitobxon o‘zi uchun turli ma’nolarni kashf etadi. G‘oya va mavzu ham ramziylikka yo‘g‘rilgan. Sarlavhalar ham ramziy tanlangan. Ruhiy holat inson hayotidagi kundalik jarayonda bo‘layotgan hodisalardan kelib chiqib ifodalangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Ruhiy psixologizm, badiiy g‘oya, mavzu tushunchasi, “saf” so‘zining lug‘aviy ma’nosi, badiiy mahorat, ramziylik.*

***Abstract:*** *In this article, the writer Khurshid Dostmuhammad's stories "The Accidental Prayer" and "The Flower of Hope" from the series of historical stories reveal the state of mind and the artist's artistic idea. Khurshid Dostmuhammad's skill of choosing ideas, mental state in short stories, and stories reflecting his artistic creativity are studied by comparison. The author created the theme of these stories from his own nature. In the author's work, the words are short and expressed in their place, which attracts the reader. Stories are philosophical about ideas and themes. There is a hidden meaning in every story. The reader discovers different meanings in these works. The idea*

*and theme are also symbolic. The titles are also chosen symbolically. The state of mind is expressed based on the events that occur in the daily process of human life.*

***Keywords:*** *Artistic idea, the concept of the theme, the dictionary meaning of the word "row", mental psychology, artistic skill, symbolism.*

Adabiyotda bir-biriga o‘xshash, bir-birini to‘ldirib turadigan ijodkorlarni istagancha uchratish mumkin. Hech kimga o‘xshamaydigan, hatto hech kimni eslatmaydigan adiblar esa barmoq bilan sanarli bo‘ladi. O‘zbek adabiyoti o‘tmishida ham, bugunida ham bunday so‘z ustalari, ta’bir joiz bo‘lsa, so‘z zargarlari bor. Xurshid Do‘stmuhammad ana shunday dunyo so‘z ustalari bilan bo‘ylashadigan adiblarimizdan. 2021-yilda adibning to‘rt jildlik saylanmasi “Yangi asr avlodi” nashriyoti tomonidan nashr etildi. Saylanmaning birinchi kitobi “Hikoya”, ikkinchisi “Qissa”, uchinchisi “Roman”, to‘rtinchisi “Izhor” deb nomlanadi. “Hikoya” qismiga adabiyotshunos Bahodir Karim samimiy so‘zboshi yozgan. “Adibning hikoyalar kitobi xususida taassurotlar yozib, ba’zilariga baho bermoqchiman; niyatim – o‘quvchida qiziqish va rag‘bat uyg‘otish. Aslida tiyrak – teran nazarli kitobxon ham, adibning o‘zi ham o‘ngso‘zimga muhtoj emas. Chunki Xurshid akaning yangi asarlari adabiy jarayonni jiddiy kuzatib borayotgan o‘quvchilar tomonidan ko‘pincha juda iliq kutib olinadi, muhokamalar qilinadi. Qolaversa, har bir ijodkor o‘z asarlari qadr-qiymatini, maqomini, bahosi va umrini o‘zi yaxshi biladi. Inchunin Xurshid Do‘stmuhammad hikoyachilik bobida maxsus tadqiqot yozib, ilmiy darajaga ega adabiyotshunos hamdir…” deb yozadi u. ( Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalar to‘plami, 2021, 3-bet)Ta’kidlash joizki, Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalari oson o‘qilmaydi. O‘quvchi adib nima demoqchi bo‘lganini mulohaza qilishi, fikr chig‘irig‘idan o‘tkazishiga to‘g‘ri keladi. Aslida adabiyotning bosh maqsadi ham shu. Haqiqiy ijodkor kitobxonni adabiyotning sehrli olamiga boshlab kirishi kerak.

Har bir haqiqiy san’at asari, vaqt nuqtai nazaridan zamonaviy yoki tarixiyligidan qat’i nazar, u-tarix, badiiylashtirilgan tarix. Ijtimoiy-siyosiy hayotidan olib yozilgan tarix, faqat badiiylashtirilgan yoki umumlashtirilgan tarix bo‘lishi mumkin. Tarixiylikning yana bir boshqa jihati borki, unda asar dastavval zamonaviy san’at namunasi sifatida namoyon bo‘ladi va keyinchalik u o‘z davrining badiiy qiyofalar vositasida yaratilgan tarixiga aylanib qoladi.Badiiy adabiyot hamisha ham davr bilan hamohang bo‘lavermaydi. Negaki, zamon abadiy, davr-o‘tkinchi. Adabiyot esa, shu ikki qarama-qarshi tushuncha abadiylik va o‘tkinchilikning o‘zida birvarakayiga aks ettirishi lozim bo‘lgan hodisadir. Adabiy asarlarda o‘tgan davr, kechmish tasvirlanadi-yu, intellektual inson tafakkurida abadiy muhrlanadi. Millat tarixi, o‘zligi ular bilan birga yashaydi. Ular bilan dardlashish,ko‘ngilning ko‘ngildan suv ichishi, ajdodlarimiz ruhini, dardi dunyosini his qilish asl insoniy fazilat hisoblanadi.

Darhaqiqat, “Adabiyot siyosiy yetakchilikdan, mafkuraviy tazyiqlardan, yo‘l ko‘rsatuvchidan qutildi. Demak, mustaqillik davri adabiyotida chin estetik hodisa bo‘lish imkoniyati tug‘ildi. Istiqlol davri adabiyoti munosabatlar adabiyotiga,tuyg‘ular, kechinmalar adabiyotiga aylanib bormoqda. Adabiyot davlatning emas, millatning ishi bo‘lib qoldi”. Biz bechizga istiqlol davri bilan tarixni bog‘lamadik. Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarida zamon va makon jihatida qaralganda mustaqillikdan oldingi jadid adabiyoti vakillarini qismani yoritilganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ya’ni tarixiy va zamonaviy hikoyalardagi ijtimoviylik ham makon va zamon munosabati ham g‘oya va mavzu jihati ham tubdan farq qiladi. Demakki, insonning ijtimoiy holatida zamon, davr va tuzumning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Ijodkor qalamiga mansub bir nechta tarixiy hikoyani ijtimoiylik asosida tahlik etamiz. Ijodkorning g‘oya va mavzu tanlash mahoratiga urg‘u beramiz.

“Moziyga qaytib ish ko‘rish xayrlik deydilar” alloma adibning ushbu hikmatidan olingan “Moziyga qaytib” birikmasini Xurshid Do‘stmuhammad tarixiy hikoyalariga umumiy nom qilib oladi. Ular soni ko‘p emas: “Qazo bo‘lgan namoz”, “ “Umid guli” kabi hikoyalardan iborat. Ijodkorning tarixiy hikoyalari bola dunyosi qanday realistik berilgan bo‘lsa, bu tarixiy hikoyalar ham shunday usulda yozilgan. Tarixga nur bag‘ishlash, ayniqsa, millatning uzoq yillar dushman sanalgan boy va boyonlari, olim va ulamolari to‘g‘risida boshqalarga o‘xshamagan tarzda, moziyni odamning ko‘zi oldida jonlantirish, tarixiy shaxslarni e’zozlash, ularga jon bag‘ishlab, o‘z nutqida so‘zlatish bular oson ish emas. Qalam quvvati bilan tasavvur ko‘lami birlashadi bunda badiiy tafakkur o‘z kuchini ko‘rsatadi.

Xurshid Do‘stmuhammadning hikoyalar to‘plamidan o‘rin olgan “Qazo bo‘lgan namoz” nomli hikoyasi ham kitobxonni befarq qoldirmaydi. Moziyga qaytib deb boshlangan ushbu hikoya beixtiyor jadid adabiyoti vakillarini yodimizga soladi. Hikoya bosh qahramoni Mirkomil haq gapining ortidan o‘lim jazosiga hukm etiladi. Mirkomil o‘z gapidan hadiksiramaydi, aksincha unga berilgan qochib ketish takliflarini ham rad qiladi. “Komiljon aka, shoshiling, qochishdan bo‘lak chora qolmadi!-dedi. -Tinchlikmi? - bamaylixotir so‘radi Mirkomil. -Ertaminan sizni hibsga olishga buyruq bor. Bolshoylarning niyati buzildi. -Niyati buzilsa menga nima? Mening niyatim buzuq emas-ku! Hibsga necha qayta oldi yana chiqib kelaveraman-da!” ( Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalar to‘plami, 2021, 36-bet) mana shu suhbatni o‘zida Mirkomilning o‘z gapirgan gapi uchun qo‘rqmasligi, to‘g‘ri gapirgani, shu bilan birga niyatida zarracha yomonlik yo‘qligi namoyon bo‘lgan. Mirkomil bolsheviklar qo‘lida ezilgan xalq, noo‘rin o‘lim jazosiga hukm qilingan insonlar, qadr-qimmat, ilm-ma’rifat tarqatish yo‘lida qatl etilgan jadidlar timsolidir. Hikoyaga tanlangan nom ham, bizningcha, ramziylikka ega. “Qazo bo‘lgan namoz” -bu nom bolsheviklar davrida toptalgan dinimizga ishora. Asarda ateizm ilgari surilib, e’tiqodimiz yerga urilganligi,

inson qadri eng quyi pog‘onaga qo‘yilganligi haqidagi hikoya qilinadi. Mo‘jaz bu hikoyaga tanlangan g‘oya va mavzu o‘qirmanni qiziqtiradi. Biz erkin va mustaqil zaminda yashayapmiz. E’tiqodimiz ham, dinimiz ham biz bilan birga bu mavzudagi hikoyalarni o‘qib inson o‘sha davrni bevosita tasavvur qiladi. Hatto namoz o‘qish huquqi berilmagan bir davrni ko‘z oldiga keltirib qo‘rqinch his etadi. Haq so‘zni aytgani uchun qatlga mahkum bo‘lgan ziyolilarga achinadi. Bugungi kuniga shukr qiladi. Bizni shunday yashashimiz, ilmli bo‘lmog‘imiz uchun jonini fido qilgan ma’rifatparvarlarimizga nisbatan faxr tuyg‘usini tuyadi. “Qazo bo‘lgan namoz”ni chin ma’noda tarixiy hikoyalarda ijtimoiy masalaga urg‘u berilgan bir hikoya o‘laroq qabul etsak bo‘ladi. Negaki, zamon nuqtayi nazaridan insonning ijtimoiy holati bilan bog‘liq g‘oya ilgari surilgan. Ijtimoiy masala -bu, albatta, inson va uning atrofida sodir bo‘layotgan hodisalarga tegishlidir. Jamiyat esa insonning bir bo‘lagidir. Bu hikoyada ham ijtimoiy hodisaga urg‘u berilgan. Insonlar o‘z erki, huquqlarini himoya qilish yo‘lida nohaq aziyat chekayotganligi g‘oyasi mavjud. Mana shu jamiyatni boshqarayotgan insonlar insoniylikdan yiroqlashib ketganligi ko‘rsatilgan. Haqni haq holida emas, balki o‘z manfaati yo‘lida Mirkomil kabi ko‘plab begunoh insonlarning hayotiga zomin bo‘lgan. Namozni qazo qilib o‘qish savobni kamayishiga sabab bo‘ladi, bu dinimizda belgilab qo‘yilgan. Ammo qazo namozni ham o‘qish shart. E‘tiborli jihati, Mirkomilning endi qazo namozini o‘qiyolmasligi. Bunda insonlar rus tuzumi davrida namozlarini berkinib o‘qishi, namoz qat’iyan ma‘n etilaverganidan oxir-oqibat o‘qimay qo‘yishlari va ko‘ngilning kirlanib borib bora-bora e’tiqodlarini unutishlari g‘oyasi ham mavjud. Ijtimoiy holat shu darajada og‘ir bo‘lganki, bemalol ibodat qilish, inson o‘zini huzurda his etishi ham taqiqlab qo‘yilgan. O‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishgan, erklarini yo‘qqa chiqarishgan, xalqimiz og‘ir kunlarni boshidan kechirgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Agar bir millatni yo‘qotmoq istasalar, albatta, e’tiqodi bilan sinaydilar. E’tiqodi toptalgan xalq o‘zini ham, jamiyatini ham yo‘qotadi. Buni yaxshi tushungan, anglagan insonlarni ham shu sababdan yo‘q qilishgan, jamiyatni uyg‘otmasin, xalq o‘zligini yo‘qotsin degan qarashlarni ilgari surishgan. Chunki jamiyatning insonlari qaysi davrda bo‘lishidan qat’i nazar birlashsa, har qanday kuchni yengish imkoni doim bo‘lgan. Haq so‘zni so‘zlagan, ziyoli qatlamdan shuning uchun ham doim qo‘rqishgan. “Qazo bo‘lgan namoz” hikoyasida andijonlik mashhur boy Mirkomilboyning hayot tarzi, insoniy fazilatlari, toza va halol niyatlaridan gap ochiladi. Mirkomilboy mulohazali, diyonatli, dunyo ko‘rgan odam. Ammo u begonalardan emas, balki o‘z millatdoshidan, yaqinida yurgan kimsalardan pand yeydi. Mirkomilboy bor davlatini, izzat-obro‘sini “o‘z xalqiga g‘animlik niyatida” to‘plamaydi. Dushmanlik qilib, uni sotgan xoinlar “o‘zga yurtlardan kelib yurtni, diyorni bosib” olgan kimsalardan emas, balki atrofida yurgan, o‘z elidan chiqqan ma’naviyati tuban millatdoshlari. XX asr boshidagi inqilob hodisasi odamlarni elakdan o‘tkazdi, parchalab birlashtirdi. O‘sha

zamondagi shoh-u gado o‘yinlari yozuvchini o‘ylantiradi, hikoyada o‘z ezgu niyati oqibatida “surgunma-surgun, kamokma-kamok sarson-sargardon” yurgan Mirkomilboy hayotining oxirgi pallasi aks ettiriladi. Hikoya fojiaviy, ayanchli tasvir bilan tugallanadi.

Umid insonni bu hayotda ushlab turuvchi ajib bir tuyg‘udir. Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalar uchun sarlavha tanlashga ham mahorat bilan yondashadi. “Umid guli” deb nomlanishi g‘oya va mavzuning mazmunini ochib beruvchi kalit so‘z go‘yo. Bu hikoyaning g‘oyasi ham jadidlar ma’rifatparvarlari qismati bilan bog‘liqdir. Ularning qalbida ham doim umid bo‘lgan. Xalqni ilmli qilish uchun say-harakat, jamiyatni holatini yaxshilash kabi ezgu orzu-havaslar bilan yashagan. “Umid guli” hikoyasida jadidlar yashagan davrida hattoki so‘z erkinligining ham yo‘qligi g‘oya qilib tanlangan. Hikoyada syujet liniyasi professor va uning shogirdining dialoglari orqali ochib berilgan. Fayzullaxo‘ja o‘z ustoziga: “Siz zudlik ila Maskovga jo‘naysiz!”-deydi. Ustoz bu holatdan hayron qoladi. “Vaziyat oydinlashguniga qadar o‘sha tomonlarda bo‘la turing, xabarlashamiz. Xabarlashish qayda! Ozmuncha aytar so‘zi, ravshanlik kiritishi zarur savollari paydar-pay tug‘ilyaptimi bu yerda! Lekin ularni kimga aytadi, kimga yorilib-yozilib bayon etadi?! “Qarorning orti qorong‘ilik” O‘tgan yil fasli bahor kunlarida Maskovda qabul qilingan “Buxoro masalasi” qaroridan so‘ng jumhuriyat osmonida qora ko‘lankalar quyuqlasha boshladi. Shu yilning yozida esa Markazqo‘m kotibi Rudzutakning Buxoroga maxsus tashrifidan ko‘zlangan maqsad o‘sha mal’un qaror bandlarini amalga oshirish ekanligi sir bo‘lmay qoldi. Fayzulla aytmoqchi, Buxoroni notinchlik isi tutdi”. (Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalar to‘plami, 2021, 80-bet) Mana shu jumlaning o‘ziyoq keyin nima bo‘lishini bilmaydigan qora kunlardan dalolatdir. “Qayerdasan, Abdulhami-id-d? Xuddi Maskovga kelgandek, shu kungi havoning avzoyini o‘z ko‘zlari bilan kuzatgandek yozgan-a! Dilbar shoir, tengsiz shoir! Shu singari haroratli sifatlar ila Fayzullaxo‘jaga tavsiya qilgandi uni, Fayzulla baraka topsin, Abdulhamidga “Buxoro axbori” gaziti muharrirligi vazifasini topshirdi. Abdulhamid astoydil ishladi, ter to‘kib ishladi, shu tarzda ishonchni oqladi va nadomatlar bo‘lg‘aykim, uning ham javobini berishdi-ketkazishdi. Cho‘lpondek shoirning xizmatidan voz kechishdi! Vaholanki-professor tashqariga qaradi-vaholanki, hali qosh qorayishiga birmuncha erta, erta ekanligiga qaramay kunduzdan ko‘ra ko‘proq shom qorong‘isiga o‘xshab ketayotgan kunduz zimistonida hamon savashda davom etayotgan qor-yomg‘irni ko‘z ilg‘amay qolgandi”. Professorning qalbidan o‘tayotgan bu o‘ylar achchiq haqiqat edi. Sarlavhaning o‘ziyoq mavzu va g‘oyani ochib bergandek go‘ya. Hikoyadagi har bir misra o‘sha davr kunlaridan xabar beradi. “Kecham” desang ham, “Kunduz” desang ham shafqat qilmas bu mudhish zimiston, millatdosh inim! “Kecham” desang ham, “Kunduz” desang ham! Ustoz ochiq ko‘ksiga ignadek sanchilayotgan sovuqqa e’tibor bermay osmonga qaradi, atrofga alangladi. Yonida hech

kimsa yo‘q, qorong‘ilik qa’rida yolg‘iz, tanho o‘zi poyi piyoda boraverdi. Ohista, deyarli shivirlab aytdi:

- Ko‘k yo‘q emish, yer yo‘q emish, quyosh bilan yulduz yo‘q…

Bir o‘qishdayoq cho‘lponga ishora borligini his qilish qiyin emas. Davrning qora kunlarida hattoki kitob o‘qish man qilingan bir jamiyatda yashash ziyolilar uchun qandalik qiyin. Cho‘lpon qalamiga mansub “Kecha va kunduz” romanining bir qismi ham davr tuzumning ayovsiz olib borilgan siyosatining qurboni bo‘lganligi shu ikki misra bilan ochib berilgan. Hikoyaning so‘ngi esa: “Ushbu ikki yangi she’r kaminaning qalamiga mansub “Mening kecham” hamda yosh, navqiron shoirimiz mirza Botu bitgan “Mening kunduzim” she’rini nazmiy mubohasa sifatida bir sahifada chop etsangizlar. Kamoli hurmat ila Abdurauf Fitrat. 1923 yil 14 o‘ktabr. Maskov”, shu shaklda yakunlanadi. ( Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalar to‘plami, 2021, 83-bet) Ijodkor bu hikoyasida jadidlarning haqiqatni so‘zlash, el-u yurtni ziyoli qilish uchun olib borgan say-harakatlari ortida mashaqqalarini g‘oya qilib tanlab. Bu yo‘ldagichekkan jabr zulmlarini mavzu sifatida yoritgan. Hikoyaga berilgan xotima esa, bugungi dorilamon kunlarimizga ishoradir. Ma’rifatparvarlarimiz bizni mana shu kunga kelishimizga sababchidir. Xalqni qoloqlikdan, ilmsizlikdan qutqarish uchun harakat qilgan ziyoli jadidlarimizda umid guli hech qachon so‘lmagan. Darhaqiqat, Xurshid Do‘stmuhammadning “Umid guli” hikoyasi Fitratning Maskovda yolg‘izlanib yurgan kunlaridan olib yozilgan. Hikoya voqaeligi Fitratning ijod onlari, millat va el-yurt taqdiri ustidagi xayollari bilan mushtarak beriladi. Shuning uchun ham uning tilida fitratona ta’bir va falsafiy hikmatlar uchraydi. “Inson inson bilan, suhbat-u anjumanlar bilan tirik, barhayot. Baliqning vatani ummon bo‘lgani kabi odamning vatani-uni tushungan, uning so‘zlariga quloq tutguvchilar orasindagi sershavq mashvarat onlaridadir”. Obraz, adabiy qahramon kayfiyatni tabiat hodisalariga ko‘chirib, ularga moslab yoki zidlab tasvirlash usulini Xurshid Do‘stmuhammad “Umid guli”da ham qo‘llaydi: “Yomg‘ir tezlashdi, tomchilar zichlashdi. Tomchilardagi xiyol oldingi iliklik o‘rnini muzlik egalladi”. Biroq ob-havodagi bu o‘zgarishlar yomg‘ir ostida qolgan odam, ijtimoiy muhit ziddiyatlari girdobiga tushgan ijodkor aqidasiga ta‘sir qilmasligini istaydi. Shuning uchun ham Fitrat o‘z dunyosiga mos muhitni «Mening kecham» she‘rida bayon etadi. Shogird maqomidagi “mehmon yigit” -Botu esa unga g‘oyaviy javob sifatida birzumda “Mening kunduzum” she‘rini yozib keladi. Ustoz va shogird kecha va kunduz moziy va samo-ikki odam, ikki she‘r, ikki olam. Aslida yaxshi she‘r uchun hayotiy tajriba-nozik did, hayotiy farosat, hayotiy nigoh” kerak. Yaqin tarixda bir millatga mansub ikki ijodkorning bunday bahs-munozaralari, bitta ijodkor botinida kechgan tuyg‘ular “Umid guli”da o‘z ifodasini topgan. Xurshid Do‘stmuhammad fitratan jadid munavvarining muhitiga yaqin ijodkor. Chin o‘zbek ziyolisining birortasi bu muhitga begona bo‘lishi mumkin emas. Ularning dilini, ma’rifatini anglab, ezgu orzu-niyatlarini

millatparvarligini his etib turish va ularning faoliyatlariga o‘z insoniy amallarini payvandlash bu har bir ziyolining ma‘naviy baxt-u iqbol taxtiga olib chiqadi.

Yuqoridagi tarixiy hikoyalarni o‘qish jarayonida o‘zbek jadidlari, boringki, ularning Toshkent muhitini, zamon taloto‘p va ziddiyatlarini tasvirlab, jonlantirib beradigan ulkan bir romanni yozish Xurshid Do‘stmuhammadning qo‘lidan keladi, bunga asos ham, tajriba ham bor, deb o‘yladim. Jurnalistika tarixidan ma’ruzalar o‘qiydigan, tarixiy davr matbuotini, yaqin moziy ob-havosini tiniq tasavvur qiladigan ijodkor sifatida hikoyalari izidan “Yolg‘iz” degan go‘zal bir qissani yozdi. Navbat-tarixiy romanga. Faqat tarixiy romanlar ichida harakat etadigan tarixiy obrazlarni o‘z e’tiqodiga mos tasvirlash lozim. Ularning deyarli hammasi kunlik ibodatlarini kanda qilmasin, vaqti kelganida ro‘zasini tutsin, boy bo‘lsa, zakotini bersin, imkon topsa, hajga borgan bo‘lsin. Balki bu davr ziyolilari, boylari, ulamolari orasida taqvosi bois chilla yoki e’tikofda o‘tirganlari ham bordir.

Men o‘zbek xalqining uzoq va yaqin tarixi, jumladan, jadidlar hayotidan olib yoziladigan asarlardagi har bir obrazni chin musulmon qiyofasida tasvirlanishi kerak, deb o‘ylayman. Shunda badiiy tasvir yog‘dusi tarixning har bitta nuqtasini yoritadi, shunda hayotiy-adabiy-nazariy tamoyil tarixiy asarlarda bor haqiqati bilan asosiy o‘ringa chiqadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**


1.Boboyev, T. (2002). Adabiyotshunoslik asoslari. (64-bet). Toshkent.

2.Dovurboyeva, N. (1991) “Jajman”ning jilvalari.(55-bet). Toshkent.

3.Do‘stmuhammad, X. (2006) “Beozor qushning qarg‘ishi”. (49-bet). Toshkent.

4.Do‘stmuhammad, X. (1996) “Qazo bo‘lgan namoz”. (45-bet). Toshkent.

5.Do‘stmuhammad, X. (1995) “Jajman”. (78-bet). Toshkent.

6.Do‘stmuhammad, X. (2010) “Beozor qushning qarg‘ishi”. (88-bet). Toshkent.

7.Nazarov B., Rasulov A, Ahmedova Sh, Qahramonov Q. (2012) “Tafakkur qanoti”. (95-bet). Toshkent.

8.Qahramonov Q (2009) Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari. (99-bet). Toshkent.

9.Quronov D (2004). Adabiyotshunoslikka kirish. (64-bet). Toshkent.

10.Yo‘ldoshev Q (2006).Yoniq so‘z. (137-138-betlar). Toshkent.

# O‘TKIR HOSHIMOV IJODIDA PEYZAJ VA PORTRET

***Fayzullayeva Sevinchxon Toxir qizi***
*ToshDO‘TAU OTAT fakulteti, 2-kurs*
*sevinchxonfayzullayeva0@gmail.com*
*+998947089411*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada badiiy asarda peyzaj va portret tushunchasi, O‘tkir Hoshimov ijodidagi peyzaj va portret tasviri tahlil ostiga olingan. Shuningdek, maqolada manbalarni batafsil tahlil qilish orqali peyzaj va portret tasvirining O‘tkir Hoshimov ijodidagi o‘rni yuzasidan fikr-mulohazalar qayd etilgan. Bundan tashqari O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar”, “Dunyoning ishlari” va “Ikki eshik orasi” asarlaridagi peyzaj va portret yaratishdagi o‘ziga xos mahorati ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *O‘tkir Hoshimov, peyzaj, portret, Qonqus, Qatortol, Qurbonoy xola, qora amma.*

***Abstract****. In this article, the concept of landscape and portrait in an artistic work, the image of landscape and portrait in the works of O‘tkir Hoshimov are analyzed. Also, through a detailed analysis of the sources, the article contains comments on the role of landscape and portrait images in O‘tkir Hoshimov's work. In addition, O‘tkir Hashimov's unique skills in creating landscapes and portraits in the works "Lifes passed in a dream", "Works of the world" and "Between two doors" were revealed.*

***Key words:*** *O‘tkir Hashimov, landscape and portrait, Qanqus, Qatortol, Kurbanoi Khola, Kara Amma.*

O‘zining go‘zal, takrorlanmas janrlarga boy asarlari bilan shuhrat qozongan – O‘tkir Hoshimov adabiyotimizda o‘chmas iz va yirik adabiy meros qoldirgan ijodkordir. O‘tkir Hoshimov ijodidagi peyzaj va portret tasviriga to‘xtalib o‘tishdan oldin ushbu peyzaj va portret tushunchalarning mazmun mohiyatini yoritib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Peyzaj – tabiat tasviri bo‘lib, badiiy asarning g‘oyaviy-estetik quvvatini oshirishga xizmat qiladi. Peyzaj yozuvchining o‘z asarida tanlagan ifoda usuli va ijodiy uslubi bilan bog‘liq holda turlicha vazifalarni bajarishi mumkin. Tabiat manzarasi tasviri orqali yozuvchi o‘zining yurtiga, Vataniga, ona tabiatga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy-estetik quvvatini oshirish, syujet rivojini tezlatish yoki sekinlatish, qahramonning ichki dunyosini ochish kabi vazifalarni bajaradi. Bu bilan peyzaj badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarni yanada to‘la-qonli ifodalashga yordam beradi. Masalan, Cho‘lponning “Kuz” she’rida fasl ko‘rinishini chizish orqali rus bosqinchiligining mudhish oqibatlarini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi (Maqola: Cho‘lpon asarlarida peyzajning badiiy ifodasi). Shuningdek, Oybekning

“Na’matak”, H.Olimjonning “O‘zbekiston”, “O‘rik gullaganda”, A.Oripovning “Sen bahorni sog‘inmadingmi?” she’rlari peyzaj lirikasining eng yaxshi namunalari hisoblanadi (Ma’lumot: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi — 12 jildli universal milliy ensiklopediya ). Badiiy asarda peyzajdan ikki xil usulda foydalaniladi: qahramonning ruhiy holatini tabiat tasviri bilan parallel ravishda tasvirlash va qarama-qarshi usulda tasvirlashdir.

Endi esa O‘tkir Hoshimov ijodida “peyzaj” usuliga to‘xtalib o‘tsak. O‘tkir Hoshimov Toshkent shahri Do‘mbirobod mahallasida dunyoga kelgan. Shu sababli ham o‘z asarlaridagi joy nomlari va asosiy manzillar hozirgi Toshkent joy nomlari bilan deyarli bir xil. Misol uchun “Tushda kechgan umrlar”, “Dunyoning ishlari” va “Ikki eshik orasi” asarlarining asosiy qahramonlarining hayoti ham Do‘mbirobod va Qatortol mavzelari orqali yoritiladi.

Abdug‘ofur Rasulov o‘zining O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodiga bag‘ishlangan “Ardoqli adib” nomli asarida quyidagicha yozadi: “O‘tkir Hoshimov asarlarida tasvirlangan “qalbi qishloqlik, aqli shaharlik” qahramonlarning aksariyati Toshkent mavzelarida, jumladan, Do‘mbirobod, No‘g‘ayqo‘rg‘on, Qa’ni-yu Ko‘tarmada yashaydilar. Ular o‘zbekning tarkibiy qismi: mehnatkash, sodda, hazil-huzilga moyil, o‘rni kelsa shartaki” (Abdug‘ofur Rasulov “Ardoqli adib” O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar). Abdug‘ofur Rasulov ham adibning qahramonlari-yu joy nomlarini haqiqatda o‘zi yashagan muhitda va o‘zi birga yashagan insonlarni yoritgani haqida yuqoridagi asarida yetarlicha ma’lumot berib o‘tgan. “Ardoqli adib” asarida yana bir ko‘zga tashlanadigan parcha mavjud. Unda ta’kidlanishicha, O‘tkir Hoshimov “Toshkentim onam” maqolasida onasining mana bu gaplarini keltiradi: “… odam avval o‘z uyini yaxshi ko‘rishi kerak. Bo‘lmasam boshqa joylarni ham yaxshi ko‘rolmaydigan bo‘lib qoladi. Sirojlarning hovuzi bor. Lekin sen o‘zimizning Qonqusni yaxshi ko‘r, shu anhordan o‘zimiz suv ichamiz bolam. Agar sen o‘zimizning Do‘mbiravotni yomon ko‘rsang, shahringni ham butun yurtingni ham yaxshi ko‘rmaydigan bo‘lib qolasan, tushundingmi?” (“Xazina” to‘plami 45-bet).

Xuddi shunga o‘xshash jumlalarni “Dunyoning ishlari” asarida ham topishimiz mumkin. Asarda bu jumla bola tilidan talqin qilinadi. Adib asarlaridagi joy nomlari “o‘ziniki” bo‘lganligi singari, adibning qahramonlari ham “o‘ziniki” ya’ni o‘sha joylardagi soddadil va samimiy insonlarni o‘z asarlarida yoritgan.

Yozuvchi qachon yozuvchi bo‘ladi? Qachonki yozgan asarlarida o‘zi yashaganida, bildirgan fikrlari-yu chizgan portret va peyzajlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rganda, his qilgandagina yozuvchi bo‘la oladi. Lekin adib “Tushda kechgan umrlar” va “Ikki eshik orasi” asarida urush paytlari va jang sahnalarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan bo‘lsa-da, qalban his qilgan holda kuchli mahorat bilan yoritgan.

Asar qahramonlariga keladigan bo‘lsak, adibning har bir qahramoning asarda o‘z o‘rni bor. Misol uchun “Dunyoning ishlari” asaridagi “ONA”, “Ikki eshik orasi”dagi qora amma, “Tushda kechgan umrlar” asaridagi Qurbonoy xola va Fotima obrazlari orqali o‘zbek onalari va o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan hislatlari yortilib o‘tilgan. O‘zini o‘ylamaydigan, farzandi uchun har narsaga tayyor o‘zbek onasi obrazi katta mahorat bilan yoritilgan. To‘g‘ri asarlarda bu qahramonlar ishtirok etadigan sahnalar biroz kamroq, lekin shu personajlar asar mohiyatini ochib berishda va asarni to‘liqroq idrok qilishga yordam beruvchi vosita hisoblanadi.

“Dunyoning ishlari” asari esa adib tilidan aytilganidek, bu asar barcha onalar to‘g‘risidagi asar hisoblanadi. Ba’zi manbaalarda bu asarni hattoki O‘tkir Hoshimovning avtobiografik asari nomi ostida ham tilga olinadi. Xalqimizda bir gap bor: bolaning begonasi bo‘lmaydi! Xuddi shu asarni o‘qish davomida bir narsaga amin bo‘lamiz, ya’ni onalarning ham begonasi bo‘lmaydi. Onalar o‘z farzandlari uchun har narsaga tayyor, hatto jonini berishga ham. Shu o‘rinda o‘z farzandi g‘ami bilan bir qatorda qo‘shnisi, dugonasi, singlisi, xamkasblari farzandlariga ham befarq emas shaxslar bular – Onalar hisoblanadi. Bu asarda adib alla haqida yana bir oltinga teng fikrni ilgari suradi. “Ehtimol, dunyoning bu chetida turib odam o‘z seviklisiga aytgan dil rozni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam aytgan qo‘shiqni dunyoning narigi chekkasidagi biro dam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chekkasida turib bir odam aytgan eng oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Biroq dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go‘dak bemalol orom oladi. Nega shunaqa? Chunki yuqorida aytilganidek, bolaning va onaning begonasi bo‘lmaydi.

Adib qalamiga mansub keyingi asar “Tushda kechgan umrlar” asari bu asar qahramonlari va ularni asarda tutadigan o‘rniga to‘xtaladigan bo‘lsak. Asardagi Qurbonoy xola yuqorida aytib o‘tilganidek, bu qahramonni asarning bir-ikki joyida uchratishimiz mumkin. Lekin Qurbonoy xola obrazi nafaqat asar mohiyati shu bilan birga “prinsp” uchun onasidan kechgan Komissar obrazini yoritib berishda ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Asarda konfliktlardan tashqari Rustam va Shahnozaning o‘tli muhabbatiga ham guvoh bo‘lamiz, lekin mana shu o‘tli muhabbatga ham arzimagan kamchilik va xato orqasidan yakun yasaladi. Rustamning o‘limida ko‘pchilik Shahnozani ayblashi mumkin, lekin Shahnozani o‘rnida bo‘lish ham ancha mushkul ish. Adibning bu asarini mushkulliklar ustiga qurilgan asar deb qarasak bo‘ladi. Misol uchun Rustamning onasi o‘g‘lini Afg‘on urushidan qaytishini kutib, Qurbonoy xola ham farzandining, nabiralarining yolg‘izligidan, qalbida kiri yo‘q Rustam urushda odamlarni umriga zomin bo‘layotgnidan, Shahnoza sevgan insoni

bilan baxtsizlikda va oxir oqibat undan ayrilgan holda mushkul tarzda ifodalangan. Asarda mushkul ahvolda qolmagan yagona shaxs bu – Komissar. U o‘z dinidan, o‘z onasidan, farzandlaridan kechgan shaxs mushkullikdan ham albatta yo‘lini topib qutuladi.

Endi esa badiiy asarlarda uchraydigan portret usuliga qisqacha to‘xtalib o‘tsak. “Portret” 1) personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o‘quvchi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. Portret epik asarning kompozitsion unsuri bo‘lmish tavsifning bir ko‘rinishidir” (Badiiy adabiyotda portret: wiki.org). Adabiyotda portret orqali yozuvchi asarlardagi obrazlarni kitobxon tasavvurida shakllantiradi. Masalan, “Alpomish” dostonida devlar portreti mubolag‘a bilan berilgan:

*To‘qson qarich edi uning hassasi,*
*Sarhovuzdan katta edi kosasi.*

Qadimgi g‘arb va sharq adabiyotlarida ham portret ko‘pincha mavhum, an’anaviy harakterda bo‘lgan. Masalan, g‘azallarda yorning tashqi qiyofasi oy, quyosh, yulduz, tun va kun kabi narsalarga nisbatda ko‘rsatilgan. Realist yozuvchilar tashqi qiyofani batafsil tavsiflaydilar, unda davr va hayot tarzi bilan bog‘liq holda ro‘y bergan o‘zgarishlarni aynan aks ettiradilar (masalan, Abdulla Qodiriy, Oybek). XIX asr da portretning ichki yoki psixologik (ruhiy) portret deb atalgan turi tarqalib, unda personajning harakteri – belgilari va ruhiy kechinmalari majmuyi ochib beriladi (Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov). O‘tkir Hoshimov ham o‘z asarlarida asar qahramonlarini tasvirlashda portret usulidan keng va o‘rinli foydalanganligini uning asarlarini o‘qish jarayonida anglab olish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, O‘tkir Hoshimov asarlari va ulardagi insonning qalbiga chuqur kirib borgan asar qahramonlari hali asrlab yashaydi va qo‘lma qo‘l bo‘lib o‘qilgan asarlar muallifi qaysi deyishsa, sira ikkilanmasdan O‘tkir Hoshimovni aytsak bo‘ladi. Sababi yozuvchi asarlaridagi har bir shaxs obrazini jonli tarzda yarata olgan. Yuqoridagi asarlarni o‘qigan inson asardan ham asar qahramonlaridan ham ta’sirlana oladi. Chunki bu asarlar hayot haqiqati va qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zbek xalqi va o‘zbek onasi qanday bo‘lishini yaqqol ko‘rsatib bergan, o‘zbek millati qanday ekanligini his qildira oladigan asarlar sirasiga kiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘tkir Hoshimov.(2005),, Dunyoning ishlari’’. Toshkent:,, Sharq’’ Nashiryot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Bosh tahririyati, (204,205-bet)

2. O‘tkir Hoshimov .(2012),, Ikki eshik orasi’’. Toshkent:,, Sharq’’ Nashiryot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Bosh tahririyati.
3. O‘tkir Hoshimov (2019)«Tushda kechgan umrlar» Toshkent:,, Ilm-ziyo-zakovat’’
4. Abdug‘afur Rasulov .(2002) ,, Ardoqli adib’’ . O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar.(34-bet)
5. Maqola: file:///C:/Users/KSM/Downloads/86-88.pdf
6. Ma’lumot: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi - 12 jildli universal milliy ensiklopediya https://uz.wikipedia.org/wiki/Peyzaj
7.https://uz.wikipedia.org/wiki/Portret#:~:text=Badiiy%20adabiyot%C2%A0%E2%80%94%20personaj,alohida%20janr%20hisoblanadi.

## ZAMONAVIY ADABIYOT HIKOYACHILIGIDA MILLIY RUH IFODASI

***G‘ofurova Dildora Ravshan qizi***

*ToshDO‘TAU Adabiyot nazariyasi 1-kurs magistri*

*dildoragd@gmail.com*

*+998935405758*

***Annotatsiya***

*Maqolada zamonaviy adabiyot hikoyachiligida yozilgan hikoyalarni tahlil qilish nazarda tutilgan. Xususan zamonaviy adabiyot yosh nosirlaridan bo‘lgan Javlon Jovliyev, Nurilla Chori, Jasur Kengboyevlarning hikoyalari tahlilga asos qilib olindi. Ularda millliy va umumiysoniy qadriyatlar, millat kishisiga xos xarakter va belgilar va milliy ruh va millat ifodasi tasvirlanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Hikoyachilik, qadriyat, milliy urf-odat, milliy ruh, udumlar, inson, tabiat, ruhiyat, ifoda tasvir.*

***Abstract***

*The article provides an analysis of the stories written in the narrative of modern literature. In particular, the stories of Javlon Jovliyev, Nurilla Chori, and Jasur Kengboyev, who are among the young authors of modern literature, were used as the basis for the analysis. They describe national and universal values, character and characteristics of a national person, and national spirit and expression of the nation.*

***Key words:*** *Storytelling, value, national tradition, national spirit, traditions, human, nature, spirit, expression image.*

Hikoyalar o‘zbek adabiyotida keng rivojlangan, tez ommalashadigan janr sifatida mavjud bo‘lib kelmoqda. Hikoyachilikning zamonaviy o‘zbek adabiyotida paydo bo‘lishi va rivojlanishiga nazar tashlasak, uning ko‘plab bebaho namunalariga guvoh bo‘lamiz. Ular safidan inson va tabiat, ijtimoiy-madaniy, real yoki fantastik g‘oyalardan tortib inson ruhiyati manzaralari aks ettirligan murakkab hikoyalar ham o‘rin olgan. Hikoyachilik an’anasi mustaqillik davridan boshlab o‘zining mislsiz imkoniyatlarini ishga solib taraqqiy topdi, desak, yanglishmaymiz. Istiqlol davri hikoyachiligiga Said Ahmad, O‘tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayev, Erkin A’zam, Nazar Eshonqul, Abduqayum Yo‘ldosh, Xurshid Do‘stmuhammad singari yirik yozuvchilar o‘zlarining beqiyos hissasini qo‘shishdi. “Mustaqillik yillari o‘zbek nasrida hikoya janri alohida o‘rin tutadi. Iste’dodli yozuvchilar yozgan hikoyalar shakl va mazmundagi, poetik qurilishidagi originalligi bilan g‘oyaviy-emosional qiymati kasb yetadi. Aslida bu kichik janrning poetik imkoniyatlari nihoyatda katta. Hikoya – inson tafakkuriga bir zumda bir zarb bilan muhrlanadigan, badiiyatan benihoya go‘zal va juda bejirim shakily qurilishga ega adabiy hodisadir” (Karimov, 2021, 70-bet).

Mustaqillik davri badiiy ijod uchun keng imkoniyatlar yaratar ekan, unda hikoyachilik ham o‘zining yangi qirralarini namoyon etib, mavzu ko‘lami, tasvir ob’yekti, umuman, shakl va mazmun yangilanishiga erishdi. Mustaqillikning 2010-yillar oraliq davrini kuzatar ekanmiz, unda zabardast adiblarimiz bilan bir qatorda yosh nosirlarning ham samarali qalam tebratayotgani ayon bo‘ladi. Bevosita 2010-yillar deb qaraganimiz davr oralig‘ida Javlon Jovliyev, Nurilla Choriyev, Xoliyor Safarov, Sanjar Tursunov, Bibi Robia Saidova, Jasur Kengboyev kabi yosh ijodkorlarning hikoyalari paydo bo‘ldiki, ularda mutlaq yangi zamon, yangi davr ruhi aks etdi.

Javlon Jovliyevning aksariyat hikoyalarida aks etib turuvchi mavzu xususiyatlaridan biri bu - milliy ruh. Yozuvchining qahramnonlaridan tortib, muhit, joy, vaqt, zamon, mahalla-ko‘y, insonlar barcha - barchasida milliy ruh ifodasini ko‘rishimiz mumkin. Uning

Adibning “Stalinga maktublar” hikoyasida qahramon tilidan voqealar so‘zlab berilgan. Bunda qishloqdagi oddiy oilaning sovet davridagi va mustaqillikdan so‘nggi hayot tasvirlanadi. Asarning tub mohiyati o‘zbek millatining mustaqilligi, ozod xalq ekanligi, sodda xalqning sovet davriga qaram bo‘lib qolganligi haqidadir. Hikoyada biz qahramonlar orasidagi vatan millat muhabbati tafovutini ko‘rishimiz mumkin. Ilk tafovut bosh qahramonning katta bobosi va kichik bobosida bo‘lsa, keyingisi o‘zbek bilan qrimning tafovutidadir.

*...Kichkina bobom bir necha yil kolxozda raislik qilgan, kattasi esa “kolxozchi” so‘zini butun umr or bilgan, qizillarni ko‘rsa, orqa o‘girib ketgan, qoqirib tupurgan...,Xullas, Stalinga yozilgan xat shunday boshlanardi: “Bizning yerlarga ruslar*

*kirib kelgach, ulkan madaniyatga erishdik, yangi davr quloch yozdi, o‘zlikni angladik, misli ko‘rilmagan zafarlarga erishdik…*

*…Qrim men uchun Stalin, Stalin men uchun Qrim. U bizni Qrimdan ayirdi. Men na qrimlik va bu yerlikman. Men Stalin vatanidan quvganlar avlodiman…, …Odamlar bilishi kerak, inson bolasini o‘z vatanidan ayirish qanday daxshat ekanini, bunday zolimni qanday qarg‘ashlarini, tuprog‘imizni esa qanchalik sevishimizni… Biz Stalinni hech qachon unutmaymiz, hatto o‘lganida ham tinch qo‘ymayiz!...*

Ushbu parchlar orqali kitobxon vatan muhabbatining qahramonlar orqali berilgan tafovutni ko‘rishi mumkin. Masalan hikoya qahramonlaridan biri Zoya xola qrimlik, ammo umrining so‘nggigacha O‘zbekistonda yashaydi. Stalinni shunchalik yomon ko‘radiki, unga har hafta qahr-g‘azab bilan har shanba xat yozadi. Undagi Stalinga bo‘lgan nafrat yaqqol seziladi. To o‘lguniga qadar Qrimni, vatanini qo‘msab yashaydi.

Hikoyada uchratadigan yana bir qahramon bu - metrodagi o‘ris kishi. Uning Stalinga bo‘lgan “muhabbati” juda yuksak tarzda ifodalab berilgan. *“Biz Stalinni sevamiz”* deydi qahramon gaplarining orasida.

Yozuvchi o‘zbek millatini qanchalar sodda xalq va ishonuvchanligini, sovet davrida millat Stalinni qanchalik sevishini, mustaqillikdan keyin ham bu muhabbatning davom etganini xalq Stallinni emas, birlashib o‘z vatanini sevish kerakligini mahoratli tarzda ifodalab bergan.

*…Stalinni maqtay ketdi. Men esa uning gapini bo‘lib: “Uni nega yaxshi ko‘rishim kerak?” dedim. – Yomon ko‘raver, nima qilibdi, - dedi u pinagini ham buzmay. – Oy ham hammaga yoqavermaydi, yorug‘ tunlar ayrimlarning uyqusini buzarmish…*

Hikoyada qahramonlar orasida qarama-qarshilik ham uchraydi. Ushbu qarama-qarshilikni ushbu orqali mazmunan chiqarish mumkin. O‘zbek millati qanchalar Stalinni doxiy deyishi, uni Xudo deb qabul qilganliklarini asarni o‘qish davomida har bir voqea orqali bilinadi. Buning yana bir isboti adib hikoyaning so‘nggida “Bizga Xudoni qo‘yib o‘zingizga sig‘inishni o‘rgatib ketgan dohiysiz, dohiy!” deya shu jumlalar bilan yakunlaydi.

Yozuvchining sovet hukumati ruhidagi yana bir hikoyasi bu “Ozodlik” hikoyasidir. Ushbu hikoya nomi ham bekorga “ozodlik” deb tanlanganmagan, nazarimda. Jovliyev bu orqali millatimizning ozod bo‘lishi, sovetlar qo‘lidan ozodlikka chiqishi, ona diyorimizdan qaro tun ketib, quyosh chiqishini nazarda tutgan. Asar voqealari sovet davrida sodir bo‘ladi va qahramon tuhmat bilan hibsga olinadi. Asarda mahbus, mahbusning ayoli va uning tog‘asi, qorovul va tergovchi obrazlari ishtirok etgan. Mahbus

haqidagi butun ma’lumotlarni uning ayoli tilidan yozilgan maktub orqali bilib olish mumkin.

Asarda o‘zbek millatiga xos bo‘lgan vafodor, soddadil ayol obrazi go‘zal tarzda aks ettirilgan. U turmush o‘rtog‘ini qamoqdan chiqarish uchun harakat qiladi, erining hech qanday aybi yo ‘qligini, eri hech qanday pora olmaganligini, ishi toza va aybsiz ekanligini iltimos qilib takror va takror maktublarida yozadi. *“Farzandlarim haqqi qasam ichaman, erimning ishi toza! Yuqorining qonunlari adolatli deb aytishadi-ku! Uning gunohi yo‘q. Uni ozod qiling! O‘tinib so‘rayman sizdan!”* ushbu hikoyada ayol obrazi shu darajada sodda qilib tasvirlanganki, biz buni yozilgan maktub, aytilgan gaplardan yaqqol bilib olishimiz mumkin. Hikoyaning tub mohiyatida milliy “ozodlik” uchun kurash borligini va milliy ruh aks etganligiga guvoh bo‘lamiz. Yozuvchi ushbu milliy ozodlikni oddiy qishloq hayotidagi oddiy sodda insonlar, injener va uning ayoli orqali go‘zal tasvirlab bergan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hikoya so‘nggida yozuvchi “ozodlik”ni chiroyli dalillab *“Qator panjaralar bilan to‘silgan deraza ortida qorong‘ulik tarqalib, quyosh bosh ko‘tarib kelardi. Tong otmoqda…”*

*“ Men shoshilishim kerak, qara, tong otyapti, quyosh chiqyapti… Bizga atalgan kun ham border axir…”* deya muallif ko‘zlagan maqsadiga erishgan.

Nurilla Chori hikoyalarida manaman deb yuzaga chiqib turuvchi xususiyatlardan biri bu – milliy ruh ifodasi. Adibning qahramonlaridan tortib, tasvirga olingan joy, odamlar, mahalla-ko‘y, yoshlar-u keksalar, hatto, tabiat manazaralari ham millat kishisiga tegishli ekanini aytib turadi. Nurilla Choriev o‘z hikoyalarida nafaqat istiqlol davri insonining turmush tarzi, kechinmasi, o‘y-fikrlarini, balki, istiqlolgacha bo‘lgan o‘tmishdagi insonning ham qiyofasini aks ettirgan hikoyalar yaratdi. Uning hikoyalarida inson ichki olami, qahramon psixologizmi, milliy ruh tasviri akslanib turadi. Yozuvchi hikoyalari asosan ma’lum makon – Qizg‘aldoqzorda kechayotgan bo‘lsa-da, biroq qahramonlar ruhiyati, ularning o‘y-xayollari kengliklar, olis mamlakatlar, baland orzular uzra kezib yuradi.

Yozuvchining “Qizg‘aldoq” hikoyasi inson ruhiyatining naqadar murakkab, sirli, jumboqli ekanini ko‘rsatadi. Hikoyada Turdixol enaning yoshligida beva qolib, ikki farzandini yolg‘iz o‘zi voyaga yetkazgani, keyinchalik esa, qizi To‘lg‘onoyning dardida kuyib yashagani qalamga olingan. Hikoya o‘zida millatga xos belgilar, milliy ruhni aks ettirishi bilan ajralib turadi. Adibning ushbu hikoyasida qiz bola nafaqat o‘zi, balki butun oilasining sha’ni, or-nomusi ekani qalamga olingan. hikoyasida Turdixol kampir yolg‘iz o‘zi katta qilgan qizi To‘lg‘onoyni Eshpo‘lat dallolga kelin qilib berarkan, oqibatda o‘zini qanday fojea kutib turganini hali bilmaydi. Hikoyada Turdixol kampirning fojeasi, iztirobi, bitmas-tuganmas g‘am-qayg‘usi nihoyatda ishonarli tasvirlangan. Bu holat qizining sha’ni va o‘limi bilan bo‘lgan voqealar orqali ifodalab beriladi. To‘lg‘onoy

*“oyning to‘lin bo‘lishini, qizg‘aldoqning qiyg‘os ochilishini kutdi. Kunduzi onasiga ham ko‘rinmaydigan, tunda esa changqovuz chertib tentiraydigan odat chiqazib, “Qizg‘aldoqman!”, deb da’voyam qila boshladi. Kampir qizini jin chalgan bilib, fol ko‘rdirib, kulrang tovuq qoni enmaganiga yo‘yib, ko‘k uloqning ham boshini oldirib yurgan kunlarning oydin tunida To‘lg‘onoy qizg‘aldoqlar orasida changqovuz chala-chala g‘oyib bo‘lib qoldi. U oyga yo‘l oldimi, qaro yerga qorishdimi, unisini Qizg‘aldoq odamlari bilmaydi”* Ushbu satrlar orqali yakunlangan hikoyada biz o‘zbek millatiga xos bo‘lgan milliyligimizni, qiz bolaning or-nomui-yu, oila sha’ni qanchalar muhim ekanligini bilib olamiz. Jasur Kengboyev o‘z hikoyalarida milliy ruh, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni e’tibordan qoldirmay asarlarida ularni bayon qilgan yozuvchi. Adibning ilk to‘plamidagi “Yurakning bir cheti” hikoyasini ikkinchi to‘plamining sarlavhasi qilib, uning ichiga, asosan, satira va hajvga yo‘naltirilgan hikoyalarni o‘qishimiz mumkin. Muallif o‘z hikoyalari orqali kitobiylashgan badiiy tilni yangilab, uning jonli xalq tilini, sheva ohanglarini olib kirdi. Sheva doirasida qolib ketayotgan so‘z iboralarning adabiy tildan o‘rin olishga to‘laqonli huquqli ekanligini isbotlab bergan. Yozuvchi o‘z asarlarida folklor uslubidan keng foydalangan. Adibning til uslubi satira va yumorga yog‘rilgan kinoyali va har bir qahramon o‘z tiliga ega. Jasur Kengboyev asarlarining tilida milliy ruh aynan hikoylarida berilgan so‘z-ibora, sheva va maqollarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Yozuvchi hech qaysi hikoyasida bularni qo‘llamay yozgan emas.

Adibning “Ovchining so‘nggi ovi” hikoyasida qahramonning hayoti davomidagi kechinmalari tasvirlangan. Shu bilan birgalikda qahramon va milliy an’anlarning uyg‘unligi asarning tub mohiyatini ochib beradi. Hikoyada bosh qahramon Muqim tog‘a – qishloqning mard va jasur erkaklaridan. U ellik yil mobaynida ovchilik bilan shug‘illanib kelgan, lekin so‘nggi ovidan so‘ng sodir bo‘lgan voqeadan keyin umuman ovchilik qilmagan ya’ni ovchilikdan voz kechgan. Qahramonning umri davomidagi qilgan ovlari to so‘nggi oviga qadar “yaxshi” ov bo‘lmagan. U o‘z qishlog‘ida obro‘-e’tiborga ega inson. Uning yanada dovrug‘ qozonishni, izzat-hurmatga ega bo‘lishni, eng zo‘r ovchi unvoniga erishishni istashi – tabiiy hol. Hikoya ma’lum bir joy – Qashqadaryoning Kitob tog‘laridagi Palangdaradagi voqealar bilan tasvirlangan. Hikoya qahramoni – Muqim tog‘ani ko‘rish va suhbatini olish hikoyadagi so‘zlovchi qahramonni quvontiradi. Muqim tog‘a – yoshi yetmishlar atrofida bo‘lgan, ammo yetmish yoshga o‘xshamaydigan, juda kuchli inson obrazida tasvirlangan. Hikoyaning so‘zlovchi qahramoni u bilan salom-alik qilib so‘rashganda *“Qattiq siqib ko‘rishar ekan, qo‘limiz xuddi sher panjasi bilan pashsha tutganday, u kishining kaftiga singib ketdi.”*– deya uni shunday ta’riflaydi. Hikoyada “Jinnidaryo” degan daryo nomi keltiriladi. Asar qahramonlari bu daryoning nomi nega bunday ekanligiga qiziqib Muqim tog‘adan so‘rashadi. – *“Otidan ma’lum-ku, – deya kuldi ovchi. – Siz bu yerlarga bahorda bir*

*keling, bilib olasiz. G‘irt tentakday quturadi bu.”* Hamda bu yerliklar aholisining mardligi Jinnidaryo bilan bog‘liqligi aytiladi. *“Axir, Jinnidaryodan suv ichgan el mard bo‘lmay, kim mard bo‘lsin.”* Muqim tog‘a obrazi – murakkab obraz. Uning yashash tarzi, hatti-harakati va so‘nggi ovi va shu bilan bog‘liq voqea uning murakkab obraz ekanligini yoritib bergan. Muqim tog‘a o‘zining so‘nggi ovi haqida so‘zlab berar ekan, biz bu voqea orqali retrospektiv hodisaga duch kelamiz. Bu ovda qahramon qattiq-sovuq qish bo‘lsa ham ov ovlagani yo‘lga chiqadi. Qahramonning niyati katta bo‘rini ovlash edi. Qancha ko‘p bo‘ri ovlasa, shuncha ko‘p obro‘si oshadi. Muqim tog‘aning asl niyati ham shu edi. *“Bo‘rining zo‘rini kim otgan, deyilsa, Muqim ovchi nomi tilga olinishi kerak! Odamlar, nainki oddiy odamlar, hatto, uncha-muncha ovchi ham u bilan o‘ylab salom-alik qilsin.”*. Muqim tog‘a niyatiga yetdi, ovi baroridan keldi, uchta katta yoldor bo‘rini ovladi. Ammo ovda bir bo‘ri uni jimgin kuzatardi, ovchi yursa u ham orqasidan yurardi. Ovchilikni tashlashiga ham ayni shu voqea sabab bo‘lgan. *“– O‘sha ovdan keyin ancha vaqt yotib qoldim. Kulrang bo‘rining qahrga to‘lib qarab turgan ko‘zi tushlarimga kirib chiqaverdi. Ayniqsa, anavi nimjon qari bo‘rining har oqshom xayolimda ta’qib qilishlari yuragimni zada qilib yubordi. Oxiri bu ishni qo‘ydim. O‘ylab-o‘ylab, bir oq qo‘chqor so‘yib, qon chiqardim. Shu bilan qo‘limga miltiq olmadim.”*. Bu hikoyada qahramonning hatti-harakati, fe’l-atvori an’analar bilan uyg‘unlikda tasvirlangan. Hikoyada voqelar rivoji bir tekisda ketmagan bo‘lsa-da o‘quvchiga o‘zgacha ruh beradi. Ayniqsa, hikoya yakuni juda ham ta’sirli yozilgan.

Ushbu yozuvchilarning yozgan hikoyalari bizga milliyligimizni eslatib turadi. Aslini olganda o‘zbek yozuvchilarining har bir yozgan asarlarida milliy qadriyat va an’analarimiz, milliy ruh o‘z ifodasini topgan. Har bir yozuvchida o‘ziga xos xususiyat mavjud.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, millatga xos urf va odatlar, millat kishilarining qiyofasi, xarakteri, turmush-tarzi – bularning hammasi adib asarlarida yorqin tasvirlangan. Ayniqsa, qishloq odami, sodda millat bobosi va momosining portreti yorqin bo‘yoqlarda chiziladi. Millat vakili sifatida yozuvchi o‘z millatining o‘ziga xosligini, originalligini ko‘rsatgan original asarlar yarata olgan deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov B. Istiqlol adabiyoti: Nazm va nasr. “Firdavs-shoh nashriyoti”. Toshkent – 2021. 70-bet.

2. Jovliyev J. Onam va koinot. – T.: Anorbooks, 2022

3. Чориев Н. Ташвиши йўқ одамлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019.

4. Kengboyev J. Yurakning bir cheti. – G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.

5. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/nurilla-chori-1983

# AZIZBEK NOROVNING “AZAL VA ABAD YO‘LI” QISSASIDAGI OBRAZLAR TALQINI

***G‘oyibbekov Diyorbek Yusufbek o‘g‘li***

*ToshDO‘TAU, ona tili va adabiyot ta‘limi*

*fakulteti 3-bosqich talabasi*

*diyorbek.goyibbekov@mail.ru*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada iste‘dodli yozuvchi Azizbek Norovning “Azal va abad yo‘li” qissasi syujeti, mavzu va g‘oyasi tahlili, qahramonlari o‘rtasidagi badiiy konfliktlar haqida mulohazalar bildiriladi. Asarning markaziy g‘oyasi – yaxshi amallar bilan yashash, hamda uning asarda qanday yoritilgani haqida juz’iy xulosalar beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Azizbek Norov, “Azal va abad” qissasi, obraz, g‘oya, sujet, qahramon va mavzu.*

***Abstract****: This article analyzes the plot, theme and idea of the story "Azal va abad yoli" by the young writer Azizbek Norov, comments about the artistic conflicts of its characters. They work on the central idea of the work - living by good deeds, and how it is illuminated in the work.*

***Keywords:*** *Image, idea, subject, charakter and theme*

“Adabiyot – atomdan kuchli, - deydi Abdulla Qahhor. – Biroq, uning kuchini muzyorar kemani yurg‘izishga ham, o‘tin yorishga ham sarflash mumkin”. Biz adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati katta ekanini nazariy jihatdan yaxshi bilamiz-u, ammo hayotda undan foydalanishda hamon ko‘p adashamiz. [1, 26]. Darhaqiqat, adabiyot juda kuchli ruhiy vosita. Adabiyot insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondiruvchi bebaho xazinadir. Qaysidir jihatlari bilan u tarixga o‘xshab ketsa-da, undan farqli o‘laroq, ma’lum davr kishilarining ichki kechinmalari, orzu-armonlari, o‘y-xayollarini ochib beruvchi ko‘zgudir. Chinakam adabiyot makon va zamon tanlamaydi. Har qanaday sharoitda ham o‘z bahosini yo‘qotmaydi. Adabiyotning kuch-qudratini ta’riflash bilan bir qatorda uning bir bo‘lagi bo‘lgan o‘zbek adabiyotiga ham to‘xtalish lozim. Azizbek Norovning “Azal va abad yo‘li” qissasi ham adabiyotning kata mavzulariga bag‘ishlangan. Quyida shu asarning badiiy jihatlariga to‘xtalamiz.

O‘zining boy va qadimiy tarixiga ega bo‘lgan o‘zbek adabiyotida har bir davr adabiyoti ma’lum bir davr hayotini ochib beruvchi muhim bir manbadir. Har bir davr adabiyotining o‘ziga xos jihatlari, sujeti, mavzu va g‘oyalari bor. Ularning har birida

o‘sha davr hayot va kechinmalarini yoritib berish bilan bir qatorda, insoniyat uchun ming yillardan beri muhim sanalib kelinayotgan, ularning qon-qoniga singib ketgan muammoli vaziyatlar, axloqiy muammolar ochib beriladi. Har bir asar turlicha ma‘no kasb etganidek, har bir yozuvchi ham o‘zining yozish uslubi va yo‘liga ega. Kimdir hayotiy-maishiy tarzda, o‘quvchi tushunishi oson qilib asar yozsa, kimdir fantastik ruhda, insonning aqliga biroz begona qilib Qalam tebratadi. Biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan asar ham ana shunday fantastik ruhda bitilgan.

“Ona zamin derazasi ortida zulmat lashkari tong qo‘shini tomonidan deyarli tor-mor etilayotgan paytda ko‘zini ochdi, o‘rnidan turib chiroqni – quyoshni yoqdi. Zavqlanib kerishgach, bag‘ridagi qariyb sakkiz milliard odamzotni, u bilan nabotot va hayvonot olamini ham g‘aflat uyqusidan ogoh etdi. Ularning yuzlariga singib qolgan g‘aflatning so‘nggi bo‘laklarini yuvib yuborgach, atrofni o‘zgacha mehr-muhabbat, onalarcha g‘amxo‘rlik bilan kuzatdi”. [2, 27].

“Azal va abad yo‘li” qissasida mana shunday ajoyib jumlalar mavjud. Har bir o‘xshatishda nafislik, originallik nafasi ufurib turipti. Asarni o‘qish davomida shu kabi jumlalarga ko‘p bora guvoh bo‘lasiz. Ushbu qissani o‘qir ekanman, tafakkurimda nimadir isyon ko‘tardi. Yozuvchi bir maromda o‘tib turgan, boshimizdan kechirayotgan, yoxud yonimizdagi o‘tib borayotgan hayot haqida emas, balki insonning faqat idrokidagina anglashga qodir bo‘lgan muhitni badiiy mahorat bilan tasvirlab bergan. Yosh adib oddiylikdan, bir xillikdan qochdi, o‘zidan avval yozilgan asarlarning “an’anasini” davom ettirmadi, ya’ni boshqa yozuvchilarning asarlarga o‘xshash bo‘lmagan, umuman o‘zgacha ruhda, o‘zgacha talqinda asar yaratdi.

Asarning birinchi jumlasi - uyning ostonasi misol. Ushbu qissaning “ostona”si ham dunyo tashvishlaridan charchagan, uyoqdan bu yoqqa zir yugurgan, nafratlangan, hayratlangan, ko‘kka sapchigan, o‘ylangan, umidsizlangan Ona zamin tasviri bilan boshlanadi. Qissani birinchi bor o‘qigan inson bu asar qandaydir kosmonavtik hodisalarga bag‘ishlanibdi degan xulosaga keladi. Ammo bu xulosa asar uchun aldamchidir. Kitobni oxirigacha o‘qib chiqqan o‘quvchi, Ona zaminni bu qadar “charchatgan”, “iztiroblantirgan” narsa insoniyatning ma’naviy olami ekanini tushunib yetadi.

Ta’kidlaganimizdek, “Azal va abad” aksar badiiy asarlardagi ijtimoiy hayot, muhabbat, biz odatlanib qolgan syujetlar ustiga qurilgan emas. Yosh adib qissasi bilan bizning idrokimizda “favqulodda holat” joriy etdi. Endi biz asarni shunchaki o‘qib sujetni, qahramonlarni yo‘ligagina tahlil qilishdan qocha boshladik. Yozuvchining asarini o‘qish davomida, tafakkurimiz ko‘nikib yurgan ko‘z oldimizdagi voqelikning bosimidan teparoq ko‘tariladi, insonning tasavvur

dunyosiga chiqadi. Ana shu tasavvur olamida insonning azal va abadda tutgan o‘rni haqida fikrlashga, o‘ylashga undaydi.

Asar odatiy syujetga qurilgan emas. Yuqorida ona zamin toliqishi tasvirlangandan so‘ng, nomsiz va sirli poyezdning borishi, bekatda to‘xtagan poyezdga qabrlardan chiqqan murdalar bilan to‘lganligi insonning tafakkurida zo‘riqish paydo qiladi. Bu qanday poyezd? Qayoqqa ketyapti? Nega ichi murdalar bilan to‘lgan? Bu murdalar aslida o‘zi kim? Mana shunday savollar qamrab oladi o‘quvchini. Qissada biz ko‘nikkan syujet, biz ko‘nikkan qahramonlar yo‘qligi birozgina bu asarga qiziqishimizni so‘ndirishi mumkin. Ammo asarni yaxshilab tafakkur bilan o‘qisak, fikrimiz o‘zgarishi tayin. Munaqqid Umarali Normatov aytganidek: “Zamonning qaynoq nafasi ufurib turadigan asarlarga har doim ham alohida talab bo‘ladi”[3. Umarali Normatov. “Ijod sehri”, 258-bet].

Qissadagi murdalar azalda yashab o‘tgan insonlardir. Bu yerda hamma bosh qahramon, hamma bitta vazifani bajaradi – azal va abad tegrasida yashab o‘tgan nomai a’moli bilan ishtirok etadi. “Amarantus” poyezdi esa zamonlar osha ketayotgan abadiylik poyezdidir. U to‘xtab o‘tadigan bekatlar, “1987”, “1985”, kabi sonlar bilan, bizning tilimizda yillar, ko‘rinishida talqin qilingan, ya’ni abadiylik poyezdi o‘tmishdan kelajak tomon harakati paytida har bir bekatga “yil” ga to‘xtash davomida o‘sha zamon odamlarini olib ketadi. Asar boshida qabrdan bosh ko‘targanlardan chipta talab qilinadi. Hammada chipta bor edi, faqat Agamennonining qiyofadoshidan boshqa. Dastlab uni chiptasi yo‘qligi sabab poyezdga qo‘yishmaydi, keyin xuddi foniy dunyoda yashaganidek zo‘ravonlik bilan o‘rtaga hukumat odamini qo‘yadi, uning tazyiqlari bilan Agamennonning qiyofadoshi poyezdga olinadi. Yunon miflogiyasida Agamemnon – takabbur, shafqatsiz, xiyonatkor, yovuz, qonxo‘r, hamma narsaga zo‘rlik bilan erishgan shoh. U sababli onasi va o‘g‘lining qotiliga aylanadi, xuddiki, asarda Ona zamin qotiliga aylangandek tasvirlaydi muallif. Poyezddagi noxushliklarda ham Agamemnonning qiyofadoshi sababli yuz beradi. Mavjud tuzumga bo‘ysunmagan shaxslarni hisbga olish uchun kelgan NKVD chilar tufayli abadiylikka tomon harakatlanayotgan bir muddat to‘xtab qoladi. Menimcha, yozuvchi qissada har bir yaxshi niyat bilan boshlangan ishga doim yovuz niyatli kimsalar to‘g‘anoq borligini aytib o‘tmoqchi. Asar so‘ng qismida poyezdga chiqish uchun kerak bo‘lgan bilet ochiqlanadi. Poyezddagi Balzak, Viktor Mario Gyugo, Gi de Mopasson, Frans Kafka, Alber Kamyu va shu kabi boshqa mashhur shaxslar bilet o‘rniga o‘zlari yozgan asarlarini taqdim etishadi (asarni o‘qish davomida meni eng hayajonlantirgan voqea shu bo‘ldi). Poyezd uzoq o‘tmishdan ”2019” bekat tomon harakatlandi, ya’ni azaldan abad tomon.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, insonning o‘zidan keyin qoldiradigan merosi uning yaxshi amallaridir. Ba’zi juz’iy xulosalar:

1. “Azal va abad yo‘li” mustaqillikdan so‘ng yaratilgan chuqur ruhiy psixologik tahlilga asoslangan qissa;
2. Asarda ijtimoiy munosabatlar buzilganligi ham badiiy aks etgan;
3. Asar qahramonlari kechmishida azaldan abadga tomon boradigan yo‘l uchun dunyo matohlari yoki boylik, shon-shuhrat emas, balki dunyosida qilgan eng yaxshi amallari yordam berishi ishonarli tasvirlangan;
4. Asarda inson hayotining so‘nggini go‘zal yakunda yoki achinarli holatda tugashi faqat o‘ziga bog‘liqligiga urg‘u berilgan;
5. Asar sujet chiziqlari dinamik rivojlaninb boradi, qahramonlar qismati biroz sun’iylikdan holi;
6. Agamennonning qiyofadoshi – o‘quvchida nafrat aralash xulosa chiqarish tuyg‘ularini yuzaga chiqarishga yordam beruvchi qahramon.

Adabiyotshunos-olim Qozoqboy Yo‘ldosh “Asl badiiy asar odamning ruhiyati, tabiati va ma’naviyatida ma’lum yangilanish, evrilish sodir qiladi.”-.deydi. [4, 17-bet]. “Azal va abad” qissasi ham kitobxonga ko‘pgina ma’naviy-ruhiy oziq berishi bilan arzirli asarlar sirasiga kiradi bizningcha.

Iste’dodli yozuvchi Azizbek Norov “Azal va abad” qissasi orqali inson bu foniy dunyoda qilgan nomai a’moli, ezgu ishlari orqali u boqiy dunyoda izzat-ikromga erishadi, abadiylik sari borishga eng loyiq insonga aylanadi. Aksincha bo‘lib, xuddi Agamemnonning qiyofadoshi singari zo‘ravonlik, yovuzlik bilan o‘z maqsadiga erishadigan odamlarni foniy dunyoda ham, boqiy dunyoda ham azizlar qatoridan surib chiqarilishini mahorat va o‘zgacha uslub bilan ifodalab bergan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:


1. Озод Шарафиддинов. Оламнинг қалби. Т.: “Маънавият”. – 2012. – 264 б.
2. Norov A. “Azal va abad yo‘li”. Qissa. T. “Yangi asr avlodi”, 2019
3. Норматов У. “Ижод сеҳри”. Т.: «Шарқ», 2007. — 352 б.
4. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. – 464 б.


## NAZAR ESHONQUL ASARLARIDA AYOL OBRAZI (SHAMOLNI TUTIB BO‘LMAYDI HIKOYASI ASOSIDA)


***Haydarova Mushtariy Abdumalik qizi***
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi*

Mushtariyhaydarova26@gmail.com
***Ilmiy rahbar: Hoshimjon Ahmedov***
***f.f.n, dotsent***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasidagi Bayna momo obrazi haqida so'z boradi. Bayna momo shaxsiyatidagi milliylik, qat'iyat va shu bilan birga ojizlik kabi xususiyatlar tahlilga tortiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *xarakter, shamol, jununvash ifoda, his-tuyg'u, intiqom alangasi.*

***Annotation:*** *This article provides a comprehensive analysis of the character Bayna Momo within the context of Nazar Eshanqul's "Shamolni tutib bo'lmaydi" (Wind Can Not Be Caught)story.*
*It delineates her complex attributes such as nationalism, determination, and at the same time vulnerability through her persona.*

***Key words:*** *character, wind, wild expression, emotion, flame of revenge.*

O'zbek hikoyachiligiga yangicha qarash va uslub bilan kirib kelgan Nazar Eshonqul hikoyalarida zamonaga xos va ayni paytda individuallik kasb etgan qahramonlar ko'pdir. Har bir asar qahramoni bir-birini to'ldiradi va o'z ichida bir-biriga zidlanadi. Modern adabiyotning o'ziga xos jihati ham shundadir. Biz tahlil qilmoqchi bo'lgan "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida ham qahramonlar xarakteri, o'zini tutishi va his-tuyg'ularining ifodasi fikrimiz isbotidir.

Salkam chorak asr intiqom alangasida yashagan va bu dunyodan o'z maqsadiga erishib ketgan Bayna momo obrazida milliylik, insoniy his-tuyg'u va ayni paytda ojizlik, chorasizlik kabi unsurlar qorishib ketgan. Asar nomi ham bir asar umriga teng. Insoniyat tabiat hodisasi bo'lgan shamolning yo'nalishini o'zgartirishi mumkin, ammo uni to'xtatib qololmaydi. Bir muddat to'xtagan shamol qaytadan kuchlanib, bo'ronga aylanishi mumkin. Bayna momoning qalbida yillar osha ildiz otgan intiqom alangasi ham go'yo shamolning bo'ronga aylanishidir.

Badiiy asar hayotning in'ikosidir. Hatto badiiy asar hayotda bo'lishi mumkin bo'lmagan hodisalarni tasvirlaganda ham baribir uning asosi, manbai – hayotdir[1. Badiiy tahlil asoslari 158-bet]. Yozuvchining deyarli barcha hikoyalarida asar qahramonlarini biz bilan bir olamda yashayotgandek his qilamiz. Asarning uzun jumlalar bilan boshlanishiyoq o'qirmanni sergaklantiradi va beixtiyor qaytadan ushbu jumlani o'qib, mazmunini anglashga undaydi. Hikoyaning boshlanishida tersotaliklarning uyi bilan Bayna momoning uyi o'rtasidagi farq "yuzga chiqqan chipqon" kabi ko'z-o'ngimizda namoyon bo'ladi. "Bayna momo kabi uy ham qishloqdagi imoratlar oldida yolg'izlanib qoladi". Bayna momoning qalbidagi qasos

o‘ti uyning devorlariga yillar chizgan chiziqlardan ham ko‘p edi va bu iniqom Zamon otboqarning hayotidagi eng muhim kun uchun asrab qo‘yilgan edi.

Asardagi fojeaviy o‘rinlar; Rayim polvonning otib tashlanishi, Zamon otboqarning sirli o‘limi adib tomonidan o‘tgan zamonda hikoya qilib berilishiga qaramasdan, o‘quvchining xayolida jonlantiriladi.

Jussasi kichikligiga, qo‘llari qoqsuyakligiga qaramasdan his-tuyg‘ulari sher misoli nara tortgan ayol butun tersotaliklar bajara olmagan ishni o‘z zimmasiga oladi. Zamon otboqarning sirli o‘limi butun qishloqni larzaga keltirgan bir paytda Bayna momoning bu xabarni eshitib yillar davomida yelkasi osha ko‘targan yuki bir lahzaga ham yengillashmagani insonni o‘ylantiradi. “Zamon otboqar otlarni quvib ketarkan, bir yo‘la otasi bilan uning qasosini olishi mumkin bo‘lgan o‘g‘lini ham otib tashlaganidan mamnum” bo‘lgan holda, ayol kishining ko‘rinmas kuchidan bexabar qoladi. Ayoldagi bu kuchni mirshablar ham tasavvur etolmaydi va “ramaqijon kampir”ning qo‘lidan bu kabi ishlar keladi deb o‘ylashgani uchun uyalishib, ortlariga qaytishadi.

Asardagi har bir qahramon ma’no tashiydi, ammo qizlar obrazining asarga kiritilishi ortiqchadek tuyuladi. Shundayiga ham umri alam va sitamlar bilan qaynotasi qurgan katta xonaning ichida nima qilishini bilmay yurgan Bayna momo uchun dard ustiga chipqon bo‘ladi. Echki sog‘ayotgan Bayna momoga bir qiz tomonidan aytilgan “Agar o‘g‘lingiz bo‘lganida men sizga jon-jon deb kelin bo‘lardim” qabilidagi qaqshatkich so‘zlar kitobxonni ham g‘azab otiga mindiradi. Bayna momoning qalbida yillar davomida lovullab kelgan alanga bexosdan o‘zini kuydiradi, “qizlar dud hidini aniq sezishadi”. Yozuvchi qizlar obrazini asarga kiritarkan, Bayna momodan chirkinlik va anduh hidi kelishini, qizlarning esa yosh va navqiron ekanligini aytib o‘tadi. Lekin qizlar obrazi hikoyaga kiritilmagada ham o‘quvchi Bayna momoning umrini tahlil qila olar edi.

Nega tersotaliklar yozuvchi yozganidek tabiatan tekin tomoshani xush ko‘radi? Bunda qanday yashirin ma’no bo‘lishi mumkin? Bu kabi savollarga javoban asar tahlillari shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi ham Bayna momo kabi bir lahza tersotaliklarni yomon ko‘rib ketadi. Rayim polvon va o‘g‘lining o‘limini jimgina qora pardalar ortida kuzatib turgan tersotaliklardan madad istaydi, ammo sovuq sukutdan boshqa hech narsa sezilmaydi. Bu holat Bayna momoning qalbidagi alangaga moy sepadi. Shuning uchun tersotaliklarga nisbatan “tabiatan tekin tomoshani xush ko‘ruvchi” jumlasini qo‘llaydi.

Zamon otboqar Rayim polvonni, o‘g‘lini o‘ldirish bilan cheklanmasdan Bayna momoni ham “benasib” qoldirmaydi, yelkasi osha qamchi tushiradi. Bir ayolga bu kabi ruhan va jismonan zulm qilishning oqibati jirkanch bir tarzda yakunlanadi, Zamon otboqar barcha a’zolari tugal holda ko‘milmaydi. Bir qarashda asar ruhi

o‘quvchida achinish, g‘azab, tushkunlikni tug‘dirishi mumkin, ammo bu holat ham asarning qiymatini oshiradi. Zamon otboqar “o‘zi tushar ertangi choh ustida o‘ynagan” obrazdir.

Asardagi yana bir voqea diqqatni tortadi. Bayna momo erining va o‘g‘lining kiyimlarini hamma ko‘radigan “uyning shappatgayiga” yoyishida qanday ramziy ma’no bor? Asarda erkak va or, oriyat so‘zlari bot – bot takrorlanadi. Bayna momo qishloqdagi erkaklarga qishloqning erkagi o‘lmaganligini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Shu bilan haqiqiy erkak hech narsadan qo‘rqmasligi, adolatga tik boqishi kerakligini qishloqdoshlariga ko‘rsatmoqchi bo‘ladi.

Tersotaliklar necha yillardan beri yodga olinmagan ayolni Zamon otboqarning sirli o‘limi tufayli to‘satdan eslashadi. Bayna momodagi jur’at, shijoat va qasos o‘ti yillar davomida alangalanadi. Natijada “yuragida sher na’ra tortib, saman otlar gupurgan ayol” qilishi kerak bo‘lgan ishni qiladi. Zamon otboqarning o‘limi tufayli yillar g‘ijimlab tashlagan yuzida jununvash ifoda ko‘rinadi.

Epik asar o‘rganilayotganda personajlar xatti-harakatlari uning xarakter mantig‘iga muvofiq kelishi yoki kelmasligi muammosi tahlilning markazida turishi kerak[2. Badiiy tahlil asoslari 160-bet]. Bayna momoning qalbida bir lahzaga ham maqsadga tomon harakati susaymaydi, aksincha Rayim polvon uchun, o‘g‘li uchun qasos olish yo‘lida yolg‘iz o‘zi harakat qiladi.

Vaqti-soati yetgan Bayna momoni kuzatishga chiqqan xalq tobut ortidan “gunohkorona bo‘yin egib borishardi”.

Asar so‘nggida sandiqdan chiqqan ashyolar birin-ketin vaziyatni oydinlashtiradi. Bayna momo o‘z maqsadiga yetadi.

Yozuvchi Baynamomo obrazi orqali butun o‘y-xayollari va maqsadini bayon etadi. Bosh qahramon atrofidagi obrazlar tizimi birlikda bir butunlikni hosil etadi. Chinakam asarning qahramoni o‘ziga xos tabiat, kayfiyat, taqdir egasi sifatida namoyon bo‘lishi, uning sezim va kechinmalari kitobxonni loqayd qoldirmasligi kerak[3. Адабиёт назарияси 18-bet]. Asar shunday asarlar sirasiga kiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Назар Эшонқул. Сайланма. 1 том. Ҳикоялар. Т.: Akademnashr. – 512 б.
2. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent. Kamalak. 2016.
3. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. “Ўқитувчи” нашриёти, Т.: 1986. 408 б.
4. www. **kh-davron.uz**›kutubxona/uzbek

# BADIIY ASARDA OTA RUHIYATI
# (“UFQ” ROMANI IKROM OTA MISOLIDA)

***Kamilov Miraziz Murodulla o‘g‘li***
*Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti 4-kurs talabasi*
*kamilovmiraziz1999@gmail.com,*
*+998973193699*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining go‘zal namunasi “Ufq” romanidagi Ikrom ota misolida ota obrazining o‘ziga xos jihatlari – ruhiyati, tuyg‘ulari, quvonch-u qayg‘usi, oiladagi o‘rni kuzatiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Badiiy asar, obraz, timsol, ota obrazi, trilogiya, ichki ruhiyat.*

***Abstract:*** *In this article, on the example of father Ikram in the novel “UFQ”, a beautiful example of Uzbek literature of the 20th century, the unique aspects of the image of the father are observed – his psyche, fellings, joy and sorrow, his place in the family.*

***Keywords:*** *Fiction, image, symbol, father figure, trilogy, inner psyche.*

Badiiy obraz xususiyatlarini o‘rganishni atamaning mazmunidan boshlagan ma’qulroq. “Obraz” atamasi “raz” (“chiziq”) so‘zidan olingan bo‘lib, “raz” so‘zidan “razit” (“chizmoq, yo‘nmoq, o‘ymoq”) va undan “obrazit” (“chizib, o‘yib, yo‘nib shakl yasamoq”) so‘zi yasalgan. “Obrazit”dan “obraz” (“umuman olingan tasvir”) vujudga kelgan.[120]

Aslida “obraz” slavyan tillariga xos so‘z bo‘lib, u voqea – hodisalarning xayolda namoyon bo‘ladigan manzarasini bildiradi. Slavyanlar “obraz” deganda, avvalo, odamzodni azob – uqubatlardan saqlab qolish uchun Alloh tomonidan yuborilgan Iisus Xristos (Iso payg‘ambar)ning rassomlar, haykaltaroshlar tasvirlagan qiyofasini tushunishgan. Xristian (nasroniy) dinida payg‘ambar Isoning tug‘ilishi, hayoti, o‘limi bilan bog‘liq voqealarni aks ettiruvchi san’at asarlarini yaratish keng tarqalgan. Rassomlar, haykaltaroshlar o‘z xayol – tasavvurlari asosida Isoga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar ijod qilishgan. Yog‘och, tosh va boshqa materiallardan chizib, o‘yib, yo‘nib yasalgan bu asarlar juda ta’sirchan yaratilgan.[121]Yuqoridagi barcha fikrlarni jamlasak, bitta xulosa kelib chiqadi: adabiyotga hayotning hamma (inson, narsa, buyum, hayvon, hodisa, predmet, o‘simlik; ko‘chma ma’nodagi so‘zlar, iboralar, leksik resurslar; ifoda – tasvir vositalari – mubolag‘a, kichraytirish, o‘xshatish, omonim, sinonim antonimlar; anafora, epifora, asindenton va sh. k.) unsurlari kirar ekan, kirganda ham san’atkor

[120] В.Г.Белинский. Адабий орзулар, Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977, 101-бет
[121] H.Umurov. Adabiyot nazariyasi (I qism), S., 2001, 34-46-betlar

ongi va qalbida jilolanib, boyib, kattalashib, eng muhimi insonlashib va birbutunlik kasb etib muhrlanar ekan – ularning barchasini obraz deb yuritish qonuniyatdir.[122]

Insoniyat tarixida badiiy adabiyot yaralibdiki, ota obrazi ham boshqa obrazlar singari uning bir qismi bo‘lib kelmoqda.Jahon xalqlari adabiyotida otalar obrazi asosida yaratilgan roman-u qissalar, she’r va dostonlar buning yorqin misoli.

Ota obrazi bu o‘zbek va jahon adabiyotidagi eng serqirra mavzularidan biridir. O‘zbek adabiyotining hozirgi va qadimgi, yozma va og‘zaki na’muna, barcha tur va janrlarida otaning farzand tarbiyasidagi o‘rni xususida ma’lumotlar ifodalangan. Hatto rus xalq maqollarida ham shunday fikr keltirilgan: “Kishi yoshligida ko‘nikib qolgan narsasini qariganda ham davom ettiradi. Hayotning o‘zi uning to‘g‘riligini ta’kidlaydi”. Agar inson yoshligida ezgulik yo‘liga kirgan bo‘lsa, u keksalikda ham ezgulik amalida qat’iy turadi. Insonda bunday yuksak xislatlarning namoyon bo‘lishida ham otaning o‘rni beqiyosdir.

Bolaning ma’naviy dunyosining rivojlanishiga va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetish ta’siri uning tug‘ilishidan oldin ham boshlanadi. Negaki?
Biz odatiy holatda onaning tarbiya bilan ko‘proq shug‘ullanishiga o‘rganib qolganmiz, chunki ona doimo yonimizda. Bolani tarbiyalashda otaning o‘rni qanday? Farzandlarda boshqalarga, o‘ziga, qonunga, axloqiy me’yorlarga, sog‘lig‘i va shaxsiy xavfsizligiga hurmat tuyg‘usini shakllantirish, ta’lim faoliyatiga ongli munosabatda bo‘lish uchun alohida mas’uliyat oiladagi ota zimmasiga yuklanishi kerak, deb hisoblaymiz. Chunki bu mas’uliyatli vazifalarni ado etishda ota asosiy rol o‘ynaydi.

Ota o‘z tarbiyasi bilan bolaga tashqi dunyoni ko‘rsatadi. Bu uning namunasi faollik, ijodkorlik, qiyinchiliklarni yengish, oqimga qarshi chiqish, atrofimizdagi dunyoni o‘zgartirish va himoyaga muhtojlarga yordam berish qobiliyatini o‘rgatadi. Bola otasining xatti-harakatlariga diqqat bilan qaraydi. U otasining so‘zlari uning harakatlariga mos kelishini kutadi. Keling, o‘zbek adabiyotida yozuvchilar o‘z asarlarida otalarning qiyofasini qanday ochib berishlarini ko‘rib chiqaylik. Ular oilada qanday rol o‘ynaydi.

O‘lmas Umarbekovning “Qiyomat qarz” drammasi markazida oliyjanoblik timsoli bo‘lgan oddiy cho‘pon Sulaymon ota obrazi turadi. Asarning asosiy yo‘nalishi Sulaymon ota hayoti hamda u bilan bog‘liq voqealar, ziddiyatlar zaminida, turli xarakterlar to‘qnashuvi jarayonida ochiladi. Unda Sulaymon ota timsolida halollik, vijdon, omontani saqlash, birovni haqqiga xiyonta qilmaslik tuyg‘ulari keng yoritilgan. Asarda Sulaymon ota yorqin milliy xarakter etib gavdalantirilgan.

[122] Mirzayev.S. XX asr o‘zbek adabiyoti. Darslik. Toshkent. - “Yangi asr avlodi”. 2015.

Yoki, G‘afur G‘ulom o‘z she’rda o‘g‘lini bosqinchi yovga qarshi jangga jo‘natgan ota obrazini yorqin poetik bo‘yoqlarda yaratgan. Shoirning “Sog‘inish”, “Sen yetim emassan” she’rlarida ham vatanparvar va mehribon otaning barkamol obrazi chizib berilgan. Bu asarlarda ota obrazi (lirik qahramon) xalqimizga xos milliy xislatlarni o‘zida gavdalantiradi.

Abdulla Qahhorning “Asror bobo” hikoyasidagi bosh qahramon Asror bobo urush yillarida front orqasida fidoyilik namunasini ko‘rsatgan xalqning bir vakilidir. Asror bobo – sabotli va mustahkam irodali kishi. U inson ko‘nglini ko‘tarish unga ishonch solish har narsadan muhim ekanligini yaxshi biladi. Shuning uchun ham so‘lim bir joyda choyxona ochib uni targ‘ibot o‘chog‘iga aylantiradi. Yozuvchi Asror boboning ma’naviy qiyofasini ochishda o‘g‘li Yodgordan qora xat kelishi voqeasida juda mahoratli tasvirlagan. Ota o‘g‘lining o‘limi haqidagi xabardan qattiq eziladi. Biroq u o‘zidan ham ko‘ra ko‘proq kampirini o‘ylaydi. Bu mudhish xabarni eshitsa kampiri chiday olmasligidan xavotirlanib qora xatni ayoliga bildirmaydi. Buning ustiga o‘zini hech narsadan xabari yo‘qday, quvnoq ko‘rsatishga urinadi. Bunday timsollarni hali ko‘plab davom ettirish mumkin.

Shunday asarlar borki, vaqt o‘tishi bilan uning qimmati yanada oshib, unda ko‘tarilgan mavzular zamon, davr chaqirig‘iga hamohang yangraydi. Agar u Vatan, unga bo‘lgan sadoqat, fuqorolik burchi, mas’uliyati haqidagi o‘lmas mavzular haqida bo‘lsa, hamohanglik yuz karra baland jaranglaydi.

Said Ahmadning “Ufq” romani ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Shuning uchun bo‘lsa kerak bu asarga qayta-qayta murojaat qilinaveradi. Bunday asarlar har bir kitobxon, har bir o‘quvchida o‘zgacha talqinga ega bo‘ladi. Romandagi voqealarni shunchaki sahnada jonlantirish bilan cheklanmay, romanning eng shiddatli o‘rniga Vatan va Inson taqdiri kesishgan nuqtasiga e’tibor qaratgan.

“Ufq” romanda xalqimiz hayotining kichik, biroq mazmun-mohiyati jihatdan juda dolzarb davri aks ettirilgan. “Ufq” romanida obrazlar bilan tanishishdan oldin yozuvchi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tamiz. “Ufq” trilogiyasi adib ijodida alohida o‘rin tutadi. “Ufq” romani XX asr millat hayotining o‘n yillik davri – Ikkinchi jahon urushi, urush va urushdan keyingi yillar voqealarini o‘z ichiga oladi. Trilogiyada o‘sha yillari xalq boshiga tushgan musibatlar, odamlar ko‘ksidagi armonlar, shu musibatlarni yengishga qodir mislsiz matonat va shijoatlar yozuvchi iste’dodiga xos ehtiros, o‘ziga xos ilhom bilan aks ettirilgan. Aynana bu asarda ham ota obrazi alohida o‘rin egallaydi.

Bunday yuksak asardagi ota obrazi bu – Ikromjon ota. Jannat xolaning eri, Tursunboyning otasi, bir oyog‘idan ajralgan, o‘zi mayib holatda bo‘lsa-da, qalbida zarracha ham o‘rtanish azobi bo‘lmagan, lekin arzanda va qochoq o‘g‘lining o‘limini ko‘rgan iztiroblar ichida tasvirlangan ota timsolidir. Urush qahramoni

Ikromjon Usmonov baxtiyor, yor-u birodarlari oldida yuzi yorug‘ bo‘ldi, Vatan uchun qilgan xizmatlari oliy mukofot bilan taqdirlandi. Frontdan bir oyog‘idan ajrab, qaytib keladi, ortidan unga berib ulgirilmagan ordeni tantanali ravishda o‘z mahalladoshlari oldida topshirildi. Ayni paytda aytilgan qandaydir yaramas qochoq bola to‘g‘risidagi gapga parvo ham qilmaydi. Qochoq bola yakkayu yagona farzandi, ko`zini oq-u qorasi bo‘lgan jigarbandi Tursunboy ekanligini bilganda esa Ikromjon otadan baxtsiz odam yo‘q edi, qishloqda qanday bosh ko‘tarib yurishlikni, orden taqishga haqqi yo‘qligini, odamlar yuziga qanday qarashlikni, xotiniga nima deyishlikni…, badbaxt, nobakor, xoin, qochoq bolasi shu topda oldida bo‘lsaydi, uni tilka-tilka qilib, bo‘g‘ib o‘ldirishlikni jahl bilan o‘ylardi. Ikromjon ota shu o‘g‘lini allohdan iltijolar qilib so‘rab olgan bo‘lsa-da, shu vaqtda farzandidan voz kechib, o‘zini befarzand insonman deya ovuntirar, o‘g‘lining isnodiga chiday olmas edi, ota iztiroblar ichida azablanar, ta`lim-tarbiyadami, nimada, qayerda adashganini o‘ylar, ammo cheksiz bo‘lgan o‘yining oxiri yo‘q edi. Jannat xola ham boshqa onalar singari yakka-yu yagona o‘g‘lini Vatan himoyasiga jo‘natganidan xursand edi. “O‘g‘limiz jang qilib, xalqimizni ozod, yurtimizni obod qiladi”deb orzulagan bir mushtipar ona edi.

Lekin taqdirning og‘ir sinovlari shuni ko‘rsatdiki, yer-u ko‘kka ishonmagan o‘g‘il ota-onaning yuzini yerga qaratdi. Otaning xalq orasida g‘oz tutib yuradigan qaddini egib qo‘ydi. Ikrom ota uchun bunday musibat kutilmagan zarba bo‘ldi. Hattokı, ota to‘qayzorda o‘g‘lini ayanchlı holatda uchratganda, dastlab, g‘azabini jilovlay olmay, oxiri nima bo‘lishini o‘ylamasdan, o‘z pushtikamaridan bo‘lgan jigargo‘shasiga o‘q uzgan bo‘lsa-da, Lekin o‘zbek otalariga xos bo‘lgan otalik mehri jo‘sh urib o‘g‘lini izlagani va yakka-yu yagona ko‘zining oq-u qorasi bo‘lgan o‘g‘lining jasadini topib, o‘zi kimgadir muhtoj bo‘lishiga qaramasdan qo‘ltiqtayog‘i bilan o‘g‘liga qabr qazish holati kitobxonning qalbini larzaga solmasdan qolmaydi.

Hatto, “Ufq”ning sahnadagi talqinida ham ota obrazining naqadar yorqin ifoda etilganligini ko‘rish mumkin. Romandagi g‘oyaviy-badiiy ifoda bilan hamohang bo‘lsa-da, biroq romandagi tasvirdan farq qiladi. Albatta, bu – teatr, sahna talabidan kelib chiqadi. Chunki romanning imkoniyati keng bo‘lib, hayotning badiiy ifodasini bor bo‘y-u basti bilan ko‘rsata oladi. Shuning uchun romanda Ikromjon birinchi gal o‘g‘li bilan uchrashganda o‘g‘liga qarab: “Sen yaramasning jazoyingni yurt bersin!” deb uni qishloqqa olib ketmoqchi bo‘ladi. Ammo Tursunboy otasini turtib yuborib, qochadi. Shunda Ikromjon unga qarata o‘q uzadi. O‘q tegmaganini ko‘rib: “Xayriyat, tegmabdi”, deydi. Said Ahmad romanda Ikromjonning Ota va Inson sifatidagi tuyg‘ulari va iztiroblarini ana shunday tasvirlaydi. Keyin o‘g‘lining itdek xor bo‘lib, qochqinda, yolg‘izlikda o‘lib qolganini ko‘rib, unga go‘r qazib ko‘madi. Sahnada esa, Ikromjon o‘g‘lini otib o‘ldiradi. Sahnadagi bu talqin sahna

va teatr imkoniyatidan kelib chiqadi. Rejissiyor Marat Azimov sahnada “Ufq”ni ana shunday talqin qiladi. Garchi “Ufq”ning sahna varianti romandagi tasvirga aynan mos kelmasa ham, romanda ilgari surilgan g‘oyani ifodalay oladi. Chunki sahnada berib bo‘lmaydigan holatlarni qahramonlarning nutqida ifodalangan iztiroblar, ularning xatti-harakatlari, yuz ifodalari, ovozlaridagi mahzunlik, o‘kinch, armon ohangi sahnada ko‘rsatish qiyin bo‘lgan o‘rinlarni to‘ldiradi.

Kitob mutoaalasida kitobxon, tomosha yakunida esa tomoshabin Ikrom otaning ruhiyat va ziddiyatlarda tasvirlanganiga guvoh bo‘ladi. Bu portret, asosan, Ikrom ota bilan o‘g‘li Tursunboyning suhbatlarida yaqqol namoyon bo‘lganiga amin bo‘lamiz. El-yurt nafrati xiyonatkorni o‘tdek kuydirishi, undaylardan hatto o‘z yaqinlari ham nafrtalanishini his qiladi.

Ikromjon o‘g‘li Tursunboyni to‘qayzorda uchratganda, ular o‘rtasida shunday savol-javob bo‘lib o‘tadi:

– To‘qayga qachon kelding?..

– To‘rtoy bo‘ldi.

Tursunboy boshini egib yerdan cho‘p olib tishlab o‘tiraverdi.

– Onang o‘ldi, – dedi Ikromjon.

– Bilaman. Ko‘mishga olib ketayotganlarida ko‘rib turgan edim. [123]

Bu holatda Ikromjon otaning o‘g‘li xatti-harakatlariga munosabati ikki xil: bir tomondan unga farzandi sifatida joni achisa, ikkinchi tomondan uni “Xoin! Qochoq! Nomard!” deya la’natlaydi.

O‘g‘lining qilgan gunohining sababini topgan edi. U o‘ylab-o‘ylab, o‘yiga yetolmasdi. Ota-ona bolasiga yemay yedirdi, kiymay kiydirdi… Ikromjonning birdan ko‘zlari ochilib ketdi. Hattoki ona og‘ir oyoq, kasal bo‘lishiga qaramasdan o‘g‘lining istak xohishlarini birinchi o‘ringa qo‘yib keldi. Yoshligidan taltaytirib o‘stirdi. Ha, hamma gap ana shunda. Qo‘lini sovuq suvga ham urdirmay nozik hilqatlardek asrab avaylab o‘stirgani. Og‘ir ish qildirmadi. Yig‘laganida qo‘shilib yig‘ladi. Kalishini ham yuvib qo‘yardi. Kasal paytida ham uni tayloqdek qilib opchib yurardi. Betini yuvganda o‘zi suv quyib turardi...

Ikromjon peshonasiga shatillatib bir tushirdi.

– Jazangni tort, jazagni tort, Ikrom. Uni o‘zing shu ko‘yga solding. Endi ming yig‘la, befoyda. Senga bu jazo kam![124]

Bu satrlarni o‘qish har bir ota uchun albatta iztirobli, lekin farzand tarbiyasiga yoshlikdan jiddiy e’tibor berish lozimligini inson anglashi uchun ham man shu dard va sitamga to‘la jumlallarni albatta o‘qish kerak. O‘z xatolarini kech bo‘lsada

[123] Said Ahmad. Ufq. G‘afur G‘ulom nomidagi san’at va adabiyot nashriyoti. Toshkent. – 1976. B.156.

[124] Said Ahmad. Ufq. G‘afur G‘ulom nomidagi san’at va adabiyot nashriyoti. Toshkent. – 1976. B.351.

tushungan inson yana kimningdir shu xato qilishini oldini olishga yordam berishi mumkin.

Ikrom ota obrazi nafaqat ota, timsolida gavdalangan, balki u mehribon turmush o‘rtoq, yaxshi do‘st, diyonatli, vijdonli, mehribon inson sifatida ham bo‘y ko‘rsatgan.

Ikromjon obrazi, yuqorida aytganimizdek, u shunchaki obroz emas u ota edi. U na otalik mehri shavqatini, na el-yurt oldidagi burchini tanlay olmadi. Tashqaridan burchni tanlagandek ko‘rinsada qalban arosatda edi, o‘zini ayblardi.

Yuqoridagi misollarda asosida badiiy adabiyotimizda ota timsoliga qisqacha o‘rinlarida to‘xtalib o‘tdik. O‘zbek adabiyotida oilaviy munosabatlar asosida qurilgan va oilaviy munosabatni ochib beradigan asarlar nihoyatda ko‘p. Otalar timsolini, obrazini ochish adabiyotda va tarbiyada nihoyatda ko‘p qiralli yorqin mavzulardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. V.G.Belinskiy. Adabiy orzular. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1977.
2. H.Umurov. Adabiyot nazariyasi (I qism), S., 2001.
3. Mirzayev.S. XX asr o‘zbek adabiyoti. Darslik. Toshkent. - “Yangi asr avlodi”. 2015.
4. Bozorboyeva.M., Abduolimova.M. O‘zbek badiiy adabiyotida ota obrazi. Наука и инновация, 1(35), 90–91. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/24860.2023.
5. Said Ahmad. Ufq. G‘afur G‘ulom nomidagi san’at va adabiyot nashriyoti. Toshkent. – 1976.
6. www.zarnews.uz sayti
7. Kitobxon.com sayti
8. www.abt.uz sayti


## “TANAZZUL” ROMANIDA OBRAZLAR TIZIMI


***Mamanova Dilnoza Uktamovna***
*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*
*mustaqil izlanuvchisi*
***dilnozamamanova16@gmail.com***
***+998979293669***



***Annotatsiya:*** *Maqolada Sa’dixon Mavlavixon o‘g‘lining “Tanazzul” romanidagi obrazlar tarixiylik va badiiylik jihatidan qiyosiy metod orqali tahlil qilingan. Asosan, to‘qima xarakterga ega obrazlardan Xudoyorxonnning yaqin*

*xizmatchisi Saidbek va singlisi Oltinoy, shuningdek tarixiy protatipga ega Musulmonqul mingboshining o‘g‘li Abdurahmon va o‘sha davrda Toshkent hokimi bo‘lgan Normuhammad qo‘shbegi obrazlari tadqiq qilingan. Asarda to‘qima obrazlardan foydalangan holda romanda o‘zgacha badiiylikni ta’minlagani va bu asar sujeti va kompozitsiyasiga ta’siri masalasi ham atroflicha muhokama qilingan. Natijada asar obrazlar tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima jihatidan mutanosibdir*

***Kalit so‘zlar:*** *tarixiy roman, obrazlar linyasi, protatip, kompozitsiya, tarixiy haqiqat, epizodik obraz.*

***Abstract****: In the article, the characters in the novel "Decline" by the son of Sa'dikhan Mavlavikhan are compared in terms of historical and artistic aspects. The images of Khudoyorkhan's close servant Saidbek and his sister Oltinoy, as well as Abdurakhman, the son of a Muslilmanqul mingbashi, and the historical prototype of Normuhammad koshbegi, who was the governor of Tashkent at that time, were studied from the images of textile nature. The use of textile images in the work gives the novel a unique artistry, and the issue of its influence on the theme and composition of the work is also discussed in detail. Also, the proportionality of the images of the work in terms of historical truth and artistic texture was also checked.*

***Key words:*** *historical novel, character line, prototype, composition, historical fact, episodic image.*

Tarix bizga eng asosiy ko‘rsatmalarni beruvchi va o‘rnak olish uchun xizmat qiluvchi kuchli qurol hisoblanadi. Adabiyot esa uni badiiy bo‘yoqlar bilan yozuvchining idroki, haqiqati va ijodiyoti asosida ko‘rsatadi. Bu ikkisini bir-biridan uzilmagan holda amalga oshishi esa haqiqatga yo‘g‘rilgan badiiy to‘qimani yoki uning aksini yuzaga keltiradi. Xuddi shunday tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaga asoslangan asar Sa’dixon Mavlavixon o‘g‘li Eshonjonovning besh kitobdan iborat “Tanazzul” pentalogiyasi bo‘lib, zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi tarixiy roman hisoblanadi. Asarda Qo‘qon xonligi haqida bo‘lib, Qo‘qon xonlaridan biri Xudoyorxon davri xon va xonlik hayoti tarixiy materillarga mos holda, yozuvchi ijodiy maqsadi va idealiga asoslanib yozilgan. Ushbu maqolada roman obrazlar tizimini qiyosiy tahlil qilamiz.

Romanda obrazlar tizimi asosiy obrazlar, yondosh obrazlar va asarda ishtiroki kam bo‘lgan – epizodik obrazlar kabi linyalarga bo‘linadi. O‘rganilish darajasiga ko‘ra tarixiy - protatipi bor va to‘qima xarakterga ega obrazlarga bo‘lib o‘rganish tadqiq uchun muhimdir (Mamanova, 2024, 250-bet). Protatipi mavjud asosiy qahramonlar Xudoyorxon, Musulmonqul mingboshi, Mallaxon, Sarimsooqbek, Sheralixon, Hokimoyim, mingboshining o‘g‘li Abdurahmon, Normuhammad qo‘shbegi va boshqa ko‘plab xonlikka aloqador kishilar hisoblanadi.

To‘qima bosh obrazlar esa Saidbek, Azimbek, Qilichbek, Oltinoy, Sarvi

kayvoni, Bodomgul, Bahodir shirg‘ovul, Umarali ponsod va boshqalardir. Avvalgi maqolalarda Xudoyorxon va Musulmonqul mingbosh obrazlariga ko‘p marta murojaat qilganimiz sababli bu maqolada boshqa qahramonlar tavsif qilingan. Shunday obrazlardan Saidbek, Oltinoy, Abdurahmon, Normuhammad qo‘shbegi obrazlaridir.

“Yozuvchi ko‘plab shaxslardan ko‘rgan kuzatgan tiplardan o‘ziga keraklisini tanlab oladi, umumlashtiradi. Biroq buning sharti bor: tip yasama, sun’iy bo‘lmasligi, xalq orasida birov bilmasa, birovda ko‘rilgan, tabiiy, mantiqqa to‘g‘ri keladigan, kitobxonni ishontira olishi shart.” ( https://uz:m.wikipedia.org) Bular tarixiy asarda voqealarga asos, ba’zida yordamchi obraz sifatida aks ettiriladi. Asarda shunday tendensiyaga ega bo‘lgan to‘qima obrazlardan biri Saidbek Orifbek o‘g‘li. Orifbek – Sheralixonning eng yaqin kishilaridan biri bo‘lib, “…to‘rt yashar Sherali xon bilan tengquri Orifbekni olib Talasga jo‘nab ketdi. Muridlari yordamida qiynalmasdan bolalarni voyaga yetkazdi. Ikkovini bir yilda uylantirdi… Sheralixon taxtga o‘tirgach Orifbekni saroy xizmatiga oldi. Ham mushovir ham oftobachi lavozimini berdi. Ikki yil o‘tib, oftobachining xotini qazo qildi. Galabaqqollikda hovlisi bo‘lsa ham uyida kamdam kam turib, o‘ g‘li bilan asosan saroyda istiqomat qiladi. Otasi tun-u kun saroy ishlari bilan band bo‘lgani uchun oftobachining o‘g‘li Saidbek doim Xudoyorxon bilan birga, bolalikdan katta bo‘lganligi sababli Xudoyorxonning o‘zi ham unga qattiq bog‘lanib qolgan.” (Eshonjonov, 2019, 28-bet) Orifbek oftobachi Sheralixon bilan qatl ettirilganda xon bilan Saidbek Namanganda bo‘lishadi. Bu voqeani eshitganda “Shu paytgacha nafasi tiqilib, shamday qotib turgan Saidbekning ichidan hayqiriq otilib chiqdi:

Voy, ota-a-am! Voy, otajonime-e-ey!

Buzrukvorime-e-ey! Voy, ota-a-a-a-m!

Saidbek faryodidan dovdirab qolgan Xudoyorxon, unga qarab butun vujudi jimirlab ketdi. Tomog‘i g‘ippa bug‘ilib, ko‘zlaridan yosh timchilay boshladi.” Yana bir o‘rinda esa “…hol-ahvol so‘rashilgandan so‘ng Xudoyorxonning ishorasi bilan qo‘l bog‘lab turgan Saidbek pastroqqa o‘tirdi-da non ushatib choy qaytarardi. Saidbekning yengil va chiroyli harakatlaridan yaxshigina ta’lim olgani ko‘rinib turar edi. Uni zimdan kuzatib turgan Musulmonqul mingboshining xayolidan “odob-u tartibda joyida, nufuzli mehmonlarni kutishg‘a qo‘ysa bo‘ladi” – degan fikr o‘tadi.” Va boshqa ko‘plab holatlar bilan obrazni tanishtirib, o‘quvchini asarning keyingi voqealar rivojiga ham qiziqtirib qo‘yadi. Xudoyorxon taxtga o‘tirgandan keyin uni Rossiyada o‘qitib mushovur lavozimini beradi va xonning yaqin obro‘li kishisi sifatida tasvirlanadi. Shuningdek. bu obraz orqali xonlik hayotiga yangilik olib kirilgan. Rossiya shaharlarida o‘qiganligi sababli ularning harbiy taktikasi va turli xil ilg‘or jihatlarini Qo‘qonda yo‘lga qo‘yishga harakat qilgan. To‘qima obraz

sifatida kiritilgan bo‘lsa-da Xudayorxon davrida, albatta, bunday shaxslar bo‘lgan. Bundan tashqari bu obraz orqali xonlikdagi harbiy, ijtimoiy va boshqa tomonlama orqada qolganligi ham tasvirlangan.

Portret chizgilarida ham yigitlik ko‘rinishlarini “… gerbiga qarganda podsholikka qarashli, lekin feldigarnikiga o‘xshamaydi. Otlarini qichab kelishiga qaraganda kattaroq amaldor, shekilli. Ishqilib do‘q uradigan generallardan bo‘lmasa bo‘ldi,” (Eshonjonov, 2019, 65-bet) deya nazoratchi tilidan “Poruchik kiyimida ikkita yigit, yoshlari yigirma bir-yigirma ikkilar atrofida, qilichlarini chap qo‘llari bilan ishlagan holda izvoshdan tushishdi. Yigitlardan biri o‘rta bo‘yli, bug‘doyrang, qoshlari siyrak, ko‘zlari qisiq yigit Qilich, keyingisi o‘rta bo‘ydan balandroq, oqishdan kelgan, qosh-ko‘zlari qop-qora, kelishgan, mo‘ylovchasi o‘ziga yarashib turgan bu yigit Saidbek edi. Ikkovi ham yaxshi ulg‘aygan.” (Eshonjonov, 2019, 87-bet) – deb muallif tilidan o‘qishni tugallab qaytayotgandagi ko‘rinishi tasvirlanadi. Xonning onasi Hokimoyim Saidbekni bolaligidan yaxshi bilgani, yaxshi ko‘rgani, beklar avlodidan bo‘lgani uchun qizi xonzoda Oltinoyni unga beradi.

Oltinoy – shaddod, o‘jar, ot chopishni yaxshi ko‘ruvchi, erkin so‘z ayta oluvchi, go‘zal qiz sifatidagi obraz hisoblanadi. Yoshligidan Saidbek bilan katta bo‘lgani uchun mehribonligidan uni yaxshi ko‘rar edi. Saidbek sovg‘aga olib kelgan narsalarni onasiga ko‘rsatish uchun kirgan “…oziga pardoz berib, kibor xonimlarday kiyingan Oltinoy kirib keldi. Hali Qo‘qonda rasm bo‘lmagan sharqona ko‘ylakda qaddi-qomati kelishgan, boshida tevaragi oppoq mo‘ynadan tikilgan oq popukli sari o‘ziga yarashgan Oltinoyga Saidbekning ko‘zi tushdi. Etlari jimirlab, unga qaragancha qotib qoldi. Gapirayotgan gapi ham yo‘qotdi.” (Eshonjonov, 2019, 365-bet) kabi holatda unga Saidbek ham oshiq bo‘lganligi anglashiladi. Ikkisining taftli muhabbati sujet va kompozitsiyasida alohida o‘ringa ega. Saidbek obrazi haqida asar kompozitsiyasi, obrazlar tizimi tarixni, voqealarni badiiyatda aks ettirar ekan, yozuvchi ideal obraz yaratishdagi mahoratidan quyidagi xulosalarga kelishimiz. Birinchidan, roman tarix haqiqatiga monand asar sifatida tarixdan hikoya qiladi. Undagi voqealar, tarixiy shaxslar obrazi tarix haqiqatiga mos bo‘lgani holatda badiiy to‘qimaga singib ketgan. Ikkinchidan, asar sujeti, kompozitsiya ilmiy-nazariy jihatdan badiiy asar me’yorlariga javob beradi. Ayniqsa, Xudoyorxon obrazini yaratishda tarix haqiqati asos bo‘lgan holda ijobiy bahodagi xon sifatida badiiy to‘qimani protatipga bog‘lagan. (Mamanova, 2024, 67-bet) Shuningdek, asarda to‘qima obrazlar vositasida sujet linyasini to‘g‘ri olib borgan. Ko‘p asarlarda uchraydigan muhabbat qissasini tarixiy nuqtayi nazardan puxta o‘rgangan holatda yoritgan va buni Saidbek va Oltinoy obrazlari vositasida ochib berishga harakat qilingan. Ya’ni “O‘tkan kunlar”dagi Otabek va Kumush, “Mehrobdan chayon”da Anvar va Ra’no, “Yulduzli tunlar”da Tohir va Robiya, “Avlodlar dovoni” da Nizom

va Hamidabonu singari obrazlar sevgi-muhabbat, sadoqat timsolini yaratgan bo‘lib, ushbu pentologiyada ham Saidbek va Oltinoylarning haroratli muhabbati tasviri asarga o‘zgachalik kasb etadi va asar jozibasini, o‘qishliligini ta’minlagan.

Shuningdek, Musulmonqul mingboshining o‘g‘li Abdurahmon manbalarda Olimqul deya nomi keltirilgan. U otasi qipchoqlar qirg‘inidan keyin Xudoyorxon buyrug‘i bilan dorga osilgani uchun otasining qasosini olishni niyat qiladi. Asarda u madrasa ko‘rgan, iymonli-diyonatli, ishning ko‘zini biladigan, ko‘p sohalarga aqli yetadigan shaxs sifatida tasvirlangan.

Normuhammad – qipchoq qabilasidan. 1845-yildan Qurama hokimi, 1847-1852-yillar qo‘shbegi unvonida Toshkent hokimi bo‘lgan. Musulmonqulining ashaddiy dushmani. 1864-yili avgust oyida vafot etgan. Romanda xon otalig‘i va eng yaqin kishisi sifatida har sohadan maslahat beruvchi tarixiy protatipga ega obrazlardan biri.

Xulosa qilib aytganda, romanda obrzalar tizimi tarixiylik prinspiga amal qilgan holatda, tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaga mutanosib tarzda tasvirlangan. Badiiy to‘qima qahramonlar ham asar kompozitsiyasida yetakchi o‘ringa ega. Yozuvchi asarda o‘z g‘oyasini ijobiy jihatdan aks ettirishga ko‘proq e’tibor qaratganini obrazlar vositasida ko‘rishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Sa’dixon Mavlavixon o‘g‘li. Tanazzul. 1-kitob. – T,; “O‘qituvchi” 2019-2020.
2. Sa’dixon Mavlavixon o‘g‘li. Tanazzul. 2-kitob. – T,; “O‘qituvchi” 2019-2020.
3. Mamanova, D. (2024). “TANAZZUL” ROMANIDA MUSULMONQUL MINGBOSHI OBRAZINING TAVSIFI. *Interpretation and researches*, (4 (26)).
4. Mamanova, D. (2024). ARTISTIC PARALLELISM IN THE NOVELS “DECLINE” AND “THE SCORPION FROM THE ALTAR”. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, *2*(1), 249-254.
5. Mamanova, D. (2024). THE PROPORTIONALITY OF THE RUSSIAN ATTACK ON THE KOKAN KHANATE TO THE HISTORICAL REALITY IN THE NOVEL OF DECLINE. *Interpretation and researches*.
6. Mirsanova, M. (2021). ERKIN VOHIDOVNING ADABIY TANQIDIY QARASHLARIGA DOIR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(10), 954-960.
7. Mirsanova, M. X. Q. (2023). O ‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH USULLARI VA ADABIY ATAMALAR TAHLILI (Erkin Vohidovning adabiy-estetik qarashlari misolida). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(10), 346-351.

# FITRATNING FITRATI XURSHID DO‘STMUHAMMAD NASRIDA

***Mustafoyeva Muyassar O‘ktam qizi***
*ToshDO‘TAU adabiyotshunoslik*
*nazariyasi 1-kurs magistri*
*+998930945949*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Xurshid Do‘stmuhammadning “Umid guli” hikoyasi tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida asardagi dialoglar, monologlar, peyzajga murojaat qilinib, Fitrat yashagan muhit, davrga nisbatan qahramon munosabati, millat qayg‘usi yo‘lidagi harakatlar tasviri ochib beriladi. Ramziy obrazlar, go‘zal o‘xshatishlar aniq dalillar yordamida asoslanadi. Asarda keltirilgan she’riy parchalarning mazmuni va mohiyati birma-bir izohlanadi. Abdurauf Fitratning adabiy maydondagi o‘rni, o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasi xususida fikr va mulohazalar keltiriladi. Xurshid Do‘stmuhammadning Fitrat obrazini yaratishdagi mahorati va uslubi ochib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Millat qayg‘usi, adib fitrati, ramziylik, o‘xshatish, zulmat, adabiyot maydoni.*

***Abstract:*** *This article analyzes the story “Umid guli” by Khurshid Dostmuhammad. In the course of the analysis, dialogues, monologues, landscape in the work are referred to, the environment in which Fitrat lived, the attitude of the hero to the era, and the image of actions towards the nation’s sorrow are revealed. Symbolic images, beautiful similes are supported by concrete evidence. The content and meaning of the poetic passages presented in the work are explained one by one. Opinions and comments about Abdurauf Fitrat’s place in the literary field, his contribution to Uzbek literature are presented. The skill and style of Khurshid Dostmuhammad in creating the image of Fitrat will be revealed.*

***Key words:*** *The sadness of the nation, the nature of the writer, symbolism, simile, darkness, the field of literature.*

Vaqt, hayot, o‘zgarish va rivojlanishlar orasida adabiyot degan tushuncha paydo bo‘libdiki, muntazam ravishda qarama-qarshiliklar, adabiy kurashlar, ijtimoiy muhit va siyosiy maydondagi ikki toifaga bo‘linish holatlari barcha davrlarda ham mavjud bo‘lgan. Xususan, jadidchilik adabiyotiga nazar tashlar ekanmiz, bugungi ilmiy, adabiy hayotimizning bevosita asoschilari bo‘lgan shaxslarning hayot yo‘llariga murojaat qilmaslikning iloji yo‘q. So‘z, qalam, til, millat, bilim va boshqa ma’naviyatimizning erkinliklarga sabab bo‘lgan ma’rifatparvarlarimiz orasida Fitrat

siymosining o‘rni beqiyos. O‘z davrining chinakam fidokori – yillar chig‘irig‘idan so‘ng, adabiyotimiz maydoniga shoir, dramaturg, adabiyotshunos, nosir sifatida yangidan kirib keldi.

Adabiyotshunos Ibrohim G‘ofurov ta’kidlaganidek: “Fitrat va Fitrat zamondoshlarining millat haqida qayg‘urishlari, alamli va achchiq o‘y surishlari, keskin tanqidlari asr boshlarida qadim Turon osmonida o‘sha par-par ko‘k yulduzday yongan edi. Keyin bu yulduzni ko‘zlarimiz ilg‘amay qo‘ydi. Ko‘zimizni chirt yumib u yo‘q dedik. Ko‘zdan yiroq – ko‘ngildan yiroq bo‘ldi. Ammo ko‘k yulduz Turon osmonini qoplagan bulutlar ortida porlar, chorlar, yo‘ldosh bo‘l deb chaqirardi.” Vaqt o‘tib, chaqiriqlar besamar ketmadi, adib asarlari, ilmiy qarashlari va shaxsiyati yillar davomida olimlarimiz tomonidan o‘rganildi. Jumladan, Ozod Sharafiddinov, Hamidulla Boltaboyev, Begali Qosimov, Uzoq Jo‘raqulov, Ilhom G‘aniyev va boshqa qator adabiyotshunoslarimiz, Abdurauf Fitrat hayoti va ijodini yanada yaqinroq tanishimiz, anglashimiz uchun ko‘maklashdi. Xuddi shunday, munaqqid va olimlarimizgina emas, balki yozuvchi va shoirlarimiz ham adib xususida fikrlar bildirib, o‘z ijod namunalarini kitobxonlarga havola qilishdi. Shunday asarlardan biri Xurshid Do‘stmuhammadning “Umid guli” hikoyasidir.

Asarda Fitratning Moskvaga ketish va o‘sha yerdagi hayotidan qisqa lavha keltirilib, yozuvchi shu orqali adibning chinakam jonkuyar qiyofasini ochishga harakat qiladi. Hikoya boshlang‘ich nuqtasidayoq o‘quvchini o‘ziga yaqinroq torib, chuqurruq o‘ylashga undaydi:

“Haqiqat fikrlar almashinuvining hosilasidir. Fikr fikrga doya.”(X.Do‘stmuhammad. Hikoya. 2021, 83-bet).

Ushbu ikki jumla yozuvchi nutqidan emas, balki Fitratning xayolidan kechayotgan o‘ylardir. Darhaqiqat, jadidning asarlari va mulohazalariga qarar ekanmiz, drama va boshqa ijod namunalarida dialoglar yoki xayoliy monologlar orqali suhbat, murojaat tarzida fikrlar bayoni yozilganligining guvohi bo‘lamiz. “Umid guli”da ham muallif Fitratning fitratini ochib berish uchun ayni shu vositadan keng foydalangan.

Hikoyada adib nutqi orqali o‘sha davr dardini, nafasini his ettiruvchi ko‘plab ramziy jumlalar, she’riy parchalar, peyzaj tasvirlari qo‘llangan. Masalan, yomg‘ir yog‘ib, havoning avzoyi buzilib turgan vaqtda qahramon quyidagicha o‘ziga murojaat qiladi:

“Odam ob-havoning emas, ob-havo odamning izmida bo‘lmog‘i foydaliroq, maroqliroqdir!..” (X.Do‘stmuhammad. Hikoya. 2021, 84-bet).

Ob-havo aslida nima edi? Albatta, to‘g‘ridan to‘g‘ri havoga emas, balki o‘sha muhit, jamiyat ob-havosiga nisbatan bu fikrlar qo‘llangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Siyosiy mafkura to‘laligicha adabiyotni o‘z manfaatlari yo‘lida

bo‘ysundirayotgan bir vaqtda bu muhit “ob-havo”sining insonga bo‘ysunishi imkonsiz edi. Ayni shu masala asarda Fitratga bir rus ayolining holati orqali namoyon bo‘ladi va adib o‘z botinida uni ta’riflar ekan: “Moviy, beg‘ubor nigoh. Inqilobga qadar naqadar go‘zal bo‘lgan bu ko‘zlar” ta’birini qo‘llaydi. “Yangilanish” nafaqat adabiyot maydoniga balki, oddiy insonlar qatlamiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatganligini muallif juda go‘zal tarzda ochib beradi.

Hikoya davomida Fitratning yoniga shogirdi Botuning kelishi va ular orasida avvaliga qizg‘in, so‘ngra tahlikali tus olgan suhbat tasviri keltiriladi. Mezbonning mehmonga o‘z she’rini o‘qib berishi natijasida dialoglar keskin burilish nuqtasiga yetadi:

Kech bo‘ldi, tinib bitdi tovushlar,
so‘ndi butun uylarda chirog‘lar,
tebranmadi yer uzra oyog‘lar,
zulmat yana har yon oqa qoldi.
(X.Do‘stmuhammad. Hikoya. 2021, 94-bet).

She’rda ifodalangan ijtimoiy muhit tasviri bevosita o‘z yoshiga nisbatan ancha qobiliyatli yosh ijodkor sifatida tasvirlangan Botu obraziga ma’qul kelmaydi va she’rdan so‘ng ustoziga nisbatan keskin fikrlar bildirib, shunday kunduzli kunda bunchalar qora she’rning boisini so‘raydi. Shu o‘rinda ham Fitrat “zimistonga burkangan kunduz” o‘xshatishi orqali javob berib, davrdan, muhitdan, noroziligi va o‘z vatanidan aslida ne sababdan uzoqlashganligini his qilgan holda yuqoridagi fikrni aytadi. Adib keyingi voqealar rivojida qachonlardir o‘zi hurmat qilgan, iste’dodiga tan bergan yosh yigitchaning allaqachon, siyosiy mafkura ta’siriga tushib qolganligini anglaydi va bor sabrini tilini tiyishga sarflaydi.

Fitrat shogirdiga nisbatan ortiqcha so‘z so‘zlash besamar va xavfli ekanligini anglab yana o‘z fitratida quyidagicha murojaat qiladi:

“…nazmiy halollik hayotiy halollikdan-da pokizaroq, halolroq hisoblanadur polaponim!..” (X.Do‘stmuhammad. Hikoya. 2021, 97-bet).

Shoir yolg‘on yozdimi, albatta, vijdoni va xalqi oldida bunga javobgardir. Shuningdek, so‘zni qo‘llashda, uni tinglovchiga havola qilishda halol bo‘lmog‘i lozim, toki adolat tarozisida uning yozganlari o‘ziga qarshi bo‘lmasin. Fitrat ham keltirgan fikrlarida ayni shu xulosalarni nazarda tutganligi keyingi o‘rinlarda o‘z isbotini topadi. Botu bilan she’r xususida bahslashar ekan, Fitrat she’rni dard, dardni esa siyosat deb ta’riflaydi. Bundan ko‘rinadiki, olim millat uchun, shu yurtning kelajagi, adabiyot uchun ana shu dard, ana shu siyosat bilan keskin kurashga borgan.

Abdurauf Fitratning intim portretini, dunyoqarashini chizib berishda Xurshid Do‘stmuhammad mahorati alohida ahamiyatga ega. Yozuvchi tarixiy faktlar va adib shaxsiyatini shu qadar uyg‘unlashtirib tasvirlaganki, biror o‘rinda Fitratga yod

bo‘lgan xarakter yoki xususiyat ko‘zga ko‘rinmaydi. Muallif asar qahramonining javobsiz savollar, ayta olmaydigan gaplarini xayolidagi mulohazalari va xatti-harakatidagi, turmushidagi hodisalar bilan bog‘lab tasvirlaydi. Masalan, ko‘p vaqtini yolg‘iz o‘tkazishi, o‘zi yashayotgan xona derazasidan ko‘chaga tikilgancha xayol surishi, ba’zan o‘z qobig‘iga o‘ralgan holda yoppasiga ijodga sho‘ng‘ib ketish holatlarining hech biri shunchaki berilmaydi. Bularning barida muallif o‘z qahramoni fitratidagi to‘fonni, millat qayg‘usini, kelajak uchun fidokorlik hissini ifodalaydi. Shu o‘rinda hikoya nihoyasiga yaqin Xurshid Do‘stmuhammad adib xususida quyidagi fikrlarini keltiradi:

“Tim qora, tund bulut shahar osmonini butkul qoplagan, bosh ko‘tarib qaragan odamni tepadan ezib-yanchib, oyoq ostiga qorishtirib tashlaguday vajohatda bosib tushayotgan edi.” (X.Do‘stmuhammad. Hikoya. 2021, 104-bet).

Darhaqiqat millat boshiga kelgan qora bulut hech kimni ayab o‘tirmay ezib-yanchib tashladi. Na adabiyotga, na uning vakillariga rahm qildi. Yo‘qliklar ichra yo‘qolishdan va yo‘qotishdan qo‘rqib yashagan bir adibning hikoya so‘ngida hayqiriq misol quyidagi she’ri keltiriladi:

Ko‘k yo‘q emish, yer yo‘q emish, quyosh bilan yulduz yo‘q,
oy yo‘q emish, zamon-da yo‘q, kecha bilan kunduz yo‘q.
Yo‘q bir narsa, yo‘q bir kimsa, yo‘q bir sifat, yo‘q bir ism,
yo‘q bir nisbat, yo‘q bir holat, yo‘q bir ma’no, yo‘q bir jism...
(X.Do‘stmuhammad. Hikoya. 2021, 104-bet).

Fitrat iztirobi bekorga emasdi, vaqt o‘tishi bilan barcha fidoyilar yo‘q qilindi, qanchadan qancha sara asarlar yo‘qlik sari ravona bo‘ldi. Bu adabiyotning bor bo‘lishiga katta yo‘qotishlar orqali erishildi.

Adabiyotshunoslik va adabiyotda Abdurauf Fitratning adabiyotshunos, etnograf, o‘qituvchi, publitsist, dramaturg, nosir, shoir sifatida alohida o‘rni bor. Olim barcha adabiyotshunoslikka oid fikrlarini maxsus tadqiqot yoki maqola shaklida yozmagan bo‘lsa-da, adibning bu boradagi ilmiy xulosalari ilmiy risola, majmualarida o‘z aksini topgan. Fitratning har bir yo‘nalishdagi adabiy tadqiqotlari alohida tadqiqot uchun asos bo‘la oladi. Fitrat yirik adabiyotshunos olim sifatida mumtoz ijodkorlar asarlari va ularning manbalari, matniy xususiyati va shu bilan birgalikda badiiy matnlarning poetik tahlili borasida ham tadqiqotlar olib borib mumtoz shoirlar ijodini tahlil qilishda, ularning poetik mahoratini ochib berishda poetika ilmining bilimdoni sifatida ularning badiiyatiga alohida e’tibor bergan, shu bilan birgalikda, badiiyat ilmiga oid ilmiy xulosalarini ham o‘z asarlarida yozib qoldirgan. Rauf Parfi ta’biri bilan aytganda: “Jahon adabiyoti tubsiz va cheksiz ummondir, unga har kim o‘z shaxsiy piyolasi bilan boradi.” Haqiqiy ma’noda Fitrat

ham o‘z qarashlari bilan o‘zbek adabiyoti chashmasini o‘sha ummondan bahramand etib, qamrovi kengayishiga hissasini qo‘sha olgan ijodkor olimdir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, shu vaqtga qadar yaratilgan asarlardan farqli ravishda yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad Fitrat shaxsiyatini, ijodini o‘zgacha bir uslub: adib psixologiyasi, dunyoqarashi orqali kitobxonga yetkazishga harakat qiladi va chin ma’noda buning uddasidan chiqadi. Muallif tomonidan biror o‘rinda ochiqchasiga Fitratning o‘sha tuzumdan noroziligi oshkora aytib o‘tilmaydi, balki, voqealar, intim nutq, tabiat tasvirlari orqali shu qadar mahorat bilan o‘xshatma va ramziyliklar yordamida beriladiki, tahlilda hech qanday orticha talqinga o‘rin qolmaydi. Xurshid Do‘stmuhammad jadid ijodkor obrazini “Umid guli” hikoyasida mohirona gavdalantira olgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Болтабоев Ҳ. Абдурауф Фитрат. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – 144 б

2. Жўрақулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. – Тошкент, 2003. – 124 б.

3. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент, 2006. – 204 б.

4. Ғаниев И. Фитрат, эътиқод, ижод. – Тошкент, 1994. – 246 б.

5. Ғаниев И. Фитратшунослик. – Бухоро, 1995. – 204 б.

6. Хуршид Дўстмуҳаммад. Ҳикоя. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 83-105 б.

7. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/rauf-parfi-fitrat-va-cholpon-sheriyati-haqida.html

## O‘ZBEK ADABIYOTIDA AYOL RUHIYATINING O‘RGANILISHI

*Muxammadiyeva Marjona Shokirovna*

*ToshDO‘TAU 1-kurs magistranti*

*mmuxammadiyeva390@gmail.com*

*+998978420270*

***Annotatsiya.*** *Bugungi kunga qadar o‘zbek adabiyotshunosligida, badiiy asarlardagi qahramonlarning ruhiyatini o‘rganish yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu maqolada aynan ayol ruhiyati mavzusiga qaratilgan bir qancha tadqiqot ishlari va ularning yutuqlari haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, ayol obrazi ruhiyatini o‘rganish ahamiyati yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Badiiy adabiyot, ruhiyat masalasi, ayol ruhiyati, ayol obrazi, psixologik tahlil.*

***Abstract.*** *To date, many studies have been conducted in Uzbek literary studies on the study of the psyche of characters in works of art. This article talks about a number of research works and their achievements, focused on the topic of the female psyche. Also, the importance of studying the psyche of the female character is highlighted.*

***Key words:*** *Fiction, mental issue, female psyche, psychological analysis , female image.*

O‘zbek adabiyotida ruhiyat tasviri tamoyillari yuzasidan talaygina tadqiqotlar qilingan. Masalan, N.Shodiyevning “Abdulla Qahhorning psixologik tahlil mahorati (“Sarob” va “Sinchalak” asarlari misolida)”, M.Abdurahmonovaning “Abdulla Qodiriyning psixologik tahlil mahorati”, A.Xolmurodovning “Odil Yoqubov romanlarida psixologizm”, H.Karimovning “Hozirgi o‘zbek romanlarida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi”, T.Jo‘rayevning “Ong oqimi va tasviriylik (M.M.Do‘st, G‘.Hotamov , O.Otaxon asarlari misolida)”, M.Boboxonovning “Hozirgi o‘zbek qissachiligida psixologizm”, Sh.Botirovaning “Hozirgi o‘zbek romanlarida badiiy psixologizm” , Y.Babaqulovning “XXI asr o‘zbek romanlarida inson ruhiyati talqini” singari dissertatsiya ishlari badiiy adabiyotda ruhiyat tasvirining turli qirralarini ilmiy jihatdan tekshirishga bag‘ishlangan.

Shuningdek, A.Alimuhammedovning “Abdulla Qahhor hikoyalarida psixologik tasvir”, O.Avazovaning “Psixologik tahlil qirralari”, I.Rahimovning “Ruhiy tahlil va ijod”, Omon Muxtorning “Ko‘zgu – ruh pokligi”, Jabbor Eshonqulning “Ruhiy tahlil metodi xususida”, Sh.Doniyorovaning “Davr va qahramon muammosiga doir”, Z.Mahmudovaning “Ijod psixologiyasi haqida” , M.Rustamovaning “Hozirgi hikoyachilikda ruhiyat talqini”, S.Matyoqubovning “Badiiy psixologizm qirralari” ( Alimuhamedov A. Abdulla Qahhor hikoyalarida psixologik tasvir.// Sharq yulduzi.,-1947,-N 2-3.-B. 115-137; Avazova O. Psixologik tahlil qirralari//O‘zbek tili va adabiyoti .-Toshkent,1981.-N 1. -B.61-62 Rahimov I. Ruhiy tahlil va ijod // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.-Toshkent,1993. 16 iyul , Omon Muxtor. Ko‘zgu – ruh pokligi( Ahmad Otaboy bilan suhbat) // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.- Toshkent,1995. 10 fevral.; Jabbor Eshonqul . Ruhiy tahlil metodi xususida // O‘zbek tili va adabiyoti.-Toshkent, 1997. -N2 .B.42-47; ) singari maqolalarida badiiy asarlarda ruhiyat tasvirining ijod amaliyotiga bog‘liq masalalari tekshirilgan bo‘lsa, N.Vladimirovaning “O‘zbek hikoyalarining g‘oya va obrazlari”, P.Shermuhammedovning “Ruhiy dunyo ko‘zgusi”, M.Mamatovning “Milliy psixologik qiyofa va uning xususiyatlari”, H.Umurovning “Davr qahramon

taqdirida”, G.Imomovaning “Ruhiy iztiroblar” (Vladimirova N. O‘zbek hikoyalarining g‘oya va obrazlari. -T.: Fan.1969. -136 b.; Shermuhammedov P. Ruhiy dunyo ko‘zgusi. -T.: Adabiyot va san’at, 1971. -167 b. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi . -T.:Fan. 1983. -148 b. Imomova G. Ruhiy iztiroblar. -T.: Yozuvchi , 1992. -22b.)
tadqiqotlarida ruhiyat xodisasiga xos xususiyatlar va uning badiiy adabiyotdagi ifodasi monografik planda tekshirilgan.

Ayol nozik xilqat vakilasidir. Ayniqsa, uning ruhiy olami sir-sinoatga, jumboqlarga to‘la. Ayol go‘zallik, aql va zakovat timsoli sifatida qadim zamonlardan buyon o‘rganib kelinadi. Alloh taolo Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam orqali ayollarning qadr-qimmatini yuksaklarga ko‘tarib, Qur’oni Karimda ham ular uchun alohida sura nozil qildi. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam Hadisi Shariflarida ayollarga oid barcha masalalar, jumladan, ularning jamiyatdagi o‘rni, oiladagi, farzand tarbiyasidagi roli, ilm tarqatishdagi mas’uliyati kabilar batafsil bayon qilingan. Ilk islom davridan to zamonamiz ulamolarigacha, barchalari o‘zlarining ilmiy asarlari va kitoblarida ayollar uchun alohida boblar ajratishga ahamiyat berganlar.

Tarixda ayollarning davlat siyosatiga, uning boshqaruviga ilm-u fan, madaniyat va ma’rifat sohasiga katta ta’sir ko‘rsatib kelganliklariga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Xususan, Amir Temur davlatida yuqori mavqega ega bo‘lgan rafiqasi Saroymulkxonim xalq orasida e’zozlanib, Bibixonim deb atalgan va sohibqiron yurishlari davrida aynan unga Movarounnahr boshqaruvini ishonch bilan topshirgan. Bibixonim sohibqironning nafaqat rafiqasi, balki ishonchli va yaqin maslahatchisi bo‘lgan. Shohrux Mirzo hukmronligi davrida uning rafiqasi Gavharshodbegim ham Bibixonim kabi yuksak mavqega ega bo‘lgan. Keyinchalik Qo‘qon xoni Umarxonning rafiqasi Nodirabegim fan, madaniyat, san’atga homiylik qilish bilan bir qatorda hukmdorning siyosat yurgizishdagi maslakdoshi va ko‘makchisi bo‘lgan. (Abduljalil Xo‘jam. Mo‘tabar mo‘mina ayollar.-Toshkent: Movarounnahr, 2018.- 168 b.)

Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Zero har bir davrda, insonlarning buyuk shaxs bo‘lib kamol topishida ayolning goh ona, goh rafiqa, goh suyukli farzand sifatidagi mehnati ko‘zga tashlanadi. Shunday ekan, ayol, uning ichki dunyosini, ruhiy olamini o‘rganish va tadqiq qilish bizning oldimizda turgan vazifalardan biridir.

O‘zbek adabiyotida ayol obrazi va ruhiyati masalasi adabiyotshunoslarimiz U.Normatov, M.Qo‘shjonov, I.Sulton, P.Shermuhammedovlarning maqola va kitoblarida ma’lum bir darajada o‘rganilgan. (Qo‘shjonov M, Hayot va mahorat.-

Toshkent: 1962; shu muallif. Qodiriyning tasvirlash san'ati.-Toshkent:1966; Qo'shjonov M., Normatov U. Mahorat sirlari. -Toshkent:1968.)

Bundan tashqari Poshshaxon Kenjayevaning "Hozirgi o'zbek hikoyalarida qahramon ruhiyatini tasvirlash tamoyillari", Yulduz Eshmatovaning "Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini", X.Lutfullayevaning "Yozuvchining estetik ideali va ayollar obrazi" kabi ishlarni ayol ruhiyati bo'yicha qilingan tadqiqotlar doirasiga kirita olamiz.

Poshshaxon Kenjayevaning dissertatsiyasi aynan ayollar ruhiyati mavzusiga bag'ishlanmagan bo'lsa-da, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Salomat Vafo kabi yozuvchilar bilan bir qatorda, ayollar mavzusini qalamga olgan Zulfiya Qurolboy qizi, Dilfuza Qo'ziyeva, Jamila Ergasheva kabi yozuvchilarning bir qator asarlari tahlil ostiga olingan. Tadqiqot ishida xalq turmushidagi yangilanishlar, ayniqsa, o'zbek ayollarining hayot tarzini, shunindek, huquqiy, ma'naviy rutbasini o'zgartirib yuborganligi va bu hol ayollar ma'naviyatida yangicha axloqiy sifatlar paydo bo'lishiga olib kelganligi hikoyalardagi qahramonlar misolida isbot qilib berilgan. Muallifning dissertatsiya ishida inson ruhiyati o'zgarmas hodisa bo'lmay, zamonga muvofiq tarzda o'zgarib borishini turli davrlarda yaratilgan asarlar misolida tahlil ostiga olingan. Tadqiqotchi aynan ayollar ruhiyati tasviri, ularning ichki kechinmalarini Salomat Vafoning "Mehmon xola", "Farishta", Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" va yana bir qator hikoyalar misolida tahlil etgan.

Adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov Abdulla Qahhor ijodiga yuzlanib, uning bir qancha asarlarida aks etgan ayollar obrazini tahlil qiladi. Xususan, "Daxshat", "Bemor", "Anor" hikoyalaridagi ayollar obraziga, ularning ruhiy holatiga alohida to'xtaladi.

X.Lutfullayevaning dissertatsiyasida esa Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanlaridagi ayollar obrazi va yozuvchining estetik ideali masalasi o'rganilgan. (Lutfiddinova X. Yozuvchining estetik ideali va ayollar obrazi: ("O'tkan kunlar" va "Kecha va kunduz"romanlari asosida):fil.fan.nomz. …diss.-Toshkent:1994.-B.141.)

Ayollar ruhiyati mavzusi bo'yicha Yulduz Eshmatovaning "Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini" dissertatsiyasi ham ahamiyatlidir. Tadqiqot ishida ayol obrazining o'rganilish tarixi bilan bir qatorda istiqlol davri o'zbek qissachiligida yaratilgan ayollar obrazini yoritishda yozuvchilarning badiiy mahorati ko'rsatib berilgan.

Shu bilan birga ayollar psixologiyasi va qalb kechinmalarining vositasi bo'lgan turli xil tasviriy vositalar aniqlangan. Bu o'rinda Nazar Eshonqulning "Urush odamlari", "Momo qo'shiq", X.Do'stmuhammadning "Chayongul", "Hijronim mingdir", Sh.Bo'tayevning "Kayvonining mangu makoni", "Shohona

sovg‘a”, “Yulduzlarga eltar yo‘l”, Abduqayum Yo‘ldoshning “Timsohning ko‘z yoshlari”, “O‘n uchinchi uy yoki otchopar”, Sobir O‘narning “Chambilbelning oy dalasi” kabi qissalari tahlil ostiga olingan.

Xulosa qilib aytganda, ayol ruhiyatining badiiy adabiyotdagi ifodasi tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lgan mavzudir. Ayol obrazi nafaqat o‘zbek adabiyotshunosligida, balki dunyo adabiyotshunosligi va san’atshunosligi hamda boshqa ko‘plab sohalarda muhim muammo sifatida o‘rganib kelinadi. Badiiy ijodda ayollar obrazi, uning ruhiy kechinmalari ifodasi hamda badiiy talqinini o‘rganish va ilmiy xulosalar chiqarish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Shu sababli ham adabiyotshunosligimizda ayol ruhiyati mavzusiga oid yuqorida keltirilgan tadqiqot ishlari bilan cheklanib qola olmaymiz. Barcha davrlarda, ayniqsa, hozirgi kunda ayollar mavzusini chuqurroq o‘rganish zarurati mavjud.

Umuman olganda, adabiyotda ayol ruhiyatining namoyon bo‘lishini baholash va o‘rganish tanqidiy tahlil va talqin uchun boy materiallarni taqdim etadi hamda bu orqali biz yanada nozik, rang-barang va adolatli adabiy manzaraga hissa qo‘shamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Abduljalil Xo‘jam. Mo‘tabar mo‘mina ayollar. – Toshkent: Movarounnahr, 2018.
2. Alimuhamedov A. Abdulla Qahhor hikoyalarida psixologik tasvir // Sharq yulduzi, 1947. № 2-3. – B. 115-137.
3. Qo‘shjonov M. Hayot va mahorat. – Toshkent, 1962.
4. Qo‘shjonov M. Qodiriyning tasvirlash san’ati. – Toshkent, 1966.
5. Qo‘shjonov M., Normatov U. Mahorat sirlari. – Toshkent, 1968.
6. Lutfiddinova X. Yozuvchining estetik ideali va ayollar obrazi: (“O‘tkan kunlar” va “Kecha va kunduz”romanlari asosida) fil.fan.nomz.diss. – Toshkent, 1994.
7. Avazova O. Psixologik tahlil qirralari // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1981. № 1. – B. 61-62.
8. Rahimov I. Ruhiy tahlil va ijod // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, 1993. 16-iyul.
9. Omon Muxtor. Ko‘zgu – ruh pokligi( Ahmad Otaboy bilan suhbat) // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, 1995. 10-fevral.
10. Jabbor Eshonqul. Ruhiy tahlil metodi xususida // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1997. № 2. – B. 42-47.
11. Vladimirova N. O‘zbek hikoyalarining g‘oya va obrazlari. – Toshkent: Fan. 1969.
12. Shermuhammedov P. Ruhiy dunyo ko‘zgusi. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1971.

13. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi. –Toshkent: Fan. 1983.
14. Imomova G. Ruhiy iztiroblar. – Toshkent: Yozuvchi, 1992.
15. Jabborova M. “Hayrat ul-abror”da xotin-qizlar obrazi // Til va adabiyot ta’limi. 2024-yil, № 2. 170-174.

## XOLIYOR SAFAROV HIKOYALARIDA ILM-MA’RIFAT MASALASI

***Muxtorova Sevinch G‘aybulla qizi,***
*ToshDO‘TAU, O‘FF, 2-kurs talabasi*
*muxtorovasevinch332@gmail.com*
*Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori, professor Umida Rasulova*

***Annotatsiya****. Ushbu maqolada zamonaviy adabiy jarayonda qalam tebratayotgan yozuvchi Xoliyor Safarov ijodidagi jamiyatga oid muammolarning badiiy talqini va hayotiy haqiqati muayyan hikoyalar asosida tahlilga tortiladi. Shuningdek, yozuvchining badiiy mahorati, ifodadagi o‘ziga xosliklari haqida ham fikr yuritiladi. Maqolada adibning adabiy-estetik evolyutsiyasini kuzatishda hikoyalari obyekt qilib olindi va qiyosiy metoddan foydalanilgan holda tadqiq qilindi.*

***Kalit so‘zlar****: obraz, mohiyat, qiyosiy talqin, ramz, ta’lim*

***Abstract.*** *In this article, the artistic interpretation of the problems related to society and the reality of life in the works of Kholiyor Safarov, who is writer in the modern literary process, will be analyzed on the basis of certain stories. Also, the writer’s artistic skills and peculiarities of exporession are discussed. The writer’s stories are taken as the object of observation of his literary-aesthetic evolution and researched using the comparative method.*

***Keywords****: image, essence, comparative interpretation, symbol, education*

Ilm - inson yo‘lini yoritguvchi mayoq. Mayoqki, kishiga haq yo‘lni ko‘rsatib turadi, ezgulikka undaydi. Darhaqiqat, ilohiy kitob – Qur’oni Karim nozil bo‘lganida Alloh taoloning so‘nggi payg‘ambari Muhammad alayhissalomga qilgan ilk ilohiy xitobi – “Iqro” (“O‘qi”) bo‘lgan: “ (*Ey Muhammad, barcha mavjudotni) yaratgan zot bo‘lmish Parvardigoringiz nomi bilan (boshlab) o‘qing*!” [6] Hadislarda ham “*Ilmni Chinga borib bo‘lsa ham o‘rganingiz”*, - deb bejiz aytilmagan. Darhaqiqat, davrdagi jarayonlarga xolis baho bera olish uchun ham kishi ziyoli bo‘lmog‘i lozim. Zero, ta’lim sohasi har doim ijtimoiy xarakterga ega ekan, ushbu mavzu ijod ahlini-da o‘ylantirishi tabiiy hol. Hozirgi adabiy jarayonda qalam tebratayotgan iste’dodli yozuvchilardan biri Xoliyor Safarov asarlarining kompozitsion sathida ma’rifatli inson tushunchasi va ta’lim konsepsiyasi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ijodkor “Sharq

yulduzi", "Yoshlik" jurnallarida, shuningdek, "O‘zbekiston adabiyoti va san’ati" gazetasida chiqqan hikoyalari orqali o‘ziga xos uslubga ega ekanligini isbotlay oldi. Xususan, ilm-fanga e’tibor, ma’rifat, millatparvarlik tushunchalarini Xoliyor Safarov ijodining asos unsurlaridan biri desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Adib asarlaridagi obrazlarni asar kompozitsiyasida harakatlantirarkan, qahramonlar hayotini ilm yo‘li bilan bog‘lashini, ma’naviy kamolotga erishishini xohlaydi. Ayniqsa, "Bitta dehqon yetadi", "Oqibat" va "Dog‘" nomli hikoyalari fikrimizning yaqqol dalilidir.

Uch hikoya, uch talqin, uch mavzu - ammo ularni bog‘lab turadigan narsa - o‘xshash mohiyat! Ya’ni hikoyalar syujetidagi mushtaraklik undagi obrazlarning ilm-u ma’rifatga aloqador ekanliklarida ko‘rinadi. Xususan, yozuvchining "Bitta dehqon yetadi" nomli hikoyasida Muxtor aka o‘g‘lining ilmi bo‘lishini istaydi, buning uchun ota har qanday mashaqqat-u qiyinchiliklarga dosh beradi: "*Mayli, mehnatdan qo‘llarim qavarib, tovonlarim tilinib ketsin. Sillam qurib, dalada ketmonimga suyanib, o‘tirib qolay, lekin o‘g‘limni o‘qitaman! Menday issiqda yelkasi kuyib, ketmon chopmasin".* [12] U farzandlarining ta’lim olishi uchun boshi mehnatdan chiqmay harakat qiladi. Halol mehnat bilan farzandlarini o‘qitadi. Uning yagona maqsadi: "*Oilamizga bitta dehqon yetadi. Yoshlar dunyoni ko‘rsin".* [12] Muxtor akaning o‘g‘li ham bir marotaba universitetga qabul qilinmagandan so‘ng keyingi yil yagona chora - bilim olish ekanligini tushunib yetadi: "*Qo‘li kitobda, ko‘zi kitobda, o‘y-xayoli kitobda bo‘ldi"*. [12] Ya’nikim, yoshlar eng to‘g‘ri yo‘l - ilm yo‘li ekanligini anglab yetganida hayotida tub burilishlar sodir bo‘ladi. Darhaqiqat, Abdulla Avloniy ilm haqida fikr bildirayotganda shunday degan edi: *"Bizlarni jaholat, qorong‘ulikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzug‘ ishlardan qaytarur".* Shuningdek, yozuvchining "Oqibat" nomli hikoyasida ham garchi g‘oyaviy konsepsiya boshqa mavzuga qaratilgan bo‘lsa-da, hikoya syujetida ta’lim mavzusi o‘z o‘rniga ega. Hikoyada o‘g‘lining o‘qishini nomusday muqaddas sanagan ota-ona farzandini o‘qitadi. Ota nogiron bo‘lsa-da, farzandini o‘qitish uchun bor kuchini sarflaydi. O‘zining ushalmas orzusini o‘g‘lida ko‘rmoq istaydi. Hikoyada ona tilidan aytilgan ushbu jumlalarda armonli hislar jamlangan: "*Onasi o‘g‘lini bag‘riga bosib: - G‘olibjon, otangning armonlari haqqi, sening va ukangning o‘qishi uchun bir umr uyda tomorqada ishlab, mol qarashga ham roziman".* [13] G‘olib onasining bu gaplarini yodidan chiqarmas, xotirasida bayroq qilib ko‘tarib yurardi. U neki bir ish qilmasin, ortida otasining armonli nigohi, onasining mahzun chehrasi boqib turganini his etar, umri mehnat-u zahmatda o‘tayotgan oilasi uchun yorug‘lik bo‘lishga intilardi. E’tiborlisi shuki, yuqorida tilga olganimiz har ikki hikoyada ham farzandining ta’limi uchun jon kuydirgan fidoyi otalar obrazi bor. Ular jismoniy

mehnat bilan qiynalib kun kechirganliklari bois farzandlarining aqliy mehnat ortidan hayot kechirishlarini xohlashadi. Armon bo‘lgan orzularining ijobatini farzandlarida ko‘rmoq istashadi. Ijodkor mazkur hikoylarida yoshlar va ta’limni yonma-yon qo‘yish orqali o‘qirmanni ham o‘zi haqida o‘ylab ko‘rishga undaydi. Zero, ilmli inson hech qachon xor bo‘lmaydi, u nafaqat o‘zi, balki butun jamiyat uchun muhim shaxsga aylanadi.

Yozuvchining “Dog‘” nomli hikoyasi esa o‘zining dolzarbligi bilan diqqatga sazovor. Barcha qulayliklar mavjud bo‘lgan hozirgiday zamonda buyuk ajdodlarga munosib bo‘la olmayotgan avlodlar haqidagi o‘ylar adibni ushbu hikoyani yozishga undagan bo‘lsa, ajab emas. Hikoya sarlavhasida va syujetda ramziy belgi qilib tanlangan dog‘ - noloyiqlik belgisi. Asarda o‘z ajdodlarini yetarlicha o‘rganmay, o‘zi-da ilmda biror kashfiyot qila olmay, avlodlariga aytar so‘zi va qoldirar merosi yo‘q jamiyat a’zolari tanqidga olingan. Darhaqiqat, dog‘ ishora detali mehmon obraz Muhammad Turkiyni ham chetlab o‘tmaydi. Asarda Muhammad Turkiy dastlab kelganida peshonasida dog‘ yo‘q ekanligi, ammo buyuk murabbiylar bilan suhbatdan so‘ng uning ham manglayida dog‘ paydo bo‘lishi diqqatga sazovordir. Boisi u ham Turkiyada ilm-ziyo tarqatsa-da, lekin ularda ham zamonasini o‘zgartirib yubora oladigan xususiyat yo‘q. Bunga esa Mirzo Ulug‘bek bilan bo‘lgan xayolan suhbatdan so‘ng to‘laqonli amin bo‘ladi va ich-ichidan mas’uliyatni his qiladi. Darhaqiqat, ko‘plab asarlarda o‘tmish allomalariga murojaat qilingan. Jumladan, jadid adabiyoti namoyondasi Fitrat “Yurt qayg‘usi” (Temur oldinda) nomli sochmasida Amir Temur bilan xayolan suhbat qiladi: *“Bag‘rim yoniq, yuzim qora, ko‘nglim siniq, bo‘ynim bukuk. Sening ziyoratingga keldim, sultonim!”* [10; 3] Fitratdagi turk xalqi uchun, turklik sharafi uchun yetarlicha harakat qila olmayotganlik hissi Temur oldida aybdorlik tuyg‘usini uyg‘otgan: *“Bilaman, shu tobda sening u yuksak va ulug‘ ruhoniyating men kabi tuban ruhli va himmatsiz bir bolasining shu holig‘a g‘azabli kulub turubdir. Bilaman, shu chog‘da sening to‘lqunli dengizlarg‘a o‘xshag‘an yuraging men kabi yuraksiz bir o‘g‘lingning shu ko‘rinishindan nafrat qiladir”.* [10; 3] Asarlarda buyuk bobokalonlar bilan xayolan suhbat va ularga qaratilgan monologlarning keltirishi ajdodlar boshlab bergan an'anani davom ettirolmaganlik tuyg‘usini ifodalaydi. Darhaqiqat, atoqli o‘zbek shoiri Abdulla Oripov ham “Aytishuv” nomli she’rida ajdodlar va avlodlarning suhbatini keltirish orqali ular orasidagi tafovutni ko‘rsatib bergan edi:

*Ajdodlar:*

*- Samarqand-u Buxoroni bizlar qurganmiz,*

*Avlodlar:*

*- Bizlar esa siz qurganni borib ko‘rganmiz...*

*Ajdodlar:*

*- Til yaratdik, yozuv tuzdik go‘zal hamda boy*
*Avlodlar:*
*- Biz ularga muzeylardan topib qo‘ydik joy. [11]*

Darhaqiqat, Muhammad Turkiy deya nomlangan obrazning ismidan ham nozik ma’noni uqib olish mumkin. Musulmonlar orasida Muhammad ummati, islom ummati degan ibora bor. Bizning ajdodlarimiz Muhammad payg‘ambarimizga munosib bo‘lishgan va iymon-e’tiqod ila ilm-ma’rifatni egallashga harakat qilishgan. Zero, tarixga nazar solsak, bobokalonlarimizning diniy va dunyoviy ilmlarni baravar o‘rganishganiga guvoh bo‘lamiz. Shu bilan birgalikda, allomalar bilan suhbatdan so‘ng Professorning yuzi qorayib, ikki qoshi orasidagi dog‘ kattalashib ketgan edi. Dog‘ kattalashishi burchning kattalashishidir. Asar oxiriroqlarida shunday jumla bor: “*Borliqqa qorong‘ulik cho‘kkan, yaqin-yaqindan shom namozi azoni eshitilar edi”.* [1] Bu yerda shom azoni nimadan darak? Qorong‘ulik tushishi xavotir tuyg‘usini ifodalamayaptimikan?! Ushbu o‘rinda yozuvchining o‘zbek adabiyotidagi shoh asar – “O‘tkan kunlar”dan ruhlanganini ko‘rishimiz mumkin. Zero, ilk romanning dastlabki jumlalari shom vaqti tasviri bilan boshlanishi barchaga ma’lum. Muallif aynan bunday tasvirni munosib va o‘rinli holda qo‘llay olgani tahsinga sazovor.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, iste’dodli yozuvchi Xoliyor Safarov ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatiga yetishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Ilm-u ma’rifatda olam ahli uchun o‘rnak va namuna bo‘lib kelayotgan bobokalonlarimizni bizga ibrat qilib ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Safarov X. Dog‘. “Yoshlik” jurnali. 1-son, 2023.
2. Qozoqboy Yo‘ldosh. Yoniq so‘z. – T.: Yangi asr avlodi, 2006
3. Rasulova U. Hozirgi adabiy jarayon. – T.: Akademnashr, 2023.
4. Rasulova U. The relevance of rhythm in prose fiction. Journal of Modern Educational Achievements, 2024.
5. Rasulova U. Poetic Research in Modern Story-Writing, 2024.
6. Қуръони азим мухтасар тафсири. Алоуддин Мансур. - Т.: Мунир, 2022.
7. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. - Т.: Муҳаррир, 2011.
8. Ҳамраев К. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси. – Тошкент, 2018.
9. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
10. Абдурауф Фитрат. Шеърлар. www.ziyouz.com kutubxonasi
11. t.me/ Abdulla_Oripov_she’rlari

12.https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/xoliyor-safarov-1983/xoliyor-safarov-bitta-dehqon-yetadi-hikoya
13.https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/xoliyor-safarov-1983/xoliyor-safarov-oqibat-hikoya

## MUMTOZ VA ZAMONAVIY ADABIYOT O‘RTASIDAGI “KO‘PRIK”. CHO‘LPON MISOLIDA

***Nosirov Jaloliddin Muhiddin o‘g‘li***

*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 2-kurs*

*nosirovjaloliddin74@gmail.com +998 93763 08 04*

**Ilmiy rahbar:** fil.fan.dok. (DSC), dotsent **Manzar Abdulxayrov**

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada mumtoz adabiyotdan zamonaviy adabiyotga o‘tishdagi asosiy ijodkorlardan biri bo‘lgan Cho‘lpon va uning shu jihatga aloqador ijodiga qisman nazar tashlanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Cho‘lpon, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyot, yangi mavzu, o‘z va ko‘chma ma’no, ramziylik.*

***Annotation:*** *In this article, Cholpon, one of the main creators in the transition from classical literature to modern literature, and his works related to this spect will be partially reviewed.*

***Keywords:*** *Cholpon, classical literature, modern literature, new theme, own and figurative meaning, symbolism.*

Hammaga ma’lumki, bu dunyoda hech bir narsa abadiy emas. Har bir inson ushbu aqida bo‘yicha yashaydi va bunga amal qiladi. Xuddi shu kabi aqida adabiyot sohasiga ham tegishlidir. Adabiyot sohasida ham ma’lum bir jarayon, ma’lum bir hodisa abadiymasdir (ammo u bergan hosil, yodgorlik abadiydir).

Ushbu aqidani biz to‘g‘ri deb qabul qilarkanmiz, mumtoz adabiyotning zamonaviy adabiyotga o‘rnini bo‘shatib berishini ham shu hodisa sifatida ololamiz. Bu fikrni isbotlash uchun jadid adabiyotining eng yosh va zabardast vakillaridan bo‘lgan Cho‘lpon ijodiga nazar tashlaymiz.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Cho‘lpon boshqa jadidlarga nisbatan yosh bo‘yicha ancha kichik edi, shu jihatdan ham u zamonaviy adabiyotga boshqa jadidlardan ko‘ra yaqin turadi. Mumtoz adabiyotdan zamonaviy adabiyotga o‘tish yo‘lidagi yo‘lboshchilardan ekanligi bilinadi. Endi shu yerda bir savol tug‘iladi: “Aslida mumtoz adabiyotdan zamonaviy adabiyotga o‘tish nechog‘lik zarur edi?

Nechog‘lik kerak edi?” Bu savolga javobni Cho‘lpon o‘zining “Ulug‘ hindiy” nomli maqolasida berib o‘tgan:

*“Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o‘qiymen: bir xil, bir xil, bir xil!*

*Ko‘ngil boshqa narsa – yangilik qidiradir…”* (“Adabiyot nadir”. T., “Cho‘lpon” nashriyoti, 1994, 57–58-betlar)

Cho‘lponning ushbu javobi o‘quvchi uchun yetarlicha javob bo‘lmay, mujmal javob bo‘lishi mumkin. “Cho‘lpon, nahotki, bunday ulug‘ ijodkorlarni mensimagan bo‘lsa?”, “Cho‘lpondek yetuk ijodkor, nahotki, ularning asarlarini, ularning aytmoqchi bo‘lgan so‘zlarini tushunmayotgan bo‘lsa?” degan haqli savol o‘quvchida tug‘ilishi mumkin. Biroq Cho‘lpon bunday narsalarni o‘ylamagan va o‘ylamasligi ham aniq edi. Uning bu jumlalarni aytishidan maqsadi boshqa. Uning bunaqangi fikrlarga bormaganligining isbotini Manzar Abdulxayrov o‘zining “An’analarga esh, yangilanishga tashna” nomli maqolasida Oybekning Cho‘lpon to‘g‘risida aytib o‘tgan fikrlari bilan ochiqlaydi:

*“Simvolist shoir (Cho‘lpon nazarda tutilgan – M.A.) Navoiyni eng yuqori darajaga qo‘yib, uning butun metodlarini o‘rganishga qistab, shuning bilan birga bizning yosh yozuvchilarimizga simvolistikani o‘rgatib keldilar. Navoiy yo‘lida suyagi qotg‘on Cho‘lponni tekshirib, shuning uchun undagi uslub va shaklini o‘rganishga kirishadilar”.* (“An’analarga esh, yangilanishga tashna”. T., “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2013, 40-son, 3-bet)

Bunday fikrlardan keyin Cho‘lponni Navoiyga, mumtoz adabiyotga qarshi fikrlaydigan, mumtoz adabiyotdagi ijodiyotlarga qarshi chiqadigan ijodkor deb bilish, albatta, noto‘g‘ridir. Xo‘sh, unda Cho‘lpon nega unda bunaqangi fikr bildirgan?

Darhaqiqat, shoir ushbu fikrlarni bildirayotgan onda mumtoz adabiyotdan qoniqmayotganligini aytib o‘tadi. Ammo bu o‘rindagi qoniqmaslikning sababi boshqa: *“Gap shundaki, mumtoz she’riyatimizdagi ritmik imkoniyatlar, qat’iy she’riy shakl tizimlari asr boshida qaynab tosha boshlagan hayot shiddatiga ko‘pda muvofiq kelmay qoldi. Har bir davr she’riyati poetikasi, ritmik rang-barangligini o‘sha davr belgilaydi. XX asr boshidagi o‘zbek she’riyatiga davr shiddatiga mos ohanglar, shiddatli fikr va tuyg‘ular ifodasiga mos shakllar zarur edi”.* (“Jadidlar: Abdulhamid Cho‘lpon”. T., “Yoshlar nashriyot uyi”, 2022, 75–76-betlar)

Bu fikrlar esa haqiqatda to‘g‘ri va fikrimizning yaqqol isbotidir. Mumtoz adabiyot, ko‘pincha, o‘zining ma’lum qonun va qoidalari asosida vujudga keladi. Bu

esa ijodkordan nafaqat iste'dodni talab qiladi, balki undan ma'lum qoida-yu qonunlardan xabardor bo‘lishlikni, agar yozganlari bu kabi mezonlarga javob bermasa, uni yetuk she'rlar safiga qabul qilish imkonsizligini talab qilar edi. Bu esa ijodkor uchun bir vazifa ustiga yana bir vazifa bo‘lar edi. Bu kabi qiyinchiliklar, ayniqsa, bugungi globallashgan zamonda o‘z so‘zini aytishi, o‘z hosilini berishi mushkul ish bo‘lardi. Buning uchun mumtoz adabiyotdan butunlay chekinmagan holda, undan "ozuqa" olib turadigan yangi adabiy oqimni vujudga keltirish zarur bo‘lgan. Bu oqim shunchalar ravon va sodda bo‘lsinki, uni o‘qigan har bir o‘quvchi she'rni tezda anglasin, o‘quvchiga qiyinchilik tug‘dirmasin va ushbu jihatlar bilan ham mumtoz adabiyotdan farq qilib tursin. Bu kabi qarashlar zamonaviy adabiyotning vujudga kelishi uchun tashlangan ilk qadam edi.

Yuqoridagi fikrlar isbotida aytish mumkinki, *"U (Cho‘lpon – B.Q.) an'anaviy mumtoz she'riyatimizni isloh qildi. Undagi sirlilik, qo‘lyetmaslik, tantanavorlik, nuktapardozlik o‘rniga samimiy, tabiiy, jonli ifoda usulini olib kirdi. Ma'shuqa tavsifi va hol sharhini yangi asoslarga ko‘chirdi. Voqelik uning ham asosiy tasvir obyekti, ham uni baholaydigan mezon edi. She'riyat hech qachon kundalik xalq hayotiga bu qadar yaqin kirib bormagan edi".* ("Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti". T., "Ma'naviyat" nashriyoti, 2004, 272-bet)

Darhaqiqat, sovet mustamlakasi bizning yurtga "qul"dek muomala qilayotgan bir vaziyatda bizning shoirlarimiz mumtoz adabiyotdagi kabi yor-u sultonlarini maqtab she'r-u g‘azallar bitishi mumkin emas edi. Cho‘lponning xulosasiga tayanib aytadigan bo‘lsak, bu davr shoirlari o‘z oldiga Vatanni ozod qilish, xalqni uyg‘otish, mustamlakani yo‘q qilib, muxtoriyat tuzish kabi mavzularni kuylashni maqad qilishi kerak edi.

Xuddi shunday yo‘lni Cho‘lpon tanlar ekan, ammo mumtoz adabiyotdan butunlay voz kechgani yo‘q. Mumtoz adabiyot bilan zamonaviy adabiyotni mushtarak qilgan holda o‘z orzularini ro‘yobga chiqardi. Bunga sabab yuqorida eslanganidek, uning mumtoz adabiyot vakillari va ularning ijodi bilan bevosita yaxshi tanish bo‘lganligi, aruz bo‘yicha yetuk bilimga egaligi edi. Bunga misol tariqasida uning "Qalandar ishqi" she'riga murojaat etsak. Cho‘lponning aruzda yozgan she'rlari ichida eng mashhuri sanalmish bu she'r aruzning hazaj bahrida, hazaji musammani solimda yozilgan. Bu shuni anglatadiki, Cho‘lpon mumtoz adabiyotdan yiroqlashgan emas, bil'aks uning bir qismida bo‘lgan.

She'r mumtoz adabiyot qoidalari asosida yozilgan bo‘lsa-da, uning ma'nolarida to‘la-to‘kis zamonaviy adabiyotning nafasi ufurib turardi. Negaki, bu she'rdagi muhabbat ma'nosi mumtoz adabiyot ifodalaydigan ma'no emas.

Sarlavhadagi “ishq” so‘zi ramziy ma’noda va bu ishq XX asr she’riyatiga xos – Vatan ishqi.

*Karashma dengizin ko‘rdim, na nozlik to‘lqini bordir,*

*Halokat bo‘lg‘usin bilmay qulochni katta otdim-ku.*

Ushbu she’r 1920-yilda yozilgan va bu she’rning yozilishiga sabab – Turkiston muxtoriyati va buning ayanchli oqibatlari. Oradan ikki yil vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, Cho‘lpondek chinakam shoir bu hodisalarni unutolmaydi. Shoir “*karashma dengizi”ni, ya’ni milliy istiqlolni, mustaqillikni ko‘radi-yu, ammo undagi falokatlarni, “dolg‘ali to‘lqinlarni” bu darajada ko‘p deb o‘ylamagandi, ularni hammasini ko‘rmagandi, biroq bu dengizda ular bisyor edi, unga tushganda esa halokat topish hech gap emas edi.* Shoir ikki yil oldingi shu kabi holatlarni eslab, qog‘ozga tushirarkan:

*Muhabbat osmonida go‘zal Cho‘lpon edim, do‘stlar,*

*Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku.*

deya aytib o‘tadi.

Muhabbat osmonidagi yulduz quyosh chiqishi bilan so‘nishga majbur bo‘lishi ham mustaqillika bo‘lgan harakatlarning bostirilishi, yo‘q qilinishiga o‘xshatmadir.

1919-yilning fevral oyida yozilgan “Go‘zal” she’riga to‘xtalib o‘tsak. She’r barmoq vaznida yozilgan. Unda “buni mumtoz adabiyotga qanday aloqasi bor?” degan savol uyg‘onishi mumkin. Bilamizki, mumtoz adabiyotda “yor” obrazi juda ko‘p o‘rinda ko‘chma ma’noda qo‘llangan, kam o‘rinlarda o‘z ma’nosida uchratish mumkin, biroq shunda ham qaysidir jihatlari unda ko‘chma ma’noni ifodalab turadi. Mumtoz adabiyotda “yor” timsoli ifodalaydigan ko‘chma ma’no – Allohga nisbatan qo‘llangan ma’nodir, ya’ni yorni sifatlash, maqtash, uni o‘zidan baland ko‘rib, o‘zini yerdan ham xokisor ko‘rishi – bularning barchasi Allohni ulug‘lashning bir ko‘rinishidir.

Cho‘lpon bu kabi qarashlarga, qaysidir ma’noda, chek qo‘yadi. Negaki, davr va adabiyotning “yangilanish”i shuni taqozo etardi. Endi Cho‘lpon “yor” timsoli orqali yurtni, uning ozodligi-yu mustaqilligini tarannum etadi. Bu qarashlar esa “Go‘zal she’rida mujassam:

*Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib,*

*Eng yorug‘ yulduzdan seni so‘raymen,*

*Ul yulduz uyalib, boshini bukub,*

*Aytadir: men uni tushda ko‘ramen.*

*Tushimda ko‘ramen – shunchalar go‘zal,*

*Bizdan-da go‘zaldir, oydan-da go‘zal!*

She’rda ifodalangan “qorong‘u kecha”ni sho‘rolar davri deb qarasak to‘g‘ri bo‘ladi, ana shunday qorong‘u kechada shoir ko‘kda ko‘ringan, o‘zidan ancha olisda bo‘lgan yulduzdan “go‘zal”ni, ya’ni ozodlik, mustaqillikni so‘raydi. U yulduz esa ozodlikni tushida ko‘rgan edi (ehtimolki, shoirdek). Ammo u tushda ham shunchalar go‘zal-ki, hattoki, yulduzlardan ham, shoirlar she’rlarida go‘zallikni, chiroyni singdirib yozuvchi oydan ham go‘zaldir. Tushda shunchalar go‘zal bo‘lgan “go‘zal”ni o‘ngdagi chiroyini tasavvur etish shoir uchun oson emas edi.

Bu kabi “yor” timsolini ko‘chma ma’noda qo‘llash faqatgina “Go‘zal” she’rida ifodalanmay, “Aldanish”, “Men ham sevaman” kabi bir qator she’rlarida ifodalangan.

“Go‘zal” she’rining yana bir jihati – Cho‘lpon bu she’rni yozgan davrida “Chig‘atoy gurungi” tashkilotida ancha faol edi. Bu tashkilot she’riyatimizdagi tilni arabiy-forsiy so‘zlardan imkon qadar tozalash, u vaqtda urf bo‘lgan tojik-tatar tillaridan saqlash edi (bu jihatlar “Go‘zal” she’rida juda mos ravishda qo‘llanilgan). Mumtoz she’riyatimizning asosiy tayanchlaridan biri she’rlarda arabiy, forsiy, ayrim o‘rinlarda tojikcha so‘zlardan keng foydalanish, zullisonaynlikni keng yoyish edi. Cho‘lpon bu jihatdan ham mumtoz adabiyot bilan asta-sekin “xayrlashib”, zamonaviy adabiyot bilan “salomlasha boshlaydi”.

Cho‘lponning zamonaviy adabiyotga qo‘shgan ulkan hissalaridan biri – barmoq vaznida she’r yozishni boshlab bergani, uni yuksak cho‘qqilarga olib chiqqanidir. Ushbu vaznda o‘lmas ijod namunalarini yaratganligidir. Bu xususda jadid xamrohlaridan biri Abdurauf Fitrat ham barmoq vazni haqida yoza turib, Cho‘lponga tegishli quyidagi fikrlarni ham eslab o‘tadi:

*“Barmoq vaznida she’rni boshlab Cho‘lpon yozdimi yo men yozdimmi, esimda yo‘q. Faqat shunisi aniqki, “barmoq” vaznini nazariy jihatdan yoqlab chiqqan birinchi o‘zbek millatchisi men edim”.* (“Tanlangan asarlar, V jild”. T., “Ma’naviyat” nashriyoti, 2010, 227-bet)

A.Fitratning Cho‘lponga bergan bu ta’rifi juda chuqurdir, zero, Fitrat va Cho‘lpon birgalikda yana bir “yangilik”ning paydo bo‘lib, taraqqiy topishida o‘zlarining beqiyos hissalarini qo‘shdi. Fitrat barmoq vaznining afzalliklarini nazariy jihatdan asoslagan bo‘lsa, Cho‘lpon o‘zining bu vaznda yaratgan she’rlari bilan Fitratning qarashlarini isbotlab berdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Cho‘lpon va u kabi bir qator ijodkorlar mumtoz va zamonaviy adabiyot o‘rtasidagi mustahkam “ko‘prik” bo‘la oldi va bugungi kun she’riyatining poydevorini, tamal toshini qo‘ydi. Cho‘lpon va u kabi ijodkorlarning izdoshi sifatida bu “ko‘prik”ni mustahkam bo‘lishida oxirgi qadamlarni qo‘ygan G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon kabi ijodkorlarga ustozlik vazifasini o‘tab berdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulhamid Cho‘lpon. (2021). Binafsha. Toshkent: “Adabiyot” nashriyoti.

2. Quronov Dilmurod. (2022). Jadidlar: Abdulhamid Cho‘lpon. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi.

3. Abdurauf Fitrat. (2010). Tanlangan asarlar, V jild. Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti.

4. Cho‘lpon. (1994). Adabiyot nadir. Toshkent: “Cho‘lpon” nashriyoti.

5. Abdulxayrov Manzar. (2013). An’analarga esh, yangilanishga tashna. Toshkent: “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 40-son.

6. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug‘bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Ahmedov. (2004). Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti.

## RAUF PARFI SONETLARIDA IJTIMOIY RUH VA NOVATORLIK

*Nurmamatova Pokiza*
*Ona tili va adabiyot ta’limi 4-kurs*
*nurmamatova123@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada XX asr o‘zbek she’riyati yorqin namoyandasi Rauf Parfi sonetlarida ijtimoiylashuv masalasi, an’anaviy ruh va novatorlikning integratsiyalashuvi va ular o‘rtasidagi aloqadorlik masalalari tahlilga tortiladi. Shuningdek, shoirning “Hamlet”, “Bayronning so‘nggi safari”, “Alaniya” va “Vatan” turkum sonetlari o‘rganiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Ijtimoiy lirika, an’ana, poetik ifoda, yangilik prinsiplari, illuziya, hislar stixiyasi.*

***Abstract.*** *In this article, the issue of socialization, the integration of traditional spirit and innovation and the relationship between them are analyzed in the sonnets of Rauf Parfi, a bright representative of Uzbek poetry of the 20th century.*

*In the article, R. Parfi's sonnets "Hamlet", "Byron's last journey", "Alania" and "Homeland" series are analyzed.*

***Key words:*** *Social lyrics, tradition, poetic expression, principles of innovation, illusion, spontaneity of feelings.*

Kirish. XX asr o‘zbek adabiyoti turli dovonlarni bosib o‘tdi, turli xil janrlarning kirib kelishi, turli shakldagi ijod namunalariga murojaat ushbu davrga xos tipik xususiyat desak xato bo‘lmaydi. An’anaviylikdan tashqari turli *rondo, romdel, tanka, xokku, sonet* janrlarida yaratilgan asarlar sohir ijodkorlarning repertuarida chuqur iz qoldirdi. Xususan, Rauf Parfi ijodida sonet janri bir qancha yo‘llarni bosib o‘tish davomida sayqallanib, muayyan milliy va an’anaviy qoliplarga moslashib bordi. Aynan sonet janrining Rauf Parfi ijodida yuqori darajada istifoda etilishiga uning qanday maqsadni ko‘zlagan holatda yaratilishi ham ta’sirini o‘tkazadi. Qozon olimasi Janna Tolisboyeva fikricha, sonet janrining G‘arbda Uyg‘onish davriga kelib, rus adabiyotida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida, Qozog‘iston adabiyotida esa XX asr adog‘ida ommalashishi aslo tasodifiy emas. O‘zining “intellektuallik” va “dramatiklik” xususiyatlari bilan sonet janrfi jamiyatda e’tiqod kulti va mavjudlik avtomatizmiga tobelikni rad etib, ongga murojaat qilina boshlagan vaqtda qayta jonlanadi[125]. Sonet janrining qat’iy tematik qoliplarini ruhiy kuylariga chulg‘ay olish, nafaqat bir qalb balki bashariyat oldidagi inkor etib bo‘lmas hodisalarni lirik ohanglarga kirita olish o‘zbek Rauf Parfisining yuksak shoirlik vijdoni edi aslida.

Sohir ijodkorning bir qancha turkum sonetlari aynan insoniyat hayotidagi dolzarb masalalarning in’ikosi sifatida yangraydi. Xususan, turkum sonetlar atamasiga to‘xtaladigan bo‘lsak ushbu tizimlar o‘n ikki qatorli bir nechta sonetning umumlashtirilgan ko‘rinishidir. Bir so‘z bilan aytganda Rauf Parfi o‘zbek she’riyatida sonetlarni mavzu e’tibori bilan guruhlash- sonet sikllari(Sonet turkumlari) yaratishni boshlab bergan shoirdir.[126] Bir qancha turkum sonetlari ma’lum shaxsga qaratilgan mazmunda yaratilgan bo‘lsa-da, ularda butkul boshqa mazmunni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “Hamlet” turkum sonetini olaylik, birinchi bandida yuqorida aytib o‘tilgan bashariyat qoshidagi asriy qismat bo‘lmish sevgi va uning jafosi haqida, nafaqat Hamlet balki bashar zoti uchun og‘riqli nuqtani qalamga ola bilgan. Shuningdek, keyingi bandlarda vijdoniy tuyg‘ular, inson tafakkuri va iymoni davr oldidagi ko‘rinmas silsilalarga duch kelishini oddiy qahramon Hamlet timsolida ochib bergan. Unga nisbatan:

Buyuk jinoyatchi, buyuk qahramon,

[125] Толысбаева Ж.Ж. Сонет в поэзии Казахстана конца XX –начала XXI вв. – Актау, 2008. – С. 5–6.

[126] Quronov D. Rauf Parfi sonetlari haqida. // Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. –Toshkent: 2023. – B. 27–28.

Buyuk asrimizda koʻrsang-chi buni.
Yetim qilmas meni muqaddas iymon
Sobit orzularim aytar hukmini[127]

misralari ham ijodkorning Hamlet va davr ruhini mahorat bilan uygʻunlashtira olishidan dalolat beradi. Bir ijodkor ta'biri bilan aytganda, "Sonetda davr yashaydi, toʻgʻirogʻi davrlar". Iste'dodli ijodkor nafaqat davrlar, balki e'tiqodi va turmushi butkul oʻzga boʻlgan qahramon orqali sonet janrining butkul yangi assotsiativ tabiatini kashf qildi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Shu oʻrinda "Muhabbat" turkum sonetida ham zamon va makon tanlamaydigan sevgi dardi, uning poyonsiz ogʻriqlari va muhabbat yoʻlida berilguvchi qurbonliklar lirik qahramon tilidan hassos til va goʻzal tashbexlar ila bayon qilinadi.

Men kimni suyibman… Yolvorib toldim –
Oʻzgarar tabiat, dunyo oʻzgarar.
Balki men oʻzga baxt qoʻlida qoldim,
Lekin olib ketdi seni oʻzgalar[128]

satrlari orqali lirik qahramonning baxtsizlikka yuz tutgan muhabbati, ezgin ruhiy holatlari qalamga olingan, asar oxirida uning qalbida umid uygʻonadi, uning botinida buyuk muhabbat insonni yaratguvchi zot- Alloh uchun degan gʻoya shakllanadi. Shuningdek, "Alaniya" turkum sonetida ham qadimiy Alaniya oʻlkasi bergan talofatlar timsolida insoniyat, maslaklar ham gohida ojiz boʻlib qoladigan sinov haqida soʻz boradi. Ijodkor xronotipni bir necha asr oldin boʻlib oʻtgan voqealardan olsa-da, uning mazmunida barcha zamonlarda insonlar oʻrtasidagi mojarolar qanday oqibatlarga olib kelishi quyuq boʻyoqlarda oʻz aksini topgan. Asarda bir qancha diniy atamalar "Iymon, Xoch, Charvat, Xurmuz, Axraman" bilan bir qatorda toponimik atamalar "Alaniya, Baslox" kabilardan asosiy mohiyatni ochib berishda mohirona foydalanilgan. Koinot gultoji deb ulugʻlanmish inson obraziga murojaat har bir boʻlimda aks etib turishi, shuningdek Shekspir sonetlaridagi singari sifatlashlardan ayrim oʻrinlarda mahorat bilan foydalanishi, xususan,

Yetim Alaniya, yigʻlama Baslox,
Toshlarga yukunma, oʻtlarga yukun[129]

misralarida ham koʻrinadi.

Gʻarb sonetshunosligi badiiy tajribalarini an'anaviylik tashkil etib, ijtimoiy masalalarga urgʻu berilsa, Sharqda barcha muammolar qamrab olinadi. Rauf Parfi esa oʻz ta'biri bilan aytganda "she'r-shoirning ijtimoiy vijdoni" sifatida koʻrilishi,

[127] Rauf Parfi. Turkiston ruhi. Saylanma: She'rlar, tarjimalar. –Toshkent: Sharq, 2003. – B. 84
[128] Rauf Parfi. Turkiston ruhi. Saylanma: She'rlar, tarjimalar. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 176
[129] Rauf Parfi. Tanlangan asarlar. – Toshkent, Adabiyot, 2023. – B. 326

faqatgina insonning ichki kechinmalari, hissiyotlari ta’sirida qolib ketmasligi u jamiyatga, millatga tayanch bo‘la oladigan, uning orzu-umidlari va dardlarini kuylay oladigan muqaddas vosita sifatida qaragan. Darhaqiqat, “Adabiyot hech qachon birovning hatto Lev Tolstoyning ham shaxsiy ikir-chikirlaridan iborat bo‘lgan emas”(Maksim Gorkiy), shundan kelib chiqqan holda aytamizki, ijodkorning tabiat va tuyg‘ularida mushtaraklik borligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Rauf Parfi ijodida Turkiston, ona yurt mavzulariga murojaat ancha ko‘p uchraydi. Bir so‘z bilan aytganda, sohir qalam sohibining “ona Turkistonni yonib kuylashiga uning qo‘liga dunyo jur’atini bergani, turkiy dunyoni tanish imkoniyatini taqdim etgani”ni juda go‘zal sabab qilib keltiradi. Sonetlarida ham Vatanga bo‘lgan muhabbatni turli xil obrazlar orqali ifodalashga tirishdi, aynan, “Bayronning so‘nggi safari” turkum sonetida ham Vatan timsoli mazmun planida bosh o‘ringa chiqadi, Bayronning fidokorligi, Vatanga muhabbati, jafokashligi qalamga olinishi vositasida ijodkor o‘z hissiyotlarini ham sonetga kiritgan. Aynan Bayronning:

Cho‘kib bormoqdasan ko‘zim o‘ngida,
Alvido, alvido, ey ona diyor[130]

misralarining she’rga epigraf qilib olinishi ham uning bosh g‘oyasini qisqacha ifodalab kelgan deya olamiz. Bundan tashqari ijodkorning “Vatan” soneti ham tahsinga sazovor, uning yozilish tarixiga qaraydigan bo‘lsak, ijodkor ushbu sonetni 1967-yil “Ona Turkiston” nomi bilan e’lon qilgani ko‘pchilikka sir emas. Rauf Parfining adabiyot suhbatlardan birida “Biz turkiylarmiz, yerimiz esa Turkiston. Bu kun bu millat qayta uyg‘onishiga ishonaman” jumlasining o‘zi nega ancha yillar o‘tib she’rning “Vatan” deb nomlanishiga javob bo‘ladi, albatta. Ona Turkistonga muhabbat uning botinida yillar davomida saqlanib, “Vatan” degan so‘zning in’ikosiga aylanib ketishi uning farzandlik sadoqatidan. Sonetning Vatan madhiga bag‘ishlangan go‘zal san’at asari, quloqlarga quyma ohangdek singib qoladigan quyidagi misralari tahsinga sazovor:

Umr deganlari o‘tmakda shoshqin,
Tilla barglarini elab yo‘limga.
Sening manguliging beradi taskin,
Erta uzilguchi mening umrimga[131].

Rauf Parfi sonetnavis sifatida ushbu janrga nafaqat tematik jihatdan ya’ni shakliy tomondan yangilik kiritdi, balki janrning mazmuniy uzvlarini ham o‘zgartira oldi. Nafaqat o‘z tuyg‘ulari, balki xalq, bashariyat oldidagi dolzarb masalalarni haqqoniy, ehtirosli va ta’sirli holatda sonet ohanglariga singdira oldi.

[130] Rauf Parfi. Turkiston ruhi. Saylanma: She’rlar, tarjimalar. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 169
[131] Rauf Parfi. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Adabiyot, 2023. – B. 241

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Толысбаева Ж.Ж. Сонет в поэзии Казахстана конца XX –начала XXI вв. – Актау, 2008. – С. 5–6.
2. Quronov D. Rauf Parfi sonetlari haqida. // Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. –Toshkent: 2023. – B. 27–28.
3. Rauf Parfi. Turkiston ruhi. Saylanma: She'rlar, tarjimalar. –Toshkent: Sharq, 2003. – B. 84
4. Rauf Parfi. Tanlangan asarlar. – Toshkent, Adabiyot, 2023. – B. 326

## MATNAZAR ABDULHAKIM SHE'RIYATIDA BAHOR OBRAZI

***Ollamova Kiyishjon Erkin qizi,***
*ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs*
*ollomova.kiyishjon@gmail.com +998909459688*
*Ilmiy rahbar: Ruxsora To'laboyeva*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida o'z o'rni va ovoziga ega bo'lgan shoirlardan biri Matnazar Abdulhakim ijodi haqida so'z boradi. Shoir lirikasida bahor obrazining qo'llanilishi tahlil qilinadi. Matnazar Abdulhakim she'rlarida "bahor" obrazi orqali inson qalbidagi azaliy anduhlarni, og'riqlarni, orzu-umidlar-u kechinmalarni tabiat manzaralariga chog'ishtirib chuqur dramatizm bilan tasvirlaydi. Tahlillar natijasida shoir she'riyatidagi "bahor" obrazi motiv darajasiga ko'tarilgan degan xulosaga kelish mumkin.*

***Kalit so'zlar****: obraz, motiv, badiiy obraz, badiiy tasvir, bahor obrazi*

***Abstract:*** *This article talks about the work of Matnazar Abdulhakim, one of the poets who has his place and voice in modern Uzbek poetry. The use of the image of spring in the poet's lyrics is analyzed. In his poems, Matnazar Abdulhakim depicts the eternal sorrows, pains, dreams, hopes and experiences of the human heart through the image of «spring» with deep drama. As a result of the analysis, it can be concluded that the image of «spring» in the poet's poetry has risen to the level of a motive.*

***Keywords:*** *image, motive, artistic image, the image of spring*

Har bir ijodkor ijodi tahlil qilinganda alohida ko'zga tashlanadigan, boshqalariga nisbatan ko'proq murojaat qilingan bitta mavzu albatta topiladi. Ayniqsa, fasllar misolida qaralganda har bir ijodkorning boshqalariga qaraganda ko'proq mehri tushgan va kuylagan eng sevimli bitta fasli bo'ladi. Aytaylk, Usmon Azim she'riyatini mutolaa qilayotgan she'rxon shoirning kuz fasliga bo'lgan o'zgacha

muhabbatini tezda payqaydi. “Kuz” shoirning umr sarhisobi, yetuklik pallasidagi hayotiy xulosalar va falsafiy kuzatuvlarining mushohadaviy poetik talqinidir. Usmon Azim asarlarining xronologiyasi bo‘yicha tahlil qilinganda, “kuz” obrazi dastlab baxtiyorlik kayfiyatidan ayriliq hissi ufurib turgan horg‘inlik, umidsizlik ramziga aylana borishi kuzatiladi.

Shu jumladan zamonaviy o‘zbek she’riyatida o‘z ovozi va o‘rniga ega bo‘lgan ijodkorlardan biri Matnazar Abdulhakim ijodida ham alohida ahamiyatga ega bo‘lgan mavzu, obrazlardan biri bu - bahordir. Avvalo, «obraz» istilohining izohiga to‘xtalsak. [132]” “Obraz” atamasi “raz” (“chiziq”) so‘zidan oiingan bo‘lib, “raz” so‘zidan “razit” (“chizmoq, yonmoq, o‘ymoq”) va undan “obrazit” (“chizib, o‘yib, yo‘nib shakl yasamoq”) so‘zi yasalgan. “Obrazit”dan “obraz” (“umuman oiingan tasvir”) vujudga kelgan. Biroq, hamisha shuni yodda tutish kerakki, so‘zning lug‘aviy ma’nosi bilan istiiohiy ma’nosi bir xil bo‘lmaganidek, bitta terminning turli fanlar doirasida ifodalayotgan ma’nolarida ham muayyan farqlar kuzatiladi. Ya’ni lug‘aviy va istiiohiy ma’no orasida mushtarak nuqialar bo‘lsa-da, muayyan fan doirasida istiloh ostida aniq bitta ma’noni tushunish talab qilinadi. Shuni nazarda tutgan holda eng avval juda muhim bitta aniqlik kiritib oiishimiz zarur. U ham bo‘lsa shuki, garchi ilmiy muomalada ko‘pincha “obraz” tarzida qo‘llashga odatlangan esak-da, bunda hamisha “badiiy obraz”ni nazarda tutamiz.[133] Adabiyotshunoslikda “badiiy obraz” atamasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda “badiiy obraz” deganda borliqning san’atkor ko‘zi biian ko‘rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi (jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, tabiat obrazlari) nazarda tutilsa, tor ma’noda badiiy asardagi inson obrazi tushuniladi.

Matnazar Abdulhakim lirikasida bahor obrazi keng ma’noda qo‘llanilgan. Shoirning bahorga bo‘lgan o‘zgacha muhabbati «tanho fasl emasdi bahor...» misralari bilan boshlanuvchi she’ridan olingan quyidagi parchalarda yaqqol seziladi:

*Tanho fasl emasdi bahor,*

*Unga tanho mehrimni berdim.*

She’rning ilk misralarini o‘qib lirik qahramonning tanho fasl bo‘lmagan bahorga tannho mehrini berganligini bilib oldik. Bu o‘rinda “bahor” o‘z ma’nosida yil fasllaridan biri sifatida qo‘llanilmoqda degan fikr tug‘iladi.

*...Senga xazon tegmas, sen asl,*

*Senga dahl qila olmas kuz.*

[132] Umurov. H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. (2004) Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 34-bet
[133] Quronov. D. (2018) Adabiyot azariyasi asoslari. Toshkent: Navoiy universiteti, 90-bet

*Fasl kelib, ketadi fasl,*

*Faqat mehrim bilmas tanaffus.*

*Ishq faslida hamisha hamal,*

*Bordir hayot. Yo‘qdir o‘ngishiq.*

*Men uchun sen mangu mukammal,*

*Mangu o‘n sakkiz yashar qo‘shiq!*

She’rni oxirigacha o‘qigach esa bahor kengroq ma’noda lirik qahramonning suyukli insoni yoki yori, birinchi muhabbat yoxud ishq dunyosi haqida gap ketayotgan bo‘lsa kerak degan xulosaga kelamiz.

Shoirning “Fasllar qo‘shig‘i” to‘plamidan “Bahorga safar” nomli nihoyatda go‘zal bir she’ri joy olgan. Bahorni kutish lirik qahramonning ko‘nglini sira g‘ash qilmaydi, aksincha shiddat baxsh etadi, kutishi tuyg‘onga aylanagach, lirik qahramon ortiq kutishni xohlamaydi, shu zayilda o‘zi harakat qilmasdan faqat kutmoqchi bo‘lsa boshidan novda, oyog‘idan ildiz o‘sishini tushunib yetadi.

*...Daraxtlar bahorni kutar shu holda,*

*Mening esa bahor bo‘lgim yo‘q bugun.*

*Axir yelkamdagi emas-ku xalta,*

*Qanotdan iborat bor-u yo‘q yukim...*

Oxiri u bahor tomon o‘zi borishga qaror qiladi, go‘zal o‘ylarini ko‘z-ko‘zlamay, qo‘shiqlarda emas, chin ketib, jim ketib bahor tomon borishga ahd qiladi, bahor ham o‘zini bir ko‘rib qo‘ysin-da:

*...O‘tib ketar farqsiz yaxshi-yomonga,*

*Bir maqom , bir zayl, bir xil, bir yo‘sin...*

*Yo‘q, o‘zim ketaman bahor tomonga ,*

*Bahor ham o‘zini bir ko‘rib qo‘ysin .*

Aslida, bu she’rning o‘zini alohida chuqur tahlilga tortish lozim. Shundagina muallif aytmoqchi bo‘lgan asl mazmunga biroz bo‘lsa-da yaqinlasha olgan bo‘lamiz nazarimda. Hozircha umumiy xulosalarni qisqacha aytib o‘tsam, bu o‘rinda “bahor” shunchaki oddiy yil fasli ma’nosida emas, balki, bahor obrazi yoshlik, navqironlik, yashash, hayotga, kelajakka bo‘lgan kuchli intilish, umid ma’nolarini o‘zida mujassamlashtirib kelgan desak to‘g‘riroq bo‘ladi deb o‘ylayman.

Yuqoridagi to‘plamdan joy olgan «Bahor» sarlavhali yana bir she’rida shoir bahorda barq urib, yozda yashnab, kuzda to‘kilgan yaproqni tasvirlaydi, azaliy bu holdan og‘rinib noliganini va sira tan olgisi kelmasligini ta’kidlaydi, shunda gujumdan sado chiqadi:

*Shunda gujum dedi ohistagina:*

*«Qaytarmaslik uyat, bolam. Qarz olib...»*

Umr qaysidir ma’noda kun kelib qaytarib berilish evaziga olingan qarz. Har fasl umrimizning bir qismi. Bahorda yaproqning barq urishi, ya’ni umrning bahori, yoshlik davriga ishora. Bu o‘rinda shoir bahor obrazidan an’anaviy ma’noda foydalangan.

“Bahorga deganim” she’rida lirik qahramon bahorga murojaat qilib: “O‘tinaman, bahor, o‘zing madad ber , sen o‘zing tushuntir, anglat sen o‘zing. Axir, yam-yashildir iltijolaring, o‘tinching loladir, rayhondir so‘zing. Men bir aytib ko‘rdim, unda yo‘q shafqat. Chaqiningdan tezdir jahlin sur’ati. Faqatgina seni, senigina faqat rad qilishga, balkim, yetmas jur’ati. Senga yolvoraman, tezroq yo‘lga chiq. Bor, go‘zal xabarchim, xazonsiz elchim. Yuragi muz. Erit. Bag‘ri tosh. Yumshat. Jimgina ket tezroq va qaytib kel, jim”, - deydi. Va she’r yakunida:

*Bahorni rad etgan yurakdan faqat*

*Sovusa arziydi,*

*Arzir kechsa voz*

misralarini keltiradi. Shu o‘rinda Mavlono Jaloliddin Rumiyning «Ey Ko‘ngil! Haqqa ishqi bo‘lmaganning ishqqa haqqi bo‘lurmu?!» so‘zlari yodga tushadi. Yuqoridagi she’rda «bahor» obrazi ishq, muhabbat ma’nolarini ifodalab kelayotganga o‘xshaydi. Iltijolari yashil, so‘zi rayhon, o‘tinchi lola bo‘lgan go‘zal bahor xuddi ilk, pokiza muhabbatga o‘xshaydi. Shu qadar inja, nafis ishqni rad etgan yurakdan faqatgina sovusa, voz kechsa arziydi.

Muallifning “Bahor” she’ri go‘zal tasvirlar bilan boshlanadi. She’rni mutolaa qilayotgan she’rxon o‘zini xuddi oshiqning sevikli yoriga bitgan maktubini o‘qiyotgandek his qiladi:

*...Kelasiz va’dasiz, kelasiz ontsiz,*

*Minnat ham qilmaysiz yondim deb dardda.*

*Har yil tashrifingiz muqarrar sizning*

*Birinchi martda.*

Muhabbat ham ko‘ngilga iznsiz keladi, uni ham tushunib bo‘lmaydi, muhabbat kishini Majnun kabi telbaga, Suqrotdek donoga aylantira olishi mumkin. Lekin, she’rdagi

*...Sizni sevib bo‘lar, bo‘lmas tushumib,*

*Majnundek telbasiz, Suqrotdek aniq...*

Qalblarga ishqning kelishini rejalashtirib bo‘lmaydi, muhabbat she’rda aytilganidek, ayamajuz g‘azablaridan tap tortmay keladi. Biroq, bu o‘rindagi «bahor»ni ishqqa o‘xshatishimiz biroz noo‘rinroq, «sizni sevib bo‘lar, bo‘lmas tushunib» sevgini tushunib bo‘lmasligi chin, ammo sevgini sevib bo‘larmikan? Inson sevgini emas ko‘ngli tushgan sevikligini sevmaydimi? Majnundek telbalik sevgiga xos bo‘la olar, ammo Suqrotdek aniqlik-chi? Va she’rda ko‘p uchragan «har yili» jumlasi ham «bahor»ni ishqqa mengzashimizga to‘sqinlik qiladi. Muhabbat har kuni yoki har yili keladigan tuyg‘u emas. Biz uning tashrifini birinchi dekabr yoki mart deb aniq belgilab qo‘yolmaymiz. She’rdagi «bahor» obrazini «birinchi martda»ga qarab oddiy bahor fasli deb xulosa qilish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. «Bahor»ni lirik qahramonning suyukli insoni desak qanday bo‘larkan? Ushbu she’r ham shoirning yuqoridagi boshqa asarlari kabi chuqur tahlilga muhtoj.

Shoirning “Yolg‘iz yaproq she’ri”:

*O‘zingdan hamisha bahorlar qoldir,*

*Emassan hamisha bahor yuragim*

O‘zing osmon o‘zing qush bo‘lib yasha, yo‘qsa parvoz ishi dushvor yuragim deya yuragiga nido qilayotgan shoir she’rni yuqoridagi misralar bilan yakunlaydi. Bu yerda bahor - go‘zallik, yoshlik, optimistik kayfiyat, ruhiyat. Inson umri botin-u zohirida abadiy ko‘klamdan iborat bo‘la olmaydi. Erkin Samandar bir she’rida “O‘zing yoshligingga qaytolmasang ham, yoshligiga qaytar dunyoni”, - deya o‘ziga xitob qiladi. Xuddi shu kabi, shoir o‘z yuragidan lahzalarni ushlab qola olishni so‘raydi. O‘zingdan hamisha bahor shabbodasi misol yoqimli, betakror tug‘yonlar, ash’orlar qoldir deya xitob qiladi muallif.

“Har kun” radifli g‘azalida:

*...Agarchi yilda bir kelding, bu diydorga sharaf bo‘lsin,*

*Bahorga o‘xshading-qo‘yding, kelib turmas bahor har kun...*

G‘azal “muhabbat bir g‘ariblikdir, muhabbat bir viqor har kun, yurakda barqarordir ham azob, ham iftihor har kun” misralari bilan boshlanadi. Keyingi

baytni ham o‘qib, xayoldan g‘azaldagi “bahor” obrazi muhabbat ramzi bo‘lib kelmoqda degan fikr o‘tadi:

*Firoq maskanlarida senga timsol qancha majnuntol,*

*Qarab suvga tarab sochin, yo‘limga intizor har kun.*

Keyingi baytni o‘qigach esa so‘z faqat ishqning emas aynan lirik qahramonning ishqi tushgan yor haqida borayotganini ayonlashadi:

*Umr bo‘yi aziz noming mening qalbimda pinhondir,*

*Rasmdir ahli dard ko‘ksinda bo‘lmoqlik tumor har kun.*

Xullas, bu she’rda “bahor” ma’shuq(a) ma’nosini ifodalab kelgan. Oshiq uning yilda bir kelishiga ham sharaf bo‘lsin deydi. Chunki u bahorga o‘xshaydi va bahor har kuni kelavermaydi. Bu o‘rindagi bahorning “yor” ma’nosini ifodalamoqda degan fikrimizdagi “yor” so‘zini tor ma’noda emas, keng ma’noda tushunish va tahlil qilish lozim.

“Manzara” she’rida shoir:

*O‘kinchni qo‘y. Bahor keldi.*

*Nolima*

misralarini aytadi. Bahor avvalo yilning tabiatni yangidan jonlantiruvchi fasli. Bahor metonimya yo‘li orqali o‘zida bir necha ma’nolarni mujassamlashtirgan obrazga aylangan.

“Qo‘shiq” she’rida esa bahor obrazining mutlaqo o‘zgacha mazmunda qo‘llanilgan shakliga duch kelamiz:

*Bahor haqda qo‘shiq kuylamoqdaman,*

*Jarangdor emasdir bu safar rozim.*

*Yo‘qotib sohir tovlanishini*

*Bir vaqtlargi billur ovozim.*

Shoir kuylayotgan “bahor” nima ekan? O‘z-o‘zidan ayonki, misralarda oddiy yil faslidan kengroq ifoda aks etmoqda. Yuqorida bahorning yoshlik, muhabbat, ishq dunyosi, sevikli inson kabi ma’nolarda qo‘llanganining guvohi bo‘lgandik.

*Hayron qoladigan joyi yo‘q buning,*

*Ovoz degan so‘nar, uziladi tor.*

*Lekin sen-chi? Senga ne balo bo‘ldi?*

*Bu ne za’faronlik, azizim bahor?!*

Bahor odatda yoshlik, navqironlik yillariga qiyoslanadi. Ovozning so‘nishi-yu torning uzilishi kabi ifodalar shoirning yoshlik, navqironlik davridan o‘tganiga ishoradek go‘yo. Hamisha birdek jarangdor qo‘shiqlarni kuylab bo‘lmaydi. Inson ulg‘ayadi, dunyoqarashlar, tuyg‘ular, hissiyotlar o‘zgaradi. Lekin, abadiy yashillikka ega, uyg‘otish, yangilatish, yashillatish, gullatish asl kasbi bo‘lgan bahorga ne bo‘ldi? Nega ko‘klam tomonlarda ham bahor kunlarida kuzning havosi kezmoqda ekan?

Matnazar Abdulhakim lirikasida falsafiylik juda yuqori. Shoirning ayrim she’rlarini qayta-qayta o‘qigandan keyin ham muallif aytmoqchi bo‘lgan asl fikrni ilg‘ash she’rxonda qiyinchilik tug‘diradi. Shoir ijodini yaxshiroq tushunish va anglash maqsadida, shoir lirikasida qo‘llanilgan kichik detallargacha sinchiklab o‘rganish va tahlil qilish zarur. Birgina yuqorida keltirganimiz “bahor” obrazining o‘zida qancha ma’no mazmun yashirin. Matnazar Abdulhakim she’riyatini chuqur o‘rganish va har bir she’rini alohida tahlilga tortish, “bahor” obrazi bo‘yicha xronologik tadqiqotlar olib borish ushbu obrazning shoir ijodida motiv darajasiga ko‘tarilganligini ko‘rsatib berishga asos bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Quronov. D. (2018) Adabiyot azariyasi asoslari. Toshkent: Navoiy universiteti
2. Adabiyotshunoslik lug‘ati. (2013) Toshkent: Akademnashr
3. Umurov. H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. (2004) Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi
4. Matnazar Abdulhakim. Tanlangan asarlar. (2017) G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi


## TOG‘AY MUROD ASARLARIDA BOLALAR FOJIASINING BADIIY TALQINI

## (“OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANI MISOLIDA)


*Quralbayeva Maftuna Qurambay qizi qizi*

*ToshDO‘TAU Adabiyot nazariyasi 1-kurs magistri*

*quralbayevamaftuna11@gmail.com +998971995722*

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida misolida o‘tgan asrdagi bolalarning fojiaviy hayoti tadqiq qilinadi. Romandagi bolalar obrazlari, ularning syujetdagi o‘rni, davr fojiasini ochishdagi ahamiyati haqida ma’lumot beriladi. Maqolada adabiyotshunoslikning sotsiologik, biografik va qiyosiy-tipologik tadqiqot metodlaridan foydalaniladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *novatorlik, an’anaviylik, agrotexnologiya, milliylik, bola fojiasi*

**Abstract**

*In this article, the tragic life of children of the last century is studied as an example in Togay Murad's novel "Fields left by my father". Information is provided about the characters of children in the novel, their place in the plot, and their importance in revealing the tragedy of the time. The article uses sociological, biographical and comparative-typological research methods of literary studies.*

***Key words:*** *innovation, traditionalism, agro technology, nationality, child tragedy*

O‘zining novatorlik va an’anaviylikni sinkretlashtira olish uslubi va ovozi bilan adabiyotimizning badiiy so‘z qudratini boyitishga hissa qo‘shgan va tom ma’noda o‘zbek xalqiga o‘zining sof milliylik ufurib turgan asarlari bilan haykal qo‘ya olgan nosir Tog‘ay Murod ijodi kitobxon o‘quvchilarning e’tiboridan tushmay kelmoqda. Tog‘ay Murod o‘zbek adabiyotidagi yangilanishini aynan milliylikka asoslanib yaratgani bilan ham ajralib turadi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tog‘ay Murod yozgan qissa, romanlari va uning tarjimalari millionlab kitobxonlarning qalbidan joy olgan. Yozuvchi “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi bilan adabiyotimizga kirib keldi. Keyinchalik “Ot kishnagan oqshom”, “Oydinda yurgan odamlar”, “Momo yer qo‘shig‘i” qissalari, “Otamdan qolgan dalalar”, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanlari birin-ketin nashr qilina boshladi. Yozuvchi har bir asarini yozishdan oldin o‘z qahramonlarining kasbini, xarakterini chuqur o‘rganib chiqqan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida kurashda qo‘llanadigan har bir detal va atamalarning ishlatilishigacha o‘rgangan va mohirlik bilan asarida qo‘llagan.Shuningdek, “Otamdan qolgan dalalar” romanida ham bunga guvoh bo‘lishimiz mumkin: “Uch santimdan sayoz chigit egib bo‘lmaydi. Dalabet darrov nam oldiradi. Besh santimdan chuqurda egib bo‘lmaydi.Besh santim chuqurga harorat yetmaydi.Shu bois, men to‘rt santim chuqurlikda chigit ekdim”. Ushbu parcha orqali yozuvchi agrotexnologiyalarning sir-asrorlaridan, paxta ekishning usullaridan yaxshigina xabardor bo‘lganligini anglashimiz mumkin. Yozuvchi insonning bunday detallarni badiiyatda qo‘llashi bu

asarning ishonarlilik va ta’sir ko‘rsatish darajasini yana oshiradi. Kitobxonni ana shu vaziyatni to‘la his qilishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Umarali Normatovning “Sokin ko‘ngil iztiroblari” maqolasida aynan Tog‘ay Murod bilan bo‘lgan suhbatlari haqida yozadi: “G‘animlarimning da’vosicha, go‘yo men etnograf, shunchaki baxshi qalamkash emishman. “Denovdan nariga chiqolmaysan, naryoqda nimalar bo‘layotganini ko‘rmaysan, jahon adabiyotidan bexabarsan, modernizm nima, absurd, ong oqimi nima — bilmaysan, Nitshe, Freyd, Kafka, Joys, Kamyuga tishing o‘tmaydi”, deya tashlansalar bo‘ladimi menga, bu “bilag‘on” nodonlar... Men ularga haqiqiy “o‘zbekona modern”, “o‘zbekona absurd”, “o‘zbekona ong oqimi” qanaqa bo‘lishini ko‘rsatib qo‘yaman… Aynan ushbu fikrlar yozuvchining asarlari orqali o‘zbek adabiyotida, kitobsevarlar qalbida o‘z tasdig‘ini topgan. Darhaqiqat, yozuvchining asarlari milliy zamin asosiga qurildi, o‘zbekning milliyning umumiy qiyofasini o‘zida mujassamlashtirdi. Shuning uchun yozuvchi ijodida o‘tgan asrda g‘arb adabiyotidan kirib kelgan turli xil oqimlar, izmlar va yo‘nalishlarning aksini ko‘rmaymiz. Ijodkor asarlarida xalqona ohang, milliy izmlar yetakchilik qiladi.

Haqiqiy yozuvchi asarlari orqali kitobxonni kuldira olganidek, yig‘lata olishi ham kerak. Aynan biz Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi ayanchli, kitobxonni ta’sirlantiruvchi qolaversa, o‘quvchini yig‘lash darajasigacha olib keluvchi bolalar obrazi haqida to‘xtalib o‘tamiz. Romanning III bobida aks etgan paxta fronti qanchadan qancha yoshlarning savodsiz, yarim mayib-majruh bo‘lishi va o‘limiga sababchi bo‘ldi."Oppoq soch odam lablarini cho‘chchaytirib-cho‘chchaytirib o‘ylab qoladi. — Bolalarim ... -dedi. —Men sizlarni bola deyishgayam tilim bormayapti. Sizlar kattalar hayotini boshlandan kechiryapsiz. Siz ko‘rayotgan kunlar bolalik emas - qarilik.Qachon bolalar bo‘lib kun ko‘rasiz – unisini paxtadan so‘raysiz."

Endigina beshinchi sinfga ko‘chgan o‘quvchilardan tortib yuqori sinf o‘quvchilarigacha paxtazor-daftari, g‘o‘zalar-husnixati bo‘lishi kerakligi uqtiriladi.Hamma o‘quvchilar uchun umumiy norma 80 kilogramm qilib belgilanadi. Hattoki kolxozchilar uchun bir kunlik norma 60 kilogrammligi, o‘quvchilarga qilingan eng katta adolatsizliklardan biri ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ilk bora g‘o‘zani ko‘rayotgan, paxtani qanday terilishi kerakligini bilmagan o‘quvchilar uchun me’yor hali nariroqda tursin, 20-30 kilo paxta terish, uning og‘irligini ko‘tarish qiyin ish hisoblanadi. Qaror qat’iy, savolga o‘rin yo‘q dekanlaridek, me’yorni bajarishga harakat qilishardi. Paxta barcha bolalarning yoshligini oldi, savodsiz bo‘lishiga, yarim majruh avlod bo‘lib chiqishiga sababchi bo‘ldi. Asarda ko‘ramizki, Dehqonquldan tortib Ziyod bir necha o‘nlab o‘quvchilar ustozlar, maktab direktori tomonidan kaltak yer, har xil dashnomlar eshitishar, yeyayotgan ovqatlarini ham zahar qilishardi.Parchada ko‘ramizki, o‘quvchilarning

qay darajada mehnat qilayotganini: “- Qo‘llaringizni qarang, qo‘llaringizni. -Bu qo‘l emas – kosov bo‘libdi.Yelkalaringizni qarang, yelkalaringizni. Bir yelkangiz yuqori, bir yelkangiz past. Bu yelka emas qing‘ir-qiyshiq temir-tersak bo‘libdi. Qurib ketgur paxtadan nimalar kelmaydi-ya” deb Mavlonovning o‘zi tan olib aytadi. Maktab o‘quvchilari paxtaning og‘irlig‘ini ko‘taraman deb yelkalari qiyshayib, qing‘ir-qiyshiq bo‘lib o‘sayotganiga guvoh bo‘ladi, bolalarga rahmi keladi, kelajak avlodning ahvoliga kuyunadi:”-Bolalarim, -deydi, -bizning yurtga Amir Temurlar kerak. Bizning yurtga Boburlar kerak. Bizning yurtga Ulug‘beklar kerak. Juda,juda kerak.Ammo sizlar Temur bo‘lolmaysizlar, sizlar Bobur bo‘lolmaysizlar,sizlar Ulug‘bek bo‘lolmaysizlar.Lekin yurtga to‘rt muchali bus-butun odamlar kerak. Lekin yurtga sog‘lom-sog‘lom odamlar kerak.Shunday ekan, o‘zlaringiz o‘zlaringizni avaylangizlar, bolalarim”. Aynan o‘sha davrda, muhitda shunday insonlarga ehtijoy borligi, ulardek bo‘lolmasalarda yurtning, millatning kelajagi, xalqning erki uchun shunday yosh avlod kerakligini uqtiradi. Bu tuzumga, olib borilgan siyosatga nisbatan bo‘yin egmaslik, ozod, hur, hech kimga qaram bo‘lmasdan yashashga da’vat etadi.

Romanda dori sepish uchun yuboriladigan o‘quvchilarning o‘rtasidagi ajratishlar, ularning ota-onalarining sotsial maqomidan kelib chiqqan holda paxta dalasiga yuborilishi kitobxonning e’tiborini tortadi. Dehqonquldan keyin Ziyodning “bir qari onasi borligi” uchun tanlanishi bejiz emas.Misol uchun, Xurramning otasi uchiga chiqqan arizaboz, Abilning otasi mergan bo‘lganligi uchun xavfli shaxs ekanligi aytilgan holda och qornim – tinch qulog‘im qabilida ish ko‘riladi. Ya’ni ularning farzandlariga nimadir bo‘lishidan qo‘rqishadi.Asarni o‘qish davomida norasida bola Ziyodning o‘limiga guvoh bo‘lamiz. Har kuni qilinadigan yo‘qlamada Ziyodning kelmaganligi, kun davomida turli xil kimyoviy dorilar orasida nafas olganligi va charchaganligi sababli paxta dalasida uxlab qolganligi uchun direktor ko‘ksidan itarib yuboradi. Shu yotishidan keyin qaytib turmaydi.Bunda Dehqonqul o‘rtog‘i Ziyodga : paxta ichida uxlama, deb aytaganimda oshnam ketmasdi deb o‘zini aybdor his qiladi. Kitobxonga ta’sir qiladigan, eng ayanchli voqea Ziyodning onasi paxta maydoniga kelishi, farzandi qaysi joyda yotishini, narsalarini olishi yozuvchi tomonidan mohirlik bilan tasvirlangan. Direktor Ziyodning onasini ko‘rib ranglari o‘chadi: “Bizda nima ayb, bizda ayb yo‘q.Buni o‘z oti bilan ”paxta fronti” deb qo‘yibdi.Front qurbonsiz bo‘lmaydi”, deb xuddi yiqilganni ustiga tepgandek qiladi. Ko‘ramizki, direktor o‘zini shu gaplar bilan oqlamoqchi. Aslidachi Ziyodning o‘limida kim aybdor? Bu yerda faqat direktor yoki o‘qituvchilarni ayblab bo‘lmaydi. O‘sha davrdagi tuzum, olib borilgan siyosat, davlat boshliqlarining barchasi birgalikda norasidaning o‘limiga sababchi bo‘lgan deb o‘ylayman. Ziyod obraz

orqali qanchadan-qancha shunga o‘xshash Ziyodlar, barcha yoshlar o‘layotganiga ishora qiladi.

Adabiyotshunos olim Umida Rasulova tadqiqotlarida Dehqonqulga nisbatan shunday ta’rif beriladi: “Dehqonqul-Dehqon Qul.Uchinchi avlodni-Dehqonqullar avlodini sho‘ro “sindirdi” niyatiga, maqsadiga erishdi”. Asarda Dehqonqul qanchalik mehnat qilmasin, baribiram kosasi oqarmasligi, oilasini yaxshi ta’minlay olmasligi, hammani o‘zidek sodda, tanti deb o‘ylashi, yer uchun jonini berishgayam tayyor inson edi. Lekin umuman qadri yo‘q, faqat tuzum boshliqlari qo‘lida oddiy bir qo‘g‘irchoq, ularning har bir aytgan gaplari qonun edi. Shuncha qiyinchilik ko‘rgan ayoli, farzandlari ahvolini o‘ylamasdi. Farzandlariga topilmagan bir burda non, mehmonlar kelishini eshitishi bilan bor yog‘ini sotib bo‘lsa ham bozorlik qilardi va oyog‘ining tagiga qo‘y so‘yib keriladi. Buni Moskvadan kelayotgan mehmonlar uchun qilingan bozorlik misolida ko‘ramiz. Hatto Qulmat bolasining xurmoni pomidor deb aytganidan,bunday mevani umrida birinchi bor ko‘rayotganini bilishimiz mumkin.Nodir o‘g‘lining oshxonadan xurmoni o‘g‘irlash voqealarini o‘qiydigan bo‘lsak, kitobxon ruhan achinadi. Dehqonqul o‘g‘li qo‘lidagi xurmolarni bermagani uchun og‘zi burnini urib qon qiladi.Kim o‘z uyidan narsa o‘g‘irlab yeydi? Qaysi ota farzandidan bor narsasini ayaydi? O‘sha paytdagi qimmatchilik, shu bitta xurmoni puli Dehqonqulning bir oylik maoshiga olinganligi hisobga oladigan bo‘lsak, moddiy sharoit o‘ta darajada og‘ir edi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam,tepada aytib o‘tilgan Dehqonqulning yoshlik payti, o‘rtog‘i Ziyod, farzandlari Qulmat va Nodir obrazlarini yozuvchi yaratish orqali katta umumlashma ahamiyatiga ega bo‘lgan xarakterlar, ya’ni tiplar bilan ifodalaydi.Har bir obrazda yozuvchi qullikka bo‘yin egmaslik,o‘zligini anglab yashashi ajdodlari kim edi-yu, endi o‘zlari kim bo‘ldi qanday qilib avlodlariga o‘rnak bo‘la oladi,hurligi,erki o‘zlarida bo‘lmagan xalqni qanday meros qilib qoldira oladi. Zamon va davr muhitini ochib bergan,mustamlamlakaga qarshi isyon qiladi,agar qilmaydigan taqdirda Dehqonqul va uning avlodlari ahvoliga tushishi muqarrar. Xulosa qilib aytganda, badiiy asarda bolaning fojiasi zamon bilan sinkret holatda tasvir etiladi. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi tasvir o‘zining haqqoniyligi, obrazliligi va ta’sirchanligi bilan ajralib turadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘qituvchi. 2002.

2. Tog‘ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. – T.: Sharq, 2014. – 260 b.

3. Men qaytib kelaman (Tog‘ay Murod zamondoshlari nigohida). www.ziyouz.com kutubxonasi

4. T.Murod. Otamdan qolgan dalalar. –T.: Zukko kitobxon, 2022. –384 b.

5. Rasulova U. Hozirgi adabiy jarayon: Badiiy nasr poetikasida ritm (o‘quv qo‘llanma). -T.: Mumtoz so‘z, 2012.

## XOKKU SHE’RIY JANRIDA INSON VA TABIAT TASVIRI

***Rahmataliyeva Feruzaxon Akmal qizi,***
*Farg‘ona davlat universiteti O‘zbek tili yo‘nalishi 1-kurs talabasi*
***Ilmiy rahbar:*** *G.Oripova, Farg‘ona davlat universiteti dotsenti v.b., Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada yapon she’riyati durdonalari - xaykularning Rauf Parfi va Xurshid Davron tomonidan tarjima qilingan uchliklari tahlilga tortildi. Xaykularda tabiat va inson kayfiyatining o‘zaro aloqalari izohlandi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Xayku (xokku), uchlik, inson, tabiat, o‘xshatish, jonlantirish.*

***Abstract****. In this article, masterpieces of Japanese poetry - triplets of haiku translated by Rauf Parfi and Khurshid Davron were analyzed. Haiku explained the interaction between nature and human mood.*

***Keywords****: Haiku(hokku), trinity, human, nature, simile, animation.*

Xokku yoki xayku - qadim yapon she’riyatidagi qat’iy she’riy shakl hisoblanib, uch misradan tashkil topadi. Xokku so‘zi yapon tilidan tarjima qilinganda “ilk misralar” degan ma’noni anglatadi. Shoir Xurshid Davron qadimgi yapon she’riyati haqida shunday deydi: “*Yapon she’riyati qadimdan o‘zgarmas shakl va mohiyatan inson yuragida kechgan tuyg‘ular rang-barangligini namoyish etish asosida rivojlanib kelgan. She’riyatning asosi dunyo (tabiat) va inson (yurak) manzaralarining lo‘nda yorqin ifodasi orqali shakllangan*”. Yaponlarning tushunchasiga ko‘ra, xokku – “*ilk mamlakat tuprog‘ida tomir otgan ko‘hna daraxtning novdalari va yaproqlari*”ga o‘xshaydi. Janrning asoschisi sifatida XVII asr yapon shoiri Matsuo Basyo e’tirof etiladi. “*U janrning go‘zal namunalarini yaratish bilan birga unga qo‘yiluvchi shakliy va mazmuniy talablar, estetik prinsiplarini ishlab chiqqan*”[134].

Yapon xokkularining ilk tarjimoni Rauf Parfi hisoblanadi. Keyinroq Xurshid Davron qalamiga mansub “Dengiz yaproqlari” nomli va Jabbor Eshonqul qalamiga mansub “Shabnamda oy aksi” deb nomlangan to‘plamlar yozildi.

Rauf Parfi tomonidan tarjima qilingan quyidagi uchliklarda tabiat va inson kechinmalarining o‘zaro bog‘liqligini, xokku janrining naqadar ixcham va go‘zal ekanligini ko‘rish mumkin. Taniqli adib, shoir, publitsist Eshqobil Shukurning

[134] Quronov, Adabiyotshunoslik lug‘ati, 2013, 354-bet

ta’kidlashicha, “*Bu she’rlarda tuyg‘u tushuntirilmaydi, sharhlanmaydi, izohlanmaydi, balki tasvirlanadi!*”.

*Kiftimga olayin, onajonginam,*
*Qaynoq yoshim ila eritay*
*Sochingda oq qirovni.*
(Basyo)

Inson necha yoshda bo‘lishidan qat’iy nazar ona uchun boladir. Onalar farzandi uchun umrini bag‘ishlaydi. Shoir ushbu she’rda onasinig sochlaridagi oq vaqt hukmi ila, o‘zi sababli tushganini anglaydi. Kiftiga boshini qo‘ygan onasining sochlaridagi oq qirovni qaynoq ko‘z yoshlari bilan eritishni xohlaydi. O‘quvchi qalbida onaga bo‘lgan muhabbat, uning g‘animatligi kabi tuyg‘ularni jonlantiradi.

*Tag‘in qalbda tirildi*
*Ota-onam hasrati.*
*Dod solar toq qirg‘ovul!*

“Qabristonda” deb nomlanuvchi mazkur xayku yuqoridagi she’rning mantiqiy davomi sifatidadir. Shoir qabristonga borganda ko‘nglidan o‘tadigan tuyg‘ularni shu qadar mahorat bilan ifodalaganki, beixtiyor o‘quvchi qalbida ham akslanadi. Ota-ona hasrati farzand qalbida o‘lmas bo‘ladi. Vaqtida aytilmagan so‘zlar, berilmagan e’tibor, sog‘inch qalbni kemiraveradi. Hattoki, toq qolgan qirg‘ovul ham dod solganida, inson qalbida kechadigan tuyg‘ular iztiroblidir.

*Ona qishloq yodimga tushdi.*
*Unga kindik bo‘lib o‘sgandim*
*Men yig‘layman yillar g‘amida.*
(Basyo)

Mazkur she’ri orqali shoir kindik qoni to‘kilgan, yoshligi, shirin damlari o‘tgan ona qishlog‘ini eslaydi. Yillar o‘tgach, hayot charxpalagi bilan boshqa yerlarda makon topgan shoir yillar g‘amida ona qishlog‘ini eslab yig‘laydi.

*Toshbo‘ron eting:*
*Men olucha shoxini*
*Hozir sindirdim.*
(Xattori Ransetsu)

Bu xokkuda hozirgina olucha shoxini sindirib qo‘ygan inson o‘zini aybli sanab o‘zini toshbo‘ron etishlarini istamoqda. Tabiiy ravishda “*Nima uchun?*” degan savol tug‘iladi. Shoir olucha shoxini, tabiatning bir bo‘lagini yo‘q qilgani sababli o‘zini aybli sanaydi. Bu shoir uchun o‘g‘ir musibat, chunki olucha shoxida kurtaklar mavjud bo‘ladi, ular kelajakda gul ochib, barg yozishi va meva berishi kerak edi. Kelajakdan bir qismini barbod qildim, degan o‘y shoirni tinch qo‘ymaydi. O‘zini toshbo‘ron etishlarini so‘rash darajasigacha olib boradi.

*Deraza qog‘ozini*
*Endi kim ham teshardi.*
*Qanday sovuq bu xona*

Fukuda Tiyo qalamiga mansub “Vafot etgan go‘dakni eslayman” nomli xakkusini Rauf Parfi shunday tarjima qiladi. Go‘dakning ishi sho‘xlik qilish, lekin ba’zida bu holat ota-onalarning jahlini chiqaradi. Bu she’rda farzandi vafot etgan uyning derazasi qog‘ozini endi hech kim yirtmasligi, u butun bo‘lsa ham uy ichi naqadar sovuq ekanligi tasvirlanadi.

*Yashirin. Berkin kirib.*
*Kel yonimga panoh bo‘layin,*
*Ey, ho‘l qaldirg‘och!*
(Xattori Ransetsu)

Bu uchlikda tabiatga bo‘lgan mislsiz shafqat, mehr va iliqlik kuylanadi. Shoir qaldirg‘ochga ho‘l sifatini berganidan bilish mumkinki, ayni damda yomg‘ir yog‘moqda. Ini uchun loy-xashak yoki polaponlari uchun ozuqa qidirib chiqqan qaldirg‘och yomg‘irda ivib ketganini ko‘rgan qahramon bu holatga shunday qarab tura olmaydi. Qaldirg‘ochni bag‘riga olib berkitgisi, ho‘l qanotlarini quritgisi kelayotganini ta’riflaydi. Faqatgina qalbi mehr-shafqatga to‘lgan, tabiatning hech bir parchasiga ozor yetishini xohlamaydigan, o‘zini ham mana shu tabiatning bir bo‘lagi sifatida ko‘radigan chinakam insongina bunday yo‘l tutishi mumkin.

Xurshid Davron - zamonaviy she’riyat vakili, yangilikga intiladigan, adabiyotning har turlarida ijod qila oladigan mahorat sohibi. Uning qadim yapon she’riyati durdonalari hisoblangan xaykulardan tuzilgan “Dengiz yaproqlari” deb nomlangan to‘plami ham serqirra ijodkor ekanligidan dalolat. Uning “Basyo kitobining varaqlarida” she’rida shunday satrlar mavjud:

*Basyo kitobining varaqlarida*
*Sarlaygan yaproqlar, alvon yaproqlar*
*Qadim ibodatgoh... Undan narida*
*Tog‘ga o‘rmalagan daydi so‘qmoqlar*
*Ulardan tepada, tog‘lar boshida*
*Qor bosgan qoyalar oqarib turar*
*Hassaga suyangan sochi oq darvesh*
*Izlab topolmagan olxo‘ri gullar...*

Shoir Basyo kitobidagi so‘z bilan chizilgan suratlarga hayrat bilan boqadi:

*Kuz shamoli xushtagin chalar*
*Anglashingiz mumkin she’rimni*
*Dalada tunagan bo‘lsangiz agar!*
(Basyo)

Inson ochiq tabiatga chiqqanida ko‘ngildagi barcha xiraliklar ketib, o‘zini yengil his qiladi. Bu she’rda ham shoir dalada tunagan bir kunining tasvirini chizadi. Qachonki, dalada tunagan bo‘lsangiz, kuz shamolining yuzlarni silab o‘tuvchi mayin xushtagini eshitgan bo‘lsangiz mening she’rimni shundagina anglashingiz mumkin, deydi.

*To‘shakda yotganimda*
*“Kuz yetib keldi”,-deya*
*Quloqqa shivirlar yel.*
(Basyo)

Mazkur xaykudan mayin shabboda, yelning orom olayotgan insonning oldiga kelib oltinrang kuzdan xabar bermoqda, deya izohlash mumkin. Lekin shoir ushbu manoning ortiga yana bir mano yashiradi. Inson umrining yoshlik davrini gullagan bahorga, navqiron o‘rta yoshini yoshga, umrning shomi, ya’ni keksayosh pallasini kuzga o‘xshatilishini hisobga olsak, shoir to‘shakda kasallangani, keksaygani tufayli yotganini sezamiz. Yellar esa unga umrning kuzi yetib kelgani haqida shivirlayotgandek bo‘ladi. “*Bu she’rlar uch yoki to‘rt satrdan romanlardir. Chunki shoir shu uch satrda o‘quvchiga bir romannning ruhini, ohangini, g‘oyasi va tuyg‘usini, voqeasini beradi*”.

*Gulbarglar aro uxlar,*
*Yovvoyi asalari.*
*Unga tegma, chumchuqjon!*
(Basyo)

Bu she’rda shoirning murojaati chumchuqqa beozorgina, gul shaydosi bo‘lgan asalariga tegmaslikni so‘rashdan iborat. Albatta, she’rda majoz, ramziylik bor. Asalari - mehnatni, ijodni, gulni, go‘zallikni sevuvchi yaratiqdir. U oddiy asalari emas, yovvoyi, ya’ni hur fikrli, erkin, o‘z qarashlariga ega, noyob iste’dodga egalik qiluvchi inson timsoli. U orom olayotgan holatda tasvirlanadi. Ya’niki, u o‘z lazzatini, o‘rnini, huzurini topgan. Chumchuqning ishi hasharotlarni yemoq. Bu obraz, avvalo, taqdirga, so‘ng yomon xulqli, chinakam iste’dodni ko‘ra olmaydigan, hasadgo‘y va fahmsiz insonlar timsoli. Chumchuqqa murojaat qilish orqali shoir bunday hur fikrli, yoniq qalb egasi bo‘lgan iqtidor egalariga tayziq o‘tkazmaslikni, o‘z sevgan makonidan ayirmaslikni so‘ramoqda. Bu yuksak insoniy fazilatdir.

*Qayg‘urarman, sen menga*
*Yana g‘am mayin ichir*
*Ey olis kakku sasi!*

Shoir qalbida shunday xotiralar borki, bir paytlar quvonchli bo‘lgan, vaqt o‘tib yo‘qotilganda esa qayg‘uga aylangan. Ular qalbga botgan yashirin shisha sinig‘i kabidir. Olib tashlamoqchi bo‘lsa, u - yashirin. Borligini unutay desa, og‘riq beradi.

Bu she’rda aynan shu holatdagi inson kechinmasi mavjud. Olisdan kelgan kakku ovozi uning qalbidagi o‘sha siniqni yana eslatib yuborgan. U xotiralariga qaytishni xohlaydi. Shu sababli g‘amli bo‘lsa ham kakku mayidan ichishni, qayg‘ursa ham o‘sha ham shirin, ham og‘riqli xotiralarga qaytishni istaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yapon xaykulari qadimgi yapon madaniyati, ta’limoti va ruhiyatini o‘zida ifoda etadi. Tabiat bilan birlasha olgan va o‘zini tabiatning bir bo‘lagi sifatida bilgan insongina xaykularni anglaydi va ijod qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Oripova G. Mustaqillik davri she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Monografiya. – Riga: GlobeEdit, 2020
2. Quronov D. “Adabiyotshunoslikka kirish”. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Quronov D. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
4. Xurshid D. “Bahordan bir kun oldin”. – Toshkent: Sharq, 1997.
5. Oripova G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120
6. Oripova Gulnoza Murodilovna, Akhmadjonova, Okila Abdumalikovna, Kholmatov, Oybek Umarjon Ugli, & Muminova, Tabassum Siddigovna (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 304-309.
7. https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/mumtoz-yapon-sheriyatidan-xokkular-rauf-parfi-tarjimalari-olim-oltinbek-xokkuning-ilk-tarjimoni.html


## ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA KO‘CHIMLAR (MADINA NORCHAYEVA IJODI MISOLIDA)


***Rajapova Xulkaroy Atabek qizi***

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti 401-bosqich 401-guruh talabasi*

*hulkaroyrajapova@gmail.com*



**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatida uchraydigan troplar, ya’ni she’riyatda ko‘chim turlaridan biri – metafora qo‘llanishi haqida so‘z boradi. Adabiyotshunoslik ilmida olimlarning so‘zning normadan og‘ishi mavzusidagi izlanishlari haqida fikr yuritiladi. Bugungi zamonaviy o‘zbek she’riyatining umidli, iste’dodli yosh ijodkorlaridan biri, “... hali tinmagan*

*tuyg‘ulariga, parishon satrlariga tiniqlik tilagan” Xurshid Davron ta’biri bilan aytganda, “iqtidorli” vakila – Madina Norchayevaning ijodi tahlilga tortiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Madina Norchayeva, ko‘chim (trop), ko‘chim turlari, iste’dod, talant, metafora.*

**Abstract.** *This article talks about the tropes found in modern Uzbek poetry, that is, the use of metaphor in poetry. In the science of literary studies, there is an opinion about the research of scientists on the topic of the deviation of the word from the norm. In the words of Khurshid Davron, one of the promising and talented young artists of today's modern Uzbek poetry, who "... wished for clarity to his unceasing feelings and confused lines", the work of Madina Norchayeva, a "talented" representative, will be analyzed.*

**Key words:** *Madina Norchayeva, migration (trope), types of migration, ability, talent, metaphor.*

**Kirish.** Barchamizga ma’lumki, kundalik hayotda, rasmiy, publitsistik nutqda, hatto badiiy nutqda ham so‘zlar o‘z ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’noda ham qo‘llanish xususiyatiga ega. So‘zlarning bu xususiyati, ya’ni ko‘chma ma’noda qo‘llanishi nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik ilmiga, nazariyasiga ham oid tushunchadir. Bu tushuncha haqida qator adabiyot darsliklarida ko‘p va xo‘b ma’lumotlar, misollar aytilgan. Xo‘sh, so‘zlarning ko‘chma ma’noda istifoda qilinishi adabiyotshunoslik ilmida qaysi atama bilan nomlanadi? Bu savolga javob topish uchun adabiyotshunoslik nazariyasiga oid darsliklarga yuzlanamiz: “So‘zning odatiy ma’nosidan o‘zga ma’noda qo‘llanishi semantik sathdagi og‘ish sanaladi. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarning umumiy nomi *ko‘chim* deb yuritiladi. Adabiyotshunosligimizda bunga sinonim sifatida yana *trop* (yunoncha ko‘chim) termini ham ancha faol qo‘llanadi. Mumtoz adabiyotshunosligimizda ushbu tushunchani anglatish uchun majoz istilohi qo‘llangan. Jumladan, Atoulloh Husayniy ta’rifiga ko‘ra: “... majoz haqiqatning ziddidur. Haqiqat lafzni o‘z yasog‘i, ya’ni nimani mo‘ljallab yasag‘an bo‘lsalar, o‘shul ma’noda qo‘llamoqtin iborattur. Majoz lafzni o‘z yasog‘idin o‘zga ma’noda yasog‘-u lafz-u o‘shul ma’no orasindagi biror aloqa-yu munosabatqa asoslanaroq qo‘llamoqtin iborattur, o‘z yasog‘ida tushunmakka moni' bo‘lguchi jumladoshini keltirmak sharti bila. Masalan, qo‘l derlar va ko‘pincha qudrat zuhuri qo‘l bila amalga oshg‘anlig‘ig‘a asoslanib andin qudratni iroda qilurlar. Sher derlar va yuraklig kishi sherg‘a o‘xshag‘anlig‘ig‘a asoslanib, andin yuraklik kishini iroda qilurlar” [1. Quronov, 2018, 274-bet]. Demak

koʻchim (ya'ni trop) – soʻzning normadan ogʻishi, ya'ni koʻchma ma'noda istifoda qilinishi. Masalan, bahor fasliga "Fasllar kelinchagi" deb qaraladi. Chunki bahor fasli yangi kelinchakka oʻxshab chiroy ochadi, bunda tabiat yangilanadi, borliqqa yangi jon inadi. Bu barchaga ma'lum oʻxshatishdir, aslida. Adabiyotning bir turi – badiiy adabiyotda, jumladan she'riyatda ham shu kabi oʻxshatishlarga guvoh boʻlish mumkin. Oʻz oʻrnida koʻchimlar ham bir necha turlarga boʻlinadi: ***metafora*** (oʻxshatish), ***metonimiya*** (qayta nomlash), ***sinekdoxa*** (qismning butuni, butunning qismi), ***kinoya*** va boshqalar (Quronov kitobida keltirilgan tasnif, 274-291-bet). Biz yuqorida koʻrgan "Fasllar kelinchagi" – bu metaforaga misol boʻla oladi. Bu misol barchaga ma'lum va barcha tomonidan ogʻzaki nutqda, yozma nutqda qoʻllanuvchi misoldir.

Bugungi yangilanayotgan oʻzbek adabiyotida yana koʻplab mana shunga oʻxshash va yangicha metaforalarni kashf etish mumkin. Zotan zamonaviy oʻzbek adabiyotiga yangi ruh, yangi nafas kirib kelmoqda. Bugungi oʻzbek adabiy jarayonida faol yosh ijodkorlar oʻzlarining yangi oʻzanlarini topish uchun haminqadar intilayotgani bugungi kunning chin oʻqirmaniga ayondir. Buning uchun harakat va mehnatning yonida yelkadosh boʻlib iste'dod ham turishi kerak. Oʻz oʻrnida mehnat va iste'dod bir-birini toʻldiruvchi tushuncha, ikkita yarimdan iborat bir butunlikdir. Erkin Vohidov oʻz kitobida bu haqida batafsil tushuntirish bergan: *"Iste'dod – bu avvalo did, yaxshi did egasi boʻlish qobiliyati, deguvchilar ham bor. Iste'dod – bepoyon tushuncha. U ta'rifga siqqanda edi, uni m a'lum xususiyatlar doirasida chegaralash mumkin boʻlganda edi, odamlar yoʻq iste'dodni tarbiyalab bor qilgan boʻlardilar. Gorkiy, iste'dodning 99 foizi mehnat deganini tugʻma iste'dodi boʻlmagan odam mehnat bilan chinakam shoir yoki bastakor boʻlishi mumkin deb tushunmaslik kerak. Har qalay 99 degani 100 emas. Suv normal sharoitda 100 gradusda qaynaydi. 99 gradus isigan suv - qaynagan suv emas. Fors tilida qaynashni "joʻshidan" deydi, ya'ni joʻshmoq. She'riyat ham joʻshmoqdir. Joʻshmoq uchun esa 99 foizdan tashqari oʻsha kamtarin bir foiz – ya'ni tugʻma iste'dod kerak"* [2. Vohidov, 1987, 15-16-bet]. Qolaversa, yosh ijodkor dastavval ijod olamiga qadam qoʻyganida katta shoirlarga, ularning ijodiga taqlid qiladi va bu tabiiy jarayon. Ammo bu taqlid butun umr davom etmasligi kerak va har bir ijodkor oʻz yoʻlini topa olishi, tuygʻularining koʻziga tik qaray olishi ham kerak. Buning uchun talant ham darkor. Zero, "talant – hech qachon yangiligini yoʻqotmaydigan yagona yangilikdir" [3. Oripov, 1988, 34-bet].

**Asosiy qism.** Bugunimizning haqiqiy yosh ijodkorlari yangilikka intilib qalam tebratayotgani, ularning misralarida nekbin tuygʻular boʻy berayotgani kunimizning she'rsevar qalblariga ayondir. Ana shunday yosh shoiralardan biri, she'rlarida betakrorlikka intilaverishdan charchamaydigan ijodkor Madina

Norchayevadir. Uning ***“Qumaru”*** nomi ostida chop etilgan she’riy to‘plamini o‘qigan she’rnafas qalb o‘zi uchun tuyg‘ularning, hslarning yangi nomini kashf etadi. She’ridagi o‘xshatishlar (metaforalar) esa yangilanayotgan, tanasiga jon inayotgan zamonaviy o‘zbek adabiyotining isbotidir. Tubanda uning ko‘chimlar qo‘llangan misralariga to‘xtalamiz:

*Ovozimni tunga to‘kib yubordim,*
*Yulduzlar simirdi xitoblarimni* [4. “Qumaru”. 11-bet).

Bir qarashda sodda, jo‘n tuyilgan yuqoridagi satrlar chuqur ma’noga egaligini ilg‘ab, har kim ham uni tahlil maydoniga torta olmaydi. Odatda, oshiqlarning tunda bedor bo‘lishi, go‘yoki ularning so‘zlariga faqatgina yulduzlar quloq solishi bu – adabiyotimizda ham, xalqimizda ham bor gap. Madina Norchayeva she’r yozarkan, bu oddiylikni yuksaklikka olib chiqadi. Ya’nikim, u demoqchi bo‘lgan so‘zlarini tunning “qadahiga” quyadi, ijodkor ta’biricha desak “to‘kib yuboradi”. Ijodkor “Mening so‘zlarimni yulduzlar eshitdi” demasdan, “qadahga to‘kib yuborilgan” jumlalarni “yulduzlar simirishi” haqida yozib, nihoyatda go‘zal ifoda, yangicha o‘xshatish qo‘llaydi. Bu esa uning shoirona kuzatishi asosida shakllangan mahoratidir. Yoki:

*Daraxt tanasidan tomgan shiradek*
*Ko‘rinib to‘kilsin ko‘nglimdan dog‘lar* (12-bet).

Bu misralar “Meni qaytadan chiz” deb boshlanuvchi she’ridan olingan parchadir. Bu misralari bilan yosh shoira tabiatni teran nigohi bilan kuzatishini isbotlab beradi. Bilamizki, daraxtlar po‘stlog‘ining jarohatlangan joyidan shira oqib chiqadi va bu shira ilmiy tilda “daraxt yelimi” deb ataladi [5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Daraxt_yelimi]. Bu tabiatdagi oddiy jarayon va o‘sha daraxt shirasini har kim ko‘ra oladi, chunki u ko‘z ilg‘ab bo‘lmaydigan narsa emas. Endi yuqoridagi misralarida Madina Norchayeva dilidagi dog‘larini, hasratini, kadarini ham qo‘shib, daraxt shirasidek aniq ko‘ringan holda ko‘nglining rasmini chizib berishini so‘rayapti musavvirdan. Umidli shoiraning bu misralari – har bir inson uchun nihoyatda yangicha o‘xshatish va ajoyib topilma. Odatda insonlar dildagi dog‘larini qanday tasvirlashni bilmaydi xoh so‘z, xoh chizilgan surat bilan bo‘lsin. Yoxud navbatdagi misralariga diqqat qaratsak:

*Kuz – yomg‘ur shevasinda bitilgan maktub* (21-bet).

Ma’lumingizkim, har kim maktubni o‘z tilida, o‘z shevasida o‘z so‘zlari bilan bitadi. Maktub yozishning aniq belgilangan tili yo‘q. Endi kuz faslida yomg‘irlar ko‘p yog‘ishi ham ma’lum. Yuqorida tilga olingan misralarni agar oddiy tilga o‘girsak “Kuz - yomg‘irlar fasli” deganidir. Bu-da bir ko‘chim. Ammo betakror ko‘chim, tabiatni ilg‘ay olish qobiliyatidir.

*Daraxtlar parishon qizlar singari*
*Yecharkan sochidan bog‘ichlarini.*
*Uchirib yuborar gulgun faslga*
*Qovjirab to‘kilgan sog‘inchlarini* (21-bet).

Odatda quyidagi jarayonni kuzatish oddiydek tuyilishi mumkin, ammo sizni-da o‘yga toldirishi bu – tabiiy hol: qizlar ba’zan ming xil o‘ylari bilan, xayoli parishon holda sochlaridan sekin bog‘ichlarini yechadi. Bu bilan kuzda daraxtlarning xomush tortishini ifodalamoqchi bo‘lgan ijodkor keyingi misralarida daraxtdan uzilib, ayro bo‘lib to‘kilguvchi yaproqlarni daraxtlarning sog‘inchlariga mengzaydi. Madina Norchayevaning bu misrasini yanada soddalashtirib, “kuzda yaproqlar (daraxtlarning sog‘inchlari) to‘kilib, daraxtlar xomush tortdi”, - deya ifodalasak bo‘ladi. Yoxud quyidagi misralarida hislarning aniq tasvirini chizib beradi:

*Asrolmaymiz bu o‘lik qushning*
*Patlariday to‘zg‘igan hisni* (37-bet).

Yosh shoira aytadiki: “hislarimiz to‘zg‘ib qolgan. Biron-bir qush o‘lib qolganida, uning qanotlaridagi patlari to‘zg‘ib ketgani singari bizning ham allaqachon to‘zg‘ib bo‘lgan bu hislarimizni asray olmaymiz”. Demak hislarining rasmini chizishda, uning ifodasini kitobxonga tiniq yetkazib berishda “o‘lik qushning patlariday to‘zg‘igan his” jumlasini qo‘llamoqda va bu misolda ham she’rsevar qalb yana bir metaforani o‘zi uchun kashf qilib oladi. Madina Norchayevaning har bir misrasini o‘qigan, ham uqqan o‘qirman borki, yosh ijodkorning bu kabi o‘tkir mushohadasiga tasannolar aytadi.

Uning ijodida ishq talqini ham yangicha nekbin, nafis, sof tuyg‘ular jilosida zuhurlanadi. Eski bir yolg‘on bo‘lmish ishqni ham oshiqlarning hislarini ham yangidan qalamga oladi. Ma’lumingizkim, oshiqlar kechalari bedor bo‘lgusi, aslida. Xayolini yorning xayoli ila bandlab, kechalari uxlay olmaydi, oqshomlari ko‘zlariga uyqu kirmaydi. Nihoyatda behalovat bo‘lishadi. Endi Madina Norchayeva mana shunday holatni oddiy o‘xshatish bilan qayta tahrirlaydi quyidagi misralarida:

*Xayolingni yoqib qo‘yibman shiftga,*
*Xonamga kirolmay darg‘azab oqshom* (56-bet).

Oshiqning bundayin beuyquligidan hatto oqshomlar ham darg‘azab bo‘lgan. Katta-yu kichikka birdek ma’lumki, chiroq xonani kech kirishi bilan oydinlatadi. Oshiq chiroq o‘rniga yorning xayolini yoqib qo‘yadi-da, butun xayolini oydinlatadi. Tabiiyki, chiroq o‘chmagach uyqu ham yo‘qdur. Bular ham aslida har kuni hayotda kuzatadigan jarayon bo‘lsa ham, ularni o‘zgacha tasvirlaydi, ishqqa, oshiqlikka go‘zal ash’orlar bitadi.

Madina Norchayeva ijodida faqatgina ishq talqinini emas, ruhan ulg‘ayish, ruhan kuchli bo‘lishga chorlovchi misralarni ham ko‘rish mumkin:

*Makon qur,*
*Istehkom,*
*Zirhlar, qal’alar.*
*Eng metin hislaring tizilsinlar saf.*
*Hech kim chiqolmasin sendan tashqari,*
*Hech kim kirolmasin o‘zingni hatlab* (81-bet).

Istehkom, qal’alar biron-bir shahar, qishloq, yurtni himoya qilish, asrash maqsadida qurilishi bizga tarixdan ma’lum. Ko‘ngil shahriga ham ana shundayin mustahkam istehkom qurmoqlik kerakki, hayot deb atalmish dengizning kuchli po‘rtanalaridan omon chiqa olsin inson, ya’ni g‘am-g‘ussalarga, oddiy qiyinchiliklarga, kadar, g‘urbatga taslim bo‘lmasin. Qiyinchiliklardan o‘zini himoya qila olsin, ularga qarshi mardonavor kurasha bilsin. Uning navbatdagi misrasi esa eng go‘zal topilma, noyob metafora ekanini haqiqiy she’rnafas qalblar nihoyatda chuqur anglay oladi:

*Oy – oqshom qozonida chaqilgan tuxum,*
*Faryod chekolmayin qovurilar jim* (90-bet).

Endi bilasizki, tuxumning oqi, sarig‘i bor. Tuxumning oqi osmondagi oy bo‘lsa, sarig‘ini esa oyning yuzidagi dog‘lar deyish mumkin. Biz ko‘pincha oyga bir tomonlama: “oy o‘z nuri bilan tunni yoritadi”, - qabilida yondashamiz. Aslida, yana bir yondashuvni kashf qilish mumkin yuqoridagi misralarda. “Chaqilgan tuxum” qozonda beun faryodi bilan qovuriladi. Buni ijodkor oyga qiyoslayapti. Xo‘sh, oy nima uchun faryod chekishi mumkin? Ha, oqshom oy bilan yorug‘lashadi, oydinlashadi. Ammo u ham o‘z yerida, falak peshtoqida turib, ne-ne hasrat, g‘am,

og‘riqlarga guvoh bo‘ladi. Kimdir yorning “xayolini xona shiftiga” yoqib, oqshomlari bedor bo‘lsa, kimningdir vujudi, dili og‘riqlardan zirqiraydi. Oy esa bularga guvoh bo‘lib, faryod cheka olmasdan jimgina “qovuriladi”, jizg‘anak bo‘ladi. Yana ham soddalashtirsak: “Oy faqatgina tunni yoritmaydi, balki azob chekayotganlarning holidan uning ham joni og‘rinadi”.

**Xulosa.** Madina Norchayeva ijodini ko‘p va xo‘b o‘rgangan holda, chuqur tahlil qilgan holda, undagi topilma boyliklarini aniqlash mumkin. Yuqoridagi ko‘chimga misol bo‘lguvchi qator misralarni yana ham davom ettirish mumkin. Nafaqat Madina Norchayeva ijodida, balki zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi boshqa vakillarning ijodida ham ko‘chimning ko‘plab misollarini topish, tadqiq qilish mumkin. Ko‘chimning qanday, qay holda qo‘llanishi endi har bir yosh ijodkorning iste’dodi, talanti, badiiy mahoratiga bog‘liq hodisadir. Madina Norchayeva qalamiga mansub mazmundor, quyuq satrlar, o‘xshatmalar, topilmalar, oddiy kuzatishlarni ham haddi a’lo darajasida tasvirlashi – tahsinga sazovor. Quvonarlisi, Madina Norchayeva kabi chin ma’noda ijod qilayotgan yoshlarning ijodini o‘qib, o‘zbek adabiyotining bo‘lajak zabardast namoyondasi, atoqli vakili sifatida e’tirof etish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: Akademnashr. 2018. – 480 b.

2. Эркин Воҳидов. “Шоиру шеъру шуур”. “Ёш гвардия” нашриёти. – Т.: 1987. 224 б.

3.Абдулла Орипов. “Эҳтиёж фарзанди”. . “Ёш гвардия” нашриёти. – Т.: 1988. 234 б.

4. Norchayeva Madina. Qumaru. T.: Akademnashr. 2022. – 96 b.
5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Daraxt_yelimi
6. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yoshlar/madina-norchayeva-sherlar.html


## SAID AHMANING QORAKO‘Z “MAJNUN” HIKOYASIDA VAFODORLIK TIMSOLI


***Razzaqov Bekzod Botir o‘g‘li***
*CHDPU BOT 1-kurs talabasi +998 947626066*
*CHDPU Ilmiy rahbar:* ***Matkarimova Sayyora Shavkatbek qizi*** *sayyoramatkarimova73@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Said Ahmad qalamiga mansub "Qorako'z majnun" hikoyasida inson bilan hayvoning do'stligi va sadoqati to'g'risida fikr – mulohazalar yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Qorako'z majnun, hodisa, sura, yozuvchi, vafodor, tasvir, sadoqat.*

***Abstract.*** *This article discusses the friendship and loyalty of humans and animals in the story "Qorako'z majnun" written by Said Ahmed.*

***Keywords:*** *Qorako'z majnun, event, sura, writer, faithful, image, loyalty.*

Said Ahmad nomi xalqimizga nosir va komediyanavis sifatida yaxshi tanish. Xalqimiz Said Ahmadning roman, qissa, hikoya va komediyalarini sevib o'qiydi. Said Ahmad 1941-yil Nizomiy nomidagi pedagogika inistitutini tamomlaydi va "Mushtum" jurnalida ishlay boshlaydi. Keyinchalik "Qizil O'zbekiston", "Sharq yulduzi" kabi gazeta-jurnallarda turli lavozimlarda mehnat qiladi. 1940-yilda birinchi mualliflik hikoyalar to'plami "Tortiq" nomi bilan nashir etildi. Uning "Cho'l burguti", "Lochin", "Bo'ston", "To'y boshi", "Odam buri", kabi hikoyalar yozdi va shu bilan o'zbek radio va televideniyasida miniatura teatriga asos soldi. "Xandon pista", "Bir o'pichning bahosi", "Xanka va Tanka" hikoyalari shular jumlasindadir. Said Ahmadning bir qancha hikoyalarini o'qiganmiz bulardan "Qoplon", "Qorako'z majnun" kabi hikoyalarda inson xarakter xususiyatlarini hayvonlar misolida ko'rishimiz mumkin. Adib asarlari maktab darsliklaridan ham o'rin olgan. Adib asarlarini bunchalik sevimli qilgan vositalardan biri kinoyadir. Said Ahmadning juda ko'p asarlarida kinoyadan mahorat bilan foydalanganiga guvoh bo'lish mumkin. Negaki, adib yashagan ijtimoiy muhitda ayrim illatlarni ochiq-oshkora yozish imkoni bo'lmaganidan aksariyat yozuvchi-shoirlar qatori u ham o'z asarlarida voqelikka kinoyaviy munosabatni ustuvorlikka ko'tardi. Ayniqsa, poraxo'rlik, xo'jako'rsinlik, laganbardorlik, ko'zbo'yamachilik, xalq va jamiyatni aldash singari illatlar satira tig'iga olingan asarlarda kinoyaning o'rni yaqqol kuzatiladi. 1941-yil Nizomiy nomidagi pedagogika inistitutini tamomlaydi va "Mushtum" jurnalida ishlay boshlaydi. Keyinchalik "Qizil O'zbekiston", "Sharq yulduzi" kabi gazeta-jurnallarda turli lavozimlarda mehnat qiladi. 1940-yilda birinchi mualliflik hikoyalar to'plami "Tortiq" nomi bilan nashir etildi. Uning "Cho'l burguti", "Lochin", "Bo'ston", "To'y boshi", "Odam buri", kabi hikoyalar yozdi va shu bilan o'zbek radio va televideniyasida miniatura teatriga asos soldi. "Xandon pista", "Bir o'pichning bahosi", "Xanka va Tanka" hikoyalari shular jumlasindadir. Said Ahmadning bir qancha hikoyalarini o'qiganmiz bulardan "Qoplon", "Qorako'z majnun" kabi hikoyalarda inson xarakter xususiyatlarini hayvonlar misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan, adibning "Sobiq" nomli yumoristik hikoyasida butun boshli bir mavsumda traktorda paxta terib nom

qozongan kishining majlislarda, suhbat va uchrashuvlarda koʻp yurib, vaqtida ishiga ulgurmaganligi uchun “sobiq”qa aylanib qolishiga kinoya qilingan. Said Ahmad asarlarida kinoyaning turlicha koʻrinishlari uchraydi. Adib kinoyadan uslubiy vosita sifatida foydalanar ekan, koʻpincha yetakchi qahramon obrazini biror-bir hayvon yoki qush obraziga zid qoʻyishi kuzatiladi. Bunda uning aksaraiyat hollarda it obrazidan foydalanishi koʻzga tashlanadi. Masalan, adibning “Qoplon” nomli satirik hikoyasida laganbardor Qurbonboyning kirdikorlari fosh etilgan boʻlib, u hatto sadoqat va vafodorlikda itchalik emasligi, hayvondan-da battarligi ochib berilgan. Adibning “Qorakoʻz Majnun” hikoyasida iymon-e’tiqodli Saodat kampirning “oʻris shaharlarida daydib qolib ketgan oʻgʻli Boʻrixon”ga qaraganda itning oʻzi yashagan, tuz totgan joyiga, egasiga sadoqati ta’sirchan yoritilgan. (Said Ahmad, 88). Hikoyaga itning aynan vafodorligi tufayli jannatga kiradigan oʻn nafar hayvonlardan biri, ya’ni “As’hobi kahf”ning iti ekani haqidagi hadis epigraf sifatida bejiz keltirilmagan.

Qorakoʻz Majnun oʻzini boqqan Saodat kampirning gaplarini tushunardi. Ayniqsa, kampir uni “qayoqlarda qolib ketding” deb urishsa, gunohkorona bosh egib turardi.Saodat aya Qorakoʻz Majnunni oʻz uyining azosidek koʻrar edi.Biroq kampirning oʻttiz ikki yil oldin oʻrislar orasida uylanib qolib ketgan oʻgʻli Boʻrixon onasining “Qayoqlarda yurganding?” degan gaplarini tushunmay, yelka qisib qoʻya qoladi. Sababi u ona tilini unutgan edi. Shunda kampir: “Tushunmadingmi? Sen boshqa odam boʻlib ketibsan”, – deydi oʻgʻliga (Said Ahmad, 95). Ukalari bilan ruscha ohangda “Salyam” deb koʻrishadi. Ayniqsa, ona oʻgʻlining boʻynidagi zanjir uchida osilgan butni koʻrib, uning dindan chiqqaniga chiday olmaydi.

Boʻrixon armiya xizmatini oʻtagan joyida, oʻrmon ichkarisidagi qishloq butxonasi qoʻngʻiroqchisining erdan qolgan qiziga oshiqu beqaror boʻlib, qiz otasining talabiga koʻra xristian dinini qabul qilib, cherkovda choʻqintirilib, toj kiygancha nikohdan oʻtadi. Qaynotasi vafotidan soʻng esa uning oʻrniga cherkov qoʻngʻiroqchiligini bajaradi. Cherkovdagi shamlarni yangilab turadi.

Hikoya jarayonlari kuzning ilk kunlarida boʻlib oʻtadi. Ushbu hikoya tili sodda, tushunarli,hech qanday murakkab boʻyoqlarsiz yoritilgan ammo bir muncha oʻylantiradigan, bir muncha achinish hissi beradigan tarzda ifodalangan.Hikoyada Saodat ayaning 32 yil orziqib,duo qilib armiyaga ketgan oʻgʻli Boʻrixon qaytib kelishini intizor boʻlib kutishi,hatto duolari ijobad boʻlib qaytib kelganida qanchalar istrobga tushib qolgan bechora shurlik ona tasvirlangan.Yillar davomida kutgan oʻgʻli islom dinidan chiqqan,oʻz tilini unutgan manfur kimsa edi.Saodat ayaning oʻgʻli mana shu “Qorakoʻz Majnun”dek bir itchalik ham mehirli boʻlolmadi.Nahot voyaga yetgazgan,oq yuvib oq taragan onaning qadri boʻlmadi.Oʻgʻlini yana bir bor

ko‘rish uchun yashagan onaizor,qaytib kelgan o‘g‘lining boshqa dinga o‘tganini bilgach bunga dosh beraolmadi,omonatini topshirdi...

Saodat aya barcha farzandlariga birdek mehribon edi.baxti ochilmagan qizi Qumriga ham har duosida baxt tiladi.Saodat ayaning iti,Qorako‘z Majnun,onasini unitib yuborgan Bo‘rixondan ming marta mehrliroq edi.Saodat aya kunlab shifoxonada qolib ketganida ham bir on ham shifoxona derazasi yonidan ketmagan Qorako‘z Majnun edi.Saodat ayaning o‘limidan so‘ng Qorako‘z Majnunning qilgan harakatlari inson qalbini o‘rtab yuboradi.Oylab onaxonning barcha farzandlarini uyidan Saodat ayani qidirishni bas qilmadi.Bechora Qorako‘z Majnun,odamlarning o‘ylamasdan quturgan it deb o‘ylashlari oqibati qurboni bo‘lib, ko‘ksini miltiq o‘qlari kemirdi...Vaholanki u egasini qanchalar yaxshi ko‘rishni isbotlab beradi. Saodat ayaning yana bir gapi, qayoqqa borsam yonimda. Bir qadam nari ketmaydi.Menga ayt-che,ukalaring, singillaring haftada bir xabar olsa oladi,olmasa yo‘q.Kasalxonada yotganimda shu itgina ko‘kragini qorga berib hovlida bir oy deraza tagida yotgan.Shu gapning o‘zi ham Qorako‘z Majnunni Saodat ayaga qanchalar mehribonligini ko‘rsatadi

Hikoya juda ham ta’sirli.Insonlarni bir-biriga mehrliroq bo‘lishga, o‘z tili,dinini oyoqosti qilmasdan bu dunyoda yashab o‘tishga chaqirishi bilan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki,hikoyada juda katta ma’no –mazmun jamlangan. O‘zbekona urf-odatlar qadri nolayiq bir farzandning qilmishlarini ko‘rsatish orqali takidlanadi.To‘g‘risi, itning vafosi bir o‘g‘ilning ona ko‘nglini vayron qilishiga nisbatan yuksak ma’naviy martabalarda turishi hamma vaqt ulug‘vorlik kasb etadi.

**Foydanilgan adabiyotlar :**

1. Abdullayev H. So‘z sehri. Maqolalar to‘plami.-T.:TDPU,2005.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.-Toshkent: Fan,2007.
3.Quronov D., Mamajonov Z.,Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati-Toshkent; Akademnashr,2010.
4.Salayev F.,Qurbonniyozov G. Adabiyotshunoslik atalamalarning izohli so‘zligi.Toshkent:Yangi asr avlodi,2010.
5.Umarov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi.-Toshkent:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.

## ZULFIYA IJODINING YUKSALISHIDA HAMID OLIMJONNING O‘RNI

***Safarova Hamrooy Qahramon qizi***
*Guliston davlat pedagogika instituti ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti 2 – bosqich talabasi*

safarovahamrooy@gmail.com (88)2785808

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada XIX-XX asrlarda yashab ijod qilgan buyuk iste'dod sohibasi Zulfiya Isroilova ijodida Hamid Olimjonning o'rni qanchalik muhim ekanligi, Zulfiyaning Hamid Olimjondan olgan bilimlari, motivatsion fikrlari batafsil keltirib o'tilgan. Zulfiya Isroilovaning o'z ijodi haqida hamda, Hamid Olimjon haqida aytib o'tgan fikrlari asosida maqola yoritilib, adabiyot shaydosi bo'lgan iste'dod sohiblariga taqdim etilmoqda.*

***Kalit so'zlar.*** *Hamid Olimjon, she'r, suhbat, jahon adabiyoti, xalq og'zaki ijodi, safar, Ra'no Uzoqova, turtki, jasorat.*

***Abstract.*** *In this article, the importance of Hamid Olimjon's role in the work of Zulfiya Israilova, a great talent who lived and created in the 19th-20th centuries, the knowledge and motivational thoughts Zulfiya received from Hamid Olimjon are mentioned in detail. Based on the opinions of Zulfia Israilova about her work and Hamid Olimjon, the article is published and presented to the talented writers.*

***Keywords*****:** *Khamid Olimjon, poem, conversation, world literature, folklore, trip, Ra`no Uzakhova, impulse, courage.*

Taniqli o'zbek shoirasi, o'zbek she'riyatining otashnafas ijrochisi, vafo va sadoqat timsoli, inson ruhiyati dunyosining betakror kuychisi Zulfiya Isroilovadir. Zulfiya Isroilovaning hayot yo'li va ijodi barchamizga ma'lum. Shoira kuchli qalam sohibasi ekanligi orqali, etni junjiktirib yuboradigan so'zlari orqali barcha qalblarga kira oldi. Negaki, uning poetikasida dard bor, alam bor, sog'inch bor, sabr bor, va so'ngida baxt bor. Hech o'ylab ko'rganmisiz, nega va nima uchun Zulfiya Isroilovani vafo va sadoqat timsoli, inson ruhiyati kuychisi deya ta'kidlaymiz, ta'riflaymiz? Boshqacha qilib aytganda, kim yoki nima Zulfiyani sadoqat timsoli qilib tanitdi? Sabr ko'zgusi qilib mashhur qildi? Albatta, bu savollarning javobi ushbu maqolada keltirilgan.

Barcha adabiyot ixlosmandlariga ma'lumki, shoiraning turmush o'rtog'i Hamid Olimjon bo'lgan. Zulfiya Isroilova bilan hayot yo'lini bog'lagan shoirning hayotini ajal farishtasi qisqartirdi. Zulfiya saratonda qolgan bahor gullari kabi so'ndi, ijod qila olmadi, yo'lning o'rtasida karvonboshisini kutayotgan karvon singari ikki yulduzi bilan qoldi. Shunday arosat yo'lida qolgan bir paytda, unga turtki bo'lgan so'zlarni eslaydi va shunday deydi: "Hamid Olimjon meni turli xil yo'nalishlarga kirib borishimga turtki bo'lganlar va u kishining so'zlaridan juda ko'p ham ilhom olganman". (https://youtu.be/nhyT_tGMXU ). Shoira yana shunday deydi: "Hamid Olimjon mening ijod yo'lim uchun porloq yo'lchi yulduz deb bilaman. Doimo meni ilhomlantirib yangi g'oyalar uyg'otishga katta hissa qo'shgan insondirlar. Hamid Olimjon doimo haqiqatni tarannum etgan va bir so'z bilan butun bir olamni mujassam etgan qalam sohibidir" (https://youtu.be/nhyT_tGMXU).

Ko‘rinib turganidek, Zulfiya hayotini va ijodini yoritgan ham, Zulfiya ichidagi bor iste’dodni yuzaga chiqargan ham, albatta, uning turmush o‘rtog‘i — Hamid Olimjondir. Birinchi prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” asarida hayoti ibratga loyiq yurtdoshlarimiz haqida to‘xtalar ekan, Zulfiyaxonim shaxsiga alohida to‘xtalgandi. “Nafaqat she’rlari balki, butun hayoti bilan o‘zbek ayolining ma'naviy qiyofasini namoyon etgan atoqli shoiramiz Zulfiyaxonimni men ham ana shunday fidoyi insonlar qatoriga qo‘shgan bo‘lardim” - deyiladi asarda („Baxtim shul o‘zbekning Zulfiyasiman”. — Janub qalqonlari. 28.02.2022./6-bet).

Zulfiya nafaqat sabri, sadoqati, balki, fidoyiligi bilan ham qalblarda hamon yashab kelmoqda. Xalq nazariga tushgan shoira o‘z-o‘zidan shoira bo‘lmadi, hayot mashaqqati, Hamid Olimjon sevgisi, Vatan mehri, onalik tuyg‘usi, hijron azobi uni poklab yuzaga chiqardi. Garchi, tuproq ham finjon bo‘lgunga qadar ne mashaqqat, minglab zarblar, urilishlar, turtilishlar ila finjon bo‘lib, inson nazariga tushib sevimli buyumiga aylanadi. Zulfiyamiz ham ne mashaqqatli kunlar, mehnat evaziga shu darajada qalblardan o‘rin egalladi va hozirgi kunda ham unga o‘xshashni istagan o‘zbek qizlari yo‘q emas. Zulfiya Isroilova Hamid Olimjonning fikrlarini, so‘zlarini eslab: “Men o‘sha vaqtlarda stolda o‘tirdi, deguncha yozaverardi, qanday bu kuch, qanday ilhom deb taajjublanar edim. Endi bilsam jahon, rus va o‘zbek adabiyotini o‘qish, o‘qibgina qolmay ularni tahlil qilish, fikrlarini yon daftarlarga yozib qo‘yish, xalq og‘zaki ijodi bilan astoydil shug‘ullanish, bu mashg‘ulotlarning bari shoir ijodi uchun doimiy ozuqa bo‘lgan ekan. Hamid Olimjon menga shuncha yillar orasida menga ham astoydil yordam berardi. Yoshman, ba’zan menga sonsiz kitoblar, qog‘ozlar ichida ko‘milib o‘tirish yoqimli tuyulmasdi. Bunday paytlarda u meni ilhomlantirish yo‘llarini topar edi. Esimda bir gal Samarqand safarida o‘zi bilan Ra’no Uzoqovaning she’rlarini olib keldi. Ta’sirchan joylarini o‘sha yoqda o‘qib berdi, keyin “Ko‘ryapsizmi ayollarimiz qanday yoza oladi, faqat jasorat kerak, iroda kerak”, - deb sekingina qo‘shib qo‘ydi. “Bilasizmi, siz yaxshiroq yoza olasiz” (https://www.instagram.com/reel/CtMOLuLAHMH/?igshid=MzRlODBiNWFlZA)

Bu suhbat menga katta turtki bo‘ldi. Zulfiyaxonim haqida O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Muhtarama Ulug‘ova shunday qimmatli ma’lumotlarni aytib o‘tganlar. “Zulfiyaxonim oilaga sadoqatli, Zulfiyaxonimda shunday bir satr borki, “Men uzoq izladim, lekin o‘zimda bir tuyg‘u topmadim, sevgidan buyuk“, sevgi deganda, bu yerda balki, Hamid Olimjonga atalgan muhabbat deb ham tushunish mumkin. Keng ma’noda, hayotga, insonga, odamlarga bo‘lgan muhabbat deb ham tushunish mumkin. Ana shu Hamid Olimjonga nisbatan olingan muhabbatni tushunadigan bo‘lsak, to‘qqiz yil birga kechgan umrlarida Zulfiyaxonim Hamid Olimjonga qay darajada vafodor bo‘lgan

bo‘lsalar, yigirma to‘qqiz yoshda Hamid Olimjondan beva qolgan bo‘lsalar ham, sakson ikki yoshga kirib vafot etgan bo‘lsalar ham, o‘sha umrlarini oxirigacha o‘sha mehr-muhabbatni, o‘sha sadoqat bilan Hamid Olimjon nomiga, xotirasiga va uning oilasiga, ayol sifatida, ona sifatida, beka sifatida kitoblarda yozilgudek, bir chiroyli sadoqat bilan yashab o‘tdilar. Zulfiyaxonim o‘zlari ham aytardilarki, – “Meni haqiqiy shoir qilgan, haqiqiy, yaxshi, she’r yozishimga sababchi bo‘lgan Hamid Olimjondir”. Zulfiyaxonimda jahon ko‘rgan ayol bo‘lishiga qaramasdan, hayo, ibo, o‘zbekona bir andisha kuchli edi. Hamid Olimjon vafotidan keyin Zulfiyaxonim juda mahzun bo‘lganlar. 1944-yilning yozida Hamid Olimjon fojiali vafot etgan bo‘lsa, 1945 yil 1- martda Zulfiyaxonim uchun Hamid Olimjonsiz kutib olingan bahor bo‘lgan. Shunday voqeani aytib berganlar. Mutaramaxonim Zulfiya sozlarini davom ettiradilar. “Man ko‘chada, g‘amgin ketayapman, hamma joy chiroyli gullagan, o‘riklar gullagan, Hamid Olimjon o‘rik gullarini yaxshi ko‘rardi. O‘rik gullarining ifori tutib ketgan, mening yuragimga o‘sha bahor sig‘may qoldi. Chunki Hamid Olimjon yo‘q edi”. deydilar.

Shunday ko‘chadan ketayotsalar, G‘ofur G‘ulom uchrab qolgan ularga. Keyin: “Ha nima bo‘ldi, qayerga ketayapsan”, desalar, Zulfiyaxonim aytganlarki: “Eee, G‘ofur aka, hech narsa yuragimga sig‘maydi. Bir yer osti yo‘li bo‘lsaki, men shu yerdan tushib ketsam...“ . — His qilyapsizmi, yer osti qayerga olib borishi mumkin. Demak, shu Hamid Olimjon oldiga ketsam, degandek fikrni aytganlar. Shunda G‘ofur G‘ulom aytganlarki: “Nima deyapsan unaqa gaplarni gapirmagin, yaxshisi sen she’r yozgin ikki kishi uchun she’r yozgin. Hamid Olimjon uchun ham, Zulfiya uchun ham she’r yozishing kerak”. Shundan keyin deydilar: “Shunaqa men to‘lqinlandim, haligi gapdan. Uyga borib yarim kechagacha yozib o‘tirdim. O‘sha biz sevgan, “Bahor keldi seni so‘roqlab” she’ri o‘sha kuni kechasi yozilgan. “Ishxonaga keldim, o‘tiribman, lekin mana shu she’rimni o‘qib bersam, kimdir eshitsa degan, ilinj bor deydilar. Yana G‘ofur G‘ulom kirib keldilar. Nima bo‘ldi dedilar, yozdim deb, o‘qib bersam, deydilar. She’rning g‘amgin joylari kelganda, G‘ofur G‘ulom: “Jigarim san bunaqa she’rlarni yozmagin, bu sani yeb tashlaydi, bunaqa satrlar, bunaqa g‘am sani yeb qo‘yadi.”- dedilar,- deydi Zulfiyaxonim. Lekin she’rni oxiriga kelganda o‘sha:

*Hijroning qalbimda, sozing qo‘limda,*
*Hayotni kuylayman, chekinar alam.*
*Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,*
*Men hayot ekanman, hayotsan sen ham.*

degan satrlarni o‘qiganlarida G‘ofur G‘ulom: “Mana, mana bu gap zo‘r bo‘pti, yaxshi yozibsan, xuddi shunaqa yozgin”, dedilar (,,Zulfiyaxonim hayoti va ijodi haqida suhbat" - Poytaxt intervyu — 01.03.2018.). Jumladan, Erkin Vohidovning

ijodkor shaxsi haqidagi quyidagi fikri e’tiborga molikdir:
“Zulfiyani shoir qilgan o‘z dardli qismati va bu dardli qismat haqidagi samimiy va ehtirosli nidosi... Uning mehr va sog‘inch bilan to‘lgan misralari judolik dardida o‘rtangan necha ming yuraklarga malham bo‘lganini, necha ming ko‘ngil daftariga ko‘chirilganini xayol qilmoq kerak...” (Adabiyotimiz sahifalari. — Toshkent— ,,Iqtisod - Moliya " — 2017./ 95bet.).

Xulosa o‘rnida shuni ayta olamizki, Zulfiyaga ruhan, jismonan malham bo‘lmoqlikni o‘rgatgan ikki ustoz Zulfiya qalbiga bitta so‘z bilan yana hayotga qaytarib mavjlantirar ekan, Zulfiya yashashda davom etadi, avval xotiralari mahzun etgan bo‘lsa, endi o‘sha xotiralaridan baxt yasaydi. Zulfiyaxonim shunday baxtni ko‘ra oldi, hayotiga, she’rlariga kirita oldi va qalblarda muhrlanadigan asarlar yaratdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. ,,Baxtim shul o‘zbekning Zulfiyasiman”. — Janub qalqonlari. 28.02.2022./6-bet.
2. hhtps://youtu.be/nhyT_Tgmxe Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim haqida hujjatli film.
3. U.Qosimov, L. Sindorov, M. Nizomova. ,,Adabiyotimiz sahifalari” — Toshkent. ,,Iqtisod – Moliya” — 2017.
4. Zulfiyaxonim saylanma asarlar.— Toshkent —2016
https://youtu.be/nhyT_tGMXE Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim haqida hujjatli film.
5. ,,Zulfiyaxonim hayoti va ijodi haqida suhbat” - Poytaxt intervyu — 01.03.2018.

## SOBIR O‘NARNING “YIGITLARNING BIRI” NOMLI HIKOYASIDA BADIIY PSIXOLOGIZM VA ICHKI NUTQ UYG‘UNLIGI

***Sanaqulova Mohiniso Toyirjon qizi***

*ToshDO‘TAU ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti, 2-kurs*

*mohinisosanaqulova@gmail.com*

*+998971250112*

*Ilmiy rahbar:H. Ahmedov, f.f.n, dotsent*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada yozuvchi Sobir O‘narning “Yigitlarning biri” nomli hikoyasining badiiy va psixologik jihatlari haqida so‘z boradi. Xususan, hikoya syujetida badiiy psixologizm va ichki nutq uyg‘unligi masalalari haqida ilmiy kuztishlar bayon qilinadi. Maqolada tipologik tahlil metodi qo‘llangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Sobir O‘nar,“Yigitlarning biri” hikoyasi, badiiy psixologizm, ichki nutq, peripetiya.*

***Abstract:*** *This article talks about the artistic and psychological aspects of the story "One of the Boys" by the writer Sabir Onar. In particular, the plot of the story describes scientific expectations about the issues of artistic psychologism and the harmony of inner speech.*

***Key words:*** *Sabir Onar, "One of the Boys" story, artistic psychology, inner speech, peripetia.*

Hozirgi zamon o‘zbek hikoyachiligida Sobir O‘narning o‘z o‘rni bor. O‘zining milliy xarakterlar aks etgan, milliy o‘ziga xos, betakror obrazlari bilan o‘qirmanlar e’tiboriga tushgan. “Haqiqiy ijodkorda yaratish ishtiyoqi hech qachon so‘nmaydi”- degan edi Sobir O‘nar bir suhbatida.[1]. Muallifning bu so‘zlari o‘zining ijodiga ham taalluqli. Chunki, biz uning qalamidan to‘kilgan ajoyib hikoyalarga guvohmiz. “Yigitlarning biri” hikoyasi ham milliy xususiyatlar, o‘ziga xos talqin aks etgan hikoyalardan biri. [2, 3-bet]

Sobir O‘narning ushbu hikoyasiga “Qanoat qorin to‘ydiradi” deya epigraf tanlanganligi hikoyaning mazmunini ochib berishdagi yetakchi omillardan biridir. Ushbu hikoyada: birinchidan, yozuvchi o‘zining mahoratini yana bir bora ko‘rsatadi. Uning mahorati bosh qahramon- Raufning ichki nutqi, kechinmalari, hayajoni (“Bu odam mol olib, mol sotish bilan daromad qilsa kerak" degan o‘y kechdi Raufning miyasidan, juda tez kechib o‘tdi bu o‘y- shu zahotiyoq unutilib, boshqa o‘ylar egallab oldi, odamning yuziga tikilib qoldi: uning juda sodda, vallomat ekanini bildi, shu haqda o‘ylay boshladi, o‘zining otasiga qiyosladi; biqiniga tiqilgan narsa “pul” degan qarorga keldi. Ha, pul! Qalinligi barzangining mushtidek keladi! “Ming so‘mlar bor-ov, voy-boy, ming so‘m-a, opqo‘ysamikan? Sezdirmay opqo‘ysam-a? Bilib qolarmikan?” Chap yelkasidagi shayton bilan o‘ng yelkasidangi Rahmon uni miyasidan siqib ushlab, ikki yoqqa torta boshladi. Shayton zorlik qilgani sayin uning oyoqlari, qo‘llari qaltirab borar, hali pulni olmagan bo‘lsa ham o‘g‘irlagandan battar titrardi; Daxshat, lekin nimadir uning qo‘lini pulga tekkizdi, tok urgandek badani jimirlab ketdi. (“Buni men olyapman, yo‘q, boshqa birov olyapti“…)ta’sirli va ishonarli qilib tasvirlagan.(7-bet)

Ikkinchidan, hikoya qurilishi hamda voqealar orasidagi bog‘liqlik (hikoyaning dastlab, bugun ro‘y bergan “o‘g‘irlik” bilan boshlanib, uni yoshligidagi aynan shunga o‘xshash hodisaga ulanib ketishi) mantiqqa bo‘ysindirilgan. Shu o‘rinda aytish joizki, yozuvchi hikoyada kutilmaganlik holati, voqealarning qarama-qarshi tomonga o‘zgarib ketishi-peripetiyadan (…Surilib-surilib zo‘rg‘a

yetdi amakining yoniga. Boyagi og‘iz juftlab, qaltirab aytolmaganini endi, ovozini chiqazib, barilla aytdi:”Amaki, pulingizni ehriyot qilsangiz bo‘lmaydimi?”, “Pulingiz tushdi”, dedi Rauf. “Olaqol seniki shu”- dedi Niyozmat aka beparvo ohangda) o‘rinli foydalana olgan va bu uning hayotiylini hamda badiiyligini ta’minlagan.(14-bet)

Uchinchidan, hikoyani psixologiya bilan bog‘lash ayni muddao. Negaki, hikoyaning ikkinchi asosiy obyekti – pul. Pul insonni ne ahvolga solishi Eshqobil Shukurning “Pul sanayotgan odam” hikoyasida (“Pul sanayotganingda o‘zingni odatdagidan kuchliroq his qilasan. Yo yana sanasamikin? Sanash jarayonida undagi bezovtalik va betoqatlik o‘rnini allaqanday hirsiy surur egallay boshladi. Qaniydi, u pul sanashni sira to‘xtatmasa. Sanayversa… sanayversa…Uning pullari millonlardan, milliardlardan oshib boraversa…U sanayversa…Jonning rohati ekanku, bu o‘yin. Poyezdlar har besh olti daqiqada uni chorlab har ikki yonidan guvillab o‘taverdilar. U muk tushgancha o‘z mashg‘ulotini davom ettirar edi…U tobora avjiga minar va o‘zi qilayotgan ishdan rohatlanardi. Endi u puli bor-yo‘g‘i to‘qqiz ming to‘qqiz yuz so‘m ekanligini unutib qo‘ygandi. Uning vujudini, ruhini, ongini huzurli bir vasvasa butunlay egallab olgandi. Kunlar ketidan oylar, oylar ketidan yillar o‘tib ketaverdilar. Va nihoyat bir kuni uning qulog‘iga kirmay qo‘ygan o‘sha yoqimli va jozibali ovoz nogahon yangradi: “Eshiklar yopiladi! Keyingi bekat: “Xalqlar do‘stligi!” U pul sanashning oxiriga yetgandi. U bir bog‘lam yuz so‘mliklarni qoqsuyak qo‘llarida changallagan ko‘yi atrofiga alangladi va boshqa bir olamga tushib qolganday ichida hayrat ham, iztirob ham baravar uyg‘onganini angladi. U sanashdan to‘xtagan edi. Ammo bu paytda poezdning barcha eshiklari yopilib qolgan edi. Uning qoqsuyak, rangpar qo‘llari bir bog‘lam uvada yuz so‘mlikni — to‘qqiz ming to‘qqiz yuz so‘mni mahkam changallagan holatda qotib qolgan edi.”[3] da o‘z aksini topgan. Ushbu ikki hikoyani qahramonlarning bir nuqtada keshishgan joy – pul va nafsning makriga aldanganligi bog‘lab tursa, birining unga yengilgani, birining esa xatosini kech bo‘lmasidan anglaganligi ular o‘rtasidagi farqdir. Bundan ko‘rinadiki, Sobir O‘nar hikoyada nafaqat inson psixologiyasiga, balki, pul magiyasiga ham kuchli e’tibor bergan. Pul qahramonni ikki marta yo‘ldan urishiga ozgina qoldi, ammo undagi vijdon g‘oliblik qildi. Natijada ichki konflikt yuzaga kelgan. Asarning psixologiyaga bog‘liqlik yana bir joyi- ota-onaning farzand tarbiyasidagi o‘rni. Rauf birinchi marta “o‘g‘rilik"ka nima sababdan qo‘l urmoqchi bo‘ldi? Albatta, yo‘qotib qo‘ygan pullarini deb, onasidan gap eshitmaslik uchun. Mana shu joyda onaning qattiqqo‘lligi (“Onamga nima deyman, nima deyman onamga endi? Magazinchi Xudoyor akadan nasiya olsammikan? Yo‘q baribir bermaydi. Qarzga bering deb aytolmayman ham. Shoshib-pishib izladi, tentiradi. Topilmadi. Shumrayib uyga qaytganida

o‘ylaganiday bo‘ldi: onasi darg‘azab bo‘lib, hamm kuyinib qarg‘adi, afsuslandi. Panshaxa bilan kurak sudragan otang bir nima orttirarmidi. Attang-a, attang” So‘ng chidayolmay “Juvonmarg o‘l-a biytganingcha”,- dedi. Yo‘q, buni ixtiyorsiz ravishda aytib yubordi. Jahli tushgach , qaytib oldi bu gapni, jahl chisa aql ketadi, axir.), buning natijasi o‘laroq farzandning tarbiyasidagi o‘zgarishlar (U o‘sha paytlari qayerdan bo‘lmasin o‘sha yigirma besh so‘mni topishni, onasiga keltirib gunohini oqlashn istardi. Hatto bir kun ayni yigirma besh so‘mni onasiga keldirib berish imkoni bo‘ldi.

Niyozmat aka degan shofyor kamzulini yechib Raufga ushlati qo‘ydi-da, o‘zi o‘yinga berilib ketdi. Shundan keyin qiziqib, uning cho‘ntaklariga qo‘l solib ko‘rdi…) o‘z aksini topgan.

To‘rtinchidan, mazkur hikoyani din bilan bog‘lamaslikning iloji yo‘q, boisi, birinchidan, qahramonning ikki marta ham qing‘ir yo‘ldan qaytishi Alloning marhamati, qahramondagi vijdon, u olayotgan ilm, insofdan bo‘lsa, ikkinchidan, yuqorida aytilganidek, unga tanlangan epigraf (Qanoat qorin to‘ydiradi) bevosita diniy tushuncha, uchinchidan, hikoyaning har ikki qismidagi yakun ham, ya’ni “o‘g‘rilik” qilishga urinndi-yu, ammo qayta olgani uchun Alloh unga o‘sha rizqni rozilik bilan berdi, to‘rtinchidan, Alloh taolo Qur’oni Karimda:" **Biz odam bolalarini**,(insonni) **azizu mukarram qildik"-** deb marhamat qiladi. (Isro, 70).[4]. Ana shular asarning din bilan bog‘liqligidir.

Oybek:"Adabiy asarlar turmushni jonli ko‘rsatib, odamlarning fikr va tuyg‘ulariga kuchli ta’sir qiladi. Badiiy chuqur, fikr-his jihatidan to‘la adabiy asarlar o‘quvchini uzoq vaqt bog‘lab, asir qilib oladi. Adabiyot turmushni abstrakt (mavhum) tushuntirmay, konkret (aniq) badiiy umumlashtirib, jonli anglatadi. Adabiy asarlar ila ma’lum bir yo‘nalishda ommani tarbiya qilish, madaniy saviyasini, zavqini ko‘rsatish mumkin. Davrni to‘lqinlantirgan ulug‘ ideyalar, vazifalar, millionlarning hayotida ko‘rilgan o‘zgarishlar san’at asarlarida tajassumlanishi kerak. “Adabiyot xalqning jon-tani bo‘lgan bir ishdir, shuning uchun bizning bu sohadagi har bir muvaffaqiyatimizni, maydonga chiqqan har bir qimmatli asarni xalq o‘z g‘alabasi” - deb biladi.[5]. Sobir O‘nar ijodi allaqachon milliy adabiyotimizda o‘zining bahosini olgan. Biz bu hikoya haqida quyidagi **xulosaga** kelamiz:

1. “Yigitlarning biri” hikoyasi-hayotiy vodealarga asoslangan asardir. Yozuchi undan badiiy haqiqat yarata olgan.

2. Sobir O‘nar “Inson-pul-vijdon” uchburchagida hikoyani psixologiya bilan uyg‘unlashtirgan.

3. Hikoyaning peripetiyasi, voqealar mantiqiyligi o‘qirmanni birday ushlab turadi va unda kuchli hayajon uyg‘otadi.

4. Hikoya milliy hikoyachiligimizning yana bir yutug‘i. U o‘z ma’nosida psixologik va tarbiyaviy asarlar sirasiga kiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sobir-onar-ikki-suhbat.html

2. Собир Ўнар. Кунсулувнинг сирли хатлари. Ҳикоялар. Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2021. – 432 б.

3. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/eshqobil-shukur-1961/eshqobil-shukur-pul-sanayotgan-odam-hikoya

4. “Қуръони Карим”. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. Т.: “Чўлпон” нашриёти. 1992. – 496 б.

**5.** https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/yozuvchilar-adabiyot-to-g-risida

## BAG‘ISHLOV SHE’RLAR: RASSOM QISMATI SHOIR CHIZGISIDA

***Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi***
*ToshDO‘TAU OTAT,4-kurs talabasi*
*gulchamngulcamn@gmail.com +998887069302*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Rauf Parfining ba‘ishlov she’rlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Asosan, o‘zbek rassomi Shuhrat Abdurashidov va nemis rassomi Van Gogga ba‘ishlangan she’rlari tahlilga tortilgan. Van Gog va Rauf Parfi o‘rtasidagi o‘xshashliklar haqida munosabat bildirilgan. Bir inson hayotini shoir qay darajada tasvirlay olganligi haqida fikrlar keltirilgan. Shoir qasidalarining boshqa ijodkorlardan farqli tomonlarini ochishga harakat qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Rauf Parfi, rassom, katrena, poetik talqin, bag‘ishlov, qasida.*

***Annotation.*** *This article contains information about Rauf Parfi's poetry. Mainly, poems dedicated to Uzbek artist Shuhrat Abdurashidov and German artist Van Gogh were analyzed. Similarities between Van Gogh and Rauf Parfi have been commented on. There are opinions about the extent to which the poet was able to describe a person's life. An attempt was made to reveal the aspects of the poet's odes that are different from those of other artists.*

***Keywords:*** *Rauf Parfi, artist, katrena, poetic interpretation, dedication, ode.*

She’r – ruhning silkinishidir. Shu bois unda botiniy keskin burilishlar, uzilishlar, qaqshatqich urilishlar – hamma-hammasi aks etadi. She’r – poetik yolg‘onning eng rost, eng mukammal shakli. Biz she’r o‘qiyotganda uning izmiga

tushamiz, lirik qahramonning dard-u dunyosiga qorishib ketamiz. Undan bosh chiqarib tashqi olamga nazar tashlaganda esa tamoman boshqa bir manzaraning guvohi bo‘lamiz. Shunda shoirning botiniy va jug‘rofiy mamlakati o‘rtasida kontrast tafovutni ko‘ramiz. Botiniy mamlakatda shoir o‘zi xohlaganday o‘ylashi, tafakkur qilishi, yashashi mumkin, jug‘rofiy mamlakatda esa yo‘q. Chegaralar, qonunlar mavjud. (1.https://yoshlikjurnali.uz/tadqiqot/rauf-parfi-sherlarining-oq-chizigi/)

Qoidalar umrni tartibga solish uchun yaratiladi. Ammo adabiyot qoidaga bo‘ysunmaydi. Adabiyot ko‘ngil ixtiyori bilan yuzaga keladi. U istar nasr bo‘lsin, istar nazm. Shunday asarlar borki, kimnidir madh etish, uni eslash, uning xotirasini (agar dildan qadrlaydigan bo‘lsa) dunyo turguncha qolishi maqsadida dunyoga keladi. Sezganimizdek, ularni bir so‘z bilan qasidalar deb atashimiz mumkin. Shoir, ko‘ngliga kuchi yetmas shoir Rauf Parfi ham o‘zining bir-biridan serjilo, zamonaviy qasidalarini abadiyatga muhrladi. Ba’zi qasidalar qaysidir hukmdor yoki kimningdir taklifi bilan yoziladi. Xo‘sh, Rauf Parfining bag‘ishlovlari boshqalardan nimasi bilan farq qiladi. Bazı qasidalar qaysidir hukmdor yoki kimning taklifi bilan yoziladi. O‘zTurkning qasidalari esa faqat o‘zi xohlagan damda yozilgan. Ular orasida hech kim tanimaydigan, ammo qaysidir insoniy fazilati bilan shoir nigohiga tushgan oddiy odamlar ham bor. Bu tahsinga sazovor ish, shu o‘rinda biz Rauf Parfining ham shaxsiyatini kashf qilib ketishimiz mumkin..

Rauf Parfining qasida, bag‘ishlov tarzida yozilgan she’rlarni “Qaytish”, “Ko‘zlar” va “Iymon asiri” kabi she’riy to‘plamlarida ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Masalan, shoining “Bag‘ishlov”, “Pulga chayib olingan nafas”, “Van Gog”, “Tafiq Fikrat kitobiga yozuv”, “Tolib Yo‘ldoshga”, “Bu kun kechdi”, “Tuyg‘ular”, “Usmon Nosir”, “Oybek xotirasiga”, “Bitiktosh”, “Pablo Neruda xotirasiga”, “Yegishe Charents xotirasiga”, “Verlen”, “Betxovin”, “Omon Aziz “Kandakorlar”” kabi bir qator she’rlarni misol tariqasida keltirsak bo‘ladi.

*Nima qilib qo‘yding Quyosh nima qilib qo‘yding*
*Eritib yubording-ku suv qilib, qurmagur*
*Takrorlanmas mo‘jizani darchamda* (2. Rauf Parfi. 1978, 87-bet.)

Yuqorida keltirilgan misralar rassom Shuhrat Abdurashidovga atab yozilgan “Tuyg‘ular” she’ridan olingan uchlikdir. Shuhrat Abdurashidov o‘zbek rassomchiliga mumtoz tasvirlarni qayta jonlantirgan inson sifatida gavdalanadi. U qisqa (29 yil) umri davomida ham fidokorona ijod qilganligini asarlaridan yorqin ifoda etgan. She’rni tahlil qilar ekanmiz, eng avval e’tiborimizni tortgan narsa Quyosh so‘zining katta harflarda yozilganligidir. Demak, bu oddiy quyosh emas ekan, balki u biron poetik qaharamondir. U ham bir insondir, suyukli yori yoxud do‘stidir. Shoir balki Quyosh bilan hayot va umrga murojaat qilayotgandir. Takrorlanmas mo‘jiza esa “erta singan novda”, rassomdir. Ya’ni “Ey, Hayot, nima

qilib qo‘yding. Endi bo‘y cho‘zayotgan shunday rassomni dunyoga sig‘dirmading”,-deyayotgandek. Umrga ta’na qilish yaxshi ish emasligini anglagan shoir unga “qurmagur” deb yumshoqlik bilan murojaat qiladi.

Rauf Parfi ko‘pgina bag‘ishlov she’rlarini rassomlarga bag‘ishlab yozgan, bunga sabab rassom va shoirlar dard asirlari ekanligidadir. Biri ko‘ngil kechinmalarini bo‘yoqlar yordamida aks ettirsa, boshqasi so‘z qudrati-la. Shoir yana bir shunday rassom haqida qasida bitgan. Uning nomini faqatgina san’at hayotida yashaydiganlargina eshitgan bo‘lishi mumkin. Nemis rassomi, achchiq qismatiga bardosh berolmay o‘z joniga qasd qilgan Van Gog haqida ham go‘zal bir asar bitmishki, bu she’rni birgalikda tahlil qilamiz.

*Buyuk sevgi rangin izlab yuradi…*
*Yozar moviylikka rangin qasida.*
*Biroq hayrat ichra qalqar yuragi*
*Ezgulik, yozuvlik chegarasida.*

Dastlabki misralarning o‘zi insonni Van Gog tomon yetaklaydi. “Buyuk sevgi rangin izlab yuradi” musavvir hayotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, u kech rassomlik qila boshlagan va boshqa rassomlardan afzalligi, u avval bu ilmni chuqur egallab, keyin qo‘l urganligidadir. Ya’ni birinchi misra ana shu kech boshlangan ijodga ishora qiladi. Ikkinchi misrada esa rassom ko‘proq ko‘k, sariq va shu rangga yaqin ranglardan foydalanganligi ifodalangan. Rassomning hayoti tushunib bo‘lmas tuyg‘ular ichida kechdi. Uning shuuri atrofdagi hodisalarni qabul qila olmadi. Dunyo ezgulik va yozuvlik chegasida, rassomning yuragi ham shu chegara orasida tentirardi. Qolgan ikki misra buning isboti.

*Hech narsasiz, lekin mehri ziyoda,*
*Izlar tiriklikning sirli bo‘yog‘in.*
*Buncha g‘arib razillar ko‘p dunyoda,*
*Kesib bersammikan qolgan qulog‘in?!.*

Shoir bu misralar bilan masavvirning moliyaviy ahvoli haqida ma’lumot bermoqchi bo‘lgan. Van Gog asarlari boshida sotilmagan, 200 dan ortiq kartinalar yaratib umri davomida bir dona surat sotishga erisha olgan. Van Gogni ukasi Teo pul bilan ta’minlab turgan. Rassom esa ijoddan og‘ishmagan, u faqat Van Gogniki bo‘la oladigan rangni qidirgan. U sherik bo‘lib ishlash uchun do‘sti Gegen uyiga taklif qiladi va vaqt o‘tishi bilan do‘stlar orasiga sovuqchilik tushadi. Gegenga qilgan munosabatidan vijdoni qiynalgan rassom qilog‘ining bir qismini kesib foxishaxonaga jo‘natadi. Misrada bundan keyin ko‘rilgan ko‘rguliklar badaliga qulog ‘ining qolgan qismini ham kesib tashlashga tayyor inson tasviri bordek.

*Qarindosh-urug‘u do‘st-u yor, xotin,*
*Uni anglamadi kibor olomon,*

*Yuragi bilgisiz zardobga to‘ldi.*

Aslida biz aqldan ozgan deb baholaydigan insonlar bizdan yuqori tafakkur egalari bo‘lishi mumkin emasmi?! Masalan, Majnunni oladigan bo‘lsak, uni ham, hattto yaqinlari ham devona ekanligiga ishonishadi. Rauf Parfi yuqori misralarda rassomda ham shunday holat bo‘lganini tasvirlamoqchi bo‘lgan. Van Gogni bir necha marotaba jinnixonaga ham joylashtirishadi. U ko‘ngil bergan ayollar esa rad javobini beradi. Yolg‘izlik sahrosida tahno qolganini tushungan musavvir yuragi zardobga to‘ldi. Bu misra bilan shoir uning dardini hech kimsaga ayta olmaganiga urg‘u bermoqda, chunki inson dardini ichiga yutganda tanada zardob yig‘iladi.

*Sha’niga xiyonat qilishdan oldin*
*Bilmoqchi bo‘ldi u, bu qanday zamon?*
*Yuragin rangini ko‘rmoqchi bo‘ldi*. (2. Rauf Parfi. 2023, 67-bet.)

Van Gog o‘z joniga qasd qilgan. Aslida o‘zini o‘ldirmoqchi bo‘lmagan deyishadi. Noto‘g‘ri otilgan o‘q suyakka tegib yo‘nalishini o‘zgartiradi. Atrofdagi adolatsizliklardan charchagan rassom hammasiga rozi bo‘lishga tayyor edi, ammo bunga uning vijdoni dov bermadi. U hatto o‘limi oldidan ukasiga “Men aynan shunday o‘lishni xohlagandim”, deb aytgan. Shoir butun umr izlagan rangini yuragidan topgan kabi…

Van Gogning maktublarini o‘qiganimda, ularda pokiza qalbli, muhabbati Men rad etilgan, tahqirlangan, asarlari uzoq vaqt tan olinmaganidan behad iztirob chekkan, ijodiy izlanishlaridan doimo qoniqmagan inson qismati mujassam bo‘lganini dil-dildan sezib, iztirob chekkanman. Mana shu taassurot natijasi o‘laroq, musavvirga bag‘ishlab she’r yozganman, uning bir maktubidan olingan va muhabbati uchun har qanday azob-u qiynoqqa tayyor inson yuragining nidosi aks etgan parchani “Bibixonim qissas” asarimga epigraf qilib olgan edim. Mana o‘sha parcha: “Men yonib turgan chiroq ustida qo‘limni tutib: “Qo‘limni qancha tutib turishga chidasam, shu vaqt ichida uni ko‘rishga imkon bering”, — deb o‘tindim. Ammo, ular chiroqni o‘chirib, “Sen uni ko‘rmaysan”, — dedilar…” (4.https://kh-davron.uz/yangiliklar/tarixiy-sana/30-martda-tugilgan-pol-verlen-vinsent-van-gog.html)

Shoir Rauf Parfi Van Gogning achchiq qismatidan ta’sirlanib yaratgan asarida uning so‘zdan qanchalik mohirona foydalanganiga guvohi bo‘lamiz. Van Gogni vaqtida kimsa tushuna olmadi. U o‘ziga darddosh bo‘la oladigan insonni izladi. Bu jihatdan O‘zTurk uni o‘ziga yaqin olgandir. U ham xurriyat, ozodlik, millat iftixor, hamiyat tuyg‘ularini yaxshi his qiladigan, yurtga qayg‘uradigan, birlashib bir kuchga aylana oladigan bir yelkadosh qidirgandir. Shu sababdan bir joyda muqim qolmasdan ko‘chib yurgandir.

Donishmand ustoz Asqad Muxtor so‘zlari bilan aytganda, “Rauf Parfi hissiyot vositasida tafakkur qiluvchi, kuchli, behalovat shoir”. U chini bilan “Yaralari ochiq, dardli shoir”. (5.https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ibrohim-haqqul-hissiy-tafakkur-shoiri.html)

Kimdir haqida she’r yozmoq uchun uni his qilish kerak, uni his qilish uchun esa yaxshilab tanishish kerak, uning dardi bilan yashash kerak. Rauf Parfining shuncha bag‘ishlov she’rlari bor ekan. Uning o‘ziniki kamlik qilgan yana boshqa shuncha hasrati, shu qadar og‘riqli yaralari bor ekan. Shoir naqadar g‘amli, shoir naqadar kuchli. Yakuniy fikrlarimizni quyidagicha bayon qilamiz:

1. Rauf Parfi bag‘ishlov she’rlarida (qasidalarida) o‘ziga ruhan yaqin bo‘lgan buyuk ijodkorlar qismatiga e’tibor qaratgan.
2. Qasidalarida lirik qahramonning ruhiyati, sajiyasi o‘ziga xos poetik o‘xshatishlar, ifodalar bilan beriladi.
3. Qasidalarda Rauf Parfining poetik mahorati, so‘z qo‘llashdagi o‘ziga xosliga yaqqol aks etgan.
4. Tahlillarimizga ko‘ra shoir ijodida mavzular xilma-xilligiga hamda original yondashuvga amin bo‘ldik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Rauf Parfi, (2023). “Iymon asiri”. Toshkent: Akademnashr.
2. Рауф Парфи, (1978). “Кўзлар”. Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
3. https://daryo.uz/2021/09/10/qulogini-kesib-tashlagan-van-gog-och-qolgan-shubert-yolgizlikda-olim-topgan-rembrandt-qashshoqlikda-vafot-etgan-buyuk-daholar-foto
4. Xurshid Davron. https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ibrohim-haqqul-hissiy-tafakkur-shoiri.html
5. G. Matyoqubova. https://yoshlikjurnali.uz/tadqiqot/rauf-parfi-sherlarining-oq-chizigi/


## “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANIDA YOZUVCHINING OBRAZ YARATISH MAHORATI


*To‘raqulova Gulsevar Omon qizi,*

*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti,2-kurs talabasi*

*Gulsevarturaqulova0@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Tog‘ay Murodning roman obrazlarini yaratishdagi mahorati, o‘ziga xos xususiyatlari talqin etilgan. Obrazlar yozuvchi g‘oyasining tub negizini tashkil etadi. Maqolada ularning hayot tarzi, maqsadlari orqali butun millatning mute’lik taqdiri, qismati ochib berilgani yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Obraz, ruhiy tahlil, paxta ishi, sujet, ayollar qismati, mute’lik, manqurtlik.*

***Abstract.*** *This article describes Togay Murad's skills in creating novel images and his unique features. Images form the basis of the writer's idea. The article describes how the fate and destiny of the entire nation is revealed through their lifestyle and goals.*

***Keywords:*** *Image, spiritual analysis, cotton work, subject, women's fate, muteness, manqurtlik.*

Yozuvchi Tog‘ay Murod tomonidan yozilgan roman rang-barangliklar insonlarning xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. O‘zbek xalqi ruslar bosqiniga uchragan paytda xalqning tinchligi uchun jonini bergan qahramonlar haqida fikr yuritiladi. "Otamdan qolgan dalalar" romanida yurtning gullab yashnashi uchun insonlar hech qachon o‘zini o‘ylamaydi. Roman syujetini ikki turga ajratgan holda tasniflash mumkin. Tinchlik yo‘liga harakat qilgan o‘zbek xalqi hamda ularning boshdan kechirgan qiyinchiliklari. Ruslar bosqinidan qutulish uchun tog‘larga ketadigan Jamoliddin timsolini keltirib o‘tish mumkin o‘sha paytda u oilasini o‘ylamagan. Jamoliddinning ayoli haqiqiy mo‘jizakor, itoatkor ayol sifatida romanda gavdalangan. Xalq Jamoliddinning "bosmachi "deganda ham ayol doim turmush o‘rtog‘iga ishondi. "Qush uyasida ko‘rganini" qiladi degandek Jamoliddinning o‘g‘li Dehqonqul ham mard erkak yurtning qahramoni bo‘lib ulg‘aydi. Ota-bobosi doim dalani o‘ylaganidek bu ham shunday inson bo‘ldi.

Uning onasi Sharq mash'ali bo‘lish uchun homiladorlik paytini ham dalada o‘tkazdi va raislar hurmatiga sazovor bo‘ldi. Romanda birmuncha ayollarning ham qahramonligi bor. Qishloq ayollari hech qachon shahar ko‘rmadilar, ba'zilari dam olishlarga oilaviy bordilar lekin aynan dala ishi bilan yurgan ayollar bora olmasdilar. Ayollar doim ko‘p paxta terib, raislarning maqtovini olishga intilardilar. Dehqonqul faqat dala va paxtani o‘ylab oilasiga vaqt ajratmadi bolalari mehr ko‘rmay o‘sdi. Chunki o‘zi ham bir paytlar shu muhitda o‘sgan edi. Roman Surxon vohasining qir-adirlaridagi hayotni yaqqol aks ettiriladi. Ayollar dalaga chiqmagan paytlari tun-u

kun mehmon kutish bilan umrlari o‘tardi. O‘sha vaqtda ham ular o‘zini o‘ylamagan.Chunki o‘z ro‘zg‘origa alohida "ta‘bi nozik" mehmonlar uchun alohida qozon qaynatardilar. Dehqonqulning ba'zi qilgan ishlari uchun onasi uni koyirdi lekin bolasini yaxshi ko‘rardi. Dehqonqul rus ayollariga havas qilgan bir paytda hayoliga o‘z ayoli keladi. Dehqonqulning ayolini sabr kosasi to‘lib, nihoyasiga o‘ziga o‘t qo‘ydi. Ayolining vafotiga Dehqonqulni ham aybi bor deyishimiz mumkin. Chunki U shaharga ketganida bo‘lgan voqea edi. Onasi chaqirdi lekin na undan va na boshqalardan yordam keldi. Biror yomon voqea bo‘lsa doimkiday raislar tomonidan yopdi-yopdi qilinar edi.

O‘zbeklar qancha mehnat qilmasin baribir "Paxta ishi" bilan sudlanadi. O‘zbeklar mustaqillikka erishguniga qadar zulm ostida kun kechirgan. Tahqirlangan bo‘lishiga qaramay, hech qachon taslim bo‘lishmagan. Masalan, romandagi Klara Xodjayevna obrazini olsak, qo‘l ostida minglab insonlarni boshqargan ayol obrazi. U ham "paxta ishi" bo‘yicha zindonband etiladi.Aybsiz aybdor Elinuri ya'ni Usmonxo‘jayevning ayoli ham zindonband bo‘ladi. Xattoki, erkaklar unga qoyil qoladi. Chunki "Yo eringdan kechasan, yo joningdan kechasan"deyilganda ham u jonidan kechishga rozi bo‘lgan. Mana haqiqiy ayol timsoli, mana haqiqiy vafodorlik. Romandagi Dehqonqulning onasi o‘g‘li olib ketilganda ham doim uni kelishini kutgan. Lekin afsuski o‘g‘il oilani o‘ylamagan faqat yurt dardida bo‘lgan. Ayollar ham ro‘zg‘orga bolalariga e'tibor berishmagan. Bolxin terimchi ham o‘z jiyanini kelin qilgani tufayli kelini vafotidan so‘ng ancha tushkunlikka tushib qolishadi. Dehqonqulning ayoli ko‘p oilalarga havas qilib, turmush o‘rtog‘iga noliydi lekin afsuski Dehqonqul dala dardida yurdi. Ruslar bosqinidan qutulish uchun ularda tog‘dek kuch kerak bo‘ldi. Ayollarda ham xuddi erkaklardagidek kuch bor. Oqpodsho qo‘liga ayollar tushganda o‘zlarini xo‘rlatib qo‘yishmagan. Chunki ular doim erkaklar kabi mard va g‘ururli bo‘lgan. Romandagi barcha qahramonlar tilidan aytilgan iboralar va gaplar ichki dunyosida nimalar borligini u yerda nimalar bo‘lganini aytib beradi.Shunaqa qiziq xarakteri bilan o‘zbek xalqi o‘zbekda. Har bir kishi ham farzandining kelajagi uchun tinimsiz ter to‘kib ishlab kelajak poydevorini baland qurmoqchi bo‘ldilar.

Yozuvchi Tog‘ay Murodning ham obraz yaratish mahorati juda kuchli bo‘lgan. Bir qahramon minglab o‘zbek xalqini akslantirgan. Ularning g‘am qayg‘usini ham ko‘rsatgan. O‘zbek adabiyotida chuqur iz qoldirgan yozuvchi barcha qissa romanlarini atrofidagi muhitdan kelib chiqqan holda yozgan. Chunki kelajak avlod bilsin ko‘rsin degan maqsadda bitdilar.Mustaqillikka erishish maqsadida o‘zbek xalqi ko‘p qiyinchiliklar ko‘rgan. Albatta, bir g‘alabaga erishguncha qadar inson sinaladi. Romanda rais egizak qizlariga ismni ham chet elning mashhur

ishbilarmonlariga havas qilgan holda qo‘yganlar. Klara Xodjayevna ajoyib bir shaxs bo‘lib yetishib chiqadi. Shunday go‘zal yurtda yelkasi oftob ko‘rmay yashagan mehmon desa borini sarf qilgan, bolasidan qizg‘onib mehmonga tutgan tanti xalq haqida o‘pkasi to‘lib-to‘lib yozadi. Dehqonqul chet eldan mehmon kelishi uchun bozordan qimmat bahoda turli xil noz-ne’matlar olib keladi-yu, ammo bo‘ladigan yoyish uchun bermaydi. Hattoki o‘z bolasini xurmo uchun og‘zi burnini qonga to‘ldirgan. Dehqonqulning yaxshi xislatlari ham yomon xislatlari ham bor. Barcha xislatlarining o‘z o‘rni bor.

Eng ayanchlisi Dehqonqulning ayoli homiladorlik davrida qirmizi olmani faqatgina orzu qila olishi mumkinligi, kunduzi ishdan bo‘shamay, yarim kechasi non yopishi, umrida mehnatdan boshqasini ko‘rmagan, arzimas tilaklarigada yetolmagan juvonning o‘z joniga qasd qilishi, ya’ni o‘zini yoqib yuborishi haqiqiy fojia edi. Yozuvchi romanni yozishda sodda xalq tilida yozadi. Bizning til bilan aytganda "jaydari" uslubda qalam bitadi.

Dehqonqulning otasi surxoni Aqrab ham qizillar imperiyasi tashkil topishiga qarshiliklar qilgan jon-jahdi bilan kurashgan qahramonlardan biri edi. Oqpodsho yurgan dalalarga u qaytib mehr bera olmasdi.O‘zbek xalqining yerga, dalaga bo‘lgan ishqi shunchalik balandki,uni o‘z yaqinlaridan ham ko‘proq asrab avaylaydi. Surxoni Aqrab o‘zining jondan aziz dalasidan voz kechib, Farg‘onani tark etdi. Unga ota-bobolaridan faqatgina mehnatkashlik xislatigina meros bo‘lib qolgan edi. Otasi va bobosiga xos yurtsevarlik erksevarlik insoniy g‘urur o‘zlikni anglash hissi unga butunlay begona edi. Sotsiolistik tuzumda voyaga yetgan Dehqonqul o‘ziga xos manqurt bir kimsa bo‘lib faqat sadoqat bilangina mehnat qilishni biladi. U dehqonchilikni miridan-sirigacha o‘rgangan, har bir niholning dardini biladigan mohir dehqon lekin yaqinlarining ahvolini sezmaydigan, his qilmaydigan shaxsdir. Paxta ishi bilan qamalib ketayotgan bir paytda ham faqat birinchi terimni va dalani o‘ylaydi lekin hech qachon bolalari hamda onaizorini o‘ylamaydigan manqurt kimsa edi.Mash’al brigadir bo‘la turib qo‘li qisqaligidan mototsikl olishga qurbi yetmaganidan, ayolining oddiy iltimoslarini bajarolmaganidan iztirobga tushmaydi. Ijaraga olingan kostyumlar bilan kengashlarga borishga uyalmaydi. Kengashdagi o‘rni ham aniq – to‘rdagilar qarsak chalsa qarsak chaladi oyoqqa tursa oyoqqa turadi.

Asarda Qurbon qoraqirg‘iz va Jamoliddin ketmonning yer savdosidagi oqibati, polkovnik Chaneshevning surxoni Aqrab mardligi oldida bosh egishi, paxta ishi davrida rahbar Usmonxo‘jayev ayolining sadoqati voqealari orqali qahramonlarning xarakteri ochib beriladi. Paxta jo‘yagida uxlab qolishi sabab zaharlanib, vafot etgan

5-sinf o‘quvchisi Ziyod va uning o‘limiga shunchaki qaragan maktab direktorining ko‘ziga bola ko‘rinmas edi. Roman yozilgan davrda bolalarni yoshligidan paxta terimiga chiqarish ularni qiynab, qancha paxta terishigacha belgilab beradigan yovuz brigaderlar hukmronlik qiladigan payt edi. Lekin ayni damda bizning yoshlarimiz 5-sinflikda bilim oladigan yoshda edilar. Afsuski yoshlikni dalaga almashgan bolalar bo‘lishgan. Oziq-ovqat hattoki yotoq joyida ham ko‘plab taqiqlarga chidagan bizning o‘zbek xalqi.Shuning uchun ham biz yoshlar bugungi kunni qadriga yetmog‘imiz darkor.

Ayollar yonmoqda O‘zbekistonda

Bu haqda yozilmas bizlar tomonda.

U qanday og‘riqdir sho‘rlik gullarni

Olovga yo‘llagan yoqqan gulxanda.

O‘sha zamonda ayollarga e'tibor berilmas, qachonki ayollar yoki qizlar ko‘p-ko‘p paxta terishsa keyin raislarning hurmatiga maqtoviga loyiq ko‘rilar edi. Yozuvchining roman orqali qishloq hayoti va ularning shahar aholisidan birmuncha farqi hamda xalq uchun joni fido shaxslar keltirib o‘tilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. “MEN QAYTIB KELAMAN” Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida. To‘plovchi: Ma’suma. Ahmedova T.: 2008

2. T.Murod Otamdan qolgan dalalar.- Toshkent: 1994

3. O‘rozov.A "T. Murodning "Otamdan qolgan dalalar "asarining til xususiyatlari haqida" Til va adabiyot ta'limi, 2009,5-son,45-47-betlar

4. Turopova, P. (2020). "Gulzor qishlog‘ining gulduraklari" qissasida uslubiy o‘ziga xoslik.

5. “MEN QAYTIB KELAMAN” Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida. To‘plovchi: Ma’suma Ahmedova. –T.: 2008.

6. Usmonov, M.T. & Shokirov.Sh.H, (2022). Teylor formulasini matematik masalalarni yechishdagi ahamiyati."«Science and Education» Scientific Journal" Scientific Journal, Tom-3,

# JADID ADABIYOTIDA O‘ZBEK QIZI RUHIYATI (A.QODIRIY, CHO‘LPON VA HAMZANING ASARLARI ASOSIDA)

***To‘ymurodova Sabrina Boboxonovna,***
*ToshDO‘TAU OTAT fakulteti 2-kurs talabasi*
*sabrinatoymurodova53@gmail.com +998931372409*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada XX asrning 20-30-yillarida yozilgan o‘zbek romanchiligi hamda dramaturgiyasining gultoji bo‘lgan Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” , Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” va Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” asarlarida o‘zbek qizi ruhiyati va davr mohiyati masalasi ko‘tariladi. O‘zbek qizi ruhiyatini va ma’naviy olamini o‘rganish, ularning xarakteri va taffakurining muhim qirralarini kashf etishda muhim hisoblanadi. Insoniyatning ong-u tafakkuri va ruhiyatidagi yangilanishlar adabiyotda o‘z aksini topadi. Biz jadidlar davridagi ijtimoiy tuzum, ayol-qizlarga munosabatdagi xalqning achinarli ahvolini Kumush, Zebi, Maryam ruhiyati misolida o‘rgandik.*

***Kalit so‘zlar:*** *Jadid adabiyoti, Kumush, Zebi, Maryam, “qurbonlik”.*

***Abstract.*** *In this article, the Uzbek girl in the works of Abdulla Qadiri, the master of Uzbek novels and dramaturgy written in the 20s and 30s of the 20th century, "Otkan kunlar", "Kecha va Kunduz" by Cholpon, and "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" by Hamza the question of the spirit and essence of the era is raised. Studying the psyche and spiritual world of Uzbek girls is important in discovering the important aspects of their character and thinking. Updates in human consciousness and mentality are reflected in literature. We studied the social system in the modern times, the attitude towards women and girls, the pitiful condition of the people on the example of Kumush, Zebi, and Maryam.*

***Keywords:*** *Modern literature, Kumush, Zebi, Maryam, “sacrifice”.*

Biz jadid adabiyoti va u davrdagi o‘zbek qizlarining ruhiyati, dunyoqarashi va xarakteri haqida gapirar ekanmiz avvalo ‘‘jadidlar o‘zi kim va ularning maqsadi nima bo‘lgan?’’ degan savolga javob berishimiz lozim. Bu davr tarixga chorizmning ag‘darilishi, muxtoriyatning tiklanishi va sho‘rolar jamiyatini qurish uchun kurash yillari sifatida kirgan. Mustamlaka yillarida bo‘layotgan qo‘zg‘alonlar, istibdodga qarshi isyonlarning hammasi xalqning ushbu tuzumdan norozi ekanligini anglatadi. Mana shu davrda xalqning boshiga kelayotgan og‘ir va mashaqqatli kunlarning asosiy sababi ilmsizlik va jaholat ekanligini anglab yetgan,millatning dardini o‘z dardi deb bilgan jadidlar yetishib chiqdi. Jadidlar mustamlakachilik siyosatini yoqlamadilar va xalqning hayotini ijobiy tarafga o‘zgartirish uchun harakat qildilar. O‘z g‘oyalarini ommaga targ‘ib qilishda qo‘llaridan kelgan barcha imkoniyatlardan unumli foydalandilar. Xususan adabiyot, san’at, maktab, matbuot orqali xalqni zulmatdan yorug‘likka chiqarishga

urinishdi. Matbuotda bo‘lgani kabi adabiyotda ham hurriyat, jaholat, maktab va maorif mavzulari asosiy o‘rinni egalladi. Ushbu davrda yaratilgan nasriy va dramaturgik asarlarning ko‘pchiligi go‘yo xalqning hayotiga oyna tutganday yozilgan edi. Ilmsiz ota-onalar va ularning jaholatda ulg‘ayib katta bo‘layotgan, hayotning asl mohiyatini anglamay hayoti g‘urbatda o‘tayotgan bolalariga achingan bu millatparvar shaxslarning sa’y-harakatlarini yozib adog‘iga yetib bo‘lmaydi. Ayniqsa jadidlar, millat onalari bo‘lmish ayol-qizlarning ta‘limiga kata ahamiyat berganliklari ular yozgan asarlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Chindan ham, qizlari faqat pishir-kuydir va qozon-tovoqqa yaraydigan millat qizlaridan nima kutish mumkin? Hech bir ayol uylarni tozalagani, mazali taom tayyorlagani uchun tarixda sharafli iz qoldirmagan. Qiz-juvonlarimizga bo‘lgan munosabatlarning tengsizligi ham ana shu bilim, ma’rifat masalalariga borib taqaladi (X.Lutfiddinova,1997,14-bet). Hamma davrlarda ham ilmli, zakovatli ayollar farzandlariga ham go‘zal tarbiya berishgan. Ayol bu-millat tarbiyalovchisi. Mana shu millat tarbiyalovchisi bo‘lgan ayol-qizlarning ruhiyatini o‘rganish va tahlil qilish o‘z davrining qadriyatlarini, tafakkurini, ma’naviy olamini o‘rganishga yo‘l ochadi. Shuningdek, jadid ma’rifatparvarlari yozgan asarlardagi ayol-qiz obrazlar ham bekordan bekorga tanlanmagan, ularning ruhiyati orqali o‘zbek qiziga xos bo‘lgan xislatlar,ijtimoiy muammolar tasvirlangan.

Buni biz nafaqat jadid adabiyotining balki o‘zbek romanchiligining yorqin namunasi bo‘lgan Abdulla Qodiriyning ‘‘O‘tkan kunlar’’ romani misolida ko‘rsak bo‘ladi. Bu asardagi Kumush obrazi yozuvchi tomonidan ohorli va latif tashbehlar bilan maqtalgan, u qiyofasi, harakatlari, imo-ishoralari, butun borlig‘i bilan nafosat yog‘dirib turgan (X.Lutfiddinova,1997,7-bet)qahramon. Shuningdek, Kumushda zakovat bilan birgalikda shijoat va mardlik ham bor. Otasi va turmush o‘rtog‘ini oqlash maqsadida keltirgan maktubni sekin-sekin ochayotgan qushbegiga qarab u shunday deydi: ‘‘ *Xudo rizosi uchun tezroq. Yo‘qsa… ikki gunohsizning qonlarig‘a botarsiz*’’ bu gapni qo‘rqmasdan qushbegiga ayta olgan Kumushning shijoati ushbu o‘rinda yaqqol namoyon bo‘lgan. Otabek ikkinchi marta uylanganini Kumushga aytolmayotgan bir paytda, Kumush o‘zining oqilaligi bilan Otabekni bu vaziyatdan olib chiqadi. Shu joyida Otabek Fuzuliyning devonini o‘qiyotgan bo‘ladi, Kumush kirib kelganini ko‘rib kitobni yopib qo‘yadi. Kumush ham yolg‘iz qolganda ushbu devonni mutolaa qilishini aytadi. Kumush kitob mutolaasiga katta ahamiyat beradigan va she’r ilmidan ham yaxshigina xabardor bo‘lganligi ushbu dialogdan ko‘rinib turibdi. Gap ayol-qizlarning ilmi va zakovati haqida ketar ekan. Abdulla Qodiriyning ‘‘ Mehrobdan chayon’’ romanidagi Ra’noni ham bunga yaqqol misol sifatida olsak bo‘ladi. ‘‘Mehrobdan chayon’’da o‘n yeti yoshli Ra’noning savodi haqida shunday deyilgan: ‘‘*Ra’no Nigor oyimning to‘ng‘uchi, bu yil o‘n yeti yoshni to‘lduradur.Savodni otasidan o‘qub,o‘n to‘rt yoshida ibtidoiy maktab pro‘g‘ramida bo‘lg‘an barcha darslarni bitirgan, masalan: diniy qismdan-‘‘Haftiyak’’,*

*“Qur’on, “Chahor kitob”, “So‘fi Olloyor”, “Maslaki muttaqin” adabiyotdan-Navoiyning barcha asarlari,devoni Fuzuliy ma’a Layli Majnun; Amiriy,Fazliy va shulardek chig‘atoy-o‘zbek katta shoirlarining asarlari; forsiydan-Xoja Hofiz Sheroziy vav Mirzo Bedil,husni xat,insho va boshqalar. Bu kunlarda bo‘lsa bir tomondan qizlarg‘a saboq berib onasig‘a ko‘maklashsa, ikkinchi tarafdan otasidan qofiya(arab nahv va sarfi) hamda Shayx Sa’diyning “Guliston”idan dars oladir va shuning qatorida o‘zi yaxshi ko‘rgan chig‘atoy-o‘zbek shoirlarining badi’a asarlaridan alohida bir majmua tuzib yuriydir..*”. Bu shunchaki Ra‘noga Abdulla Qodiriy tarafidan berilgan ta’rif bo‘lsa-da, buning zamirida yozuvchi orzusidagi o‘zbek qizning tom ma’nodagi qiyofasini yaratadi. Abdulla Qodiriy qadriyatlariga sodiq, millatparvar shaxs bo‘lgani uchun ‘‘O‘tkan kunlar’ romanida o‘zbek xalqiga xos xarakterlar yaqqol aks etgan. Ayniqsa, o‘zbek qizlarining andisha, hayo, kattaga hurmat singari beqiyos xislatlari Kumush zaharlanib yotgan paytda, uning holidan xabar olish uchun qaynotasi Yusufbek hoji kirib keladi, Kumush o‘lim to‘shagida yotgan bo‘lsa ham qaynotasini tanib, odob bilan o‘rnidan qo‘zg‘almoqchi bo‘lgan o‘rinda namoyon bo‘lgan. Bu romanni o‘qir ekanmiz yozuvchining ayol fitratini qanchalar yaxshi o‘rganganini tushunib yetamiz. Asar qahramoni Kumush o‘z zakiyligi va xulqi bilan hammaning ko‘nglini oladi. Hattoki uni ko‘rishga ko‘zi yo‘q O‘zbekoyimning ham erkatoy keliniga aylanadi. Kumush o‘ziga va Otabekning muhabbatiga ishonadi. Lekin ayol fitratiga xos bo‘lgan rashk tuyg‘usi undan ham holi emas edi. Shuning uchun ham onasiga yozgan maktubida, Otabek har kun kundoshlar orasida bo‘ladigan janjallardan charchagani va endi yana janjal bo‘lsa ikkoviga ham javobini berishini aytganini yozadi, uning bu aytgan gaplari ikkimizga emas, balki bittamizgagigana xos ekanligini Zaynab bilishidan qo‘rqdim deydi. Kumush Otabekni qanchalar rashk qilsa ham, Zaynabga yaxshi muomalada bo‘lar edi. Ba‘zan bu rashkni ‘‘kosa tagida nim kosa’’qabilidagi so‘zlar bilan bildirib qo‘yishida uning so‘zga chechan va hozirjavobligi namoyon bo‘ladi. Kumush shijoatli obraz. Uni ideal o‘zbek qizi timsoli desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz esa uning xarakteri va ruhiyatidagi ayrim qirralarni ochdik xolos.

Cho‘lponning ‘‘Kecha va kunduz’’romanidagi Zebi tom ma’noda Kumushga teskari xarakter egasi. ‘‘O‘tkan kunlar’’ning bosh qahramonlaridan biri, ulug‘ muhabbat egasi Kumush hokim sinf vakillari ichidan tanlab olingan bo‘lsa, Cho‘lpon ‘‘Kecha va kunduz’’ida eng kambag‘al u topgani bu topganiga yeta bermaydigan oiladan chiqqan o‘zbek xotin-qizlarini tasvir obyekti qilib oladi (X.Lutfiddinova,1993,3-bet). U cheklovlar va ta’qiqlar ichida katta bo‘lgan qiz. Lekin Zebi o‘sha davr o‘zbek qizlarining beg‘ubor, samimiy, soddadil bir ko‘rinishi. Zebi asarda alohida xarakter sifatida o‘sib chiqmagan, u voqealar rivojiga ta’sir o‘tkazmaydi. U shunchaki oqim bo‘ylab suzishga majbur qilingan. Har narsaga ko‘nuvchan, moslashuvchan sodda o‘zbek qizi. Bunday bo‘lishiga muhit ayniqsa oila muhitining ta’siri katta. Hamma davrlarda ham voqea va

hodisalarga o‘z zamonasi talablari asosida baho berish o‘rinli. Zebi ham o‘z davri va zamonasining farzandi(X.Lutfiddinova,1993,8-bet). Lekin Zebi hayotdagi hamma narsaga muhabbat ko‘zi bilan qaraydi, u hayotning past-balandini hali anglab yetmagan, misoli yosh boladay bir qiz edi. Hali oq-qorani yaxshi tanimay turib, uyiga sovchilar allaqachon kela boshlagan. Zebi esa turmush haqida shirin hayollar suradigan qizlardan emas edi.U har kuni ota-onasi orasida bo‘lgan janjallardan bezillab qolgan, yana xohlagan odamiga tushmushga chiqa olmasligini ham bilardi.Chunki Razzoq so‘fi qizining orzu-istaklari bilan qiziqadigan inson emas. Shunga qaramay, Zebining qalbida hayotsevarlik,jo‘shqinlik hamisha barq urib turardi. Aslida Zebidagi shijoat so‘ndirilgan, qalbidagi hamma hislarni jism qafasida saqlashga majbur etilgan edi.Cho‘lpon imkoniyatlari cheklangan, ilm-u ma‘rifatdan uzoq lekin sodda,beg‘ubor,ko‘ngilchan Zebi orqali o‘sha davrdagi xalqqa ishora qilayotgan edi. Insonlar hur fikr yurita olmaydi,qo‘llari va erki bog‘langan,jaholat botqog‘iga botgan edi. Biz aslida Zebiga emas,jamiyaning ahvoliga achinishimiz kerak.Asarning eng achinarli manzaralaridan biri sud jarayonidir. Hattoki musichaga ham ozor bermaydigan sodda Zebining bo‘yniga Akbarali mingboshini o‘ldirganlik tamg‘asi bosilishi, Zebining miyasini falaj bir holga solgan edi. U atrofidagi voqealarga o‘ta loqayd boqardi, yoki tushunmasdi…Hattoki, hozir sud jarayonida taqdiri qay yo‘sinda hal bo‘layotganini emas balki, bu yerdan chiqqach uyiga qanday yetib olishni o‘ylayotgan bo‘ladi. Sud jarayonida ham faqat aybdorga berilgan savollar, tergov protokoli va hukmnomaning eng kerak joylari tarjima qilinar boshqa so‘zlar rus tilida ketardi. Zebi esa unga qo‘yilayotgan ayblovlarni anglamas, anglagan taqdirda ham o‘zini oqlashga kuchi va imkoniyati yetmasdi.U mavjud tuzumning, jamiyatning chirkin tartiblarining qurboni bo‘lgan,guldek umrini nohaq qo‘yilgan ayblov tufayli surgunda o‘tkazgan sodda o‘zbek qizi edi.

Jaholat,feodal tartiblar va mavjud tuzumning qurbonlaridan yana biri Hamzaning ‘‘Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari’’ asaridagi Maryam obrazidir. Bu obraz orqali Hamza xalqni uyg‘oqlikka chaqiradi. O‘zbek qizlari ongiga ‘‘ayol itoatkor bo‘lishi kerak’’degan tushuncha chuqur o‘rnashib qolgan (X.Lutfiddinova,1997,6-bet). Itoatkor, muloyim, moslashuvchan Zebilarni tarbiyalayotgan millatda Maryamday qizlarning paydo bo‘lishi kutilmagan hol edi. Kumushbibi ham Zebiniso ham ilk qalb tug‘yonlarini, muhabbatlarini o‘zlaridanda yashirishga tirishadilar, birov sezib qolishidan uyaladilar…(X.Lutfiddinova,1997,6-bet).Maryam esa qalbidagi hislarni aytishdan hech tortinmaydi. U shijoati, jasurligi, mustaqil fikriga egaligi bilan ajralib turadi. Millatga Maryamlar kerak, lekin Maryamlarning umriga zavol bo‘luvchi millat kerak emas. Bu asarda o‘zbek qizlarining haq-huquqsiz, himoyasiz ekanligi bu holatdan o‘zini ‘‘din peshvosiman’’deb yurgan munofiqlarning o‘z nafsi yo‘lida foydalanishi ayanchli holda ochib berilgan.Bu pyesa yaratilgan paytda oddiy mehnatkash xalq savodsiz bo‘lgan.Ular gazeta, kitob mutolaa qilmagani uchun Hamza ularning o‘z hayotini o‘ziga ko‘zgu

tutganday teatr orqali namoyish etadi. Asarda Hamza o‘z ichki nidolarini Maryam orqali ifodalagan edi. Maryam onasiga qarata: ‘‘*Onajon bas, ko‘p yig‘lamang! Qulog‘imga yoqmaydi. Hamma ishga o‘zingiz sabab bo‘ldingiz. Dunyoni suydingiz, ammo joningizdan ortiq farzandingizni suymadingiz, mendin ko‘z yumdingiz,bu kungi hollarimni fikr qilmadingiz… Endi nima uchun yig‘laysiz*’’ deydi. Bu Maryamning o‘limoldi so‘zlari bo‘lib, u onasiga haqiqatni aytadi lekin otamga buni tushuntirolmadim deydi. Shu vaziyat orqali Hamza qizlarning ijtimoiy muhitda, oilada roli yo‘qligini mohirona tasvirlaydi. Eshonni ‘‘xoin,diyonatsiz,zolim’’deb haqoratlab, uni oldiga yaqinlashtirmagan jasur Maryamning o‘z otasiga so‘zi o‘tmasligi ayanchli holat. Maryam eshonga qarata: *Sen aytg‘on dunyoparast maning otam bila onam johil, sening kabi zolim, rahmsiz.Men bezor mundog‘ zaharlik davlatdan,matlabsiz hayotdan”* deyishi uning xuddi jadidlar kabi mutaasiblardan, tuzumdan, jamiyatdan norozi ekanligini ko‘rsatgan. Maryam shijoatli, millatparvar, jasur, hur fikrli o‘zbek qizidir. Afsuslar bo‘lsinki, bu tuzum, bu jaholat o‘sha davrdagi qanchadan qancha Maryamlarning umriga zavol bo‘ldi, qanotlarini sindirdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish mumkinki, hamma davrlarda ham ayol-qizlarning ruhiyatini o‘rganish dolzarbligicha qolaveradi. Ko‘pincha hissiyotga tayanib ish ko‘radigan bu xilqat vakilalarining adabiyotdagi o‘rni beqiyosdir.Biz yuqorida tahlil qilgan Kumush, Zebi, Maryam obrazlari bir-biriga teskari xarakter va ruhiyat sohibalaridir. Lekin ularni birlashtirib turuvchi asosiy narsa ‘‘qurbonlik’’dir. Mavjud tuzum va turmushning qurboniga aylangan o‘zbek qizlarining timsoli bo‘lganliklaridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Suyunova Z.‘‘Abdulla Qodiriyning O‘tkan kunlar romanida millat qizlari tasviri’’maqolasi- T.: Toshkent 2022
2. S.Mirzayev ‘‘XX asr o‘zbek adabiyoti’’- Toshkent ‘‘Yangi asr avlodi’’2005
3. Aliqulova.D.B ‘‘Badiiy adabiyotda ayol obrazining tasviri’’ maqolasi-T.;Toshkent 2022
4.Davronov.A.S ‘‘Hamzashunoslikning takomil bosqichlari’’ PhD dissertatsiya-Toshkent 2023
5. Cho‘lpon ‘‘Kecha va Kunduz’’-Toshkent ‘‘Sharq’’-2000
6. X.Lutfiddinova ‘‘Zebi,Zebona’’-Toshkent-1993
7. . Abdulla Qodiriy ‘‘O‘tkan kunlar’’-Toshkent ‘‘Yangi asr avlodi’’ 2019

## LUQMON BO‘RIXON HIKOYALARIDA PORTRET YARATISH MAHORATI

***Turdiyeva Navruzgul Ro‘ziboy qizi,***

*ToshDO‘TAU O‘zbek adabiyoti mutaxassisligi*

*2-kurs magistranti*

*turdiyevanavruzgul@gmail.com*

*+998902459942*

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada Adib Luqmon Bo‘rixonning hikoyalarida portretning personajni tasvirlashdagi ahamiyati, hikoya badiiyatiga qo‘shgan hissasi, portretning turlari haqida so‘z yuritilgan. Badiiy portretning kitobxonga ta’siri, yozuvchi uslubining o‘ziga xosligini ko‘rsatib berishda portretning ahamiyati haqida ham to‘xtalingan. Portretning qahramon ichki tuyg‘ulariga mutanosibligi tekshirilgan. Adabiyot nazariyasi kitoblarida berilgan portretning turlari yozuvchining hikoyalarida deyarli hamma turlari borligi aniqlandi.*

***Kalit so‘zlar**: Badiiy portret, yozuvchi uslubi, statik portret, dinamik portret, personaj, situativ, qat’iy, sintetik portret*

***Abstract**: This article talks about the importance of the portrait in describing the character, its contribution to the art of the story, and the types of the portrait in the stories of the writer Luqman Borikhan. The impact of the artistic portrait on the reader, the importance of the portrait in showing the uniqueness of the writer’s style was also discussed.The proportionality of the portrait to the hero‘s inner feelings was checked.It was found that the types of portrait given in the books of literary theory are almost all types in the stories of the writer.*

***Keywords:** Artistic portrait, writer’s style, static portrait, dynamic portrait, character, situational, strict, synthetic portrait.*

Badiiy obrazning muhim qirralaridan bo‘lgan portret personaj haqida kitobxonni ilk taassurot bilan tanishtiradi. Portret obraz tasvirini ochib berishda eng muhim vosita hisoblanadi. Hikoyanavis obraz portretni bekordan-bekorga kiritmaydi. Portret orqali personajning ichki va tashqi dunyosi haqida ma’lumot olish mumkin.Yozuvchi ham portret chizishim kerak ekan deb to‘g‘ri kelgan so‘z bilan personaj tasvirini chizavermaydi. Portretda ham badiiylik, personajning xarakterini ochib beruvchi unsurlar, yozuvchining yaratayotgan obraziga munosabati o‘z aksini topgan bo‘ladi.Yozuvchi portret chizishda rassom bo‘lishi kerak. So‘zning qudrati bilan obrazni o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantirishi lozim. Portret haqida D.Qur’onov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyevalar hammuallifligida yaratilgan ‘‘Adabiyotshunoslik lug‘ati”da ta’rif quyidagicha beriladi: ‘‘Portret (fr. Portraire-tasvirlamoq)-1)personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va xarakati, qiliqlari)

o‘quvchi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri.

P. epik asarning kompozitsion unsuri bo‘lmish tavsifning bir ko‘rinishidir. Shartli ravishda statik va dinamik P.ning turlari farqlanadi. Statik deyilishiga sabab shuki, P.ning bu navida personajning tashqi qiyofasi syujet voqeasi to‘xtatilgan holda ancha mufassil, detallashtirib chiziladi. Odatda, bunday P.lar personaj asar voqeligiga ilk bor kirib kelgan pallada beriladi. Dinamik P. deganda esa mufassal tasvir emas, balki voqea va dialoglar tasvirida, ya’ni harakat davomida berib boriluvchi personaj tashqi ko‘rinishiga xos ayrim detallar nazarda tutiladi. Bunday P. detallari (yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakati qiliqlari) ko‘proq remarkalardan joy oladi va personajning ayni paytdagi ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi. Adabiy asar muallifi personaj P.ni mufassil chizishi yoki uning qiyofasiga xos ayrim detallarni berish bilan qifoyalanishi mumkin. Chunki P.-vosita, demak, uning qanday bo‘lishi muallif badiiy niyati, uning o‘ziga xos tasvir uslubi, personajning asarda tutgan mavqeyi kabi qator omillar bilan bog‘liqdir”. ( Адабиётшунослик луғати, 2010, 226) Albatta, kichik janr bo‘lmish hikoyada ham bir nechta portretlarga duch kelamiz.

Personajning qiyofasini xayolimizda gavdalantirish uchun bu bizga katta yordam beradi. Personajning umumiy ko‘rinishiga portret berilishidan tashqari ma’lum o‘rinlarda personajning ruhiy holatiga, xatti-harakatlariga ham adib tomonidan portret chiziladi.Yozuvchi Luqmon Bo‘rixon mana shu holatlarni yaxshi tasvirlab berolgani uchun ham adabiy davralrda ruhiyat rassomi sifatida tilga olinganini professor Q.Yo‘ldoshev ta’kidlab o‘tadi.( L.Bo‘rixon, 2019, 285) mustaqillik davrida sermahsul ijod qilgan yozuvchilardan sanaladi.Uning hikoyalarida ham zamon ruhini ko‘ra olamiz. Odatda, har bir yozuvchi istaydimi yo‘qmi o‘zi yashayotgan muhitni tasvirlab asar yozadi. Luqmon Bo‘rixon hikoyalarida o‘zgarib borayotgan hayot tarzi, insonlar uchun yaratilayotgan qulayliklar, odamlar ongida va munosabatlarida bo‘layotgan evrilishlar, qishloq va shahar hayotidagi mutanosibliklar, farqli jihatlar, qishloqdan kelgan insonning shaharda yashashi, ayol va erkaklar bajarayotgan yumushlarning o‘zgaryotgani kabilar bilan birga tarixga murojaat tarzida yozilgan hikoyalarni, ma’naviy-tarbiyaviy ruhda yozilgan hikoyalarni uchratamiz. Bularning barida qahramon psixologizmi mahorat bilan yoritilganiga guvoh bo‘lamiz.Aslida, asarlarining yutuqli tomoni ham shunda hisoblanadi.

O‘zbek hikoyachiligida maktab yaratgan Abdulla Qahhor bu haqida shunday degan edi:‘‘Psixologizm kishilarning ichki dunyosiga, ularning latif-zarif tomonlari va go‘zalligiga yaxshi e’tibor qilish to‘g‘risida jiddiy o‘ylab ko‘rish fursati yetdi. Bu

yozuvchilik mahoratining eng muhim jihatidir”. Yozuvchi ayollar obrazini yaratishda ham o‘ziga xos portret yaratgan. Ayollarga xos hislatlarni, ayol kechinmalarini badiiy yo‘sinda chiroyli tasvirlab bergan. Badiiy obraz yaratish vositalaridan biri portret xarakteri asar janriga hamda yozuvchining ijodiy metodi va individual uslubi xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, portret personaj xarakterining yozuvchi eng muhim deb hisoblagan jihatlarini ochib beradi. U adabiyotda qadimdan mavjud.

Xalq og‘zaki ijodida inson individuallashgan shaxs sifatida tasvirlanmaganligi uchun uning portreti ham ko‘pincha mavhum, umumiy xarakterga ega. G‘azallarda yorning tashqi qiyofasi oy, quyosh, yulduz, tun va kun kabi narsalarga nisbatda ko‘rsatilgan. Realist yozuvchilar tashqi qiyofani batafsil tavsiflaydilar, unda davr va hayot tarzi bilan bog‘liq holda ro‘y bergan o‘zgarishlarni aynan aks ettiradilar.XIX asrda portretning ichki yoki psixologik(ruhiy) portret deb atalgan turi tarqalib, unda personajning xarakteri-belgilari va ruhiy kechinmalari majmui ochib beriladi. Luqmon Bo‘rixon realist yozuvchi sifatida qalam tebratib, psixologik portretning go‘zal namunalarini chizgan. “Badiiy asardagi portretning xarakteri va funksiyalari rang-barang bo‘ladi. Biroq portretning eng muhim xarakteri uning psixologik portret bo‘lishidadir. Psixologik portret yozuvchiga personajning tashqi ko‘rinishi orqali uning ruhiy dunyosini ochishga yordam beradi. Shuning uchun aytish mumkinki, portret yozuvchining shaxsiy uslubi, mahorati va maqsadiga bog‘liq holda turlicha darajada berilishi mumkin”( Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha -o‘zbekcha izohli lug‘ati,1983, 252). Hikoyada portretga mufassil o‘rin ajratish kitobxonni zeriktirishi mumkin. Shuning uchun hikoyanavis me’yor qoidasini yaxshi bilmog‘i zarur.

Yozuvchining hikoyalaridagi portretlarga diqqatni qaratsak: ‘‘Boltaboyning bolasi’’ hikoyasidagi Qayum Ochilovichning portreti: yelkasiga yelvagay tashlan gan oppoq xalat tugmasini asabiy o‘ynagan ko‘yi shifoxona yo‘lagida betoqat yurinib turgan Qayum Ochilovich Idrisov qarshisidagi oynabad eshikka tez-tez umidvor ko‘z tashlab qo‘yardi. U yon-bu yon sassiz, sharpasiz o‘tib qaytayotgan hamshiralar, xizmatchilar siyrak sochlariga quyuq oq oralagan, po‘rim ust-boshli, amaldornusxa bu kishiga bosh irg‘ab salom berishardi. Xayollari parishon Qayum aka esa ularni deyarli payqamaydi. Bu tasvirdan ko‘z oldimizga beixtiyor yaqin insoni o‘g‘ir dard bilan shifoxonaga tushgani sababli yuragi qisilib bemor ahvolidan xabar kutayotgan boy inson tasavvurimizda gavdalanadi. Ko‘kish libosli, yalpoq yuz, qiyiq ko‘z shifokor deya keltirilgan ta’rif orqali esa shifokorlarga xos oddiy taassurotni va bu insonning Qayum Ochilovichga begona kishiligini bilib olish mumkin. Bular statik portretning namunalariga kiradi.Hikoyaning nomidan ham

portretlarga boyligini sezsa bo‘ladi. Boltaboyning bolasi deyilganda ,albatta, u kim ekan, qanaqa inson ekan degan o‘quvchida savollar paydo bo‘ladi.

Yozuvchi ushbu savollarga javobning ma’lum bir qismini portet orqali berishga urinadi. Boltaboyning portreti muallif nutqi orqali keltirilib o‘tiladi u haqida faqat tavsifgina bor. U hech qaysi o‘rinda voqea rivojida ishtirok etmaydi. Boltaboyning eslanishi esa uning o‘g‘li qanaqaligini bilishimizga yordam beradi. Boltaboy qishin-yozin egnidan ohorsiz, olacha to‘n tushmaydi, qari eshagini qichab boqqa borib-kelib yuradi. Bu aslida badavlat odam, qurumsoqligidan yupun-yuvosh yuradi, deb kulishadi ko‘plar. Hazil-mazax bilan uning ismiga atay ‘‘boy’’ qo‘shib ‘‘Boltaboy’’ deb atashadi. Shuning uchun ham butun urug‘-aymog‘i bilan o‘qimishli, baland kursilardan tushmagan Idrisovlar Bolta akaning qarindoshligini tan olish nari tursin, ko‘rganda ters qarab o‘tishga harakat qiladi. Ammo qari bog‘bon ahyon-ahyon bog‘ning meva-chevalaridan, tomorqaning sabzavotlaridan ko‘tarib qiyshayibgina darvozadan kirib keladi.

Keng-mo‘l hovlidagi chorpoyaga omonatgina ket qo‘yib, uzundan-uzoq duo qiladi, undan-bundan suhbatlashgan bo‘ladi. U har gal qop qo‘ltiqlab uy yonida qora berganida Qayum Ochilovichning afti burishadi, hoynahoy, biror yumush bilan kelgan bo‘lsa kerak, degan o‘y xayolidan o‘tadi. Ammo Bolta aka bu uzoq qarindoshidan shu paytgacha hech qanday iltimos qilgan emas. Andak o‘tirgach, indamaygina ortiga qaytib ketadi. Bu tasvirdan Botaboyning xarakterida xokisorlik borligi, mehnatkashligi, silayi rahmi bor insonligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Qarindoshlari yupin kiyingani, ahvoli o‘ziga yarasha ekanligi , o‘zlari esa o‘ziga to‘qlardan bo‘lgani uchun bu qarindoshidan o‘zlarini olib qochishi ma’lum. Fe’li keng, madaniyatli, o‘z o‘rnini biladigan ota tabiiyki o‘g‘lini saviyali qilib voyaga yetkazishiga shak-shubha yo‘q. Ikkiyuzlamachining qanday ekanligini sharoit oshkor qilib qo‘yadi.

Hozirgi kunda odamlar kimdan foyda bo‘lsa, o‘shanga yaxshi muomila qilishga urinishadi. Odamiylik, silayi rahm kabi insoniylikka xos fazilatlar obro‘, mansab,foyda oldida ikkinchi planga chiqib borayotganini atrofimizdagi odamlarni kuzatish orqali ham bilamiz. Qayum Ochilovich ham tan olgisi kelmaydigan qarindoshini (hamqishlog‘i sifatida ham tan olmagan) boshqa millat(nemis) vakillari ham e’tirof etadigan darajada zo‘r bo‘lib ketganini bilib, yumushi shu inson orqali bitishini payqagandan so‘ng, muomilasi o‘zgaradi. Xotinining Boltaboyning bolasi degan so‘ziga qarshilik qilib, Boltaboy tog‘a deb gapir deyishidan Qayum Ochilovichning aslida qanday insonligi to‘laligicha oydinlashadi. Bu tipdagi odamlarning ko‘payib borayotgani esa qarindosh-urug‘chilik munosabatlarining darz ketayotganiga ishoradir. “O‘tirik’’ hikoyasida qahramonning ruhiy olami

pokligi, yaxshilikka tashnaligi uchun insonlarni ham chiroyli qiyofada koʻrishga odatlanganini koʻramiz.Aytishadi-ku, xayollari sof insonning tilidan ham sof, samimiy soʻzlar chiqadi.Shevalarga boy boʻlgan ushbu hikoyada personajlarning tili ham samimiylik va soddalikni ifodalashga xizmat qilgan.

Xalqimizda oq rang begʻuborlik,yaxshilik, yaxshi kunlar timsoli sifatida qaraladi. Shuning uchun ham kelinlar oq libos kiyishadi. Ushbu hikoyada oq rangiga urgʻu beriladi:oppoq lasetti, oppoq odam. Hikoyada portret roviy va qahramon nutqi orqali keltiriladi.Qahramonning portreti taksi kutib turgandagi holatida: qassobxona biqinida jonsarak turgan, olacha chopon, koʻk sallali,jikkak jussa qariya sifatida tasvirlanadi.Hikoya qahramoni boʻlgan keksa chol kamsuqum, tortinchoq, davlatning siyosatiga mutlaq ishonadigan, xalqning kichik tashvishlari bilan kursida oʻtirgan odamlarni bezovta qilishni xohlamaydigan soddadil odamdir. Mamlakatimizning choʻl hududlarida quduqqa, suv chiqarish uchun suv nasoslariga ehtiyoj borligi kunday ravshan. Davlatimiz bunday hududlarni obodonlashtirish uchun harakat qilyapti. Xalqning oʻzi takli va murojaatlar bilan chiqsa, bu ish tezroq hal boʻlishi mumkin.Axir hokim ham hamma joydagi ahvolni besh qoʻlidek bilmaydi. Sodda, xokisor qahramonimiz qishloqdoshlarining qishlogʻi uchun quduq qazib berish haqidagi murojaatini hokimga yetkazish uchun kelgan vakildir. Qariya hokimiyat binosiga kelganida, ichkariga kirishga iymanadi. Ulugʻ insonning qancha katta yumushlari bor deya, oʻzining yumushini arzimas sanab, muammoni oʻzi hal qilmoqchi boʻladi. Baxtni qarangki, qariya ortiga qaytish uchun taksi kutib turganda, hokim buvaning moshinasiga oʻtirib, u bilan suhbat qurib ketadi. Hokimning portreti ikki oʻrinda beriladi.

Roviy tomonidan xumkalla, qosh-qovogʻi soliq, qop-qora odam deb keltirilsa, qariya xayolida hokimni oppoq, kelishgan, boʻyinbogʻli odam deb ta’riflab beradi.Haqiqatda, ma’lum toifadagi insonlarga nisbatan koʻrmasakda, xayolot olamimizda tasvir bor. Bu tasvir esa har doim ham real hayotda xuddi shunday boʻlavermaydi. Har holda hikoyada qariya tasavvur qilgan portret toʻgʻri chiqqan boʻlmasa ham, hokimning koʻngli oq boʻlib chiqdi va hikoyaning yakuni qahramonning oqkoʻngilligi sabab yaxshi yakun topgan. Qariya nafaqat qishlogʻiga quduq qazdirish, balki hokimning oʻzini ham olib borishdek ishni bajaradi. Bu bilan Luqmon Boʻrixon qariya misolida oʻzbek xalqiga xos xarakterni ham yaratdi deyolamiz. Adabiyotshunos olim A.Rasulov ‘‘Psixologik belgilar portret tasvirida aniq koʻrinadi. Mohir san’atkor qahramonning portreti orqali uning qalbini chuqur yoritadi. Portret bilan xarakter yoʻnalishi oʻrtasida birlik boʻlishi, portret qahramon qalbini yoritishga xizmat qilishi lozim”( Расулов А, 2007),-degan fikrlarining ma’lum bir isbotini ushbu obraz orqali koʻramiz. ‘‘Sut sotuvchi bola” hikoyasida bolaning portreti uddaburon,oʻzini-oʻzi ta’minlaydigan, oʻsmirlarning tasviri

qalamga olinadi. Muallifning o‘zi ham voqea rivojida uni bir dumalab donishmandga aylanib qolgan bola deb aytadi. ‘‘ O‘n to‘rt-o‘n besh yoshlar chamasidagi o‘spirin. Egnida kalta kamzul, boshida jun qalpoq. Jussasi kichkinagina, ammo dimog‘i baland, qurmag‘urning. Qo‘llarini beliga tirab atrofga zingil solib qaraydi. Misoli o‘tkir ovchi deysiz. Gala-gala tushib kelayotgan mijozlarga bidondagi sutdan g‘oyat epchillik va abjirlik bilan quyib uzatadi.Yerga bir tomchi ham sut to‘kilmaydi.Mijozlar uzatgan pulni ham sinamay, salmog‘idan qanchaligi bilgandek cho‘ntagiga tiqadi’’, -deya tasvirlarkan xotiramga qishloqdagi kunlik pul topish uchun ishlaydigan bolalar keladi. Ular ham ko‘p ishlayverganidan o‘z ishining ustasi farang bo‘lib ketgan. Bunday o‘smirlarning aksariyati o‘zini o‘zi butunlay ta’minlay oladigan bo‘lib, oilasiga yordamchi bo‘lib qolishgan. Hatto ilm olishda ham ishdagidek chaqqonlarini ko‘ramiz. Hikoya qahramoni Umidjonning oilaviy hayoti deyarli yoritilmagan, faqat uning mahallaga sut olib kelishi, maktabda o‘qishi, halolligi haqidagina bilamiz. Umidjon kabi bolalar haqida qulog‘imizga ko‘p gaplar chalinib turadi. Maktab bolalarining kichik biznesni yo‘lga qo‘yganliklari haqida ham eshitamiz va beixtiyor ularga hurmat nazari bilan qaraymiz. Umidjon ham mana shunaqa o‘smirlarning biridir. U katta odamlar bilan bemalol suhbat quradi, so‘zlari ham katta odamlarnikidek, shunday bo‘lsa-da bolalarga xos beg‘uborlik, samimiyat bor. Umidda qandaydir dard bordek ko‘rinadi, ammo bu dard nimaligi bayon qilinmagan. Yozuvchining o‘zi ham bu dardni anglab yetmagan.

Umid g‘adir-budur daraxtning qulayroq shoxiga oyoq qo‘yib, qarshisidagi uyning uchinchi yo to‘rtinchi qavatiga jon-jahdi bilan tikilardi. Uning shu turishi mashhur bir filmdagi bog‘ oralab kelib, sevgilisi darichasiga zor-intizor termilgan oshiq yigitni eslatib yuborardi,-degan roviy qahramoni bilan shu o‘rinda gaplashishi dardini bilishi kerak edi. U bunday qilmagani uchun sut sotuvchi bolaning hayoti yashirin bo‘lib qolgan. Hikoyada yurakni o‘rtovchi holat yo‘q. Sut mahsulotlarining foydali ekanligi borasidagigina ma’lumotni bilamiz. Bunday ma’lumotlarni hikoyaning ma’lum qismi sifatida berib ketsa arziydi, asarning mazmunini ma’lumot berish qilib tashlamasligi kerak. X.Do‘stmuhammadning ‘‘Beozor qushning qarg‘ishi’’ hikoyasida ham sut-qatiq mahsulotlarining foydaliligi haqida gap boradi va bu juda ta’sirli hikoya ichida esda qolarli tarzda berilgan. ‘‘Sut sotuvchi bola’’ hikoyasiga kelsak, bu hikoyadagi hamma unsurlar Luqmon Bo‘rixon yashaydigan hududning tasvirini beradi. Luqmon Bo‘rixon yashagan hovlining yonida to‘rt qavatlik uylar bor va u yerda rus tilida so‘zlashuvchi odamlar ham ko‘p. Boshqa ko‘p qavatli uylarning yoniga kelgani kabi bu yerga ham har kuni sut va boshqa mahsulot sotuvchilar kelib turadi. Hikoyada sut sotib oluvchilarning orasida o‘ruslar borligini ham ko‘ramiz.

Bu bilan hikoyaning hayotiy haqiqatligini , o‘zining ko‘rganlari asosida yozgan deya olamiz. ‘‘Shaharlik muallim’’ hikoyasida o‘ziga xos insonlarning nutqidan foydalanilgan va qahramonlarining ruhiyatini anchayin yorqin yoritib bergan. Hikoyada qishloq odamining soddaligi, ishonuvchanligi, o‘ziga xos xarakter va munosabat egasi ekanligini ko‘ramiz. Personaj xarakterini individuallashtirish uchun shevalardan unumli foydalanilgan. Hikoyadagi muallim portreti esa hikoyaning boshqa bir qahramoni Toshmurod tajang tomonidan beriladi. D.Qur’onovning ‘‘Adabiyot nazariyasi asoslari’’ kitobida: “epik xarakterdagi asarlarning aksariyatida voqea, voqea kechayotgan joy yoki sharoit tasviri, qahramonlarga berilayotgan ta’rif, muallif mushohadalari kabilar bevosita muallif tilidan beriladi”( .D.Quronov, 2018, 247) deyiladi. Ushbu hikoyada esa qahramonning pozitsiyasini berish uchun ham muallimning portreti Toshmurod tajang tomonidan berilganligini bilishimiz mumkin bo‘ladi. Butun turqim-tavridan shaharlik bodilardan ekanligi ko‘rinib turibdi: rang-ro‘yi oppoq, bo‘y-basti xipcha, jingiltob sochlari kalta, orasta, ust-boshi sip-silliq, po‘rim. Qosh-ko‘zlari popukday, bamisli qiz bola deysiz. Teraklining maktabiga tarix o‘qituvchisi bo‘lib kelibdi! Shaharlik Muallim haqidagi tavsifdan uning erkak kishi bo‘lishiga qaramay, chiroyli, madaniyatli ekanligini hamda Toshmurod tajang unga bodi deb laqab qo‘yib olganini bilamiz. Bodi so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida og‘zidan yomon so‘zlar aytuvchi kishiga nisbatan qo‘llanilishi aytilgan. Toshmurod tajangning shaharlik muallimga bodi laqabini berishining sababi esa o‘g‘li Nurmatni muallimning o‘qisin iqtidorli bola deb qo‘ymasligi va shahardan kelganligi sabablidir. Toshmurod tajang o‘z laqabi o‘zi bilan xiyla qaysarligi bor odamdir. Mehnat bilan ulg‘aygan, shuning ortidan ro‘zg‘ori but bo‘lib turgani uchun Nurmatni ham mehnat bilan qotayishini istaydi.Bunday fikrlaydigan odamlarni oramizda uchratib turamiz. O‘qiganing bilan olim bo‘larmiding? Nima ham foydang tegardi undan ko‘ra mol boq, dalada ishla kabi fikrlarni eshitganlar oramizda topiladi. Kasbiga sadoqatli va fidoyi ustozlar sababli hayotda o‘z yo‘lini topib xalqqa xizmat qilayotgan kadrlar ham oramizda kam emas.

Insonning moddiy ahvoli ham fikrni o‘zgartiradi. Toshmurod tajang bolasini o‘qitishi uchun repititorga berish kerak, bu esa uning oilasiga og‘irlik qiladi. Shaharlik muallim Nurmatga bepul repititor topishini aytganda, Toshmurod tajangning fikri o‘zgaradi. Bu esa Toshmurodning bolasini yaxshi ko‘rishi, moddiy ahvoli qoniqarli darajada ekanligidan dalolat beradi. Muallim maktabda matematika bo‘yicha yaxshi mutaxassis yo‘qligi, Nurmatda fan bo‘yicha iqtidor borligini sezgandan so‘ng fidoyilarcha repititor pulini o‘zi to‘lab , bu haqida esa bildirmaydi. Baxtsiz avtohalokat sababli muallim vafot etib, haqiqat oshkor bo‘ladi. Bu holatni bilgan Toshmurod tajangda ustozga nisbatan hurmat yanada oshishi bilan birgalikda

ota bo‘lib farzandiga bor imkoniyatini ishga solib sharoit yaratmaganlikdan afsus hissi o‘rtagan bo‘lsa ajab emas.Bugungi kunda ustozlarga bo‘lgan hurmatsizlik va kamsitishlarni bo‘lyotganini eshitib turibmiz. Yozuvchi ushbu hikoyasi bilan ustozning qalbi ulkan ummondek mehr va ilmga to‘laligini eslatib qo‘ymoqchi bo‘lgandek ko‘rinadi. Ustoz otangdek ulug‘ deyishadi. Ustozlar qancha baytlar bitilsa kamdir. Ular xalqning ma’naviyati va madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilib kelmoqdalar. Shu bilan birga o‘z kasbini suiste’mol qilayotgan muallimlarimiz ham borki, ular sharafli kasbning nomiga dog‘ tushirmoqdalar.

Luqmon Bo‘rixon obrazlariga chizayotgan portretda o‘rta yo‘ldan ketishga qaror qiladi. Hikoyalarning sevimli bosh qahramonining ham nuqsonini , yutuqli taraflari bilan birga berib o‘tadi. Bu bilan go‘yoki, inson mukammal emasligi, unda yaxshi va yomon taraflar borligiga ishora (К. Ҳамраев,2020,105-106) qilganday bo‘ladi. XX asrning 80-90-yillaridan boshlab , o‘zbek hikoyachiligida voqelikni ifoda etish shakli, qahramon obraziga bo‘lgan munosabatning o‘zgarganini ko‘rish mumkin. Yozuvchilar obyektiv voqelik tasvirini berishdan ko‘ra, insonning his-tuyg‘ulari , kechinmalari, ruhiy iztiroblarini ifodalashga urg‘u berdi. Bu esa badiiy asrda qahramon portreti tasviridagi badiiy yangilanishga olib keldi. Bunday holatni Luqmon Bo‘rixonning hikoyalarida ham uchratish mumkin.

Portret badiiy tasvirning tashqi turiga kirsa ham, hikoyaning g‘oyasini berishda muhim unsur hisoblanadi. “Tun qa’ridagi shu’la” hikoyasida zobit yigitning ichki ruhiy kechinmalarining ifodasi orqali obrazni kashf etish mumkin. Hikoyaning boshida zobit yigitga nisbatan berilgan portretda uning harbiy mundiri pagonida qo‘sh yirik yulduz yarqirab turganligiga ishora qilinadi. Hikoyadagi keltirilgan xotira orqali esa bu yarqirab turgan yulduzlar qanday kukdalik hayotning evaziga ekanligiga ishora bor. Xalqimizning fidokor farzandlari borligini, hatto tunda ham tinib-tinchimaydigan insonlari borligini tasvirlagan. Nafaqat, harbiylar, balki o‘qituvchi va boshqa kasb egalari ham fidokorona xizmat qilayotganligi haqidagi qaydlar bor. Tun qa’ridagi o‘tovdagi voqea zobitga har safar tundagi shu’lalarni ko‘rganda mehnatkash, fidoyi insonlarni eslatadi. Rus yozuvchisi I. Turgenevning badiiy asardagi qahramon timsoli haqida shunday degan: “Agar biror bir o‘tkinchi g‘oyani emas, balki jonli odam qiyofasini asos qilib olmaganimda, obraz yaratishga sira jur’at qilolmasdim. Ana shu jonli odam qiyofasiga asta-sekin zarur belgilar qo‘shiladi, birlashtiriladi”. Ijodkor Luqmon Bo‘rixon ham hikoyalaridagi obrazlarni yaqinlari, zamondoshlari, eshitgan bilgan odamlaridan yaratgan deya olamiz. Buni yozuvchining bergan intervyulari-yu, bizning yozuvchi bilan bir zamonda yashaganimiz, hikoyalaridagi odamlarning prototiplari hatto o‘zimizning hayotimizda ham uchrashi isbotlaydi. I.V. Straxov o‘zining “Badiiy asardagi xarakterlarni psixologik tahlil qilish metodikasi” nomli risolasida badiiy

asarda portret yaratish mahoratini uch guruhga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qiladi. (Страхов И.В, 1977, 88) Ular quyidagilardir: sintetik portret, qat’iy portret, situativ portret.

Situativ portret chizgilar qisqa portret tasvirlar bir necha komponental detallar bilan izchil ishlangan portretlar va keng sotsial-psixologik profildagi portretlarni o‘zida jamlagan sintetik portretlarni to‘ldirib, qahramonlarning emotsional-ekspressiv qiyofasini xarakterlaydi. Qahramonlarning turli vaziyatdagi, holatdagi ifodasi uning tashqi ko‘rinishiga – yuz, ko‘z, kulgu ifodalari, nutqi ohangiga ko‘chadi. Tor ma’noda olganda qat’iy portret chizgilar sintetik portretlarning uzviy bir qismi vazifasini o‘taydi. Keng ma’noda esa ular xarakatdagi obrazlarning real (ijobiy, salbiy, kuchli, ojiz, haqiqiy, soxta) xususiyatlarini, xarakterlarning yetakchi belgilarini va emotsional rang-barangligi, qahramonlarning odat tusiga kirib qolgan qiliqlari, boshqalar bilan munosabat paytidagi tashqi va ichki holatlarni xarakterlaydi (Абдувахобова М, 1983, 24-28) Yozuvchi Luqmon Bo‘rixon hikoyalarida ham ba’zan tashqi ko‘rinish, ba’zan esa ichki hissiyot , ba’zi hollarda esa har ikkisini ham tasvirlab portret yaratganiga guvoh bo‘lamiz. Situativ portretga namuna sifatida ijodkorning “Aldoqchi tunlar” hikoyasida tasvirga murojaat qilamiz.

“Nurbek bo‘sag‘aga sekin cho‘nqayarkan:

-O‘g‘lim, - dedi entikib.

Ammo bir burchakda toshdek qotgan, ko‘zlari ola-kula xotinning etaklariga mahkam chirmashib olgan bolakaydan sado ham chiqmadi.

-O‘g‘lim, bu men, -dedi Nurbek arang, -tanimayapsanmi, bolam?!

So‘ngra u xo‘rligi kelib, quchog‘ini keng yoygancha o‘g‘li tomon sudraklandi.

Bolakay esa hiq-hiq yig‘lab orqaga tisarilaverdi.

Yo, Olloh! Bu ne ko‘rgulik? Uch yildirki, xayolida zor-zor kutgan, chopqillab yo‘liga chiqqan, bo‘yniga erkalanib osilgan o‘z o‘g‘li tanimadi-ya?!

-Bu men-ku, axir, bolam! – deb qaqshadi qo‘rboshi ko‘z yoshlarini tiyolmay. – Kel, bir bag‘rimga bosay, kel!

Shu choq orqa tarafdan do‘rillagan buyruq yangradi.

-Qimirlamang, qo‘rboshi!

Nurbek tiz cho‘kkan joyida shart o‘girilib ortga qaradi. “Nishon!” U bo‘sag‘ada to‘pponcha o‘qtalib turar, izida yana o‘n chog‘li navkar miltiqlarini shaylab ichkariga mo‘ralashardi.

-Xush kelibsiz, - dedi Nishon dimog‘idan kulib. – Biz sizni yolg‘iz kutmagandik, qolganlar qayda, bek?

Qo‘rboshi siyrak qoshlarini chimirib, qaqroq lablarini qimtib, yana o‘sha qirg‘in dunyosiga qayta boshladi. Sog‘inchu ilinjning, o‘kinchu sevinchning omonat dunyosi yana to‘zg‘ib ketdi.

-Ota-a-a!

Onasining pinjida biqinib turgan bolakay Nishon tomon hayqirib yugurdi. Uning har bir xatti-harakatini entikib kuzatayotgan Nurbekning ich-ichida nimadir uzilib ketgandek bo‘ldi va…

Ko‘z ochib-yumguncha varanglagan o‘q tovushi hovlining ichu tashini zirillatib yubordi. Izidan, o‘z o‘qi o‘z bo‘g‘zini teshib o‘tgan Nur qo‘rboshi gursillab quladi. Bo‘ynida osig‘liq o‘sha g‘aroyib o‘yinchoq toy qonga belanganicha sirg‘alib yerga tushdi…” Ushbu hikoyada Nur qo‘rboshining, Nishonning, bolakayning xarakteri, ichki hissiyotlari, ma’lum vaziyatdagi emotsional holati yorqin tasvirlangan. Ayniqsa, o‘q, toy detallari Nurbekning ichki tuyg‘u va kechinmalarini kitobxonga anglatishga yaqindan yordam beradi. Qahramonlarning portreti nutq ohangi, turli xil tana a’zolarining holatining tasvir ifodalari bilan berilgan. Bunday namunadagi portret chizgilarni yozuvchining boshqa hikoyalarida ham uchratsa bo‘ladi. Qat’iy portret chizgilarga keladigan bo‘lsak, bunday portretlar qahramonning yetakchi xarakterini ochib berishga ko‘proq xizmat qiladi. “Sut sotuvchi bola” hikoyasida bolaning dimog‘i balandligi, “Qorxat” hikoyasidagi Alfera Tagirovnaning aft-angori obdan bo‘yalgani, “Kutilgan kun” hikoyasidagi Boyxonning ammasining qizining ko‘zlari o‘ychanligi, “Aldoqchi tunlar” hikoyasidagi Nur qo‘rboshining ko‘zi qonga to‘lib, quyundek charx urib borishi, “Qo‘noq” hikoyasidagi qo‘noq obrazining cho‘nqayib o‘tirishi kabi tasvirlar qat’iy portretga misol bo‘la oladi. Xarakterli belgilar, esda qoladigan detallar bilan to‘latilgan, keng sotsiol-psixologik profildagi detallarni sintetik portret deya olamiz. Bunday portretga “Cho‘ldan kelgan tashvish” hikoyasidagi Janob Do‘lanovning, “Zarur gap” hikoyasidagi Akramning, “Shaharlik Muallim” hikoyasidagi Samandar muallimning portretini va shunga o‘xshash ko‘plab namunalarni keltirish mumkin.

“Ana yigitu mana yigit! Qomatni qarang, viqorni qarang! Yo, tavba, hozirgi zamonning askarlari shunday bo‘lar ekan-da! Bir yigitginada shuncha o‘zgarish-a! Akram harbiy xizmatga ketishdan oldin bo‘sh-bayov, nimjongina bola edi. Istagan

odam uni laqillatishi yo, qo‘li qichib qolsa, bemalol kaltaklashi mumkin edi. Hatto, Hasan qassobning to‘yida buzmakorlikni birov qilib, baloga qolgan Akram bo‘lgan edi. Uni to‘y egasi qarindoshlari boplab do‘pposlashdi. Hoynahoy, shunday nohaqliklar, xo‘rliklar Akramning jon-jonidan o‘tib ketdi. “Armiyaga ketaman” deb turib oldi. Tuman markaziga, harbiy komissariatga bo‘zchining mokiday qatnay boshladi. Oxir-oqibat, murodiga yetdi. Uni harbiy xizmatga olib ketishdi. Ota-onasi ham, qavmu qarindosh ham, ochig‘i, bunga sira ishonishmagan edi. Akram tibbiy ko‘rikdan baribir o‘tolmaydi, degan xayolda edi barchasi. Lekin yigit ko‘nglidagi ishtiyoq hamma-hammasidan g‘olib chiqdi.”

Hikoyada portretni kim tasvirlayotgani ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Portret yo muallif, yo personaj nutqi orqali beriladi. Muallif tomonidan berilgan portretda muallifning munosabati, personaj nutqida berilgan portretda personajning munosabati yaqqol ko‘zga tashlanadi. T. Qurbonovning “Odil Yoqubovning portret yaratish mahorati” dissertatsiyasida “…Bosh qahramon ko‘rgan narsalarni, odamlarni kitobxon ko‘ra oladi. Voqea – hodisalarni ham, qahramonlar portretini ham boshqa personajlar nazari, nigohi orqali tasvirlash yozuvchining tasvir imkoniyatlarini kengaytiradi, erkin va xolis tasvirlashga qulaylik yaratadi. Bundan tashqari, portret yaratishning bu turi muallifni huda-behudaga qahramonlar olamiga aralashishdan, quruq bayonchilikdan, ortiqcha tafsilotlar uyumining ko‘payib ketishidan qutqaradi.”( T. Qurbonov, 1997 ,111). Luqmon Bo‘rixon hikoyalarida portret yaratishning ikkala yo‘lini ham kuzatamiz. Asosan, qahramon nutqi orqali portret berilganda bu eslash orqali, o‘tmishga qaytish, xayolida jonlantirish orqali beriladi. Mashhur hikoyanavisilar izidan borgan holda Luqmon Bo‘rixon ham esda qolarli, psixologik portretlarning go‘zal namunalarini yaratgan.

Ilmiy maqoladan quyidagi xulosalar kelib chiqdi: ijodkorning portretlarida statik va dinamik portret turlari, yaratilish mahoratiga ko‘ra situativ, qat’iy, sintetik turlarini, hikoyaning boshida yo oxirida kelishiga qarab portret-jumla namunalarini ko‘ramiz. Adibning yaratgan portretlari psixologik portretning durdonalaridir. Ularda inson ruhiyatining chizgilari takrorlanmas bo‘yoqlar bilan berilgan. Hikoyanavisning personaj nutqi orqali ifodalangan portretlari, muallif o‘z nutqi orqali bergan portretlardan ko‘ra muvaffaqiyatliroq chiqqan. Luqmon Bo‘rixon portret yaratish bo‘yicha adib san’atkor hikoyanavislardan ilhomlanib, o‘z uslubida portretning betakror ko‘rinishlarini chizgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bo‘rixonov, L. Begonalar yurmas bu yerda. Toshkent: 2019

2.D.Quronov . Adabiyot nazariyasi asoslari. – T., Navoiy universiteti. 2018

3. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha -o‘zbekcha izohli lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi, 1983

4.T. Qurbonov. Odil Yoqubovning portret yaratish mahorati. Dissertatsiya. 1997

5.Д.Қуронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати.-Тошкент: Академнашр, 2010

6. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. Т., Шарқ. 2007
7. К. Ҳамраев. Ҳикоя композицияси. Монография.-Тошкент.2020
8.Абдувахобова М. Портрет – характеристика психологик тахлил воситаси сифатида // Узбек тили ва адабиёти. – 1983
9.Страхов И.В. Методика психологического анализа характеров в художественном произведение: Саратов. Пед. Ин-т., 1977
10.https://yoshlikjurnali.uz

## “ROBIYA BALXIY” QISSASINING HADDI A’LOSI VA FOJIAVIY BADIIY YECHIMI

***Xayriyeva Ma‘suma Fozil qizi***

*ToshDO‘TAU OTAT, 2-kurs*

*xayriyevamasuma4@gmail.com +998935420722*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada taniqli o‘zbek yozuvchisi Isajon Sultonning “Robiya Balxiy” qissasi tahlil qilinadi. Asarning syujet qurilishi, haddi a’losi va tragik badiiy yechimi haqida mulohazalar bildiriladi. Adib mahoratining ayrim qirralari ochib beriladi. Jumladan: qissaning syujet qurilishi, bosh qahramon – Robiya Balxiy talqini, voqealar rivojida asosiy qahramonlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning psixologik tomondan dalillanishi hamda asar markaziga olib chiqilgan muhabbat mavzusining o‘ziga xos tarzda bayon qilinishi. Tahlilda tipologik tahlil metodidan foydalanilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Isajon Sulton, qissa, Robiya Balxiy, kulminatsiya, tragik yechim.*

***Abstract.*** *In this article the short story of "Rabiya Balkhi" is analysised by the famous Uzbek writer Isajon Sultan. Stands are made about the construction of book's plot, its culmination and tragic fictional solution. Some aspects of the writer's skill are laid bare. Including: the story's plot construction , the interpretation of the main character - Rabiya Balkhi, the psychological proof of the conflicts between the main characters in the plot, and the specialty presentation of the theme of love, which is*

*brought to the center of the literature. The typological analysis method was used in the analysis.*

***Keywords:*** *Isajon Sultan, story "Rabia Balkhi" , culmination, tragic solution.*

Bugungi kunda Isajon Sulton kundan kunga oʻsib borayotgan isteʼdodli adib. “Soʻzning tasvir imkoniyatlari juda keng, faqat ularning roʻyobga chiqish darajasi bevosita ijodkor mahoratiga, aniqrogʻi, undagi estetik nigohning nechogʻlik oʻtkirligiga bogʻliq. Yaʼni, olamni musavvirona nigoh bilan koʻrish iqtidoriga ega shoir yoki adibgina koʻrganlarini soʻz vositasida tasvirlashga imkon qidiradi, oʻz navbatida uning ijodiy izlanishlari soʻzning tasvir imkoniyatlarini kengaytiradi. Isajon Sulton asarlarini oʻqiganda undagi isteʼdodning ayni shu qirrasi yaqqol koʻzga tashlanadi”,-deb yozadi adabiyotshunos –olim D. Quronov [1, 66]. Biz quyida I. Sultonning soʻz qoʻllash, asar kompozitsiyasini tuzish, syujet oʻziga xosligi hamda qahramon yaratish yoʻlidagi yutuqlari haqida fikr yuritamiz. Xususan, ishq-muhabbat mavzusidagi betakror asari – “Robiya Balxiy” qissasi tahliliga kirishamiz.[2]

Asarga toʻxtalishdan oldin Robiya Balxiy oʻzi kim degan savolga javob topamiz. Robiya (Balxiy, Robiya al-Quzdariy, yoxud Xuzdariy) X asrda yashab oʻtgan, birinchi taniqli ayol shoira. Bugungi kunda Afgʻoniston faxri. Nomi unutilmasligi uchun, unga ehtirom natijasi oʻlaroq ayrim joylarga nomi berilgan. Ayrim maʼlumotlarga qaraganda Robiya Balxiy mutasavvuf boʻlmagan. Fransua de Blua Attor hikoyasini "biografik manba sifatida aloqasi yoʻq"ligini ta'kidlaydi. Ishqni (keng tushuncha ekanini unutmaslik kerak) his qilgan, bu olovda isigan, yongan ayoldir. Asar tahliliga kirar ekanmiz, shu oʻrinda taʼkidlash joizki, Isajon Sulton mana shu siymo haqida yozgan birinchi shaxs emas. Dastlab, bu obraz Fariduddin Attor „Ilohiynoma“, Jomiy “Nafahat ul-uns”, Rizoqulixon Hidoyat “Bektoshnoma” asarlarida uchragan. Fariduddin Attor oʻz asarida Robiyani “Zaynul arab” deya atagan, Robiya ismini qalamga olmagan. Jomiy asarida esa Robiya hamda Kaab qizi deb ataladi. Isajon Sulton esa barcha taʼriflarni asarida birlashtirgan. Asarda Robiya “erka arab qizi”, “Kaab qizi” yoxud “Robiya bintu Kaab”, “Zaynul arab”, yaʼni “arablar ziynati” kabi nomlar bilan ataladi. Isajon Sulton asarida Robiyaning taqdirini uning akasisiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Horis ibn Kaab - otasidek adolat tizginin tutgan, jang-jadallarda misoli burgut boʻlgan sarkarda, shoh. Bilakdagi kuch, adolat - oqil podshoh boʻlish uchun kamlik qilish gʻoyasini oʻzida aks ettirgan obraz. Ilmsizlik, uzoqni koʻra olmaslik bir muncha baxtsiz hodisalarga olib kelishini oʻz taqdiri misolida koʻrsatgan personajdir.

Bektosh - jismonan kuchli turkiydir. Robiyani ishq oʻyinlariga roʻbaroʻ qilgan shaxs ham aynan shu obraz. Robiyaga cheksiz muhabbat qoʻygan qahramon

vujudini muhabbat egallaydi. Aynan ishqqa to‘lgan vujud asarning ko‘zyoshlar bilan yakunlanishiga ham sababchidir. “Adabiyot degani birinchi navbatda siyrat bilan ish yuritadi, odamning ruhiy dunyosini tahlil qilish bilan o‘z zimmasidagi vazifani ado etadi”,-deydi O. Sharafiddinov. [3, 143-bet]. Bu qissada qahramonlarning, ayniqsa Robiyaning go‘zal ruhiyati, aqli-zakovati harorat bilan tasvirlangan.

Robiya - go‘zalligi-yu, g‘azallari bilan arab va ajam xalqlariga mashhur arab qizi. "Jahonda ikkinchi Robiya Adaviya kabidir". Balx hokimi - otasining ko‘rar ko‘zi bo‘lmish malikaga qarash padarining vafoti tufayli otalik burchlari akasiga o‘tgan. Aka-singil orasidagi farqlar, xarakterlardagi tavofutlar esa har bir kitobxonga yaqqol sezilarli darajada. Shu sabab ham asar yakuni barchani qayg‘uga solishi shubhasizdir. Bu obraz orqali nafaqat chin muhabbat, balki insonlar din uchun emas, din insonlar uchun degan g‘oya ifodalangani ham asar g‘oyasiga hamda nomiga ham ta’sir qilgan. Qolaversa, o‘sha davrda ijodkor ahlini erkaklar tashkil qilgan bir zamonda hech bir erkakdan kam bo‘lmagan iste’dodga ega bo‘lgan bu qiz orqali ayollar ham mahoratli shaxslar ekani ham ifodalangan.

“Robiya Balxiy” qissasidagi barcha personajlar, garchi ular sanoqli bo‘lsa-da, asar g‘oyasini yoritib berish uchun alohida o‘rin tutadi. Endigi gap personajlar haqida emas, asar haqida umumiy fikrlardir. Asar garchi qissa bo‘lsa-da, dramatizmga oid belgilarni o‘zida aks ettirgan. Masalan, komediyada kamchiliklar, xato va nuqsonlar ustidan xushchaqchaqlik bilan kulishadi. Asardagi "Din inson uchun emas, inson din uchun" g‘oyasida Robiya aynan shu usuldan foydalanadi. (“Robiya Balxiy”, 78-bet). Tragediya esa ziddiyatli vaziyatlar va fojiaviy yakun bilan boshqa janrlardan farqlanadi. “Robiya Balxiy” qissasidagi keskin burilish va ziddiyatli vaziyat - Horis ibn Kaab g‘azallarining Bektosh sandig‘idan chiqqanligi haqidagi xabar va Robiyadagi “xastalik” sababining oshkor bo‘lishi natijasida Robiyaning issiq hammomga qamalishi, Bektoshning quduqqa tashlanishidir. Asarning tragediya singari fojeaviy yakunlanishi - barcha bosh qahramonlarning taqdiri o‘lim bilan tugashi. Robiyadagi muhabbat yo‘lida kurashi, garchi muvaffaqiyatsiz yakunlangan bo‘lsa-da, kitobxon ishqqa yetishishdagi kurash haqida salbiy o‘ylarga bormaydi, aksincha, uni optimistik fikrlar qurshaydi. Robiya tomirini kesib, qoni bilan hammom devorlariga g‘azal bitishi, Bektoshning bunday alamli voqeadan xabar topib, Horisni o‘ldirishi, so‘ngida esa Robiyaning qabrini quchib yig‘lab, o‘z joniga qasd qilishi muhabbat yo‘lidagi davrining eng go‘zal trageyasidir. "Robiya Balxiy" qissasi hajman kichkina qissa bo‘lsa-da, dramatizmning barcha jihatlarini o‘zida akslantira olgan asardir.

Xulosa qilib shularni aytish mumkinki, **“**O‘z tabiatiga va amal qilish qonuniyatlariga ko‘ra epik kechinma badiiy kechinmaning eng murakkab turi bo‘lib,

uni akslantirish ijodkordan zukkolik, bilim va mahorat talab qiladi”,- deb yozadi B. Sarimsoqov [4, 120]. Bizningcha, qissada quyidagicha badiiy yutuqlarga erishilgan:

Asar syujeti qiziqarli va kontrast his-tuyg‘u va kechinmalarga boy. Voqealar rivoji konsentrik usulda rivojlanib, kitobxonni oxirigacha his-hayajonda ushlab turadi. Bu – asarni o‘qishli qilgan jihatlardan biri.

Bosh qahramon – Robiya ruhiyatidagi sharq, musulmon ayoliga xos bo‘lgan hayo va andisha, ishqini ichida pnhon yashirib, muttasil iztirob chekishi – chuqur dramatizm bilan berilganki, bu jihat – o‘quvchini detektiv asar keskinligi kabi diqqatini jamlab, uni yuqori pardalarda ushlab turadi.

“Epik kechinma… sekin-asta portlashga olib boradigan minaga o‘xshaydi” (B. Sarimsoqov, 119-bet). Qissaning haddi a’losi va badiiy yechimi tadrijiylikda keladi hamda favqulodda kutilmagan fojiaviy yakuni bilan lol qoldiradi, chunki yozuvchining mahorati tufayli Robiyaning passiv qarshiligi garchi o‘limga olib kelgan bo‘lsa ham, u mantiqan to‘g‘ri va o‘ta ta’sirli dalillanganki, u o‘qirmanni aslo befarq qoldirmaydi.

Asarda tarxiy haqiqat muvaffaqiyat bilan badiiy haqiqatga aylantirilgan.

Tarixiy  hamda joy koloriti – asar voqealariga uzviy singishib ketadiki, bu voqealar rivojining silliq-ravon kechishini ta’minlaydi, kitobxon diqqatini, e’tiborini aslo toliqtirmaydi.

“Robiya Balxiy” qissasi, shubhasiz, o‘zbek adabiyotidagi muhabbat qissalari orasida o‘zining pishiq syujeti, haqqoniyligi, realistik tasvir kuchiga ko‘ra alohida yuksak martabaga ega asardir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Исажон Султон. Қорақуш юлдузининг сири: Роман, қисса ва ҳикоялар. Т.: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2019. – 352 б.
2. Саримсоқов Баҳодир. Бадиийлик асослари ва мезонлари. Т.: “Bookmany print”. 2022. – 252 б.
3. Қуронов, Дилмурод. Назарий қайдлар [Матн] / Д.Қуронов. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 128 б.
4. Шарафиддинов О. Оламнинг қалби.Т. “Маънавият”. 2012. – 264 б.


## O‘ZBEK MITTI HIKOYALARI – DRABLLAR HAQIDA MULOHAZALAR


***Xodjiyeva Sevinch Odiljonovna***

*ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti*

*2-kurs talabasi*

sevinchxodjiyeva@gmail.com
*Ilmiy rahbar: H. Ahmedov, f.f.n, dotsent*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada hozirgi kunda yangi janr sifatida maydonga kelayotgan mitti hikoyalar, ularning kelib chiqishi, o`zbek adabiyotidagi o`rni va unda qachon paydo bo`lganligi haqida so`z yuritiladi. Maqolada mitti hikoyalar ya`ni drabblelarning janr sifatidagi talab va qoidalariga to`xtaladi. Shu bilan birga maqolada ba`zi drabblelar keltirilib ularning tahlili beriladi.*

***Kalit so`zlar:*** *Drabble, janr, hikoya, ruboiy, mitti hikoya.*

***Annotation.*** *This article talks about short stories emerging as a new genre, their origin, place in Uzbek literature and when they appeared in it. The article focuses on the requirements and rules of short stories, that is, drabbles as a genre. At the same time, some drabbles are presented in the article and their analysis is given.*

***Keywords:*** *Drabble, genre, story, ruby, short story.*

Yangi janr bo`lgan drabllar, allaqachon, adabiyotda keng urfga kirib bo`ldi va adabiyotshunoslar tomonidan o`rganila boshlandi. Ularni “mitti hikoyalar”, “Drabllar” nomi bilan ijtimoiy tarmoqlarda ham ko`p ko`ramiz. Drabllar hozirgi kunda g`arb adabiyotida qanchalik mashhur bo`lsa, o`zbek adabiyotida ham xuddi shunday rivojlanish bosqichidadir. Adabiyotimizda Nilufar Obidova, Nuriyaxonim Mamadalimova, Nuriddin Ziyo, Ma`ruf Mengli, Saida Ibodinovalar ijodida drabllarning namunalarini uchratamiz.[1]. Hozir drabllar qachon paydo bo`lgan va o`zbek adabiyotiga qachon kirib kelishga ulgurganligiga to`xtalamiz. “Drabble” atamasi ilk bor 1971-yilda Monty Pythonning "Big red book" kitobiga kiritiladi. Unda qahramonlar roman yozish bo`yicha bellashishadi. Shundan so`ng u 1980-yilda Birmingim universitetida hayotda tashkil qilinadi va unga 100 so`zdan iborat hikoya bo`lishi kerak deb talab qo`yiladi.[2]. Shunday qilib drabllar Buyuk Britaniyada vujudga kelgan. O`sha vaqtlardan keyin drabl yozish keng urfda bo`ladi va drabl yozish bo`yicha ko`plab musobaqalar ham tashkil qilinadi. Wilfrid Laurier universiteti o`zining 100 yilligini nishonlash uchun “100 Words Centennial Drabble Contest” (“yuz so`z yuz yillik drabble”) tanlovini e`lon qiladi [3]. Tanlovda ko`plab ijodkorlar qatnashadi va shunday qilib drabblelar keng ommaga tanila boshlaydi. G`arb adabiyotida XX asrlarda paydo bo`lgan drabble o`zbek adabiyotda ham kecha yoki bugun paydo bo`lgani yo`q. Chunki tarixga nazar tashlaydigan bo`lsak, Asqad Muxtor ("Tundaliklar"), O`tkir Hoshimov ("Daftar Hoshiyasidagi bitiklar") va hattoki Umar Hayyom (ruboiylari) ijodida ham drabllarni uchratishimiz mumkin. Ular o`z davrida ularni aynan drabll deb atamaganligi aniq, ammo biz ularni hozirgi kunda tahlil qiladigan bo`lsak ular aynan bu talablarga javob beradi. Keling, shu

o`rinda drabll talablari haqida bahs yuritamiz. Ba`zi yozuvchilar drabllarni alohida janr desalar, ba`zilari ularni shunchaki qisqa, ya`ni mitti hikoyalar deyishadi. Shu o`rinda biz shuni ta`kidlab o`tishimiz kerakki, drabllarni yozishning ham o`z talablari, qonun qoidalari bor.

**Drabllda biror bir voqea hodisa hajman juda qisqa, aniq-lo`nda, ta`sirchan so`zlarda tasvirlanadi. Unda ham xuddi hikoya singari boshlanma, voqealar rivoji va kutilmagan yakun bo`ladi. U tezda o`qiladi va o`zida katta ijtimoiy, hayotiy xulosani mujassamlashtiradi.** Drabble musobaqasida hakam sifatida qatnashgan MakDonald drabllni **“Qaysidir ma'noda bu she'r va hikoya o‘rtasida qolib ketgan janr,”(2)** deb ta`riflaydi. Unda bir tomondan hikoya qilinsa, bir tomondan tanlab olingan so`zlar bilan ta’sirchan, qisqa tasvir yaratiladi. Bu aynan mana shu xususiyatlari bilan hikoyaga va she`rlarga yaqin turadi. Drabblelar 100 so`zdan iborat bo`lishi kerak va bu murakkab ish. Drabllda ham boshlanish, o`rtasi va oxiri bo`ladi. Tasvir qisqa so`zlarda aniq berilishi kerak. Shunday qilib drabll she`r va hikoya o`rtasida muvozanatlashtiriladi. Ular tezda o`qiladi va aniqlik ular uchun juda muhim. Ular qisqa bo`lganligi uchun boshlanishidan o`quvchini qiziqtirishi kerak va yakuni ham kutilmagan tarzda tugallanadi. James Hancock “The Dark of Day: A Collection of 66 Drabbles” kitobining muallifi drabl yozish haqida “Juda oz so‘z bilan hikoya yozishga urinayotganda siz fon tafsilotlari va bir nechta belgilar bilan epik hikoya yarata olmasligingizni yodda tutishingiz kerak. Ko‘pincha oddiy sahna juda yaxshi bo`lishi mumkin, ammo esda tutingki, sahna qiziqarli va to‘liq bo‘lishi kerak. Men drabl boshlashdan oldin boshini, o‘rtasini va oxirini rejalashtirishni maslahat beraman. Men har doim belgidan oshib ketishga harakat qilaman va birinchi qoralamam uzunligi taxminan 120-130 so‘zdan iborat bo‘lishini maqsad qilaman. Buning sababi shundaki, ortiqcha yoki takrorlanuvchi so‘zlarni kesib tashlash, qolganlarini mahkamlash va oxiriga bir nechta so‘zlarni qo‘shishga urinishdan ko‘ra keraksiz narsa bor-yo‘qligini aniqlash osonroq" deydi.[4] “Katta, qizil sport mashinasi kechki quyosh nurida yaltirab turardi. Men uni egalik g‘ururi bilan ko‘rib chiqdim. Men hamisha o‘zim ega bo‘lishni orzu qilardim, lekin shu paytgacha sug‘urta to‘lovlarini, hatto sotib olish narxini ham to‘lay olmasdim. Hayollar paydo bo‘ldi. Kuchli transport vositasini yuqoridan pastga qarab maksimal tezlikda haydash. Sochlarimdagi shamolni faqat shov-shuvli oqim boshqarar edi. Men bir go‘zal qizga yonboshlab qaradim, u o‘tkinchi nigohimni hayrat bilan qaytardi. Yaqinroq borgan sari ko‘zguda keksa, chiziqli yuz va kal bosh ko‘rindi.

Men haqiqatan ham sakson yoshda edimmi?”[ 5.“Hayot shunday!” Gordon H Sharp]

Drabllar 100 so`zdan oshmasligi ham undan kam bo`lmasligi ham kerak deyishsa, ba`zilar har qanday yozilgan qisqa hikoyalar hajmining qanchaligidan qat`iy nazar drabl bo`lishi mumkin deyishadi. Drabl yozishni ijod maydoniga endi kirib kelgan yozuvchilar tajriba qilib sinab ko`rishlari mumkin, ammo bir tomondan qisqagina so`zlar bilan katta ma`no anglatish hammaning ham qo`lidan kelavermaydi. Shunday ekan u shunchaki tajriba yoki hikoyaning qisqagina ko`rinishi emas, o`zining ma`lum talablariga, cheklovlariga ega bo`lgan janrdir. U adabiyotimizda janr sifatida endi rivojlanib borayotganligini hisobga olsak, drabllar hali yo`lning boshida turibdi. Ayrim misollar:

**O`zbek ishi**

Osmon baaravar rejani berdilar.

-Bajarasan! –dedilar.

-Bajarolmayman, -dedi

-Bajarasan! –dedilar.

-Bajarolmayman! -dedi

-Qamalasan!!! -dedilar.

Bajardi… Bola-chaqasi ko`p edi…

Orden berdilar… Rejani oshirib bajargani uchun.

Keyin…qamadilar… Qo`shib yozgani uchun… Bola-chaqasi ko`p edi..

**Suqrot savoli**

Ulug` olim Suqrot ko`chada ketayotsa, bir nomard orqasidan kelib, kuragiga pichoq uribdi. Suqror xotirjam burilib qarab so`rabdi:

-Men senga qachon yaxshilik qiluvdim, birodar?

Buyuk faylasuf savolida qanchalar iztirob borligini xiyonatga yo`liqqan odam biladi.

**Avtobus o`rindig`idagi yozuv**

‘Hoy, yigitcha! Tepangda qaltirab turgan qariyaga joy berish-bermaslik o`zingizga havola. U sening hech kiming emas. Faqat “men ham shuning yoshiga yetarmikanman” deb o`zingdan so`rab ko`rsang bas…”[6]

Yuqorida O`tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar[6]” kitobidan keltirilgan mitti hikoyalar balki yozuvchining keyinchalik yozilgan katta-katta asarlariga homashyo vazifasini bajargandir. Balki hayoti davomida ko`rganlarini qisqa so`zlarda shunchaki ifodalaganlaridir. Ammo bularning barchasi biz yuqorida tahlil qilgan drabllar talablari bilan xildir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Mitti hikoyalar: kecha va bugun. "Yangi kitob" nashriyoti.- Toshkent. - 2020. - B. 223
2. history of drabbles in english **en.wikipedia.org**›Drabble
3. **globesoup.net**›writing-blog/how-to-write-a-drabble
4. **hancock-fic.livejournal.com**›3434.html
5. gordon h sharp drabbles. www.fictionontheweb.co.uk
6. "Дафтар ҳошиясидаги битиклар." "Шарқ" нашриёти.- Тошкент.- 1998. Б. 70-80


## ABDULLA QODIRIYNING "O‘TGAN KUNLAR" ASARIDA AYOLLAR OBRAZI RUHIYATI IFODASI


***Yusubjonova Marhabo Ma’rufjon qizi***

*ToshDO‘TAU Filologiya fakulteti adabiyotshunoslik nazariyasi mutaxassisligi1-kurs magistranti*

*yusubjonavamarhabo359@gmail.com*



**Annotatsiya:**Abdulla Qodiriyning "O‘tgan kunlar" asarida ayollar obrazi va ularning ruhiy dunyosini tadqiq etish o‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb mavzularidan biridir. Ushbu maqolada mazkur muammolar tavsifiy, qiyosiy-tarixiy va psixologik tahlil metodlari yordamida o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Qodiriy ayol obrazlarini yaratishda chuqur psixologizmga erishgan va ularning his-tuyg‘ulari, o‘y-fikrlari hamda kechinmalarini mahorat bilan tasvirlagan. Shuningdek, asarda ayollarning ijtimoiy mavqei va muammolari ham aks ettirilgan. Maqolada ayollar obrazini yanada mukammalroq tadqiq etish uchun yangi yondashuvlar va yechimlar taklif qilingan.



***Kalit so‘zlar:*** Abdulla Qodiriy, "O‘tgan kunlar", ayollar obrazi, ruhiyat, psixologizm.



**Abstract :**Research of the image of women and their spiritual world in the work of Abdullah Qadiri "Days Gone By" is one of the relevant topics of Uzbek literary studies. In this article, these problems are studied using methods of descriptive, comparative-historical and psychological analysis. According to the

results of the study, Kadiri achieved de okep psychologism in the creation of female images and skillfully described their feelings, thoughts and experiences. The work also highlights the social status and problems of women. The article proposes new approaches and solutions for a more perfect study of the image of women.

***Keywords:*** Abdullah Kadiri, "past days", the image of women, psyche, psychologism.

Abdulla Qodiriyning "O‘tgan kunlar" romani nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki jahon adabiyotining ham nodir namunalaridan biri sanaladi. Asar o‘zining realistik tasviri, tarixiy haqqoniyligi va yorqin obrazlari bilan kitobxonlarni maftun etadi. "O‘tgan kunlar" romanida Qodiriy o‘zbek xalqining milliy urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi va ruhiyatini mohirona tasvirlagan. Shu bilan birga, yozuvchi ayollar masalasiga ham alohida e'tibor qaratgan.

Ayollar obrazi va ularning ruhiy dunyosini tadqiq etish adabiyotshunoslikning dolzarb mavzularidan biridir. Chunki ayollar jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, ularning hayoti, muammolari va kechinmalari har doim insoniyatni qiziqtirib kelgan. Adabiyot esa ayollar obrazi orqali jamiyatning muhim muammolarini ko‘taradi, ularning orzu-umidlari, quvonch va iztiroblarini ifodalaydi [1].

Qodiriy ana shunday murakkab sharoitda ayollar obrazini yaratishga muvaffaq bo‘lgan. U ayol qahramonlarining ma'naviy dunyosini, ularning his-tuyg‘ulari va kechinmalarini chuqur psixologizm bilan ochib bergan [2]. Adib ayollarning ichki olamiga nazar solgan, ularning sevgi va sadoqati, orzu-umidlari va iztiroblari, qo‘rquv va hayajonlarini mahorat bilan tasvirlagan. Bunda Qodiriyning so‘z qo‘llash mahorati, uning chuqur psixologik tahlil qobiliyati muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Romandagi Kumush, Zaynab, Oftob oyim, Xushro‘y singari ayol personajlar o‘zbek adabiyotidagi yorqin obrazlar sirasiga kiradi. Ular nafaqat badiiy obraz, balki real hayotiy shaxslar sifatida gavdalanadi. Qodiriy ularning har birini o‘zgacha xarakter va taqdirga ega bo‘lgan shaxs sifatida tasvirlaydi.

Xususan, Kumush obrazi romanning bosh ayol qahramoni bo‘lib, uning taqdiri orqali yozuvchi o‘sha davr ayollarining hayotini umumlashtirgan. Kumushning sadoqati, sevgisi va iztiroblari kitobxonni befarq qoldirmaydi. Zaynab esa hasadgo‘y va makkor ayol sifatida tasvirlangan bo‘lib, uning obrazi orqali yozuvchi ayollar orasidagi raqobat va ziddiyatlarni ko‘rsatib beradi. Oftob oyim va Xushro‘y singari personajlar ham o‘zlarining betakror xarakteri bilan kitobxonning yodida qoladi.

Shuni ta'kidlash joizki, "O‘tgan kunlar" romanini yaratishda Qodiriy katta ijodiy mehnat qilgan. U o‘zbek ayollarining hayoti va ruhiyatini chuqur o‘rgangan, ularning qiyofasini haqqoniy va ishonarli chizishga harakat qilgan. Shu maqsadda Qodiriy xalq og‘zaki ijodi, tarixiy manbalar va real hayotiy voqealardan foydalangan. Yozuvchining ayollar obrazini yaratishdagi yutug‘i shundaki, u

ularning ruhiy olamini ochishda so‘z va ifodalarning nozik ma'no qirralarini mohirona qo‘llagan. Uning tasvirlari o‘quvchini hayajonlantiradi, qahramonlarga nisbatan hamdardlik va achinish tuyg‘ularini uyg‘otadi.

"O‘tgan kunlar" romanidagi ayollar obrazini tadqiq etishda turli metodlardan foydalanilgan. Jumladan, tavsifiy metod asardagi ayol personajlarning xarakter xususiyatlari, his-tuyg‘ulari va kechinmalarini tahlil qilishda qo‘llanilgan. Qiyosiy-tarixiy metod esa romandagi ayollar obrazini yaratishda yozuvchi tomonidan qo‘llanilgan tarixiy manbalar va real voqealarni aniqlashda yordam bergan. Psixologik tahlil metodi Qodiriyning ayol qahramonlari ruhiyatini yoritishda qo‘llagan usullarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Qodiriyning ayollar obrazi masalasi adabiyotshunoslikda ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, taniqli olima Dilnavoz Yusupova o‘zining "O‘tkan kunlar" romanida ayollar masalasi" nomli maqolasida Kumush, Zaynab va boshqa ayol qahramonlar obrazini gender nuqtai nazaridan tahlil qilgan [3]. Uning fikricha, Qodiriy ayollarning kuchli va mustaqil shaxs sifatidagi qiyofasini yaratishga intilgan.

Shuningdek, Nargiza Rahmonova "Abdulla Qodiriy romanlarida psixologizm" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida "O‘tgan kunlar"dagi Kumush va Zaynab obrazlarining ruhiy dunyosini chuqur tahlil qilgan [4]. Uning tadqiqotlari Qodiriyning ayol psixologiyasini mohirona tasvirlash mahoratini ko‘rsatib bergan.

Bir qator boshqa tadqiqotchilar ham "O‘tgan kunlar"dagi ayollar masalasini turli jihatlardan o‘rganishgan. Ularning ishlarida Qodiriyning realizmi, psixologizmi, tarixiylik tamoyillari hamda ayollar taqdiri aks etgan [5,6,7]. Bu kabi tadqiqotlar "O‘tgan kunlar" romanining ayollar obrazi borasidagi ahamiyatini yanada teranroq anglash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, "O‘tgan kunlar" romanida ayollar obrazi markaziy o‘rinni egallagan. Yozuvchi ayol qahramonlarining xarakter xususiyatlari, ma'naviy-axloqiy fazilatlari va ruhiy olamini mahorat bilan ochib bergan.

Romandagi Kumush obrazi orqali sadoqatli, vafodor va ma'naviyatli ayol timsoli yaratilgan. Kumushning Otabekka bo‘lgan sevgisi, uning oilasi va farzandlariga mehri kitobxon qalbini larzaga soladi. Kumush o‘zining ikki muhabbat orasida qolishi, ruhiy iztiroblari va qiyinchiliklarni matonat bilan engib o‘tishi bilan o‘quvchida chuqur taassurot qoldiradi. Qodiriy uning samimiyati, axloqiy pokligi va mardligini ta'sirchan aks ettirgan [8].

Zaynab obrazi esa romanda salbiy obraz sifatida gavdalantirilgan. U Otabekning sevgisiga noiloj bo‘lib, hasad va g‘arazga berilib ketadi. Zaynabning hiylakorligi, makkorligi va qabih ishlari kitobxonda nafrat uyg‘otadi. Shu bilan

birga, yozuvchi uning qalbidagi iztirob va alamlarni ham koʻrsatib oʻtgan. Bu esa Zaynabga nisbatan muayyan darajada hamdardlik hissini uygʻotadi.

Oftob oyim va Xushroʻy singari personajlar ham romandan munosib oʻrin olgan. Oftob oyim mehribon va oqila ona sifatida gavdalansa, Xushroʻy sodiq va fidoyi qiz timsolida namoyon boʻladi. Ularning har biri oʻz fe'l-atvori, xulq-odobi bilan ajralib turadi va asardagi voqealar rivojida muayyan rol oʻynaydi [9].

Romanda ayollarning ijtimoiy hayotdagi oʻrni va mavqei ham aks ettirilgan. Qodiriy oʻsha davr ayollarining erksizligi, huquqsizligi va tahqirlanishini badiiy boʻyoqlarda ifodalab bergan. Kumushning taqdiri misolida yozuvchi ayollarning oʻz muhabbatiga erisha olmasligi, ularning his-tuygʻularining inobatga olinmasligi kabi muammolarni koʻtarib chiqqan. Bu orqali Qodiriy jamiyatdagi ayollar masalasiga e'tiborni qaratgan.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, "Oʻtgan kunlar" romani ayollar obrazini yaratishda teran psixologizm, tarixiy haqiqat va badiiy mahoratning yorqin namunasi hisoblanadi. Abdulla Qodiriyning mazkur asari nafaqat oʻzbek, balki jahon romanchiligi tarixida ham oʻchmas iz qoldirgan. Undagi ayol personajlar oʻzbek adabiyotining boy xazinasidan munosib oʻrin olgan va kitobxonlar qalbidan chuqur joy egallagan.

"Oʻtgan kunlar" romanining ayollar obrazi bilan bogʻliq jihatlari adabiyotshunoslikda keng oʻrganilgan boʻlsa-da, bu mavzu hali oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan. Ayollar masalasi bugungi kunda ham jamiyatning muhim muammolaridan biri sanaladi. Shu ma'noda, "Oʻtgan kunlar" romani mana bir asrdan oshiq vaqt oʻtsa-da, hamon oʻz qadrini yoʻqotmagan. Qodiriyning ayollar obrazi borasidagi mahorati va tajribasi bugungi adiblar uchun ham ibrat maktabi boʻlib xizmat qiladi.

"Oʻtgan kunlar" romanidagi ayollar obrazini tahlil qilish murakkab va koʻp qirrali jarayondir. Chunki Qodiriy ayol qahramonlarining ruhiy dunyosini nihoyatda nozik va mahorat bilan tasvirlagan. Har bir ayol personaj oʻziga xos xarakter va taqdirga ega boʻlib, ularning qiyofasi asarda toʻlaqonli ochib berilgan.

Asardagi bosh ayol qahramon Kumushbibining obrazi oʻzining hayotiyligi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Kumushning ma'naviy goʻzalligi, pokizaligi va sadoqati kitobxonda chuqur taassurot qoldiradi. U oilaviy burch, muhabbat va sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlar timsoli sifatida gavdalanadi. Kumushning fojiaviy taqdiri orqali yozuvchi oʻsha davr ayollarining ogʻir qismati, ularning huquqsizligi va erksizligini koʻrsatib bergan [10].

Kumushning ruhiy holati romanda juda ta'sirli tasvirlangan. Uning his-tuygʻulari, oʻy-kechinmalari va iztiroblari kitobxon qalbini junbishga keltiradi. Ayniqsa, Kumushning Otabekka boʻlgan sevgisi, unga sadoqati va vafodorligi katta

kuch va matonat bilan aks ettirilgan. Shu bilan birga, Kumush obrazida ayollarning o‘z haq-huquqlari uchun kurashishi, ularning o‘z qadr-qimmatini anglashi kabi fazilatlar ham mujassamlashgan.

Zaynab obrazi Kumushning antipodi sifatida namoyon bo‘ladi. Zaynab hasadgo‘y, makkor va xudbinlik timsoli bo‘lib, u o‘z manfaatlari yo‘lida har qanday jirkanchlikdan qaytmaydi. Uning kirdikorlari va qabih ishlari romanda keskin qoralanadi. Shu bilan birga, yozuvchi Zaynabning ham fojiali qismatini ko‘rsatib o‘tadi. Uning Kumushga nisbatan hasadi va adovati zamirida o‘z muhabbatiga erisha olmaganligi, jabrlanishi yotadi. Bu esa uni ma'lum darajada oqlaydi va unga nisbatan hamdardlik uyg‘otadi.

Oftob oyim va Xushro‘y obrazlari ham "O‘tgan kunlar"ning yorqin sahifalarini tashkil etadi. Oftob oyimning donoligi, tadbirkorligi va mehribonligi uning timsolida mujassam etgan. U o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan eng yaxshi fazilatlarning ramzi sifatida gavdalanadi. Xushro‘y esa sodiq, fidoyi va qat'iyatli qiz obrazidir. Romanda uning jasorati, mardligi va matonati alohida ta'kidlanadi.

"O‘tgan kunlar" romani ayollar masalasini badiiy tadqiq etish borasida o‘zbek adabiyotidagi muhim hodisadir. Bu asar orqali yozuvchi ayollar hayotining turli qirralarini ochib bergan, ularning orzu-umidlari, quvonch va iztiroblari, matonati va jasoratini ko‘rsatib bergan. Romandagi ayol personajlar kitobxon qalbidan chuqur joy olgan va ularning taqdiri hech kimni befarq qoldirmaydi.

Asarda ko‘tarilgan ayollar muammosi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ayollar hali-hanuz o‘z haq-huquqlarini to‘liq ro‘yobga chiqara olmayapti, ularning orzulari va intilishlari to‘siqqa uchramoqda. "O‘tgan kunlar" romani ana shu muammolarni chuqur tahlil qilish va ularning yechimini topishda muhim ahamiyatga ega.

Abdulla Qodiriy mazkur asarida ayollar obrazini yaratishda realizm metodiga tayanadi. U ayollar hayotini real va haqqoniy tasvirlashga intiladi. Adib ayollarning ichki dunyosiga nazar soladi, ularning his-tuyg‘ularini, ruhiy kechinmalarini samimiy ifodalaydi. Bu esa romanga hayotiylik va ishonchlilik baxsh etadi.

Bundan tashqari, Qodiriy psixologik tahlil usulini ham mohirona qo‘llaydi. U ayol personajlarning xarakter xususiyatlarini, ularning xatti-harakatlarini ichki ruhiy holatlari orqali ochib beradi. Yozuvchining chuqur psixologizmi uning ayollar obrazini yaratishdagi yutug‘idir. Bu usul kitobxonni qahramonlar qalbiga yanada yaqinlashtiradi, ularning kechinmalarini to‘liq his qilishga yordam beradi.

Romanda tarixiylik tamoyili ham kuchli seziladi. Qodiriy XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi o‘zbek jamiyati hayotini aniq va ishonarli tasvirlaydi. U davr ayollarining ijtimoiy ahvoli, ularning oilaviy munosabatlari, turmush tarzi romanda

oʻz aksini topgan. Yozuvchi tarixiy faktlarga tayangan holda, oʻtmish haqiqatini qayta tiklaydi.

"Oʻtgan kunlar" romani ayollar obrazini yaratishda oʻzbek adabiyoti tarixidagi eng yuksak choʻqqilardan biridir. Abdulla Qodiriy ayollar ruhiyatining mohir tadqiqotchisi sifatida namoyon boʻladi. U ayollarning murakkab va ziddiyatli olamini badiiy soʻz vositasida kashf etadi. Kumush, Zaynab, Oftob oyim va Xushroʻy singari yorqin obrazlar kitobxon qalbidan abadiy oʻrin olgan.

Mazkur asar hozirgi yosh avlodga ibrat maktabi boʻlib xizmat qiladi. Romandagi ayol qahramonlar timsoli orqali yoshlar sadoqat, muhabbat, matonat kabi yuksak insoniy fazilatlarni oʻrganadi. Ayollar masalasining koʻtarilishi esa jamiyatni bu muammolar haqida yanada jiddiyroq oʻylashga undaydi. Shu ma'noda, "Oʻtgan kunlar" romani nafaqat badiiy asar, balki ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi hamdir.

Abdulla Qodiriyning "Oʻtgan kunlar" romani oʻzbek adabiyotining nodir namunalaridan biri boʻlib, unda yozuvchining ayollar obrazini yaratishdagi yuksak mahorati namoyon boʻlgan. Qodiriy ayol personajlarning ruhiy olamini chuqur psixologizm bilan tasvirlagan, ularning xarakter xususiyatlari, his-tuygʻulari va kechinmalarini real va ishonarli ifodalagan.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, "Oʻtgan kunlar" nafaqat badiiy jihatdan yuksak asar, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni targʻib qiluvchi muhim manba hamdir. Asardagi ayol qahramonlar sadoqat, muhabbat, matonat kabi fazilatlar timsoli sifatida gavdalanadi.

Xulosa qilib aytganda, "Oʻtgan kunlar" romani oʻzbek milliy adabiyoti taraqqiyotida muhim oʻrin tutadi. Bu asar ayollar obrazini yaratishda Qodiriyning yuksak mahoratini namoyish qiladi. Shu bilan birga, roman hozirgi davr uchun ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Demak, "Oʻtgan kunlar" kelajak avlodlar uchun ham ma'naviy meros boʻlib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ahmedov, S. (2015). "Oʻtgan kunlar" romanida xarakter yaratish mahorati. Sharq yulduzi, 4, 147-152.
2. Karimov, N. (2017). Abdulla Qodiriy va milliy roman. Oʻzbekiston adabiyoti va san'ati, 12, 3-4.
3. Yusupova, D. (2018). "Oʻtgan kunlar" romanida ayollar masalasi. Filologiya masalalari, 4, 62-66.
4. Rahmonova, N. (2020). Abdulla Qodiriy romanlarida psixologizm [Nomzodlik dissertatsiyasi]. Oʻzbekiston Milliy universiteti.
5. Yuldasheva, D. (2019). "Oʻtgan kunlar" romanida ayollar taqdiri masalasi. Yoshlik, 3, 36-38.

6. Karimov, B. (2018). O‘tgan kunlar"da tarixiy haqiqat masalasi. O‘zbek tili va adabiyoti, 5, 28-32.
7. Ahmedova, M. (2021). "O‘tgan kunlar"da milliy xarakter masalasi. Til va adabiyot ta'limi, 6, 42-46.
8. Valiyeva, S. (2020). Abdulla Qodiriy romanlarida ayol va ishq talqini. Sharq yulduzi, 2, 137-142.
9. Qodirova, G. (2017). "O‘tgan kunlar" romanida qadriyatlar masalasi. Tafakkur ziyosi, 3, 52-56.
10. Qo‘chqorov, R. (2019). "O‘tgan kunlar": badiiy tahlil va talqin. Tafakkur, 4, 58-62.

## MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA TASVIRIYLIK (QOBILJON SHERMATOV, ERKIN MALIK ASARLARI MISOLIDA)

***Sayfiddinova Ziynat Abduzohidovna***

*O‘FF 109-guruh*

*Sayfiddinova109@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada zmonaviy o‘zbek bolalar adabiyotining atoqli namoyondasi Erkin Malik hamda yosh ijodkor Qobiljon Shermatovning asarlari tahlilga tortilgan Undagi obrazlar galereyasi va tasvir mahorati tahlil* qilingan.

***Kalit so‘zlar:*** *bola tarbiyasi,ertak, fantastic syujet,bolalar adabiyoti*

***Abstract****: this article analyzes the gallery of images and image skills in it, in which the works of Free Malik and the young creator Kabiljon Shermatov, a worthy exponent of zmonavi Uzbek children's literature, are subject to analysis.*

***Keywords:*** *childhood education, fairy tale, fantastic plot, children's literature*

Bolalar tarbiyasi insoniyatning azaliy va abadiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bu borada, ayniqsa, adabiyotning o‘rni beqiyos. "Bolalar adabiyoti" nomi ostida birlashuvchi maqol, matal, topishmoq, tez aytish kabi janrlar bilan birga, pand-nasihat, o‘git ruhida yozilgan har qanday badiiy asar ham yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalashda ota-onalarga yordamchi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday asarlar bolalar ruhiyati kabi favqulodda o‘zgarish, kutilmagan voqealar-u, aql bovar qilmas qahramonliklarga, fantastik va yumoristik tasvirlarga boy syujeti jihatidan xalq og‘zaki ijodi, xususan, ertaklarga yaqin turadi. Bolalar

adabiyotining yana bir xususiyati kitobxon yoshini hisobga olib yozilishidir: kichkina yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan asarlarda yovuzlik va ezgulik o‘rtasidagi kurash, insoniy fazilatlar ifodasi asosiy o‘rin tutsa, o‘smir yoshdagilarga mos adabiyotlarda esa hayotdagi qiyinchiliklar, kishilarning murakkab ruhiyati tasvirlanadi. Adabiyotning ushbu murakkab yo‘nalishida qalam tebratgan jahon adabiyoti namoyondalaridan Jonaton Svift, Hans Kristian Andersen, aka-uka Grimmlar, Janni Rodari kabi yozuvchilar ijodi o‘zbek kitobxonlari qo‘liga, shu bilan birga, yuragiga ham yetib borgan, albatta. O‘zbek adabiyoti tarixida Alisher Navoiy, Gulxaniy, Sa’diy Sheroziy kabi ko‘plab adiblarimizning pand-nasihat ruhida yozgan asarlari uzoq yillar davomida maktablarda darslik sifatida ham qo‘llanib kelingan. XX-XXI asrlarda ham bolalarga atalgan asarlar yaratishda katta yutuqlarga erishildi, jumladan, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, G‘ayratiy, Shokir Sulaymon, Ilyos Muslim, G’ulom Zafariy, Ayniy, Elbek, Zafar Diyor, Sulton Jo‘ra, Qudrat Hikmat, Quddus Muhammadiy, Shukur Sadulla, Hakim Nazir, Po‘lat Mo‘min kabi ko‘plab ijodkorlarning asarlari yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Shu qatorda, bu sohada hozirgi adabiy jarayonda yaratilayotgan asarlar ham e’tiborga molik. Ulardan ba’zilari haqida fikr yuritishni o‘zimizga maqsad qildik. 2021-yilda Qobiljon Shermatov tomonidan kitobxonlarga taqdim etilgan 48 boblik "Buvamning oshqozonidagi mamlakat" asari, avvalambor, o‘zining g‘ayritabiiy nomi bilan yoshlarda qiziqish uyg‘otadi. Kitob o‘qishni yoqtirmaydigan, judayam sho‘x bir bola tilidan hikoya qilingan ushbu asar yoshlarning ilm o‘rganishi, o‘z maqsadi yo‘lida ildam harakat qilishi, yoshlikdanoq to‘g‘ri va halol yashab, turli xil yomon illatlardan voz kechishi kerakligini badiiy adabiyot kuchi vositasida kitobxonga singdiradi.

Muallif asarni yosh bola tilidan hikoya qilar ekan, o‘z mahorati orqali yoshlarga xos bo‘lgan soddalik, ishonuvchanlik, qiziqqonlik kabi holatlarni yuzaga chiqara olganki, uni o‘qigan bola xuddi o‘z tengdoshi bilan suhbatlashib, u bilan birga sayohatlarni boshidan kechirgandek bo‘ladi va o‘ziga olam-olam xulosalar chiqaradi. Asar voqealarining rivoji jihatidan Xudoyberdi To‘xtaboyevning "Shirin qovunlar mamlakatida" romaniga o‘xshab ketadi, ikkala asarda ham bolaning ma’lum sabablarga ko‘ra ko‘zga ko‘rinmas darajada kichrayib, boshqa olamga tushib qolishi motivi mavjud. Farqi shuki, "Shirin qovunlar mamlakatida" romanida hammasi tushda kechgan bo‘lsa, "Buvamning oshqozonidagi mamlakat"da barchasi hayotiy, ya’ni real hayotdagi ilm-fan kashfiyoti hisoblanmish "kichraytiruvchi damlama" asar voqealari keskin avj olishiga vosita bo‘lib xizmat qilgan, undan keyingi voqea va obrazlar esa majoziy tus oladi. Asarda qabohatga botgan inson bilan faqat yaxshi amallar qiladigan,

halol, bir so‘z bilan aytganda, haqiqiy musulmon insonning ichki dunyosidagi farqlar mos ravishda "Zulmat o‘lkasi" va "Nurlar o‘lkasi" nomlari bilan go‘zal uslubda yoritib berilgan.

Mahmud kosibning ichki dunyosi qanchalik yorug‘, go‘zal, aholisi ziyoli bo‘lsa, Sharof hisobchi ismli poraxo‘r, badnafs kimsaning ichki dunyosi aksincha. Uning yuragida hukmronlik qilayotgan shoh Sfan toshga aylangan yurakni yana va yana gunoh ishlarga majburlayveradi, chunki shoh Sfanning ismini teskarisiga o‘qisak, "nafs" so‘zi hosil bo‘ladiki, buyog‘i kitobxonga o‘z-o‘zidan ayon. Zero, Nosiruddin Rabg‘uziy aytganlaridek, "bir nafsning ishini yetmish shayton qilolmas".

2022-yilga kelib, omma e’tiborini tortgan yana bir ajib asar "Chumolilar saltanati"dir. Erkin Malik qalamiga mansub ushbu asar nomi bir qarashda bizga tanishdek tuyuladi, sababi, chumolilar haqida yaratilgan ba’zi multfilm va asarlar azaldan mashhur bo‘lgan. Jumladan, rus adabiyoti namoyondalaridan biri Aleksandr Trifanovich Tvardovskiy tomonidan 1934-1936-yillarda yozilgan, 19 bobdan iborat "Страна муравия" asari aynan "Chumolilar mamlakati" deb tarjima qilinadi. Ammo Erkin Malik va Tvardovskiylar asari o‘rtasida zarracha o‘xshashlik yo‘q, nazarimizda. O‘zbek adabiyotidagi "Chumolilar saltanati" asario‘z nomiga xos ravishda chumolilarning hayot tarzi haqida bo‘lsa, rus adabiyotidagi "Страна муравия" asarida aksincha: chumolilar haqida emas, asosan, Nikita Morgunok haqida gap ketgan. Erkin Malik o‘z asarida chumoli bolalariga tarbiya berilishini aks ettirish barobarida inson bolalari ongiga ham ta’sir o‘tkazadi. Unda vatanparvarlik, ahillik, kamtarinlik, mehnatsevarlik fazilatlariga urg‘u berish bilan birga, yoshlarga diniy, islomiy ma’lumotlar ham yetkaziladi. Jumladan, jangchi chumolilarning katta ustozi tomonidan aytib berilgan Payg‘ambarlar hayotidan lavhalar, jannatga kiruvchi 10 ta hayvon, bundan tashqari, butparastlar Ibrohim alayhissalomni o‘tda kuydirmoqchi bo‘lishganida, qarg‘alar o‘tga xashak tashisa, chumolilar imkoni boricha suv tashib, o‘tni o‘chirishga uringani kabi chumolilar haqidagi ko‘plab rivoyatlar nafaqat bolalarning, balki yoshi kattalarning ham diniy bilimlarini oshirishga xizmat qiladi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ham azaldan dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. "Chumolilar saltanati" asari kulminatsiyasini tashkil qiluvchi voqea zamirida ham, aynan, vatanparvarlik tuyg‘usi yotadi. Boltatish, Qilichtish kabi bir nechta chumolilarning dushman tarafga o‘tib, o‘z sheriklari hayotini asrab qolish maqsadida hiyla bilan dushmanni mahv etgani, hatto jonini bergani bizga Shiroq jasoratini eslatadi. Bu jihatdan ham ushbu asar ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kelajagimiz yoshlar qo‘lida ekan, jamiyatimiz eng katta e’tiborni yoshlar tarbiyasiga qaratmog‘i lozim. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni — bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi”. Adabiyotning asosiy vazifalaridan biri ham, aynan, tarbiyalashdir. U xoh bolalarga bo‘lsin, xoh o‘smirlarga, xoh keksalarga bo‘lsin, o‘zining ta’lim-tarbiyabiyligi bilan ta’sir o‘tkazaveradi. Biz so‘z yuritganimiz - bolalar adabiyoti esa ifoda usuli va predmetiga ko‘ra go‘yo o‘zga bir olam.

Bunday asarlarning mualliflari ijod jarayonida bolalar dunyosiga sayohat qiladi, tasavvurlariga erk beradi va iloji boricha yoshlarga to‘g‘ridan to‘gri ta’sir o‘tkazuvchi ibratli voqealarni o‘ylab topishadi. So‘zimizni Prezidentimiz Shavkat Miromonovichning shu boradagi so‘zlari bilan yakunlasak: "Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan muhim masalalardan biri – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan!"

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Qobiljon Shermatov, "Bobomning oshqozonidagi mamlakat", 2021.
2. Erkin Malik, "Chumolilar saltanati", 2022.
3. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, "O‘zbekiston", 2017.


## ABDUQAYUM YO‘LDOSH HIKOYALARINING SYUJET XUSUSIYATLARI


***Sheraliyeva Zarnigor Dilshod qizi,***
*ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 4-kurs*
*zarnigorsheraliyeva0@gmail.com*
***Ilmiy rahbar: dotsent Komiljon Hamroyev***



***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshning ayrim hikoyalari tahlilga tortilgan bo‘lib, ularda inson fojiasi, obrazlar tizimi haqida fikr yuritilgan. Adib hikoyalaridagi syujet unsurlari va syujet tartibiga alohida e’tibor qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Hikoya, detal, badiiy konflikt, retrospektiv syujet, kompozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim.*

***Abstract.*** *In this article, some of the stories of the writer Abduqayum Yoldosh are analyzed, and thoughts are expressed about the human tragedy and the system of images. Special attention is paid to plot elements and plot systems in the stories of the writer.*

***Keywords:*** *Story, detail, artistic conflict, retrospective plot, composition, knot, development of events, climax, solution.*

Ma’rifatparvar adib Fitrat “Adabiyot qoidalari” asarida hikoya xususida to‘xtalar ekan, “Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola”, “Oydin kechalarda”si hayotimizning foje’ lavhalarini tasvir qilg‘ani uchun muhim hikoyalardandir” deb e’tirof etadi. O‘zbek zamonaviy hikoyachiligi ham “foje’ lavhalarni” tasvirlovchi muhim hikoyalardan xoli emas, albatta. Yozuvchi Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalarini ham ana shunday muhim hikoyalar sirasiga kiritish mumkin. Avvalo, “Hikoya o‘zi nima?” va “U qanday bo‘lishi kerak?“ degan savollarga Fitratning ilmiy qarashlari orqali javob bersak. *“Bir kimsaning hollarini, bir voqeani tasvir etib, rivoya yo‘sunli yozilg‘an asarlarga hikoya deyiladir. Hikoya o‘z qahramonining ruhiy hollarini ochib beradir: tirikchiligimizda bo‘lub turg‘an ko‘b voqealarning qorong‘u puchmoqlarini oydinlatib ko‘rsatadir. Yomonligi tuzukkina sezilmagan ko‘b odatlarimizni butun foje’ natijalari bilan gavdalantirib, o‘zimizga ko‘rsatadir. Shuning uchun hikoya hayotda muhim o‘rin tutadir”* (Fitrat, 2009, 84-bet). Yuqorida biz nomini keltirgan yozuvchi hikoyalarida ham jadid mutafakkiri ta’kidlagan xususiyatlar yorqin namoyon bo‘ladi. Jamiyatimizdagi tubanliklar, inson fojiasi milliy kolorit bilan ifoda etiladi. Xususan, “Alvido go‘zallik” deb nomlangan hikoyada o‘sha fojelikni ko‘rish mumkin. “Bukrilar mamlakatida go‘zallik nuqson sanaladi” deganlaridek, o‘y-xayoli faqat tirikchilik dardidagi olomon ham asar qahramoni Oysuluvni tinch qo‘ymaydi. Asardagi qishloq odamlari – madaniyatni, muomalani bilmaydigan to‘pori jamoa. Oysuluv esa ana shu muhitga tushib qolgan tamomila boshqacha ayol. U go‘zalikka, san’atga, ma’rifatga intiladi. Ammo johillar to‘dasi undagi nafosatni yo‘qqa chiqaradi. Sahro odamlari – qotil. Ular Oysuluvdagi iste’dodni, ma’rifatga bo‘lgan intilishni, qolaversa, mutafakkirlar dunyoni qutqaruvchi unsur sifatida qaragan go‘zallikni o‘ldirdi. Oysuluvdan o‘zlariga o‘xshagan to‘da vakilasini yaratdi. Asarda qishloqdagilar fojiasini anglagan, vaziyatga to‘g‘ri baho beradigan yagona obraz – bu roviy. Asar boshida Oysuluv va u tushib qolgan kichik jamiyat (qishloq) muhiti o‘rtasida **qahramon va muhit konflikti** yuzaga chiqsa, roviy va qishloq odamlarining bir-biriga ters fikrlari orqali **xarakterlararo konflikt** namoyon bo‘ladi. Hikoyachi qahramon ovul odamlaridan

farq qiladi. Atrofdagi hodisalarni tahlil qila oladi, ovuldagi ahvolning ayanchli ekanini biladi. Shuning uchun ham *"tezroq maktabni bitirishni va biror institutga kirishni, ishqilib, bir amallab qishloqdan chiqib ketishni orzu qilib"* yuradi. Buning sababi hikoyachi qahramonning keyingi fikrlarida yanada oydinlashadi: *"Ovulimizning aksariyat erkaklari ichishni yaxshi ko'rishar, shu sabablimi to'ylar janjalsiz o'tmasdi; ayollari esa kun bo'yi mol-hol tashvishi bilan band edilar. Kechqurunlari, televizorda biron bachkana, uzundan uzoq serial bo'lib qolsagina ko'pchilik dasturxon atrofida o'tirib, shuni tomosha qilishardi"* (https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abduqayum-yo-ldosh-1962/abduqayum-yo-ldosh-alvido-go-zallik-hikoya). Asar qahramonlari bo'lmish ovuldagilar shoir Abdulla Oripov kuyunib, "Qachon xalq bo'lasan, ey sen" deb hayqirib murojaat qilgan olomonga aylanib bo'lgan. Roviy bu holatni – olomon tabiatini, ulardagi nafsi ammorani Muslimning to'yi haqida aytilgan bir jumla bilan ifodalab beradi: *"To'yda odatdagidek molday to'yib ichib olgan erkaklar janjal qilishdi, ayollar uy-uylariga narsa tashishdi"* (https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abduqayum-yo-ldosh-1962/abduqayum-yo-ldosh-alvido-go-zallik-hikoya). Roviy Oysuluvning go'zalligini ta'riflagandan so'ng bolalar uni "Kumush checha" deb chaqirishini aytadi. *"Shunda biz ko'rdik, darhaqiqat, kelinchak juda chiroyli edi. Ismiyam jismiga monand: Oysuluv. Atlas ko'ylak-lozim kiygan, yaltirab turgan sochi taqimini o'padigan, oppoq yuzli, kipriklari uzun-uzun, jismi nozikkina bu ayolni bolalar negadir "Kumush checha" deb chaqirishardi. O'ziyam kinodagi Kumushga juda o'xshab ketardi-da..."* Oxirgi gap ko'p nuqta bilan yakunlanadi. Xo'sh, uning Kumushga o'xshashi faqat tashqi ko'rinishidami yoki bolaning bu gapida uning taqdiri ham qaysidir ma'noda Kumushnikidek, degan presuppozitsiya (yashirin axborot) bormi? Kumushning o'limiga Zaynab tomonidan berilgan zahar sababchi ekanligini bilamiz, ammo bu hikoyada kim kimni (nimani) zaharladi? Bu savolga javobni yuqorida ham berib ketdik. Ovuldagi tuban shaxslar kelinchakning orzu-umidlari, ibosi, intilishlarini o'limga hukm etdi. Hikoyadan olingan quyidagi parchada bu tubanlik yaqqol namoyon bo'lgan: *"Ammo sal keyinroq tasodifan bilib qoldikki, yanga deganimiz shig'ir-pig'ir ham yozarkan. Hatto bir kuni ishga qattiq nonga qo'shib shunaqa narsalar bitilgan qalingina daftarini-yu bir-ikkita rayon gazetasini ko'tarib kelibdi. Bir maqtangisi kelgandir-da sho'rlikning. Buni ayollardan biriga aytibdi ham. Bu gap bir zumda hammaga oshkor bo'ldi-qoldi. Ana shundan keyin yangaga yovqarash kuchaydi. Mashqlar to'la daftar esa birdaniga negadir "xotira daftari" nomini oldi.*

*- Xotira daftarini kim yozardi, birovni degan, eridan ko'ngli yo'q xotin yozadi-da, aylanay...*

*Bular aytilgan gaplarning mingdan biri edi-yov chamasi. Axiyri bo‘lmadi - uyat va nomusdan yuzi lovillab yonayotgan Oysuluv xotinlarning unsiz ma’qullovi va ehtimolki talabi ostida “xotira daftari” va gazetalarni tushlik mahali omonat chaylada o‘tirgan mahalimiz qumg‘on tagiga tutantiriq izlayotgan oshpaz opaga berib yubordi...”* (https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abduqayum-yo-ldosh-1962/abduqayum-yo-ldosh-alvido-go-zallik-hikoya). Yuqorida biz nazarda tutgan ko‘p nuqta ostiga berkitilgan fikrlar Oysuluvning asar oxiridagi tasviri orqali oydinlashadi. Xullas, u endi tamomila boshqa Oysuluv – o‘sha ommaning bittasiga aylanib ulgurgan ayol edi.

Asardagi Muslim obraziga to‘xtalsak. Muslim “xotin zotini mensimasligini hammaning oldida isbotlab” gerdayib yuradigan nomardlardan. Uning qanday odan ekanini ayoliga munosabatidan bilsa bo‘ladi. Umrida dala yumushlariga o‘rganmagan, ketmon bilan oyog‘ini chopib olgan Oysuluvga “Ko‘zingga qarab ishlasang, o‘lasanmi, ey…” deb baqirgach, roviy tili bilan aytganda, “shu bilan o‘z burchimni ado etdim deb o‘yladi shekilli, yana shiyponga, ichishni davom ettirishga” ketadi.

Ushbu hikoyada voqealar ketma-ket tarzda ro‘y beradi. Ammo adibning shunday hikoyalari borki, ularda syujetning o‘ziga xosligi turlicha namoyon bo‘ladi. Xususan, ayrim hikoyalar **retrospeksiya** usulida bayon qilinadi. Umuman olganda, mantiqan o‘ylab ko‘radigan bo‘lsak, har qanday hikoyaning o‘zi bu retrospeksiya hisoblanadi. Chunki ro‘y berish nuqtayi nazaridan asardagi voqea allaqachon yuz berib bo‘lgan, roviy yoki muallif tomonidan keyin bayon qilingan bo‘ladi. Abduqayum Yo‘ldoshevning aksar hikoyalari **voqealar rivoji** bilan boshlanadi, ammo muallif hikoyalari orasida syujet voqealari (“Quduq”dagi kabi) **tugun** bilan boshlanadigan ijodiy namunalar ham yo‘q emas. Muallifning “Tilla soat” hikoyasi ham shu tipdagi asarlardan hisoblanadi. Hikoyaga “Hammasi oddiygina hazildan boshlandi” degan tugun jumla bilan kirib boriladi. Hazil nimadan iborat ekani, uning sabab-oqibatlari voqealar rivoji davomida oydinlashib boradi. Asar uchun qahramonlar taqdirini o‘zgartirib yuborgan tilla soat detali sarlavha qilib tanlangan. Tilla soat bu ayni paytda nafs timsoli deb aytish mumkin. Asarda do‘stining mastligidan foydalanib, avval boshda hazil qilaman deb uning tilla soati va pullarini olib qo‘ygan, keyinchalik fikri o‘zgarib, nafs qutqusiga uchgan qahramonga muallif Sodiq ismini tanlagan. Ha, u o‘z nafsiga sodiqlik qilib, do‘stining buyumlarini qaytarmadi, ammo uning nomi xuddi qahramonga chiqib qoldi.

“Tilla soat” ham yozuvchining boshqa hikoyalari kabi qismlarga ajratilgan holda beriladi. E’tibor beradigan bo‘lsak, Abduqayum Yo‘ldoshning deyarli barcha hikoyalari tuzilish jihatidan bir necha qismlarga bo‘lingan. Qismlarga bo‘lish orqali

muallif o‘z oldiga bir necha maqsadlar qo‘yadi. Xususan, “Tilla soat”da birinchi qismda tugun (hammasiga hazil sabab bo‘lgani va voqea nimadan boshlangani) bayon qilinsa, ikkinchi qismda voqealar rivoji (bu hazil nimadan iborat ekani), uchinchi qismda esa yechim (vaziyat nimalarga olib kelgani, sabab-oqibatlar ifodalanadi. “Quduq” va boshqa bir qator hikoyalarda ham muallif voqeadan voqeaga asarni qismlarga ajratish orqali o‘tadi. Bir qism tugab, boshqasiga o‘tilgani sari hikoyadagi fojelik ortib boradi.

Abduqayum Yo‘ldosh ijodi haqida gap ketganda adibning “Puankare” hikoyasini tilga olmaslikning iloji yo‘q. Nega deganda, ushbu asarni yozuvchi ijodining gultoji deb atash mumkin. “Puankare” – ayni paytda biz qo‘rqqan narsalar haqida so‘zlovchi hikoya. “Puankare” – orzu-maqsadlari yakson bo‘lgan bir armon hikoyasi, achchiq haqiqatlar, xato tanlovlar, ularning natijasida yuzaga kelgan anglatib bo‘lmas iztirob ifodasidir. Hikoyada inson fojiasi ayanchli tarzda tasvirlanadi. Asar matematika sohasidagi buyuk fransuz olimi Puankare nomi bilan ataladi. Hikoya qahramoni ham matematik, u bir umr Puankare gipotezasini isbotlashga harakat qiladi. Bu yerda Puankare – inson maqsadlarining timsoli. Hayotda inson orzu-maqsadlariga yetishish uchun harakat qilar ekan, buy yo‘lda qancha zahmat-mashaqqat chekishga, turli to‘siqlarni yengib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Ammo achinarlisi shundaki, hamma orzu-maqsadlar ham biz kutgan tarzda amalga oshavermaydi. Hikoya qahramoni – hayotini ilmga bag‘ishlashni istagan ziyoli inson, ayni paytda oila qadrini biladigan, atrofdagilarni o‘ylaydigan insofli, oilaparvar, shuningdek, murosali kishi. Matematik umri davomida uni tushunmaydigan ilmsiz, ilmning qiymati, mohiyatini bilmaydigan ayol bilan hayot kechiradi. Bu ikki obraz orqali hikoyada **xarakterlararo konflikt** yaqqol namoyon bo‘ladi. Boshda hikoya matematikning portfeli haqidagi fikrlari bilan, so‘ng do‘sti haqidagi xotiralari va universitetda hammaning og‘ziga tushgan “o‘tmishi” to‘g‘risidagi fikrlar bilan boshlanadi. Voqealarni bayon qilishda muallif **retrospektiv syujet**dan foydalanadi. Shu o‘rinda adabiyotshunos olim Dilmurod Quronovning retrospeksiya haqidagi qarashlarini keltirib o‘tish o‘rinli: “*Retrospeksiya deb ataluvchi bu usulning mohiyati shuki, unda yozuvchi syujet voqealarini, ya’ni faqat oldinga oquvchi vaqtni go‘yo to‘xtatib qo‘yadi-da, o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqeani tasvirlashga o‘tadi…Garchi syujetning alohida turi sifatida tasnif etilmasa-da, ayrim adabiyotlarda u syujet kompozitsiyasi nuqtayi nazaridan retrospektiv syujet deb farqlanadi. Odatda, bunday syujet qahramonning o‘tmishda yuz bergan voqealarni, ba’zan hatto butun umrini tahliliy nazardan o‘tkazishi asosiga quriladi”* (Quronov D, 2018, 189-190-betlar). Biz yuqorida nomini keltirgan “Puankare” hikoyasida ham aynan qayta eslash orqali qahramon hayoti tahliliga nazar tashlangan. Hikoya 9 ta qismga bo‘lingan. Birinchi qism

voqealarga kirish bo‘lib, u hikoya qahramoni va muhit xususida boshlang‘ich tasavvurni uyg‘otadi, ikkinchi qismdan boshlab voqea-hodisalar oydinlashib boradi. Aynan shu qismdagi *“Institutni bitirish arafasida men kutilmaganda Puankare gipotezasining shaydosiga aylandim”* jumlasi orqali hikoyada **tugun** yuzaga keladi. **Voqealar rivoji**da qahramonning turmushi, oilaviy ahvoli bilan bog‘liq hodisalar ifoda qilinadi. Olaxurjun bo‘yniga tushgach u oilaviy tashvishlar, tirikchilik vajidan ilmiy ishiga ham, hayotini bag‘ishlashga tayyor bo‘lgan azaliy maqsadiga ham yetarlicha vaqt ajratolmaydi. Buning oqibatida butun istaklari, xayollari chippakka chiqadi. Ilm matematik uchun najot edi, shu najotning yo‘qolishi qahramon hayotida fojelik yasadi. Puankare qahramon hayotining mohiyati edi.

Asardagi fojelik faqatgina keksa matematikning ahvoli bilangina bog‘liq emas. Zotan, unda qayta umid uyg‘ongan, yosh talaba bilan birga orzusiga yetmoq g‘ayrati yana paydo bo‘lgandi. Asl fojia o‘sha g‘ayrat, o‘sha umidning ikinchi bor qayta so‘nishi edi! Muallim o‘z hayotining shogirdida takrorlanayotganini ko‘rib ado bo‘lgandi. Undagi insoniylik, boshqalarni tushunish hissi shu darajada ediki, o‘z turmushi yaxshi emasligiga, ayolining har kungi ta’na-dashnomlariga qaramay, portfelidagi pullarni bir kunlik shogirdiga to‘yona qildi. Asardan olingan quyidagi jumlalar ham qahramonning ichki portretini chizishda muhim ahamiyat kasb etgan: *“Men yana ilmga qaytmoqda edim. Dilimning qay qorong‘u, hammaning, hatto o‘zimning ham nigohimdan pinhon puchmoqlarida bir telbavor o‘y kezardiki, mabodo Xudo “Ol, qulim” desa-yu, talaba ikkalamiz gipotezani yechsak, men… men mukofot pulidan voz kechaman. Mayli, talaba olsin, unga kerakdir. Ammo men o‘zimga tegishli besh yuz ming dollardan voz kechaman. To‘lalagicha! Illo… illo men bir asrdan beri jumboq bo‘lib kelayotgan gipotezani isbotlab, kashfiyotga erishgan mahalim his qilgan shodligimni, baxtimni yarim million dollardan qimmat deb hisoblagan bo‘lardim. Tushuntirib berolmadimmi? Buni tushunish uchun odam haqiqiy matematik bo‘lishi kerak. To‘g‘ri, puldan voz kechganimni eshitgan xotinim meni tiriklay g‘ajiydi, bolalarim nafrat bilan qarashadi, tanish-bilishlarim telbaga chiqarishadi. Ammo men baribir shunday yo‘l tutaman. Nazarimda, talaba ham shunday qiladiganday. Axir uning tomirlarida ham asl matematikning qoni oqmoqda…*(Йўлдош, А., 2014, 122- бет)

Hikoyadagi ayrim o‘rinlar orqali qahramon tabiatida biroz qat’iyatning yetishmaganligi, yumshoq fe’llilik ko‘p hollarda matematik zarariga ishlaganligining guvohi bo‘lamiz. Farzand tarbiyasi borasida ham ayolining aks ta’siri qahramon nutqidan sezilib turadi. Asar qahramoni har gapida matematik qonuniyatlarni yodga oladi-yu, ammo hayot qonuniyatlariga yaxshi e’tibor bermagani tufayli xato tanlovlar qiladi. “Tanloving xato bo‘lsa, to‘loving umr bo‘ladi” deganlaridek, umr bo‘yi azoblar iskanjasida yashaydi.

Qahramonlar xarakterini tasvirlashda, umuman, ushbu hikoyaning “yozib tashlanishida” hayotiy voqeliklar muhim o‘rin tutgan. Adabiy suhbatlarining birida yozuvchi shunday deydi: *“Bilasiz, “turtki” degan tushuncha bor. Go‘yo hamma narsa tayyor, hammasi yetarliday, voqeaning boshini ham, o‘rtasini ham, finalini ham bilasiz, tasavvur qilasiz, qahramonlaringiz ko‘z oldingizda, ammo baribir asar yozilmaydi, nimadir yetishmaydi, mabodo o‘zingizni majburlab qog‘oz qoralasangiz, bitigingiz soxta chiqaveradi, qahramonlaringiz sharpaga o‘xshab qoladi…Mana shunda so‘nggi turtki kutilmaganda, o‘z-o‘zidan kelib qolsa, baxtingiz, aks holda, yuraverasiz…”* (Йўлдош, А., 2014, 276- бет) Muallif uchun ana shu turtki professor Qozoqboy Yo‘ldoshevning o‘zbek ayollari haqida aytgan gaplari bo‘lgan. Yozuvchining aytishicha, ularni televideniyaga, suratga olishga chaqirib qolishadi va suv bo‘yiga olib borishadi. Kun qizigan payt, ular turgan ko‘prik tagidan bir ariq suv sharillab oqar, ikkala qirg‘oqdagi soya-salqin joylarda dam oluvchilar, ularning aksariyati rus, koreys millatiga mansub erkak-ayollar edi. Shu payt Qozoqboy Yo‘ldoshev olimlarga xos zukkolik bilan: “Agar o‘zimizning ayollarni olib kelsangiz, bog‘lab qo‘ysangiz ham turishmaydi. Axir ularning boshida bir olam tashvish: to‘y, ma’raka, charlar…”, - deb aytadi. Shu gapdan keyin o‘zidagi holatni yozuvchi shunday aytib beradi: *“Shunda men, deylik, eri bir amallab dam olishga olib kelgan va hattoki ketib qolmasin, dam olsin degan o‘yda bog‘lab qo‘ygan ayolning qalin-qalin arqonlarni jon-jahdi bilan, tishlarini ishga solib yechib-uzayotganini tasavvur etdim-u, kulib yubordim. Ammo… Qozoqboy akaning qolgan gaplarini eshitmadim”* (Йўлдош, А., 2014, 276- бет). Xuddi shu narsa hikoyada matematikning ayoliga ko‘chiriladi. Bu tasvir asarda quyidagicha ifoda etiladi: *“...Xullas, agar, sal yumshoqroq iboralarda ifodalaydigan bo‘lsak, shu paytgacha dam olmagan fidoyi xotinim bundan keyin ham dam olishni xayoliga keltirmas ekan, chunki uning uchun – mendek tepsa tebranmas, loqayd, dangasa erdan farqli ravishda – bolalarning baxti to‘kis bo‘lishi muhim ekan, bu to‘kislik esa el qatori o‘tkazilgan to‘yda namoyon bo‘larkan…va hokazo va hokazo (Ha, bu xotin dam olish-pam olishga bormaydi, mabodo sanatoriya-panatoriyaga oborib, bog‘lab qo‘yib qaytsam, arqonlarni tishlab-uzib, uzolmagan taqdirda esa hakkalab bo‘lsa ham mendan burun uyga yetib keladi)”* (Йўлдош, А., 2014, 127-128- бетлар).

Qahramon holati-yu ahvolotini ochishda portfel detali ham muhim ahamiyat kasb etgan. Portfel ayni paytda muallimning qiyin hayot tarzi, turmushidagi yetishmovchilikni ko‘rsatsa, boshqa tomondan bu detal uning orzu-maqsadlari bilan bog‘liq. Qolaversa, bu yerda hech kim bas kelolmaydigan vaqt masalasi ham bor. Shafqatsiz vaqt nafaqat portfelga, balki unda saqlanadigan orzu-umidlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Asar boshlanmasida aytilganidek, “vaqt ta’sirini o‘tkazmaydigan narsaning o‘zi qolmabdi. Hatto asl mol ham uning qoshida ojiz ekan”. Hikoyada bu

haqda yana bir qancha fikrlar keltirilgan. Ular orasida, ayniqsa, uchinchi qism boshlanmasi bo‘lib kelgan quyidagi jumlalar kishini o‘ylantirib qo‘yadi: *“Vaqt, vaqt, vaqt… U bunchalar tez o‘tadi? Qayoqqa bunchalar shoshadi? Bu qattol shiddat inson umrini tushga, ro‘yoga aylantirib qo‘ymaydimi? Uxlading-u, uyg‘onding. Qisqagina davom etgan tushingda esa butun umringni ko‘rding. Bunchalar shafqatsizsan, vaqt…”* (Йўлдош, А., 2014, 100- бет) Turmush muammolari, jamiyat hayotidagi kemtikliklar ham asarning voqealar rivoji fonida ifoda etilgan deyish mumkin. Yozuvchi Tog‘ay Murod: “Olam ufqqa borib tamom bo‘ladi, odam umidini yo‘qotib tamom bo‘ladi”, - degan edi. Asar bosh qahramoni ham oxirgi ilinjini yo‘qotib tamom bo‘ldi. Uning ilmiy ishi nihoyasiga ham, gipoteza isbotini topishiga ham bir necha qadam qoladi, ammo oilaviy vaziyatni yaxshilash uchun qahramon bularni ortga suradi. Natijada, bir kuni Parelman ismli shaxs gipotezaning isbotini aniqlagani ma’lum bo‘ladi. Xuddi shu nuqtani asarning **kulminatsiya**si deb olishimiz mumkin. *“Shoirlar aldaydilar. Nima emish, qandaydir bir mavzuni yozmoqchi bo‘lib yursang-u, uni sendan oldin kimdir qog‘ozga tushirib qo‘ysa, bundan xursand bo‘lishing kerak ekan. Bekor gap! Ehtimol adabiyotda shundaydir, ammo aniq fanlarda emas. Men unaqangi bag‘ri keng odam ham emasman. Men ichi qora odamman. Xudo shohid, bu olamshumul yangilikni o‘qiganimda butun vujudimni hasad va alam fasodi to‘ldirdi. Men o‘zimni tishlab tashlaguday ahvolga tushdim: “Nega u? Nega u? Nega men emas…”* (Йўлдош, А., 2014, 129- бет) Hikoyaning aynan shu nuqtalarida qahramon ruhiyatidagi fojelik cho‘qqiga chiqadi. Qahramon uning uchun hayot o‘z ma’nosini yo‘qotganligini aytib, “ammo bu hali holvasi ekan” deydi. Undagi alamning, dardning avj nuqataga ko‘tarilib borishi keyingi jumlalarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi: *“Tez orada saytda Perelmanning gipoteza yechimi ifodalangan maqolalarini e’lon qilishdi. E, Xudo, bu nima degan gap! Menga yana qanday jazoying bor? Qachongacha ustimdan kulasan? Axir… axir bu to‘qson to‘qqiz butun-u yuzdan to‘qson to‘qqiz foiz mening yechimim-ku!!! Axir men to‘g‘ri yo‘ldan borgan ekanman-ku. So‘nggi nol butun yuzdan bir foiz ish qolgan ekan-ku! Bir oygina, yo‘q, yo‘q, ko‘pi bilan bir haftagina qimirlamay o‘tirib ilm qilganimdami, gipotezani o‘zim isbotlagan bo‘lardim…”* (Йўлдош, А., 2014, 129- бет)

Qahramon Yaratganga isyon qilishni xohlamaydi. Buni Xudoning aybi emasligini ta’kidlaydi, ammo ichida alanga olayotgan alam otashiga ham bardosh bera olmaydi: *“Nega? Nega axir? Garchand bilaman, bu sening aybing emas, biroq nima qilay, o‘zim o‘zimni ayblaymi? O‘zim o‘zimni jazolaymi? Bu bilishim menga azob-iztirobdan o‘zga nima olib keladi, nima?..”* (Йўлдош, А., 2014, 129-130-бетлар) Qahramon tilidan aytilgan bu gaplar kitobxonni larzaga keltiradi, ayniqsa,

uning alamli va ojiz holati “Xudoyim! Meni o‘ttiz yil orqaga qaytar, Xudoyim…” degan jumlalarida aks etadi.

Aksariyat hikoyalarda **tugun**, **voqealar rivoji** va **kulminatsiya**dan so‘ng, albatta, **yechim** beriladi. Ammo “Puankare” xususida bu fikrni ayta olmaymiz. Hikoyaning oxirgi (VIII-IX) qismlari qahramon emas, balki muallif tilidan bayon qilinib, go‘yo kitobxonni yechimga olib borayotgandek tuyuladi, lekin hikoya so‘ngida aniq bir yechim berilmaydi. Zero, matematikning iztiroblar natijasida aqldan ozishi yoki “Xudoyim! Meni o‘ttiz yil orqaga qaytar” degan o‘kinch to‘la o‘tinchining so‘nishi - bu yechim emas! Hikoyadagi yechimni oldiga biror maqsad qo‘ygan har qanday kitobxon o‘z hayotidan topadi. Bizningcha, **muallifning badiiy maqsadi** ham shu. Bugun “Puankare”dagi matematik bir o‘zi yig‘lamadi, u bilan birga biz ham yig‘ladik. Bu safar u Xudoga yolg‘iz o‘zi iltijo qilmadi. Unga qo‘shilib biz ham Yaratganga yolvordik: “Xudoyim! Uni o‘ttiz yil orqaga qaytar, qaytar, Xudoyim!..”

Xulosa qilib aytganda, Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalari shakl va mazmun birligi, syujet tartibining o‘ziga xosligi, hikoyalarda inson fojiasi avj pardalarda kuylanganligi bilan ajralib turadi. Adib hikoyalarida aynan quyidagi o‘ziga xosliklar yaqqol namoyon bo‘ladi:

1. Muallif konsepsiyasini ifodalovchi voqealar muayyan qismlarga bo‘linadi.
2. Voqealar tizmasini shakllantirish, voqeadan voqeaga o‘tishda muallif hikoyani turli qismlarga ajratish usulidan mahorat bilan foydalanadi.
3. Yozuvchi voqealarni bayon qilishda retrospektiv syujetga murojaat qiladi.
4. Adib bevosita ishtirok etgan hayotiy voqea va suhbatlar asar qahramonlari tabiatining jonli chiqishiga sabab bo‘ladi.
5. “Puankare” muallif ijodidagi inson fojiasi yuksak darajada ochib berilgan eng yaxshi hikoya bo‘lib, unda bayon qiluvchi bir shaxsdan ikkinchisiga ko‘chadi. Ya’ni asar boshida “men” tilidan hikoya qilingan bo‘lsa, VIII-IX qismlarda roviy vazifasini muallifning o‘zi bajaradi.

Muxtasar qilib aytganda, Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalari o‘zbek hikoyachiligida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ijodiy namunalar sirasidandir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Fitrat. (2009). Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma’naviyat.

2. Sulton, I. (2005). Adabiyot nazariyasi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

3. Quronov, D. (2018). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr.

4. Йўлдош, А. (2014). Пуанкаре. Тошкент: Академнашр.

5.https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abduqayum-yo-ldosh-1962/abduqayum-yo-ldosh-alvido-go-zallik-hikoya

6.https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abduqayum-yo-ldosh-1962/abduqayum-yo-ldosh-tilla-soat-hikoya

7.https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abduqayum-yoldosh-puankare-kitobidan.html

## O‘TKIR HOSHIMOVNING “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ROMANIDA FOJIAVIYLIK

***Shermuxammad Abdumajitov***
*Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti*
*kechki bo‘lim 2-kurs talabasi*
***shermuxammadabdumajitov21@gmail.com***

***Annotatsiya.*** *El suygan adib O‘tkir Hoshimov o‘z asarlarida ijtimoiy hayotning turli mavzularini yoritib bergan. Xususan, biz tahlilga tortayotgan ijodkorning “Tushda kechgan umrlar” romanida fojiaviylik mavzusi ilgari surilgan. Ushbu maqolada shu haqda so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Fojiaviylik, kundalik, adolatsizlik, Rustam, illat, to‘y, Soat G‘aniyevich.*

***Abstract.*** *The beloved writer O‘tkir Hashimov covered various topics of social life in his works. In particular, the theme of tragedy is put forward in the author's novel "Late Lives in a Dream", which we are analyzing. This article is about it.*

***Key words:*** *Tragedy, diary, injustice, Rustam, vice, wedding, Soat Ganiyevich.*

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida zamon ruhiga doir muammolarni ifodalagan mualliflardan biri bu – O‘tkir Hoshimovdir. Ijodkor o‘ziga xos teran nazari, voqelikka betaraf yondashuvi, qolaversa, o‘z uslubi bilan davr ijodkorlari orasida o‘zi va asarlari uchun tirikligidayoq haykal qo‘ya oldi. Uning o‘zi ta’kidlaganidek: ”Menimcha, chinakam badiiy asar yaratish uchun odamlarni hayajonga soladigan, har gal takror o‘qiganda ko‘ngilga zavq bera oladigan asar yaratish uchun eng avvalo xudo bergan talant – iste’dod kerak” deb so‘z yuritadi.

Uning “Ikki eshik orasi”, “Nur borki, soya bor”, “Tushda kechgan umrlar” kabi asarlari romanchiligimiz rivojiga katta hissa qo‘shgan. Xususan, “Tushda kechgan umrlar” asarining o‘ziga xos jihati mavjud. Biz bu asarda fojiaviy qahramon va boshqa shunga o‘xshash xususiyatlarni uchratishimiz mumkin.

Ijodkor bu asarni kuz faslining ta’rifi bilan boshlaydi. Ya’ni kuzni o‘lim to‘shagida yotgan bemorga, to‘rt kunlik umrida dunyoga sig‘magan, oxir-oqibat jon taslim etgan tabiatga aza ochib, unsiz yig‘layotgan bulutlarni yorqin so‘zlar bilan tasvirlab yoritib beradi. Bu faslni biz fojiaga o‘xshatishimiz mumkin. Chunki daraxtlarning barglari yerni chulg‘ashi, osmondagi bulutlarning achchiq-achchiq ko‘z yosh to‘kishi kabi o‘xshatishlarni insoniyatning fojiaviy yo‘lini belgilab berishini ko‘z oldimizga keltirishimiz mumkin. Negaki, har yili bahor faslida gullagan, kurtak yoygan daraxtlarning barglari, kuz fasliga kelib, keyingi avlod uchun o‘z umr vazifasini ado etib, ularning hayot yo‘li davom etishi uchun o‘z umrini qurbon qilayotgandek go‘yo.

Asarning bosh qahramoni Rustam ismli bola bo‘lib, asar muallifi qahramonni ismiga mos jihatlari bilan gavdali, jasur, bahodir, halol kabi sifatlar orqali yana bir bor ismi o‘ziga xosligini ochib beradi. Romandagi asosiy voqealar Rustamning kundaligidan so‘zlashni boshlaydi. Muallif kundalikka ham urg‘u berib o‘tgan. Ya’ni asardagi voqealarning asosi har kungi bo‘lib turadigan hodisalar, kuzatishlar natijasida yozib boriladigan daftarda aks etishi asarda yaqqol sezilib turadi.

Fojiaviy qahramonni muallif ijobiy tusda tasvirlashi, o‘z davrining orzu-umidlari, u yoki bu qirralarini o‘zida mujassamlashtirgan kuchli, yorqin, ulug‘vor shaxsni namoyon etishi, adolatsizlikka, kishini-kishi ezishiga qarshi insonlarni xo‘rlash va haq-huquqidan mahrum etishlariga qarshi fidokorona, mardlarcha kurashini ifodalaydi. Yuqoridagi asarda biz Rustamni fojiaviy obraz deb olsak bo‘ladi. Rustam obrazida tragik qahramonga xos bo‘lgan xususiyatlar o‘ziga xos namoyon bo‘ladi. Xususan, tragik qahramonning maqsadi oliy, uning vazifasi ham shunga xos olijanoblik. Rustamning qismati go‘zal o‘lim, bu qismat hammaga ham nasib etmagan. Chunki Rustam har doim kundaligini boshqalarning nigohidan yashirib yurardi va o‘limi oldidan quyidagilarni aytib o‘tadi:

*...Bilagim achishyaptimi? Hammayoq qon-ku! Nima qibti: qonni endi ko‘rishimmi? Sham tugay deyapti…Tezroq…Daftarni joyiga qo‘yishim kerak. Avvalgilarining oldiga…*

*Men necha yoshga chiqdim o‘zi? Yigirma ikkiga? Yo‘g‘-e, axir men yetshim ikkidaman-ku! Balki sakson ikkidir! Nima farqi bor?! “Donolar hayotni kuzaturlar jim…”*

*Tamom! Hammasi tamom bo‘ldi… Ajab… Yuragim nega buncha osoyishta? Qilt etsa-chi? E-ha… Axir… Men endi yo‘qman-ku. Bu dunyoda borligingdan kim*

*naf ko‘rdi-yu, yo‘qligingdan kimga ziyon? Oyimga achinyapman. Dadamga… Shahnozaga… Rozi bo‘linglar… Onajon… Meni kechiring, oyi!*[135]. Muallif Rustamni asarda juda ham ko‘p vaziyatlarda ijobiy tusda tasvirlaydi. Bu esa qahramonning muallif tilidan fojianing yuzaga kelishidagi bir bosqich deb qaralsa ham bo‘ladi. Asarda birinchi navbatda fojiaviy hodisalar mamlakatda qonunga hurmat qilmaslik(tupurip qo‘yishlik), insonlarning fikri umuman inobatga olinmasligi, adolatsizlik, begunohlarning tuhmat va aybdorga aylanishlari kabi hollar juda aniq va ravshan ko‘zga tashlanadi. Bunday illatlarni yo‘qotishga Rustam, nafaqat Rustam, balki ayrim insonparvar ham qancha harakat qilmasin, lekin baribir ularni yengish qiyin ekanligini tushunib yetishlari ancha murakkab masala edi. Hattoki, Yuqorida turganlarning o‘zlari ham bu kabi illatlarni yo‘qotish o‘rniga, insonparvarlarni, vidjoni toza kishilarni uyaltirib, ularni aybsiz aybdorga chiqarib qo‘yishmoqda. Oddiygina misol qilib oladigan bo‘lsak, Rustamning otasi qamalib surgun bo‘lishi, uning yon qo‘shnisi Qurbonoy xolaning ham otasi va akasining jazolanishlari va boshqa ko‘plab adolatsizliklar o‘sha davrdagi haqiqiy fojiaviylikni ochib berishda yaqqol dalil hisoblanadi. Rustam o‘z hayotida davomidagi xotirasidagi o‘y-xayollar bilan qo‘lidan kelgancha, imkoni yetkuncha kurashdi, lekin uning oxirgi pallalarda kuchi borgan sari tugayotganini o‘zi his qilmayotgan edi, ya’ni uni quvib yurgan fojiaviy taqdiri o‘zi bilmagan holda qarshisida paydo bo‘ldi va u ayoli Shahnozaning ham otasi korrupsiya, adolatsizlik orqali olib bergan uyini ro‘kash qilganidan so‘ng g‘azab oti uning ustidan g‘alaba qildi hamda o‘zini o‘zidan qutqarish maqsadida hech kim yo‘qligini bilib, o‘zini bu dunyodan olib qochib, o‘limiga yakun yasaydi.

Romandagi bu kabi holatlarni ochib beruvchi voqealar talaygina. Asardagi fojiaviy holatlarni bartaraf etmoqchi bo‘lmaganlar orasida Soat G‘aniyevich degan kattakonlarga o‘xshaganlarni jamiyatdan surgun qilish kerak degan o‘y, asarni o‘qigan kitobxonlarning dilida qolib ketgan bo‘lsa ajabmas. Yoki bo‘lmasam, Rustamjonlarning qo‘shnisi to‘y qilganda dam olayotgan Vasilyev Grigoriy Stepanovich o‘zbek to‘ylarining shovqin-suroniga chidamasdan ularning ustiga tepadan chelakda suv sepib yuborishi va to‘yni buzganligi ham bir fojia sifatida yodda qoladi. O‘zbeklarning urf-odati doimgidek shovqin-suron, karnay-surnaylarga, o‘yin-kulgularga boy tarzda o‘tib kelishi kitobxonlarga ma’lum. U o‘z akasi bilan bu o‘lkaga kelganda “Toshkent yovvoyilar shahri” deb, o‘zlaridagi oziq-ovqat narxlarining qimmatligini bu yurtga kelmaganda bilmas edi. Yana bir asosiy jihatlardan biri, Qurbonoy xolaning otasi To‘lagan Hakimovni yaponlarga yordam berib, ulardan xat olganini tuhmat qilib Soat G‘aniyevich uning hayot yo‘liga to‘sqinlik qiladi. Aksincha yapon kishi to‘siqning narixi tomonida turganida unga

[135] O‘.Hoshimov “Tushda kechgan umrlar”. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent - 2002

olma bergan To‘laganga yapon uning bergan narsasiga xaq to‘lashi va mehnat ishini qadrlash orqali o‘zlarining madaniyatini bizga shunday vaziyatda ham ko‘rsatib bermoqda. Mana bizning fojiamiz. To‘laganning xotini Fotimaning o‘zini o‘zi joniga qasd qilishi ham Soat G‘aniyevichga o‘xshagan kimsalar shunday chiroyli oilaning boshiga yetgani ham mudhish halokat hisoblanadi.

Muallif o‘zining bu asari haqida shunday deydi:

*Vatanim Istiqlolga erishmasa, bu asar dunyo yuzini ko‘rmas edi.* Albatta bu asarda 20-asrdagi ajib adolatsizliklar qarshisida lol qolgan ayrim insonlar hayoti, turmush tarzi, ularning qonun oldidagi himoyasizliklari batafsil ochib berilgan. Yana shuni ta’kidlash ham joizki, o‘zbek xalqi hayotining real badiiy tasviri va har bir obrazning o‘z o‘rnida qo‘llashi va ichki ma’nologlardan foydalanishi asarni o‘qish jarayonida, kitobxonda juda katta hissiyot uyg‘otadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Toshkent - 2002.O‘.Hoshimov “Tushda kechgan umrlar”. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

2. XX asr o‘zbek adabiyoti. Toshkent “Yangi asr avlodi” 2005.

3. Internet manbalari.(oyina.uz)

## SHOYIM BO‘TAYEVNING “ABRO‘K HIDI” HIKOYASIDA FOJIAVIYLIK TASVIRIDA KONTRAST USULI

***Sobirjonova Irodaxon Sobirjonovna,***
*ToshDO‘TAU O‘TAT 4-bosqich talabasi*
*irodaxonsobirjonova69@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada taniqli o‘zbek adibi Shoyim Bo‘tayev qalamiga mansub “Abro‘k hidi” hikoyasi tahlil qilinadi. Unda qo‘llangan kontrast (antiteza) badiiy usuli va uning asar ta’sirchanligini oshirishdagi badiiy vazifasi ochib beriladi. Yozuvchi mahoratiga baho beriladi. Muayyan ilmiy xulosalar ilgari suriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Shoyim Bo‘tayev, “Abro‘k hidi” hikoyasi, kontrast (antiteza) usuli.*

***Abstract.*** *This article analyzes the story “Abrok Khidi” (“The Smell of the Abrok Flower”), written by the famous Uzbek writer Shoyim Butaev. The used artistic device of contrast (antithesis) and its artistic function in increasing the effectiveness of the work are revealed. The writer's skill is assessed. Some scientific conclusions have been drawn.*

***Keywords***: *Shoyim Butaev, story "Abrok Khidi", method of contrast (antithesis).*

O‘zbek adabiyotida XX asr so‘nggi davri sermahsulligi hamda keskin poetik o‘zgarishlari bilan yodda qoladi. Mana shu davrda adabiyot olamida yangi nomlar va yangicha, o‘ziga xos badiiy asarlar yuzaga chiqdi. Shu avlodning ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri nosir – Shoyim Bo‘tayevdir. Adabiyotshunos-olim Bahodir Karim Shoyim Bo‘tayevga "original badiiy tafakkur sohibi, badiiy talqin ustasi" deya baho beradi. (Баҳодир Карим, "Руҳият алифбоси", 27-bet).

Tilimizda zid ma'noli so‘zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashga va personajlar xarakter-xususiyatini ochib berishga yordam beradigan vositalardan biri hisoblanadi. "Antiteza (antithesis qarama-qarshi qo‘yish, zidlash) deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo‘yish, zidlash hodisasiga aytiladi. Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun, asosan, badiiy nutqda zid ma'noli qo‘shimchalar, zidlovchi bog‘lovchilar, so‘z va iboralardan foydalaniladi. (Yoqubjonova Mehrinoz, Badiiy matnlarda antitezaning qo‘llanishi, 2-bet). Adabiyotshunoslik kitoblarida buni "kontrast" usuli deyiladi. (Д. Қуронов, Адабиётшунослик луғати, 143-bet).

Shoyim Bo‘tayevning 1991-yilda yozilgan "Abro‘k hidi" hikoyasida kontrast (zidlash) usulidan unumli foydalanilgan. Quyida shu haqda gap boradi.

Ushbu hikoya matbaachilar yotoqxonasida yashaydigan Ilash ismli yigit va unga qo‘shni xonada yashovchi Qutbixon ismli ayolning suhbatidan boshlanadi. Yozuvchi asar boshidanoq zidlash usulidan mahorat bilan foydalanadi va o‘xshatish tasvir vositasini qo‘llagan holda ayol qiyofasini chizadi: "*Tirqishdan rangpargina betcha ko‘rindi: qoni qochgan yuz ayolnikidan ko‘ra ko‘proq qarimsiq go‘daknikiga o‘xshardi. Qarimsiq go‘dak...*" (Бўтаев Шойим, Шамол ўйини: (Қисса ва ҳикоялар), 137-bet). Barchamizga ma'lumki, go‘daklar yuzi sutga chayilgandek pok, yumshoq va yoqimli bo‘ladi. Yillar ta'sirida esa inson yuzida turli xil qarilik belgilari paydo bo‘ladi va go‘daklik chog‘idagi jilosini biroz yo‘qotadi. Yozuvchi ayolning o‘sha vaqtdagi holatini kitobxonga aniq ko‘rsatish va uning hislarini qo‘zg‘atish maqsadida ayolning yuzini "qarimsiq go‘dak"nikiga o‘xshatadi. Shoyim Bo‘tayev bu orqali ayolning ahvoli ancha yomonligini, yordamga muhtoj ekanligini bo‘rttirib ko‘rsatishga va o‘quvchi tuyg‘ularidagi to‘lqinlarni uyg‘otishga harakat qilgan.

Shuningdek, yozuvchi ayolni kitobxonga tanishtirish jarayonida yana bir bora antitezadan foydalanadi: "*Ayol uzun yengli, guldor xalat kiyib olgandi. Bo‘yi past, gavdasi nozik. Nozik va beo‘xshov...*" (Бўтаев Шойим, Шамол ўйини: (Қисса ва ҳикоялар),138-bet). Adibning ushbu nozik va beo‘xshov sifatlarini yonma-yon

keltirishi ta’sirchanlikni oshirishga va o‘quvchi xayolida ayol qiyofasini yanada aniqroq gavdalantirishga xizmat qilgan.

Qutbixon har kuni Ilashning yoniga suhbat qurish bahonasida qorin to‘qlash uchun keladi. Ayolning choy damlab, Ilashning xonasiga kirib kelishini ham yozuvchi antetizadan foydalangan holda juda aniq ta’riflaydi: “*Ikki odim narida... bir qo‘lida choynak, ikkinchi qo‘lida ikkita piyola... ayol siniq jilmayib turardi”*. (Бўтаев Шойим, Шамол ўйини: (Қисса ва ҳикоялар),138-bet). “Siniq jilmayish” ayol ahvoli nochorligining guvohi. Iste’dodli o‘zbek adiblaridan biri Oybek aytganidek, “Har bir so‘z, uzukka qo‘yilgan qimmatli tosh kabi porlaydi, har bir misrada katta mazmun barq urib turadi. So‘z chertib olinadi, ohangi, ifoda kuchi, bo‘yog‘i va boshqa xislatlari bilan hissiy qudratga ham ega bo‘ladi”. (Ойбек, Адабиёт тўғрисида, 32-33-betlar). Ushbu o‘rinda qo‘llangan antiteza ya’ni “siniq jilmayish” ayolni o‘quvchi xayolida aniq-ravshan gavdalantirish bilan birga Shoyim Bo‘tayevning so‘z qo‘llash qobiliyati naqadar kuchli ekanligini ko‘rsatishga ham yordam bergan.

Qo‘shni xonada tug‘ilgan kun nishonlanar va g‘ala-g‘ovur ovozi kelib turar edi. Shunda Ilash ayolning yoshiga qiziqdi. Qutbixon o‘ttiz beshga qadam qo‘yishi haqida aytdi. Yozuvchi Ilashning shu vaqtdagi ayol haqidagi xayollarini portret chizgilari orqali ochib bergan: *Qorni qappayib tasqaraga o‘xshab qolgan, “qarimsiq qizaloq”*. (Бўтаев Шойим, Шамол ўйини: (Қисса ва ҳикоялар),143-bet). Adib ushbu o‘rinda ham antitezadan foydalangan. Yuqorida ayol qarimsiq go‘dakka o‘xshatilgan bo‘lsa, bu o‘rinda qarimsiq qizaloqqa o‘xshatiladi. Hayotda ro‘shnolik ko‘rmagan, “ilmiy ish qilish uchun doimo komandirovkada yuradigan, mehribon va oliyjanob er” orqasidan rohat-u farog‘atda yasholmagan ayol.

Yozuvchi Ilashning Qutbixon haqidagi xayollaridagi gap-so‘zlarni ochib berishda ham zidlash usulidan unumli foydalangan: *“Qutbixon opa og‘izda hamisha o‘zini katta olib, uncha-munchani nazar-pisand qilmayotgandek ko‘rinsa-da, aslida, bir burda nonga zoriqib, qorni och holda yurardi. Bu xonaga qornini to‘yg‘izib olish ilinjida kirsa-da, shundayam past tushmas, sallohligini har xil ohanjomali gap-so‘zlar bilan bezashga usta edi”*. (Бўтаев Шойим, Шамол ўйини: (Қисса ва ҳикоялар),144-bet). Aslida ayol bir burda nonga zor, ammo buni sezdirmaslikka harakat qiladi, o‘zini katta oladi.

Qutbixon opa bir necha kundan beri Ilashning xonasiga kelmay qo‘yganligi sababli Ilash xavotir olib Qutbixon yashaydigan xonaning eshigini taqillatdi. Ammo hech kim javob bermadi. Adib ushbu manzarani tasvirlash uchun metafora ko‘chim turidan foydalangan: *“Xona karaxt edi- uyg‘onmasdi; xona gung edi- eshitmasdi; xona loqayd edi- e’tibor bermas edi...”* (Бўтаев Шойим, Шамол ўйини: (Қисса

ва ҳикоялар),147-bet). Xona tasviri asar qahramoni Qutbixon holatiga o‘xshatilmoqda, ya’ni uning ahvolidan darak bermoqda.

Ilash Qutbixon opa qayerdaligini uning dugonasi Vasiladan so‘radi. U Qutbixonni kecha kechqurun tez yordamda tug‘ruqxonaga olib ketishganligini, ahvoli og‘ir ekanligini aytdi. Ilash uning yaqinlari, qarindoshlari, eri xabar topishibdimi, deb qiziqdi. Shunda Vasila uning hech kimi yo‘q, u yolg‘iz ayol-ku, dedi. Ilash tutilib qoldi, eri bo‘lmasa qanday tug‘adi? Vasila esa qiziq ekansiz-ku, Xudo beraman desa hech gap emas, dedi. Yozuvchi Ilashning shu vaqtdagi holatini juda aniq va tushunarli qilib tasvirlaydi: *“Ilash ustidan bir chelak suv quygandek boshidan hushi uchib ag‘rayib qoldi”*. (Бўтаев Шойим, Шамол ўйини: (Қисса ва ҳикоялар),149-bet). Adib birgina ibora orqali Ilashning holatini o‘quvchiga yetkazib bera olgan. Oybek aytganidek: “Asarda voqea ham, his tuyg‘ular tafsiloti ham o‘z qimmatini yo‘qotmaydi, ular bir-birini boyituvchi, bir-birining sir-asrorini ochuvchi yaxlit vosita sifatida ko‘zga tashlanadi”. (Ойбек, Адабиёт тўғрисида, 47-bet). Ilashning ayni vaqtdagi his-tuyg‘ularga boy holati ayolning foje taqdiri, u nega yolg‘izlikda, mashaqqat, alam-u iztirobga cho‘mib yashayotganligini ochib bergan desak, xato bo‘lmasa kerak.

Ilash bozorga bordi. Orasiga abro‘k solingan guldasta sotib oldi. So‘ng Ilash tug‘ruqxonaga bordi. Hamshira uni bosh vrach xonasiga boshladi. Bosh vrach Qutbixonning bolasi ichida o‘lib qolganligini, uni yorib olmoqchi bo‘lganida Qutbixon ham vafot etganligini, chunki ayol juda ham nimjon, kamquvvat ekanligini aytdi.

Yozuvchi Ilashning ayni damdagi holatini, hissiyotlarini quyidagicha ta’riflaydi: *“Ko‘zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi. Tashqariga chiqdi. Hech narsa o‘zgarmagan, hamma narsa joy-joyida. U suyanchig‘idan ayrilib, tentirab qolgan yetimdek his etdi o‘zini. ...”* (Бўтаев Шойим, Шамол ўйини: (Қисса ва ҳикоялар),150-bet).

Ilash tashqariga chiqdi. Hammayoqni abro‘k hidi tutib ketgandi. Tug‘ruqxona hovlisidagi daraxtlar ham, o‘simliklar ham tevarak-atrofga yakkash abro‘kning xush isini tarqatib yotardilar...

Adabiyotshunos Hotam Umurov ta’kidlaganlaridek: “Odamlar daryodek gap: hammasining suvi bir xil, hamma joyda o‘sha suv, lekin daryo goh keng bo‘ladi, goh tor, goh tez, goh sekin oqadi, suvi goh tiniq bo‘ladi, goh loyqa, goh iliq bo‘ladi. Odamlar ham shunday. Har bir odamda insoniy hissiyotlarning kurtagi bo‘ladi. Odam shu hissiyotlarning goh birini, goh boshqasini namoyon qiladi, ba’zan o‘sha odamning o‘zi butunlay o‘zgarib ketadi. Ba’zi odamlarda shu o‘zgarishlar juda keskin namoyon bo‘ladi...” (Умуров Ҳотам, Адабиётшунослик назарияси,129-bet). Kechagina Qutbixon opadan bezor bo‘lgan, doimo vaqtimni oladi deb ta’na

qilayotgan Ilash bugun uning yonida o‘zini gunohkor his qilmoqda. Ilash Qutbixon taqdiri bunday fojiali tugaganligidan afsusda. Ilashdagi kechagi nafrat hissi bugun aybdorlik hissiga aylanib qolgan. Bunaqa paytda mehr bilan qahrning orasi bir qadam bo‘lib qolishi hech gap emas. Umumiy tarzda aytganda:

1. “Abro‘k hidi” hikoyasida kontarst usuli hikoya pafosidagi fojiaviylikni ta’sirchan va qabartirib tasvirlashga xizmat qilgan.
2. Bu usul qahramonlar ichki dunyosi va hatti-harakatlarini ishonarli tarzda dalillash vazifasini ham bajargan.
3. Kontarst usuli hikoya syujetida tadrijiy ravishda qo‘llangani tufayli mantiqiy izchillik hamda fojia ko‘lamini kengroq ifodalashga imkon bergan.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


1. Адабиётшунослик луғати. (Д. Қуронов ва б.) “Академнашр” Т. : 2013. 408 б.
2. Баҳодир Карим. “Руҳият алифбоси”. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Т.: 2016. 364 б.
3. Бўтаев Шойим. Шамол ўйини: (Қисса ва ҳикоялар). – Т.: Ёзувчи, 1995. - 160 б.
4. Ойбек. Адабиёт тўғрисида. –Т.: Фан, 1985. - 215 б.
5. Умуров Ҳотам. Адабиётшунослик назарияси. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. -264 б.
6. https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/download/80/69


## ERKIN VOHIDOV IJODIDA TABIAT TASVIRI: IJODINING DASTLABKI YILLARIDA YOZGAN SHE'RLARI MISOLIDA


*Tojidinova Dildoraxon Shukurillo qizi*

*ToshDO‘TAU O‘FF 1-kurs talabasi*

*dildoraxontojidinova@gmail.com*

*+998994925320*



***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola shoir Erkin Vohidov ijodida tabiat tasvirini ijodining dastlabki yillarida yozgan she'rlari misolida tahlil qilishga bag‘ishlangan. She'rlar xronologik ketma-ketlikda tartiblandi.*

***Abstract:*** *This article discusses the imagery of nature in the poetry of Erkin Vohidov: as asn example of poems written in the early years of his poetry. The poems are arranged in chronological order.*

***Kalit so‘zlar:*** *shoir, tabiat, tasvir, she'riy san'atlar, quyosh, tong.*

***Keywords:*** *poet, nature, imagery, poetic arts, sun, morning.*

O‘zbekiston xalq shoiri (1987), O‘zbekiston Qahramoni (1999) Erkin Vohidov (1936-2016) zamonaviy o‘zbek she'riyatida o‘ziga xos ovozga ega ijodkordir. O‘zbekiston Respublikasi Fan arbobi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi Naim Karimov shoir haqida shunday degan edi: "Erkin Vohidov barmoq vaznining xushbichim beshigida ulg‘aydi. XX asrning 30–50-yillarida tug‘ilgan shoirlar uchun bu beshikni Cho‘lpon bilan Fitrat o‘zbek xalq she’riyatining uskunalaridan foydalangan holda yasashgan edi. Erkin shu beshikni tark etib, tetapoya qila boshlagan kunidan to shu vaqtgacha unga pardoz berib, uning ustbozu takbozlaridan tortib, qubbalarigacha tinimsiz sayqal berib keladi. Uning barmoq vaznida yozgan she’rlarini boshqa biror, hatto zargar shoirning ham “barmoq”lari bilan almashtirish mumkin emas. Uning barmog‘i ayrim shoirlarning barmog‘idek uzun bo‘lmasa-da, bu barmoqlar shu shoirlarning she’rlarida mujassamlangan fikr dunyosini chirpirak qilib o‘ynatibyashnatib yuboradi". Darhaqiqat, Erkin Vohidov she'riyati o‘zining chuqur falsafiy mushohadalarga boyligi, nozik holatlarni teran anglashi bilan diqqatga molikdir.

O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ijodining dastlabki yillarida (ijodining barcha davrlarida bo‘lgani kabi) yosh shoir o‘laroq, tantanavor ruhdagi, optimistik kayfiyatdagi she'rlarni yozdi. Jumladan, shoirning 1952-1958-yillarda yozilgan, "Muhabbat" (1982-yil nashr etilgan) to‘plamiga kiritilgan she'rlarida bunga guvoh bo‘lish mumkin. Bu she'rlarning salmoqli qismini tabiat hodisalari, o‘lka, umuman, tabiat tasviri aks etgan ijod namunalari tashkil qiladi.

1952-yilda yozilgan "Manzara" she'ri yengil vaznda yozilgan. Bandlar a-b-a-b, a-b-a-b, a-b-d-b tarzida qofiyalangan.

Qora qushlar qo‘narlar

Majnuntolning shoxiga.

Boshin suvga egarlar

Boqmay sira ohiga.

"Majnuntolning ohi" jonlantirish san'atini yuzaga keltirgan.

Rahmi kelib bulutning

Yig‘lab to‘kar yoshini.

Qushlar qochar, majnuntol

Koʻtaradi boshini.

"Rahmi kelib bulutning", "yigʻlab toʻkar yoshini", "majnuntol koʻtaradi boshini" jumlalari ham jonlantirish san'atini yuzaga keltirgan. Bulutning koʻz yosh toʻkishi, ya'ni yomgʻir yogʻishi inson boshiga biror qiyinchilik tushgandagi koʻz yoshlarni, majnuntolning bosh koʻtarishi esa inson oʻsha qiyinchiliklarni mardonavor yengib oʻta olishini anglatadi. Bu oʻrinda shoirning va lirik qahramonning yorugʻ kelajakka umidini sezish qiyin emas.

Bulutning orasidan

Quyosh kulib qaraydi.

Majnuntolning yuvilgan

Sochlarini taraydi.

"Quyosh kulib qaraydi", "majnuntolnning yuvilgan sochlarini taraydi" jumlalari ham jonlantirish san'ati mavjudligining isbotidir. Bulutning orasidan quyosh kulib qarashi oldinda hali yorugʻ va baxtli kunlar kelishiga umid, ishonch tarzida qogʻozga tushgan. Quyoshning majnuntolning yuvilgan sochlarini tarashi koʻz yoshlar tugashiga, kelajakda yigʻlamaslikka ishoradir. Koʻrinib turganidek, uchta toʻrtlikdan tashkil topgan ushbu she'rni boshdan oyoq jonlantirish san'atiga qurilgan deyish mumkin. Shoir oddiy tabiat hodisalarini kuzatib, mana shunday jonli she'r bitgan.

Shuningdek, 1956-yilda yozilgan "Tong lavhasi" she'ri ikki toʻrtlikdan tashkil topgan va a-b-a-b tarzida qofiyalangan. She'rdan shoirning tong otishini shoirona kuzatganini, tongni yangi bir she'r bilan boshlaganini payqash qiyin emas.

Ufqlarga qoʻyib guldasta,

Togʻ ortidan koʻtardi-da bosh,

Pastga boqdi choʻqqidan asta

Oltin qalam tutgan bir naqqosh.

Ushbu misralarda shoirning mahorati yaqqol koʻzga tashlanadi. Quyoshning ufqlarga guldasta qoʻyishi - uning nuri sabab ufqning qizarishi.

Har nuqtaga sayqal berib u,

Vodiy uzra chizdi zar lavha.

Soʻng quyosh deb imzo chekdi-yu,

Tongotar deb qo‘ydi sarlavha.

"Oltin qalam tutgan bir naqqosh" - rassom, balki shoirning o‘zi. Uning oltin qalami - uning ijodi, she'riyati. Vodiy - ona Vatani. "Quyosh deb imzo chekishi" - o‘zbek she'riyatining so‘nmas shoiri. "Tongotar deb qo‘ydi sarlavha" - bu ijodining boshlanishi, ibtidosi, she'riyatining tongotari.

Bundan tashqari, shoirning 1958-yilda yozilgan "Yana paxtazordaman" she'ri o‘ziga xos ohangga egadir. She'r yozilgan davrlarga e'tibor qaratilsa, u yillarda yosh-u qari kuz kelishi bilan paxtazorda paxta terishga yuborilgan. Shoir 1960-yilda Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) ning filologiya fakultetini tamomlagani hisobga olinsa, she'r yozilgan davr (1958-yil) shoirning ayni talabalik yillariga to‘g‘ri keladi.

Bu she'r yuqorida ko‘rib o‘tilgan she'rlardan farqli ravishda, birinchi bandi olti misradan hamda qolgan besh bandi besh misradan tarkib topgan. Lirik qahramon II shaxsga, dalaga murojaat qilmoqda.

Salom senga, nuqrasoch dalam,

Ko‘nglimday keng bag‘ring och, dalam.

Sog‘inganman - ko‘ray deb keldim,

To‘yib gashting suray deb keldim.

Erta tongdan kumush mavjingga

Yana ko‘krak uray deb keldim.

"Nuqrasoch dalam" nido san'atini, "ko‘nglimday keng bag‘ring" o‘xshatish san'atini hosil qilgan. Nuqrasoch - och; ko‘ray - suray - uray qofiyadosh so‘zlardir.

Ayt, bu oltin chanoqlaringmi?

So‘zga ochgan dudoqlaringmi?

Shabnam qo‘ngan momiq paxtalar

Marjon terli yonoqlaringmi?

Yoki yulduz - qo‘noqlaringmi?

Ushbu bandda uchinchi misradan boshqa misralardagi jumlalar mumtoz adabiyotimizda tajohil ul-orif deb nomlanadigan san'atga mos keladi. 2-("oltin dudoqlaringmi"), 4-("marjon ter"), 5-("yulduz - qo‘noqlaringmi")misralarda o‘xshatish san'atidan mohirona foydalanilgan.

Tong zar sochin silkitib quyosh

Shu'la to‘ksa senga beqiyos -

Bir manzara bo‘larki paydo -

Oltin dalam, faqat senga xos!

Ta'rifingga doston bitsam oz.

Tong ufqining chehrasi lola,

Tong nurlari misli shalola.

Chanoqlaring oltin piyola,

Har qatra nur - bir zarrin tola.

Tong ufqining chehrasi lola.

Ushbu bandda "Tong ufqining chehrasi lola" jumlasining ikki marta takrorlanib kelishi reduplikatsiyani yuzaga keltirgan. Ma'noni kuchaytirishga, his-hayajonni ta'kidlab ifodalashga hissa qo‘shgan.

Paxta emas, nur teramiz, nur,

Bu dengizdan dur teramiz, dur,

Million ko‘zlar bizga intizor,

Qani, do‘stim, yur, teramiz, yur!

Etak-etak dur teramiz dur!

Ushbu bandning birinchi misrasida shoir paxtani nurga qiyoslagan. Dengizdan dur terishga qiyoslagan. "Million ko‘zlar bizga intizor" jumlasi orqali paxta terib olingandan so‘ng uning xomashyo sifatida ishlatilishi, undan ipak, kiyim-kechak, yog‘ olinishi va buning natijasida millionlab insonlarning ehtiyoji qondirilishiga ishora qilinmoqda. Bu misralar shoirning xalqparvar ekanini ham ko‘rsatib bergan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, O‘zbekiston qahramoni Erkin Vohidov she'riyatga qahramonlarcha kirib keldi. O‘quvchi-talabalik yillarida tabiat tasviri aks etgan talay she'rlar yozdi. Yorug‘ kunlar kelishini umid qilib, optimist shoir sifatida kirib keldi. Tabiatni maksimal darajada jonlantirib tasvirlashga urindi. Bunda unga eng asosiy qo‘l kelgan badiiy san'at jonlantirish (taxshxis) san'atidir. Tabiatning har bir elementidan o‘zicha bahra olishga urindi va buni she'rxonga ham yuqtira oldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vohidov E. Muhabbat. She'rlar. - Toshkent, 1982.

2. Karimov B. Adabiy fikr javhari yoxud Erkin Vohidovning adabiy-estetik qarashlariga bir nazar. Maqola. - https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/bahodir-karim-adabiy-fikr-javhari.html

3. Maqsudova Sh. Erkin Vohidov she'riyati tilida reduplikatsiya. Maqola. - https://cyberleninka.ru/article/n/erkin-vohidov-she-riyati-tilida-reduplikatsiya/viewer

4. Solijonov Y. Ruhiyatni yoritgan she'riyat. Maqola. - https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/yo-ldosh-solijonov-ruhiyatni-yoritgan-she-riyat

5. Vohidov E. Umr bekatlari. Maqola. - https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/erkin-vohidov-umr-bekatlari.html

6. Savash V. Xalq ko‘nglining kashfiyoti bir shoir. Maqola. - http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/Xalq-ko-nglining-kashfiyoti-bir-shoir.htm

7. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Erkin Vohidov ijodining turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o‘rni” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari / Toshkent, 2022. – 375 b.

8. https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/erkin-vohidov-1936

## O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA USTOZ OBRAZINING BADIIY TALQINI

*Xolmurotova Gulinor Azmiddin qizi*

*TerDU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 2-kurs*

*xolmurotovagulinor@gmail.com*

*+998888502605*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o‘zbek hikoyachiligida qimmatli o‘ringa ega yozuvchi Shukur Xolmirzayevning “Ustoz” hikoyasi, Abduqayum Yo‘ldoshning “Puankare” hikoyasi va Erkin Malikning “G‘urur”, “Ijobat bo‘lgan duo” hikoyalari tahlilga tortilgan hamda ularda gavdalantirilgan ustoz obrazining badiiy talqini yuzasidan so‘z borgan. Hikoyalarda, ustoz obrazining badiiy talqini, xarakter shakllanish jarayonlari, badiiy asar voqeligining ifodasi, inson psixologizmi masalalari, inson va davr muammolariga e’tibor qaratilgan.*

*Shuningdek, xarakterlarning shakllanish jarayonlari xususida fikr-mulohazalar yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *hikoya, ustoz obrazi, qahramon xarakteri, syujet, inson va davr muammosi, badiiy talqin.*

**Abstract:** *In this article, the story "Teacher" by the writer Shukur Kholmirzayev, who has a valuable place in Uzbek storytelling, the story "Poincaré" by Abduqayum Yoldosh, and the stories "Pride" and "An Answered Prayer" by Erkin Malik are analyzed and the teacher embodied in them. there was talk about the artistic interpretation of his image. In the stories, attention is paid to the artistic interpretation of the image of the teacher, the processes of character formation, the expression of the reality of the artistic work, the issues of human psychology, and the problems of man and time. There are also opinions about the processes of character formation.*

**Key words:** *story, teacher's image, hero‘s character, plot, problem of man and time, artistic interpretation.*

O‘zbek hikoyachiligini o‘rganar ekanmiz, unda nafaqat ijtimoiy-maishiy hayot, balki qahramonning shaxsiyati, inson muammolari, uning ruhiyatini aks ettirish borasida ham qator yutuqlarga erishilganligiga amin bo‘lamiz. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida alohida shaxslar olami, xususan ustozlar, ularning o‘ziga xos tuyg‘ulari, ichki kechinmalari yoritib berilgan hikoyalarni ko‘plab uchratish mumkin.

O‘zbek hikoyanavisligida o‘z o‘rni va so‘ziga ega bo‘lgan yirik vakillaridan biri Shukur Xolmirzayev, asosan, tabiat va inson munosabati hamda o‘zaro uyg‘unligini, shuningdek, jamiyat muammolarini mahorat bilan aks ettirgan. Ularda hayot haqiqati, inson shaxsiyati ixcham va go‘zal shaklda jozibali qilib ifodalanadi. Ijodkorning “Ustoz” hikoyasi ham shunday asarlardan biri bo‘lib, unda jamiyatda uchraydigan ayrim toifa kishilar shaxsiyati, ularning dunyoqarashi qalamga olingan. Qanday soha vakili bo‘lsinki, uni, avvalo, ustoz tarbiyalagan bo‘ladi. Kishi hayotida ustozlar, murabbiylarning o‘rni beqiyos. Hikoyada o‘zini eng yaxshi ustozlardan deb biladigan, sirtdan jonkuyar inson bo‘lib ko‘rinadigan, holbuki shogirdlari orqasidan zimdan ish ko‘rib, ularning o‘sishiga yo‘l qo‘ymaydigan kishi haqida hikoya qilinadi. Yozuvchi qahramonimizning nutqidan, uning aslida qanday ustoz ekanligi, ustozlikni qanday tushunishini bilib olamiz.

Mahoratli yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshning “Puankare” hikoyasidagi butun umr tinimsiz mehnat qilgan, ter to‘kib ishlagan, biroq maqsadiga yeta olmagan

matematik olim obrazining ayanchli taqdiridan so‘zlagan hikoya vositasida o‘zbek hikoyachiligida yoritilgan yana bir ustoz obrazi bilan tanishamiz.

Shuningdek, zamonaviy davr adabiyoti vakili Erkin Malikning ham bir qancha asarlarida ustoz obrazi yaratilgan. “G‘urur” hamda “Ijobat bo‘lgan duo” hikoyalari shular jumlasidandir. “G‘urur” hikoyasi usta va uning shogirdi haqida so‘zlasa, “Ijobat bo‘lgan duo” hikoyasi esa o‘zi uchun emas, maktabdagi o‘quvchilari uchun duo qilgan muallimaning ijobat bo‘lgan duosi haqida so‘zlaydi.

Ushbu asarlarda ustozga xos bo‘lgan xarakter va xususiyatlar, ularning inson hayoti va jamiyatdagi o‘rni mohirona tasvirlangan.

Hikoyalarni tahlilga tortar ekanmiz, avvalo, rivoya kompozitsiyasidagi roviy, ya’ni hikoya qilib beruvchi shaxs kim ekanligini aniqlashtirib olsak. Masalan, “Ustoz” hikoyasida Shukur Xolmirzayev roviy-personaj usulidan unumli foydalangan va asar voqealari bosh qahramon bo‘lgan yozuvchi shaxs tomonidan so‘zlab beriladi. Adib Shukur Xolmirzayev hikoya boshlanmasidanoq bizga “ustoz” obrazinining xarakterini, o‘zi uchun haq deb bilgan qarashini tanishtiradi. E’tibor beradigan bo‘lsak, ushbu shaxsning bir gapi ikkinchisini rad etadigan, laganbardor kimsa ekanligini darrov payqaymiz. Uning tili qisiq joyi yo‘q, aksincha, hamma narsasi: mashina, dachalari bor edi, kitoblari chiqib turgan edi. Bir qarashda yozuvchi uchun bundan ortiq baxt yo‘qdek. Ammo masala uning hamma narsasi yetarli ekanida emas, balki bularga qan yo‘sinda erishganligida! U o‘z og‘zi bilan “nimadan qo‘rqaman”, “birovdan tili qisiq joyim yo‘q” deb turib, so‘z so‘zlashda ehtiyotkorlikni yoqlaydi. Eng qizig‘i, haqiqatni aytishni tilning suyaksizligidan deb hisoblaydi. Demak, qahramon nafaqat atrofdagilarning yonida, balki yozgan asarlarida ham borini-borday ayta olmaydigan, ehtiyotkorlik, yumshoqlikni tanlaydigan yozuvchilar xilidan ekan-da! Bunday xulosaga kelishimizga yana bir asos bor. ***“To‘g‘ri endi, rostgo‘ylik modada. Ammo moda – o‘tkinchi. Siyosatning buqalamundan farqi yo‘qligini ko‘rganmiz-da”*** (Sh.Xolmirzayev, 2023, 176-bet), – deydi yozuvchi. Mazkur xulosa orqali qahramon o‘z qarichiga xos bo‘lgan hamma rost gapiraversa ham zamonga ishonib qolmaslik kerak, tilga ehtiyotkor bo‘lish kerak mazmunidagi xufiyona qarashlarini bildirib qo‘ymoqda. Achinarli jihati shundaki, siyosatni aldab, haqiqatni ayta olmay, boshqa yo‘riq bilan yuradiganlar “buqalamun” emas ekan-u, siyosat “buqalamun” emish. So‘z qudrati bilan insonlarga ta’sir qilish eng oliy vazifasi bo‘lgan millat yozuvchisi shunday fikrlasa, endigina qo‘liga qalam olmoqchi bo‘lgan yosh iste’dodlar nima qilsin?! O‘sha adabiyotni o‘qiydigan millat nima qilsin?! Siyosatga ishonsinmi, kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muhitni doim alqab, olqishlab turgan “asarlar”ga ishonsinmi?! Hikoyaning eng og‘riqli masalalaridan biri ham mana shunda, nazarimda. Endi esa

bu toifa vakillari adabiyot ostonasiga endi kirib kelayotgan yosh iste'dodlarga "ustoz"lik qilishini bir tasavvur qiling-a. Uning oldida ikki yo'l bor: shogirdlarini o'z qarashlaridan kelib chiqib ma'lum bir chegaralarga asoslanadigan qilib tarbiyalaydi yoki bu iste'dodni butkul nobud qiladi. Yo'l-yo'lakay yozuvchi ana shunday qalam tebratishga ishtiyoqi so'ngan sobiq shogirdi haqida so'zlay ketadi.

Yozuvchining shogirdi g'oyat iste'dodli, qalami o'tkir ijodkor edi. Hattoki, ustozining o'zi u qo'llaydigan detallarni Qahhordan ham, Chexovdan ham topib bo'lmasligini aytib maqtaydi. Shunday bo'lishiga qaramay, shogirdning birorta asari nashriyotlarda bosilib chiqmadi. Tahririyat bosishga ruxsat berganda ham, keyinroq asar rad etilib, e'lon qilinmadi. Qayerga bormasin, omadi yurishmadi. Bularning barchasi o'sha o'zini o'ta mehribon, oliyjanob ustoz hisoblaydigan yozuvchi "sharofati" bilan edi. Ustozda shogirdiga nisbatan hasadga o'xshash g'ayriinsoniy his bor edi, buni ilg'ab olish kitobxonga havola qilingan. Sababi, Shukur Xolmirzayev qahramon nutqiy xarakteristikasini shu qadar mahorat bilan gavdalantiradiki, beixtiyor ustozning haqiqatan shogirdi uchun mehribon, jonkuyar ekan-da, degan xulosaga kelish mumkin. Ammo vaziyatga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, ustoz shogirdini qaysi nashriyotga tavsiya qilmasin, endi ijod mahsullari qabul qilinayotgan vaqti uning izidan ish ko'radi. ***"Lekin ba'zi qaltis momentlari bor. Masalan, ayrim joylarda rahbar shaxslarga tegib ketgan. Raykom sekretarigayam… Demak, siyosatga!"*** (Sh.Xolmirzayev, 2023, 180-bet), – deya tahririyatni go'yoki xavfdan ogohlantirgan bo'lib, shogirdi oyog'iga o'zi bolta uradi. Eng ajablanarlisi, esa shogirdiga bu haqda miq etmasdi. Shunchaki yana yozishda davom etishini, to'xtamasligini uqtirardi. U suhbatning biror nuqtasida shogirdiga nisbatan xusumati yoxud hasadi borligini aytib o'tmaydi, aksincha o'zini-o'zi yaxshi ustoz sifatida e'tirof etadi. Biroq uning xatti-harakatlari asl yuzini ochib bergan deyish mumkin.

So'zi boshqa, ishi boshqa bunday ikkiyuzlamachi shaxs qo'liga tushgan shogirdning taqdiri xarob bo'ldi. U endi yozmay qo'ydi, ijod qilmay qo'ydi. Aynan mana shu sahna orqali yozuvchi ustozning shogird faoliyatidagi, uning muvaffaqiyatga erishishi yoxud aksincha zavolga yuz tutishi ham tom ma'noda ustoz bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatib bermoqda. Ustozlik mas'uliyatini zimmasiga olgan shaxs, unga mos bo'lish kerakligini, o'quvchilari yutuqlarini so'ndirmasligi, aksincha, qo'llab-quvvatlashi lozimligini uqtirmoqchi bo'lganday, nazarimda.

Vaziyatga boshqa tomondan yondashadigan bo'lsak, u shogirdi tufayli o'ziga gap tegishidan ham qo'rqardi. Haqiqatgo'y, *"markazqo'm ko'ziga cho'p solib yurgan arboblarni adabiyotga solib "uradigan"* yosh ijodkorning uslubini noto'g'ri

deb biladi. Yozuvchi fikriga koʻra, adabiyotda kimnidir tanqid qilish kerak boʻlsa, u ham oddiy xalq vakili boʻlgani maʼqul. Yoxud tinchgina "och qornim, tinch qulogʻim" qabilida peyzajga, tabiat tasvirlariga murojaatni koʻpaytirish kerak. Qahramonning oʻzi suhbat asnosida hamrohiga: "Shuning uchun men koʻproq peyzajga zoʻr beraman, lirikaga zoʻr beraman: bular beziyon mavzular. Toʻgʻrimi? Ana shunday…" (Sh.Xolmirzayev, 2023, 178-bet), kabi soʻzlarni aytadi. Bunday qarashlarni ilgari suradigan ustozning etagini tutgan shogird taqdiri oxir-oqibat ayanchli yakun topdi. Mening nazdimda, jigar kasali emas, balki kimsasizlik, umidsizlik va omadsizlik shogirdni adoyi tamom qildi. Balki, ustozi unga chinakamiga yordam qoʻlini choʻzganda, yoziqlari eʼlon qilinishida toʻsiq boʻlmaganda uning hayoti butkul boshqacha tus olishi mumkin edi. Mashhur yozuvchiga aylanib, ishlari yurishib ketishi, kasalidan tez va oson sogʻayishi mumkin edi. Hayratlanarlisi shundaki, bosh qahramon shogirdining oʻlimiga *"qoʻrqoq, vahimachi, vijdonsiz odamlar"* sababchi deb hisoblaydi. Aslini olganda, *"oʻta talantli bola-yu, baʼzan jindak, nima desam ekan, betgachoparlik odati bor"* deb soʻnggi najot boʻlgan shifoxonaga ham shogirdini yomonlaydigan qoʻrqoq, *"Sizlarda hukumat odamlari kelib davolanadi"* deya oladigan vahimachi, vijdonsiz kimsa uning oʻzi emasmidi?!

Yozuvchi Abduqayum Yoʻldosh asar kompozitsiyasida retrospeksiya usulidan (zamonda ortga qaytish usuli) foydalangan, yaʼni hikoya bosh qahramon bundan oʻttiz besh yil burun Moskvadan 120 rublga charm portfel sotib olish xotiralarini yodga olish bilan boshlanadi. Qahramonning xotiralari shu charm portfel bilan boshlanishi, asarda mobaynida ushbu predmetga koʻp bora murojaat qilinishining ham alohida badiiy maqsadi bordek. Matematik olim orzu-umidlar va zoʻr ishtiyoq bilan ushbu portfelni sotib olishi, unga alohida mehr bilan qarashi – qahramon qalbidagi ijodkorlikdan, ilmni ijod sanab, har bir detallga ham alohida mehr bilan yondashishidan darak beradi. Portfelga qoʻlyozmalarini solib yurishni, *"gabaritlari ulkanroq tumor yanglig'"* bagʻriga bosib yurishni niyat qiladi. Portfel uning orzularidek ajoyib edi, ammo yil oʻtgan sayin olimning oʻzi singari portfel ham qariy boshladi: *bir asrning uchdan birini oʻtab-oʻtamay uning yuziga oʻxshab bujmayib, qarimsiq boʻlib qoldi; bir xil joylarining terisi koʻchgan, kal boshini eslatadi*. Olimning gipotezani yechish haqidagi maqsadi ham xuddi shu portfel kabi eskirib, oldingi jilovdorligini yoʻqota borardi. Endi u portfelini qoʻynida quchoqlab yurmasa*, hov bir galgiday moshin-poshin turtib ketsa, qogʻozlarining bari sochilib ketishi mumkin*. Asar boshidanoq adib portfel bilan bogʻliq ushbu xotiralarni beradi va matematik olimning maqsadlari ham portfelidan sochilib ketgan qogʻozlar kabihar yoqqa tarqab ketishiga ishora qilmoqchi boʻladi, nazarimda.

Yozuvchi hayot haqiqatini taftish etib, o‘zligini anglashga intilayotgan matematik olim obrazini yaratish orqali uning shaxsiyatini badiiy haqiqatga aylantiradi. Bir qarashda asar mazmunida Puankare gipotezasiga yechim topishni maqsad qilgan va bunga erisha olmagan olimning ayanchli taqdiri turgandek bo‘ladi. Ammo yozuvchi Puankare gipotezasini ramziy ma’noda qo‘llagan, nafaqat matematik olimning, balki bu dunyoga kelgan har bir kishining oxiriga yetishi kerak bo‘lgan gipotezasi mavjud. Hayotning asl maqsadini anglash, o‘z burch va vazifalarini idrok etish Puankare gipotezasiga nisbat berilmoqda. Qahramon oliy matematikadan dars beradigan aniq fan kishisi bo‘lsa-da, qalbida aniqlik bilan birgalikda go‘zallik, badiiyatni ham biriktirgan ijodkor shaxs edi. Uning shu ijodkorligi hali hech kim oxiriga yetmagan Puankare gipotezasining yechimini topishga undardi. Ana shu ijodkorlik uni misli ko‘rilmagan jumboqni yecha olishiga ishontirardi. U ilmiy rahbari bilan Puankare gipotezasining oxiriga yetish haqidagi fikrlarini bo‘lishgach, ilmiy rahbar mutlaqo qarshilik qiladi va unga yechimi aniq bo‘lgan boshqa amaliy mavzuni beradi. Tahliliy jihatdan nazar soladigan bo‘lsak, nafaqat ilmiy rahbar, balki Ilmiy Kengash ham bu kabi javob izlab topilmagan, tesha tegmagan mavzulardan hadiksirar, bunday mavzularni hech kimga ilmiy ish sifatida tasdiqlab bermasdi. Axir, ular aniq fan odamlari: oxiri noma’lum bo‘lgan jumboqqa butun umrini sarflashdan nima naf?! Undan ko‘ra ilmiy rahbarning ta’biri bilan aytganda, tayyor amaliy ishlar orqali *“ikki yilda geometriya-topologiya mutaxassisligi bo‘yicha fizika-matematika nomzodi bo‘lib”* olish eng oson va qulay yo‘l edi... Yosh matematik ustoziga Puankare gipotezasini yechmoqchiligini aytganda, ilmiy rahbar uning ustidan kulgandek qilib: *“Yechim tuxumning ichida, tuxum sandiqda, sandiq yerto‘lada, yerto‘la esa hov anovi yoqda. Baland dorga osilib bo‘yningizni sindirib yurgandan ko‘ra, yigitcha, aniq amaliy ish bilan shug‘ullaning. Davlat sizga sarob ortidan yugursin deb pul berib qo‘ymaydi! Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o‘pka yaxshi. Shunchalik aqlingiz zo‘r ekan, hech o‘ylab ko‘rmadingizmi, nahotki, shunaqangi absurd mavzuni Ilmiy Kengash tasdiqlab bersa? Hech qachon bunday bo‘lmaydi, yigitcha, hech qachon!”, –* (Abduqayum Yo‘ldosh, 2022, 53-bet) singari kinoyali so‘zlarni aytib rad etadi. Yoki asar so‘ngida shifokor tomonidan olimning qo‘lyozmalari haqida: *“Bu qo‘lyozmani tanish bir makulaturachiga topshirib yuboramiz. Har qalay, jamiyatga ozroq bo‘lsa ham foydasi tegadi-ku. Hi-hi-hi. Tualet qog‘ozi sifatida bo‘lsa ham”,* (Abduqayum Yo‘ldosh, 2022, 90-bet) degan past nazar bilan qarashlar ifodalanadi. Adib qahramonlarning mazkur suhbati orqali ushbu tizimda mavjud kamchilik va muammolarni bir qadar ochib berishga harakat qiladi. Holbuki, Ilmiy Kengash yangiliklar qilishdan cho‘chimasa, qahramonimiz singari ijodkor olimlarni, ularning izlanishlarini ham moddiy, ham ma’naviy tomondan qo‘llab-quvvatlasa, Puankare

gipotezasi va shu kabi oxiriga yetilmagan olamshumul ilmiy kashfiyotlar bizning olimlarimiz tomonidan yaratilishi mumkin edi. Yozuvchi shu kabi hayot haqiqatlarini asar mohiyatiga mohirona singdirib yuborgan.

Hikoyada ustoz va shogird masalalari ham juda ishonarli va ta'sirli yoritib berilgan. Bosh qahramon qarib qolgach, Puankare gipotezasini yechishda o'ziga hamroh bo'ladigan shogird izlaydi. Oliy matematika darslarining oxirida talabalarga chalg'ituvchi murakkab masala berib, iqtidorli yosh matematikni qidiradi. Holbuki, olimning ilmiy salohiyati va iste'dodi bir o'zi gipotezaning yechimini topishga bemalol yetar edi. Demak, ramziy ma'noda qahramon o'ziga sherik emas, balki umid uchquni izlaydi. Orzulari ushalishi uchun umid, dalda berib turadigan yoshlik quvvatini istaydi. Bu orqali yozuvchi har qanday kuchli o'qituvchiga uni maroq bilan tinglaydigan, tushunishga harakat qiladigan o'quvchi kerakligini hayotiy misol bilan keltirib o'tadi. Bundan tashqari, adib ko'p yillik o'qituvchilarga xos bo'lgan gapirish uslubi, ya'ni o'zi savol berib o'zi javob berishini matematik olimning ham nutqida aks ettiradi. O'qituvchi shunday holga kelib qolgandiki, nafaqat darsda, balki undan tashqari vaqtlarda ham nutqida ushbu kamchilik kuzatilar edi. Bu kabi nutqiy xarakteristika orqali o'qituvchining hayotda qanchalik qiynalganini, turmush ikir-chikirlari uning asablarini holdan toydirganini anglab olish mumkin.

Bundan tashqari, asarda xalqimizda mavjud urf-odatlar: to'y-hasham, sarpo-suruq, katta chilla, kichik chilla, mehmondorchilik, tug'ilgan kunlar kabi an'analar keltirib o'tilgan. Qahramonning atrofdagi kishilar ta'siri ostida mazkur urf-odatlar bajaralishida me'yordan oshganligi, qarz-havola qilib o'tkazganligi uning kelajagiga ta'sir qilmay qo'ymadi. Endi uning hayotda bajarish kerak bo'lgan missiyasi Puankare gipotezasiga yechim topish, ilmiy ish yoqlash emas, balki ikkita ishda ishlab bo'lsa ham qarzlardan qutulish, oila boqish, har kuni turmushidan noliydigan xotining diydiyolariga sabr qilib yashashdan iborat bo'lib qoldi. Shu o'rinda olimning o'z maqsadiga yetolmaganida turmush o'rtog'ining ham ta'siri katta ekanligiga guvoh bo'lamiz. Qahramon otasining va'dalashuvi sababli hayotda hech qachon ko'rmagan, o'qimagan bir qizga uylanishga majbur bo'ladi. Laborant qiz Munisaga g'oyibona ko'ngil qo'yganligi haqida hech kimga churq etmaydi. Ushbu sahnalarda ham o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan uyat, andisha, va'dasiga vafo kabi fazilatlarni ko'rishimiz mumkin. Ammo, qahramon turmush o'rtoq masalasida o'ziga xos va mos birini tanlamaganidan butun umr pand yeydi. Ayolining tor dunyoqarashi, saviyasiz tushunchasi, bo'lar-bo'lmas diydiyosi, mol-u dunyoni umrning mazmuni deb tushunishi buyuk bir dahoning kelajagini, orzu-umidlarini yo'q qiladi. Ayoldagi bu fe'l-atvor, dunyoga tor nazar bilan boqish onasidan o'tganligini hikoyadagi qator sahnalardan anglab olish mumkin. Qahramonning oilasiga uchinchi odam bo'lib raxna soluvchi, qizini kuyoviga qarshi qilib qo'yuvchi

shaxs shu qaynona edi. Bunday tarbiya ko‘rgan ayol farzandlarini qanday tarbiyalashi mumkin, deysiz. G‘oyat iste’dodli matematikning zurriyoti bo‘lishiga qaramasdan, ona tarbiyasi tufayli ular *oddiy hosila ololmaydigan, logarifm bilan integralning farqini bilmaydigan,* o‘z otasini esa *“bo‘shang, hech ishni eplolmaydigan, umri chaqa sanab o‘tayotgan, boshqalarga o‘xshab bunday yaxshi yashashni ham bilmaydigan” uquvsiz ota* (Abduqayum Yo‘ldosh, 2022, 74-bet) sifatida taniydigan bo‘lib ulg‘ayishadi.

Erkin Malikning “G‘urur” nomli hikoyasida usta va uning shogirdi haqida so‘z boradi. Hikoya *“Usta do‘sti va uning o‘g‘lini kuta boshladi”* (Erkin Malik, 2017, 14-bet) satrlari bilan boshlanadi. Ekspozitsiyadan so‘ng retrospeksiya usuli yordamida (zamonda ortga qaytish usuli) yordamida bundan bir qancha vaqt oldin bosh qahramon do‘stining o‘g‘liga ustachilikni o‘rgatgani, qo‘lidan ish kelib qolgandan so‘ng unga “oq fotiha” berib kuzatgani eslab o‘tiladi. Shogird bir vaqtlar ustozining hunarini juda yaxshi o‘zlashtirgan, *usta bitta eshik va rom tiklaguncha u ikkitasini tiklab qo‘yardi.* Ammo namunali shogirdlar kelajakda ham shu yo‘sinda davom etavermas ekan. Yozuvchi qahramon taqdirini yoritar ekan, uni namunali shogird sifati eslab, bugungi kunini e’tiqodlarga zid bo‘lgan xatti-harakatlar bilan tasvirlaydi. Shogird maishatga berilib oilasini butkul unutib qo‘ygan edi. Uni yaqinlari, akalari, hatto otasi ham to‘g‘ri yo‘lga sola olmaydi. Necha kunlab xonaga qamab qo‘yish ham unga kor qilmaydi, tavbasiga tayanmaydi. Otasining *“Qo‘yib bersa ota-onasini ham, bola chaqasini ham sotib, ichadi, u juvonmarg. Undan o‘libgina qutulish mumkin”,* (Erkin Malik, 2017, 15-bet) degan achchiq nolalar bilan o‘g‘lining ustozi, ya’ni do‘stiga so‘zlab berishidan ham shogirdning ahvoli juda abgor holda ekanini anglash mumkin. Yozuvchi ana shunday muammoli vaziyatda ustoz obrazini yechim sifatida gavdalantiradi. Ustozning qarashlariga ko‘ra, har qanday odam g‘ururini yo‘qotmagan bo‘lsa, uni to‘g‘ri yo‘lga solsa bo‘ladi. Shu o‘y bilan, u shogirdiga anchagina g‘ururiga tegadigan gaplar bilan tanbeh beradi. Ammo ichkilikka mukkasidan ketgan, o‘zining asliyatini unutgan shogird *“ustozi gap bilan shuncha “tepkilasa” ham g‘iq etmasdi”.* Shuncha achchiq gaplardan so‘ng usta xuddi uning otasidek taqdirga tan berib, yigitning tuzalishidan umid uzsa bo‘lar edi yoki boshqalardek uni urib, kaltaklab gap uqtirsa bo‘lar edi. Ammo u – tarbiyachi, u – ustoz, u jismoniy og‘riq vaziyatga yechim emasligini yaxshi anglaydi. Shogirdiga gap ta’sir qilmagandan so‘ng, o‘ta mulohazakorlik bilan ish tutib, qahramonning otasini nishonga oladi. Otasiga ta’na toshlari yog‘dirib, shogirdiga shu orqali ta’sir qilmoqchi bo‘ladi. Ustaning harakatlari besamar ketmadi: shogird otasining haqoratlanishiga chidab tura olmay ustoziga qo‘l ko‘tarib yubordi. Yigitning g‘ururi hali butkul yo‘qolmaganidan quvongan ustoz: *“Menga shunisi kerak edi. Endi ustoz shogirdlikni boshidan – boshqatdan boshlaymiz”,* - deb uni qaytadan tarbiyalashga

bel bog‘laydi. Yozuvchi Erkin Malik ushbu hikoyasi orqali kishi hayotida ustozning o‘rnini, kezi kelganda aka-ukalari, otasi tarbiyalay olmagan bolani ustoz to‘g‘ri yo‘lga sola olishini aks ettiradi. Ustozlarning tarbiya usuli ota-onaning tarbiyasidan farq qilishini, har ikkala tarbiya ham bolaga birdek zarur ekanini uqtirmoqchi bo‘ladi.

“Ijobat bo‘lgan duo” hikoyasida tasvirlangan yosh muallima *maktabni o‘z uyidek, bolalarni o‘z bolasidek ko‘rar edi.* Shu sababdan, muallima ayni ramazon oyida zakot bermoqchi bo‘lgan odamlar bo‘lsa, maktabga ehson qilishini iltimos qilib oqsoqolning yoniga boradi. Yozuvchi bu sahnada muallimani jabrdiyda yoki tamagir ko‘rsatib qo‘yishdan yiroq. Shu sababli, qahramon sinf xonasi ta’mirdan chiqqanligi, faqat oyoq tagiga qolganda qo‘llari kaltalik qilib qolganini, qishda bolalar oyog‘idan zax o‘tib shamollab qolishayotganini aytib, to‘shama to‘shashda zakot beruvchilar qarashib yuborishini so‘raydi. Niyat shunchalik xolis va pok bo‘lgani sababli, hech qancha vaqt o‘tar-o‘tmas, muallimaga g‘oyibdan pul keladi: ukasi unga zakot beradi. Pulni maktabga sarflash yoki ro‘zg‘origa ishlatishda ikkilanib qolgan ustoz o‘quvchilariga, kasbiga bo‘lgan mehri sabab sinfxonaga to‘shama to‘shashni tanlaydi. Holbuki, uning yashash tarzi juda zo‘r emas edi, sababi yozuvchi uni zakot beruvchi emas, oluvchi qilib tasvirlaydi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, jonkuyar ustoz o‘quvchilari uchun qayg‘uradi, ularning shamollashini istamaydi. Bir so‘z bilan aytganda, yozuvchi ushbu hikoyasi orqali kasbiga sodiq, maktabni va o‘quvchilarini sevuvchi, ularning haqqiga duo qiluvchi muallima obrazini yaratadi. Bunday muallimani nafaqat jamiyatga, balki Allohga ham suyukli bo‘lishini aks ettiradi.

Yuqorida tilga olingan hikoyalarga nazar tashlar ekanmiz, ularda adiblar aksariyat zamondoshlarining realistik obrazlarini yaratganligiga guvoh bo‘lamiz. Unda qalamga olingan qahramonlar siz-u biz har kuni duch keladigan oddiy insonlardir. Asarlardagi qahramonlar xarakteri, turmush tarzi, dunyoqarashlari hayotiyligi bilan kitobxonlar e’tiborini jalb qiladi. “Ustoz” hikoyasida inson muammolari, uning ichki olamidagi kamchiliklari va uning atrofdagilarga salbiy ta’siri ko‘rsatishini o‘tkir nigoh bilan ochib berilganligi bevosita kitobxonni muhokamaga chaqirsa, “Puankare” hikoyasi esa o‘zlikni anglash va hayotdagi o‘rnini topish, maqsadlarni unutmaslik kabi azaliy va abadiy inson muammolarni yoritib beradi. Yozuvchi hikoyada umrning mohiyatini anglash zarurligi, o‘tkinchi hoy-havas bilan andarmon bo‘lib, hayotga kelishning asl sababini unutib qo‘yish katta xatoligini matematik olim taqdiri misolida aks ettiradi.

“G‘urur” hamda “Ijobat bo‘lgan duo” hikoyalarida ustozning duosi, uning kishi hayotidagi o‘rni aks ettiriladi. Kitobxon ushbu asarlarni mutolaa qilar ekan

o‘qituvchi, ustoz bo‘lganlar kasbiga sidqidildan yondashishi, bola tarbiyasid va ta’limida mas’uliyatli bo‘lishi kerakligini anglaydi. Erkin Malik o‘z asarlaridagi ustoz obrazi orqali mazkur shaxsning nafaqat kishi hayotida, balki jamiyat rivojida ham g‘oyat katta ahamiyat kasb etishini uqtirmoqchi bo‘ladi.

Yakuniy so‘z o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek hikoyachiligidan misol tariqasida tahlilga tortilgan hajman kichik, salmog‘i ulkan bo‘lgan ushbu hikoyalar bugungi kun ustoz va murabbiylari uchun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Xolmirzayev Sh. (2023). *O‘n sakkizga kirmagan kim bor*. Toshkent: Yoshlar matbuoti. B. 237.

2. Mirzayev S. (2005) *XX asr o‘zbek adabiyoti.* Toshkent: Yangi asr avlodi. B. 420.

3. Quronov D. (2018) *Adabiyot nazariyasi asoslari.* Toshkent: Navoiy universiteti. B. 487.

4. Abduqayum Yo‘ldosh. (2022). *Puankare.* Toshkent: Adademnashr. B. 174.

5. Mirqosimova M., Rustamova M. (2008). *Hozirgi adabiy jarayon*. Toshkent. B. 155.

6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. (2013) *Adabiyotshunoslik lug‘ati.* Toshkent: Adakemnashr. B. 406.

7. Erkin Malik. (2017). *Ijobat bo‘lgan duo.* – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. B. 223.


## BOLALAR DUNYOSIDA YASHAGAN SHOIR


*Mamadaliyeva Muxlisaxon,*

*QDPI 4-kurs*



***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada bolalar adabiyotining yorqin vakili bo‘lgan Shukur Sa’dulla she’rlari tahlil etiladi. Shoir ijodining bolalar ruhiyatiga ta’siri, o‘ziga xosliklari, uslubi haqida fikr va mulohazalar bayon etiladi.*



***Kalit so‘zlar:*** *bolalar ruhiyati, bolalar dramasi, poema, bolalarning go‘zal olami, ertaklar, topishmoqlar.*

***Annotation:*** *This article analyzes the poems of Shukur Sa'dulla, a bright representative of children's literature. The influence of the poet's work on children's psyche, its peculiarities, and opinions about its style are presented.*

***Key words:*** *children's psyche, children's drama, a poem, the beautiful world of children, fairy tales, riddles.*

Bolalar dunyosi sehrli olam. Uzoq-uzoqlarga termulib nimalarni xayol qilganingizni, nimalarni kashf etganingizni o‘zingizdan o‘zga bilmaydi. Do‘stiga yangi o‘yinchog‘ini maqtash uchun kechasi bilan so‘z qidirib chiqqan ham, qaysidir ertak qahramoniga havas qilib qahramonliklar ko‘rsatishga harakat qilgan, yaxshiliklar qilishga shoshilgan, kulchasini do‘stiga ulashib mehrini qozonganidan quvongan, ilk yodlagan she'rini ming hayajon bilan onasiga aytib bergan ham mana shu bolajonlar bo‘ladi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyev “Bolalarga bag‘ishlab asar yozish uchun avvalo bolaga aylanish, bolalar dunyosida yashash kerak”,- degan edi.

So‘nggi yillarda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq maktab darsliklari sifat darajasidan ancha yaxshilandi. Bir qator sara asarlar, sara she'rlar darslikdan joy oldi. Bu bolalar uchun ham biz uchun ham quvonarli.

Bolalarga bir-biridan go‘zal, quvnoq she'rlarni taqdim etgan shoirimiz Shukur Sa'dulla ijodini tahlil etar ekanmiz, uning o‘ziga xos uslubi haqida ham fikrlarimiz talaygina.

Shukur Sa'dulla bolalar uchun turli janrlardddaaa ijod etdi: she'r ham, poema ham, hikoyaaa ham, qissa ham, opera ham, she'riy ertak ham yozdi. Hatto xalq ijodiga mansub ayrim an'naviy janrlarni yozma adabiyotga omuxtalashtirdi. Xalq latifalari asosida “Ikki donishmand”, “Afandining ko‘ylagi”, “Afandi tegirmonchi va ko‘sa” kabi she'riy latifalarni topishmoq janri talablarini saqlagan holda topishmoq – she'r namunalarini yaratdi.

Uning maktabgacha tarbiya va kichik maktab yoshidagi bolajonarga bag‘ishlab yozgan ko‘plab she'rlari hamon bolalar tilidan tushmay kelmoqda. Ayniqsa, “Shohista”, “Yomg‘ir-yog‘aloq”, “Yaxshi ism”, “Dildor va koptok” she'rlari baayni jajji bolajonlar fe'l atvorini to‘la aks ettirgani bilan ajralib turadi. Shuningdek, shoirning yil fsllari haqidagi she'rlari maktab darsliklaridan o‘rin olgani e'tiborli. Muallifning “Yoriltosh”, “Kachal polvon yoxud yog‘och qo‘g‘irchoqning sarguzashtlari” ertak dramalari, “No‘xatpolvon”, “Laqma it”, “Ayyor chumchuq” kabi adabiy ertaklarining syujeti va badiiy kompazitsion xususiyatlari diqqatga sazovor. Shukur Sa'dulla “Komandirning boshidan kechirganlari”, “Aziz qishlog‘im” nomli qissalari orqali o‘zbek bolalar nasriga katta hissa qo‘shdi.[136]

[136] Shukur Sa'dulla – kichkintoylar shoiri. Uning hayot yo‘li haqida. abiturtest.uz

Shoirning “Laqma it” haqidagi she’ri bolalarni mehnatsevarlikka, do‘stlikka undaydi. O‘z mehnatini ishga solib boshpana qurmagan, umrini o‘yin-kulgu bilan o‘tkazgan, urushqoq kuchuk sovuq zahridan mushukka yalinishga majbur bo‘ladi:

–Kechir, - dedi, yolvordi it,
Mushuk dedi : – Yalinma, ket!
Yozi bilan do‘stlashmading,
Biror og‘iz so‘zlashmading.
Yurding doim sanqib bekor,
Bo‘yning ishga bermadi yor...

Shu ko‘yi rad etilgach kuchuk echkiga, sigirga, parrandalarga yolvoradi. Lekin hech birlar yolg‘onchi, dangasa bo‘lganligi uchun uni uyga kiritishmaydi.

Ishontirding o‘tgan yili,
Rahm qildi hayvon eli...
Ta’zirimni yeganman xo‘p
Sololmaysan og‘zimga cho‘p.

Sigir ham uning bezoriligini yuziga soladi. Sher so‘nggida “qish g‘aminin yozda yemasang holingga voy”,- degan xulosa chiqadi. Ushbu she’r orqali shoir bolalarni mehnatsevarlikka, do‘stlik-birodarlikka, berilgan va’daning ustidan chiqishga undaydi.

“To‘rt fasl” she’rida esa, har bir faslning o‘ziga xos tarovati, xususiyatlari, bu fasllarda qilinadigan ishlar, ob-havo, tabiat tasviri, bog‘larda pishadigan mevalar, dalalarda yetiladigan hosillar haqida ma’lumot beradi. Shu qisqagina she’rda fasllarning bor mehrini, vazifasini jamlaydi. Bu esa, bolalarda fasllar haqidagi taassurotlarini yanada boyishiga xizmat qiladi.

Shukur Sa’dullaning “Lola va Mushuk ” she’ri ham bolalar uchun eng yaxshi she’rlardan biridir. Bu asar juda oddiy. Misralar sodda. Ammo u bir o‘qishdayoq kichkintoy mehrini o‘ziga tortadi, uni barvaqt turishga, yuvinib taranishga, ozoda, pokiza bo‘lishga o‘rgatadi. Uy hayvonlariga , jonivorlarga mehri, g‘amxo‘rliklarini oshiradi.[137]

Men Lolaman, Lolaman,
Ozoda qiz bo‘laman.
Erta bilan turaman,
Yuz-qo‘limni yuvaman.
Mushugim bor qora mosh,
O‘zi judayam yuvosh,
Mendan oldin turadi,
Yuz-qo‘lini yuvadi.

[137] Jumaboyev.M. Bolalar adabiyoti va folklore. Darslik. O‘z.Y.U Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. T.:2006

Shukur Sa’dullaning har bir she’ri bolalar dunyosidan, bolalar qalbi, bolalar ruhiyatidan, bolalarning orzu-o‘ylaridan olingan. Shuning uchun ham she’rlari tabiiy, samimiy, yurakka yaqin. Bu she’rlarni nafaqat bolalar, balki katta yoshdagi kitobxonlar o‘qisa ham yuziga tabassum yuguradi, o‘zining bolalik davriga bir zumga bo‘lsa ham sayohat qiladi. Bugun adabiyotimizga bolalar uchun yosilgan she’rlar, nasriy asarlar, qo‘shiqlar har qachongidan ham ko‘proq zarru. Adabiyot eng yaxshi tarbiya vositasi degan gapda jon bor. Adabiyot o‘qib ulg‘aygan bolalarning albatta tasavvuri keng, ko‘ngli toza, yaqinlariga, Vataniga mehru muhabbati cheksiz bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


**1.** Jumaboyev.M. Bolalar adabiyoti va folklore. Darslik. O‘z.Y.U Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. T.:2006

**2.** Shukur Sa’dulla – kichkintoylar shoiri. Uning hayot yo‘li haqida. abiturtest.uz

II. Internet saytlari

**1.** https://ziyonet.uz

**2.** https://kh-davron.uz


## FAXRIYOR SHE’RLARIDA ISHQ TALQINI VA TASVIRI


*Hamroyeva Sadoqat Nurali qizi*

*ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti, 4-kurs*

*sadoqathamrayeva070@gmail.com +99888677577*



***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada shoir Faxriyor ijodidagi she'rlar tahlilga olinadi. She'rlardagi ishq tasviri va shoir ijodida ko‘p uchrovchi “ko‘zyosh soyasi” metaforasiga e'tibor qaratiladi. Tahlillar davomida shaxsiy fikrlar va mulohazalar bayon qilinadi. Matndagi nomahram va or-nomus masalalariga oid fikrlar tahlil qilinadi. Shoirning o‘ziga xos poetik mahorati haqida xulosalar beriladi.*



***Kalit so‘zlar****: Faxriyor, “ko‘zyosh soyasi”, ishq tasviri va talqini, vaqt tushunchasi, tadqiqot va tahlil.*



***Abstract:*** *This article analyzes the poems of the poet Fakhriyor. Attention is paid to the image of love in poems and the metaphor of the “shadow of tears”, often found in the poet’s work. During the analysis, personal opinions and judgments are expressed. Thoughts on issues of fidelity and honor in the text are analyzed. Conclusions are drawn about the unique poetic skill of the poet.*



***Keywords:*** *Fakhriyor, “shadow of tears”, image and interpretation of love, concept of time, research and analysis.*

“Shoir o‘zi yashab turgan muhitdan tashqarida bo‘la olmaydi. U jamoatchilikni junbishga keltirayotgan voqealarga munosabat bildirishga majbur. Men ham o‘zimni o‘ylantirayotgan narsalar haqida yozaman”. Ushbu fikrlar o‘zining o‘zgacha qarashlari, o‘zgacha iste’dodi bilan hozirgi kunda ko‘pchilik orasida mashhur bo‘layotgan shoirimiz Faxriyor ya’ni Faxriddin Nizomovning o‘z ijodi haqida to‘xtalganlaridandir. .(4. Nazar Eshonqul bilan suhbat. Xurshid Davron kutubxonasi). Faxriyor ijodida ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan hech kimnikiga o‘xshamagan o‘xshatishlar va sifatlashlardan tashqari yangi tushunchalar yangicha qarashlar borligini har bir she’rda uchratamiz. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev ham shoirning she’rlaridagi tasavvur dunyosini quyidagicha izohlaydi: “Faxriyorning tuyg‘uni fikrdan, fikrni so‘zdan, so‘zni uning o‘ynoqi jilvalaridan ayirmaydigan poetik iste’dodi o‘qirmanni o‘qigan she’rining chin ijodkoriga aylantiradi”.(3, 424-bet). Darhaqiqat ijodkor she’rlarida so‘zlarning jilvadorligini, ma’no nozikliklarini uchratmasdan o‘tmaymiz.

**Tahlillar.** Shulardan biri shoirning bir nechta she’rlarida yangicha tushuncha aynan “ko‘zyosh soyasi” tushunchasiga ko‘p duch kelamiz. Masalan, quyidagi she’rda u shunday ifodalanadi.

*Yosh soyasi bag‘rimni kesdi,*
*og‘riqlarim sensiz muttasil.*
*Shamoldayin qaylardan esdi*
*ko‘zyoshing soyasi bu fasl –*

*muhabbatning yaralariga*
*peshonaning sho‘rlari bo‘lib?*
*Men soyaga tikildim nega*
*ko‘nglim buzuq, yuragim to‘lib?*

*Xayollarim orama-sarson,*
*soya kattalashadi, o‘sadi.*
*Songa kirmas, kirib borar son –*

*oramizga, bir, ikki, uch kun...*
*Yiroqlashar, seni to‘sadi*
*hijron qadar uzaygan bir tun... (1. 22-bet. Izlam,2023)*

She’rga e’tibor beradigan bo‘lsak, lirik qahramon muhabbat qo‘ygan insonning yuziga boqarkan, unda yorning ko‘zyoshlarining soyasini ko‘rmoqda. Bir o‘ylab ko‘raylik, ko‘zyoshning soyasi bo‘ladimi? Albatta yo‘q deyishga haqqimiz bor, ammo bu soya yuzda aks etmaydi. Shoir bizga anglatmoqchi bo‘lgan soya

muhabbat va ishq dardidan sarson ko‘ngillarning o‘z to‘kkan yoshlari orqali qalbda aks etadigan hijron va dardning ko‘lankasidir. Qahramon sevgilisining to‘kayotgan yoshini yana bir bor ko‘rganida qalbining og‘rig‘ini eslaydi. Xotirlashlar, eslashlar ortgani sayin “soya kattalashadi, o‘sadi” – og‘riqlar, dardlar ko‘payadi. Kun o‘tadi, ammo bu dardga, ishq dardiga davo topilmaydi. Ishq yo‘li qiyin yo‘l, unda visolga yetish mushkul. Dars ortgani sari yorga olib boruvchi yo‘l tugaydi, uni ko‘rish ham murakkablashadi. Ammo muhabbat o‘sha-o‘sha, hijron esa oshiqni ezg‘ilaydi, qiynaydi. Ko‘ryapmizki, birgina “ko‘zyosh soyasi” tushunchasi orqali ajoyib tasvir, insonni o‘ylashga, fikrlashga undovchi satrlar yaratilgan.

Ishq azaldan qalbni qiynoqlarga ko‘muvchi, insonni azoblar to‘lqiniga otuvchi, unga duchor bo‘lgan kishi yor vasliga yetmas ekan devonalarga aylanishi asrlar davomida asarlarga singib ulgurgan.

*Chakmon kabi yungdan to‘qilgan*
*tushlaringni yeb tashlar kuya.*
*Issiq-sovuq, na o‘qilgani*
*naf bermaydi. Urinchlar kuyar.*

*Tushlaring o‘nglana boshlaydi,*
*ko‘cha boshlar fojia o‘ngga.*
*Ibodat so‘nglana boshlaydi,*
*nahot endi bu ko‘ngil o‘nggan?*

*Qalandar yo‘q alishtirgani*
*yangisiga ko‘hna tushingni*
*va ijozat yo‘qdir kirgani*

*endi tushlaringga – nomahram.*
*Seniki emasman, tushungin,*
*na Majnunman va na bir Bahrom.(1.29-bet, Izlam,2023)*

Ushbu she’rni o‘qir ekanmiz yozuvchi Nazar Eshonqulning ushbu fikrlarini yozimizga tushadi: “Faxriyor she’rlari tasavvurga zavq beradi, tasavvurni lazzatlantiradi. Kundalik tuyg‘u-kechinmalarimiz, o‘y-xayollarimiz, kundalik tashvishlarimiz o‘zimizdan kattalashib borayotgan bizni bu she’rlar bir zum bo‘lsa-da, moddiylik changalidan xalos qiladi, tasavvur dunyosiga olib chiqadi” (4.Yuqoridagi suhbat). Satrlarni o‘qiganimiz sayin ko‘z oldimizda tasavvurimiz jonlanadi: Muhabbatga oshno ikki qalb tushlarida visolga yetadi. Tushda hamma narsa bo‘lishi mumkin. Oshiqlar tushlarida fojialarga gohida hijronga duchor bo‘lishlari mumkin, gohida ajralishlari. Oshiqning yori esa tushida ayriliqni ko‘rgan,

endi bu tushni na almashtirish na issiq-sovuq va na tushning oʻngga aylanishiga qarshi chiqish mumkin. Hamma urinish befoyda, chunki ayriliq endi tushda emas oʻngda paydo boʻldi. Ushbu fojia oʻngda sodir boʻlyapti. Endi hammasi bekor, endi yorning tushiga kirishga ham ijozat yoʻq. Endi u birovning mulki, birovning yori. Unda Majnun kabi oʻzidan kechishga imkon, Bahrom kabi shohlik mavqeyi yoʻq. Endi uniki emas, shuning uchun lirik qahramon tushda ham u bilan endi koʻrisholmaydi. U oʻziga or-nomusiga tushda ham xiyonat qilolmaydi. Yor u uchun – nomahram, hattoki tushida ham.

*Seniki emaslik shoʻrishi*
*singib borar suyaklarimga*
*zirqirab, sirqirab. Yoz-qishin.*
*Armon – butun, koʻngil – yarimta.*

*Oʻqimadim, etmadim xatm,*
*men koʻnglimni tugatdim tigʻlab.*
*Tugamaydi manglayning xati,*
*peshonani tirnaydi mixlar.*
*Unda na yurak, na muhabbat,*
*na tushlaring ijobati bor.*
*Hushlar qayda qoldi, Rabbano?*

*Koʻngil tugar, sen tugamaysan,*
*xor vujudda buyuk bir zorlik:*
*osmonlarni qoplaydi, yoysam... (1.30- bet, Izlam,2023)*

Ishq va muhabbat hech qachon soʻnmaydi, u tugamaydi. Siz bilan yuqorida koʻrib chiqqan she'rimizda lirik qahramon yoriga endi unga tegishli emasligini takror-takror aytdi, ammo endi u qiynoqlar ostida qoldi. Yordan kechganiga ilojsizligiga xuddi koʻnglini mixlar bilan ilma-teshik qilgandek, taqdir ham uning peshonasiga bir kichik muhabbatini sigʻdirolmadi. Mixlar bilan adoyi tamom boʻlgan koʻngil batamom tugamoqda. Ammo muhabbat esa oʻchmaydi. U qoladi, abadiy qoladi. Koʻngil esa dardlar toʻkilib boʻldi faqat ishqgina qoldi, endi oshiq faqat ishqi bor devonaga Majnunga aylanishi aniq, chunki u oliy maqomdagi ishq sohibi boʻldi. Rumiy bobomiz aytganidek, "Faqat yurakdagina eng baland samoviy yuksaklikka koʻtarilish mumkin". (4)

Muhabbatni kuylash uni xotirlash insonga oʻzgacha his tuygʻu baxsh etadi. Faxriyor she'rlarida aynan ishqqa muhabbatga yetisholmagan oshiq koʻngilning jasoratlari goʻzal tasvirlarda jonlanadi, xuddi shunaqa tasvirlarni koʻrishda davom etamiz.

*Ko‘ngil yamog‘iga mato bo‘lmagan,*
*umid farzlariga bo‘lmagan chega,*
*ming bir gunoh bo‘lgan, xato bo‘lmagan*
*muhabbatimmidi, parizod? Nega*

*o‘sha gunohlarning sochingdan uzun,*
*qarshimga so‘qmoqlar bo‘lib chuvalgan*
*uzluksiz azobi kun bermaydi, kun?*
*Uchib boray desam, qanotlar tolgan.*

*O‘ljaga chang solgan och yo‘lbarsdayin*
*haris, sensizlangan, yovuz bir sog‘inch*
*nimtalar bag‘rimni tun va kun sayin.*

*Qayon qochmog‘imni bilmayman, yo‘lim*
*chuvalib yotadi, yurmas oyog‘im.*
*Chigilni yechmoqqa bormaydi qo‘lim... (1.37-bet, Izlam,2023)*

Ko‘ngilning muhabbat va muhabbatsizlikdan azob chekishi ortidan u zararlanadi, endi uni “yamamoq” kerak. Ammo uni yamash uchun muhabbat kerak. Umid darz ketgan muhabbat bo‘lmasa umidsizlik avj olishi mumkin. Lekin muhabbat bor edi-ku, uni to‘ldira olardi, u gunoh bo‘lishi mumkin edi, biroq xato bo‘lmasdi. Nima uchun endi muhabbat yo‘q, demoqda oshiq ma’shuqasiga yolvorib, sog‘inch oshiqni azoblar ekan uning oyog‘ida gunohlar o‘ralib chuvalashib qolgan. Shu sababli sevgi tomon borish mushkul. Gunohlar ustidan xatlab o‘tishi mumkin ammo yana bunday gunoh qilish uchun qo‘li bormaydi. Ma’shuqasini azoblashga qo‘li bormaydi, azoblashni xohlamaydi, hattoki o‘zi azoblansa ham. Bir o‘xshatishni e’tibordan chetda qoldirmasligimiz kerakki, bu – sog‘inch. U xuddi o‘ljaga chang solgan och yo‘lbarsga, yovuzga o‘xshatilar ekan, uning qanday his-tuyg‘u ekanligini anglamasdan o‘tib ketolmaymiz.

Muhabbat ishq hammasi ko‘ngil ishi, lekin inson doim ham ko‘ngil bilan tillasha olmaydi. Hayot doim ham bizni ko‘nglimizdagi ishni bajarishimizga yo‘l qo‘ymaydi. Ikki o‘rtada esa inson qalb og‘riqlariga qiyinchiliklarga ko‘z yoshlarga baxtsizlikka va muhabbatsizlikka qarab boradi.

*Hayot boshqa, ko‘ngil boshqadir,*
*menman talosh bo‘lgan o‘rtada.*
*Hayot– boshga, ko‘ngil – yoshgadir,*
*bilmam, qaysi ko‘proq o‘rtadi?*

*Parvardigor, baxtga yo‘q chora,*
*baxt ko‘nglingga qaramas ekan.*
*Oqarar soch, ko‘ngil qorayar,*
*ko‘ngil baxtga yaramas ekan.*

*Ishq ham tushday olislab borar,*
*yengib bo‘lmas vaqt masofasin,*
*garchi hijrat – bir kunlik ora.*

*Xotiralar yenga boshlaydi...*
*Gir tevarak – rangsiz bir fasl,*
*ko‘zdagi yoshlarni toshlaydi.(1.39-bet, Izlam,2023)*

Vaqt tushunchasi shoir she’rlarida shunchaki go‘zal ifodalangan masalan, “oqarar soch – ko‘ngil qorayar” oq va qora so‘zlarini bir-biriga ko‘ngil va soch tushunchalarini vaqtga doir mazmunni ifodalaydi. Chunki umr o‘tar ekan insonning sochlariga oq tushadi. Vaqt o‘tar ekan pok ko‘ngilda dog‘lar, gunohlar tufayli qarolik paydo bo‘ladi, oxirgi satrga e’tiborimizni qaratganda esa inson qalbi, yoshi ham tosh kabi o‘tkirlashib qattiqlashib borishini tushuntiradi. Endi qalb qoraygan undan samimiy ko‘zyosh oqmaydi. Bunda ham haqiqatni ko‘ramiz, chunki yoshimiz o‘tar ekan kam yig‘laymiz, diydamiz qotadi. Har narsaga ta’sirlanmaymiz, har narsaga hayajonlanavermaymiz, bu ko‘zyoshlarning toshlanishi bo‘lmay nima?

**Xulosa.** Shu o‘rinda turkiyalik olim Hilmiy Yovuzning fikrlari bilan xulosa yasaymiz: “Asosiy masala bir she’rni bir emas, bir necha bora qiziqib o‘qish, birdan ziyod sharh va tafsirga imkon bera olishidadir. Agar she’r o‘qiganingizda bir gazeta xabari kabi birgina ma’no chiqarish bilan to‘xtasangiz va u boshqalarga ham aynan shu ma’noni anglatsa, bilingki, u she’r emasdir”.(5) Xuddi Faxriyor she’rlari kabi qayta-qayta o‘qishga majbur qiladigan, siz-u bizni mustaqil fikrlashga ongimizda yangi tushunchalar yaratishga imkon bera oladigan she’r bo‘lsagina uni bu nomga loyiq deya olamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Izlam (Matn) / Faxriyor. –Toshkent: Akademnashr NMM, 2023. –448 b.
2. Nazar Eshonqul. “Izlash azobining totlari...”, 1. Izlam (Matn) / Faxriyor. –Toshkent: Akademnashr NMM, 2023. –448 B
3. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. – 464 б.
4. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/chexov-kozoynagidan-voz-kechib-shoir-faxriyor-bilan-suhbat.html

5. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/chexov-kozoynagidan-voz-kechib-shoir-faxriyor-bilan-suhbat.html

# ANVAR OBIDJONNING “MO‘TTIVOYMISAN, MITTIVOYMISAN?” QISSASI BADIIY XUSUSIYATLARI

***Abdullayeva Sevinch O‘mirbek qizi***

*ToshDO‘TAU, O‘FF, 3-kurs talabasi*

*abdullaevasevinc164@gmail.com*
*+998918700208*

*Ilmiy rahbar: Ruxsora To‘laboyeva*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada o‘zbek bolalar adabiyotining yirik vakili Anvar Obidjon qalamiga mansub “Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan?” qissasining badiiy xususiyatlari, kompozitsiyasi, syujeti, g‘oyasi va tarbiyaviy ahamiyati haqida so‘z borgan va tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *obraz, xarakter, evrilish, tip, detal, ruhiyat.*

***Annotation.*** *In this article, the literary features, composition, plot, idea and educational significance of the short story “Are you Mottivoy and Mittivoy?” by Anvar Obidjan, a major representative of Uzbek children’s literature, are analyzed.*

***Keywords:*** *image, character, metamorphosis, type, detail, morale.*

Bolalar adabiyoti deyilganda, avvalo, ko‘z oldimizda samimiy, beg‘ubor, orzu-istaklarga to‘lib toshgan, borliqni yorqin bo‘yoqlarda tasavvur eta oladigan bolalik gavdalanadi. Bolalik ajoyibotlari tasvirlangan bunday adabiyotlarda sof, samimiy mehr-muhabbat ufurib turadi. Bola obrazi barcha davrda ham ahamiyatli bo‘lib kelgan. Bu yo‘nalishda yaratilgan asarlar ham o‘z muxlislarini topib ulgurgan. O‘zbek bolalar adabiyotida Abdulla Avloniy, Hamza, G‘ulom Zafariy, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Ilyos Muslim, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Po‘lat Mo‘min, Hakim Nazir singari shoir va yozuvchilar ancha barakali ijod qilishgan. Ularning o‘zbek bolalar adabiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi tahsinga sazovordir. Yuqoridagi qatorni yana uzoq davom ettirishimiz mumkin. Chunki bola obrazi, qalbi, ruhiyati kabilarni o‘zining dunyosiga aylantirishga ulgurgan iste’dodli yozuvchi va shoirlarimiz ancha. Shunday serqirra ijodkorlardan biri, shubhasiz, Anvar Obidjondir. Anvar Obidjon kichkintoylar dunyosining haqiqiy shaydosi, ardoqlovchisi hisoblanadi. Yurtimizda shoirning she’rlari, hikoyalari, ertak-qissalari bilan tanishmagan bola deyarli uchramasa kerak. Asarlaridagi samimiylik, yengillik,

so‘zga chechanlik, hazil-mutoyibaga moyillik sababli shoir allaqachon bolalarning sevimli ijodkoriga aylanib ulgurgan. Anvar Obidjon qissa janrida ham go‘zal asarlar yaratgan. Jumladan, “Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan?”, “Oddiy ayriliq haqida ertak”, “Ajinasi bor yo‘llar”, “Oltin yurakli avtobola”, “Kezargon Boychechak” kabi qissalari ma’lum. Shulardan biri “Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan?” qissasi haqida so‘z yuritamiz.

Avvalo, bu janr xususida to‘xtalib o‘tsak: Qissa – arabcha hikoyat, afsona, sarguzasht so‘zidan olingan bo‘lib, inson hayotining ma’lum bir davriga oid voqelikni aks ettirib beruvchi o‘rta hajmli nasriy asar hisoblanadi. Ushbu qissa ham bizga sarguzasht axtarishdan, sho‘xliklar qilishdan aslo charchamaydigan bola haqida so‘zlaydi. Muallifning o‘zi ham ta’kidlaganidek, quvnoqlik va jiddiylik qorishmasidan iborat bo‘lgan bu asarda ajabtovur bir tasodif tufayli chigal ahvolga tushib qolgan va atrofdagi samimiy, insofli, pokizaqo‘l insonlar ta’siri bois o‘smirlikdanoq o‘zi uchun yorug‘ yo‘l topib olishga tirisha boshlagan yosh qahramonimiz – Mo‘ttivoyning kechinmalari haqida hikoya qiladi. Qissa kompozitsion jihatdan o‘z tarkibida bir qancha qismlarni birlashtiradi. Katta-kichik bu qismlar bir-biriga bog‘lanib, fikr ketma-ketligini saqlab qolgan. Mazmunan bu qismlar hech bir uzilishlarsiz davom etgan. Asar bolaning tilidan so‘zlangan. “Yasama yo‘lbars hangomasi” qismi bilan boshlanuvchi voqealarni o‘qir ekanmiz, qahramonimizning nihoyatda sho‘x, quv, yerga ursa ko‘kka sapchiydigan bolalarning tipik vakili ekaniga guvoh bo‘lamiz. Mo‘ttivoy qancha tirishsa-da, bu sho‘xliklarini to‘xtatolmaydi va shu navbatda, bundan huzur oladi. Chunki uning kunlariga yagona mazmun bag‘ishlab turgan narsa, albatta, turli-tuman qiliqlari edi-da! Kamiga endigina yozgi ta’tilga chiqqan bola bu yog‘iga yana ham zo‘r berib sarguzasht axtargisi keladi.

Qahramonimiz har bir kunini “jiddiy rejalar” bilan boshlash haqida samimiy bosh qotiradi: “Xo‘sh, bugungi kunimga qanaqa qiliqlar yarasharkin?”. So‘ng tavakkal qilib: “Ta’bimga shundoqqina mos tushuvchi biror-bir yumushni har safargidek ko‘chaning o‘zi topib beraveradi”, - deya yangi sarguzashtlari tomon otlanadi. Bola xulq-atvorining sal mujmal ekanini o‘zi ham tan oladi va sho‘xliklaridan uyalgandek bo‘ladi, ammo yana bolaligiga borib, shumtakalikni davom ettiradi. O‘zining tili bilan aytganda, “tuzi pastroq qiliqlar” qilishida atrofidagilarning ham sababchi bo‘lishi-yu, oxir-oqibatda, bitta o‘zining baloga qolishini ham qistirib o‘tadi. Natijada, tandirchiga qilgan sho‘xligi orqasidan yaxshigina ta’zirini yeydi. Chunki tandirchi bolani yarim it, yarim bola bo‘lib qolgin deb, qarg‘aydi. Qarabsizki, qahramonimiz hayotida yana yangi bir sarguzasht shu bilan boshlanib ketadi va qiziqarli tus oladi. Bolaning itga evrilib qolganiga kitobxon, ayniqsa, jajji kitobxon samimiy ishonadi. Hatto bolaning o‘zi ham qarg‘ishning kuchini shunday tan oladi:

“Bu dunyoda kulfat koʻrmayin desang, qargʻishmas, duo eshitishga urinib yashagin. Avliyolarning aytishicha, Tangri har qanday odamga karam koʻrsatib, yurakdan chiqarib qilgan iltijosini, u duomi, qargʻishmi, hech boʻlmasa, hayotda bir marta yuzaga chiqararkan”, - degandi buvim”.

Shu oʻrinda buvi obraziga ham toʻxtalib oʻtish joiz. Bola buvisiga juda bogʻlangan, chunki u ota-ona mehridan judo. Onasi vafot etgan, otasi esa konda ishlagani sababli uch yoki toʻrt haftada bir kelib xabar olib ketadi. Bola esa otasi va onasining devordagi rasmiga ichikib-ichikib tikiladi. Shu sababdan ham buvi va nevara bir-birisiz turolmaydilar. Lekin shoʻxliklarining oshib borayotgani uchun buvisidan yaxshigina tanbehlar ham eshitib turadi. Garchi buvisi bolani urishishga majbur boʻlsa-da, ayab tanbeh beradi. Hatto qargʻayotganida ham soʻzlayotgan soʻziga ehtiyot boʻladi. “He, yeganing tanangga botgur-a!”, “Qachon esing kiradi, oshing sovimagur?”, “…doning koʻpaygur” tarzida ijobiy tanbeh beradi. Azaldan oʻzbek xalqi soʻz soʻzlashga, uning nozik ma’nolariga ahamiyat berib kelgan. Chunki aytilgan soʻz otilgan oʻqligi, yomon gapga ham, yaxshi gapga ham farishtalar omin deyishi kabi hikmatlar dunyoqarashimizni, qadriyatlarimizni oʻzida aks ettirib kelgan. Asarni oʻqir ekanmiz, ayniqsa, ota-onadan tinglangan nasihatlarni esga olish holatlari koʻp uchraydi: “…Onam rahmatli bizga uqtirgan bir gapni sengayam aytib qoʻyay, qoʻshnidan uchta narsani soʻrash uyat boʻlarkan: birinchisi – tuz, ikkinchisi – gugurt, uchinchisi – igna. Shularni doim keragidan ortiq gʻamlab qoʻyishni oʻrgandim”.

Bolaning itga evrilib qolishiga keladigan boʻlsak, avvalo, badiiy asarda evrilish (metamorfoza) tushunchasiga oydinlik kiritib oʻtish lozim. Evrilmoq – biror bir narsaga aylanmoq, oʻgirilmoq. Metamorfoza badiiy asar syujetining qurilishini tashkil qiluvchi shakllardan biri hisoblanadi. Metamorfozaga uchragan qahramon ma’lum darajada ma’nan yuksaladi. Bu borada M.Baxtin shunday deydi: “Metamorfoza negizida inson hayoti, unga xos inqiroz pallalari, burilish nuqtalarini tasvirlash tipi barpo etiladi: odam qanday oʻzgaradi. Bir odam hayotining turli bosqichlariga xos nisbatan va tubdan farq qiluvchi obrazlari tasvir etiladi. Bu yerda tom ma’noda barpo boʻlish emas, balki inqiroz va undan keyingi qayta shakllanish bor”. Qissada Moʻttivoyning itga aylanib qolishi negizida ham shu qonuniyat borligi koʻrinib turibdi. Chunki tinib-tinchimas xarakteri va shu bilan birga, qaltis harakatlari, shoʻxliklari natijasida uning yon-atrofdagilari, qoʻshnilari, uy hayvonlari turli darajada zarar koʻradi. Bola esa bunday hodisalarning oxiri doimo ham yaxshilik bilan tugamasligi farqiga hali borib ulgurmadi. Itga aylangach esa oldin anglab yetmagan haqiqatlarni anglaydi, boshqalarga, shu jumladan, oʻzi doimo ozor berib keladigan hayvonlarga ham hayot kechirish oson emasligini tushunib

yetadi. Ma’lum darajada uning turmush borasidagi o‘ylari ancha yuqorilaydi. O‘zini taftish qilishga, xulqini o‘nglashga erishadi.

Shu o‘rinda bolaning ijobiy fazilatlarini ham aytish darkordir. Ancha sho‘x, bir shoxda turmaydigan quv bo‘lishiga qaramasdan, Mo‘ttivoy uy-ro‘zg‘or ishlariga ancha qo‘li kelishib qolgan, dastyor bola edi. Idishlarni doimo o‘zi yuvadi, qo‘ylarga yem beradi, tomorqada ozmi-ko‘pmi ishlab buvisiga yordam beradi. Topqirligi, gapga chechanligi o‘quvchini hayratda qoldiradi. Qissani o‘qish mobaynida qahramon xarakteri xuddi G‘afur G‘ulomning “Shum bola”sini beixtiyor yodga soladi. Mo‘ttivoy ham shum bola singari vaziyatga mos maqol keltirishga ancha usta: “Qilar ishni qilgin, qochishniyam bilgin”, “G‘o‘rga qo‘shilgan – g‘o‘r, zo‘rga qo‘shilgan – zo‘r”, “Tushunarsiz yangiga ergashgandan ko‘ra tushunarli eskini pishitgan yaxshi”.

Bola itga aylangani holda, hayvonlarning tilini tushunishi va ular bilan suhbatlashishi o‘zgacha maroq bilan o‘qiladi. Yangi qo‘yilgan Mittivoy ismi avvalgi ismiga o‘xshashligidan ham quvonadi. Ya’ni bola holatiga qaytganda – Mo‘ttivoy, itga aylanib qolsa, Mittivoyligicha yuradi. “Chapchap luqum” qismida it holida mushuk bilan qilgan suhbati ham e’tiborlidir. Bir qarashda oddiy hayvonot vakilining holatiga o‘xshab ko‘rinsa-da, aslida, birorta tirik jonga oson emasligi, jonli mavjudot bor ekanki, yashash uchun kurashishi yanada oydinlashadi. Bekordan bekorga egasi tomonidan quvlangan mushuk Mittivoyning savollariga javob berar ekan, shunday deydi: “…o‘zim-ku bir kunimni ko‘rib ketarman, bolalarimniyam haydab yuborsa, qayoqqa bosh uradi boyoqishlar”; “Sutdan chiqishgan. Lekin ularni sira ko‘zim qiymaydi, endi o‘zlaringni eplayveringlar, deyishga tilim bormayapti”. Qorabeka laqabli mushuk tomonidan aytilgan bu so‘zlar nafaqat jonzotlar va ularning zurriyotlari uchun, balki insoniyat va avlodlar uchun ham birdek ahamiyatli mavzu hisoblanadi. Ota-onalar, garchi o‘z farzandlari voyaga yetib, mustaqil hayot qurish ostonasida turishgan bo‘lsalar-da, ularni avaylab, kamchiliklarini, turmush borasida tajribasizliklarini hisobga olib, hamisha jigarbandlarini qanotlari ostida goh pinhona, goh oshkora asrab kelishlari bunga yaqqol misoldir.

It holidan yana bola holiga ko‘chgan Mo‘ttivoy bir gal o‘rtog‘i Parpivoynikiga kelganida uning kompyuterga qadalib olib, nuqul aniq fanlardan masala yechib o‘tirganini ko‘rganida: “Hech bo‘lmasa, kitob varaqlab, Go‘ro‘g‘linimi, Kuntug‘mishnimi, pichir-pichirlab o‘qib yotmaysanmi, nodon?!” – deydi. Shu joyda quyidagi fikrlar o‘rinlidir: “Badiiy asar tarkibida keladigan kitoblar muayyan vazifa bajaradi; asardagi obrazlarga bog‘lanib, ularning bilim darajasi va dunyoqarashini ko‘rsatadi” (Bahodir Karim, 2023, 157-bet). Haqiqatan ham, xalq og‘zaki ijodining nodir namunalari bo‘lgan Go‘ro‘g‘li, Kuntug‘mishlar nomining qahramonimiz

tilidan aytilishi uning dunyoqarashi, qiziqishlarini kitobxonga ochib beradi. Chunki, Mo‘ttivoy kamonchilikka alohida mehr qo‘ygan. Bundan tashqari, uning fe’l-atvoridagi sarguzashttalablik, hayiqmaslik, jasorat kabilar ajdodlarimizga xos xususiyatlardandir.

Yuqorida G‘.G‘ulomning “Shum bola” qissasini bir esga olib o‘tgandik. A.Obidjon bu qissasining “Bir o‘limdan qolgan oshpaz” qismida keltirgan Mo‘ttivoyning Aldar Xoldor laqabli obraz bilan bo‘lgan suhbati beixtiyor ko‘z oldimizda shum bola va Sariboy o‘rtasida kechgan “innaykeyin” mojarosini gavdalantiradi. Bola dalada yashirinib turgan G‘ulom oshpazni Aldar Xoldordek past kimsaning changalidan asrab qolish uchun ketma-ket yolg‘onlarni bir-biriga mohirona ulab, Aldar Xoldorni mot qiladi. Bu bilan G‘ulom oshpaz va tog‘asi Otaqulning tahsiniga sazovor bo‘ladi. Qissada G‘ulom oshpaz obrazi ham ancha dono qilib tasvirlangan. Uning bu fazilatini Otaqul bilan bo‘lgan suhbatda ko‘ramiz. Mo‘ttivoy tili bilan aytganda, G‘ulom oshpaz birdan “qo‘bizsiz baxshi”ga aylanadi. Barcha millatlarning kuchli tomonini birin-ketin sanab ketadi. Gap o‘zbek millatiga kelganda u shunday deydi: “…To‘g‘ri, o‘zbek qirq hunarning qirida yuradi. Ammo-lekin, yerchilikda biznikilarga aql o‘rgatadiganni menga ko‘rsat-chi!”. Darhaqiqat, xalqimiz qadimdan dehqonchilik, chorvachilik bilan umrguzaronlik qilib kelgan. Ayniqsa, yerga mehr berishda, u bilan tillashishda bizga teng keladiganini topish ancha mushkuldir.

Qissada qo‘llanilgan ismlarga ham ahamiyat berish lozim. Har bir ism zamirida shu obrazning xarakter xususiyati yotadi. Jumladan, Rahimboy obrazi – Otaqulning sodiq do‘sti. Otaqul yordamga muhtoj paytda unga ish bergan, qo‘llab-quvvatlagan. Rahm-shafqatli, o‘ziga to‘q, halol fermer; Aldar Xoldor – nihoyatda pastkash, insonlarni chuv tushiruvchi, aldov yo‘li bilan kun kechiruvchi, mol-dunyoga berilgan obraz; Momogul – 35 yoshlardagi qandolatchi. Shu yoshigacha turmush qurmagani bois uni qariqiz deyishadi. Nihoyatda oqko‘ngil, bolajon ayolligi uchun Mo‘ttivoyning mehrini qozongan obraz. Qolgan boshqa obrazlarda ham shunday tarzda ismlar qo‘llanilgan.

Shunday qilib, Mo‘ttivoy qarg‘ish sababli, goh bolaga aylanib, goh itga aylanib turli-tuman sarguzashtlarni boshdan kechiradi, yomonlarni adabini beradi, yordamga muhtojlarga yordam qo‘lini cho‘zadi. Mo‘saqo‘zi ismli ishchining cho‘kayotgan qizchasini it holatida qutqaradi va maqtovlarni eshita turib, ichidan shunday hislar kechadi: “Jasoratmish! Birovning cho‘kayotganini ko‘rsa, kim chetda tomoshabinlanib tura olarkan? Qutqarishga urinish – oddiydan oddiy bir ish-ku!”. Bolaning bu kechinmalari ifodasini o‘qir ekanmiz, naqadar beg‘uborligi,

qilgan ishi bilan maqtanmasligining guvohi bo‘lamiz. Aslida, u faxrlansa arziydigan jasorat ko‘rsatadi.

Nihoyat, kitobxon orziqib kutgan hodisa ham ro‘y beradi, ya’ni qizini katta falokatdan omon qolishiga sababchi bo‘lgan itga qarata Mo‘saqo‘zi: “…Qaniydi, Xudo saxovat ko‘rsatib, seni umrbod odamga aylantirib qo‘ysa-yu, og‘a-ini tutinib, borimni o‘rtaga to‘kib tashlasam!”- deya olqish aytadi. Qarabsizki, Mittivoy qarg‘ishdan butkul xalos bo‘lib, Mo‘ttivoyga aylanadi. “Bilib-bilmay, yana chatoqroq bir betamizlik qipqo‘yib, butkul itga aylanib qolishim ham mumkinligidan bezillabmi, shu o‘n kun ichida fe’l-xo‘yim o‘z-o‘zidan o‘zgaraverdi. …Buning sayin, borliqni sevib-ardoqlashga, undagi barcha mavjudotni birdek qadrlashga, qisqa umr ichida o‘zgalarga imkon qadar ko‘proq yaxshilik qilib qolishga ko‘nglimda ishtiyoq to‘fonlana borib, naq o‘n yoshga ulg‘aygandek bo‘ldim”, - deydi. Asar rivojida ham, so‘nggida ham bolaning chuqur mulohazali gaplari kishini o‘yga toldiradi. Muallif u orqali hayot borasidagi xulosalarini bayon etadi. “Odamligimdagi qarg‘ish tufayli itga evrilgan bo‘lsam, itligimda qilingan duo meni odamlikka qaytardi”, - jumlasi nihoyatda chuqur mulohaza hisoblanadi. Qissa oxirida dadasi butunlay uyga qaytadi, ishga joylashadi, bolaning sevimli insoni bo‘lmish Momogul qandolatchiga uylanadi. Mo‘ttivoy singilli bo‘ladi. Muallif qissada tilga olingan hech bir obrazni e’tibordan chetda qoldirmaydi. Qissadagi har bir detal muhimdir. Asar davomida ularga ma’lum vazifa yuklatish amalga oshganidan so‘ng barcha-barchasi o‘z niyatlariga yetadilar.

Asar bola tarbiyasi, u tarbiyalanayotgan muhit, bolaning ruhiyati naqadar muhimligini, mehnatsevarlik, to‘g‘riso‘zlik, halollik kabi fazilatlar nechog‘lik ulkan va kerakli ekanini yana bir bor eslatadi. Mutolaa qila turib, hayrat tuyg‘usini yo‘qotayotgan inson ham qah-qah otib kuladi, zavq-shavqqa to‘lib-toshadi. “Bolalar o‘rtasida qaysiki yozuvchi mashhur bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha yozuvchi ijodi kulgiga, kulgili holatga, chiroyli so‘z o‘yinlariga boy ekanini kuzatamiz. Chunki bolalik kulgiga, kulgili holatlarga boy bir palladir” (R.To‘laboyeva, 2019, 118-bet). Biz ham qissa davomida bolaning harakatlarini maroq bilan kuzatamiz, kulamiz. Bundan tashqari, Anvar Obidjon – shoir. Shu bois, qissada she’riy parchalar ham uchraydi. Bu parchalardagi yumoristik ohang kitobxon kayfiyatiga ijobiy ta’sir etadi, albatta. Umuman, A.Obidjon beg‘ubor bolalikning betakror pallalarini yorqin ranglarda tasvirlaydi. Ijodida optimizm yuqori. Istaysizmi-yo‘qmi, go‘yo vaqt mashinasida ortga qaytib, o‘zingizni bola holida topasiz. Muallif samimiyatni yuqori o‘ringa qo‘yadi: “Ijoddagi samimiyat – o‘z qurbing darajasidan balandroqqa sakrashga chiranmaslikda, o‘zingda yo‘q narsani bordek ko‘rsatishga urinmaslikda namoyon bo‘ladi, chamasi”, - deydi yozuvchi. Samimiylik eng latif fazilatlardan biridir. Ijodkor asarlaridagi samimiylik ham bu uning eng katta yutug‘idir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jamilova B. *O‘zbek bolalar adabiyoti.* – T.: Innovatsiya-Ziyo. 2020. – B. 97.
2. Karimov B. *G‘afur G‘ulomning “Shum bola”si.* – T.: Samo Nashr. 2023. – B. 157.
3. Тулабаева Р. *Худойберди Тухтабоев романларида бадиий психологизм.* – Т. 2019. – Б. 118.
4. Anvar Obidjon, Orif Tolib. *Bolalarga yaxshilik qilishdan ortiq saodat yo‘q.* – Yoshlik. 2017. 1-son. – B. 13.

## “MOMO YER QO‘SHIG‘I” QISSASINING BADIIY TAHLILI

*Xojiyeva Laylo Zokirjon qizi*
*Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti “O‘zbek tili ta’limi” fakulteti, 3-kurs*
*irodaxojiyeva@mail.ru*
*Tel.: +99893 602 16 52*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yozuvchi Tog‘ay Murodning “Momo yer qo‘shig‘i” nomli qissasi badiiy tahlil etilgan. Qissaning umumiy g‘oyasi tahlil qilinishi bilan birga obrazlarning ichki kechinmalari va ular bilan bog‘liq holatlar haqida ham fikrlar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ona zamin, muqaddas tuyg‘ular, buyuk qo‘shiq.

Bilamizki, har bir yurt o‘z farzandlariga qadimdan e’zozlanib, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan an’ana va qadryatlarini meros qoldiradi. Ana shunday qadriyatlardan biri bu – o‘zi tug‘ilib o‘sgan maskanni muqaddas bilish, asrash, uning rivojiga hissa qo‘shishdir. Zero, inson uchun o‘zi dunyoga kelgan makon eng xotirjam, eng aziz maskan sanaladi.

Xuddi shunday milliy va ma’naviy g‘oyalarni kerakli zamon va davrda qalamga olib, chuqur yorita olgan adiblardan biri Tog‘ay Muroddir. “Tog‘ay Murodni, avvalambor, davrning ijtimoiy masalalari, insonning axloqiy qiyofasi, mehnatga, insonlarga bo‘lgan munosabati tashvishga soladi. Burch, majburiyat, mehnatkashlik, jasorat, haqqoniylik, samimiylik, mehribonlik – shular yozuvchi badiiy so‘z orqali ifoda etgan insoniy xislatlardir”. [2.3]

Yozuvchi har bir yaratgan asarida yuqorida tilga olingan xislatlarni ulug‘lar ekan, eng birinchi navbatda o‘sha davr mafkurasiga tushib

qolgan va ana shu nuqtayi nazar bilan fikrlovchi odamlar qiyofasini obrazlarda gavdalantiradi. “1985- yili bitilgan “Momo yer qo‘shig‘i” qissasi o‘z g‘oyasi, adabiy yo‘nalishi bilan yozuvchining o‘zga qissalaridan ajralib turadi. Asarda milliy zamindan oyog‘i uzilgan, Vatan tuprog‘ida yashab, yuragida yurt tuyg‘usi bo‘lmagan 80-yillar mafkura qurbonlari «qahramonlari» obrazlari G‘arb adabiyoti sig‘indi bandasi bo‘lib qolgan ijodkor misolida o‘zbekona kinoya bilan tasvir etiladi”. [3.5]

Avvalo, asarning “Momo yer qo‘shig‘i” deb nomlanishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bevosita ko‘z oldimizga Ona siymosi keladi. Zotan, har bir millatning bolalari go‘daklik chog‘idan o‘z yurtiga bo‘lgan chuqur hurmat va qalban bog‘lanishni o‘z Ona tilisida aytilgan qo‘shiq – Alla orqali his qiladi. Bu oddiy qo‘shiq emas, Ona zaminning sokin va mayin ohangi. Bu ohanglarda muqaddaslik, ulug‘vorlik mujassam. Vatan, Ona Vatan tushunchalari inson yuragida buyuk tuyg‘uga aylanishi mana shu jozibador qo‘shiq orqalidir.

Asarda 70-80-yillarda turli mafkuraviy qarashlar sabab ularning qurboniga aylangan odamlar obrazi yaxlit Tursun (Daho) obrazi orqali ochib berilar ekan, oilaning muqaddas va aziz, Vataning esa bebaho ekanligini unutgan, bu tushunchalarni qoloqlik, zamondan orqada qolgan, deb bilgan davr va mafkura “qurbonlari” va o‘zlarining tobora chuqurlikka botib borayotganini o‘ylashni ham istamaydigan kishilar obrazi tasvirlangan. Tursun, avvalo, bir oilaning jondan ortiq ko‘radigan hamda suyanch va tayanch, deb hisoblanadigan o‘g‘li. Lekin u o‘zidagi bu mas’uliyatni mutlaqo his qilmaydi. Qishloqdan, qishloqdagi oilasidan, ota-onasi, xotini va bolalari – hamma-hammasidan, hatto o‘z ismidan ham uyaladigan, Daho nomi bilan chaqirishlarini xush ko‘ruvchi qahramon sanaladi. [1.4]

Tursunga ota-onasi, xotini, ularning ahvoli, xatti-harakati, yashash tarzi borgan sari yoqmaydi, ularga jirkanish nazari bilan muomila qiladi. Hatto ahvol shu darajaga yetib boradiki, Tursun butun boshli tug‘ilgan qishlog‘idan, sharoiti, odamlaridan jirkana boshlaydi. U o‘zi uchun bunday yerda yashashni, bunday oila, bunday ota-onani haqoratdek qabul qiladi. O‘zga mamlakat shoirlari-yu yozuvchilariga taqlid qilib yuradigan Tursun oxiri boshi devorga borib urilganda, ya’ni shuncha yil u orzu qilib yurgan va unga ana shunday martabali va dabdabali hayotni va’da qilganlarning barchasi “puch yong‘oq” ekanligini anglaydi. Lekin endi kech edi. U bir vaqtlar voz kechgan va

jirkangan zamin uni ham bag‘riga qabul qilishni istamaydi. Tursun borliq va yo‘liq o‘rtasida arosatda qolib ketadi. Na bir umr oilasidan Vatanidan voz kechib erishmoqchi bo‘lgan orzulari amalga oshadi, na qaytib borib o‘z Vatanida qo‘nim topishga imkoni bo‘ladi. Ana shunday holatda bir vaqtlar uni erkalab o‘stirgan, qulog‘iga ilk ohanglari bilan qalbidan o‘rin egallagan Ona tuprog‘i ham xuddi o‘zidek undan voz kechadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak. O‘sha davr mafkurasiga sig‘indi bo‘lgan juda ko‘plab insonlar aynan Tursun ahvoliga tushib qoladi. Bir umr ishongan g‘oyasi chilparchin bo‘libgina qolmay, bu g‘oya ortidan muqaddas tuyg‘ilarni oyoqosti qilgani uchun jazo ham olishadi.

Zero, Ona zamin har bir insonni o‘z Onasiday, eng buyuk, eng ulug‘ Onaday bag‘rida asrab-avaylab yuradi. Uning ham o‘z qo‘shig‘i, farzandlariga aytar o‘gitlari bor, bu o‘gitlarni esa muqaddas va aziz, deb bilish har bir insonning vazifasidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Tog‘ay Murod. Momo yer qo‘shig‘i. Toshkent: Sharq, 1994.
2. Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. Toshkent. 2010.
3. https://arboblar.uz/uz/people/tagaj-murad
4. https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/togay-murod-yurt-qoshigi-2.html


## MIRTEMIR SHE'RLARIDA XALQONA PAFOS


*Bahriddinova Gulsanam Zavqiddin qizi*

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti*

*O‘zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi*

*Bahriddinovagulsanam@gmail.com +998995440095*



**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o‘zbek she'riyatida o‘zining individual she'riy uslubiga, obrazli tafakkuriga, o‘z ovoziga ega bo‘lgan shoir Mirtemir lirikasida xalqonalikni yuzaga keltirgan iste’dod qirralari ochib beriladi. Tahlil va talqinlar shoir ijodida xalqona pafosni tasniflash yo‘li orqali amalga oshiriladi.*



**Kalit so‘zlar:** *she'riyat, xalqona pafos, poetik ohang, individual she'riy uslub, badiiy g‘oya, obrazli tafakkur, original o‘xshatish.*

**Abstract:** *In this article, the poet Mirtemir, who has his own poetic image, figurative thinking, and his own voice in Uzbek poetry, reveal the facets of talent that created nationalism in his lyrics. The study is analyzed by classifying nationalism in the work of the poet.*

**Keyword:** *poetry, folk pathos, poetictone, individual poeticstyle, artistic idea, figurative thinking, original simile.*

She’r – ko‘ngil mulki. Ko‘ngildan chiqayotgan ohorli tuyg‘ular ma’lum qoidalar asosida ritmik tashkillanib, hech kimnikiga o‘xshamagan harorat va o‘ziga xos ehtiros bilan yozilsagina o‘z she’rxoniga ega bo‘la oladigan she’rga aylanadi. Adabiyotshunos olim Bahodir Karimov ta’kidlaganidek: “She’r-tuyg‘u suvrati. Unda emotsiya, ramz, obraz, badiiy san’at bo‘lishi kerak; she'rda shoir subyekti, individual uslubi, “men”i, o‘z ovozi aks etishi lozim...”(Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. 2018. 86-bet) Darhaqiqat, shoir nazm koshonasida individual she’riy holat tasviriga, obrazli tafakkuriga, poetik unsurlariga egalik qilsa, uning yoziqlari chinakam adabiyot mulkiga aylana oladi. O‘zbek adabiyotida shoirlikning bunday talablariga javob bera oladigan o‘lmas so‘z san’atkorlari talaygina. Ana shunday o‘ktam shoirlardan biri bu XX asr she’riyatining ulkan vakili Mirtemirdir. Shoir ijodi o‘zining betakrorligi, halolligi, samimiyligi, fikrlar quyuqligi va hissiyotlarning ustuvorligi bilan o‘quvchilar mehrini qozonib kelmoqda. Mirtemir lirikasida har bir so‘z-o‘zbek xalqining turmush tarzidagi o‘ziga xoslikni ifodalovchi unsur sifatida muayyan millatning hayotinigina emas, uning ruhiyatini ham aks ettiruvchi ko‘zgu kabi namoyon bo‘ladi. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev ta’biri bilan aytganda: “O‘zbekka xos xususiyatlarni xalqona yo‘sinda ifodalay olish Mirtemir she’riyatining bosh belgisidir. Shoirning fikrlash tarzi ham, olamni obrazli idrok etish yo‘sini ham xalqona. Ifoda uslubi esa mirtemirona betakror”.(QozoqboyYo‘ldoshev. So‘z yolqini. 2018. 60-bet) Ma’lum ijodkorning ijodida ko‘zga tashlanadigan xalqona ruhiyatni yuzaga keltirgan iste'dod qirralarini quyidagicha tasnif etish mumkin: a) shoirning so‘z qo‘llash mahorati; b) misralarida xalq qo‘shiqlariga xos o‘ynoqilik, poetik ohang; c) nazm pallasida shoirning turli ijtimoiy toifa insonlariga aylana olish qobiliyati; d) xalqonalikni aks ettirgan hayotiy haqiqatlarning badiiy haqiqatga aylanishi. Shu asosda Mirtemir lirikasi tahlilga tortiladi. Har bir shoirning poetik olamini ko‘rsatib turadigan, poetik dunyosini belgilovchi xususiyatdek taassurot uyg‘otadigan badiiy obrazlari, original estetik hodisalari, benazir ramzlari, o‘zgalarda uchramaydigan topildiq individual so‘zlari va o‘xshatishlari bo‘ladi. Shuningdek, Mirtemirning so‘z qo‘llash mahorati ham o‘zbek she’riyatida takrorlanmas hodisa sifatida baholanadi. Aslida alohida neytral bo‘lgan so‘zlar uning lirikasida qaytadan jonlanadi, matn ichida qayta tiriladi. Yangidan yangi qofiyalar misralariga originallik baxsh etadi. Bejiz, Eshqobil Shukur ham: “Mirtemir she'rlarida o‘zbek tilining g‘aroyib bir lug‘ati

yashirinib yotadi", - degan emas. Shoir so‘zlarni shunday ishlatadiki, kundalik hayotda ko‘zga ko‘rinmaydigan hattoki aytilishi biroz g‘aliz bo‘lgan leksemalar ham uning quyma misralarida o‘zgacha jilo kasb etib, ma’no jihatdan kengaygandek tuyiladi. O‘z-o‘zidan zavqlanadi, zavqlantiradi. She’rxonning iliq munosabatiga sababchi bo‘ladi:

*Yo‘l-yo‘lakay bepoyon ang‘iz,*

*Gala-gala kezar bulduruq,*

*Qirdan oshsam, yam-yashil poliz,*

*Nahot borsam, polizga quruq...*

*Kun botguncha boshoq chaqishar,*

*Biqqaligi o‘xshar tovuqqa.*

*To’xtasam bas, cho‘chib boqishar,*

*Yo’latmaydi sira yovuqqa.*

(“Ang‘iz” she'ri. Mirtemir. Saylanma. 2012. 160-bet)

Ushbu misralar oddiy xalqning turmush kechinmalarini qalbi bilan his qilgan va uni his ettira olgan yoniq yurakli shoirning individual poetik ifodasidir. She’r ichiga kirib borgan sari unda xalqonalik tadrijiy sodir bo‘lib boraveradi. Xalqqa xos sezimlar mirtemirona yo‘sinda namoyon bo‘ladi. “Ang‘iz” she’rining davomida:

*Bittasiga chovut sol, dersiz,*

*O‘ljalik bor o‘rang‘ayliqqa.*

*Qo‘shotarim yo‘q edi, afsus,*

*Ne vaj aytgum bugun qayliqqa?*

Mirtemir she’rlarida xalqqa xos ruhiyatni yuzaga keltirgan iste’dodining yana bir qirrasi bu misralarida xalq qo‘shiqlariga xos o‘ynoqilikdir. Shoir ijodidagi bunday poetik ohangning, bunday estetik hodisaning o‘z ruhiy-psixologik asosi mavjud. Qoratog‘ etaklarida tug‘ilgan, Iqon qishlog‘i bag‘rida bolalik onlari o‘tgan bo‘lajak shoirning kamolotga yetishuvida uning buvisi Zaynab momoning ahamiyati katta bo‘lgan. Zaynab momo nabirasining bola qalbida Iqonga, Qoratog‘ etaklari-yu, Turkistonning tog‘liklariga qaynoq mehr uyg‘ota olgan. Shu bois u qishlog‘ining tarovatini, oddiy insonlar samimiyatini, mehnatkash xalqning turmush tarzini qalb ko‘zi bilan ko‘rgan, ularning nafasi bilan yashagan. Ana shunday ruhiy asos shoirning kelgusi she’rlariga ko‘chgan. Bunday kayfiyat xalqona ruhni misralarda

mujassam etgan. “Mirtemirning “Buvimning cho‘pchaklaridan” turkumiga kirgan talay she'rlari Bibi Zaynab momoning o‘gitlari, u aytgan rivoyat-u ertaklar, xalq hikmatlari va qo‘shiqlari ta’sirida tug‘ilgani sir emas”. ( Otayor. Quyoshni ko‘rgali keldim. 1991. 9-bet)

*Qushlar, hey ketmang uzoq,*

*Qo‘ymayman sizga tuzoq.*

*Bo‘zto‘rg‘ay, bo‘zlashaylik,*

*Turumtoy, so‘zlashaylik.*

*Qaldirg‘och, quvlashaylik,*

*Betilmoch, quvnashaylik.*

*Sa'vaoy, sayrashaylik,*

*Soyma-soy yayrashaylik.*

(“Qush tili” she'ri. Mirtemir. Saylanma. 2012. 192-bet)

Mirtemir poetik niyatini zo‘rma-zo‘raki ifodalamaydi. Barmoq vaznining 7 yoki 9 bo‘g‘inli shaklida yozilgan she'rlaridagi ohangdorlik ohanrabodek kishini o‘ziga maftun etadi. Hosiladagi bunday musiqiylik ohangi shoirning she'rlarini xalq qo‘shiqlaridan ajratib olishga qiyinchilik tug‘diradi.

*Yorim bor-u yorim bor,*

*Ko‘zlari xumorim bor.*

*Xumor ko‘zli o‘ynasin,*

*Chamanim, gulzorim bor.*

*Yorim bor-u yorim bor,*

*Olma-yu anorim bor.*

*Olamga dong‘i ketgan*

*Paxtam, paxtazorim bor.*

(“Yorim bor” she'ri. Mirtemir. Asarlar. Birinchi jild. 1980. 307-bet)

She'rlarida go‘zal musiqiylikning yuzaga kelishiga shoir hayotida yana bir asos bor deyish mumkin. Bu ko‘ngildagi chinakam muhabbat. “Uning qalbida

she’riyatdan tashqari yana ikkita san’at turiga katta muhabbat bo‘lgan. Bulardan biri musiqa bo‘lsa, ikkinchisi teatr edi”. (Naim Karimov. Mirtemir. 2012. 42-bet)

Mirtemir yoshlik chog‘lari sohasining piri Yunus Rajabiydan bir necha cholg‘u kuylarini o‘rgangan, o‘zi, ayniqsa, tanburni yaxshi chertgani ma’lum. Cholg‘ularni chertganda ham yaxshi chertib, o‘zini she’riy satrlar bitishga sozlab turgandir, balki. Mirtemirning yoziqlarini o‘qigan muhlis shoirning tiniq va toza tasavvurlari ortidagi poetik manzarani ko‘z oldiga keltira oladi. Uning soflikka yo‘g‘rilgan badiiy ifodalari o‘qirmanni go‘yo yetaklab, Mirtemirning nazm koshonasi sari olib boradi. Shoirning “men”i nazm pallasida goh o‘yinqaroq bolaga, goh yuragini muhabbat chulg‘ab olgan o‘spirin yigitga, gohida esa donish katta avlodga aylanib qolishi lirikasida nozik obrazli tafakkurning yuzaga chiqishiga sabab bo‘ladi. She’rxon satrlardagi kayfiyat og‘ushida hayotning turli lahzalarida kezinadi, orom oladi. Shunday misralari borki, ularda o‘simliklar, gullar, daraxtlar tasviri bilan bog‘liq ifodalar xuddiki tajribali dehqonning, tabiatshunos insonning sezimlari yanglig‘ namoyon bo‘ladi. Bularning barchasi shoirning o‘tkir nigohi natijasidir. Xalq qalbiga, oddiy insonlar yuragiga, atrofidagi olamga bo‘lgan mehridan dalolatdir.

*Bitta paydo bo‘lsa, bas,*

*Ketar ekan kuchuklab.*

*Bobom oh urib deydi:*

*"Tegdi o‘xshar yomon ko‘z".*

*Qirqi chiqqan og‘riqday,*

*Avaylab va uchuqlab,*

*Topolmadi hech iloj,*

*Rangi har kun bo‘zdan-bo‘z.*

*Ildizidan qo‘porib,*

*O‘t qo‘ydi axir bobom.*

*Polizga shundan keyin*

*Zo‘rg‘a kirgan edi jon.*

(“Shumg‘iya” she'ri. Mirtemir. Saylanma.2012. 171-bet)

Mirtemirning she'rlarida ta’sirchanlikni va o‘qishlilikni oshirgan omillardan yana biri bu shoirning hayotiy haqiqatlarni badiiy haqiqatlarga ko‘chira olish

qobiliyatidir. Uning she’rlarida har qanday so‘z-oddiy so‘z emas. Har qanday o‘xshatish-bejiz berilgan jo‘n tasvir emas. Ularning har biri o‘zbek xalqining turmush tarzidan, urf-odati va an'analari, mehnat jarayonlaridan hikoya qiluvchi belgidir. O‘zbek millatining ruhihatini aks ettiruvchi ko‘zgudir. Ayniqsa, qishloq ahlining mehnatkashligini, mehmondo‘stligini, mezbon sifatida hech bo'lmaganda mudom tilida shirin so‘zi borligini eslatib turadigan uslubi bu yorug‘ olamda ana shunday nurli fazilatlar, quyoshli qadriyatlar yo‘qolib ketmasligi kerakligiga ishora berib tutadigandek, go‘yo. Bolalikka bo‘lgan sadoqatli tuyg‘ular tarannumi ijodkor qalami ta’sirida har qanday she’rxon ong ostki qatlamidagi taassurotlarni qayta uyg‘ota oladi. Shoirning “Hali ham” she'riga e’tibor qilinsa, qaynoq tandir, unda pishayotgan issiqqina non, shu kulcha-non ilinjida tandirdan nari ketolmay toychasini gijinglatib turgan bola va qo‘li yengsakda kuysa-da shirin tashvish bilan mashg‘ul bo‘lgan o‘zbek onasi kabi timsollarning kitobxon yuragini zabt etib, xotiralarini tiriltirishdan o‘zga iloji yo‘qligini seziladi. Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, shunday ohangli, shunday obrazli tafakkur namunalari borligi shoirning individual uslubida yashovchanlik xususiyatini keltirib chiqaraveradi. Ohori to‘kilmagan poetik tasvirlaridagi xalqonalik ruhiyati yillar o‘tsa-da o‘z muxlislarini topib olaveradi. Mirtemir siymosi yuraklarda yashayveradi. Milliy ruh va xalqona pafos bilan sug‘orilgan she’riyati barhayot bo‘lib qolaveradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Bahodir Karimov. (2018).Ruhiyat alifbosi(.86-bet) G‘afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. Qozoqboy Yo‘ldoshev.(2018). So‘z yolqini.(60-bet) G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
3. Mirtemir. (2012)Saylanma. (160-bet)(171-bet)(192-bet). Toshkent "Ma'naviyat".
4. Otayor.(1991)Quyoshni ko‘rgali keldim. (9-bet). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
5. Mirtemir(1980). 4 jildlik Asarlar. 1-jild. (307-bet). G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
6. Naim Karimov.( 2012) Mirtemir ma'rifiy-biografik roman. (42-bet) Toshkent "Meriyus" nashriyoti.


## SHAHODAT ULUG‘NING “XALOSKOR SULTON SAYFIDDIN QUTUZ” ASARIDAGI OBRAZLAR TAVSIFI


***Xaytaxmatova Dilnavoz Alijon qizi***

*O‘zbek filologiyasi fakulteti 201-guruh talabasi*

*dilnavozxaytaxmatova174@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek nasrini tarixiy mavzudagi asarlari bilan boyitayotgan Shahodat Ulug‘ning “Xaloskor Sulton Sayfiddin Qutuz” romani tahlilga tortilgan. Romandagi obrazlar galereyasi tavsiflangan. Asar syujet liniyasi, g‘oyasi va ahamiyati tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Kredo, ayollar, funksiya, badiiy obraz, mamluklar*

***Abstract****. This article analyzes the novel Salvation Sultan Sayfiddin Qutuz by Witness Ulugh, who enriches the modern Uzbek genealogy with his works on a historical topic. The gallery of images in Rome is described. The system line, idea, and importance were analyzed.*

***Keywords****: Credo, women, function, artistic image, mamluks*

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida tarixiy shaxs timsolini yaratish, tarixiy faktlar bilan bog‘langan badiiy asar yozish dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Badiiy obraz esa borliqning (undagi narsa, hodisa va b.) san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bolgan shaklda ifodalangan aksidir. Shahodat Ulug‘ning biz tahlilga tortayotgan asari roman janrida yozilgan bo‘lib, Xorazmshohlar avlodidan bo‘lgan Muhammad Sayfiddin Qutuzning hayoti va faoliyati yoritilgan. Adiba asarida o‘sha davr muhitini, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini birmuncha ochiqlab yozishga harakat qilgan. Asar tarixiy biografik metod asosida yozilgan. Asar voqeliklari Xorazm diyorida Jo‘jixonning qonli buyrug‘i sodir etilishidan 3 kun avvalgi voqea tasviri bilan boshlanadi, ya'ni Xonsulton farzandi arjumandi Sayfiddinni saqlab qolish uchun Hamzaga beradi. Taqdir taqozosi bilan Hamza va Qutuz ketayotgan karvon mo‘g‘ul qaroqchilari hujumiga yo‘liqadi va Hamza shahid ketadi. Sayfiddin Monh-Orhil qo‘liga tushib qulga aylanadi. Charxi kajraftor falak uning boshiga chidab bo‘lmas jabr-u sitamlarni soladi. Turli xil janglarda olishadi. Hayotning achchiq zarbalari uni chetlab o‘tmaganini ana shu sahnalarda ko‘rishimiz mumkin. Umuman olganda, biz

Sayfiddin obrazi orqali kimsa qanday vaziyatda bo‘lmasin kuchli bo‘lishi kerakligini, kelayotgan tashvishlar shunchaki bir sinov ekanini anglashimiz mumkin. U har safar mushkulotga duch kelsa, onasi bilan bog‘liq epizodni eslashi ham Qutuz shaxsini yana-da, aniqroq tasvirlab beradi. Xonsultonning: “Cho‘kma, ne bo‘lsa bo‘lsin, faqat sen cho‘kma, o‘g‘lim! Zinhor cho‘kma... Eshit, bu dediklarimni joningga, qoningga quyib ol, bolam! O‘zing bilan shu dediklarimni-da joningda, qoningda tashib yur. Yiqilar bo‘lsang yuz karra kuchga do‘nib tur. “ (Sh. Ulug‘, 2022, 76-bet) Layoqatsizlik Qutuz shaxsiyatiga begona. U mislsiz qiyinchiliklarga dosh berdi. Baxtini topdi, biroq fitnachi Rukniddin Biybars qo‘lida jon berdi. U nobakor Biybars sultonlik rutbasiga changal solib Sayfiddinni o‘ldiradi va mamluklar taxtiga chiqadi. O‘limi oldidan Qutuz: “Men naslim va aslim bilan g‘urur tuyamen. Bilsang, nasl asl qondadur. Shu asl qon senda bormu? Bo‘lsa ko‘rsat! “, - deb dushmanini qizartiradi.(Sh. Ulug‘, 2022, 218-bet). Qutuzda nasli, ajdodi bilan g‘ururlanish hissi bor edi. Mamluklar sultonligini qisqa vaqt (1 yil) boshqargan bo‘lsa-da, Misrda sezilarli ishlar qila olgan. Biz asarni o‘qish davomida ijodkor sotsiologik metoddan foydalanganligining ham guvohi bo‘lishimiz mumkin. Sotsiologik metod adabiyotshunoslikda juda keng qo‘llanadigan ilmiy tadqiqot usullaridan biridir. Bu metod negizida badiiy adabiyotga ijtimoiy hodisa sifatida qarash yetakchilik qiladi. Adabiyotni bu metod vositasida tadqiq etishda asosan jamiyatdagi ijtimoiy hodisalarni, madaniy muhit, adabiy-tarixiy sharoitni inobatga olish hollari muhim sanaladi.(Karimov.B, 2011,30-bet)

Ushbu asar tarixiy xarakterda bo‘lganligi sabab obrazlar tizilmasi nisbatan murakkab va ancha masalali. Asarning bosh kredosi har bir obrazda yashaydi. Ya’ni taslim bo‘lmaslik va inson yiqilsa, yuz karra kuchga do‘nib turisi kerakligi Qutuz, Xonsulton, Ravza singari obrazlar orqali uqtiradi.

Asarda ayol obrazlari galereyasi alohida funksiya bajaradi. Tarixdan ma’lum, ayol zotiga mol-mulkka, boylikka o‘ch, shuhratparastroq xarakter xos. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, erkaklardan ko‘ra yaxshiroq hukmronlik qilgan, siyosiy mavqega ega bo‘lgan ayollar ham talaygina topiladi.Shular qatorida Turkon

xotun, Shajarat at Dur kabi biz tahlil qilayotgan romandagi prototiplarni sanash mumkin. Xususan, Qutuzning ayoli Ravzayi Nur ham mamluklar sultonligida yaxshigina mavqega ega bo‘lgan.

“*Xorazmshohlar sulolasiga barham bergan chingiziylar birin ketin boshqa musulmon o‘lkalariga ham ko‘z olaytira boshladi. Bu orada sulola shajarasini tiklashga harakat qilgan Jaloliddin Manguberdi ham Chingizxonni lol qoldirgan esa-da fojiali o‘lim topdi.*

*Movarounnahrni bosib olgan chingiziylar, xorazmiy malikalarni joriya sifatida sarkarda va chingiziy shahzodalarga bo‘lib bergan bo‘lsa, xorazmiy shahzodalarni beshikdagi go‘dakka qadar qilichdan o‘tkazishni diliga tugdi. Tadbirkor, shoh qizi Xonsulton o‘g‘ri Sayfiddinni xiyla bilan o‘ldiga chiqarib ishonchli odamlar orqali qochirishga ulgurdi. Aynan mana shu Sayfiddin kun kelib mamluklik darajasidan Misr hukmdorigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tib, chingiziylarning musulmon olamiga o‘qtalgan qilichini qayirib tashlaydi deb kim o‘ylabdi deysiz?*

*Roman xorazmshoh sulolasida bo‘lgan Sayfiddinning xorazmdan chiqib ketishidan toki vafotigacha bo‘lgan voqealar bag‘ishlangan. Romanda deyarli badiiy to‘qimalar uchramaydi, shuningdek badiiylik ham kam. Jang sahnalarida ayniqsa, yozuvchining bunday jarayonlarni tasvirlashga biroz mahoratsizligi sezilib qoladi. Lekin kitob bir tomondan salibchilar, ikkinchi tomondan chingiziylar iskanjasida qolgan musulmon olamiga achinish bilan bir qatorda, ko‘tarinki ruh va ishonch bilan yozilgan. O‘quvchida ham shunday taassurot qoldira oladi. Uni o‘qib bo‘lib, yurakda shijoat, matonat bo‘lsa hammasini uddalashingizga ishonib ketasiz. Yozuvchi toza qon va qaytar dunyo masalariga ham urg‘u bergan. Har qanday buyuklikni, ulug‘ davlatni ham xiyonat zavol toptirishini romanning bosh g‘oyalaridan biri sifatidan ta'kidlagan.*

*Menimcha, kitobni yanayam to‘ldirish mumkin edi, unga mukammalroq muhabbat sahnalarini va Xonsulton, Xadichalarning fojiy taqdirlarini kiritish yanayam o‘qishli qilardi.*” (https://t.me/books_everything )

Shahodat Ulug‘ ushbu asari bilan hali qo‘l urilmagan mamluklar sultonligi, Xorazmshohlarning taqdiri va davr voqeligini tarixiy haqiqatlardan qochmay aks ettirdi. Xulosa qilib aytganda, biz kichik tadqiqotimiz davomida asardagi obrazlarni, bugungi kundagi ahamiyatini yoritishga harakat qildik.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi-Toshkent: O‘qituvchi ,1986.
2. Quronov.D. Adabiyot nazariyasi asoslari-Toshkent:Navoiy universiteti,2018
3. Sh. Ulug‘. Xaloskor Sulton Sayfiddin Qutuz. –Toshkent: Akademnashr, 2022
4. Rasulova.U Hozirgi adabiy jarayon. –Toshkent: Akademnashr, 2023

# VII BOB

# TIL VA ADABIYOT O‘QITISH METODIKASI

# ZAMONAVIY METODLAR YORDAMIDA O‘QUVCHILARDA OG‘ZAKI NUTQNI FAOLLASHTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

***Allaqulova Gulchiroy Toshpo‘lat qizi***

***ToshDO‘TAU O‘zbek tili ta’limi fakulteti, 4-kurs***

***gulchiroyallaqulova@gmail.com***

***+998978760428***

***Annotatsiya.*** *Og‘zaki nutq ya’ni gapirish nutqiy faoliyatning murakkab, ko‘p qirrali jarayonini o‘z ichiga olgan turi bo‘lib, uning vositasida verbal muloqot amalga oshiriladi. Gapirishga o‘rgatish va umuman og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish tilni o‘rgatishda eng qiyin vazifalardan hisoblanadi. Bu insonning o‘zga til vositalari yordamida fikr va his-tuyg‘ularini mustaqil tarzda ifodalashi bilan bog‘liq. Mazkur maqolada o‘zbek tilini o‘zga til va madaniyatlar vakillariga o‘rgatish jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash samarasi, og‘zaki nutqni o‘stirishda psixolingvist olimlarning ilmiy qarashlari yoritilgan. Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning psixolingvistik xususiyatlari tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *metod, psixolingvistika, og‘zaki nutq, motivatsiya, analitik-sintetik tovush metodi, ehtiyoj*

***Abstract.*** *Oral speech, i.e. speaking, is a type of speech activity that includes a complex, multifaceted process, through which verbal communication is carried out. Teaching to speak and forming oral speech skills in general is one of the most difficult tasks in language teaching. This is related to the independent expression of thoughts and feelings by means of foreign language. This article describes the effectiveness of using interactive methods in the process of teaching the Uzbek language to representatives of other languages and cultures, and the scientific views of psycholinguists on the development of oral speech. Psycholinguistic features of the development of oral speech skills are analyzed.*

***Keywords:*** *method, psycholinguistics, oral speech, motivation, analytical-synthetic sound method, need.*

Bugungi rivojlanayotgan davrda har bir sohada xususan, ilm-fan sohasida o‘zgarishlar va sezilarli darajada yutuqlarga erishilmoqda. Xususan, maktablarda har bir fanni zamonaviy innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanib o‘rgatish bugungi davrning eng muhim talablaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek – “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa,

ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”. Shu sababli innovatsion faoliyat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, hukumatimizning 2020-yil 7-aprelda qabul qilingan “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni, “2022-2026 yillarda o‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga asosan zamonaviy ta’limning ilg‘or metodlaridan foydalanish boshlang‘ich sinflarda ta’lim oluvchi o‘quvchilarning ilmiy ko‘nikmalarini oshirishda asosiy me’zon sifatida qabul qilingan “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Pzezidenti farmoni imzolandi. Ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni faol qo‘llash, ta’lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Hozirgi zamonaviy ta’limda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalaridan o‘quv jarayonini tashkil etishga bo‘lgan talab kundan kunga o‘sib boryapti. Buning asosiy sabablaridan biri shu vaqtgacha bo‘lgan ana’naviy ta’limdan farqli ravishda zamonaviy metodlardan foydalanganda o‘quvchi shaxsining rivojlanishi, shakllanishi, yetarli bilim olishidir. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bunda zamonaviy metodlar va innovatsion texnologiyalarning o‘rni va roli benihoya kattadir. Jumladan, o‘zbek tili darsi jarayonida o‘zbek tilidagi video roliklar, dialoglar, kino yoki multfilmlarni ko‘rsatish o‘quvchilarda til o‘rganish jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo‘lishini hamda og‘zaki nutqi rivojlanishini ta’minlaydi. Masalan; “Davra suhbati” metodini olib qarashimiz mumkin. “Davra suhbati” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan,og‘zaki nutqni shakllantiruvchi o‘qitish metodidir ( Yo‘ldoshev & Usmonov S, 2004, 54-bet).

O‘zbek tili o‘zga tilli guruhlarda ikkinchi til sifatida o‘qitilishni psixolingvistika nuqtayi nazaridan ko‘radigan bo‘lsak metodlar va texnologiyalardan foydalanish o‘quvchining til faollashuviga olib keladi.

Psixolingvistika esa ayni odamlarning tilni qanday qayta ishlashi va tushunishini tekshirish maqsadida o‘rganiladi. Psixolingvitika sohasi til ta’limiga zamonaviy interfaol metodlardan foydalanishning bir qancha jihatlarini keng tarzda tajribadan o‘tkazib isbotlab ko‘rgan. Fan ,avvalambor, o‘z o‘rnida xususiy va umumiy psixolingvistika yo‘nalishlariga ajralib chiqqan. Ikkala sohada ham o‘zining oldiga qo‘ygan aniq maqsadi bor. Fan avval bola nutqining qanday yaralishi, migrantlar tilni qanday oson o‘rganishi bilan bog‘liq masalalar bilan shug‘ullangan bo‘lsa, hozirgi kunda ushbu savollar ustida juda katta yutuqlarga erishdi. Nutq ontogenezi, millatlararo tilning yoyilishi, tug‘ma nogironligi yoki orttirilgan kasal bo‘lgan insonlarda nutq bilan bog‘liq muammolar kabi yana bir qancha ishlar tajriba orqali tekshiriladi. Bolaning nutqi bosqichlarga bo‘lingan holda, qaysi davrda qanday til imkoniyatlar ega ekanligi ilmiy dalillar bilan isbotlab beriladi. Bola tilidagi nuqsonlarning sababi, ularni qanday bartaraf etish mumkin, dars jarayonlarida nimalarga ahamiyat berilsa “til bazasi” qanday shakllanadi, til o‘rgatishda mavjud metodlar orqali qanday samaraga erishish mumkin ekanligi keng va tushunarli qilib yoritib beriladi (Белянин, 2003, 232-c).

Til ta’limiga psixolingvistik yondashuv tadqiqi Lev Semyonovich Vigotskiyning ko‘pgina ishlarida o‘z aksini topgan. “Fikrlash va nutq” asarida o‘n yillik tajribalarning xulosalari keng sharhlangan. Aleksandr Romanovich Luriya birgalikda bolaning tilga kirish davrida yuz beradigan barcha o‘zgarishlarni tekshirib chiqqan. Bolaning ongida tovushlar qanday ishlanishi va tushunilishi eksperimentlarda yoritilgan. Asosiy e’tibor bolalarning ma’lumotlarni o‘rganishda ongli yoki ongsiz ravishda qabul qilishiga qaratilgan. Undan tashqari, o‘yin jarayonida bola tilni qanday o‘zlashtirishi haqida tajribalar o‘tkazilgan. Olimlar til malakasi to‘g‘risida turli xil fikrlar izlanishlardan har xil fikrlarga kelishgan.

Til ta’limida erishilgan yutuqlarga kelsak, til o‘rganish jarayonidagi atmosferani qanday yaratishdan boshlab, inson ongi qanday darajada so‘zlarni qabul qila olishigacha keng fikrlar keltirilgan. Katta yoshli insonlarga til o‘rganishda qanday usullardan foydalanilsa yaxshi natijalarga erisha olishlari haqida bir qator psixolingvistlar tavsiyalar berishgan. Ushbu tavsiyalarning samarasi yuqori bo‘lganligining asosiy sababi, psixologlar tilshunoslik sohasida, tilshunoslar esa psixologiya sohasida ilmiy izlanishlar olib borib, keyin bir fikrga kelishgan. Ya’ni ikki tomondan olib borilgan tekshiruv va kuzatuv natijalari yaxshi samara beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tildan foydalanilganda tegishli so‘zlar va tushunchalar tez va avtomatik ravishda faollashadi.Masalan, “mushuk” so‘zini eshitish “hayvon”, “miyovlash”, “sut” kabi tegishli so‘z va tushunchalarni avtomatik ravishda faollashtiradi. Tilni faollashtirish o‘qish va yozish jarayonlarini tushunish uchun katta ahamiyatga ega. Matnni o‘qiyotganda, tegishli so‘zlar va tushunchalar

tez va avtomatik ravishda faollashadi, bu o‘quvchiga ma'lumotni tez va samarali qayta ishlash imkonini beradi. Matn yozishda va og‘zaki nutqda tilni faollashtirish yozuvchiga o‘z fikrlarini etkazish uchun to‘ g‘ri so‘z va iboralarni tanlashga yordam beradi. Demakki, lug‘at boyligi ko‘p bo‘lishi lozim bo‘ladi. Psixolingvistik metodlardan foydalanish ayni masalaga asos bo‘ladi. B. To‘xliyev, M. Shamsiyevalarning “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” kitobida yozilishicha, o‘quvchilarning yosh imkoniyatlari, zehnu-iqtidorlarini hisobga olish, mustaqil ijodiy fikrlash, uning mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri, sodda, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan lingvopsixologik (psixolingvistik) o‘yin – topshiriqlardan ko‘proq foydalanish zarur ( To‘xliyev, Shamsiyeva & Ziyodova, 2006, 24-bet).

Psixolingvistik yondashuvlarga asoslangan lingvopsixologik o‘quv topshiriqlari tizimini o‘zbek tili ta’limiga joriy etish, o‘quvchi ongida mustaqil mushohada yuritish, so‘z tanlash va fikr bildirish ehtiyojini hosil qilishga, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga, nutqiy faoliyat ko‘lamini kengaytirishga xizmat qiladi. Nutq o‘ziga xos faoliyat sifatida boshqa faoliyat turlari bilan bir qatorda turmaydi, u psixologik rivojlanish jarayonida markaziy o‘rinni egallaydi (Леонтев, 1999, 218-с).

K.Qosimova, S.Matchonovlarning “Ona tili o‘qitish metodikasi” kitobida yozilishicha, Ona tili o‘qitish metodikasi psixolingvistika fani bilan ham uzviy bog‘liqdir. Psixolingvistika metodikaga nutq haqida fikrni bayon qilish turlarini belgilovchi omillar, “nutqni qabul qilish signallari” apparati, individual munosabatga va ommaviy aloqaga nutqiy ta’sirning foydasi haqida ma’lumot beradi. Bu ma’lumotlar metodik masalalarni hal qilish uchun, ayniqsa, bog‘lanishli nutqni o‘stirish metodikasi uchun juda muhimdir (Qosimova & Matchonov, 2009, 60-bet).Metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi esa butun jarayon davomida faol ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish va o‘rganish;

- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;

- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;

- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;

- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;

- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;

- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi (Muslimov & Usmonboyeva, 2015, 81-bet)

“Ona til o‘qitish metodikasi” kitobida yozilishicha, savod o‘rgatishda foydalaniladigan analitik-sintetik (tovush-tarkib) tovush metodiga K.D.Ushinskiy asos solgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashdi. Shu bois analitik-sintetik tovush metodining an’anaviy hamda shakllanish, tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Savod o‘rgatishda analitik-sintetik tovush metodi shaxsni shakllantirish maqsadiga ko‘ra ta’limiy va o‘stiruvchi xarakterda bo‘ladi, nutqiy mashqlar orqali aqliy o‘sishini ta’minlaydi, o‘qishning ongli bo‘lishini talab etadi.

2. Analitik-sintetik tovush metodi tashkiliy tomondan quyidagi ikki davrga bo‘linadi:

a) alifbegacha tayyorlov davri;
b) alifbo davri.

Bunda yozuvga o‘rgatish o‘qishga o‘rgatish bilan parallel holda olib boriladi.

3. Analitik-sintetik tovush metodida psixolingvistik nuqtayi nazardan quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

a) savod o‘rgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi;

b) savod o‘rgatishga tovush asos qilib olinadi, unda tovushni ajratishga, analiz va sintez qilishga, tovushlar artikulatsiyasiga, bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi;

d) o‘qish birligi sifatida bo‘g‘in olinadi, bo‘g‘in ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi.

Metodning shakllanish va tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardir:

1. Ta’lim jarayonini tashkil etish nuqtayi nazaridan: savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarga differensial va individual yondashish (bu bolaning umumiy rivojlanishi hamda o‘qish va yozishga tayyorligiga bog‘liq).

2. O‘qitishning istiqboli nuqtai nazaridan: grammatika, so‘z yasalishi, imlo, leksikologiyaga oid bilimlarni nazariyasiz amaliy asosda muntazam berib borish.

3. Psixolingvistik nuqtai nazaridan: tovush va harfni o‘qitishning qulay usulini izlash, tovush va harflarning mosligini, osonligini, ta’limning tarbiyaviy va o‘stiruvchi xarakterini hisobga olish.

Boshlang‘ich sinflarning o‘zbek tili mashg‘ulotlarida psixolingvistik yondashuvga asoslangan interaktiv mashg‘ulotlarni va o‘yinlarni o‘tkazishdan asosiy maqsad bolalarda mustaqil fikrlash, to‘g‘ri so‘zlash, jonivorlar, narsa–buyumlarni to‘g‘ri nomlash, ravon og‘zaki nutqni hosil qilishdan iborat. Bu esa bolani intellektual rivojlanishga yo‘naltiradi, hozirjavoblik, jadal fikrlashga odatlantiradi. Bunday ijodiy ishlar o‘qituvchidan, o‘z ish faoliyatini qiziqarli topishmoqlar, o‘ylash va izlanishga yo‘naltiruvchi lingvodidaktik va lingvopsixologik topshiriqlar bilan to‘yintirish, lozim bo‘lsa, shunday yangi texnologiyalarni o‘rganish va o‘z mashg‘ulotlarida qo‘llashni taqozo etadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy taraqqiyotini jadallashtirish, mustaqil faoliyatga yo‘naltirishda tafakkur, idrok va xotirani rivojlantirish, nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash mashg‘ulotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Sinfda va sinfdan tashqari dars-mashg‘ulotlari ushbu metodda tashkil etilganda o‘quvchilar erkin fikrlaydi, munozara-bahs yuritadi. Albatta, darsni bunday usulda tashkil etish oson kechmaydi. Bunda o‘qituvchining tashkilotchiligi, chuqur bilimi, ziyrakligi, nazokat va muloqotga kirishuvchanligi hamda boshqa bir qator xususiyatlari qo‘l keladi.

Xulosa qilib aytaganda, universal metodlar mavjud emas, shunchaki ko‘plab olimlar til o‘rganishda grammatikaga tayanish kerak ekanligini ta’kidlashadi. Tadqiqotlar natijalari asosida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga oladigan yanada samaraliroq til o‘rgatish usullarini yaratish mumkin. Balki, tillarni oilasiga, kelib chiqishiga, grammatik xusuiyatlari kabi bir qancha guruhlarga bo‘lgan holda yanada mukammal metodika yaratilishini guvohi bo‘lish mumkin. Insonlarning psixologik kelib chiqishi, miya faoliyati va uning kuchiga qarab, ayrim tillarni o‘rganishda qanday metodlardan foydalanish mumkin ekanligi haqida konsepsiyani ushbu yo‘nalish olimlari yaratishsa hech gap emas. Krashenning qarashlarini inobatga olsak, hissiyotlar filtri bilim olish jarayoniga juda katta ta’sir o‘tkazadi. Psixolingvistika fanida ham til o‘rganish jarayonini tezlashtirish va yaxshi tashkillashtirish uchun eng asosiy omil motivatsiya va ehtiyojdir. Zamonaviy metodlarni qo‘llash orqali esa o‘quvchilarga motivatsiya berib, til o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Muslimov N.A., &Usmonboyeva M.H. (2015) Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Toshkent: Sano standart
2. Qosimova K, & Matchonov S. (2009). Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: Nosir
3. To‘xliyev B, Shamsiyeva M, & Ziyodova T.(2006) O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi.

4. Usmonova Sh.(2014). Psixolingvistika. Toshkent: O‘zbekiston
5. Yo‘ldoshev J.G‘.,& Usmonov S. (2004), Ilg‘or pedogogik texnologiyalar: Toshkent: O‘qituvchi
6. Белянин В.П., (2003). Психолингвистика: Учебник - Москова: Флинта: Московский психолого-социальный институт.
7. Леонтев А, (1999). Психолингвистики в обладении языком // Основы психолингвистики. Москова:Смысл, 218-228.

## O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA IJTIMOIY TARMOQLARNING O‘RNI

***Dustmurodova O‘g‘iloy Shaydulla qizi***

***Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU***

***Amaliy filologiya fakulteti 1-kurs talabasi***

***ogiloydustmurodova85@gmail.com***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada o‘zbek tilini o‘qitishda ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Bugungi kunda butunjahonga tarqalgan Telegram, Instagram, WhatsApp va shu kabi boshqa ijtimoiy tarmoqlarda tashkil qilingan turli xil guruh, kanallar orqali aynan o‘zbek tilini o‘qitish, uni oson yo‘l bilan o‘rganish bo‘yicha bir qancha videodarslar, rasmlar, stikerlar ishlab chiqilgan. Biz quyida shular xususida fikr yuritamiz.*

***Kalit so‘zlar:*** *o‘zbek tili, metodika, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn dars, masofaviy ta’lim, ijtimoiy kanal va guruhlar*

***Abstract.*** *This article provides information about the role of socialnetwork in teaching the Uzbek language. A number of vedio lessons, pictures in teaching the Uzbek language and learning it in an easy way the various groups and channels organized on Telegram, Instagram, WatsApp and other such social networks, which are spread all over the world today steckers and designed. We will discuss these below.*

***Keywords****:Uzbek language, methodology, social networks, inline lessons, distance education, social channel and groups.*

Bugungi kunda o‘zbek tilini o‘qitish dolzarb muammoga aylangan. Aynan davlat tilini o‘rganish, uni o‘rgatishga katta e’tibor berilmoqda. Shu sababli o‘zbek tilini qulay usulda tez va oson o‘rganish uchun turli xil yangi metodlar, yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalar, kompyuter hamda mobil aloqa vositalari uchun

dasturlar yaratilmoqda. Tabiiyki, bularning orasida mobil aloqa vositalari muhim rol o‘ynaydi.Mobil aloqa vositalariga o‘rnatiluvchi havolalar orqali tilning grammatikasini, lug‘atini o‘rganish mumkin hisoblanadi. Bu foydalanuvchiga bir qancha qulaylik, vaqtni tejash imkonini yaratib beradi.

O‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha shu davrgacha shakllanib kelgan an’anaviy usullar ham mavjud. Ular faqatgina ma’lum bir auditoriya uchungina shakllangan. Zamon taraqqiy etgani sayin usullar ham o‘zgarib va murakkablashib boraveradi. Bundan o‘n yil oldin yaratilgan usul bugungi kunda eski usul hisoblanadi.

Hozirgi kunda o‘zbek tilini tez, qulay va oson o‘rganish uchun turli xil kompyuter va smartfo dasturlari yaratilgan. Chet tilidan o‘zbek tiliga yoxud o‘zbek tilidan chet tiliga tarjima dasturlarining ham turlari juda ko‘p.

Bugungi kunda istalgan tilni o‘rganish uchun eng qulay vosita bu mobil aloqa vositasidir. Mobil aloqa vositalariga aynan o‘rganish maqsad qilingan tilning lug‘ati, kitoblari o‘rnatiladi. Shunday bo‘lsa-da, mobil aloqa vositasini qo‘llashning yana bir yaxshi usuli bu ulardagi ijtimoiy tarmoqlardir. 2019-yildan boshlab tillarni o‘rganishning onlayn, ya’ni masofaviy tizimi paydo bo‘la boshladi. Ushbu tarqalgan ijtimoiy tarmoqlardan eng keng qo‘llanib kelinayotgani bu telegram ijtimoiy tarmog‘idir.

Telegram ijtimoiy tarmog‘ida mingdan ortiq obunachilarni o‘zida jamlagan guruh hamda kanallar orqali tillarni o‘rganish va o‘rgatish bo‘yicha turli xil viktorinalar, testlar, sinovlar bo‘lib o‘tadi. Sinovlar orqali bilimlar mustahkamlanadi, yangiliklar kashf qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlarning yana bir qulay tomoni shundaki, ulardagi ma’lumotlarni istalgan vaqtda o‘qish, o‘rganish mumkin. Ya’ni oldingi an’anaviy tizimlardan ham farqli va yutuqli tomoni shu hisoblanadi.

O‘zbek tilini ijtimoiy tarmoqlardagi kanal va guruhlar orqali o‘rganish yaxshi, albatta. Lekin shuni ham nazarda tutish kerakki, bugungi kunda barcha ijtimoiy tarmoqlarda yolg‘on ma’lumotlar ko‘paymoqda. Yuqoridagi kabi guruh va kanallarga a’zo bo‘lishdan oldin biz ularning ta’sischilarini hamda guruh va kanallarning oldingi faoliyatlari bilan tanishib chiqishimiz kerak. Shundagina biz ko‘zlangan maqsadga erishishimiz mumkin.

Barchamizga ma’lumki, 2020-yil butunjahonda COVID-19 infeksiyasi sababli pandemiya e’lon qilindi. Sir emaski, barcha turdagi ta’lim muassasalari ta’limni masofaviy tarzda tashkil qildi. Ushbu davr mobaynida barcha fanlar qatori o‘zbek tilini masofaviy o‘qitish bo‘yicha ham muammolar yuzaga keldi. Muammolarni bartaraf etish uchun qisqa hajmdagi videodarslar, audio

qo‘llanmalar, internet dasturlari ishlab chiqildi. Ushbu ishlab chiqilgan materiallar ommaviy axborot vositalaridan tashqari ijtimoiy tarmoqlar orqali ham keng tarqala boshladi. O‘zbek tiliga oid murakkab mavzular uchun alohida e’tibor berilib, mavzu yuzasidan taqdimotlar, video hamda audio qo‘llanmalar, onlayn testlar yaratildi. Yana bir muhim jihat shundaki, aynan Telegram hamda Instagram ijtimoiy tarmoqlari orqali ushbu darslarda qatnashish, ularda ishtirok etish bepuldir. Pandemiya sababli onlayn kurslar hamda masofaviy ta’lim salmog‘i kuchaydi. O‘zbek tilini o‘qitishning yangi tizimi vujudga keldi. Pandemiya davrigacha o‘zbek tilini o‘rgatuvchi ijtimoiy tarmoqdagi kanal va guruhlar soni 20 ga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtga kelib ularning soni 100 ga yaqin. Jumladan, “Ona tili va adabiyoti”, “O‘zbek tilini o‘rganamiz”, “Davlat tili” kabi telegram kanal va guruhlarini ayta olamiz.

Biz quyida Telegram ijtimoiy tarmoqlari orqali e’lon qilinuvchi onlayn testlardan namunalar bilan tanishib chiqamiz:




Birinchi testga e’tibor qarataylik:

*Qaysi biri onaning singlisiga nisbatan ishlatiladi?* Ushbu savolning javobini topish uchun qarindoshlik sohasiga oid termindan foydalanish kerak. Ushbu savolning javobini to‘g‘ri topsangiz sizda quyidagicha holat yuz beradi:

Demak, siz savolga to‘g‘ri javob bergan bo‘lasiz.

Masofaviy tarzda o‘zbek tilini kengroq va chuqurroq o‘rganishda video darslarning o‘rni katta. Ijtimoiy tarmoq uchun mo‘ljallangan video darslar ,asosan, qisqa metrajli, kichik hajmli bo‘lishi ko‘zda tutilgan. Videodarsda mavzuning asosiy maqsadi yoritib berilishi kerak. Takrorlash uchun savollar hamda mavzuni mustahkamlash uchun qilinadigan takrorlovchi savollar viktorina shaklida o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Biz quyida o‘zbek tili darslari uchun videodarslarning QR-Code havolasini taqdim etamiz:

https://t.me/online_maktab_abituriyent/26

Ushbu havoladan foydalangan holda o‘zbek tiliga oid video darslarni kuzatishingiz munkin bo‘ladi. Buning qulaylik tarafi shundaki, o‘zbek tili darsida matnga oid bo‘lgan video yoki audio materialni o‘zi yuklab berishi orqali materialdan foydalanish yanada qulay va oson bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, bugungi vaqtda o‘zbek tilini o‘qitishda ijtimoiy tarmoqlar ham muhim o‘rin egallaydi. Ya’ni, tilni an’anaviy tarzdagi kitob hamda auditoriyadan foydalanmagan holda onlayn, virtual o‘rganish qulayroq, tezroq, osonroq bo‘ladi.

Shuni qayta ta’kidlash kerakki, barcha ijtimoiy tarmoqlardagi kanal va guruhlar orqali tilni o‘rganib bo‘lmaydi. Ishonchli, qulay, kuchli mutaxassislar yuritadigan kanal va guruhlarga a’zo bo‘lish orqaligina, natijaga erishish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Khasanovna, s. d. (2021). Education Of Feelings With Artistic Words, International Engineering Journal For Research &Development 6 (Icdsiil), 4-4.

2. Сайдахметова, д. х. (2021). Качества обучения в системе Вузовского Образования. Academic Research In Educational Sciences, *2*(1).

3. Сайдахметова, д. х. (2020). Международные оценочные программы (Pisa, Timss, Pirls) и Подготовка учеников к ним. Science And Education, 1(Special Issue 2), 112-120.

4. Юлдашева, т. а. (2021). Методы исследования в методике преподавания русского языка. Academic Research In Educational Sciences, 2(2), 606-609.

5. Ametovna, (2021). Features Of The Methodology Of International Engineering Journal For Research &Development 6

Teaching Russian As a Foreign University. (Icdsiil), 3-3.

## ADABIYOT DARSLIGIDAGI MASALLARNI B.BLUM TAKSONOMIYASI ASOSIDA O‘QITISH

***Fayzullayeva Shamsiqamar Yorqin qizi***
*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU*
*Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti*
*3-kurs talabasi*
fayzullayevashamsiqamar@gmail.com
**Ilmiy rahbar: Iroda Eshonxonova**

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada darsliklarda berilgan masal janrini o‘rganish, masallarni blum taksonomiyasi asosida o‘qitish va tahlil qilish haqida takliflar keltirilgan. Fikrni dalillash maqsadida ko‘plab metodist olimlarning ilmiy qarashlaridan foydalanilgan.*

*5-sinf adabiyot darsligiga Krilovning “Darvesh va ayiq” masalini mustaqil o‘qish uchun kiritish va uning afzal tomonlari, masal yuzasidan topshiriqlar ishlab chiqish haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Blum taksonomiyasi, kognitiv, affektiv, psixomotor, masal, kinoya, topshiriq.*

***Abstract*** *This article presents suggestions for studying the genre of parables given in textbooks, teaching and analyzing parables based on Bloom's taxonomy. The scientific views of many Methodist scientists were used to prove the point.*

*Information on including Krylov’s parable “The Dervish and the Bear” for independent reading in the 5th grade literature textbook, its advantages, and the development of assignments based on the parable is provided.*

***Keywords:*** *Bloom's taxonomy, cognitive, affective, psychomotor, parable, irony, assignment.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. (https://sg.docworkspace.com/d/sIM6rjqi-AaeA-7AG) Shu jumladan, rivojlangan mamlakatlarning darliklarini o‘zimizga olib kirish, yangi darsliklar ishlab chiqish yo‘lga qo‘yildi. Bundan ko‘zlangan maqsad ta’lim tizimimizni rivojlantirish, o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, kitobxon o‘quvchilarni tarbiyalashga qaratilgan masalalardan biridir. O‘quvchilarni tarbiyalashda masallarning o‘rni beqiyos. Chunki inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlar − hayvonlar, jonivorlar va o‘simliklar dunyosiga ko‘chiriladi. Timsollarning kinoyaviy xarakterda bo‘lishidan tashqari, kulgili savol-javob ham masal tili va uslubi uchun xarakterlidir. Ko‘pincha masalning kirish qismida, ba’zan pirovardida qissadan hissa – ibratli xulosa chiqariladi. Shu orqali biz o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishimiz, xayolotlarini jonlantirishimiz mumkin. DTSda 5-sinflar uchun Ezop masallariga 3 soat belgilangan. 5-7-mavzu. Ezop. “Yovvoyi echkilar”, “Kiyik bilan tokzor”, “Bo‘ri bilan laylak”, “Eshak bilan baqalar”, “Ustiga tuz yuklangan eshak”, “Burgut, zag‘cha va cho‘pon” masallari. (3 soat) Qadimgi yunon masalchisi Ezop hayoti to‘g‘risidagi rivoyatlar. Ezop masallarining insoniyat ma’naviyati, ma’rifiy tafakkuridagi o‘rni. Masallarda ezgulik, saxiylik, olijanoblik singari g‘oyalarning ilgari surilgani**.** “Yovvoyi echkilar”, “Kiyik bilan tokzor”, Bo‘ri bilan laylak”, “Eshak bilan baqalar”, “Ustiga tuz yuklangan eshak”, “Burgut, zag‘cha va cho‘pon” masallarida do‘stga sadoqat, yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish, do‘st-dushmanning kimligini farqlash lozimligi, boshqa hayotiy masalalarning ramziy obrazlar orqali talqin etilishi. Masalchilikning shakllanishi va taraqqiyotida Ezop ijodining ahamiyati. Ezop masallarining tarbiyaviy roli. Nazariy ma’lumot. Masal haqida tushuncha. (DTS, 2017, 27-bet) Masallarni o‘qitayotganda DTSda ko‘rsatilgan talablarni bajargan holatda dars o‘tilishi zarur. O‘qituvchi masalni o‘quvchilarga qay shaklda yetkizib bera olishi katta ahamiyatga ega. Buning uchun “Blum taksonomiyasidan” foydalanish eng samarali usullardan biridir. Chunki bu usul pastdan yuqoriga qarab

borishi bilan masallarni yaxshi anglashga, hayotda qo‘llay olishga, darsni mazmunli o‘tilishiga yordam beradi. Masaldagi qissadan hissa o‘quvchi matndagi e’tibordan chetda qoldirgan, yuzaki o‘qib ketgan, yaxshi anglamagan o‘rinlarni to‘ldirishga yordam beradi.

Blum taksonomiyasi o‘qituvchi tomonidan tarbiyalanuvchilar oldiga qo‘yiladigan qator topshiriqlarni ta’lim maqsadlariga muvofiq tarzda: kognitiv, affektiv, psixomotor yo‘nalishlarida tasniflanishini nazarda tutadi. Ta’limning bu uch yo‘nalishini oddiyroq qilib “bilaman”, “his qilaman” va “yarataman” so‘zlari bilan ifodalash mumkin. Blum taksonomiyasida ifodalangan psixomotor maqsadlar asbob-uskunalarga, o‘quv qurollari, texnika vositalariga moslashishni nazarda tutadi. Psixomotor maqsadlar amaliy ko‘nikmalami o‘zgartirish va rivojlantirishni ko‘zlaydi. Ta’lim maqsadining har uchala yo‘nalishida uning keyingi bosqichiga o‘tish uchun avvalgi bosqich bo‘yicha tajribaga ega bo‘lishini taqozo etiladi. Blum taksonomiyasining asosiy maqsadi pedagoglarda ta’lim maqsadining har uchala sohasi bo‘yicha motivatsiya uyg‘otish va shu orqali ta’lim samaradorligini ta’minlashdan iboratdir. Kognitiv yo‘nalishdagi ko‘nikma va malakalar bilim, tushuncha va tanqidiy mulohaza yuritishga daxldor. Blum taksonomiyasida o‘quv maqsadlarining kognitiv yo‘nalishi quyidagicha tasniflanadi (Husanboyeva & Niyozmetova, 2020, 352-bet).




Adabiyot darslarida o‘quvchilar bilan ishlashning turli shakllaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Xususan, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan alohida ishlashning qo‘shib olib borilishi yaxshi samaralar beradi. Adabiyot darslarida o‘qituvchi shaxsining mavqeyi alohida o‘rin tutadi. Aynan mana shu shaxs darsning maqsad, vazifalarini, adabiy materialni tanlashni, qaysi mavzularni o‘tishda qanday metod va shakllardan foydalanishni belgilaydi, dars jarayonining tashkil etilishini boshqarib boradi (To‘xliyev, 2010, 131-bet). Bundan kelib chiqadiki, o‘qituvchi qanchalik mahoratli, mas’uliyatli, tashkilotchi, yetuk bilim sohibi bo‘lsa, shunchalik samadorlik yuqori darajada bo‘ladi. Endi topshiriqlarni bosqichma-bosqich ko‘rib o‘tsak:

**Birinchi bosqich: Bilish**

Bu bosqichda o‘quvchilar bilan yakka holatda ishlanadi. Mavzuni o‘quvchilarga tanishtirish uchun Ezop haqida videorolik yoki taqdimot tayyorlanadi va o‘quvchilarga taqdim etiladi. Chunki o‘quvchilarda o‘qib tushunishdan ko‘ra, ko‘rib tushunish ko‘nikmasi yaxshi rivojlangan hisoblanadi. Va topshiriq sifatida daftarlariga muhum bo‘lgan beshtadan ma’lumotlar yozib borilishlari kerak bo‘ladi. Videodan so‘ng o‘qituvchi masalchilik haqida qo‘shimcha ma’lumotlarni berib boradi. So‘ngra dars oxirida **zanjir metodidan** foydalanib, bir-birini takrorlanmagan holda ma’lumotlarni berib borishadi. Uyga vazifa sifatida Ezopning masallaridan ko‘rib kelish beriladi.

**Ikkinchi bosqich: Tushunish**

1-topshiriq. Tushunish bosqichida sinfdagi o‘quvchilarni 6ta kichik guruhlarga bo‘lamiz. Har bir guruhdan bittadan ishtirokchi chiqib chek tanlaydi. O‘qituvchi oltita chek tayyorlab keladi va o‘quvchilarga taqdim etadi. O‘quvchilar chekiga tushgan masal mazmuni va olgan xulosalarini yoritib berishlari kerak bo‘ladi. Tayyorlanib olishlari uchun besh daqiqa vaqt beriladi. Vaqt tugagach, bitta guruhning barcha a’zolari doskaga chiqadi. Masalni izohlab bo‘lgach, boshqa guruhlardan savollar berib boriladi. Bu **aqliy hujum** metodi orqali amalga oshiriladi.

**Uchinchi bosqich: Qo‘llash va tahlil qilish**

2-topshiriq. Keyingi topshirig‘imiz qo‘llashga va tahlil qilishga qaratilgan. Har bir guruh chekiga tushgan masallarga mos keladigan maqollarni yoki hikmatli so‘zlarni yozishi kerak bo‘ladi. Ularga o‘n daqiqa vaqt ajratamiz. So‘ng har bir guruhdan bittadan ishtirokchi chiqib, maqollarni o‘qib tahlil qilib beradi. Eng ko‘p maqollarni topib tahlil qilgan guruhga kartichkalar taqdim etiladi. Kartichkalar o‘quvchilarni baholashga yordam beradi. Qo‘llash va tahlil qilishda turli xil metodlardan blits-o‘yin, munosabat, tushunchalar tahlili, rezyume, bahs-munozara, klaster kabilardan foydalansak bo‘ladi.

**Beshinchi bosqich: Baholash**

3-topshiriq. Bu bosqichda ham guruhlarda ishlaymiz. Barcha guruhlar o‘zlariga tushgan asar qahramonlarini baholaydi. Masalan “Burgut, zag‘cha va cho‘pon” masalida har bir qahramonga alohida baho beriladi.

Adabiy ta’lim jarayonida badiiy asarlar qahramonlari shaxsiga tanqidiy baho berish ko‘nikmasi asarni o‘qish, qahramonlarning xatti-harakatlari hamda ularning xarakter xususiyatlarini o‘rganish jarayonida asta-sekinlik bilan shakllanib boradi. Bu jarayon, ayni paytda, o‘rganilishi talab qilinayotgan badiiy asarni har tomonlama tahlillashni taqozo etadi (Husanboyeva & Niyozmetova, 2022, 167).

**Oltinchi bosqich: Yaratish**

Uyga vazifa sifatida Ezopning masallaridan birining rasmlarini A3 formatga chizish yoki sahna koʻrinishini tayyorlash beriladi. Bu topshiriq orqali oʻquvchilarning ijodkorligi oshirishga, mavzuni yaxshi oʻzlashtirilishiga yordam beradi. Ijodiy ishdan oldin barcha oʻquvchilar matnga qayta yuzlanadi. Uy vazifalarini soʻrash jarayonida oʻquvchiga mustaqil mulohaza yuritish talab qilinadigan savollar berilishi uning aqliy faoliyatini tezlashtiradi. Berilgan savollarga yaxshi tanlangan dalillar orqali javob berishga erishsa, bunday savollar ularning oʻzlariga ijobiy ta'sir koʻrsatadi (Husanboyeva & Niyozmetova, 2022, 265-bet).

Umumiy oʻrta ta'lim maktablarining adabiyot darsliklariga faqatgina Ezopning masallari kiritilgan. Nazarimizda, masal janri bolalarning tafakkurini oʻstirishda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, maktab darsliklariga masal janri namunalari koʻproq kiritilsa, maqsadga muvofiq boʻladi, deb hisoblaymiz. Oʻquvchilar dars rejasidan tashqari oʻzlari mustaqil tarzda mutolaa qilishlari ham mumkin.

Mustaqil oʻqish uchun Krilovning "Darvesh va ayiq" masalni tavsiya qilamiz. Sababi oʻquvchilar faqatgina Ezopning masallarini emas, balki, boshqa yozuvchilarning masallari bilan tanishishlari va tahlil qila olishi kerak. Masal mazmuni doʻst tanlashda adashmaslik, har bir inson oʻziga mos odamlar bilan doʻstlashish kerakligi haqida boradi. Ushbu masalning afzallik tarafi oxirida xulosani oʻquvchining oʻziga tashlanganligidadir. Oʻquvchi masalni oʻqib, xulosani oʻzi belgilaydi. Masal lirik shaklda yozilgan boʻlib, Mirtemir rus tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

Masal loyihasi quyidagicha:

Fikrimizcha, masal mavzusida Blum taksonomiyasidan foydalanish o‘quvchilarda quyidagi nazariy tushuncha va bilimlarni tasniflash hamda tizimlashtirish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir:

– badiiy adabiyot mavzusi va maqsadi o‘rtasida mavjud aloqadorlik, adabiyot va san’atga xos obrazlilik;

– muayyan sinf, qatlam va ijtimoiy yo‘nalishlarning o‘ziga xos belgilarini o‘zida mujassam etgan shaxslar tipi;

– badiiy obrazning tarixan shakllangan eng muhim xususiyatlari;

– o‘qishning kishilarga hissiy ta’sirining aniq va takrorlanmas, umumiy tipik belgilari;

– badiiy obrazdagi umumiylik va xususiylik masalasi;

– asar kompozitsiyasi, tur va janr xususiyatlari;

– badiiy asarning yaxlitligi, unda har bir detal muayyan g‘oyaviy-badiiy maqsadga bo‘ysundirilgani;

– tanlangan chizgilar, hodisalar va xarakterlarning mohiyati;

– hayot manzarasini ochishga xizmat qilishi;

– haqiqatning obrazlar olamida yuzaga chiqishi;

– tipiklik muammosining mohiyati;

– obrazlar hosil qilishda muhim vosita bo‘lgan asar tili;

– hayot oqimining qamrab olinishi: xarakter, ziddiyatlar, to‘qnashuvlar, tuyg‘ular oqimi va hokazo.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, darslarni samarali tashkil etish jarayonida o‘quvchilar bilan faol ishlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini

shakllantirishda muhum ahamiyatga ega. Masallarni o‘qitishda B. Blum taksonomiyasi asosida yondashuv o‘quvchilarni hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhum ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Davlat Ta’lim Standarti, 2017.
2. Husanboyeva, Q., & Niyozmetova, R. (2020) Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Innovatsion-Ziyo”, 216.
3. To‘xliyev, B. (2010) Adabiyot o‘qitish metodikasi. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika un-ti. to‘ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
4. Husanboyeva, Q., & Niyozmetova, R. ( 2022 ) Adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik. Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”. 265.
5. https://sg.docworkspace.com/d/sIM6rjqi-AaeA-7AG


## NORMUROD NORQOBILOV “OQBO‘YIN” HIKOYASINI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI


***Fozilova Sevinch Ikrom qizi***

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti* 4-kurs talabasi

*sevinchfozilova@gmail.ru*



**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada adabiyot darslarida hikoyani o‘qitishga doir bir necha taklif va mulohazalar keltirilgan. Fikrni dalillash maqsadida metodistlar, pedagog olimlarning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanilgan. 2022-yilda yangilangan 7-sinf adabiyot darsligiga yangi kiritilgan “Oqbo‘yin” hikoyasini hamkorlik texnologiyasi asosida o‘qitishga doir topshiriqlar namunasi berilgan hamda ularga izohlar yozib, qanday usul bilan bajarish kerakligi haqida tavsiyalar berilgan.*



**Kalit so‘zlar:** *“Oqbo‘yin” hikoyasi, darslik, hamkorlik texnologiyasi, muammoli ta’lim, qayta hikoyalash, tahlil*



**Abstract.** *This article presents some suggestions and considerations for teaching stories in literature classes. In order to prove the opinion, scientific researches of methodists and pedagogic scientists were used. In 2022, the updated 7th grade literature textbook contains a sample of assignments for teaching the story ‘White*

*neck' on the basis of collaborative technology, as well as comments on them and recommendations on how to complete them.*

**Keywords**: *'White Neck' story, textbook, collaborative technology, problem-based learning, retelling, analysis*

Adabiy ta'lim asosini adabiyot o'qitishning maqsad va vazifalari hamda uning mazmuniy tushunchalarini tashkil etadi. Komil shaxsni shakllantirish- adabiyot o'qitishning bosh maqsadi. Bu umumiy tushuncha bo'lib, istiqbolni belgilaydi. Oddiy o'quvchidan kitobxon o'quvchini tayyorlash, bolalarni badiiy so'zdan ta'sirlanadigan, uning jozibasini his etadigan, haqiqiy badiiy asarni taniydigan, o'qigan badiiy asarini tahlil eta biladigan va undan o'ziga xulosa chiqarishga qobil, o'z qarashlarini og'zaki va yozma ravon ifoda eta oladigan, badiiy asar o'qishni o'zining birinchi hayotiy ehtiyojiga aylantirgan o'quvchi shaxsini shakllantirish bosh vazifa sifatida turadi. Xususan, maktab ta'lim tizimida hikoyalarni o'qitishni o'quv dasturiga kiritish orqali, o'quvchilarda qiziqarli va o'ylantiruvchi hikoyalar bilan jamiyat qadriyatlari, madaniy xilma-xillik va axloqiy tamoyillarni chuqurroq tushuntirish mumkin.

Adabiy ta'lim bu inson tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyotning inson ruhiyati hatto uning shaxsiyatining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni beqiyosdir (www.Ziyouz.com kutubxonasi)

Adabiyot ta'limidan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni badiiyatdan zavqlanishga, nutqini va mustaqil fikrlashini rivojlantirish bilan birga o'zligini anglashga o'rgatish hamda o'zgalar fikrini anglashga qaratiladi. Bu esa adabiyot ta'limida boy badiiy manbalarimizni yanada chuqurroq o'rgatish bilangina cheklanib qolmasdan undan hayotda foydalanish malakalarini ham kamol toptirishni talab etadi.

Yangilangan darsliklarda kiritilgan yangi hikoyalar, she'rlar, romandan parchalar va shu kabi adabiy janrlarni turli yondashuvlar asosida o'qitish masalasi haligacha minbarlarda tinmay yangramoqda, muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Bu borada maqolada ham bir necha fikrlar va mulohazalar keltirib o'tiladi.

7-sinf darsligiga Milliy o'quv dasturi asosida Normurod Norqobilov "Oqbo'yin", Ernest Seton Tompson "Lobo", Nabi Jaloliddin "Ota", O'lmas Umarbekov "Qiyomat qarz". Qamchibek Kenja "Baliq ovi", Anton Chexov "Xameleon" hikoyalari kiritilgan (7-sinf uchun darslik, 2022-yil, 224-bet).

Ko‘rishimiz mumkinki, hayvonlar haqida yozilgan hikoyalar maktab darsliklarida asosiy o‘rinlardan birini egallagan. Ularning ramziy va majoziy ma’nosini to‘g‘ri yetkazishimiz, muallifning asosiy ko‘zlagan maqsad va mazmuni tushuntira olishimiz muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun bizga ta’lim texnologiyalari, metodlari, usullari, ilg‘or pedagogik tajribalar va boshqa metodik uslublar yordamga keladi. Normurod Norqobilov ijodida shunday asarlar borki, ularda tabiat vakillari odamzod jamiyat qoidalari bo‘yicha yashashlari, bashariy qonunlarga tajovuz qilmasliklari haqidagi ona tabiat falsafasi naturalistik uslubda badiiy tasvir etiladi. Bu falsafa yozuvchining “Oqbo‘yin”, “Paxmoq”, “Changalzor iti”, “Ovul oralagan bo‘ri” qissalarida ham o‘z aksini topgan, albatta. (https://tilvaadabiyot.uz.)

Adabiyot darslarida hamkorlik texnologiyasidan foydalanish bugungi kunda ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 80-yillarida rivojlana boshladi va ta’limdagi ko‘pgina innovatsion jarayonlarni hayotga chorladi. Bu texnologiya negizida taniqli rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi. Ular K. D. Ushinskiy, N. R. Rirogov, L.N. Tolstoy, J.J. Russo, YA. Korshak, K. Rodjers, E. Bern, S.T. Shatskiy, V.A. Suxomlinskiy va boshqalardir. Hamkorlik pedagogikasi 4 ta asosiy yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladi:

1. Didaktik faollashtiruvchi va rivojlantiruvshi majmua.

2. Shaxsga inson, insonga shaxs sifatida yondashuv.

3. Atrof-muhitni pedagogizatsiyalashtirish.

4. Tarbiya konsepsiyasi (Azizxo‘jayeva N, 2006 –yil, 69-bet).

Adabiyot ta’limi har jihatdan hamkorlikda o‘qitish texnologiyasini talab qiladi. Negaki adabiyot darsi o‘z mazmun mohiyati, maqsad va vazifalaridan kelib chiqib o‘qituvchining yakka tartibdagi faoliyatiga tayana olmaydi. Agar adabiyot o‘qitish hamkorlik ta’limiga asoslanmasa, u holda eskitdan qolib bugungi kungacha ayrim darslarda qo‘llanayotgan tayyor materialni o‘qib berish bilan cheklanib qoladigan samarasiz va o‘ta mazmunsiz faoliyatga aylanib qoladi. Darhaqiqat, bugungi kunda shunday darslarni ham ming afsuski kuzatamiz. Ya’ni bunda adabiyot darsi axborot darsiga aylanib ketadi. Vaholangki, adabiyot fanining maqsadi komil shaxs tarbiyasi va unda insoniy fazilatlarni kamol toptirish hisoblanadi. Adabiyot darslarida hamkorlik pedagogikasining turli shakllaridan foydalanish mumkin. Jumladan, adabiyot darslarini jamoaviy tarzda ham, guruh tarzida va individual tarzda ham tashkil qilish mumkin. Ya’ni adabiy ta’limda

shunday mavzular borki, uni butun bir sinf jamoasi tarzida o‘tilishi maqsadga muvofiqdir.

“Hamkorlik pedagogikasi har bir bola shaxsiyatida demokratik sifatlarni shakllantirishga qaratiladi. Har bir bola huquqini qanchalik his etsa, burchini ham shunchalik darajada anglaydi, faoliyatida qanchalar erkin bo‘lsa, bu erkinlik o‘zgalarning hurligiga dahl qilmasligi kerakligini shunchalar his etadi”, deydi Q.Yo‘ldoshev o‘z dissertatsiya ishlarida (Q.Yo‘ldoshev, 1996-yil, 59-bet).

Endi hikoyaga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Oqbo‘yin” asari bir it haqida hikoya qiladi. It – inson tomonidan qo‘lga o‘rgatilgan ilk hayvonlardan biri. Hikoyada itlar obrazi orqali ko‘plab ma’nolar singdirilgan. Buni o‘quvchilarga to‘g‘ri anglatish uchun kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan foydalanamiz. Bu yondashuvda kichik guruhlar sinfdagi o‘quvchilaming sonidan kelib chiqqan holda to‘rt, olti, sakkiz o‘quvchidan tashkil topadi. O‘qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari ham shuncha qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har qaysi o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi, so‘ngra guruh a’zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi (R.Niyozmetova, 2018-yil, 151-bet). Endi buni jarayonni bosqichma-bosqich ko‘rib chiqamiz. Bunda hikoya uyga vazifa sifatida o‘qishga berilgan bo‘lishi kerak.

1. O‘quvchilar soniga qarab 5 yoki 6 kishilik guruh tuziladi.
2. Asar matni qismlarga bo‘linib, qog‘oz variantda chiqartirilgan holatda o‘quvchilarga tarqatiladi.
3. Har bir guruhdan o‘ziga berilgan parchani diqqat bilan o‘qishi talab qilinadi. Chunki beriladigan topshiriqlar bevosita asar matni bilan bog‘liqdir.
4. Asarda keltirilgan qahramonlar nomi o‘qituvchi tomonidan og‘zaki aytiladi, o‘quvchilar esa belgilangan ma’lum muddat ichida o‘zlariga berilgan matndan kelib chiqqan holda unga tavsif yozishlari kerak.

Har bir jamoadan bitta vakil javoblarni o‘qib eshittiradi, o‘qituvchi javoblarni tinglab, umumiy xulosalarni chiqarishga yordam beradi. So‘ngra o‘quvchilar bergan javoblariga qarab rag‘batlantiradi.

Bunda kirish mashg‘uloti sifatida hikoya haqida dastlabki tasavvurni hosil qilish uchun foydalanish mumkin. Keyingi bosqichda esa o‘quvchilar matn ichidan kalit so‘zlarni yozib oladilar. O‘qituvchi esa matnni barcha guruhlardan yig‘ib oladi. O‘quvchilar esa kalit so‘zlarga qarab asar voqeasini ketma-ket bayon qiladilar. Qayta hikoyalash – asarning yoki uning parchasining aynan so‘zma-so‘z emas, o‘z

nutqiga moslashtirib qayta gapirib berishdir. Asarni qayta hikoyalash tafakkurni, his-tuyg‘uni faollashtiradi. Bog‘lanishli nutqini o‘stiradi. Asarni tahlil qilishga tayyorlaydi. Qayta hikoyalash jarayonida o‘quvchida o‘z munosabatini bildirish imkoni paydo bo‘ladi (cyberleninka.ru).

7-sinf “Adabiyot” dasturida “Oqboyin” asari o‘tib bo‘lingach, sinfdagi o‘ttiz o‘quvchi oltitalik besh kichik guruhga bo‘lingan. O‘qituvchi yangi mavzuni ham besh kichik o‘quv muammosiga bo‘ladi va har bir KG(kichik guruh)ga bitta kichik muammoni hal qilish vazifasi topshiriladi. Buning uchun har bir kichik guruh ixtiyorida darslik, “Oqbo‘yin” asari, tabiatni asrash, hayvonlarning tabiatdagi o‘rni haqidagi qo‘shimcha adabiyotlar, turli ilmiy jurnallar mavjud bo‘lishi kerak. “Oqbo‘yin” mavzusini quyidagicha kichik muammolarga ajratish mumkin:

1. Karim podachiga ta’rif bering.

2. Nima uchun Oqboyin Mallani yengsa ham “Shunga qaramay, ko‘nglining bir cheti hanuz xira yedi. Zafar zavqidan to‘la bahramand bo‘lishga nimadir xalaqit berardi” deyiladi?

3. Oqbo‘yinga ta‘rif bering. Bunda Oqbo‘yin va Malla munosabatidan kelib chiqib yozing.

4. Oqbo‘yin va Olapar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni yozing.

5. Oqbo‘yin-To‘rtko‘z, Oqbo‘yin-Yoldor munosabatlarida qaysi jihatlari ochilishiga e’tibor bering.

6. Yozuvchi o‘z maqolalaridan birida: “Bu dunyoda barcha narsa tabiiy uyg‘unlik asosiga qurilgani va tabiatga ozor beruvchi yolg‘iz jon odam bolasi ekanini favqulodda anglab yetgandim”, – deb yozadi. Siz bu fikrga qay darajada qo‘shilasiz? Biz o‘qigan “Oqbo‘yin” qissasi ham adibning ushbu fikrini asoslaydi, deyish mumkinmi?

7. Asar nima bilan tugaydi? Muallif asarni nega aynan shunday yakunlagan, deb o‘ylaysiz?

O‘qituvchi muammoni hal qilish uchun 10 daqiqa vaqt berilishini, undan so‘ng javoblar tinglanib, KG a’zolariga baho qo‘yilishini e’lon qiladi. Barcha kichik guruhlarga o‘z oldilaridagi o‘quv muammosini yechishga birdan kirishadilar. KG bir a’zosi darslik bilan, boshqasi ilmiy jurnallar bilan, yana biri lug‘atlar bilan, boshqasi ijtimoiy tarmoq bilan shug‘ullanib muammoga yechim izlaydi. Ikki nafar bola esa, o‘rtoqlarining muammo yechimiga qaratilgan fikrlarini qog‘ozga tushirib borishadi. Bu jarayonda o‘quvchilar fikriga munosabat bildirilmaydi, saralanmaydi. Ular nima

deyishsa, qog‘ozga tushirilaveradi. Bu jarayon g‘oyat qizg‘in bo‘lib yetti daqiqagacha davom etishi mumkin. So‘ng bildirilgan fikrlardan muammoga tizimli va mantiqiy yechim tayyorlanadi. Bu ishga uch daqiqagacha vaqt ketadi. Har bir KG nomidan faqat bir o‘quvchi javob beradi. Boshqa kichik guruhdagilar ham ishlarini to‘xtatib, uni tinglaydilar. Bir KG nomidan berilgan javob o‘sha guruhdagilar tomonidan to‘ldirilmaydi. Boshqa guruhdagilardan birortasi qo‘shimcha qilishi mumkin. O‘qituvchi KG nomidan javob bergan o‘sha bir o‘quvchini baholaydi va bu baho kichik guruhdagi barcha o‘quvchilarga ham qo‘yiladi. Shuning uchun KGdagi o‘quvchilar o‘zlari bilgan barcha narsani javob beradigan o‘quvchiga o‘rgatishlari kerak bo‘ladi. Aks holda ularning bahosi pasayib ketishi mumkin.

O‘qituvchi har bir KG vakili javobini tinglaydi, izohlaydi, kamchiligini to‘ldiradi so‘ng baho qo‘yadi. Har bir KG javobini boshqa KGdagilar ham tinglashadi. Shu tariqa sinfdagi barcha o‘quvchilar yangi mavzu yuzasidan muayyan tasavvurga ega bo‘ladilar. To‘g‘ri, bu yo‘sinda uyushtirilgan saboqda izchillik, mantiqiylik, ilmiylik, tushunarlilik, tarbiyaviylik va boshqa bir qator ta’lim tamoyillari buzilishi mumkin. Lekin eng muhimi, yangi mavzuni o‘quvchilarning o‘zlari o‘tadilar! Negaki bolalar o‘zlari o‘qituvchidan oldin qandaydir yangi mavzuni o‘zlashtirishlari mumkinligini anglab yetadilar, o‘zlariga ishonch paydo bo‘ladi. Muhimi, ular nafaqat o‘qituvchi bilan, balki bir-birlari bilan ham hamkorlik qilishga, bir-birlariga yordam berishga va shu asnoda yangi bilim o‘zlashtirishga erishadilar. Agar an’anaviy ta’lim usulida a’lochi o‘quvchilar yolg‘iz o‘zlari a’lochi bo‘lishga intilsalar, interfaol usulda hammaning a’lochi bo‘lishiga tirishadilar. Negaki sinfdoshining besh olishi unga ham aniq foyda keltiradi. Hamkorlik pedagogikasi shu tariqa yuzaga keladi. Asar mutolaasi uchun jami uch soat ajratilgan (7-sinf adabiyot, O‘qituvchi kitobi, 2022-yil, 30-bet).

Hamkorlikdagi o‘quv faoliyatining maqsadi o‘zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat hamda muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli o‘quvchilarda ilgari surilgan yangi g‘oyalar va o‘zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog‘liq maqsadlar hamda sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidi (R.Niyozmetova, 2018-yil, 152-bet).

Umuman bugungi kunda hamkorlik ta’limini adabiyot o‘qitishning deyarli barcha tizimlarida qo‘llash mumkin. Chunki adabiyot ta’limi qaysidir ma’noda fikrlar rang-barangligiga tayanadi. Undagi mohiyat o‘zaro tahlil va fikr almashinish jarayonida, muloqotlarda, suhbatlarda o‘zini namoyon qiladi. Adabiyot ta’limida shu kabi texnologik yondashuv darsda o‘quvchi ijodkor hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganadi va ushbu bilimlarini mustahkamlaydi hamda mustaqil tarzda tahlil qilish

kompetensiyasi shakllanadi, qolaversa, ijodiy fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. Adabiyot o‘qitishda tashkil qilingan kichik guruhlarga aynan mavzuga mos nom tanlashga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Hamkorlikda amalga oshirilgan ta’lim nafaqat oson va qiziqarli, balki samarali hamdir. Adabiyot o‘qitish metodikasida nafaqat bu texnologiyadan, balki boshqa ilg‘or pedagogik tajribalardan o‘rinli foydalanish darsning mazmunli tashkil etishda qo‘l keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. 7-sinf uchun darslik (2022-yil). Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. (224-bet) Toshkent: Respublika ta’lim markazi.

2. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma (2022). Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. (30-bet) Toshkent: Respublika ta’lim markazi.

3. Azizxo‘jayeva N. (2006-yil) .Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat (69-bet)

4. Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova (2018-yil). Adabiyot o‘qitish metodikasi (152-154-betlar) “Barkamol fayz media” nashriyoti.

5. Yo‘ldoshev Q.(1996-yil) Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari (59-bet).

6. cyberleninka.ru.

7. tilvaadabiyot.uz.

8. www.Ziyouz.com kutubxonasi.


## GERMANIYA TA’LIMIDA O‘QUV TOPSHIRIQLARI MAZMUNI (6-SINF DARSLIGI MISOLIDA)


***Hamrayeva Shahlo Odil qizi***

*ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 3-kurs*

*shahlohamrayeva9@gmail.com +998904692680*

*Ilmiy rahbar: Klaraxon Mavlonova*



***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada 6-sinf “Nemis tili” darsligidagi mavzu tahlil qilingan. Mavzudagi topshiriqlar nemis tili va adabiyotini chuqur o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, ulardagi mazmun va yondashuvlar haqida fikr yuritilgan. Har bir topshiriq alohida tahlil qilinib, ulardan to‘rtta nutqiy ko‘nikmadan qay biriga xizmat qilayotgani aniqlandi. Germaniya darsligidagi topshiriqlar izchil o‘rganilib, bizning ona tili darsliklarimizda uchramaydigan topshiriqlar haqida ham fikr*

*yuritildi. Darhaqiqat, maqola xulosasida o‘quvchilar bu mavzuni o‘rganganidan so‘ng, ulardan kutilayotgan natijalar ifoda etildi.*

***Abstract.*** *This article analyzes the topic of the 6th grade “German Language” textbook. The tasks in the topic are aimed at in-depth teaching of the German language and literature and they reflect on the content and approaches. Each task was analyzed separately and it was determined which of the four speaking skills it serves. Tasks in German textbooks were consistently studied and tasks not found in our native language textbooks were also discussed. In fact, in the conclusion of the article, the results expected from the students after studying thid topic were expressed.*

***Kalit so‘zlar:*** *ertak, sifat, sifat darajalari, sifat yasalishi, o‘qib tushunish, tinglab tushunish, yozma savodxonlik, og‘zaki nutq, lingvistik ko‘nikma.*

***Keywords:*** *fairy tale, quality, quality levels, quality formation, reading comprehension, written literacy, oral speech, linguistic skills.*

Germaniya ta’lim tizimida nemis tili va adabiyoti bir-biridan ajratilmagan holda o‘rgatiladi. Darslikdagi har bir topshiriq o‘quvchini har tomonlama yuksaltirishga, to‘rtta nutqiy ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. 6-sinf Germaniya darsligining 4-mavzusi “Sehrli ertaklar” (“Zauberhafte Märchenvelt”) deb nomlangan. Bu mavzu orqali o‘quvchilar ertakning xususiyatlari, ertak va badiiy ertakning bir-biridan farqli jihatlari, lingvistik ko‘nikma uchun esa sifat so‘z turkumi va unga oid topshiriqlar bilan tanishadilar. Mavzuning maqsadi o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish, badiiy tafakkur va kreativlikni o‘stirish asos qilib olingan. Dars davomida og‘zaki va yozma nutq, o‘qib tushunish va tinglab tushunish ko‘nikmalariga oid topshiriqlar shakllantirilgan. Nutqiy mavzu davomida berilgan savol va topshiriqlarning hajmi bilan tanishamiz:

| **Materiallar** | **Topshiriqlar** | **Savollar** |
|---|---|---|
| Rasmlar – 22 ta | Lingvistik ko‘nikma uchun – 12 ta | O‘qib tushunish uchun – 4 ta |
| Nasriy matn – 4 ta | O‘qib tushunish uchun – 10 ta | Yozma savodxonlik uchun – 5 ta |
| Audiomatn – 2 ta | Yozma savodxonlik uchun – 18 ta | Yakka tartibda ishlash – 15 ta |
| Jadval – 7 ta | Tinglab tushunish uchun – 2 ta | Guruh bilan ishlash uchun – 4 ta |

Loyiha ishi – 1 ta

Og‘zaki bayon qilish uchun – 7 ta

O‘z–o‘zini baholashga oid topshiriq – 2 ta

“Goldmari va Pechmarie” (“Die Goldmarie und die Pechmarie”) ertagining matn qismi berilgan va o‘quvchilar guruh bo‘lib savollarga javob berishi so‘ralgan. Birinchi savolda “Ertak bilan tanishing va qayta yozing” deyilgan. Bu orqali o‘quvchilarda yozma nutq ko‘nikmasi shakllanadi. Topshiriqning berilishidan asosiy maqsad o‘quvchi mustaqil fikrlashni o‘rganadi va so‘z qo‘llash mahoratini oshira oladi.



Die Goldmarie und die Pechmarie

nach Ludwig Bechstein

Es war einmal eine Witwe, die hatte zwei Töchter, eine rechte Tochter und eine Stieftochter; beide hießen Maria. Die rechte Tochter war nicht gut und fromm, dagegen war die Stieftochter bescheiden und sittlich. Die Stiefmutter benahm sich sehr schlecht mit ihr und eines Tages jagte sie sie aus dem Haus.

Maria war sehr betrübt, aber sie hoffte, dass fremde Menschen güti-

Mann, Thürschemann hieß er, um Herberge. Thürschemann stellte ihr drei Proben, und weil Maria bescheiden antwortete, schickte er sie durch das Goldtor, und sie wurde ganz golden. Zuhause angekommen, war die Stiefmutter neidisch und schickte auch ihre eigene Tochter los. Diese kam auch irgendwann zu Thürschemann, bestand aber die Proben nicht, weil sie immer nur an das Goldbad

5 Lies folgende Adjektive aufmerksam durch und ordne sie richtig ein. Versuche, die Liste zu erweitern.

• hoch • glatt • traurig • faul • fleißig • zuverlässig • nachlässig • klug • grau • lustig • dumm • rund • dünn • schlank • wellig • niedrig

| Innere Eigenschaften | | Äußere Eigenschaften | |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

5. “Quyidagi sifatlarni diqqat bilan o‘qing va ularni to‘g‘ri tasniflab yozing. Ro‘yxatni kengaytirib ko‘ring” shaklida berilgan. Bunda sifatlarni ichki va tashqi xususiyatlarga ajratish kerak. Sifatlarni xususiyatlarga ajratish orqali o‘quvchida lingvistik ko‘nikma shakllanadi.

Mavzuning lingvistik qoida qismida sifat so‘z turkumining xususiyatlari, jinsi, holati tushuntirib berilgan. Sifatga xos xususiyatlar keltirib o‘tilgan.


Deklination des Adjektivs

Merke dir!

- Adjektive stimmen in **Genus** (Geschlecht), **Numerus** (Zahl) und **Kasus** (Fall) mit dem Substantiv überein.
- Es gibt drei Deklinationstypen:
  - schwache Deklination: nach Artikelwort mit Endung
    *das kleine Kind; mit diesem kleinen Kind; mit einem kleinen Kind*
  - starke Deklination: wenn kein Artikel vorhanden ist; nach Artikelwort ohne Endung
    kühles Getränk; ein kühles Getränk
  - gemischte Deklination: nach ein, kein, mein, dein:
    wenn keine Endung/kein Kasussignal vorhanden ist → starke Deklination: ein alter Mann
    wenn ein Artikel schon die Endung hat → schwache Deklination: einen alten Mann

Beispiele: *der Bleistift, die Birne, das Heft, die Bücher*

“Sifatlar jinsi, soni va holati bo‘yicha otga mos keladi. Sifat tuzilishining uch turi mavjud:

Kuchsiz moyillik: artikldan keyin tugaydigan so‘z: kichkina bola – bu kichkina bola bilan –kichkina bola bilan;

Kuchli moyillik: artikl bo‘lmaganda, artikldan keyin tugallanmagan so‘z: salqin ichimlik”. Bizning 6-sinf ona tili darsligimizda sifat so‘z turkumiga oid lingvistik qoida o‘quvchilarga quyidagicha taqdim qilingan. Lingvistik qoidada sifatning tuzilishiga ko‘ra turlari misollar orqali tushuntirib berilgan.

Otga bog‘lanib, uning belgisini bildiradigan va “qanday?”, “qaysi?” so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar sifat deyiladi.

Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan sifatlar qo‘shma sifatlar hisoblanadi.

Qo‘shma sifatlar asosan qo‘shib yoziladi: quyonyurak, devqomat, mehnatsevar.

Juft va takror sifat qismlari chiziqcha bilan yoziladi: baxtli-taxtli, yo‘l-yo‘l.

Juft sifat qismlari -u/-yu vositasida bog‘lansa, ular ajratib yoziladi: yakka-yu yagona.

Mavzudagi lingvistik qoidaga muvofiq topshiriqlar berilgan. Unda sifatning gapda qo‘llanilish o‘rni, qanday holatda kelishi va gapda qanday gap bo‘lagi vazifasida kelishiga oid vazifalar berilgan.

2 Ergänze richtig.

a Das klein__ Mädchen gräbt den neu__ Nachbarn.

b Der klein__ Junge läuft auf dem neu gepflastert__ Gehsteig.

c Der breit__ Sessel passt nicht durch die schmal__ Tür.

d Die fleißig__ Schüler wollen den anspruchsvoll__ Mathetest bestehen.

e Die hilfsbereit__ Tochter möchte das schmutzig__ Geschirr spülen.

f Der grün__ Brokkoli schmeckt den meisten klein__ Kindern nicht.

Topshiriqda chiziqchalar o‘rnini to‘g‘rilab, sifatlarni qo‘yib to‘ldirish aytilgan va uni yozma tarzda bajarish kerak. Yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.




To‘rtinchi vazifada so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, gaplarni to‘ldirish kerak. Bunda o‘quvchi qaysi so‘z qanday gap bo‘lagi vazifasida kelayotganini bilgan holda to‘ldirishi kerak. Bunda asosiy e’tibor yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan. 6-sinf o‘quvchisiga yozma savodxonlik albatta kerak. Chunki kelajakda ish yuritish hujjatlari bilan ishlash mobaynida yozma savodxonlik muhim o‘rin tutadi.

Masalan: a) Sich freuen über / meine Schwester / dein Besuch

Intiq bo‘lib kutmoq / singlim / tashrifingiz

Bu so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘ysak, “Singlim tashrifingizni intiq bo‘lib kutaman” tarzida gap hosil bo‘ladi.

Ona tilimizda sifat so‘z turkumida darajalanish bor. Oddiy, qiyosiy, orttirma va ozaytirma darajalari mavjud. Nemis tili grammatikasida sifatning uchta darajasi qayd etilgan. Darajalanishga oid topshiriqlar nemis tili darsligida o‘ziga xos tarzda berilgan. O‘zbek tilida asliy sifatlar belgini darajalab ko‘rsatish xususiyatiga ega. Belgining ortiq yoki kamlik jihatidan farqlanishi sifat darajalari, ana shunday ma’no ifodalovchi shakllar esa daraja shakllari sanaladi ( Yuldasheva, 2021, 292-bet).

Quyidagi topshiriqda oddiy darajada berilgan so‘zlarning qiyosiy va orttirma darajalarini yozish vazifasi ko‘rsatilgan. Ko‘rib turganimizdek, birinchi navbatda grammatika berilyapti, keyin esa unga doir topshiriq berilgan. Ana shunda bu vazifa orqali o‘quvchi mavzuni qay darajada tushunganini bilib olsa bo‘ladi. Bu nutqiy savodxonlikni oshirishga xizmat qiladi.

2 Ergänze den Komparativ und den Superlativ der Adjektive. Manche Adjektive verändern sich stärker.

| Positiv | Komparativ | Superlativ |
|---|---|---|
| bequem | | |
| edel | | |
| fett | | |
| gern | | |
| gut | | |
| heiß | | |
| hoch | | |
| komisch | | |
| lang | | |
| nah | | |
| neidisch | | |
| teuer | | |
| viel | | |



**Belgi bildiruvchi so'zlar darajalanish xususiyatiga ega.**
Sifatning quyidagi to'rt xil darajasi mavjud:
1. Oddiy daraja: *issiq, kuchli.*
2. Qiyosiy daraja: *ko'cha xonadan issiqroq; Aziz Toʻlibga nisbatan kuchli.*
3. Orttirma daraja: *juda issiq, eng kuchli, lang ochiq, yam-yashil, bus-butun, kap-katta, toʻppa-toʻgʻri.*
4. Ozaytirma daraja: *sal issiq, biroz kuchli, picha ustun, xiyol qiyin, nimpushti, och sariq, koʻkimtir, koʻkish, koʻkchil.*
Belgini bildiruvchi so'zlarning ayrimlariga **-roq** qo'shimchasini qo'sha olmaymiz.
Bunday so'zlar daraja ko'rsatish imkoniyatiga ega emas: *tonggi, samoviy, farzandli.*

shaklida yozing.
*past, yashil, baland, tekis*

g. Berilgan gaplarda sifatning
oshlang.
*g past, yuqoriroq*

Antarktidaning "Vostok" stansiyasida qayd etilgan, o'shanda maxsus termometr −89,2 °C ni ko'rsatgan. Bu meteorologik kuzatuvlar tarixidagi eng past haroratdir.

1922-yilda Liviyada qayd etilgan. Unga ko'ra, Yerdagi eng yuqori harorat +57,8 °C deb belgilangan.

Inson uchun ... harorat +20...+25 daraja.

Yer yuzidagi insonlar o'rtacha havo harorati −50 va +50 daraja oraliqdagi sharoitda yashay olishi mumkin, lekin ayrim hududdagi insonlar −50 darajadan ... va +50 darajadan ... ko'rsatkichlarga ega sharoitda ham jon saqlay oladilar.

Yuqoridagi ona tilimizda 6-sinf o‘quvchilari uchun berilgan sifat darajalariga oid lingvistik ko‘nikma va unga muvofiq tarzda tuzilgan topshiriqlar keltirilgan. Darajalanishning barcha xususiyatlari lingvistik ko‘nikmada yoritib berilgan. Topshiriqlar ham qiziqarli berilgan. Germaniya darsligida sifat darajalariga oid berilgan topshiriq va vazifalar bizning ona tilimizda ham mavjud.

Mavzuning “Sifatning yasalishi” qismida grammatika va unga bog‘liq 4 ta topshiriq berilgan. Har bir topshiriq orqali o‘quvchi mavzuning bu qismini mukammal egallay oladi.

Mazkur qoidada sifatning qaysi yo‘llar bilan yasalishi, qanday qo‘shimchalar qo‘shilishi haqida fikr yuritilgan. O‘ng tarafdagi qoidada so‘zlarga qo‘shiladigan old qo‘shimchalar keltirilgan.

Birinchi topshiriqda: “Quyidagi so‘zlar birikma yoki hosila ekanligini aniqlang va ularni daftaringizga ikki ustunga yozing” shaklida berilgan. Ikkinchi vazifada: “To‘g‘ri so‘zlarni yaratish uchun so‘z qurilish bloklarini birlashtiring. Har bir asosiy so‘z uchun kamida bitta misol yozing” tarzida topshiriq berilgan. Har ikkala topshiriq ham o‘qib tushunish ko‘nikmasi va yozma nutq savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

1 Bestimme, ob die folgenden Wörter eine Zusammensetzung oder eine Ableitung sind und schreibe sie in zwei Spalten in dein Heft.

• blitzschön • blitzschnell • butterweich • egoistisch • federleicht • freundlich • geduldig • giftgrün • herbstlich • indirekt • informell • inkompetent • inkonsequent • irrational • knallrot • launisch • leidenschaftlich • mutig • neblig • optimistisch

2 Kombiniere die Wortbausteine zu korrekten Wörtern. Du kannst die Bausteine beliebig oft verwenden. Schreibe zu jedem Grundwort mindestens ein Beispiel in dein Schulheft.

| Bestimmungswort | Grundwort |
| --- | --- |
| fort; vorwärts; aus; auf; Laub; Blatt; Tinte(n) | gehen; ziehen; stehen; blau; grün; schreiben; Farbe; Frosch; Form; Frosch; Glas; Spiel |

Mavzuning oxirgi qismida ona tili va adabiyot fani uyg‘un holda topshiriqlar keltirib o‘tilgan. Bu sinf darsligida har bitta mavzudan keyin o‘quvchi o‘z-o‘zini baholash uchun ball belgilangan. Mavzuni mustahkamlash qismida bitta matn va unga doir topshiriqlar keltirilgan. O‘quvchi mustahkamlash qismida ham ona tili ham adabiyot fanlariga oid topshiriq bajaradi. Keyin har bitta topshiriqdan keyin o‘quvchi o‘z-o‘zini baholab boradi. So‘ngra oxirida maksimal balldan necha ball yig‘gani kelib chiqadi. Mustahkamlash qismi A va B qismdan tashkil topgan. Ikki qismda ham maksimal ball 100 ball qilib belgilangan. Bunday topshiriqlar bizning ona tili darsligimizda uchramaydi. Hozirda yangilanayotgan darsliklarga shu mazmundagi topshiriqlarni kiritilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mazkur mavzu yakunida o‘quvchilarda lingvistik va nutqiy ko‘nikmalar bo‘yicha quyidagilar shakllanadi:

Wiederholen und üben

- Nutqiy mavzuni o‘rganganidan keyin adabiyot qismida ertakning xususiyatlarini, badiiy va xalq ertaklarnining farqli jihatlarini va ertaklarning turlarini bir-biridan ajratishni o‘rganadi;
- Ona tili qismida sifatning gapda qo‘llanish o‘rinlari, darajalari va yasalish xususiyatlarini o‘rganadi;
- To‘rtta nutqiy ko‘nikmani tushunadi va topshiriqlarni bemalol bajara oladi;
- Yakka yoki guruh holatda ishlashni o‘rganadi;
- Mavzu yakunida baholash tizimi mavjud. O‘quvchi o‘z-o‘zini baholay oladi va mavzuni qay darajada tushungani aniqlanadi.

Mening nutqiy mavzudan xulosam shuki, bu mavzu orqali o‘quvchi o‘zi uchun kerakli bo‘lgan barcha tushunchalarni o‘zlashtiradi. Mavzu davomida 4ta nutqiy ko‘nikmani o‘zlashtiradi. Savol va topshiriqlar o‘quvchiga fikrni erkin bayon

eta olish, ma’lum bir vaziyatda shularni qo‘llay olish qobiliyatlarini yuzaga keltiradi. O‘quvchini shaxsiy fikrini aytishiga hech qachon to‘sqinlik qilmaslik kerak. O‘quvchini har tomonlama qo‘llab-quvvatlab, ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Bunda o‘qituvchining roli muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishi kerak. Bu nutqiy mavzu o‘quvchini har tomonlama o‘sishiga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Asilova, G. (2023). O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. (66-bet). Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
2. Azimova I, Mavlonova K va boshqalar. (2022). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. (86-bet). Toshkent: Respublika ta’lim markazi.
3. To‘xliyev, B va boshqalar. (2006). O‘zbek tili o‘qitish metodikasi.(108-bet). Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi.
4. Yuldasheva, D. (2021) O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. (292-bet). Buxoro davlat universiteti.
5. G‘ulomov, A va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. (248-bet). Toshkent: Fan va texnologiya.
6. 6.Klasse. Deutsch als Muttersprache (55-bet).


## HINDISTON TA’LIMIDA DARSLIKLARNING MAZMUNI (5-SINF HAYDAROBOD DARSLIGI MISOLIDA)


***Ikromova O‘g‘iloy Raximjonovna***

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti*

*Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti 3-kurs talabasi*

ogiloyi490@gmail.com

***Ilmiy rahbar: Klaraxon Mavlonova***



**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Haydarobod 5-sinf darsligidagi o‘quv topshiriqlari haqida so‘z boradi. Ularning aynan o‘quvchilarda qaysi nutqiy va lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilganligiga alohida ahamiyat beriladi.*



**Kalit so‘zlar:** *nutqiy ko‘nikma, og‘zaki nutq, yozma nutq, o‘qib tushunish, tinglab tushunish, modal fe’llar.*

**Abstract:** *This article is about the learning assignments in Hyderabad 5th grade textbook. Particular importance is attached to the development of speech and linguistic skills in students*.

**Keywords:** *speaking skills, oral speech, written speech, reading comprehension, listening comprehension, modal verbs*

Nafaqat O‘zbekiston, balki, dunyo ta’limi bo‘yicha ta’lim tizimining oldida turgan bosh maqsad bu har tomonlama yetuk, o‘z mustaqil fikriga ega, salohiyatli kadrlarni tayyorlashdan iborat. Bu jarayonni amalga oshirish uchun tabiiyki til va tafakkur yordamga keladi. O‘quvchilar mustaqil fikrlashlari uchun, tafakkur qilishlari hamda o‘z fikrlarini bayon eta olishlari uchun so‘z boyligi va ularni to‘g‘ri ishlata bilishi lozim. Biror mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligini ham aynan o‘quvchining so‘zlari belgilab beradi (Roziqov O, Mahmudov M, Adizov B, Hamroyev A, 200, 17-bet). Shunday ekan, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish uchun ularning so‘z boyligiga ahamiyat berish kerak. Ne’matov H. ta’kidlaganidek, til fikrni faqat ifodalashdagina emas, shakllantirishda ham ximat qiladi. Bunda asosiy e’tiborni ta’lim tizimining mana shu maqsadini o‘zida ifoda etgan ona tili darsliklariga qaratish lozim. O‘qitiladigan darsliklar ichidagi materiallar hamda ulardagi topshiriqlar DTS va o‘quv dasturlariga mos bo‘lishi, ya’ni talablar bo‘yicha o‘quvchilar yoshiga moslashtirilgan bo‘lishi, nimagadir xizmat qilishi kerak.

Darsliklar quyidagi qoidalar asosida bo‘lishi lozim.

1. Bolalarni nutq hodisalarini kuzatish va ulardan xulosalar chiqara olishga o‘rgatish.

2. Nutqdan tilga, til dalillaridan qoidalarga qarab borish tamoyili asosida ona tili mashg‘ulotlarini tashkil etish.

3. Berilgan tayyor va tuzilgan matnlar ustida o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish.

4. Ona tilini o‘qitishda qoidabozlikni kamaytirish, nutq amaliyoti ustuvorligini ta’minlash (Roziqov O, Mahmudov M, Adizov B, Hamroyev A, 2005,17-bet).

5-sinf Haydarobod darsligiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ushbu darslik ham aynan mana shunday tizimli qonuniyatlar asosida yaratilgan. Darslikdagi bir nutqiy mavzu, masalan “Men krekit o‘ynini yaxshi o‘ynay olmayman” deb nomlanuvchi mavzuni tahlilga tortamiz. Avvalo, materiallarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, mavzuda bitta nasriy, bitta she’riy, bitta audio matn hamda o‘n to‘rt dona rasm, to‘rt dona jadval berilgan. Darslikda lug‘atlar bilan ishlashga ko‘proq e’tibor qaratilgan bo‘lib, ushbu mavzuning o‘zida to‘rt guruh lug‘atlar jamlanmasi mavjud.

Mavzudagi topshiriqlar berilgan materiallar asosida tuzilgan bo‘lib, bitta material uchun bir nechtagacha topshiriq ishlab chiqilgan.

- Rasmlar uchun ikkita savol berilgan.

  Suratga qarang va quyidagi savollarga javob bering:

  1. Suratdagi kriketchilarni nomlay olasizmi?
  2. Qaysi voqeada ular kubokni olishdi?

Ushbu topshiriq orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqi rivojlantiriladi, mavzu yuzasidan fikr va mulohazalarini bildirish ko‘nikmasi yaxshilanadi. O‘quvchilar avval rasmdagi sportchilarning ismlarini aytishadi. Ularning qanday o‘yinlarda g‘olib bo‘lganliklari haqida ma’lumot so‘raladi. Ularning kubokni qanday olganliklari haqida so‘z boradi. Ushbu kriketchilarning o‘yinlari va qobiliyatlari to‘g‘risida suhbat tashkillashtirish mumkin.

- Audio matn uchun uchta savol berilgan.

Savollarda voqealarning kelib chiqish sabablari, matn qahramonining ichki kechinmalariga o‘quvchilarning munosabati so‘ralgan. Bu ham o‘quvchilarda birinchi navbatda tinglab tushunish ko‘nikmasini yaxshilagan holda, fikrlashini o‘stirib, og‘zaki nutqni rivojlantiradi.

- Nasriy matn uchun:

a) 7 ta test berilgan.

Test savollarida jumlalarni to‘g‘ri to‘ldirish so‘ralgan. Ushbu testlar orqali berilgan matndagi voqealarni ketma-ket, to‘g‘ri joylashtirish kerak bo‘ladi. Bu o‘quvchilarga matn ma’lumotlarini to‘g‘ri anglash va matn mazmunini to‘g‘ri yoritishga yordam beradi.

b) 3 ta savol berilgan.

Savollar matn mazmuni va g‘oyasini ochishga xizmat qilib, o‘qib tushunishni yaxshilaydi.

d) Jadval berilgan.

Matnda berilgan lug‘atlarning ma’nosini izohlashga qaratilgan topshiriq. Jadvalda matnda berilgan so‘zlar keltirilgan bo‘lib, o‘quvchi so‘zlarning o‘z taxminidagi ma’nosi va asl ma’nosini topishi kerak bo‘ladi. Aynan lug‘atlar bilan ishlash orqali so‘z boyligi ortad

e) Fikrlar jadvali berilgan

Ushbu jadvalga o‘quvchilar matndan olgan xulosalarini yozishlari kerak bo‘ladi. Bu topshiriq o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatadi va yozma nutqini yaxshilashga yordam beradi.

| Word | The meaning I guessed | The meaning I got from the dictionary |
|---|---|---|
| | | |

f) Savollar jadvali.

Bu jadvalga o‘quvchilar o‘zlarining sevimli o‘yinlari haqida va u bilan bog‘liq savollarga javob yozishlari kerak bo‘ladi.

- Loyiha ishi tayyorlash topshirig‘i berilgan.

“Bizning mahorat kundaligimiz” mavzusida. Guruhlarda ishlang va turli ko‘nikmalar ro‘yxatini tuzing. Sizning sinfingizdagi qizlar va o‘g‘il bolalarda bor bo‘lgan ko‘nikmalarni yozing. Ko‘nikmalar – bu biz qila oladigan narsadir. Ushbu topshiriqdan maqsad o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini uyg‘otish. Guruhlarda ishlash orqali o‘quvchilarni birdamlikka o‘rgatish.

- Krossvord berilgan.




Rasmlardan ishora sifatida foydalanib, quyidagi krossvordni to‘ldiring. Ushbu topshiriqda o‘quvchilar sport turlariga doir ko‘plab rasmlar bilan ishlaydilar. Bu

rasmlar orqali, ular anglatayotgan sport turini topishlari kerak bo‘ladi. Bu o‘quvchilarni topqirlikka va rasm orqali so‘zni ifodlashga o‘rgatadi.

- She’riy matn uchun savollar berilgan.

Quyidagi savollarga javob bering.

1. She’rning qaysi misrasida har bir a’zoning mas’uliyati bir xil ekanligi aytilgan?
2. Qaysi baytda jamoaning irodasi, qat’iyati haqida so‘z boradi?
3. Nima uchun jamoaga hakam yoki hakamlar hay’ati kerak emas.
4. Shoir qaysi meros haqida gapirdi.

Ushbu topshiriqdagi savollar matn mazmuni va undagi ilgari surilgan g‘oyalarni ochishga xizmat qilgan. Ushbu she’riy matn ham aynan o‘quvchilarning o‘qib tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini yaxshilashga qaratilgan.

- Lingvistik ko‘nikma uchun modal fe’llarni o‘zlashtirish berilgan.

O‘quvchilar modal so‘zlar qatnashgan gaplarni tahlil qiladilar.



**Grammar**

**I Observe the following sentences from the story.**

1. I knew I must catch it.
2. Isru could have done better.
3. I was just under the ball. I shouldn't miss.
4. Now it might come true.

The underlined words in the above sentences express expectations, possibility and necessity.

These words are called Modals or Modal verbs .

From sentence (1), it is clear that **'must'** expresses necessity. The modal **'must'** also expresses obligation, duty, determination, as shown in the following sentences.

He **must** tell the secret. (shows obligation)

We **must** look after our parents. (shows duty)

I **must** complete the work today. (shows determination)

Free distribution by T.S. Government 2019-20

107

From sentence (2), it is clear that the modal **'could'** expresses possibility. The modal '**could**' also be used to make a polite request:

**Could** you tell me the way to Post Office?

The modal **'could'** is used to seek permission:

**Could** I talk to your headmaster?

Some other modals are: **can, dare, may, might, ought to, will, would, shall** and **need**.

Remember, every modal is followed by another verb.

Modal fe'llar haqida tushunchaga ega bo'lgach nazariy ma'lumotga o'tadilar. Modal fe'llar qoidasi asosida ularni gapda to'g'ri qo'llashga doir topshiriq bajaradilar.

Darsning so'ngida jadval berilgan. Ushbu jadvalda "Men bu mavzuni qanchalik yaxshi tushundim?" savoli berilgan bo'lib, o'quvchilarning mavzuni qanchalik yaxshi o'zlashtirganlarini aniqlanadi.

**How well did I understand this unit?**
**Read and tick (✓) in the appropriate box.**

| * | Indicators | Yes | Somewhat | No |
|---|---|---|---|---|
| 1. | I listened to and understood the listening text. | | | |
| 2. | I read and understood the text; | | | |
| | a) I Was Bad at Cricket | | | |
| 3. | I talked about Cricket. | | | |
| 4. | I completed a cross word puzzle. | | | |
| 5. | I understood and did the exercises on modal auxillaries. | | | |
| 6. | I understood and recited the poem, 'Our Legacy'. | | | |
| 7. | I was able to write; | | | |
| | a) a reply letter | | | |
| | b) thoughts of Somla | | | |
| | c) a description | | | |

Xulosa qilib aytsak, o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda bevosita darslikdagi matnlarning o'rni katta. Mana shu matnlar bilan ishlash orqali o'quvchilarning tafakkuri kengayadi, anglash, yozish, gapirish texnikasi yaxshilanadi. Darsliklardagi topshiriqlar va savollar ham aynan matn yuzasidan tuziladi (My English world class V, 2019). Haydarobod darsligida ham matnlarga alohida ahamiyat berilgan. O'quvchilarga ko'p matn berib, ularning mazmunini tushunib ulgurmasdan boshqa matnga o'tib ketishdan cheklanilgan. Matn tanlashda ularning turiga ahamiyat berganligini nasriy, she'riy va audio matn tanlaganligida ko'rishimiz mumkin. Hamda shu matnlarga doir savollar o'quvchilarda shakllanishi kerak bo'lgan ko'nikmalarga qaratilganligi ahamiyatlidir. Tuzilgan topshiriqlar o'quvchilarning nutqiy va lingvistik ko'nikmalarini rivojlantirish talablariga javob bera oladi. Mavzu so'nggida o'quvchilarning mavzuni tushunganlik darajasining tekshirilishi o'qituvchi uchun dars jarayoniga qanday yondashish kerkligini o'rgatishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Roziqov O, Mahmudov M, Adizov B, Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. – Toshkent, 2005. – B, 17.
2. My English world class V, 2019.
3. Yusupova T. Matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini o‘stirish. Maqola. – Toshkent, 2022.

# BIRINCHI TIL(ONA TILI)NI O‘QITISHDA GRAMMATIK YONDASHUV MOHIYATI

## (5-SINF HAYDAROBOD DARSLIGI ASOSIDA)

***Keldiyorova Zarinabonu Sirojiddin qizi***
*TOSHDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti, 3-kurs*
*zarinabonukeldiyorova1@gmail.ru +998914609129*
***Ilmiy rahbar: ped.f.d. Klaraxon Mavlonova***

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada 5-sinf uchun mo‘ljallangan Haydarobod(Hindiston) darsligida ingliz tilini birinchi til(ona tili) sifatida o‘qitishdagi grammatik bilimlar berilish ketma-ketligi tahlil qilingan. Shuningdek, bir mavzuning keyingi mavzularga aloqasi haqida ham fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** bo‘lim, mavzu, sifat, topshiriq, grammatik qoida

**Abstract.** This article analyzes the sequence of grammatical knowledge in teaching English as the first language(mother tongue) in Hyderabad(India) textbook for 5th grade. And the relationship of one topic to the next topics is also discussed.

**Keywords:** unit, theme, adjective, task, grammatical rule

Ona tili darsliklari xususida so‘z borar ekan, albatta, unda mavjud mavzularni alohida tahlil etish talab qilinadi. Chunki berilgan mavzular biri ikkinchisiga o‘zaro bog‘liq bo‘lishi, boshqacha aytganda, uzviy davomli bo‘lishi kerak. Ammo bu fikr hamma ona tili darsliklari uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilmasligi ham mumkin. Ona tili darslarida har qanday uslubdagi matnni o‘qish (yoki eshitish) va uni anglash, tanqidiy va ijodiy fikrlash bilan bog‘liq malakani shakllantirish nazarda tutilsa, grammatik savodxonlik jarayonida professor B.Mengliyev ta’kidlaganidek, asosiy diqqatni o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning ma’no nozikliklari, farq va o‘xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish , so‘zlarni bog‘lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma’noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o‘zgalar fikrini to‘g‘ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to‘g‘ri baholash va til

imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va til malakasini o‘stirishga qaratish zarur (Mavlonova, 2022, 2-bet).

Hindiston ta’limida 2013-yildan buyon amalda bo‘lgan 5-sinf Haydarobod ona tili darsligi 8 ta bo‘lim va har bir bo‘lim 2 ta jami: 16 ta mavzudan iborat . Darslikni o‘rganish asnosida o‘quvchiga har bo‘limda 1 ta asosiy va ayrim bo‘limlarda esa 1 ta qo‘shimcha grammatik mavzu o‘rgatiladi. Ushbu darslik quyidagi grammatik mavzularni o‘z ichiga oladi:

*1-bo‘lim: Artikllar(“We are articles”)* va *Ravish (Adverb*). Grammatik qoida ingliz tilida mavjud birlikdagi otlardan oldin kelib, ularga ishora qiluvchi ko‘rsatgichlar, ya’ni artikllarni ishlatish holatlari haqida. Asosiy mavzu bo‘yicha batafsil ma’lumot berilgan.


Hari was sitting quietly in a sandy corner. A crab came and nipped him hard. He ran fast.

The words **quietly, hard** and **fast** tell us how the actions took place. These words are called **Adverbs** because they modify verbs.

Ikkinchi mavzu esa qisqa, aniq, tushunarli yoritilgan. O‘quv yilining dastlabki darslaridan ravish nima ekanligi, uning turlari, sintaktik vazifasi yoki ravishlashish holatlari emas, faqatgina ravish harakatning belgisini ifodalashi haqida qoida va namuna berilgan. Ammo bu mavzu keyingi sinflarda yana batafsil o‘rgatiladi.

*2-bo‘lim: Predloglar(Preposition)* va *Qofiyadosh so‘zlar(Rhyming words).* Ingliz tilida mavjud predloglar o‘zbek tilida yo‘q. Ammo uning aksariyat vazifasini kelishiklar bajaradi. Ingliz tilida juda ko‘p predloglar bor va ularni to‘g‘ri qo‘llash biroz mushkul. Qoida asosida, asosan, payt, joy, shuningdek, harakat yo‘nalishiga oid 11 ta predlog bilan tanishiladi**,** mustahkamlash uchun bir nechta mashqlar bajariladi. Qofiyadosh so‘zlarning she’rlarda uchrashi va namuna (fur-pur)berilib, topshiriq sifatida jadvalni to‘ldirish beriladi.

*3-bo‘lim: Sifat (Adjective).* Bu bo‘limda grammatik mavzu uchun qoida berilmagan. Ammo grammatik qoida uchun ajratilgan o‘rinda topshiriq berilgan. Unga ko‘ra, yuqorida keltirilgan bir nechta sifatlarni quyida keltirlgan gaplar mazmuniga ko‘ra tanlash kerak. Ko‘rinadiki, mavzu haqida ma’lumot berish o‘qituvchiga yuklanmoqda. Undan keyingina og‘zaki va yozma, guruh bo‘lib ishlashga doir topshiriqlar beriladi.


(kind, cloudy, intelligent, big, thin, thirsty, hot, useful, sad, costly)

1. Radha answers all the questions correctly. She is an _____ girl.
2. These chairs cost 5000/-. They are _____
3. Turn on the fan. It is _____
4. There are black clouds in the sky. It is a _____
5. A cow gives us milk. It is a _____ animal
6. Rahul doesn't eat well. So, he is _____
7. Raheema didn't get good marks. She is _____
8. There are many rooms in our school. It is _____

4-bo‘lim: *Yordamchi fe’llar (*auxiliary verbs). *Ushbu bo‘lim davomida yordamchi fe’llar bo‘yicha*

*grammatik bilimlar beriladi. Ammo qoidadan avval yordamchi fe'llar ishtirok etgan bir nechta gaplar berilib, ularni tahlil qilish aytilgan.*

*Qoidaga ko'ra, yordamchi fe'llar ingliz tilida darak va inkor gaplarda doim egadan keyin, so'roq gaplarda esa egadan oldin kelishi aytilgan. Qoidadan keyin ularni farqlash uchun og'zaki va yozma topshiriq berilgan. Qo'shimcha mavzu yo'q.*

5-bo'lim: Bog'lovchilar (because, though). *Ushbu ikki bog'lovchini qo'llanilishiga doir turli ma'nodagi ikkita gap misol tariqasida keltirilgan:*

1. Balanced food is good because it gives your body all that it needs. (Me'yoriy ozuqa yaxshi, chunki u sizning tanangizga hamma ehtiyojlarni beradi.

2. Though *we all know that soft drinks are bad for health, we feel like having them.(**Garch**i gazli ichimliklar sog'liq uchun zararligini bilsak-da, ularni iste'mol qilishni xohlaymiz. )*

*6-bo'lim: Sifat darajalari (Degrees of adjectives) va Omofonlar (Homophones).*

Uchinchi bo'limda oddiy daraja bilan tanishilgan bo'lsa, mavzuning davomi ushbu bo'limda chuqur o'rganiladi. Ya'ni sifat so'z turkumi va uning uch darajasi, yasalishi hamda ularning farqi, ularni nutqda qo'llay olish, shuningdek, atrofdagi insonlarda bor sifatlarni yoza olish kabi topshiriqlar berilgan. Shuningdek, omofonlar haqida ham qisqacha to'xtalib, unga doir vazifalar ham keltirib o'tilgan.

*7-bo'lim: Modal fe'llar (Modal verbs).* Grammatik qoidada modal fe'llarning aynan 2 tasiga (must, could) to'xtalingan esa-da, ammo bo'lim davomida yana bir qator modallar uchraydi. Ularni o'quvchilarga tushuntirish esa o'qituvchining zimmasiga yuklatilgan.


Words used for male animals, boys and men are called **masculine gender nouns**.
Example: son, king, brother
Words used for female animals, girls and women are called **feminine gender nouns**.
Example: daughter, queen, sister
Words used for both males and females are called **common gender nouns**.
Example: child, doctor, cousin
Things without life are said to be of neuter gender.
Example: table, fan, car

*8-bo'lim: Otlarda jins kategoriyasi(Gender of nouns).* Barcha tillarda jins kategoriyasi farqlanadi. Hindistonda ushbu kategoriya va uning nomlanishi 5-sinfdan boshlab o'rgatiladi. Erkaklar, ayollar jinsiga oid so'zlar (qirol-qirolicha, o'g'il-qiz va h.k), shuningdek, umumiy (bola, shifokor, jiyan va h.k) va jonsiz narsalar. (Ma'lumot uchun! Ayrim tillarda bu rod atamasi bilan yuritiladi). Mavzu haqida tushuncha hosil bo'lgach, o'rganilgan narsalarga oid topshiriqlar bajariladi. Berilgan bir nechta sifatlarni jadval asosida 5 ta guruhga ajratish malakasi shakllantiriladi.

Yuqoridagi tahlilga koʻra aytish mumkinki, bitta darslik uchun mavzular ketma-ketligi oʻzaro bogʻliq va uzviy boʻlishi oʻta muhim talab hisoblanmaydi. Masalan, morfologiyadan biror soʻz turkumi oʻtildimi, qolganlari ham davomiy oʻtilishi kerak degan qarash xato. Yoki ravish soʻz turkumi oʻtilishi kerak boʻlgan oʻrinda uning oltita ma'no turini olti soat dars davomida yodlatishdan koʻra, ravish nima ekanligi va uning vazifasi haqida tushuncha berish muhimroqdir. Chunki ona tili ogʻzaki va yozma nutq uchun xizmat qilar ekan, mavzularni ham ehtiyojlarga qarab tanlash oʻrinlidir. Demak, oʻquv materiallari tilni oʻzlashtirishda nutqiy vaziyatning oʻrni nechogʻlik muhimligidan kelib chiqqan holda tanlanadi, ya'ni qaysi yoshdagi bola qanday mavzularda muloqot qilish, til birliklaridan foydalanishga ehtiyoji borligi inobatga olinadi(Mavlonova, 2022, 2-bet). Zero oʻquvchi oʻzi oʻrgangan bilim va malakalarini tanish va notanish holatlarda ham baravar toʻgʻri qoʻllay olishi bu pedagogning yutugʻi sanaladi. Chunki umumta'lim maktablarining vazifasi ham bolani hayotga shaxs sifatida tayyorlashdan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Asilova, G. (2023). Oʻzbek tilini oʻqitish metodikasi. (151-bet). Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.
2. Mavlonova, K. (2022). Ona tili ta'limi mazmunidagi takaomillashuv. (2-bet). "Ma'rifat" gazetasi, 29-son.
3. Toʻxliyev, B va boshqalar. (2006). Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi.(196-bet). Toshkent: Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasi.
4. Yuldasheva, D. (2021) Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi. (418-bet). Buxoro davlat universiteti.
5. Gʻulomov, A va boshqalar. Ona tili oʻqitish metodikasi. (380-bet). Toshkent: *Fan va texnologiya*.
6. 5th class English. My English world. (page:147). Hyderabad.


## IBORALARNI TIZIMLI OʻQITISH BOʻYICHA METODIK TAVSIYALAR


*Madina Mamasaidova Abduraxmon qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDOʻTAU OTAT fakulteti 4-kurs talabasi*

*madinamamasaidova01@gmail.com +998948140607*



***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada iboralarni oʻqitish va ularning oʻquvchilar nutqida faolligini oshirirshning ahamiyati, ularni oʻqitishda tizimlilikni yoʻlga qoʻyish va ushbu tizimni ishlab chiqish, soʻzni faol leksemaga aylantirish uchun foydalaniladigan*

*usullar asosida iboralarni o‘qitish uchun tavsiyalar berish va dars jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan mashq turlarini ishlab chiqish aks etgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Lingvomadaniyatshunoslik, iboralarning shakllanish tarixiga ko‘ra turlari, iboralarning paydo bo‘lish manbalari, iboralar etimologiyasiga asoslanib o‘qitish, kontekstli ta’lim, interaktiv o‘yinlar.*

***Abstract.*** *In this article, the importance of teaching phrases and increasing their activity in the speech of students, establishing a system in their teaching and developing this system, giving recommendations for teaching phrases based on the methods used to turn a word into an active lexeme, and developing types of exercises that can be used in the course of the lesson reflected.*

***Keywords:*** *Linguistic culture, types of expressions according to the history of their formation, sources of the appearance of expressions, teaching based on the etymology of expressions, contextual education, interactive games.*

Lingvomadaniyatshunoslik dunyo tilshunosligida tobora katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Tilning tarixiy, milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganish, uning jozibasini va undan foydalanishni yetishib kelayotgan avlodga o‘rgatib, ularni boy til egalariga aylantirish – bizning asosiy vazifamiz. Maqollar, tasviriy ifodalar, iboralar va shu kabi tilning tarixiy rivojlanish bosqichlarida sayqallanib kelgan vositalar lingvomadaniyatshunoslikning o‘rganish obyektidir. Bularni tilda qo‘llanishini ko‘paytirish nutqning ta’sirchanligini oshiradi. Tilning tarixiy-madaniy xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan birliklardan biri iboralar ekanligini hisobga olib, ularni o‘rganish tilshunoslik oldida turgan muhim masalalardan biri deyishimiz mumkin. Ammo bu vazifa bugungi kunda qay darajada bajarilyapti? Iboralarning o‘qitilishida belgilangan mezon talablariga mos o‘qitish usullari mavjudmi? Ma’lumki, iboralar borasida ko‘plab nazariy ishlar olib borilgan bo‘lsa ham metodik tadqiqotlar ko‘p uchramaydi. Olib borilgan metodik ishlarning ham maktab darsliklari, o‘quv dasturlarida batafsil yoritilishiga ko‘p ham guvoh bo‘lavermaymiz. Yuqorida aytib o‘tganimiz kabi lingvomadaniy xususiyatlarga ega bo‘lib tilning tarixiylik va milliyligini o‘zida aks ettirgan ibora, tasviriy ifoda va maqol kabi til birliklarini chuqur o‘rganish va o‘rgatish, nafaqat, birinchi, balki ikkinchi til sifatida o‘rganuvchilar uchun ham tilimizning saviyasining yuqori ekanligini ko‘rsatish, til bilan chuqurroq tanishtirish imkonini yaratib beradi.

Iboralarni o‘quvchilar nutqida shakllantirish ahamiyatli va dolzarb masaladir. Ba’zi bir nutq jarayonlarida so‘zlanayotgan fikrni anglash aynan bir iboraning ma’nosini anglash bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Quyida iboralarni o‘quvchilar nutqida qo‘llashni ko‘paytirishning ahamiyatlarini sanab o‘tamiz:

- Iboralar real hayotdagi suhbatlar va vaziyatlarni tushuntirish va tushunishni kuchaytiradi;
- Alohida so‘zlar ifodalaydigan ma’no orqali aks etmaydigan nozik ma’nolarni o‘zida aks ettiradi;
- Iboralar – haqiqiy tildan foydalana olish imkoniyatlarini belgilovchi vozitalardan biri;
- Iboralarni nutqqa kiritish ravonlik va ifodalilikni oshiradi. Iboralardan unumli foydalana olgan o‘quvchilar o‘z fikr va his-tuyg‘ularini yanada aniq va ta’sirchan holda yetkaza oladilar;
- Madaniy iboralarni tushunish madaniy xabardorlik va sezgirlikni rivojlantiradi;
- Iboralarni bilish o‘quvchilarga tanish iboralarning kontekstdagi ma’nolarini chiqarishga yordam berish orqali tinglash va o‘qib tushunishga ko‘maklashadi. Bu ko‘nikma umumiy tilni bilish uchun zarurdir;
- Iboralarni o‘zlashtirish ko‘pincha tilni bilish darajasining mezonidir. Keng doiradagi iboralardan mohirona foydalanish lingvistik malaka va muloqotda ishonchni namoyon etadi;
- Iboralar adabiyotga haqiqiylik, tarixiylik ruhini singdiradi. Rivoyatlarni an’analar va folklor kuchi bilan boyitadi;
- Turli vaziyatlarda iboralarni qo‘llash qobiliyati til o‘rganuvchining moslashuvchanligi va ko‘p qirraliligini namoyish etadi, bu ularga turli xil muloqot mavzularini samarali boshqarish imkonini beradi.

Iboralar til va madaniyatni o‘qitishning qiziqarli usulidir. Iboralar o‘zida so‘zlarning so‘zma-so‘z talqinidan farq qiladigan ma’noni tashiydi. Iboralarni o‘qitish lingvistik bilim bilan bir qatorda nutqiy kompetensiyani boyituvchi birlik vazifasini o‘taydi. Iboralarni o‘qitishning tizimli yondashuvi sifatida quyidagilarni tavsiya etamiz (iboralarni bu usullarda o‘qitish ularning oson o‘zlashtirilishiga ko‘maklashadi):

1. Kirish:
   Iboralarning nima ekanligi, ular tarkibidagi so‘zlarning aniq ma’nosida aks etmaydigan ma’noviy xususiyatlari mavjudligi, ularning tilimizdagi vazifasini aniqlash va o‘quvchilarga tushuntirish;
   Qo‘llanishiga oid tasavvurni hosil qilish uchun kontekst tarkibida keltirish va o‘quvchilarning o‘zidan misollar so‘rash.
2. Iboralarning turlari:
   Iboralarni o‘rganishda qulaylikni yaratish va qiziqarlilikni oshirish maqsadida ularni kelib chiqishiga ko‘ra turlarga ajratish (masalan, hayvonlar, tana a’zolari, oziq-ovqat va h.k. );

Har bir turkumga oid iboralarning eng keng qo‘llanadiganlari asosida umumiy xulosalar chiqarishi uchun misollar berish;

Bu bosqichni amalga oshirishda A. Mamatov va K. Bozorboyevlarning dissertasiyalariag murojaat qilishimiz mumkin. Ular o‘z tadqiqodlarida iboralarni guruhlab o‘rganish borasida o‘z fikrlarini aytib o‘tganlar. A. Mamatov iboralarning shakllanish tarixi va doirasiga ko‘ra to‘rtta guruhga ajratadi:

1) Shaxs faoliyati va psixikasi bilan bog‘liqligi jihatidan shakllangan iboralar;
2) Kasb-korga bog‘liqligi jihatidan shakllangan iboralar;
3) Hayvonlar obrazi asosida shakllangan iboralar;
4) Din va dindorlikka bog‘liqligi jihatidan shakllangan iboralar.( A. E. Mamatov. O‘zbek tili frzeologizmlarining shakllanish masalalari. Dok. diss. 10.02.02.).

Bundan tashqari, K. Bozorboyev o‘zbek frazeologizmlarining paydo bo‘lish manbalarini ham tasniflab bergan:

1) Jamiyatda bo‘ladigan o‘zgarishlar;
2) Mumtoz va hozirgi adabiyot;
3) O‘zbek xalq og‘zaki ijodi;
4) O‘zbek tilining sheva va lahjalari.(K. T. Bozorboyev, O‘zbek so‘zlashuv nutqi frazeologizmlari. Nom. diss. – Samarqand. 2001.)

3. Interaktiv o‘yinlar:

Matn tarkibidan iboralarni topish bilan bog‘liq guruhlarda ishlanadigan o‘yinlar;

Iboralarni harakatda ko‘rsatish va topish;

O‘qilgan va eshitilgan matnlar tarkibidan iboralarni topib, ularni muqobil ibora yoki so‘z bilan almashtirish;

O‘quvchilar nutqi uchun begona bo‘lgan, ishlatilish diorasi tor bo‘lgan iboralardan misollar keltirib ma’nosini taxmin qilishlarini so‘rash;

Kishilar xarakteri bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlarni ifodalaydigan iboralar mazmunini ochib berishga xizmat qiladigan qisqa matnlar tuzish.

4. Ko‘rgazmali qurollar:

O‘quvchilarning iboralarning ma’nosini tasavvur qilishlariga yordam beradigan rasm, video, infografikada aks etgan iboralarni taqdim etish;

Ma’lumotning qabul qilinish tezligini oshirish uchun rasmli plakat va kartalar yaratish;

Individual tarzda taqdim etilgan iboralarning rasmli variantini yaratishni o‘quvchilarga vazifa qilib topshirish.

5. Kontekstli ta’lim berish:

O‘rganilgan bilimlarni namoyon qilishlari uchun og‘zaki va yozma nutqini iboralar bilan bilan boyitgan holda matnlar taqdim qilishga o‘rgatish;
Belgilab berilgan iboralarni matn tarkibida qo‘llashga oid topshiriqlar berish (rasmlar va ularga mos iboralarni taqdim etish va matn tuzishlarini so‘rash);
Berilgan mavzu yuzasidan iboralarni mustaqil topgan holda matn tuza olishlarini tekshirishga oid topshiriqlar berish (rasm yoki mavzuni taqdim etgan holda iboralarni qo‘llashni nazorat qilish).

6. Adabiyot darsliklaridagi iboralar:
   Adabiyotda keng qo‘llanishda bo‘lgan yoki ommabop madaniyatda ishlatiladigan iborlarga urg‘u bergan holda o‘qitish (iboralarning adabiyot va jamiyatda ishlatilishini solishtirgan holda davrni aks ettirishi bilan bog‘liq holatlarni chuqurroq o‘qitish);
   She’r, hikoya, qo‘shiqlar tarkibidagi iboralarni tahlil qilish orqali iboralarning ta’sirchanlik kuchini tushuntirish.
7. Hafta yoki kun iborasi:
   Iboralar bilan bog‘liq so‘z boyligini kengaytirish maqsadida hafta yoki kun iborasini taqdim etish, ma’nosini tushuntirish va uni nutqda faollashtirish uchun yozma va og‘zaki bajarish uchun topshiriqlar berish;
   Sinfdan tashqari o‘quvchilar hayotida duch kelgan iboralarini yozib borish va tengdoshlari bilan baham ko‘rishga oid topshiriq berish va uning nazoratini ta’minlash.
8. Har bir gap tarkibida ibora qo‘llagan holda matn tuzish. Guruhlarda ishlash uchun mo‘ljallangan bu topshiriq matnning izchilligi va mazmunan boyligini talab qiladi. O‘quvchilar ko‘p va o‘rinli qo‘llangan iboralar uchun baholanadilar.
9. Madaniyatlar orasidagi aloqalarni iboralar orqali o‘rganish:
   Ikkinchi tili mavjud, til o‘rganishga qiziquvchi, qardosh tillarni tushunuvchi o‘quvchilar uchun o‘sha tillarda mavjud, keng qo‘llanadigan o‘xshash va farqli iboralarni topib tengdoshlari bilan birlikda chuqurroq tahlil qilishni vazifa qilib topshirish.
10. Shaxsiy iboralar lug‘atini yaratish, iboralar uchun kundalik tutib kundalik hayotda, badiiy asarlarda, she’r va qo‘shiqlarda uchragan iboralarni yozib borish ko‘nikmasini o‘quvchilarda shakllantirish.
11. Hamkorlikda o‘qitish:
    O‘quvchilarga o‘zlari o‘rgangan iboralarni bir-birlariga o‘rgatadigan hamkorlik muhitini yaratish (bu iboralarni o‘rganishga imkon yaratish bilan birga hamjihatlik tuyg‘usini ham oshiradi). O‘quvchilar bunda o‘zlari

o‘rgangan iboralarni qiziqarli matnlar, o‘quvchi tomonidan yozilgan she’riy parchalar, rasmlar orqali tushuntirishga harakat qiladi.

12. Yuqorida qo‘llangan usullarning umumiy natijasini nazorat qilish maqsadida iboralarni tushunish va tog‘ri qo‘llashga oid test topshiriqlarini tuzish; olingan natijalarni tahlil qilish, notog‘ri o‘rganilgan tushunchalar haqida fikr-mulohazalarni o‘rtoqlashish, xatolar ustida ishlash.

Avvallari iboralar leksikologiyaning bir qismi sifatida o‘rganilganini va uni ham so‘z kabi leksik, sintaktik, etimologik jihatdan tahlil qilish mumkin ekanligini inobatga olgan holda, so‘zlarni chuqurroq o‘rganish jarayonini iboralarda ham tadbiq etish o‘qitish samaradorligini oshiradi, degan xulosaga keldik. So‘z boyligini oshirish va qo‘llash doirasini kengaytirish maqsadida ularni o‘qitishda ba’zi tizimli usullar amalga oshiriladi. Ularni quyida keltirib o‘tamiz:

- Vizual vositalar yordamida so‘z boyligini oshirish;
- So‘zlarning sinonim va antonimlarini topish;
- Omonimlarning ma’nolarini farqlash;
- Notanish so‘zlarning ma’nolarini o‘rganish (so‘zlarning etimologiyasiga e’tibor qaratish);
- So‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ko‘chma manolarini farqlash.

Yuqorida sanab o‘tgan barcha usullarimizni iboralarni o‘qitishda ham qo‘llash mumkin. So‘z va iboralar misolida namunalar:

*Vizual vositalar yordamida so‘z boyligini oshirish:* Rasmlarda aks etgan so‘zlarni kichik va o‘rta yoshli maktab o‘quvchilariga rasm va videolar yordamida ko‘rsatsih mumkin bo‘lganidek, iboralarni o‘qitishda ham iboralarni aks ettirgan rasmlarni namuna keltirish yoki rasmlar asosida iboralarni izlab topishni topshiriq tariqasida berish mumkin;

*So‘zlarning sinonim va antonimlarini topish:*

1. So‘zlarda: go‘zal, chiroyli, latofatli, maftunkor, yoqimli…
2. Iboralarda: ipidan ignasigacha, qilidan quyrug‘igacha, miridan sirigacha, boshdan oyoq.

*Omonimlarning ma’nolarini farqlash:*

1. So‘zlarda: 1) o‘t = o‘simlik; 2) o‘t = tana a’zosi; 3) o‘t = olov; 4) o‘t = fe’l.
2. Iboralarda: 1) ko‘z ilg‘amas = kichik; 2) ko‘z ilg‘amas = bepoyon, cheksiz.

*So‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolarini farqlash:*

1. So‘zlarda: 1) odamning ko‘zi = ko‘z o‘z ma’nosida; 2) derazaning ko‘zi = ko‘chma ma’noda.
2. Iboralarda: 1) ko‘zga ko‘rinmoq = o‘z ma’nosida biror narsaning ko‘zga ko‘rinishi; 2) ko‘zga ko‘rinmoq = tanilmoq.

*Notanish so‘zlarning ma’nolarini o‘rganish* (so‘zlarning etimologiyasiga e’tibor qaratish):

1. So‘zlarda: tunovkun – tun og‘gan kun.
2. Iboralarda tilning tarixiylik xususiyati jamlagani boisidan ularning tarkibida tarixiriy va biz uchun tushunarsiz so‘zlar ko‘p. Ularning shu jihatiga urg‘u began holda o‘qitish iboralarning qiziqarlilik darjasini oshiradi. Quyida shu kabi iboralardan biriga namuna keltirib o‘tamiz:

**Popugi pasaymoq:** popuk nima?

Narsalarga bezak uchun taqiladigan bir bog‘lam tola, pat, ip.

Qadim zamonlarda podshoh o‘z a’yonlarini mansabga ko‘targanda bosh kiyimidagi bezak uchun qo‘llangan popukning hajmi ortgan, mansabdan tushganda esa popukning hajmi kamaytirilgan. Popugi pasayibdi iborasi o‘sha holatdan bugungi kunga bo‘shashib qolmoq, oldingi kuchiga ega bo‘lmaslik, shashtidan qaytmoq ma’nolarida qo‘llaniladi. Masalan, Da’vogarning popugi pasaydi.

Quyida iboralarni o‘qitishga oid ba’zi mashq turlarini tavsiya etamiz:

**Mashq.** Quyida keltirilgan jadvalni to‘ldiring. Unda berilgan iboralarga tegishli taxminlaringizni yozing.

| Iboralar | Ma’nosiga bog‘liq taxminlarim | To‘g‘ri | Xato | Yaqin |
|---|---|---|---|---|
| Ko‘z-quloq bo‘lmoq | | | | |
| Og‘zi qulog‘ida | | | | |
| Yuragiga qo‘l soldi | | | | |
| Qo‘lini so‘radi | | | | |

| |
|---|
| Otdan tushsa ham egardan tushmaydi |

**Mashq.** Quyida keltirilgan jadvaldan ibora va unga tavsiya etilgan ma’nolar joy olgan. Ibora ma’nosining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga qarab o‘z javobingizni belgilang.

| Iboralar | Taklif etilgan ma’no | **To‘g‘ri** | **Noto‘g‘ri** |
|---|---|---|---|
| Yerga ursa, ko‘kka sapchiydigan | Qobiliyatli, o‘zini rivojlantira oladigan | | |
| Qo‘li egri | Mayda o‘g‘riliklar qiladigan | | |
| Tegirmonga tushsa, butun chiqadigan | Har qanday noqulay vaziyat uchun yechim topa oladigan | | |
| To‘ydan oldin nog‘ora qoqdi | Shoshqaloqlik qilib vaqtidan oldin harakat qildi | | |

**Mashq.** Quyida keltirilgan iboralarni o‘qing. Avval ma’nosini taxmin qiling. So‘ngra lug‘atdan iboralarning ma’nosini topib yozing. Iboralarning lug‘atda aks etgan ma’nolariga gap tuzing.

| | |
|---|---|
| Almisoqdan qolgan | Taxminim:<br>Asl ma’nosi:<br>Misolim: |
| Boshidan oshib yotibdi | Taxminim:<br>Asl ma’nosi:<br>Misolim: |
| Bosh | Taxminim: |

| | |
|---|---|
| ko‘tarmoq | Asl ma’nosi:<br>Misolim: |
| Og‘zi oshga yetganda | Taxminim:<br>Asl ma’nosi:<br>Misolim: |
| Oq-qorani taniydigan | Taxminim:<br>Asl ma’nosi:<br>Misolim: |

Evristik shakllangan mashqlar o‘quvchida topqirlik, zukkolik kabi sifatlarni shakllantiradi. O‘quvchilarga iboralar yuzasidan bu kabi mashqlarni bajartirish ularning so‘z boyligidagi iboralarni qayta xotirlash va faol leksema holiga keltirishiga yordam beradi. O‘quvchilar ham og‘zaki, ham yozma usulda bu mashqni bajarishlari mumkin. Bu mashq turi guruh holida ham, individul ishlashda ham qo‘l keladi.

**Mashq.** Iboralar qatorini yarating. Unda bir ibora takibida qo‘llangan so‘z ikkinchisida ham qo‘llansin.

Masalan, **Ko‘z** ostiga olmoq, ko‘zini **yog‘** bosgan, yog‘ tushsa, yalagudek...

Burgaga achchiq qilib **ko‘rpa**ni kuydirmoq, ko‘rpasiga qarab **oyoq** uzatmoq, oyog‘ini **qo‘l**iga olmoq, qo‘lini sovuq suvga urmaslik.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, o‘quvchilarga yuqorida sanab o‘tgan usullarimiz orqali ta’lim berish va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, turli interaktiv va tajribaviy o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etish orqali iboralarni o‘rganish jarayonini qiziqarli va boy holatga keltirishimiz mumkin. Bu kabi ko‘p qirrali yondashuvni qo‘llash turli xil o‘rganish uslublari va ehtiyojlarini qondirishi mumkin, natijada o‘quvchilarning til o‘rganish jarayonida iboralarni o‘zlashtirish darajalari oshadi. Shuni unutmasligimiz lozimki, iboralar nutqda kashf etilishi va o‘quvchilar orasida bo‘lishilishi kerak bo‘lgan til xazinasidir. Ularni yechilishi kutilayotgan lingvistik jumboqlar desak, xato bo‘lmaydi. Uni yechishga urunish majoziy tilning jozibasini kashf etish bilan tengdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. E. Mamatov. O‘zbek tili frzeologizmlarining shakllanish masalalari. Dok. diss. 10.02.02. Til va adabiyot ta’limi jurnali (2023,11-son,38-39-b).
2. K. T. Bozorboyev, O‘zbek so‘zlashuv nutqi frazeologizmlari. Nom. diss. – Samarqand. 2001. Til va adabiyot ta’limi jurnali (2023,11-son,38-39-b).
3. O. Roziqov, M. Mahmudov, B. Adizov, A. Hamroyev. Ona tili didiaktikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.

4. S. To‘rayeva, Iboralar orqali o‘quvchilar lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish, maqola. Til va dabiyot, 2023-yil, 11-son.

5. Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1978.

## TURKIYA TA’LIMIDA O‘QUV TOPSHIRIQLARI MAZMUNI 7-SINF “TURK TILI” DARSLIGI MISOLIDA)

*Mirzoboboyeva Asila Kamoliddin qizi*
*Alisher Navoiy nomidagi*
*ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti 3-kurs,*
*mirzoboboyevaasila@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada 7-sinf “Turk tili” darsligidagi “Devoni lug‘otit-turk” ning kashf etilish hikoyasi” nomli nutqiy mavzu tanlanib, turk tilini o‘rgatishga qaratilgan topshiriqlar ketma-ketligi va mazmuni haqida fikr yuritilgan. Topshiriqlarning har biri mustaqil tahlil qilinib, 4 ta nutqiy kompetensiyaning qay birini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan. Turk tili darsliklarida lingvistik ko‘nikmalar alohida shaklda emas, balki topshiriq va mashqlar tarkibida o‘rgatib ketilishi alohida ta’kidlangan.*

**Abstract.** *In this article, the speech topic “Devoni lug‘otit-turk”ning kashf etilish hikoyasi” is selected from the 7 th grade “Turkish language” textbook and the sequence and content of tasks aimed at teaching the Turkish language are discussed. Each of the tasks was analyzed independently and it was determined that it serves to develop one of the 4 speech competencies. In Turkish language textbooks, it is emphasized that linguistic skills are taught not separately, but as part of assigments and exercises.*

**Kalit so‘zlar:** *“Devoni lug‘otit-turk”, nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, gazeta maqolasi, xabar matni, turkcha lug‘at.*

**Keywords:** *“Devoni lug‘otit-turk”, speech competence, linguistic competence, newspaper article, message text, Turkish dictionary.*

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ona tili darslarida o‘quvchilarning matn tuzilishiga doir nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi matn lingvistikasi bilan bog‘liq ta’lim mazmuni,

vositalari, metod va usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratila boshlandi (Mavlonova, 2022, 15-bet).

Ta’limning umumiy maqsadi har bir o‘quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab olishni taqozo etadi-ki, bu, xususan, milliyligimizning yorqin ifodasi bo‘lgan ona tili ta’limi maqsadida o‘zining aniq ifodasini topgan: “Maktabda ona tili ta‘limi maqsadi o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.” (Yuldasheva, 2021, 6-bet). Ko‘pgina davlatlardagi kabi Turkiya darsliklari ham o‘quvchilarning 4 ta nutqiy ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv topshiriqlaridan iborat. Ushbu fikrning isboti uchun 7-sinf turk tili darsligida berilgan “Devoni lug‘otit-turk” ning kashf etilish hikoyasi” nomli nutqiy mavzuni tahlil qilamiz. Ushbu nutqiy mavzu 11 ta topshiriq asosida o‘rganiladi. Har bir topshiriqni o‘quvchi yakka holda bajaradi. Mavzuda 1 ta nasriy matn, 3 ta rasm, 1 ta jadval, 1 ta hikoya xaritasi, 1 ta gazeta maqolasidan foydalanilgan.

1. ETKİNLİK: Metni okurken hikâye haritasında istenenleri not alınız.

1-topshiriq. Matnni o‘qiyotganda hikoya xaritasida nima so‘ralganiga e’tibor bering.

Bu topshiriqni bajarish davomida o‘quvchilarda o‘qib tushunish ko‘nikmasi rivojlanadi. To‘liq matnni bir nechta qismlarga bo‘lib o‘rganadi. Bu o‘quvchilarda matnning aynan qaysi jihatlariga e’tibor qaratib o‘qish kerakligi, undagi asosiy ma’lumotlar qaysi ekanligi haqida tasavvur uyg‘otadi.

2. ETKİNLİK: Aşağıda okuduğunuz metinde geçen bazı cümleler verilmiştir. Bu cümlelerden hareketle kelimelerin anlamlarını tahmin ediniz. Tahminlerinizin doğruluğunu TDK Türkçe Sözlük'ten kontrol ediniz.

- Yusuf'u kuyudan çıkaranlar, onu birkaç akçeye sattılar. Fakat sonra Mısır'da ağırlığınca cevahire satıldı.
- Türk dilinde şimdiye kadar bunun gibi bir kitap yazılmamıştır. Bu kitaba hakiki kıymet verilmek lazım gelse cihanın hazineleri kâfi gelmez.
- Ali Emîrî, otuz lirayı hemen verir ama Burhan Bey bir de bahşiş istemektedir.
- Bir rivayete göre dükkânın kapısını kilitleyip anahtarı cebine koyar ve bir tanıdığa rastlamak umuduyla çarşıya çıkar.
- Eve gidip gelecek olsa kitabın bir başkasına satılması ihtimali bulunmaktadır.
- "Bak sana bir kitap veriyorum. İyi sakla... Sıkıştığın zaman sahaflara götür. Altın para ile otuz lira eder, aşağıya verme!" der.
- Bugün tek nüshası İstanbul'daki Millet Kütüphanesinde olan Dîvânu Lugâti't-Türk'ün bulunuşu, yayımlanması ve çevirisi, ilgi çekici olaylar dizisidir.
- Eserin bulunuşu tamamen bir rastlantı sonucudur.

2-topshiriq. Quyida o‘qigan matningizdagi ba’zi jumlalar keltirilgan. Ushbu jumlalar asosida so‘zlarning ma’nolarini toping. TDK turkcha lug‘atdan taxminlaringiz to‘g‘riligini tekshiring.

1. Yusufni quduqdan olib chiqqanlar uni bir necha kumush tangaga sotishdi, lekin keyinchalik u Misrda o‘z vazniga teng oltin topdi.
2. Turk tilida bunaqa kitob yozilmagan. Bu kitobga haqiqiy baho berilishi kerak bo‘lsa, dunyo xazinasi ham yetmasdi.
3. Ali Amiriy darrov o‘ttiz lira beradi, lekin Burhon bek ham maslahat so‘raydi.
4. Mish-mishlarga ko‘ra, u do‘kon eshigini qulflab, kalitni cho‘ntagiga solib tanishi bilan uchrashish ilinjida bozorga chiqqan.
5. Agar u uyiga ketsa, kitob boshqa birovga sotilishi ehtimoli bor.
6. “Mana, sizga kitob beryapman, yaxshi saqlang…” Qiynalganingizda ikkinchi qo‘l kitob sotuvchilarga olib boring, oltin tangalarda o‘ttiz lira turadi, arzonga bermang!” – , deydi.
7. Bugungi kunda Istanbuldagi Milliy kutubxonada yagona nusxasi bo‘lgan “Devoni lug‘otit-turk” asarining topilishi, nashr etilishi va tarjimasi bir qator qiziqarli voqealardir.
8. Asarning topilishi butunlay tasodif edi!

O‘quvchilar yuqorida keltirilgan jumlalar asosida so‘zlarning ma’nosini avval o‘zi taxmin qilganini, keyin esa turkcha lug‘atdagi asl ma’nosini quyidagi jadvalga yozadilar. Vazifani bajarish davomida o‘quvchi lug‘at bilan ishlashga ham o‘rganadi. Bu topshiriq o‘qib tushunish va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

*3. ETKİNLİK:* Aşağıdaki soruları okuduğunuz metinden hareketle yanıtlayınız.

1. Dîvânu Lugâti't-Türk'ün değerini bilmeyen kişiler kimlerdir?
2. Dîvânu Lugâti't-Türk'ün değerini ve önemini hemen kavrayan Ali Emîrî Efendi kimdir?
3. Dîvânu Lugâti't-Türk neden önemli bir eserdir?
4. Bir kitabın değerli ve özel olduğuna kimler karar vermelidir?
5. Bir kitabın değerini belirleyen tek nüsha olması mıdır, içeriği midir? Tartışınız.
6. Çok değerli olduğuna inandığınız el yazması bir eser bulursanız ne yaparsınız?

3-topshiriq. O‘qigan matningiz asosida quyidagi savollarga javob bering.

1. “Devoni lug‘otit-turk” ning qadrini bilmaydiganlar kimlar?
2. “Devoni lug‘otit-turk” ning qadri va ahamiyatini darrov anglagan Ali Amiriy kim?
3. “Devoni lug‘otit-turk” nima uchun muhim asar hisoblanadi?
4. Kitob qimmatli va alohida ekanligini kimlar hal qiladilar?
5. Kitobning qadr-qimmatini yagona nusxa ekanligi belgilaydimi yoki mazmunimi? Muhokama qiling.
6. Agar siz juda qimmatli deb hisoblagan qo‘lyozmani topsangiz nima qilasiz?

Ushbu savollarga javob berish o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantiradi, qolaversa, mustaqil fikrlashga undaydi. Asarning ahamiyati haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Matnni diqqat bilan o‘qigan va tushungan o‘quvchi bu savollarga tezda javob bera oladi.

*4. ETKİNLİK:* Aşağıdaki cümlelerde anlamca çelişen sözcüklerin kullanımından kaynaklanan anlatım bozukluğu vardır. Bu sözcüklerin altını örnekteki gibi çiziniz.

- Derginize kılı kırk yaracak şekilde bir göz attım.
- Aşağı yukarı tam üç yıldır görüşemiyoruz.
- Beyza kesinlikle haftaya gelebilir.
- Sanırım o işi mutlaka kabul edecektir.
- Eminim bu saatte İzmir'e varmış olmalı.
- Okulumuzun takımı şüphesiz bu maça iyi hazırlanmış olmalı.

4-topshiriq. Quyidagi gaplarda ma’no jihatdan qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarning qo‘llanishi natijasida ifodada xatolik bor. Misoldagi kabi bu so‘zlarning tagiga chizing.

1. Junalingizga tez nazar tashladim.
2. Qariyb, roppa-rosa uch yildan beri ko‘rmaganmiz.
3. Beyza keyingi hafta, albatta, kelishi mumkin.
4. Menimcha u bu ishni, albatta, qiladi.
5. Ishonchim komilki, u shu vaqtda Izmirga yetib kelgan bo‘lsa kerak.
6. Maktabimiz jamoasi, shubhasiz, bu o‘yinga puxta tayyorgarlik ko‘rishi kerak.

4-topshiriqda gaplarning mazmuniga mos kelmagan modal so‘zlar ishtirok etgan. Masalan, ishonch ma’nosini anglatuvchi modal so‘z taxmin mazmunida aytilgan gap tarkibida qo‘llangan. O‘quvchilar bu so‘zlar qaysilar ekanligini topishlari lozim. Bu topshiriq o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiradi hamda uslubiy jihatdan olingan bilimlar ham mustahkamlanadi.

*5. ETKİNLİK:* Aşağıdaki cümlelerde sözcüklerin yanlış yerde kullanılmasından kaynaklanan anlatım bozukluğu vardır. Cümlelerin doğru şeklini örnekteki gibi yazınız.

5-topshiriq. Quyidagi gaplarda so‘zlarning noto‘g‘ri o‘rinda qo‘llanishi natijasida ifodada xatolik bor. Misoldagi kabi gaplarning to‘g‘ri shaklini yozing.




Yuqoridagi topshiriq o‘qib tushunish va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Noto‘g‘ri yozilgan gaplarni to‘g‘rilab yozish talab qilingan. O‘quvchilar gaplarni mazmun va tartib jihatdan to‘g‘rilab, jadvalga yozishi lozim.

6. *ETKİNLİK:* Aşağıdaki cümlelerde anlam belirsizliğinden kaynaklanan anlatım bozukluğu vardır. Anlam belirsizliğinin nedenini cümlelerin karşısına, cümlenin doğru şeklini ise verilen boşluğa yazınız.

6-topshiriq. Quyidagi gaplarda ma’no tushunarsizligi sababli ifodada xatolik bor. Gaplar oldidagi noaniqlik sababini va gapning to‘g‘ri shaklini bo‘sh joyga yozing.




Bu topshiriq ham o‘qib tushunish va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchi vazifani o‘zi egallagan grammatik va leksik bilimlariga tayanib bajarishi lozim.

*7.ETKİNLİK:* Aşağıdaki yönergeleri uygulayınız.

7-topshiriq. Quyidagi ko‘rsatmalarga amal qiling.

a) Aşağıdaki cümleleri okuyunuz. Altı çizili kelimelerin cümlenin anlamını nasıl etkilediğini açıklayınız.

a) Quyidagi gaplarni o‘qing. Tagiga chizilgan so‘zlar gapning ma’nosiga qanday ta’sir qilishini tushuntiring.

- Bazıları vardır; gözlerini konuşana diker, sessizce otururlar. "İşte, iyi bir dinleyici!" dersiniz oysaki gözleri konuşanda değildir. İyi bir dinleyici gözleriyle değil sorularla dinler; başka bir deyişle konuşulan konu üzerinde kafasında uyanan sorulara cevap arar. Dinlediklerini bu sorularla değerlendirir.
- Yetkililer güneş çarpması konusunda halkı uyardılar. Özellikle yaşlıların ve çocukların öğle saatlerinde güneşe çıkmamasını söylediler.
- Hedef net bir şekilde belirlendikten sonra ona ulaşmak için ilk olarak yapılması gereken şey plan yapmaktır.
- Bir de bu konuda son olarak şunu belirtmek isterim ki kütüphanecilik önemli bir disiplin gerektirmektedir.

*b)* Siz de bu ifadeleri kullanarak birer cümle yazınız.)

b) Ushbu iboralar yordamida gap tuzing.

7-topshiriq *a* va *b* bosqichlarda o‘rganishga mo‘ljallangan. Bunda o‘quvchilar tagiga chizilgan so‘zlarning gap mazmuniga qanday ta’sir qilganini aniqlashi va shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzishlari kerak. Ushbu topshiriq o‘qib tushunish va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

*8.ETKİNLİK:* Okuduğunuz metinden alınan aşağıdaki cümlelerden öznel olanlara (Ö), nesnel olanlara (N) yazınız.

8-topshiriq. O‘qigan matningizdan olingan quyidagi gaplarni subyektiv va obyektiv gaplarga ajratib yozing.

Bunda o‘quvchilar obyektiv va subyektiv gap nimaligini bilishi va gaplarni ushbu gap turlariga ajratib yozishi lozim. Agar bu haqida ma’lumotga ega bo‘lishmasa, o‘qituvchi tomonidan qisqacha tushuncha beriladi. Topshiriq yozma nutqni rivojlantiradi.

9. *ETKİNLİK:* Ali Emîrî Efendi’nin Dîvânu Lugâti’t-Türk’ün değeri ile ilgili Hz. Yusuf’a atıfta bulunarak yaptığı benzetmeyi değerlendiriniz. Ali Emîrî Efendi neden Dîvânu Lugâti’t-Türk ile Hz. Yusuf arasında bir benzerlik kurmaktadır? Yorumlayınız.

9-topshiriq. Ali Amiriyning “Devoni lug‘otit-turk” asarining qadri haqida Hazrati Yusufga nisbatan qilgan o‘xshatishiga baho bering. Nima uchun Ali Amiriy “Devoni lug‘otit-turk” haqida gapirgan, asar va Hazrati Yusuf o‘rtasida o‘xshashlik bormi? Izohlang.

Bu topshiriqni o‘quvchilar mustaqil fikrlab bajarishlari va fikrlarini asoslab yozishlari lozim. Matnni o‘qish jarayonida asarning qadr-qimmati haqida o‘quvchilarda tasavvur hosil bo‘ladi. O‘quvchilar, avvalo, berilgan fikrlarni o‘qib, so‘ngra o‘zlarining fikrlarini yozadilar. Topshiriq o‘qib tushunish va yozma nutq ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dostlarına, arkadaşlarına kitabın değerini şöyle anlatır Ali Emîrî Efendi:
"Bu kitap değil, Türkistan ülkesidir... Türkistan değil bütün cihandır. Türklük, Türk dili bu kitap sayesinde başka bir parlaklık kazanacak. Arap dilinde Sibeveyh'in kitabı ne ise bu da Türk dilinde onun kardeşidir. Türk dilinde şimdiye kadar bunun gibi bir kitap yazılmamıştır. Bu kitaba hakiki kıymet verilmek lazım gelse cihanın hazineleri kâfi gelmez... Bu kitapla Hz. Yusuf arasında bir benzerlik vardır. Yusuf'u kuyudan çıkaranlar, onu birkaç akçeye sattılar. Fakat sonra Mısır'da ağırlığınca cevahire satıldı. Bu kitabı da Burhan bana otuz üç liraya satti. Fakat ben bunu birkaç misli ağırlığında elmaslara, zümrütlere vermem..."

*10. ETKİNLİK:* Aşağıdaki sözleri okuyunuz. Yönerge doğrultusunda konuşmanızı hazırlayınız.

Başka dile uymaz annenin sesi,
Her sözün ararsan vardır Türkçesi!
**Ziya Gökalp**

Bugünden sonra dîvânda, dergâhta, bergâhta, mecliste, meydanda Türkçeden başka dil kullanılmayacaktır.
**Karamanoğlu Mehmet Bey**

Karamanoğlu Mehmet Bey ve Ziya Gökalp'in Türkçeye bakış açılarını değerlendiriniz. Sizin bu konudaki düşünceleriniz nelerdir? Kısa bir konuşma metni hazırlayarak arkadaşlarınızla paylaşınız. Konuşmanızda uygun geçiş ve bağlantı ifadeleri kullanmaya özen gösteriniz.

10-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing. Nutqingizni ko‘rsatmalarga muvofiq tayyorlang.

Karamano‘g‘li Mehmet va Ziyo Go‘kalpning turk tiliga qarashlarini baholang. Ushbu mavzu bo‘yicha qanday fikrdasiz? Qisqa nutq tayyorlang va uni do‘stlaringiz bilan baham ko‘ring. Nutqingizda mos o‘tish va bog‘lovchi iboralarni ishlatishga ehtiyot bo‘ling.

Bu topshiriqda o‘quvchilar, avvalo, Karamano‘g‘li Mehmet va Ziyo Go‘kalpning turk tiliga qarashlari haqida o‘zi qanday fikrda ekanligi aniqlab oladi. Shu fikrlari asosida qisqa nutq tayyorlab sinfdoshlariga og‘zaki gapirib beradi. Topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchilarning o‘qib tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmalari rivojlanadi.

*11. ETKİNLİK:* Aşağıdaki yönergeleri uygulayınız.

11-topshiriq. Quyidagi ko‘rsatmalarga amal qiling.

**TDK DRONE'A (DİRONA) ANKETLE KARŞILIK ARIYOR**

Gelişen donanım ve yazılımların yanı sıra mekanik ilerlemeler sonucunda hayatımızın birçok alanına sirayet eden "drone" kelimesine karşılık için TDK bir anket düzenledi.

İşte halka yöneltilen anket sorusu ve seçenekleri;

İnsansız hava aracı çeşitlerinden olup keşif, gözetleme, sağlık, ilaçlama, spor, seyahat, reklam gibi farklı alanlarda kullanılan "drone" cihazı için halkımız tarafından önerilen aşağıdaki karşılıklardan hangisini daha uygun buluyorsunuz?

a- arıgözü
b- uçangöz
c- uçan kamera
d- uçarçeker
e- uçurgör

Basından

*a)* Yukarıdaki gazete haberini okuyunuz. Siz "drone" cihazına Türkçe karşılık olarak hangisini uygun buluyorsunuz? Niçin?

a) Yuqoridagi gazeta maqolasini o‘qing. Qaysi biri sizning dron qurilmangizga mos keladi? Nega?

.....

.....

*b)* Bu seçenekler dışında sizin de bir öneriniz var mı? Sebepleriyle birlikte açıklayınız?

*b)* Ushbu variantlardan boshqa takliflaringiz bormi? Sabablari bilan tushuntiring.

c) Alışveriş merkezlerinden hastanelere, lokantalardan apartman ve site isimlerine kadar kullandığımız kelimelerin neredeyse tamamı yabancı kelime istilasına uğradı. Dilimizdeki yabancı kelime istilasına dikkat çekmek için yakın çevrenizde karşılaştığınız bir örnekten hareketle kısa bir haber metni yazınız. Haber metninizde 5N1K sorularının cevaplarını vermeyi unutmayınız.

c) Biz foydalanadigan nomlar, savdo markazlaridan kasalxonalargacha, restoranlardan kvartira va sayt nomlarigacha deyarli barcha so‘zlarga chet el so‘zlari kirib kirib kelgan. Chet so‘zlarning tilimizga kirib kelishi diqqatni jalb qilish uchun yaqin atrofingizda uchragan misol asosida qisqa xabar matni yozing. Xabar matnida 5 NIK savollariga javob berishni unutmang.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Xabar matni yozish asosida yozma nutq ko‘nikmasi ham rivojlanadi. Xulosa qilib aytganda, ushbu nutqiy mavzuda berilgan barcha topshiriqlar o‘qib tushunish, og‘zaki nutq va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jahonda til o‘qitish metodikasida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kishilar o‘rtasidagi muloqot quroli bo‘lgan tilni o‘qitish kommunikativ mashg‘ulotlar asosida amalga oshirila boshlangan hamda til ta’limida amaliy va hayotiy ko‘nikmalarni baholashga alohida e’tibor berilgan. Ona tili ta’limida ham o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, ularda tinglab tushunish, o‘qib tushunish, fikrini yozma va og‘zaki tarzda bayon etishga yo‘naltirilgan kognitiv-pragmatik yondashuv qo‘llanila boshlangan. Bu yondashuv asosida nazariyadan amaliyotga borish emas, amaliyotdan nazariyaga kelish ustuvordir: o‘quvchilarni hayotda duch kelishi mumkin bo‘lgan nutqiy vaziyatlarga tayyorlash, nutq ishtirokchilarining individual

xususiyatlarini hisobga olish, nutq sharoitida qanday til birliklardan foydalanish samarali ekanligini o‘rgatish, og‘zaki va yozma til imkoniyatlarini idrok qilish va fikrni sifatli ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish yetakchilik qiladi. Mazkur maqsadga monand til ta’limida baholash mazmuni, metodikasi va mezonlari ishlab chiqilgan (Abdiraimov, 2022, 21-bet). Turk tili darsliklari ham nutqiy va ligvistik ko‘nikmalarni shakllantiruvchi nutqiy mavzular hamda mashq, topshiriqlardan iborat. Turkiya darsliklarida deyarli lingvistik qoidalar uchramaydi. Ammo topshiriqlarni bajarish jarayonida lingvistik bilim berilib, mustahkamlanib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Abdiraimov, Sh. “O‘qib tushunish ko‘nikmasini baholashning nazariy va metodik asoslari”. Maqola.
2. “Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to‘plami (2022-yil 18-may) .Toshkent – 2022.
3. Mavlonova, K. “O‘quvchilarga matn tuzilishiga doir qoidalarni o‘rgatish xususida”. Maqola.
4. To‘xliyev, B. Shamsiyeva, M. Ziyodova, T. (2006). “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi.
5. Yuldasheva, D. (2021). “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi”(kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). Buxoro. OOO “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti.
6. G‘ulomov, A. Qodirov, M. Ernazarova, M. Bobomurodova, A. Alavutdinova, N. Karimjonova, V. (2012). “Ona tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent. “Fan va texnologiya”.
7. 7. Sınıf Türkçe Ders Kitabı.
8. https://arm.navoiy-uni.uz


## TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASINING BAHOLASH SPETSIFIKATSIYASINI YARATISH


**Ochilova Zilola Xabibjon qizi**
*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 3-bosqich talabasi*
*Ochilovazilola02@gmail.com*



**Annotatsiya** *Maqolada nutqiy kompetensiyalardan biri hisoblangan tinglab tushunish ko‘nikmasining birinchi tilni o‘qitishdagi ahamiyati, tinglab tushunishning alohida baholash spetsifikatsiyasini tuzish zarurligi va uning namunasi keltirib o‘tilgan.*



**Kalit so‘zlar:** *tinglab tushunish, baholash, spetsifikatsiya, til ko‘nikmalari, nutqiy kompetensiyalar, standart darajalari, baholash formati.*

**Abstract** *In the article, the importance of listening comprehension skill, which is considered as one of the speaking competencies, in teaching the first language, the need to create a separate evaluation specification of listening comprehension and its example are mentioned.*

**Keywords:** *listening comprehension, assessment, specification, language skills, speaking competencies, standard levels, assessment format.*

Bugun muayyan tilni o‘qitishda to‘rtta muhim ko‘nikmadan iborat nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish, o‘rganuvchining shu tilda gapirish, yozma savodxonlik, eshitib tushunish va o‘qib tushunish ko‘nikmalarini oshirib borish talabga aylangan bir davrda o‘zbek tilini birinchi til sifatida o‘qitishda o‘g‘zaki nutq va tinglab tushunish ko‘nikmalari baholashning alohida ajratilmaganligi, ularning qo‘shib yuborilmaganligi ajablanarli hol.

Tinglab tushunish – bu til o‘rganuvchilari uchun kerak bo‘lgan til o‘rganishdagi birinchi mahorat va asosiy qobiliyatdir. Chunki qabul qilish ishlab chiqarish qobiliyatiga ta’sir qiladi. Tinglash qobiliyatini yaxshilash boshqa til ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Eshitish samarali muloqot kaliti, bu qobiliyatsiz, shubhasiz, xabarlar anglashilmaydi. Eshitib tushunish eng muhim ko‘nikmalardan biri bo‘lib, axborot va fikrlarni qabul qilish, mazmunni tushunish va so‘zlovchiga javob qaytarish jarayonidir. Matnni yoki so‘zni shunchaki eshitish yetarli emas, yaxshi tinglovchi so‘zlovchining noverbal nutq vositalariga ham e’tibor qaratishi kerak (Kamelia, 1996, 3-bet).

Jahon miqyosida olib borilgan tadqiqotlarda bola tug‘ilmasidanoq, eshitishni boshlashi, oilada ota-onasi va atrofidagi odamlar tomonidan qo‘llangan so‘zlar va gaplarni eshitib, bevosita ularni anglab, tahlil qiladi hamda javob qaytaradi vas hu orqali uning og‘zaki nutqi shakllanib boradi. Bolada so‘zlash qobiliyati bo‘lsa ham rivojlanmasligi, uning og‘zaki nutqi to‘g‘ridan to‘g‘ri tinglash jarayonida rivojlanishi barchamizga ma’lum. Demak, inson gapirishni bevosita eshitib o‘rganadi. Shunday ekan, tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirish uchun kerakli bo‘lgan barcha talablarni bajarilishi kun tartibiga qo‘yilgan asosiy masala bo‘lishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori asosida tuzilgan o‘quv dasturida tinglab tushunish ko‘nikmasiga quyidagi talablar qo‘yilgan:

| S/D | Tinglab tushunishga qo‘yilgan malaka talablari |
|---|---|

| | |
|---|---|
| A1 | Berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna oladi |
| A1+ | Tinglangan sodda matnning asosiy mazmunini tushuna va tushuntira oladi |
| A2 | Tinglangan matn, ko‘rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqea-hodisalarni tushuna oladi |
| A2+ | Ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb mavzularga doir xabar va ma’lumotlarni tushuna oladi |
| B1 | Sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushunadi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib oladi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etadi, tinglab tushunadi. Nutqning to‘g‘riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligini anglaydi, barqaror atamalar, kasb-hunar so‘zlarining ma’no xususiyatlarini farqlaydi. |
| B1+ | Ilmiy manbalardagi o‘rtacha murakkablikdagi ma’lumotlarni tinglab tushunadi. Nutq uslubiyatiga xos xususiyatlarni tinglab tushunadi. |

Ammo yuqoridagi talablarga asoslanib yaratilgan milliy o‘quv dasturida tinglab tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmasi qo‘shib yuborilgan va bir-biridan ajratilmagan holda baholanadi va nutqiy komprtensiyalarni shakllantirishda foydalaniladigan topshiriqlar ham unga asoslanib tuzib chiqiladi. Quyida milliy o‘quv dasturidagi 6-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan og‘zaki nutq va tinglab tushunish qismi keltirilgan.

Ko‘pchilik olimlar bu ikki ko‘nikmaning qo‘shib yuborilganligini birinchi tilni o‘qitishda ularning bir-biriga uzviy bog‘liqligi bilan ifodalaydilar. Ammo buning asosiy sababi ularning baholash mezonlari va me’yorlari ishlab chiqilmaganligidadir. Tinglab tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmasi bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, ularning alohida-alohida baholash mezonlarini yaratish va shu asosda topshiriqlar ishlab chiqish bu ikki nutqiy ko‘nikmani chuqurroq o‘zlashtirishda muhim o‘rin tutadi. Shu maqsadda yigirmata amaliyotchi va amaldagi ona tili o‘qituvchilari yordamida tinglab tushunish ko‘nikmasining spetsifikatsiyasi ishlab chiqildi.

## Og‘zaki nutq va tinglab tushunish | 6.OT

### Tushunish va muloqot

**6.OT.1:** sinf va yosh doirasida mavzular hamda didaktik materiallardagi matnlar asosida turli shakldagi hamkorlik ishlarida samarali ishtirok eta oladi.

- **6.OT.1.a:** kerakli material bir necha kun oldin taqdim qilinganda uni o‘qib, o‘rganib, tayyorlangan muhokamalarda ishtirok eta oladi.
- **6.OT.1.b:** muhokamalarda oldindan kelishilgan shartlarga (navbat bilan so‘zlash, vaqtga amal qilish) amal qila oladi.
- **6.OT.1.d:** muhokama etilayotgan matn, mavzu, masala yuzasidan berilgan savollarga javob berish maqsadida nutqiga izohlar qo‘sha oladi.

**6.OT.2:** OAVlarda turli formatlarda (og'zaki, vizual) berilgan ma'lumotni (yosh doirasida) tushuna oladi, sharhlay oladi hamda ular asosida nutq so'zlay oladi.

**6.OT.3:** nutqdagi maqsadni, g'oyani aniqlay oladi.

### Bilim va g‘oyalarni taqdim qilish

**6.OT.4:** nutqi davomida kerakli ovoz balandligini tanlay oladi; adabiy tilning asosiy me'yorlariga amal qila oladi; auditorya bilan ko'z aloqasini o'rnata oladi; nutqini mantiqiy ketma-ketlikda tuza oladi.

**6.OT.5:** ma'lumotlarni aniqlashtirish maqsadida berilgan qo‘shimcha savollarga javob bera oladi.

**6.OT.3:** turli vazifalarni bajarish ketma-ketligini tushuntirish, qayta bayon qilish, turli ma'lumotlarni yetkazish maqsadida nutq yarata oladi.

Quyida namunadagi baholash formati bilan tanishamiz.

| № | O‘quv natijalari | Blum tak-si | Q/D | Tops hiriq turlari | Ball | Ajratilgan vaqt (daq) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Tinglangan matnda aniq ifodalangan ma’lumotni topa olishi | B/T2 | I | OT-5 | 1 | 6 |
| 2 | Tinglangan matnda yashirin ifodalangan ma’lumotni topa olish | B/T2 | I | YT-4 | 2 | 6 |
| 3 | Tinglangan matn qismlari orasidagi ko‘rsatilmagan qadamlar ketma-ketligini talqin qilish va aniqlash | B/T4 | II | YT-3 | 2 | 5 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 4 | Tinglangan matn qismlari orasidagi bog‘liqlikni tushunish | B/T4 | II | YT-2 | 1.5 | 4 |
| 5 | Tinglangan matnning umumiy mazmunini tushunish va xulosa chiqarish | B/T7 | III | OT-1 | 3 | 4 |

Ushbu namuna o‘rnida ishlab chiqilgan baholash formati yuqori(9-11) sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bu baholash nutqiy ko‘nikmalarning muhim qismi hisoblangan tinglab tushunishni o‘lchash uchun foydalaniladi. Ushbu spetsifikatsiya topshiriqlar tuzishga asos bo‘ladi. Formatda berilgan o‘quv natijalari berilgan matnni to‘liq o‘zlashtirish uchun mo‘ljallangan. Ular blum taksonomiyasining bosqichlariga moslashtirilgan, qiyinlik darajasi o‘lchangan va topshiriqning tuzilishini, darajasini ko‘rsatgan. Topshiriq turlari ochiq va yopiq test shaklida bo‘lib, ochiq testlar so‘zlar, so‘z birikmalari va gaplar yordamida ifodalanadi. Yopiq testlar esa binar testlar, bitta yoki bir nechta to‘g‘ri javobli testlar, moslashtirishni talab qiladigan testlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Berilgan ballar ham savollarning qiyinlik darajasiga ko‘ra tuzilgan bo‘lib, umumiy ball 25 ballni tashkil qiladi. Ajratilgan umumiy vaqt ham 25 daqiqa bo‘lib bu muddat topshiriqlarning soni va qiyinlik darajasiga ko‘ra taqsimlangan. O‘quv natijalarining tarkibi berilgan matnning butun qismini qamrab olgan holda yaratilgan. O‘quvchi tinglash va topshiriqlarni bajarish davomida tinglangan matnni qismlarga ajratadi, umumlashtiradi, taqqoslaydi va xulosalaydi. Misol uchun, aniq ifodalangan ma’lumotlarni topish yashirin ifodalangan ma’lumotlarni topishga qaraganda osonroq. Shuning uchun berilgan topshiriq nisbatan ko‘p, ball va ajratilgan vaqt kam. Matn qismlari orasidagi ko‘rsatilmagan qadamlarni aniqlash o‘quvchini o‘z-o‘zidan chuqurroq fikrlashga undaydi. Bularga qo‘shimcha ketma-ketlikni talqin qilish matnni chuqurroq va to‘laroq anglashga yordam beradi. Matnning uumiy mazmuni va maqsadi oxirgi bosqichda aniqlanadi va xulosa chiqariladi. Bu esa ochiq test shaklida, bir yoki bir nechta gap tuzish orqali amalga oshiriladi. Mazkur format barcha kategoriyalar bo‘yicha o‘quv natijalariga erishishni va aniq ifodalangan mezonlarga asoslanib baholash mulohazalarini taqozo etadi, xulosalarning mavjud ma’lumotlarga mosligini baholaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning ona tilidagi matnlarni tinglab tushunish malakasini baholash o‘g‘zaki nutq ko‘nikmasi bilan birga bo‘lmasligi, tinglab tushunish ko‘nikmasining o‘zi alohida, o‘g‘zaki nutq ham alohida o‘lchanishi zarur. Buning uchun asos bo‘ladigan mukammal baholash formatini yaratish va shu asosida topshiriqlar ishlab chiqish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baratov A., Pedagogik o‘lchovlar nazariyasi asoslari. Toshkent, 2018. 41-b.
2. Jalilov K., Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2020. 218-bet.
3. Mirvaliyev Z., Pedagogik o‘lchovlarda test topshiriq turlari. – Toshkent, 2018, 40-b.
4. Uraimshikova M. Tinglab tushunishdagi qiyinchiliklar va ularning yechimlari// Academic research in educational sciences, 2022. №6. – B. 5-11.


# MUHOKAMA MATNI YARATISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNI QO‘LLASH


*Ro‘ziboyeva Aziza Bobirovna*
*ToshDO‘TAU O‘zbek tili va ta’limi*
*Fakulteti 4-bosqich talabasi*
azizaruzieva200205@gmail.com



***Annotatsiya.*** *Maqolada muhokama matni yaratishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati haqida hamda o‘quvchilar nutqida kommunikativ yondashuv asosida muhokama matnini hosil qilish yoritilgan. Bundan tashqari kommunikativ yondashuvning 5 ta bosqichi: muloqotdan oldingi, muloqot, tahlil, mashq va qo‘llash bosqichi birma-bir izohlangan. O‘quvchilar nutqini rivojlantirishga doir metod va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Muhokama tushunchasi aynan necha yoshdan boshlab o‘quvchilarda shakllanishi haqida olimlarning fikrlari keltirilgan.*



**Kalit so‘zlar:** *kommunikativ yondashuv, muhokama matni, kontekstuallashtirish, til ko‘nikmalarini rivojlantirish, kognitiv rivojlanish, muloqot.*



**Abstract.** *In the article, information about 5 stages of communicative production: pre-communication, communication, analysis, exercise and application actions appeared in order to control the discussion text and skills of students. A few assignments and document reviews to review the discussion text in students' speaking. In addition, the opinions of scientists about which grade students can use this type of text in their speech are explained.*



**Keywords:** *communicative approach, discussion text, contextualization, development of language skills, cognitive development, communication.*


Insonlarda nutq so‘zlash jarayoni tabiiy ravishda birinchi tilni o‘rganganda shakllana boshlaydi, bu hech qanday grammatik qoidalarsiz amalga oshadi. Shunday ekan, matn yaratishda ham kommunikativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u real hayotdagi muloqot va o‘zaro ta’sirga qaratilgan. Yozma yoki og‘zaki

matnlarni yaratishda ushbu yondashuvdan foydalanish tilning mazmunli va u qo‘llaniladigan kontekstga mos kelishini ta’minlaydi. Matn yaratishda kommunikativ yondashuv hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy sabablar:

1. Haqiqiylik: Kommunikativ yondashuv tilning haqiqiy qo‘llanilishiga urg‘u beradi, ya’ni matnlar real vaziyatlar, o‘zaro ta’sirlar va tildan foydalanishni aks ettirish uchun yaratilgan.

2. Emotsionallik: Kommunikativ yondashuvdan foydalangan holda yaratilgan matnlar tinglovchilar uchun ko‘proq qiziqish uyg‘otadi, chunki ular interaktiv bo‘lib, ularning ehtiyojlari va qiziqishlariga mos tarzda yaratilgan.

3. Aloqadorlik: Aloqa maqsadlari va auditoriya ehtiyojlariga e’tibor qaratgan holda, kommunikativ yondashuvdan foydalangan holda yaratilgan matnlar hayotiy vaziyatlarda ko‘proq mos keladi va foydali bo‘ladi.

4. Kontekstuallashtirish: Kommunikativ yondashuv matn yaratuvchilarni tilning vaziyatga mos va samarali bo‘lishini ta’minlab, til ishlatilayotgan kontekstni hisobga olishga undaydi.

5. Til ko‘nikmalarini rivojlantirish: Kommunikativ yondashuvdan foydalangan holda yaratilgan matnlar turli til ko‘nikmalarini, jumladan, gapirish, tinglash, o‘qish va yozishni rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular mazmunli muloqotni rivojlantirishga qaratilgan.

6. Madaniylik: Kommunikativ yondashuv ko‘pincha muloqotga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan madaniy omillarni ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi, bu esa madaniy jihatdan sezgir va inklyuziv bo‘lgan matnlarga olib keladi (Gabriel Fredi Daar, 2020: 35-bet).

Til o‘rgatishning kommunikativ yondashuvi real hayotdagi muloqot va o‘zaro ta’sirga urg‘u beradi. Odatda ushbu yondashuv bilan bog‘liq bo‘lgan bosqichlar:

- ✓ **Muloqotdan oldingi bosqich:** Bu bosqich muloqot faoliyati uchun kontekstni belgilash, kerakli lug‘at yoki tushunchalar bilan tanishtirish va o‘quvchilarni vazifaga tayyorlashni o‘z ichiga oladi.
- ✓ **Muloqot bosqichi:** Bu o‘quvchilar haqiqiy muloqot vazifasini bajaradigan asosiy bosqichdir. Bu juftlik yoki guruh muhokamalari, rolli o‘yinlar, ma’lumot bo‘shliqlari va boshqa interaktiv tadbirlarni o‘z ichiga olishi mumkin.
- ✓ **Tahlil bosqichi:** Topshiriqdan keyin ko‘pincha o‘quvchilar o‘z faoliyatini tahlil qiladigan bosqich mavjud. Ular nima yaxshi bo‘lganini, nimani yaxshilash mumkinligini muhokama qilishlari va ular qo‘llagan til va strategiyalar haqida fikr yuritishlari mumkin.
- ✓ **Mashq bosqichi:** Tahlil asosida o‘quvchilar muloqot davomida yuzaga kelgan muammolarni mustahkamlash uchun yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishlari mumkin.

✓ **Qo‘llash bosqichi:** Va nihoyat, o‘quvchilar o‘rganganlarini sinfdan tashqarida real hayotda qo‘llashlari tavsiya etiladi, bu esa tilning muloqot vositasi ekanligi haqidagi fikrni mustahkamlaydi.

O‘quvchilarning yoshi kognitiv rivojlanishga, o‘quvchilarning ma’lumotni qanday qayta ishlashiga va ularning mavhum tushunchalarni tushunish qobiliyatiga ta’sir qiladi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar aniq misollar va ko‘rgazmali qurollarga ko‘proq tayanishi mumkin, katta yoshdagilar esa murakkabroq til vositalarini tushunishlari mumkin.

O‘quvchilarning og‘zaki nutq uchun muhokama matnida qatnashishi mumkin bo‘lgan yoshi har xil bo‘lishi mumkin, lekin umuman olganda, 7-sinfdan (taxminan 12-13 yosh) o‘quvchilar og‘zaki muhokama qilish uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantira boshlaydi.

Psixologik nuqtayi nazardan, bu yosh guruhi kognitiv rivojlanishning o‘rtasida, ayniqsa, mavhum fikrlash bosqichida bo‘lishadi. Ular turli nuqtayi nazarlarni tushunish va murakkab g‘oyalarni ko‘rib chiqish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Og‘zaki nutq uchun ularning kognitiv rivojlanishini hisobga olish va argumentlarni tuzish, fikrlarni aniq ifodalash va boshqalarni tinglashda yordam berish muhimdir.

Umuman olganda, bu yoshdagi o‘quvchilarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini tushunish o‘qituvchilarga qiziqarli, qiyin va rivojlanishga mos keladigan muhokama matnlarini loyihalashda yordam beradi.

7-sinf o‘quvchilarda muhokama matnini yaratishda kommunikativ yondashuv sifatida quyidagi topshiriqlarni qo‘llash mumkin:

1-topshiriq. Vaziyat

Oqibat

Yechim.

? ? ?

Mazkur topshiriq orqali o‘quvchi sabablarni muhokama qiladi va ularga mos yechimlarni o‘z nutqida aks ettira boshlaydi.

➢ 2-topshiriq

Guruhlarga bo‘lining hamda diagrammani izohlashga harakat qiling.







➢ Diagrammada nimalar aks etganini og‘zaki ifodalang.
➢ Cho‘llar nega ko‘payganining sababini aniqlang. Kim yoki nima aybdor?
➢ Nima sababdan o‘rmonlar va suvli yerlar 1980-yilga nisbatan kamayganini izohlang.

Ushbu topshiriq guruhlar bilan ishlashga doir sanaladi. O‘quvchilar topshiriq orqali guruhlarda diagrammni izohlaydilar va berilgan savollarni muhokama qiladilar. Muhokamalar natijasida ular mos va mos bo‘lmagan javoblarni tahlil qila boshlaydilar. Aynan shu tarzda muhokama matnini og‘zaki nutqda ifodalash boshlanadi.

Ushbu bosqichlar davomida o‘qituvchi yordam beruvchi rol o‘ynaydi, o‘quvchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi va ularning muloqot ko‘nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. Topshiriqlar orqali quyidagilar shakllanadi.

- fakt va fikrlarga asoslanish;

- fikrlarning ketma -ketligi;
- o‘z fikrini izohlash;
- mos va mos bo‘lmagan holatni tahlil qila olish;
- muammolarga yechim topish.

Muhokama matnini yaratishda komunikativ yondashuv o‘quvchilarda matn bo‘yicha tushuncha hosil qilish va fikrlarni izohlashda qo‘l keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Gabriel Fredi Daar.(2020). Problems of English language learning in context. Sambi. Reok Barat, 124p.
2. Paynton S.T., Hahn. (2014) L.K. Survey of Communication Study. Humbolt State University, 35-36p.
3. Tucker, Barbara and Barton, Kristin. (2016). Exploring Public Speaking: 2nd Edition. Communication Open Textbooks,78-79p.
4. Fetch F. (2014). The art of interwiew skills. Published by bookbon.com, 89-91p.


## O‘QUVCHILARDA O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMASI ORQALI MANTIQIY FIKRLASHINI O‘STIRISH


**Sattorova Zarina Shokir qizi,**

*ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti 3-kurs talabasi,+998992051309*

*sattorovaz863@gmail.com*



***Annotatsiya:*** *Maqolada o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasi orqali mantiqiy fikrlashini o‘stirish haqida, xususan, mantiqiy fikrlash matn konteksidagi so‘zlarni aniq tushunishga yordam berishi, omonimlar va sinonimlardan to‘g‘ri foydalana olishi kabi mavzular xususida so‘z yuritiladi. O‘qib tushunishga oid matn va savollar beriladi.*

***Abstract:*** *The article discusses the development of reading pupils through reading comprehension skills, in particular, logical thinking helps to clearly understand words in the context of the text, can use homonyms and synonyms, topics such as the ability to use words in place are discussed. A reading comprehension text and questions will be given.*



***Kalit so‘zlar:*** *o‘qib tushunish ko‘nikmasi, mantiqiy fikrlash, omonim, sinonim.*

***Keywords:*** *reading comprehension, logical thinking, homonym, synonym.*


Bugungi kunda, ya’ni rivojlanib borayotgan jamiyatda mustaqil va mantiqiy fikrlashni yosh avlodga o‘rgatish pedagoglarning asosiy vazifasidir. Bunda, ayniqsa, ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining roli va o‘rni alohida. Yaqin yillar ichida ona

tili darsliklari yangilanib, unda to‘rt (og‘zaki nutq, yozma nutq, o‘qib tushunish va tinglab tushunish) ko‘nikmaga alohida e’tibor berilgan. Yangilangan 6-7- va 10-sinf ona tili darsliklarida murakkab grammatikalar osonlashtirilib, to‘rt ko‘nikmaning negizida o‘rgatilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bu to‘rt ko‘nikmadan o‘qib tushunish o‘quvchini mantiqiy fikrlashga undaydi.

G.A.Asilova- ped.fan. doktori(DSC) ToshDO‘TAU professori o‘qib tushunish haqida quyidagi jumlalarni yozgan: “O‘qib tushunish - nutqiy faoliyatning turlaridan biri sifatida murakkab psixofiziologik jarayon bo‘lib, faqat muayyan lingvistik poydevor, ya’ni fonetik va leksik-grammatik bilimlar asosida amalga oshiriladi. O‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga bu jarayonning ikki tomoni, ya’ni yozma xabarni qabul qilishga tayyorlaydigan o‘qish texnikasini hamda axborotni sodir bo‘lgan nutqiy faoliyat mahsuli sifatida anglashni inobatga olish zarur. Buning muhim sharti esa tzizmli va maqsadga qaratilgan maxsus mashqlarni bajarishdir. O‘qishni nazorat qilish obyekti matnning til materiali emas, uning mazmunini tushunishdir. Nutqiy faoliyatning barcha turlari bo‘yicha o‘zaro bog‘liq ta’limning maqsadga muvofiqligi va samarasi haqidagi metodik qoida o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish boshqa nutqiy ko‘nikmalari bilan parallel tarzda rivojlantirishni taqazo etadi.” (Asilova G., O‘zbek tilida o‘qib tushunish malakalarini rivojlantirish, maqola)

Quyida o‘quvchilarining o‘qib tushunishida fikrlay olish qobiliyatini tekshirishga oid matn keltiriladi: “Xunuk degan so‘zni biz ko‘rksiz, badbashara deb tushunamiz. Aslida bu so‘z sovuq degani. Tashqari xunuk, issiq kiyinib ol, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Lekin bunday deb aytsak kulgi bo‘lamiz. Ajabo, sovuq ma’nosidagi so‘z qanday qilib ko‘rksizga aylandi? Bunga ham sabab – qisqartirishga o‘chligimiz. Avval uni sovuq ma’nosida to‘g‘ri ishlatganmiz. Turqi sovuq odamni turqi xunuk deganmiz. Keyinchalik turq tushib qoldi, xunukning o‘zini aytadigan bo‘ldik.”(Vohidov E, “So‘z latofati”, 76-bet.)

1.Xunuk so‘zining matndagi ma'nosi?

a. badbashara
b. turq
c. qahraton

2. Xunuk so‘zi bilan tuzilgan qaysi gap matndan kelib chiqqan holda to‘g‘ri hisoblanadi ?

a. bu qizning xunukligi yuzidagi o‘ziga yarashmagan dog‘lar tufayli
b. bu qish juda xunuk kelarkan, unda o‘tin g‘amlash kerak
c. xunuk ko‘chalar changga to‘lib, inson zoti yurolmaydigan bo‘lib qolibdi

3.Turqi xunuk iborasi hozirgi kunda qanday ma’noda ishlatiladi?

a. muomalasi yomon

b. yoqimsiz
c. ko‘cha sovuq

4.Muallif fikricha, nima uchun xunuk so‘zi bugungi kunda ko‘rksiz ma'nosida ishlatiladi?

a. so‘zlarni kengaytirishga urinishimiz tufayli
b. so‘zlarni tejashga bo‘lgan o‘chligimiz sababli
c. so‘zlarni ko‘p ma’noli sifatida qo‘llashimiz oqibatida

5. Matndan kelib chiqadigan xulosa qanday?

a. afsuslanish
b. achinish
c. ajablanish

Bu kabi matn va savollar ularni o‘ylashga, mantiqiy fikrlashga undaydi va bu adabiyot darsliklaridagi ba’zi asarlarning xulosalari, she’rlarning tag ma’nolarini bilishga yordam beradi. Shunga o‘xshash mashqlar yangilangan ona tili darsliklarida bor va buni ko‘paytirish, boshqa sinf ona tili darsliklariga ham kiritish zarur. Aynan o‘qib tushunish orqali omonim so‘zlarni konteksda ajratib olish uning mantiqiy fikrlashini o‘stiradi.

“Yozilishda bir xil…”

| **Berilgan misol** | **O‘quvchining misoli** |
|---|---|
| **Dutor, tanbur,** doira**, nay kabilar milliy cholg‘u asboblarimiz sanaladi.** | |
| **Bo‘lar bola o‘n beshida bosh,**<br>**Bo‘lmas bola o‘ttizda ham** yosh. | |
| **Butun borliqqa** kech **kirdi.** | |
| **Shu ishingni** qo‘y **jon bolam.** | |

“ Tezlikda top”

Kulmoq so‘zining sinonimlarini darajasiga ko‘ra joylashtiring.

Tirjaymoq, xoxolab kulmoq, jilmaymoq, irshaymoq.

☺☺
😄😄
😆😆
😂😂

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni o‘qib tushunish ko‘nikmasi orqali mantiqiy fikrlashini o‘stirishda ko‘proq mantiqiy savollar fikrlatuvchi topshiriqlarni ko‘proq berish kerak. Yuqorida ulardan namunalar keltirildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Abduraiomov Sh., Ona tili ta’limida o‘qib tushunish ko‘nikmasini baholashning nazariy va metodik asoslari: maqola. – Toshkent, 2022
2. Asilova G., O‘zbek tilida o‘qib tushunish malakalarini rivojlantirish: maqola.
3. Fayzullayeva N., Matnning o‘qib tushunish ko‘nikmasi orqali mantiqiy fikrlashni o‘stirish: mqola. – “Science and education” journal, 2023
4. Vohidov E., So‘z latofati. – Toshkent, O‘zbekiston – 2014
5. Yuldasheva D., O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Buxoro, Durdona – 2021


## TURK TILINI BIRINCHI TIL SIFATIDA O‘QITISH TAJRIBASI HAQIDA


***Sobirxonova Ziyoda Temurxon qizi,***
*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 3-kurs talabasi*
*Ilmiy rahbar: Klaraxon Mavlonova (DSc) dotsent*
*ziyodasobirxonova@gmail.com +998934488177*



**Annotatsiya.** *Xorijiy tillarning birinchi til sifatida o‘rgatilishi, ona tilini o‘rgatishdagi xorij tajribalari, O‘zbekistonda ona tilini o‘rgatish usullari va ko‘zlangan maqsadlar ushbu maqolamizda yoritilgan. Xorijda turk tilining 1-til sifatida o‘rgatishdagi metod va usullari, o‘quvchilar ona tillarini o‘rganishlari orqali shakllanishi kerak bo‘lgan ko‘nikma va malakalari, dasrliklarning 4K (to‘rt nutqiy ko‘nikma) asosida shakllantirilgani, Turkiya davlatidagi til o‘qitish metod va topshiriqlari to‘liq tahlilga tortildi, mavzularning yangicha yo‘nalishda berilganligi tadqiq etilib, yangi ma’lumotlar atroflicha o‘rganildi. Turk tili va adabiyot darsliklarining yutuq va kamchiliklari ko‘rib chiqildi.*



***Kalit so‘zlar:*** *nutqiy kompetensiya, malaka, ko‘nikma, turk tili va adabiyoti, o‘quv dasturi, DTS, nutqiy ko‘nikma, lingvistik ko‘nikma.*



***Abstract.*** *The teaching of foreign languages as a first language, foreign experiences in teaching the mother tongue, methods of teaching the mother tongue in Uzbekistan and the intended goals are covered in this article. Methods and methods of teaching Turkish as a first language abroad, skills and competences that should be formed in students by learning their mother tongue, the formation of*

*textbooks based on 4K, methods and assignments in Turkish language teaching are complete. it was analyzed, it was studied that the topics were given in a new direction, and new information was found and presented. The achievements and shortcomings of Turkish language and literature textbooks were reviewed.*

***Keywords:*** *Speech competence, skill, skill, Turkish language and literature, curriculum, DTS, speech skill, linguistic skill.*

Har bir davlat o‘z milliy tilini o‘rgatishni ma’lum bir qonun-qoidalarga tayangan holda olib boradi. Ta’limni olib borish, dasliklar yaratish DTS (davlat ta’lim standartlari), milliy o‘quv dastur asosida amalga oshiriladi. Bugungi kunda DTS va milliy o‘quv dasturlari o‘zbek tilini o‘qitishda o‘quvchilarning faqatgina lingvistik emas, balki nutqiy kompetensiyalarini ham baravar shakllantirishni ko‘zda tutadi. Ona tili fani bo‘yicha ta’lim standartlari umumiy o‘rta ta’lim maktablari (11-sinf) bitiruvchilarining fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va kompetensiyalariga qo‘yilgan, umumlashgan talablardan iborat bo‘lib, ular nutqiy hamda lingvistik kompetensiya standartlariga bo‘linadi. Nutqiy kompetensiya 4 ko‘nikmani qamrab oladi (O‘S, YN, ON, TT), lingvistik kompetensiya esa o‘zbek tili qoidalariga amal qilishga qaratilgan (Ona tili fani milliy o‘quv dasturi, 2022/2023, 6 -bet). Shu tufayli bugungi kunda yaratilayotgan darsliklar yuqoridagi har ikkala kompetensiyani rivojlantirishga qaratilmoqda. Bu talablar faqatgina O‘zbekiston ta’lim tizimidagina emas, balki dunyo ta’lim tizimida uzoq yillardan beri qo‘llab kelinmoqda. Bunga misol sifatida bizdan bir qancha yil avval o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalariga yuqoridagi talablarni qo‘ygan Turkiya davlati ta’lim tizimi va darsliklarini keltirishimiz mumkin.

Turkiya uzluksiz ta’lim tizimida, ya’ni boshlang‘ich ta’lim, o‘rta maxsus (litsey) va oliy ta’limida turk tilini o‘qitish uch bosqichga bo‘lingan bo‘lib, ular: boshlang‘ich, o‘rta va litsey ta’limida ona tili ta’limi. Bulardan boshlang‘ich va o‘rta ta’lim tizimida turk tili va adabiyoti qo‘shib, ya’ni *turk tili darsi* deb nomlangan fan ichida birlashadi. Turk tili litsey ta’limida esa *turk tili va adabiyot darsi* deb ikkiga ajraladi. Bu ta’lim tizimi milliy ta’lim vazirligi nazorati ostida bo‘ladi. Bu o‘quv fanlarining milliy o‘quv dasturlari alohida shakllantiriladi. 1–8-sinflar (boshlang‘ich va o‘rta) uchun turk tili o‘quv dasturi va 9–12-sinflar (litsey) uchun turk tili va adabiyoti o‘quv dasturi asosida ta’lim beriladi. Biz yuqoriladagilardan kelib chiqqan holda Turkiyada o‘rta maxsus ta’lim (litsey)da turk tilini o‘rgatish usul va maqsadlarini atroflicha yoritishga harakat qildik. Turk tili va adabiyoti o‘quv dasturi (TTAO‘D)ning maqsadlari quyidagilardan iborat:

O‘quvchining:

– adabiyotning tabiiyligi, shaxs va jamiyat uchun qanchalik kerakligini tushunib yetishi;

– adabiy matnlar orqali turkchaning latofatini, turk adabiyotining davrlar osha ko‘rsatgan o‘zgarish va taraqqiyotini bilishlari;

– turk adabiyotiga oid asarlar vositasida milliy, ma’naviy, axloqiy, madaniy va umumbashariy qadriyatlarni tushunishlari;

– tinglash, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini to‘g‘ri va mos shaklda ishlatish orqali ta’sirli bir muloqotga kirisha olishlari;

– matnlar orqali o‘qiganlarini tushunish va tanqidiy fikrlash qobilyatilarini rivojlantirishlari va o‘qishni odat tusiga keltirishlari;

– turli xil manbalarda o‘rgangan ma’lumotlari, savollarga javob berishlari, muammolarga yechim taklif qishlari, yechimlarini hamma bilan ulashishlari va b. faoliyatlarda analiz qilishlari va baho berishlari asosiy vazifa qillib olinmoqda (Türk dili ve edebiyatı dersi, 2018. 12-bet).

O‘rganishga xos ko‘nikmalar quyidagilarni tashkil etmoqda:

– TTAO‘D to‘rt asosiy ko‘nikma (o‘qib tushunish, tinglab tushunish, yozma savodxonlik, og‘zaki nutq) bilan bir qatorda o‘quvchilarga o‘rgatilishi kerak bo‘lgan ko‘nikma va malakalar quyida sanab o‘tiladi:

4. Axborot savodxonligi
5. Tanqidiy fikrlash
6. Tasviriy savodxonligi
7. A’loqa va ish birligi
8. Media savodxonligi
9. Ijodiy fikrlash

O‘quv dasturida o‘quvchilar yil davomida egallashi kerak bo‘lgan ko‘nikma va malakalar va ularning ballari jadval asosida tasvirlangan ( Türk dili ve edebiyatı dersi, 2018. 12-bet).

| Ko‘nikmalar | Ball |
|---|---|
| A) O‘qish (matnni tushunish va tahlil qilish) | |
| 1.Lirik | 13 |
| 2.Hikoya qiluvchi (hikoya qilishga asoslangan) adabiy matnlar | 16 |
| 3. Teatr | 14 |
| 4.Axborot beruvchi (o‘rgatuvchi) matnlar | 15 |
| B) Yozma | 12 |
| C) Og‘zaki muloqot | |
| 1. Og‘zaki nutq | 17 |
| 2. Tinglab tushunish | 8 |

Turk tili va adabiyoti o‘quv dasturi 9–12-sinflar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, har bir sinfda yil davomida qanday mavzu o‘tilishi (choraklar asosida bo‘lingan) va bu mavzulardagi nutqiy va lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun qanday topshiriqlarni bajarishlari kerakligi to‘liq yoritib berilgan. Misol uchun, 9-sinf hikoya mavzusini olaylik (Türk dili ve edebiyatı dersi, 2018, 17-bet).

| **O‘tish vaqti:5-hafta** | | |
|---|---|---|
| **O‘qib tushunish** | **Yozma savodxonlik** | **O‘g‘zaki nutq** |
| Mustaqillik davrida yozilgan voqea hikoyasiga misol beriladi.<br>Mustaqillik davrida yozilgan vaziyat hikoyasiga misol beriladi<br>Hikoya ta’rifi va unsurlari (kishilar, voqealar rivoji, makon, zamon, konflikt, to‘qnashuv, mavzu, hikoyachi va dunyo qarash) haqida namuna matnlar orqali m’lumot beriladi.<br>Voqea hikoya (Mopassam uslubi) vaziyat hikoya (Chexov uslubi)farqlari o‘zaro matndagi voqealar asosida ochib beriladi<br>O‘quvchilarning o‘rgangan matnlari Mupassam va Chexov uslublaridan tanlangan hikoya bilan solishtirishlari aytiladi. | O‘zlari xohlagan mavzuda hikoya yozish topshirig‘i beriladi. | Taqdimot tayyorlashni asosiy tamoyillari tushuntiriladi.<br>O‘quvchilarning Turk adabiyotidagi vaziyat va voqea hikoyachiligi haqida taqdimot qilishlari beriladi. |
| **Til bilimi mavzulari:**<br>Matndagi otlarni topiladi va ularning matndagi vazifasi belgilanadi.<br>Matnlardagi imlo va punktiatsion xatolar topiladi. | | |

Biz ushbu maqolamizda 9-sinf darsligidagi shu mavzuni “4K” yondashuvi asosida tahlil qildik. Darslikdagi yangi metodlarni yoritdik (Türk dili ve edebiyatı dersi, 2018, 31-betlar).

Bo‘limga kirishdan oldin o‘quvchilarni bu bo‘limda nimalar o‘rganishlari, qaysi mavzular borligi va bo‘limning maqsadi berib o‘tilgan. Hikoya mavzusida o‘quvchilar hikoya unsurlari, hikoya turlari, hikoya yozish texnikasi va hikoya yozish, taqdimot haqida ma’lumot va tadqimot qilishni o‘rganishadi. Mavzuning maqsadi o‘quvchilarga taqdimot qilish ko‘nikmasini o‘rgatish, hikoya yozish qobilyatini shakllantirish, hikoya turlari va hikoya unasurlarini o‘rgatish. (Türk dili ve edebiyatı 9, Ders kitabı, 2023. 39-68-betlar).

Bu yerda o‘quvchini hikoya yozish bosqichlari bilan tanishtirib, yozma savodxonligini shakllantirish uchun hikoya yozish topshirig‘i berilgan.

1.Tayyorgarlik:

a) mavzuni belgilash;

b) kishilarni va matndagi vazifalarini belgilash.

2. Rejalashtirish:

a) voqealar rivoji va ziddiyatlarni belgilash;

b) makon va zamonni belgilash;

d) hikoya qilivchi va hikoya qilish uslini belgilash.

3.Qoralama matn yaratish:

a) reja asosida matn yozish;

b) hikoya yozish usul va texnikalaridan foydalanish.

4. Matnni to‘ldirish va to‘g‘irlash:

a) matn mukammalligini tekshirish;

b) mazmiy xatolarni to‘g‘rilash;

d) imlo va puntkuatsion xatolarni to‘g‘rilash.

5. Yozilgan matnni o‘qish.

Bu topshiriq o‘quvchilarni fikrlash, o‘z fikrlarini o‘g‘zaki shaklda to‘g‘ri va tushunarli yetkaza olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Topshiriqni rasm yordamida bajarish esa ijodiy tafakkurni oshirishga yordam beradi.

Bu savollar ikkinchi matnni o‘qishga kirishish uchun berilgan. Hikoyaning umumiy g‘oyasi bilan o‘quvchini tanishtirishga yordam beradi

1.Tabiatni himoya qilish nima uchun muhim ekanini rasm asosida muhokama qiling.

2.Tabiatni himoya qilish uchun nima qilish kerakligini yoriting.

Savollar hayotiy bo‘lib, o‘quvchilardan atrofdagi muammolarni ko‘ra olish va ularga yechim topa olishlariga qaratilgan.

Bu topshiriq *“So‘nggi qush”* nomli hikoyani o‘qib bo‘lgandan so‘ng berilgan. Yuqoridagi rasmli topshiriq orqali o‘quvchining dastlabki fikrini bilishga, keyingi topshiriq esa hikoyadan olgan xulosasini bilishga yordam beradi. Bu orqali hikoyadan qanday xulosa chiqarganini bilish, fanlararo aloqa qanchalik ahamiyatli ekanini o‘rgatish mumkin.

a) rasmdagi manzarani tasvirlang;
b) adabiyotni tasviriy san’at bilan aloqasini baholang.

Bu jadvalda hikoya turlari o‘quvchilar tominidan o‘qilgan asarlar yordamida tushuntirilgan. Mavzuda berilgan *“Zanjir”* va *“So‘nggi qush”* hikoyalari turiga ko‘ra *voqea* va *vaziy*at hikoyasiga ajratilgan. *Zanjir* hikoyasida voqealar rivoji, tugun, yechim yaqqol aks etgan. Hikoya kutilmagan bir shaklda tugatilgan va o‘quvchini qiziqtirgan voqealar davomli berib borilgan. *“So‘nggi qush”* hikoyasida esa voqealar rivoji, tugun, yechim berilmagan, o‘quvchini qiziqtiruvchi vaziyatlar birinchi o‘ringa chiqmagan va hikoya oxiri tugallanmagan shaklda berilgan.

Kitobda adabiyot va ona tili bog‘lab o‘rgatilgan. Mavzuda lingvistik bilimlar ham berilgan. Bu lingvistik mavzu ot so‘z turkimi bo‘yicha. O‘quvchi parchalardagi atoqli va turdosh otlarni, aniq va mavhum otlarni, birlik, ko‘plik va jamlovchi otlarni topib, jadvalga joylashlari kerak bo‘ladi. Ularning matndagi vazifasini ham yoritishlari so‘ralgan.

Taqdimot nima ekani, taqdimot tayyorlashda e’tibor berilishi kerak bo‘lgan jihatlar berib o‘tilgan. O‘quvchilar taqdimot haqida tushunchaga ega bo‘lgandan so‘ng og‘zaki nutqlarini rivojlanirish uchun turk adabiyotidagi hikoyachilik haqida taqdimot tayyorlashlari berilgan.

*“Tanlanadigan ildizlar”* topshirig‘i. Daraxt ildizlarida no‘g‘ri va noto‘g‘ri humklar berilgan. O‘quvchilar boshidagi ma’lumotdan boshlab katakchalarni o‘qib, strelkalar ortidan to‘g‘ri chiqishga yetishlari kerak bo‘ladi. To‘g‘ri chiqish 8 tadan qaysidir biri. Bu topshiriqni takrorlash mavzularida, darsni mustahkamlashda qo‘llash samarali bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, turk tili darsliklarida o‘quvchilarga qo‘yilgan malaka talablarni rivojlantirishga doir topshiriq va mashqlar o‘rinli berilgan. Milliy o‘quv dasturidan chetlashmagan holda o‘quvchilardagi LK, NK shakllantirishga alohida e’tibor berilgan. O‘zimizning darsliklar bilan taqqoslaganda ulardagi darslarning qiyinlik darajasi yuqori ekanini, ham ona tili, ham adabiyotni bir kitobda jamlaganini ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun, hikoya janri, turlari, hikoyani tashkil etadigan unsurlar (tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim), hikoya tuzish texnikalari. Lingvistik mashqlar esa takrorlash shaklida berilgan, ammo topshiriqlardan oldin o‘quvchilarga mavzuni eslab olishlari uchun kichik eslatma yoki qoidalar berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Adabiyot va ona tilini o‘zida jamlagan 9–12-sinf darsliklari xalqaro standatlarga mos, tushunarli va 4Kni o‘zida aks ettirgan shaklda ishlab chiqilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Türk dili ve edebiyatı dersi (9, 10, 11 ve 12. sınıflar) Öğretim Programı. Milli Eğitim Bakanlığı. Türkiye – 2018. 64.B
2. Türk dili ve edebiyatı 9.Ders kitabı. Milli Eğitim Bakanlığı. Türkiye. – 2023. 272.B
3.Ona tili fani milliy o‘quv dasturi. Respublika ta’lim markazi. 2022/2023-o‘quv yili. 215.B

## ONATILI DARSLARIDA AUDIOMATNLAR BILAN ISHLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA OID QARASHLAR TAHLILI

***Suyunova Negina Sherzod qizi***

*O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti, 4-kurs talabasi*
*+998990786720*
*suyunovanigina@mail.ru*

***Annotatsiya.*** *7-sinf darsligida berilgan audiomatnlar yuzasidan o‘quvchilarda tinglab tushunish kompetensiyasi rivojlantirildi va zamonaviy metodlar orqali olingan bilimlar amalyotga tatbiq etildi. Sinov darslar ikki sinf o‘rtasida o‘tkazilganligi sababli natijalar ilova orqali keltirib o‘tildi.*

***Kalit so‘zlar:*** *audiomatn, sinov dars, kompetensiya, sun’iy intellekt,metod, dialog.*

***Abstract.*** *The students' listening comprehension competence was developed based on the audio texts given in the 7th grade textbook, and the knowledge gained through modern methods was put into practice. Since the test lessons were conducted between two classes, the results were presented through the application.*

***Keywords:*** *audio text, trial lesson, competence, artificial intelligence, method, dialogue.*

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ta'limni isloh etish va uni rivojlantirish, jumladan, "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi"( O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risi"da 28.01.2022-yildagi PF-60-son. https://www.lex.uz/) ning birinchi yo'nalishida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish nazarda tutilgan bo'lsa, ikkinchi yo'nalishda esa, adolat hamda qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish maqsad qilingan. Unda ta'lim sifatini oshirish maqsadida xalqaro tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, ya'ni ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, o'qitish metodikasini takomillashtirish nazarda tutilgan.

So'nggi yillarda umumiy o'rta ta'limda ta'lim shakli va mazmuni bilan bog'liq bir qancha o'zgarishlar ro'y berdi. Ta'lim mazmuni dastur, darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarda o'z ifodasini topdi. 2020-yilda loyiha sifatida taqdim qilingan "Milliy o'quv dasturi" doirasida yaratilgan darsliklarda o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini, nutqiy kompetensiyalarini, ijodiy kreativ fikrlashni rivojlantirish bilan birga ularni ham yozma, ham nutqiy ko'rinishda ifoda etish malakalarini takomillashtirishga e'tibor qaratilgan. Ona tili darslari o'quvchida to'rt nutqiy ko'nikmasini rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Bular: o'qib tushunish, tinglab tushunish, og'zaki nutq va yozma nutq. Darsliklardagi o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan matnlar grammatik bilimlarni amaliyotga tadbiq malakalarini ham mustahkamlab boradi. O'quvchining yoshi va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olib tuzilgan matnlar borliqni, tabiatni, jamiyatni, fanlarni,o'zlikni anglash va o'rganish vositasiga aylantirilgan ( Tadjiyeva M, 2021, 2-bet) O'quvchi tilning strukturasini emas, balki tilning amaliy ahamiyatini ham o'rganib boradi.Matnlar bilan ishlash jarayonida u mustaqil ravishda lingvistik ma'lumotlardan foydalanishni o'rganadi, 7-sinf ona tili darsligida berilgan 20 ta mavzu doirasida 13 tasida tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar o'rin olgan ( "Ijtimoiy tarmoqlar", "Turon yo'lbarsi",

“Kelajak kasblari”, “Maqsadli xarajat”, “Elektromobil”, “Ochiq osmon ostidagi muzey”, “Sharq taronalari xalqaro musiqa festivali”, “Mualliflik huquqi”, ”O‘quv yili oxirida takrorlash”). Matn va topshiriqlar o‘quvchining yoshiga mos va qiziqarli bo‘lib, uning psixolingvistik xususiyatlarini hisobga olingan. Masalan, birinchi darsda “Ijtimoiy tarmoqlar” mavzusi berilgan (7-sin ona tili 2022, 9-bet). Shu mavzuda “Sun’iy intellekt” audiomatni berilgan.

Sun’iy intellekt nima? You tubega kirsangiz tarmoq sizning qiziqishlaringizga qarab turli videolarni taklif qila boshlaydi. Masalan, siz robot va kompyuterlarga qiziqsangiz you tubega ham shu mavzularga oid videoroliklarni ko‘rsatadi, lekin qanday qilib? You tubening bir xodimi faqat sizning qiziqishlaringiz bilan band bo‘lmaydi-ku. Ha, aslida bu aqlli kompyuter. Uning sun’iy intellekti bor. U sizni kuzatib turadi. Internetda nimalarni izlaganingiz, nimalarni ko‘rganingizga qarab qiziqishlaringizni aniqlab oladi. Siz internetdan qancha ko‘p foydalansangiz, aqlli kompyuter ham sizni yaxshiroq tanib oladi. Ko‘pchilik sun’iy intellekt deganda, insonlarga o‘xshab fikrlovchi narsani tasavvur qiladi ,ammo, sun’iy intellekt biznikiday haqiqiy ongga ega emas. U oddiy dastur xolos. Faqat u shunday yaratilganki, o‘z vazifalarini bajarish yo‘llarini mustaqil o‘rganadi. Xatolaridan xulosa chiqara oladi. Shu tariqa sun’iy intellekt borgan sari yaxshilanib, bilimlarini ko‘paytirib boradi. Buning uchun unga insonning ko‘magi deyarli kerak emas. Hozirda sun’iy intellekt deyarli har bir qurilmada bor: telefoningizda, kir yuvish mashinangizda va muzlatkichda. Sun’iy intellektli avtomobillar haydovchisiz ham yurib ketmoqda. Xullas, sun’iy intellekt hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda. Balki, siz katta bo‘lguncha sun’iy intellekt ham ancha ulg‘ayib bir necha kasblarning yo‘q bo‘lib ketishiga sabab bo‘lishi ham mumkin. Masalan, suxandonlar, hisobchilar va haydovchilarning keragi bo‘lmay qolar. Ammo sun’iy intellekt yaratuvchisi, sun’iy intellekt ta’mirlovchisi kabi yangi kasblar paydo bo‘lishi ham tabiiy. Bu vazifa o‘quvchining tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda quyidagi savollarga javob topish vazifasi berilgan.

“Sun’iy intellekt” audiomatnini tinglang va savollarga javob bering:

1. Aqlli kompyuter sizni qanday qilib tanib oladi?
2. Sun’iy intellekt odamlardek haqiqiy ongga egami? Javobingizni izohlang.
3. Ayting-chi, hozirgi kunda sun’iy intellekt qaysi qurilmalarda bor?
4. Matnda aytilishicha sun’iy intellekt qaysi kasblarning yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin? Bu fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun?

O‘quvchilarga audiomatnni eshittirishdan oldin quyidagi savol bilan murojaat qilinadi. Sun’iy intellekt nimalar qila oladi? Qachondan sun’iy intellekt hayotimizga kirib keldi deb o‘ylaysizlar? Bu savollar matnni tinglash jarayoniga tayyorlashda

muhim hisoblanib, bolani uning uchun biroz murakkabroq bo‘lgan vazifani bajarishga tayyorlaydi. Audiomatnini e’tibor bilan tinglash bo‘yicha ko‘rsatma beradi, tinglashga tayyorlaydi. O‘quvchilarni mavzuga yanada qiziqtiradi va diqqatini tortadi. O‘quvchilarga fan o‘qituvchining o‘zi ham ularning qiziqishlarini e’tiborga olgan holda yana bir necha savollar bilan murojaat qilishi ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa o‘qituvchiga sinf o‘quvchilarining individual xususiyatlarini ham xisobga olish imkonini beradi. O‘quvchilarni audiomatn tinglashlaridan oldin savollarni birgalikda sharhlab o‘rganish kerak. Shunday qilinganda o‘quvchilar ularaga berilayotgan (qisman tanish, qisman notanish) axborotning qaysi tomoniga ahamiyat berishi kerakligini o‘zlari uchun aniqlab oladilar(bu albatta vaqtni tejash uchun juda muhim). Tinglanayotgan axborotni o‘quvchi uchun notanish, birinchi marta duch kelayotgan so‘zlar bo‘lsa , o‘qituvchi bu so‘zlarni sharhlab berishi, tanishtirishi, ma’nosini izohlab berishi zarur. Chunki bola o‘zi uchun notanish bo‘lgan jumlaga-tushunchaga duch kelishi bilan diqqati buzilib , undan keyingi qismga e’tibor bermaydi. Xodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoqotib qo‘yadi. Shu so‘zning ma’nosini qidirish bilan band bo‘lib, matnni to‘liq tushuna olmaydi. Shuning uchun audiomatnni eshittirishdan oldin sinf o‘quvchilari uchun notanish bo‘lgan so‘zlar o‘qituvchi tomonidan taxmin qilinib, sinf taxtasiga yozib qo‘yilishi kerak. Shunda matnni bir necha bor qo‘yib berilish zarurati bo‘lmaydi( Dilova N.G., Saidova M.J, 190-196). Matn eshittirilgandan so‘ng savol-topshiriq ustida ishlash boshlanadi. Savollar matnni yana ham oson va tez tushunishga yordam beradi. Savollarga e’tibor beradigan bo‘lsak, barchasi og‘zaki javob berishga qaratilgan va bir xil usulda, ya’ni bola nimani eslab tushunganligini tekshirishga qaratilgan. Bu bilan faqat bitta ko‘nikmasini aniqlangan. Tinglab tushunish topshiriqlari o‘qib tushunish ko‘nikmasini tekshiradigan topshiriqlarga nisbatan osonroq bo‘ladi. Biz o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini tekshish, sinovdan o‘tkazish maqsadida Toshkent shahar 168-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 7-“B” va 7-“G” sinflarida sinov mashg‘ulotlarini o‘tkazdik. Dastlab, har ikkala sinfda ham yozma ish olindi va natijalar solishtirildi. Yozma ish olinishining asosiy maqsadi o‘quvchilarda tinglab tushunish va matn bilan ishlashga oid bilimlarni baholash (aniqlash)edi. Sinflardan quyidagicha natijalar olindi:







Biz 7-“V”sinfni tajribamiz uchun tanlab oldik. Ular bilan matn va unga aloqador bo‘lgan ko‘nikmalar orqali 1oy davomida sinov-mashg‘ulotlarini olib bordik. Darslar davomida o‘quvchilar bilan berilgan matnlar ustida alohida ishladik. Uy vazifasi sifatida han ba’zan shu tipdagi topshiriqlar berildi. Tinglab tushunish va o‘qib tushunishga oid matnlarga diqqat qaratdik. Topshiriqlarga mos ravishda “Kungaboqar”, “Bumerang”, “Klaster” metodlarini amalda sinab ko‘rdik. Oy oxirida biz o‘quvchilardan quyidagi natijalarni oldik.




Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tinglab tushunishni rivojlanganiga qarab, gapirish ham rivojlanadi, o‘quvchi ayniqsa, dialogda yaxshi qatnasha oladi. Tinglab tushunish orqali ham, o‘qish orqali ham ma’lumot qabul qilinadi, shu sababdan

ikkalasi ham retseptiv nutqlardir. O‘quvchi to‘g‘ri o‘qigan, talaffuz qilgan so‘zlarni tezda qabul qilib taniydi va tushuna oladi. U o‘zi to‘g‘ri o‘qiy olmasa, talaffuz qila olmasa, so‘zlarni tinglaganda taniy olmaydi, mazmunni tushunmaydi. O‘quvchi va talaba yozganda ham so‘zlarni, gaplarni to‘g‘ri o‘qiy olsa, talaffuz qila olsa, yoza oladi, bu ham tinglab tushunishga yordam beradi. Umuman olganda, muloqotga, o‘zaro fikr almashuvga o‘rgatish ustuvor yo‘nalish kasb etayotgan hozirgi zamon sharoitida maktablarda, oliy o‘quv yurtlarida ona tilini tinglab tushunishga o‘rgatish mashg‘ulotlarini kommunikativlik prinsplari asosida tashkil qilish, uning metodik texnologiyasini ishlab chiqish, o‘quv dasturlari rejasiga alohida dars bosqichi sifatida kiritish, muloqotga o‘rgatishning bu turi bo‘yicha baholash mezonlarini aniqlash zarurati ilgari surilib, rivojlantirilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dilova N.G., Saidova M.J. (2020). Formative assessment of students’ knowledge as an innovative approach to education. “The American Journal of Social Science and Education Innovations. “2:12, P. 190-196.
2. Tadjiyeva M. Nutqni tinglab tushunishga o‘rgatish va nutq mashqlarini tahlil qilish. – T, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risi”da 28.01.2022-yildagi PF-60-son. https://www.lex.uz/
4. G‘ulomov A. Ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini aktivlashtirish – T.: “O‘qituvchi”, 1987.
5. 7-sinf “Ona tili”darslik, T-2022,9-b.

## HAMKORLIK TEXNOLOGIYASIGA OID MAVJUD HOLATNING O‘RGANILISHI

**Usmonova Yulduz Faxriddin qizi**
*ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich magistranti,*
*yulduz1999.09@gmail.com,*
*+998993859901*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada ona tili darslarida hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan foydalanishning pedagogik va psixologik omillari ko‘rsatilgan. Amaldagi darsliklarning tahlili va so‘rovnomalar orqali hamkorlik texnologiyasining mavjud holati o‘rganilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *guruhlarda va juftliklarda ishlash, kompetensiyaviy yondashuv, Blum taksonomiyasi, nutqiy ko‘nikmalar, hamkorlik usullari*

**Abstract.** *This article shows the pedagogical and psychological factors of using cooperative learning technology in mother tongue classes. The current stage*

*of cooperation technology was studied through the use of textbooks and questionnaries.*

**Keywords:** *working groups and pairs, competency approach, Bloom's taxonomy, speaking skills, cooperation methods*

Hozirgi kunda **"Nimani o'qitish kerak?" emas, balki "Nimani o'qitish mumkin va buni qanday amalga oshirish maqsadga muvofiq?"** ko'rinishda ta'lim jarayonini tashkil etishga yondashish ona tili darslarining mazmunli bo'lishiga yordam beradi. Guruhlarda va juftliklarda ishlash bilan bog'liq topshiriqlar boshlang'ich sinflardan boshlab ona tili va o'qish savodxonligi darslarida rivojlantirilib boriladi. Darslarda hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanishni shakllantirish bir qancha pedagogik va psixologik omillar bilan bog'liq bo'lib, ularni ushbu ko'nikmani shakllantirish jarayonida hisobga olish samarali faoliyatning yo'lga qo'yilishida muhim sanaladi. Hamkorlikda ishlash ko'nikmasini shakllantirish jarayonida o'quvchiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan psixologik jarayonlarni to'g'ri anglash, uni baholash va unga ijobiy ta'sirni ko'rsata olish o'qituvchining mahoratiga bog'liqdir.

Umuman olganda, hamkorlik asosida o'qitish ham o'qituvchilar, ham talabalar uchun bir qator afzalliklarga ega ekanligi isbotlangan. O'qituvchilar uchun u kasbiy rivojlanish, hamkorlik qilish va resurslar, tajriba almashish uchun imkoniyatlar yaratadi. Talabalar uchun bu akademik yutuqlarga, ijtimoiy va hissiy rivojlanishga, o'qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo bo'lishiga yordam beradi. Bundan tashqari, hamkorlikda o'qitish, ayniqsa, ijtimoiy imkoniyati cheklangan talabalar hamda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun ham samarali ekanligi ko'rsatilgan, chunki bu ularga qo'shimcha yordam va muvaffaqiyat uchun imkoniyatlar beradi (Inaqov, 2019, 123-bet)

Jumladan, Jonson fikricha, hamkorlikda ishlash bitta umumiy maqsad yo'lida talabalarni guruhlarda ishlashga va o'rganish jarayonida bir-biriga yordam berishga undaydi. Bu usulning eng muhim xususiyati jamoa a'zolari o'rtasida pozitivlikni va o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirishdir. Bundan tashqari, har bir ishtirokchining hissasiga qarab jamoaning muvaffaqiyati belgilanadi. Shu sababli ham guruh a'zolari o'z kuchlarini birlashtiradi (Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Smith, K., 1991, 29-bet).

Shu o'rinda, ona tili darslarida o'quvchilarning hamkorlikda o'qib-o'rganish ko'nikmasini shakllantirish bilan bog'liq bugungi holatni o'rganish maqsadida amaldagi dastur va darsliklar tahlili olib borildi. Darslikda mavjud mashq va topshiriqlar yuzasidan shaxsiy munosabatimizni ifodalash hamda hamkorlikda ishlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan metodik tadbirlarni qanday tashkil etish bo'yicha ayrim tavsiyalar berishga harakat qilganmiz.

Davlat ta’lim standartida ona tili fanining maqsad va vazifasi quyidagicha ifodalangan: “o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish” (Umumiy o‘rta ta’limning ona tili fanidan davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi, 2017, 24-bet) Ushbu maqsad o‘quvchida shakllangan hamkorlikda bajarish ko‘nikmasining maqsadlari va vazifalariga qisman yondosh. Undagi “kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxs”ni tarbiyalash talabi aynan ta’limni hamkorlik usullaridan foydalangan holatda olib borish bilan uzviy bog‘liqdir.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘zbek tilini o‘qitishni yangi bosqichga ko‘tarish, til ta’limi sifatini oshirish hamda til o‘qitishning milliy tizimini yaratish bo‘yicha yurtimizda juda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, “Ona tili” darsliklarining ham yangi avlodini yaratish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, 2020-yilda nashrda chiqqan 5-sinf “Ona tili” darsligi (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf uchun darslik, 2020, 46-bet) ushbu fikrlarimizning yaqqol dalili bo‘lib xizmat qiladi. Yangi nashrdan chiqqan darsliklarda juda katta o‘zgarishlar mavjud bo‘lib, undagi grammatik mavzular sonining qisqartirilganligi, o‘quvchining to‘rt til ko‘nikmasini shakllantirishga moslangan mashq va topshiriqlarning ko‘pligi ushbu darslikning o‘ziga xos yutuqlaridan biri sanaladi.

Darslikda hamkorlikda o‘rganish bilan bog‘liq umumiy holatda *matn tuzish, “zanjir o‘yini”ni o‘tkazish, “marraga yetguncha o‘yini”ni o‘tkazish, “kimning xati chiroyli” musobaqasini uyushtirish, hikoya yozish, “k-k” o‘yinini o‘tkazish, maqollar musobaqasi o‘tkazish, dialog tuzish, yangi so‘zlarni topish, tovush o‘zgarishlariga uchragan so‘zlarni topish, joy nomlarini topish, atamalarni topish, topishmoqlar musobaqasi uyushtirish, e’lon yozish, tahlil qilish, sinfdoshlar, oila a’zolar bilan birga suhbatlashish* kabi mazmundagi topshiriqlar berilgan.

Darslikda berilgan topshiriqlar asosan lingvistik bilimlarni mustahkamlashga, quyi darajadagi ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan o‘quv topshiriqlarining soni juda kam miqdorni tashkil etadi. Shu bilan birga kundalik turmushda uchraydigan hayotiy vaziyatlarni ochib beruvchi, ijodkorlikka undovchi, infografika, chizma, diagramma ko‘rinishidagi topshiriqlarning yo‘qligi ham mazkur darslikning bugungi kunning eng muhim talablaridan biri bo‘lgan – kompetensiyaviy yondashuvning talablariga to‘la mos kelmasligini anglatadi.

Ammo xorij darsliklarida berilgan hamkorlik asosida bajariladigan o‘quv topshiriqlari yuqori darajadagi ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Ulardagi topshiriqlar asosan **Blum taksonomiyasiga: bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash, yaratish**ga asoslangan. Shu maqsaddan kelib chiqib, ularning topshiriqlari birgalikda yozilgan matnga munosabat bildirish, matnni tahrir qilish, biror vaziyatni rollarga bo‘lib ijro etish, taqdimot tayyorlash, tavsiyalar ishlab chiqish, loyiha yaratish, infografik jadvallar tuzish, tahlil qilish, baholashdek juda zarur kompetensiyalarning shakllanganlik darajasiga e’tibor qaratiladi. Shu sababli ham 5-sinf ona tili darsligida berilgan hamkorlikka asoslangan mashq va topshiriqlarni aynan shu 6 xil kompetensiya asosida tahlil qilishga urindik.

Darslikda hamkorlikda o‘qitish bilan bog‘liq topshiriqlar ham berilgan bo‘lib, ularning soni jami 22 tani tashkil qiladi. Lekin ularning asosiy qismi lingvistik bilimni mustahkamlashga qaratilgan. Topshiriqlarni maqsadidan kelib chiqib 5 xil turga ajratdik: 1) lingvsitik ko‘nikmani rivojlantiruvchi topshiriqlar 2) uyga vazifa sifatida berilgan topshiriqlar 3) nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi topshiriqlar 4) qayta ishlanadigan topshiriqlar.

Shuningdek, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi va uni shakllantirish bilan bog‘liq metodik tadbirlarning mavjud holatini o‘rganish maqsadida o‘qituvchilar uchun 8 ta savoldan iborat so‘rovnoma tashkillashtirildi. So‘rovnoma jarayonida turli ish stajiga ega bo‘lgan Toshkent shahrining 42 nafar ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari ishtirok etishdi.

Ushbu so‘rovnoma natijasida shular ma’lum bo‘ldiki, bugungi kunga kelib ko‘plab olib borilgan seminar mashg‘ulotlari natijasida o‘qituvchilar hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining umumiy mazmuni, u dars jarayonida qanday shakllarda namoyon bo‘lishi, qanaqa foydali tomonlari borligi haqida boshlang‘ich bilimga ega ekanliklari aniqlandi. Amaldagi “Ona tili” darsliklari guruhlarda ishlash, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini namoyon etishi uchun qay darajada mos kelishi haqida so‘ralganda 24 nafar o‘qituvchi “mos keladi” javobini, 3 nafar o‘qituvchi “mos kelmaydi” javobini, 15 nafar o‘qituvchi esa “qisman mos keladi” javobini belgilagan va har bir javob uchun izohlar yozilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, aksariyat o‘qituvchilar hamkorlik texnolgiyasining mazmuni, qaysi topshiriqlar orqali rivojlantirish mumkinligini tushungan, yetarli daraja metodik tadbirlarda ishtirok etmaganligi sababli 3 nafari esa hali anglab yetmagan.

Yopiq test shaklida berilgan hamkorlikda o‘qitish deganda nimani tushunasiz degan savolga 21 nafar o‘qituvchi o‘quv topshiriqlarini birgalikda bajarish, hamkorlikda o‘qib-o‘rganishni deb to‘g‘ri javob berishgan. 5 nafar o‘qituvchigina o‘quvchilarning grammatik bilimini mustahkamlash, birgalikda o‘rganishni, 16 nafar o‘qituvchi darsning qiziqarli bo‘lishi uchun hamkorlikda fikr almashish,

suhbatlashishni degan javobni belgilagan. Ochiq test koʻrinishida berilgan hamkorlikda oʻqitish oʻquvchilarda qanday koʻnikmalarni rivojlantiradi degan savolga oʻzaro muloqotga kirisha olish, boshqalarning fikriga munosabatini bildirish, ijodkorlik, guruhlarda ishlash, fanga nisbatan qiziqish kuchayishi, bilmagan ma'lumotlarini oʻz tengdoshidan oʻrgana olish, oʻz fikrini erkin bayon eta olish, mustaqil fikrlash, oʻquvchilarning yashirin qobiliyatlari namoyon boʻlishi, muhokama qila olish, tengdoshlariga va oʻziga baho bera olish, bir-biri bilan fikr almashish, boshqaruvchanlik qobiliyatining rivojlanishi, dunyoqarashining kengayishi, oʻziga boʻlgan ishonchning ortishi, doʻstona raqobatni yuzaga chiqarish, tanqidiy fikrlash kabi javoblarni yozgan.

Keyingi savollar amaliy jarayon bilan bogʻliq boʻlib, hamkorlikda oʻqitish va ona tili darslarini loyihalashtirish usullari va qaysi sinflarda qoʻllash mumkinligi haqida soʻralgan. Ammo oʻqituvchilarning katta qismi ushbu topshiriqqa umumiy javob berish bilan kifoyalanganlar. Ba'zi oʻqituvchilar esa savol mazmuniga mos boʻlmagan javoblarni ham yozganlar. Chunki oʻqituvchilar asosan lingvistik bilim berishga odatlangan, bunday texnologiya hamda loyihalar ustida ish olib bormagan. Shu sabali ham savolga mos boʻlmagan javoblarni yozishgan. Tajribangiz davomida hamkorlikda oʻqitishga doir qanday metodlardan foydalangansiz degan savolga oʻqituvchilar "kayfiyat", "qayta hikoya qilish", savol-javob, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash, komandada oʻqitish, muzyorar metodi, venn diagrammasi, davra suhbati, muammolarga birgalikda yechim topamiz, arra, zig-zag, fikringni erkin bayon qil, nima uchun?, muloqot, hammasini bilishni xohlayman, gugurt choʻpi, ssenariy, aqliy hujum, oradagi toʻsiqni olib tashlash kabi usullarni namuna sifatida yozishgan. Lekin aksariyat oʻqituvchilar loyihalashtirishga oid savolga javob yozmay, ochiq qoldirishni ma'qul koʻrgan. Chunki ona tili darslarini loyihalashtirish qanday shaklda olib borilishi, loyihalashtirish uchun nima ishlar qilinishi kerakligi, oʻquvchilar uchun qanaqa oʻquv topshiriqlari berilishi kerakligi haqida ma'lumotlarga ega emasliklarini yozishgan. Loyihaga asoslangan ta'lim mavzusida oʻqituvchilar uchun seminar mashgʻulotlari tashkil qilinishiga muhtoj ekanliklarini aytishgan. 6 nafar oʻqituvchigina yangi darsliklardagi topshiriqlarni tahlil qilib, 6-sinf oʻquvchilariga kichik jurnal yaratish, shaxsiy gazeta tayyorlash, oʻz hududining xaritasini chizish kabi ijodiy topshiriqlarni berishgan.

Navbatdagi savol mazmuni hamkorlikda bajarilgan topshiriqlarni baholash jarayonida qanday qiyinchiliklar borligi haqida boʻlib, ushbu savolga koʻp oʻqituvchilar kichik yoki katta guruhlarda bajarilgan topshiriqlarni adaolatli tarzda baholay olmayotgani, ayniqsa, yozma topshiriqlarni bajarish jarayonida oʻquvchilarning qaysi biri faol yoki passiv ishtirokchi sifatida qatnashganini aniqlay

olmayotganini aytgan. Baholash turlari, mezoni, adolatli va shaffof tarzda baholash mazmuni haqida aniq ko‘rsatmalar kerak ekanligi aytib o‘tilgan.

Qanaqa mazmundagi metodik qo‘llanmalar kerakligi so‘ralganda, ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan qay tartibda foydalanish, hamkorlikda o‘qitish usullari, loyihalashtirish jarayoni bayon qilingan qo‘llanmalar kerakligi aytilgan. O‘qituvchilar bu qo‘llanmalarda sinflar kesimida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar bo‘lishi, xorij darsliklaridagi topshiriqlar tahlili, hamkorlikka asoslangan topshiriqlarni baholash uchun mezonlar, yangi topshiriqlarni ishlab chiqish uchun kerakli ma’lumotlar bo‘lishini yozgan.

Yopiq test shaklida berilgan hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan qaysi sinflarda ko‘proq foydalanish mumkin degan savolga 24 nafar o‘qituvchi 5–6-sinflarni, 10 nafar o‘qituvchi 7–8-sinflarni, 8 nafar o‘qituvchi 9–11-sinflarni deb belgilaganlar. Bundan ko‘rinib turibdiki, kichik sinflarda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini amaliyotchi o‘qituvchilar ham tasdiqlashganini ko‘rishimiz mumkin.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, so‘rovnomada qatnashgan o‘qituvchilarning aksariyati hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining mazmunini yaxshi tushunadilar, ammo uni shakllantirish, bunda qanday materiallardan foydalanish lozimligi, savol va topshiriqlarni ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan metodik tavsiyalarga juda muhtoj.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Inaqov, Q. (2019) Hamkorlik pedagogikasi asosida ta’lim-tarbiya sifatini takomillashtirish. Ped. fan. bo‘yicha fal.dok. diss. – Toshkent, 123-bet

2. Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Smith, K. (1991). Cooperative learning: Increasing college faculty instructional productivity. ASHE-ERIC Higher Education Report No 4. Washington, DC: School of Education and Human Development, George Washington University, 29-bet

3. Umumiy o‘rta ta’limning ona tili fanidan davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi. T.:2017-yil, 6-aprel, 24-bet

4. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf uchun darslik (2020) N.Mahmudov, A. Sobirov – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 46-bet.

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ADABIYOT O‘QITISH METODIKASI FANINING O‘RNI.

*Xudoyshukurova Charos*
*CHDPU gumanitar fanlar fakulteti*
*O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi*

xudoyshukurovacharos886@gmail.com
*Ilmiy rahbar: Rasulova Rayhona*

***Annotatsiya***. *Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ kompetentligini rivojlantirishga oid tajriba sinov-natijalari, shaxsga xos kreativlik sifatlari, kreativ kompetentlikni rivojlantirish omillari, yo‘llari hamda kreativ o‘qitishning metod va strategiyalari yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar****: bo‘lajak o‘qituvchi, tajriba-sinov ishlari, kreativ kompetentlik, pedogog, anketa so‘rovnoma.*

***Abstract.*** *This article describes the experimental results of developing the creative competence of future teachers, personal creativity qualities, factors and ways of developing creative competence, and methods and strategies of creative teaching.*

***Keywords****: future teacher, experimental work, creative competence, pedagogue, questionnaire.*

Rivojlanishning innovatsion yo‘lini tanlash, yuqori texnologiyalarni yaratish va amalga oshirish, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida bilim va ma’lumotlarning o‘sib borayotgan o‘rni yuqori malakali mutaxassislarga katta talab qo‘ymoqda. Bu ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining yangi shakllarini talab qiladi va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qodir bo‘lgan yangi avlod o‘qituvchilarini shakllantirishni ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilaydi.

Oliy ta’lim muassasalari va ulardagi o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifatini oshirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy kasbiy kompetensiyalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog larning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi.

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarida S.Mednikning anketa so‘rovi va Pol Torrensning “Ijodkorlik qobiliyatlarini o‘rganish testi”dan foydalanildi. Anketa so‘rovlari va test natijalari tahlil qilinganda quyidagi holatlar aniqlandi: So‘ralgan respondentlarning 21% yuqori darajada kreativlikni namoyon qildilar. Ular muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradilar, kreativ jihatdan o‘ta faol, izlanuvchandirlar. Respondentlarning 36% esa o‘rta darajada kreativlikni namoyon etishdi. Ularning kreativlik qobiliyati doimiy namoyon bo‘lmaydi. Kreativ kompetentligini rivojlantirish zarur.

Past darajada kreativlikka ega respondentlar esa 43%ni tashkil etdi. Ular tashabbusni ilgari surishga intiladi, lekin kreativlik qobiliyati yetarlicha namoyon

bo‘lmaydi. Natijalarni tahlil etish asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativligini ijobiy deb baholay olmaymiz. Chunki pedagogik kuzatish va anketa so‘rovlarimizdan ma‟lum bo‘ldiki, talabalarning 70-80% kreativ kompetentlikka ega bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lgani holda, atigi 30-40% talabalargina kreativ kompetentlik sifatlarini namoyon eta oldilar.

Yuqoridagilar asosida ta’kidlash lozimki, bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ kompetentlik borasida yetarli darajada bilim, ko‘nikma va malaka shakllanmagan, ularning kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shu bois pedagoglar oldida turgan asosiy vazifa-bu yoshlarda kreativlik, uning o‘ziga xos sifatlari to‘g‘risida nazariy bilimlarni berish, ular asosida talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishdan iborat. Mazkur vazifani ijobiy hal etishda ta’lim jarayoni, shu jumladan fanlarni o‘qitishda faol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, mashg‘ulotlarni noan’anaviy shakl, metod va vositalari yordamida qiziqarli va mazmunli tashkil etish kutilgan samaralarni beradi.

Shaxsga xos kreativlik sifatlari muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Shaxsning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning individual qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini o‘z kasbiy faoliyatini sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Patti Drepeau tomonidan ham shaxs (jumladan, pedagoglar) da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to‘rtta yo‘li ko‘rsatilgan:

- ✓ Kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish;
- ✓ Amaliy kreativ harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- ✓ Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish;

Kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish pedagogning bo‘lajak o‘qituvchilar berayotgan kreativ g‘oyalariga nisbatan to‘g‘ri munosabati ularning mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi pedagog-talaba munosabatining muhim qismi bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilar muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Kreativ muhitda ta’lim olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega pedagogni kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo‘ladi. Kreativlik xarakteridagi o‘quv-bilish muhiti bo‘lajak o‘qituvchilarda ta’lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo‘lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmasining rivojlanishiga olib keladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ tafakkurga ega bo‘lishlari ularda ijodiy muhitning qanchalik tarkib toptirilganligiga bog‘liq. To‘laqonli kreativlik xarakteriga ega ta‟lim muhitini yaratish puxta o‘ylangan rejaga tayanadi. Pedagoglar agarda o‘zlarining kreativ o‘qitish metod va strategiyalarini qo‘llash (ya’ni keng ko‘lamda o‘ylash va kreativ fikrlash jarayonini tashkil etish) da katta

samaradorlikka erishishni istasalar, buni bo‘lajak o‘qituvchilar ongiga singdirishlari va o‘z vazifalarini sidqidildan bajarishlari lozim. Qolaversa, “kreativ xarakterga ega muhitdagina bo‘lajak o‘qituvchilar o‘rganayotgan mavzuning mazmuni, o‘quv axborotlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi va bu haqida fikrlashni boshlashadi. Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda pedagoglar ushbu omillarni bartaraf etishga e’tibor qaratishlari lozim. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi:

tavakkal qilishdan qochish;
fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;
shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
boshqalarga tobe bo‘lish;
har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**:


1. Sharipov SH.S. Kasb-hunar ta’limida Talabalar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya. –T.: Fan, 2005. – 140 b.
2. Z.T. Nishonova, Z.Qurbonova, D.S.Qarshiyeva, N.B.Atabayeva Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya - T.: Fan va texnologiyalar 2014,124-b.
3. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma : Toshkent 2015, 40 b.
4. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
5. Тест креативности Торренса. Диагностика творческого мышления
6. Роу А.Дж. Креативное мышление / Пер.с.англ. В.А.Островкого. М.: НТ Пресс, 2007,176с.
7. http://psycabi.net/testy/577-test-kreativnosti-torrensa-diagnostika-tvorcheskogomyshleniya.


## YANGI DARSLIKLAR ASOSIDA DARS TASHKIL ETISHDA BILIM BERISH VA BILIMLARNI MUSTAHKAMLASHGA DOIR INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.


*Ramazonova Gulhayo Xidirali qizi*

*ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti*

*Sirtqi bo‘lim 4-kurs*

*+998998991379768*

*ramazonovagulhayo@gmail.com*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada bugungi zamonaviy o‘quvchi uchun zamonaviy va yangicha darsliklar asosida dars tashkil etish usullari haqida to‘xtalib o‘tiladi. Yangi darsliklarga o‘quvchi va o‘qituvchini moslashtirish yo‘llari, shuningdek, bilim berish va bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan interfaol usullardan foydalanish tamoyillari haqida so‘z boradi. Shu bilan birga, ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanishning afzallik tomonlari va bu usullarni dars vaqtiga to‘g‘ri moslashtirish, 45 daqiqalik darsni to‘g‘ri tashkil etish yo‘llari borasida qisqacha ma'lumotlar berib o‘tiladi. Har bir bo‘limning asosiy mazmunini ochib berishda qilinadigan ishlar mazmuni, interfaol metodlarni tanlashda bo‘lim mavzusining ahamiyati, har yangi dars uchun beriladigan savollar ro‘yxatini tuzish bosqichlari haqida nazariy va amaliy ma'lumotlar beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *metod, interfaol, darslik, " Maqsadli xarajatlar", " C vitamini", " Bankomat", " Supermarket", chek varaqasi, plastik karta*

***Abstract*** *The article focuses on today's modern students and methods of organizing lessons based on new textbooks. The new textbooks discuss ways to adapt the student and the teacher, as well as the principles of using interactive methods aimed at imparting knowledge and improving knowledge. At the same time, brief information is given on the advantages of using interactive methods in Mother tongue classes, how to properly adapt these methods to the lesson time and how to properly organize a 45 - minute lesson. Theoretical and practical information is given about the steps of creating a list of questions for each new lesson, the importance of the topic of the section, the content of the work to be done in revealing the main content of each section and the selection of interactive methods.*

***Keywords:*** *method, interactive, textbooks, " Targeted spending", " Vitamin C ", " ATM" " Supermarket", check sheet, plastic card*.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan, zamonaviy texnika, internet inson hayotida eng yuqori darajaga chiqqan bir davrda jamiyatga sifatli, talabchan, bilimli, izlanuvchan kadrlar tayyorlab berishda, eng avvalo, maktab ta'limining o‘rni beqiyosdir. Bugungi kun o‘quvchisi zukko, talabchan, ammo shu bilan birga internet hurujiga uchrab hayotining eng ahamiyatli paytini besamar o‘tkazayotgan yosh nihollardir.

Hozirgi kunda maktab va maktab ta'limi oldida turgan eng muhim vazifa sifatli va zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etish, har bir o‘quvchini dars jarayonlariga qiziqtira olish kabi dolzarb masalalar turibdi. Dars jarayonini samarali va mazmunli tashkil etish uchun bir nechta usullar, metodlar, qo‘llanmalar va shu kabi noan'anaviy uslublardan foydalanish mumkin. Interfaol metodlardan foydalanishda mavzuga alohida e'tibor berish lozim. Metod mavzu mazmuniga to‘liq mos kelib mavzu mohiyatini ochib berishga qaratilmog‘i kerak. Masalan, 7-sinf " Ona tili" darsligidagi " Maqsadli xarajatlar" mavzusini mustahkamlash va yangi grammatik ma'lumotlar berish maqsadida " Bankomat" o‘yinidan foydalanish mumkin. Bunda doskaga bankomat tasviri aks etgan chizma yoki bankomat maketi qo‘yiladi. Bankomatning chek varaqasi o‘rnida o‘qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan yangi mavzu yuzasidan ma'lumotlar yozilgan qog‘ozchalar, plastik karta o‘rnida o‘tilgan mavzu yuzasidan tayyorlab kelgan savollar qo‘yiladi. Pul so‘mmasi beriladigan joyda konvert bo‘lib, o‘quvchilar savollarga bergan javoblarining aniqligi va to‘g‘riligiga qarab pul so‘mmasiga ega bo‘ladilar. O‘yinda navbat tashkil etish uchun, eng avvalo, o‘qituvchi tomonidan savol beriladi. Savolga javob bergan o‘quvchi keyingi navbatni egallaydi. O‘quvchi o‘zi tayyorlab kelgan savolni sinfdoshlariga beradi, qaysi o‘quvchi birinchi va aniq javob bersa, o‘sha o‘quvchi keyingi navbatni egallaydi. Shundan so‘ng, birinchi navbatda, o‘quvchi plastik kartasi o‘rnidagi savollar varaqasidan birini olib, savolga javob beradi va bergan javobining to‘g‘riligiga, bergan savolining aniqligiga qarab pul so‘mmasiga ega bo‘ladi. Eng katta pul so‘mmasi 5000 so‘m bo‘lib agar savolga to‘liq javob bersa 5000 so‘mga, to‘liq javob berolmasa 2000 so‘mga ega bo‘ladi. Shundan so‘ng chek varaqasi o‘rnidagi ma'lumotlardan birini olib, o‘qib eshittiradi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilar bankomatdan foydalanish tartibini o‘rganishadi, yangi mavzu yuzasidan yangi ma'lumotga ega bo‘lishadi, o‘tilgan mavzuni mustahkamlashadi. Shuningdek, o‘quvchi bu o‘yinda savol tayyorlab keladi va savol berishni o‘rganadi. Mavzu " Maqsadli xarajatlar" bo‘lgani bois ushbu o‘yin mavzuga to‘liq mos keladi. Bu metod asosan, 16 - 20 ta o‘quvchidan iborat o‘quvchisi bor sinflarga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘tilgan va yangi mavzuni mavzuni mustahkamlash qismini tashkil etishda foydalaniladi.

Shuningdek, "C vitamini" mavzusiga guruh bo‘lib ishlash uchun mo‘ljallangan “Supermarket" o‘yini mavzu mohiyati va mazmuniga munosib bo‘la oladi. O‘yin sinfni ikki guruhga ajratgan holda tashkillashtiriladi. Bu o‘yin 20 - 25 tagacha o‘quvchisi bor sinflarga o‘tkazishga mo‘ljallangan bo‘lib, yangi mavzuni mustahkamlash qismiga oiddir. “Supermarket" metodi sinfdagi barcha o‘quvchilar diqqatini jamlashga, darsga to‘liq jalb qilishga yordam beradi. Ikki

guruhga mavzuga munosib nom qo‘yiladi. Masalan, birinchi guruh " Oqsillar", ikkinchi guruh esa " Uglevodlar" deb nomlanadi. Guruhlarga savatchalarga beriladi, jamoalar o‘rtasidagi stolda mahsulotlar solingan qutilar qo‘yiladi. Qutilar vitaminlarga boy mevalar, sut va sut mahsulotlari va boshqa shu kabi foydali narsalar bilan to‘ldirilgan bo‘ladi. O‘yinni boshlashda o‘qituvchi tomonidan savol beriladi, qaysi guruh birinchi, to‘liq va to‘g‘ri javob bera olsa, o‘yinni boshlab beradi. Doskaga mahsulotlar shakli aks etgan, savollar yozilgan tarqatmalar supermarket qatorlari shaklida joylashtiriladi. O‘quvchi tanlagan mahsuloti ortidagi savolga javob bersa va shu mahsulotning foydali tomonlari haqida kamida bitta ma'lumot ayta olsa, qutidagi o‘zi tanlagan narsaning haqiqiysiga ega bo‘ladi Qaysi guruhning savati tez to‘lsa, shu guruh g‘olib bo‘ladi. Bu orqali o‘quvchida ham grammatik ham ijtimoiy ham tibbiy bilimlarni shakllantirish mumkin. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilarni guruh bo‘lib hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, supermarket haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, faqat grammatik qoidalar, mashqlar, jadvallar bilan o‘quvchilar diqqatini jamlash, dars mavzusiga qiziqtira olish mumkin emas. O‘qituvchi tomonidan darsga kiritilgan kichik o‘zgarish, biror kichik element yoki noodatiy savol ham dars muhitini o‘zgartirishi, ijobiy kayfiyat baxsh etishi mumkin. Bugungi kun pedagogi psixolog bo‘lmog‘i lozim. Guruhdagi o‘quvchilar holati, bilim saviyasi, harakter xususiyati, maktabning moddiy texnik bazasi va o‘quvchilar soniga qarab, turli metod, usul va didaktik o‘yinlardan foydalanishi mumkin. Ammo bunday uslublardan foydalanishda vaqtni to‘g‘ri taqsimlash eng muhim qoidalardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Ona tili 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik, K.M. Mavlonova. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. (224 b).

2.Ona tili [Matn]: 6- sinf uchun darslik / K.M. Mavlonova [va boshq.]. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022, (224 b).

3. Abdulla Avloniy malaka oshirish. Onlineedu.uz sayti

## INDIVIDUAL TA’LIMNING O’QUVCHILAR ORASIDA AHAMIYATI

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi*
***Adhamova Mohizoda Anvarbek qizi***
*adhamovamohizoda@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etib kelayotgan sifatli ta'limni tashkil etish, ta'lim sifatli tashkil etilishi uchun zarur muhitni yaratishda individual ta'lim mexanizmini yaratish haqida so'z yuritiladi.*
**Abstract.** *This article talks about the organization of quality education, which is gaining importance today, and the creation of an individual education mechanism in creating the necessary environment for the quality organization of education.*
**Kalit so'zlar**: *kouching, diagnostika, SOFT SKILLS, 4K ko'nikmasi, tadqiqotchi talaba, standart-uslubchi talaba, nofaol talaba.*
**Keywords**: *coaching, diagnostics, SOFT SKILLS, 4K skills, research student, standard-style student, inactive student.*

O'zbekiston ta'limi tarixida individual ta'lim shakli keng qo'llanib kelingan. Uning samarasi, ayniqsa, amaliy san'at, hunarmandchilikda ustoz-shogird ta'limi tarzida namoyon bo'lgan. Mashhur xalq ustalari Toshpo'lat Arslonqulov, Usta Shirin Murodov, Qodirjon Xaydarov, Mahmud Usmonov, Hamro Rahimovlar shu tarzda ta'lim olganlar individual ta'limda bola ruhiyatining individual xususiyatlarini, fan sohalari va kasb egallashga bo'lgan tabiiy moyilliklarini to'liq e'tiborga olish imkoniyati ta'minlanadi.

**Individual ta'lim** - o'qituvchining o'quvchiga pedagogik ta'sirini amalga oshiruvchi o'quv mashg'ulotlari shakllaridan biri. O'qituvchining o'quvchi bilan sinf jamoasidan tashqarida olib boriladitan faoliyati tushuniladi individual ta'lim shakllarining eng qadimiysi bo'lib, u qadimiy davr va o'rta yerlarda keng qo'llanilgan.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish maqsadid oliy ta'lim muassasida mavjud kafedralarda diagnostikalash-shaxsni tashxislash labaratoriyalari tashkil etilishi lozim. Bu labaratoriyalarda zamonaviy shaxsni shakllantirish va tarbiyalash maqsadida quyidagi diagnostikalar olib boriladi.
Kuzatish;
Suhbat;
Kouching;
Yo'naltirish.

Shu o'rinda, Kouching atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, Kouching – rivojlanish bo'yicha maslahat. An'anaviy maslahat va koucherlik o'rtasidagi farq shundaki, koucherlik kasbiy faoliyatni shaxsiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faol ta'lim shaklidir. Ushbu uslubning asosi interaktiv muloqot, munozara (savol-javob), bu erda tarbiyachi maslahat va tavsiyalar olmaydi, faqat koucher unga bergan savollariga javob beradi va tarbiyachi o'z muammolarini hal qilish uchun zaxira va yo'llarni topadi.

“Kouching” metodikasi: maqsadni va unga erishishning optimal yo‘llarini aniqlaydi, talabaning mustaqilligi va javobgarligini oshiradi, o‘z faoliyatidan qoniqa olish, samarali hamkorlikning yangi yo‘llarini toppish, qiyin holatlarda muhim yechimni tez topish, individual maqsadlarni ta’lim muassasasi maqsadlari bilan moslashtirish, o‘z hayot tarzini boyitish, yangi imkoniyatlarni ochish, hayotni yangi produktiv shaxsiy munosabatlar bilan boyitish va boshqalarga yordam beradi.

Kouching - inglizchadan tarjima qilinganda “Mashq qildirmoq” so‘zini anglatadi (Yakimanskaya I.S, 2000,112-bet). Ta’limda esa, pedagog bilan talabaning samarali faoliyatiga imkoniyat yaratuvchi uzluksiz jarayonni nazarda tutadi. Kouching - bu muhim o‘quv maqsadiga erishish uchun talabaga individual konsultatsiya berish, uning ichki potensialini ochish, zarur qobiliyat va ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, natija olish uchun ilg‘or strategiyalarni o‘zlashtirishdir. Kouching maqsadi – nimagadir o‘qitish emas, balki talabaning zarur bilim va tajribani egallashi uchun o‘zini- o‘zi o‘qitishga sharoit yaratishdir. Bu metodika kasbiy va shaxsiy o‘sishi uchun talabalarning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalar va o‘zgarishlarga ehtiyojlarini anglash, imkoniyatlarini kengaytirish uchun mo‘ljallangan. U ta’limda, shuningdek, biznesda, shaxslararo munosabatda, oilada, jismoniy sog‘lom bo‘lish kabi hayotning turli sohalarida rejalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan.

Oliy ta’lim muassasida mavjud kafedralar qoshida faoliyat olib borayotgan shaxsni tashxislash labaratoriyalarida diagnostika natijasida talabaning kompitentligi, ya’ni qobiliyatlari aniqlanadi. Bunda talabalar 3 guruhga bo‘linadi:

1. Tadqiqotchi talaba
2. Standart-uslubchi talaba
3. Nofaol talaba

Tadqiqotchi talaba kreativ, kritik, kommunikativ, korporativ va tushuntiruvchi kabi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Bu ko‘nikmalar xalqaro mezonlar hamda SOFT SKILLS asosida shakllangan bo‘lib “4K” nomi bilan atalmoqda. “4K” bu kreativ-ijodkor, kritik-tanqidchi, kommunikativ-muloqotga kirishuvchi, korporativ-jamoa bilan ishlay oluvchi hisoblanadi. Tadqiqotchi talaba bu “4K” ko‘nikmasini o‘zida jamlagan bo‘lishi, tushunishi hamda boshqalarga ham tushuntiruvchi funksiyalarini bajarishi kerak.

Standart-uslubchi talaba o‘rganuvchi, o‘zlashtiruvchi va bajaruvchi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim.

Nofaol talaba esa tinglovchi, takrorlovchi, ko‘chiruvchi hamda ergashuvchi xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Nofaol talaba bilan ishlash diagnostikasi amalga oshirilishi natijasida dastavval talabaning qiziqishi, qobiliyati va bilish darajasi o‘rganiladi va shu orqali

qo‘shimcha kasb-hunarga jalb qilinadi. Nofaol talaba “Talaba talabaga ustoz, talaba talabaga shogird” tamoyili asosida tadqiqotchi talabaga biriktiriladi**.** Diagnostika davomida standart uslubchi darajasiga o‘tadi.

Standart-uslubchi talaba bilan ishlash quyidagicha olib boriladi. Har bir fan va ixtisosliklar bo‘yicha kafedralar qoshida “Maktab labaratoriyalari” tashkil etilishi ta’lim oluvchilarga erkin va sifatli tarzda maktabda amaliyot olib borishiga hamda erta pedagogic faoliyatga kirishish imkonini beradi. Fan va ta’lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasi bo‘yicha 4+2 loyihasi asosida talabalar maktablarda amaliyot olib borishadi. Amaliyot jarayonida passiv kuzatuvchilikdan yordamchi o‘qituvchi darajasiga sifatida pedagogik faoliyatga kirishadi. Standart-uslubchi talabani kuzatish natijasida unga yo‘naltiruvchi sohalarni qiziqishi va qobiliyati hamda bilish darajasiga ko‘ra, o‘z mutaxassilgiga yaqin bo‘lgan ixtisosliklarni smart, mobil, gibrid ta’limi asosida o‘qib o‘rganishi natijasida talaba kelajakda qo‘sh mutaxassislikka ega bo‘lish takliflari ishlab chiqildi. Masalan, uslubchi, boshqaruvchi, muhandis pedagog, psixolog, tarbiyachi kabi.

Tadqiqotchi talaba bilan individual ishlash mexanizmi quyidagicha olib boriladi. Ta’lim jarayonida an’anaviy usulda ma’ruza, seminar hamda amaliy darslar olib boriladi. Biz ma’ruza darslarni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish maqsadida debat-ma’ruza va debat-seminar shaklida bo‘lishini taklif qilmoqchimiz. Debat ma’ruzada ta’lim beruvchi bilan ta’lim oluvchi darsga yangi o‘rganiladigan mavzuni o‘rganib, shaxsiy xulosalari bilan keladi hamda o`rganiladigan mavzu doirasida fikrlarni muhokamasi asosida dars tashkil etiladi. Bunda talaba tushuntiruvchi, o‘qituvchi esa tahlil qiluvchi, baholovchi vazifasida faoliyat olib boradi ya’ni teskari ta’lim metodi ishlaydi. Debat-seminar darslarida esa talabaga qo‘shimcha mutaxassislik fanlari o‘rgatiladi. Qo‘shimcha fanlar sifatida quyidagi bugungi kunda dolzarb hisoblanadigan fanlarni beryapmiz:

1.Psixologiya
2.San’at
3.Mantiq
4.Time management
5.CLIL
6.Mnemonika

Bu fanlar talabalarni yanada fikrlash qobiliyatini o‘sishida va shaxsiy rivojlanishida zarur hisoblanadi. Masalan, talaba psixologik hamda mantiqiy fikrlari, turli muommolarni san’at orqali shakllantirib unda yaratuvchanlik ya’ni novatorlik malakasini rivojlantirish mumkin. “Time menejmenti” ya’ni vaqtni boshqarish bugungi kunda, nafaqat talaba uchun balki pedagog uchun muhim va ahamiyatlidir.

CLIL (content and language integrated learning) texnologiyalari orqali talaba xorijiy tillarni qanday qilib oson va qulay tarzda

Tadqiqotchi talaba bevosita birinchi bosqichligidanoq ilmiy faoliyatga jalb qilinadi va ilmiy rahbar tayinlanadi. Professor-o‘qituvchi o‘zi faoliyat olib borayotgan kafedrada ilmiy faoliyatini maqsadli va tizimli o‘rganish texnologiyalarini o‘rganadi. Yuqoridagi barcha sohalarni eslab qolish uchun talabada super xotira darslari ya’ni mnemonika kerak. Yuqoridagi fanlarni o‘zlashtirishi natijasida talabada qo‘shimcha mutaxassislik paydo bo‘ladi. Masalan, Maktabgacha ta’lim+logoped + ingliz tili+ psixologiya yoki bo‘lmasa boshlang’ich ta’lim+ psixologiya+logopediya + ingliz tili kabi. tarzda olib borishi, ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan ilmiy labaratoriyasi hamda ilmiy rahbarning o‘z ilmiy maktabiga doktorant, magistrlar bilan bir qatorda talabani ham jalb etishi kerak. Shu orqali talaba bevosita ilmiy muhokama va seminarlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu orqali maqsadli ish olib boriladi hamda talabaning bakalavr darajasidan boshlab ilmiy tasavvur shakllanadi**.**

Boshqa talabalarga nisbatan harakatchan, izlanuvchan, sinchkov va uquvli bo‘lgan talabada tadqiqotchi talaba bilan ishlash natijasida unda XXI asr ko‘nikmalari moderator, motivator, mentor, lingvistlik ko‘nikmasi shakllanadi.

Ushbu jarayonda o‘z oldiga kasbiy va shaxsiy o‘sish, shaxsiy kompetentsiyani oshirish vazifasini qo‘ygan tarbiyachilarga individual yordam ko‘rsatiladi. Kouching texnologiyasi tarbiyachilarni ijtimoiy tashabbuskor, faol, kretiv, o‘z fikrini erkin bayon eta olishlari uchun asosiy dasturi amal bo‘la oladi deb hisoblaymiz. Shunday ekan zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimiga ushbu texnologiyani jadallik bilan olib kirib, amaliyotga qo‘llash ta’lim sifatini oshirishga samarali hissa qo‘shadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Yakimanskaya I.S. Zamonaviy maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. - M.: Sentyabr, 2000 yil. – 112 b.

**2.** **https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0742051X22000683**

**3.** **file:///C:/Users/Ahror/Downloads/individual-ta-lim-zamonaviy-o-qitish-mexanizmi.pdf**

4. Tuychieva, I. I. (2018). Mechanisms Ensuring Children’s Thought Activity Development at Preschool Education Process. Eastern European Scientific Journal.

MUNDARIJA

## I BOB

## O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI MASALALARI


| | |
|---|---|
| **Abdug‘aniyeva Mohinur Ravshanbek qizi**, *O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ASARIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING QO‘LLANILISHI* | **5** |
| **Abdug‘afforova Zuhra Azamat qizi**, *SIFAT TURKUMIGA MANSUB BA’ZI SO‘ZLARNING DIAXRON TAHLILI* | **7** |
| **Fayzullayeva E’zoza Abdulla qizi**, *NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA O‘XSHATISHLAR («Ochilmagan eshik» va «Tobut» hikoyalari misolida)* | **11** |
| **Isayeva Madina Ravshan qizi**, *O‘ZBEK TILINING QIPCHOQ SHEVASI VAKILLARI NUTQIDA SINGARMONIZM* | **14** |
| **Ismoilova Maftuna Kenjaboy qizi**, *O‘ZBEK TILI TA’LIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR* | **20** |
| **Karimjonov Sherzodbek Ro‘zali o‘g‘li**, *ERKIN VOHIDOV SHE’RIYATIDA SINONIMLARNING AHAMIYATI* | **23** |
| **Mirnosirova Dilbar Nodirbek qizi**, *BOLALAR VERBAL ASSOTSIATSIYALARINING AYRIM PRAGMATIK XUSUSIYATLARI* | **29** |
| **Nasirulloyeva Nigora Nasirullo qizi**, *XV - XIX ASRLAR O‘RTALARIDA LUG‘ATCHILIK* | **34** |
| **Normatova Solihabonu Nodirjon qizi**, *SOTSIOLINGVISTIKANING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA ULARNING TAHLILI* | **38** |
| **Qurbonboyeva Gulnoza Sunnatillo qizi**, *“KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDA TARIXIY SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI* | **43** |
| **Rahimova Mohira Anvar qizi**, *XV – XIX – ASRLAR O‘RTALARIDA O‘ZBEK LUG‘ATCHILIGI* | **47** |
| **Sayfiddinova Go‘zal Odiljon qizi**, *O‘ZBEK TILIDAGI SO‘ZLARNI SEMANTIK JIHATDAN DARAJALASH VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI* | **50** |
| **Saylaubaeva Bibigul Jenisbay qizi**, *TEZ AYTISHLARNING BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI* | **57** |
| **Soatova Sahobat Qo‘ldosh qizi,** *“DEVONI LUG‘ATIT TURK” DA TIBBIY TERMINLARGA OID SO‘ZLAR* | **60** |
| **Turdiyeva Aziza Sobir qizi**, *ABDULLA QAHHORNING “DAHSHAT” HIKOYASIDA FRAZEOLOGIZMLARNING QO‘LLANILISHI* | **65** |
| **Xusanova Feruza Asomiddin qizi**, *O‘ZBEK TILI LEKSIKASIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING AHAMIYATI* | **68** |

## II BOB

## XORIJIY VA QIYOSIY TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI


| | |
|---|---|
| **Abdumannonov Xojiakbar Akmaljon o‘g‘li**, *FRAZEOLOGIK MINIMUM: TUSHUNCHA, FUNKSIYA VA XUSUSIYATLARI* | **75** |
| **Abduraimova Dildora Karimovna**, *ARAB VA INGLIZ TILLARIDA KO‘PLIK SON KATEGORIYASI* | **81** |
| **Bosimova Feruza Dilmurod qizi**, *O‘ZBEK VA UYG‘UR TILLARIDA MUSHTARAK HAMDA MUSHTARAK BO‘LMAGAN SO‘ZLAR* | **84** |
| **Jurakulova Hulkar Farxodovna**, *QARAQALPAQ TILINDEGI METAFORALARDIŃ LINGVOPOETIKALIQ QÁSIYETLERI* | **87** |
| **Nasriddinova Iroda Sayfiddin qizi**, *O‘ZBEK VA TURK ANTROPONIMLARINING YUZAGA KELISH OMILLARI* | **90** |
| **No‘monjonova Namunaxon Abdulxoshim qizi**, *O‘ZBEK VA TURK TILLARIDA ZOONIM LAKUNAR BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI* | **99** |
| **Ortiqova Mehrixon Doniyor qizi**, *EVOLUTION OF LANGUAGES AND ITS CONNECTION TO BRAIN ACTIVITY* | **105** |
| **Sharipova E`zoza Fazliddinovna**, *INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA OLMOSHLARNING IFODALANISHI* | **108** |
| **Валиева Наргизахон Замир кизи**, *ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКАЯ ЕДИНИЦА КАК СПОСОБ ВЕРБАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПТА (на примере концепта “сердце” в английской языковой картине мира)* | **112** |


## III BOB
## JAHON ADABIYOTI, QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI


| | |
|---|---|
| **Abbasova Mubina**, *“BOBURNOMA”DAGI ORONIMLAR INGLIZCHA TARJIMALARDA* | **117** |
| **Boltayeva Elshoda Alisherovna**, *O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EKVIVALENT BO‘LGAN AYRIM FRAZEOLOGIK ATAMALARNING ETIMOLOGIYASI VA ULARNING TARJIMASI* | **120** |
| **Nematova Shaxnozabonu Israiljon qizi**, *MUROJAAT SHAKLLARIDA JINS KATEGORIYASINING IFODALANISHI (o‘zbek va ingliz tillari qiyosida)* | **122** |
| **Rashidova Soliha**, *TARJIMANING LINGVISTIK MUAMMOLARI* | **126** |

| | |
|---|---|
| **Abduraximova Maxbuba Dilshod qizi**, *HIKOYADA BADIIY TALQIN VA MAHORAT MASALASI (MOPASSAN VA U.HAMDAM HIKOYALARI MISOLIDA)* | **132** |
| **Abdusalamova Lobar Akbar qizi,** *CHINGIZ AYTMATOV ASARLARINING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASIDA ODORIZMLAR, KOLORISTIK VA FONOLOGIK BIRLIKLARNING IDROK ETILISHI VA QAYTA YARATILISHINING BA’ZI MASALALARI (“QIYOMAT” ROMANI MISOLIDA)* | **137** |
| **Aliyeva E’zoza Qahramon qizi**, *“JINOYAT VA JAZO” ASARIDA INSON FOJIASI* | **142** |
| **Avazova Charos Po‘lat qizi**, *“YUZINI YO‘QOTGAN ODAM” NOVELLASIDA SHAXS FOJIASI TALQINI* | **144** |
| **Askarova Lobar Shavkat qizi**, *O‘ZBEK VA RUS ADABIYOTIDA RAD ETILGAN AYOL OBRAZI (“O‘TKAN KUNLAR” VA “TELBA” ROMANLARI TALQINIDA* | **149** |
| **Asrorova Jasmina,** *“ALPOMISH” VA “BILGAMISH” DOSTONLARIDA O‘ZGA OLAM TIPOLOGIYASI* | **159** |
| **Berdiyeva Sabina Zayniddin qizi**, *O‘ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING MILLIY VA O‘ZIGA XOS IFODASI (AYRIM TERMINLAR MISOLIDA)* | **163** |
| **Farxodova Sevinch Feruz qizi**, *“TA’QIQ MEVASI” ASARI DETALI VA TADRIJI* | **176** |
| **Ikromov Akmal Ikrom o‘g‘li**, *“SHAMOL” FANTASTIK HIKOYASIDA FOLKLORNING O‘RNI* | **180** |
| **Medenova Aydana,** *ADABIY TA’LIM JARAYONIDA QIYOSIY TAHLIL METODIDAN FOYDALANISH* | **185** |
| **Nabiyeva Mohinur Alisher qizi**, *“ATIRGULNING TIKONI” HAMDA “EMILI UCHUN ATIRGUL” HIKOYALARIDA RAMZLAR POETIKASI* | **188** |
| **Qaxramonova Sabinabonu Dilshodovna**, *METAFORA SATHIDAGI HIKOYA* | **195** |
| **Qudratova Shohista Azamatovna**, *“NOVVOY QIZ” HIKOYASIDA VOQELIK VA BADIIY OBRAZ UYG‘UNLIGI* | **198** |
| **Safartosheva Shalola Aktam qizi**, *“QAYG‘USIZ ABDOL VA ALISHER NAVOIY IJODIDA TASAVVUF BILAN SUG‘ORILGAN SATRLAR (“VUJUDNOMA” VA “HAYRAT UL-ABROR” ASARLARI MISOLIDA)* | **202** |
| **Turg‘unboyeva Aziza Tursunboy qizi,** *CHARLZ DIKKENSNING “OLIVER TVISTNING BOSHIDAN KECHIRGANLARI” VA G‘.G‘ULOMNING “SHUM BOLA” SARGUZASHT ASARLARI QIYOSIY TAHLILI* | **206** |
| **To‘xtayeva Elnora**, *MIXAIL SHOLOXOV VA SHUKUR XOLMIRZAYEV: IJODIY KONSEPSIYADAGI MUSHTARAKLIK* | **210** |
| **Xayitova Shahlo**, *CHEXOV HIKOYALARIDA BADIIY TRAGIZM* | **214** |
| **Xurramova Sevinch Husan qizi,** *“SHOH EDIP” ASARIDA BASHORAT TIPOLOGIYASI* | **218** |
| **G‘ofurova Madinaxon Odiljon qizi,** *XX ASR NEOROMANTIK ADABIYOTDA AYOLLAR OBRAZI* | **221** |
| **Shakarboyeva Mashxura Bekzod qizi,** *HIKOYADA KEKSA ODAM OBRAZINING TIPOLOGIYASI (Shukur Xolmirzayevning “Qadimda bo‘lgan ekan”, Normurod Norqobilovning “Ayriliq quvonchi” va Jek Londonning “Hayot qonuni” hikoyalari misolida* | **226** |
| **Rajabova Lobar Shuhrat qizi,** *GABRIEL GARSIE MARKESNING “BUZRUKNING KUZI” ASARINING TAHLILI* | **231** |
| **Keldiyorova Farangiz Akbar qizi,** *TARJIMADA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR VA MUAMMOLAR TAHLILI* | **234** |

# IV BOB

## FOLKLORSHUNOSLIK VA DIALEKTOLOGIYA, AMALIY FILOLOGIYA VA KOMPYUTER LINGVISTIKASI MASALALARI


| | |
|---|---|
| **Ergashev Hamid O‘ktam o‘g‘li**, *O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA KOMPYUTER LINGVISTIKASINING O‘RNI* | **241** |
| **Qurbonova Roza Shamshidinovna**, *HOZIRGI ZAMON NASHRI. RAQAMLI NASHRIYOT FAOLIYATINI ZAMONAVIY USULDAGI CHET EL TAJRIBASINI TATBIQ ETIB TASHKIL ETISH MASALASI* | **244** |
| **Turdibekova Nigora O‘rol qizi**, *SAID AHMAD MUALLIFLIK KORPUSINING BIBLIOGRAFIK BAZASINI YARATISH TEXNOLOGIYASI* | **251** |
| **Qodirov Kamoliddin Qodirjon o‘g‘li**, *NUMPY KUTUBXONASI IMKONIYATLARI VA TILSHUNOSLIKDA QO‘LLANILISHI* | **258** |
| **Dexqonova Nilufar San’atjon qizi**, *"DEVONU LUG‘OTIT TURK ASARIDA QADIMGI INONCHLAR VA MIFOLOGIK TASAVVURLARGA OID SO‘ZLAR TAHLILI* | **262** |
| **Hakimjonova Dilrabo Nazirjon qizi**, *“DAM SHU DAMDIR, O‘ZGA DAMNI DAM DEMA” EPIK QOLIPI TAHLILI* | **266** |
| **Haydarova Ruhshona Dilshod qizi**, *MOTAM MAROSIMI AYTIMLARIDAN NAMUNALAR TAHLILI* | **270** |
| **Isroilova Gulshanoy Holdaralı qizi**, *ADABIY TILDAGI AYRIM LEKSEMALARNING SHEVALARDA ANGLATUVCHI MA’NOSI* | **275** |
| **Isomiddinova Nargiza Joziboy qizi,** *QORATUT SHEVASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI (SAMARQAND VILOYATI OQDARYO TUMANI)* | **278** |
| **Mardonova Fazilat Faxriddinovna**, *O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODIDA ILON OBRAZI* | **282** |
| **Murodova Shahzoda Dilshod qizi**, *“ALPOMISH” DOSTONIDA HOMIY OBRAZLAR* | **286** |
| **Rahmonova Dilso‘z Shukur qizi**, *SAMARQAND VILOYATI QIPCHOQ LAHJASINING O‘RGANILISH TARIXI* | **291** |
| **Rahimqulova Muhayyo Rahimqulovna**, MAQOL JANRI VA UNI DOSTONLARDA TUTGAN O‘RNI | **297** |
| **Rahimqulova Ohista Annaqul qizi**, *XALQ DOSTONLARIDA GO‘ZAL YOR TASVIRI VA TAHLILI* | **303** |
| **Toshtemirova Gavhar Quvvataliyevna**, *YAKKABOG‘ SHEVASIDA AN’ANAVIY LEKSIKADAGI SHEVAGA XOS SO‘ZLARNI O‘RGANISH* | **306** |

## V BOB

## O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI MUAMMOLARI


| | |
|---|---|
| **Abdullayeva Rufina Usman qizi**, *CHO‘LPON IJODIDA AYOL OBRAZI (“NOVVOY QIZ” HIKOYASII MISOLIDA)* | **314** |
| **Abovova Mohinur Hosil qizi,** *ROBIYA ADAVIYYA FAOLIYATIDA SHARIAT VA TARIQATNING O‘RNI* | **317** |
| **Akbarova Mushtariy Abdurashid qizi**, *ALISHER NAVOIY G‘AZALLARINING QOFIYA HARFLARI ISHTIROKIGA KO‘RA TURLARI* | **320** |
| **Raxmonova Durdona,** *NIKOLAS VALMSLEYNING ALISHER NAVOIY IJODIGA OID TADQIQOTLARI* | **323** |
| **Ergashev Avazbek**, *“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA VAFO VA SADOQAT TALQINI* | **329** |
| **Eshniyozova Matluba Ne‘mat qizi**, *TARIXIY ASARLARDA VA TAZKIRALARDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SIYMOSI* | **332** |
| **Fayzullayeva Muazzam Mustafo qizi**, *MASHRABNING AYRIM G‘AZALLARIDA FANO VA BAQO TALQINI MASALASI* | **337** |
| **Sulliyeva Gavhar Bahrom qizi**, *ALISHER NAVOIYNING «HAYRAT UL-ABROR» DOSTONIDAGI 10-MAQOLAT TAHLILI* | **347** |
| **Habibullayeva Sabina**, *“FUNUN UL-BALOG‘A” ASARIDA NAZARIY MA’LUMOTLARNING BERILISHI VA ASAR TILI MASALASI* | **352** |
| **Keldiyorova Xumora,** *“QISASI RABG`UZIY”DA JANNAT TASVIRI* | **358** |
| **Mahmudova Diana,** *ALISHER NAVOIY NA’T G‘AZALLARIDA TAMSIL SAN’ATI* | **362** |
| **Mansurova Shahnoza O‘tkir qizi,** *JOMIYNING “SALOMON VA ABSOL” DOSTONI HAQIDA* | **368** |
| **Mavlonova Aqida Mahmud qizi,** *BOBUR FARDLARINING QOFIYA TIZIMI* | **374** |
| **Miravlatova Nozima Elyor qizi,** *“SAB’AI SAYYOR”DA SA’D OBRAZI* | **377** |
| **O‘sarboyeva Ruxsora Rustam qizi,** *BAHROM GO‘R TIMSOLINING YARATILISHIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIIY TO‘QIMA (Alisher Navoiy ijodi misolida)* | **381** |
| **Oltinova Diyora Jahongir qizi,** *ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANING KO‘ZGA TASHLANGAN XUSUSIYATLARI* | **386** |
| **Axrorxo‘jayeva Parizoda,** *MAYSARANING MAKRI YOXUD MAZLUMLAR OHI HAQQA YETGANDA* | **388** |

| | |
|---|---|
| **Qo‘chqorova Gulnoza Ravshan qizi,** *YANOSH EKMANN MUMTOZ ADABIYOT TADQIQOTCHISI* | **392** |
| **Quchqorova Charos Ismoil qizi,** *“HAYRAT UL-ABROR”DA SHAKL VA MAZMUN TUSHUNCHALARI* | **397** |
| **Qurbonova Muxlisa Abdulla qizi,** *MUHSINIY LIRIKASIDA QOFIYAGA ASOSLANGAN BADIIY SAN’ATLAR O‘RNI* | **401** |
| **Rahimqulova Ohista Annaqul qizi,** *SHAYBONIYXONNİNG O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDAGİ O‘RNI* | **406** |
| **Raximova Chamangul Dilshod qizi**, *“MAORIF VA O‘QITG‘UVCHI” JURNALIDA XOTIN-QIZLAR MUAMMOLARINING BADIIY TALQINI* | **411** |
| **Raxmatova Karima Erkinovna,** *MASHRAB SHE’RIYATIDA MUSTAZOD JANRINING O‘RNI* | **417** |
| **Ro‘zimamatova Sevaraxon Ixtiyor qizi,** *“LISON UT-TAYR” DOSTONIDA HAZRATI ALI SIYMOSINING BADIIY TALQINI* | **421** |
| **Shaymardonova Shahribonu Odilqodir qizi,** *KOMRON MIRZO HAYOTI VA ADABIY MEROSI* | **424** |
| **Suyunboyeva Mohichehra To‘lqin qizi,** *ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODINING ANGLIYADA O‘RGANILISHI* | **430** |
| **Tolibjonova Maftuna Tohirjon qizi,** *BAYRAMXON VA BOBURIYLAR MUNOSABATI* | **433** |
| **Toshmamatov Qahramon Mahmadoliyevich,** *O‘ZBEK SHOIRI TURDI HAQIDA MULOHAZALAR* | **438** |
| **Toshpo‘latova Gulsevar Akbar qizi,** *“BADOYE UL-VASAT” DEVONIDA YOQUB VA YUSUF OBRAZLARINING BADIIY TALQINI XUSUSIDA* | **444** |
| **Tursunpulatova Gulinur Alisher qizi,** *NAVOIYNING NASRIY ASARLARIDA QO‘LLANILGAN SHE’RIY JANRLAR VA ULARNI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLAR* | **447** |
| **Usmonova Maftuna Valijon qizi,** *ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA “SHOH” VA “GADO” OBRAZLARI (“G‘AROYIB US-SIG‘AR” MISOLIDA)* | **451** |
| **Xaydarkulova Jasmina Sur’at qizi,** *AHMAD YASSAVIY HAYOTI VA IJODI MEHMET FUAT KO‘PRULU ILMIY NIGOHI OSTIDA (“TURK ADABIYOTIDA ILK MUTASAVVUFLAR” ASARI ASOSIDA)* | **455** |
| **Yo‘ldoshaliyeva Gulshanoy Dilmurod qizi,** *“CHIN SEVISH” DRAMASIDAGI XRONOTOPNING O‘ZIGA XOS JIHATI* | **464** |
| **Yusufjonova Gavharbonu Husanboy qizi,** *ALISHER NAVOIY IJODIDA MUQBIL VA MUDBIR OBRAZLARINING BADIIY TALQINI* | **468** |
| **Normahammadova Tursunoy Farxodjon qizi,** *ALISHER NAVOIY IJODIDA G‘OYAVIY O‘XSHASH HIKOYATLAR TALQINI* | **472** |
| **Oxunova Gulchehra Sobirjon qizi,** *NAVOIY IJODIDA GUMANIZM G‘OYALARI* | **476** |

## VI BOB

## ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTI


| | |
|---|---|
| **Abdiraimova Gulmira Xolmirza qizi,** *SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARINING MAVZU KO‘LAMI YOXUD ADIB ASARLARIDA KO‘TARILGAN IJTIMOIY RUH* | **483** |
| **Abdujalilova Gulmiraxon Odiljon qizi**, *BAHODIR QOBULNING “ENASHAMOL” QISSASIDA SYUJET MASALASI* | **488** |
| **Abdurahimova Shahzoda Murodjon qizi**, *“SADOQAT” QISSASIDA IT OBRAZI VA UNING ADABIY MA’RIFIY OMILLARI* | **491** |
| **Baratova Sarvinoz Sherbek qizi,** *MUHAMMAD RAHMON IJODI JANRLARI VA POETIK SHAKLLARI* | **495** |
| **Beshimova Mohinoz Erkin qizi,** *MODERNIZM ADABIYOTIDA O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘RNI (OMON MUXTOR “KO‘ZGU OLDIDAGI ODAM” ASARI ASOSIDA)* | **500** |
| **Ergasheva Muqaddas Alisher qizi,** *XURSHID DO‘STMUHAMMAD TARIXIY HIKOYALARIDA RUHIYAT TASVIRI* | **505** |
| **Fayzullayeva Sevinchxon Toxir qizi,** *O‘TKIR HOSHIMOV IJODIDA PEYZAJ VA PORTRET* | **512** |
| **G‘ofurova Dildora Ravshan qizi,** *ZAMONAVIY ADABIYOT HIKOYACHILIGIDA MILLIY RUH IFODASI* | **516** |
| **G‘oyibbekov Diyorbek Yusufbek o‘g‘li,** *AZIZBEK NOROVNING “AZAL VA ABAD YO‘LI” QISSASIDAGI OBRAZLAR TALQINI* | **522** |
| **Haydarova Mushtariy Abdumalik qizi**, *NAZAR ESHONQUL ASARLARIDA AYOL OBRAZI (SHAMOLNI TUTIB BO‘LMAYDI HIKOYASI ASOSIDA)* | **525** |
| **Kamilov Miraziz Murodulla o‘g‘li,** *BADIIY ASARDA OTA RUHIYATI (“UFQ” ROMANI IKROM OTA MISOLIDA)* | **529** |
| **Mamanova Dilnoza Uktamovna,** *“TANAZZUL” ROMANIDA OBRAZLAR TIZIMI* | **534** |
| **Mustafoyeva Muyassar O‘ktam qizi,** *FITRATNING FITRATI XURSHID DO‘STMUHAMMAD NASRIDA* | **539** |
| **Muxammadiyeva Marjona Shokirovna,** *O‘ZBEK ADABIYOTIDA AYOL RUHIYATINING O‘RGANILISHI* | **543** |
| **Muxtorova Sevinch G‘aybulla qizi,** *XOLIYOR SAFAROV HIKOYALARIDA ILM-MA’RIFAT MASALASI* | **548** |
| **Nosirov Jaloliddin Muhiddin o‘g‘li,** *MUMTOZ VA ZAMONAVIY ADABIYOT O‘RTASIDAGI “KO‘PRIK”. CHO‘LPON MISOLIDA* | **552** |
| **Nurmamatova Pokiza,** *RAUF PARFI SONETLARIDA IJTIMOIY RUH VA NOVATORLIK* | **557** |
| **Ollamova Kiyishjon Erkin qizi,** *MATNAZAR ABDULHAKIM SHE’RIYATIDA BAHOR OBRAZI* | **561** |
| **Quralbayeva Maftuna Qurambay qizi qizi**, *TOG‘AY MUROD ASARLARIDA BOLALAR FOJIASINING BADIIY TALQINI (“OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANI MISOLIDA)* | **567** |
| **Rahmataliyeva Feruzaxon Akmal qizi,** *XOKKU SHE’RIY JANRIDA INSON VA TABIAT TASVIRI* | **572** |
| **Rajapova Xulkaroy Atabek qizi,** *ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA KO‘CHIMLAR (MADINA NORCHAYEVA IJODI MISOLIDA)* | **576** |

| | |
|---|---|
| **Razzaqov Bekzod Botir o‘g‘li**, *SAID AHMADNING QORAKO‘Z “MAJNUN” HIKOYASIDA VAFODORLIK TIMSOLI* | **582** |
| **Safarova Hamrooy Qahramon qizi,** *ZULFIYA IJODINING YUKSALISHIDA HAMID OLIMJONNING O‘RNI* | **585** |
| **Sanaqulova Mohiniso Toyirjon qizi,** *SOBIR O‘NARNING “YIGITLARNING BIRI” NOMLI HIKOYASIDA BADIIY PSIXOLOGIZM VA ICHKI NUTQ UYG‘UNLIGI* | **589** |
| **Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi,** *BAG‘ISHLOV SHE’RLAR: RASSOM QISMATI SHOIR CHIZGISIDA* | **593** |
| **To‘raqulova Gulsevar Omon qizi,** *“OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANIDA YOZUVCHINING OBRAZ YARATISH MAHORATI* | **597** |
| **To‘ymurodova Sabrina Boboxonovna**, *JADID ADABIYOTIDA O‘ZBEK QIZI RUHIYATI (A.QODIRIY, CHO‘LPON VA HAMZANING ASARLARI ASOSIDA)* | **602** |
| **Turdiyeva Navruzgul Ro‘ziboy qizi,** *LUQMON BO‘RIXON HIKOYALARIDA PORTRET YARATISH MAHORATI* | **606** |
| **Xayriyeva Ma‘suma Fozil qizi,** *“ROBIYA BALXIY” QISSASINING HADDI A’LOSI VA FOJIAVIY BADIIY YECHIMI* | **618** |
| **Xodjiyeva Sevinch Odiljonovna,** *O‘ZBEK MITTI HIKOYALARI – DRABLLAR HAQIDA MULOHAZALAR* | **621** |
| **Yusubjonova Marhabo Ma’rufjon qizi,** *ABDULLA QODIRIYNING "O‘TGAN KUNLAR" ASARIDA AYOLLAR OBRAZI RUHIYATI IFODASI* | **625** |
| **Sayfiddinova Ziynat Abduzohidovna,** *MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA TASVIRIYLIK (QOBILJON SHERMATOV, ERKIN MALIK ASARLARI MISOLIDA)* | **631** |
| **Sheraliyeva Zarnigor Dilshod qizi,** *ABDUQAYUM YO‘LDOSH HIKOYALARINING SYUJET XUSUSIYATLARI* | **634** |
| **Abdumajitov Shermuxammad,** *O‘TKIR HOSHIMOVNING “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ROMANIDA FOJIAVIYLIK* | **643** |
| **Sobirjonova Irodaxon Sobirjonovna,** *SHOYIM BO‘TAYEVNING “ABRO‘K HIDI” HIKOYASIDA FOJIAVIYLIK TASVIRIDA KONTRAST USULI* | **646** |
| **Tojidinova Dildoraxon Shukurillo qizi,** *ERKIN VOHIDOV IJODIDA TABIAT TASVIRI: IJODINING DASTLABKI YILLARIDA YOZGAN SHE'RLARI MISOLIDA* | **650** |
| **Xolmurotova Gulinor Azmiddin qizi,** *O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA USTOZ OBRAZINING BADIIY TALQINI* | **655** |
| **Mamadaliyeva Muxlisaxon,** *BOLALAR DUNYOSIDA YASHAGAN SHOIR* | **664** |
| **Hamroyeva Sadoqat Nurali qizi**, *FAXRIYOR SHE’RLARIDA ISHQ TALQINI VA TASVIRI* | **667** |
| **Abdullayeva Sevinch O‘mirbek qizi,** *ANVAR OBIDJONNING “MO‘TTIVOYMISAN, MITTIVOYMISAN?” QISSASI BADIIY XUSUSIYATLARI* | **673** |
| **Xojiyeva Laylo Zokirjon qizi,** *“MOMO YER QO‘SHIG‘I” QISSASINING BADIIY TAHLILI* | **679** |
| **Bahriddinova Gulsanam Zavqiddin qizi,** *MIRTEMIR SHE'RLARIDA XALQONA PAFOS* | **681** |
| **Xaytaxmatova Dilnavoz Alijon qizi,** *SHAHODAT ULUG‘NING “XALOSKOR SULTON SAYFIDDIN QUTUZ” ASARIDAGI OBRAZLAR TAVSIFI* | **686** |


## VII BOB

## TIL VA ADABIYOT O‘QITISH METODIKASI


| | |
|---|---|
| **Allaqulova Gulchiroy Toshpo‘lat qizi**, *ZAMONAVIY METODLAR YORDAMIDA O‘QUVCHILARDA OG‘ZAKI NUTQNI FAOLLASHTIRISHNING PSIXILINGVISTIK XUSUSIYATLARI* | **692** |
| **Dustmurodova O‘g‘iloy Shaydulla qizi,** *O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA IJTIMOIY TARMOQLARNING O‘RNI* | **698** |
| **Fayzullayeva Shamsiqamar Yorqin qizi,** *ADABIYOT DARSLIGIDAGI MASALLARNI B.BLUM TAKSONOMIYASI ASOSIDA O‘QITISH* | **702** |
| **Fozilova Sevinch Ikrom qizi,** *NORMUROD NORQOBILOV “OQBO‘YIN” HIKOYASINI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI* | **708** |
| **Hamrayeva Shahlo Odil qizi,** *GERMANIYA TA’LIMIDA O‘QUV TOPSHIRIQLARI MAZMUNI* | **714** |
| **Ikromova O‘g‘iloy Raximjon qizi**, *HINDISTON TA’LIMIDA DARSLIKLARNING MAZMUNI* | **722** |
| **Keldiyorova Zarinabonu Sirojiddin qizi,** *BIRINCHI TIL(ONA TILI)NI O‘QITISHDA GRAMMATIK YONDASHUV MOHIYATI (5-SINF HAYDAROBOD DARSLIGI ASOSIDA* | **728** |
| **Mamasaidova Madina Abduraxmon qizi**, *IBORALARNI TIZIMLI O‘QITISH BO‘YICHA METODIK TAVSIYALAR* | **731** |
| **Mirzoboboyeva Asila Kamoliddin qizi,** *TURKIYA TA’LIMIDA O‘QUV TOPSHIRIQLARI MAZMUNI (7-SINF TURK TILI DARSLIGI MISOLIDA)* | **740** |
| **Ochilova Zilola Xabibjon qizi,** *TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASINING BAHOLASH SPESIFIKATSIYASINI YARATISH* | **752** |
| **Ro‘ziboyeva Aziza Bobirovna,** *MUHOKAMA MATNI YARATISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNI QO‘LLASH* | **757** |
| **Sattorova Zarina Shokir qizi,** *O‘QUVCHILARDA O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMASI ORQALI MANTIQIY FIKRLASHINI O‘STIRISH* | **761** |
| **Sobirxonova Ziyoda Temurxon qizi,** *TURK TILINI BIRINCHI TIL SIFATIDA O‘QITISH TAJRIBASI HAQIDA* | **764** |
| **Suyunova Negina Sherzod qizi,** *ONA TILI DARSLARIDA AUDIOMATNLAR BILAN ISHLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA OID QARASHLAR* | **770** |
| **Usmonova Yulduz Faxriddin qizi,** *HAMKORLIK TEXNOLOGIYASIGA OID MAVJUD HOLATNING O‘RGANILISHI* | **775** |
| **Xudoyshukurova Charos,** *BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ADABIYOT O‘QITISH METODIKASI FANINING O‘RNI* | **780** |
| **Ramazonova Gulhayo Xidirali qizi,** *YANGI DARSLIKLAR ASOSIDA DARS TASHKIL ETISHDA BILIM BERISH VA BILIMLARNI MUSTAHKAMLASHGA DOIR INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH* | **783** |
| **Adhamova Mohizoda Anvarbek qizi,** *INDIVIDUAL TA’LIMNING O‘QUVCHILAR ORASIDA AHAMIYATI* | **786** |

**“TIL VA ADABIYOT: ILMIY VA AMALIY IZLANISHLAR YO‘LIDAGI ILK ODIMLAR”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

**2024-yil 30-aprel**

UDK: 811.512.
133:821
(063)

**“Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar”** yosh filolog tadqiqotchilarning respublika ilmiy-amaliyanjumani materiallari – Toshkent: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2024